

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
A K A D E M I Y A

Sh. R. QOBILOV

IQTISODIYOT NAZARIYASI

*O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimidagi oliy ta’lim muassasalari
uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2013

Taqrizchilar:

iqtisod fanlari doktorlari, professorlar
H. Abulqosimov, T. T. Jo‘rayev, S. M. Zaynutdinov

Q-55 Qobilov Sh. R.

Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: O‘zbekiston
Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 711 b.

Ushbu darslikda iqtisodiyot nazariyasidagi yangi qarashlar, qonun-qoidalar, XXI asrda yangilanayotgan iqtisodiyot va undagi hodisalar mustaqillik yillarida ushbu fanni o‘qitish borasida to‘plangan tajribaga tayanib, yangicha talqin etilgan.

Mavzularda nazariya amaliyot bilan uyg‘unlikda, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlillari asosida bayon etilib, O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotida munosib o‘rin egallayotgani, iqtisodiy taraqqiyotning umumiy asoslari, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari, mikro va makroiqtisodiyot, globallashuv va jahon iqtisodiyotiga oid bilimlar, mustaqilligimizning iqtisodiy asoslarini izchil mustahkamlayotgan «O‘zbek modeli»ning mohiyati yoritilgan. Darslik tinglovchi va kursantlarda O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyot yo‘liga ishonchini mustahkamlab, jamiyatning iqtisodiy negizlarini ko‘z qorachig‘iday asrash tuyg‘usini shakllantirishga ko‘maklashadi.

O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimidagi oliy ta‘lim muassasalarining tinglovchi va kursantlariga mo‘ljallangan.

BBK 65ya73

SO‘ZBOSHI

Mamlakatimiz bundan yigirma bir yil oldin o‘z mustaqilligini e‘lon qilib, tarixiy taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Bu yillar davomida bosib o‘tgan murakkab, shu bilan birga, sharaflı yo‘limizga nazar tashlar ekanmiz, O‘zbekistonning o‘tgan davr mobaynida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish borasida erishgan marra va natijalarini xolisona baholash zarurati mavjud ekanini har bir sog‘lom fikrlaydigan inson chuqur anglaydi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Prezident Islom Karimov ko‘rsatib bergan jamiyatda aniq siyosiy va xo‘jalik strategiyasi, islohotlarning ishlay oladigan yaxlit dasturi zarur ekanligidan kelib chiqib, aynan shunday davlat dasturi ishlab chiqildi. Bu dastur taraqqiyotning «O‘zbek modeli» bo‘lib, ushbu modelning asosini mashhur beshta asosiy prinsip tashkil etdi: ***iqtisodning siyosatdan ustunligi; davlat bosh islohotchi ekanligi; qonun ustuvorligi; kuchli ijtimoiy siyosat; islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi.*** Ushbu asos bo‘luvchi prinsiplar, Prezidentning g‘oyalari va qoidalari O‘zbekiston taraqqiyoti va milliy mafkurasining tamal toshi ekanligini ayni zamonda ijtimoiy hayotning o‘zi isbotladi.

Darhaqiqat, samarali iqtisodiyot bizning nafaqat bugungi, balki ertangi hayotimiz, hozirgi va kelajakdagi farovonligimizdir.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning ***bash qoidasi*** markazdan turib rejalashtirishga asoslangan, ma‘muriy-buyruqbozlik usulidagi taqsimlash tizimidan, totalitarizmdan, ya‘ni bizga mo‘rt, zaif, biryoqlama rivojlangan paxta yakkahokimligi va boy mineral xom ashyo resurslaridan nazoratsiz foydalanish asosiga qurilgan siyqa iqtisodiyotdan mustaqillikka, harakatchan bozor iqtisodiyotiga o‘tishga, yangi milliy sivilizatsiyani shakllantirishga yo‘l ochdi. Prezident Islom Karimov rahbarligida mamlakatimiz o‘zining eski munosabatlaridan bosqichma-bosqich qutula boshladi.

Ijtimoiy taraqqiyot shakli sifatida liberallashtirish o‘zining bir qator muhim tarkibiy qismlari bo‘lishini talab etadi. Liberallashtirish mamlakat taraqqiyotining sifat jihatdan yangi bosqichidir. Mamlakatimizning muayyan sharoitlaridan kelib chiqib, bunday tarkibiy qismlar sirasiga siyosiy, iqtisodiy hamda davlat va jamiyat qurilishi sohalarini

erkinlashtirish kiritilgan. Bunda jamiyatni erkinlashtirishning faqat strategik ustuvor yoʻnalishlari nazariy jihatdan belgilanib qolmasdan, balki uning xususiy mulkni rivojlantirish va shu asosda mulkdorlar sinfini, real raqobatchilik muhitini shakllantirish kabi asosiy tarkibiy qismlari ham belgilab berilgan. Ayni paytda bozor infratuzilmasini rivojlantirish, moliya va bank tizimining faoliyat koʻrsatishini takomillashtirish, butun tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil qilish tizimini tubdan qayta koʻrib chiqish, valuta bozorini erkinlashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish boʻyicha ragʻbatlantirishlarni mustahkamlash, kafolatlar va imtiyozlar doirasini kengaytirish, faol investitsiya faoliyati uchun qulay muhitni shakllantirish, har xil tekshiruvchi va nazorat qiluvchi organlarning korxonalarining xoʻjalik faoliyatlariga asossiz aralashuvlarini cheklash, bankrotlik institutining rolini oshirish, xoʻjalik sudlari faoliyatini faollashtirish ham nazarda tutilgan edi. Iqtisodiy islohotlarning voqeliklari va liberallashtirishning yangi vazifalaridan kelib chiqib, eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, milliy iqtisodiyotning jahon xoʻjalik tizimiga faol kirishini taʼminlash bilan bogʻliq vazifalar aynan Prezident Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan boʻlib, bugungi murakkab davrda, garchand hozir ham jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi davom etayotganiga qaramay, Oʻzbekistonda uning yengil kechishi uchun asosiy omil boʻlib xizmat qilmoqda.

Mustaqillikka qadar, yaʼni 1989–1991-yillardayoq davlatimiz rahbari koʻp narsa kichik biznesni rivojlantirish ustuvorligi bilan bogʻliq ekanligiga eʼtibor qaratgani, bu faqat yalpi ichki mahsulotni shakllantirishning asosiy boʻgʻini boʻlibgina qolmay, balki bandlik va aholi daromadlari manbai, xalq farovonligini taʼminlashning muhim omili ham boʻlishi kerakligi va ushbu ustuvor yoʻnalishlar ichida oʻzak vazifa etib belgilanganligini eslash oʻrinlidir.

Prezident Islom Karimovning nazariy qarashlari tizimida oʻziga xos makroiqtisodiy va jipslashtiruvchi xususiyatga ega funksiyalarni bergan holda, davlatni asta-sekin bozor munosabatlarining liberal subyektiga aylantirish bilan bogʻliq muammo muhim oʻrin tutadi. Bunda *jipslashtirishning asosiy yoʻnalishi umummilliy manfaatlar va nodavlat sektordagi tadbirkorlik manfaatlarining organik integratsiyasi jarayonidir*. Jipslashtirishning bu funksiyasi, ayniqsa, jahon iqtisodiyotining globallasuvi sharoitida juda muhimligini davlatimiz rahbari oʻzining tarixiy ahamiyatga ega «Oʻzbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarida bayon etib bergan.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega demokratik dunyoviy davlat qurish, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi oldida turgan maqsadlardan kelib chiqib, Prezident Islom Karimov mamlakatning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi qonuniyatini avvaldanoq yaqqol tasavvur qilgan davlat rahbaridir. Bu esa o'zbek modelining globalashuv jarayonlariga samarali moslashishi va o'z taraqqiyotida yangi turtki olishga imkon yaratdi. Chunki iqtisodiyotdagi tub islohotlar O'zbekistonda jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta'sirini bartaraf etish asosini tashkil etadi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimovning mustaqillikning 20 yilligi arafasida chop etilgan «*O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida*» kitobida yuqorida qayd etilgan masalalar batafsil yoritilib, unda: «Markazlashtirilgan rejalashtirish va taqsimlash mexanizmi asosida faoliyat ko'rsatgan butun sovet tizimiga xos bo'lgan illatlar bilan bir qatorda, respublikamiz iqtisodiyotining bir yoqlama rivojlanib, faqat xom ashyo yetkazib berishga yo'naltirilgani, iqtisodiyot, ekologiya va aholi genofondiga halokatli ta'sir ko'rsatgan to'la va mutlaq paxta yakkahokimligi yurtimizdagi vaziyatni jar yoqasiga olib kelib qo'ygan edi. Buning oqibatida ulkan tabiiy, mineral xom ashyo, mehnat va inson salohiyatiga ega bo'lishiga qaramasdan, respublikamiz sobiq SSSRda aholi turmush darajasi, ijtimoiy va gumanitar sohalar rivoji bo'yicha oxirgi o'rinlardan birida turar edi. SSSR parchalanib ketganidan keyin vujudga kelgan sharoitda iqtisodiyotning fojiali ravishda inqirozga yuz tutishi, inflyasiyaning o'ta keskin o'sishini jilovlash, ilgari qaror topgan xo'jalik, ishlab chiqarish va moliyaviy aloqalarning butunlay izdan chiqib ketishi oqibatlariga barham berish, ishsizlikning yanada avj olishiga yo'l qo'ymaslik favqulodda muhim ahamiyat kasb etganligi» haqida ma'lumotlar olish mumkin.

O'zbekiston xalqi o'z rahbari Islom Karimov rahnamoligida mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab o'z umrini o'tab bo'lgan eski mustabid sovet tizimidan voz kechib, jahon tajribasini har tomonlama puxta o'rganish, umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglash, milliy urfodat va an'analarimizni asrab-avaylash va yanada mustahkamlash asosida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etishga azmu qaror qildik. Yuqoridagi omillar mamlakatimiz iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash poydevori vazifasini bajarmoqda.

Ushbu darslikda iqtisodiyotga oid nazariy xulosalarni ijtimoiy hayot bilan bog'lashga harakat qilindi. Prezident Islom Karimov asarlarida

bayon etilgan ilmiy qoidalarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar amaliyoti bilan bog‘lashga katta ahamiyat berildi. Unda XXI asr iqtisodiyotidagi jiddiy o‘zgarishlar inobatga olindi. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan yoshlarimiz jadal yangilanayotgan iqtisodiyot sharoitida yashashi va ishlashi uchun, Prezident ta’biri aytganda, «*bugungi tez o‘zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o‘zgarishlarga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashash zarurligi*», ularga moslasha borishlari kerak bo‘ladi. Buning uchun «Iqtisodiyot nazariyasi» beradigan fundamental bilimlarni egallab olishga to‘g‘ri keladiki, bu haqda davlatimiz rahbari Islom Karimov mustaqillikning ilk yillarida «*Prezidentdan to oddiy fuqarogacha, yoshi va vazifasidan qat’i nazar – hammani bugungi zamon talablariga, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalariga o‘rgatish*» muhim vazifa ekanligini alohida ta’kidlagan. Shu bois «Iqtisodiyot nazariyasi» fani tinglovchilarning iqtisodiyotning rivojlanishi va mazmuni, jamiyatda ro‘y berayotgan iqtisodiy jarayonlar mohiyatini tushunib yetishi, iqtisodiyotning sir-asrorlarini idrok etishi, O‘zbekiston va jahon mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyotining o‘ziga xos jihatlari, mohiyati, rivojlanish bosqichlari haqidagi bilimlarini shakllantirishda yaqindan yordam beradi.

Mazkur darslikka asos qilib olingan yana bir prinsip – nazariy bilimlarni tushunarli uslubda yetkazish, ya’ni mavzuga oid ayrim xulosalar, iqtisodiyot nazariyasi fanining asosiy tushunchalari, tafsilotini yoritishdan iborat bo‘ladi. Shu bois unda ilmiy qoida va xulosalarning bayoniga asosiy e’tibor qaratildi, keltirilgan raqamlarda O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot yo‘liga bo‘lgan ishonchi, fuqarolarimiz qat’iyati, tashabbuskorligi, bunyodkorlik, yaratuvchanlik g‘oyasi bilan yashayotganligi va albatta, o‘z kelajagini yanada farovon etishga intilishi ifodalangan. Bu raqamlar, eng avvalo, odamlarimiz ongidagi o‘zgarishlar mahsuli sifatida mamlakatimizda ro‘y berayotgan izchil iqtisodiy o‘sishni aks ettirib, fuqarolarimizning mehnatga, jamiyatning iqtisodiy negizi bo‘lgan mulkka bo‘lgan munosabatining mahsuli ekanligini, joylarda, nihoyat, taraqqiyotni belgilovchi kuch – tadbirkor va fermerlarga mustaqillikning dastlabki yillaridagidek «o‘gay ko‘z» bilan emas, balki xususiy mulkka iqtisodiyotning hal etuvchi tayanchi sifatida munosabatda bo‘linayotgani mahsuli ekanligi dalolatidir.

Hozirgi vaqtda jamiyatimizda iqtisodiyot olamini bilishga intilish kuchaydi, ammo uni faqat iqtisodiy qiyinchilik bilan izohlash noto‘g‘ri bo‘ladi. Gap shundaki, bugungi kunga kelib, mamlakatimizda kichik

biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari hamda unga e'tibor yanada ortib bormoqda. Tadbirkor bo'lib yaxshi daromad topish uchun ishning ko'zini, iqtisodiy faoliyatning barcha sir-asrorlarini va nozik tomonlarini chuqur bilishga intilish kuchaydi. Shuningdek, iqtisodiyot nazariyasini bilish nafaqat amaliy faoliyat uchun, balki iqtisodiy ish bilan shug'ullanmaydigan kishilar uchun ham kerakligini hozirgi kunda dunyoda davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi kun tartibiga olib chiqdi, chunki ular hech bo'lmaganda iste'molchi (xaridor) bo'lib maydonga chiqadilar, pul topadilar, uni sarflaydilar, oila budjetini yuritadilar. Umuman olganda, iqtisodiy munosabatlarga kirishmay yashaydigan inson bo'lmaydi.

Mazkur darslik iqtisodiyot nazariyasini mustaqil o'rganish talablaridan kelib chiqqan holda, o'quvchilarda yangicha iqtisodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish zaruratini ham hisobga oladi. Unda tinglovchilarning mustaqil bilim olishlari, yozma ishlar tayyorlashlari inobatga olinib, bir qator ma'lumotlar kengroq yoritildi.

Ma'lumki, Davlat ta'lim standartlari doirasida bir qancha darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar kurslari amal qilishi mumkin. Shu bois, biz ushbu darslikni muqobil darslik sifatida tayyorlashni lozim topdik. Mazkur darslikni tayyorlashda yetakchi olimlar tomonidan mustaqillik yillarida yaratilgan darsliklar, ayniqsa, 2006-yilda hammualliflikda chop etilgan «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligidan foydalanildi. Muallif uni tayyorlashda ko'rsatgan beg'araz yordamlari uchun professorlar A. O'lmasov va A. V. Vahobovga samimiy minnatdorchiligini bildiradi.

Darslikning «Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning roli» nomli 18-mavzusi iqtisod fanlari nomzodi S. Ye. Yernazarov bilan hammualliflikda yozildi.

Darslik o'quv dasturi (2011-y.) asosida tayyorlangan. Muallif darslik to'g'risida bildirilgan barcha fikr-mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qiladi va keyingi ishlarida ularni inobatga oladi.

1-BO‘LIM. JAMIYAT IQTISODIY TARAQQIYOTINING UMUMIY ASOSLARI

1-MAVZU. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

1. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va metodi

Iqtisodiyot nazariyasi – umumiqtisodiy fan, uning predmeti kishilar iqtisodiy xatti-harakatining shart-sharoiti va qonun-qoidalaridir. Mazkur fanning metodologik tamoyillari iqtisodiyotni tizim sifatida o‘rganish, unga noiqtisodiy omillar va tabiiy shart-sharoit, texnologik o‘zgarishlar ta’sirini nazarda tutish, iqtisodiyotni statistikada emas, balki dinamikada o‘rganishdir.

Ushbu fanda iqtisodiy hodisalarni kuzatish, abstraksiyalash orqali nazariy xulosa chiqarish, nazariy modellar yaratish, pozitiv va normativ usullarni qo‘llash, miqdoriy va sifatli tahlilni birlashtirish, oddiy hodisalardan murakkab hodisalarni o‘rganishga o‘tish, iqtisodiyotni uning turli darajalarida o‘rganish kabi usullar qo‘llaniladi. Bu fan o‘z predmetini o‘rganishda shunday qonun va kategoriyalarni qo‘llaydiki, ular umumiqtisodiy va ayrim tizimlarga xos bo‘ladi. Fanning funksiyalari iqtisodiy hodisalarni idrok etish, kishilarga iqtisodiy bilim berish, boshqa iqtisodiy fanlarga nazariy asos bo‘lish, shuningdek, iqtisodiy siyosatga oid amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Iqtisodiyot nazariyasi fani predmetiga oid qarashlar (ta’riflar) quyidagicha:

- iqtisodiyot nazariyasi – boylik to‘g‘risidagi fan;
- iqtisodiyot nazariyasi – jamiyatda yuz beradigan iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va ularning qonun-qoidalarini o‘rgatuvchi fan;
- iqtisodiyot nazariyasi – kishilar tomonidan har-xil tovarlarni (bug‘doy, mol go‘shti, palto va h.k.) ishlab chiqarish maqsadida noyob va cheklangan unumli resurslardan (yer, ishlab chiqarishga mo‘ljallangan tovarlar, mehnat, mashinalar) foydalanish to‘g‘risidagi fan;
- iqtisodiyot nazariyasi – ayirboshlash, pulli bitimlar bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat turlari haqidagi fan;

□ iqtisodiyot nazariyasi – ishlab chiqarish insonning iste'mol borasida o'z vazifalarini qanday bajarayotganligi to'g'risidagi fan;

□ iqtisodiyot nazariyasi – kishilarning kundalik ishbilarmonlik faoliyati, tirikchilik manbai, o'z mablag'idan foydalanishi to'g'risidagi fan va h.k.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari quyidagicha:

□ iqtisodning sir-asrorlarini o'rganish, ularni ommaga yetkazib, iqtisodiy bilim saviyasini oshirish;

□ boshqa iqtisodiy fanlarga ilmiy-uslubiy asos bo'lib xizmat qilish. Boshqa fanlar iqtisodiy nazariya asoslab bergan kategoriya va qonunlarga tayangan holda o'z predmetini o'rganadi. Ayni vaqtda nazariya boshqa fanlar xulosalariga asoslanib iqtisodiy hodisalarni umumlashtiradi;

□ amaliy tavsiyalar berish. Bu tavsiyalar umumiqtisodiy siyosatga tegishli bo'ladi. Ular iqtisodiy o'sishni va uning samaradorligini oshirish, aholini to'la ish bilan ta'minlash va uning farovonligini oshirish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va inflatsiyani bartaraf etish, iqtisodiy integratsiyalash va tashqi aloqalarni kengaytirish kabi umumiy ahamiyatga ega tavsiyalardir.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining uslublari:

□ umumiylik va xususiylikning birligi;

□ ilmiy abstraksiya;

□ tarixiylik va mantiqiylikning birligi;

□ nazariyani ijtimoiy amaliyot bilan bog'lash;

□ induksiya va deduksiya;

□ analiz va sintez;

□ miqdor va sifat tahlilining yaxlitligi.

Iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasi – jamiyat ehtiyojlarining cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligidir.

Iqtisodiyot – turli-tuman iqtisodiy faoliyatlarni, ishlab chiqarishning muayyan usulini hamda infratuzilmaviy muassasalarini yaxlit qilib birlashtiruvchi iqtisodiy tizim.

Iqtisodiy faoliyat – insonlarning moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish, iste'molchiga yetkazib berish hamda xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan, bir-biriga bog'liqlikda amalga oshiriladigan faoliyatlari.

Iqtisodiyotning asosiy muammosi – bu iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qanday qilib to'laroq qondirib borish mumkinligi to'g'risidagi masaladir.

Iqtisodiyotning asosiy muammosini hal qilish yo‘llari:

- iqtisodiy resurslar miqdorini ko‘paytirish;
- resurslar unumdorligini oshirish;
- resurslardan foydalanishning turli muqobil variantlaridan eng samaralisini tanlash;
- resurslarni samarali uyg‘unlashtirish;
- jamiyat ehtiyojlarini cheklash.

2. Iqtisodiyot nazariyasi fanining metodologiyasi

Metodologiyaning falsafiy lug‘atlardagi birinchi talqiniga ko‘ra, u biron-bir fanda qo‘llaniladigan tadqiqot metod (usul)larining majmui, ikkinchi ma‘nosi esa, ilmiy bilish va dunyoni o‘zgartirish metodi haqidagi ta‘limotdir.

Bunday fikr boshqa ko‘plab adabiyotlarda ham uchraydi, ammo metodologiyani metodlarning oddiy yig‘indisi, deb talqin etish uning tub mohiyatini anglash imkonini bermaydi. Shuningdek, fan metodologiyasini umumfalsafiy (universal), umumiy va xususiy ilmiy metodlarning yig‘indisi, deb hisoblash ham masalaga yuzaki yondashuvni anglatadi. Ayni vaqtda, fan metodologiyasi bilan fanning metodologik funksiyasi o‘rtasida farq borligini ham yodda tutish lozim. Ba‘zi olimlar «metodologiya» tushunchasida voqelikni o‘rganishning xususiy yo‘llari va metodlarini birlashtirishga urinadilar. Yana boshqa guruh olimlar metodologiya deganda, voqea va hodisalarni bilishning falsafiy jihatlarini anglaydilar. Uchinchi guruh mualliflar metodologiyani dialektika bilan aynan bir, deydilar. To‘rtinchi toifa tadqiqotchilar metodologiyani falsafaga daxli bo‘lmagan alohida fan yo‘nalishi, beshinchi guruh mutaxassislar esa, metodologiya metod emas, balki u haqidagi ta‘limot, nazariya, fan, deb ta‘kidlaydilar. Metodologiyaning alohida fan deb tan olinishiga ba‘zi olimlar qarshi chiqadilar¹. Fikrimizcha, metodologiya fan emas, fanning nazariy asosi, ilmiy bilishning poydevoridir.

«Falsafiy ensiklopedik lug‘at»da ta‘kidlanishicha, metodologiya – nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish, qurish prinsiplari, usullari tizimi, shuningdek, bu tizim haqidagi ta‘limotdir. Professor N.Shermuhammedova ham shu yondashuvga asoslanib, «metodologiya – bilish faoliyati yo‘llari haqidagi ta‘limot», – deb yozadi.

¹ Қаранг: Керимов Д. А. Философские основания политико-правовых исследований. – М., 1986. – С. 29.

Metodologiya – bu fan predmetini o‘rganishga qanday ilmiy tamoyillar asosida yondashishni bildiradi. Iqtisodiyot nazariyasida kishilarning xo‘jalik faoliyati tizimiy yondashuv asosida o‘rganiladi. Bunda yaxlit iqtisodiyot turli bloklarga – qismlarga ajratilib, har biri alohida o‘rganiladi, ulardan har biriga xos bo‘lgan xususiyatlar aniqlanadi. Masalan, yaxlit bozor resurslar bozori, iste‘mol tovarlari bozori va moliya bozorlariga ajratilib o‘rganiladi. Ajratilgan bloklar tahlil etilgach, ular faoliyatining shart-sharoiti va belgilari, ular qanday funksiyani bajarishi aniqlanadi. Iqtisodiyotning turli jihatlari tahlilidan so‘ng ular birgalikda qaraladi, turli bloklar majmuidan iborat iqtisodiyot yaxlitlikda nima ekanligi, u qanday rivojlanishi ko‘rsatiladi. Yana bozor misoliga qaytsak, uning har bir blokining funksiyalari o‘rganilgach, ular birgalikda yagona bozor sifatida qaraladi va bozorning umumiy funksiyalari ta‘riflanadi.

Iqtisodiyot nazariyasida qo‘llanadigan yana bir metodologik yondashuv bu iqtisodiyotni sof emas, boshqa, ya‘ni g‘ayriiqtisodiy omillar ta‘sirini hisobga olgan holda o‘rganishdir. Iqtisodiyot birlamchi bo‘lgani holda siyosiy, ijtimoiy, milliy demografik va hatto ruhiy-axloqiy omillar ta‘siriga beriladi. Boshqa sohalardagi o‘zgarishlar iqtisodiyotda ham o‘z aksini topadi. Jamiyatda tartibsizlik, siyosiy beqarorlik yuzaga kelsa, bu iqtisodiyotning rivojiga putur yetkazadi, chunki kishilar vahimaga tushib ishdan soviy boshlaydilar. Milliy nizolar ham shunday salbiy oqibatga olib keladi. Kishilarda ruhiy ko‘tarinkilik bo‘lsa, ular iqtisodiy faol bo‘ladilar. Aksincha, ruhiy tushkunlik ularda befarqlikni hosil etib, faollikni so‘ndiradi.

Iqtisodiyot nazariyasining yana bir metodologik tamoyili – bu iqtisodiyot va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni hisobga olishdir. Iqtisodiyot tabiatdan tashqarida bo‘lishi mutlaqo mumkin emas, chunki bu uning moddiy tayanchidir. Tabiatdan olingan resurslardan foydalanmay turib, ishlab chiqarishning bo‘lishi mumkin emas. Tabiiy sharoit ishlab chiqarishning qanday bo‘lishini belgilab beradi. Qazilma boylik qayerda ko‘p bo‘lsa, shu yerda undirma sanoat, yer yaxshi joyda dehqonchilik, yaylovlar ko‘p joyda chorvachilik, o‘rmonzor ko‘p yerda yog‘ochni ishlash sanoati, suvga yaqin joyda kemasozlikning rivojlanishi bunga misol.

Iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiyotning tabiatga qayta ta‘siri ham hisobga olinadi. Tartibsiz iqtisodiy faoliyat tabiatga putur yetkazadi, undagi ekologik muvozanatni buzadi, ekologik xatarni yuzaga keltirishi

mumkin, bu bilan iqtisodiyotning tabiiy tayanchi darz ketadi. Mana shu muammo ham nazariyada uning predmeti nuqtai nazaridan tahlil etiladi.

Iqtisodiyot nazariyasining yana bir metodologik tamal toshi – bu iqtisodiyotni statikada (turib qolgan holatda) emas, balki dinamikaga (rivojlanishga) asoslanib o‘rganishdir. Bu bilan iqtisodiy hodisalarning kelib chiqish sabablari, undagi o‘zgarishlar qanday borishi bilib olinadi. Iqtisodiyotning rivojlanishiga xos bo‘lgan tendensiyalar (moyillik) aniqlanadi. Bular nimaga olib kelishi va shunga ko‘ra xo‘jalik faoliyatini kelajakda qanday tashkil etish kerakligi aniqlanadi.

Mazkur fan iqtisodiyotga xos qonun-qoidalarining obyektiv bo‘lishidan, kishilar ularni o‘z bilganicha bekor qila olmasligidan, lekin ularni anglab yetgan holda ular talabiga moslashib faoliyat ko‘rsata olishlaridan kelib chiqadi.

Nazariyadagi boshqa bir metodologik tamoyil bu iqtisodiyotni texnologik o‘zgarishlarni hisobga olib o‘rganishdir. Texnologiyaning o‘zi iqtisodiyot nazariyasining predmeti emas, shu bois uni texnikaviy fanlar o‘rganadi. Ammo texnologiya iqtisodiyotning moddiy asosi bo‘lganidan, undagi jiddiy o‘zgarishlar iqtisodiy faoliyatni tubdan yangilab yuboradi. Mana shu narsani nazariya e‘tibordan qochirmaydi. Masalan, nazariyada «Katta sikllar – katta to‘lqinlar» degan tushunchalar borki, bular texnologiyadagi katta burilishning iqtisodiyotga ta‘sirini nazarda tutadi. Mutlaqo yangi texnologiya paydo bo‘lishi bilan iqtisodiyot rivojida yangi davr – katta sikl boshlanadi, bu odatda 50–60 yil davom etadi. Mana shularni nazariya tahlil etadi.

Tahlil uslublari. Iqtisodiyot nazariyasi predmetini o‘rganishda idrok etishning ikki bosqichi qo‘llaniladi.

Birinchi bosqich kuzatish bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda iqtisodiyotga oid ma‘lumotlar to‘planadi, ular boshqa noiqtisodiy ma‘lumotlardan ajratib olinadi. Ularga dastlabki tarzda umumiy baho beriladi va hali sinab ko‘rilmagan xulosa – gipoteza olg‘a suriladi.

Ikkinchi bosqichda gipotezalar boshqa ma‘lumotlarni o‘rgangan holda sinab ko‘riladi, ular tasdiqlansa, qabul qilinadi, ular asosida nazariy qonun-qoidalar ta‘riflanadi,

Nazariy xulosa amaliyot bilan solishtirib ko‘riladi. Agar real iqtisodiy hayot nazariy qoidani doimo tasdiqlab tursa, demak, u to‘g‘ri bo‘lib chiqadi. Agar aytilgan hodisa qisman tasdiqlansa yoki tasdiqlanmasa, ta‘riflangan qoidani qaytadan ko‘rish, zarur bo‘lsa, to‘ldirish yoxud undan tamomila voz kechish kerak bo‘ladi.

Iqtisodiyot nazariyasi tabiiy fanlardan farqliroq o'z xulosalarini laboratoriyadagi tajriba yoki tabiatdagi sinovlar yordamida tekshirib ko'ra olmaydi. Agar nazariyada iqtisodiy beqarorlik bo'ladi, uning belgilari ishlab chiqarishning pasayishi, ishsizlik va inflatsiya deb qaralsa, uni tasdiqlash uchun tajriba yoki sinov o'tkazib bo'lmaydi. Bularni faqat kuzatish, ular haqida ma'lumot to'plash va bu ma'lumotni nazariy umumlashtirish mumkin, xolos.

Nazariyada, tasodifiy yoki juz'iy emas, balki doimo takrorlanib turadigan iqtisodiy hodisalarni anglash uchun abstraksiyalash usuli qo'llaniladi. Bu usul nazariya uchun asosiy hisoblanadi. Bu usul yordamida iqtisodiy hodisalar ularga ta'sir etuvchi o'tkinchi va ikkinchi darajali omillardan xoli etib olinadi, ularga nazariy baho beriladi. Abstraksiyalashda taxmin usuli qo'llanadi, ya'ni ma'lum shart-sharoit bo'lganda nima yuz berishi taxmin etiladi. Masalan, narxning talabga ta'sirini bilish uchun talabga ta'sir etuvchi boshqa omillar o'zgarmay turibdi deb taxmin qilinadi. Shunday sharoitda narx va talabning o'zgarishi qanday bo'lishi aniqlanadi. Boshqa bir misol: texnologiyaning mehnat unumdorligiga ta'siri aniqlanganda narx-navo ishchilarning malakasi, ishlab chiqarishning tabiiy sharoiti, tovarlarning sotilib turishi o'zgarmaydi deb taxmin qilinadi. Ammo bunday taxmin qilish amalda bor narsalarni vaqtincha nazardan kechirib turishni bildiradi. Hayotda uchramaydigan fantastik hodisalarni, masalan, boshqa planetalardan odamsimon jonzoqlar keldi yoki kelmadi, deb hech qachon taxmin qilinmaydi.

Abstraksiyalash asosida mantiqiy usul yotadi, bunda mantiq yordamida iqtisodiy hodisalarning o'zaro bog'lanishi, ularning umumiyliigi va farqlari, kelib chiqish sabablari va oqibatlari aniqlanib olinadi.

Abstraksiyalash – bu iqtisodiyotning nazariy modelini yaratishdir. Lekin model real iqtisodiy voqelikni aks ettirgandagina ilmiy bo'ladi. *Model aslida iqtisodiy voqelikning nazariy ifodasidir.*

Murakkab iqtisodiy hodisalarni dastlab tahlil etish va so'ngra tushuntirib berish uchun sodda yoki murakkab iqtisodiy modellar qo'llaniladi. Sodda modelga misol tariqasida iqtisodiy sirkulatsiya (oborot) modelini olish mumkin. Bu modelda iqtisodiyot ishtirokchilari faqat firmalar va xonadonlardan iborat, ular boshqalar bilan aloqa qilmaydi, ular bor tovarini va pulini bozorga tashlaydi, deb taxmin qilinadi. Shu modelga binoan iqtisodiyotning asosiy ishtirokchilari o'rtasidagi aloqalar tahlil qilinadi, bu aloqalar bir-biriga tovar va

xizmatlar yetkazib berishdan iborat va shunga mos ravishda ular o'rtasida pulning oldi-berdisi yuz berishi haqida xulosa chiqariladi. Murakkab modellar tuzilganda ko'pchilik subyektlar o'rtasidagi va ko'p turdagi iqtisodiy aloqalar olinib, ular matematik hisob-kitoblar asosida ko'rib chiqiladi, bunda aloqalarning miqdoriy tahlili o'tkaziladi.

Iqtisodiyot nazariyasi o'z predmetini tahlil etganda pozitiv va normativ usullarni qo'llaydi. **Pozitiv usul** – bu iqtisodiy voqelikni nazariy jihatdan qandayligini tushuntirib berish, ya'ni uni ilmiy talqin etish. **Normativ usul** – bu iqtisodiy voqelikning amalda qanday bo'lishi kerakligini va buning uchun nima qilish zarurligi xususida tavsiya berishdir. Masalan, pozitiv usulda stipendiya mohiyatan nimaligi tushuntiriladi, ya'ni uni yoshlarga ular o'qigan paytida beriladigan yordam deb talqin etilsa, normativ usulda uni qachon va qanchaga oshirish zarurligi asoslanadi. Pozitiv usul nazariy talqinni bildirsa, normativ usul amaliyotda nima bo'lishini bildiradi.

Nazariyada tahlilning induktiv va deduktiv usullari ham ishlatiladi. Induktiv usul qo'llanilganda hodisalarni kuzatishdan ularni umumlashtirishga o'tilib, umumiy xulosalar chiqariladi. Deduktiv usul qo'llanilganda esa shakllangan nazariy xulosalar asosida iqtisodiyotdagi ayrim hodisalar tahlil etiladi. Bu bilan aytilgan qoidalar naqadar haqqoniy ekanligi sinab ko'riladi.

Nazariyada oddiy hodisalar tahlilidan murakkab hodisalar tahliliga o'tish ham qo'llaniladi. Masalan, dastlab individual talab, so'ngra ayri bozor talabi va nihoyat jamiyatdagi yalpi talab tahlili o'tkaziladi. Yana bir usul – bu hodisalarni turli darajada olib o'rganishdir.

Nazariyada iqtisodiyotning qonun-qoidalarini uch xil darajada o'rganiladi:

mikrodarajada – bunda xonadonlar va firmalarning iqtisodiy xatti-harakati, ayrim bozordagi o'zgarishlar o'rganiladi;

makrodarajada – bunda butun iqtisodiyotdagi, aniqrog'i milliy iqtisodiyot darajasidagi, milliy bozordagi hodisalar va jarayonlar o'rganiladi;

metadarajada – xalqaro global miqyosdagi, jahon xo'jaligidagi yuz beradigan jarayonlar, ularga xos bo'lgan qoidalar o'rganiladi.

Har uchala daraja o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqiladi, chunki mikrodarajadagi iqtisodiy faoliyat yaxlitlikda makrodarajani, turli mamlakatlardagi makrodarajadagi iqtisodiyot metadarajani, jahon iqtisodiyotini yuzaga keltiradi. Turli darajadagi iqtisodiyot o'rganilganda, ularning har biriga xos qonun-qoidalar alohida ko'rib chiqiladi.

Nazariyada miqdoriy tahlil ham qo'llaniladi, ammo bu yo'l bilan olingan ma'lumotlar nazariy xulosa chiqarishga xizmat qiladi. Masalan, miqdoriy tahlil ishsizlar sonining kamayishini ko'rsatsa, iqtisodiyotda bandlik oshayapti degan, bordi-yu bu tahlil inflatsiya pasayishini ko'rsatsa, pul muomalasi barqarorlashib borayapti degan xulosalarga kelamiz. Miqdoriy tahlil o'tkazilganda turli formulalar qo'llaniladi, ular vositasida iqtisodiyotga oid hisob-kitob ishlari olib boriladi. Bular yordamida iqtisodiy qonun-qoidalarining naqadar amal qilishi, iqtisodiyotda xos bo'lgan tendensiyalar bilib olinadi. Miqdoriy tahlil natijalari turli illustratsiyalar – chizmalar, rasmlar, egri chiziqlar yordamida tasvirlanadi. Iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni ifodalovchi miqdoriy ko'rsatkichlar o'zgaruvchan qiymatlardan iborat bo'lib, bunda bir qiymat ikkinchisiga, ikkinchisi uchinchisiga va hokazo bog'liq bo'ladi. Masalan, resurslar narxining o'zgarishi xarajatlar o'zgarishini, o'z navbatida bu narxning, binobarin chiqarilgan tovarga talabning o'zgarishini yuzaga keltiradi. Bunday o'zaro bog'liqlik chizmalarda aks ettiriladi. Bular yordamida nazariy g'oya atroflicha, ya'ni tasvir vositasida ham ifoda etiladi va shuningdek, o'zgaruvchan qiymatlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga xizmat qiladi. Chizmalar doirasimon bo'lganda, u bo'laklarga ajratiladi, ya'ni hissa – ulush tasvirlanadi. Masalan, davlatning daromadlardagi ulushi 25 foiz bo'lsa, bu doiraning 1/4 qismi shaklida bo'ladi.

Chizmalar miqdoriy o'zgarishlarni, masalan, narxni yoki mahsulot miqdoridagi o'zgarishlarni bildiradi. Ikki o'zgaruvchan qiymatning o'zaro ta'sirini anglash uchun koordinatlarga asoslangan chizma hosil etiladi. Bunda absissa o'qiga bir ko'rsatkich qo'yilsa, ordinata o'qiga boshqasi qo'yiladi. Bir qiymat miqdorining o'zgarishi boshqasining qanchaga o'zgartirishiga qarab vertikal va gorizontaal chiziqlar hosil etiladi, ular kesishgan nuqtalar egri chiziq bilan birlashtirilganda iqtisodiy o'zgarishlar qandayligi aniqlanadi.

Nazariyada sifatli tahlil usuli birlamchi, u mantiqqa asoslangan asbtraksiyalash usulidan iborat bo'lib, nazariy xulosalar chiqarishga va qonun-qoidalarini ilmiy ta'riflashga xizmat qiladi. Ammo bu miqdoriy tahlilga tayanadi, chunki mazkur usul kuzatish ma'lumotlarini jamlash, ularni umumlashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari miqdoriy tahlil yordamida nazariy qonun-qoidalar iqtisodiyotda naqadar amal qilayotganligi bilib olinadi. Masalan, inflatsiya darajasini miqdordan aniqlash orqali pul muomalasi qonunining amal qilishi ko'rsatiladi. Nazariy tahlilda qo'llanadigan turli-tuman usullar bir-biridan ajratib olib

alohida ishlatilmaydi, ular birgalikda, lekin turli kombinatsiyada (nisbatda) ishlatiladi. Bu tahlil darajasi va miqyosiga bog‘liq bo‘ladi.

Funksiyalar. Iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida turli funksiyalarni bajaradi. **Bulardan birinchisi** – bilish funksiyasidir. Bunda nazariyani o‘rganish orqali iqtisodiy hodisalar nima ekanligi, ularni nima yuzaga chiqarishi, ular nimaga olib kelishi anglab olinadi. Nazariya iqtisodiyotning sir-asrorlarini o‘rgatib, kishilarni ulardan xabardor qiladi, ularning bilim darajasini oshiradi. Boshqa iqtisodiy fanlar qatori u ham kishilarga iqtisodiy bilimlarni yetkazib beradi, ularni iqtisodiyotda ma‘lum qonun-qoidalar borligidan ogoh etadi, ularga rioya etish zarurligini tushuntirib beradi.

Mazkur fanning ikkinchi funksiyasi – bu boshqa iqtisodiy fanlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishidir. Bu fan umumnazariy, ya‘ni iqtisodiyotga xos bo‘lgan umumiy qonun-qoidalarni o‘rganadi. Shu jihatdan u boshqa xususiy funksional nazariyalardan, masalan, moliya nazariyasi, pul nazariyasi, statistik nazariya, buxgalteriya nazariyasi kabi fanlardan farqlanadi. Iqtisodiyot nazariyasi umumiy fan bo‘lganidan, u asoslangan nazariy qonun-qoidalariga boshqa iqtisodiy fanlar tayanadi.

Masalan, nazariyada asoslab berilgan talab kategoriyasining talqiniga mikroiqtisod, makroiqtisod, marketing, firma iqtisodi, menejment kabi fanlar tayanadi. Ammo boshqa fanlar nazariyadan faqat oziqa olish bilan cheklanadi deb bo‘lmaydi. Bu fan boshqa iqtisodiy fanlar uchun nazariy tayanch bo‘lsa-da, ularning yutuqlarini umumlashtirish hisobidan ulardan ham oziqa oladi. Boshqa fanlar erishgan natijalar va xulosalarga tayanib iqtisodiyot nazariyasi o‘z kategoriyalari va qonunlariga yangilik kiritadi, yangi ilmiy xulosalar chiqaradi. Xullas, boshqa iqtisodiy fanlar yutug‘i nazariyaning ham fan sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur fanning uchinchi funksiyasi – bu uning amaliyot uchun ilmiy baza bo‘lib xizmat qilishi, unga umumiy tarzda tavsiyalar berishidir. Bu fan muayyan firma ishi yoki xonadon xo‘jaligini qanday tashkil etish to‘g‘risida tavsiyalar bermaydi. Uning tavsiyalari umumiqtisodiy tavsifga ega qonun-qoidalariga qanday amal qilishga taalluqli bo‘ladi. Bu tavsiyalar iqtisodiy siyosatni takomillashtirishga qaratiladi. Bular davlatning, firmalarning, xonadonlarning, xalqaro iqtisodiy uyushmalar va tashkilotlarning siyosatiga tegishli bo‘ladi. Demak, nazariya amaliyot bilan iqtisodiy siyosat orqali bog‘lanadi. Iqtisodiy siyosatda u yoki bu nazariy g‘oyaga tayaniladi, u taqozo etadigan yo‘l-yo‘riqlar asos qilib olinadi. Buni tarixiy dalillar tasdiqlaydi. 1929–1933-yillari AQSh dahshatli iqtisodiy inqirozga yo‘liqib,

iqtisodiyot falaj bo‘lib qolgan, undan chiqish uchun o‘sha paytdagi prezident F. Ruzveltning «Yangi kurs» deb nomlangan siyosati amalga oshirilgan. Bu siyosat tanglikdan chiqish uchun davlat iqtisodiyotga faol aralashuvi zarur degan g‘oyaga tayangan. Uning natijasida AQSh iqtisodiyoti o‘nglanib ketgan. XX asr 70-yillarining ikkinchi yarmidagi tanglikdan chiqish uchun AQSh hukumati prezident (R. Reygan) nomi bilan aytilgan «Reygonomika» siyosatiga amal qildi. Bu iqtisodiyot barqaror o‘shib borishini bozor kuchlari, bozor mexanizmining o‘zi ta‘minlay oladi, shu bois davlat iqtisodiyotni erkin qo‘yib, o‘z iqtisodiy faoliyatini cheklashi kerak, degan nazariy xulosaga tayangan «Reygonomika» siyosati tufayli AQSh iqtisodiyoti tanglikdan chiqib, iqtisodiy o‘shishni ta‘minlagan.

Iqtisodiyot nazariyasi tavsiyalari mikrodarajadagi siyosatga ham qo‘l keladi, bu firmalarga to‘g‘ri strategik (kelajakni ko‘zlagan) yo‘lni tanlash imkonini beradi. Masalan, nazariyadagi diversifikatsiya g‘oyasi kapitalni bir vaqtning o‘zida turli sohalarga joylashtirish zarurligini bildiradi. Kapitali katta firmalar shunga amal qilganlarida bir sohadan ko‘rilgan zarar, boshqa sohaga qo‘yilgan kapital keltirgan foyda hisobidan qoplanib turadi.

Nazariyaning yana bir amaliy ahamiyati shundaki, bu fan iqtisodiyotning sir-asrorlarini ochib berar ekan, undan xabardor har bir kishi iqtisodiyot qoidalariga amal qilsa, bundan faqat foyda ko‘radi.

3. Iqtisodiyot nazariyasidagi asosiy oqimlar

Iqtisodiyot nazariyasi quruq yerda paydo bo‘lmagan. Shu bois iqtisodiy bilimlarning paydo bo‘lishiga oid ma‘lumotlarni keltirishni joiz deb topdik, sababi turli tarixiy davrlardagi ilmiy qarashlar muayyan ma‘noda taraqqiyotga hissa qo‘shgan.

Qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy, Yunoniston, Rim va Sharq mutafakkirlari (Xammurapi, Manu, Konfutsiy, Ksenofont, Platon, Aristotel, Varran, M.Katon, Kollumela va boshqalar)ning iqtisodiy qarashlariga e‘tibor bersak, ular mehnat taqsimoti, yaratilgan mahsulot taqsimlanishi, boylikning vujudga kelishi, xo‘jalik yuritish qoidalari, mehnatni tashkil qilish, yerga mulkchilik masalalariga oid o‘z yondashuvlarini bayon qiladilar.

Miloddan keyingi dastlabki ming yillikdagi iqtisodiy qarashlarda iqtisodiy bilimlarning rivojlanishida muqaddas manbalar («Qur‘on», «Hadis») hamda O‘rta Osiyo va Sharqning buyuk allomalari qarashlari alohida o‘rin tutganligini ko‘ramiz.

Islom dinining muqaddas kitobi – Qur’oni karimda (arabcha – qiroat, ya’ni o‘qish) iqtisodiy fikr va ko‘rsatmalar muayyan darajada o‘z aksini topgan. Islom dinida Qur’oni karim Alloh tomonidan payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ga 23 yil davomida vahiy qilingan deyiladi. Payg‘ambar Muhammad alayhissalom 570-yili Makkada quraysh qabilasiga mansub bo‘lgan Hoshimiylar xonadonida tug‘ilib, 632-yilning iyun oyida Madinada vafot etgan. Qur’oni karimdagi asosiy g‘oyalardan biri musulmonlarning qardoshligi bo‘lib, arab qabilalari shu bayroq atrofida birlashdilar. Unda dehqon va hunarmandlar mehnati, umuman halol mehnat ulug‘lanadi, barcha boylik shu asosda paydo bo‘lishi uqtiriladi. Iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlari va usullarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, moddiy ne‘matlarni ishlab chiqarish va ularning iste’molida diniy tushunchalar, odamlarning iymon-e’tiqodi katta ta’sir kuchiga ega. Islomning asosiy manbai Qur’oni karimning oyatlari bandlarning har jihatdan poklikka, iymon va salomatlikka chorlaydi. Bu muqaddas kitobning 293 ta oyati bevosita iqtisodiy tafakkurga bag‘ishlangan. Boshqa ko‘plab oyatlarda ham qisman iqtisodiyotga tegishli fikrlar uchraydi. Bu muqaddas kitobda savdoga katta ahamiyat beriladi, sudxo‘rlik (sudxo‘rlik foizi) qoralanadi, mulkning muqaddasligi, birovning mulkiga xiyonat va hatto hasad qilish katta gunoh, deb ko‘rsatiladi. Islomda jamiyatning tengsizligi taqdiri azaldan deb tan olinadi, ammo halollik va to‘g‘rilikka buyuriladi, yolg‘on ishlatish, o‘g‘rilik va mehnatsiz daromad topish man qilinadi. Qur’oni karimda qarz olish va berish, merosni taqsimlash, yetim-yesirlarga muruvvat, xayr-ehson qilish, o‘zaro yordam berish haqidagi g‘oyalar, soliq turlari va miqdori to‘g‘risidagi tushunchalar katta ahamiyat kasb etadi. Oyati karima va hadisi shariflarda turli kasblarni egallash, ayniqsa, dehqonchilik, qo‘ychilik bilan shug‘ullanish, mehnat qilish zarurligi marhamat qilingan. Islom aqidasi isrofgarchilikka qarshi kurash Qur’oni karimdagi «Yenglar, ichinglar, hadya qilinglar, ammo isrof qilmanglar», degan oyat asosida olib boriladi (bu hozirgi davrda eng asosiy muammolardan biri hisoblanadi). «Daryo bo‘yida tahorat qilsangiz ham, suvni isrof qilmanglar» kabi qoida aynan hozirgi zamon iqtisodiyoti va ekologiyasi uchun nihoyatda ahamiyatlidir.

Shuningdek, «Avesto» shakllanishi davrida kishilik jamiyati ilgarilab, rivojlana bordi. Ko‘chmanchilikka asoslangan Markaziy Osiyoda eski turmush tarzi o‘rnini o‘troq yashash egallay boshladi, sug‘oriladigan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik borgan sari taraqqiy etdi. Yangi-yangi shaharlar, obod qishloqlarning paydo bo‘lishi

o'troq yashash turmush tarzining afzalliklarini ko'rsata bordi. Ana shu o'troqlik turmush tarzining odamlarga benihoya kulfatlar keltirayotgan ko'chmanchilikka asoslangan turmush tarziga nisbatan afzalliklarini ko'rsatib berishda «Avesto»ning ahamiyati kattadir.

«Avesto»da «yerga yaxshi, sog'lom urug'lar sepishdan ortiq savob ish yo'q» deb, xalq xo'jaligi sohasida dehqonchilikning muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. «Olam go'zalligi dehqondan, dehqonchilikdan, kimki yerga urug' qadabdi, u odamiylikka iymon keltiradi, yagona shu yo'lgina haqiqat bo'lib, qolgani sarobdir», deyiladi unda. Qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, uni jamoa o'rtasida adolatli taqsimlash eng savobli ishlardan hisoblangan. Asarda oziq-ovqat tayyorlash, uy hayvonlarini va chorva mollarni ko'paytirishga ham alohida e'tibor berilgan.

«Avesto»da yer, suv, havoni bulg'ash, ifloslash og'ir gunoh ekanligi ta'kidlanadi. Bunday ibratli tasdiqlash bugungi avlodlarni ham tabiatga, atrof-muhitga vahshiyona munosabatda bo'lmaslikka undaydi. Kitobda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish to'g'risida shunday deyiladi: «Yomon ovqatlangan xalq na yaxshi, kuchli ishlovchilarga va na sog'lom, baquvvat bolalarga ega bo'ladi. ... yomon ovqatlanishdan odob-axloq ham aynib ketadi. Agar non mo'l-ko'l bo'lsa, muqaddas so'zlar ham yaxshi qabul qilinadi».

Bu yerda biz sog'lom avlod tarbiyasi, iqtisodiy va madaniy, ma'naviy yuksalish o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligi to'g'risida fikr yuritilganligini ko'ramiz. O'sha davrda aytilgan bunday fikrlar ajdodlarimiz qadimgi dunyo madaniyatida yuqori yutuqlarga erishganidan dalolat beradi.

Ushbu noyob kitobda patriarxal urug' jamoasi, uning tugatilishi davrida iqtisodiy tengsizlik, sinfiy tabaqalanish haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi.

Buyuk mutafakkirlarimiz hazrati inson ehtiyojlari (Forobiy), daromadlar va xarajatlar muvozanati (Ibn Sino), pulning kelib chiqish sabablari (Abu Rayhon Beruniy), jamiyatda mehnatning roli, moddiy ne'matlarning xususiyatlari, pul va uning vazifalari (Yusuf Xos Hojib) jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, davlat moliyasi, soliqlarni belgilash tartibi (A.Navoiy), insonlarning ishlab chiqarish faoliyati, tovar qiymati va iste'mol qiymati, ayirboshlash jarayoni, tarixiy-ijtimoiy taraqqiyot prinsiplari (Ibn Xoldun) kabi masalalarga o'z munosabatlarini bildirganlarini ko'ramiz.

Iqtisodiyot nazariyasi ko'pgina mamlakatlarda milliy bozorlarning qaror topishi va jahon bozorining vujudga kelishi sharoitida (XVI–XVII

asrlar) iqtisodiy bilim va qarashlarning yaxlit tizimi sifatida «siyosiy iqtisod» nomi bilan mustaqil fan sifatida shakllana boshladi.

«Siyosiy iqtisod» yunoncha soʻzdan olingan boʻlib, «politikos» – ijtimoiy, «oykos» – uy, uy xoʻjaligi, «nomos» – qonun degan maʼnolarni anglatadi. Fransuz iqtisodchisi Antuan Monkreyen (1575–1621-y.) birinchi marta «Siyosiy iqtisod trakti» (1615-y.) asarida bu fanni ilmiy jihatdan asosladi va u 300 yildan ortiq vaqt davomida shu nom bilan rivojlandi.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fan sifatida shakllanish jarayonida vujudga kelgan asosiy gʻoyaviy oqimlar quyidagilardan iborat:

➤ *merkantalizm* – jamiyatning boyligi puldan, oltindan iborat boʻlib, u savdoda, «asosan tashqi savdoda paydo boʻladi va koʻpayadi», deb tushuntiradi. Merkantalizm – italyanacha «myersantye» soʻzidan olingan boʻlib, «savdogar» maʼnosini anglatadi.

XVI asrning boshlariga qadar natural xoʻjalik va isteʼmol ustun boʻlgan davrda birorta nazariya yaratilmagan boʻlsa-da, mahsulot ishlab chiqarish, tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bilan, Yevropada Uygʻonish davri, buyuk geografik kashfiyotlar, mustamlakachilik bilan hamohang ravishda dastlabki merkantalizm taʼlimoti yaratildi.

Maʼlumki, har qanday iqtisodiy dunyoqarashda boylik manbai masalasi muhim sanaladi. Chunonchi, iqtisodiyotda ikki soha mavjud: ishlab chiqarish (hunarmandchilik, sanoat, qishloq xoʻjaligi) hamda muomala (pul, savdo-sotiq, hozirgi davrda xizmatlar).

Bu oqimning namoyandalari Vil Stafford, Tomas Men, Antuan Monkreyen, Jon Lou, Gaspar Skaruffi va boshqalar.

Fiziokratlar – jamiyatning boyligi qishloq xoʻjaligida vujudga keladi, degan gʻoyani ilgari suradilar. Bu taʼlimotning asoschisi Fransua Kene (1694–1774-y.) hisoblanadi.

Klassik siyosiy iqtisod – boylik faqat qishloq xoʻjaligida emas, balki sanoat, transport, qurilish va boshqa sohalarda ham yaratilishini isbotlab berdi. Bozor munosabatlari afzalligi isbotlab berildi, ayniqsa, toʻla iqtisodiy erkinlik siyosati ilgari surildi, xususiy mulk qoʻllab-quvvatlanib shu gʻoyalarga asoslangan holda xoʻjalik yuritish eng mukammal ekanligi isbotlandi.

U. Petti (1623–1686-y.) boylikning manbai yer va mehnat ekanligini eʼtirof etgan. «Mehnat boylikning otasi, yer uning onasi», degan ibora unga tegishlidir. Uilyam Petti isbotlab berdiki, agar merkantalistlar hisobi boʻyicha ish yuritilsa, XVII asrda Angliya boyligining bor-yoʻgʻi 3 foizini javohirlar va pullar tashkil etgan boʻlard.

Vaholanki, o'sha davrda 5,5 million aholining 4,1 millioni qishloqlarda yashagan va dehqonchilik qilib, boyluk yaratgan. Savdo-sotiqda 246 ming, sanoatda esa 240 ming kishi band bo'lgan. Bu davrda merkantalizm g'oyalari cheklangan edi.

A. Smit «Odamlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» (1776-y.) asarida talab va taklif asosida shakllanadigan erkin narxlar asosida bozor o'z-o'zini tartibga solishi («ko'rinmas qo'l») g'oyasini ilgari suradi. Insonni faollashtiradigan asosiy rag'bat shaxsiy manfaatdir, deb ko'rsatadi.

D. Rikardo mehnat qiymatning, turli sinflar daromadlari va foydaning yagona manbai ekanligini ta'kidlagan.

Sismondi (Jon Sharl Leonard Simon de Sismondi) kapitalistik iqtisodiy mexanizmni tanqid qilib, siyosiy iqtisod inson baxti yo'lida ijtimoiy mexanizmni takomillashtirishga qaratilgan fan bo'lmog'i lozim, deb uqtiradi.

Sotsial-utopistlar (A.Sen-Simon, Sharl Furiye, Robert Ouen) kapitalizmni tanqid qilib, xususiy mulkchilikni yo'q qilish, ishlab chiqarish, taqsimot va iste'molni qayta tashkil etish va adolatli tuzum (industrial jamiyat, garmonik jamiyat, kommunizm) o'rnatish talabi bilan chiqadilar.

Marksizm jamiyat taraqqiyotiga tabiiy tarixiy jarayon deb qarab, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, ularning vujudga kelishi, rivojlanishi va boshqasi bilan almashinishi sabablari to'g'risidagi ta'limotni hamda qo'shimcha qiymat nazariyasini ilgari suradi.

Endi iqtisodiyot nazariyasidagi yangi oqimlar (XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari)ga to'xtalsak:

➤ *marjinalizm* vakillari (marginal – keyingi, qo'shilgan) – keyingi tovar nafliligi, qo'shilgan mehnat yoki resurs unumdorligining pasayib borishi nazariyalarini ishlab chiqqanlar. Keyingi tovar nafliligining kamayib borish qonuni bu oqimning asosiy prinsipi hisoblanadi. Shunga ko'ra, narx xarajatga bog'liq bo'lmay, keyingi naflilik asosida belgilanadi. Marjinalizm vakillari iqtisodiyotda ishlab chiqarish emas, iste'mol hal qiluvchi, degan g'oyani ilgari surganlar. Mehnat natijasi muhim sanalgan. Foyda, naflilik ijobiy faoliyat sifatida qaralgan. Marjinalizm asoschilari Karl Menger, Fridrix fon Vizer, Eygen fon Bem-Baverk, Uilyam Stenli Jevons hisoblanadi;

➤ *neoklassik maktab* (asoschisi Alfred Marshall) bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning aralashuvini cheklash g'oyasini ilgari surgan. Bozor

mexanizmining buzilishi monopoliyalar vujudga kelganda ham yuz berishini ta'kidlagan. U funksional bog'lanish g'oyasini asoslaydi, bozor bahosini belgilovchi omillar talab va taklifdan iborat deb hisoblaydi. Bu ta'limot tadbirkorlar iqtisodiyotni, sarmoyani, ish kuchini va yerni davlatga nisbatan samaraliroq ishga solishi va boshqarishini ko'rsatib bergan. Markscha davlat mulkining afzalligi to'g'risidagi g'oya inkor etilgan.

Bu maktab vakillaridan L. Valras umumiy iqtisodiy muvozanatlik modelini ishlab chiqishga, I. Shumpetter esa iqtisodiy tizimlar o'zgarishining ichki kuchlarini ko'rsatib berishga harakat qilgan hamda iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuch tadbirkorlik, degan xulosaga kelgan;

➤ *keynschilik* – rivojlangan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solib turish zarurligini asoslashga qaratgan. Jon Meynard Keynes «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936-y.) nomli kitobida bunday tartibga solish yalpi talabga hamda shu orqali inflatsiya va bandlikka ta'sir ko'rsatishini asoslaydi.

Neoklassik yo'nalishda yangidan vujudga kelgan oqimlar (XX asrning 50–60-yillaridan boshlab):

➤ *neoliberalizm* (F. Xayek, I. Shumpetter, L. Erkard) – asosiy e'tiborni davlatning iqtisodiyotga aralashuvini eng kam darajaga keltirishga, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratish lozimligini uqtiradi;

➤ *monetarizm* (M. Fridman) – iqtisodiyotni boshqarishni pul muomalasini tartibga solish orqali amalga oshirish mumkinligini asoslab beradi;

➤ *institutsionalizm* tarafdorlari (T. Veblen, J. Gelbreyt) fikriga ko'ra, xo'jalik yurituvchilar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat iqtisodiy, balki noiqtisodiy omillar ta'sirida vujudga keladi. Shu sababli iqtisodiyotga muassasaviy o'zgarishlar orqali ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Institutsionalizm tarafdorlari taraqqiyotning iqtisodiy omillari bilan birga odamlarning aqliy, ruhiy, ma'naviy, ayniqsa, huquqiy va boshqa omillariga alohida urg'u berishadi. «Insoniy omil», millat ruhi asosiy deb qaraladi. Institutlar bu – davlat, oila, kasaba uyushmalari, din, huquq idoralari va boshqalar bo'lib, davlat yuqori o'ringa qo'yiladi. Bu yo'nalishlar (neoklassika, institutsionalizm va keynschilik)ning asosiy tamoyillari bir xil – bozor munosabatlari hal qiluvchi hisoblanadi. Ammo eng muhim farqi davlatning iqtisodiyotga aralashuvi masalasidir.

Dunyoviy taraqqiyot yo'lida bir-biriga zid iqtisodiy nazariyalar:

Kapitalistik nazariya – klassik siyosiy iqtisodni, xususiy mulkchilikni o'ta mutlaqlashtirish, iloji boricha ko'proq foyda olish maqsadida iqtisodiyotning o'zini o'zi tartibga solishi g'oyalari asoslangan nazariya.

Sotsialistik nazariya – marksizm g'oyalari targ'ib qilib, mulkni yoppasiga davlat ixtiyoriga olish, resurslarni markazlashtirilgan tarzda ma'muriy-buyruqbozlik, rejalashtirish asosida boshqarish va taqsimlash yo'li bilan ijtimoiy adolatni qaror toptirish va xalq farovonligini oshirish muammolarini hal qilishga urinib kelgan nazariya.

Atoqli vatandoshimiz, ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning yozishi-cha: «Iqtisod deb, pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmoqqa aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda, so'mni ayamasa»¹.

Iqtisodiyot nazariyasi predmetini o'rganishdagi eng muhim bosqich – nazariyani iqtisodiy siyosat bilan bog'lashdir.

Nazariya iqtisodiyotga qanday tendensiyalar xos bo'lishini, uning qanday omillar ta'sirida rivojlanishini, unda qanday o'zgarishlar bo'lishini bashorat eta oladi. Shu sababli nazariyani iqtisodiy siyosatning ilmiy asosi, deb aytish mumkin.

Siyosat deganda nafaqat davlatning umummilliy, umumjamiyat miqyosidagi siyosatini, balki ayrim korxonalar, firmaning amaliyoti dasturini, uning qanday xatti-harakatga qo'l urishini ham tushunmoq zarur. Davlatimiz rahbari Islom Karimovning: «Siyosat – iqtisodiyotning mujassam ifodasi ekanligi haqidagi qoida hozir har qachongidan ham dolzarb bo'lib qoldi», – degan fikri bu boradagi masalani yanada oydinlashtiradi.

Iqtisodiyot ijtimoiy hayotning bir qismi bo'lib, uning bevosita ta'siri ostida bo'ladi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davri qiyinchiliklarini bartaraf etish konsepsiyasining poydevorini «*Iqtisodiyot siyosatdan ustun bo'lishi kerak*» degan mashhur qoida tashkil etadi.

Nazariya iqtisodni sof holda emas, balki siyosiy, psixologik, axloqiy, milliy-demografik omillarning ta'sirini inobatga olgan holda o'rganadi.

Iqtisod har doim siyosatga nisbatan birlamchi bo'ladi. Davlatimiz rahbari Islom Karimovning tashabbusi bilan to'g'ri tanlangan siyosat iqtisodga ijobiy ta'sir o'tkazdi. Vaholanki, noto'g'ri yuritilgan siyosat esa unga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin (Bu 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozida namoyon bo'ldi).

¹ *Avloniy A.* Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т., 1992. – Б. 33.

Iqtisodiy nazariya iqtisodiyotning rivojlanish qonun-qoidalarini o‘rgatar ekan, ularga tayanib taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlarini yoritib beradi, shu ma’nodan u siyosatning ilmiy asosi bo‘ladi.

Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish yo‘llari:

□ jamiyatning barcha bo‘g‘inlarida (oddiy ishchi, mehnatkashdan vazirgacha, ishbilarmondan tortib olimgacha) yangi tipdagi iqtisodiy tafakkurni shakllantirish;

□ ishlab chiqarishning bozor mexanizmini yaratish, boshqarishning eski tizimini tugatib, zamonaviy boshqarish tizimini tashkil etish;

□ mulkchilikning turli shakllarini tashkil etish;

□ ochiq raqobatga chidamli, jahon iqtisodiyotiga kira oladigan iqtisodiyotni yaratish;

□ yangi zamonaviy iqtisodchilar, ishbilarmonlar, tadbirkorlar guruhini vujudga keltirish, ularga barcha imkoniyatlar yaratib berish;

□ iqtisodiy fanlarni mafkuraviy qoidalar, aqidalar, subyektivizm va volyutarizmdan xalos etish.

Rivojlanayotgan davlatlar «muqobil rivojlanish» nazariyalarining turli konsepsiyalari:

□ **«Asosiy ehtiyojlar» konsepsiyasi** – aholining eng kam tirikchilik ehtiyojini kafolatli ta’minlash va ish bilan band qilish muammolarini hal qilishga qaratilgan;

□ **«Maqbul yoki tegishli texnologiya» konsepsiyasi** – aholi bandligini ta’minlaydigan va mahalliy xom ashyoni, avvalo qishloq xo‘jalik xom ashyosini qayta ishlashga qaratilgan sermehnat texnologiyani rivojlantirish zarurligiga qaratilgan;

□ **«O‘z kuchiga jamoa bo‘lib tayanish» konsepsiyasi** – mavjud zaxiralardan to‘liqroq foydalanishga va ularning rivojlanishiga hamda rivojlanayotgan mamlakatning taraqqiy etgan mamlakatlarga qaramligini kamaytirish maqsadida ular o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan;

□ **«Yangi xalqaro iqtisodiy tartib» konsepsiyasi** – xalqaro munosabatlarda tenglik va adolat qoidalariga asoslangan hamda barcha mamlakatlarning manfaatlarini nazarda tutuvchi aloqalar yangi iqtisodiy tartibning mazmunini tashkil etadi.

4. Iqtisodiy kategoriyalar va qonunlar

Iqtisodiy kategoriyalar iqtisodni o‘rganishda qo‘llanadigan nazariy tushunchalar bo‘lib, real iqtisodiy voqelikning ilmiy in’ikosi, ifoda etilishidir.

Iqtisodiy kategoriyalar quyidagi turlarga bo‘linadi:

□ **umumiqtisodiy kategoriyalar** – iqtisodiy taraqqiyotning hamma bosqichlariga xos bo‘lgan, lekin ijtimoiy-iqtisodiy tizimga aloqasi bo‘lmagan umuminsoniy kategoriyalarni ifodalovchi kategoriyalardir: ishlab chiqarish omili, mulk, mehnat jarayoni, mahsulot, ish vaqti, mehnat taqsimoti, ehtiyoj, ishlab chiqarish, ayirboshlash, iste’mol, iqtisodiy manfaat, mehnat unumdorligi, samaradorlik kategoriyalari;

□ **formatsion maxsus kategoriyalar** – iqtisodiy taraqqiyotning tarixiy muayyan bosqichiga xos bo‘lgan, ijtimoiy-iqtisodiy tizimning tabiatiga aloqador o‘tkinchi munosabatlarni ifodalovchi maxsus kategoriyalardir. Bular: ekspluatatsiya, renta, ekspansiya, ortiqcha aholi, qashshoqlanish, monopoliya, monopsoniya, oligopoliya kategoriyalari;

□ **davriy oraliq kategoriyalar** – umuminsoniy xarakterdagi bir necha iqtisodiy tizimlar sharoitida amal qiluvchi, uzoq tarixiy davrda saqlanuvchi, ammo o‘tkinchi mazmundagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyalardir. Masalan, tovar, pul, talab, taklif, narx-navo, inflatsiya, marketing, menejerlik va boshqa kategoriyalar.

Iqtisodiy qonunlar iqtisodiy jarayonlarning turli muhim tomonlari o‘rtasida yuzaga kelib va muqim takrorlanib turadigan, uzviy iqtisodiy zaruratni taqozo etuvchi aloqalardir.

Iqtisodiy qonunlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

□ **umumiqtisodiy qonunlar** – jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida, iqtisodiyotning aniq ijtimoiy shaklidan qat’i nazar, amal qiluvchi qonunlardir. Masalan, mehnat taqsimoti, jamg‘arish, mehnat unumdorligining o‘sib borishi, ehtiyojlarning yuksalishi, mehnat turlarining almashuvi, farovonlik qonunlari;

□ **formatsion – maxsus qonunlar**. Bular faqat ijtimoiy-iqtisodiy tizim doirasida amal qiluvchi, shu tizimning maxsus xususiyatlarini ifoda etuvchi qonunlardir: feodalizm, kapitalizm, imperializm, sotsializm qonunlari;

□ **davriy oraliq qonunlar** – ma’lum davrda turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimda amal qiluvchi qonunlarning maxsus tuzumga aloqasi bo‘lmagan holda ularni birlashtirib turuvchi munosabatlar – bozor iqtisodiyoti qonunlari.

5. Iqtisodiyot nazariyasi va davlatning iqtisodiy siyosati

Iqtisodiyotning qonun-qoidalariga amal qilish iqtisodiy siyosat orqali yuz beradi, chunki bularni anglagan holda iqtisodiyot rivojiga oid chora-

tadbirlar ishlab chiqiladi va bular iqtisodiyotga ta'sir etmay qolmaydi. Iqtisodiy siyosat o'zi nima?

Iqtisodiy siyosat – bu iqtisodiyot subyektlarining o'z faoliyatiga oid yo'l-yo'riqlari va sa'y-harakatlarining majmuidir.

Har bir iqtisodiyot ishtirokchisining, bu xonadonmi, firma yoki davlatmi, buning farqi yo'q, o'z manfaatlari bor. Bu manfaatlar amaliyotda aniq maqsad shakliga kiradi, iqtisodiy siyosat esa uni amalga oshirishga qaratiladi. Xonadonning maqsadi o'z iste'molini maksimumlashtirish va kelajakni ta'minlash uchun jamg'arma hosil etishdir. Firmaning maqsadi esa foydani maksimumlashtirish va iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlashdir. Davlatning maqsadi esa, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini va shu asosda xalq farovonligini ta'minlashdan iborat. Maqsadlar kabi ularni amalga oshirish vositalari ham farqlanadi va bu iqtisodiy siyosatda hisobga olinadi. Hatto bir toifadagi subyektlarning ham maqsadi bir xil emas, chunki ularning iqtisodiy maqomi farqlanadi. Masalan, boy, o'rtahol va kambag'al xonadonlar, kichik, o'rta va yirik firmalarning muayyan davrdagi aniq maqsadlari bir xil emas, bular individuallashtirishgan, chunki ularning o'zi mustaqil va g'oyat ko'pchilik.

Iqtisodiy siyosat uch darajada bo'ladi, bular mikro, makro va meta (xalqaro) siyosatdir. **Mikrosiyosat** xonadon va firmalar siyosati hisoblanadi. Bu g'oyat individuallashtirishgan bo'ladi, bunga yaxlitlik xos emas. Xonadon siyosati iste'molga va jamg'arishga oid bo'ladi. Bu siyosat tanlov tamoyiliga asoslanadi. Xonadon o'zining individual yo'lini tutadi, lekin uning siyosati obyektiv sharoitga moslashishi zarur, chunki ayrim xonadon obyektiv iqtisodiy muhitni o'zgartirishga qodir emas, uni hisobga olishdan boshqa iloji yo'q. Ayni paytda uning siyosatida subyektiv jihat ham bor, chunki har bir xonadon o'zi bilgan yo'ldan qolmaydi. Xonadon siyosatining maqsadi yaxshi yashash bo'lganidan u bunga erishishning eng ma'qul yo'lini belgilab oladi. Bu yo'ldagi birinchi ish – bu ko'p pul topish bo'lsa, ikkinchisi pulni oqilona sarflash bo'ladi. Oddiy mehnatkash xonadonining asosiy resursi ish kuchi bo'lganidan uni yaxshiroq pulga sotish, ya'ni yaxshi ish haqi beradigan joyga o'rnashib olish uning siyosatining asosiy yo'nalishi hisoblanadi, chunki pul topishning birlamchi sharti bandlikdir. Xonadon siyosatining boshqa bir yo'nalishi o'z daromadini to'g'ri sarflash siyosati, ya'ni xarajatlar siyosatidir. Bu siyosat eng avval daromadning qanday qismi joriy iste'molga yuborilishini belgilaydi, so'ngra esa xarid uchun ajratilgan pulga tovarlarning eng ma'qul to'plamini tanlab olishni mo'ljallaydi,

tanlov esa tovarlarning narxi va nafliligidan kelib chiqqan holda ularni shunday kombinatsiyada (nisbatda) olishga qaratiladiki, bu uning xarid qobiliyati doirasida ehtiyojlarini maksimal qondirishi kerak bo'ladi.

Xonadonning jamg'arish siyosati uning daromad topish imkoniyati, daromadning bir qismini jamlab, puldan pul chiqarish imkoniyatidan kelib chiqadi, jamg'arishning muqobil usullarini tanlashni ko'zlaydi. Jamg'ariladigan pul moliyaviy yoki moddiy aktivlarga aylantiriladi. **Xonadon siyosatida** pulga aksiya, obligatsiya sotib olish, uni bankka qo'yish, qarzga berish yoki to'g'ridan-to'g'ri biznesga joylashtirish oldindan belgilab olinadi. U pulni investitsiyalaganda, *birinchidan*, pulni inflatsiyadan asrab, jamg'arma qadr-qiymatini saqlab qolishni, *ikkinchidan*, uning ko'payib, qo'shimcha daromad keltirishini ko'zlaydi.

Oddiy xonadondan farqliroq boy-badavlat xonadon siyosati yollanib ishlashdan emas, balki biznesdan pul topishni ko'zlaydi, chunki uning ish kuchidan boshqa individual kapitali ham bor. Bunga biznes turini erkin tanlash orqali erishiladi.

Firmalar siyosati o'z maqsadini aniq belgilash va unga erishish yo'llari va vositalarini tanlashdan iboratdir. Bu siyosatning maqsadi foydani maksimumlashtirishni, bunga erishib bo'lmaganda, firma barqarorligini ta'minlab, uni saqlab qolish va bir maromda rivojlantirishni mo'ljallaydi.

Firma siyosati faoliyatning turli sohalariga taalluqli bo'ladi.

Firmaning ishlab chiqarish siyosati nimani qancha va qanday davrda ishlab chiqarishni belgilaydi. Firmaning o'z maqsadiga yetishi ishlab chiqarish hajmiga bog'liq, chunki har qanday ko'lamda ishlab chiqarish foydali bo'lavermaydi. Shu sababli firma ishlab chiqarishning shunday hajmini tanlab oladiki, bunda o'rtacha xarajatlar bilan bozor narxi orasidagi farq eng katta bo'lib, foyda maksimumlashishi kerak bo'ladi. Buning uchun firma ishlab chiqarishni modernizatsiyalab, bozorga yangi tovarlar va xizmatlarni taklif etish yo'lidan boradi.

Firmaning tijorat siyosati tovarlarning qanday miqdorda va qaysi bozorlarda sotilishini, ularning kreditga berilishini, eksport miqdori va tarkibini belgilaydi, savdo-sotiqda raqobatchilar va sheriklar bilan qanday munosabatda bo'lish yo'lini aniqlaydi.

Firmaning narx siyosati bozorga qanday narx bilan chiqishni, narxning bozor sharoitiga qarab qanday o'zgartirilishini, narxlardan siylov berish tartibi kabilarni mo'ljallaydi.

Firmaning moliya siyosati soliqlarni to'lash tartibini, soliqlardan imtiyoz va davlatdan subsidiya olish yo'llarini, kredit olish, uni qaytarish,

foiz to'lashga oid ishlarni, foydani taqsimlab, uni samarali ishlatish choralarini, aksiya chiqarib sotish, o'zga firmalar aksiyasini, davlat obligatsiyalarini sotib olishga oid yo'l-yo'riqlaridan iborat bo'ladi.

Firmaning raqobat siyosati raqobatda ishtirok etish yoki etmaslik, raqobat yuz berganda, uning usullaridan qaysi birini qo'llash, qanday vositalarni ishga solishga qaratiladi.

Vaziyatga qarab siyosatning u yoki bu yo'nalishiga ustuvorlik beriladi. **Firma siyosati** qisqa va uzoq davrga mo'ljallanadi, chunki shu davrlarda turli maqsadlar olg'a surilib, ularga erishishning muqobil vositalari tanlab olinadi. Firma siyosati, *birinchidan*, bozordagi vaziyatga, *ikkinchidan*, davlatning siyosatiga moslashib borishni bildiradi. Firma siyosati ham individuallashtirilgan, biroq siyosatning umumiy tamoyillari borki, ularga firmalar o'z maqsadidan kelib chiqqan holda va bilganicha rioya etishadi.

Firma o'z siyosatini belgilashda obyektiv axborotga tayanadiki, bu ichki va tashqi axborotlardan iboratdir. Ichki axborot firmaning o'zidagi holatni, tashqi axborot esa tashqi muhitdagi holatni tavsiflaydi. Firmalar siyosatini agar ular korporatsiyalar (aksioner jamiyatlar) bo'lsa, oliy boshqaruv organlari (direktorlar kengashi, aksionerlar majlisi) ishlab chiqadi, uni amalga oshirish ishini menejerlar bajaradi. Firma oddiy korxonalar bo'lsa, uning siyosatini egasining o'zi yoki uning nomidan menejerlar amalga oshiradi. Firmaning siyosatiga qarab uning ishi rejalashtiriladi. Shu maqsadda firma strategiyasi ishlab chiqilib, unda firma siyosati aniq chora-tadbirlar shakliga ega bo'ladi. Firma siyosatining naqadar o'rinli ekanligi uning monitoringi (baho berish) orqali aniqlanadi.

Davlat iqtisodiy siyosatining maqsadi va vositalari. Davlat iqtisodiyotga o'z siyosati bilan ta'sir etadi.

Davlatning siyosati – bu makroiqtisodiy siyosat bo'lib, uning muayyan mamlakatning milliy iqtisodiga taalluqli yo'l-yo'riqlari va ulardan kelib chiqadigan sa'y-harakatlaridan iboratdir. Davlatning siyosati har doim milliy bo'ladi, mamlakat rivojining ichki va tashqi sharoitini hisobga oladi. Siyosatda eng avval mamlakat iqtisodiyotining holati, xalqaro iqtisodiy konyunkturaning milliy iqtisodiyotga nechog'lik ta'sir etishi, unda kutilayotgan o'zgarishlar mamlakat zimmasiga olgan xalqaro majburiyatning qandayligi, mamlakat iqtisodiyotining resurslar bilan ta'minlanish darajasidan kelib chiqadi, ilgari amalga oshirilgan chora-tadbirlar bergan natija ham hisobga olinadi. Davlat siyosati davlat

rahbarlarining erk-irodasi va qat'iyatligiga va yetilgan iqtisodiy muammolarni naqadar idrok etishlariga ham bog'liq bo'ladi.

Davlatning siyosati milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ma'lum maqsadlarni ko'zlaydi. Bulardan asosiylari quyidagilar:

– *barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash*. Bu yalpi ichki mahsulotning bir maromda va yetarli sur'atlar bilan o'sishiga sharoit hozirlashni bildiradi, chunki YAIM qanchalik tez o'ssa, mamlakat iqtisodiy qudrati shunchalik oshadi.

Milliy iqtisodiyotning mustaqilligini ta'minlash – uning chet elga qaram bo'lishiga yo'l qo'ymaslik. Iqtisodiyot qanchalik mustaqil bo'lsa, milliy manfaatlarga shunchalik ko'proq xizmat qiladi;

– *iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash*. Bu iqtisodiy aylanmaning uzluksizligini, ya'ni takror ishlab chiqarishning to'xtovsiz davom etishini, iqtisodiy falajlikka yo'l qo'yilmaslikni bildiradi.

Milliy pul qadr-qiymatining barqarorligini ta'minlash. Mamlakatdagi pul muomalasining me'yorida borishiga erishish, pulni iqtisodiy aloqalarning muntazam ishlab turuvchi vositasiga aylantirish.

Aholi turmush farovonligini muttasil oshirib, iqtisodiyotning ijtimoiylikni to'laroq yuzaga chiqarishga ko'maklashish.

Milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsion jarayonlar va globallashtirishda faol ishtirok etib, xalqaro iqtisodiyotda o'z o'rnini topishi, baynalminal iqtisodiy munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisiga aylanishiga erishish.

Milliy iqtisodiyotning istiqbolini ta'minlash, ya'ni uni uzoq kelajakda o'sib borishiga sharoit hozirlash.

Bular iqtisodiy siyosatning strategik, ya'ni uzoq davrga mo'ljallangan maqsadi hisoblanadi. Biroq uning qisqa vaqtdagi taktik, ya'ni juz'iy maqsadlari ham bor. Bular jumlasiga iqtisodiy tanglikdan chiqib ketish, narxlarning barqarorligini ta'minlash, investitsion faollikni rag'batlantirish, eksport salohiyatini oshirish, innovatsiyalarni ta'minlash, yangi tashqi bozorlarga kirib borish kabilar kiradi. Juz'iy maqsadlar strategik maqsadlardan kelib chiqadi va ularga xizmat qiladi.

Davlat siyosati belgilagan maqsadlarga quyidagi vositalar orqali erishiladi. *Birinchisi*, iqtisodiy vositalar bo'lib, bular jumlasiga soliqlar, subsidiyalar, litsenziyalar, eksport kvotalari, uchoq stavkalari, davlat buyurtmalari, davlat investitsiyalari, transfertlar, turli iqtisodiy sanksiyalar (jazolash vositalari) kabilar kiradi. *Ikkinchisi*, yuridik vositalar. Bu iqtisodiy faoliyat tartibi va qoidalarini, uning davlat tomonidan rag'batlantirilishini belgilab beruvchi qonunlarni, ularga mos

ravishdagi qonunosti hujjatlarini ishlab chiqish, ularni qabul qilish va joriy etishdan iboratdir.

Qonunchilik iqtisodiyotning huquqiy asoslarini belgilab beradi, bular esa bozor iqtisodiyotining obyektiv iqtisodiy qonunlari talabidan kelib chiqishi zarur. Iqtisodiyotga oid yuridik qonunlarni parlament qabul qiladi. Hukumat esa ularning amalga oshirilishini ta'minlaydigan qarorlar va farmoyishlarni ishlab chiqadi. Tegishli davlat idoralari qonunlarning amalga oshirilishini nazoratga oladi. *Uchinchisi*, siyosiy-ma'muriy vositalar. Davlat hokimiyat sohibi bo'lganidan o'z siyosatiga rioya etilishini o'z organlari kuchi bilan ta'minlaydi. Davlat oliy siyosiy institut hisoblanar ekan, uning qarorlari buyruqlariga hamma itoat etishi kerak bo'ladi. Ma'muriy usul yordamchi usul hisoblanadi, u bozor tizimida yaxshi natija bermaganidan cheklangan holda qo'llaniladi.

Davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari. Iqtisodiyot yaxlit bo'lar ekan, iqtisodiy siyosat ham yagonadir. Lekin davlat siyosatining aniq yo'nalishlari bor.

Monetar siyosat – bu davlatning pul-kredit siyosati bo'lib, pul muomalasini tartiblash, tovar va pul massasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, iqtisodiyotdagi pul oqimlarini boshqarib turish siyosati hisoblanadi. Uning maqsadi narxlarni va shunga ko'ra milliy pul birligi xarid qurbini, uning valuta kursini barqarorlashtirish, oxir-oqibatda pulga talab bilan uning taklifini muvozanatlashtirishdan iborat bo'ladi.

Monetar siyosatning uchta asosiy jihati bor: 1. *Qayta moliyalashtirish yoki uchoq siyosati.* Bunda davlat nomidan markaziy banklar uchoq stavkasini o'zgartiradi. Stavka oshganda pul qimmatlashib, unga talab qisqaradi. U pasaytirilganda pul arzonlashib, unga talab oshadi.

Bu ayni paytda kreditning arzon yoki qimmat bo'lishini bildiradi. Bu esa iqtisodiyotga kredit hisobidan yuboriladigan investitsiyalarni o'zgartirib, uning o'sishiga ta'sir etadi. Masalan, Yevropa mamlakatlarida qayta moliyalashtirish stavkasi XXI asrning birinchi o'n yilligida 0,9 foizga tushdi. Bu bilan kredit arzonlashtirildi, chunki tijorat banklari shunga qarab kredit uchun undiriladigan foiz stavkalarini belgiladilar.

2. *Ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish siyosati.* Bu davlat obligatsiyalarini chiqarib firmalar, banklar va aholiga sotish va vaqti kelganda, ularni qaytadan sotib olishni bildiradi. Bu obligatsiyalarni olish qulay bo'ladi, chunki ularga qat'iy belgilangan foizni davlat to'laydi, bu bilan ularning daromadliligi kafolatlanadi. Davlat obligatsiyalari sotilganda, pul ularga bog'lanib qoladi, natijada uning muomaladagi

miqdori qisqaradi. Aksincha, ular qaytadan sotib olinganda, pul ulardan bo'shab muomalaga keladi, u yerdagi pul miqdori ko'payadi. Demak, bu usul bilan ham pul miqdori tartiblanadi.

3. *Majburiy rezerv siyosati.* Bu siyosatga binoan markaziy banklar boshqa banklar uchun kredit resursining majburiy rezervini kiritadi. Bu tartibga ko'ra banklar kreditga beriladigan pulning bir qismini markaziy banklar ixtiyoriga beradi. Bu rezerv oshsa, kredit puli qisqaradi, agar u kamaysa, bu pul ko'payadi. Masalan, mamlakatda jami kredit resurslari 80 mlrd. dollar. Shundan 10 foiz zaxiraga o'tkazilsa, 72 mlrd. dollar kredit uchun pul qoladi. Bordi-yu bu zaxira 15 foizga chiqarilsa, kreditga 68 mlrd. dollar qoladi. Bu bilan kreditga mo'ljallangan pulning taklifi oshadi yoki qisqaradi. Shunga qarab kredit olish goh oshib, goh qisqarib turadi. Monetar siyosatning aytilgan yo'nalishlari shuni ko'rsatadiki, unda turli iqtisodiy vositalar qo'llanadi.

Monetar siyosat ikki xil bo'ladi. *Qattiq siyosat.* Bunda pul massasi qisqartiriladi, uning emissiya (pul chiqarish) hisobidan o'sishi qat'iy chegaralanadi. Natijada pul massasi qisqarib, tovar massasiga tenglashadi. Pulning qisqarishi talabni kamaytiradi, narxlar esa o'smaydi, pul birligining xarid qurbi barqarorlashadi. Pul topishga intilish iqtisodiyotning jonlanishiga olib keladi. Bunday siyosat biz ilgari ko'rganimizdek odatda iqtisodiyotni tanglikdan chiqarish yoki inflatsiyani jadal bostirish uchun qo'llaniladi.

Yumshoq monetar siyosat. Bunda davlat pul massasining ortishiga to'sqinlik qilmaydi, pul emissiyasi hadeb cheklanavermaydi, natijada pul ko'payib, uning arzonlashuvi yuz beradi. Yumshoq siyosat iqtisodiyot o'sish pallasida bo'lganda ko'proq qo'llaniladi, pul massasining o'sishiga qarab tovarlar massasi ham o'sadi. Bunda tovar-pul muvozanati pulni qisqartirish hisobidan emas, balki tovarlarning ko'payishi tufayli ta'minlanib turadi.

Fiskal siyosat. Bu davlatning soliq-budjet siyosatidir, unga binoan soliqlar belgilanadi, budjet mablag'lari aniq maqsadlar yo'lida ishlatiladi.

Soliq siyosati soliqlar vositasida budjetga pul to'plashga qaratiladi. Unga binoan soliq turlari aniqlanadi, soliq stavkalari, soliq solinadigan obyektlar, soliq imtiyozlari, soliq undirish tartibi belgilanadi.

Soliqlar davlatning iqtisodiyotga ta'sir etishida qo'llaniladigan asosiy vositadir. «Soliq tizimi nafaqat soliqlarni undirish, balki birinchi galda, rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lishi lozim».

Iqtisodiyotni rag'batlantirish zarur bo'lganda soliqlardan imtiyozlar beriladi. Bunda soliq kamaytiriladi, soliqni undirish muhlari cho'ziladi

yoki umuman soliq undirilmaydi. Natijada firmalarga tegadigan foyda ko'payadi, ular foydani reinvestitsiya qiladi, ya'ni qaytadan ishlab chiqarishni o'stirishga yuboradi. Ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida O'zbekistonda foydadan to'lanadigan soliq stavkasi yildan-yilga pasaytirilmoqda. Bu usul iqtisodiy subyektlar kapitalning ishlab chiqarishni kengaytirish, modernizatsiya qilishga turtki vazifasini o'taydi. Fiskal siyosatda iqtisodiyotni barqarorlashtirish va o'stirish uchun ikki xil yo'ldan boriladi:

1. *Ilgari kiritilgan va hozir amalda bo'lgan iqtisodiy stabilizatorlarni – vositalarni qo'llashni davom ettirish.* Davlat qonun yo'li bilan shunday tartibni o'rnatadiki, unga binoan moliya normativlari (me'yorlari) joriy etiladi. Bular sharoit o'zgarishiga qarab avtomatik ravishda amal qilaveradi. Bular jumlasiga soliq stavkalarini, ishsizlik nafaqasi miqdori, daromadlarning inflatsiyaga qarab indeksatsiya qilinishi, ijtimoiy yordam ko'rsatish normativlarini kiritish mumkin. Masalan, daromad solig'i daromad miqdoriga nisbatan 15 foiz qilib belgilansa, daromad ko'payishi bilan uning miqdori ham avtomatik ravishda oshadi. Daromadlarni 80 foiz indeksatsiyalash tartibi o'rnatilgan bo'lsa, narx oshgan taqdirda, shu 80 foiz darajada daromad ham ko'paytiriladi.

2. *Sharoitga qarab yangi normativlarni kiritish yo'lidan borish, bu diskretsiyon fiskal siyosat deb yuritiladi.* Bu siyosat doirasida yangi soliq stavkalari joriy etiladi, yangi soliqlar kiritiladi, budjet mablag'larini sarflash normativlari o'zgartiriladi. Diskretsiyon siyosat o'zgargan sharoitga moslashish siyosatidir. Iqtisodiyot bir maromda o'sib borayotganda birinchi yo'l, u tanglikka yo'liqib, undan chiqish kerak bo'lganda, ikkinchi, ya'ni diskretsiyon yo'l ustuvor bo'ladi.

Fiskal siyosat budjet orqali ham iqtisodiyotga ta'sir etadi. Budjet hisobidan davlat ishlab chiqarish infratuzilmasiga katta investitsiyalarni yuboradi, milliy iqtisodiyot uchun ahamiyatli ish (masalan, yangi texnologiyani yaratish) bilan shug'ullanuvchi korxonalar subsidiya beriladi. Subsidiya moliyaviy yordam sifatida qaytarib olinmaydi, uning hisobidan xarajatlar qoplanib foyda ko'payadi, bu bilan korxonalar rag'batlantiriladi.

Budjet siyosati ijtimoiy ne'matlarning yaratilishini kanda qilmay va kerakli miqdorda pul bilan ta'minlab turishga qaratiladi. Davlat budjeti balanslashgan bo'lishi, ya'ni daromadlarga qarab xarajatlar qilinishi zarur bo'ladi. Budjet siyosati shundan kelib chiqqan holda budjet defitsitiga yo'l bermaslikni, defitsit yuz bergan taqdirda ham, bu me'yorida

bo'lishiga qaratiladi. Budget siyosati ichki va tashqi qarzni ham me'yorida bo'lishini ta'minlashi zarur.

Fiskal siyosat ikki xil bo'ladi. *Faol fiskal siyosat.* Bu qo'llanilganda diskretion vositalar ishga solinadi, masalan, soliqlar kamaytiriladi, ulardan saylangan tarzda bo'lsa-da siylovlar beriladi, budgetdan transfertlar berish ko'paytiriladi, firmalar subsidiyalar oladi. Bularning hammasi iqtisodiy faollikka olib keladi. Firmalar xarajati qisqarib foydasi ortadi, aholining transfertlar hisobidan xarid qobiliyati oshadi. Xullas, bu siyosat firmalar va xonadonlar talabini oshiradi. Mana shunday yo'l ko'p hollarda iqtisodiyot qiyinchilikdan chiqib o'zini o'nglab olishi uchun qo'llaniladi.

Nofaol fiskal siyosat. Bu siyosat moliyaviy stabilizatorlarni o'zgartirmay, ularning erkin ishlashiga yo'l berishga qaratiladi, chunki bozor mexanizmi yaxshi ishlab turgan bo'ladi. Iqtisodiyotning uzilishlarsiz yuksalib borishi tufayli moliya vositalarini o'zgartirishga hojat qolmaydi. Demak, bu siyosat iqtisodiy o'sish to'xtovsiz borayotgan kezlarda ish beradi.

Investitsiya siyosati. Bu investitsiya resurslarini shakllantirish va ularning kerakli sohalarga yuborilishini ta'minlashga qaratilgan siyosatidir. Bu siyosat investitsion faollikni oshirishga yoki kamaytirishga qaratiladi. Bu davlatning struktura (ishlab chiqarish tarkibini o'zgartirish) siyosati bilan bog'liq, bu esa ishlab chiqarishning eski sohalarni cheklab, yangi, masalan, eksportga mo'ljallangan sohalarni o'stirishni bildiradi.

Investitsiya siyosatiga ko'ra yangi istiqbolli sohalarga investitsiya qilingan foydadan umuman soliq olinmaydi yoki qisqartirilgan miqdorda olinadi. Yangi sohalardagi mol-mulkdan soliq olinmagan holda eski sohalardagi mol-mulkdan soliq ko'proq olinadi. Bu bilan yangi sohalarning jadal o'sishi rag'batlantiradi, eski sohalarda esa rag'batlantirilmaydi.

Investitsiya siyosati texnika taraqqiyotini ham jadallashtiradi. Yangi texnologiyalarga pulni investitsiyalayotgan firmalarga subsidiyalar ajratiladi, soliqdan yengilliklar beriladi. Bu siyosat firmalarga tushadigan investitsiya yukini kamaytirishni ham ko'zlaydi. Shu maqsadda bir qator serkapital, binobarin, katta investitsiyalarni talab qiluvchi va investitsiyalar o'zini tezda oqlamaydigan sohalarni moliyalashtirishni davlat o'z zimmasiga oladi. Bu bilan firmalar investitsiyasining serfoйда ishlarga yuborilishiga ko'mak beriladi.

Bozor qoidalariga binoan investitsiyalarni serfoйда sohalarga yuborilishi davom etadi. Biroq davlat xususiy investitsiyalarni

umumiqtisodiy ahamiyatga molik sohalarga yuborilishini o'z qo'lidagi moliya-kredit vositalari bilan rag'batlantiradi.

Agrar siyosat. Bu davlatning qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatidir. Mazkur siyosat qishloq xo'jaligining barqaror o'sishini, oziq-ovqat mustaqilligi va xavfsizligini ta'minlashni ko'zlaydi. Uning doirasida davlat qishloqdagi ishlab chiqarish infratuzilmasining (suv xo'jaligi, yo'l qurilishi, gaz va elektr energiyasi ta'minotining) xarajatlarini qisman o'z zimmasiga oladi, davlat yerni ijaraga olib ishlatilishini, yerni garovga qo'yib kredit olishni huquqiy jihatdan ta'minlaydi. Agrar siyosatda (yer davlatniki bo'lgan joyda) davlatning xarid narxlari, davlat subsidiyalari kabi vositalar qo'llaniladi. Dehqonlarni qo'llab turish uchun yer solig'i yengil qilib belgilanadi. Qishloq xo'jaligida rentabellik past bo'lganidan kapitalni u yerdan chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun davlat fermerlarga subsidiya berib turadi, uning hisobidan xarajatlar qisman qoplanib fermerlar me'yordagi daromadga ega bo'lishadi va qishloq xo'jaligini tark etmaydilar. Fermerlarni rag'batlantirish uchun davlat qishloq xo'jaligi mahsulotini ulardan kelishilgan narxlarda sotib oladi. Davlat narxlari bozor narxlariga yaqin turadi, ularga binoan mahsulotni davlatga sotish fermerlar uchun qulay bo'ladi, chunki davlat xaridi mahsulotlarning sotilishini va kanda qilmay daromad olinishini kafolatlaydi.

Tashqi iqtisodiy siyosat. Bu davlatning o'zaro foydali tashqi aloqalarini rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotini jahon xo'jaligi bilan integratsiyalashuvini ta'minlashga qaratilgan siyosatidir. Bu siyosatning asosiy maqsadi milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligidagi mavqeini mustahkamlashdir. Unga binoan eksport va import, chetga kapital chiqarish va chetdan kapital kiritish, ish kuchi migratsiyasiga doir tadbirlar amalga oshiriladi. Bu siyosatda bojxona to'lovlari, eksport-import litsenziyalari va kvotalari kabi vositalar qo'llaniladi. Aytilgan vositalar iqtisodiy chegara hosil etib, milliy iqtisodiyotni himoya qiladi. Eksportni ko'paytirish zarur bo'lsa, unga litsenziyalar (ruxsatnoma) beriladi, eksport kvotasi oshiriladi. Bordi-yu importni qisqartirish ma'qul bo'lsa, uning kvotasi kamaytiriladi, import uchun boj to'lovi oshiriladi, importga litsenziya berish chegaralanadi.

Davlat siyosati kapital chiqarish va kiritish tartibini ham belgilaydi. Kapital kiritish zarur bo'lsa, bu ish rag'batlantiriladi. Kapital chiqishi ma'qul bo'lsa, davlat bunga sharoit yaratib beradi. Chet elga ish kuchini chiqarish uchun ham yordam beriladi. Bordi-yu mamlakatga arzon ish kuchi kerak bo'lsa, uning chetdan oqib kelishi uchun migratsiya qoidalari

(chegaradan o'tish, yashash va ishlash uchun ruxsat olish va h.k.) yengillashtiriladi. Davlat siyosati xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilishni ham mo'ljallaydi.

Davlat iqtisodiy siyosatining samaradorligi uning monitoringi orqali aniqlanadi. Bunda iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflatsiya darajasi, eksport va import holati, tashqi qarz miqdori, budjet defitsiti kabi ko'rsatkichlarga qarab iqtisodiy siyosat natijasi baholanadi.

Iqtisodiy siyosat doirasida davlatning turli dasturlari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Dasturlarda ko'zlangan maqsad, amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, ulardan kutiladigan natijalar, ularni moliyalashtirish manbalari aniqlanadi. Dasturlar milliy iqtisodiyot uchun ustuvor bo'lgan muammolarni hal etishga qaratiladi. Bular jumlasiga tanglikdan chiqish, oziq-ovqat, energiya ta'minoti, texnologiyalarni yangilash, infratuzilmalarni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, qoloq hududlarni rivojlantirish kabi dasturlar kiradi. Dasturlarda belgilangan muammolarning hal etilishi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishga turtki beradi.

Tayanch tushunchalar:

Iqtisodiyot, iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy kategoriyalar, iqtisodiy qonunlar, fanning predmeti, fanning vazifalari, fanning maqsadi, tahlil uslublari, tadqiqot metodologiyasi, iqtisodiy siyosat, iqtisodiy ustuvorlik g'oyasi.

Savol va topshiriqlar:

1. Keynschilar nazariyasida ishsizlik va inflatsiyaning oshishi qanday talqin qilingan?
2. Keynschilar nazariyasidagi multiplikator va akselerator g'oyalarining mohiyatini tushuntiring.
3. Nima uchun keynschilar davlatning iqtisodiyotga aralashuviga alohida e'tibor berishadi?
4. Monetarizm nazariyasida pulga qanday ahamiyat beriladi?
5. Ijtimoiy bozor xo'jaligi nazariyasida iqtisodiyotning ijtimoiyligi qanday izohlanadi?
6. Nima uchun jamiyatning iqtisodiy faoliyati iqtisodiy insonlar faoliyatining majmui deyiladi?
7. Iqtisodiyot kishilik hayotining birlamchi asosi ekanligini izohlang.
8. Iqtisodiy qonunlarni bilish mumkinmi?
9. Iqtisodiyot va huquqning aloqadorligini tushuntirib bering.
10. Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish yo'llari qanday?

Mavzuni chuqur o‘rganish instrumentariysi

Iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasi jamiyat ehtiyojlarining cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligidir.

Iqtisodiyot – turli-tuman iqtisodiy faoliyatlarni, ishlab chiqarishning muayyan usulini hamda infratuzilmaviy muassasalarini yaxlit qilib birlashtiruvchi iqtisodiy tizim.

Iqtisodiy faoliyat – insonlarning moddiy va ma’naviy ne’matlarini ishlab chiqarish, iste’molchiga yetkazib berish hamda xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan, bir-biriga bog‘liqlikda amalga oshiriladigan faoliyatlar.

Iqtisodiy dastaklar – jamiyatning xo‘jalik yuritish mexanizmida amal qiluvchi iqtisodiy vositalar, xo‘jalik amaliyotidagi iqtisodiy ko‘rinishlar. Bozor iqtisodiyotida ular jumlasiga narx, tannarx, foyda, daromad, sof daromad, zarar, dotatsiya, kompensatsiya, soliq, boj puli, qarz, foiz, ish haqi va boshqalar kiradi.

Institutsional iqtisodiy nazariya (institutsionalizm) – iqtisodiy faoliyat jarayonida insonning takror ishlab chiqarish munosabatlari tizimini tartibga soluvchi institutlarning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari to‘g‘risidagi fan; rasmiy va norasmiy institutlar o‘rtasidagi ziddiyat ushbu nazariya doirasida asosiy hisoblanadi.

Fan – insonning obyektiv voqelik rivojlanishining qonuniyatlari va yo‘llari to‘g‘risidagi bilimlari tizimi yoxud bunday bilimlarning alohida tarmog‘i; unga yangi bilimlar ishlab chiqarish borasidagi faoliyat ham, ushbu faoliyatning natijasi, ya’ni dunyoning ilmiy manzarasi ifodalovchi axborotning muayyan hajmi va bilimlar majmui ham kiradi.

Noiqtisodiy nazariya – intellektual ne’matlarni takror ishlab chiqarish sohasida xo‘jalik agentlari o‘rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar ijtimoiy shakllarining rivojlanish qonunlarini o‘rganuvchi fan.

Iqtisodiy fan obyekti – insonga zarur bo‘lgan ne’matlarni yaratish va ulardan foydalanish borasidagi inson faoliyatining butun sohasi.

Iqtisodiy nazariyaning obyekti – turli iqtisodiy jarayonlarga xos bo‘lgan eng muhim, qonuniy aloqalar.

Funksional va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar o‘rtasidagi asosiy ziddiyat – yaratuvchi kuchlar bilan takror ishlab chiqarish munosabatlari o‘rtasidagi ziddiyat.

Iqtisodiy nazariya predmetining asosiy ziddiyati – ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning muayyan ijtimoiy shakli bilan ijtimoiy yaratuvchi kuchlar rivojlanishining mavjud talablari o‘rtasidagi ziddiyat.

Inson taraqqiyotning asosiy iqtisodiy qonuni – iqtisodiy munosabatlar ijtimoiy shakllarining yaratuvchi kapital va insonning yaratuvchi kuchlarining rivojlanish ehtiyojlariga muvofiqligi qonuni.

Iqtisodiy fan mavzui (predmeti) – oqilona iqtisodiy tanlov sharoitida amalga oshiriladigan hamda iste'mol bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi ziddiyatni aks ettiradigan yuqori samarali xo'jalik yuritish.

Iqtisodiy nazariyaning predmet sohasi – amalga oshirilish jarayonida iqtisodiy qonunlar namoyon bo'ladigan inson faoliyati.

Ijtimoiy-iqtisodiy nazariya (siyosiy iqtisod) – iqtisodiy ne'matlarning harakatlanishi jarayonida xo'jalik yurituvchi agentlar o'rtasida yuzaga keladigan ishlab chiqarish munosabatlari to'g'risidagi fan; ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi ziddiyat ushbu nazariyaning predmeti doirasida asosiy ziddiyat hisoblanadi.

Iqtisodiy nazariya predmetining mohiyati takror ishlab chiqarish munosabatlarining ijtimoiy shakli bilan mazkur munosabatlar ifoda etadigan yaratuvchilik faoliyatining mazmuni o'rtasidagi uzviy birlikdan iborat.

Nazariya – dunyoning ilmiy manzarasini bilishning oliy shakli, voqelikning qonuniyatlari va muhim aloqalari haqida yaxlit tasavvur hosil qiluvchi bilishning u yoki bu tarmog'idagi eng umumiy asosiy g'oyalar tizimi.

Funksional iqtisodiy nazariya («asosiy oqim», Economics) – insonning cheklangan ne'matlar olamidagi xatti-harakatining qonuniyatlari to'g'risidagi fan; o'sib boruvchi ehtiyojlar bilan cheklangan ne'matlar o'rtasidagi ziddiyat ushbu nazariya predmeti doirasida asosiy hisoblanadi.

Iqtisodiy nazariya – hayotiy ne'matlarni takror ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy agentlar o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadigan asosiy (fundamental) fan.

Mavhumlashtirish – tadqiqot tafakkurini ko'rib chiqilayotgan predmetning nomuhim, ikkinchi darajali deb hisoblanuvchi tomonlaridan ajratish orqali iqtisodiy hodisalarni atayin soddalashtirish.

Iqtisodiy nazariyadagi tahlil – ko'rib chiqilayotgan iqtisodiy hodisani yoxud uning alohida bo'g'inlarini fikran tarkibiy qismlarga ajratish va alohida-alohida tadqiq etish.

Analogiya – xossalarni ma'lum noiqtisodiy hodisadan tadqiq etilayotgan iqtisodiy hodisaga ko'chirishni nazarda tutuvchi bilish usuli.

Tadqiqotning dialektik usuli – u yoki bu iqtisodiy jarayonning ichki yoki «mohiyatiga oid» ziddiyatlarni aniqlash va tahlil qilishga asoslangan usul.

Qonun – zaruriy, muhim (ichki), barqaror, takrorlanuvchi munosabat, mohiyat, ya'ni u yoki bu hodisaning sifat muayyanligi.

Induksiya – faktlar asosida chiqarilgan, ko'pincha isbotlashni talab qiladigan muayyan gipoteza yoki umumiy fikrga olib boruvchi xulosalash.

Metod – muayyan bilish maqsadiga erishishni ta'minlovchi tadqiqot yo'li, harakat usuli yoki tarzi.

Deduksiya metodi («keltirib chiqarish» metodi) – umumiy xulosalardan va ilgari isbotlangan gipotezalardan xususiy va yakka hukmlarga o'tish.

Induksiya metodi («olib borish» metodi) – xo‘jalik voqeligining yakka faktlarini o‘rganishdan umumiy qoidalar va xulosalarga o‘tish.

Ilmiy abstraksiya (mavhumlashtirish) **metodi** – iqtisodiy hodisalarni ko‘rib chiqishda mavhumlashtirishga asoslangan tadqiqot usuli.

Chuqur tahlil metodi – xo‘jalik yurituvchi agentlarning iqtisodiy xatti-harakati qonuniyatlarini u yoki bu iqtisodiy o‘zgaruvchilar (daromad, xarajat, foydalilik kabilar)ni bir xilda orttirish (qo‘shimchalar kiritish) oqibatlarini tahlil qilish yordamida aniqlash usuli.

Iqtisodiy nazariyaning metodologik funksiyasi – amaliy-iqtisodiy fanlar uchun instrumental asos funksiyasi.

Metodologiya – tadqiqotning eng umumiy qoidalari va qonunlarini qamrab oladigan umumiy metodlar majmui.

Fan metodologiyasi – ilmiy bilish prinsiplarni, shuningdek tadqiqot faoliyatining tizimi va mantiqiy tashkil qilinishini aks ettiruvchi nazariya va ta’limotlar.

Sifat jihatdan tadqiq etish metodlari – iqtisodiy hodisalarning mohiyatiga kirib borish bilan bog‘liq bo‘lgan va falsafiy tafakkur yuritish, iqtisodiy voqelikning faktlarini umumlashtira olishni talab etuvchi usullar.

Miqdor jihatdan tadqiq etish metodlari – faktlarga oid materialni iqtisodiy hodisalarni o‘lchash, qiyoslash va solishtirish maqsadida ishlash usullari va vositalarining majmui.

Iqtisodiy nazariya metodlari – iqtisodi voqelikni tadqiq etishning umumiy (metodologiya) va juz‘iy usullari tizimi.

Umumiy metodlar – voqelik hodisalarini tadqiq etish borasidagi muayyan prinsiplar va yondashuvlar.

Iqtisodiy qonunlarning ochiq tizimlari – muayyan iqtisodiy tizim ichidagi barqaror va takrorlanuvchi aloqalarni izlash va topish bilan bog‘liq tadqiqot jarayoni.

Tadqiqotning pozitivistik (neopozitivistik, postpozitivistik) metodi – iqtisodiyotning faoliyat ko‘rsatishidagi tashqi shart-sharoitlar va omillarni tavsiflovchi xususiyatlar tizimini ifodalovchi usul.

Iqtisodiy nazariyaning bilish funksiyasi – iqtisodiy rivojlanishning obyektiv qonunlarini bilish funksiyasi.

Iqtisodiy nazariyaning o‘zgartirish funksiyasi – xo‘jalik yuritish sohasidagi o‘zaro munosabatlarning butun tizimini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi an’anaviy institutlarni ilmiy asoslangan holda qo‘llash va yangilarini yaratish funksiyasi.

Iqtisodiy nazariyaning bashoratlash funksiyasi – iqtisodiy manfaatlarni maqbullashtirish (optimallashtirish) istiqbollarini ilmiy asoslash.

Iqtisodiy nazariyadagi sintez – tahlil (analiz) natijasida olingan bilimlarni keyingi umumlashtirishlar va xulosalar bilan fikran birlashtirish.

Tizimli tahlil – muayyan obyektning «parchalangan» tuzilishini ham, yaxlit obyektning o‘zini ham bir vaqtda tadqiq etishga imkon beruvchi usul va vositalar majmui.

Tadqiqotning tizimli metodi – iqtisodiy munosabatlar va o‘zaro munosabatlarning ham ichki, ham tashqi ziddiyatlarini aniqlash va tahlil qilishga asoslangan usul; tizimli metodning obyektiv asosini yaxlit iqtisodiy tizim tashkil qiladi.

Statistika – ommaviy hodisalar va jarayonlarning miqdor ko‘rsatkichlarini ularning sifat jihatlari bilan chambarchas aloqada to‘plash usullarini o‘rganuvchi fan.

Tadqiqotning strukturalistik metodi – u yoki bu iqtisodiy jarayonning ichki tuzilishini aniqlash va tahlil qilishga asoslangan usul.

Tadqiqotning subyektivistik metodi – vositalari, bir tomondan, firma, davlat kabilarga o‘xshash iqtisodiy subyektning emas, balki aniq shaxsning iqtisodiy xatti-harakati qonuniyatlari bilan bog‘langan, boshqa tomondan ularni aniqlashga qaratilgan usul.

Iqtisodiy nazariyaning juz‘iy metodlari – iqtisodiy hodisalarni tadqiq etishning aniq va lokal vositalari, usul va yo‘llari majmui.

Iqtisodiy modellar – turli iqtisodiy kattaliklarning miqdoriy baho berish mumkin bo‘lgan o‘zaro aloqalarini soddalashtirib (chizmalar, grafiklar va shu kabilar orqali) tasvirlash.

Iqtisodiy manfaat – iqtisodiy subyektning muayyan ehtiyojini qondirishning u yoki bu ko‘rinishda ifodalangan intilishi.

Iqtisodiyot va iqtisodiy nazariyaning insonparvarlashuvi – iqtisodiyotning obyektiv voqelik sifatida «insoniylashuvi»dan iborat obyektiv jarayon hamda bu jarayonning nazariyada subyektiv aks etishi; insonning takror ishlab chiqarishning kritik omiliga aylanish jarayoni.

Iqtisodiy nazariyaning gumanistik mazmuni – ushbu nazariyada xo‘jalik yuritish umumiy tizimida insonning tutgan o‘rni va roli bilan bog‘liq masalalar va muammolarning aks ettirilishi.

Ideal axborot – to‘plangan va ishlab chiqariladigan yangi insoniy bilimlar shaklida mavjud bo‘lgan axborot.

Ishlab chiqarishning kritik omili – ishlab chiqarishning milliy yaratuvchi kapital doirasidagi asosiy, hal qiluvchi omili.

Metodologik individualizm – cheklangan ne‘matlarni iste‘mol qilishdan olinadigan foydani eng ko‘p darajaga yetkazish maqsadida ulardan eng oqilona foydalanishga intiluvchi ijtimoiy neytral «atomistik» individ xatti-harakatlarining qonuniyatlarini aniqlaydigan tadqiqot konsepsiyasi.

Buyumlashgan axborot – ashyoviy kapitalda va boshqa moddiy obyektlarda bo‘ladigan axborot.

Postindustrial iqtisodiyot – bilimlarning tabiiy kapitalning saqlanishini ta'minlovchi darajasiga asoslangan takror ishlab chiqarishning noosfera tipidagi iqtisodiyot.

Insonning rivojlanishi – shaxsning muayyan individual, ijtimoiy-guruhiy va ijtimoiy qadriyatlar doirasidagi faoliyati davomida uning miqdor va sifat o'zgarishlari bilan kechadigan uzluksiz jarayon.

Iqtisodiy «antropotsentrizm» – insonning butun iqtisodiy faoliyat markaziga chiqishidan iborat obyektiv jarayon bo'lib, bunda ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadi, insoniyatni rivojlantirish maqsadi bilan aynanlashtiriladi: iqtisodiyotning insonparvarlashuvi takror ishlab chiqarish jarayonining ichki xususiyatiga aylanadi.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. Iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasi jamiyat ehtiyojlarining cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligidir.

2. *Iqtisodiyot nazariyasi* iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyat a'zolarining yuksalib borayotgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni, xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni, samarali xo'jalik yuritish qonun-qoidalarini o'rgatadi.

3. Iqtisodiyot nazariyasi o'z predmetini o'rganishda obyektiv qonun va kategoriyalarni qo'llaydi. Bular umumiqtisodiy va ayrim tizimlarga xos bo'ladi. Iqtisodiyot nazariyasi fani jamiyat ahliga iqtisodiy hodisalarni idrok etish, kishilarga iqtisodiy bilim berish, jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining umumiy asoslarini shuningdek iqtisodiy siyosatga oid amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

4. Ushbu fan bilish, iqtisodiy fanlar uchun nazariy asos hamda amaliyot uchun ilmiy baza bo'lib xizmat qiladi.

5. Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiyotning asosiy muammosi bo'lgan iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning yuksalib borayotgan ehtiyojlarini qanday qilib mukammalroq qondirib borish mumkinligi to'g'risidagi masalaning yechimini hal etishning nazariy jihatlarini tadqiq qiladi.

2-MAVZU. IJTIMOIIY-IQTISODIY TIZIMLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

1. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimning mohiyati va belgilari

Iqtisodiyot ijtimoiy hayotning birlamchi bo'g'ini hisoblanadi. Kishilarning faoliyati ijtimoiy hayotda kechadi. Jamiyat bir-biriga bog'liq o'ziga xos ichki tuzilishga ega.

Tizim – bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, uni tashkil etuvchi, bir-birini taqozo etib, o'zaro ta'sir o'tkazuvchi unsurlarning majmui bo'lib, bunda unsurlar birgalikda amal qiladi, natijada ayrim unsurlarga xos bo'lmagan umumiy xususiyatlar paydo bo'ladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim – bu iqtisodiyot taraqqiyotining umumiy shart-sharoitidir.

Iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi – ijtimoiy-iqtisodiy o'zaro munosabatlarning barcha shakl va turlari birligi bo'lib, ularning asosiysi mulkchilik tizimidir. Shu bois ham mulk masalasini hal qilishga Prezident Islom Karimov tomonidan mustaqillikka qadar (1989–1991) va mustaqillikning dastlabki yillari muhim ahamiyat berildi. Istiqlol yillarida mulkchilikning tuzilishida tub o'zgarishlar ro'y berdi, ko'pukladli iqtisodiyot amalda shakllanib, uning tarkibida xususiy mulk ustuvor rivojlandi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotida nafaqat hal qiluvchi o'rin egalladi, ayni vaqtda bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, odamlarning daromadlari va farovonligi oshib borishining asosiy manbaiga, aholi bandligi o'sishining eng muhim omiliga aylandi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim – bu iqtisodiyot taraqqiyotining umumiy shart-sharoitidir. Iqtisodiy faoliyat har doim muayyan tizimlar doirasida kechadi. Bulardan har birining o'z xususiyatlari bo'ladi. Bular orasidagi ilk bor shakllangan eng muhim tizim – bu an'anaviy tizimdir.

An'anaviy tizim. Insonning iqtisodiy faoliyati dastlab mana shu tizimda yuz bergan. Uning alomatlari sarqit sifatida uzoq saqlanadi, hatto hozir ham onda-sonda uchrab turadi.

An'anaviy iqtisodiyot – bu o'ta zaif kuch omillariga tayangan, kam unumli natural ishlab chiqarishga, an'analar shakliga kirgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga asoslangan iqtisodiyotdir.

An'anaviy tizim dastlab jamiyat mulki, so'ngra esa individual xususiy mulkka tayanadi.

Jamoa mulki – bu qon-qarindoshchilik asosida birlashgan yoki yagona hududda yashovchi kishilarning umumiy mulki hisoblanadi.

An'anaviy tizimga natural kuch xos bo'ladi, bunda mahsulotlar onda-sonda sotiladi yoki barter qilinadi (almashtiriladi).

Natural xo'jalik – bunda mahsulot ishlab chiqaruvchilarning o'z iste'molini qondirish va ichki xo'jalik ehtiyojlari uchun ishlab chiqariladi. Bu an'anaviy tizim o'rniga keluvchi yangi tizimdir. U bir qator belgilari bilan o'tmishdoshlaridan ajralib turadi.

Bozor iqtisodiyoti – bu mukammal ishlab chiqarish omillariga ega bo'lgan, tovar-pul munosabatlariga asoslangan, aniq ijtimoiy mo'ljali bor, bozor signallariga binoan va pul vositasida bajarilib turuvchi iqtisodiyotdir. Bozor tizimi xilma-xil mulkchilikka asoslanadi, ammo xususiy mulkchilik ustuvorlik qiladi. Bundan tashqari jamoa va davlat mulki ham amal qiladi.

Totalitar-rejali tizim. Bu tizim bozor iqtisodiyoti rivojlanishini zudlik bilan, ya'ni revolyutsion tarzda to'xtatib qolish va uni majburan rejalashtirish yo'liga o'tkazish orqali yuzaga keladi.

Totalitar-rejali iqtisodiyot – bu davlatlashtirilgan, ijtimoiy mulkka tayangan, bir markazdan turib, rejalashtirishga va boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullariga asoslangan iqtisodiyotdir.

Bu tizimga iqtisodiyotning hamma jabhalarini ham resurslar, ham mahsulot, ham xizmatlarga davlatlashtirish xosdir. Bu yerda barcha moddiy resurslar davlat mulkiga aylantiriladi, hatto unga kirmay qolgan boshqa mulkka oid resurslar ham amalda davlat ixtiyorida bo'ladi. Davlat mulki monopoliyasining o'rnatilishi natijasida iqtisodiyot ham davlatlashtiriladi. Resurslar va tayyor mahsulotlar narxini ham davlat yuqoridan belgilab beradi, narxlar qat'iy bo'lib, uni hech kim o'zgartira olmaydi.

O'zbekiston erishgan yutuq va marralarni xolis va munosib baholash uchun avvalambor barchamiz mustaqillikning dastlabki yillarida qanday murakkab vaziyat bo'lganini esga olishimiz o'ta zarur. Bu holat Islom Karimovning «*O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida*» kitobida batafsil yoritilib, unda: «Markazlashtirilgan rejalashtirish va taqsimlash mexanizmi asosida faoliyat ko'rsatgan butun sovet tizimiga xos bo'lgan illatlar bilan bir qatorda, respublikamiz iqtisodiyotining bir yoqlama rivojlanib, faqat xom ashyo yetkazib berishga yo'naltirilgani, iqtisodiyot, ekologiya va aholi genofondiga halokatli ta'sir ko'rsatgan to'la va mutlaq paxta yakkaxokimligi yurtimizdagi vaziyatni jar yoqasiga olib kelib qo'ygan edi.

Buning oqibatida, ulkan tabiiy, mineral xom ashyo, mehnat va inson salohiyatiga ega bo'lishiga qaramasdan, respublikamiz sobiq SSSRda aholi turmush darajasi, ijtimoiy va gumanitar sohalar rivoji bo'yicha oxirgi o'rinlardan birida turar edi. SSSR parchalanib ketganidan keyin vujudga kelgan sharoitda iqtisodiyotning fojiali ravishda inqirozga yuz tutishi, inflatsiyaning o'ta keskin o'sishini jilovlash, ilgari qaror topgan xo'jalik, ishlab chiqarish va moliyaviy aloqalarning butunlay izdan chiqib ketishi oqibatlariga barham berish, ishsizlikning yanada avj olishiga yo'l qo'ymaslik favqulodda muhim ahamiyat kasb etganligi haqida ma'lumotlar olish mumkin», – deya ta'kidlangan.

O'zbekiston Islom Karimov rahnamoligida mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab umrini o'tab bo'lgan eski mustabid sovet tizimidan voz kechib, jahon tajribasini har tomonlama puxta o'rganish, umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglash, milliy urf-odat va an'analarimizni asrab-avaylash va yanada mustahkamlash asosida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etishga qaror qildi.

Inson taraqqiyoti to'xtovsiz bo'lganidan tizimlar ham rivojlanadi. Ular kelib-ketib turadi. Tizimlar taraqqiyoti tabiiy tarixiy jarayondir. Tizimlar rivojlanishida ularning o'rin almashuvi yuz beradi. Bir tizimning rivojlanish imkoniyatlari tugallangach, boshqa tizimga o'tiladi.

Tizimlarning o'rin almashuvi iqtisodiy zarurat bo'lganda yuz beradi. Bir tizim salohiyati tugallangach, boshqa salohiyatli iqtisodiy tizimga o'tiladi.

Tizimlar baholanganda, moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy va g'oyaviy sharoit birgalikda qaraladi. Bunda nimaning qanday usullar bilan ishlab chiqarilishi aniq bo'ladi.

Moddiy shart-sharoit belgilari – bu yaratilgan mahsulot va xizmatlarning qanday bo'lishi, ya'ni ularning natural mahsulot yoki tovar mahsuloti bo'lishi, ularning tarkibiy tuzilishining qandayligi, moddiy shakldagi yoki nomoddiy xizmat shaklida bo'lishidan iboratdir. Tizimlar belgilarini aniqlashda ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy insoniy omilining sifatli tavsiflari ham ahamiyatlidir (resurslar, kapital, ish kuchi malakasi va ma'naviyati, kasbiy mahorat, texnologiya, innovatsiya va h.k.). Barcha tizimlar mehnat taqsimotiga asoslanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar tafsilotida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning mazmuni ham muhim mezon rolini o'taydi.

Tizimlar iqtisodiyotni boshqarish usullari bilan ham tavsiflanadi. Bir yerda boshqarishning iqtisodiy zo'rlash mexanizmi bo'lsa, boshqa yerda

guruhiy manfaatga intilish yoki individual manfaatlarni yuzaga chiqarish, ya'ni iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmi amal qiladi, yana boshqa yerda mehnatga siyosiy-g'oyaviy undash, moddiy emas, balki ma'naviy-ruhiy rag'batlarga urg'u beriladi.

Tizim deganda uning tarkibida noiqtisodiy munosabatlarni, xususan, mafkuraviy munosabatlarni ham hisobga olish zarurki, ular siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy va boshqa shakllarga ega bo'ladi. Ammo ularning har birida iqtisodiyotning muhri bor. Turli tizimning o'z iqtisodiyotiga mos ravishda o'z dunyoqarashi mavjud bo'ladi. G'oyasiz odam bo'lmaydi, u ma'lum g'oyaga rioya qilib ish tutadi. Demak, mafkurasiz tizim bo'lmaydi. Bir tizimda mustabidlik va zo'rlik g'oyasi bo'lsa, boshqasida erkinlik va demokratiya, yana boshqasida davlatga tobelik va itoatkorlik g'oyasi ustuvor bo'ladi. Mashhur ingliz iqtisodchisi M. Keyns aytganidek, dunyoni iqtisodchilar va siyosatchilar g'oyasi boshqarib turadi. G'oya e'tiqodning o'zi bilan cheklanmay, ma'lum xatti-harakatlarni keltirib chiqaradi. Iqtisodiy siyosat ham tizimga kiradi. Bu iqtisodiy sohadagi yo'l-yo'riq va chora-tadbirlar majmuasi bo'lib, ma'lum maqsadni ko'zlaydi. Ular iqtisodiyotga ta'sir etish vositasi hisoblanadi. Iqtisodiy siyosatni davlat yoki ayrim mulk sohiblari yuritadilar. Bundan umumdavlat manfaati, individual yoki guruhiy manfaat ko'zlanadi. Demak, tizimlarning qiyofasini bir qator belgilar shakllantiradiki, bular moddiy-ashyoviy, shaxsiy-insoniy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-g'oyaviy belgilardir. Bulardan eng asosiysi ijtimoiy-iqtisodiy belgilardir. Ammo boshqa belgilarni ham nazardan qochirib bo'lmaydi, chunki ular ham iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etadi. Shu sababli tizimlar asosida iqtisodiyot yotsa-da, ularni sof iqtisodiy holda emas, balki boshqa belgilar bilan ham tavsiflash zarur.

2. Iqtisodiy tizimda insonning o'rni

Insonning roli va mavjudligi uning ishlab chiqaruvchi kuchlar omili hamda ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy munosabatlarning subyekti ekanligi bilan belgilanadi. Bunda shunga e'tibor berish kerakki, ishlab chiqaruvchi kuchlar moddiy buyum va shaxsiy omillarining o'zaro aloqador dialektik birligini ifodalaydi, bu ziddiyatli birlikdir. Buning ma'nosi shundan iboratki, faqat inson ishlab chiqarish vositalarini yaratadi, uni jonlantiradi va shu bilan ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi kuchlarning elementiga aylantiradi. Bundan ko'rinadiki, inson – ishlab chiqaruvchi kuchlarning omili sifatida uning ikkinchi qismi

hisoblangan ishlab chiqarish vositalarini yaratib, ishlab chiqaruvchi kuchlarni to‘liq ma’noda vujudga keltiradi. Shuning uchun ham ish kuchi – jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining omiligina emas, balki asosiy ishlab chiqaruvchi kuchdir. Uning rivojlanish darajasiga ko‘ra inson kerakli ishlab chiqarish vositalarini yaratadi va undan foydalanish yo‘l-yo‘riqlarini aniqlab beradi. Bu esa ishlab chiqarish shaxsiy va moddiy omillarining jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari tizimidagi o‘zaro aloqadorligining umumiy yo‘nalishini ifodalaydi. Shu bilan birga, bir muayyan davr uchun ish kuchining xarakteristikasi bu davr qo‘llaniladigan ishlab chiqarish vositalarining holati va o‘zlashtirilgan texnologiyalar bilan aniqlanadi. Bu orqali esa ishlab chiqarish omillarining muvofiqligi haqidagi umumiy iqtisodiy qonunning mohiyati namoyon bo‘ladi.

Ishlab chiqarish omillarining muvofiqligi, o‘z tabiatiga ko‘ra, miqdoriy emas, balki dinamik xarakterda bo‘ladi. Bu dinamika hech qachon ishlab chiqarishning bitta omiliga qarab belgilanmaydi. Buni quyidagicha tushunish kerak bo‘ladi: yangi ishlab chiqarish vositalari va texnologiya o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi. Uni inson yaratadi. Ammo, shu bilan birga, bu yangi ishlab chiqarish vositalari va texnologiya ishlab chiqarishda qo‘llanilishi bilanoq ishlab chiqaruvchi kuchlarning ichki rivojiga ta’sir etuvchi asosiy kuch bo‘lib qoladi, chunki u (yangi ishlab chiqarish vositalari va texnologiya), ya’ni ish kuchini yangi talablar darajasiga javob bera oladigan o‘z holatiga mos holda o‘zgarishga undaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mehnat vositalari va ayniqsa, mehnat qurollari ishlab chiqaruvchi kuchlarning nisbatan inqilobiy qismi deb aytish mumkin bo‘ladi.

Inson – ijtimoiy munosabatlarning hammasini: iqtisodiy va siyosiy, milliy va oilaviy, g‘oyaviy va ruhiy munosabatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bu xilma-xil ijtimoiy munosabatlarsiz insonni tushunish mushkul. Chunki, jamiyatda hamma narsa inson tufayli sodir bo‘ladi va unga xizmat qiladi. Agar inson tashqaridan keladigan qarorlarning faqat bajaruvchisi bo‘lsa, u mehnatga ijodiy yondasha olmaydi. Shuningdek, agar ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida undan faol faoliyat talab qilinmasa, u bevosita ishlab chiqarish jarayonida ham faol faoliyat ko‘rsata olmaydi. Shuning uchun ham insonning ishlab chiqarishdagi faol rolini pasaytirish, tobora mukammallashayotgan va insonga bog‘liq bo‘lmay qolayotgan texnikaga uning bo‘ysunishi haqidagi texnokratik qarashlarni sindirib, yo‘q qilib tashlash – fan-texnika va umuman ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtirishning muhim sharti

hisoblanadi. Hozirgi ishlab chiqarish sharoitida inson o‘z bilimi va kasb malakasini har tomonlama oshirmasdan hamda mustahkamlamasdan turib, samarali tarzda ish yurita olmaydi. Shunday qilib, yuqorida aytilganlardan shu narsa ravshan bo‘ladiki, mehnat ahlining sifat darajasiga qo‘yiladigan talablarning o‘sishi – uning ijtimoiy ko‘lamda takomillashuvi – ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishining yana bir umumiy qonunidir.

Iqtisodiyotning darajalari, shakllari qanday bo‘lishidan qat’i nazar, ularning hammasi bir maqsadga bo‘ysundiriladi, u ham bo‘lsa, insoniyatning yashashi, ko‘payishi va kamol topishi uchun shart-sharoit yaratib berish, ehtiyojlarini qondirib berishdan iborat. Shunday ekan, iqtisodiyot inson hayotining asosini, uning poydevorini tashkil etib, uning o‘zi ham insonsiz, uning faoliyatisiz mavjud bo‘lmaydi va hech qanday mazmun kasb etmaydi.

Insonning iqtisodiyotdagi juda katta va keng roli quyidagicha ta’riflanadi:

1. Inson tabiatning bir bo‘lagi, uning ajralmas qismi sifatida harakat qiladi, tabiat ashyolarining shaklini o‘zgartirib iste’molga yaroqli holga keltiradi, boshqacha qilib aytganda, inson iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuchi, hamma tovar va xizmatlarning iste’molchisi, ularni ishlab chiqaruvchisi va yaratuvchisidir.

2. Inson hamma tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda iste’molchilarga yetkazib beruvchi, bozor iqtisodiyoti sharoitida esa sotuvchi rolini bajaradi. Bunda ishlab chiqarish bilan iste’molchi o‘rtasidagi aloqani bajaruvchi sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Inson tovar va xizmatlarni sotib oluvchisi va ularning iste’molchisi hamdir.

4. Inson iqtisodiyotning hamma davridagi uning tashkilotchisi, boshqaruvchisi bo‘lib, uning turli omillari, bo‘laklari, sohalari o‘rtasidagi uyg‘unlikni, aloqalarni, bir-biriga moslikni ta’minlab beradi.

Inson ehtiyojlarini rivojlantirish va qondirish tabiiy ravishda ijtimoiy ishlab chiqarishning pirovard vazifasi hisoblanadi. Ijtimoiy ishlab chiqarishning bu vazifasi uning biron-bir shakli tomonidan bekor qilina olmaydi va har qanday sharoitda ham uning pirovard maqsadi bo‘lib qolaveradi.

Hozirgi zamon mutaxassislari insonni o‘ziga xos fenomen sifatida tavsiflash uchun «individ», «individuallik», «shaxs» tushunchalaridan foydalanmoqda. Mazkur tushunchalar zanjiri inson bilan jamiyat orasidagi o‘zaro aloqalarni har tomonlama tahlil etish imkoniyatini

vujudga keltiradi. Individ – inson jinsiga ato etilgan turli vakolatlarni aniqlaydi. Individ ijtimoiy munosabatlar mahsulidir, biroq bundan inson faoliyati faqat obyektiv shart-sharoitlar ta'siri ostida shakllanadi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Insonning jamiyatdagi o'rnini bilish, inson hayotining mazmuni va ma'nosini bilish nafaqat uning boshqalar bilan munosabatini, balki boshqalardan o'zini ajratishini ham tahlil qilishni taqozo etadi.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Asrlar davomida aqlu zakovat ila bunyod etilgan boy ma'naviyati tufayli xalqimiz mag'rur yashadi, mehnat qildi, doimo hurriyat va erk sari intildi. Ana shu milliy ong, ana shu milliy g'urur bugungi istiqbolimizning oltin poydevoridir. Bu poydevorga Shiroq va To'maris, Beruniy va Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Al Xorazmiy, Amir Temur va Ulug'bek kabi yuzlab ulug' zotlar asos solganlar. Bobokolonlarimiz – Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziyning nomlarini faxr bilan tilga olamiz. Ulug' bobolarimiz Xoja Ahmad Yassaviy va Xoja Bahouddin Naqshband ruhi poklariga ehtiromimiz benihoyat baland. Bugun ularning insonni ma'naviy yetuklikka chorlovchi diniy, axloqiy va huquqiy hikmatlari qaytadan jaranglay boshladi».

Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi sharofati bilan ijtimoiy hayotimizning hamma jabhalarida xalqimizning o'tmish madaniyati – ma'naviyati, urf-odatlarini hamda qadriyatlarini bilishga qiziqishi kuchaydi. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tayotgan bir vaqtda yangi iqtisodiyot va iqtisodiy munosabatlar barpo etilayotgan bir paytda odamlar ruhiyatida, ularning ma'naviyatlarida o'zgarish bo'lishi tabiiy va qonuniydir. Chunki insonning ichki dunyosi ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar o'zgarishi bilan uzviy bog'liq, bozor munosabatlariga o'tish albatta o'ziga xos ma'naviy dunyoni shakllantiradi.

Ajdodlarimiz asrlar davomida yaratgan ma'naviy meros shu qadar ulkan, keng qamrovliki, ularning barchasining umumiy xususiyatlarini tahlil qilish, ulardan ibrat olib, bu merosni ma'naviyatimizning kelgusi rivoji uchun asos qilib olishimiz zarur. O'rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti, shu davrda yashab ijod qilgan mutafakkirlarning qimmatli asarlari, falsafiy va axloqiy ta'limotlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Sharqning mashhur axloqshunosi Husayn voiz Koshifiy insonning go'zal xulqi va axloqiga quyidagicha baho beradi: «Yaxshi xulq, go'zal (axloq) muomala shunday bir yo'ldirki, bu yo'ldan yurmay turib izzat va sharaf manzilini egallab bo'lmaydi, hayvonot biyobonidan insoniyat dorilmulkiga yetib bo'lmaydi».

Inson hayotining mohiyati, uning axloqi va ma'naviyati haqidagi fikrlar Ahmad Donish qarashlarida ham o'z aksini topgan. U insonga quyidagicha baho beradi: «Inson yeru koinot orasida o'rin olgan ajoyib mavjudotdir. ... Agar u xayolga cho'msa, yetti qavat osmonni xayol qutichasiga joylaydi. Agar u fikr qilsa, butun borliqni tokchasiga sig'diradi, agar uning mehri tovlansa, bechora chumolini kiprigi ustida saqlaydi, agar uning saxiyligi jilva qilsa, to'nini birovga berib o'zi yalang'och qoladi, agar uning xasisligi ruju qilsa, qumursqa og'zidagi donni talashadi».

Axloqiy fazilatlar, ularni shakllantirishning milliy jihatlari har doim saqlanib qoladi va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga molik bo'ladi. O'zbeklarning milliy ma'naviyati, o'ziga xosligi, erkak va ayollarning sharqona axloqiy fazilatlarini, ota-ona va farzandlar, qo'ni-qo'shnilar, mahalla-ko'y aloqalari, halollik, imon va vijdon bilan bog'liq. Ma'naviyat faqat o'tmish sadosi emas, balki hozirgi kundagi jamiyat taraqqiyotining muhim omili hamdir.

Shu bois ham taraqqiyotning «O'zbek modeli» inson va uning manfaatini birinchi o'ringa qo'yadi.

Biz bugun taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarilish yo'liga chiqib oldik. Endigi vazifa ma'naviyatni tiklash va takomillashtirishdir. Zero, Prezident Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «mamlakatning iqtisodiy qudratini, uning ertangi kunini, boringki, taqdirini ham pirovard natijada aql zakovat, ma'naviyat hal qiladi».

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardan ko'zda tutilgan asosiy maqsad mamlakat aholisi uchun munosib bo'lgan hayot va faoliyat, xalqimizning unutilayotgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tiklash, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, kelajagi buyuk davlatning iqtisodiy asoslarini yanada mustahkamlash ko'zda tutiladi.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimda ishlab chiqarishni insonparvarlashtirish

Ishlab chiqarishni insonparvarlashtirish – insonning ijtimoiy tabiatiga mos keladigan moddiy-buyum va tashkiliy-iqtisodiy shart-sharoitlarni vujudga keltirishdir. Boshqacha aytganda, ishlab chiqarishda insonning mehnat qilishi va kamol topishi uchun zarur bo'lgan normal sharoitni yaratishdir.

Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u mamlakatning islohotlar va tub o'zgarishlar yo'lidan tinimsiz ilgarilab borishini ta'minlab beradi.

Bu omilning kuchi va ta'siri, eng avvalo, yuksak ma'naviyat bilan, jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. U aholining bilimdonlik darajasi, ish bilan bandlikning professional – malaka tuzilmasi va boshqa ko'pgina shart-sharoitlar orqali shakllanadi.

Inson salohiyati va mehnat zaxiralarini shakllantirishda ijtimoiy-demografik vaziyat hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekistonning muhim xususiyati shundan iboratki, bu yerda aholining o'sish sur'atlari yuqori.

O'zbekistonda doimiy istiqomat qilayotgan aholi soni 2012-yilning boshida 29,6 million kishini tashkil etdi. O'zbekiston aholisi 1990–2010-yillar mobaynida 8,2 million kishiga ko'paydi yoki 1,4 barobar oshdi.

Yurtimizda jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan puxta o'ylangan demografik siyosat natijasida aholining yillik o'rtacha o'sishi keyingi yillarda barqarorlashib, o'tgan asrning 80-yillaridagi 2 foizdan ziyod ko'rsatkich o'rniga 1,4 foiz darajasida qayd etilmoqda.

Davlatimiz tomonidan sog'liqni saqlash, onalik va bolalikni himoya qilish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar tufayli onalar va bolalar o'rtasida o'lim darajasining izchil pasayishiga erishildi: mustaqillik yillarida bolalar o'limining umumiy koeffitsiyenti 1990-yildagi 34,6 promilledan 2010-yilda 11,0 promillega, onalar o'limi esa 100 ming tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan tegishlicha 65,3 dan 21,0 ga tushdi. Natijada aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi 1990-yildagi 67,2 yoshdan 2012-yilda 73,2 yoshga yetdi yoki 9 foizdan ko'proq o'sdi.

Mamlakatimizda ijobiy demografik jarayonlar aholining yosh tarkibini ham optimallashtirishni taqozo etdi. Bu jarayonda O'zbekiston yoshlar mamlakati sifatidagi maqomini saqlab qolmoqda, aholining o'rtacha yoshi 25,9 yoshni tashkil etmoqda.

Oila institutini mustahkamlash, xususan, kam ta'minlangan va yosh oilalarni aniq yo'naltirilgan tarzda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va uy-joy sharoitini yaxshilash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar barqaror demografik rivojlanishni ta'minlash imkonini berdi. Natijada 1990–2010-yillarda yosh oilalar o'rtasida ajrashishlar koeffitsiyenti 2 barobardan ko'proq pasaydi, oila qurishning o'rtacha yoshi oshdi va oilada bolalar soni o'rtacha bo'lishiga e'tibor qaratadigan oilalar ulushi ortdi. Ayni vaqtda aholining barqaror ko'payishi ta'minlanmoqda.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-demografik ahvolning yana bir muhim xususiyati – jamiyatning asosi bo'lgan kuchli oila tizimidir.

O‘zbekistonda nikohdan o‘tish darajasi yuqori va eng muhimi, oilalarning buzilishi dunyo bo‘yicha eng past darajada. Oila – bizning xalqimiz uchun millatning ko‘p asrlik an‘analari va ruhiyatiga mos bo‘lgan g‘oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir. Respublikada oilalar asosan ko‘p sonli bo‘lib, ularda turli avlod vakillari birga yashaydilar va birga xo‘jalik yuritadilar. Bu esa farzandlarni tarbiyalash, ularni umuminsoniy, ma‘naviy qadriyatlardan, an‘analardan bahramand qilish, bilim darajasini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Xuddi ana shunday oilalarda odamlar bolalik chog‘laridanoq mehnatsevarlikni, kattalarga hurmatni, bilim egallashga intilishni o‘rganadilar.

Xalqimizning ma‘naviy boyliklarini, jahon sivilizasiyasining eng yaxshi yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan yangi avlodni shakllantirish bugunning eng muhim vazifasidir.

Mustaqillik yillarida haqiqiy iqtisodiy vaziyatni mavjud zaxiralar va imkoniyatlarni hisobga olgan holda aholini ijtimoiy himoya qilishning mohiyatan yangi mexanizmi yaratildi.

Respublikamiz bozor munosabatlariga o‘tishning ilk davridan boshlab butun aholini ijtimoiy himoyalash yo‘lidan bormoqda. Ya‘ni aholini aniq ijtimoiy himoyalash mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish borasida katta ishlar qilindi va qilinmoqda.

Aholini ijtimoiy himoyalash borasida mustaqillik yillarida quyidagi muammolarni bartaraf etish yo‘lidan boriladi. Ishlab chiqarishni barqarorlashtirish, *birinchidan*, muttasil rivojlantirish, pul qadrsizlanishiga qarshi samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, xalq iste‘mol mollari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, milliy valutani va ichki iste‘mol bozorini mustahkamlash natijasida islohotlarning dastlabki yillaridayoq turmush darajasini saqlab qolish va uning keskin pasayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikdir.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, investitsiya faoliyatining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qo‘llab-quvvatlash yo‘li yangi ishchi o‘rinlarni tashkil etish, ish bilan bandlik muammolarni hal qilish, ish haqi saqlanib qolmagan yoki qisman saqlanib qolgan to‘liqsiz ish kunida ishlayotgan va majburan mehnat ta‘tilida yurgan shaxslar sonini qisqartirish uchun qulay zamin yaratildi.

Ikkinchidan, bu davlat tomonidan ajratilgan mablag‘lar bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat va xayriya tashkilotlari, jamg‘armalarning mablag‘larini keng jalb etish ham muhim o‘rin egallamoqda.

Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining ancha qisqartirilishi va ularning mas'uliyatlarini oshirilishi lozim. Mahalliy organlarning asosiy vazifasi – jamiyat a'zolarining farovonliklarini yuksaltirish maqsadida mehnat qilish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishdan iboratdir.

Uchinchidan, bu odamlarning kuch va qobiliyatlari to'la-to'kis faollashuviga ta'sir etuvchi kuchli mexanizmni vujudga keltirish. Bu mexanizm, birinchi navbatda, har bir kishining iqtisodiy erkinligi, uning o'zi va oilasining baxt-saodati uchun iqtisodiy javobgarligi bilan uyg'unlashadigan shart-sharoitlarni yaratish hisobiga shakllantirish lozim. O'z qobiliyat va mehnatiga tayanib ish tutish – farovonlikning birdan-bir va eng barqaror manbai bo'lib qoladigan munosabatini vujudga keltiradi.

To'rtinchidan, oila iqtisodiyoti milliy iqtisodiyotning asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Asosiy iste'molchilar ham oila hisoblanadi. Oila iqtisodini tadqiq etganligi uchun Garri Bekker Nobel mukofoti laureati bo'lganligi bejiz emas. Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» asarida turg'unlik va xo'rlik yillarida oila-turmush munosabatlariga, uning moddiy va ma'naviy asoslariga yetarlicha e'tibor berilmagani, bu sohadagi muammolarni hal etishga qoldiq prinsipi asosida yondashilgani va buning salbiy oqibatlari ochib tashlangan.

Shu bois Prezidentimiz o'z kitobida oilaning sog'lomligi va oilaviy muhitning qanday darajada bo'lishi jamiyat rivojiga, undagi mavjud muammolarni hal etishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini qayd etib qolmay, balki oilani mustahkamlash, uni sog'lomlashtirish muammolariga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etadi. Shu o'rinda mustaqillikkacha bo'lgan davrlarda o'zbek oilalarining ahvoriga oid ma'lumotlarni quyida keltirishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Mustaqillikka qadar (1989–1991) respublikamiz iqtisodiy rivojlanishining past darajasi, aholining moddiy ta'minotidagi yetishmovchilik va taqchilliklar oila-nikoh munosabatlarida keskin muammolarni keltirib chiqargan. O'sha davrda O'zbekiston aholisining jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadi oilalar bo'yicha olib qaralganda: bir oyda kishi boshiga 75 so'mgacha daromad oladigan kam ta'minlangan kambag'al oilalar; 71 so'mdan 125 so'mgacha daromadi o'rtacha

ta'minlanganlar; 125 so'mdan 175 so'mgacha daromad o'rtachadan yuqori; 175 so'mdan 225 so'mgacha daromadi nisbatan yuqori darajada ta'minlangan va 225 so'mdan oshiq daromad oladigan oilalar bo'lgan.

Daromaddagi tengsizlikni o'sha davrlardagi ishchilar va kolxozchi dehqonlar sinfi misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, ishchi va xizmatchilardan farq qilib, kolxozchilar orasida kambag'allar ko'p (56,6 foiz) bo'lgan. Yuqori darajada ta'minlanganlar esa juda oz bo'lgan. O'zbekistonda kolxozchilarning daromadlari oyiga 70,6 so'm bo'lib, bu ko'rsatkich sobiq SSSRda jon boshiga oyiga 121 so'mdan to'g'ri keluvchi daromadning o'rtacha darajasidan ancha pastdir. Bu O'zbekistonda o'tkir ijtimoiy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa, o'tgan asrning 80-yillarida O'zbekistonda jon boshiga daromadning o'sishi, o'rtachadan yuqori daromad oluvchi oilalarning soni bo'yicha boshqa respublikalardan borgan sari ko'proq orqada qolgan. Oyiga 50 so'mgacha daromad oluvchi eng kambag'al aholining salmog'i O'zbekistonda RSFSRdagidan 32 barobar, 51 so'mdan 75 so'mgacha daromad oluvchilar soni 6 barobar ko'p bo'lgan.

Respublikamiz ishchi va xizmatchilarining jon boshiga o'rtacha oylik daromadi o'sishi bo'yicha ham boshqa respublikalardan orqada qolgan. 1975–1988-yillarda ushbu ko'rsatkich (so'm hisobida) RSFSRda – 53,5, Ukrainada – 49,5, Qozog'istonda – 57, Litvada – 72,2, O'zbekistonda – 28,7 so'mga to'g'ri kelgan. Kolxozchilarning oilalaridagi daromadning o'sishidagi ahvol yanada yomonroq bo'lib, ko'rsatilgan davrda SSSRda 46,3 so'mni tashkil etgan bo'lsa, respublikamizda 12,9 so'mdan oshmadi. Natijada respublikamiz kolxozchilari turmush darajasi bo'yicha Estoniya kolxozchilaridan uch barobar, Gruziya, Ukraina, RSFSR kolxozchilaridan ikki barobar orqada qolib ketgan.

Respublikamiz tub yerli aholisi katta oilalardan iboratligi, tabiiy o'sish sur'atining balandligi uning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Aytish joizki, 1989-yilda o'tkazilgan Butunittifoq aholi ro'yxatining natijalariga ko'ra, sobiq SSSRda 71,1 million oila hisobga olingan va oila tarkibining miqdori mamlakatda keyingi 10 yil davomida asosan bir xil holatda bo'lib, u 3,5 kishiga, shundan shaharda 3,3 kishi, qishloq joylarda esa 3,8 kishiga to'g'ri kelgan.

1989-yildagi aholi ro'yxati ma'lumotlariga qaraganda, O'zbekistonda 3 million 415 ming oila mavjud bo'lgan. Albatta, o'sha paytdagi paxta

yakkahokimligi, mustamlaka tuzumiga xos bir yoqlama rivojlangan iqtisodiyotning halokatli oqibatlarini, avvalo, odamlarning turmush tarzida, eng muhimi, ularning jon boshiga to'g'ri keladigan daromad darajasining o'ta pastligida, tomorqa yerlarining keskin kamayib borishida, millatning salomatligi, uning genofondiga salbiy ta'sirlarning kuchayishida, bolalar va onalar o'limining avj olishida, o'lkamizning ekologik nochor holatida va boshqa ko'plab masalalarda yaqqol namoyon bo'lgan edi. Lekin bu fojialarning barchasini aniq misol va raqamlar asosida, SSSRdagi umumiy ko'rsatkichlarga qiyoslagan holda, mustabid imperiyaning balandparvoz g'oyalar bilan niqoblangan mustamlaka siyosatining ayanchli natijalari sifatida har tomonlama chuqur tahlil etib, butun mohiyatini davlatimiz rahbari Islom Karimov O'zbekiston Kompartiyasining XXII syezdida qilgan ma'ruzasida ochib tashladi. Ushbu ijtimoiy-tarixiy ahamiyatga molik ma'ruzada davlatimiz rahbari tomonidan xotin-qizlar masalasi, oilaga bo'lgan munosabatlarni tubdan o'zgartirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy huquqlari, sharafi va qadr-qimmatini himoya qilish ularning ijtimoiy ishlab chiqarishda, davlat va jamiyat qurilishida ishtirok etishi uchun eng qulay sharoitlarni yaratish, onalar va bolalar sog'lig'ini, aholining bilim va madaniyat darajasini uzluksiz har tomonlama oshirib borish ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy jihatdan ta'minlanishi kerakligi muhim ijtimoiy vazifa sifatida qo'yildi. Shuningdek, O'zbekiston oilalarining moddiy ahvolini hisobga olgan holda Yurtboshimiz Islom Karimov rahnamoligida umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul nonushta bilan ta'minlash, onalarning uch yilgacha ish stajlari saqlangan holda bolalariga qarab turishlari uchun qo'shimcha ta'til imtiyozlari berish, ayni paytda uning bir yarim yiliga qisman ish haqi to'lanishini joriy etish, bolalarga beriladigan nafaqalarning miqdorini oshirish kabi vazifalarning amalga oshirilishi onalik va bolalikni muhofaza qilishda muhim qadam bo'lgan edi.

Har bir kishi o'z mamlakatining fuqarosi ekanligini his qilishi uning o'ziga berib qo'yilgan huquq va erkinliklariga ongli munosabatda bo'lishi va qadrlashi, mashaqqatli mehnat bilan qo'lga kiritilgan demokratik qadriyatlarni asrab-avaylash va himoya qilishi g'oyat muhimdir.

Respublikamiz ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida asosiy va hal qiluvchi o'rinda inson turadi.

Respublikamizda ko'p bosqichli bozor iqtisodiyoti qurilayotgan ekan,

aholining bu ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarida aholining bandligi ham katta e'tiborni jalb qiladi. Nodavlat korxonalar va tashkilotlarda, nodavlat ijtimoiy-iqtisodiy ukladlarda band aholi salmog'ining oshib borishi – bu korxonalar va tashkilotlarning davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiylashtirilishi va bozor munosabatlari taraqqiy etishining natijasidir.

Respublikamizda aholi farovonligini oshirish hamda joylardagi mavjud ishsizlikni minimal darajaga tushirish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bu zaminimizda yashayotgan insonlarning munosib va erkin, farovon hayotini ta'minlash har bir kishi huquq va imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun zarur sharoitlarni yaratishdir.

O'zbekistonda mehnat salohiyatining muhim xususiyati – uning yoshi va kasbiy tarkibidir. O'zbekiston aholisining o'rtacha yoshi 25,9 yoshga teng. Bu XXI asrning ikkinchi o'n yilligi boshida mehnat zaxiralari yuksak mehnat faolligi va kasb tayyorgarligi bilan ajralib turadigan odamlar ko'pchilikni tashkil etishiga imkon beradi.

Ish bilan band bo'lgan aholini tarkibiy jihatdan qayta taqsimlash hamda mehnat layoqatli yoshlarni faoliyatning yangi ilg'or tarmoqlariga va sohalariga jalb qilish ham mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning qudratli zaxirasidir.

Shuning uchun ham, hozir respublikada hal qilinayotgan eng dolzarb muammolardan biri ishlashni xohlovchilarning hammasini ish bilan ta'minlash hisoblanmaydi. Balki eng maqbul ijtimoiy yo'naltirilgan ish bilan bandlikni vujudga keltirishdan iboratdir. Vazifa respublikaning har bir fuqarosiga mehnat faoliyatining turi va shaklini erkin tanlash uchun chinakam imkoniyat yaratishdir.

Prezident Islom Karimov O'zbekistondagi mehnat salohiyatining muhim xususiyati – uning ta'lim darajasi yuqoriligiga alohida e'tibor beradi. Respublikada aholining yalpi savodxonligi muammosi to'la hal qilingandir. Savodxonlik darajasi qariyb 100 foizni tashkil etadi. Bu esa respublikani inson salohiyati yuqori darajada rivojlangan iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlar bilan bir qatorga olib chiqadi.

Mehnat zaxiralarning umumiy va professional ta'lim darajasi ham yuqoridir. Respublikada majburiy umumiy o'rta ta'lim qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'yilgan. Bunday ta'limni umumiy ta'lim maktablari, litseylar, kollejlari va tijorat maktablarining keng tarmog'i orqali olish mumkin.

Tayanch tushunchalar:

Tizim, iqtisodiy tizim, huquqiy tizim, ishlab chiqaruvchi kuchlar, iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy tizim turlari, iqtisodiy tizim modellari, an'anaviy tizim, totalitar-iqtisodiy tizim, bozor iqtisodiyoti tizimi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar nima va ular bir-biridan qanday farqlanadi?
2. Umumbashariy tizim hisoblangan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonining uch xil yo'lini tushuntiring.
3. Bozor tizimiga o'tishning «O'zbek modeli»ni izohlang.
4. An'anaviy iqtisodiyot nima?
5. Tizimlarning qiyofasini belgilaydigan belgilarni izohlang.
6. Iqtisodiy-ijtimoiy tizimda inson omili: shakllanishi, amal qilishi va faollashuvi haqida fikringiz?

Mavzuni chuqur o'rganish instrumentariysi

Iqtisodiyotning funksional tizimi – hozirgi zamon iqtisodiyotida funksional aloqa va munosabatlarning o'zaro bog'liq va rivojlanib borayotgan birligi.

Iqtisodiyot tizimi – uning elementlarining ongli ravishda tartibga solingan o'zaro bog'liq birligi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar quyidagicha bo'ladi:

An'anaviy iqtisodiyot – bu o'ta zaif ishlab chiqarish omillariga tayangan, kam unumli natural ishlab chiqarishga, an'analar shakliga kirgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga asoslangan iqtisodiyotdir.

Bozor iqtisodiyoti – bu mukammal ishlab chiqarish omillariga ega bo'lgan, tovar-pul munosabatlariga asoslangan, aniq ijtimoiy mo'ljali bor, bozor signallariga binoan va pul vositasida boshqarilib turuvchi iqtisodiyotdir.

Totalitar-rejali iqtisodiyot – bu davlatlashtirilgan, ijtimoiy mulkka tayangan, bir markazdan turib rejalashtirishga va boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullariga asoslangan iqtisodiyotdir.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim baholanganda moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy va g'oyaviy-siyosiy belgilar asos qilib olinadi. Bularga resurslar va yaratilgan mahsulotlarning xarakteri, mulkchilik shakllari, iqtisodiy mexanizmning qandayligi, qanday g'oyalar va siyosatning ustuvorligi kabilar kiradi.

2. Jamiyat taraqqiyotida uchta ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo'lib, bular an'anaviy tizim, bozor tizimi va rejali tizimdir. Bular o'zining tub belgilari bilan bir-biridan farqlanadi. Hozirgi dunyoda bozor tizimi umumbashariy tizim hisoblanadi.

3. Tizimlar taraqqiyoti ikki xil kechadi. *Birinchidan*, rivojlanish salohiyatini tugallatgan tizim yangi istiqbolli, salohiyati yuksak tizim bilan almashadi. *Ikkinchidan*, mavjud, o'z salohiyatini saqlagan tizimda yangi iqtisodiyot tomon transformatsiya yuz beradi. Hozir bu bozor iqtisodiyotining rivojlangan mamlakatlarda aralash iqtisodiyot sari transformatsiyasidir.

4. Bozor iqtisodiyotining afzalligi tufayli unga o'tish zaruratga aylanadi. Bunday o'tish uch yo'l bilan yuz beradi: a) klassik yo'l; b) mustamlaka iqtisodiyotidan milliy bozor iqtisodiyotiga o'tish; c) rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish. Hozir uchinchi yo'l amal qiladi, bu eng keyingi yo'l bo'lib, mohiyatan ilgari rivojlanishi zo'rlik (revolutsiya) yo'li bilan to'xtatib qo'yilgan bozor iqtisodiyotiga yangidan qaytish yo'lidir. Bu yo'ldan borilganda davlatning faol ishtirokida o'tkaziladigan bozor islohotlari tufayli rejali tizim o'rniga bozor tizimi keladi. O'zbekistonning bozor tizimiga o'tishi uchinchi yo'l doirasida, lekin «O'zbek modeli»ga binoan yuz beradi.

5. Rivojlangan mamlakatlarda bozor iqtisodiyotining ichki rivojlanishi yuz berib, u o'z taraqqiyotining yangi – aralash iqtisodiyot bosqichiga chiqishi bilan tavsiflanadi. Aralash iqtisodiyot yangi iqtisodiyot bo'lib, XIX asrdagi klassik bozor iqtisodiyotidan jiddiy farqlanadi.

6. Ishlab chiqarish munosabatlari tizimning moddiy tomonini ifodalaydi. Tizim deganda uning tarkibida nomoddiy munosabatlarni, xususan, mafkuraviy munosabatlarni ham ko'rish kerakki, ular siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy va boshqa shakllarga ega bo'ladi. Ammo, ularning har birida iqtisodiyotning muhri bor. Turli tizimning o'z iqtisodiyotiga mos ravishda o'z dunyoqarashi mavjud bo'ladi. Bozor tizimga xos g'oya – bu erkinlik va demokratiya g'oyasidir. Totalitar iqtisodiyot tizimida tobelik va itoatkorlik g'oyasi birlamchi bo'lgan.

7. Tizimlar baholanganda moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy va g'oyaviy shart-sharoit birgalikda qaralishi inobatga olinishi kerak. Moddiy shart-sharoit belgilari bu yaratilgan mahsulot va xizmatlarning qanday bo'lishi, ya'ni ularning natural mahsulot yoki tovar mahsulot bo'lishi, ularning tarkibiy tuzilishining qandayligi, moddiy shakldagi yoki nomoddiy xizmat shaklida bo'lishidan iboratdir.

8. Tizimlar belgilarini aniqlashda ishlab chiqarish shaxsiy insoniy omilining sifatli tavsiflari ham ahamiyatlidir. Tizimlar qanday ish kuchining qo'llanishi bilan ham ajralib turadi.

9. Tizimlar tafsilotida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning mazmuni ham muhim mezon rolini o'taydi. Buni eng avval mulkchilik belgilab beradi. Shu bois, davlatimiz rahbari Islom Karimov mustaqillikning ilk yillaridanoq mulk masalasini hal etish milliy, iqtisodiy, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash sharti ekanligini alohida qayd etib keldi.

10. Mamlakatimizda ko'p ukladli iqtisodiyot tarkibida davlat, korporativ va xususiy mulkning tengligi, ayni paytda xususiy mulkning ustuvorligi aniq belgilab qo'yilgan davlatimizning siyosiy va iqtisodiy tizimini, biz barpo etayotgan jamiyatning ma'no-mazmunini aniq va ravshan ko'rsatib beradi.

11. O'zbekistonning iqtisodiy ustuvorlik g'oyasida mulk va mulkdorlar masalasini yechishda umume'tirof etilgan tamoyillar bilan birga, o'zimizga xos milliy xususiyat va hayot tarzi inobatga olingan. Aynan shunday yondashuv va olib borayotgan siyosatimiz bugungi murakkab sharoitlarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni saqlashda, iqtisodiyotimizning ishonchli poydevori va tez sur'atlar bilan o'sishini ta'minlashda mustahkam omil bo'lmoqda.

12. Dunyodagi ko'pgina taraqqiy topgan, bugungi kunda barqaror va badavlat yashab kelayotgan davlatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, avvalo o'zining xususiy mulkiga ega bo'lgan shaxs va bunday shaxslardan iborat bo'lgan toifa, bu boylikni yanada ko'paytirishga, o'zini va oilasini boqishga, shu bilan birga, davlat va jamiyat zimmasida bo'lgan ko'pgina vazifalarni amalga oshirishda o'z hissasini qo'shadi. Va eng muhimi, o'z yurtida tinchlik va osoyishtalikni saqlash va himoyalashga astoydil jon kuydiradi.

13. Ko'pchilikni tashkil etgan va bunday maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan toifa – ijtimoiy qatlamlarning o'rta sinfi deb nom olgani. O'zbekiston tanlagan va bugun amalga oshirayotgan taraqqiyot yo'lida ana shu o'rta sinf, tobora kuchga kirayotganligini ijtimoiy hayotimiz isbotlamoqda.

14. O'zbekiston tanlagan model, chuqur o'ylangan va izchil amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarning ustuvor yo'nalishlari yurtimizdagi iqtisodiy, siyosiy tizim, fuqarolik jamiyati, milliy iqtisodiyotimizning barqaror va jadal rivojlanishi, aholining hayot darajasi izchil oshib borishi uchun mustahkam va ishonchli poydevor yaratdi.

3- MAVZU. ISHLAB CHIQRISH MUNOSABATLARI VA ULARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

1. Ishlab chiqarish munosabatlarining asosiy sharti

Iqtisodiyot deganda kishilarning doimo yuksalib borayotgan hayotiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

Ishlab chiqarish munosabatlari tizimida ishlab chiqarish birlamchi hisoblanadi. Shu bois ham mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish iqtisodiyotning asosi hisoblanadi. Iqtisodiy faoliyat mana shundan boshlanadi. Jamiyat uchun iste'mol ne'matlarini ko'paytirish birlamchi ahamiyatga ega. Ehtiyojlar doimo cheksiz ekanligi barchaga ma'lum. Biroq ehtiyojlar anglangan ehtiyoj bo'lishi lozim. Ehtiyojni qondirishning bosh vositasi ishlab chiqarish hisoblanadi.

Ishlab chiqarish munosabatlarining ikkinchi muhim sharti ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ayirboshlash hisoblanadi. Tovar ayirboshlash usuli savdo-sotiqni bildiradi. Ayirboshlash orqali jamiyat ahli ehtiyojlari uchun zarur mahsulot va xizmatlarga ega bo'ladi.

Ishlab chiqarish munosabatlarining uchinchi muhim sharti taqsimlash munosabatlari hisoblanadi. Taqsimlash ishlab chiqarishning hosilasi hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, u ishlab chiqarishga qaytadan ta'sir eta oladi. Agar kishilar taqsimlash jarayonida ne'matlarga qanchalik ko'p ega bo'lsalar, shunchalik ularda motivatsiya kuchli bo'ladi va aksincha.

Taqsimlashda kishilarning iqtisodiy manfaati yuzaga chiqadi, manfaat esa ehtiyojni bildiradi.

Iqtisodiyotda shunday bog'liqlik bor; ehtiyoj manfaatni, manfaat maqsadni, maqsad motivatsiyani, bu esa o'z navbatida iqtisodiy stimullarni, ya'ni rag'batlantiruvchi kuchlarni yuzaga keltiradi, mana shunday tartibda taqsimlash iqtisodiy faollikni yuzaga keltiradi.

Taqsimotning bosh tamoyili – bu adolatlilik tamoyilidir. Bunga ko'ra iqtisodiyotda har bir ishtirokchining yaratilgan mahsulot va xizmatlaridan oladigan ulushi bularni yaratishga qo'shgan hissasiga to'g'ri mutanosiblikda bo'lishi talab qilinadi.

Taqsimlash orqali yaratilgan mahsulot va xizmatlarning bir qismi joriy iste'molga yuborilsa, boshqa qismi ishlab chiqarishni

kengaytirishga, modernizatsiyalashga hamda diversifikatsiyalashga va shu orqali bo'lg'usi ehtiyojlarni qondirishga yuboriladi.

Iqtisodiy faoliyatning yakunlovchi bosqichi – iste'mol jarayonidir.

Iste'mol bu yaratilgan mahsulot va xizmatlarning pirovard natijada ehtiyojni qondirish yo'lida ishlatilishidir.

Iste'mol, *birinchidan*, kishilarning kundalik ehtiyojlarini qondirishni, *ikkinchidan*, ishlab chiqarishni rivojlantirishni ko'zlaydi.

Iste'mol uch xil bo'ladi: a) xususiy iste'mol; b) davlat iste'moli; c) ishlab chiqarish iste'moli.

Xususiy iste'mol yuz berganda, iste'mol buyumlari va xizmatlar kishilarning juz'iy ehtiyojini qondiradi.

Davlat iste'moli bu davlat idora va tashkilotlaridagi iste'mol bo'lib, bu ularning ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

Ishlab chiqarish iste'moli esa turli moddiy vositalar, moddiy resurslarning korxonalar va xo'jaliklarda ishlatilishini bildiradi. Bular tarkibiga mehnat qurollari, bino-inshootlar, xom ashyolar, yarim fabrika mahsulotlari, butlovchi qismlar va nihoyat, yoqilg'i va energiyalar kiradi.


Ishlab chiqarishdagi iste'mol oxir-oqibatda shaxsiy iste'molni ta'minlashga, ya'ni iste'mol buyumlari va xizmatlarni yangidan yaratishga xizmat qiladi.

Kishilarning hayoti bir maromda borishi uchun iqtisodiy faoliyat uzluksiz bo'ladi, shu bois, iqtisodiyotda ishlab chiqarish birlamchi bo'ladi va aholi iste'molini qondirishga qaratiladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo'lish va shu orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish Vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa, eng avvalo, iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish zarur bo'ladi.

Shunga ko'ra, 2008-yilning yarmida boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotining real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etib, respublikamizda ushbu jarayon bir qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi.

Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari



Ayniqsa, real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlashda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutdi.

Iqtisodiyotning real sektori – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarini oladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi choratadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalish va vositalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: korxonalaridan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

Kooperatsiya aloqalari – turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida ma'lum mahsulotni tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik


jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko‘lamda amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytir-moqda. Biroq, bu boradagi jiddiy muammo – ayrim mahsulotlarimiz tannarxining yuqori darajada qolayotganligi ularning raqobatdoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida»gi (2008-yil 28-noyabr) 4058-sonli farmonida muhim chora-tadbirlar qatorida mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarining barcha resurslardan samarali foydalanishi hisobiga mahsulot tannarxini 20 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda pasaytirish orqali ularning raqobatdoshligini ta’minlash vazifasi ham belgilab berilgan edi. **Kreditor qarzdorlik** – korxonalar, tashkilot yoki muassasaning tegishli yuridik yoki jismoniy shaxslarga to‘lanishi lozim bo‘lgan pul mablag‘lari bo‘lib, ular me’yordagi (muddati o‘tmagan) hamda muddati o‘tgan qarzdorliklarga bo‘linishi mumkin.

Mahsulot tannarxi – mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog‘liq barcha xarajatlar.

Ushbu vazifani amalga oshirish doirasida mamlakatimiz korxonalarida tannarxni pasaytirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarga alohida e’tibor qaratildi:

Tannarxni pasaytirishning asosiy yo‘nalishlari



Inqirozga qarshi choralar dasturining dastlabki – 2009-yili mobaynida sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi 18 foizga, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, «O‘zmetkombinat» aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasi, «O‘zeltexsanoat» uyushmasi, «O‘zqurilish materiallari» kompaniyasi singari va boshqa korxonalar va tarmoqlarda 20–25 foizga kamaydi.

Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlashdagi muhim tadbirlardan yana biri – turli sabablarga ko‘ra vujudga kelgan hamda korxonaning sog‘lom moliya-xo‘jalik faoliyati yuritishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib kelayotgan qarzlarni qayta ko‘rib chiqish (restrukturizatsiya qilish) hisoblanadi. Mazkur tadbir orqali korxonalarining mavjud qarzlari vujudga kelishi sabablari va ularni to‘lash imkoniyatlari o‘rganiladi. Har bir korxonaning ahamiyati, yaxlit xo‘jalik tizimida tutgan o‘rni, boshqa korxonalar bilan ishlab chiqarish va xo‘jalik aloqalarini hisobga olgan holda mazkur qarzlarni to‘lash muddatlarini kechiktirish, ular bo‘yicha qo‘llanishi mumkin bo‘lgan turli sanksiyalarni bekor qilish, zarur hollarda, ushbu qarzlarni umuman ro‘yxatdan chiqarish kabi choralar belgilanishi mumkin. Inqirozga qarshi dasturning dastlabki – 2009-yili davomida ham davlat tomonidan real sektor korxonalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 50 ta korxonaning budget va budgetdan tashqari jamg‘armalarga to‘lovlar bo‘yicha muddati o‘tgan hamda joriy kreditor qarzdorligi qayta ko‘rib chiqildi. Bu mazkur korxonalar tasarrufida 350 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ni qoldirish, ularning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish imkonini berdi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida real sektor korxonalarini qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda, ularni sog‘lomlashtirish tadbirlari ham muhim o‘rin tutadi. Zero, uzoq davr mobaynida sifatsiz mahsulotni ishlab chiqarish, eskirgan texnika va texnologiya asosida zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarni saqlab qolish iqtisodiyotning sog‘lomligiga jiddiy putur yetkazishi mumkin. Bunday korxonalarni bankrot deb e‘lon qilish hamda moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tarkibiy o‘zgartirish orqali qayta tuzish bu boradagi eng to‘g‘ri va samarali yechim hisoblanadi.

Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tarixiy 2008-yil 18-noyabrdagi 4053-sonli «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonida ko‘zda tutilgan iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan

yangilash jarayoniga tijorat banklarining mablag'larini kengroq jalb qilishni yo'lga qo'yish tadbirlari muhim hisoblanadi.

Qarorda respublika komissiyasining qarori asosida bankrot korxonalarini tijorat banklariga sotish yoki to'g'ridan-to'g'ri balansiga berishning 3 ta mexanizmi ko'zda tutilgan:

1) bankrot korxonalar kreditlik qarzi tarkibining 70 foiz va undan ortiq qismini bank kreditlari tashkil etsa, u holda korxonani tijorat banklari balansiga berish;

2) bankrot korxonani kimoshdi savdolari orqali eng yuqori narxni taklif qilgan va tegishli majburiyatni o'z zimmasiga olgan tijorat banklariga sotish;

3) bankrot korxonani tanlov savdolari orqali tijorat banklariga «nol» qiymatda investitsion majburiyat sharti bilan sotish.

Ushbu tadbirlar mamlakatimizdagi bankrot korxonalarini tarkibiy qayta tuzish hamda yangi xo'jalik faoliyatini yo'lga qo'yish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 19-noyabrdagi 4010-sonli «Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoyishi bilan iqtisodiy nochor korxonalarining moliyaviy qobiliyatini tiklash bo'yicha bir qator imtiyozlar (ko'maklar) berilgan edi. Jumladan, ushbu farmoyishga ko'ra:

– tijorat banklariga bankrot korxonalar yoki ular mol-mulkinging berilishi, sotilishi, ularning xo'jalik yurituvchi subyektlar ustav jamg'armalariga kiritilishi, shuningdek banklar tomonidan bankrot korxonalar mol-mulki negizida yangidan tashkil etilgan xo'jalik subyektlarini qayta sotish qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilindi;

– bankrot korxonalar negizida yangi tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar uch yil davomida foyda solig'i, yagona soliq to'lovi, mulk solig'i va yer soliqlarini to'lashdan ozod qilindi;

– boshqaruv kompaniyalarga berilganda foyda solig'i va yagona soliq to'lovidan ikki yil davomida ozod qilindi. Buning natijasida sobiq bankrot hisoblangan, endilikda tarkibiy qayta tuzish orqali faoliyatini yangilagan korxonalarining faoliyat ko'rsatkichlarida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi.

Shuningdek, yuqorida qayd etilgan me'yoriy hujjatlar orqali tijorat banklariga ham muayyan imkoniyatlar berilgan edi. Jumladan:

– qarzlarni to'lash hisobiga undirilgan yoki auksion va tanlov savdolarida sotib olingan mol-mulk negizida tijorat banklarining korxonalar ustav jamg'armasidagi ishtiroki ulushi 100 foizgacha bo'lgan yangi korxonalarini tashkil etish;

– bankrot korxonaning tugatilishi munosabati bilan unga avval berilgan, qoplanmagan kreditini, shu jumladan hukumat kafolati bilan berilgan kredit summasini bank kengashining qarori bilan hisobdan chiqarish;

– bankrot korxonaga uchun malakali boshqaruv kompaniyasini tuzish va jalb qilish;

– bankrot korxonani tugatish bahosida sotib olib, uning faoliyatini tiklab, qaytadan bozor bahosida sotish va h.k.

Ayni paytda mazkur jarayonning samaradorligini va ta'sirchanligini ta'minlash maqsadida tijorat banklariga bir qator majburiyatlar yuklangan edi. Jumladan:

– tijorat banklari balansiga o'tkazilgan bankrot korxonalarini tiklash, texnik va texnologik modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, zarur bo'lganda korxonani to'liq restrukturizatsiya qilish orqali faoliyat yo'nalishini o'zgartirish, strategik hamkorlar va investorlarni jalb qilishni nazarda tutuvchi biznes-rejalarni ishlab chiqish;

– yollangan har bir korxonaga boshqaruvchisi ishlab chiqarishda kutilgan natijalarga erishishi orqali ishlab chiqarishlarga zamonaviy va yuqori malakali boshqaruvchilarni jalb qilish ishlarini olib borish;

– banklar tasarrufiga berilgan bankrot korxonalarini kelgusi faoliyati ustidan iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish bo'yicha Respublika komissiyasida hisobot berishlari yo'lga qo'yilgan.

Past rentabelli va iqtisodiy nochor korxonalarini tugatish va bu jarayonga tijorat banklarini jalb qilish borasida belgilangan tadbirlar korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim rol o'ynadi. Prezidentimiz ma'ruzasida ta'kidlanishicha, 2009-yilda mamlakatimiz bo'yicha, yirik korxonalarini ham qo'shganda, jami 240 ta korxonaga bankrot deb e'lon qilindi. Ayni paytda ularning 154 tasi yangi mulkdorlarga sotildi, 86 tasi esa tijorat banklari balansiga o'tkazildi.

Bugungi kunda tijorat banklari balansiga o'tkazilgan 70 ta iqtisodiy nochor korxonada ishlab chiqarish to'liq qayta tiklanib, istiqbolli sarmoyadorlarga sotildi, qolganlarida moliyaviy sog'lomlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Shuningdek, mahalliy lashtirish dasturining amalga oshirilishi quyidagi ijobiy jihatlarga bilan tavsiflanadi:

– mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish;

– sanoat turli tarmoqlarining qo'shilgan qiymati yuqori darajada bo'lgan mahsulotlarni eksportini ko'paytirish va tegishli ravishda, an'anaviy eksport salmog'ini kamaytirish;

- samarali ichki va tarmoqlararo ishlab chiqarish kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning real sektorida mamlakatimiz korxonalarining kooperatsiyasi salohiyatidan yuqori darajada foydalanish;
- mahalliy xom ashyoni qayta ishlashni kengaytirish, ishlab turgan korxonalarni zamonaviylashtirish va yangilarini tashkil etish hisobiga iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish va h.k.

2011-yilda **faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil yetishni tezlashtirish borasida faol investitsiya siyosati yuritishga** alohida e‘tibor qaratildi.

2011-yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan qiymati 10 milliard 800 million dollardan ortiq kapital qo‘yilmalar o‘zlashtirildi, bu 2010-yilga nisbatan 11,2 foiz ko‘p demakdir. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 23,9 foizni tashkil yetgani mamlakatimizda investitsiya jarayonlarining jadal faollashib borayotganidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotimizning real sektoriga qariyb 2 milliard 900 million dollar hajmida xorijiy investitsiyalar jalb qilindi, ularning 78,8 foizi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir.

Kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish manbalari va ulardan foydalanish borasida ijobiy sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda.

Jami investitsiyalarning 73 foizdan ortig‘i mamlakatimizning ichki manbalari hisobidan – korxonalar va aholi mablag‘lari, investitsiya jarayonlarida tobora faol ishtirok etayotgan tijorat banklari kreditlari, shuningdek, davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari hisobidan shakllantirilmoqda.

Jami investitsiyalarning 73,5 foizdan ortig‘i ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo‘naltirilmoqda. Investitsiyalarning qariyb 45,3 foizi zamonaviy, yuksak samarali asbob-uskunalar xarid qilishga yo‘naltirilgani, ayniqsa, muhimdir.

Bundan ko‘rinadiki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash choralarining izchil amalga oshirilishi barqaror va mutanosib o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratdi.

2. Mehnat unumdorligi va unga ta'sir etuvchi omillar

Resurslarning cheklanganligi sharoitida, ularni tobora ko'proq ishlatish orqali ehtiyojlarni to'la qondirib bo'lmaydi. Shu sababli jamiyat resurslarni tejab, resurs birligidan ko'proq mahsulot oladi, bunda ham moddiy, ham mehnat resurslari tejaladi. Mana shu mehnat unumdorligining o'sishi bo'ladi.

Mehnat unumdorligi mehnat sarfi minimum bo'lgani holda, mahsulotning maksimum bo'lishini bildiradi.

Mehnat unumdorligi turlicha darajada ifodalanadi:

Ish o'rnidagi mehnat unumdorligi. Bu alohida olingan ishlovchi vaqt birligida o'z ish joyida qanday miqdorda mahsulot yaratgani yoki qanchalik xizmat ko'rsatganini bildiradi.

Korxonada darajasidagi unumdorlik. Bu jamoada ishlovchi bir kishi vaqt birligida o'rtacha qancha mahsulot yoki xizmat yaratganini bildiradi.

Sektor sohasidagi unumdorlik. Mazkur sektor bo'yicha bitta ishlovchi muayyan vaqtda qancha ishlab chiqarganini bildiradi. Masalan, agrar sektorda 3 mln. kishi band bo'lgani holda 15 mlrd. dollarlik mahsulot yetishtirilsa, bir kishi mehnatining unumdorligi 5 ming dollarni tashkil etadi (15 mlrd. : 3 mln. = 5 ming).

Milliy iqtisodiyot darajasidagi unumdorlik. Bu mamlakat miqyosidagi bir nafar ishlovchi o'rtacha qancha mahsulot va xizmatlar yaratganini bildiradi. Masalan, mamlakatda jami aholi 40 mln., shundan 20 mln. kishi ishlaydi va 240 mlrd. dollarlik mahsulot va xizmat yaratadi. Bunda bir ishlovchining yillik mehnat unumdorligi jamiyat miqyosida 12 ming dollarga teng bo'ladi. Mehnat unumdorligi turli korxonalar, sektorlar va mamlakatlar miqyosida jiddiy farqlanadi va bu mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillarga bog'liq. Bu omillar quyidagicha:

2.1. Mehnat qurollarining naqadar mukammalligi, ya'ni ishlab chiqarishning texnik-texnologik darajasi. Qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi past va aksincha, mashinalashgan ishlab chiqarishda u g'oyat yuqori va muttasil ortib boradi. Yangi texnika va texnologiyani qo'llash unumdorlikda burilish yasaydi. Masalan, zamonaviy robotlar texnikasining qo'llanilishi mehnat unumdorligini 8–10 marta oshiradi. Olimlar hisobiga ko'ra, mehnat unumdorligi o'sishining 2/3 qismi fan-texnika taraqqiyoti hisobiga, 1/3 qismi esa boshqa omillar hisobiga yuz beradi. Aytaylik, mehnat unumdorligi yiliga 6 foiz o'sgan bo'lsa, shundan 4 foizi texnika taraqqiyoti hissasiga tushadi.

2.2. Ishlovchilarining bilim saviyasi, mehnat malakasi va mahorati, ya'ni ishlab chiqarish shaxsiy inson omilining sifati. Bu omil mashinalashgan ishlab chiqarishda beqiyos ahamiyatga ega. Murakkab texnika-texnologiya yuksak saviya va malakani talab qiladi, aks holda uni samarali ishlatib bo'lmaydi. Gap shundaki, ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omillari bir-biriga mos bo'lishi kerak. Masalan, yangi texnikani ishlatish chuqur texnikaviy bilim va ish tajribani talab qiladi.

2.3. Ishlab chiqarishning tabiiy sharoiti, tabiiy resurslar ishlatilish sharoitining qulay bo'lishi. Bu ayniqsa, undirma sanoat va qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligiga jiddiy ta'sir etadi. Qazilmalar tarkibida foydali moddalar ko'p va ular sayoz joylashgan bo'lsa, shubhasiz ularni undirib olish kam sarf talab qiladi. Quvayt neft konlarida mehnat unumdorligi Rossiyaning shimolidagi konlarga nisbatan ancha yuqori. Buning sababi Quvayt tabiiy sharoitining qulayligidir. O'zbekiston janubidagi paxtachilikda uning shimolidagiga nisbatan mehnat unumdorligi yuqori. Buning sababi ham tabiiy sharoitning har xil bo'lishidir. Gap shundaki, tabiiy sharoitga qarab, bir xil mehnat har xil natija beradi.

2.4. Mehnat stimullarining kuchli bo'lishi. Buni motivatsiya, ya'ni ish natijasiga qiziqish, undan manfaatdor bo'lish hosil etadi. Motivatsiya unumli ishlashdan yaxshi daromad topish bilan cheklanmaydi, bu o'z qobiliyatini ishga solish, dovuq qozonish, obro' orttirishni ham bildiradi. Ishlovchilar mehnat unumdorligini oshirishga qiziqqan joyda stimullar harakatga keladi, kishilar jonbozlik qilib mahsulot va xizmatlarni yaratishga ketadigan resurslar sarfini tejaydilar, natijada ish unumi ortadi. Mehnatni rag'batlantirish o'rniga mehnatga zo'rlash bo'lgan joyda unumdorlikni oshirishga intilish so'na boradi, ishlab chiqarish natijasiga befarq qarash paydo bo'ladi. Agar qul holatidagi ishlab chiqaruvchini olsak, u mehnatga zo'rlanganidan unumdorlikni ko'tarishga oshiqmaydi. Aksincha, mehnatni erkin tanlagan, undan manfaat topgan, ozod ishlab chiqaruvchi mehnat unumdorligini oshirishga intiladi, chunki Abu Rayhon Beruniy aytganidek: «Insonning qadr-qimmati o'z vazifasini a'lo darajada bajarishdan iborat, shuning uchun insonning eng asosiy vazifasi va o'zni mehnat bilan belgilanadi, inson o'z xohishiga mehnat tufayli erishadi».

Ishlab chiqarishning, umuman iqtisodiyotning naqadar rivojlanganligining asosiy ko'rsatkichi mehnat unumdorligi darajasidir. Iqtisodiyotga baho berishda jamiyat, ya'ni mamlakat iqtisodiyoti miqyosidagi

mehnatning unumdorligi asos bo'lib xizmat qiladi. Bu jamiyat miqyosida sarflangan mehnat evaziga nima yaratilganligini bildiradi. Mehnat unumdorligini (U) aniqlash uchun bir yilda yaratilgan mahsulot va xizmatlarning pulga chaqilgan miqdori (Mq)ni ishlovchilar soniga (N) bo'linadi. Buni formula shakliga keltirsak, u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Mq = 3 \text{ mlrd. dollar, } N = 500 \text{ ming kishi bo'lsa.}$$

Bu ko'rsatkich mehnat unumdorligi darajasini bildiradi va jamiyatning ishlab chiqara olish qobiliyatini ifodalaydi.

Eng yuksak mehnat unumdorligi XXI asrga kelib rivojlangan mamlakatlarda kuzatildi. Bu yerda 1999-yilda bir ishlovchi yiliga yaratgan tovar va xizmatlar 50 ming dollarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich AQShda 85 ming dollar, Yaponiya korporatsiyalarida 90 ming, qolgan korxonalarda 46 ming dollarni tashkil etdi. Bu unumdorlik darajasidir.

Unumdorlik darajasi bilan uning o'sish sur'atlarini farqlash kerak, chunki daraja yuqori bo'la turib, sur'atlar past bo'lishi mumkin va aksincha. Unumdorlikning o'sish sur'ati uning yuksalish tezligi bo'lib, foiz bilan ifodalanadi. Masalan, mehnat unumdorligi 10 yilda 57 foizga oshgan bo'lsa, uning-yillik o'sish sur'ati 4,6 foiz bo'ladi. Ammo bu unumdorlik darajasini bildir-maydi. Iqtisodda shunday qoida borki, unumdorlik darajasi yuqori bo'lsa, uning o'sish sur'atlari nisbatan past bo'lishi ham mumkin. Shu sababli unumdorlik o'sish sur'atlari past mamlakatning iqtisodiy qudrati yuqori bo'lishi mumkin. Aksincha ham bo'ladi.

2.5. Mehnat unumdorligining ahamiyati. Mehnat unumdorligi qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik vaqtning qadri oshadi, chunki vaqt birligida shunchalik ko'p mahsulot va xizmatlar yaratish va shu tufayli ko'proq pul topish mumkin. «Vaqt – bu pul demakdir» degan iboraning ma'nosi ham shunda. Mehnat unumdorligi va turmush farovonligi to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi. Unumdorlikning farovonlikka ta'siri ikki yoqlama bo'ladi. *Birinchi*dan, unumdorlikning yuksalishi ehtiyojni qondiradigan mahsulot va xizmatlarni ko'paytiradi. Qayerda unumdorlik yuqori bo'lsa, shu yerda turmush darajasi ham yuqori bo'ladi. Kambag'allik va muhtojlikning asl sababi esa mehnat unumdorligining past bo'lishidir, chunki oz yaratgan qo'p iste'mol qilishi mumkin emas, chunki bunda yaratilgan ne'matlar yetmay qoladi.

*Ikkinchi*dan, mehnat unumdorligining ortishi ish vaqtini tejab, kishilarning bo'sh vaqtini ko'paytirib beradi. Bo'sh vaqt esa jamiyatning

boyligidir. Iqtisodiyotdagi har qanday tejam vaqtning tejalishi demakdir. Agar mahsulot yaratish uchun zarur bo'lgan vaqt muttasil qisqarib borsa, kam vaqt sarflangan holda ehtiyoj to'laroq qondiriladi, chunki bu kam sarflab ko'p ishlab chiqarishni bildiradi. Nafaqat ishlab chiqarishda, balki iqtisodiyotning boshqa jabhalarida, xususan, iste'mol borasida ham vaqt tejalishi talab qilinadi. Ehtiyojni qondirishga zarur vaqt qisqarishi bilan bo'sh vaqt ortib boradi, bu esa inson rohat-farog'atini ta'minlovchi vaqt bo'ladi.

«Yaxshi ishlagan – yaxshi yashaydi» degan qoidani farovonlikning bevosita mehnat unumdorligiga bog'liq bo'lishi yuzaga keltiradi. Bu qoida ayrim ishlovchi, butun bir jamoa va hatto butun bir mamlakat xalqiga ham taalluqli bo'ladi. Unumdorlikning ijtimoiy ahamiyatini unga mos ravishda farovonlikning ortib borishi isbotlaydi.

Masalan, 2000-yilda dunyodagi iqtisodiyoti yuksak rivojlangan mamlakatlarda bir ishlovchi yaratgan mahsulot va xizmatlar 51,3 ming dollar, iqtisodiyot zaif mamlakatlarda esa 836 dollar bo'ldi (Bu unumdorlikni bildiradi). Shunga mos ravishda birinchi guruh mamlakatlarida jon boshiga aholi iste'moli 14,8 ming dollar, ikkinchi guruh mamlakatlarida 236 dollar bo'ldi. Bu farovonlik ko'rsatkichidir.

Mehnat unumdorligi korxonalar, sektorlar va mamlakatlar miqyosida jiddiy farqlanishini inobatga olib, unga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqiladi. Jumladan, *ichki ishlar idoralari faoliyatidagi mehnat unumdorligi, shuningdek, ixtisoslikka qarab mehnat unumdorligini oshirishda vaqtning qadri, vaqt birligida qanchalik darajada samaraga erishish mumkinligi kabi masalalar bugungi kunda dolzarbdir.*

Yoshlarga insonlarning cheksiz ehtiyojlarini qondirish uchun uzluksiz ravishda ishlab chiqarish bo'lishi kerakligini va ushbu masalaning bevosita inson faoliyatida o'ta muhimligini ta'kidlash joizdir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mehnat unumdorligi o'sishi:

- mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni obro'mand qiladi;
- demokratik o'zgarishlarni yanada samaraliroq etadi;
- Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligini oshiradi;
- xalqaro munosabatlarda ishtiroki va obro'sini oshiradi;
- aholini ish bilan band etishni ta'minlaydi;
- aholi daromadlarini va turmush darajasini oshiradi;
- jinoyatchilikning kamayishiga xizmat qiladi.

3. Takror ishlab chiqarishning mamlakat milliy rivojlanishida o‘rni va ahamiyati

Ehtiyojlarning yuksalib borish qonunining harakati obyektiv ravishda ne‘matlarni yaratishning uzluksizligini talab qiladi. Shu bois ham **iqtisodiyot** deganda kishilarning ehtiyojini qondirishga qaratilgan, anglangan faoliyat tushuniladi. Ne‘mat deganda insonning u yoki bu ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulot turi tushuniladi.

Iqtisodiy faoliyatning boshlanishi, mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish iqtisodiyotning asosi, uning bosh bo‘g‘ini hisoblanadi.

Mahsulot (noz-ne‘mat)lar ishlab chiqarish ishlatilishiga qarab ikki qismga bo‘linadi:

Moddiy ishlab chiqarish – moddiy shakldagi mahsulotlarni, masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy va boshqalarni yaratish hamda ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xizmatlarni yaratish.

Nomoddiy ishlab chiqarish – moddiy shaklga ega bo‘lmagan, lekin aholi uchun zarur xizmatlarni ko‘rsatish.

Ishlab chiqarish doimo takrorlanib va yangilanib turadi. Takror ishlab chiqarish oddiy, kengaytirilgan va toraygan bo‘ladi. Mustaqilligimiz iqtisodiy asoslariga tahdid sifatida toraytirilgan takror ishlab chiqarish masalasini tushunish mumkin. Chunki toraytirilgan takror ishlab chiqarish yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmining pasayishida ko‘rinadi. Bu ichki talabni qondirishga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Mahsulotlar taqchilligi yuzaga keladi. Ehtiyojlar to‘liq qondirilmaydi, natijada vahimali talab paydo bo‘ladi. Bu ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqaradi. Toraytirilgan takror ishlab chiqarish Vatan taraqqiyoti va uning obro‘sig a putur yetkazadi. O‘zbekistonda ishlab chiqilgan taraqqiyotning «O‘zbek modeli» ishlab chiqarish sur‘atlarining o‘shishini ta‘minladiki, bu xalqimiz turmush darajasini yanada yaxshiladi. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish milliy boylikni ko‘paytirish sharti hisoblanadi. Milliy boylik tarkiban moddiy, tabiiy va intellektual boylikdan, bir avlodga va bir necha avlodga xizmat qiluvchi boylikdan iborat. Boylik qanchalik ko‘p bo‘lsa, shunchalik iqtisodiy salohiyat kuchli bo‘ladi. Salohiyat ishlab chiqarish imkoniyatlari bo‘lib, erishilgan va istiqboldagi salohiyatlardan iboratdir.

Ishlab chiqarishning modernizatsiya etilishi, yangilanishi, uning qaytarilib turishi takror ishlab chiqarish (oddiy, kengaytirilgan, toraygan takror ishlab chiqarish) deyiladi. Kengaytirilgan takror ishlab

chiqarish jarayonida yaratilgan mahsulotlarning bir qismi iste'molga ketadi, boshqa bir qismi jamg'arilib, milliy boylikka kelib qo'shiladi. Takror ishlab chiqarishning muayyan davrda (oy, chorak, yil, yillar) mamlakatda to'plangan moddiy, madaniy-ma'naviy ne'matlar va tabiiy boyliklar yig'indisi bo'lgan milliy boyligimizga ta'siri katta.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – takror ishlab chiqarishning muhim omili hisoblanadi. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash quyidagi vositalar bilan amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash;
- eskirgan asbob-uskunalarini foydalanishdan chiqarish;
- ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish;
- ishlab chiqarilgan mahsulot turlarini kengaytirish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish resurslarini tejash;
- mahalliy resurslar bazasini, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish;
- chiqitsiz va ekologik sof texnologiyalarni joriy etish.

Eng asosiy jihat bunda to'plangan bilimlar, kasbiy malaka va tajriba inson kuchini takror ishlab chiqarish bo'lib, buni islohotlar, iqtisodiy o'sish, farovonlikni ta'minlashdagi rolini muhokama etish orqali yoshlar ongiga singdirishdir.

2011-yilda protokol bilan belgilangan topshiriqqa binoan mamlakatimizning barcha yirik korxonalarini va ishlab chiqarish tarmoqlarida o'tkazilgan texnik audit natijasida 37 mingga yaqin asbob-uskuna va texnologiyalarning jahon miqyosida sinovdan o'tgan, zamonaviy turlariga almashtirilishi lozimligi aniqlandi.

Vazirlar Mahkamasi ushbu audit natijalari asosida zudlikda moddiy va ma'naviy jihatdan eskirgan asbob-uskunalarini yangilash bo'yicha loyihalarning amalga oshirilishi yuzasidan, ularni moliyalashning aniq manbalariga alohida e'tibor qaratgan holda, tarmoq jadvallarini tasdiqlab tegishli ishlarni amalga oshirmoqda.

Chunki bugungi kunda iqtisodiyotimizning samarasi haqida so'z borar ekan, shuni tan olishimiz kerakki, bu yo'nalishda eskidan qolgan va hali-beri ro'y berib kelayotgan oqsoqlik holatlariga barham berib, birinchi navbatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning material va energiya sarfini minimal darajaga tushirish chora-tadbirlari ko'rilmogda.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini boshqarish tizimlarini joriy etish, mahsulotlarning xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash

masalasiga mamlakatimizda katta e'tibor qaratilmoqda. Yengil sanoat, farmatsevtika va qurilish materiallari sanoati kabi iste'mol tovarlari ishlab chiqariladigan tarmoqlarni rivojlantirishga ustuvorlik berilmoqda.

Mamlakatimizda yaratilgan ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish borasida ishga solinmagan ulkan imkoniyatlardan foydalanish, ishlab chiqarishni yangilash va modernizatsiya qilish uchun sarflanayotgan ko'p miqdordagi xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish maqsadida hamda mahsulotlar tan narxining asossiz ravishda o'sib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun davlatimiz tomonidan quyidagi masalalarni 2012-yilda hal etish zarurligi ko'rildi¹:

birinchidan, manfaatdor vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, kompaniya va korxonalar ishtirokida sanoatda mahsulot tannarxini 10–15 foizga pasaytirish yuzasidan har bir sanoat korxonasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ko'zda tutadigan dastur ishlab chiqish lozim;

ikkinchidan, mamlakatimiz korxonalarida qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash darajasini tanqidiy tahlil qilish va uni rivojlantirish bo'yicha mavjud resurs va imkoniyatlarni aniqlash hamda sanoatning qayta ishlash tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari turlarini ko'paytirish va sifatini yaxshilash, buning uchun qo'shimcha imtiyozlarni ko'zda tutadigan maxsus qaror qabul qilish kerak.

Bu borada, birinchi navbatda, mahalliy xom ashyo va materiallar asosida sanoat kooperatsiyasi va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish tizimini yanada rivojlantirishga oid ishlarni davom ettirishga alohida e'tibor qaratish darkor;

uchinchidan, bugungi keskin raqobat sharoitida mahsulotlarimizning jahon va mintaqaviy bozorlarda xaridorgir bo'lishi va mustahkam o'rin egallashi uchun bu boradagi ishlarni yana bir bor tanqidiy ko'rib chiqish lozim. Bunda tashqi bozorda xaridorbop, yuqori likvidli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni rag'batlantirishni yanada kuchaytirish, ularga yangi imtiyoz va preferensiyalar berish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar tayyorlash zarur;

to'rtinchidan, mamlakatimizdagi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari va boshqa tarmoqlarning eksport yarmarkalari o'tkazishni kengaytirish, shuningdek, mahsulot sotishning

¹ Каримов И. А. 2012 йил Ватанимиз taraqqiётини янги bosqichga kўtaradigan йил бўлади. – Т.: «Ўзбекистон», 2012. – Б. 23–25.

zamonaviy usullaridan keng foydalanish, asosiy ishlab chiqaruvchilarning o'z mahsulotlari taqdimotini o'tkazishi va yangi eksport shartnomalari tuzishi uchun nufuzli xalqaro yarmarkalarga jalb etish bo'yicha alohida hukumat qarorini qabul qilish lozim.

Tarkibiy yangilanishda alohida e'tiborni talab etadigan navbatdagi muhim masala – bu xizmatlar sohasining jadal rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Xizmatlar va servis sohasining joriy yilda keskin o'sishi, avvalo qurilish, transport, moliya-bank va axborot-kommunikatsiya sohalarida, aholiga tibbiy va kommunal-maishiy xizmatlar ko'rsatishda, ayniqsa, qishloq joylarda bu sohani yanada kengaytirish uchun hali-beri foydalanilmayotgan katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Xizmatlar sohasining rivojlanishi, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifati bo'yicha biz iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan hamon jiddiy orqada qolmoqdamiz.

Eng muhimi, shuni unutmaslik kerakki, katta kapital qo'yilmalar talab qilmaydigan bu soha iqtisodiyotning yuksalishiga, aholi bandligi va daromadlarining ortishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-yanvardagi yig'ilishida xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish bo'yicha 2012–2016-yillarga mo'ljallangan dastur loyihasini tasdiqlash uchun kiritishi, bunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida bu sohaning ulushi 54–56 foizga yetkazilishini nazarda tutish darkorligi vazifa etib belgilandi.

Takror ishlab chiqarish iqtisodiy o'sishning sharti bo'lar ekan, unda ta'lim omilining o'rni beqiyos. O'zbekistonda ta'lim har bir insonning butun umri davomida hayotining tarkibiy qismiga aylanishi imkonini yaratadigan ta'lim tizimi joriy etildi. Shu munosabat bilan «**Bilim – butun hayot davomida har bir inson uchun**» konsepsiyasiga asoslangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturini joriy etish borasida O'zbekiston tajribasini o'rganish 2012-yil 16–17-fevral kunlari Toshkent shahrida «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiyalashning muhim sharti» mavzuida xalqaro konferensiya ishtirokchilari tomonidan yakuniy hujjat sifatida qabul qilindi. Aynan bilim bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyotni belgilovchi kuch sifatida e'tirof etilmoqda.

Yuqoridagilarning barchasi mamlakatimizda mehnat unumdorligining o'sishiga, iqtisodiy o'sishni izchil ta'minlashga, O'zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar:

Ishlab chiqarish omillari, moddiy-ashyoviy omil, shaxsiy-insoniy omil, informatsion omil, ishlab chiqarish omillarining birikish usullari, ishlab chiqarish sektorlari, natural va tovar ishlab chiqarish, iste'mol buyumlari va moddiy resurslarni ishlab chiqarish, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi, mehnat unumdorligi omillari, ishlab chiqarish chegarasi, ishlab chiqarish darajasi, takror ishlab chiqarish, milliy boylik, iqtisodiy salohiyat.

Savol va topshiriqlar:

1. Iqtisodiy faoliyat ehtiyojlarni qondirishning vositasi ekanligini tushuntiring.
2. Iqtisodiy faoliyatning ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida aks etishini qanday izohlaysiz?
3. Iqtisodiy faoliyatning siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy faoliyatlardan farqini izohlang.
4. Moddiy va nomoddiy sohalarning mohiyatini tushuntirib bering.
5. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirishga qanday iqtisodiy va huquqiy omillar ta'sir ko'rsatadi?
6. Ichki ishlar idoralarning xodimlari uchun mehnat unumdorligining ahamiyati qanday?
7. Mehnat unumdorligi turli darajalarda bo'lishining sabablarini tushuntiring.
8. Ishlab chiqarish hajmi pasayishining oqibatlarini sharhlang.
9. Insonlar ehtiyojlarining to'liq qondirilmasligi bilan jinoyatchilik orasida qanday bog'liqlik bor?

Mavzuni chuqur o'rganish instrumentariysi

Mehnat unumdorligi vaqt birligida yaratilgan mahsulot va xizmatlar birligini yaratish uchun sarflangan ish vaqti. Mehnat unumdorligi mehnat sarfi minimum bo'lgani holda, mahsulotning maksimum bo'lishini bildiradi.

Inson kapitalining bazisligi – uning boshqa barcha turdagi kapitallar yaratilishi va rivojlanishi uchun manba bo'lish xususiyati.

Inson kapitalining bazaviy subyektiv tuzilishi – individ, uy xo'jaligi, tashkilot, millat va umuman jahon hamjamiyati a'zosi sifatida shaxsning insoniy kapitali.

Ichki institutsional kapital – inson uchun ichki xususiyatga ega bo'lgan norma va qoidalarda ko'rinadigan qadriyat bo'lib, ularning daromad keltirish

xususiyati ichki transaksion xarajatlar, ya'ni «ichki shaxsiy» o'zaro munosabatlardagi kamchiliklarni kamaytirish bilan bog'liq.

Ichki aqliy kapital – insonning yangi bilimlar, ichki institutlar va shu kabilar shaklida daromadli ichki nomoddiy qadriyatlar yaratish qobiliyatida namoyon bo'ladigan qadriyat.

Inson kapitalining ichki tartiblashuvi – uning muayyan yaratuvchilik vazifalarini bajarishda shaxs xislatlari va sifatlarining yaxlit tizimini faollashtirish qobiliyati.

Institutsional kapital – transaksion xarajatlarning kamaytirilishini ta'minlovchi, binobarin yaratuvchilik jarayonini tezlashtirib umumiy daromad keltirish xususiyatining o'sishini ta'minlovchi norma va qoidalar tizimi.

Inson kapitalining integratsiyalovchi roli – uning ishlab chiqarishning mavjud omillarini texnologik birlashtirish hamda tabiiy va ashyoviy kapitalning jalb etilgan elementlaridan foydalanishning eng yuqori samaradorligini ta'minlovchi qulay ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional muhitni shakllantirish xususiyati.

Intellektual qadriyatlar – ishlab chiqarishning takroran ishlab chiqariluvchi omillaridan foydalanish, ya'ni tabiiy kapitalni yo'q qilmaslik asosida yaratilgan ne'matlar.

Inson kapitalining hosil bo'lgan subyektiv tuzilishi – uy xo'jaliklari, tashkilotlar (firmalar), jamiyat va jahon hamjamiyatining inson kapitalini o'z ichiga oladigan muayyan majmui.

Ish kuchi – shaxsning yaratuvchilik faoliyatiga potensial tayyorligi va qodirligini ifodalovchi muayyan insoniy resurs.

Inson kapitalining o'z-o'zidan rivojlanuvchi xususiyati – insonning muayyan, ongli ravishda belgilangan yo'nalishda amalga oshiradigan zarur yaratuvchilik xususiyatlari va ko'rsatkichlarini shakllantirib va takror ishlab chiqarib, o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyati.

Ijtimoiy kapital – shaxsning ijtimoiy maqomini yaratuvchi, uning ijtimoiy transaksiyalar tizimidagi o'rnini belgilovchi va shaxsga muayyan daromad olishini ta'minlovchi ijtimoiy o'zaro aloqalar jarayonida yuzaga keladigan va rivojlanadigan barqaror ijtimoiy aloqa va munosabatlar tizimidan iborat o'ziga xos qadriyat.

Mehnat – shaxs mehnat kapitalining u yoki bu hayotiy ne'matni yaratish borasidagi real maqsadga qaratilgan, ongli faoliyatiga aylanib, yaratuvchilik yo'lida sarflanishidir.

Mehnat kapitali – insonning hayotiy moddiy ne'matlarni yaratishda foydalanadigan bilimlari, mahorat va uquvlari hamda qobiliyatlarining daromad keltiradigan yig'indisi (kombinatsiyasi)da ko'rinadigan qadriyat.

Inson kapitali (ichki va tashqi insoniy kapitalning birligi) – doimiy rivojlanib boruvchi, yaratuvchilikka qaratilgan va talab etiladigan insoniy xislatlar tizimida

namoyon bo'ladigan hamda ongli ravishda va maqsadga yo'naltirilgan holda foydalanilishi inson rivojlanishi uchun talab etiladigan hayotiy ne'matlarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishini ta'minlaydigan o'ziga xos qadriyat.

Shaxsning iqtisodiy madaniyati – uning ichki va tashqi transaksiyalar tizimini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi aniq, «amaliy» qadriyatlar – institutlari.

Inson kapitali faoliyatining eksternal xususiyati – ushbu kapitalning borgan sari kamroq o'z qadriyatini ekvivalent baholashning hamda bu bilan bog'liq tegishli xarajatlarning obyekt bo'lish xususiyati; inson kapitalining uning sohibidan ajralmasligi shaxs uchun o'z insoniy kapitalini tegishli shartnomada tartibga solinganidan ancha ortiq darajada amalga oshirish imkoniyatini shakllantiradi.

Intellekt – insonda uning o'zi takror ishlab chiqaradigan va axloq, adolat va yuksak madaniyat darajasini yaratuvchi normalar sharoitida shakllanadigan, gumanistik yo'nalishdagi ma'naviy-axloqiy bilimlar, tafakkur, bilish va ijod qilish qobiliyatlari tizimi.

Intellektual – intellekt sohibi, gumanistik yo'nalishdagi ma'naviy-axloqiy bilimlar, tafakkur, bilish va ijod qilish qobiliyatlari tizimiga ega bo'lgan inson.

Zamonaviy iqtisodiyotning intellektuallashuvi – xo'jalik faoliyatining yuksak axloqiy asoslarining shakllanish va rivojlanish jarayoni.

Intellektual ichki ishlab chiqarish – insonning gumanistik (noosferaga oid) yo'nalishdagi tafakkur, bilish va ijod qilish kuch va qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi ongli va maqsadga qaratilgan faoliyati.

Intellektual ishlab chiqarish – intellektual kapitaldan intellektual ne'matlar yaratish maqsadida ongli ravishda foydalanish jarayoni.

Intellektual ashhyoviy qadriyatlar – intellektual ishlab chiqarish jarayonida amalga oshirilgan innovatsion g'oyalar, nou-xau, ixtirolar, texnik-texnologik yangiliklar va kashfiyotlar.

Intellektual ichki mahsulot – quyidagilarni o'z ichiga oladigan mahsulotlar: a) intellektual insoniy kuchlarni boyituvchi noosferaviy (axloqiy-iqtisodiy) yangi endogen bilim va ko'nikmalar; b) inson intellektual ichki ishlab chiqarishni o'zi tashkil qilishi va amalga oshirishini belgilovchi norma va qoidalardan iborat ichki institutlar.

Intellektual noashyoviy tashqi qadriyatlar – intellektual ishlab chiqarish jarayonida yangi bilimlar, shuningdek institutsional va ijtimoiy kapital shaklida yaratilgan ne'matlar.

Intellektual tashqi (ekzogen) kapital – inson intellektining intellektual tashqi ne'matlar yaratilishini ta'minlovchi faollashgan qismi.

Intellektual ichki (endogen) kapital – inson intellektining intellektual ichki ne'matlar yaratilishini ta'minlovchi muhim qismi.

Intellektual kapital – inson intellektining gumanistik yo‘nalishda foydalanilishi avvalo yaratuvchi bilimlar shaklida samara berishini ta‘minlaydigan xususiyat va sifatleri tizimi.

Axloqiy-iqtisodiy xo‘jalik yuritish – yaratuvchilik faoliyatining tabiiy kapital yo‘q qilinishi to‘xtatiladigan va insonning rivojlanishi haqiqatan ham gumanistik yo‘nalishga ega bo‘ladigan xususiyatini ongli ravishda va maqsadga qaratilgan holda ta‘minlash.

Intellektual qadriyatlar tizimi – intellektning, intellektual kapitalning (ichki va tashqi), shuningdek intellektual tashqi mahsulotlarning o‘zaro bog‘liq va rivojlanib boruvchi birligi.

Yaratuvchi bilimlar – tabiat ashyosiga nisbatan qo‘llanishi takroran ishlab chiqariladigan resurslar asosida ijtimoiy yoki umuminsoniy boylikning o‘shirishini ta‘minlaydigan bilimlar.

Aqliy kapital – unumli foydalanilishi yangi foydali bilimlar yoki dolzarb axborot shaklida samara berishini ta‘minlovchi muayyan insoniy bilish, ijodiy xislatlar va sifatlar tizimi.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. Ishlab chiqarish munosabatlari – ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste‘mol munosabatlaridan iborat.

2. Ishlab chiqarishda tovarlar va xizmatlar yaratiladi. Shu bois u birlamchi hisoblanadi.

3. Taqsimlash munosabati yaratilgan tovar (xizmat)lar, tarmoqlar, sohalar hamda resurs egalari o‘rtasida taqsimlanadi, taqsimlashda kishilarning manfaati yuzaga chiqadi, manfaat esa ehtiyojni bildiradi. Shu bois ham taqsimotning bosh tamoyili – bu adolatlilik tamoyilidir. Taqsimlash ishlab chiqarishning hosilasi hisoblanadi.

4. Ayirboshlash munosabati – turli xil bozorlarda tovar (xizmat)lar pul vositasida ayirboshlanib, ishlab chiqaruvchidan iste‘molchi qo‘liga o‘tadi. Ayirboshlash usuli savdo-sotiqni bildiradi.

5. Iste‘mol munosabati ishlab chiqarish munosabatlarining so‘nggi bosqichi bo‘lib, ular shaxsiy va unumli iste‘mol qilinadi. Iste‘mol kishilarning kundalik ehtiyojlarini qondirish hamda ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadini ko‘zlaydi. Iqtisodiyot ishlab chiqarishdan boshlanib, iste‘mol bilan yakunlanuvchi faoliyat sifatida doimo takrorlanib turishi zarur, bo‘lmasa, kishilik jamiyati yashay olmaydi.

4-MAVZU. MULKCHILIK MUNOSABATLARI

1. Mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy mazmuni

Har qanday jamiyatning iqtisodiy tizimi mulkchilikdan boshlanadi. Hamisha avlodlar mehnati yaratgan va tabiat in'om etgan boyliklar mulk bo'lib kelgan. Mulk egasi bo'lish yoki bo'lmaslikka qarab, kishilarning jamiyatdagi mavqei, aniqrog'i, ularning ijtimoiy maqomi yuzaga keladi. Mulkiy munosabatlarga asoslanmagan iqtisodiyot bo'lishi mumkin emas.

Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin (*O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 53-modda*).

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Prezident Islom Karimovning O'zbekiston iqtisodiyotining negizini mustahkamlashda «Mulkchilik masalasini hal qilish bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qiladi», degan da'vati bugungi kunda o'z tasdig'ini topdi.

Darhaqiqat, mulk sohibi o'z mulkiga tayanib, mustaqil ish yuritadi, u qaram emas. Mulksiz, o'zga mulkini ijaraga olib, faoliyat yurgizishi yoki mulkdorga yollanib yoki nochorlikdan unga qaram holda ishlashi, birovning qo'liga qarab qolishi mumkin. Har bir kishi o'z mulki orqasidan kun ko'radi. Yer egasi dehqonchilik qilish yoki yerni ijaraga berishdan, pul egasi uni qarzga berib, foiz olishdan, kapital egasi uni biznesda ishlatishdan, nihoyat, ish kuchi egasi yollanib ishlashdan daromad topadi.

Iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichida (bundan 21 yil oldin davlatimiz rahbari tomonidan aytilgan) eng muhim dolzarb vazifa – mulkiy munosabatlarni tubdan o'zgartirishdir. Uning tub mohiyati – mulkni haqiqiy egalari qo'liga berishni tezlashtirish, tadbirkorlik uchun keng yo'l ochib berish va mulkdorda yangi mulk egasi hissiyatini tarbiyalashdan iborat.

Mulkchilik o'zlashtirish borasidagi munosabat bo'lar ekan, u egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishning yaxlitligini taqozo etadi. Mana shu uch jihat mulkchilikning ajralmas unsurlaridir.

Mulkchilik iqtisodiy hamda yuridik kategoriya sifatida uch ajralmas jihatga ega: egalik qilish, tasarruf etish, foydalanish.

Egalik qilish – mulkdorlik huquqining mulk egasi qo'lida saqlanib turishidir. Egalik sharoitida mulk bo'lgan boylik qisman o'zlashtiriladi. Mulkka egalik saqlangan holda, uni amalda ishlatish o'zga qo'lida bo'ladi. Buning oqibatida mulkdan kelgan naf ikki qismga ajraladi: bir qismini mulkdor, ikkinchisini mulkni amalda ishlatuvchi o'zlashtiradi. Masalan, bino ijaraga berilganda, egalik qilish mulkdor qo'lida qoladi va u mulkdan kelgan nafning faqat bir qismini ijara haqi shaklida o'zlashtiradi. Boshqa qismi esa ijarachi o'zlashtiradi. Xullas, egalik qilish qisman, cheklangan o'zlashtirishni bildiradi.

Foydalanish, ishlatish – mulk bo'lgan boylikni iqtisodiy faoliyatda qo'llab, xo'jalik jarayoniga kiritib, undan natija olishdir. Foydalanish yuz berganda, boylik daromad topish yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatiladi. Mulkdor o'z mulkini o'zi ishlatganda, egalik qilish va foydalanish bir qo'lida bo'ladi. Olingan natijani mulkdor tanho o'zi, boshqa bilan baham ko'rmagan holda o'zlashtiradi. Egalik qilish va foydalanish ajralganda, mulk keltirgan naf ham taqsimlangan holda o'zlashtiriladi.

Tasarruf etish – mulk bo'lgan boylik taqdirini mustaqil hal etish, ya'ni mulkni sotib yuborish, ijaraga berish, merosga qoldirish, asrab-avaylab ko'paytirish yoki uni yo'qotib yuborishdan iborat xatti-harakatlarni amalga oshira bilishdir. Mulkchilik munosabat ekan, albatta, uning obyekt va subyekt bo'lishi shart.

Mulkchilik obyekt – bu mulkka aylangan barcha boylik turlari. Unga yer, suv, konlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, mashinalar, mashina-uskunalar, bino-inshootlar, mahsulotlar – xizmatlar, tarixiy-madaniy yodgorliklar, ilmiy-texnikaviy g'oyalar, tovar belgilari, tovarlarning o'zi, mehnat – aqliy-jismoniy qobiliyatlar va boshqalar kiradi. Mana shu moddiy va nomoddiy ne'matlarni o'zlashtirish yuzasidan mulkiy aloqa shakllanadi. Ne'matlar mulkka aylangandagina o'zlashtiriladi.

Mulkchilik subyekt – mulk obyektini o'zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlarning ishtirokchilari. Bular jumlasiga ayrim kishilar, oilalar, aholining ijtimoiy guruhlari, hududiy birlashmalar, har xil jamoalar, ijtimoiy, diniy tashkilotlar va nihoyat, davlat kiradi. Aytilgan subyektlarga qarab o'zlashtirish individual, oilaviy, ijtimoiy-sinfiy,

hududiy va umummilliy tus oladi. Ijtimoiy tabaqalashgan jamiyatda o'zlashtirish o'zining darajasi va usuliga qarab har xil bo'ladi.

O'zlashtirish ikki yo'sinda boradi: 1) ishlab chiqarish resurslari, ya'ni vositalarini o'zlashtirish. Bunda moddiy va mehnat resurslari ishlab chiqarish sohibining mulkiga aylangandan so'ng o'zlashtiriladi. Ishlab chiqarishdagi o'zlashtirish birlamchi. Bu yerda ishlab chiqarishning har ikkala omili (moddiy va inson omillari) birikadi, mahsulot va xizmatlar yaratiladi. Mana shu omillarning o'zlashtirilishiga qarab, mehnat natijalariga nisbatan mulk shakllanadi;

2) ishlab chiqarish natijalarini o'zlashtirish – yaratilgan mahsulot (ish) – xizmatlarni, ularni sotishdan kelgan daromadni kimning mulkiga aylanishini bildiradi. Resurslar kimning mulki bo'lsa, natija ham uniki. Ammo bu qoida egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish yaxlit holda va bir subyekt ixtiyorida bo'lganda, yuz beradi.

Mulkchilik o'zlashtirishning iqtisodiy usullarini anglatadi. Ammo, uning *g'ayriiqtisodiy usullari ham uchrab turadiki, bu boylikni mulk egasidan zo'rlik bilan tortib olish yoxud uni o'z egasi tomonidan ixtiyoriy ravishda umummilliy maqsad yo'lida, savob-xayriya ishlari uchun boshqa subyektga berilishi, uning mulkiga aylanishidir.* Islom mamlakatlarida azaldan din rivoji uchun xayriya berish bor. Bu yerda vaqf mulki, vaqf boshqarmasi va hatto vaqf banklari bor. Vaqf mulki ko'ngilli xayriyadan tashkil topadi, uning shakllanishi g'ayri iqtisodiy usulda yuz beradi. Mulk egasi o'z boyligini diniy tashkilot ixtiyoriga vaqf qilib beradi, ya'ni o'z mulkidan ko'ngilli ravishda voz kechadi va u o'zga mulkiga aylanadi.

Iqtisod insoniylashib borgan, uning samarasi oshgan sayin boylikning xayriya uchun ajratilgan qismi ortib boradi. Turli-tuman xayriya fondlari – pul mablag'lari tashkil topadiki, ularni turli mulk egalari ajratadilar. Masalan, Orol fondi, Oltin meros, Ekosan xalqaro jamg'armasi, Mahalla jamg'armasi va h.k.

Mol-mulkni zo'rlik bilan tortib olish ekspropriatsiya, ya'ni musodara deyiladi. Agar uning haqini to'lamasdan sud hukmi yoki ma'muriy yo'l bilan tortib olinsa, konfiskatsiya deyiladi. Mulk egasi bilan kelishgan holda va haqini to'lab qonuniy ravishda olinsa, rekvizitsiya yuz beradi.

Davlatning demokratik negizlari barqarorligining iqtisodiy asosini – mulk shakllarining xilma-xilligi, birinchi navbatda xususiy mulk tashkil etadi.

Davlatning demokratik negizlari barqarorligining siyosiy asosini – real ishlab chiqarish vositalarining o‘rta mulkdorlaridan iborat kuchli qatlamlarning mavjud bo‘lishi tashkil etadi. Aholi orasida haqiqiy mulkdorlar o‘rta qatlamining ko‘pchilikni tashkil etishi mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni orqaga qaytarish imkoniyatlarini bartaraf etishning kafolati hisoblanadi.

Odam o‘zini chinakam mulkdor deb his etmas ekan, o‘z huquqlari, pirovard natijalar va ishlab chiqarish samaradorligi uchun mulkdor sifatida kurash-maydi. Jamiyatda barqarorlikni saqlab qolish va himoya qilishga intil-maydi.

Mamlakatimizda ro‘y berayotgan barqaror iqtisodiy o‘sish odamlar ongidagi o‘zgarishlar mahsuli sifatida baholanayotgani bejiz emas. Mehnatga, mulkka bo‘lgan munosabat o‘zgardi. Joylarda, nihoyat, tadbirkor va fermerlarga mustaqillikning dastlabki yillaridagidek o‘gay ko‘z bilan qaralmayotgani xususiy mulkka iqtisodiyotning tayanchi sifatida munosabatda bo‘linayotgani mahsulidir.

Muhim yutug‘imiz sifatida bozor islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan choralarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotganligini ta‘kidlash lozim.

Iqtisodiy munosabatlar mazmunini mulkka bo‘lgan munosabat belgilaydi. Bu munosabat jamiyatning ijtimoiy tuzilishini, ishlab chiqarishni rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilab beradi. Mulikka bo‘lgan munosabatni joriy qilish huquqning me‘yorlariga bog‘liq bo‘lib, mulkka egalik qilish, undan foydalanish, muayyan shaxslarga biriktirish, mulk huquqi orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tish bosqichida mulkning barcha shakllari uchun yagona huquqiy tartibotni joriy etish «mulk huquqi» degan yagona tushunchani hamda uning shakllarini sifat jihatidan yangicha chegaralash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Davlat mustaqilligi qo‘lga kiritilishi bilan, boshlangan tub o‘zgarishlar xususiy mulkchilikning ham egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishning boshqa shakllari bilan bir qatorda respublika iqtisodiy tizimining asosini tashkil etishga olib keladi.

2. Mulkchilik turli shakllarining vujudga kelishi

2.1. Prezident Islom Karimov jamiyatning iqtisodiy negizlarini mustahkamlash to'g'risida

1990-yil 2-iyunda «Sovet O'zbekistoni» gazetasi Prezident Islom Karimovning 1990-yil 16-iyun kuni O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetida respublikaning iqtisodiy mustaqillikka va bozor iqtisodiyotiga o'tish masalalari xususidagi nutqini e'lon qildi.

Ushbu nutq bilan atroflicha tanishgan inson mustaqillik arafasidagi katta o'zgarish – O'zbekistonning siyosiy mustaqilligini mustahkamlash va takomillashtirish, iqtisodiy mustaqillikka, o'zini o'zi idora etish, moliyaviy ta'minlashga erishish, aholi barcha tabaqalarining farovonligini oshirish, cho'kib borayotgan ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, xalqni ma'naviy yuksaltirish, demokratiyani, huquqqa asoslangan davlat qurilishini rivojlantirish, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi yo'lida barcha sog'lom kuchlarni birlashtirish kabi ezgu maqsadlarni ilg'aydi.

Quyida Prezident Islom Karimovning ushbu nutqidan iqtiboslar keltirishni joiz deb bildik: «Bugungi kunda, eng avvalo bir daqiqani ham boy bermasdan iqtisodiy masalalarni hal etish kerak. Biz uchun asosiy yo'nalish, barcha vazifalarni hal etish kaliti – O'zbekistonning real siyosiy suvereniteti va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashdir.

Mustaqillik respublikaga o'z xalqining farovonligini yaxshilashdek hayotiy muhim masalalarni hal etish, vujudga keltirilgan imkoniyatlar va resurslarni to'laligicha mustaqil ravishda rejalashtirish va ulardan foydalanish, o'z xalqining farovonligi yo'lida va o'zaro foydali negizda markaz, boshqa respublika va xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarni mustaqil o'rnatish imkonini beradi».

«Aniq iqtisodiy hisob-kitoblar siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka o'tish ushbu vazifaning butun murakkabligi va nihoyatda qaltisligini hisobga olganda, ayni vaqtda bozor iqtisodiyoti joriy etilishi bilan oson kechishi mumkin emasligini ko'rsatmoqda. Lekin faqat ana shu mustaqillik bugungi jamiyatimizda yo'q bo'lgan narsalarni – haqiqiy mehnat qilishga intilishni, samarali ish uchun moddiy omillarni berishga qodir. Bunda – o'tmishda ham, hozir ham, kelajakda ham – butun muammoning mohiyati yashiringan. Ko'p yillik achchiq tajriba, qanday tayoq ostida ishlamaylik – xoh u plan, xoh davlat buyurtmasi yoki davlat yo'li bilan mahsulot yetkazib berish bo'lsin – faqat arzimagan samara

keltirishini ko'rsatib turibdi. Chunki bunday tizim insonning ijodiy tashabbusini falaj qiladi, undagi egalik hissini yo'qotadi. O'z ishidan norozilik keltirib chiqaradi».

«Bizga mustaqillik kerak. Binobarin, har doim, hamma davrda va barcha tuzumlarda mulk huquqi ham iqtisodiy, ham siyosiy mustaqillikning hal qiluvchi sharti bo'lgan. Bu nima degani? Agar men nimagadir ega bo'lsam, ana shu mulkdan o'z manfaatlarim yo'lida foydalanaman va uni tasarruf etaman, demak, men mulk egasiman. Xuddi shu yerda mening shaxsiy erkinligim, mustaqilligim va ayni vaqtda jamiyatda boshqa odamlar orasidagi o'zaro aloqalarimning asosi bor. Ayni paytda egalik huquqi faqat moddiy boyliklargagina taalluqli emas. Bu aqliy qobiliyatga ham taalluqlidir. Mustaqil shaxslarning uyg'unligi esa butun jamiyat mustaqilligining asosidir».

«Agar iqtisodiy quvvatimizni tashkil etadigan barcha asosiy fondlar bugungi kunda 100 milliard so'm hisoblansa, hozir amal qilayotgan tartibga ko'ra, qariyb 30 milliard so'm pul Ittifoq tobeligidadir. Ishlab chiqarishning asosiy fondlarida esa bu mutanosiblik yanada yomon. Bu sohada mablag'larning beshdan ikki qismi Ittifoq tobeligida, shu jumladan sanoatda ana shu mablag'larning deyarli 70 foizi, transportda hamda moddiy-texnika ta'minotida, ilm-fanda 30 foizga yaqini Ittifoqqa tegishli».

«Eng muhim narsa nima?

Birinchisi, respublika mulki mustaqil va u federasiyadan ajratilgan.

Ikkinchisi, o'lkamiz zamini, yer osti boyliklari, korxonalari va tashkilotlari O'zbekiston SSRning mutlaqo o'z mulki hisoblanadi. Ana shu boyliklarimiz mustaqilligimizni, respublikamizning madaniy va tarixiy qadriyatlarini ta'minlaydi.

Uchinchisi, O'zbekistonda mulkchilikning xilma-xil shakllarini rivojlantirish ko'zda tutilmoqda. Bu shakllar teng huquqli bo'lishi kerak».

Ma'lumki, sobiq Ittifoqdagi ishlab chiqarish munosabatlari mehnatkashlarning ijobiy tashabbusini tang ahvolga solib qo'ygan edi. Mulkchilikning turlari qancha ko'p bo'lsa, uning egalari o'zgarib tursa, inson omili faollashuviga olib keladi, chunki amalda mehnat jarayoniga va mehnat natijalarini taqsimlash usullariga qiziqish o'zgarib boradi. Boshqacha qilib aytganda, mehnatning jadallashuvidan moddiy rag'batlanish inson omilining rivojlanishida asosiy kuch tarzida namoyon bo'ladi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mustaqillikka qadar «Mulk to'g'risida», «Tadbirkorlik to'g'risida», «Yer to'g'risida», «Kooperatsiya to'g'risida» va boshqa shu kabi qonunlarning qabul qilinishi ta'sirida

inson omilining ko'pgina tomonlari erkin faoliyat yo'liga kirganligini yana alohida qayd etish lozim.

Davlatimiz rahbari yuqoridagi masala yuzasidan quyidagilarni ta'kidlaydi: «Bozor munosabatlariga o'tish masalasi. Ana shunday maqsad va vazifalardan kelib chiqib, respublikada o'tish davridagi resurslarimiz va imkoniyatlarimizdan samarali foydalanish, aholining ijtimoiy himoyasi, ayniqsa, kam ta'minlangan aholi ijtimoiy himoyasining ishonchli mexanizmi ishlab chiqilishi lozim.

Bunda eng asosiy masala – mulkchilik muammosidir. Mulkchilik haqidagi tushunchamizni belgilab olmay turib, ishlab chiqarish munosabatlariga yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyati bo'lmaydi, boshqacha qilib aytganda, respublikada mulkchilikning qanday shakllari bo'lishini aniqlab olish darkor.

Biz mulk shakllarining xilma-xilligini boshqariladigan bozorning hal qiluvchi omili, deb bilamiz (*E'tibor qarating: davlatimiz rahbari mustaqillikka qadar boshqariladigan bozor haqidagi ilmiy qoidani ilgari surgan – ta'kid bizniki Sh. Qobilov*). Davlat mulki bilan bir qatorda va u bilan teng huquqlilik asosida kollektiv, aksionerlik, oila, shaxsiy mehnat, shaxsiy mulk ham keng yoyiladi».

Davlatimiz rahbari yuqoridagi talablardan kelib chiqib ijtimoiy vaziyatni mo'tadillashtirish borasida 1990-yilning oktabrida, hali O'zbekiston mustaqillikka erishmagan davrda O'zbekiston Respublikasida «Mulk haqida»gi qonunning qabul qilinishida tashabbus ko'rsatgan. Bu Prezident Islom Karimovning jamiyatimizning iqtisodiy negizlari va iqtisodiy mustaqilligimizni mustahkamlashdagi dadil amaliy qadami edi. Bu MDH mamlakatlari ichida birinchilardan bo'lib xususiy mulkning huquqiy maqomi, mulk subyektlarining vakolati va burchlarini qonuniy mustahkamladi. Mustaqillik arafasida Islom Karimov tashabbusi bilan yana bir muhim qadam tashlandiki, 1991-yilning fevral oyida O'zbekiston Respublikasida «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Shu bois bugungi kunda mustaqillik arafasida amalga oshirilgan sa'y-harakatlar xalqimizga hayotiy muhim manfaatlarini yuzaga chiqarishda amaliy ko'mak berdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy tamoyillaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan chuqur asoslab berilgan kuchli ijtimoiy siyosat aholi yalpi daromadlarining o'sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Mazkur islohotlar natijasida 1990–2010-yillar (1991–2000-yillar bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri) davomida O‘zbekiston aholisining yalpi daromadlari aniq hisob-kitoblarga ko‘ra 8,6 barobar oshdi.

Yalpi daromadlar tarkibida shu davrda mulk daromadlari, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan daromadlar ko‘rinishidagi yangi daromad turlari paydo bo‘ldi. Tabiiyki, sobiq mustabid tuzum davridagi markazlashtirilgan rejali iqtisodiyot sharoitida aholining bunday daromad manbalari shakllanishiga mutlaqo yo‘l qo‘yilmas edi.

Yangi turdagi bunday daromadlar hissasiga 2012-yilda yalpi daromadlarning 51 foizi to‘g‘ri keldi.

Yangi turdagi ushbu daromadlarning afzalligi shundaki, aholining tadbirkorlik sohasidagi faollashuvi oila yalpi daromadlarining jadal ravishda oshib borishi uchun rag‘batlantiruvchi bozor omillarini yaratadi, markazlashtirilgan iqtisodiyot sharoitida keng tarqalgan boqimandalik va daromadlarning bir xilda bo‘lishi darajasini pasaytiradi.

O‘rtacha oylik ish haqi miqdorining bosqichma-bosqich oshirib borilishi yalpi daromadlar tarkibidagi, o‘tish davrining dastlabki yillarida bo‘lgani kabi, ulushi yanada pasayib ketishining oldini oldi. Hozirgi paytda aholining yalpi daromadlarida oylik ish haqining ulushi barqaror holat, ya‘ni 30–32,1 foiz darajasida saqlab qolinmoqda.

O‘zbekistonda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning qabul qilinishi, hayotimizda tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan o‘rta sinfni shakllantirish imkonini berdi. Ekspert xulosalariga ko‘ra, o‘rtacha daromadga ega bo‘lganlar, agar 1990-yilda aholining 18 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2001-yilda uy xo‘jaliklarini tadqiq etish natijalariga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 24 foizga yetgani ayon bo‘ldi. 2010-yilda esa 60 foiz uy xo‘jaliklari o‘rtacha darajadan kam bo‘lmagan barqaror daromadga ega bo‘lgan. O‘tgan 21 yil mobaynida yurtimizda uy-joy hajmining ko‘rsatkichi qariyb 2 barobar oshgani, oilalarning 98,5 foizi o‘zining shaxsiy uy-joy yoki kvartirasiga, qishloqda yashayotgan oilalarning 97,5 foizi shaxsiy tomorqasiga ega bo‘lganini ayni shu maqsadda amalga oshirgan milliy dasturlarimizning natijasidir.

2012-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi 54,5 foizni tashkil etganligining poydevori bundan 22 yil oldin qo‘yilganligini eslash va alohida qayd etib o‘tish joiz.

Mulkiy munosabatlar har doim yuridik qonunlarda qayd etiladi. Busiz mulkchilik amal qilmaydi. Qonunchilik orqali mulkiy aloqa – bog‘lanishlar boshqarib boriladi. O‘zbekiston Konstitutsiyasida: «O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi», – deb yozilgan.

2.2. Mulkiy munosabatlarning tiplari, shakllari

Mulk tipi – har xil turdagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga xos bo‘lgan mulkiy munosabatni, mulk xarakterini bildiradi. Shu jihatdan ekspluatatsiyaga asoslangan va ekspluatatsiyani inkor etuvchi mulkiy tizimlar mavjud. Birinchi tizim azaldan mavjud bo‘lgan va ozchilikning mulkdor bo‘lishi ko‘pchilikning mulksiz qolishi va ekspluatatsiya qilinishi bilan xarakterlanadi. Bunday tipdagi mulkchilik quldorlik, feodalizm, kapitalizm va byurokratik davlat sotsializmiga xos bo‘lgan. U ishlab chiqarish moddiy omillarining hukmron sinf va toifalar qo‘lida to‘planishi; mehnat omilining esa mazlumlar tomonida bo‘lishi bilan ajralib turgan. Shunday sharoitda har xil mulkiy maqomdagi kishilar qo‘lidagi omillar birikib ishlab chiqarish yuz bergan. Mehnat sohiblari ishlab turib, kam daromad olishgan, vositalar egalari ishlamay turib, o‘zgaralar mehnati hisobidan boylik orttirishgan. Ekspluatatsiyaga asoslangan mulkiy tizim uzoq vaqt hukm surgan, uning rivojlanish zaminida yangicha tizim paydo bo‘lgan. O‘z mehnati, bilimi va mahoratidan kun ko‘rishni taqozo etgan mulkchilik ham ko‘hna, lekin u hukmron bo‘lmagan. Quldorlik, feodalizm, kapitalizm va davlat sotsializmida ham o‘z kuchi bilan yashagan dehqon, kosib, ishchi va xizmatchilar bo‘lgan, lekin ular mulki jamiyat iqtisodiy tuzumining hal qiluvchi asosi bo‘lmagan. Iqtisodiyot o‘sib, oddiy fuqaro qo‘lida ham mulk jamlanib borgach, yangi mulkiy tizim paydo bo‘ladi. Ekspluatatsiyani inkor etuvchi mulkiy tizim aralash iqtisodiyotga xos bo‘lib, u yuksak rivojlangan, to‘kinchilikni ta‘minlay oladigan ishlab chiqarish sharoitida paydo bo‘ladi. Bu tizimda ko‘pchilik mulk egasi bo‘ladi. Nafaqat ish kuchi, balki moddiy resurslarni va yaratilgan boyliklarni o‘zlashti-rishda ham aholining tobora keng qatlami ishtirok etadi. Bu yerda iqtisodiy o‘shishdan hamma bahramand bo‘ladi. Mulk ko‘pchilikniki bo‘lganidan topilgan daromad ham ko‘pchilik manfaati yo‘lida taqsimlanadi. O‘zbekistonda yaratilayotgan yangi mulkiy tizim yuksak ishlab chiqarish maqsadini ko‘zlagan bo‘lib ommaviy farovonlikni ta‘minlashga qaratilgan.

Har bir mulk tipiga xos belgilar birdan paydo bo‘lib yoki yo‘qolib ketmaydi. Shunisi borki, biz yuqorida ko‘rib o‘tgan mulk tizimlarining mavqei har xil bo‘lsa-da, ular birgalikda amal qiladi, chunki sof mulkiy tizim hech qayerda, hech qachon bo‘lmaydi.

O‘z mehnati evaziga o‘zlashtirish, birovlar yaratgan boylikni tekinga o‘zlashtirish, yakka va jamoa tarkibida, sherikchilik asosida

o'zlashtirishlar borki, ular har xil mulkchilikni bildiradi. Tarixan turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar bo'lganki, ularga jamoa mulki, ekspluatatsiyani bildiruvchi quldorlar mulki, feodal mulki, kapitalistik mulk hukmron bo'lgan. Bir mulkdan ikkinchisi o'sib chiqqan. Mulkiy munosabatlar rivojida ekspluatatsiyani inkor etuvchi mulkdan uni taqozo etuvchi mulklarga va nihoyat ulardan ekspluatatsiyaga yot bo'lgan mulkka o'tish yuz beradi. Sobiq SSSRdagi sotsialistik eksperiment natijasida «byurokratik kazarma sotsializmi» yaratilib, unga monopollashgan davlat mulki xos bo'lgan. Bu mulk xalqning davlat tomonidan ekspluatatsiya qilinishiga asoslangan.

Butun sovet tizimiga xos bo'lgan markazlashtirilgan usulda rejalashtirish va taqsimlashdek illatlarning ta'siri natijasida O'zbekiston iqtisodiyoti asosan xom ashyo tayyorlashga yo'naltirilgani, biryoqlama rivojlanish hisobidan mo'rt va nochor holga tushib qolgan bo'lib, iqtisodiyotga, ekologiya va aholi genofondiga halokatli ta'sir o'tkazadigan paxta yakkahokimligi yurtimizdagi vaziyatni jar yoqasiga olib kelib qo'yganini eslash zarur. Chunki, buning oqibatida ulkan tabiiy, mineral-xom ashyo, mehnat va inson salohiyatiga ega bo'lishiga qaramay, respublikamiz sobiq SSSRda aholi turmush darajasi, ijtimoiy va gumanitar sohalar rivoji bo'yicha oxirgi o'rinlardan birida turar edi. Buni aholini ro'yxatga olish bo'yicha 1989-yilda o'tkazilgan statistik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi.

Iqtisodiyot va demokratiya o'zaro uzviy bog'liqdir. Demokratiyani samarali joriy qilish iqtisodiyotning muayyan darajada rivojlanganligi bilan bog'lanadi, chunki moddiy taqchillik holatidagi aholining ongiga zo'rma-zo'raki demokratik qadriyatlarni singdirib bo'lmaydi. O'z navbatida, demokratiyaga asoslanmagan iqtisod rivojlanmaydi. Undan tashqari demokratlashtirish maqsad emas, unga iqtisodiyotni rivojlantirib, aholining munosib turmush darajasini ta'minlashning vositasi sifatida qaralmog'i lozim.

Mamlakatni rivojlantirishda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalasini tahlil qilishdan oldin mustaqil O'zbekistonga sobiq Ittifoqdan qanday iqtisodiy meros qolganligini eslatib o'tish maqsadga muvofiq. Bu savolga Prezident Islom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida aniq javob bergan.

Bular:

– mo'rt, zaif, biryoqlama rivojlangan, paxta yakkahokimligiga asoslangan xo'jalik;

– xom ashyoni qayta ishlash, texnika va texnologiyani chetdan keltirishga rejalashtirilgan ishlab chiqarish;

– respublika yoqilg‘i, g‘alla, shakar, go‘sht-sut va boshqa oziq- ovqat mahsulotlari bo‘yicha boshqa mintaqalarga qaram bo‘lib qolgan edi;

– respublikada og‘ir ekologik vaziyat vujudga kelgan edi;

– ishlab chiqarishning samarasi past, boqimandalik hukmron edi.

Bu holatning bosh sababi Sobiq Ittifoqda hukmron bo‘lgan ma‘muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan iqtisodiy boshqaruvning samarasiz ekanligidir. Uning bosh sababi kommunistik partiyaning xo‘jalikni boshqarishda iqtisodiyotning ichki rivojlantirish qonuniyatlarini inkor etganligi, uning siyosiy maqsadlarga bo‘ysundirilganida ekanligini isbotlashga hojat yo‘q.

Aksincha, bozor munosabatlariga asoslangan rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyoti nafaqat moddiy boyliklar yaratishi, balki o‘z xalqi turmush darajasini ko‘tarish, uning iste‘mol ehtiyojlarini to‘laroq qondirish, huquq va erkinliklarini ta‘minlash bo‘yicha ham bir qancha muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritdi, jamiyatning barqaror rivojlanishiga erishdi.

Muvaffaqiyatlarning negizida ishlab chiqaruvchilarning erkin raqobatda bo‘lishi, iste‘molchilarning talablariga doimo moslashib borish, iqtisodiy huquqlarni qonun bilan mustahkamlab qo‘yilishi kabi bir qancha demokratik prinsiplar yotadi. Bunday iqtisodni rivojlantirishga qaratilgan shart-sharoitlar O‘zbekiston aholisining an‘analariga ham mos keladi.

Abu Ali ibn Sino shunday yozgan edi: «Odamlarning mulkiy tengsizligi, vazifasining bir xil emasligi, o‘zaro farqlari, inson ijtimoiy faoliyatining sababidir»¹. Boshqacha aytganda, inson iqtisodiy erkinligi o‘zining moddiy ahvolini yaxshilash uchun intilishiga yo‘l ochib beradi. Iqtisodni rivojlantirishning yana bir sharti Alisher Navoiyning zamondoshi Voiz Koshifiyning ta‘kidlashicha, ishlab chiqaruvchilar hokimiyatga so‘zsiz itoat etishlari emas, balki keyingilari mehnatkash dehqon, kosib-hunarmand, bog‘bonning tinch mehnati uchun shart-sharoitni yaratib berishlari kerak, boshqacharoq aytganda, ularga xizmat qilishlari lozim². Demak, so‘z jahon tajribasi bilan milliy iqtisodiy qadriyatlarini uyg‘unlashtirish ustida bormoqda. Yuqoridagi fikrlarning o‘zi bozor munosabatlari jamiyatning barqaror rivojlantirishning eng

¹ Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихи. – Т., 1995. – Б. 68.

² Маҳмудов Р. Дегонимни улуска марғуб эт. – Т., 1992. – Б. 29.

muhim omillaridan ekanligini va uni joriy qilish obyektiv zarurat ko'rsatib turibdi.

Lekin bozor munosabatlariga o'tishning mustaqillikning ilk yillarida O'zbekiston uchun ma'qul bo'ladigan tayyor andozasi yo'q edi. Bunda, albatta, har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Bu masalaga keyingi mavzuda to'xtalamiz.

Jamiyat taraqqiyoti tarixiy-tabiiy jarayon sifatida, o'z izidan chetga chiqmay borganda, mulkiy munosabatlar bir xil mulk hukmronligidan turli-tuman mulkning muvozanatiga o'tish tomoniga qarab rivojlanadi. Turli-tuman mulkchilik hozirgi aralash iqtisodiyot tizimiga xosdir.

O'tmishdagi iqtisodiy tuzumlarda ekspluatatsiyani taqozo etmaydigan mulk bo'lgani kabi hozirgi o'ta rivojlangan davlatlarda aralash iqtisodiyot bo'lsa-da, baribir har ikkala mulkiy tizimga xos belgilar mavjud. Agar o'tmishdagi mulkiy tizim muayyan mulk shaklining hukmronligi bilan ajralib tursa, hozirgi yangi mulkiy tizim turli mulk shakllarining muvozanati va birgalikda rivoji bilan xarakterlanadi.

Mulk shakllari – bu o'zlashtirishning xarakteridir, ya'ni uning ko'rinishi, qiyofasi, mazmunidir. O'z mehnati evaziga o'zlashtirish, o'zgaralar yaratgan boylikni tekinga o'zlashtirish, yakka tartibda, jamoa bo'lib, sherikchilik asosida o'zlashtirish borki, ular mulkchilikning har xil shakllarini bildiradi.

Dastlab, ibtidoiy tuzumda urug'-jamoa mulki paydo bo'lgan, so'ngra xususiy mulk kelib chiqqan. Xususiy mulk turli ko'rinishda ekspluatatsiyaga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda hukmron bo'lgan. Xususiy mulkdan davlat mulki o'sib chiqqan, monopollashgan davlat mulki yuzaga kelgan. Jamiyat taraqqiyoti monopoliyadan mulkiy demokratiya tomon boradi. Shu sababli bir mulk monopoliyasi o'rniga turli mulklarning muvozanati vujudga keladi. Bu degani mulkiy monostruktura (tanho mulkchilik) o'rniga mulkiy polistruktura (har xil mulkchilik) qaror topadi. Mulkiy polistruktura aralash iqtisodiyot tizimiga xosdir. Endi har bir mulk shaklini alohida-alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Xususiy mulk – ayrim kishilarga tegishli va daromad topishga qaratilgan mulk. Uning ikki ko'rinishi bor: individual-xususiy mulk, korporativ-guruhiy mulk. *Individual mulk* bor joyda boylikni o'zlashtirish alohidalashgan holda, ayrim mulkdor tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, korxonada individual mulk bo'lsa, kelgan foydani faqat uning

egasi oladi. Korxonani ijaraga berish yoki aksioner jamiyatga aylantirish tanho mulkdor ixtiyorida bo'ladi. *Korporativ xususiy mulk* deganda boylikni individual tarzda o'zlashtirish, lekin mulkdorlar sherikchilik asosida ma'lum guruhlarga birlashgan sharoitda o'zlashtirish tushuniladi.

Mazkur mulk hissadorlikka tayanadi. Mulkdor o'zining individual hissasini pay (ulush) sifatida umumiy, ya'ni guruhiy ishga sarflaydi. Uning mulki alohida emas, boshqa sheriklar mulki bilan birgalikda ishlatiladi. Topilgan daromad o'z ulushiga qarab individual tarzda olinadi. Bu yerda o'zlashtirishning individual guruhiy shakli yuzaga chiqadi. Mazkur mulk shakli aksioner jamiyatlar faoliyatida ko'rinadi. Ammo har qanday aksioner jamiyat emas, balki individual kapitallarni birlashtirishga asoslangan jamiyatlar korporativ xususiy mulk bo'ladi. Gap shundaki, aksioner jamiyatda davlat va jamoa mulki ham bo'lishi mumkin. Bunda korporativ mulk paydo bo'lmaydi. Xususiy korporativ mulkning paydo bo'lishiga sabab shuki, ishlab chiqarish ko'lami ortib borgan sari individual boylik katta ishni boshlashga yetishmay qoladi, ya'ni serkapital sohalarga kapital solish uchun individual mablag' miqdori ozlik qiladi. Mablag'larni birlashtirish zarur bo'ladi, zaruriyat korporativ mulkchilikni taqozo etadi. Bundan tashqari, mulkdorlar soni ortib boradi, ayni vaqtda tadbirkorlikda xavf-xatar kuchayadiki, uni kichik mulkdor zimmasiga ololmaydi. Mayda mulklar birlashib, korporativ mas'uliyat paydo bo'ladi. Xatar ko'pchilik zimmasiga tushib, yengil kechadi. Bunday jarayon xususiy mulk rivojining yuqori bosqichlariga xosdir.

Xususiy korporativ mulkning muhim ko'rinishi monopolistik mulkdir. *Monopolistik xususiy mulk* – guruhga birlashgan yirik mulkdorlarning iqtisodiyotning u yoki bu sohasida tanho hukmronligiga tayangan holda o'ta katta boylikning ozchilik tomonidan o'zlashtirilishini bildiruvchi mulkdir. Uning namunasi bo'lgan monopoliyalar ham korporativ tarkibga ega bo'ladi. Ular amaliyotda korporatsiya deb nom olgan. Monopoliyalar hukmron sharoitda monopollashgan bozor mavjud bo'ladi. Individual xususiy mulk XIX asrda gullab-yashnagan va u yovvoyi kapitalizm, tartiblashmagan bozor iqtisodiga xos bo'lgan XX asrning birinchi yarmida monopolistik xususiy mulk rivoj topgan. XX asrning II yarmidan boshlab nomonopolistik xususiy mulkning korporativ shakli tez rivojlana boshladi. 80-yillardan boshlab mayda aksioner jamiyatlar (bular erkin monopollashmagan korporativ mulk) tez rivojlanib bordiki, bu aralash iqtisodiyotga xosdir.

O'zbekistonda ham o'tmishda xususiy mulkchilik rivojlangan. Oktabr inqilobidan oldin individual xususiy mulk keng ko'lamda mavjud edi.

Turkiston o'lkasida individual mulk sohibi bo'lgan dehqonlar va kosiblar 1 mln. kishini tashkil etgan. XIX asrning oxirlarida korporativ mulk ham paydo bo'lgan. Masalan, «Besh-Bosh» (5 korxonaga egalarini birlashtiruvchi), «Андреевское товарищество», «Полеяховское товарищество» nomli jamiyatlar amal qilgan. Totalitar sotsializm davrida xususiy mulk taqiqlangan. Bozor iqtisodiga o'tish munosabati bilan O'zbekistonda mulkiy erkinlik vujudga keldi. O'zbekiston Respublikasining «Mulchilik to'g'risida»gi qonun (1990-yil oktabrda qabul qilingan) xususiy mulkka ruxsat berdi. O'zbekistonda asosan mayda individual xususiy mulk bo'lib, u yakka tartibda ishlovchilar korxonasi, kichik biznes vakillari, fermer xo'jaliklari, tomorqa xo'jaligi, yollanma mehnatga tayanib ish yurituvchi xususiy korxonalardan iborat. O'zbekistonda korporativ xususiy mulkning ilk ko'rinishlari mavjud bo'lib, ularni ayrim fuqarolar mablag'larini birlashtiruvchi jamiyatlar tashkil etadi. Xususiy mulkdan tashqari shaxsiy mulk ham borki, u ham individual o'zlashtirishni bildiradi. Ammo u xususiy mulkdan farqliroq daromad topishga xizmat qilmaydi, balki shaxsiy ehtiyojni qondirishga qaratiladi. Asosan iste'mol buyumlari, ya'ni oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, transport vositalari shaxsiy mulk obyekti bo'lib xizmat qiladi. Ular pul topishga emas, shaxsiy hayot kechirishga qaratiladi. Bu mulkning o'sish manbai iste'molga ajratilgan daromad hisoblanadi. Shaxsiy mulkning ko'pligi jamiyat boyligini bildiradi. Xususiy va shaxsiy mulk birgalikda fuqarolar mulki deb yuritiladi. Ular o'rtasidagi chegara nisbiydir. Muayyan boylik shaxsiy mulkdan xususiylga aylanishi mumkin. Masalan, muayyan bir kishining topgan puli iste'mol tovarlari va xizmatlarni xarid etib, iste'mol qilishga ishlatilsa, u shaxsiy mulkka aylanadi. Agar uni aksiyaga aylantirib, daromad topilsa, xususiy mulk bo'ladi.

Jamoa mulki – boylikning muayyan maqsad yo'lida ayrim jamoalarga birlashgan kishilar tomonidan birgalikda o'zlashtirilishidir. Bu mulk sharoitida o'zlashtirish jamoadan tashqarida bo'la olmaydi. O'zlashtirishning sharti jamoaga kirishdir. Hamjihat o'zlashtirish birlamchi, boshqa o'zlashtirish ko'rinishlari faqat u orqali bo'lishi mumkin. O'zlashtirish uchun mulk egasi bo'lish kifoya etmaydi. Buning uchun ish faoliyatida birgalikda qatnashish zarurdir. Jamoa mulki mehnatsiz o'zlashtirishni inkor etadi va korporativ-xususiy mulkdan farqliroq nafaqat mulkka, balki mehnatga ham hissa qo'shishni talab qiladi. Shundagina o'zlashtirish yuz beradi, ishlab chiqarish resurslari birgalikda ishlatiladi, ammo olingan natijaning bir qismi individual

o'zlashtiriladi, lekin bu ham mulkdagi, ham mehnatdagi hissadorlikka qarab bo'ladi. Natijaning qolgan qismi umumiy talab-ehtiyojlarni birgalikda qondirish, mulkni ko'paytirish maqsadlarida o'zlashtiriladi. Xususiy mulkdan farqliroq, jamoa mulki ekspluatatsiyani inkor etadi.

Jamoa mulkining afzalligi shuki, bu mulk ishlab chiqaruvchining o'zini mulkdor qiladi. Bu yerda mulk egalari va ishlovchilar aynan bir kishilardir, shu sababli ishlab chiqarish omillari to'g'ridan-to'g'ri birikadi, ya'ni xodimlar o'z ish kuchi bilan o'zining mulki bo'lgan vositalarni harakatga soladilar. Mulk xodimlarning o'ziniki bo'lganda moddiy javobgarlik va manfaatdorlik kuchli bo'ladi. Mulk avaylab ishlatiladi va yaxshi samara beradi.

Jamoa mulki ham tarixan ko'hna mulk, lekin xususiy mulk hukmron sharoitda yordamchi mulk shakli bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Oktabr inqilobidan oldin O'zbekistonda ekiladigan yerlar (hayot yeri deb atalgan) xususiy mulk bo'lgan, dehqonchilikka yaroqsiz yerlar qishloq jamoasining umumiy yeri bo'lib (paykal yeri deb atalgan), undan birgalikda foydalanishgan. Mulkiy monopoliya barham topib, mulkiy munosabatlar erkin demokratik tus olgan sharoitda jamoa mulki rivojlana boshladi. Aralash iqtisodiyotda jamoa mulki salmoqli o'rin tutadi.

O'zlashtirish sharti mehnat qilish bo'lganidan ekspluatatsiyaga, ya'ni o'zga hisobidan boylik orttirishga o'rin qolmaydi. Shu jihatdan olganda, hozirgi rivojlangan davlatlarda yovvoyi kapitalizmga xos ekspluatatsiya sekin-asta surib chiqarilmoqda. Bundan tashqari, u yerda o'zga mehnatidan foydalanib, boylik orttirishga davlat nazorati orqali chegara qo'yiladi. Yollanib ishlash ixtiyoriy bo'lib, mehnat qilishda iqtisodiy majburlashga yo'l qo'yilmaydi, har bir kishi mehnat sohasi va turini tanlay oladi, korxonaga egasi o'z bilganicha ish haqini pasaytira olmaydi, u ishchi-xizmatchilarga me'yoriy ish sharoiti yaratib berishi, ularni har xil ijtimoiy nafaqalar bilan ta'minlashi shart. Jamoa mulki ichki unsurlari, uning turlaridan iborat.

Kooperativ mulki – jamoa mulkining asosiy turi, har xil kooperativlarga birlashgan kishilarning umumiy mulki, mulkdagi hissadorlikka asoslangan bo'lib, guruhviy mazmunga ega.

Ijaraga olingan korxonaga jamoasi mulki – ijarachilar jamoasi o'zi ishlab topgan mulk. Bunday korxonada mulk ikki qismdan iborat: 1) korxonaga egasiga qarashli mulk; 2) jamoaga qarashli umumiy mulk. Shu ikkinchi mulk obyektini birgalikda ishlab topilgan pul yoki pulga olingan va jamoa tasarrufidagi hamda uning manfaati yo'lida ishlatiluvchi moddiy

boylikdir. Uning subyekti faqat ijarachilar jamoasi hisoblanadi. Jamoa korxonaga egasi mulkidan ham foydalanadi, lekin uni tasarruf etmaydi.

Korxonaga jamoasining mulki – ishchi va xizmatchilar jamoasi davlatdan yoki xususiy mulk sohibidan sotib olgan va umumiy lashtirib, birgalikda o'zlashtiriladigan mulk. Bu yerda mulk ikkiga ajralmaydi, hamma mol-mulk va pul mablag'lari korxonaga jamoasi ixtiyorida turadi.

Korxonaga va tashkilotlar uyushmasi (assotsiatsiyasi) mulki – ma'lum maqsad yo'lida uyushma tashkil etganlarning umumiy mulki. O'z faoliyatini uyg'unlashtirish, savdo-sotiq, ishlab chiqarish, boshqarishni tashkil etish uchun har xil yoki bir xil mulkka oid korxonalar va tashkilotlar ajratgan moddiy va pul mablag'i hisobidan tashkil topgan, lekin ishtirokchilar mulkidan alohidalashgan umumiy mulk paydo bo'ladi. Uni har bir ishtirokchi emas, balki uyushma tasarruf etmaydi. Bu mulk umumiy manfaat yo'lidagina ishlatiladi.

Ijtimoiy tashkilotlar mulki – ijtimoiy tashkilotlar (partiyalar, kasaba tashkilotlari, xalq harakatlari, turli fondlar va boshqalarga a'zo bo'lgan va o'z ulushini qo'shgan kishilarning umumiy mulkidir. U badal puli, ajratmalar, xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar hisobidan paydo bo'ladi, tashkilotlar nizomida ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Intellektual mulk – iqtisodiy faoliyat mahsulotlarining tijorat maqsadida foydalanishga berilgan yagona huquqdir.

Intellektual mulk ijodiy faoliyat mahsulotlari egalariga ulardan foydalanishdan yakka o'zi moddiy manfaat ko'rish uchun shart-sharoit ta'minlaydigan maxsus huquqiy himoyaning obyekti hisoblanadi.

Diniy tashkilotlar mulki – dindorlar tashabbusi bilan vujudga kelgan tashkilotlarning mol-mulki. Bu mulk ham birgalikda tasarruf etiladi va u o'tmishdan meros qolgan diniy tashkilotlarga qarashli bino-inshootlar bilan cheklanmay, dindorlardan tushgan mablag'lar, korxonaga va tashkilotlarning xayriya yordami, diniy marosimlardan tushgan daromad hisobidan shakllanadi. Mazkur mulk obyekti – masjidlar, madrasalar, cherkovlar, kostyollar, sinagoglar va u yerlardagi asbob-anjomlar, kitoblar, marosim uchun zarur buyumlar, tashkilotlar ixtiyorida pul mablag'i va boshqalardir. Uning subyekti dindor kishilar. Ular nomidan mulkni diniy tashkilotlar tasarruf etadi. Mazkur mulk faqat din yo'lida ishlatiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi qonunining 2012-yilda kuchga kirishi iqtisodiyotning turli yo'nalishlarida oilaviy biznesni rivojlantirish orqali aholini foydali mehnatga jalb qilish

imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Oilaviy korxonalar va xo‘jaliklar borki, u yerdagi mol-mulk daromad topishni ko‘zlaydi, birgalikda o‘zlashtiriladi. Bir necha qondosh oilalar uyushmasi jamoa bo‘lib, uning doirasida mulkiy aloqa paydo bo‘ladi. *Oila mulki obyekt*i oilaga qarashli mol-mulk bo‘lib, u mehnat vositalari bilan birga iste‘mol buyumlaridan ham iborat. Oila mulki zaminida mikroiqtisodiyotning bir turi – oila xo‘jaligi amal qiladi. Mazkur qonunga muvofiq, oilaviy korxonalar oila yashab turgan turar joyda faoliyat yuritishi va o‘zi ishlab chiqargan mahsulotni shu yerda sotishi mumkin. Bundan tashqari oilaviy korxonalar tomonidan ishlab chiqarish faoliyati uchun foydalaniladigan turar joylarni noturar joylarga o‘tkazish ham talab qilinmaydi. Oilaviy korxonalar turar joydan bir vaqtning o‘zida unda istiqomat qilgan holda tovarlar ishlab chiqarsa (ishlab bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) kommunal infratuzilmalari (elektr energiyasi, kanalizatsiya, suv, gaz va issiqlik ta‘minoti) haqini to‘lash aholi uchun belgilangan ta‘riflar bo‘yicha va shartlar asosida amalga oshiriladi.

Mahalla jamoatchilik asosida o‘z-o‘zini boshqarish tizimi bo‘lib, u ma‘lum hududda yashovchi barcha oilalarni birlashtiradi.

Mahalla mulki – mahalla ahlidan iborat jamoa doirasida unga qarashli boylikning hamjihatlik bilan o‘zlashtirishidir. Mahalla ixtiyoridagi binoshootlar (kutubxona, idora binosi), marosimlarga xizmat qiluvchi asbob-anjomlar mahalla mulkining obyekt bo‘lsa, uning subyekti jami mahalla ahli hisoblanadi. Mahalla ahlining pul mablag‘lari, davlat (mahalliy hokimiyat) bergan mablag‘lar, mahallada joylashgan korxonalar va tashkilotlarning xayriya ajratmalari hisobiga mahalla mulki shakllanadi va o‘sib boradi.

Davlat mulki – boylikni o‘z vazifasini ado etish uchun davlat tomonidan o‘zlashtirilishidir. Bu mulk davlat paydo bo‘lishi bilan vujudga keladi, ammo uning maqsadi va miqyosi o‘zgarib turadi. U xususiy va jamoa mulkidan o‘sib chiqadi, ya‘ni ularga tegishli moddiy va ma‘naviy ne‘matlar davlat tasarrufiga o‘tadi.

Davlat mulkining paydo bo‘lishi va rivojlanishi quyidagilar hisobidan bo‘ladi: 1) mulkning natsionalizatsiya etilishi (milliylashtirilishi), ya‘ni xususiy mulkning davlat mulkiga aylantirilishi; 2) davlat mablag‘i hisobidan korxonalar qurilishi; 3) jamiyatda yaratilgan, ammo boshqa mulklarga taalluqli daromadlar bir qismining soliq undirish orqali davlat budjetiga olinishi.

Davlatning xarakteriga qarab, unga tegishli mulk ayrim ijtimoiy guruhlarning tor egoistik manfaatlariga yoki umummilliy manfaatga

xizmat qiladi. Bu mulkning ahamiyati davlatning iqtisodiyotda tutgan o'rnini bilan bog'liq. Gap shundaki, iqtisodiyotga ta'sir etish uchun davlat o'z mulkiga tayanadi. Agar iqtisodiy o'sish uchun davlat mulki zarur bo'lsa, u kengayadi va aksincha zarurat bo'lmasa, u qisqaradi. Serkapital, tezda yaxshi foyda bermaydigan, sarflar zudlik bilan oqlanmaydigan sohalar borki, u yerga xususiy yoki jamoa mulki sohiblari oshiqmaydi, ammo bu soha ular faoliyati, iqtisodiy o'sishining umumiy sharti hisoblanadi. Shu sababli ular davlat tasarrufiga o'tib, davlat hisobidan rivojlanadi. Katta kanallar, suv omborlari, gidrostansiyalar, yer, temir yo'llar, yirik portlar, atom sanoati, kosmik sanoati va xizmati shular jumlasiga kiradi. Boshqa mulklar qatori davlat mulki obyektida ham turli-tuman boylik bo'ladi. Oliy hokimiyat organlari bu mulk subyekti hisoblanadi. O'zbekistonda davlat mulkini tasarruf etishga Oliy Majlis va undan vakolat olgan organlar haqlidir.

Turli mamlakatlarda davlat mulki, obyektini bir-biridan farq qiladi. Ko'pchilik mamlakatlarda yer xususiy mulk obyektiga kiradi, O'zbekistonda mulk to'g'risidagi qonunga ko'ra yer, suv, qazilmalar, o'simlik va hayvonot dunyosi davlat mulki, deb e'lon qilingan.

Davlat mulki ma'lum me'yorda bo'ladi. Ammo totalitar iqtisodiyot tizimida o'ta davlatlashtirish, davlat mulki monopoliyasi vujudga keladi. Davlat mulki tanho kuchga aylanadi, butun iqtisodiyot ustidan nazorat o'rnatishga xizmat qiladi. Bunday holat iqtisodiy erkinlikka zid bo'lganidan mulkni davlat ixtiyoridan chiqarish zaruriyatga aylanadi. Mulkdan begonalashtirilgan odamlar xarajatlar miqdoriga, ishlab chiqarilgan mahsulot sifati va taqdiriga ham befarq bo'ladi. Bu esa turli suiiste'molliklar, talon-torojlar, qo'shib yozishlar, hisobotlar va statistik ma'lumotlarni soxtalashtirishga olib keladi. Demokratik, aralash iqtisodiyot tizimida davlat mulki monopoliyasiga o'rin qolmaydi, balki iqtisodiy zaruriyat belgilagan me'yorda saqlanadi, ustunlikka ega bo'lmay, boshqa mulk shakllari bilan yonma-yon turadi. Davlatning iqtisodiyotdagi roli davlat mulkini talab qiladi, ammo iqtisodiyot bu mulkning hissasi, salmog'i bilan o'lchanmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda davlatning mulkdagi hissasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, yaratilgan daromadning deyarli 50 foizi davlat orqali taqsimlanadi. Davlat umummilliy manfaatlarni ifodalovchi kuch sifatida iqtisodiyotda katta o'rin tutadi. U daromadlarni, moddiy resurslarni, ish kuchini taqsimlashda faol qatnashadi. Xullas, aralash iqtisodiyot davlatning mulkdan chetlashuvi emas, balki davlatning mulkiy munosabatlarda ma'lum me'yorda ishtirok etishidir.

Davlat mulki faqat unga qarashli korxonalar mol-mulki bilan cheklanmaydi, unga davlat tashkilotlari mahkamalaridagi mol-mulk, davlat budjetining pul mablag‘lari, davlatga qarashli aksiyalar ham kiradi. Shuningdek, davlatning xorijda ham mol-mulki bo‘ladi. Davlat mulki boshqa mulklar bilan ham o‘zaro kirishib ketadi. Masalan, aksioner jamiyat aksiyasining asosiy qismi davlatniki bo‘lgani holda, qolgan qismi xususiy va jamoa mulki bo‘lishi mumkin.

Totalitar iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida davlat mulkining mavqei kuchli bo‘ladi, chunki o‘ta davlatlashtirilgan mulkdan xilma-xil mulkchilikka o‘tish darhol yuz bermaydi. Buni O‘zbekiston tajribasi ham ko‘rsatib turibdiki, 1990-yildan boshlab O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat mulki hissasining kamayib borishi kuzatiladi. Davlat mulki kuchli bo‘lsa-da, u o‘z ichidan o‘zgarib, bozor sharoitiga moslashadi, davlat korxonalari mustaqilligi, ular ishiga davlatning aralashuvi cheklanadi, korxonalar o‘z manfaati yo‘lida mustaqil faoliyat yurgizadi. Demak, davlat mulki saqlansa-da, u yangi iqtisodiy aloqalar ishtirokchisiga aylanadi.

Davlat mulkining mavqei turli mamlakatlarning tanlagan yo‘liga bog‘liq. Hozir bozor iqtisodiyoti bosh, umuminsoniy yo‘l, ammo unga o‘tishning milliy xususiyatlari mavjud. Yangi iqtisodiyotga birdan o‘tilsa, davlat mulki shiddat bilan qisqaradi. Agar bu o‘tish sekin-asta borsa, davlat mulkining salmog‘i uzoq saqlanadi. Masalan, Vengriya, Chexoslovakiya va Polshada mulkni davlat tasarrufidan chiqarish tez bordi. Xitoyda esa davlat mulki saqlanmoqda. O‘zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Turli shakldagi mulklar bir-biridan tamomila ajralib qolmaydi, ularning o‘zaro aloqasi faqat bozor orqali bo‘lmay, ular kirishib ham ketadi, natijada aralash mulk paydo bo‘ladi. Ammo u mulkiy monopoliya bor joyda shakllanmaydi, chunki buning uchun mulkiy erkinlik va tanglik bo‘lishi zarur. Shu sababdan keyingi davrda aralash mulkning paydo bo‘lishi tasodif emas. Aralash mulk muayyan bir obyektning turli mulkdorlar ishtirokida o‘zlashtirilishini bildiradi. U hozirgi ochiq tipdagi qorishma aksioner kompaniyalarida aniq ifoda etiladi. Bu yerda xususiy mulk, jamoa mulki va hatto xorijiy mulk hissadorlik asosida birlashadi. Mulk obyekti birlashgan holda ishlatilib, o‘z egalariga daromad keltiradi.

Turli mulk shakllari alohidalashgan bo‘lsa-da, ularning yaxlitligi bor, chunki iqtisodiyot yagona faoliyat bo‘lib, mulkdorlar xatti-harakatining bir-biriga bog‘lanishini bildiradi. Shu boisdan barcha mulk shakllarining majmui mamlakatning milliy mulki bo‘ladi. Milliy mulk tanho bir millat

yoki elat mulkini bildirmaydi. U muayyan jamiyatdagi har xil ijtimoiy qatlamga mansub kishilar mulki va umummilliy manfaatlarni ifodalovchi davlat mulkining birligidir. Milliy mulk boylikning muayyan mamlakatga tegishli ekanligini bildiradi va shu bilan o'zga davlatlar, ular firmalari va fuqarolariga qarashli mulk bo'lgan xorijiy mulkdan farq qiladi.

3. Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning maqsadi va usullari

Mulkiy munosabatlar taraqqiyotida xususiylashtirish ham zaruratga aylanadi. Mulkiy monopoliyadan mulkiy erkinlikka o'tish muqarrarligidan xususiylashtirish zarurati kelib chiqadi. Ammo xususiylashtirish iqtisodiy jihatdan mulknı davlatlashtirishdan chekinishni, davlat mulkining boshqa mulklarga aylanishini bildiradi. U davlat mulki hisobidan nodavlat mulk shakllarini rivojlantirishdir. Yuqorida aytganimizdek, mulkiy munosabatlarga xos narsa erkin mulkdan monopol mulkka (bunga davlat mulki ham kiradi) va qaytadan monopol mulkdan erkin mulkka o'tishdir. Shu sababli xususiylashtirish faqat hozir biz yashab turgan davrda yuz bermoqda desak, noto'g'ri bo'ladi. O'tmishda yer, suv, o'rmon boyliklari, bino, inshoot va boshqalar davlat mulkidan chiqarilib, ayrim shaxslarga – ularning davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun, xususiylashtirish sifatida berish mavjud bo'lgan. Ammo u paytlarda xususiylashtirish davlat mulkining faqat xususiylashtirish mulkka aylanishidan iborat bo'lgan va ayrim mamlakatlarda yuz bergan. Hozirgi xususiylashtirish umuminsoniy, umumdunyo hodisasi bo'lib, monopollashgan bozor iqtisodiyotidan erkin bozor iqtisodiga o'tish bilan bog'liq. Bu hodisaning o'z moddiy asosi bor. Ilgari ishlab chiqarish faqat katta miqyosda to'plangan holda rivojlana olgan, chunki texnika-texnologiya shuni talab qilgan. Endilikda ishlab chiqarishning katta qismi ozchilik qo'lida to'planishi shart emas. Aksincha, mayda firmalar doirasida ham samarali ishlab chiqarishni yurgizish mumkin, chunki katta xususiylashtirish mablag' bo'lmasa-da, uni qarz olib, hatto asbob-uskunani ijaraga olib tadbirkorlik qilish mumkin. Mayda tarqoq ishlab chiqarish raqobatga sharoit hozirlab, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Mulknı davlat ixtiyorida bo'lish zarurati kamaydi. Shu boisdan xususiylashtirish ommaviy tus olib, hamma davlatlarda yuz bermoqda, bozor iqtisodiyotiga o'tib bo'lgan mamlakatlarda ham amalga oshmoqda.

Xususiylashtirish mulkni demokratlashtirish sifatida davlat mulkini ko'pchilik o'rtasida tarqatib, mulkdorlarni ko'paytirishni bildiradi. Uni amalga oshirishning bir necha yo'llari mavjud:

1) davlat korxonalarini aksionerlar jamiyatiga aylantirib, uning molu mulki hisobidan chiqargan aksiyalarni xalqqa sotish. Aksiyani sotib olgan kishi mulkdorga aylanadi;

2) ijaraga olingan davlat korxonasini ijarachilar jamoasi tomonidan o'zi ishlab topgan pulga yoki qarzga sotib olib, uni jamoa mulkiga aylantirish. Bunda yangi mulkdorlar xalq emas, faqat korxonalar jamoasi bo'ladi;

3) davlat mulkini qiymatiga qarab chiqarilgan sertifikatlar yoki vaucherlarga binoan fuqarolarga bepul berish. Bunda mulk xalq o'rtasida tarqatiladi, chunki vaucher va sertifikat korxonalar aksiyasini olish huquqini beradi;

4) davlat mulkini faqat tanilgan, ishning ko'zini biladigan, mas'uliyatni zimmasiga olib biladigan tadbirkorlarga, boshqaruvchilarga (menejerlarga) sotish. Bunda ham ma'lum qatlamgina mulk sohibiga aylanadi;

5) davlat mulkini xorijiy qarzni uzish evaziga chet el firmalari va fuqarolariga berish. Bunda milliy mulk hisobidan xorijiy mulk o'sadi;

6) davlat mol-mulkini auksionlarda kimoshdi savdosi orqali sotish. Bunda ham faqat ma'lum toifadagi kishilargina yangi mulk sohibiga aylanadilar.

Xususiylashtirish usullarini tanlash undan kutilgan maqsadga bog'liq. Agar ishbilarmonlikni rag'batlantirib, mulkiy mas'uliyatni kuchaytirish nazarda tutilsa, xususiylashtirish saralangan ozchilik o'rtasida o'tkaziladi. Mulkchilikda ijtimoiy adolatni ta'minlab, hamma uchun teng imkoniyat yaratish shart bo'lsa, xususiylashtirish butun xalq ishtirokida o'tkaziladi. Bunga Rossiyadagi vaucherizatsiya misol bo'la oladi. Rossiyada 1992-yili har bir fuqaroga 10 000 rubllik vaucher tarqatildi, bu bilan har bir kishi davlat mulkida shu summaga teng hissaga ega bo'ldi. O'zbekistonda xususiylashtirish korxonalar jamoasi uchun ustuvorlik berish yo'sinida boshlandi. Bunda korxonalar mol-mulki uning jamoasiga beriladi. Bundan maqsad xususiylashtirish jarayonida ko'proq jamoa mulkini o'stirish bo'ldi, ammo iqtisodni liberalizatsiyalash uchun xalq xususiylashtirishiga ham yo'l berildi.

Agar xususiylashtirish chet el kapitalining kirib kelishiga yo'l ochishi zarur bo'lsa, davlat mulki xorijiyxlarga berish shaklida amalga oshirildi. Xususiylashtirish usullaridan ayrimlarining ustuvorligi boshqa usullarni ham qo'llashni bildiradi. Masalan, O'zbekistonda xususiylashtirish

korxonalar jamoasiga ustunlik beradi, lekin aksionerlash ham mavjud, unda chet el kapitali ham ishtirok etib, mulkni sotib olishi mumkin. Xususiylashtirish sharoitiga qarab pulli, bepul yoki imtiyozli tarzda o'tkaziladi. O'z shakli va usulidan qat'i nazar, bu tadbir xilma-xil mulkchilikni ta'minlaydi, chunki davlat mulki hisobidan nodavlat mulkining hamma shakllari va turlari rivojlanadi. Xususiylashtirish davlat mulki monopoliyasini tugatishga qaratilgan, ya'ni u antimonopol xarakterga ega mulk sohiblarini, binobarin, mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilarni ko'paytirib, sog'lom raqobatga yo'l ochadi. Xususiylashtirishning pirovard maqsadi mulkiy mas'uliyatni ishga solish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdir.

Davlat mulkining xususiylashtirilishi va kichik biznes rivojining rag'batlantirilishi natijasida O'zbekistonda yangi ijtimoiy qatlam – mulkdorlar sinfi paydo bo'ldi. Bu qatlamning umumiy soni qariyb 6,5 million kishini, jumladan, aksiyadorlar 1,4 million, xususiy fermer xo'jaliklari egalari 80,6 ming, shuningdek, dehqon xo'jaliklari va daromad keltiradigan boshqa mulk shakllari egalari (mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning nizom jamg'armasida o'z ulushiga ega bo'lgan shaxsiy korxonalar va boshqalar) 4,8 million nafarni tashkil etadi.

Xususiylashtirish tufayli qimmatli qog'ozlar va mulk bozori kabi yangi bozorlar paydo bo'lib, ko'p tarmoqli iqtisodiyotning shakllanishi va bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishga asos bo'ldi.

1-jadval

Xususiylashtirish jarayonida nodavlat mulkchilik obyektlari va yangi korxonalar tashkil etish dinamikasi

Yillar	Xususiylashtirilgan barcha korxonalar va obyektlar, dona hisobida	Jumladan	
		Aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgan, foiz hisobida	Xususiy mulk qilib sotilgan, foiz hisobida
1994	9744	29,7	70,3
1995	8537	12,0	88,0
1996	1915	65,6	34,4
1997	899	50,7	49,3
1998	266	41,4	58,6
1999	373	37,8	62,2
2000	372	40,8	59,2
2001	1238	18,3	81,7
2002	1800	12,4	87,6
2003	1452	5,2	94,8

2004	1228	2,3	97,7
2005	980	0,3	99,7
2006	673	2,8	97,2
2007	631	0	100
2008	392	0	100
2009	135	0	100
2010	96	0	100
Jami	30731	21,5	78,5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi.

Iqtisodiyotning nodavlat sektorini rivojlantirish va xususiylashtirish borasida mustaqillik yillarida davlat tomonidan sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Mustaqillik yillarida yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish tarkibida mulkchilik shakllari bo‘yicha tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Mahsulot ishlab chiqarish, ishlar va xizmatlar tarkibida nodavlat sektor asosiy o‘rinni egalladi. Nodavlat sektorning ulushi 1995-yildagi 58,4 foizdan 2010-yilda 81,7 foizga yetdi, jumladan, xo‘jalik birlashmalari ulushi 27,4 foiz, qo‘shma korxonalar hisssasi 14,2 foiz, xususiy fermer xo‘jaliklari ulushi 6,5 foiz va aholining xususiy mulki 30,4 foizni tashkil etdi.

2-jadval

Mulkchilik shakli bo‘yicha YAIM ishlab chiqarish tarkibi (foiz)

	1995-yil	2000-yil	2010-yil
Yalpi ichki mahsulot	100	100	100
Jumladan			
Nodavlat mulkchilik	58,4	72,6	81,7
Shundan			
Fermer xo‘jaliklari	x	1,9	6,5
Xo‘jalik birlashmalari	x	17,4	27,4
Qo‘shma korxonalar	x	5,2	14,2
Davlat mulkchiligi	41,6	27,4	18,3

Bozor islohotlarini amalga oshirish yillarida qariyb 31 mingta davlat korxonasi va obyektini xususiylashtirildi hamda mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o‘rni va ahamiyatiga qarab, ular aksiyadorlik

jamiyatlari (21,5 foiz) va mulkchilikning boshqa nodavlat korxonalari shakli (78,5 foiz) sifatida qayta tashkil etildi.

2010-yilda iqtisodiyotning nodavlat sektorining ulushi quyidagicha bo'ldi: mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqarishda 81,7 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 91,0 foiz, qishloq xo'jaligida 99,9 foiz, qurilish-pudrat ishlarining umumiy hajmida 89,6 foiz, transportda 56 foiz, savdo va umumiy ovqatlanishda 99,9 foiz.

Vazirlar Mahkamasi majlisida (2007-yil 12-fevral) Prezident Islom Karimov «Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lida yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir» nomli ma'ruzasida xususiylashtirish masalasiga doir o'z fikrini quyidagicha bayon etgan edi: «Biz xususiylashtirish ishlariga nisbatan munosabatimiz va yondashuvlarimizni ham tubdan o'zgartirishimiz, iqtisodiyotning kimyo, elektrotexnika sanoati, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, qurilish materiallari sanoati va boshqa yetakchi tarmoqlariga qarashli korxonalarining aksiyalarini kimoshdi savdosiga qo'yish bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur».

Prezident Islom Karimov ilgari ham aytgan fikrini yana bir bor ta'kidlab, quyidagi ilmiy g'oyani ilgari surdi: «Biz xususiylashtirishdan keladigan mablag'lar hisobidan budjetga tushumlarni ko'paytirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganimiz yo'q. Bu boradagi asosiy masala – xususiylashtiriladigan obyektlarga egalik qilishga da'vogarlarining avvalo obyektlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash va jahon bozorida raqobatga bardoshli mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha o'z zimmasiga oladigan majburiyatlaridir. Davlat mulki qo'mitasi, Iqtisodiyot va Moliya vazirliklari g'oyat qisqa muddatda amaldagi xususiylashtirish dasturlarini qayta ko'rib chiqishi va bunda aksiyalar paketlari, jumladan, davlatga tegishli nazorat aksiya paketlari bo'lgan, investorlarga taklif etiladigan strategik muhim obyektlar ro'yxatini tubdan kengaytirishni nazarda tutishi kerak».

O'z vaqtida belgilangan vazifalar ijro etilishining ta'minlangani O'zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yengil kechishiga zamin yaratdi.

Bu masala bo'yicha budjetga tushumlarni ko'paytirishni o'ylayotganimiz yo'qligini, gap bu yerda odamlarning sarmoyasi, mablag'ini mana shu sohaga jalb etish haqida borayotganligi, chunki odamlarda mablag' bor, lekin, ayni paytda, ularda agar pulimni sarflaydigan bo'lsam, ertaga ortimdan tushadi, tekshir-tekshir boshlanadi, degan hadik va qo'rquv ham yo'q emasligi, tan olish kerakki, bunday qo'rquv bejiz

emasligi, bizda kim ko‘p – tekshiruvchi ko‘pligi haqidagi muammolar davlatimiz rahbari tomonidan qayd etilganligini eslash joiz.

Prezident Islom Karimov: «Albatta, jamiyatimizda *o‘ta boylar* ham, *o‘ta kambag‘allar* ham bo‘lmasligi kerak. Lekin, shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik egalariga, ularning o‘z halol mehnati, peshona teri bilan topadigan daromadi va boyligiga yondashishda eski zamondan qolgan illat va asoratlardan butunlay voz kechishimiz zarur. Lo‘nda qilib aytganda, **ularga hasad** bilan emas, **havas bilan qarash** jamiyatimizda tobora chuqur qaror topishini xohlardim. Va bunday holatni bugun hayotimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning tabiiy va mantiqiy natijasi tariqasida ko‘rishimiz ma‘qul deb hisoblayman», – deb ta’kidladi.

Prezident tashabbuskori bo‘lgan yana bir hujjat – bu yuqori palataning oxirgi yalpi majlisida ma‘qullangan va 2010-yil 23-dekabrda matbuotda e‘lon qilingan «Rieltorlik faoliyati to‘g‘risida»gi qonundir. Ushbu qonun rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran olti oy o‘tgach kuchga kiradi. «Rieltorlik faoliyati» tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida yangilik hisoblanadi. Hozirgi vaqtga qadar ko‘chmas mulk bozorida vositachilik (rieltorlik) faoliyati masalalari qonuniy tartibga solinmagan edi. Buning oqibatida, har qanday yuridik va jismoniy shaxs professional tayyorgarlikka ega bo‘lmasdan va biror-bir ruxsat (litsenziya) olmasdan ko‘chmas mulkning oldi-sotdisi va ijarasida vositachilik xizmatlari ko‘rsatar edi. Rieltorlarga nisbatan qonuniy talablarning hamda davlat organlari tomonidan ularning faoliyati ustidan nazoratning mavjud emasligi, ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bitimlar tuzishda, ayniqsa, xufiyona vositachilikda katta tavakkalchilikni keltirib chiqarar, bu esa, ko‘pincha turar joy egalarining aldanib qolishiga, firibgarlik va mazkur sohadagi boshqa hiyla-nayranglarga olib kelardi.

Bundan tashqari, fuqarolar vositachilik faoliyati bilan shug‘ullanar ekan, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlagan holda nazorat qilinmaydigan foyda olardilar.

Shu munosabat bilan qabul qilingan qonun O‘zbekistonda qonuniy rieltorlik faoliyatiga asos soladi, uning rivojlanishini, ko‘chmas mulk bozori ishtirokchilari va davlat manfaatlari hisobga olinishini ta‘minlaydi, professional rieltorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun kulay sharoit yaratadi.

Qonunga muvofiq, rieltorlik faoliyati yuridik (rieltorlik tashkilotlari) va jismoniy (yakka tartibdagi tadbirkorlar) shaxslarning ko‘chmas mulk obyektlariga va ularga bo‘lgan huquqlarga doir bitimlar tuzish bilan bog‘liq xizmatlarni shartnoma asosida ko‘rsatish bo‘yicha tadbirkorlik faoliyati sifatida belgilangan. Ushbu faoliyat bilan shug‘ullanish uchun litsenziya

olinishi zarur, rieltor esa vakolatli organ tomonidan beriladigan malaka sertifikatiga ega bo'lishi lozim.

Qonun rieltorlar va rieltorlik tashkilotlari zimmasiga malaka talablarini hamda o'z fuqarolik javobgarligini sug'urta qilishni yuklaydi. Shuningdek, amalga oshiriladigan xizmatlarning sifatini ta'minlash mexanizmlari, ishonchli ma'lumotlar olish kafolatlari va ularning mijozlari tomonidan taraflarning huquq va majburiyatlarini, rieltorlik xizmatlari ko'rsatish muddatlarini, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lash, shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda mablag'larni qaytarish tartibini o'z ichiga olgan shartnoma tuzish majburiyatlari mustahkamlangan. Bu hujjat ko'chmas mulk bozorining noinsof vositachilariga to'siq o'rnatadi, rieltorlik faoliyatini to'g'ri tashkil etish, sohada zamonaviy raqobatni rivojlantirish va oxir-oqibatda, fuqarolar, jamiyat, davlatning huquq va qonuniy manfaatlarini to'liq himoyalashga yordam beradi.

Shu o'rinda O'zbekistonning asl fuqarosiman, degan har qaysi inson kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatlari jamiyatimizning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash hamda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, komil inson kabi milliy mafkuramizning asosiy g'oyalarini ro'yobga chiqarishda muhim iqtisodiy tayanchga aylanib ulgurgan o'rta sinf vakillari (xususiy biznes egalari)ning biz intilayotgan fuqarolik jamiyati qurishdagi o'rni beqiyos ekanligiga to'xtalish muhimdir.

4. O'zbekistonda mulkdorlar sinfining shakllanishi va uning ahamiyati

Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» (1997-yil) asarida mamlakatimizda mulkdorlar sinfining shakllanishi uchun belgilangan vazifalar bugunga kelib O'zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining yengil kechishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. O'z vaqtida qilingan xulosalar quyidagi mazmunda edi. Bular:

1) mamlakatda chinakam o'rta mulkdorlar sinfi shakllangan taqdirda, islohotlar sezilarli samara beradi, mulkchilik masalalari hal bo'ladi.

Iqtisodiy jihatdan sobitqadam va barqaror jamiyatni shakllantirish masalalarini ko'rib chiqar ekanmiz, eng avvalo, tadbirkorlik va umuman mulkdorlar sinfi davlat va jamoat qurilishida, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab turish va mustahkamlashda qanday rol o'ynashini nazarda tutish lozim.

Ayni o'rtta mulkdorlar sinfi shakllantirilayotgan fuqarolik jamiyatining tayanchidir.

Bu o'rinda gap, agar mulk shakllari xilma-xilligi va birinchi navbatda xususiy mulk har qanday davlatning demokratik negizlari barqarorligining iqtisodiy asosi hisoblansa, real ishlab chiqarish vositalarining o'rtta mulkdorlaridan iborat kuchli qatlamning mavjud bo'lishi uning siyosiy asosi ekanligi haqida bormoqda. Aholi orasida haqiqiy mulkdorlar o'rtta qatlamining ko'pchilikni tashkil etishi mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni orqaga qaytarish imkoniyatlarini bartaraf etishning kafolati hisoblanadi.

Shu sababli biz iqtisodiy o'zgarishlar jarayonini respublikada o'rtta mulkdorlarning chinakam sinfini shakllantirishdek dolzarb vazifani hal qilish bilan bog'lamoqdamiz. Odam o'zini chinakamiga mulkdor deb his etmas ekan, o'z huquqlari, pirovard natijalar va ishlab chiqarish samaradorligi uchun mulkdor sifatida kurashmaydi. Jamiyatda barqarorlikni saqlab qolish va himoya qilishga intilmaydi;

2) chinakam mulkdorlar sinfi ham mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni izchil amalga oshirish hisobiga, ham kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish, qimmatli qog'ozlar bozorini yaratish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish yo'li bilan shakllantiriladi.

Strategik jihatdan olganda, biz ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish vazifasini qo'ymoqdamiz. Bunda ustuvorlik xususiy mulkka beriladi.

O'lkamizning o'ziga xosligi, ishchi kuchining haddan tashqari ko'pligi, rivojlangan qishloq xo'jalik va xom ashyo bazasi, hatto aytish mumkinki, aholining an'analari, ruhiyati kichik va oilaviy biznesni, xususiy tadbirkorlikni faol rivojlantirishni obyektiv zarurat qilib qo'ymoqda.

Kichik biznes – jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishga yordam beradigan o'rtta tadbirkorlar sinfining paydo bo'lishi demakdir. Bu – respublika bozorini zarur iste'mol tovarlari va xizmatlar bilan boyitishdir. Bu – yangi ish o'rinlaridir. Shuni hamisha nazarda tutish kerakki, faqat kichik va xususiy tadbirkorlikni keng, hamma joyda rivojlantirish hisobiga g'oyat keskin muammoni – aholining (ayniqsa, ortiqcha mehnat zaxiralari mavjud bo'lgan qishloq joylar va mintaqalarda) ish bilan bandligini ta'minlash vazifasini hal qilishga qodir bo'lamiz.

Xalqning tarixiy ildizlaridan, ruhiyatidan foydalangan holda ichki bozorni zarur iste'mol tovarlari bilan boyitib qolmay, shu bilan birga, tashqi bozorlarda ham raqobatga bardoshli mahsulot chiqarishga qodir kichik korxonalarining keng tarmog'ini vujudga keltirish mumkin.

Aslida yaqin kelajakda kichik va oʻrta biznes respublikaning ishlab chiqarish va eksport tuzilmasida iqtisodiyotning harakatchan, oson oʻzgartiriladigan sohasi sifatida yetakchi oʻrinni egallashiga erishish lozim.

Biz uchun olamshumul ahamiyatga ega boʻlgan ushbu siyosatni roʻyobga chiqarishda aholining shaxsiy yordamchi xoʻjaliklari samaradorligi va mahsuldorligini yanada oshirish, ularga davlat yordamini koʻrsatish muhimdir.

Bunda biz kichik va oʻrta korxonalar ibtidoiy, eskirgan asosda emas, balki sifatli va zamonaviy texnika negizida barpo etilishi kerakligiga asoslanamiz. Buning uchun ularni rivojlantirishning yangi manbalari ham chet el investitsiyalarini keng jalb qilish hisobiga, ham ichki manbalar, bank kreditlari hisobiga doimo kashf etib borilishi darkor.

Oʻzbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida kichik biznesni rivojlantirishga yordam beradigan huquqiy shart-sharoitlar va institutsional tuzilmalar vujudga keltirildi. Bular – Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, Biznes-fond, «Madad» sugʻurta agentligidir. Shuningdek, konsalting, injiniring hamda lizing firma va kompaniyalar, biznes-inkubatorlar tarmogʻi shakllandi.

Eng asosiysi, kichik va oʻrta korxonalar hozirniig oʻzidayoq amalda boʻy koʻrsatdi. Muhimi – kichik va oʻrta korxonalar iqtisodiyotning hamma sohalarida tashkil etilmoqda.

3) **bozor** tuzilmasi rivojlangan mamlakatlarning tajribasi haqiqiy oʻrta mulkdorlar qatlamining asosiy qismi aholining pul mablagʻlarini qimmatli qogʻozlar bozoriga, odamlar uchun foydali turli bank depozitlariga va omonatlarga jalb etish vositasida shakllanayotganidan dalolat beradi. Bino-barin, qimmatli qogʻozlar bozorining ahvoliga qarab bozor munosabatlarining qaror topish jarayoni qay darajada joʻshqin borayotganligi haqida fikr yuritish mumkin.

Qimmatli qogʻozlar bozorini shakllantirish hisobiga aholining boʻsh turgan mablagʻlari aylanishga jalb etiladi. Bu ayni chogʻda iqtisodiyotni barqarorlashtirish sohasidagi muhim vazifani hal qilishga – pul muomalasini, demakki, milliy valutani mustahkamlashga yordam beradi.

Eng asosiysi – aksiyalashtirish, fond bozorida qatnashish orqali aholida qimmatli qogʻozlarning egasi boʻlishga qiziqish, ular bilan muomala qilish koʻnikmalari va madaniyati paydo boʻladi.

Muhimi, ular shunchaki aksiyalarning egasi boʻlganlik uchun emas, balki mol-mulk bir qismining real mulkdorlari hisoblanganlari hamda mulkdorlar sifatida korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatiga taʼsir koʻrsatish huquqiga ega boʻlganliklari uchun ham aksiyadorlar deb

atalishi darkor. Odamlar qimmatli qog'ozlarni sotib olishga qodir bo'lganlarida mulkdorlar sinfi amalda vujudga keladi.

Yana bir gap. Respublikada qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish bo'yicha qo'yilgan maqsadlarga qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorini jadal shakllantirgan, bizning bozorimiz xalqaro fond va valuta bozorlariga chiqqan hamda qo'shib ketgan taqdirdagina, chinakamiga erishish mumkin.

Yuqoridagi o'z vaqtida qilingan xulosalar va belgilangan vazifalar ijrosi bugunga kelib mamlakatimizning iqtisodiy negizini mustahkamlashda amaliy kasb etdi.

Mamlakatimizda ko'p ukladli iqtisodiyot tarkibida davlat, korporativ va xususiy mulkning tengligi, ayni paytda xususiy mulkning ustuvorligi aniq belgilab qo'yilgani davlatimizning siyosiy va iqtisodiy tizimini, biz barpo etayotgan jamiyatning ma'no-mazmunini aniq va ravshan ko'rsatib beradi.

Biz mulk va mulkdorlar masalasini yechishda umume'tirof etilgan tamoyillar bilan birga, o'zimizga xos milliy xususiyat va hayot tarzini inobatga olganmiz. Ayni shunday yondashuv va olib borayotgan siyosatimiz mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlashda, iqtisodiyotimizning ishonchli poydevori va tez sur'atlar bilan o'sishini ta'minlashda mustahkam omil bo'lib kelmoqda.

Dunyodagi ko'pgina taraqqiy topgan, bugungi kunda barqaror va badavlat yashab kelayotgan davlatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, avvalo o'zining xususiy mulkiga ega bo'lgan shaxs va bunday shaxslardan iborat bo'lgan toifa, bu boylikni yanada ko'paytirishga, o'zini va oilasini boqishga, shu bilan birga, davlat va jamiyat zimmasida bo'lgan ko'pgina vazifalarni amalga oshirishda o'z hissasini qo'shadi. Va eng muhimi, o'z yurtida tinchlik va osoyishtalikni saqlash va himoyalashda astoydil jon kuydiradi.

Ko'pchilikni tashkil etgan va bunday maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan toifa – ijtimoiy qatlamlarning o'rta sinfi deb nom olgani ham bejiz emas, albatta.

O'zbekiston tanlagan va bugun amalga oshirayotgan taraqqiyot yo'lida tobora kuchga kirayotgan ana shu o'rta sinf, uning xususiyat va alomatlari haqida gap borar ekan, o'ta muhim, hayotimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan bir tamoyilga alohida to'xtalib o'tmoqchiman.

Yurtimizning tarixiy-madaniy o'ziga xosligidan, azaliy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan va ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya qilgan holda, bizda o'ta boylar ham va o'ta kambag'allar ham bo'lmasligi talab qilinadi.

5. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati va milliy boyligi

5.1. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati

Mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga oid ta'riflardan quyidagilarni keltiramiz:

- a) salohiyat yashirin holda mavjud va zaruriy imkoniyatlar majmui;
- b) salohiyat – qobiliyatlar majmui;
- c) salohiyat – resurslar majmui.

Mazkur ta'riflardan eng ko'p qo'llanadigani «resurslar»ga oiddir.

Ushbu mavzudagi «salohiyat» tushunchasini ta'riflashda biz ana shu yondashuvga asoslanamiz.

Mamlakatning iqtisodiy salohiyati – mamlakatda mavjud resurslarning, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning eng ko'p darajada zarur bo'lgan hajmini ta'minlashga qodirligidir.

Iqtisodiy salohiyat tarkibini ta'riflashda (aniqlashda) ikkita metodologik yondashuv taklif etiladi:

- a) milliy iqtisodiyot ega bo'lgan resurslarni baholash;
- b) xo'jalik oborotiga jalb etilayotgan barcha resurslarni qo'llash jarayonida ehtimol tutilgan iqtisodiy natijani aniqlash.

Mamlakat iqtisodiy salohiyatining tarkibi quyidagi jihatlariga ko'ra tahlil qilinadi:

- uning natural-moddiy tarkibi, ya'ni resurslar to'plami, iqtisodiy salohiyatni aniqlash va dinamikasi tomonidan;
- iqtisodiy salohiyatning real holati hamda rivojlanish va qo'llanish istiqbollari nuqtai nazaridan, ya'ni bunda gap iqtisodiy salohiyatning statik va kinetik xususiyatlari haqida boradi;
- iqtisodiy salohiyatni boshqarishning tashkiliy shakllari nuqtai nazaridan, ya'ni uning sohalari (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish), iqtisodiyot tarmoqlari va mintaqalar tomonidan;
- ham milliy hududda, ham boshqa mamlakatlar hududida joylash-tirilgan va amal qilayotgan iqtisodiy salohiyat elementlari tomonidan, ya'ni bu jihat ishlab chiqarish obyektlari va boshqa obyektlarning asosiy qismi nafaqat davlat hududida, balki xorijiy davlatlar hududida ham joylashgan holatni inobatga oladi. Bu vaziyat odatda omilli (faktorli) daromadlarni aniqlashda hisobga olinadi;
- mamlakat qonunchiligida nazarda tutilgan xo'jalik yuritishning alohida tashkiliy-huquqiy shakllarining mamlakatda xo'jalik yuritishning yakuniy natijalariga qo'shadigan hissasi nuqtai nazaridan, ya'ni bunda

gap mulkning davlat, xususiy, aralash, xorijiy va boshqa shakllarini shakllantirish va foydalanishdagi hissasi haqida boradi. Ushbu mulk shakllariga xo‘jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllari (AJ, har xil shirkatlar, uyushmalar, xoldinglar va h.k.) kiradi.

Iqtisodiyotning milliyligi uni boshqalar uchun yopiqligini bildir-maydi, aksincha, u ochiq bo‘ladi, tashqi dunyo bilan o‘zaro manfaatli aloqaga kirishadi. Biroq milliy iqtisodiyot asosan o‘z resurslariga tayanadi. Milliy iqtisodiyot ochiqligi xavfsizlik choralari ko‘rishni taqozo etadi. Makroiqtisodiyot milliy iqtisodiyot bo‘lar ekan, bu iqtisodiyotning yaxlitligini bildiradi.

Iqtisodiy salohiyatning hajmi, tuzilishi va dinamikasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar qatorida quyidagilarni ajratish mumkin:

- mavjud iqtisodiy resurslar hajmi hamda ulardan foydalanish imkoniyati;

- mamlakat erishgan hamda iqtisodiyot texnik bazasining sifati va unumdorligini ifodalaydigan fan-texnika taraqqiyotining rivojlanish darajasi;

- mamlakat fundamental va amaliy tadqiqotlar sohasida to‘plagan salohiyat, mamlakat mehnat resurslarining sifatini ifodalovchi xodim-larning kasbiy-malakaviy darajasi.

Mazkur omillarning iqtisodiy salohiyat tarkibidagi kompleks aloqadorligi salohiyatlarning mehnat, tabiiy-resursli, ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish va boshqalardan iborat butun boshli tizimi shakllanishiga olib keladi. Ulardan har biri rivojlanishning o‘ziga xos tamoyil va qonuniyatlariga ega.

Iqtisodiy salohiyatning quyidagi turlari ajratiladi:

1. Tabiiy-resursli salohiyat (tabiiy tizimlarning o‘ziga zarar yetkazmagan holda odamlarning ushbu tipdagi xo‘jalik doirasida mahsulotga bo‘lgan ehtiyojlari qondirilishini ta’minlash qobiliyati). Tabiiy resurslar milliy boylikning asosiy qismini tashkil qiladi.

Tabiiy resurslarning quyidagi turlari ajratiladi.

Mineral resurslar:

- yonilg‘i-energetika resurslari (neft, gaz, ko‘mir va boshqalar);
- metallsimon foydali qazilmalar (temir, mis, qo‘rg‘oshin, aluminiy, qalay va boshqalar);

- metall bo‘lmagan foydali qazilmalar (tuz, shpat, kaliy tuzlari, asbest, grafit va boshqalar);

- tabiiy qurilish materiallari va ishlab chiqarish uchun yaroqli xom ashyo (qurilish toshlari, qum-shag‘al material va boshqalar).

Tuproq resurslari:

qishloq xo‘jalik ekinlari (haydaladigan, ozuqa beruvchi ekinlar, chorva mollari boqiladigan yaylovlar va boshqalar).

O‘simlik resurslari:

o‘rmon o‘simlik resurslari (chinor, yong‘oq, bodom, terak, qarag‘ay, archa, tol va boshqalar);

pichanzorlar va yaylovlardagi o‘simlik resurslari (yaylovlar, ekilgan o‘tzorlar, baland tog‘ va adir yaylovlari hamda boshqalar);

dorivor o‘simliklar (na‘matak, dala qirqbo‘g‘ini, ittikanak, qumda o‘suvchi bo‘znoh, marvaridgul va boshqalar);

texnik o‘simliklar resurslari (yalpiz, shuvoq (ermon), bo‘yi-modaron va boshqalar);

Hayvonot dunyosi resurslari:

yovvoyi hayvonlar (ayiq, bo‘ri, tulki, mo‘ynali hayvonlar, sayg‘oq va boshqalar);

parrandalar (karqur, kaklik, g‘oz, o‘rdak, bedana va boshqalar);

ovlanadigan baliq (mintay, treska, sazan, marinka, kilka, ilonbaliq va boshqalar).

Suv resurslari:

yer yuzidagi suv maydonlari (ko‘llar, botqoqliklar, muzliklar);

yer osti va sizot suv omborlari.

Resurslarning boshqa turlari:

iqlimiy;

gidroenergetika zaxiralari.

Davlatimiz rahbari Islom Karimovning 2007-yil 6-noyabrda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining IV qurultoyidagi ma‘ruzasida: «Biz O‘zbekistonning beqiyos salohiyati, uning yer osti va yer usti boyliklari bilan haqli ravishda faxrlanamiz va ularni yurtimizning taraqqiyoti, xalqimizning farovonligi uchun yanada ko‘proq xizmat qildirish harakatidamiz», – degan fikrlarini Vatan taraqqiyoti yo‘lida mavjud resurslardan oqilona foydalanishga da‘vat sifatida anglash lozimki, resurslarga xo‘jasizlarcha munosabat jamiyatning iqtisodiy negizlariga putur yetkazadi.

5.2. Ishlab chiqarish salohiyati va asosiy fondlar

Xalq xo‘jaligining ishlab chiqarish salohiyati tabiiy va mehnat resurslari, asosiy kapital va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning o‘zaro ta‘siri jarayonida shakllanadi.

Asosiy fondlar – to‘plangan binolar, inshootlar, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari hamda ko‘p yil foydalaniladigan boshqa ishlab chiqarish obyektlarining qiymatdagi ko‘rsatkichidir. Asosiy fondlarning muayyan vaqtdagi real bahosini olish uchun ular bo‘yicha inventarizatsion qayta baholash o‘tkaziladi. Asosiy fondlar milliy boylikning eng o‘zgaruvchan tarkibiy qismi, ishlab chiqarish salohiyatining moddiy-texnikaviy asosi hisoblanadi. Asosiy fondlarga nomoddiy aktivlar (foydali qazilmalarni izlab topish xarajatlari, dasturiy ta‘minot, texnologiyalar va boshqalar) ham kiradi.

5.3. Ilmiy-texnikaviy salohiyat

Ilmiy-texnikaviy salohiyat kadrlar, moddiy-texnikaviy, axborot va tashkiliy resurslar majmuidir. Ilmiy yutuqlar – ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omili. 1990-yillardan boshlab jahonning yetakchi mamlakatlarida fanning ilmiy tuzilishi qayta tashkil qilina boshlandi: texnikaviy yo‘nalishlar: biologiya, genetika, tibbiyot, biofizikaning ulushi ko‘payib bordi. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning asosiy xususiyatini fan va innovatsion faoliyatning moliyalashtirilishi tashkil etmoqda. Ilmiy texnikaviy salohiyatning eng muhim omilini fan kadrlari, xususan tadqiqotchilar tashkil qiladi. Fanning moddiy-texnikaviy bazasi (binolar, inshootlar, tajriba-eksperiment uskunalari, o‘quv dala markazlari va h.k.) bilan ta‘minlanganligi katta ahamiyatga ega. Ilmiy-texnikaviy salohiyat mehnat unumdorligining ortishini, mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va iqtisodiy xavfsizligini belgilab beradi.

5.4. Mehnat salohiyati

Mehnat salohiyati – jamiyatning imkoniyatdagi mehnat qobiliyati, jamiyat muayyan vaqt mobaynida ega bo‘lgan mehnat resurslarining ko‘lamidir.

Mehnat salohiyati miqdor va sifat tomonlariga ega.

Mehnat salohiyatining miqdor tomoni quyidagi ko‘rsatkichlar orqali ifodalanadi:

- mehnat qobiliyatiga ega bo‘lgan aholining umumiy soni;
- mehnatga qobiliyatli aholi mehnatining shakllangan intensivligi darajasi sharoitida ishlaydigan ish vaqtining miqdori.

Ushbu ko‘rsatkichlarning olinishi jamiyatning muayyan davrdagi vaqt mobaynida ega bo‘lgan mehnat salohiyatining miqdor xususiyatini beradi.

Mehnat salohiyatining sifat tomoni quyidagilarda ifodalanadi:

mehnat qobiliyatiga ega aholining sog‘liq va jismoniy layoqat darajasi;

mehnat qobiliyatiga ega aholi ma’lumoti va malaka tayyorgarligining sifati.

Binobarin, mehnat salohiyatining sifat tomoni mehnat qobiliyatiga ega aholining jismoniy va aqliy rivojlanishi majmui bilan ifodalanadi, bu esa, o‘z navbatida, uning mehnat faolligi darajasini belgilab beradi.

Mehnat salohiyatining miqdor ko‘rsatkichlari uning ekstensiv o‘shini ko‘rsatsa, sifat ko‘rsatkichlari – intensiv o‘shidan dalolat beradi.

Mehnat salohiyatini shakllantirish va undan foydalanishning maqbul jarayonlariga jamiyatning mehnat resurslarini boshqarishni maqbullashtirish orqali erishish mumkin.

Mehnat salohiyati insonga sarflangan investitsiyalarga bog‘liq bo‘lib, bu investitsiyalar jamiyatda inson kapitali yaratilishi, jamlanishi va ishlatilishiga olib keladi. Bu esa ishlab chiqarish va daromadning ko‘payishini ta’minlaydi. Mehnat salohiyatining rivojlanishi quyidagi demografik jarayonlar bilan bog‘liq:

aholining mutlaq soni;

katta va kichik yoshdagi shaxslarning ulushi;

aholining kasallanish darajasi;

demografik yuk (nagruzka) koeffitsiyenti (bolalar va qariyalar umumiy sonining mehnatga layoqatli yoshdagi odamlar soniga nisbati).

Mamlakat iqtisodiy salohiyatini baholashning universal indikatori (ko‘rsatkichi) – yalpi ichki mahsulot (YAIM). U nafaqat milliy iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi darajasini, balki uning tarmoq va hududiy tuzilishiga xos xususiyatni, uning ayrim sohalari, tarmoqlari va mintaqalari faoliyatining samaradorligini, jahon integratsiya jarayonlariga jalb etilish darajasini va shu kabilarni ifodalaydi.

Yalpi ichki mahsulot – statistikaning umumlashtiruvchi iqtisodiy ko‘rsatkichi bo‘lib, bir yil ichida mamlakatda ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot (tovarlar va xizmatlar)ning bozor narxlaridagi jami qiymatini ifodalaydi. Ayni vaqtda ushbu mamlakatga ham, boshqa mamlakatlarga ham xos bo‘lgan ishlab chiqarish omillaridan foydalangan holda hisoblanadi.

YAIM xuddi YAMM (yalpi milliy mahsulot) singari uchta usul bilan hisoblanadi:

Iqtisodiy salohiyat hajmi, tuzilishi va dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar ichida quyidagilarni ajratish mumkin:

iqtisodiyot resurslarining hajmi va ulardan foydalanish mumkinligi;

ilmiy texnikaviy taraqqiyot rivojlanishining mamlakat erishgan darajasi, u iqtisodiyot texnik bazasining sifati va unumdorligini belgilab beradi;

mamlakat fundamental va amaliy tadqiqotlar sohasida to'plagan salohiyat, mamlakat mehnat resurslarining sifati va ifodalovchi xodimlarning kasbiy-malakaviy darajasi.

Iqtisodiy salohiyat tarkibida mazkur omillarning kompleks o'zaro ta'siri salohiyatlarning butun boshli tizimi shakllanishiga olib keladi: mehnat salohiyati, tabiiy-resursli salohiyat, ilmiy-texnikaviy salohiyat, ishlab chiqarish salohiyati va h.k. Ularning har biri o'ziga xos rivojlanish tamoyillari (tendensiyalari) va qonuniyatlariga ega.

Iqtisodiy salohiyatning eng muhim elementi – milliy boylik.

5.5. Milliy boylik (MB)

Milliy boylik – mamlakat iqtisodiy qudratining eng muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, jamiyat o'zining butun ishlab chiqarish faoliyati davrida to'plagan iste'mol qiymatining majmuini (muayyan sanaga) pul ko'rinishida ifodalaydi.

Milliy boylik jamiyat moddiy va madaniy rivojlanishining asosi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning shart-sharoiti va natijasi, xalq hayotining darajasi va sifati oshirishning zaruriy shartidir.

Milliy boylik quyidagi ikki asosiy tarkibiy qismni qamrab oladi:

ijtimoiy (mehnat bilan yaratilgan) boylik;

tabiiy (mehnat bilan ishlab chiqarib bo'lmaydigan) boylik – ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan resurslar (yer, suv, o'rmonlar, foydali qazilmalar).

Ijtimoiy boylik ham muayyan ahamiyatga ega.

Milliy boylik murakkab iqtisodiy tuzilishga ega bo'lib, uning tarkibida quyidagi elementlar ajratiladi:

asosiy fondlar (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlari);

moddiy muomala fondlari (xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg'i zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari, tayyor mahsulot zaxiralari);

- xalq xo‘jaligining tovar zaxiralari;
- davlat zaxiralari, jumladan sug‘urta, mudofaa ahamiyatiga ega bo‘lgan, shuningdek, oltin va xorijiy valuta zaxiralari;
- aholining uy xo‘jaligida uzoq vaqt foydalaniladigan narsalar (individual transport vositalari, mebel, madaniy-maishiy va xo‘jalikda ishlatilayotgan narsalar, zargarlik buyumlari, kitob jamg‘armalari va boshqalar);

□ iqtisodiy muomalaga jalb etilgan tabiiy resurslar (o‘zlashtirilgan yerlar, o‘rmonlar, suvlar, yer osti konlaridagi boyliklar va h.k.).

Keng ma‘noda, milliy boylikka jamiyatning ilmiy, ma‘rifiy, malakaviy va madaniy salohiyati kiradi. Noashyoviy (nomoddiy) boylik tarkibida millatning sog‘lig‘i darajasi alohida o‘rin tutadi.

Milliy boylik dinamikasiga ijtimoiy takror ishlab chiqarishning samaradorligi xosdir. Shu bois milliy boylik muammosi iqtisodchilar tadqiqotlarining mavzui bo‘lgani bejiz emas. Ilk bor milliy boylik ingliz iqtisodchisi U. Petti tomonidan 1664-yilda hisoblab topilgan. Milliy boylik ilk bor Fransiyada 1789-yilda, AQShda 1805-yilda, Rossiyada 1864-yilda hisoblangan.

Muayyan mamlakat valutasida hisoblangan milliy boylik odatda qandaydir umumiy valutada, masalan, AQSh dollarida qayta hisoblanadi va mamlakat aholisining jon boshiga nisbatan aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich ayrim mamlakatlar iqtisodiy qudratlarini va ularning moddiy farovonlik darajasini qiyosiy tahlil qilish uchun asos bo‘ladi.

Milliy boylik tarkibini ifodalashda bir qator iqtisodiy kategoriyalardan foydalaniladi. Ularning ayrimlariga to‘xtalamiz:

Nomoliyaviy ishlab chiqarish aktivlari – ishlab chiqarish jarayoni natijasida yaratilgan aktivlar. Bu aktivlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarning asosiy fondlari;
- moddiy muomala vositalarining zaxiralari;
- qimmatliklar (boyliklar).

Asosiy fondlar (asosiy vositalar, asosiy kapital) – bu doimiy ishlab chiqarish kapitalining ishlab chiqarish jarayonida butunlay ishtirok etuvchi, ammo o‘z qiymatini tayyor mahsulotga qism-qism qilib moddiy va ma‘naviy eskirish jarayonida o‘tkazib boradigan qismi.

Asosiy fondlarga avanslashgan kapitalning bino, inshootlar qurish, mashina, uskunarlar, asboblar xarid qilishga sarflangan qismi kiradi. Tovar sotilganidan keyin asosiy kapital qism-qism bo‘lib pul shaklida tadbirkorga qaytib keladi.

Asosiy fondlar tarkibiga, shuningdek *nomoddiy ishlab chiqarish aktivlari* – inson mehnati bilan yaratilgan, biror axborot tashuvchida keltirilgan va barcha uchun foydalanish mumkin bo‘lmagan axborot ko‘rinishidagi obyektlar. Ushbu aktivlar qiymatiga foydali qazilmalarni izlab topish, dasturiy ta‘minot ishlab chiqish, adabiyot va san‘atning original asarlarini yaratish kabilarga sarflangan xarajatlar kiradi.

Moddiy muomala vositalari – milliy boylikning muhim tarkibiy qismi, uning doimiy ravishda yangilanib (tiklanib) boradigan elementi. Ular tarkibiga ishlab chiqarish zaxiralari (xom ashyo, materiallar, yonilg‘i, ehtiyot qismlar, uskunalar, xo‘jalik tovarlari, urug‘lar, ekish materiallari va yem-xashak, boquvdagi hayvonlar, yosh chorva mollar va boshqalar), tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot hamda qayta sotish uchun mo‘ljallangan tovarlar va moddiy zaxiralar kiradi.

Qimmatliklar (boyliklar) – uzoq muddat foydalanishga mo‘ljallangan, vaqt o‘tishi bilan eskirmaydigan, odatda iste‘mol uchun yoki ishlab chiqarishda foydalanilmaydigan hamda asosan qiymatni zamonda saqlab qolish vositasi sifatida sotib olinadigan qimmatbaho tovarlar bo‘lib, ularning qiymati narxlarning umumiy darajasiga nisbatan kamaymasligi kerak. Boyliklar qimmatbaho (nodir) metallar va toshlar, san‘at asarlari kabilardan tashkil topadi. Boyliklarning eng muhim xususiyati shundaki, vaqt o‘tishi bilan ko‘plab obyektiv va subyektiv omillar oqibatida boyliklarning tuzilishi o‘zgaradi.

Moliyaviy bo‘lmagan va ishlab chiqarishga aloqador bo‘lmagan aktivlar – milliy boylikning tarkibiy qismlaridan biri. Unga iqtisodiy salohiyatning nafaqat hajmi va tuzilishini, balki dinamikasini ham belgilovchi ikki tarkibiy qism kiradi:

a) moddiy noishlab chiqarish aktivlari;

b) nomoddiy noishlab chiqarish aktivlari (patentlar, savdo markalari, nou-xau va boshqalar).

Moddiy noishlab chiqarish aktivlari – tabiiy kelib chiqqan aktivlar (tabiiy aktivlar – yer, kon resurslari, boshqa tabiiy aktivlar), ya‘ni mulkchilik huquqi belgilangan yoki belgilanishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlarining natijalari bo‘lmagan aktivlar.

Ushbu aktivlarga tabiiy aktivlar kirmaydi, ayrim mulkchilik huquqlari belgilanmagan yoki belgilanishi mumkin emas (masalan, ochiq dengiz yoki osmondagi makon).

Nomoddiy ishlab chiqarilgan aktivlar – bular o‘z egalariga faoliyatning muayyan turlari bilan shug‘ullanish yoki muayyan turdagi tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishga alohida huquq beruvchi aktivlar. Bunda boshqa institutsional birliklar (yuridik va jismoniy

shaxslar) tegishli aktivlar egalarining maxsus ruxsatisiz bunga huquqli bo'lmaydilar. Bu aktivlarga patentlashtirish obyektlari (litsenziya, nou-xau va boshqalar), ijara haqidagi shartnomalar va foydalanish uchun berish huquqini beruvchi boshqa kontraktlar, shuningdek sotib olingan gudvill (ishbilarmonlik aloqalari va obro'yi qiymatining shartli bahosi) kiradi.

Ularni hisobga olish metodikasi hali oxirigacha ishlab chiqarilmaganligi sababli bizning statistika milliy boylikning ushbu qismi bo'yicha ma'lumotlarga ega emas.

Moliyaviy aktivlar (passivlar) – ular tarkibiga quyidagilar kiradi:

- monetar oltin va o'zlashtirishga oid maxsus huquq (SPZ);
- valuta va depozitlar;
- qimmatbaho qog'ozlar (aksiyalardan tashqari);
- aksiyalar hamda aksionerlik kapitalida ishtirok etishning boshqa turlari;
- kredit va zayomlar (qarzlilar);
- sug'urtaga oid texnik zaxiralar;
- boshqa debitorlik va kreditorlik qarzlari;
- bevosita xorijiy investitsiyalar (ma'lumotnomaga oid).

Moliyaviy aktivlar va passivlar (majburiyatlar), agar tashkil qilingan moliyaviy bozorlarda oldi-sotdi obyekti bo'lsa, joriy qiymati bo'yicha baholanadi. Bunda bahoga xizmatlar ko'rsatganlik uchun to'lovlar, yig'imlar, komission to'lovlar hamda bitimlar tuzish chog'ida xizmat ko'rsatish uchun to'lanadigan boshqa o'xshash to'lovlar kiritilmaydi.

Tayanch tushunchalar:

Mulk, davlat mulki, jamoa mulki, xususiy mulk, aralash mulk, mulkchilikning obyekti, subyekti, mulkiy demokratiya, mulkiy plyuralizm, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi.

Savol va topshiriqlar:

1. Nima uchun jamiyatning iqtisodiy asosini mulkchilikning turli shakllari tashkil etadi?
2. Mulkchilikning turli shakllariga o'tishning zarurligi nimalarda ko'rinadi?
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida turli mulk shakllari teng huquqliligining e'tirofini izohlang.

4. Bozor tizimi xilma-xil mulkchilikka asoslanadi, ammo xususiy mulkchilik ustuvorligining sababini tushuntiring.
5. Mulkiy munosabat qanday manfaatlarni yuzaga keltiradi?
6. Inson manfaati va mulkdor manfaatining farqi qanday?
7. Hozirgi bosqichda xususiylashtirish ommaviy tus olganining sabablarini tushuntirib bering.
8. Mulknı saqlashning qanday usullari qulay?

Mavzuni chuqur o‘rganish instrumentariysi

Mulkchilik – kishilar o‘rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsulini o‘zlashtirish yuzasidan paydo bo‘lgan va tarixan aniq bir shaklda namoyon bo‘luvchi iqtisodiy munosabatlar.

Mulkning institutsional tizimi – mulkning barcha tarkibiy darajalarida amal qiladigan va takror ishlab chiqariladigan institutlarning o‘zaro bog‘liq birligi.

Mulk huquqining spetsifikatsiyasi – ayrim «vakolatlar»ning ushbu «vakolatlar»ning ularni yuqori baholaydigan va ulardan foydalanish orqali ko‘proq foyda ola biladigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar sotib olishlari uchun qulay sharoit yaratish maqsadida bir yoki bir necha iqtisodiy subyektlarga biriktirilishi.

Mulkning demokratik (fuqarolik) tizimi – mulkning barcha shakl va turlari xilma-xilligi va tengligi tizimi.

O‘zlashtirishning kapitalga yo‘naltirilgan usuli – ashyo va pul kapitalidan shaxsiy manfaatlar yo‘lida foydalanish oqibatida foizdagi daromadlarni o‘zlashtirish.

Mulknı tadqiq etishning ilmiy paradigmasi – tegishli asosiy tadqiqot prinsiplari va metodlari tizimi.

Mulkning birinchi tarkibiy darajasi – ne‘matlarni tom ma‘nodagi mulkning tabiiy asosi bo‘lgan ijodiy mehnat bilan o‘zlashtirish.

Mulkning ikkinchi tarkibiy darajasi – xo‘jalik yurituvchi agentlar o‘rtasida ne‘matlarni o‘zlashtirish subyektni aniqlash borasida yuzaga keladigan raqobatli munosabatlar tizimini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

Mulkning uchinchi tarkibiy darajasi – o‘zlashtirish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar shakli bo‘lib, tegishli rasmiy, avvalo yuridik normalar va norasmiy cheklovlarning o‘zaro bog‘liq birligida namoyon bo‘ladi.

O‘zlashtiruvchi faoliyat – xo‘jalik subyektlarini o‘zlashtirishning turli shakl va usullari doirasida ne‘matlarga egalik qilish borasidagi faoliyati.

O‘zlashtirish – u yoki bu ne‘matni o‘zlashtirishning muayyan shakli doirasida uni o‘zlashtirishning muayyan usuli.

Rentaga yo'naltirilgan xatti-harakat – iqtisodiy agentlarning renta daromadlari olish borasidagi maqsadli faoliyati.

O'zlashtirishning rentaga yo'naltirilgan usuli – turli shakllardagi (tabiiy, monopol, ma'muriy) renta daromadlarini o'zlashtirish.

Mulk – xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida ne'matlarni o'zlashtirish borasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabat shakli yoki institutsionallashtirilgan raqobatli munosabatlar.

O'zlashtirishning ijtimoiylashgan usuli – davlatning jamiyat a'zolarini muayyan ne'matlar bilan ta'minlash borasidagi qayta taqsimlash faoliyati natijasida yuzaga keladigan daromadlarini o'zlashtirish.

Mulkning iqtisodiy shakli – ne'matni yaratishning ijodiy mehnat jarayonini bevosita tashkil qilish va boshqarish shakli.

Mulkning endogen (ichki) tizimi – uning uchta tarkibiy darajasining o'zaro bog'liq va rivojlanuvchi birligi.

Ichki (endogen) ishlab chiqarish – shaxsning o'z insoniy kapitalini yaratish borasidagi ijodiy mehnat faoliyati; shaxsning uni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalarni «o'zlashtirish borasidagi» faoliyati.

Mulk muammosiga takror ishlab chiqarish nuqtai nazaridan yondashish – ijodiy mehnat usuli bilan o'zlashtirilgan mahsulotning yaratilish bosqichidan tortib ushbu ne'matning tabiiy mulkdori muayyan daromad olgunicha davom etadigan harakatini tadqiq etish.

Fuqaroviy yoki sivilitar mulk – fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat va erkin bozorning asosini tashkil qiluvchi shaxsiy, xususiy va ijtimoiy mulklar tizimi.

Mulkning rivojlanishi qonuni – yuzaga kelgan mulk shakli ertami-kechmi modifikatsiyalanishini belgilovchi zarurat.

Mulkning shakllanishi va rivojlanishi qonuni – ayni vaqtning o'zida mulkning tabiiy ravishda yuzaga kelgan shakl va turlarining «rasmiylashuvi»ni, shuningdek ularning obyektiv ravishda o'zgarishi va modifikatsiyasini ifodalovchi ichki aloqalarni aks ettiruvchi qonun. Mulkning shakllanishi va rivojlanishi qonunining mohiyati muayyan ne'matlarni o'zlashtirish sohasida yuzaga keladigan munosabatlarning ijtimoiy shakllari ular yaratuvchi o'zlashtirilishining mavjud tabiiy-huquqiy shakl va usullariga muvofiqligining obyektiv zarurligidadir.

Mulkning shakllanish qonuni – ne'matni yaratishning har qanday ijodiy mehnat jarayoni ertami-kechmi munosabatlarning muayyan ijtimoiy shakli bilan yakunlanadigan zarurat.

Intellektual mulk – faoliyatning barcha daraja va sohalaridagi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida intellektual boyliklarning o'zlashtirilishi va keyinchalik mansubligini ta'minlash borasida yuzaga keladigan munosabatlarning ijtimoiy shakli.

Shaxsiy mulk – shaxs hamda xo‘jalik munosabatlarining boshqa subyektlari o‘rtasida shaxsiy ne‘matlarni o‘zlashtirish borasida yuzaga keladigan munosabatlarning ijtimoiy shakli.

Jamoat mulki – davlat siyomosida namoyon bo‘ladigan jamiyat hamda boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida insonning jamiyat a‘zosi sifatida ijtimoiy ne‘matlarni o‘zlashtirishi borasida yuzaga keladigan munosabatlarning institutsionallashtirilgan tizimi.

Nominal mulkdorlar sinfi – jamiyatning inson, ashyolarga va tabiiy kapitalga bo‘lgan mulkdorlik yuridik huquqiga ega bo‘lgan, ayni vaqtda iqtisodiy hokimiyatga ega bo‘lmagan ijtimoiy guruhlari.

Real mulkdorlar sinfi – rasmiy institutlar ishlab chiqarish hamda shu bilan ishlab chiqariladigan mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlashda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy guruhlar.

Fandorlik – mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan fanga xarajatlar kattaligi; kapital samarasi – muayyan vaqt mobaynida yaratuvchi kapitalning qo‘shimcha birliklaridan foydalanish natijasida olingan mahsulot; materiallar hajmi – mahsulot birligini tayyorlash uchun zarur bo‘lgan barcha turdagi materiallar sarfi.

Inson kapitalining haqiqiy mulkdori – yaratiladigan, jumladan muayyan shaxs tomonidan yaratiladigan barcha hayotiy ne‘matlar majmuini taqsimlash va qayta taqsimlash chog‘ida yuzaga keladigan manfaatlarni kelishishga amalda ta’sir eta oladigan shaxs.

Inson kapitaliga bo‘lgan mulkchilik tizimi – mazkur kapitalning subyekt-obyekt tuzilishining barcha elementlari, shuningdek uning iqtisodiy amalga oshuvi va rivojlanishini belgilovchi shart-sharoitlar va omillarning o‘zaro bog‘liq va rivojlanib boruvchi birligi.

Inson kapitaliga bo‘lgan mulk – shaxs bilan boshqa xo‘jalik yurituvchi agentlar o‘rtasida mazkur shaxsning dolzarblashgan bilimlar, ko‘nikmalar, o‘quv va qobiliyatlarni o‘zlashtirish va keyinchalik ularning mansubligi borasida yuzaga keladigan munosabatlarning ijtimoiy shakli.

Inson kapitaliga bo‘lgan mulkning ijtimoiy shakli – bir tomondan, shaxsning u yoki bu ijtimoiy uyushmada ixtiyoriy ishtiroki bilan shaxsiy tusga ega bo‘ladigan mulk shakli; boshqa tomondan, bu shaxsiylashuv muayyan ijtimoiy uyushmaning ushbu shaxs va o‘xshash iqtisodiy manfaatlarga ega bo‘lgan boshqa shaxslar manfaatlarini ifodalashga tayyorligi va qodirligida moddiylashadi.

Mulkning yuridik huquqi spetsifikatsiyasi – mazkur huquqning tegishli yuridik vakolatlarga (egallik, foydalanish, tasarruf etish, javobgarlik kabilarga) bo‘linishi.

Xususiy mulk – xususiy ne'matlarni o'zlashtirish borasida xo'jalik munosabatlari subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarning ijtimoiy shakli.

Mulkning ekzogen (tashqi) tizimi – hozirgi zamon iqtisodiyotida mulkning barcha shakllari va turlarining o'zaro bog'liq va rivojlanib borayotgan birligi.

Inson kapitaliga bo'lgan mulkning iqtisodiy shakli – mulkning tabiiy tarzda shaxsiy tus oladigan shakli: inson kapitalining iqtisodiy mulkdori adolatli ravishda ushbu ne'matni amalda ichki ishlab chiqarish jarayonida yaratadigan shaxsdir.

O'rta sinf – jamiyatning o'z tasarrufidagi mulk obyektlari asosida kengaytirilgan individual takror ishlab chiqarishni amalga oshiradigan qismi.

Proto'o'rta sinf – jamiyatning o'rta sinfiga yaqinlashadigan, uning tarkibiga kirishga urinadigan, ammo hozircha tashqaridan, avvalo davlat tomonidan bo'ladigan yordamsiz individual kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshira olmaydigan ijtimoiy qatlami.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. Mustaqillik yillari mulkchilik masalasini hal qilish bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qildi.

2. Amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning barcha bosqichlarida eng muhim dolzarb vazifa sifatida mulkiy munosabatlarni tubdan o'zgartirishga e'tibor qaratildi. Uning tub mohiyati – mulkni haqiqiy egalari qo'lga berishni tezlashtirish, kichik biznes va tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlar berish va mulkdorda yangi mulk egasi hissiyotini tarbiyalashdan iborat bo'ldi.

3. Konstitutsiyaviy tarzda bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi, teng huquqli, daxlsiz, davlat himoyasidagi mulk tashkil etishi va bunda ustuvorlik xususiy mulkka berilishi qayd etildi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotining butun dunyoda qabul qilingan tamoyillarga o'tish, va strategik taraqqiyotimizning eng muhim ustuvor yo'nalishi sifatida xususiy mulkning daxlsizligini mustahkamlashga yuksak e'tibor qaratildi.

4. Milliy qonunchiligimizda xususiy mulk va mulkdorlarning himoya qilish kafolatlarini belgilovchi bir qator huquqiy hujjatlar amal qilmoqdaki, ularga ko'ra, xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir.

5. Xulosa o'rnida qayd etish kerakki, mulkdorlarning davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarda huquqlarining ustuvorligi prinsiplari amal qiladi.

Unga muvofiq, qonun hujjatlaridagi xususiy mulk huquqini amalga oshirish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan, bartaraf etib bo‘lmaydigan barcha ziddiyatlar va noaniqliklar mulkdorning foydasiga hal etiladi.

6. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tez va jadal rivojlanishini ta‘minlash, shu asosida bugungi kunda jamiyatning eng muhim va hal qiluvchi qatlami, ijtimoiy siyosiy barqarorlik hamda xavfsizlik kafolati, mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilish, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlaydigan o‘rta sinf – ya‘ni mulkdorlar sinfini shakllantirish deb qaralmoqda. O‘tkazilgan so‘rovlardan ma‘lum bo‘lishicha, 2013-yil 1-yanvarigacha mamlakatimiz aholisining 50 foiziga yaqini o‘zini o‘rta sinfga mansub deb biladi, 2000-yilda bu ko‘rsatkich atigi 24 foizni tashkil etgan.

5-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTI VA UNING QONUN-QOIDALARI

1. Bozor iqtisodiyoti va uning tub belgilari

Hozirgi zamon iqtisodiyoti bozor iqtisodiyotidir. Bu iqtisodiyot Yer yuzidagi ko‘pgina mamlakatlarda har xil darajada va o‘ziga xos xususiyatlar bilan rivojlanib bormoqda. Uning mohiyatli belgilarini eng rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ko‘rish mumkin.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov «Prezidentdan to oddiy fuqarogacha, yoshi va vazifasidan qat‘i nazar – hammani bugungi zamon talablariga, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalariga o‘rgatish, malakasini oshirish kerak»ligini mustaqillikning dastlabki yillaridayoq birinchi galdagi vazifa sifatida belgilagan.

Bozor asosida tovar-pul munosabatlari yotadi. Tovar-pul munosabatlari tovar ishlab chiqarish, tovarlarni ayirboshlash va pul muomalasiga xos munosabatlarning yaxlitligidir. Tovar ishlab chiqarishga oid munosabatlar tovarni yaratishda moddiy va jonli mehnat sarf etilishi, bu sarf-xarajatlar jamiyat uchun zaruriy darajada bo‘lishi, tovarning sifati va narxining muvofiqligi. ta‘minlanishi, individual mehnat sarflari zaruriy sarfga keltirilishi, tovarlar qiymati mehnat unumdorligiga teskari proporsional tarzda o‘zgarishi kabi aloqalarni bildiradi. Tovar ishlab chiqaruvchilar mustaqil ravishda, bozorga qarab tovarlarni yaratadilar, bozor talabi qondirilganda daromad topadilar. Yaratilgan tovarlarni ayirboshlash sohasidagi munosabatlar sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi erkin oldi-sotdi munosabatlaridir. Turli tovar ishlab chiqaruvchilar bozorda ayni

bir vaqtda ham sotuvchi, ham xaridor vazifasini o‘tashadi. Bozor aloqalari kerakli tovarlar zaruriy miqdorda va kelishilgan narxda ayirboshlanishini bildiradi. Tovarlar bevosita emas, balki pul vositasida ayirboshlanadi. Pul muhim iqtisodiy vazifalarni bajaradi, uning nufuzi yuqori bo‘ladi. Tovar-pul munosabatlari umuminsoniy hodisa, ular turli tizimlarga xos, ularni bir-biriga bog‘lab turadi. Ammo bu munosabatlar yuksak darajada rivoj topganda bozor iqtisodiyotiga aylanishi nazariyotchilar tomonidan tan olingan.


Iqtisodiyotning nimani, qancha va kim uchun ishlab chiqarish zarur, degan azaliy muammosi bozorda aniqlanadi. Shu sababli bozor tizimi qonun-qoidalarini o‘rganishni bozordan boshlaymiz va eng avval bozorning o‘zi nimaligini aniqlaymiz, so‘ngra uning turlarini ko‘rib chiqamiz.

Ishlab chiqarishda yaratilgan turli-tuman mahsulotlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar iste‘molchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki bozor orqali yetib boradi. Bozor ishlab chiqarishni iste‘mol bilan bog‘laydi, chunki hech bir narsa tekinga berilmaydi, uni bozorda pulga sotib olish talab qilinadi.

Bozor – bu xaridorlar bilan sotuvchilar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar, ularni bir-biriga bog‘laydigan mexanizmdir.

Bozorga tovar egasi uni sotish uchun, xaridor esa uni olish uchun chiqadi. Sotuvchilar – bu tovar ishlab chiqaruvchi firmalar, fermer xo‘jaliklari, yakka tarzda ishlab chiqaruvchi kishilardir. Xaridorlar esa jamiki iste‘molchilar, ya‘ni xonadonlar, resurslarni olib ishlatuvchi firmalar, davlat idoralari va yakka tartibda ishlab chiqaruvchilar bo‘ladi. Agar aholi bozordan iste‘mol buyumlari va xizmatlarni sotib olsa, firmalar va yakka tartibda ishlovchilar asbob-uskuna, mashinalar, yoqilg‘i, elektr energiya, xom ashyo va ish kuchini sotib oladilar. Bozorda tovarlarni pul vositasida ayirboshlash, ya‘ni oldi-sotdi munosabatlari paydo bo‘ladi. Bir tovar pulga ayirboshlansa, shu pulga qaytadan boshqa tovar sotib olinadi. Tovar pulga ayirboshlanganda (T-P bo‘lganda) sotish operatsiyasi, pul tovarga ayirboshlanganda (P-T) xarid etish operatsiyasi yuz beradi.

Demak, bozor munosabatlarida ham tovarlar, ham pul ishlatiladi (1-rasm). Shuning uchun buni tovar-pul munosabati deb aytiladi.



1-rasm. Tovar ayirboshlash.

Ishlab chiqarishda yaratilgan mahsulot va xizmatlar bozorda tovar shakliga kiradi. Shuning uchun ham tovar deganda, bozorda sotish uchun chiqarilgan narsalar tushuniladi.

Hammaning ishi bozorda bitadi, chunki u yerdan pulga barcha kerakli iste'mol buyumlari va resurslarni topsa bo'ladi. «Hamma narsaning otasi ham bozor, onasi ham bozor» degan gapning ma'nosi mana shunda. Hamma ishning bozorda bitishi uning afzalligi bor degani. Xo'sh, bu afzallik nimada? Bu bozor aloqalarining iqtisodiy jihatdan qulay bo'lishida, albatta. Gap shundaki, hamma narsani o'zi ishlab chiqargandan ko'ra, bir xil mahsulotni chiqarib, boshqasini sotib olish naflari bo'ladi. Tovar yaratuvchining mehnati ixtisoslashgan bo'ladi, ya'ni ishlab chiqaruvchilar faqat u yoki bu tovarni ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'ladilar, natijada kasblarning turi ko'payib boradi. Masalan, XXI asrga kelib yer yuzida 20 mingdan ziyod kasblar paydo bo'ldiki, ular bilan mashg'ul kishilar 60 trillion dollardan ziyod (2010-y.) mahsulot va xizmatlarni yaratdilar, bular g'oyat xilma-xil tovarlar bo'lib, ularni ishlab chiqaruvchilar bozor orqali bir-biriga yetkazib beradilar.

Hozirgi dunyoda, ayniqsa, G'arb mamlakatlarida iqtisodiyot haqida gap ketganda, faqat bozor iqtisodiyoti anglanadi. *Hozirgi zamon nazariyalarida bozor iqtisodiyoti deganda iqtisodiy xatti-harakatlarning erkin, mustaqil ravishda yuz berishi va ularning bozor mexanizmi orqali bir-biriga bog'lanib muvofiqlashuvi tushuniladi.* Bozor iqtisodiyoti g'oyat ko'p qirrali va murakkab iqtisodiyotdir. Uning mohiyatini anglash uchun unga xos tub belgilarni yaxlitlikda olib qarash kerak. Bu belgilar shakllanib ulgurgan, aralash iqtisodiyotga aylangan bozor iqtisodi sharoitida vujudga keladi, hozirgi eng rivojlangan mamlakatlarda aniq ko'rinadi.

Bozor iqtisodiyoti erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan, iqtisodiy monopolizmni inkor etuvchi, ijtimoiy mo'ljalga, aholini ijtimoiy muhofaza qilish yo'nalishiga ega bo'lgan va boshqarilib (tartiblanib) turuvchi iqtisodiyotdir. O'ziga xos mulkiy munosabatlari, ijtimoiy yo'nalishlari va tartiblanib turish usullari jihatidan bu tizim kapitalistik iqtisodiyotdan va tarixda mavjud bo'lgan sotsialistik iqtisodiyotdan farq qiladi.

Bozor iqtisodiyotining quyidagi subyektlari mavjud:

□ iqtisodiy mustaqil mulk egasi yoxud iste'molchi bo'lgan ayrim kishilar yoki guruhlar. Bularga odatda yollanib ishlovchilar, yer egalari, kapital sohiblari, ishlab chiqarish vositasi egalari kiradi. Ular tadbirkorlik qilmay, o'z mulkidan daromad topadi yoki yollanib ishlaydi;

□ firma, korxonalar, xo‘jaliklar, ularda band bo‘lgan tadbirkorlar. Ular foyda olish yo‘lida mustaqil ish yuritadilar, ishlab chiqarish omillarini ishga soladilar;

□ davlat, aniqrog‘i, davlatning barcha mahkama-idora tashkilotlari. Ular ham ishlab chiqarish, ham iste‘mol bilan shug‘ullanadilar, bozor va unda qatnashuvchilar faoliyati ustidan nazorat qiladilar.

Bozor iqtisodiyoti ishtirokchilari o‘zaro aloqaga kirishadilar. Ish kuchi, yer, kapital va boshqa vosita egalari ularni korxonalar, firmalarga sotadi. Ular o‘z navbatida ishlab chiqarish omillaridan foydalanib, tovar va xizmatlar yaratadilar, ularni taklif etadilar.

Bozor iqtisodiyotining eng muhim belgisi – *iqtisodiy plyuralizm* hisoblanadi, ya‘ni mulk shakllari va xo‘jalik yuritish usullarining turli-tuman bo‘lishidir. Turli shakllardagi mulklar erkin, yonma-yon, hech bir chegaralanmagan holda rivojlanadi. Turli mulklar muvozanatda bo‘lib, ayrim mulk shaklining hukmronligiga yo‘l berilmaydi. Xo‘jalik yuritish usullari ham har xil bo‘ladi. Yakka tartibda, jamoa-uyushmaga birikkan holda, sherikchilik-paychilik yoxud aksionerlik asosida, o‘z mablag‘iga yoki qarzga olingan mablag‘ga tayanib xo‘jalik yuritish, yer va boshqa vositalarni ijaraga olish va ishlatish kabilar birgalikda boradi. Bozor iqtisodiyotiga xos yangi huquqiy tizimning o‘zagini – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tashkil etadi. Shu bois ham, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida: «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste‘molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin», – deyilgan.

Bozor iqtisodiyoti *erkin iqtisodiyot*. Iqtisodiy faoliyat erkinligining asosi ishlab chiqarish omillari yoki yaratilgan tovarlarning mulk obyekti bo‘lishi, mulkdorlarning esa mustaqillikka ega bo‘lishidir. Ishlab chiqaruvchi yoki iste‘molchi o‘z tovarini yoki pulini o‘zi bilganicha ishlatadi, bunga u haqli. Har bir korxonalar, tashkilot, kichik biznes bilan shug‘ullanuvchilar, fermerlar, ayrim fuqarolar o‘z ixtiyoriga ko‘ra, o‘ziga ma‘qul bo‘lgan ish bilan shug‘ullanadi. Xo‘jalik yurituvchilar faoliyati bir-biridan alohida bo‘ladi, chunki ular, *birinchidan*, mulk egalari, *ikkinchidan*, mehnat taqsimoti asosida ixtisoslashib, har xil ish bilan

shugʻullanadilar. Bozor iqtisodiyotini tashkil etuvchi tadbirkorlar koʻpchilikdan iborat boʻlib, tarqoq holda foyda-zararni oʻz zimmasiga olib ish yuritadilar. Ammo ularning faoliyati qanchalik tarqoq boʻlmasin, baribir bozor orqali bir-biriga bogʻlanadi. Bozor iqtisodiyoti erkin boʻlganidan, u har qanday iqtisodiy monopolizmni inkor etadi.

Iqtisodiy monopolizm – korxonalar, tashkilot yoxud davlatning umuman iqtisodiyotda yoki uning biror sohasida tanho hukmronlik qilishi. Iqtisodiyotdagi monopolizm ishlab chiqarishning oʻzida, savdo-sotiqda, kredit-bank tizimida yoki isteʼmol doirasida mavjud boʻladi. Iqtisodiyotdagi monopolizmning tayanchi muayyan mulk shaklining tanho hukmronligidir. Bunday mavqe esa siyosiy hokimiyat va gʻoyaviy sohadagi monopolizmni yuzaga chiqaradi. Iqtisodiy taraqqiyotga yoʻl ochish uchun iqtisodiyotdagi monopolizmni tugatish zarur, chunki monopolizmiya oʻz tabiatiga koʻra ishlab chiqarishda turgʻunlik paydo qiladi, hukmron mavqega tayanib, sarflarni kamaytirmay, foyda koʻrishi mumkin, raqobatning yoʻqligi yoki zaifligidan foydalanib, bozorda oʻz izmini oʻtkazishi mumkin. Monopolizmiya turgʻunlikni yuzaga chiqaradi, tashabbusni chegaralaydi. Shu sababli bozor iqtisodiyoti u bilan chiqisha olmaydi. Mana shu jihatdan bozor iqtisodiyoti antimonopol yoʻnalishga ega. Shu bois, davlat raqobatlashish muhitining vujudga kelishi va uni saqlashda muhim rol oʻynaydi. Oʻzbekistonda davlat tomonidan iqtisodiy monopolizmni cheklash, umuman antimonopol yoʻl tutishga mustaqillikning dastlabki yillaridan eʼtibor qaratildi. Chunki busiz raqobatlashish vaziyati paydo boʻlmaydi. Shuni nazarda tutib, Oʻzbekistonda «Monopolistik faoliyatni cheklash toʻgʻrisida»gi qonun qabul qilindi. Bu qonunga koʻra:

- bozorda sunʼiy taqchilik hosil etish;
- narxlarni monopollashtirish;
- raqobatlarining bozorga kirib borishiga toʻsqinlik qilish;
- raqobatning gʻirrom usullarini qoʻllash man etiladi.

Biroq mazkur qonun moliyaviy xizmatlar bozorlaridagi raqobatni tartibga solish masalalarini oʻz ichiga olmagan. Bu esa oʻz navbatida, mazkur sohada raqobatga qarshi harakatlarga yoʻl qoʻymaslik yuzasidan poralarni amalga oshirishga imon bermoqda. 2012-yil 6-yanvarda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining «Raqobat toʻgʻrisida»gi qonunida tovar va moliya bozorlarida raqobat sohadagi munosabatlarni tartibga soladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida oʻzaro munosabatlar manfaatlarni koʻzlagan holda oʻrnatiladi. Ish yuzasidan boʻlgan munosabatlar

(shariklik) erkin shakllanadi. Turli ishlab chiqaruvchilar bir-biri bilan manfaatli aloqa o'rnatadilar. Bozorda esa xaridor bilan sotuvchi bir-birini erkin tanlaydi. Bozor iqtisodiyotida tovar taqchilligi bo'lmaydi, shu sababdan bozorda ishlab chiqaruvchi emas, balki iste'molchi (xaridor) o'z izmini o'tkazadi, tovar va xizmatlarni sifatiga va narxiga qarab tanlab olish imkoniga ega bo'ladi. 2008-yilning avgustida boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi talabning pasayishiga olib keldi. Dunyo mamlakatlarida talabni oshirish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqildi. O'zbekistonda ishlab chiqilgan inqirozga qarshi dasturlar mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Bozor iqtisodiyotining yana bir belgisi – *narxlarning liberallasuvi*, ya'ni narx-navoning erkin tashkil topishidir. Tovarlar narxini davlat yuqoridan belgilamaydi, narx ayrim ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi tazyiqi ostida shakllanmaydi. Narx bozordagi talab va taklifga qarab, xaridor bilan sotuvchining savdolashuviga binoan yuzaga keladi. Bozor munosabatiga kelishilgan narxlar xizmat qiladi. Narx pul bilan o'lchanadi. Bozor iqtisodiyoti pulsiz bo'lishi mumkin emas. Pul iqtisodiy munosabatlarning asosiy vositasi, iqtisodiyotda o'ta muhim rol o'ynaydi. Pul munosabatlari bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Pul oboroti, pul emissiyasi, qadr-qiymati, inflatsiya, valuta kursi kabi hodisalar iqtisodiy vaziyatning ko'zgusi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotida, uning iqtisodiy mexanizmida *raqobat* asosiy o'rin tutadi. Raqobat iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilarining xususiy, o'zgalarnikidan alohidalashgan manfaatini bildiradi, lekin bu manfaat yo'lida kurash qoidalariga rioya qilish shart hisoblanadi. Manfaatlarni yuzaga chiqarishning birdan-bir yo'li talabgir, ya'ni jamiyat uchun zarur tovarlarni ishlab chiqarishdir. Raqobat moddiy va mehnat resurslarini kam sarflagan holda ularni samarali ishlatish ko'plab va sifatli tovarlar ishlab chiqarishga undaydi. Shu jihatdan raqobat bozor iqtisodiyotini harakatga soluvchi vositadir. Raqobat iqtisodiyotni tartiblovchi va nazorat qiluvchi kuch hisoblanadi. Raqobatlashuvchi kuchlar muvozanatda bo'lib, ulardan birontasi ham monopol mavqega ega bo'lmaydi. Erkin raqobat cheklanmagan iqtisodiy erkinlikni, xohlagan usulda kurashni, hatto monopoliya hosil etgan holda o'z bilganicha ish yuritishni bildirmaydi, chunki raqobatni davlat tartiblab turadi. Tartiblanmagan raqobat iqtisodiy erkinlikka kafolat bera olmaydi, iqtisodiyotni monopollashtirishga intilishni jilovlab tura olmaydi, chunki u o'zbilarmonlik bo'ladi. Shakllangan bozor iqtisodiyotida antimonopol kuchlar yuzaga kelib, ular

xolis raqobatga yo‘l bergan holda monopollashtirish yo‘lini to‘sadi. Bozor iqtisodiyotining hamma subyektlari uchun bir xil imkoniyat yaratiladi, lekin ulardan foydalana olish ishbilarmonlikka bog‘liq bo‘ladi. Iqtisodiy sharoit shunday bo‘ladiki, har bir subyekt uchun raqobat qilish sharti bu ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug‘ullanish bo‘ladi. Subyektlar bozorga chiqqan ehtiyoj qondirilganda, zarar ko‘rmaslikni foyda olib ishlaganda, boshqalarga tobe bo‘lmaslikni bilgan holda raqobatga kirisha oladilar. Ijtimoiy foydali ish bilan shug‘ullanish raqobatga yengilmaslik sharti hisoblanadi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotida, *birinchidan*, **manfaatlar to‘qnashib raqobat yuz bersa, ikkinchidan, subyektlar o‘z faoliyatini, binobarin, manfaatlarini ham muvofiqlashtirishga intiladilar.** Aks holda, ularning ishi yurishmaydi. Subyektlarning ajralishi va yaqinlashib o‘z xatti-harakatlarini moslashtirishi bu iqtisodiyotning ikki ziddiy tomonidir. Raqobat iqtisodiy subyektlarning ajralishi bo‘lsa, integratsiya ularni birlashtiradi. Integrasiyaning zarurligi ham doim raqobat qilavermay, murosaga kelish, shu yo‘sinda manfaatlarni moslashtirishni talab qiladi. Gap shundaki, ishlab chiqarishdagi o‘zaro bog‘liqlik kuchayishi bilan integratsiyalashmay turib yaxshi foyda ko‘rish qiyinlashadi. Mana shu o‘zaro bog‘liqlik ayrim iqtisodiy subyektlarga mopopol mavqe bermaydi. Binobarin, integratsiya va erkin raqobat monopollashuvga yo‘l qo‘ymaydi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida subyektlarning o‘zaro aloqalari tasodifiy emas, balki ular muntazam bo‘lib, barqarorligi bilan ajralib turadi. Bu aloqalar negizida yotgan narsa ishlab chiqarishning chuqur ixtisoslashuvi, korxonalar va tarmoqlarning bir-biriga integratsiya orqali bog‘lanib qolishidir. Shu tufayli mijozlar o‘rtasida tijorat aloqalari bozorda bir marta yuz beradigan oldi-sotdi bilan tugallanmay uzoq davom etadi. Bu aloqalarni yuzaga chiqaruvchi muhim omil iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi ishonch hisoblanadi, bu halol raqobat sharoitidagina bo‘lishi mumkin. Bozor iqtisodiyotida **raqobatga xos bo‘lmagan munosabatlar ham kelib chiqadi.** Masalan, marketing (ishlab chiqarishni bozor bilan bog‘lash) orqali ishlab chiqarish bilan iste‘mol bog‘lanadi. Bunda sotuvchi bilan xaridor raqobati o‘rniga o‘zaro ma‘qul aloqa o‘rnatiladi. Xaridorga kerakli tovar yetkazib beriladi, narx esa sotuvchi uchun qulay bo‘ladi. Bu yerda **manfaatlarning uyg‘unlashuvi** yuzaga chiqadi. Ishchilarning o‘zaro ish o‘rni, xo‘jayinlarni ishchilar bilan ishga yollashni qulayligi uchun kurashi o‘rniga ish topib berish, yaxshi ish bilan ta‘minlash munosabati paydo bo‘ladi. Masalan, firma ishchiga yangi kasbni olishga moddiy ko‘maklashadi, toki u ishsiz qolganda, yangi ishga

joylasha olsin. Davlat iqtisodiy subyektlar munosabatiga aralashib, uni tartiblaydi. U qonun yo'li bilan monopoliyani cheklaydi, raqobatning halol borishini ta'minlaydigan qoidalarni joriy etadi. Individual mulk sohiblari hadeb kurashavermay, aksioner jamiyatga (shirikchilik shirkatiga) birlashadilarki, natijada ularning manfaati umumiy bo'lib qoladi. Bozor iqtisodining subyekt bo'lgan ishchilar ham aksiya sotib olib, mulkning sherigi – egasiga aylanadilar. Foyda ko'rish borasida ularning manfaati kapital egalari manfaati bilan yaqinlashadi. Demak, bozor iqtisodiyotida raqobatdan boshqacha, hamkorlik munosabatlari ham mavjud. Bozor iqtisodiyoti o'zining regulatorlariga ega. **Bozor regulatorlari** – bozordagi o'zgarishni ishlab chiqarishga yetkazib, uning bozorga moslashuvini ta'minlovchi vositalardir. Albatta, ular ma'muriy emas, balki iqtisodiydir. Ulardan eng muhimi bozor narxidir. Narx oshib, tovarlar jadal sotilsa, foyda ko'payadi, ular ko'proq ishlab chiqariladi. Tovarlarni narxi pasayib, ular yaxshi o'tmasa, ishlab chiqarishni qisqartirish yoki undan tamomila voz kechish kerak bo'ladi.

Bozor munosabatlarining har bir subyekt, bu korxonami, davlatmi, ayrim kishimi – buning ahamiyati yo'q, o'z manfaatini ko'zlab faoliyat ko'rsatadi. Ammo, ko'r-ko'rona xohlagan ishini qila olmaydi. U bozor bilan hisoblashishga majbur, aks holda ishi yurishmaydi, daromad topmaydi, xonavayron bo'ladi. Ishlab chiqaruvchiga ham, iste'molchiga ham nima qilish kerakligini bozordagi narx ko'rsatadi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti ijtimoiy yo'nalishga ega, lekin bu uning o'z tabiatidan kelib chiqmaydi, balki uning aralash iqtisodiyot tarzida rivojlanishi natijasidir. Xilma-xil mulkchilik, mehnatkashlarning mulk egasiga aylanishi, ishlab chiqarishning to'kinchilikni ta'minlay olishi kabi yangi hodisalar aralash iqtisodiyotga xoski, ular ijtimoiy kafolatlarni yuzaga chiqaradi. Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos ijtimoiy adolat qoidalari bor. Iqtisodiyotdagi resurslar miqdori, ularning samarasiga qarab ishlab chiqilgan tovarlar va xizmatlarni taqsimlash va shunga mos ravishda daromadga ega bo'lib, yuqori farovonlik darajasiga chiqish adolat hisoblanadi. Ammo, adolat prinsipi hammani bir qilish emas, balki jamiyatning tabaqalashuvini bildiradi. Iqtisodiy subyektlar mehnatiga, ishbilarmonligiga va mulkiga qarab bir-biridan farqlanadi, shu sababli ularning daromadi, turmush darajasi va jamiyatdagi mavqei bir xil bo'lmaydi. Tabaqalanish, boylarga havas qilib, shunday bo'lishga intilishni hosil qiladi, bu esa yaxshi ishlashga undaydi. Bozor iqtisodiyoti shunday iqtisodiy munosabatlarki, ular ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantiruvchi kuchni yuzaga chiqaradi. Bozor regulatorlari moddiy, mehnat va moliya resurslarini

kerakli tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish tomon buradi. U behuda mehnat sarfini hech qachon tan olmaydi, aksincha, unga yo‘l qo‘yganlarni iqtisodiy jihatdan jazolaydi, ya’ni ular zarar ko‘radi.

Bozor iqtisodiyoti moslashuvchan iqtisodiy tizimdir. U sharoit o‘zgarishlariga darhol javob beradi, nima yetishmasa, shuni darhol ishlab chiqarishni ta’minlaydi. Uning muhim belgilaridan yana biri novatsiyaga moyillikdir. U fan-texnika yangiliklarini darhol qabul qiladi, yangi tovarlarni, yangi texnologiyani va ishlab chiqarishni boshqarish usullarini joriy etishni ta’minlaydi, chunki bu raqobatda yutqazmaslik, yaxshi foyda ko‘rish, obro‘-e’tibor orttirish sharti bo‘lib xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyoti tovarlar va xizmatlar to‘kinchiligini yuzaga keltiradi, ko‘pchilik tovarlardan eng yaxshisini tanlab olgan holda, ehtiyojni qondirish imkonini beradi.

Ammo bozor iqtisodiyotini hamma dardga davo deb, uni haddan tashqari olqishlash unga xolisona baho berishdan yiroq. Uning o‘ziga xos muammolari, nobop, zaif tomonlari ham yo‘q emas, albatta. Bozor iqtisodiyoti millionlardan iborat ishlab chiqaruvchi va iste’molchilarning faoliyati bo‘lganidan, unga tarqoqlik va xudbinlik (egoizm) ham xos. U o‘z-o‘zidan davlat va jamoatchilik ishtirokisiz tabiatni muhofaza etish, ekologik muvozanatni ta’minlashni yuzaga chiqarmaydi. Jamiyat uchun zarur bo‘lgan, lekin xarajatlar qaytimi sekin bo‘ladigan, katta mablag‘ talab qiladigan inshootlar va binolarning qurilishini rag‘batlantirmaydi. Darhol foyda keltirmaydigan, lekin ilm-ma’rifat kelajagi uchun muhim bo‘lgan nazariy izlanishlarni ham rag‘batlantirmaydi. Bozor iqtisodiyoti ham sakrab-sakrab siklli ravishda rivojlanadi, iqtisodiy yuksalishlar bilan birga inqiroz va tanglik ham paydo bo‘ladi.

Prezident Islom Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari»ga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanish tajribasi va hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida barqarorlikka erishayotgani haqida to‘xtalib, dunyoviy taraqqiyotda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi xulosa va qoidalarni alohida ta’kidlagan: «bozor (talab va taklif) hamma narsani hal qiladi, degan tamoyildan kelib chiqqan holda, bozor munosabatlariga sajda qilaverish mumkin emas. Hayot tajribasi shuni necha bor ko‘rsatdiki, iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarni boshqarish, murakkab vaziyatlardan chiqib ketish uchun ustuvorliklar tanlashda davlatning roolidan foydalanish (bozor kuchlilar yengadi, degan Darvin

tamoyiliga amal qilishini e'tiborga olgan holda), aholining ko'pchilik qismi manfaatlarini ifodalovchi davlatning rolini, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish va uzoq istiqbolga mo'ljallangan milliy strategiyaning o'rnini hech kim va hech narsa bosa olmaydi» ilmiy qoidasi bozor iqtisodiyotini ilohiylashtirish kerak emasligiga undaydi.

Bozor iqtisodiyotining ham, har qanday iqtisodiyot kabi o'z rivojlanish qonunlari mavjud. Unga xos qonunlar tizimini ikki guruhga bo'lish mumkin:

a) umumiqtisodiy, lekin bozor iqtisodiyotida ham amal qilishda davom etgan qonunlar;

b) faqat bozor iqtisodiyotining o'ziga xos bo'lgan qonunlar.

Biz mazkur bo'limda bozor iqtisodiyoti mohiyati va belgilarini umumiy tarzda ko'rib chiqdik.

2. Bozorning funksiyalari va tarkibiy tuzilishi

Bozor shuning uchun ham zarurki, u bir qator foydali funksiyalarni bajaradi.

1. Bozor ishlab chiqarish bilan iste'molni bog'lash funksiyasini bajaradi. Tovar harakati uni ishlab chiqarishdan boshlanib, iste'mol bilan tugallanadi. Shu harakatning qanday yuz berishi bozorga bog'liq. Ma'lumki, har qanday ishlab chiqarishdan pirovard maqsad iste'mol uchun tovar yaratishdir. Bozor tizimida ehtiyojlar tovarlarni pulga ayirboshlash orqali qondiriladi, chunki tovar ishlab chiqarish bor joyda mahsulotlar va xizmatlar bozordan o'tmay turib, to'g'ridan-to'g'ri iste'molga kelib tushmaydi. Tovarlarini albatta bozordan sotib olish zarur.

2. Bozor ishlab chiqarishning qaytadan yangilanib turishiga, ya'ni uzluksiz yuz berishiga sharoit hozirlaydi. Bozorda tovarlar sotilgach, ularning egasi qilgan xarajatlarining pulini chiqarib olish bilan birgalikda foyda ham ko'radi. Tovarni sotishdan tushgan pulga bozorning o'zidan resurslar olinib, ularning o'rnini qoplanadi, ular miqdoran ko'payadi, ya'ni ishlab chiqarish omillari yangidan hosil bo'ladi. Natijada iqtisodiy faoliyat takrorlanadi.

3. Bozor iqtisodiy regulator, ya'ni iqtisodiyotni tartiblovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunga bozor narxlari orqali erishiladi. Narx pasaygan joydan resurslar chiqib ketadi, ular narx oshgan yerga oqib o'tadi. Bozor talabning o'zgarishiga qarab nimani va qancha ishlab chiqarish kerakligi haqidagi signalni (axborotni) ishlab chiqarishga yetkazadi. Shunga binoan resurslar taqsimlanib, kerakli sohalarga yuboriladi va talabgir tovarlarni ishlab chiqarishga erishiladi. Mana shu jarayonlar bozor iqtisodiyotini tartiblashda

qatnashib turishiga dalolat beradi. Shuningdek, pulni resurslar bilan ta'minlab pul muomalasini barqarorlashtirish vazifasini o'taydi.

4. *Bozor turli mamlakatlar, millatlar va elatlar o'rtasida o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalarni o'rnatishga xizmat qiladi.* Bozor munosabatlari xalqaro iqtisodiy hamkorlikning yetakchi sohasi hisoblanadi. Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo, Yaqin Sharq, Yevropa davlatlari bilan bog'lovchi qadimgi savdo yo'li – Buyuk ipak yo'lidir. Bu yo'l orqali asosan ipak eksport qilinganligi sababli «Ipak yo'li» nomi bilan shuhrat qozongan. Xalqaro savdo-sotiq orqali turli mamlakatlar o'rtasida muntazam aloqalar o'rnatiladi, davlatlar iqtisodiy jihatidan bir-biriga bog'lanadi. Bozor ishlab chiqarishning davlatlararo miqyosda aniq ixtisoslashuvini, xalqaro miqyosdagi talab-ehtiyojni mo'ljalga olib yuritilishini taqozo etadi. Xullas, bozor xalqaro aloqalarni o'rnatish va ularni kengaytirish vositasi ham bo'ladi.

Bozorning ichki tuzilishiga har xil mezonlar jihatidan baho beriladi. Bu mezonlar raqobat, bozor subyektlarining ahvoli, bozor obyektining xarakteri, bozor muomalasining miqyosi, bozor aloqalarining qonuniyligi kabilardir. Ularning orasida raqobat va subyektlarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei asosiy o'rinda turadi. Iqtisodiy aloqalar xarakteriga ko'ra bozorni ikki turga ajratish mumkin: a) erkin, mukammal raqobatli bozor; b) nomukammal raqobatli, monopollashgan yoki raqobat mutlaqo bo'lmagan bozor.

Erkin bozorda sotuvchilar va xaridorlar ko'pchilik bo'lib, ulardan hech biri bozorda hukmron mavqega ega bo'lmaydi, aksincha, ular doimo raqobatda bo'lishadi. Bozor ishtirokchilarining aloqasi erkin oldi-sotdi munosabatiga asoslanadi.

Monopollashgan bozor – bu ozchilik sotuvchilar va xaridorlar hukmron bo'lgan, raqobat cheklangan yoki raqobat umuman yo'q bozor.

Mazkur bozor 4 xil bo'ladi:

a) **monopol raqobatli bozor** – bu yerda ko'p sonli korxonalar bozorni o'z qo'lida tutib turadi. Ular tovarlarning asosiy qismini taklif etadilar, ammo ulardan ayrimlari yoki bir nechtasining bozordagi hissasi, ularga hukmronlik qilish imkonini bermaydi. Bu bozor monopol bo'lsa-da, unda raqobat bo'ladi, ammo u cheklangan tarzda yuz beradi, ya'ni ozchilikning raqobati shaklida bo'ladi. Bu bilan u erkin bozordan farqlanadi;

b) **sof monopoliya bozori** – bu yerda sotuvchi monopoliyasi bo'ladi, ya'ni xaridorlar ko'p bo'lgani holda sotuvchi bitta bo'ladi, xaridorning mana shu tanho sotuvchi tovarini olishdan boshqa iloji bo'lmaydi;

c) **oligopoliya bozori** – bu yerda bitta emas, balki bir necha, ammo ozchilikdan iborat sotuvchilar hukmronligi mavjud bo‘ladi. Tovarlarining asosiy qismi mana shular qo‘lida to‘planadi, bu yerda ham sotuvchi monopoliyasi bo‘ladi;

d) **monopsoniya bozori** – bu yerda sotuvchi emas, balki xaridor monopoliyasi bo‘ladi, ya‘ni sotuvchilar ko‘p bo‘lgani holda xaridor yagona bo‘ladi. Monopsoniya odatda resurslar bozorida bo‘ladi, bu yerda ayrim korxonalar xom ashyo, yoqilg‘i, ish kuchi kabi resurslarning asosiy qismini sotib oladi. Agar monopoliya bozorida sotuvchi xaridorga o‘z izmini o‘tkazsa, monopsoniyada xaridor sotuvchiga o‘z hukmini o‘tkazadi.

Bozorlar o‘zining obyekti jihatidan, ya‘ni nimalar oldi-sotdi qilinishi jihatidan ham farqlanadi. Shu o‘rinda iste‘mol tovarlari bozori, resurslar bozori va moliya bozori ajratiladi.

A. Iste‘mol tovarlari yoki iste‘molchilar bozori. Bu bozorda kishilarning shaxsiy ehtiyojini qondiruvchi, ya‘ni ularning tirikchiligi uchun zarur bo‘lgan tovarlar oldi-sotdisi yuz beradi. Mazkur bozorga sotuvchilar ikki turdagi tovarlarni qo‘yadilar. Birinchisi, moddiy shakldagi iste‘mol tovarlari bo‘lib, bularga oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy jihozlari, transport vositalari (yengil avtomobil, velosiped, mototsikl) kabilar kiradi. Ikkinchisi, nomoddiy, ya‘ni moddiy ko‘rinishi bo‘lmagan tovarlar. Bular turli-tuman xizmatlardan iborat bo‘lib, ularning moddiy shakli bo‘lmaydi. Xizmatlarning o‘zi tovarlashmagan va tovarlashgan bo‘ladi. **Tovarlasmagan** xizmatlar bepul xizmat bo‘ladi, shu sababli ular bozorga chiqmaydi, binobarin, oldi-sotdi obyektiga aylanmaydi. Bular jumlasiga xonadondagi o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatish va bepul davlat xizmati (o‘qitish, davolash, sport, madaniy xizmat) kiradi. Bozorga chiqarilgan yoki **tovarlasmagan** xizmatlar pulli xizmatlar bo‘lib, ular g‘oyat xilma-xil bo‘ladi. Bular ta‘lim, tibbiyot, sport, sayohat, tomosha, transport, maishiy xizmat kabilardan iborat bo‘ladi, ularni aholi sotib oladi. Bu xizmatlarning bozor obyekti sifatidagi xususiyati shundan iboratki, ularning yaratilishi va iste‘moli bir vaqtning o‘zida yuz beradi. Masalan, kostum avval tikiladi, so‘ngra bozorga chiqadi, sotib olinganidan keyin iste‘mol etiladi. Bundan farqliroq shifokorning tibbiyot xizmati yoki o‘qituvchining ta‘lim berish xizmatining ko‘rsatilishi va iste‘moli aynan bir vaqtda yuz beradi. Konsert ijrosi va uni tomosha qilish, futbol o‘yini va uni ko‘rish ham bir vaqtda yuz beradi. Xizmatning moddiy shakli bo‘lmaganidan uni yaratish va iste‘mol etish qo‘shilib ketadi.

Iste'molchilar bozorida eng ko'p turdagi va miqdori g'oyat katta tovarlar va xizmatlar oldi-sotdisi yuz beradi, bu bozorning ishtirokchilari mutlaq ko'pchilikdan iborat bo'ladi. Mazkur bozorning O'zbekistondagi aniq ko'rinishi, bu mol bozori, dehqon bozori, supermarket, univermaglar, minimarket, turli do'konlar (shoplar), konsert zallari, teatr, kino-teatr, stadionlar, sport zallari, pulli kasalxonalar, pulli o'quv kurslari, shartnoma bilan o'qishdan iboratdir.

Iste'molchilar bozorida, birinchidan, ulgurji savdo bo'lsa, ikkinchidan chakana savdo qilinadi. **Ulgurji savdo** bo'lganda ishlab chiqaruvchilar o'z tovarlarini vositachi savdo firmalari yoki ayrim savdogarga ko'tarasiga, ya'ni katta miqdorda sotadilar. Bular o'z navbatida mana shu tovarlarni **chakana savdoda** maydalab iste'molchilarga sotadilar. Bozorda ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchining bevosita aloqa o'rnatishi ham bo'ladi. Bunda ishlab chiqaruvchi o'z tovarini chakana narxda iste'molchining o'ziga sotadi. Masalan, Toshkentdagi «Yulduz» tikuvchilik firmasi o'zining do'konida tovarlarini aholiga sotadi, bozorga kelgan dehqon ham o'z mahsulotini iste'molchiga chakanasiga sotadi.

B. Resurslar bozori. Bu yerda xilma-xil moddiy resurslar va ish kuchining oldi-sotdisi yuz beradi. Bu bozorning ishtirokchilari resurslarni ishlab chiqaruvchilar va ularni sotib oluvchi firmalar, davlat idoralari va xonadonlardan iborat. Bu bozorda moddiy shaklga ega asbob-uskuna, turli mashinalar, xom ashyo, butlovchi qismlar, yoqilg'i, elektr energiyasi, gaz, ko'chmas mulkni tashkil etuvchi binolar, inshootlar va yer oldi-sotdisi yuz beradi. Mazkur bozorning maxsus turi bu mehnat bozori bo'lib, bu yerda moddiy shakli bo'lmagan tovar, ya'ni ish kuchi taklif etiladi.

Resurslar bozorining xususiyati shundan iboratki, bu yerdan sotib olingan tovarlar **shaxsiy iste'mol** uchun emas, balki **ishlab chiqarish** uchun xizmat qiladi. Resurslar iste'mol tovarlaridan farqliroq ikki xil usulda oldi-sotdi qilinadi: 1) resurslar to'la-to'kis sotib olinadi. Bunda ular sotuvchi mulkidan xaridor mulkiga o'tib iste'mol qilinadi. O'zbekiston tovar-xom ashyo birjasida resurslar sotilib, ular ishlab chiqarishda iste'mol etildi; 2) resurslarning o'zi emas, balki ulardan vaqtincha foydalanib turish huquqi sotiladi. Bunda resurs sotuvchi mulki bo'lib qoladi, lekin u ijaraga olib ishlatiladi. Masalan, qimmatbaho uskuna, kema, samolyot, mashina, bino, inshoot yoki yer butunlay sotib olinmagan holda, u ijaraga olinib, egasiga ijara haqi beriladi. Moddiy resurslar bozori O'zbekistonda Tovar-xom ashyo birjasi, savdo uylari va mashina-uskunalar sotuvchi firmalar timsolida gavdalanadi. Uning tarkibiy qismi bo'lgan mehnat bozorining xususiyati shundan iboratki, bu

yerda insonning mehnat qilish qobiliyati bo'lgan ish kuchi sotiladi. Biroq u tamomila emas, ma'lum vaqtda ishlatib turish uchun sotiladi. O'zbekistonda mehnat bozorining ikki turi amal qiladi: *birinchisi*, mehnat birjalari, bu tashkil etilgan mehnat bozori; *ikkinchisi*, mardikor bozori, bu tartibsiz mehnat bozoridir.

V. Moliya bozori. Bu jamiyatdagi moliya xizmatlari bozoridir. Bu bozorning maxsus shakli bo'lib, bu yerda moliya resurslari, ya'ni pul va daromad keltiruvchi qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi yuz beradi. Uning tarkibidagi pul bozori uch qatlamli bo'ladi. *Birinchisi*, shaxsiy ehtiyojni qondiruvchi **oddiy pul** bozori. Bu yerda pul tirikchilik buyumlarini xarid etish uchun haqini to'lash sharti bilan qarzga olinadi, ya'ni ishlatib turish uchun pul sotib olinadi. Masalan, mebel to'plami, avtomashina yoki kvartira olish uchun kishilar bankdan qarz oladilar. Bunda bank sotuvchi, qarz ko'targan esa xaridor maqomida bo'ladi. *Ikkinchisi*, kapital bozori. Bunda pul tirikchilik yurgizish uchun emas, balki **kapital** sifatida ishlatib foyda chiqarish uchun qarzga sotib olinadi. Bunga misol qilib tadbirkor, fermer yoki dehqon xo'jaligi sohibining tijorat bankidan qarz olib, buni o'z xo'jaligi rivoji uchun ishlatishini ko'rsatish mumkin. Kapital bozorining o'zi ikki xil bo'ladi, bu **kredit bozori va qimmatli qog'ozlar** bozoridir. Kredit bozoridan (masalan, banklardan) tadbirkorlar kreditni (qarzni) sotib olib, uni kapital sifatida ishga qo'yadilar. Bozordan kapitalni jalb etishning yana bir shakli bu aksiya, obligatsiya va sertifikatlarni chiqarib sotishdir. Bularni chiqarganlar emitent, sotib olganlar **investor** deyiladi. Emitent sotuvchi bo'lsa, investor xaridor hisoblanadi. O'zbekistonda kredit bozorini tijorat banklari, kredit shirkatlari va ulardan qarz oluvchi mijozlar tashkil etsa, qimmatli qog'ozlar bozori **fond birjalaridan**, qog'ozlarni saqlovchi depozitariylardan iboratdir. O'zbekistondagi fond bozorining ishtirokchilari korxonalar, tashkilotlar, aholining ma'lum qatlami, davlat idoralari va turli vositachilar hisoblanadi.

Pul bozorining *uchinchi*, o'ziga xos turi – bu **valuta** bozoridir. Bu bozorda turli mamlakatlarning milliy puli – valuta oldi-sotdi qilinadi. Uning ishtirokchilari korxonalar, turli tashkilotlar, davlat idoralari va fuqarolar hisoblanadi. Ulardan biri valuta sotsa, boshqasi uni sotib oladi. Mazkur bozor banklar, ularning valuta ayirboshlovchi shoxobchalari, valuta auksioni (kim oshdi savdosi) shaklida namoyon bo'ladi.

Intellektual tovarlar bozori bozorning maxsus turi bo'lib, aqliy mehnat mahsuli bo'lgan tovarlar va xizmatlarning ayirboshlanishini bildiradi. Bu yerda sotuvchilar va xaridorlar maxsus tovar hisoblangan

ilmiy g'oyalar, texnikaviy yangiliklar, san'at va adabiyot asarlari, xilma-xil axborotlarni oldi-sotdi etish yuzasidan munosabatda bo'ladilar. Bu tovarlar egalari yoki ulardan vakolat olgan firmalar bozorda sotuvchi vazifasini bajaradi. Xaridorlar esa turli firmalar, uyushmalar, davlat idoralari, har xil tashkilotlar va fuqarolar bo'ladi. Mazkur bozor kichik qismlardan iboratki, ular ilmiy-texnik ishlanmalar bozori, kino bozori, tasviriy san'at bozori, musiqa va tomoshalar bozori, antikvar buyumlar bozori kabilardan tashkil topadi. Intellektual tovarlar bozorida ilmiy-texnikaviy ishlanmalar oldi-sotdisi katta o'rin tutadi. U amalda patent, litsenziya va nou-xau (patent – yangilikni ishlatish huquqini beruvchi hujjat; litsenziya – ruxsatnoma, nou-xau – ishlatish huquqi egasida bo'lgan yangilik) sotishdan iboratdir. Bu yerda ilmiy-texnikaviy yangiliklar xaridor mulkiga aylanish sharti bilan yoki o'z egasi mulki bo'laturib, vaqtincha foydalanish sharti bilan sotiladi.

Bu bozor ishlab chiqarish novatsiyasiga, ya'ni unga yangilik kiritishga xizmat qiladi, fan-texnika rivojiga ta'sir etadi. Ilmiy-texnik *ishlanmalar* bozoridagi munosabatlar ko'pincha mamlakatlararo bo'ladi. Intellektual tovarlar bozori **eng dinamik** bozordir, u tez kengayadi, yangi-yangi qismlarga ajraladi. Buning sababi iqtisodiyotda intellektual mehnat mavqeining kuchayishidir. Gap shundaki, hozirgi bozor iqtisodiyoti ilmtalab ishlab chiqarishning o'sishi, turli xizmatlar, eng avval axborot xizmati ahamiyatining kuchayishi bilan xarakterlanadi. Buni internet xizmati bozorining shiddat bilan yer yuzida o'sib borishi tasdiqlaydi.

Mehnat bozori – bu ish kuchini oldi-sotdi qilish munosabatini bildiradi. Bu yerda insonning mehnat qilish qobiliyati, shartnoma asosida ma'lum muddatga sotiladi. Ish kuchi avvalo iste'mol qilinib, so'ngra uning haqi to'lanadi.

Bozorning o'zi yaxlit bo'lganidek, uning turlari ham bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda amal qiladi. Iste'mol tovarlar bozoriga mos holda resurslar bozori tashkil topadi. O'z navbatida, resurslar bozoridagi holatga qarab mehnat bozori, ilmiy-texnikaviy yangiliklar bozori shakllanadi. Bozor turlarining bir-biriga moslashuvi iqtisodiy o'sishning sharti hisoblanadi.

Iqtisodiyot uchun bozor ko'lami g'oyat muhim, chunki bozor qanchalik keng bo'lsa, shunchalik ishlab chiqarishning o'sishiga sharoit muhayyo bo'ladi, ya'ni tovarlar o'z vaqtida sotiladi, kerakli resurslar sotib olinib, ishlab chiqarish davom etadi. **Bozor ko'lami** – bu bozorning katta-kichikligi bo'lib, oldi-sotdining hajmi bilan o'lchanadi. Ko'lam

tovarlarning miqdori, ularning narxi va necha marta oldi-sotdi qilinishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, mamlakatda, 1 mln. dona tovar yaratilgan bo'lib, uning o'rtacha narxi 100 birlikka teng deb olsak, jami tovarlar narxining summasi 100 mln. birlikni bozorda sotadilar. Bozor miqyosi **tovar oborotining** (aylanmasi) hajmi bilan o'lchanadi, bu esa oldi-sotdi ko'lamini bildiradi. Bozorning katta-kichikligi umumiy tarzda va ayrim bozorlarga tatbiqan aniqlanadi. Agar iste'mol tovarlari bozorini olsak, uning umumiy hajmini ayrim tovarlar bozori, masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak va turli xizmatlar bozorining hajmi aniqlaydi. Buning qanday ekanligini chakana savdo oborotiga qarab bilish mumkin. So'nggi yillarda O'zbekistondagi chakana savdo oboroti miqdori ortib bormoqda. Bu bozorning kengayib, uning ko'lamining ortib borishi ifodalaydi. Bu o'z navbatida ishlab chiqarishning hajmiga va yaratilgan mahsulot va xizmatlarning naqadar xilma-xil bo'lishi, binobarin ayirboshlashga mo'ljallanganligiga bog'liq bo'ladi. Mahsulotning qanday qismi ayirboshlanishi uning tovarlilik darajasini bildiradi. Bu daraja qanchalik yuqori bo'lsa, bozor hajmi shunchalik katta bo'ladi. Demak, iqtisodda shunday qoida bor: bozorning ko'lami ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning miqdoriga va ularning tovarlilik darajasiga to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi.

Mahsulot va xizmatlar bozor va shuningdek, o'zi uchun yaratiladi. Bular o'zi uchun qanchalik kam va bozor uchun qanchalik ko'p yaratilsa, shunchalik bozor keng bo'ladi. Shu sababli jami yaratilgan mahsulot bozor mahsulotidan farq qiladi. Masalan, O'zbekistondagi sutning mutlaq katta qismi dehqon, fermer xo'jaliklari va tomorqada ishlab chiqariladi. Sut bozorining hajmi uning sutning qanday qismi xo'jaliklarda xonadon iste'moli va buzoqlarni boqish uchun qolishiga va qanchasi sotishga chiqarilishiga bog'liq bo'ladi. Bozor munosabati rivojlangan sari o'zi uchun ishlab chiqarish qisqaradi va bozor uchun ishlab chiqarish kengayadi.

Bozorning hajmi ishlab chiqarish holatiga qarab o'zgarib turadi. Undagi o'zgarishlarni dinamikada (harakatda) bilish uchun real tovar oborotini aniqlash zarur. Real tovar oboroti o'zgarimas yoki bazaviy-yildagi narxlar vositasida, ya'ni inflatsiya ta'siridan xoli etilgan narxlarda hisoblangan oborotdir. Buni aniqlash uchun joriy narxlarda hisoblangan tovar oboroti narxning o'zgarish indeksiga bo'linadi. Masalan, joriy narxdagi chakana savdo oboroti 696 mlrd. pul birligiga teng, joriy yildagi

narx 1,2 marta o'sdi (shu narx indeksi). Bunda real savdo oboroti – u = 580 mlrd. Mana shu bozorning real hajmi bo'ladi. Real oborotga qarab bozorning kengaygani yoki torayganini bilish mumkin.

Bozor ko'lamini va ishtirokchilari jihatidan mahalliy, hududiy, milliy, davlatlararo va jahon bozoriga ajratiladi.

Mahalliy bozor – bu muayyan mamlakatning davlat chegaralari doirasi bilan cheklangan shahar, tuman, viloyat hududlaridagi bozordir. Bu bozorda asosan mahalliy tovarlar oldi-sotdisi yuz beradi. Bunga misol qilib O'zbekistondagi tuman bozorini olish mumkinki, bunga shu yerdagi savdo shoxobchalari, buyum bozorlari, dehqon bozorlari kiradi. Uning ishtirokchilari tuman ahli bo'lib, bular iste'molchilar, ishlab chiqaruvchi firmalar, savdo firmalari, fermer va dehqon xo'jaliklari hamda tomorqa sohiblaridan iboratdir.

Hududiy bozor – bu bir necha chegaradosh hududlar doirasidagi bozor bo'lib, mahalliy bozorlar majmuidan iborat. Uning subyekti – ishtirokchilari hududdagi tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar hisoblanadi. Uning obyektini turli hududlarda yaratilgan mahsulot va xizmatlar hamda tashqaridan keltirilgan tovarlar hisoblanadi. Hududiy bozor ko'lamini mahalliy bozor ko'lamidan katta bo'ladi, uning ishtirokchilari ham ko'p. Hududiy bozorga misol qilib O'zbekistondagi Sharqiy hudud (Farg'ona vodiysi) bozorini ko'rsatish mumkin.

Milliy bozor – bu muayyan mamlakatning milliy chegarasi doirasidagi, ya'ni mamlakatning ichki bozori. Bu bozor milliy iqtisodiyotning ajralmas qismi hisoblanadi. Uning ishtirokchilari muayyan mamlakatdagi barcha tovar ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va ular o'rtasida turgan vositachilardan iborat. Milliy bozordagi tovarlarning asosiy qismi mamlakatning o'zida ishlab chiqariladi, qisman chet eldan keltiriladi, ammo iqtisodiy qoloq va qaram mamlakatlarda ular yaratgan mahsulotlar asosan xom ashyo bo'lib, u mamlakat ichki tovar oborotida ishtirok etmaydi, balki chetga chiqariladi. Ular ichki bozorida chetdan keltirilgan tovarlar ustuvor bo'ladi. Bunday milliy bozorda qaramlik alomati bo'ladi.

Milliy bozor mamlakatdagi barcha bozorlarni birlashtiradi, bu yerda milliy pul xarid uchun yagona to'lov vositasi bo'lib xizmat qiladi. Milliy bozor davlat himoyasida bo'ladi. U ochiq bozor, unga kirib kelish, undan chiqib ketish erkindir.

Davlatlararo bozor – bu ikki va undan ko'p mamlakatlarning o'zaro bozori bo'lib, bunda turli mamlakatlar firmalari va davlat idoralari qatnashadi. Bu bozorda tovarni bevosita iste'mol etuvchilar – xonadonlar

qatnashmaydi. Bu bozor chegaradosh davlatlar bozori bo‘lib, bu yerda shu mamlakatlarda yaratilgan tovarlar, chetdan keltirgan tovarlar oldi-sotdi qilinadi. Aytilgan mamlakatlarda chegara oldi savdo-sotig‘i keng tarqalgan bo‘ladi.

Jahon bozori – bu dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi savdo-sotiq munosabati. Bu bozorda taraqqiyot darajasi, binobarin tovar ishlab chiqarish salohiyati har xil mamlakatlar qatnashadi. Ulardan biri tayyor mahsulotlar yetkazib bersa, boshqasi xom ashyo va yoqilg‘i kabi resurslarni bozorga chiqaradi. Jahon bozori o‘zining uchta belgisi bilan ajralib turadi. **Birinchidan**, bu bozorda barcha tovarlar emas, balki saylangan, ya‘ni ko‘pchilik uchun zarur tovarlar (masalan, neft, gaz, ko‘mir, yog‘och, metall, paxta, don, jun va boshqalar) oldi-sotdisi yuz beradi. **Ikkinchidan**, bu bozorda iste‘molchilarning o‘zi, ya‘ni aholi xaridor sifatida qatnashmaydi. Bu vazifani savdo firmalari bajaradi. **Uchinchidan**, bu bozorda tovarlar ulgurjiga sotiladi. Jahon bozori xalqaro birjalar va savdo-sotiq tashkilotlari faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Jahon bozorining hajmi turli mamlakatlardagi ishlab chiqarish ko‘lamiga va uning naqadar ixtisoslashuviga, ya‘ni bozorga tovar yetkazib berishiga bog‘liq bo‘ladi. Odatda jahon ishlab chiqarishining o‘sishi bilan jahon bozorining ko‘lami ham kengayib boradi.

3. Bozor infratuzilmasi

Bozordagi iqtisodiy aloqalarda ko‘pchilikdan iborat subyektlar qatnashadi. Bu aloqalar g‘oyat xilma-xil bo‘lib, murakkab kechadi, bular bevosita aloqalar va bilvosita aloqalardir. **Bevosita** bozor munosabati paydo bo‘lganda, sotuvchi va xaridor bir-biri bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa o‘rnatadi, bu yerda hech kim ular o‘rtasida vositachilik qilmaydi. **Bilvosita** bozor munosabati yuz berganda, sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi aloqalar vositachilar orqali o‘rnatiladi. Ular oldi-sotdi sohasida bozor ishtirokchilariga o‘z xizmatini ko‘rsatadilar, bu infratuzilma xizmati bo‘ladi.

Bozor infratuzilmasi bozor aloqalarini o‘rnatishda ishtirok etuvchi, ya‘ni sotuvchilar va xaridorlarga xizmat ko‘rsatuvchi institutlardir, ya‘ni firma va turli muassasalardir.

Bozorning miqyosi, unda ishtirok etuvchi tovarlarning tarkibi, oldi-sotdi munosabatlarining xarakteriga qarab turli infratuzilma bo‘g‘inlari amal qiladi. Infratuzilma ikki xil bo‘ladi. **Birinchisi**, hamma bozor aloqalariga xizmat qiluvchi infratuzilma. Bu tovarlar qanday ko‘lamda,

qanday usullar bilan sotilishidan qat'i nazar, hamma bozorlarga xos bo'ladi. Bunga sug'urta, savdo-sotiqda sherik topish, pulni undirish kabi xizmatlarni ko'rsatuvchi muassasalar kiradi. Ular xizmatidan bozorning barcha ishtirokchilari kerak bo'lgan paytda foydalanadi. Infratuzilmaning **ikkinchi** turi bu maxsus bozorlarda maxsus xizmat ko'rsatuvchi institutlardir. Bular jumlasiga savdo uylari, tovar birjalari, reklama kompaniyalari, mehnat birjalari, fond (qimmatli qog'ozlar) birjalari, broker kompaniyalari, auditor firmalarini kiritish mumkin. Bular ham vositachilik qiladi, ammo ular xizmati hamma yerda emas, balki ayrim bozorlarda yuz beradi. Tovar birjalari ulgurji savdo xizmatini ko'rsatadi, ular orqali tovar ishlab chiqaruvchilar xaridor topadi. Mehnat birjasi ish beruvchi bilan ishga kiruvchiga xizmat ko'rsatadi. Fond birjasi qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya, sertifikat va boshqalar) egalari bilan ularga xaridorlarni bir-biriga bog'lashda xizmat qiladi. Broker firmalari ulgurji savdoda vositachilik qiladi. Auditor firmalari xizmati maxsus tavsifga ega. Ular axborot xizmatini ko'rsatadilar, ya'ni taftish asosida firmalarning ahvoriga tegishli xolisona axborotni bozor ishtirokchilariga yetkazib beradi.

Bozor infratuzilmasida huquqiy xizmat ko'rsatish alohida o'rin tutadi. Bozorda faoliyat yuritishning qoidalari turli qonunlarda belgilanadi, ularga rioya etish nazorat qilinadi. Bozor qoidalari uning hamma ishtirokchilari manfaatini hisobga oladi, qanday ish qilish mumkinligini va qanday ishga yo'l berilmasligini aniqlab qo'yadi. Bozor qonun-qoidalari buzilganda, uning layoqatsizligi paydo bo'ladi, muhimi bozor aloqalarini o'rnatishga qaratilgan xarajatlar (bular transaksion xarajatlar deb yuritiladi) ortib ketadi, bozor o'z vazifalarini yaxshi bajarmay qo'yadi. Shu sababli qonun-qoidalarining bajarilishini ta'minlovchi huquqiy xizmatlar borki, ularni xo'jalik sudlari, arbitraj firmalar va advokatlar firmalari bajaradi.

Bozor infratuzilmasi deganda bozor iqtisodiyoti uchun xizmat ko'rsatuvchi har xil sohalar tushuniladi.

Bozor infratuzilmasi bo'g'inlari quyidagilardan iborat:

Ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi infratuzilmasi (transport, aloqa, ombor xo'jaligi, yo'l xo'jaligi, suv va energetika ta'minoti). Ular bozor iqtisodiyotidan oldin ham mavjud bo'ladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ularni tijoratchilik yo'lga o'tkazishga to'g'ri keladi, ya'ni ular yaxshi ishlab pul topish va o'z-o'zini moliyalashtirish yo'lga o'tkaziladi.

Tovarlar va xizmatlar muomalasiga, ya'ni savdo-sotiq ishlariga xizmat qiluvchi infratuzilmasi (birjalar, savdo uylari, auksionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari va agentliklari, davlatning savdo-sotiq va ularni nazorat etuvchi muassasalari).

Moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi infratuzilmasi (tijorat banklari, o'z-o'zini kreditlash idoralari, sug'urta kompaniyalari, moliya kompaniyalari, soliq undirish mahkamalari, har xil pul fondlari).

Aholiga xizmat qiluvchi yoki ijtimoiy infratuzilmasi (uy-joy kommunal va transport xizmati, maorif, madaniyat hamda sog'liqni saqlash muassasalari, aholini ishga joylashtirish firmalari va idoralari. Ularning aksariyati bozor iqtisodiyotidan oldin ham mavjud bo'ladi, lekin ularni isloh etib, bozor sharoitida pulli xizmat ko'rsatish, tijorat yo'liga o'tkazishga to'g'ri keldi).

Axborot xizmati (iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan har xil axborotlar – ma'lumotlar va xabarlarni to'plash, umumlashtirish va sotish bilan shug'ullanuvchi turli kompaniyalar, firmalar, maslahat idoralari).

Zamonaviy bozor infratuzilmasi yaratish bozor munosabatlariga haqiqiy madaniy-ma'rifiy xarakter baxsh etish, stixiyaga va boshboshdoqlikka yo'l qo'ymaslik imkonini beradi.

Bozor strukturasi – bu shu bozorning tarkibida amal qiluvchi bo'g'inlarni, bozor haroratini belgilovchi birliklarni bildiradi.

Milliy bozor davlat himoyasida bo'ladi. Ma'lumki, ochiq iqtisodiyot sharoitida chet el tovarlari, kapitali turli yo'llar bilan kirib keladi, bu xavfsizlik choralari ko'rishni talab etadi. Bu huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga muayyan vazifalarni yuklaydi.

Bozor intervensiyasi deganda milliy yoki mintaqaviy bozorga tashqaridan suqilib kirish va u bozorni o'ziga tobe etish tushuniladi. Xorijiy tovarlar muayyan mamlakat yoki mintaqaga bozorini himoya qiladigan to'siqlarni bartaraf etib, bozorga kirib oladi va shu yerdagi tovarlar bilan raqobat qiladi, xaridorlarni o'ziga og'dirib oladi.

Bozor intervensiyasi har xil vositalar bilan amalga oshiriladi:

– demping eksport (ichki bozordan ham past baholarda eksport)ni ishlatish;

– yuqori boj to'lovlariga ham rozi bo'lish;

– bozor chaqqon yerlarda korxonalar qurib, tovar chiqarish;

□ import qiluvchi mamlakat yoki mintaqaga moddiy yordam ko'rsatish, siyosiy tazyiq o'tkazish va boshqalar.

Bozor muhofazasi deganda milliy bozorning yoki ayrim tovarlar bozorining davlatning eksport-importni tartibga soluvchi tadbirlari vositasida himoya qilinishi tushuniladi. Bozor muhofazasi:

- chetdan tovar keltirishni cheklash, taqiqlash;
- boj to'lovini oshirish orqali amalga oshiriladi.

Bozor muhofazasini chetlab o'tishning muhim yo'li ilgari tovar chiqarilgan mamlakatga kapital chiqarib, muayyan tovarni o'sha yerning o'zida yaratish va sotish hisoblanadi. Masalan, Yaponiya avtomobil firmalari o'z tovarini AQShga kiritish yo'lidagi yuqori boj to'lovlariga «chap berish» uchun AQShda o'z zavodlarini qurib, chiqarilgan avtomobilni shu yerning o'zida sotadi.

Bozor muhofazasi mamlakatlararo «savdo janglari»da istehkom vazifasini o'taydi.

Bozor segmentatsiyasi deganda ma'lum belgi-alomatlar va savdo-sotiqning shart-sharoitiga qarab bozorni har xil bo'g'in (qism)larga ajratish, tabaqalash tushuniladi. Segment – bu bozorning kichik bir qismi. U yerda xaridorlarning guruhi cheklangan bo'ladi. Ularga ma'lum turdagi tovarlar sotiladi.

Bozorni segmentlarga ajralishiga ikki narsa sabab bo'ladi:

- mehnat taqsimoti chuqurlashib, g'oyat xilma-xil tovarlar ishlab chiqarilishi va ularning ma'lum guruh iste'molchilarga mo'ljallangani;
- iste'molchilarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tabaqalanishi, ular talabining farqlanishi.

Bozorning segmentlarga ajratish mezonlari g'oyat ko'p. Masalan, bir segment uchun aholining xarid qobiliyati ustuvor bo'lsa, boshqa segment uchun raqobatning bor yoki yo'qligi muhim belgi bo'ladi.

Segmentlar hududiy va ijtimoiy-demografik mezonlarga qarab ajratiladi. **Hududiy segment** quyidagi mezonlarga ega:

- aholining soni va zichligi;
- transport va aloqa shoxobchalarining mavjudligi va rivojlanish darajasi;
- tabiiy iqlim sharoiti;
- tijorat ishining asosiy yo'nalishi va uning qaysi toifa kishilarga xizmat qilishi;
- iqtisodiyotning umumiy ahvoli;
- inflatsiya darajasi;
- bozor infratuzilmasining mavjudligi va boshqalar.

Ijtimoiy-demografik segment quyidagi mezonlarga ega:

- iste'molchi xaridorlarning yoshi, jinsi;
- iste'molchi xaridorlar tarkibidagi ishlovchilar, o'quvchilar va nafaqalarning salmog'i;
- iste'molchi xaridorlarning bilim darajalari, saviyasi;
- aholi pul daromadining darajasi;
- oila va uning tarkibi;
- aholining kasb-kori, irqi va millati;
- aholi tarkibi kabilar.

Bozor segmentlari aholining urf-odati, rasm-rusumi, turmush tarzi va qaysi bir tovarni afzal ko'rishiga qarab ham ajraladi. Segmentlarga ajralish muayyan tovarlarga nisbatan ham yuzaga keladi, masalan, kiyim-kechak bozorida: bolalar kiyimi, erkaklar kiyimi, ayollar kiyimi, yoshlar kiyimi, qariyalar kiyimi bozorlariga ajraladi.

Bozor segmentatsiyasi orqali tovarlarni kam sarf-xarajatlar bilan yuqori narxda sotish imkoni yaratiladi.

Tayanch tushunchalar:

Bozor, bozorning turlari, bozor infratuzilmasi, bozorning funksiyalari, erkin bozor, monopollashgan bozor, iste'molchilar bozori, resurslar bozori, mehnat bozori, moliya bozori, bozor ko'lami, mahalliy va hududiy bozor, milliy va jahon bozori, tartibli bozor, tartibsiz bozor, taqchil bozor, to'yingan bozor, bozor segmenti.

Savol va topshiriqlar:

1. Bozorning mohiyatini tushuntiring.
2. Bozor infratuzilmasi deganda nimani tushunasiz?
3. Bozorning hajmi nima uchun ishlab chiqarishga bog'liq?
4. Bozorda iste'molchilarning sa'y-harakatlariga ta'sir etuvchi omillarni izohlang.
5. Bozor iqtisodiyoti va kasbga oid o'zgarishlar deganda nimalarni tushunasiz?

Mavzuni chuqur o'rganish instrumentariysi

Bozor – xo'jalik yurituvchi agentlar o'rtasida qadriyatlarni ayirboshlash masalasida yuzaga keladigan munosabatlar tizimining ijtimoiy shakli; ne'matlarni ayirboshlashning institutsionallashtirilgan transaksiyalari.

Bozor iqtisodiyoti – ayirboshlash transaksiyalari amalga oshiriladigan iqtisodiyot, ya'ni ko'plab ne'matlar ko'plab alohida ishlab chiqaruvchilar tomonidan ayirboshlash uchun maqsadli ishlab chiqariladi.

Bozor iqtisodiy subyektlari – ayirboshlash uchun ne'matlar ishlab chiqaradigan subyektlar. Bozorga oid bo'lmagan iqtisodiy subyektlar – natural xo'jalik doirasida yaratuvchilik faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar.

Uy xo'jaligi – odatda qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan va iqtisodiyotning iste'mol sektorida faoliyat ko'rsatayotgan bir yoki bir necha shaxsdan iborat iqtisodiy birlik.

Institutsional bozor – xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida ayirboshlashni tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi institutlarning legal va yashirin «oldi-sotdisi» sohasida yuzaga keladigan munosabatlarning muayyan shakli.

Ma'muriy bozor – iqtisodiy faoliyat sohasidagi «ruxsatnomalar» va «taqiqlar» oldi-sotdisi borasida amaldorlar byurokratiyasi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarning muayyan shakli.

Davlat (bozor iqtisodiyoti subyekti sifatida) – iqtisodiy o'sish, ish bilan to'liq bandlik, xo'jalik sohasidagi barqarorlik, mamlakatning iqtisodiy va milliy xavfsizligining yangi sifatini ta'minlash maqsadida iqtisodiyot tizimiga ta'sir ko'rsatish uchun vakolatlarga ega bo'lgan turli muassasalar majmuidan iborat murakkab institutsional tuzilma.

Bozor muvozanati mexanizmi – talab va taklif hajmi muvozanatda bo'lgan sharoitda obyektiv bozor bahosi o'rnatilishiga olib keladigan iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar raqobatining mexanizmi; talab va taklifning belgilangan (statik) darajalarida bozor bahosi shakllanishining mexanizmi.

Nohuquqiy ayirboshlash – xo'jalik sohasidagi teng huquqqa ega bo'lmagan agentlar o'rtasidagi noekvivalent ayirboshlash.

Ayirboshlash – kimdandir istalayotgan obyektни o'rniga nimadir taklif etib olish harakati.

Ayirboshlashning huquqiy xususiyati – ayirboshlashning ishlab chiqarish omillarining teng huquqli mulkdorlari qabul qiladigan va ular yordamida yaratiladigan ne'matlar oldi-sotdisi borasidagi qarorlar natijasi hisoblanadigan ekvivalentligi.

Raqobatli bozor iqtisodiyoti – mulk shakllarining xilma-xilligi mavjud bo'lgan va huquqiy ayirboshlash transaksiyalari amalga oshiriladigan iqtisodiyot.

Bozor iqtisodiyotida ijtimoiy himoya – har bir shaxsga uning rivojlanishi va yaratuvchilik imkoniyatlaridan nihoyatda samarali foydalanishi uchun zarur bo'lgan muayyan turmush darajasining kafolatlanishini

ta'minlovchi davlat iqtisodiy choralari, shart-sharoitlari va munosabatlari tizimi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan raqobatli bozor iqtisodiyoti – xo'jalik yuritish jarayonlari batamom shaxsni har tomonlama rivojlantirish vazifalariga bo'ysundirilgan iqtisod.

Bozor intervensiyasi – milliy yoki mintaqaviy (regional) bozorga tashqaridan suqilib kirish va u bozorni o'ziga tobe etish tushuniladi. Xorijiy tovarlar muayyan mamlakat yoki region bozorini himoya qiladigan to'siqlarni bartaraf etib, bozorga kirib oladi va shu yerdagi tovarlar bilan raqobat qiladi, xaridorlarni o'ziga og'dirib oladi.

Bozor intervensiyasi har xil vositalar bilan amalga oshiriladi:

- demping eksport (ichki bozorda ham past baholarda eksport)ni ishlatish;
- yuqori boj to'lovlariga ham rozi bo'lish;
- bozor chaqqon yerlarda korxonalar qurib, tovar chiqarish;
- import qiluvchi mamlakat yoki mintaqaga moddiy yordam ko'rsatish, siyosiy tazyiq o'tkazish va boshqalar.

Bozor muhofazasi deganda milliy bozor yoki ayrim tovarlar bozori davlatning eksport-importni tartibga soluvchi tadbirlari vositasida himoya qilinishi tushuniladi. Bozor muhofazasi:

- chetdan tovar keltirishni cheklash, taqiqlash;
- boj to'lovini oshirish orqali amalga oshiriladi.

Bozor muhofazasini chetlab o'tishning muhim yo'li ilgari tovar chiqarilgan mamlakatga kapital chiqarib, muayyan tovarni o'sha yerning o'zida yaratish va sotish hisoblanadi.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. *Bozor* xaridorlar bilan sotuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, ularni bir-biriga bog'laydigan mexanizmdir. Bozorda hamma teng. Chunki unda xaridor va sotuvchi mustaqil harakat qiladi.

Bozorda manfaatsiz shaxslar bo'lmaydi. Sotuvchi qimmat sotishi payida, xaridor arzonroq xarid qilish harakatida bo'ladi.

2. *Bozor infratuzilmasi* bozor aloqalarini o'rnatishda ishtirok etuvchi, ya'ni sotuvchilar va xaridorlarga xizmat ko'rsatuvchi muassasalardir. Bozor tovar va xizmatlarni oldi-sotdi qilish borasidagi munosabatlar bo'lib, ular vositasida sotuvchilar va xaridorlar bir-biri bilan aloqaga kirishadilar. Bu aloqalarni o'rnatishda bozor infratuzilmasi – institutlari vositachi sifatida ishtirok etadi, ular bozor funksiyalarini amalga oshiruvchi xizmatlarni ko'rsatadi.

3. Bozor tovarlarni iste'molchiga yetkazib berish, ishlab chiqarishning yangilanishini resurslar bilan ta'minlash, iqtisodiyotni tartibga keltirish va mamlakatlararo hamkorlikni o'rnatishdan iborat funksiyalarni bajaradi.

4. Bozor ishtirokchilarining mavqei jihatidan erkin va monopollashgan bozorga, oldi-sotdi obyekti jihatidan iste'mol tovarlari, resurslar, moliya va intellektual tovarlar bozorlariga ajraladi. Ulardan har birining o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

5. Iqtisodiyot uchun bozorning ko'lami g'oyat muhim, chunki ishlab chiqarishning o'sishi shunga bog'liq bo'ladi. Bozor ko'lamini u yerdagi tovarlar miqdori va ularning narxi belgilaydi. Ko'lam savdo oboroti (aylanmasi)ga qarab baholanadi. Ko'lam jihatidan qaralganda mahalliy, hududiy, milliy, davlatlararo va jahon bozorlari mavjud.

6- MAVZU. O'ZBEKISTONDA BOZOR IQTISODIYOTINI SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI

1. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga borishdagi o'z taraqqiyot yo'li

XX asrning so'nggi o'n yilligi jahon tarixiga ijtimoiy dunyoqarashda, jahon hamjamiyatining jug'rofiy-siyosiy (geopolitik) tuzilishida tub o'zgarishlar davri bo'lib kiradi. Jahon yangi davrga qadam qo'ydi. Bu davrning o'ziga xos belgilari, *bir tomondan*, davlatlar va xalqlar o'rtasida yaqinlashuv jarayonlari va hamkorlikning kuchayishi, yaxlit siyosiy va iqtisodiy makonlarning vujudga kelishi, yagona xalqaro me'yorlar (normalar), qoidalar va andozalarga o'tish bo'lsa, *ikkinchi tomondan*, sotsialistik lagerning yemirilishi, totalitar tuzumlarning tugatilishi, unitar tizimlar o'rnida yosh mustaqil davlatlarning paydo bo'lishidir. *Yer kurrasining oltidan* bir qismida tub islohotlar davom etmoqda. «Bu esa yangi tuzilgan mustaqil davlatlarda davlat qurilishi va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish muammolari mintaqalarning doiralaridan tashqari chiqib, haqli ravishda umumjahon tusini olganidan yaqqol dalolat beradi.

Sobiq sotsialistik va boshqa mamlakatlar voqeligi keltirib chiqargan yangi hodisalar, munosabatlar va jarayonlar XX asrning 90-yillaridan boshlab an'anaviy tushunchalarga mos kelmay qolganligi yaqqol ko'rindi. Mulkchilik, ishlab chiqarish munosabatlari, ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish omillari, boshqarishning bozor va rejali tartibga solish mexanizmlari, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi va ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyati kabi boshqa tushunchalar umuman yangi mazmun kasb etmoqda.

Bozor islohotlari – xalq ishtirokida, lekin davlat tomonidan ishlab chiqilgan bozor munosabatlarini shakllantirish chora-tadbirlarining davlat nazorati ostida amalga oshirilishidir.

Islohotlarning quyidagi turlari mavjud:

- mulkiy munosabatlar islohoti;
- agrar islohot;
- moliya-kredit tizimi islohoti;
- ijtimoiy islohotlar;
- tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti;
- huquqiy islohotlar.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tish konsepsiyasini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston jahon tajribasini rad etmagan holda, ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos va mos yo‘lini ishlab chiqdi va shu yo‘ldan dadil bormoqda.

O‘z yo‘li deganda O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish va mustaqillikni ta‘minlash muammolarining birgalikda hal etilishi tushuniladi. Mazkur yo‘lning o‘ziga xosligi shundaki, ilgari birorta mamlakat ijtimoiy (davlat) mulkka asoslangan sotsialistik tuzum o‘rnida bozor iqtisodiyoti tamoyillariga yo‘naltirilgan ko‘p ukladli tuzum qurmagan, ya‘ni bu borada sinalgan yo‘l yo‘q edi.

Bu yo‘lning o‘ziga mosligiga kelsak, Sharq mamlakatlari, ayniqsa, O‘zbekistonda yashash, ishlash, tadbirlar o‘tkazish – hamma-hammasi qadimdan sherikchilikka, jamoa bo‘lib ish tutishga asoslangan.

Bu yo‘l O‘zbekistonni kelajakda iqtisodiyoti rivojlangan, demokratiya rivoj topgan, sotsial barqarorlik hukm surgan davlatga aylantirishni mo‘ljallaydi, O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat degan ilmiy xulosaga asoslanadi. Mustaqillikning ilk yilidayoq Prezident Islom Karimov Vatan taraqqiyotini ta‘minlovchi yo‘lning ahamiyatini quyidagicha ta‘kidlab: «Respublikaning bozor munosabatlariga o‘tishida o‘z yo‘lidan izchillik bilan borishi demokratik o‘zgarishlar, respublikani rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqish, uning xalqaro obro‘-e‘tiborini mustahkamlash uchun puxta moddiy negiz yaratadi»¹, – deb ta‘kidlagan edi. Bu borada O‘zbekiston oldiga quyidagi vazifalarni belgiladi:

¹ *Каримов И. А. Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли.* – Т.: «Ўзбекистон», 1993. – Б. 8.

- *barcha mulk shakllarining tengligini ta'minlash;*
- *iqtisodiy faoliyatga erkinlik berish;*
- *ishbilarmonlikni rivojlantirish, tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish;*
- *erkin narx-navoga o'tish;*
- *iqtisodiy monopolizmga yo'l bermagan holda raqobatga keng yo'l ochish;*
- *ishlab chiqarishning zamonaviy milliy manfaatga mos bo'lgan strukturasi yaratish;*
- *qudratli iqtisodiy salohiyatga tayangan holda mamlakat milliy boyligini oshirib, xalqning hamma qatlamlariga farovonlik, kelajakka ishonch berish;*
- *xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etish, mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligi bilan integrasiyalashuviga erishish.*

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, **bozor iqtisodiyoti** – bu mukammal ishlab chiqarish omillariga ega bo'lgan, tovar-pul munosabatlariga asoslangan aniq ijtimoiy mo'ljali bor, bozor signallariga binoan va pul vositasida boshqarilib turuvchi iqtisodiyotdir.

Bozor iqtisodiyotining mohiyati va belgilari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy faoliyatning erkinligi;
- mulk shakllarining xilma-xilligi;
- iqtisodiyotning antimonopolistik xarakteri;
- raqobat;
- sog'lom pul muomalasi;
- yuridik va jismoniy shaxslarning teng imkoniyati;
- narx-navoni erkinlashtirish;
- iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirishga erishish;
- ijtimoiy yo'nalishlarning kuchayishi;
- boshqaruvga asoslanganligi.

Bozor iqtisodiyotining jadal borishini ta'minlovchi kuchlar:

iqtisodiy faoliyat erkinligi – bu tadbirkorlar uchun keng imkoniyat yaratadi;

qonuniy daromadlarning cheklanmasligi – bu qo'shimcha daromad topishga undaydi;

sog'lom raqobat kurashi – bu kim o'zdi qoidasini yuzaga keltiradi, yangilikni joriy etishga undaydi, texnika-texnologiyani, mehnat unumdorligini va sifatini oshiradi. Qattiq mehnat va ijro etish intizomini yaratadi.

Shunday qilib, O‘zbekiston o‘zining istiqlol va taraqqiyot yo‘lini tanlab oldi, o‘zining ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti yo‘lini ishlab chiqdi. Ammo, bu yo‘l g‘oyat mashaqqatli va uzoq yo‘ldir. Mustaqillikning dastlabki yillarida «O‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘limiz, – deb ta’kidlagan edi Islom Karimov, – bu gul bilan qoplangan yo‘l emas, bu totalitarizm merosidan xalos bo‘lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo‘lidir. Bu – jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilish chinakam siyosiy va iqtisodiy istiqlolga erishish yo‘lidir.

Bu yo‘ldan faqat haqiqiy vatanparvargina, o‘z mamlakati va xalqining taqdiri uchun butun qalbi va yuragini bag‘ishlagan, o‘z manfaatlarini respublikaning qudratli va farovon bo‘lishiga erishish maqsadlariga bo‘ysundira oladigan, bunga o‘zining kuch-g‘ayrati, tashabbusi, bilimi va mehnatini bag‘ishlay oladigan kishilargina yura oladi»¹.

«O‘zbekiston yo‘li» va unga binoan respublikamizda o‘tkazilayotgan islohotlarni akademik M. Sharifxo‘jayev «Istiqlol istiqbollari» risolasida ta’kidlaganidek, «Islom Abdug‘aniyevich islohotlari», deb atalsa xato bo‘lmaydi. Chunki islohotlarning ilmiy-nazariy asoslari va yo‘nalishlari Prezidentning mamlakat taraqqiyotiga bag‘ishlangan risolalari, nutq va chiqishlarida bayon etilgan. Islohotning o‘zi ham bevosita Islom Karimov rahbarligida amalga oshirilmoqda².

L. Levitin va D. Karlaylning «Islom Karimov – yangi O‘zbekiston Prezidenti» asarida «O‘zbekiston yo‘li» xususida quyidagilar bayon qilingan: «Aminmanki, «O‘zbekiston yo‘li» – bu Islom Karimovning kashfiyoti, ko‘p jihatdan, agar ta’bir joiz bo‘lsa, uning «NOU-XAU»sidir. Bu uning iqtisodiy tafakkurining natijasi, yaqqol fikrlash qobiliyati, siyosiy yo‘lboshchilik iste’dodi hamda oddiy odamga nima kerakligini bilishi va tabiiyki, dunyo tajribasini juda yaxshi bilishi oqibatidir»³.

Islom Karimovning «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida» (1995) kitobida esa ma’lum darajada yaxlit davrda – bozor iqtisodiyotiga o‘tishning birinchi bosqichi ya’ni istiqlolning to‘rt yili mobaynida mamlakatimiz taraqqiyotining barcha jabhalarida amalga

¹ *Каримов И. А. Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли.* – Т.: «Ўзбекистон», 1993. – Б. 127.

² *Шарифхўжаев М. Ш. Истиклол истикболлари.* – Т.: «Ўзбекистон», 1994. – Б. 20.

³ *Левитин Л., Карлайл Д. Ислон Каримов – янги Ўзбекистон Президенти.* – Т.: «Ўзбекистон», 1996. – Б. 44.

oshirilgan tarixiy ishlarning amaliy yakunlari va uning saboqlari, istiqbolda bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor va dolzarb vazifalar chuqur va atroflicha tahlil etilgan.

Shuningdek, bu haqda Koreya Respublikasi Milliy assambleyasi sobiq spikeri Li Man-sop O'zbekiston Prezidentining asarlari, shuningdek, uning nazariyasi va rahbarligida O'zbekistonda tadrijiy va bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar bilan anchadan buyon yaxshi tanish ekanligi, so'nggi o'n yil va asosan avj olayotgan jahon moliyaviy inqirozi nafaqat asosiy ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirish, balki jahon inqirozi oqibatida yuzaga kelgan murakkab vaziyatdan chiqish borasida ham O'zbekiston tomonidan tanlangan yo'lning to'g'ri ekanligini aniq ko'rsatgani haqida yozadi. U sanoatni modernizatsiya qilish va texnik jihatdan yangilashda bank va moliya tizimini takomillashtirishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi O'zbekistonga tashqi salbiy ta'sirdan kelayotgan zararni kamaytirishi va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqarorligini ta'minlash imkoniyatini berganini ta'kidlagan. Yuqorida ko'rib chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning turli modellari barcha mamlakatlarni bitta manzilga – erkin bozor iqtisodiyoti tizimiga olib keladi. Ammo, bozor munosabatlari shakllanishining sotsial-iqtisodiy, tarixiy, milliy va xalqaro sharoiti har xil bo'lganligi tufayli, unga o'tishning milliy xususiyatlari ham mavjud bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan biror mamlakatning taraqqiyot yo'lini yoki taraqqiyot modelini borligicha qabul qilib bo'lmaydi. Fransiyada chop etiladigan «Liberasyon» gazetasi muxbirining «Turkiya modeli» xususida bergan savoliga Prezident Islom Karimov quyidagicha javob berdi: «Turkiya bozor munosabatlari yo'lga o'tib erishgan tub o'zgarishlari bilan ham hurmatga loyiqdir. Biroq, mustaqil O'zbekiston Turkiya yo'lidan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirmoqchi emas. Odamzod bironing bo'yiga qarab o'ziga to'n bichmaydi»¹.

O'z mamlakati milliy manfaatlarini hisobga olmay, Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlash mumkin emas. Turli xorijiy mamlakatlar taraqqiyot modeliga ko'r-ko'rona tayanib, ish tutgan MDH doirasidagi ayrim mamlakatlarda islohotlarda depsinish hollari, tashqi qarzga botish, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ochilib, o'zining zaif tomonlarini ko'rsatdi.

¹ *Каримов И. А. Истиклол йўли: муаммолар, режалар. – Т.: «Ўзбекистон», 1992. – Б.11.*

Prezident Islom Karimov bozor munosabatlariga o'tishda o'xshashi bo'lmagan, betakror yaxlit andozamizni ishlab chiqdi va o'z yo'limizni belgilab berdi. *Bu yo'l uch tarkibiy qismdan iborat:*

➤ ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti milliy andozasi mohiyatining tavsifi (xarakteristikasi);

➤ qat'iy markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan xo'jalik yuritishning bozor munosabatlariga asoslangan yo'liga o'tishning eng muhim prinsiplari;

➤ iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning, tanglikdan chiqib olishning, barqarorlikni va muhim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning aniq yo'nalishlari.

Bu uch tarkibiy qism, ya'ni yangi dasturning eskilaridan farqi nimada, degan savolga Prezident Islom Karimov «Istiqlol yo'li: muam-molar va rejalar» risolasida (1992) quyidagicha javob bergan: «Birinchidan, unda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'liq aks etgan. Ikkinchidan, bu dastur xom xayol gaplardan iborat emas, balki jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari xususida»dir.

Mustaqillikni qo'lga kiritgan har bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlagan, yangi jamiyat barpo etish borasida o'z milliy andozasini ishlab chiqqan. Bunda ilk poydevor vazifasini:

➤ kishilarning o'z qadriyatlari tizimi va aniq maqsadni ko'zlab tutilgan yo'li;

➤ milliy an'analar va tarixiy shart-sharoit;

➤ real ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muhit;

➤ odamlarning tarkib topgan turmush tarzi va dunyoqarashi o'tagan.

«O'zbekiston yo'li» Islom Karimov bozor islohoti yuzasidan olg'a surgan besh tamoyilga asoslanadi. Ularning mohiyati quyidagicha:

Iqtisod siyosatga nisbatan ustuvor bo'lishi zarur – bu qoida iqtisodiy faoliyat ijtimoiy hayotning birlamchi asosi ekanligidan kelib chiqadi. Iqtisodiyot qanday bo'lsa, ijtimoiy hayotning boshqa tomonlari ham shunga yarasha bo'lishini tarix tasdiqlagan.

Davlat bosh islohotchi bo'lmog'i kerak – bu bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun zarur bo'lgan islohotlar keng jamoatchilik ishtirokida, davlat ishlab chiqqan dasturlar asosida, uning bevosita ishtiroki va rahbarligida amalga oshiriladi.

Qonunlar va ularga rioya qilish ustuvorligi – bu tamoyil qonunlar oldida barchaning baravarligi, qonunlarga rioya etish, hamma uchun ham

farz, ham qarz bo'lishini bildiradi. Bozor iqtisodiyoti qonunchilikka tayanishi, unga xos bo'lgan faoliyat qoidalari, iqtisodiy munosabatlar, qabul qilingan huquqiy qonunlarda qayd etilishi zarurligi O'zbekiston konsepsiyasida hisobga olinadi.

Faol ijtimoiy siyosat yurgizish – O'zbekiston konsepsiyasida aholining keng qatlamlari, eng avval uning nochor guruhlarining ijtimoiy himoyasini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish zarur, deb qaraladi. Himoyalash dasturlari aholining ruhiyati va ko'nikmalarini e'tiborga olishi zarur.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish – totalitar tizim o'z-o'zidan bozor tizimiga aylana olmaydi, uni faqat chuqur isloh qilish bilangina bozor tizimiga o'tish mumkin. Tarixda hech qachon bir iqtisodiy tizimdan boshqasiga o'tish birdaniga, qisqa vaqt ichida va farmon e'lon qilgan bilan bo'lmaydi.

Bu qoidalar o'z istiqloq, rivojlanish va taraqqiyot yo'limizga asos qilib olingan bo'lib, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi.

Bu beshta qoidaga o'z munosabatini Germaniyaning sobiq kansleri Gelmut Kol shunday bildirdi: «Davlat rivojining besh tamoyilini ishlab chiqib, uni qo'rqmay olamga e'lon qilayotgan yangi davlatning rahbari tutgan yo'l muvaffaqiyatning garovidir»¹.

Bu qoidalar O'zbekistonning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda izchillik bilan shakllantirib borishni, unga sekin-asta, bosqichma-bosqich, xalqni himoya qilib borib, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash orqali bozor iqtisodiyotiga o'tishni bildiradi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov: «Faqat farmonlar, farmoyishlar chiqarish bilan bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. U uzoq tarixiy taraqqiyotning natijasi bo'lib, tegishli infrastrukturani va huquqiy asosni yaratishgina emas, shu bilan birga, qadriyatlar tizimida chuqur o'zgarishlarni, xo'jalik faoliyati va amaliy munosabatlarni asoslashni ham ko'zda tutadi»², – deb ta'kidlagan.

Mustaqillikka erishgandan buyon o'tgan davr ichida O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lining salmoqli qismini bosib o'tdi. Iqtisodiy va siyosiy tizimni yanada isloh qilish, ijtimoiy yo'naltirilgan

¹ Шарифхўжаев М. Истиклол истиқболлари. – Т.: «Ўзбекистон», 1994. – Б. 66.

² Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т., 1996. – Б. 315.

bozor iqtisodiyotini barpo etish, ichki va tashqi siyosatni shakllantirishning puxta bazasi yaratildi.

2. Bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasi va islohotlar strategiyasi

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasi deganda totalitar iqtisodiy tizimdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning qonun-qoidalar va uning O'zbekistondagi xususiyatlariga oid ilmiy qarashlar majmui tushuniladi. Bu konsepsiya umumlashgan holda Prezident Islom Karimovning risolalari, maqolalari va nutqlarida, asarlarida, mamlakat Oliy Majlisi qabul etgan qarorlar va qonunlarda, o'zbekistonlik olimlar va mutaxassislarining asarlarida atroflicha ishlab chiqildi. Bu konsepsiya umumlashgan holda Islom Karimovning «Istiqlol yo'li: muammolar va rejalar» (1992), «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» (1992), «O'zbekiston: bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» (1993), «O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari» (1993), «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» (1995), «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: ... » (1997), «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» (2000), «Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlash-tirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» (2005), «Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish – oliy saodatdir» (2007), «O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'lida» (2007), «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» (2008), «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi», «O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» (2009), «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» (2010), «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» (2010), «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» (2011), «Bizning yo'limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir» (2011) asarlarida bayon etilgan va mamlakatimiz iqtisodiy tafakkur tarixida o'ziga xos sahifa bo'lib, shubhasiz erkin ilmiy izlanishlar mahsulidir. Yuqoridagi asarlarda bildirilgan fikr-mulohazalarni milliy mustaqillik nazariyasining ajralmas qismi deb qarash zarur, chunki iqtisodiyotni rivojlantirmay turib milliy mustaqillikni ta'minlash mumkin emas. Shuningdek, **mazkur asarlar iqtisodiyot nazariyasi fanining rivojlanishida muhim metodologik manba bo'lib xizmat qilmoqda.**

O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tish konsepsiyasi real iqtisodiy sharoitdan kelib chiqqanligini hayotning o‘zi isbotladi. Gap shundaki, O‘zbekiston, *birinchidan*, sotsialistik iqtisodiy tizim sharoitida, *ikkinchidan*, esa Sovet imperiyasi tarkibida rivojlandi. Bu esa uni qoloqlikka mahkum etdi. O‘zbekiston resurslarga boy mamlakat bo‘la turib, iqtisodiy taraqqiyotda ko‘pgina Sharq mamlakatlaridan orqada qolib ketdi. 1990-yili aholi jon boshiga ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda 75–80 o‘rinni egalladi, ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati, uning strukturasi, tarkibining yangilanishi, ya’ni diversifikatsiyasi jihatidan dunyo talablaridan ancha orqada qoldi.

Mustaqil O‘zbekiston iqtisodiy yangilanishga muhtoj edi, buning uchun esa bozor munosabatlarini yaratish kerak bo‘ldi. Butun dunyo tajribasi ko‘rsatganidek, iqtisodiy yuksalish uchun bozor munosabatlariga o‘tishdan boshqa najot yo‘li yo‘q. Prezident Islom Karimov «jahon sivilizatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotning sifat jihatidan yangi yo‘llarini ishlab chiqdi, tartibga solingan bozor iqtisodiyoti mana shu yo‘lga asoslanib olingan»ligini ta’kidlaydi. Ammo bu yo‘lning hamma yerda o‘ziga xos xususiyatlari borligini, O‘zbekiston konsepsiyasi mana shundan kelib chiqadi va bozor iqtisodiyotiga o‘tishda o‘z yo‘li borligini ko‘rsatadi¹.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning yo‘llari²:

Rivojlangan mamlakatlar yo‘li – bu yo‘l asrlar osha tarixiy-tabiiy jarayon sifatida amalga oshib, uzundan-uzoq davom etgan o‘zgarishlar orqali bozor iqtisodiyotiga xos belgilar yuzaga keladi. Bu yo‘l – bozor iqtisodiyotining o‘ziga xos klassik shakllanish jarayonidir.

Mustamlakadan ozod bo‘lib mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tib rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari yo‘li – ikkinchi yo‘lga xos muhim tomon – bu mustamlakachilikdan meros qolgan qoloq an’anaviy iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tishdir. Bunda bozor iqtisodiyotiga xos belgilar xo‘jalik turlarining transformatsiyasi orqali ro‘y beradi. Natural xo‘jalik bozor doirasiga tortilib, tovar xo‘jaligiga aylanadi va undan bozor iqtisodiyoti belgilari o‘sib chiqadi.

Sobiq sotsialistik mamlakatlar yo‘li – uchinchi yo‘lning muhim belgisi – totalitar iqtisodiy tizimdan erkin bozor tizimiga o‘tish hisoblanadi. Totalitar tizim davlatlashgan sotsializm shaklida amal qilgan.

¹ Қаранг: Каримов И. А. Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли. – Т., 1993. – Б. 22.

² Ўлмасов А., Ваҳобов А.В. Иқтисодий назария: Дарслик. – Т., 2006. – Б. 88–89.

Unga davlat mulkining tanho hukmronligi, iqtisodiyotning o'ta davlatlashgan bo'lishi, moddiy ne'matlarni davlat bir tekisda taqsimlashi, xususiy-iqtisodiy faoliyatning man etilishi, tadbirkorlikni bo'g'ib qo'yib, mahalliy tashabbusga yo'l bermaslik, eksport-importni qattiq nazorat qilish, iqtisodiyotning o'ta harbiylashgan bo'lishi xosdir.

Bozor iqtisodiyotiga xos yangi huquqiy tizimning o'zagini Asosiy qonun – respublika Konstitutsiyasi tashkil etadi. Shu bois ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining qonunchilik asosini yaratish – bu faqat o'tish davrining majburiy sharti bo'lib qolmay, balki huquqiy davlat barpo etishning o'ziga xos xususiyati hamdir.

Bozor iqtisodiyoti qonunchilikka tayanishi, unga xos bo'lgan faoliyat qoidalari, iqtisodiy munosabatlar qabul qilingan huquqiy qonunlarda qayd etilishi zarurligi O'zbekiston konsepsiyasida hisobga olinadi. Qabul qilingan amaldagi qonunlar tarkibida, bozor munosabatlarini tartiblovchi, ularning ma'lum yo'nalishda bo'lishini ta'minlovchi va iqtisodiyotga oid qonunlar alohida o'rin tutadi. Davlatimiz rahbari: «Yaxlit bozor tizimi vujudga kelishi uchun uning turli tomonlariga oid barcha qonunlar o'zaro muvofiqlashgan bo'lishi shart. Qonunlardagi nomuvofiqliklarga yo'l qo'yib bo'lmaydi», – deb ta'kidlagani barchamizga ma'lum. Darhaqiqat, qonunlar barcha faoliyat turlarining uzviy bog'lanishiga xizmat qilganda haqiqiy bozor munosabati kelib chiqadi. Mustaqillik yillarida qonunlarni amalga oshirish, ularni ta'sirchan qilish uchun zarur bo'lgan barcha dastak va vositalar yaratilishiga erishildi. Amaldagi qonunlar biz intilayotgan fuqarolik jamiyatining iqtisodiy negizini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Prezident Islom Karimov mukammal qonunlarsiz bozor iqtisodiyoti amal qila olmasligini inobatga olib: «Ijtimoiy yo'naltirilgan madaniy-ma'rifiy bozor xo'jaligini tegishli ravishda huquqiy jihatdan ta'minlamasdan turib bunday xo'jalikni shakllantirishni tasavvur qilib bo'lmaydi»¹, – deb ta'kidlaydi.

Bozor iqtisodiyotiga xos huquqiy tizim va huquqiy davlatni barpo etish tamoyillari:

- qonunlarning hayot, amaliyot bilan uzviy bog'liqligi va undan kelib chiqishi;
- qonun hujjatlari bevosita ta'sir ko'rsatish kuchiga ega bo'lishi kerak;
- qonunga bo'ysunish huquqiy davlatning muhim xususiyatidir;

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли. – Т., 1993. – Б. 67.

- qonunning ustuvorligini ta'minlash;
- huquqiy madaniyat yuqori darajada bo'lishi kerak.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Prezident Islom Karimov «*bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lishi, iqtisodiyot va ijtimoiy turmushning hamma sohalarini o'zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishi zarur*»ligi vazifasini qo'ydi.

Davlat iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

- bozor iqtisodiyoti huquqiy asoslarini ta'minlash;
- bozor mexanizmi yaxlitligi va uning me'yorida ishlashi uchun shart-sharoit yaratish;
- aholini iqtisodiy jihatdan himoya qilish va daromadlarini adolatli taqsimlash;
- atrof-muhitni muhofaza etish;
- xalqaro iqtisodiy munosabatlarning samarali rivojlanishini ta'minlash.

Bunda (1991–2000-yillar) **davlatning iqtisodiy vazifalari:**

- tartibga solinadigan bozor sharoitida asosiy maqsad yo'nalishlarini ishlab chiqish ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning strategik yo'lini belgilaydi va bu boradagi taktik xatti-harakatlarni amalga oshiradi;
- bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiy erkinliklarning kafolati vazifasini o'taydi;
- bozor institutlarini yaratish uchun qulay sharoit tug'diradi;
- vujudga kelayotgan ishbilarmonlik tuzilmalari qaror topishi va rivojlanishiga ko'maklashadi;
- aniq maqsadga qaratilgan tuzilma siyosatni amalga oshiradi (ustuvor yo'nalishlarni aniqlaydi);
- hamma ma'lum iqtisodiy vositalar – moliya, kredit, soliq, valuta siyosati, narx-navoni nazorat qilish va bevosita ta'sir o'tkazishning choralari orqali iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tartibga soladi;
- iqtisodiyotni sog'lomlashtirish muammolarini birinchi navbatda hal etadi.

O'zbekiston konsepsiyasida Prezident Islom Karimov «*O'zbekiston o'z yangilanish va taraqqiyot yo'liga asos bo'lgan eng muhim qoidalardan biri sifatida bozor iqtisodiyotiga o'zining barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish*» zarurligini ko'radi va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish bosqichlarini belgilab

berdiki, bu jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash sharti bo'lib xizmat qildi.

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirish bosqichlari. Davlatimiz rahbari Islom Karimov: «Bozor mexanizmlarini joriy etishdan oldin insonlarni ijtimoiy himoya qilish tadbirlari amalga oshirilmog'i lozim»¹, – degan edi. Yurtboshimiz Shvetsiya, Germaniya, Avstriya va boshqa mamlakatlar tajribasiga tayanib, kafolatlangan ijtimoiy himoya mexanizmi yaratilsagina, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlagan holda iqtisodiyotni isloh qilish zarurligini ta'kidlaydi. Chunki:

➤ ijtimoiy siyosat aholi moddiy ahvolidan keskin yomonlashib, ommaviy ravishda qashshoqlanishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat;

➤ ijtimoiy siyosatning ijtimoiy himoyalash vositalarini chuqurlashtirish va o'zgarib borayotgan sharoitlarga moslashtirishdan iborat;

➤ ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari faqat shunday himoyaga haqiqatan ham muhtoj bo'lganlarga nisbatan qo'llaniladi.

Bozor munosabatlarini 1991–2000-yillarda shakllantirishning ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari:

➤ fuqarolarning mehnat qilish borasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash;

➤ ijtimoiy himoyalash maqsadli va aniq yo'naltirilgan bo'lishi kerak;

➤ aholining ijtimoiy jihatdan eng muhtoj tabaqalarini qo'llab-quvvatlash;

➤ iqtisodiy jihatdan faol aholi mehnatini rag'batlantirish;

➤ real mehnat bozorini shakllantirish;

➤ ijtimoiy soha, sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, ilmfanning rivojlanmay qolishiga yo'l qo'ymaslik.

Insonparvarlik g'oyalariga sodiqlikni yuzaga chiqarib, kundalik hayotda «Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi»da mustahkamlangan me'yorlarni izchilik bilan, og'ishmay qaror toptirish maqsadida **O'zbekistonning ijtimoiy bozor iqtisodiyotida quyidagi muhim elementlarga e'tibor qaratildi:**

➤ kishilar farovonligini oshirishni ta'minlaydigan pirovard natijaga erishishga qaratilgan ijtimoiy yo'nalish;

¹ *Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.* Т.1. – Т., 1996. – Б. 65.

➤ iqtisodiyotni barqarorlashtirish muammosini hal etish bilan mehnatga layoqatli aholini ish bilan yetarli darajada ta'minlangan holda makroiqtisodiyotni o'stirish o'rtasidagi teng nisbat;

➤ qiymat, talab va takliflar qonunining amal qilishi asosida barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarni ishlab chiqarishdan eng ko'p samara olish yo'lini izlashga undashni ta'minlovchi bozor mexanizmidan foydalanish asosida iqtisodiy boshqarish;

➤ ishlab chiqarishning bevosita davlat tomonidan boshqarilishidan uzoqlashish, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlikdan kelib chiqqan holda, faoliyat turini, yetishtiriladigan mahsulot hajmini va xilini, ishlab chiqarish xo'jalik aloqalarini aniqlash erkinligini tovar ishlab chiqaruvchilarning o'ziga berish;

➤ investitsiya siyosatining ustuvor jihatlarini tanlashda va chet el sarmoyasini jalb etishda maqsadga muvofiq shartlarni joriy etish, iqtisodiy dastaklar va rag'batlardan foydalanish, ishonchli ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash yo'li bilan iqtisodiyotni boshqarishda davlatning faol rolini saqlab qolish.

Mana shunday sharoitda respublika oldida turgan asosiy masala bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tishda odamlarning yashash darajasini og'irlashtirmaslik edi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov «Mustaqillikka erishish davri haqida, eski tuzum inqirozga duchor bo'lib, sobiq Ittifoq parokandalikka yuz tutgan bir paytda mamlakatimizda tobora keskin tus olgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat, o'zligimizni anglash va toptalgan milliy g'ururimizni tiklashga qaratilgan intilish kuchayib borgani, Vatanimiz mustaqilligini qo'lga kiritish qanday sharoitda kechgani haqida yaxlit, yagona va xolis ko'z bilan qarab baho beradigan jiddiy tahlil-tadqiqot hozirgacha amalda yo'qligini afsus bilan aytishga to'g'ri keladi.

O'zbekiston mana shunday tahlikali va murakkab vaziyatda qanday maqsadlarni ko'zda tutib, qanday amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirganini, bu harakatlarning ilmiy-tarixiy, mantiqiy va qonuniy zamini va omillari, kerak bo'lsa, istiqlol o'zbek xalqiga tuhfa tariqasida berilmagani – bularning barchasi haqida har taraflama chuqur yoritib va isbotlab beradigan izlanish va tahlil bugungi kunda ham o'zining dolzarbligini va ahamiyatini yo'qotmaganini»¹ qayd etadi.

Ma'lumki, SSSR parchalanib ketganidan keyin sobiq sovet hududida juda keskin va tahlikali vaziyat yuzaga keldi. Bu esa boshboshdoqlikning

¹ *Каримов И. А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли.* – Т.: «Ўзбекистон», 2007. – Б. 4.

oldini olish, huquq-tartibotni saqlash va aholining eng zarur, birinchi galda, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash bo'yicha zudlik bilan tegishli choralar ko'rishni talab etdi. O'sha qaltis va murakkab davrda yurtimizda bor-yo'g'i o'n-o'n besh kunga yetadigan bug'doy va un zaxirasi qolgani, mamlakat amalda ocharchilik ostonasiga kelib qolganini yoddan chiqarib bo'lmaydi.

Tabiiyki, bunday hol avvalo butun sovet tizimiga xos bo'lgan markazlashtirilgan usulda rejalashtirish va taqsimlashdek illatlarning ta'siri edi. Lekin, eng yomoni, O'zbekiston iqtisodiyoti asosan xom ashyo tayyorlashga yo'naltirilgani, biryoqlama rivojlanish hisobidan mo'rt va nochor holga tushib qolgan bo'lib, iqtisodiyotga, ekologiya va aholi genofondiga halokatli ta'sir o'tkazadigan paxta yakkahokimligi yurtimizdagi vaziyatni jar yoqasiga olib kelib qo'ygan edi. Buning oqibatida ulkan tabiiy, mineral-xom ashyo, mehnat va inson salohiyatiga ega bo'lishiga qaramay, respublikamiz sobiq SSSRda aholi turmush darajasi, ijtimoiy va gumanitar sohalar rivoji bo'yicha oxirgi o'rinlardan birida turar edi. Buni aholini ro'yxatga olish bo'yicha 1989-yilda o'tkazilgan statistik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi.

Boz ustiga, amaldagi sovet puli o'z qimmatini yo'qotib bo'lgan, yangi milliy valutamiz esa hali joriy etilmagan edi. Bunday sharoitda iqtisodiyotning fojiali ravishda inqirozga yuz tutishi va inflatsiyaning o'ta keskin, hatto yiliga minglab foizga o'sib ketishini jilovlash favqulodda muhim ahamiyat kasb etar edi. Birinchi galda ilgari shakllangan xo'jalik, ishlab chiqarish va moliyaviy aloqalarning butunlay uzilishiga barham berish, ommaviy ishsizlikning oldini olish zarur edi.

Ichki va tashqi xavfsizlikni ta'minlash tizimining parchalanishi natijasida jamiyatda huquqiy bo'shliq vujudga kelgani, millatlar va dinlararo, hududiy va turli guruhlar, urug'-aymoqlar o'rtasidagi ziddiyatlarning avj olib ketish xavfi, radikal kayfiyatlarning, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kuchayishi g'oyat jiddiy xatarga aylangan edi. Qisqacha aytganda, tub ildizlari sovet davlatining so'nggi yillariga borib taqaladigan ichki va tashqi mojarolardan mamlakatimizni asrab qolish talabi o'ta keskin bo'lib turar edi.

Bu o'rinda, avvalambor, el-yurtimiz boshidan kechirgan 1984–1989-yillardagi mudhish qora kunlarni eslash kifoya, deb o'ylayman. O'sha davrda respublikamizda yuzaga kelgan og'ir ijtimoiy ahvol sababli aholining kuchayib borayotgan noroziligining oldini olish va to'xtatish uchun KPSS Markaziy komiteti qarori bilan O'zbekistonga yuborilgan, xalq juda topib, «desantchilar» deb atagan guruh tomonidan sodir etilgan

qonunsizlik va zo‘ravonlikni ko‘pchilik yaxshi eslaydi. Bu haqda gapirganda, Quvasoy, Farg‘ona va Qo‘qon, Namangan, Bo‘ka va Parkent, Guliston, Toshkent va O‘shda ro‘y bergan fojiali voqealar odamlarimiz qalbida qoldirgan bitmas jarohatlarni, yurtimizga chet eldagi markazlar tomonidan moliyaviy ta‘minlangan va boshqarilgan terrorchi to‘dalar Surxondaryo va Toshkent viloyatlarining tog‘li tumanlari orqali suqilib kirgan tahlikali kunlarni ham eslashimiz lozim. Agarki ana shu yovuz niyatli kuchlarning qabih va uzoqni ko‘zlagan buzg‘unchilik maqsadlari amalga oshganida bormi, mamlakatimiz fuqarolar urushi olovi ichida qolib ketgan va uning oqibatlarini, hech shubhasiz, butun O‘rta Osiyodagi vaziyatni portlatib yuborgan bo‘lur edi.

Respublikada vujudga kelgan bunday o‘ta murakkab va fojiali sharoitda Prezident Islom Karimov o‘zini yo‘qotmasdan, vazminlik siyosati bilan ish tutib, qat‘iy siyosiy irodani namoyon etib, mamlakatni chuqur tanazzuldan olib chiqishga qaratilgan, har tomonlama puxta o‘ylangan strategiyani ishlab chiqdi va uni amalga oshirish uchun jamiyatdagi barcha sog‘lom kuchlarni safarbar etganligini qayta-qayta va takroran eslash joiz.

Biz siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot, davlat va jamiyat qurish strategiyasini barpo etishda xalqimizning tarixan shakllangan milliy va madaniy o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan, mamlakatimizning mavjud tabiiy-iqtisodiy, mineral xom ashyo va insoniy salohiyatini xolisona va jiddiy baholagan holda, jahon xo‘jalik aloqalari tizimida o‘zimizga munosib joy egallashni maqsad qilib qo‘yib, bunday marralarga erishishni asosiy vazifamiz sifatida belgilab oldik.

Shu borada mamlakatimizni isloh qilish va milliy davlatchilik poydevorini barpo etish bo‘yicha qabul qilingan ana shu strategiyani amalga oshirishdagi birinchi qadamlarimizning nimalardan iborat bo‘lganini yana bir bor eslab, uni nimalardan iborat bo‘lganligini keltirishni lozim topdik.

Avvalo, tarixan juda qisqa muddatda Asosiy qonunimiz – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ishlab chiqildi va qabul qilindi. Bu qomusiy hujjatda mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining asosiy tamoyillari aniq ifodalab berildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo‘linishi eng muhim tamoyil sifatida belgilandi. Shuningdek, inson huquqlarining davlat manfaatlaridan, umume’tirof etilgan xalqaro huquq normalarining esa milliy huquqiy me‘yorlardan ustunligi ham Konstitutsiyada muhrlab qo‘yildi. Asosiy qonunimizda hech qanday

mafkuraning davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emasligi va ijtimoiy-siyosiy hayot siyosiy institutlarning rang-barangligi, mafkura va fikrlarning xilma-xilligiga asoslanishi belgilab berildi. Ayni paytda barcha mulk shakllarining teng huquqliligi sharoitida xususiy mulkning ustuvorligi konstitutsiyaviy asosda mustahkamlab qo‘yildi.

Ana shu tamoyillarni inobatga olib, davlat va iqtisodiyotni boshqarishning mustabid, markazlashgan tizimiga barham berish, mustaqil O‘zbekistonning yangi siyosiy va davlat tuzilishi asoslarini, avvalo qonunchilik tizimini shakllantirish, markazda va joylarda vakolatli hokimiyat organlarining yaxlit tizimini tashkil etishga qaratilgan ishlar aniq maqsadni ko‘zlab bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Ikkinchidan, murakkab o‘tish davrida qabul qilingan qonunlarning amalda bajarilishini ta‘minlay oladigan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qodir bo‘lgan ijro hokimiyatining samarali tizimi va tuzilmalarini yaratish muhim ahamiyatga ega edi. Shu maqsadda tub ma‘muriy islohotlar amalga oshirildi: markazlashgan rejalashtirish va taqsimlash tizimining tayanchlari bo‘lgan Davlat plan komiteti, Davlat ta‘minot komiteti, Davlat narx komiteti, Davlat agrosanoat komiteti va ko‘plab tarmoq vazirliklari tugatildi, mahalliy hokimiyat organlari qayta tashkil qilindi – viloyat, tuman va shaharlarda hokimlik instituti joriy etildi.

O‘tgan davr mobaynida milliy iqtisodiyotni shakllantirish va uni tubdan isloh qilish mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining eng muhim omili va asosini tashkil etganini alohida ta‘kidlash zarur. Bu borada davlatimiz oldida respublika va aholi ehtiyojini, birinchi navbatda yoqilg‘i-energetika resurslari, iste‘mol va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni ishonchli tarzda qondirishdek dolzarb hayotiy vazifa turar edi.

Yurtimizda yoqilg‘i-energetika va g‘alla mustaqilligiga erishish muhim strategik vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Bu o‘rinda avvalo shuni aytish lozimki, O‘zbekiston tabiiy gaz, neft va gaz kondensati bo‘yicha aniqlangan ulkan sanoat zaxiralariga ega bo‘lganiga qaramasdan, ilgari iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyojini qondirish uchun-yiliga 6–7 million tonna neft va neft mahsulotlarini chetdan keltirish va buning uchun katta miqdordagi valuta resurslarini sarflashga majbur bo‘lar edi. Bu jiddiy muammoni hal etish maqsadida qisqa fursat ichida O‘zbekistondagi uglevodorod xom ashyosini qazib olish va qayta ishlash bo‘yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

Yangi neft-gaz konlarini aniqlash, neft va tabiiy gazni qazib olish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar topildi, jumladan, xorij sarmoyasi jalb etildi. Buxoroda neftni qayta ishlaydigan yangi zamonaviy zavod barpo etildi, Farg'ona va Oltiariqdagi neftni qayta ishlash zavodlari modernizatsiya va rekonstruksiya qilindi, ularning barqaror va ishonchli faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratildi.

Shuningdek, o'zining ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyatiga ko'ra o'xshashi bo'lmagan Sho'rtan gaz-kimyo majmui kabi noyob inshoot barpo etildi. Ushbu korxonada tayyorlanayotgan suyultirilgan gaz, turli markadagi polietilen va boshqa mahsulotlarga nafaqat mamlakatimiz, balki chet ellarda ham talab katta ekanini qayd etish lozim.

Mustaqillik yillarida ana shunday yirik korxonalarining qurilishi va rekonstruksiya qilinishi natijasida hozirgi vaqtda yurtimizda neft mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1990-yilga nisbatan 3 barobardan ziyod ortdi. Bugungi kunda O'zbekiston bu borada mamlakatning va aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini ta'minlash bilan birga, eksport hajmini ham ko'paytirishga erishdi.

Asaka va Samarqand shaharlarida avtomobil zavodlarini barpo etganimiz tufayli mustaqillik yillarida avtomobillar soni keskin oshdi va har 100 oilaning avtomobil bilan ta'minlanish darajasi 6 barobardan ziyod o'sdi. O'z-o'zidan ayonki, respublikamizda benzin va yoqilg'i-moylash mahsulotlariga bo'lgan talab ham shunga mos ravishda oshib bormoqda. Aynan neft va neft mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirish hisobiga biz bugun jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganiga qaramasdan respublikamizning rivojlanayotgan sanoati va aholining keskin o'sib borayotgan mana shunday talab va ehtiyojlarini ta'minlashga erishmoqdamiz.

Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki kunlarida aholini non va non mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha ham o'ta og'ir qiyinchilik va muammolar paydo bo'lgan edi. Bu muammoning sababi avvalo shundaki, O'zbekiston sobiq SSSR va sotsialistik lagerga mansub mamlakatlar uchun asosan paxta xom ashyosi tayyorlar, g'alla va un mahsulotlariga bo'lgan ichki ehtiyojimizning 80 foizdan ortig'i esa chetdan keltirilgan mahsulotlar hisobidan qoplanar edi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, o'sha-yillarda yetishtirilgan paxta xom-ashyosining 7 foizginasi mamlakatimizning o'zida qayta ishlanar, qolgan qismi suvtekin narxda chetga chiqarilar edi.

Aholini oziq-ovqat tovarlari, jumladan, go'sht va sut, yuz foiz chetdan keltiriladigan shakar mahsulotlari bilan ta'minlash borasida ham

murakkab vaziyat vujudga kelgan edi. Ayniqsa, aholini kartoshka bilan ta'minlashning ahvoli bunga yaqqol misol bo'ladi. O'sha vaqtda yurtimizga har-yili Rossiya, Belorussiya, Polsha va boshqa mamlakatlardan qariyb 1 million tonna kartoshka keltirilar edi. Eng yomoni, bu mahsulot noyabr-dekabr oylarida keltirilgani uchun muzlab, uning katta qismi yaroqsiz holga kelar va chorvaga yem bo'lardi. Bugun esa xalqimizning kartoshkaga bo'lgan ehtiyoji to'liq o'zimizda yetishtirilgan hosil hisobidan qoplanmoqda.

Ana shunday murakkab bir davrda biz g'alla mustaqilligiga erishishdek hayotiy muhim masalani ham o'z oldimizga ustuvor vazifa qilib qo'ydik. Birinchi navbatda qishloq xo'jaligini tubdan isloh qilganimiz, mamlakatimiz iqtisodiyoti va ekologiyasiga katta zarar yetkazgan paxta monopoliyasiga barham berganimiz tufayli bu vazifani ham muvaffaqiyatli hal etishga erishdik. O'zbekiston bugungi kunda o'zining g'allaga bo'lgan ehtiyojini qoplabgina qolmasdan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tarkibidagi qo'shni mamlakatlarga, Afg'oniston, Eron va boshqa davlatlarga g'alla va un mahsulotlarini eksport qilmoqda. Ushbu mahsulotlarning eksport hajmi O'zbekistonda qariyb bir million tonnani tashkil etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, g'alla mustaqilligining qo'lga kiritilishi mamlakatimiz aholisini nafaqat un va non mahsulotlari bilan ta'minlash, ayni paytda uning go'sht va sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini barqaror ravishda o'z hisobimizdan qondirish masalasini ham hal qilish imkonini berdi. Bunday ulkan yutuqlar zamirida ana shu murakkab vazifalar yechimini o'z zimmasiga olgan dehqon va fermerlar, qishloq xo'jaligida, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan millionlab mehnatkash insonlarning fidokorona mehnati yotibdi.

Iqtisodiy rivojlanish haqida gapirganda, markazdan rejalashtirish va taqsimlash tizimi samarali mehnat, sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, tashabbuskorlik va tadbirkorlik yo'lida asosiy g'ov-to'siq bo'lib kelganini ta'kidlash lozim. Shu sababli o'zining mutlaqo yaroqsiz ekanini ko'rsatgan bu tizimning barcha illatlaridan Prezident rahnamoligida butunlay voz kechganimiz, ayniqsa, prinsipial ahamiyatga ega bo'ldi.

Dastlabki yillardayoq O'zbekiston xalqi uchun yangilik bo'lgan bozor iqtisodiyotining asoslari yaratildi, bozor infratuzilmasi institutlarini tashkil etish va raqobat muhitini shakllantirish orqali bozor munosabatlarining mexanizmi ishga tushirildi. Mamlakatimizda xususiy

mulkchilik tiklanib, uning rivoji ustuvor ahamiyat kasb etdi. Xususiy mulk konstitutsiyaviy asosda ishonchli kafolatga ega bo'ldi.

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining butunlay davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiy- lashtirilishi natijasida mamlakatimizda amalda ko'p ukladli iqtisodiyot shakllandi, mulkdorlar va tadbirkorlarning yangi sinfi paydo bo'ldi va bu sinf yildan-yilga yurtimiz hayotida tobora salmoqli rol o'ynamoqda.

Ayni paytda biz uchun mutlaqo yangi bo'lgan, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan moliya va bank tizimini shakllantirish hamda o'z milliy valutamizni muomalaga kiritish ham ulkan ahamiyat kasb etdi. Albatta, milliy valutaga o'tish va uning qat'iy to'lov qobiliyatini ta'minlash oson kechgani yo'q, lekin qanchalar qiyin va og'ir bo'lmasin, O'zbekiston 2003-yildayoq uning erkin konvertatsiya qilinishiga erishildi.

Zamonaviy ikki pog'onali bank tizimini yaratish orqali mustaqil pul-kredit siyosati yuritish, budjet va pul siyosatining mas'uliyat doirasini aniq belgilab qo'yish, ularning o'zaro samarali munosabatini ta'minlash imkoniyati paydo bo'ldi. Buning natijasida iqtisodiyotimiz manfaatlarini barqaror va ishonchli tarzda qondirib borishga erishildi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy mablag'lardan foydalanish borasidagi mustaqilligi sezilarli darajada oshdi.

Ijtimoiy nuqtai nazardan boshlang'ich bosqichda, iqtisodiyotni va butun jamiyatni isloh qilishning eng murakkab o'tish davrida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish va aholini himoya qilishning o'xshashi bo'lmagan, samarali mexanizmi ishlab chiqilib, muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ko'makka muhtoj oilalarga moddiy yordam berishda asosan o'zini o'zi boshqarishning noyob tuzilmasi bo'lgan mahalla instituti imkoniyatlaridan foydalanish o'zini to'la oqladi. Bu, avvalambor, zarur moddiy va ma'naviy yordamni ochiqlik va oshkoralik tamoyillari asosida aniq yo'naltirish – aholining haqiqatan ham nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularni o'tish davrining qiyinchiliklaridan ishonchli himoya qilish imkonini berdi.

Shu tariqa biz yurtimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlabgina qolmasdan, ayni paytda islohotlar va mamlakatni yangilash borasida olib borayotgan siyosatimizning xalqimiz tomonidan keng qo'llab-quvvatlanishiga ham erishdik.

Davlatimiz «o‘zini o‘zi boqishga kuchi yetmagan o‘lkadan bugun o‘zining kuch-qudrati va salohiyatiga tayangan»¹, izchil iqtisodiy o‘shish ta’minlanayotgan zamonaviy O‘zbekistonga aylandi.

Yuqoridagi o‘z vaqtida ko‘rilgan oqilona chora-tadbirlar chet el ekspertlari ta’kidlaganlaridek, bugungi kunda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O‘zbekistonda yengil kechishining omillari bo‘lib xizmat qildi va qilmoqda.

Mustaqil va suveren davlat maqomini olgan O‘zbekiston endi xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish imkoniga ega bo‘ldi. Shuningdek, totalitar tizim o‘ziga xos usullar bilan ancha kuchli ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy va kadrlar salohiyatini yaratganligini ham aytib o‘tish joiz. Unga tayangan bozor iqtisodiyotiga o‘tish yengil kechadi.

Tayanch tushunchalar:

Konsepsiya, islohot, bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o‘tish, bozor iqtisodiyotining afzalliklari, ijtimoiy himoya siyosati, davlat bosh islohotchi, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi, totalitarizmdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish, ijtimoiy barqarorlik, davlat siyosati.

Savol va topshiriqlar:

1. O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tish konsepsiyasining mohiyatini tushuntiring.
2. O‘zbekistonning bozor iqtisodiyoti sari borishidagi o‘z yo‘lini qanday tushunish kerak?
3. O‘zbekistonga xos qanday xususiyatlar uning bozor iqtisodiyoti sari borishiga ta’sir etganini tushuntirib bering.
4. Nima sababdan davlat bosh (asosiy) islohotchi bo‘lishi kerak?
5. Nima uchun bozor iqtisodiyotiga o‘tish bosqichma-bosqich amalga oshirilishini izohlang.
6. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda ijtimoiy himoyaning qanday ahamiyati bor?
7. BMT, XVF va Jahon banki ijtimoiy sohalarga 20 foizdan ortiq sarflamaslikni tavsiya etadi. Lekin, xalqaro ekspertlarning ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston budjetining 59,2 foizdan ortig‘i ijtimoiy tadbirlarga sarflanayotgani sabablarini sharhlang.

¹ Президент Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма бир йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи. – Халқ сўзи. – 2012. – 1 сент.

8. Qonun ustuvorligini ta'minlashning bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi ahamiyati qanday?

9. Bozor iqtisodiyotining jadal borishini ta'minlovchi kuchlar nimalardan iborat?

Mavzuni chuqur o'rganish instrumentariysi

Demokratik bozor islohotlari – xalq ishtirokida, davlat tomonidan ishlab chiqilgan bozor munosabatlarini shakllantirish chora-tadbirlarining davlat nazorati ostida amalga oshirilishi degani.

Bozorlarni liberallashtirish – muayyan institutsional to'siqlarni bartaraf etish orqali erkin raqobatning yangi ishtirokchilari uchun bozorlarni ochish jarayoni.

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish – liberallashtirish (erkinlashtirish) darajasini yanada oshirish, ya'ni iqtisodiy erkinlikni chuqurlashtirish va kengaytirish.

Bozor infratuzilmasi – bozor iqtisodiyoti uchun xizmat qiluvchi sohalar.

Iqtisodiyotni liberallashtirish – muayyan institutsional to'siqlarni bartaraf etish orqali erkin, sog'lom raqobatning yangi ishtirokchilari uchun bozorlarni ochish jarayoni.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. O'zbekiston mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab o'z umrini o'tab bo'lgan eski mustabid sovet tizimidan voz kechib, mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lini tanladi. Yangi davlat va jamiyat qurishda amalda o'zini to'la oqlagan besh tamoyil asos qilib olindi.

Ushbu tamoyillar avvalo kommunistik mafkuradan butunlay voz kechganimizning yaqqol ifodasi bo'lib, yigirmanchi asrning 90-yillari boshidagi real hayotni o'zida yorqin aks ettirdi va mamlakatimizni isloh etish bo'yicha aniq prinsipial maqsad va vazifalarni belgilab olish imkonini berdi.

O'zbek xalqi aynan ana shu tamoyillardan kelib chiqqan holda, yangi davlat, yangi jamiyat poydevorini barpo etishga kirishdi. Aynan ana shu tamoyillarni amalga oshirish zarurati tufayli *«Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmag»*, *«Islohotlar – islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun»* degan, bugun ko'pchilikka yod bo'lib ketgan hayotiy shiorlar paydo bo'ldi.

Mamlakatimizni isloh etish va yangilashga qaratilgan dasturiy vazifalarni bajarishda O'zbekiston o'z milliy qadriyatlariga, urf-odat va an'alarini saqlashga, xalqimizning asrlar davomida shakllangan mentalitetiga hurmat

bilan munosabatda bo'lishga katta e'tibor qaratdi. Shu bilan birga, muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanadigan zamonaviy demokratik davlat qurishning o'zini oqlagan jahon tajribasini chuqur o'rganish va qabul qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Tarixan qisqa vaqt ichida sovet davridagi eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berildi, milliy davlatchilikni shakllantirishning puxta huquqiy asoslari yaratildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlari tashkil etildi, ijtimoiy va fuqarolik institutlari faoliyati yo'lga qo'yildi, iqtisodiyotni erkin bozor munosabatlariga o'tkazish jarayoni amalga oshirildi. Eng muhimi, aholining ongu tafakkurida tub o'zgarishlar ro'y berdi, ularning uzoq yillar mobaynida kommunistik va sovet mafkurasi tamoyillari asosida shakllantirilgan fikrlash tarzi va dunyoqarashi, bir so'z bilan aytganda, odamlarning o'zi o'zgardi.

2. Bugun yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagini jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, mamlakatimizning kelajagini jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bilan bog'liq holda ko'radigan yangi avlod vakillari hayotga kirib kelmoqda.

Bu esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlarni ortga qaytarib bo'lmasligi, islohotlar muqarrarligining ishonchli kafolatidir. Bugun ana shu mustahkam poydevor asosida mamlakatimizni jadal isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi davri – milliy taraqqiyotimizning keyingi mantiqiy bosqichi izchil davom etmoqda.

3. Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash. Bozor iqtisodiyotiga xos yangi huquqiy tizimning o'zagini Asosiy qonun – Respublika Konstitutsiyasi tashkil etadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining qonunchilik asosini yaratish – bu faqat o'tish davrining majburiy sharti bo'lib qolmay, balki huquqiy davlat barpo etishning o'ziga xos xususiyati hamdir.

3.1. Bozor iqtisodiyotiga xos huquqiy tizimni va huquqiy davlatni barpo etish tamoyillari:

- qonunlarning hayot, amaliyot bilan uzviy bog'liqligi va undan kelib chiqishi;
- qonun hujjatlarining bevosita ta'sir ko'rsatish kuchiga ega bo'lishi;
- qonunga bo'ysunish huquqiy davlatning muhim xususiyati;
- qonunning ustuvorligini ta'minlash;
- huquqiy madaniyat yuqori darajada bo'lishi kerak.

Huquqiy tizim – mamlakat hududida amal qiladigan barcha yuridik vositalar, institutlar va muassasalarning yig'indisi bo'lib, butun jamiyat hayotining huquqiy tashkil etilishini ifodalaydi.

3.2. Davlat iqtisodiy o'zgarishlarning tashkilotchisi va bosh islohotchisi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lishi, iqtisodiyot va ijtimoiy turmushning hamma sohalarini o'zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishi zarur.

3.3. Davlat iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

- bozor iqtisodiyoti huquqiy asoslarini ta'minlash;
- bozor mexanizmi yaxlitligi va uning normal ishlashi uchun shart-sharoit yaratish;
- aholini iqtisodiy jihatdan himoya qilish va daromadlarini adolatli taqsimlash;
- atrof-muhitni muhofaza etish;
- xalqaro iqtisodiy munosabatlarning samarali rivojlanishini ta'minlash.

3.4. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy vazifalari:

- tartibga solinadigan bozor sharoitida asosiy maqsad yo'nalishlarini ishlab chiqadi, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning strategik yo'lini belgilaydi va bu yo'lni o'tkazish yuzasidan taktik xatti-harakatlarni amalga oshiradi;
- bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiy erkinliklarning kafolati vazifasini o'taydi;
- bozor institutlarini yaratish uchun qulay sharoit tug'diradi;
- vujudga kelayotgan ishbilarmonlik tuzilmalari qaror topishi va rivojlanishiga ko'maklashadi;
- aniq maqsadga qaratilgan tuzilma siyosatni amalga oshiradi (ustuvor yo'nalishlarni aniqlaydi);
- hamma ma'lum iqtisodiy vositalar – moliya, kredit, soliq, valuta siyosati, narx-navoni nazorat qilish va bevosita ta'sir o'tkazishning choralari orqali iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tartibga soladi;
- iqtisodiyotni sog'lomlashtirish muammolarini birinchi navbatda hal etadi.

4. O'zbekistonning o'z yangilanish va taraqqiyot yo'liga asos bo'lgan eng muhim qoidalardan biri bozor iqtisodiyotiga o'zining barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazishdir.

5. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi. Bozor iqtisodiyoti tomon izchillik bilan bosqichma-bosqich borishda O'zbekistonga xos xususiyat mana shundadir.

5.1. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishida dastlabki vazifalar:

- bozor iqtisodiyotining huquqiy asoslarini yaratish;
- fuqarolarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish;
- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish;
- bozor infratuzilmasini yaratish;

- mulkning xilma-xil shakllarini rivojlantirish;
- bevosita xo‘jalik aloqalarini har tomonlama rivojlantirish;
- narx-navoni bosqichma-bosqich erkinlashtirish;
- iqtisodiyotning ochiqligi va jahon tizimiga kirib borishini ta‘minlash;
- tadbirkorlikni rag‘batlantirish;
- iqtisodiyotni ma‘naviy barqarorlashtirish, milliy pulni joriy etish.

5.2. *Boshqaruvning ma‘muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o‘tish xususiyatlari:*

- bu mavjud xo‘jalik yuritish usulini yangilash yoki takomillashtirish emas, balki tamoman yangicha xo‘jalik yuritish tizimini joriy etishdir;
- bu bir sifat holatidan ikkinchisiga o‘tishdir;
- bu odamlar uchun mutlaqo yangi hayot falsafasidir;
- bu bir vaqtning o‘zida bo‘ladigan tadbir sifatida amalga oshirilishi mumkin emas, balki bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga oluvchi uzoq davrni talab etadi.

6. *Taraqqiyotning «O‘zbek modeli»ning hayotiyliigi.* Mustaqil rivojlani-
nishning o‘tgan davrini umumlashtirish va tahlil etish isloh qilishning «O‘zbek
modeli» asosli va to‘g‘ri bo‘lib chiqdi, deb aytish uchun to‘la imkon beradi.
Bugun uni obro‘li xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, jahonning ko‘pgina
mamlakatlari tan olmoqda. Eng asosiysi – hayotning o‘zi uni tasdiqlamoqda.

7. *«O‘zbek modeli»ning amaliy natijalari:*

- iqtisodga ortiqcha siyosiy tus berilmadi, mafkuradan xoli etildi;
- iqtisodiy islohotlarni o‘tkazishda davlatning roli kuchaytirildi;
- bozor munosabatlariga o‘tish odamlar ongini o‘zgartirish bilan bog‘liq holda asta-sekin amalga oshirildi;
- iqtisodiy islohotlar kuchli ijtimoiy siyosat bilan qo‘shib olib borildi, bu ijtimoiy keskinlikning oldini olishga olib keldi;
- bor imkoniyatlar, cheklangan resurslar iqtisodiyotning hayotiy ustuvor sohalariga qaratildi;
- mamlakatning neft mahsulotlari, gaz, yoqilg‘i hamda don bilan ta‘minlash sohalariga ustuvor sohalar deb qaraldi;
- ishlab chiqarishning keskin pasayishiga yo‘l qo‘yilmadi.

8. Islohotlar natijasida O‘zbekistondagi barcha yer osti va usti boyliklari, barcha korxonalar, transport va aloqa vositalari, boy xom ashyo, yerimiz, suvimiz respublika mulkiga aylantiriladi. O‘zbekiston markazning iqtisodiy sohaga hukmronligidan xalos bo‘ldi, iqtisodiyotimiz to‘la-to‘kis respublika aholisi manfaatiga xizmat qiladigan bo‘ldi.

9. O‘zbekiston uchun bosh yo‘l va maqsad iqtisodiyoti rivojlangan, xalqi farovon yashaydigan, inson haq-huquqlari to‘la tantana qilgan, chinakam demokratik jamiyat barpo etishdan iborat. Shunday jamiyat sari borishning

sharti bozor iqtisodiyotiga o'tish hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishni barqaror va shaxdam o'stirish vositalarini yuzaga keltirishi bilan istiqbolli hisoblanadi.

Butun dunyo tajribasi ko'rsatganidek, iqtisodiy yuksalish uchun bozor munosabatiga o'tishdan boshqa umid yo'li yo'q. Jahon sivilizatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotning sifat jihatidan yangi yo'llarini ishlab chiqdi, tartibga solingan bozor iqtisodiyoti mana shu yo'lga asos qilib olingan.

10. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lining hamma yerda o'ziga xos xususiyatlari bor. Davlatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekiston konsepsiyasi mana shundan kelib chiqadi va bozor iqtisodiyotiga o'tishda o'z yo'li borligiga asoslanadi. Bu yo'l bozor iqtisodiyotini O'zbekistonning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda izchillik bilan shakllantirib borishni, unga sekin-asta, bosqichma-bosqich, xalqni himoya qila borib, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash orqali o'tishni bildiradi. Ammo bu bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan qandaydir yangi milliy qonuniyatlar bor va ular faqat O'zbekistonga xos degan so'z emas. Bozor iqtisodiyoti umuminsoniy istiqbol yo'li, insoniyat uchun umumiy qadriyat hisoblanadi, uning rivojlanish qonun-qoidalari ham umumiy, lekin bu umumiylik xususiylikni inkor etmaydi, aksincha, uni taqozo qiladi. Bozor iqtisodiyoti mavhumlik emas, aniq ko'rinishga ega va bu har bir mamlakatning o'ziga xos sharoitida ifoda etiladi.

11. Bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasi shu iqtisodiyotning tub belgilarini ilmiy izohlagan holda, ularni shakllantirish yo'llarini ochib beradi. Bozor iqtisodiyoti keng ma'noda erkin, monopollashmagan, yuksak rivojlangan va aniq ijtimoiy mo'ljalga ega bo'lgan iqtisodiyot deb qaraladi, unga iqtisodiy faoliyat erkinligi, mulk shakllarining tengligi; iqtisodiyot subyektlarining raqobatlashuvi, xo'jalik yuritish shakllarining turli-tumanligi, iqtisodiyotni tartiblash zarurligi, ijtimoiy hayotda ijtimoiy hamkorlik munosabati bo'lishi qayd etiladi.

12. O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li – bu ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'li, yangi iqtisodiy tizim zamirida inson manfaatini yuzaga chiqarish, uning mehnatini qadrlash, aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy himoyalash maqsadlari yotadi. Tarixan tasdiqlangan tajribaga ko'ra, bozor mexanizmi ijtimoiy yangilanishning eng samarali vositasi hisoblanadi, chunki u xalqning ijodiy va mehnat potensialini to'la ishga tushiradi, boqimandalik va tekinxo'rlik kayfiyatiga chek qo'yadi, iqtisodiy tashabbus va ishbilarmonlikni rivojlantiradi, har bir kishini milliy boylikni orttirishdagi mas'uliyatini oshiradi, har bir kishini boy qilish orqali jamiyatni ham boy qilib boradi. Bozor munosabatlari ishlab chiqarishni iste'molchining talab-ehtiyojiga bo'ysundiradi, yangilikka, tejamli xo'jalik yuritishga, kasbiy mahorat va tashabbusni qadrlashga undaydi.

13. O‘zbekiston konsepsiyasi bozor iqtisodiyotini ilohiylashtirishdan yiroq, uning o‘z muammolari borligini e’tirof etadi, unga o‘tish uzoq davom etishini, iqtisodiy beqarorlik, ishlab chiqarish munosabatlarida buzilishlar bo‘lishi singari noxush voqealar bo‘lib turishini nazardan qochirmaydi hamda davlat ishtirokida ularning oldini olish va yoyilishiga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlarini ko‘radi. Unga ko‘ra bozor iqtisodiyoti inqilobiy sakrashlar, ijtimoiy to‘qnashuvlar orqali emas, balki tinchlik vaziyatida, ketma-ket evolyutsion o‘zgarishlarni o‘tkazish orqali shakllanadi.

14. Qariyb 21 yillik mustaqil taraqqiyot yillari mobaynida iqtisodiy yutuqlarni tahlil etar ekanmiz, bu natijalarga avvalo keng ko‘lamli tizimli bozor islohotlarini joriy etish va xorijiy investisiyalarni jalb qilish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish hamda boshqa izchil islohotlar, puxta o‘ylangan siyosat orqali erishayotganimizni alohida qayd etish lozim.

Bu haqda chet el ekspertlari har yili dunyoning 162 ta mamlakati bo‘yicha iqtisodiy erkinlik indeksini e‘lon qiladigan «Naslediye» fondi xalqaro reyting agentligining bu boradagi xulosasi e’tiborga sazovor. Bu tashkilot 2000–2007-yillarda O‘zbekistonda erkinlashtirish indeksi 18 punktga yaxshilanib, 53 foizni tashkil qilganini e’tirof etgan edi. 2011-yilda esa «Gallup International» tadqiqot markazi tomonidan o‘tkazilgan so‘rov tadqiqotlariga ko‘ra, O‘zbekiston aholisi hayotdan mamnun bo‘lib yashash bo‘yicha ancha yuqori mavqeda ekan. O‘zbekiston bu borada 13 o‘rinda turishi e’tirof etilgan. Ya’ni mamlakatimizda baxtiyorlik indeksi 62 foizni tashkil qilar ekan.

Hech shubhasiz, bu ko‘rsatkichlar milliy iqtisodiyotimizni erkinlashtirish sohasida sezilarli darajada rivojlanishga erishganimizdan dalolat beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotning ushbu e’tirofi mamlakatimizda izchil olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, mustaqillikning ilk davridanoq belgilab olingan qat’iy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning sobitqadamligi bilan bog‘liq bo‘lib, «O‘zbek modeli»ning hayotiyligini yana bir bor isbotladi.

Yuqoridagi e’tirof, shubhasiz, O‘zbekiston – ulkan imkoniyatlar mamlakati ekanligini tasdiqlaydi. Ulardan oqilona foydalanishda hamjihatlik, ahillik va mehr-oqibat muhiti zarurligini anglashimizning o‘zi mustaqillik, sobitqadamlik, barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

2-BO‘LIM. MIKROIQTISODIYOT

7-MAVZU. TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA UNING TASHKILIIY-HUQUQIY SHAKLLARI

1. Tadbirkorlikning mohiyati, belgilari va prinsiplari

Tadbirkorlik bozor tizimiga xos bo‘lgan maxsus iqtisodiy faoliyat bo‘lib, tovar va xizmatlarni yaratish hamda iste‘molchilarga yetkazib berish orqali foyda topishga qaratilgan biznesning asosiy turi hisoblanadi. Tadbirkorlik maxsus tizim hosil etadiki, bunga tadbirkorlikning obyeksi, subyekti, tadbirkorlik qonun-qoidalari, axloqiy me‘yorlari, tadbirkorlik siyosati va uning infratuzilmasi kiradi.

Tadbirkorlik mulkiy jihatdan xususiy, jamoaviy va davlat tadbirkorligini, yuritilish uslubi jihatidan oshkora va yashirin tadbirkorlikni, yuritilish sohasi jihatidan industrial, agrar va servis tadbirkorligini va nihoyat faoliyat ko‘lami jihatidan kichik, o‘rta va yirik tadbirkorlikni tashkil etadi. Tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi kishilar tadbirkorlar toifasini hosil etadi, ular iyerarxiyasida quyi, o‘rta, yuqori (elita) va eng yuqori (super elita) tabaqalari mavjud bo‘ladi. Mazkur toifa ikki yo‘l bilan shakllanadi, *birinchidan*, tadbirkorlik avloddan-avlodga o‘tadi, *ikkinchidan*, tadbirkorlik qilmaganlar u bilan shug‘ullanadi. Ikkinchi yo‘l o‘tish davridagi mamlakatlarga xos bo‘lib, bu O‘zbekistonda ham kuzatiladi. Chunki mustaqillikka qadar xususiy tadbirkorlik ta‘qib ostiga olingan.

Tadbirkorlik naqadar foyda keltirishini foydalilik, ya‘ni rentabellik darajasi belgilaydiki, bu qancha foyda topilganini, ya‘ni iqtisodiy faoliyatning samaradorligini ko‘rsatadi, buni bilish uchun tadbirkorlik natijasida qo‘lga tekkan foyda sarflar bilan taqqoslanadi, natijada foyda sarflarining necha foiziga tengligi aniqlanadi. Firma ishining samaradorligi tahlil etilganda ishlab chiqarish va mahsulot rentabelligi aniqlanadi. Rentabellikni oshirish uchun ishlab chiqarish restrukturi-zatsiyalanadi, resurslar tejaladi, kapital tarkibi takomillashtiriladi, mehnat motivatsiyasi kuchaytiriladi.

Foydani maksimumlashtirish uni iloji boricha ko‘p olishni bildiradi, bunga rentabellikni oshirish va kapitalni ko‘paytirish, ya‘ni ishlab

chiqarishni kengaytirish orqali erishiladi. Biroq buning uchun ishlab chiqarishning eng maqbul hajmiga erishish zarurki, bunda tovar narxi marginal xarajatlarga tenglashadi. Faqat shundagina narx bilan o'rtacha xarajatlar o'rtasidagi foydani yuzaga keltiruvchi farq eng katta bo'ladi.

Tushgan daromadlar xarajatlarni qoplashga yetmay qolgan taqdirda zarar ko'riladi, buning sababi chiqarilgan tovar va xizmatlarni bozor ko'tarmasdan ular narxining, binobarin daromadning pasayib ketishi va xarajatlarning ortib ketishini yuzaga keltiradi. Zarar me'yorida oshib ketganda, uni qoplash imkoniyati bo'lmay bankrotlik yuzaga keladi, bu firmaning yopilib ketishi yoki boshqalarga qo'shilib ketishini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasida «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonunga ko'ra tadbirkorlarga o'z mol-mulkidan foydalanish erkinligi, mahsulotlarni taqsimlash mustaqilligi, huquqiy tenglik, ixtiyoriy ishga yollash, cheklanmagan daromad olish imkonini kafolatlaydi.

Tadbirkorlikning o'z axloqiy qoidalari bo'lib, ulardan eng muhimi halollik va haromdan hazar qilishdir. Bu qoida islom ta'limotida qo'llanishi shart deb bilinadi. Alloh taolo Qur'oni karimda: «Halol va pokiza nafaqa yenglar va solih ishlar bajaringlar», – deb buyurgan. Hadisi shariflaridan birida payg'ambarimiz: «Halol nafaqa bilan ta'minlash har bir musulmon uchun farzdir»¹, – deganlar. Islom ta'limotiga ko'ra, mehnatsiz qo'lga kiritilgan luqma haromdir. Tadbirkorlar ham o'z rizqu nasibasini halol mehnat bilan topishlari shart, halollik tadbirkorlarning obro'li bo'lishini kafolatlaydi.

Tadbirkorlikning muhim belgilari yoki amal qilish prinsiplari quyidagilar:

– *mulkiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'lish*, ishlab chiqarish omillarining barchasiga yoki ba'zi biriga va yaratilgan tovarlarga egalik qilish;

– *iqtisodiy erkinlik*, xo'jalik faoliyati turini tanlash, uni resurslar bilan ta'minlash, oldi-sotdi ishlarini yuritish, ishlab chiqarishni boshqarishda erkinlik;

– *iqtisodiy xatti-harakatlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish*, ish natijasiga javob berish, tavakkal qilib ish yurita olish, iqtisodiy xatarli ishga qo'l urish;

– *foyda olishga intilish*, foydaga erishish chora-tadbirlarini ko'rish, olingan foydani o'z bilganicha ishlatish;

¹ Қаранг: Сайхон С. Тижорат ва бир луқма ҳалол ош. – Т., 1992. – Б. 6.

– *tijorat siriga ega bo'lish*, biznesga oid va o'zgalarga oshkor etilmaydigan ma'lumotlarni sir tutish;

– *raqobat kurashida qatnashish*, bozorda amal qiluvchi qoidalarga rioya etgan holda halol raqobatda qatnashib, uning g'irrom, yovvoyi usullaridan voz kechish;

– *halollik bilan ish yuritish*, qalloblik, tovlamachilik, firibgarlik, g'irromlik va aldamchilikka moyil bo'lmaslik. Obro'ga ega bo'lish, boshqalarga ishonish va boshqalar ishonchini qozonib sha'n-e'tibor orttirish, firma nomini e'zozlab, unga putur yetkazmaslik, firmani obro'sizlantirmaslik.

O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi (2012-yil 2-may) yangi tahrirdagi qonuniga ko'ra, «tadbirkorlik faoliyati» tushunchasi: «Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulki javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir». Qonunga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati to'g'risidagi asosiy nazariyalar:

– tadbirkorlar, bu noaniq daromadga ega kishilar. Tavakkalchilik xatari uning bosh xususiyatidir (R. Kontilyon bu atamani iqtisod faniga ham olib kirgan);

– tadbirkor – tijorat bilan shug'ullanib, foyda olish maqsadida tavakkalchilik qiluvchi mulk egasi (A.Smit);

– tadbirkor – iqtisodiy agent sifatida foyda olish uchun o'z tajribasi va bilimni tavakkalchilik xataridan qo'rqmay ishga soluvchi shaxs (J. B.Sey);

– tadbirkor – foydaning o'sishini maqsad qilib qo'yadigan, xatarga tayyor turadigan va kishilarni birlashtira oladigan tashabbuskor shaxs (V. Zamberg);

– tadbirkor – ishlab chiqarish omillari uyg'unlashuvining yangi nisbatini izlovchi, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi va novatorlik xususiyatlari yuqori darajada rivojlangan kishi (I. Shumpeter).

Tadbirkor deganda uning o'tmishdagi qo'pol, yovvoyi emas, balki zamonaviy turlari, ya'ni madaniylashgan shakllari haqida so'z yuritiladi. Hozirgi zamon tadbirkori eng avval bozorni talabgir tovarga to'ydira

oladigan tovar ishlab chiqaruvchidir. U yangilikni joriy eta oladigan, ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanib, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, o'zining va o'z jamiyatining boyligini oshiradigan, kishilarning farovonligiga hissa qo'sha oladigan bo'lishi zarur.

Bugungi kunda Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda bizning asosiy ustuvor yo'nalishimiz bundan buyon ham biznes, jumladan, xususiy biznes uchun zarur bo'lgan barcha qulay sharoitlarni yaratishdan, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini izchil kamaytirib borishdan iborat bo'lib qolaveradi».

Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik huquqini himoya qilishga doir qonunchilikni yanada mustahkamlash masalasiga mamlakatimizda katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki tadbirkorlik iqtisodiy taraqqiyotni belgilovchi kuch hisoblanadi.

1.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish zaruriyati

XXI asrda O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri, avval ta'kidlaganimizdek, o'rtacha mulkdorlar sinfi vujudga kelishiga yordam beradigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdir.

Shu bois, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchi, mamlakatimizni taraqqiyot yo'lida faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda.

Prezident Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma majlisida so'zlagan «**Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi**» nomli ma'ruzasida respublikamiz iqtisodiyotida kichik biznes, birinchi navbatda, xususiy tadbirkorlikning roli va ulushini yanada kengaytirish hamda uning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan qonunlarni qabul qilish muhim masala ekanligini ta'kidlab o'tdi. Aytish joizki, bugungi kunga kelib yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi ko'payib, uning yurtimiz iqtisodiyotini rivojlantirishdagi roli sezilarli darajada oshmoqda.

XXI asrning ikkinchi o'n yilligi boshida aholisi soni bo'yicha dunyoda 39-o'rinda turadigan O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishni izchil

davom ettirish orqali davlatimiz iqtisodiy negizlarini yanada mustahkamlash va xalq farovonligini yanada yuksaltirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga davlatimiz rahbari Islom Karimov asosiy e'tiborni qaratib, «*yaqin besh-o'n yil ichida ushbu sohada yalpi ichki mahsulotning salmoqli ulushini ishlab chiqarishga erishish*» vazifasini qo'yadi hamda «*bu sohani rivojlantirish aholini ish bilan ta'minlash va uning daromadlari o'sishining eng muhim manbalaridan biriga aylanishi lozim*» ekanligi va «*mamlakatimizdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning poydevori bo'lmish kichik va o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirishdan iborat*»ligini uqtirib o'tdi. Shu bilan birga, «*xususiy tarmoqning jadal rivojlanishini, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi ko'payishini ta'minlash*» ustuvor vazifa ekanligini bundan qariyb 5–6 yil ilgari ta'kidlaganini eslash joiz. Ushbu sohani rivojlantirishga vaqtida qilingan e'tibor bugunga kelib o'z natijasini berdi. Shu bois, davlatimiz rahbari Islom Karimov: «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi», – deb ta'kidlaganida yuz karra haq edilar. Chunki mulkdorlar sinfi biz qurayotgan huquqiy demokratik davlatning iqtisodiy va siyosiy negizini tashkil etadi.

Darhaqiqat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik dunyoning taraqqiy topgan davlatlarida yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot hajmida yetakchi va hal qiluvchi o'rin egallaydi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, aynan kichik biznes, xususiy tadbirkorlik jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etishda eng samarali vosita, aholi bandligini ta'minlash, uning daromadlari oshib borishining g'oyat muhim omili hisoblanadi. Darhaqiqat, kichik biznesning YAIMdagi hissasi AQShda 50–55 foiz, Buyuk Britaniyada 55–60 foiz, Italiyada 57–60 foiz, Germaniyada 50–55 foiz, Yaponiyada 52–55 foiz, Xitoyda 60–65 foizni tashkil etadi, umumiy bandlikda 50–70 foizni va jami korxonalarda 97–99 foizni tashkil etadi.

Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning tajribasiga yana e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning iqtisodiy o'sishi biznesning ushbu shakliga davlat tomonidan alohida ahamiyat berilayotganligi va qo'llab-quvvatlanayotganligi samarasi ekanini kuzatish mumkin. Masalan, Xitoy davlati hukumatining taxminiga ko'ra, iqtisodiyotning to'liq modernizatsiyasi 2030-yilga kelib tugaydi, bunda hukumat asosiy o'rinni kichik biznes tashkil etishiga e'tibor qaratadi.

«SNN Time Warner Group» tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, Singapur davlati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha dunyoda beshinchi o'rinni egallaydi. Mazkur mamlakatda kichik tadbirkorlik subyektlari mavjud korxonalar umumiy sonining 90 foizini tashkil etadi va har-yili ular tomonidan aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha o'sish 5–6 foiz ko'tarilib bormoqda.

Fan sig'imi yuqori bo'lgan ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik korxonalar rivojlantirilishini qo'llab-quvvatlash borasida Yaponiya tajribasi e'tiborga loyiqdir. Yaponiyada barcha kompaniyalarning 99,6 foizi, sotilgan mahsulotning 55 foizi va sanoatda band bo'lganlarning 80 foizi kichik va o'rta korxonalar ulushiga to'g'ri keladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik nafaqat mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda, balki yuz berishi mumkin bo'lgan turli inqirozlardan chiqib ketishda ham katta ahamiyatga ega va eng asosiysi, barqaror, shu bilan birga, tez moslashuvchan soha hisoblanadi.

Yurtboshimiz tashabbuslari bilan mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq ushbu masalaning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bejiz emas. Binobarin, kichik tadbirkorlikning ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari, kundalik ehtiyoj tovarlari bilan to'ldirishni ta'minlashdagi roli beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati» mavzuidagi xalqaro anjumanning ochilish marosimidagi nutqida «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash nima bilan, qanday omil va sabablar bilan bog'liq edi», degan savolga javob berar ekan, ular quyidagilardan iborat ekanligini ta'kidladi:

birinchidan, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotning muhim tarkibini tashkil qiluvchi tarmoq bo'lgan kichik biznes ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Kichik biznes nafaqat iqtisodiyotdagi ma'lum bir bo'shliqlarni to'ldiradi, balki uni diversifikatsiya qilish va barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni ta'minlashda o'ta muhim rol o'ynaydi.

Tadbirkorlik biznesi aholi bandligi va daromadining o'sishini ta'minlashda, ayniqsa, bizning sharoitda qanday muhim ahamiyat kasb etishini baholashning o'zi qiyin. Quyidagi raqamlarni e'tiborga oladigan bo'lsak, shunday xulosa chiqarish mumkin.

Agar 2005–2011-yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida 5 milliondan ortiq yangi ish o‘rni tashkil etilgan bo‘lsa, ularning 60 foizdan ortig‘i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasiga to‘g‘ri keladi. Buning natijasida hozirgi vaqtda mamlakatimizda ish bilan band bo‘lgan jami aholining 75 foizdan ko‘prog‘i ushbu sohada mehnat qilmoqda.

Yuqoridagi raqamlarning o‘ziyoq ko‘p narsani anglatadi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ishonchli yo‘ldan borayotganidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, tuzilishiga ko‘ra ixcham, qarorlar qabul qilishda tezkor va harakatchan, yangi tartib-qoidalarni qisqa muddatda o‘zlashtiradigan kichik biznes jahon va mintaqalar bozorlaridagi talab va konyunktura o‘zgarishlariga ancha tez moslashadi.

Uchinchidan, kichik biznesni tashkil qilish va yuritish katta xarajat hamda kapital qo‘yilmalarni talab etmaydi. Bu esa ishlab chiqarishni tez va oson modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik qayta jihozlash, yangi turdagi mahsulotlarni o‘zlashtirish, ularning nomenklaturasini muntazam yangilab borish va raqobatdoshligini ta‘minlash imkonini beradi.

To‘rtinchidan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining tahdid va salbiy oqibatlariga yirik korxonalariga nisbatan ushbu sohaning bardosh bera olish qobiliyati ancha yuqoridir. Faqat kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish hamda ushbu sohaning mamlakatimiz iqtisodiyotida ustuvor mavqega ega bo‘lishi natijasida biz 2008–2009-yillarda global inqirozning salbiy oqibatlarini ortiqcha qiyinchilik va talafotlarsiz yengib o‘tish, ishlab chiqarishni jahon bozori konyunkturasi o‘zgarishlarini hisobga olgan holda qisqa muddatlarda qayta tashkil etishga muvaffaq bo‘ldik.

Sanoatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarmog‘ining o‘shish sur‘atlari 2008–2009-yillarda o‘rtacha 23–24 foizni, xizmatlar va servis sohasining o‘shish sur‘atlari esa 15–16 foizdan kam bo‘lmagan ko‘rsatkichni tashkil etdi.

Beshinchidan, kichik tadbirkorlik nafaqat daromad manbai, balki odamlarning ijodiy va intellektual qobiliyatini ro‘yobga chiqarish vositasi hamdir. Mazkur soha har bir kishiga o‘z iste‘dodi va imkoniyatlarini namoyon etish uchun zamin tug‘dirmoqda, shu tariqa tashabbuskor, omilkor, mustaqil faoliyat yurita oladigan, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishga qodir insonlar toifasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o‘rta sinfni shakllantirish uchun muntazam kengayib borayotgan baza bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘rta sinf

esa, ma'lumki, har qanday demokratik jamiyatning asosi bo'lib hisoblanadi va mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

2. Tadbirkorlik tizimi

Tadbirkorlik tizimi – bu tadbirkorlikka xos bo'lgan iqtisodiy munosabatlar va tadbirkorlikning huquqiy tashkiliy jihatlari va unga oid siyosatning yaxlitligi, ya'ni majmuidir.

Bu tizimning nimalardan iborat bo'lishini quyidagi chizmada ko'rish mumkin.



Tadbirkorlik rivojlanib, jamiyatda mustahkam o'rin egallashi uchun aytilgan tizimning barcha bo'g'inlari birgalikda ishlashi kerak bo'ladi. Bular orasida tadbirkorlikka oid qonun-qoidalarga rioya etish alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa, 2010-yil 12-noyabrda bayon qilingan Konsepsiyaga muvofiq, O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va qarorlar qabul qilingan bo'lib, ular faoliyatini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Ularning ayrimlarini keltiramiz:

□ O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi 2012-yil 2-may (yangi tahrirda); «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi 2012-yil 2-may; «Xususiy mulkni himoya

qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi 2012-yil 24-sentabr qonunlari;

□ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida»gi 2005-yil 15-iyun PQ-100-sonli; «Davlat xaridlari tizimini optimalashtirish hamda ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to‘g‘risida»gi 2011-yil 7-fevral PQ-1475-sonli; «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» Davlat dasturi to‘g‘risida»gi 2011-yil 7-fevral PQ-1474-sonli; «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit berishni ko‘paytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2011-yil 11-mart PQ-1501-sonli qarorlari;

□ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2005-yil 14-iyun; «Tadbirkorlik subyektlarining xo‘jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to‘g‘risida»gi 2005-yil 24-iyun; «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2005-yil 5-oktabr; «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2011-yil 4-aprel; «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2011-yil 24-avgust farmonlari;

□ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi (franshizing) shartnomalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 2010-yil 4-noyabr 244-sonli; «Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2011-yil 7-yanvar 6-sonli qarorlari.

Tadbirkorlik faoliyati qonuniylikka asoslanar ekan, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga mas’uliyatli vazifani yuklaydi. Chunki mamlakatda qanchalik o‘rtacha mulkdorlar sinfi mustahkam qaror topsa, jamiyatning iqtisodiy negizlari shu qadar mustahkam bo‘ladi. Barcha ham tadbirkor bo‘la olmaydi, faqat tadbirkorlik qobiliyati sohiblari tadbirkorlikni o‘z zimmasiga oladi. Shu bois, jahon tajribasiga ko‘ra tadbirkorlik qobiliyati iqtisodiy o‘shishning muhim sharti sifatida qaraladi.

Tadbirkorlik g'oyat murakkab va mas'ul faoliyat bo'lganidan uning har xil turlari mavjud. U tasniflanganda mulkiy maqom, qonuniylik, faoliyat turi kabi mezonlar asos qilib olinadi.

Mulkiy jihatdan xususiy, jamoaviy-guruhiy va davlat tadbirkorligi ajratiladi:

Xususiy tadbirkorlik – bu xususiy mulkchilikka asoslangan tadbirkorlik. Bu yerda tadbirkorlikka jalb etilgan moddiy, moliyaviy resurslar, yaratilgan tovar va xizmatlar, ularni sotishdan kelgan daromad, *birinchidan*, individual (yakka tarzidagi), *ikkinchidan*, korporativ (guruh tarkibidagi) xususiy mulk hisoblanadi. Bozor iqtisodining yetakchisi xususiy tadbirkorlik hisoblanadi. Shu sababli O'zbekistonda xususiy mulkning ustuvorligini ta'minlash strategik vazifa hisoblanadi. O'zbekistondagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jami tovar va xizmatlarning 54 foizdan ziyod qismini (2012-y.) yaratgan. O'zbekistondagi xususiy tadbirkorlik xususiy korxonalar (firmalar), fermer va dehqon xo'jaliklari, yakka tartibda biznes qilish doirasida kechadi.

Jamoaviy-guruhiy tadbirkorlik xususiy mulk sohiblari o'z mulkini ko'ngilli ravishda birlashtirganda paydo bo'ladi. Bu turli kooperativlar, uyushmalar va shirkatlardan iborat. Bu yerda mulk ikki qismga ajraladi, *birinchisi* – jamoaga birikkanlarning umumiy mulki, *ikkinchisi* – ularning individual mulki. O'zbekistondagi tadbirkorlikning bu turi kichik kooperativlardan va qishloqdagi shirkat xo'jaliklaridan iborat.

Davlat tadbirkorligi – bu davlatga qarashli korxonalar faoliyati bo'lib, iqtisodiyotning davlat sektorini tashkil etadi. Ular davlat mulki hisoblanadi, lekin bozor qoidalariga amal qilgan holda mustaqil ish yuritadilar. Davlat sektorining iqtisodiyotdagi o'rni har xil bo'ladi, biroq ko'pchilik mamlakatlarda uning yaratilgan tovar va xizmatlar miqdoridagi hissasi 20 foiz atrofida bo'ladi. Tadbirkorlik o'zining yo'nalishi, ya'ni qaysi sohada yuz berishiga qarab, industrial, agrar va servis bizneslariga ajraladi.

Amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlari quyidagilar:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar;

2) ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma kishi, xizmat ko'rsatish sohasidagi va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa tarmoqlarda band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan o'n kishi, ulgurji,

chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan besh kishi bo'lgan kichik firmalar.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – jismoniy shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirishdir. Amaldagi qonunga ko'ra, yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tadbirkor tomonidan mustaqil, xodimlarni yollash huquqsiz, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq sifatida amalga oshiriladi.

Industrial biznes – bu sanoat, qurilish, aloqa va transport sohasidagi tadbirkorlik, unga dinamizm, ya'ni shiddat bilan yangilanib borish xos, lekin bu serxarajat hisoblanadi. Uning asosini sanoat firmalari tashkil etadi. Sanoatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarmog'ining o'sish sur'atlari 2008–2009-yillarda o'rtacha 23–24 foizni tashkil etdi.

Agrobiznes – bu qishloq xo'jaligidagi tadbirkorlik bo'lib, bu ham serxarajat, lekin uning turlari g'oyat cheklangan. Uning asosini fermer xo'jaligi tashkil etadi. Qishloqda fermerlar xo'jaliklariga barcha xizmatlarni ko'rsatayotgan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi shakllantirilmoqda.

Servis biznesi – bu aholiga xizmat ko'rsatishga qaratilgan biznes. Bu kam xarajat hisoblanadi, lekin uning turlari g'oyat ko'p, chunki unga ham dinamizm xos. Bunga tibbiyot, ta'lim, shou (tomosha), sport-turizm (sayyohlik), qimor (kazino, avtomat o'yinlari), madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishga oid biznes turlari kiradi. Iqtisodiyot qanchalik yuksak bo'lsa, servis biznesi shuncha rivoj topadi.

Tadbirkorlik ko'lamini belgilash me'yorlari bir xil emas. Bir mamlakatdagi yirik korxonalar boshqa yerda o'rtacha hisoblansa, yana bir yerdagi kichik korxonalar boshqa yerda o'rta korxonalar safiga kiritiladi. Bundan qat'i nazar, hamma yerda tadbirkorlik ko'lamini belgilashda kapital miqdori, ishlovchilar soni va nihoyat ishlab chiqarish hajmi nazarda tutiladi. Biroq bularning hammasi yoki ayrimlari qo'llaniladi. Turli miqyosdagi tadbirkorlik iqtisodiyotda har xil o'rin tutadi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tovar va xizmatlarning 50–80 foizini yaratadi.

**O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning
rivojlanish sur‘atlari (foiz)**

	2000-yil	2005-yil	2010-yil	2011-yil
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, foiz				
YAIMda	31,0	38,2	52,5	54,0
Sanoatda	12,9	10,0	21,1	–
Ish bilan band bo‘lganlarning umumiy sonida	49,7	64,8	74,3	74,3
Eksportda	10,2	6,0	13,6	16,3

Kimki tadbirkorlik ishi bilan shug‘ullansa, o‘sha tadbirkor deyiladi. Barcha tadbirkorlik birgalikda tadbirkorlar toifasini tashkil etadiki, bu ma’lum guruh kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy yaxlitligini tashkil etadi. Tadbirkorlarga xos umumiylik shuki, ularning barchasi xususiy mulk sohiblari va foyda topishni ko‘zlaydilar, boy-badavlat yashab, ish beruvchilar hisoblanadilar, ular tavakkaliga ishlab, o‘zaro bellashadilar, iqtisodiy faol hisoblanadilar. Mazkur umumiylik tadbirkorlarning maxsus toifa hosil etishiga asos beradi. O‘zbekistonda tadbirkorlar toifasini shakllantirish va mavqeini mustahkamlash yo‘li tutilmoqda. Bu toifaga xususiy korxonalar egalari, qo‘shma korxonalaridagi sheriklar, fermerlar, dehqon xo‘jaligi sohiblari va yakka tartibda biznes bilan shug‘ullanuvchilar kiradi. Biznes turlarining iqtisodiyotdagi salmog‘i har xil bo‘ladi. Yigirma bir yil avval O‘zbekistonda tadbirkorlik deyarli yo‘q edi. Bugun esa mavjud barcha xo‘jalik subyektlarining 90 foizdan ortig‘ini kichik biznes korxonalarini tashkil etadi. 2012-yilda yalpi ichki mahsulotning 54,5 foizi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 22 foizi va qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 98 foizi aynan shu soha hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. O‘tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich katta emas.

Tadbirkorlar boy toifa hisoblansa-da, tarkiban bir xil emas. Katta korxonalar egasini mayda, o‘zi ishlaydigan tijoratchilar bilan solishtirib bo‘lmaydi, albatta. Tadbirkorlarning o‘z iyerarxiyasi, ya’ni martabasiga qarab o‘rin egallashi bor. Ular ham quyi, o‘rtacha, yuqori va oliy tabaqalarga ajraladi. Tadbirkorlar toifasi quyidan yuqoriga qarab quyidagi tabaqalarga ajraladi:

1) faqat foyda olishni ko'zlab, uning ketidan tinimsiz quvuvchi tadbirkorlar. Ular biznesga yangidan kirib kelgan bo'ladilar, shu sababli ular boyib ulgurmagan va *quyi tabaqani* hosil etadilar;

2) foyda ko'rish bilan birgalikda o'z ishidan qoniqish oluvchi tadbirkorlar. Bular ma'lum darajada boylik to'plab ulgurganidan biznesda o'z o'rnini topishga intiladilar. Ularni tadbirkorlarning *o'rta toifasiga* kiritish mumkin;

3) foyda olib, o'z ishidan qoniqish hosil etishdan tashqari biznes olamida o'z hokimiyatini o'rnatishga va raqobatda doimo g'alabaga intiluvchi tadbirkorlar. Ular tadbirkorlik iyerarxiyasidagi yuqori qatlamni hosil etadi, shu sababli *biznes elita* deb yuritiladi;

4) yuqori foydaga ega bo'lishdan tashqari, biznes olamida mutlaq hokimiyat o'rnatishga, o'z biznes imperiyasini tashkil etib biznes tarixida o'z nomini qoldirishga intiluvchilar ham mavjud. Bular biznesdagi *super elitani* hosil etadilar. Uchinchi va to'rtinchi toifadagi tadbirkorlar dunyoning eng boy milliarderlaridir. Dunyoning eng boy odami «Microsoft» firmasining egasi B. Geyts hisoblangan.

O'zbekistonda mol-mulkni xususiylashtirish tartibli ravishda va qattiq nazorat ostida o'tkazilganidan bu yerda katta mulkni tekinga o'zlashtirish hisobidan shakllangan oligarxlar guruhi Rossiyada bo'lganidek yuzaga kelmadi. Shu sababli bu yerda elita va super elita toifalari kuzatilmadi, tadbirkorlar iyerarxiyasida uning birinchi va ikkinchi toifalari asosiy o'rin egalladi. Tadbirkorlik yuzaga kelishi uchun tadbirkorlik qobiliyatining mavjudligi kifoya qilmaydi. Buning uchun yetarli miqdorda kapital ham topilishi kerak. Turli sohalardagi biznesning kapital sig'imi, ya'ni uni boshlash uchun zarur bo'lgan kapital miqdori turlicha bo'ladi. Bir yerda u katta bo'lsa, boshqa yerda kichik bo'ladi. Lekin bundan qat'i nazar, biznes boshlash uchun minimal miqdorda kapital to'plash zarur. Shu massa jamg'arilgach, tadbirkorlik faoliyati boshlanadi. Shu sababli o'tish davrida kapitalning dastlabki jamg'arilishi yuz beradi. Kapital quyidagi yo'llar bilan boradi, bu yo'llar O'zbekistonga ham xos.

Tadbirkorlar toifasi *ikki yo'l* bilan shakllanadi:

1) tadbirkorlik avloddan-avlodga o'tadi, ya'ni bu toifa o'zini o'zi takroran yaratadi. Buning natijasida tadbirkorlar sulolasi paydo bo'ladi. Masalan, AQShda Fordlar, Mellonlar, Dyuponlar sulolasi, Fransiyada Rotshildlar, Germaniyada Krupplar sulolasi yuzaga kelib, so'ngra tarqab ketgan;

2) ilgari tadbirkorlik qilmaganlar tadbirkorlikka qo‘l uradi, natijada tadbirkorlar safiga kirib boradi. Bu yo‘l o‘tish davridagi mamlakatlarga, jumladan O‘zbekistonga xos. O‘zbekistondagi tadbirkorlarning kelib chiqishini tahlili ko‘rsatishicha, ular tadbirkorlikdan oldin turli kasb sohiblari bo‘lganlar. Hozirgi tadbirkorlar avlodi yangidan shakllangan bo‘lsa, ularning so‘nggi avlodi o‘zini o‘zi qaytadan yaratish asosida yuzaga keladi. Tadbirkorlar toifasining shakllanib ulgurishi o‘tish davrining tugallanganini bildiradi, chunki iqtisodiyot bozor qoidalariga amal qiluvchi faol kishilar qo‘liga o‘tadi.

Tadbirkorlik quyidagi guruhlardan tashkil topadi:

➤ mayda ishlab chiqarish bilan band bo‘lgan ishbilarmonlar, ularni odatda yakka tartibda faoliyat ko‘rsatuvchilar deb atashadi;

➤ intellektual mulk sohiblari, aqliy ijodiy mehnat bilan shug‘ullanuvchi kishilar;

➤ fermerlar, tomorqa xo‘jaligi sohiblari, dala hovli egalari;

➤ jamoa va aksionerlar mulkining birgalikdagi egalari.

Aytish joizki, 21 yil avval O‘zbekistonda xususiy tadbirkorlik deyarli yo‘q edi. Totalitar iqtisod bunga yo‘l qo‘ymas edi. Vaholanki, bizda ajdodlarimizdan meros bo‘lgan tadbirkorlik an‘analari tarixiy bo‘lib, otabobolarimiz asrlar davomida o‘z yeri, mulki va kasb-korini e‘zozlab, qadrlab, asrab-avaylab kelganlar. Tariximizda azal-azaldan xususiy tadbirkorlik muhim o‘rin tutgan.

3. Oshkora va yashirin tadbirkorlik

Tadbirkorlik o‘zining qonuniyligi, ya‘ni qonunlarga naqadar mos yuritilishi jihatidan *oshkora va yashirin* tadbirkorlikka ajraladi.

Bu hamma yerda bor, lekin uning miqyosi har xil. Iqtisodiyotga qanchalik erkinlik berilgan bo‘lsa, shunchalik yashirin tadbirkorlik kam bo‘ladi. Bordi-yu erkinlik cheklangan bo‘lib, soliqlar og‘ir bo‘lsa, faoliyat turlarini man etish ko‘p bo‘lsa, yashirin tadbirkorlik shunchalik rivojlanadi. O‘zbekistonda yashirin ishlash kichik korxonalarda, xonaki ishlab chiqarishda, yakka tartibdagi tadbirkorlikka xos. Yashirin tadbirkorlik O‘zbekiston iqtisodiyotida ham mavjud. Bu asosan soliq to‘lamaslik uchun ruxsat olmasdan biznes qilishdan iborat. Yashirin tadbirkorlik ijtimoiy foydali bo‘lganda bozor talabini qondirish uchun kishilar ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar yaratiladi. To‘g‘ri, bu ruxsatsiz bo‘ladi, lekin iqtisodiyotga salmoqli hissa qo‘shadi. Yashirin tadbirkorlikning eng xavflisi – bu kriminal (jinoiy) biznesdir. Bu

kishilarga foyda o‘rniga zarar keltiradigan ishdir. Bunga narkobiznes, parnobiznes, kishilarni o‘g‘irlab qullikka sotish, ularni garovga olib pul talab qilish, yashirin ravishda qurol-aslaha sotish, harom pullarni bank orqali halolab olish kabilar kiradi. Bularning orasida eng rivoj topgani narkobiznes bo‘lib, bu narkotik moddalarni (geroin, kokoin, marixuanna, qoradori, nasha, ko‘knori va boshqalar) ishlab chiqarish va sotishni anglatadi. Hozirgi dunyodagi narkotiklar oldi-sotdisining 50 foiz ziyod qismi Afg‘onistonga to‘g‘ri keladi. Kriminal biznes ashaddiy va g‘oyat zararli faoliyat bo‘lganidan jamiyat unga qarshi bor kuchi bilan kurashadi.

Oshkora tadbirkorlik – ruxsat berilgan va davlat belgilagan qonun-qoidalarga binoan yuritiladigan tadbirkorlik bo‘lib, bu ochiq-oydin yuritiladi. Uning qanday faoliyat bilan shug‘ullanishidan jamiyat ahli xabardor bo‘ladi. Bu iqtisodiyotning rasmiy, ya‘ni oshkora sektori hisoblanadi. Bu yerda tovar va xizmatlarning asosiy qismi yaratiladi.

Yashirin tadbirkorlik – rasman ruxsat etilmagan, lekin amalda xufiyona tarzda va sir saqlangan holda yuritiladigan tadbirkorlik.

Hozirda odam savdosi global xavfsizlik, jamiyat barqarorligi, jahon hamjamiyatining rivojlanishiga tahdid solayotgan jinoyat sifatida baholanmoqda. U xavflilik darajasi bo‘yicha noqonuniy qurol-yarog‘ sotish va narkobiznes kabi transmilliy jinoyatlar bilan bir qatorga qo‘yilmoqda. Odam savdosi transchegaraviy, kompleks xarakterga ega, uyushgan guruhlar tomonidan sodir etiluvchi juda keng tarqalgan jinoyat bo‘lib, unda inson «tovar»ga aylantiriladi. Amalda esa bu qullikning zamonaviy shaklidir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma‘lumotiga ko‘ra, dunyoda har yili 2 million 800 ming kishi odam savdosining qurboni bo‘ladi. Bu esa odam savdosi xalqaro jinoyatchilikning serdaromad moliyaviy manbaiga aylanganligini ko‘rsatib, bu fikr ekspertlarning xulosalariga qaraganda, odam savdosidan yiliga ko‘riladigan daromad 7 mlrd. AQSh dollaridan oshayotganligi bilan tasdiqlanadi. Boshqa ma‘lumotlarga qaraganda, odam savdosi 12 millionga yaqin kishini «to‘riga ilintirib», yiliga 32 mlrd. AQSh dollari miqdorida daromad olayotganligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Odam savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida»gi qonunining 3-moddasiga ko‘ra: *«Odam savdosi – kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqacha majburlash shakllaridan foydalanish, o‘g‘irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste‘mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to‘lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og‘dirib olish orqali odamlardan*

foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish. Odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni yoki ularni shahvoniy foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o'xshash odatlarni, erksiz holat yoxud inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishni anglatadi».

Xalqaro migratsiya tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, odam savdosi bilan shug'ullanuvchi jinoiy guruhlar odamlarni nafaqat jinsiy yoki mehnat ekspluatatsiyasi, balki ularning ichki organlarini transplantatsiya qilish, narkotik moddalarni tarqatish, boshqa turdagi jinoyatlar sodir etish uchun ham yollab majburlamoqdalar. Shuningdek, BMT e'lon qilgan ma'lumotlarda yanada dahshatliroq raqamlar keltiriladi. Xususan, ayni paytda, 12 mln.dan ziyod kishi qullik iskanjasida ekanligi, insoniyatning uzoq o'tmishida bunday ayanchli holat kuzatilmaganligi aytiladi. Biroq, ayrim ekspertlar bu raqamlarni dengizdan tomchi, deya ta'kidlamoqdalar. Ularning hisob-kitoblariga ko'ra, sayyoramiz bo'yicha 200 mln.dan ziyod kishi zamonaviy qulchilik qurboniga aylangan. Qiyoslash uchun: so'nggi 400 yil davomida birgina Afrika qit'asidan okeanorti mamlakatlariga 12 mln.dan ziyod tirik tovar olib ketilgan. Ushbu jinoyat chegara bilmas jinoyatga aylanib, hozirgi kunda dunyoning 127 mamlakatiga tarqalgan. 137 ta davlatga esa, iqtisodiy beqarorlik, surunkali ishsizlik hukm surayotgan joylardan majburiy ishlatish uchun odamlar keltirilishi davom etmoqda. Ushbu qabih jinoyat insoniyatning kelajagi bo'lgan bolalarni o'z domiga tortayotgani esa eng xunuk va eng dahshatli ijtimoiy hodisaga aylandi. Yana Xalqaro migratsiya tashkiloti ma'lumotini keltiramiz. Unga ko'ra, 2010-yilning 1-yanvariga qadar 5,7 mln. bola o'g'irlangan bo'lib, ulardan 1,2 mln. nafari qurbon bo'lgan, qolganlari esa og'ir mehnatga jalb etilgan. Asosan norasidalarining sog'lom tana qismlari pullansa, qo'lida qurol ushlay oladigan 300 mingga yaqin bola mintaqalardagi mavjud 30 ta qaynoq nuqtalarda askar sifatida jalb qilishga majburlanmoqda.

Alohida ta'kidlanishi lozim bo'lgan holat shuki, shahvoniy va boshqa g'araz maqsadlarda yollangan ayollarning asosiy qismi «iste'molchi» davlatlar – Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni va Turkiya mamlakatlariga yuborilgan. Fuqarolarimiz chet davlatlarga «tranzit» mamlakatlar Qirg'iziston, Qozog'iston, Rossiya, Ukraina, Armaniston, Ozarbayjon Respublikalari orqali olib chiqilgan. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning 85–90

foizi Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston Respublikasida tekin ishchi kuchi sifatida foydalanilib, ekspluatatsiya qilingan.

Jinsiy ekspluatatsiyada jabrlanuvchilardan ko‘chada, fohishaxonalarda, striptiz klublarda, restoran va tungi barlarda, saunalarda, uqalash xonalarida, shaxsiy uylarda mijozlarning xohishiga ko‘ra barcha turdagi jinsiy xizmatlarni bajarishlari talab qilinadi va sutkalab ekspluatatsiya qilinadi. Bular faoliyati yashirin sexlar (jinoiy biznes) faoliyatiga aylantirilgan.

So‘nggi paytlarda MDH mamlakatlari ommaviy axborot vositalari ushbu dahshatli ijtimoiy hodisaning qurboni bo‘lmasliklari uchun quyidagi ma‘lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazishga harakat qilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston OAV tomonidan jabrlanuvchilarni bo‘ysundirish maqsadida shaxsiy hujjatlarini olib qo‘yish; yo‘l xarajatlari uchun berilgan pul qarz ekanligi va uni ishlab qutulishi lozimligini uqtirish; boshqa insonlar bilan aloqa qilishini mutlaqo cheklash, yopiq xonadonlarda saqlash, doimiy nazoratda ushlab; mahalliy huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilmaganligi uchun javobgarlikka tortilishi va deportatsiya qilinishi; ularga yoki ularning yaqinlariga nisbatan jismoniy yoki boshqa turdagi zo‘ravonlikni qo‘llash bilan qo‘rqitish kabi holatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yetkazilmoqda. Bu fuqarolarimizda ogohlikni oshirish va shu kabi hodisalarning qurboniga aylanmaslikning oldini olish maqsadida qilinmoqda.

4. Davlatning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilishda ichki ishlar idoralari xodimlarining roli

4.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi

Tadbirkorlik o‘z-o‘zidan, davlat ishtirokisiz, uning yordamisiz rivoj topmaydi. Davlat soliqlar, subsidiyalar, eksport imtiyozlari, o‘zining axborot xizmatlari orqali, shuningdek, o‘z hisobidan bepul umumiy ta‘lim berish orqali tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Darhaqiqat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy xususiyatlaridan biri iqtisodiyotning ushbu sohasi doimo davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga ehtiyojmand ekanligidir. Davlat *moddiy-texnik, informatsion, texnologik, maslahat, marketing, ta‘lim xizmati, moliyaviy ta‘minot* va boshqa yo‘nalishlardagi tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi va tartibga soladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat davlat va

jamiyat taraqqiyotida, balki har bir insonning yuksalib borayotgan hayotiy ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega, ya'ni xizmat ko'rsatish, chakana savdo, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish kabi sohalarda ushbu faoliyat yaqqol namoyon bo'ladi.

Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish jarayonlarida tadbirkorning banklar bilan aloqalarida iqtisodiy erkinligi ta'minlanishiga katta e'tibor berilmoqda. Tadbirkorning o'zi tanlagan bankda o'z hisob varag'i (schoti)ni ochishi, o'z pul mablag'larini o'z bilganicha qonuniy sarflashi, mablag'ini naqd pul qilib yoki naqd pulsiz schotdan schotga ko'chirib olishiga imkoniyat yaratilmoqda. Tadbirkor qonuniy faoliyat bilan shug'ullanganda, uning moliyaviy ishlariga hech kim aralashishga haqli emas. Mamlakatimizda tadbirkorlarning budjet bilan ham erkin aloqada bo'lishiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Belgilangan soliq summasini budjetga to'laydi, budjetdan tegadigan pulni o'zi o'zlashtiradi.

Keyingi-yillarda tadbirkorlik subyektlarini «bir darcha» orqali tezlik bilan davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimi hamda bir necha turdagi soliqlarni to'lash o'rniga kichik biznesni yagona soliq to'lovi shaklidagi soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi joriy etildi. Bunda kichik firmalar va korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 2005-yilda 13 foiz, 2008-yilda 10 foizdan 8 foizgacha, 2009-yildan boshlab esa 7 foizgacha pasaytirilgan bo'lsa, 2011-yilda 6 foizga, 2012-yilda 5 foizga tushirildi. Xalq amaliy san'ati va oilaviy biznes obyektlari esa umuman soliqqa tortilmaydi yoki eng kam stavka bo'yicha soliqqa tortiladi. Davlat soliq qo'mitasidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, ushbu tadbirlar natijasida 2011-yilda tadbirkorlar ixtiyorida 58 milliard so'm mablag' qoldirildi. Bu ularning yangi istiqbolli loyihalarni amalga oshirishlari uchun xizmat qiladi, deganidir. Yangidan tashkil etilayotgan kichik va xususiy korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun imtiyozli kreditlash tizimi yaratildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan «Mikrokreditbank» tashkil etildi. Shu o'rinda alohida qayd etish kerakki, hatto jahon moliyaviy inqirozi sharoitida ham yalpi ichki mahsulotda soliq yukini yengillashtirish O'zbekistondagi soliq siyosatining muhim jihatidir.

Tadbirkorlik yuridik jihatdan qayd etiladi, uning shart-sharoiti, qonun-qoidalari, haq-huquqini belgilovchi, davlat va jamoatchilik tomonidan himoya qilinishi va kafolatlanishini ta'minlovchi qonunlar, farmon va qarorlar amalga kiritilgan. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-mayda qabul qilingan yangi tahrirdagi «*Tadbirkorlik faoliyati*

*erkinligining kafolatlari to'g'risida»*gi qonunida tadbirkorlarga o'z mulkidan foydalanish erkinligi, mahsulotlarni taqsimlash mustaqilligi, huquqiy tenglik, ixtiyoriy ishga yollash, cheklanmagan qonuniy daromad olish imkoni kafolatlanadi. 2011-yilning «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik-yili» deb e'lon qilinishi zamirida jamiyatimiz ko'zlagan maqsad inobatga olingan edi. U ham bo'lsa, dunyoning demokratik taraqqiy topgan mamlakatlari qatoridan o'rin egallashdir.

Respublikamizda so'nggi-yillarda kichik biznesning roli va ahamiyatini inobatga olgan holda, uni qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirib borilmoqda, bular mamlakatimizda 2009–2012-yillarga mo'ljallangan **Inqirozga qarshi** dastur hamda «**Barkamol avlod**» yili davlat dasturi talablari asosida 2009-yil 15-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «*Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida*»gi 1112-qarori hamda 2010-yil 28-iyuldagi «*Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida*»gi 4232-farmoni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 10-iyundagi «Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ruxsatnomalar olish tartibotlarini takomillashtirish va soddalashtirish to'g'risida»gi 158-sonli hamda 2009-yil 29-iyuldagi «Oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 216-sonli qarorlaridir.

Prezident Islom Karimovning Oliy Majlis palatalarining 2010-yil 12-noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi «**Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi**» nomli ma'ruzasida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda biznesni tashkil qilishning ushbu shakli biznesni yuritishda yuzaga kelgan milliy an'analarimizga, xo'jalik yuritish faoliyatining mavjud holatiga to'la mos keladi.

Oilaviy biznesni kengaytirish O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizda ushbu tarmoqning roli muntazam ortib bormoqda. Oilaviy biznes muhim daromad manbaiga aylanmoqda. Darsligimizda 2011-yil 2-aprelda «Xalq so'zi» gazetasida e'lon qilingan, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan aholi o'rtasida oilaviy biznesning bugungi ahvoli va uni rivojlantirish

istiqbollari aniqlashga bag'ishlab o'tkazilgan so'rov natijalarini keltirishni lozim topdik. Unda yurtimizning barcha hududlaridan aholi qatlamlari vakillari ishtirok etdi. So'rov qatnashchilari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi o'z rivojlanish jarayonida jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning muhim kafolatlaridan biri bo'lib xizmat qilayotganini qayd etdilar.

Mamlakatimizda 2011-yilning «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb e'lon qilinishi munosabati bilan tegishli Davlat dasturi qabul qilindi. Unda amaldagi me'yoriy-huquqiy bazani tanqidiy baholash va takomillashtirish, ushbu sohadagi islohotlarni izchil rivojlantirish va jadallashtirish bo'yicha zamon talablariga javob beradigan yangi qonun hujjatlarini qabul qilish muhim vazifalar sirasiga kiritildi.

O'zbekistonda xalqimizning eng yaxshi milliy an'analarini qayta tiklash, jumladan, odamlarning hunarmandchilik va xususiy biznes yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Bu borada oilaviy biznes ijtimoiy ishlab chiqarishning ana shu ko'nikmalarini qo'llash va rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashadigan samarali tashkiliy-huquqiy omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

So'rov davomida bugun mamlakatimizda *har to'rt oiladan biri oilaviy biznes bilan shug'ullanayotgani aniqlandi. Har uch oiladan biri qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirmoqda, har olti oiladan biri savdo sohasida mehnat qilmoqda, har sakkiz oiladan biri hunarmandchilik hamda kundalik ehtiyoj tovarlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotir. So'rov ma'lumotlariga ko'ra, oilalarning 6,5 foizi transport xizmatlarini ko'rsatish sohasida mehnat qilmoqda. Oilaviy biznes tibbiy, ta'lim, huquqiy va boshqa turdagi xizmat ko'rsatish sohalarida ham rivojlanmoqda.*

Ijtimoiy tadqiqot qatnashchilari o'z oilaviy biznesini amalga oshirishga yordam berayotgan mavjud shart-sharoit va qoidalarni ijobiy baholaydi. So'ralganlarning 41,3 foizi bu qoidalar oilaviy biznesni samarali rivojlantirish imkonini berayotganini qayd etdi.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda oilaviy biznes katta istiqbolga ega ekanini tasdiqladi. Ayni paytda ishtirokchilarning 53,8 foizi iqtisodiyot real sektorining ushbu sohasini kengaytirish uchun *oilaviy biznes huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq muayyan qiyinchiliklarni bartaraf etish zarur*, deb hisoblaydi. Prezidentimiz ham «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da bu masalaga alohida e'tibor qaratgan.

So'rov natijalariga ko'ra, mamlakatimizning barcha hududlarida yashayotgan oilalarning uchdan bir qismi kelajakda o'z oilaviy biznesini yo'lga qo'yishni istaydi. Ularning orasida qishloq ahli shaharliklarga qaraganda 1,2 marta ko'p. So'rov qatnashchilarining aksariyati oilaviy biznesini *umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik, savdo, qishloq xo'jaligi*, jumladan, *chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish, xizmat ko'rsatish, tikuvchilik* va boshqa sohalarda tashkil etish istagini bildirgan.

Fuqarolarimizning fikricha, davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan Konsepsiyaga muvofiq, oilaviy biznesni tashkil qilishning qonunchilik bazasini yaratish huquqiy kafolatlarni yanada mustahkamlash imkonini beradi va ushbu sohani jadal rivojlantirish sharoitlarini shakllantiradi. Shuningdek, joylarda rasmiyatchilik holatlariga barham berishga ko'maklashadi. Muxtasar aytganda, «*Oilaviy biznes – rivojlantirishning yangi bosqichi*» mavzuida o'tkazilgan so'rov mamlakatimiz aholisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning qonunchilik tashabbuslarini to'liq qo'llab-quvvatlashini ko'rsatdi. Chunonchi, so'rov natijalariga ko'ra, fuqarolarning aksariyati (92,9 foiz) «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da qayd etilgan biznesning yangi shakli – oilaviy biznesning tashkiliy-huquqiy bazasini qonuniy belgilash zarurligi to'g'risidagi qoida milliy iqtisodiyotimiz va aholi farovonligini jadal yuksaltirishda o'ta muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi.

Darhaqiqat, ijtimoiy hodisa bo'lmish oilaga ilmiy tadqiqotlarda ham borgan sari ko'proq va asosliroq e'tibor berilmoqda. 1992-yilda iqtisodiyot sohasi bo'yicha Nobel mukofoti amerikalik olim Garri Bekkerga mikroiqtisodiy tahlilni oilaning faoliyatini shakllantirishni boshqarishgacha kengaytirgani uchun berildi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim sohasi oilaning iqtisodiy darajasidir. Oila iqtisodining baquvvatligi, uning farovonligi **ijtimoiy xotirjamlikni** kafolatlaydi. Oila iqtisodiy tizimning *bosh nuqtasi*, u faqat iste'molchi emas, balki ishlab chiqaruvchi hamdir. Oilaga *iqtisodiy hujayra* deb qarash zarur.

Ko'pchilikka ma'lum bo'lgan shaxsiy tomorqa xo'jaligining yoyilganligi bilan ajralib turadigan O'zbekistondagi vaziyat muayyan darajada oila iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun qulay sharoit mustaqillikka qadar davlatimiz rahbari Islom Karimov tashabbusi bilan ta'minlangan. Yurtboshimiz Vatanimiz poytaxti Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida «Qishloq xo'jalik sohasini, qishloq taraqqiyotini mamlakatimiz rivojining yetakchi

kuchi sifatida davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi darajasini koʻtarishga alohida ahamiyat berilganligi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotimiz negizlarini mustahkamlashda muhim omil boʻlganligini» taʼkidlagan edi.

Binobarin, jamiyat hayotini modernizatsiyalash davrida boshqa sohalar qatori qishloq joylarida ham ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish, aholi turmush darajasini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, qishloqda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, maʼnaviy islohotlarni amalga oshirish jarayonida aholi turmush tarzini yuksaltirish, fuqarolarni ijtimoiy himoyalash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Shu oʻrinda nafaqat qishloq joylarda ajratilgan tomorqalar, balki shahar joylardagi tomorqalardan samarali foydalanish ham tadbirkorlik ekanini eslatib oʻtish joizdir. Afsuski, davlatimiz tomonidan ajratilgan tomorqalardan joylarda oqilona foydalanilmayapti. Shu bois mutasaddi tashkilotlar, rahbarlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari, faollar joylarda tomorqalardan samarali foydalanishga oid targʻibot-tashviqot ishlarini kundalik faoliyatiga aylantirishi lozim. Chunki bugungi kunda tabiat injiqliklari, global iqlim, qurgʻoqchilik oqibatida oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash jahon miqyosida muammoga aylanmoqda. Bu jahonda oziq-ovqat narxlarining oʻsishiga olib kelyapti. Tomorqa xoʻjaligining mavjudligi ham oilada ish bilan band etish va daromad olishning samarali omili hisoblanadi.

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, davlatning iqtisodiyotga taʼsiri iqtisodiy, huquqiy va maʼmuriy usullar orqali yuz beradi. Soʻnggi yillarda iqtisodiyotimizni isloh qilishning eng muhim yoʻnalishlari sifatida davlat va nazorat tuzilmalarining korxonalar, moliya xoʻjalik subyektlari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy erkinligi va huquqlarini sezilarli darajada kengaytirish boʻyicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Noqonuniy tekshiruvlar soni kamaydi.

Biznesning erkin faoliyat koʻrsatishining asosiy majburiy shartlaridan biri, birinchi navbatda, **tadbirkorlik erkinligining kuchli huquqiy kafolatlarini taʼminlash**, ularni soʻzda emas, amalda bajarish, **davlat, huquq-tartibot, nazorat organlari va tuzilmalari tomonidan ularning faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarga chek qoʻyish** hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlarining davlat, huquqni muhofaza etuvchi va nazorat organlari bilan oʻzaro munosabatlarida tadbirkorlar huquqlarining ustuvorligi tamoyili qonunchilik darajasida joriy etilgan, bunda qonunchilikdagi har qanday qarama-qarshilik va nomuvofiq oʻrinlar

tadbirkorlar foydasiga talqin qilinishi kerak. Kichik biznes subyektlarida ular ro'yxatdan o'tgan paytdan boshlab uch yil davomida rejali soliq tekshiruvlarini o'tkazishni taqiqlaydigan va keyinchalik barqaror faoliyat yuritayotgan, soliq qonunchiligi va tartib-intizomga qat'iy rioya qilayotgan soliq to'lovchilarda tekshiruvlar o'tkazishni cheklaydigan tartib joriy etilgan.

2005-yildan boshlab tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning ruxsat berish tizimidan xabardor qilish tizimiga o'tildi. O'z biznesini ochish uchun tadbirkorga ikki kundan ortiq bo'lmagan muddat talab etiladi va bu qoida rivojlangan davlatlarda amal qilayotgan mezonlarga javob beradi. **O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan institutsional va bozor infratuzilmasini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.** Tovar-xomashyo birjasi bozorda narxlar shakllanishi va yuqori likvidli xomashyo resurslari va tovarlaridan teng foydalanish imkoniyatini yaratishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda birja savdolarining izchil yo'lga qo'yilgan mexanizmi mavjud bo'lib, u har bir tadbirkorga **xomashyo resurslaridan birja savdolari orqali teng va hech qanday to'siqlarsiz foydalanish imkoniyatini bermogda.**

2012-yilda mamlakatimizda eksport qiluvchi korxonalar, shuningdek, xorijiy investorlar uchun qo'shimcha rag'bat va imtiyozlar berildi. 2012-yilning iyul oyida Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan hamkorlikda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada ko'proq erkinliklar berish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ular asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ikkita farmoni qabul qilindi.

Mamlakatimizda statistik, moliyaviy va soliq hisobotlarini taqdim etish, soliq va majburiy to'lovlarni to'lash, ro'yxatga olish va ruxsat berish jarayonlarini amalga oshirish, xo'jalik sudlariga da'vo arizalari va tavsiyanomalar kiritish bo'yicha elektron tizimni keng joriy etish ko'zda tutilgan bo'lib, bu o'z navbatida davlat, nazorat qiluvchi organlar bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi bevosita aloqalarni sezilarli darajada qisqartirish yoki butunlay bekor qilish imkonini beradi.

Tasdiqlangan choralar 2012-yilning 1-avgustidan boshlab biznesni ro'yxatga olish paytidagi tartib-qoidalar sonini ikki barobar qisqartirish imkonini berdi, ro'yxatdan o'tishdan avval birlamchi ustav jamg'armasini shakllantirish bo'yicha talab bekor qilindi, tadbirkorlik subyektlarining sud xarajatlari 2,5 barobar qisqartirildi.

Davlatning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvini tubdan kamaytirish maqsadida joriy yilda ruxsat berishga oid 80 ta tartib-qoida, shuningdek, litsenziyalanadigan faoliyat turlarining 15 tasi bekor qilindi, moliyaviy hisobotlarni topshirishning shakllari va davriyligi 1,5 barobar qisqartirildi. Bundan tashqari, 2013-yilning 1-yanvaridan boshlab 65 ta statistik hisobot va 6 ta soliq hisoboti shaklini bekor qilish, ularni topshirish davriyligini ikki barobardan ziyod qisqartirish haqida qaror qabul qilindi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov: «Mamlakatimizda qabul qilingan qonunchilik talablariga ko‘ra, **davlat organlarining noqonuniy qarorlari, mansabdor shaxslarning xatti-harakati yoki harakatsizligi, shuningdek, qonunchilikka zid tarzda qabul qilingan idoraviy hujjat tufayli tadbirkorlik subyektiga yetkazilgan zarar davlat tomonidan qoplanadi**»¹, – deb alohida qayd etishi bugun tadbirkorlik taraqqiyotni belgilovchi kuch ekanligidan dalolat beradi.

Jumladan, bugungi kunda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish talab etilmoqda. Xususiy tadbirkorlikning samarali faoliyat yuritishi, yangi xususiy korxonalarni tashkil etish va ularni rivojlantirishda qator moliyaviy, ma‘muriy va tashkiliy muammolar saqlanib qolayotganligi bois davlatimiz rahbari Islom Karimov «boshqaruv tizimini takomillashtirish, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida **«Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to‘g‘risida»gi qonunni** ishlab chiqish va qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun zarur bo‘lgan ruxsat berish tartib-qoidalarining qat‘iy cheklangan ro‘yxati va turlarini aniq belgilab qo‘yish, **qonunda nazarda tutilmagan ortiqcha ruxsatnoma va ruxsat berish tartib-qoidalarining yangi turlari kiritilishini qonun bilan keskin taqiqlash zarur**»ligini vazifa etib belgiladiki, bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi uchun yanada qulay va keng imkoniyatlar yaratadi.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bu sohada qonunchilikni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Prezident Islom Karimov ham Konsepsiyada

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг «Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий сиёсатни амалга оширишда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikнинг роли ва ахамияти» мавзуидаги халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқи //Халқ сўзи. – 2012. – 15 сент.

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi qonunchilik bazasini takomillashtirish zarurligini ta'kidlagan. Jumladan, Konsepsiyada ta'kidlanganidek, *«hozirgi vaqtda yana bir muhim masala – mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes, birinchi navbatda, xususiy tadbirkorlikning roli va ulushini yanada kengaytirishni ta'minlay oladigan qonunlarni qabul qilish* masalasi biz uchun dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonning bu yilgi yalpi ichki mahsulotida kichik biznesning ulushi 54 foizdan ortib borayotganiga qaramasdan, afsuski, bu soha real iqtisodiyotimizda, avvalambor sanoatda yetakchi o'rinni egallay olmayapti. Ushbu vazifani hal etish uchun **«Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunning** yangi tahriri 2012-yil 2-mayda qabul qilindi. Bu qonunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilish yo'llarini soddalashtirish, ularning faoliyati uchun ko'proq erkinliklar berish ko'zda tutilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda 30 ta tijorat banki, 115 ta kredit tashkiloti, 36 ta mikrokredit tashkiloti hamda 28 ta lombard faoliyat yuritmoqda. Endilikda ushbu moliya muassasalari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yaqin hamkoriga aylanayotir. Respublikamizda 2010-yilda ushbu soha vakillariga ajratilgan kreditlar hajmi 1,4 barobarga ko'payib, 2 trillion 700 milliard so'mni tashkil etdi.

Yaratilgan huquqiy zaminlar, qabul qilingan kafolatlari, imtiyoz va preferensiyalar hayot, najot, saodat yo'li bo'lgan kichik biznesning jadal rivojlanishiga imkoniyat yaratdi, buning natijasida uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000-yildagi 31,0 foizdan 2012-yil yakuniga kelib qariyb 55,0 foizga yetdi. Bugungi kunda jami band aholining 74,3 foizdan ko'prog'i mazkur sohada mehnat qilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksportda 13,6 foiz, importda 36,6 foiz ulushga ega bo'lgani bejiz emas. Muhim yangilik yana shundan iboratki, bugunga kelib kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning natijasi sifatida aholining daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad ulushi tobora salmoqli o'rin egallayotganini alohida qayd etish lozim. Chunki barcha daromadlarning 51 foizdan ortig'i tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu natijalar mamlakatimizda so'nggi yillarda kichik hajmdagi moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning maxsus samarali shakli hisoblangan mikromoliyalash tizimini rivojlantirishga e'tibor qaratilganidir.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirishda «2011-yil – Kichik biznes va xususiy

tadbirkorlik yili»ning o'rnini beqiyosligiga to'xtalib, «*Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili*» bo'yicha qabul qilinadigan davlat dasturida bir qancha ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidladi.

Ustuvor yo'nalishlardan biri – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratishdan iboratligi Prezidentimiz ma'ruzasining markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Unda oxirgi-yillarda tadbirkorlik sohasida o'z ishini ochish uchun ruxsat olish, soliq, moliya va statistika organlariga hisobot topshirish masalalarini tartibga solish bo'yicha ancha ishlar qilingani va qilinayotgani ta'kidlanib, lekin bu sohada bajaradigan ishlarimiz hali kam emasligi ko'rsatib o'tildi.

Ayni paytda, kichik biznes subyektlarining *energiya, gaz, suv va kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti* va boshqa shu kabi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi yoki ularni qurishda ishtirok etishi uchun ruxsat olish tartib-qoidalarini soddalashtirish masalasi bo'yicha ham dasturda aniq chora-tadbirlar belgilanishi va ularning ijrosini qat'iy nazoratga olish yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ushbu soha rivoji uchun yanada keng yo'l ochib berish maqsadida mavjud normativ-huquqiy bazani tanqidiy nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish, yangi qonun hujjatlarini qabul qilish masalasiga to'xtaldi.

Bu haqda Islom Karimov joylarda kichik bo'lsa ham o'z ishini, o'z biznesini ochishga intilayotgan xususiy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash o'rniga, mahalliy amaldorlar tomonidan ularni ko'rolmaslik, qo'lidan ish keladigan odamlarning yo'lga turli-tuman g'ov-to'siqlar qo'yilayotganiga aslo toqat qilib bo'lmasligini aytib o'tib, keyingi yillarda bunday salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida tegishli ishlar olib borilayotganligi, jumladan, korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyatiga davlat va nazorat tuzilmalarining aralashuvini keskin kamaytirish, shuningdek, xo'jalik va tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy huquq va erkinliklarini sezilarli darajada kengaytirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilganini ta'kidladi. Lekin nazorat organlariga mansub ayrim mansabdorlar malakasining pastligi hanuz o'tkir muammo bo'lib qolayotganligi va ishimizga salbiy ta'sir o'tkazayotganligini kuyinib gapirdi.

Shular qatorida ko'pgina viloyat va tumanlarda *korrupsiya* degan balo, ya'ni *poraxo'rlik, tamagirlik, xizmat vazifasini suiiste'mol qilish*

kabi illatlar uchrab turayotganini inkor etib bo'lmashligini, qonunga zid bo'lgan bunday xunuk holatlar bilan murosa qilishga chek qo'yishning vaqti kelganligi, yoshi va vazifasidan qat'i nazar, bizningcha, keng jamoatchilik ongiga korrupsiyaning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarda mamlakatning barqarorligi va iqtisodiy o'sishiga g'ov ekanligi, oxir-oqibatda aholi farovonligini o'stirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi illat ekanligini singdirish zarurligi davlatimiz rahbari tomonidan alohida qayd etilgan.

Mamlakatimizning barcha mintaqalarida biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishchan muhit yaratish, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesga yanada keng erkinlik berish, byurokratik to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligi talabidan kelib chiqib, «**Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to'g'risida**»gi qonun qabul qilindi. Qonun haqidagi ma'lumotimiz kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarning bu boradagi yangiliklardan xabardor etishga ko'mak beradi.

Darhaqiqat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishida ishlab chiqilgan qonunning ahamiyati va dolzarbligini qayd etish maqsadida yaqin o'tmishga bir nazar tashlab, tadbirkorlar o'z ishini boshlashi uchun zarur bo'lgan ruxsatnoma va kelishuvni olishda qanday qiyinchiliklarga duch kelganini bugungi kunda e'tirof etib o'tish zarur. Chunki, ushbu hujjatlarsiz ish boshlab bo'lmashligi barchamizga yaxshi ma'lum. Zero, tadbirkor o'z biznesi bilan shug'ullana turib, amaldagi tartib-qoidalarga rioya etmog'i, boshqalarning huquq va qonuniy manfaatlarini hisobga olishi zarurdir.

Ammo ruxsat beruvchi hujjatlarni olish ko'plab muammolar bilan bog'lanib ketgan edi. Mahtal bo'lib kutilgan ruxsatnoma qanchaga tushganini tadbirkorlarning ko'pchiligi yaxshi ma'lum. Chunki ular uzoq vaqt mobaynida idoralar ostonasida sarg'ayib turishga, turli hujjatlarni yig'ishga vaqt, kuch va anchagina mablag' sarflashga majbur bo'lishardi. Ish shu darajaga borgan ediki, hatto har bir idora turli xil ichki idoraviy buyruq va qoidalar chiqarib, o'zlari tartib o'rnatgan edi. Ushbu me'yoriy hujjatlarning ayrimlari amaldagi qonunchilik normalariga ham muvofiq emas edi.

U yoki bu turdagi ruxsatnoma va kelishuvlar olishni tartibga soluvchi qoida hamda me'yorlarning shaffof emasligi, shuningdek, ushbu hujjatlarni beradigan organlarning ko'pchiligi qo'shimcha ma'muriy to'siqlarni yaratib, O'zbekistonda tadbirkorlik va sog'lom raqobatchilik muhitining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatardi. Sir emas, ayrim

amaldorlar yuzaga kelgan vaziyatdan o'zining shaxsiy g'arazli maqsadlarida ham foydalanganlar. Bugunga kelib Prezidentimiz qo'ygan talablar asosida ushbu muammolarni hal etish uchun aniq chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Bunday ishlar, ayniqsa, mamlakatimizda faol demokratik o'zgarishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davriga to'g'ri keldi. 2003-yilning sentabridan boshlab bu boradagi vaziyat tubdan o'zgara boshladi. O'shanda hokimiyatlar huzuridagi maxsus inspeksiyalarda ruxsatnoma va kelishuvlar olishni soddalashtirish uchun «bir darchaga» tizimi joriy etildi. Bu tizim tadbirkorlarning idorama-idora sarson yurishiga barham berib, hujjatlar to'plamini bitta joyda topshirishga imkon yaratdi. Muhimi, barcha qolgan ishlarni tegishli davlat organlari bajarishi lozim edi. Yangi tizim o'zining ijobiy jihatlariga qaramay, bir qator muammolarni hal etolmadi. Xususan, «bir darchaga» ruxsatnoma va kelishuvlarni olish faqatgina to'rtta ruxsatnoma turlari bilan cheklangan edi. Bular:

- inshootlarni qurishga;
- inshootlarni ta'mirlash va faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga;
- turar joylarni noturar joy toifasiga o'tkazishga;
- auksion savdolarida xarid qilingan yer uchastkalarida inshootlar qurishga berilardi.

Ayni paytda «bir darchaga» doirasidan yer uchastkalaridan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar, gigiyenik sertifikatlar olish, yong'in xavfsizligi qoidalariga muvofiqligi haqida xulosalarni olish singari ko'plab ruxsatnoma va kelishuvlar chetda qoldi. Tadbirkorlar o'zlari olishga majbur bo'lgan mazkur hujjatlarning bir qismini yangi tizimga kiritishlari ham mumkin edi.

Qolaversa, ko'pchilik tadbirkorlar yangi tizim bo'yicha ruxsat beruvchi guvohnomalarni olish muddati qonunchilikda ko'zda tutilganidan uzayib ketishini ta'kidlashgan. Bu, o'z navbatida, tashkiliy ishlar vaqtini kechiktirib, ular biznesining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatardi. Bundan tashqari, tadbirkorlar tomonidan yana ko'plab e'tirozlar bildirilardi. Xususan, ularning fikricha, talab qilinadigan ruxsatnoma va kelishuvlar soni haddan tashqari ko'p bo'lib, ularning hammasi ham asoslab berilmasdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 21-sentabr PQ-186-sonli «**Tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun ruxsatnoma turlarini qisqartirish va ularni berish tartib-qoidalarini soddalashtirish to'g'risida**»gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, 12 ta ruxsatnoma,

xususan, talab yuqori bo‘lgan chakana savdoga ruxsatnoma berish bekor qilindi. Keng tarqalgan ruxsatnomalardan yana biri – ulgurji savdo bilan shug‘ullanish uchun ruxsatnoma bir martalik beriladigan litsenziyaga almashtirildi.

Shuningdek, «**Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to‘g‘risida**»gi qonun mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun shart-sharoitlarni yaxshilashda yana bir muhim qadam bo‘ladi.

Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari Islom Karimov tadbirkorlik faoliyati muhitining qanday holatda ekani, buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va bu faoliyatning amaldagi rivojlanish sur‘atlari barcha darajadagi hokimlar faoliyatini baholashning asosiy mezoniga aylanishi darkorligiga alohida e‘tibor berib kelmoqda.

Bosh prokuraturaga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga har qanday noqonuniy aralashuvni iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha davlat siyosatiga qarshi qaratilgan harakat sifatida ko‘rib chiqish va huquqbuzarlarga nisbatan qonunchilikka muvofiq javobgarlik normalarini qo‘llash vazifasi topshiriladi deb, bu borada Prezidentimiz ta‘kidlagan, «Mamlakatimizning kelajagini va obro‘-e‘tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro bu tahdidni korrupsiya va jinoyatchilikni esda tutmog‘i darkor. Halol mehnat qilish, o‘z bilimi, kuch-g‘ayrati va ijodiy qobiliyatini sarflash uchun barqaror shart-sharoit bo‘lishini istaydigan, farzandlari va yaqin kishilari kelajakda ham demokratik, fuqarolik jamiyatida sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarining samaralaridan to‘la-to‘kis foydalanishini orzu qiladigan har bir fuqaro, jinoyatchilik va korrupsiya yo‘liga o‘z vaqtida zarur to‘siq qo‘yilmasa, bu illatlar qanday ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkinligini yaxshi anglab yetmog‘i lozim»ligini bugungi kunda eslash o‘ta dolzarbdir. Chunki biz mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi davri – milliy taraqqiyotimizning navbatdagi mantiqiy bosqichi davom etayotgan davrda yashayapmiz. Zero, davlatimiz rahbari Islom Karimov: «O‘z mehnati, aql-zakovati va salohiyati bilan o‘zini o‘zi boqadigan, o‘zini himoya qilishga, kelajagini o‘z qo‘li bilan qurishga qodir bo‘lgan xalqni jahon ahli e‘tirof etadi. Barchamiz, avvalo, yoshlarimiz bu oddiy haqiqatni hech qachon unutmashimiz zarur», – deganlarida haq gapni aytdilar. Yurtimizda tadbirkorlik yanada rivojlanaversa, taraqqiyotimiz ham shunchalik ravnaq topib boraveradi. Eng muhimi, tadbirkorlik

faoliyati bilan shug'ullanish amaldagi qonunlarni puxta egallashga undaydi. Bu tadbirkorning huquqiy va iqtisodiy savodxonligi hamda madaniyatini yuksaltirishga zamin bo'ladi. U o'rtacha mulkdor darajasiga yetganda siyosiy faolligi yanada kuchayadi: yon atrofdagi demokratik o'zgarishlarga daxldorlik hissi bilan yashash ko'lami ortadi. Bu jihatlar esa jamiyatimizda barqarorlikka ham iqtisodiy, ham siyosiy tayanch bo'ladi. Muhimi milliy va iqtisodiy xavfsizligimizni ta'minlashga va oson kechmagan mustaqilligimizni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar:

Tadbirkorlik, tadbirkorlik belgilari, tadbirkorlik tizimi, tadbirkorlik turlari, tadbirkorlar toifasi, firmalar, firmalarning tashkiliy-huquqiy shakllari, firmalarning iqtisodiy uyushmalari, tadbirkorlarning nodavlat jamoat tashkilotlari.

Savol va topshiriqlar:

1. Quyidagi shaxslardan qaysi biri haqiqiy tadbirkor ishbiarmon hisoblanadi?

- a) *Sohib* – uyini ijaraga berib pul topadi;
- b) *Said* – yerini ijaraga berib pul topadi;
- v) *Qurbon* – tijoratchiga yollanib pul topadi;
- g) *Ivan* – xususiy do'kon ochib, savdo qilish orqali pul topadi.

2. Biznes-reja nima? 1994-yilning yanvar oyida Yevropa bankidan kredit olish maqsadida o'rta va kichik biznes bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar O'zbekiston Milliy bankiga 100 ta biznes-reja taqdim etganlar. Shundan 38 tasini O'zbekiston Milliy banki maqullagan. Yevropa banki 38 ta loyihadan faqat 8 tasini ma'qul topgan. Biznes-rejalarning Yevropa banki tomonidan to'la qabul qilinmagani sabablarini izohlang.

3. Siz tadbirkor bo'ldingiz, ishingiz yurishib ketdi. Topgan pulingizning 25 ming dollariga yengil avtomashina sotib oldingiz, 30 ming dollar sarflab, ikki qavatli dang'illama uy qurdingiz. Shu xatti-harakatingiz to'g'rimi?

- 4. Tadbirkorlik prinsiplarini tushuntiring.
- 5. Tadbirkorlikning axloqiy talablarini bilasizmi?
- 6. Yashirin biznes deganda nimani tushunasiz?
- 7. Jinoiy biznesning mohiyatini sharhlang.
- 8. Qalbakilashtirilgan iqtisodiy faoliyatni sharhlang.
- 9. Norasmiy biznes aloqalari qanday?
- 10. Soxta tadbirkorlik deganda nimani tushunasiz?
- 11. Kuch ishlatuvchi tadbirkorlik mavjudmi?

Mavzuni chuqur o‘rganish instrumentariysi

Tadbirkorlik – mulkchilik subyektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarligi asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishdir.

Oilaviy tadbirkorlik – oila a‘zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Oilaviy korxonona – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxonona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxonona faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxonona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Institutsional tadbirkorlik – iqtisodiy munosabatlar subyektlarining institutsional yangiliklarni yaratish va xo‘jalik amaliyotiga joriy etish borasidagi faoliyati.

Soxta tadbirkorlik – ustavida ko‘rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko‘zlamasdan ssudalar, kreditlar olish, foydani (daromadni) soliqlardan ozod qilish (soliqlarni kamaytirish) yoki boshqacha mulkiy manfaat ko‘rish maqsadida korxonalar va boshqa tadbirkorlik tashkilotlarini tuzish. (*O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 179-modda*).

Tadbirkorlar riskini kamaytirishning ayrim yo‘llari:

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash – bunda kapital bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan turli sohalarga joylashtiriladi. Bunda bir yerdagi yo‘qotish boshqa yerdagi yutuq bilan qoplanib turadi. **Sherikchilik kapitalini hosil etish** – bunda shirkat firmalari tashkil etilib, uning kapitali bir necha sheriklarga qarashli bo‘ladi. Bu yerda faqat erishilgan yutuq emas, balki ehtimolidan yiroq bo‘lmagan yo‘qotish ham sheriklar o‘rtasida taqsimlanadi.

Axborotni to‘plash va undan samarali foydalanish. Firma riskning oldini olish yoki uni kamaytirish uchun ichki va tashqi bozordagi ahvol, u yerda narxlarning o‘zgarishi, tovar sotilishining dinamikasi, raqobatchilarning fe‘l-atvori va sa‘y-harakatlari to‘g‘risida, partnyorlar ahvoli, davlat siyosatida kutilayotgan o‘zgarishlardan xabar topishi kerak. Firma oladigan axborot qanchalik xilma-xil, ko‘p manbali va miqdoran ko‘p bo‘lsa, shunchalik uning simmetrik bo‘lish ehtimoli katta.

Tadbirkorlik daromadi – tovar va xizmatlarni sotishdan kelgan pul tushumi bo‘lib, bu yaratilgan tovar va xizmatlarning miqdoriga va ulardan har

birining bozor narxiga bog'liq bo'ladi. Yalpi daromad muayyan paytda firma topgan jami daromad bo'lsa, tovar va xizmatlar birligini sotishdan kelgan pul o'rtacha daromad hisoblanadi. Marginal daromad qo'shimcha tovar birligini sotishdan tushgan qo'shimcha pul bo'ladi. Daromad birinchidan xarajatlarni qoplasa, ikkinchidan foyda hosil qiladi.

Foyda – tadbirkorlik faoliyati uchun bizneschilar oladigan mukofot bo'lib, uni tadbirkorlik qobiliyati va biznesga qo'yilgan kapital keltiradi. Tadbirkorlik qobiliyati uchun olinadigan foyda me'yordagi foyda hisoblanadi va xarajatlar tarkibiga kiradi. Kapital uchun tegadigan foyda iqtisodiy foyda bo'lib, daromadning jami xarajatlardan ortib qolgan qismi bo'ladi. Tadbirkorlikda omad foydasi ham bor, bu mazmunan boshqalarnikidan ortiqcha foyda bo'lib, bozor narxlarining kutilmaganda ortib ketishi tufayli hosil bo'ladi, buni omadi yurishganlar oladi, u juz'iy bo'lganidan narxlar eski holiga tushgach yo'q bo'lib ketadi.

Foyda topish – xatar (risk)li ish. Risk tadbirkorlik yo'lida xavf-xatarga yo'liqib, o'z maqsadiga erisha olmay qolishdir. Riskni noaniqlik yuzaga keltiradi, bu o'z navbatida bozordan kelgan axborotning asimmetrik bo'lishi, ya'ni real vaziyatni to'la aks ettirmasligi natijasidir. Risk muqarrar bo'lsa-da, uni boshqarish mumkin. Bu riskka har xil munosabatda bo'lishni bildiradi: riskka bormaslik, riskka befarq bo'lish, riskka borish. Risk yo'q joyda kichik foyda bilan qanoat hosil etiladi, risk bor joyda katta foyda ham kutiladi. Riskni kamaytirish uchun ishlab chiqarish diversifikatsiyalanadi, tadbirkorlik xatari sug'urtalanadi, risk sheriklar o'rtasida taqsimlanadi va nihoyat axborotdan samarali foydalaniladi.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining muhim belgisidir. U muhim iqtisodiy faoliyat bo'lib bozorni to'yintirishda muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni tovar va xizmatlar yaratish va iste'molchilarga yetkazib berish borasida foyda topishga qaratilgan biznesning asosiy turidir. Tadbirkorlik amaldagi qonunlar doirasida faoliyat ko'rsatadi. Ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining vazifalaridan biri hisoblanadi.

2. Mustaqillikka qadar (1989–1990) xo'jalik yuritishda totalitar boshqaruv hukmron bo'lgan, xususiy mulkka esa «yot unsur» deb qaralgan davrlarda O'zbekistonning davlat mustaqilligi, Respublikaning iqtisodiy mustaqillikka va bozor iqtisodiyotiga o'tish g'oyasi davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilganligi ulkan jasorat edi.

3. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlaridan boshlab kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi ko‘p ukladli bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosini tashkil etdi.

4. Bugungi kunga kelib kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Chunki taraqqiyotni belgilovchi bu kuch mamlakatimiz ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Agar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 1991-yilda 1,5 foiz, 2000-yildagi 31 foizdan 2012-yilga kelib qariyb 55 foizga yetdi.

5. Jahon banki hisob kitoblariga ko‘ra, 2012-yilda O‘zbekiston biznesni yuritish bo‘yicha reytingda 14 o‘rin yuqoriga ko‘tarildi. Bu O‘zbekistonda jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyaga mos mamlakatimizda biznesni yuritish bilan bog‘liq barcha jarayonlarni yanada liberallashtirish, soddalashtirish, va ularning ochiqligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan kompleks dastur qabul qilinganligining natijasidir.

8-MAVZU. KORXONA (FIRMA) FAOLIYATI VA UNING IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI

1. «Korxonalar (firma)» tushunchasi, belgilari, vazifalari va funksiyalari

Korxonalar – iqtisodiy faoliyatni tashkil qilishning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy shakli hisoblanib, milliy iqtisodiyotning birlamchi bo‘g‘inidir. Korxonalar tovarlar ishlab chiqaradi va xizmatlar ko‘rsatadi. Agar uning nizomida korxonaning tashkiliy-huquqiy vazifalari belgilangan bo‘lsa, uning ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyati tarkibiga esa asosiy va aylanma fondlar, pul mablag‘lari va boshqa aktivlar kiruvchi nizom jamg‘armasi mavjud bo‘lib, unga tayanadi. Korxonalar o‘z pasport va nizomiga ega. Nizom jamg‘armasi qonunga asosan korxonani tashkil qilish jarayonida ta‘sischilar: davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar tomonidan shakllantiriladi. Korxonalar rivojlanishi va ishlab chiqarishning kengayib borishi, daromad hajmi va boshqa moliyaviy tushumlarning ortishi natijasida nizom jamg‘armasi ko‘paytirilishi mumkin. Umuman olganda, nizom jamg‘armasi korxonaning iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy jihatdan baquvvatligini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar to'g'risida»gi qonuniga asosan, korxonalar *huquqiy shaxs maqomiga ega, mustaqil ravishda xo'jalik faoliyati yurituvchi subyekt bo'lib, o'ziga tegishli mol-mulkidan foydalanish asosida iste'molchilar (xaridorlar) talabini qondirish va daromad (foйда) olish maqsadida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayirboshlaydi.*

Korxonani turli jihatlariga ko'ra tavsiflash mumkin:

– ishlab chiqarish va texnika munosabatlarida korxonalar ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi;

– ijtimoiy munosabatlarda korxonalar turli kategoriyadagi xodimlar o'rtasida ularning huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar;

– tashkiliy huquqiy munosabatlarda korxonalar huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadi;

– moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda korxonalar tarmoqning mustaqil bo'g'ini bo'lib, o'z-o'zini moliya bilan ta'minlash, o'z-o'zini boshqarish, ya'ni bozor munosabatlari tamoyillarida faoliyat yuritadi.

Amaldagi qonunchilikka asosan korxonalar davlat ro'yxatidan ўтгач, yuridik shaxs sifatida tan olinadi. Davlat ro'yxatidan o'tish uchun quyidagi hujjatlar ahamiyatga ega bo'ladi: ta'sischi arizasi; korxonaning nizomi; korxonani tashkil qilish haqida qaror yoki ta'sischi shartnomasi; davlat bojini to'laganlik haqida kvitansiya va hokazo. Korxonalar quyidagi xususiyatlarga ega:

birinchidan, korxonalar o'ziga tegishli va xo'jalik boshqaruvidagi mulkka ega bo'lib, ushbu mulk uning faoliyatini, moddiy-texnikaviy imkoniyatlarini, iqtisodiy mustaqilligini va ishonchliligini ta'minlaydi;

ikkinchidan, korxonalar kreditorlar, jumladan, davlat bilan o'zaro munosabatlardagi majburiyatlar yuzasidan o'z mulki bilan javob berish xususiyatiga ega bo'ladi;

uchinchidan, korxonalar o'z nomidan harakat qiladi hamda amaldagi qonunlarga asosan xo'jalik faoliyati yurituvchi hamkorlar, mahsulot (ish, xizmat) iste'molchilari, xom ashyo va asbob-uskuna yetkazib beruvchilar, shuningdek, boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan shartnoma tuzish huquqiga ega;

to'rtinchidan, korxonalar qonunchilikka asosan sudda da'vogar va javobgar sifatida qatnashish huquqiga ega;

beshinchidan, korxonalar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lib, ishlab chiqarish va mahsulot savdosi xarajatlarini hisobga olib boradi

hamda davlat idoralari tomonidan belgilangan tartibda o'z vaqtida hisobotlarni taqdim etadi;

oltinchidan, korxonaga o'z nomiga ega bo'lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o'z aksini topadi.

Har bir korxonaning faoliyati ishlab chiqarish, qayta ishlab chiqarish va muomala jarayonlaridan iborat bo'ladi. Korxonaning ishlab chiqarish sohasidagi faoliyati yangi mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash va ishlab chiqarishni tashkillashtirishda namoyon bo'ladi. Qayta ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat ishchi kuchini yollash, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishlab chiqarish vositalarini yangilash va kengaytirish jarayonlarida aks etadi. Muomala sohasidagi faoliyat esa ishlab chiqarishning moddiy-texnika ta'minotini tashkil etishda, mahsulot (ish, xizmat)larni sotish va foydalanilgan ishlab chiqarish vositalarining daromad shaklida qaytib kelishida ko'zga ko'rinadi.

Korxonalarni ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida uni tashkil qiluvchi ikkita tarkibiy qism tizimning o'zi (korxonaga) va ushbu tizim faoliyat yurituvchi tashqi muhitni ko'rib chiqish lozim. Korxonaning ichki muhiti ishlab chiqarish vositalari, pul mablag'lari, axborotlar va inson resurslaridan tashkil topadi. Ishlab chiqarish o'zaro aloqalari natijasida tayyor mahsulot paydo bo'ladi, ishlar bajariladi va xizmat ko'rsatiladi, ya'ni to'g'ri yo'lga qo'yilgan ishlab chiqarish va mehnatga haq to'lash faoliyati yuzaga keladi.

Korxonalarining aloqasi ularning tashqi tizimga chiqishida ro'y berib (resurslarni jalb qilish, ularning qiymatini aniqlash, xom ashyo, material va yoqilg'ining o'z vaqtida yetkazib turilishi va hokazo), tashqi muhitga ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar oqimi yordamida ta'sir ko'rsatish jarayonida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyotimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanoat ishlab chiqarishini jahon iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan raqobatbardosh korxonalar tashkil qilish maqsadidagi tuzilmaviy qayta qurishdan iborat. Buning uchun integratsiya hamda turli tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarni vaqtinchalik yoki doimiy ravishda kooperatsiya yoki konsentratsiya asosida birlashtirish amalga oshiriladi. Kooperatsiya jarayonida konsern, konsorsium, xo'jalik assotsiasiyasi kabi tashkiliy shakllar vaqtinchalik yoki doimiy ravishda tuzilishi mumkin. Ushbu tuzilmaviy birliklarning mohiyatiga qisqacha to'xtalamiz.

Konsern – umumiy manfaatlarga ega hamda shartnomalar, kapital va qo'shma faoliyatda ishtirok etish bilan bog'liq bo'lgan korxonalarining yirik birlashuvini aks ettiradi.

Konsorsium – kompaniya va banklarning vaqtinchalik birlashuvi natijasida yirik kapital talab qiluvchi loyihalarni amalga oshirish yoki mablag‘ni birgalikda joylashtirish maqsadlari uchun umumiy kelishuvlar asosida yuzaga keladi. Konsorsium buyurtmachilar oldidagi majburiyatlar uchun javobgar hisoblanadi.

Xo‘jalik assotsiatsiyasi – jismoniy yoki huquqiy shaxslarning o‘zaro hamkorlik yuritish maqsadida ko‘ngilli birlashuvini anglatadi va unda birlashgan subyektlar o‘z mustaqilligini saqlab qoladilar.

Korporatsiyalar – umumiy maqsadlarga erishish, hamkorlikda faoliyat yuritish maqsadida birlashib, mustaqil huquqiy subyekt – huquqiy shaxsni tashkil qiluvchi shaxslar yig‘indisini tavsiflaydi. Ular aksiyadorlik (hissadorlik) jamiyatlari shaklida tashkil qilinadi.

Korxonalarining konsentratsiya asosida birlashuvi kartel, sindikat, xolding va moliya-sanoat guruhlarini ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish sohasidagi kartellar ishlab chiqarish masalalari, narxlar, tovarlarni sotish, ishchi kuchini yollash va shu kabi masalalar borasida kelishuvga asoslanib faoliyat yuritadi. Integratsiyaning bu shaklida korxonalar mustaqillikni saqlab qolgan holda kooperatsiya asosida birlashadilar.

Sindikat tijorat faoliyatini (ta‘minot, sotish, narxning paydo bo‘lishi) hamkorlikda tashkil qilishga asoslangan birlashmadir. Sindikat tarkibida korxonalar huquqiy va xo‘jalik yuritishni saqlab qoladilar.

Trestlar yuqori darajada markazlashgani bilan ajralib turadi. Uning tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish, tijorat va mustaqilligini yo‘qotib, yagona reja asosida faoliyat yuritadi.

Xoldinglar ishtirokchilarning moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirish hamda ishlab chiqarish bilan bog‘liq vazifalarni tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beruvchi boshqaruvning samarali shaklini ifodalaydi.

Integratsiya jarayonlarini amalga oshiruvchi korxonalar quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

- resurslardan yanada samaraliroq foydalanishga erishish;
- kooperatsiya asosidagi aloqalarini yangilash va mustahkamlash;
- mamlakatdagi korxonalarining tashqi bozorga chiqishi;
- ishlab chiqarishga investitsiyalarning yangi turlarini jalb etish;
- ichki va tashqi bozordagi raqobatda muvaffaqiyat qozonish maqsadida narx va sotish bo‘yicha yagona siyosat yuritish.

2. Korxonani (firma)ni tashkil qilish tamoyillari

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi faoliyat yuritayotgan korxonalaridan tashqari, yangi korxonalarni tashkil qilish va ishga tushirishga tayanadi. Bunday qadam iqtisodiy jihatdan maqbullikka, resurslar imkoniyati va korxonalar mahsulotlariga bo'lgan talabga asoslanadi. Biron-bir mahsulotning taqchilligi yoki umuman yo'q bo'lishi ham yangi korxonalar yoki ishlab chiqarishni tashkil qilishga sabab bo'lishi mumkin.

Yangi korxonani tashkil qilish quyidagi tashkiliy tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- korxonalar tashkil qilish fikrining paydo bo'lishi;
- korxonalar ta'sislarini tanlash;
- taklif qilinayotgan mahsulotga bozordagi talabni o'rganish;
- korxonalar Nizom jamg'armasini tuzish biznes-rejasini tayyorlash;
- davlat ro'yxatidan uchun moliya manbalarini aniqlash;
- korxonalar ta'sis hujjatlari va o'tish;
- muhr, shtamp va boshqa rekvizitlarni tayyorlash;
- soliq idoralarida ro'yxatdan o'tish.

O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi qonuniga asosan, korxonalar mulk egasi (egalari) yoki u (ular) tayinlagan vakillik idorasi, mehnat jamoasi yoki ta'sislar guruhining qarori bo'yicha belgilangan qonun-qoidalarga asosan tashkil qilinishi mumkin. Shuningdek, korxonalar, agar korxonalar mulki egasi yoki u tayinlagan vakillik idorasining roziligi bo'lsa, faoliyat yuritayotgan korxonalar tarkibidan bir yoki bir necha tarkibiy bo'linmalarni, ushbu bo'linmalar mehnat jamoalari tashabbusiga ko'ra, ajratib chiqarish natijasida ham tashkil topishi mumkin.

Korxonalar joriy va hisob-kitob raqamlari ochish va ular to'g'risidagi holatlarni tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan, mustaqil huquqiy shaxs maqomidagi sho'ba korxonalar, filiallar, vakolatxonalar, bo'lim va boshqa tashkiliy bo'linmalarni tashkil qilishi mumkin. Korxonalar mulkini shakllantirish va undan foydalanish Nizom va Ta'sis shartnomasining muhim qismi hisoblanadi. «Korxonalar to'g'risida»gi qonunga asosan quyidagilar korxonalar mulkini shakllantirishning manbalari hisoblanadi:

- ta'sislarining pul va moddiy ko'rinishdagi badallari;
- mahsulot (ish, xizmat) sotishdan va boshqa turdagi faoliyatdan olingan daromadlar;
- qimmatbaho qog'ozlardan olingan daromadlar;
- banklar va boshqa kreditorlardan olingan kreditlar;

- budjetdan olinuvchi mablag‘lar (dotatsiya), kapital qo‘yilmalar;
- korxonalar, tashkilot va fuqarolarning beg‘araz va xayriya badallari, shuningdek, almashish, meros va sovg‘a tariqasida olinuvchi mulk;
- qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar. Davlat korxonalarining mulkiy huquqlarini kafolatlaydi. Davlatning korxonalar mulkini (asosiy fondlar, aylanma mablag‘lar va hokazo) tortib olishiga yo‘l qo‘yilmaydi, qonunchilikda ko‘zda tutilgan hollar bundan mustasno.

Korxonalar (firma)larning davlat tomonidan ro‘yxatga olinishi va korxonalar (firma)ni tugatish va qayta tashkil qilish masalasiga to‘xtalamiz.

2. 1. Korxonalarining davlat tomonidan ro‘yxatga olinishi

Yuqorida aytib o‘tilganidek, korxonalar joylashgan manzilgohi bo‘yicha davlat idoralarida ro‘yxatga olingan kundan boshlab tashkil qilingan hisoblanadi. Bu vazifani asosan hokimiyatlar bajarib, ular korxonani ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘n kun mobaynida Moliya vazirligiga yagona davlat reyestriga kiritish uchun taqdim etishlari shart.

Davlat ro‘yxatidan o‘tish uchun korxonani tashkil qilish to‘g‘risidagi qaror, korxonalar nizomi (ta‘sis shartnomasi) va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab beriluvchi ro‘yxatdagi boshqa hujjatlar taqdim etiladi. Korxonani davlat tomonidan ro‘yxatga olish zarur hujjatlar ilova qilingan ariza berilgan kundan boshlab, 30 kun muddatda amalga oshirilishi lozim. Korxonalarini ro‘yxatga olishdan, ularni tashkil qilish maqsadga muvofiq emas, degan sabab bilan bosh tortishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Agar korxonani ro‘yxatga olish o‘z vaqtida amalga oshirilmasa yoki ta‘sischi ro‘yxatga olinmaslik sabablarini asossiz deb hisoblagan taqdirda, ta‘sischi sudga murojaat qilishi mumkin. Korxonani ro‘yxatga olishdan asossiz ravishda bosh tortish mahalliy hokimiyat idoralarining moddiy javobgarlikka tortilishiga olib kelishi mumkin.

Korxonani ro‘yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

- 1) korxonani ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi ariza;
- 2) ta‘sis shartnomasi yoki korxonani tashkil qilish to‘g‘risidagi qaror;
- 3) korxonalar nizomi;
- 4) ta‘sis shartnomasi yoki korxonani tashkil qilish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan nizom jamg‘armasining kamida 50 foiz miqdoridagi qismi to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- 5) davlat bojini to‘langanlik haqida guvohnoma;
- 6) monopoliyaga qarshi muassasaning korxonani tashkil qilishga roziligini tasdiqlovchi hujjat;

7) Davlat mulkini boshqarish qo‘mitasi yoki uning quyi idoralari roziligi haqidagi hujjat.

Ro‘yxatga olish korxonaga kelib tushuvchi hujjatlarni qayd qilish kitobida tartib raqami berish orqali amalga oshiriladi. Yuqoridagi jarayonlar amalga oshirilgach, korxonaga joylashgan manzilgohi bo‘yicha soliq idoralarida hisobda turishi va buni tasdiqlovchi hujjat olishi hamda bankda hisob raqami ochishi mumkin.

2.2. Korxonani tugatish va qayta tashkil qilish

Korxonaga faoliyatini to‘xtatish uni tugatish yoki qayta tashkil qilish shaklida amalga oshirilishi mumkin. Ishlab chiqarishning barqaror emasligi, moliyaviy qiyinchiliklar, surunkali zarar ko‘rish va to‘lov qobiliyatining yo‘qolishini korxonalarni tugatish yoki qayta tashkil qilishga asosiy sabab qilib ko‘rsatish mumkin.

Korxonani qayta tashkil qilish uning birlashib ketishi, qo‘shilishi, bo‘linishi, ajralib chiqish va shaklini o‘zgartirishidir. Korxonani qayta tashkil qilish ta‘sischi (ta‘sischilar) yoki korxonaga boshqaruvi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Qayta tashkil qilish korxonaning ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlari avvalgiga nisbatan yaxshilanishiga xizmat qilishi lozim.

Korxonani tugatish huquqiy xatti-harakat bo‘lib, ishlab chiqarish va xo‘jalik yuritish faoliyatining to‘xtatilishini anglatadi. Korxonaga tugatilganda u davlat ro‘yxatidan chiqariladi, uning bankdagi hisob raqami yopiladi hamda muhr, shtamp va boshqa rekvizitlari haqiqiy emas, deb hisoblanadi. Korxonani tugatishga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)ga bo‘lgan talabning pasayib ketishi yoki umuman yo‘qolishi;
- ishlab chiqarishning zarar keltirishi;
- ishlab chiqarishning atrof-muhit va aholi hayotiga xavf tug‘dirishi;
- korxonaning bino va inshootlari, asbob-uskunalar va boshqa vositalaridan iqtisodiy jihatdan unumliroq, yanada sifatli va iste‘molchilar talabiga javob beruvchi mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatining yuzaga kelishi.

Korxonani tugatishda tugatish komissiyasi tuzilib, unga kreditorlarga korxonaga tugatilganini xabar qilish, kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzini undirish choralarini ko‘rish, shuningdek, korxonaning tugatilishi sababli ishsiz qolgan xodimlar ish bilan ta‘minlanishiga yordamlashish

vazifasi yuklanadi. Korxonani tugatish jarayonida oraliq tugatish balansi tuzilib, unga tugatilayotgan korxonaning mulki, kreditorlarning talablari va ularni ko‘rib chiqish natijalari ro‘yxati kiritiladi. Ushbu balans korxonaning ta‘sischisi (ta‘sischilari) yoki korxonani tugatish to‘g‘risida qaror chiqargan idora tomonidan tasdiqlanadi. Tugatish komissiyasining aybi bilan keltirilgan zarar uchun tugatish komissiyasi javobgar hisoblanadi.

3. Milliy iqtisodiyot rivojlanishida korxonalar (firma)ning o‘rni va roli

1. 1990-yillardagi vaziyat. Avvalgi ma‘muriy buyruqbozlik tizimi sharoitlarida sobiq Ittifoq iqtisodiyoti yagona xalq xo‘jaligi majmui sifatida tavsiflangan. Unda barcha ittifoqdosh respublikalarning butun Ittifoq iqtisodiyotini rivojlantirishdagi majburiy ishtiroki va «Markaz» tomonidan belgilab berilgan yo‘nalishlar asosida milliy iqtisodiyotini ham rivojlantirishi aks ettirilgan.

Biroq davlat boshqaruv holatidan va birinchi o‘rinda respublikalarning imkoniyatlari va manfaatlari nuqtai nazaridan qaraganda, bunday «birlik» respublikalarga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim masalalarini mustaqil hal qilish imkonini bermasdi. Respublikalarning milliy iqtisodiyotlariga kiritiluvchi investitsiyalar asosan umumittifoq «qozoni»dan olinardi va ko‘pincha qoldiq tamoyili asosida amalga oshirilardi. Bir qancha tarmoqlar va yirik ishlab chiqarish birlashmalari bir vaqtning o‘zida ham respublika, ham butun ittifoq vazirliklariga va mahkamalariga bo‘ysunar edi.

Ittifoqdosh respublikalar SSSRning yagona xalq xo‘jaligi majmui tarkibida so‘nggi bor qatnashgan 1990-yil bo‘yicha statistik ma‘lumotlar O‘zbekiston iqtisodiyotining ahvoli va tuzilmaviy tuzilishi to‘g‘risida ma‘lum bir tushuncha beradi: jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarida markazga bo‘ysunuvchi korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar salmog‘i 33 foiz, sanoat va ishlab chiqarishda mashg‘ul bo‘lgan xodimlar miqdorida – 35 foiz, sanoat va ishlab chiqarish asosiy fondlarida 65 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, respublika hukumatiga bo‘ysunuvchi korxonalar esa mos ravishda 67 foiz, 65 foiz va 35 foizni tashkil etgan¹.

¹ Қаранг: Маҳмудов Э. Х. Корхона иқтисодиёти: Ўқув қўлланма. – Т., 2004. – Б. 208.

Rejali iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruvning negizi va asosiy usuli, vositasi hisoblanadi. Korxonada ishni tashkil qilish, ish haqi to'lash, texnologik asbob-uskunalarni yangilash, korxonada faoliyatini kengaytirish yoki qisqartirib optimallashtirish, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ma'naviy eskirgan mahsulotlar ishlab chiqarishni to'xtatish kabi masalalarning birortasida obyektiv iqtisodiy zarurat hisobga olinmaydi. Bu masalalarda korxonada mustaqillikka mutlaqo ega emas. Ularni hal qilish uchun yuqoridan ruxsat olinishi zarur. Texnologik qayta jihozlash tadbirlarini o'tkazish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni esa besh yillik rejalariga kiritish talab qilinardi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida o'zaro mustaqillik aloqalar o'rnatilishiga, xom ashyo va butlovchi qismlarni, ishlab chiqilgan mahsulotni mustaqil, shartnomalar asosida yetkazib berilishiga deyarli ruxsat berilmasdi. Korxonada o'zidan 4–5 ming kilometr uzoqlikda joylashgan boshqa korxonaga yoki savdo tashkilotiga qancha mahsulot jo'natish to'g'risida yuqoridan topshiriq, naryad olardi. Sovet tuzumining turg'unlik-yillari deb atalgan davrida korxonalar faoliyatiga xo'jalik hisobi va ba'zi bir erkinliklarni joriy qilishga bo'lgan urinishlar hech qanday natija bermaydi. Chunki iqtisodiy tizim, o'z tabiatiga ko'ra, bunday o'zgarishlarni qabul qila olmas edi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi milliy iqtisodiyotimizda miqdor va sifat o'zgarishlariga sabab bo'ldi. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti jamiyatni demokratlashtirish, iqtisodiyot salohiyatlarini mustahkamlash va mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga kiritishga yo'naltirilgan, bozor munosabatlariga o'tishning mamlakatimiz uchun maxsus ishlab chiqilgan modeli asosida izchil rivojlanib bormoqda. Bu model O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan iqtisodiyotni isloh qilishning beshta muhim tamoyiliga asoslangan hamda xo'jalik faoliyati yurituvchi subyektlarning erkinligi, xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni himoya qiluvchi zaruriy qonun hujjatlari bilan belgilab berilgan.

Iqtisodiyotning rivojlanishi uchun talab qilinuvchi vazifalarning amalga oshirilishida korxonalarga katta rol ajratilib, ular iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish bo'g'ini bo'lish bilan birga mahsulot ishlab chiqarish, aholiga xizmat ko'rsatish tufayli iste'mochilarning talablarini ham qondiradilar.

Har bir mamlakatning sanoat quvvati fan-texnika taraqqiyoti va iqtisodiyotni modernizatsiyalash ko'rsatkichlarini birinchi o'rinda yirik korxonalar belgilab beradi. Korxonalar faoliyati milliy iqtisodiyot va

uning tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Korxonalar qanchalik yaxshi, samarali va rentabelli ishlasa, bugungi iqtisodiyotning, jumladan, ularning tizimlarining ham ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti korxonalar faoliyatini erkinlashtiradi, ularning mustaqilligini mustahkamlaydi hamda ishlab chiqarishni tashkil etish va rentabellikning yuqori ko‘rsatkichlariga erishishga keng imkoniyatlar yaratadi, deb hisoblanadi. Biroq korxonalar, ayniqsa, davlatga tegishli bo‘lgan korxonalar qanday ishlashi, uning jamiyatga keltiruvchi foydasi, rentabellik darajasi, xodimlarning bandligi qanday bo‘lishi faqat korxonalarining emas, davlatning ham nazoratida bo‘lishi zarur. Xuddi shuning uchun ham davlat korxonalariga katta imkoniyatlar yaratib berish bilan birga, ularni belgilangan tartibda nazorat qilib ham boradi. Davlat korxonalar «taqdiriga», ularning ishlab chiqarish faoliyati yaxshi natijalariga befarq qarab tura olmaydi. Bankrotga uchragan korxonalar, zarar keltiruvchi ishlab chiqarish, iqtisodiy nochorlik bularning barchasi korxonalar jamoasi uchun ham, davlat uchun ham og‘ir yuk hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida barcha korxonalar ham raqobatchilikni yengib, samarali ishlab keta olmaydi hamda daromad yoki foyda ololmaydi. Natijada minglab korxonalar tashkil qilinib, xo‘jalik faoliyati doirasiga qo‘shiladi va deyarli shunchasi turli sabablarga ko‘ra tugatiladi. Shu sababli bankrotlik, korxonalarining tugatilishi bozor iqtisodiyot sharoitlarida odatiy hol bo‘lib, bu ahvolga tushib qolishdan ehtiyot bo‘lish kerak bo‘lsa-da, lekin bunga fojia sifatida qarash kerak emas.

Bugungi kunda mamlakatimizda korxonani bankrot bo‘lishga olib kelmaslik, uning iqtisodiy mustaqilligi, faoliyat qobiliyati va daromadligini ta’minlash uchun barcha zarur choralarini qo‘llash yo‘lga qo‘yilgan. Korxonaning mehnat qobiliyati va daromadligi milliy iqtisodiyotga qo‘shiladigan hissa bo‘lishdan tashqari respublikamizda tobora ko‘payib borayotgan aholini ish bilan ta’minlashda ham ahamiyat kasb etishini unutmazlik muhim. Ko‘rinib turibdiki, istalgan korxonaning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, olinadigan foyda yoki daromad miqdoridan tashqari bu korxonaning aholini ish bilan ta’minlashdagi ishtirokiga ham bog‘liq bo‘ladi. Aholini ish bilan ta’minlar ekan, korxonalar o‘zlarining bevosita ishlab chiqarish vazifalarini bajarishdan tashqari ishsizlikning

kamayishiga, demak, mehnat faolligining ortishi va ijtimoiy ahvolning yaxshilanishiga ham sababchi bo'ladi.

Bu yerda hamma narsa faqat korxonaning o'ziga bog'liq emasligi ko'rinib turibdi, albatta. Chunki korxonalar o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida xom ashyo, material, asbob-uskuna va boshqa ishlab chiqarish vositalari yetkazib beruvchi yoki mahsulot iste'molchilari sifatida harakat qiluvchi boshqa korxonalar bilan o'zaro aloqaga kirishadi. Bu munosabatlarda har bir kamchilik va nuqsonlar, jumladan, xom ashyo, material va asbob-uskunalarini vaqtida yetkazib bermaslik, vaqtida haq to'lamaslik, qarzlarni to'lash muddatlarining o'tkazib yuborilishi va boshqa xo'jalik yuritish qoidalari va majburiyatlarining buzilishi korxonalar iqtisodiy ahvolidagi yomonlashuviga, uning nochorlikka uchrashiga olib keladi. Shu sababli korxonalar faoliyatini samarali va yuqori rentabelli darajada amalga oshirish zaruriyati, barcha korxonalar ishlab chiqarishni kerakli tarzda tashkil qilish hamda o'z hamkorlari va davlat oldidagi majburiyatlarni qat'iy tarzda bajarish intizomi bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekistonda ko'plab kichik, o'rta va yirik ishlab chiqarish korxonalari faoliyati ko'rsatayotgan bo'lib, ular iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarini og'ir sanoatdan yengil sanoatgacha, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdan ilmiy ishlab chiqarishgacha qamrab olgan. Ular o'z faoliyatida ishlab chiqarishning barcha omillaridan yer, tabiiy va mehnat resurslari, texnika va texnologiyalar, investitsiyalar, hozirgi zamon fani tomonidan ishlab chiqarishning asosi yoki mamlakatning milliy boyligi deb ataluvchi zamonaviy axborot tizimidan foydalanadi. Ma'lumki, boylik yoki salohiyat bir nechta avlod va butun jamiyatning xatti-harakatlari evaziga yaratiladi. Korxonalarining vazifasi ushbu boylikni asrab-avaylash va undan samarali foydalanishda ifodalanadi. Xo'jalik yuritishning mazkur tamoyillaridan bir oz bo'lsa-da chetga chiqish jamoatchilik ishlab chiqarishi samaradorligining pasayishiga, xo'jasizlik va isrofgarchilikka olib keladi. Korxonalar ham bundan mustasno emas.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sanoat korxonalarining o'sish sur'atlari va tarmoq tarkibiga e'tiboringizni qaratamiz. Sobiq sovet xo'jalik yuritish tizimining barham topish davridagi bir oz pasayishdan so'ng, yurtimizda 1996-yildan boshlab sanoat ishlab chiqarishi hajmi izchil o'sib bormoqda. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yillik hajmi 2009-yilda 1990-yildagiga nisbatan 2,7 barobar, 2010-yilda esa 3

barobar o'sdi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining davom etayotganiga qaramasdan 2011-yilda sanoat ishlab chiqarishi 6,3 foizga o'sdi.

Iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o'zgarishlarini birgina misolda, ya'ni 2000-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoat ishlab chiqarishining ulushi bor-yo'g'i 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich 24,1 foizga yetganida yaqqol ko'rish mumkin. Sanoat mahsuloti umumiy o'sishining qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalar tashkil etdi. Bugungi kunda iqtisodiyotimizning lokomotiviga aylangan mashinasozlik va avtomobilsozlik (12,2 foiz), kimyo va neft-kimyo sanoati (9,4 foiz), oziq-ovqat sanoati (13,1 foiz), qurilish materiallari sanoati (11,9 foiz), farmatsevtika va mebelsozlik (18 foiz) 2011-yilda jadal sur'atlar bilan rivojlandi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda avtomobilsozlik, neft-gazkimyo sanoati, neftgaz mashinasozligi, zamonaviy qurilish materiallari sanoati, temir yo'l mashinasozligi, maishiy elektrotexnika, farmatsevtika, zamonaviy oziq-ovqat sanoati va yengil sanoat kabi bir qator mutlaqo yangi sanoat tarmoqlari yaratildi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida avtomobilsozlik sanoati alohida o'rin egallamoqda. Bu tarmoq Asaka shahrida AQShning «Jeneral Motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda yengil avtomobillar ishlab chiqaradigan, Toshkent shahrida Germaniyaning dunyoga mashhur «Daymler Bens» va Samarqand shahrida Yaponiyaning «Isuzu» kompaniyalari bilan hamkorlikda avtobuslar ishlab chiqaradigan hamda Samarqand shahrida Germaniyaning «MAN» kompaniyasi bilan tashkil etilgan yuk avtomobillari ishlab chiqaradigan yangi zavodlarni o'z ichiga oladi. Ana shunday o'zgarishlar natijasida mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1990–2010-yillarda 11,6 barobar o'sdi. Faqat oxirgi o'n yilning o'zida yengil avtomobillar ishlab chiqarish 7,1 barobar, avtobuslar 2,6 barobar va yuk avtomobillari tayyorlash 12,9 barobar oshdi.

Neft qazib chiqarish va uni qayta ishlash sanoatining yaratilishi mamlakatimizning energetik xavfsizligini ta'minladi. Neft va gaz kondensati qazib olish 1990-yilga nisbatan 1,4 barobar o'sdi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish sur'ati 1990–2010-yillar davomida 1,6 barobar,

suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmi esa 15,2 barobar ko‘paydi. Energetika mustaqilligini ta‘minlash, neft va gazni qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish dasturi doirasida, istiqlol yillarida eng zamonaviy texnologiyalarga ega bo‘lgan chet el kompaniyalari bilan hamkorlikda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi («Teknip», Fransiya) va Sho‘rtan gazkimyo majmuasi («ABB») barpo etildi, Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi to‘liq rekonstruksiya qilindi. Gaz-kimyo tarmog‘ining tashkil etilishi tabiiy gazni qayta ishlashni chuqurlashtirish va turdosh tarmoqlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish imkonini yaratdi.

Qo‘ng‘irot soda zavodida 2006-yildan boshlab kalsiyli soda, Samarqand kimyo zavodida nitrokalsiy fosfat o‘g‘iti ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi, 2010-yilda mintaqamizda yagona bo‘lgan Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar zavodi ishga tushirildi.

1990–2010-yillar davomida yog‘ochni qayta ishlash va selluloza-qog‘oz sanoatida ishlab chiqarish hajmi 13,4 barobar, oziq-ovqat sanoatida 5,7 barobar, yengil sanoatda 3,8 barobar o‘tdi.

1990-yilga nisbatan ip-kalava ishlab chiqarish 2,2 barobar ko‘paydi. Gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2010-yilda 21 million kvadrat metrdan ziyod bo‘ldi, bu esa 2000-yilda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbatan 13,6 barobar ko‘pdir.

O‘tish davrining murakkab sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash maqsadida iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari, xususan, neft, gaz, oltin qazib olish, rangli metallurgiya, kimyo va neft-kimyo sanoatini jadal rivojlantirish uchun davlat barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi. Natijada chuqur sifat o‘zgarishlari ro‘y berdi va O‘zbekiston sanoatining tarmoq tarkibi ancha diversifikatsiya qilindi va mutanosiblashdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining real sektori qo‘llab-quvvatlanayotgani hamda har xil tekshiruvchi va nazorat qiluvchi organlarning korxonalar faoliyatiga asossiz aralashuviga yo‘l qo‘yilmagani bois, korxonalar iqtisodi samarali yo‘lga qo‘yildi. Ularning iqtisodiy xatti-harakatlari uchun javobgarligi kuchaytirildi.

4. Korxonalar (firma) xavfsizligini ta‘minlashning maqsadi, vazifalari va tamoyillari

Xavfsizlik – bu murakkab va serqirra kategoriyadir. U asosan va qo‘shimcha ishlab chiqarishda foydalanilayotgan vositalarning xavfsizligi nuqtai nazaridan baholanadi va ko‘rib chiqiladi. Shu sababli hozirgacha biz «texnika xavfsizligi», «piyoda xavfsizligi», «oziq-ovqat xavfsizligi», «yo‘l harakati xavfsizligi» kabi tushunchalarni uchratsak-da, «korxonalar xavfsizligi» haqidagi tushuncha XX asrning so‘nggi o‘n yilligida ommalasha boshladi.

Mahsulotlarning zamonaviy namunalarini, ishlab chiqarish texnologiyasi, investitsiya rejalari va boshqalar sanoat ayg‘oqchiligining diqqat markazida turib, korxonalar va mamlakat uchun ma‘lum bir xavf tug‘diradi. Shu sababli xavfsizlik va tijorat sirlari muammolari hozirgi bozor va raqobatchilik sharoitlarida iqtisodiyot fanining, jumladan, zamonaviy korxonalar iqtisodiyotining muhim bo‘limlaridan biri hisoblanadi.

Korxonalar xavfsizligini ta‘minlashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- korxonalar va uning barcha bo‘linmalari, mehnat jamoasining davlat tuzilmasi, xorijiy hamkorlar va raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda qonuniy huquqlarni himoya qilish;

- korxonalar mulkini saqlash, undan oqilona va unumli foydalanish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish;

- tashkiliy va ishlab chiqarish barqarorligiga erishish, butlovchi qismlar yetkazib beruvchilarga yordamchi va hamkorlarga bir tomonlama qaram bo‘lishga yo‘l qo‘ymaslik;

- barcha tuzilmaviy bo‘g‘inlardagi xodimlar orasida mehnat intizomini mustahkamlash;

- mehnat unumdorligini oshirish uchun moddiy va ma‘naviy manfaatdorligini ta‘minlash;

- ishlab chiqarishda fan-texnika yutuqlaridan foydalanish, samarali axborot bazasini rivojlantirish;

- korxonalar obro‘sinini oshirish.

Ko‘rsatilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda korxonalar xavfsizligini ta‘minlash vazifalari belgilanib, ular korxonaning ichki tartib-qoidalari va ish tartibida hamda maxsus ishlab chiqilgan chora-tadbirlarda o‘z aksini topishi mumkin. Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) korxonalar ichida hamda tashqi tashkilotlar hukumat idoralari, boshqaruv tuzilmasidagi qoidabuzarlik omillari, vakolatni oshirish holatlarini aniqlash;

2) korxonaning barqaror ishlashiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xavf-xatar hamda bozor konyunkturasidagi noqulay o'zgarishlarni aniqlash va zarur choralarini qo'llash;

3) bo'lajak hamkorlarni o'rganish, ularning moliyaviy ahvolini tahlil qilish va baholash;

4) iqtisodiy ayg'oqchilikka qarshi chora-tadbirlarni tayyorlash;

5) korxonada sirlaridan xabardor bo'lgan malakali xodimlarni boshqa korxonalarga jalb qilishning oldini olish;

6) nosog'lom raqobatchilikni yengish;

7) korxonada hududi va moddiy resurslarini himoya qilish;

8) tijorat sirlarini muhofaza qilishni tashkil qilish;

9) mehnat jamoasi a'zolaridagi salbiy fikrlarni aniqlash;

10) favqulodda hodisalarning oldini olish va xavfsizlikning boshqa choralari.

Ma'lumki, qo'yilgan maqsad va vazifalar o'z-o'zidan hal qilinmaydi. Buning uchun, avvalo, o'z ishini yaxshi bilishdan tashqari, mohir va yuqori malakaga ega bo'lgan hamda o'zlari ishlayotgan korxonada uchun jon kuydiruvchi kadrlar zarur. Ularsiz muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

Xavfsizlik tamoyillari – xavfsizlikni ta'minlash taktika va strategiyasiga bo'lgan asosiy talablar, xavfsizlikning maqsad va vazifalarini hal qilishning to'g'ri yo'llarini tanlashdir. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:


- qonuniylik tamoyillari;
- mustaqillik va mas'uliyat;
- iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va foydalilik;
- maqsadli dasturiy rejalashtirish;
- o'zaro aloqalar va muvofiqlashtirish;
- mehnatni ilmiy tashkil qilish;
- oshkoralik va zaruriy maxfiylikning uyg'unligi;
- ixtisoslashuv va yuqori kasbiy malaka.

4.1. Korxonada (firma) xavfsizligini ta'minlashni tashkil qilish va boshqarish

Xavfsizlik hodisalarning oldini olish va ogohlantirish chorasi sifatida har bir alohida holatdagi aniq harakat bo'lib, korxonada xarakteri, uning joylashuvi, ahamiyati kabilarga bog'liq bo'ladi. Mazkur jarayonda xavfsizlik tizimining o'zini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Uning

rahbari xavfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqarishning muayyan sharoitlariga nisbatan ishlab chiqishda shaxsan ishtirok etishi zarur.

Xavfsizlik konsepsiyasi, *birinchidan*, korxonaning maqsad va vazifalariga zid kelmasligi, *ikkinchidan*, korxonaning xavfsizligiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi muhit ta'sirini inobatga olishi zarur. Bu ta'sirni quyidagi ko'rinishida aks ettirish mumkin (1-chizma):



1-chizma. Korxonaning xavfsizligiga tashqi muhitning ta'siri.

Shu bilan bir vaqtda korxonaning o'z faoliyatining muhim yo'nalishlari xavfsizligini ta'minlash uchun muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak va buning uchun avvalo, mos keluvchi qo'riqlash tartibini yaratish lozim. Mamlakatimiz va xorij amaliyoti tajribasi bunda quyidagi faoliyat turlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Bino va inshootlar, aloqa tarmog'i qurilma va uskunalari qo'riqlash tartibini ta'minlash.

2. Tezkor xavfsizlik, maxfiy axborotlarga bo'lgan vakolatni boshqarish, kelib ketuvchilar, transport va yuk tashishni nazorat qilish, qoidabuzarlik holatlarini tekshirish, axborot xavfsizligini ta'minlash.

3. Xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ma'muriy faoliyat personalini (xodimlari)ni tayyorlash va o'qitish, inspeksiya, taftish va nazorat, muammoli vaziyatlarning oldini olish, istiqbolli chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

4. Moddiy boyliklarni himoya qilish va tabiiy ofatlarga qarshi kurash, yong'inlarning oldini olish, yong'in xavfsizligi va ogohlantirish qurilmalari

holatini kuzatib borish va hokazo.

Korxonalar rahbarlari mehnat jamoalarini doimiy ravishda xavfsizlikni ta'minlash natijalari to'g'risida xabardor etishlari lozim. Faqat zarur hollarda xavfsizlik chora-tadbirlari maxfiy bo'lishi mumkin. Xavfsizlik chora-tadbirlarining maxfiyligi korxonada bo'limlarining zaruriy qoidalarni qo'llash va ularga amal qilishini, nazorat qilishni maxsus tashkil etishni ko'zda tutadi.

Hozirgi jamiyatni axborotlashtirish va elektronlashtirish sharoitlarida korxonalarining xavfsizligini ta'minlash uchun doimiy ravishda faoliyat ko'rsatuvchi, tijorat faoliyatining xavfsizligini ta'minlashning barcha shakl va usullarini qamrab oluvchi tizim amal qilishi lozim. Shu sababli xavfsizlik xizmati marketing va menejment xizmati, valuta, kredit va huquqiy bo'limlar kabi iqtisodiy bo'linmalar bilan chambarchas bog'liqlikda ishlab, iqtisodiy xavfsizlikka kuchliroq yondashgan holda, ularning faoliyatini to'ldirishi zarur.

5. Korxonada (firma)ning xavfsizlik xizmati, uning tuzilishi va vazifalari

Xavfsizlik xizmati korxonaning tuzilmaviy birligi bo'lib, xavfsizlik tartibini ishlab chiqish, o'rnatish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, unga rioya qilinishini nazorat qilishni amalga oshiradi. U o'z faoliyatida quyidagilarga asoslanishi lozim:

- qo'riqlash tartibini tashkil etish bo'yicha qoidalar;
- rahbar, mutaxassis va texnik xodimlar uchun maxfiy ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha lavozim yo'riqnomasi;
- texnik muhandislik jihatidan himoya qilishni tashkil etish bo'yicha lavozim yo'riqnomasi;
- xorijiy vakolatxonalar va vakillar bilan ishlash bo'yicha lavozim yo'riqnomasi.

Korxonada xavfsizlik xizmati tarkibida axborot-tahlil bo'linmalari, xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishlari bo'yicha tashkiliy bo'g'inlar hamda muayyan vazifalarni bajarish uchun vaqtinchalik tuzilmalar yaratilishi mumkin. Korxonada rahbariyati yoki aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi qaroriga ko'ra, muayyan maqsadlar va yuzaga keluvchi sharoitlarda xavfsizlikni ta'minlashning murakkab vazifalarini hal qilish uchun korxonaning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda vaqtinchalik tuzilmalar yaratilishi mumkin.

Belgilangan vazifalarni bajarish uchun korxonaning xavfsizlik xizmati quyidagilarni amalga oshiradi:

- ma'muriy taqsimlash vazifasi, xavfsizlik tartibini o'rnatish va ta'minlash, mas'ul shaxslarning korxonada xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha huquq va majburiyatlarini belgilash, shuningdek, korxonaning vakolat vazifalarini bajarishga oid qarorlar tayyorlash yo'li bilan amalga oshiriladi;

- xo'jalik-taqsimlash vazifasi, xavfsizlik xizmatining korxonada xavfsizligini ta'minlashda zarur bo'lgan resurslarni belgilashi. Korxonada mulki va boyliklarini saqlash hamda ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlarini tayyorlash va amalga oshirish yo'li bilan amalga oshiriladi;

- hisob-nazorat vazifasi, tijorat-moliyaviy faoliyatning eng muhim yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish va korxonaning moliyaviy barqarorligiga tahdid soluvchi xavf-xatarning oldini o'z vaqtida olish, ularning manbalarini baholash, xavfli holatlarni nazorat qilishni yo'lga qo'yish, korxonada xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy omillarni hisobga olish, shuningdek, korxonaning hayotiy ehtiyojlariga tahdid soluvchi g'irrom raqiblar, ishonchsiz hamkorlar, shaxslar va tashkilotlar haqidagi ma'lumotlar yordamida amalga oshiriladi;

- ijtimoiy-kadrlar vazifasi, xavfsizlik xizmatining kadrlarni joylashtirish, mehnat jamoalaridagi salbiy fikrlar, janjallarning oldini olish, xodimlarga yo'riqnoma berish, ularda belgilangan xavfsizlik me'yorlariga rioya qilish uchun javobgarlik tuyg'usini shakllantirishda ishtiroki orqali amalga oshiriladi;

- tashkiliy-boshqaruv vazifasi, korxonada xavfsizligini ta'minlash jarayonini boshqarishning doimiy tashkiliy tuzilmasini yaratish, qo'llab-quvvatlash va o'z vaqtida qayta tashkil etishga boshqaruv ta'sirini ko'rsatish, faoliyatning alohida yo'nalishlari bo'yicha moslashuvchan vaqtinchalik tuzilmalar, alohida bo'g'inlar o'rtasida belgilangan dasturiy maqsadlarga erishish uchun o'zaro aloqalar va muvofiqlashtirishni tashkil etish yordamida amalga oshiriladi;

- rejali ishlab chiqarish vazifasi, korxonada xavfsizligini ta'minlash bo'yicha alohida maqsadli rejalar va dasturlar majmuini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish, xavfsizlik tartibini o'rnatish va qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlarni tayyorlash va bajarish yordamida amalga oshiriladi;

- tashkiliy-texnik vazifa, korxonada xavfsizlik tartibini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, maxsus texnikalar hamda yangi, ilg'or

texnologiyalar, maxfiy tartib va boshqa maxsus faoliyatlarni o‘zlashtirish yordamida amalga oshiriladi;

- umumiy uslubiy vazifa, korxonada xavfsizligini ta‘minlashning ilg‘or tajribalarini to‘plash va yoyish, xodimlarni o‘qitishni tashkil etish, korxonada xavfsizligini ta‘minlashga oid muammolarni hal qilishni ilmiy jihatdan ishlab chiqish va uning bu sohadagi faoliyatini uslubiy ko‘rsatmalar bilan ta‘minlash yordamida amalga oshiriladi;

- axborot-tahlil vazifasi, xavfsizlikka oid ma‘lumotlarni maqsadli ravishda yig‘ish, to‘plash va ular ustida ishlash, buning uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni analitik tahlil qilishning texnik va uslubiy vositalarini yaratish va ulardan foydalanish, korxonaning manfaatdor bo‘linmalari va alohida shaxslarni xavfsizlik xizmatida mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar bilan ta‘minlash yordamida amalga oshiriladi.

Korxonada xavfsizlik xizmati Nizomida uning maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlari, nazorat-taftish faoliyati belgilab beriladi. Xavfsizlik xizmati o‘z faoliyatini korxonada xavfsizligini yuqori darajada ta‘minlash va qo‘llab-quvvatlash asosida olib borib, quyidagilarni qamrab oladi:

- maxfiy tartibdagi faoliyatni tashkil etish;
- axborot xavfsizligini ta‘minlash;
- muhandislik-texnik muhofaza;
- mehnat jamoalaridagi salbiy yo‘nalishlarning oldini olishga oid faoliyat.

Korxonada xavfsizligini ta‘minlash uning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashga olib keladi. Bu esa korxonaning nufuzini oshiradi. Jamoa va jamiyat farovonligiga xizmat qiladi.

6. Korxonada (firma)ning tijorat sirlari va himoya qilish tartibi

Korxonaning tijorat sirlari ishlab chiqarish, texnologik ma‘lumotlar, boshqaruv, moliya va shu kabilar bilan bog‘liq bo‘lib, ularni oshkor qilish korxonada manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlardir. Korxonada tijorat sirlari toifasining qonunchilikda belgilab berilgan tavsifnomasi shunday.

Mavjud nuqtai nazarlarga ko‘ra, korxonaning tijorat sirlari umumiy holda quyidagilar haqidagi ma‘lumotlarni qamrab oladi:

- korxonaning savdo aloqalari;

- kapital hajmi va tuzilmasi, investitsiya rejalari;
- ta'minotchi va iste'molchilar, tuzilgan shartnomalar;
- ishlab chiqarish hajmi, aylanma mablag'lar va foyda hajmi;
- bahoni shakllantirish siyosati va tovarlar bahosining shakllanishi;
- bank operatsiyalari va hokazo.

Ko'pincha «tijorat sirlari» tushunchasidan tashqari, «korxonaning ishlab chiqarish sirlari» tushunchasi ham qo'llanadi. U ishlab chiqarish usullari, texnologiyalar, texnik kashfiyotlar, tadqiqot ishlari, mehnatni tashkil qilish, aloqa tarmog'i va shu kabilar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Bugungi bozor munosabatlari, ayniqsa, raqobatchilik maxfiy sharoitlarda korxonalar tijorat va ishlab chiqarish sirlarining oshkor qilinishi uning ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar iste'molchilarini yo'qotishga olib kelishi mumkin. Mutaxassislar fikriga ko'ra, tijorat sirlariga mansub ma'lumotlarning to'rtidan bir qismi yo'qotilishi ham raqiblar uchun katta imkoniyat yaratadi hamda bir necha oy ichida ma'lumotlar chetga chiqib ketishiga yo'l qo'ygan firmalarning yarmi bankrotga uchrashiga olib keladi. Shu sababli hozirgi paytda tijorat sirlarining huquqiy maqomi va toifasini aniq belgilash, ularni oshkor qilish uchun javobgarlik mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tijorat sirlarini muhofaza qilish mexanizmi, korxonaning moliyaviy va texnik imkoniyatlari bilan aloqada bo'lganda, shuningdek ma'lumotlarni himoya qilishning ishonchli tizimi mavjud bo'lganda to'liq kuch bilan ishlaydi. Bundan tashqari quyidagilarni to'g'ri tashkil qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi:

- tayyor mahsulot (ayniqsa, tajriba namunalari) va materiallarning ba'zi turlarini hisobga olish va qo'riqlash;
- tadbirkorlik sirlari mavjud bo'lgan hujjatlar bilan ishlash tartibi (ularni hisobga olish, saqlash, yo'q qilish qoidalari va boshqalar);
- hujjatlarni ko'paytirish va ulardan nusxa olish vositalarini nazorat qilish;
- aloqa vositalari va hisoblash texnikasida tijorat ma'lumotlarini himoya qilish;
- korxonalar hududi va uning asosiy bino hamda inshootlarini qo'riqlash;
- mazkur korxonaga begona shaxslar tashrif buyurishini nazorat qilish.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha vazifalarni samarali bajarish boshqaruv apparatida tijorat sirlarini muhofaza qilish bilan shug‘ullanuvchi maxsus xizmatlarni yaratishni ko‘zda tutadi. Xorij mamlakatlarida mazkur faoliyat bilan firmalarning maxsus bo‘linmalari shug‘ullanadi. Ular raqobatchilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni izlash va to‘plash bilan ham shug‘ullanadi. Shu bilan bir vaqtning o‘zida ular savdo hamkorlarining tijorat sirlarini birgalikda himoya qilish imkoniyatini ham rad qilmaydilar. Masalan, ba‘zi firmalar faoliyatida tadbirkorlik aloqalari davomida hamkorlarga berilgan ma‘lumotlarni birgalikda himoya qilish bo‘yicha maxsus shartnomalar tuzish tartibi ko‘zda tutilgan.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarning davlat idoralarida maxsus vositachilik xizmatlari mavjud bo‘lib, u mijozlarni ularni qiziqtirayotgan korxonalar va tashkilotlar haqidagi ma‘lumotlar bilan ta‘minlaydi. Mamlakatimizda korxonalar davlatga soliqqa tortish va iqtisodiy ma‘lumotlarni yig‘ish va ular bilan ishlash tizimi uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni taqdim etishi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, korxonalar o‘z faoliyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni, jumladan, yillik balansni nashr qiladilar. Shu bilan bir paytda korxonalar tijorat sirlariga oid ma‘lumotlarni bermaslik huquqiga ega. Tijorat sirlari davlat boshqaruv va nazorat idoralari xodimlari orqali chetga chiqib ketishining oldini olish maqsadida korxonalar rahbari ularning vakolatlarini bilishi hamda ular talab qilgan istalgan ma‘lumotni emas, balki faqat xizmat vakolatiga doir ma‘lumotlarni taqdim etishi zarur. Birinchi o‘rinda bu statistika xizmati, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo‘mitasi, huquqni muhofaza qilish organlari, moliya, soliq, sanitariya, yong‘inga qarshi kurash va boshqa xizmatlar vakillariga tegishli. Korxonalar rahbari, shuningdek, davlat idoralari xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari ustidan arz qilish tartibi, ular tufayli korxonaga yetkazilgan moddiy va ma‘naviy zararni qoplash mexanizmini bilishi va unga amal qilishi zarur.

Ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va boshqa xizmatlar mutaxassislari o‘zi ishlayotgan korxonaning tijorat sirlariga oid ma‘lumotlar chetga chiqib ketishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan va real yo‘qotishlarni to‘g‘ri va aniq (qiymat shaklida) baholashni o‘rganib olishlari zarur. Korxonalarining maxfiylik shartlariga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keluvchi yo‘qotishlari umumiy ko‘rinishda quyidagilarga olib keladi:

- ilmiy tadqiqotlarga litsenziya sotish imkoniyatlari pasayadi, fan-texnika taraqqiyoti sohasida erishilgan ustunliklar yo‘qotiladi, ilmiy

tadqiqot bo‘linmalarining yo‘nalishni o‘zgartirishlari uchun xarajatlari o‘sadi;

- ishlab chiqarish faoliyatida zarur bo‘lgan xom ashyo, texnologiya va ashyolarni sotib olishda qiyinchiliklar yuzaga keladi (yoki raqobatchilar tomonidan sun‘iy ravishda yaratiladi);

- korxonaning tadbirkorlikdagi sheriklar bilan hamkorligi cheklanadi, foydali shartnomalarni imzolash imkoniyatlari kamayadi, shartnoma majburiyatlarini bajarishda muammolar vujudga keladi;

- korxonaning yangi bozor strategiyasini yaratish, marketing tadqiqotlari tuzilmasini o‘zgartirish kabilarga sarflanuvchi xarajatlari o‘sadi;

- tijorat sirlarini oshkor qilganlarga nisbatan iqtisodiy jazo choralari qo‘llash xavfi kuchayadi.

Barcha yo‘qotishlarning umumiy miqdori qiymatini aniq hisoblash juda murakkab va kuchli mehnat talab qiluvchi jarayon bo‘lib, ba’zida ishonchli ma’lumotlar yo‘qligi sababli ularni hisoblashning imkoni ham bo‘lmaydi. Yuqorida keltirilganlar korxonalardan qo‘shimcha xarajatlarni talab qilib, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatdagi muvaffaqiyatlar imkoniyatini kamaytiradi. Xuddi shuning uchun ham hozirgi paytda tijorat sirlarini muhofaza qilishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Tayanch tushunchalar:

Korxonona (firma), xususiy firma, mas’uliyati cheklangan firma, aksioner firma, davlat korxonona (firma)si, aralash firma, xolding kompaniya, korxonona (firma) siyosati (tijorat, narx, moliya, raqobat siyosati). Korxonona daromadi, yalpi daromad, foyda, iqtisodiy foyda, rentabellik, bankrotlik, soxta bankrotlik, kapital, asosiy kapital, korxonona xavfsizligi.

Savol va topshiriqlar:

1. Korxonona (firma)ni ta’riflang.
2. Xarajatlar, ichki va tashqi xarajatlar nima?
3. Korxonaning iqtisodiy manfaatlari deganda nimalarni tushunasiz?
4. Korxonona faoliyatiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlarni sharhlang.
5. Korxonaning bankrot bo‘lishi sabablarini tushuntiring.
6. Bankrot bo‘lgan firmani qanday oqibatlar kutadi?
7. O‘zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish g‘oyat muhim ishligini tushuntirib bering.

8. Korxonaning tijorat sirlari va axborot obyektlarini himoya qilishning mohiyatini tushuntirib bering.

9. Mamlakatimizda bandlik muammosini hal etishda korxonalar (firma)larning rolini izohlang.

10. Kichik biznes imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqidagi fikringizni bayon eting.

11. Korxonalar xavfsizligi nima?

12. Korxonalarining mamlakat iqtisodiy negizlarini mustahkamlashdagi o‘rni va roliga baho bering.

13. Mustaqillik yillarida sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalarining rivojlanishini tahlil qiling.

14. Oilaviy korxonaning mohiyatini tushuntiring.

Mavzuni chuqur o‘rganish instrumentariysi

Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Korxonalar – yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan, mulkchilik huquqi yoki xo‘jalikni to‘la yuritish huquqi bo‘yicha o‘ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaradigan va sotadigan yoki mahsulotni ayirboshlaydigan ishlarni bajaradigan, xizmat ko‘rsatadigan, bellashuv hamda mulkchilikning barcha shakllari teng huquqliligi sharoitida amaldagi qonunlarga muvofiq o‘z faoliyatini ro‘yobga chiqaradigan mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt.

Mikrofirmalar – kichik biznes subyektlarining bir turi bo‘lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko‘ra sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlarida 20 kishigacha, xizmat ko‘rsatish sohasida 10 kishigacha, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishigacha ishlovchi korxonalar mikrofirmalar hisoblanadi.

Kichik korxonalar – kichik biznes subyektlarining bir turi bo‘lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko‘ra sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko‘rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik korxonalar hisoblanadi.

Firmalar – iste‘molchilar ehtiyoji va o‘z rivojlanishini qondirish maqsadida tovar va xizmatlar tayyorlash va sotish uchun ishlab chiqarish omillaridan eng yaxshi foydalanish borasida mustaqil qarorlar qabul qiluvchi iqtisodiy birlik.

Tadbirkorlik riski – firmaning ko‘zlangan maqsadiga erishish yo‘lida duch keladigan iqtisodiy xavf-xatardir.

Ishlab chiqarish riski – firmaning mo‘ljallangan miqdordagi va turdagi tovarlarni ishlab chiqara olmay qolishi.

Tijorat riskida firma o‘zi mo‘ljallangan miqdorda va narxda hamda o‘z vaqtida tovarlarini sota olmay qoladi, natijada uning pul tushumlari ko‘zlanganidek bo‘lmaydi.

Moliya riski – ko‘zlangan miqdordagi foydani olmasdan, belgilangan rentabellikka erisha olmay qolish yoki foyda o‘rniga zarar ko‘rish.

Transformatsion xarajatlar – ishlab chiqarish omillarining biror xil ne‘matlar yaratishga sarflanishi, ya‘ni tabiat «ashyosi»ni muayyan ne‘matga aylantirish bilan bog‘liq xarajatlar.

Soxta bankrotlik – xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z majburiyatlarini iqtisodiy jihatdan bajara olmasligi haqida bila turib, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan e‘lon berishi kreditorlarga zarar yetkazilishiga sabab bo‘ladigan iqtisodiy hodisa (*O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 180-moddasi*).

Biznes-inkubatorlar – maxsus tanlab olingan kichik korxonalarni o‘z maydonlariga joylashtiruvchi va ularga maslahat, o‘qitish va ofis xizmatlarini ko‘rsatuvchi tuzilmalar.

Ijtimoiy-amaliy markaz – ish bilan band bo‘lmagan aholi va ishsizlar o‘rtasida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan shug‘ullanuvchi, odatda bandlik markazlari qoshida tashkil etiluvchi tuzilma.

Texnopark – o‘z hududida kichik innovatsion korxonalarni yaratish va rivojlantirish orqali ilmiy salohiyatdan foydalanish va ishlab chiqilgan texnologiyalarni tijoratlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi tuzilma.

Konsalting – ishlab chiqarishga ish yuzasidan xizmat ko‘rsatish sohasida ixtisoslashgan firmalarning o‘z mijozlariga maslahat xizmati ko‘rsatish va texnikaviy loyihalarni ekspertiza qilish bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat.

Auditorlik kompaniyasi – xo‘jalik yurituvchi subyektlarga buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish, buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarni tayyorlash, bu borada turli maslahatlar berish, moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida xulosalar berish va shu turdagi boshqa xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi muassasa.

Sug‘urta kompaniyasi – sug‘urtalovchi ro‘lida maydonga tushuvchi, ya‘ni sug‘urta hodisasi ro‘y bergan chog‘da sug‘urtalangan shaxsning zararlarini qoplash majburiyatini o‘ziga oluvchi tashkilot.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. Tadbirkorlik faoliyati korxonada (firma) doirasida va individual tarzda yuz beradi. Firma tovar ishlab chiqaruvchi hisoblanadi, u muayyan mulk

shakliga tayanadi, ishlab chiqaruvchilar jamoasi bo‘ladi, uning korporativ guruhiy manfaati mavjud, nihoyat u ixtisoslashgan bo‘ladi. Firmalarning uchta asosiy turi bo‘lib, bular xususiy, shirkat va davlat firmalaridir.

2. Korxonalar (firma)lar o‘z maqsadiga erishish uchun iqtisodiy birlashmalar tashkil etadi. Bulardan asosiylari xolding, konglomerat, kartel va transmilliy korporatsiyalardir. Firmalarning jamoatchilik uyushmalari bo‘lib, bular tadbirkorlar ittifoqi, savdo-sanoat palatalari va turli biznesni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalaridan tashkil topadi.

3. Foyda olish maqsadida tadbirkorlikka qo‘yilgan mablag‘ kapital bo‘lib, bu individual yoki korporativ mulk hisoblanadi, tarkiban asosiy va aylanma kapitaldan iborat. Asosiy va aylanma kapital moddiy shakli, o‘z qiymatini o‘tkazishi, qaytadan tiklanish muhlati jihatidan farqlanadi, ularning nisbati ishlab chiqarishning texnikaviy darajasi, uni serkapital, sermehnat yoki serashyoviy bo‘lishiga bog‘liqdir.

4. Korxonalar (firma)ning o‘z biznesiga sarflagan kapitali uning joriy xarajatlariga aylanadiki, bu uning tovar va xizmatlarni yaratish va ularni sotish uchun qilgan sarflaridan iborat, xarajat qilish foyda topishning shartidir. Xarajatlar tabiati jihatidan har xil bo‘ladi, miqdori ishlab chiqarish miqyosiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar doimiy bo‘lsa, miqdori bunga bog‘liq xarajatlar o‘zgaruvchidir. Firma uchun u yaratgan tovarlar va xizmatlar qanchaga tushishini ularning birligini yaratishga ketgan xarajatlar, ya‘ni o‘rtacha xarajatlar belgilaydi. Qo‘shimcha ishlab chiqarish uchun ketgan qo‘shimcha xarajatlar marginal xarajatlar bo‘ladi.

5. Korxonalar (firma) xarajatlari o‘zgarib turadi, bu esa resurslarning bozor narxiga, ularning naqadar tejalishiga, xarajatlar turlarining nisbatiga, nihoyat ishlab chiqarish ko‘lamiga bog‘liqdir. O‘rtacha xarajatlar miqdori mehnat unumdorligiga teskari mutanosiblikda bo‘ladi.

6. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida erkinlik darajasiga qarab uch toifa korxonalar (firma) paydo bo‘ladi:

- davlat buyurtmasi saqlangan korxonalar;
- faqat bozorga ishlovchi korxonalar;
- ham buyurtma, ham bozor uchun ishlovchi korxonalar.

9-MAVZU. TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI

1. Talabning iqtisodiy mohiyati. Talabning o‘zgarib turishiga ta‘sir etuvchi omillar

Bozor mexanizmida talab va taklif muhim o‘rinni egallaydi va ko‘zga ko‘rinmas kuchga ega. Talab – bu shunchaki ehtiyoj emas, balki to‘lovga qobil pul bilan ta‘minlangan ehtiyojdir.

Ehtiyoj – kishilarning hayotiy vositalarga zaruriyatini, taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiylikni ifodalovchi ilmiy kategoriya. Uning bozor iqtisodiyoti sharoitida ifodalanishi «talab» tushunchasidir. Talab ehtiyojdan farq qilib, mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida amal qiladi.

Ehtiyojning faqat pul bilan ta‘minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, talab – bu pul bilan ta‘minlangan ehtiyojdir.

Bozorda xaridor o‘ziga zarur bo‘lgan narsalarni sotib olib, ehtiyojlarini qondirishga intiladilar. Ammo kishi ehtiyojlarining qay darajada qondirilishi uning muayyan tovarga bo‘lgan talabi, aholining pul daromadlari va uning o‘zgarishiga, bozor hajmiga, bozordagi mollarning narxlariga, iste‘molchilarga beriladigan imtiyozlar kabi omillarga bog‘liq bo‘ladi. Bularning ichida talabni aniqlab beradigan asosiy omil bu tovarning bahosidir. Chunki bu omil talabning u yoki bu tomonga qarab o‘zgarishiga olib keladi. Xo‘sh, talabning o‘zi nima?

Talab – bu iste‘molchining muayyan joyda va muayyan vaqtda tovar yoki xizmat sotib olish istagi va imkoniyatidir. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, bu pul bilan ta‘minlangan ehtiyoj, ya‘ni to‘lovga qodir ehtiyojdir. Aynan mana shu ehtiyojga qarab bozorga chiqarilishi lozim bo‘lgan tovarning miqdori va assortimenti aniqlanadi. Talab iste‘molchi sotib olish qobiliyatiga ega bo‘lgan tovar miqdorini belgilab beradi. Demak, talabni iste‘molchi tomonidan tovarlarni sotib olish mumkin bo‘lgan baho sifatida ko‘rishimiz ham mumkin. Tovar bahosi bilan xaridor sotib olishi mumkin bo‘lgan tovar miqdori o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rib chiqamiz.

Talablar har xil bo‘lib, bir xil tovar yoki xizmatlarga bo‘lgan talabning ikki turi farq qilinadi: yakka talab va bozor talabi.

Talab – iqtisodiy subyektning muayyan miqdordagi ne‘matlarni muayyan bozor bahosida sotib olish istagi va imkoniyati. **Talab** – bu shunchaki ehtiyoj emas, balki to‘lovga qobil, pul bilan ta‘minlangan ehtiyojdir.

Vahima talab – bozordagi shov-shuv hamda vahima ta‘sirida sun‘iy paydo bo‘ladigan va shiddat bilan ortib boradigan talab. Vahima talab odatdagi normal talabga nisbatan ortiq talab hisoblanadi. Bunday talab, *bir tomondan*, aholi orasida mish-mishlar tarqatish va reklama vositasida

muayyan tovarga o'ta yuqori baho berish orqali iste'molchi ruhiyatiga ta'sir etish yo'li bilan, *ikkinchi tomondan*, tovarlarga bo'lgan g'oyat katta qiziqish, qimmatchilik va qahatchilik xavfi, pul almashish ehtimoli, har xil shov-shuvlar ta'sirida puldan tezroq qutulish va tovar zaxirasini ko'paytirishga intilish oqibatida yuzaga keladi. Vahima talabni ko'proq savdo ahli har xil mish-mishlar tarqatish orqali ham yuzaga keltiradi. Vahima talabning paydo bo'lishi bozor narxini ko'tarib yuboradi, tovarlar talashib olinadi, tovar talabi, taqchilligi g'oyat kuchayib ketadi. Vahima talab iqtisodda uchrab turadigan hodisa. Lekin u o'tkinchi xarakterga ega bo'lib, uzoq davom eta olmaydi. Vahima talab tartibsizliklarni keltirib chiqarishga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiyot uchun bozor ko'lami g'oyat muhim, chunki bozor qanchalik keng bo'lsa, shunchalik ishlab chiqarishning o'sishiga sharoit yaratiladi. Tovarlar o'z vaqtida sotiladi, kerakli resurslar sotib olinib, takror ishlab chiqarish uzluksizligi ta'minlanadi. Muhimi, iste'molchilarning talabini qondirishga erishiladi.

Iqtisodiyotning nimani, qancha va kim uchun ishlab chiqarish zarur degan azaliy muammosi bozorda aniqlanishi barchaga ma'lum. Shu sababli bozor tizimi dunyo mamlakatlari intilayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir. Ishlab chiqarishda yaratilgan turli-tuman mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar iste'molchilarga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bozor orqali yetib boradi. Bozor ishlab chiqarishni iste'mol bilan bog'laydi, chunki hech bir narsa tekinga berilmaydi, uni bozorda pulga sotib olish talab qilinadi.

Bozor – bu talabning subyekt bo'lgan xaridorlar (iste'molchilar) bilan taklifning subyekt bo'lgan (ishlab chiqaruvchilar) sotuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, ularni bir-biriga bog'laydigan mexanizmdir.

Bozorga tovar egasi uni sotish, xaridor esa uni olish uchun chiqadi. Sotuvchilar – bu tovar ishlab chiqaruvchi firmalar, fermer xo'jaliklari, kichik biznes sohiblari, yakka tarzda ishlab chiqaruvchi kishilardir. Xaridorlar esa jamiki iste'molchilar, ya'ni xonadonlar, resurslarni olib ishlatuvchi firmalar, davlat idoralari va yakka tartibda ishlab chiqaruvchilar bo'ladi. Agar aholi bozordan iste'mol buyumlari va xizmatlarni sotib olsa, firmalar va yakka tartibda ishlovchilar asbob-uskuna, mashinalar, yoqilg'i, elektr energiya, xom ashyo va ish kuchini sotib oladilar. Bozorda tovarlarni pul vositasida ayirboshlash, ya'ni oldi-sotdi munosabatlari paydo bo'ladi. Bir tovar pulga ayirboshlansa, shu pulga

qaytadan boshqa tovar sotib olinadi. Xullas, bozor talab va taklif qonuni talablari asosida ish ko'ruvchi mexanizmdir.

Talabning o'zgarib turishiga ta'sir etuvchi omillar. Talabga ta'sir etuvchi omillar uch guruhga ajraladi: a) narxlar. Bu muayyan paytdagi aniq bir tovar narxi, o'rinbosar tovarlar narxi va o'zgarishi kutiladigan narxlar. Bular talabni oshirishi yoki qisqartirishi mumkin; b) xaridorning pul daromadi yoki xarid qurbi. Narx o'zgarmagan holda daromad oshsa, talab ko'payadi, aksi bo'lsa, talab kamayadi; c) xaridorning qaysi tovarni afzal ko'rishi, bu uning didiga va xohishiga bog'liq. Narx va daromadni xaridor o'z bilganicha o'zgartira olmaydi, lekin ularni nazarda tutgan holda xaridor o'zi afzal ko'rgan tovarga talab bildiradi.


Mahsulot narxi bilan sotib olinadigan tovar miqdori o'rtasida bo'ladigan teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlik talab qonuni deyiladi.

Talabga narxdan tashqari quyidagi omillar ta'sir qiladi: iste'molchi didi, bozordagi iste'molchilar soni, iste'molchining daromadi, bir-biriga bog'liq tovarlarning narxi, kelajakda narx va daromadlarning o'zgarishi.

2-jadval

Tovar birligining bahosi (so'm)	Talab miqdori (dona)
5000	1000
4000	2000
3000	3000
2000	4000
1000	5000

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tovar birligining bahosi qanchalik past bo'lsa, iste'molchining xarid quvvati, ya'ni sotib olishi mumkin bo'lgan tovar miqdori shunchalik ko'p bo'ladi va aksincha. Demak, tovar bahosi bilan tovar miqdor o'rtasidagi bog'lanish nisbat ko'rinishda bo'ladi va talab egri chizig'i deyiladi.



1-chizma.

OP – tovar birligining bahosi,

OQ – tovarga bo‘lgan talab miqdori.

Talab egri chizig‘i talab qonunini ifodalaydi. Talab faqat baho omili bilangina belgilanmaydi, uning o‘zgarishiga quyidagi omillar ham ta’sir ko‘rsatadi:

1) iste’molchilar urf-odat va didlarining o‘zgarishi. U asosan reklamaning yoki modaning o‘zgarishi natijasida ro‘y beradi. Masalan, hozirda kompakt disklarning yaratilishi gramplastinkalarga bo‘lgan talabni keskin pasaytirib yubordi;

2) bir-birining o‘rnini bosuvchi tovarlarning mavjudligi. Masalan, ikki xil bir turdagi tovar bir xil talabni qondirishi mumkin. Bu tovarlar bir-birining o‘rnini bosuvchi tovarlar deyiladi. Bunday tovarlardan biri narxining o‘zgarishi, ikkinchisiga bo‘lgan talabni o‘zgartiradi;

3) to‘ldiruvchi tovarlar narxlarining o‘zgarishi. Masalan, ko‘p turdagi tovarlar birgalikda sotib olinadi. Poyafzal bilan uning moyi biri-birini to‘ldiradi. Shuning uchun poyafzal narxining o‘sishi unga bo‘lgan talabni pasaytiradi. Binobarin, poyafzal moyiga bo‘lgan talab ham pasayadi;

4) tovar nafliligining o‘zgarishi. Masalan, sabzavot-mevalarning mavsumlarga qarab iste’mol qilinishi sog‘liq uchun foydaliligi haqidagi ma’ruza yoki reklama unga bo‘lgan talabni oshiradi;

5) daromadning o‘zgarishi. Aholi daromadlarining oshishi ularning xarid quvvatini oshiradi, bu esa tovarlarga bo‘lgan talabni ham oshiradi;

6) atrof-muhitdagi o‘zgarishlar. Masalan, agar havo isib ketsa, salqin ichimliklar, muzqaymoqqa va xona sovtgichlariga bo‘lgan talab oshadi va aksincha;

7) aholi sonining o‘sishi. Masalan, aholining tug‘ilishi darajasining o‘sishi akusherlik xizmati, maktabgacha tarbiya, maktab

tarbiyasi kabi xizmatlarga, bolalar uchun kerak mahsulotlarga talabni oshiradi va aksincha.

2. «Taklif» tushunchasi. Taklifning o‘zgarib turishiga ta’sir etuvchi omillar

Taklif – ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan va muayyan paytda bozorga chiqarilgan yoki keltirish mumkin bo‘lgan jami tovarlar va xizmatlar miqdoridir. Shuningdek, taklif ishlab chiqaruvchi ma’lum vaqt ichida ishlab chiqarishga qodir bo‘lgan narxning har bir darajasida bozorga sotishga chiqaradigan mahsulotlar miqdorini ko‘rsatadi. Narx o‘zgarishi bilan sotishga chiqariladigan mahsulot miqdori ham o‘zgarishi sababli talab va taklifning ham bir qator muqobil variantlari mavjud bo‘ladi.

Bozordagi tovarlarning bahosi faqat talabga bog‘liq bo‘lmay taklifga ham bog‘liq bo‘ladi. Ya’ni bozordagi tovarlarning miqdori ham ma’lum darajada bahoning shakllanishiga sabab bo‘ladi. *Narxning muayyan darajasida talab va taklif miqdori bir-biriga mos kelgan holat bozor muvozanati deyiladi.* Taklif – bu bozorga sotish maqsadida keltirilgan yoki keltirilishi aniq bo‘lgan mahsulotlar miqdoridir. Taklifning bahoga nisbatan yoki bahoning taklifga nisbatan o‘zgarishini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin:

2-jadval

Alohida ishlab chiqaruvchining mahsulot taklifi

1 kg un narxi (so‘m)	Taklif qilinadigan un miqdori (kg)
1500	60
1400	50
1300	35
1200	20
1100	5

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, mahsulotga qo‘yilgan baho qanchalik yuqori bo‘lsa, bozorga keltirilayotgan mahsulot miqdori ham shuncha ko‘p bo‘ladi. Demak, tovarning bahosi bilan xaridorga taklif qilinayotgan mahsulot miqdori o‘rtasida to‘g‘ri munosabat

mavjuddir. Bu bog‘lanish taklif egri chizig‘i orqali ifodalanadi va **taklif qonuni** deyiladi.

Taklifning o‘zgarib turishiga ta’sir etuvchi omillar. Taklif hajmining o‘zgarishi tovar bahosiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Taklif hajmi darajasining baho oshishi (pasayishi)ga javoban o‘zgarishi taklif egiluvchanligi deyiladi. Lekin taklif ham talab singari faqat baho omili natijasida o‘zgarmaydi. Buning o‘zgarishiga bahoga bog‘liq bo‘lmagan omillar ham ta’sir qiladi. Bular quyidagilar:

1. *Resurslar bahosining o‘zgarishi.* Ma’lumki, ishlab chiqarish jarayonlari resurslar bahosi bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdori bevosita resurslar bahosiga bog‘liq.

2. *Texnologiyaning o‘zgarishi.* Texnologiyalarni takomillashtiruvchi mahsulot birligini ancha samarali ishlab chiqarishga imkon beradi. Yangi texnologiyaning joriy etilishi resurslardan samarali foydalanishga, bu esa o‘z navbatida ko‘proq mahsulot ishlab chiqarishga olib keladi.

3. *Soliq va dotatsiya miqdori.* Ko‘pchilik soliqlar ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiradi. Shu sababli soliqlarning oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va taklifni qisqartiradi. Masalan, import tovarlarga boj to‘lovlarining oshishi uning taklifini qisqartiradi.

4. *Boshqa tovar narxi.* Boshqa tovarlar narxining o‘zgarishi ham mazkur tovar taklifini o‘zgartiradi. Masalan, qo‘y go’shti narxining pasayishi mol go’shti taklifini oshiradi va aksincha holat ham bo‘lishi mumkin.

5. *Narx o‘zgarishining kutilishi.* Kelgusida mahsulot narxining o‘zgarishi kutilishi ham ishlab chiqaruvchilarning bugungi kundagi bozorga mahsulot yetkazib berishi xohishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

6. *Bozordagi ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar soni va hokazo.* Tovar ishlab chiqaruvchilar qanchalik ko‘p bo‘lsa, taklif qilinadigan mahsulot miqdori shunchalik ko‘p bo‘ladi. Tarmoqdagi ishlab chiqaruvchilar soni ortib borishi taklifni ko‘paytiradi, chunki tovar ishlab chiqarish ko‘payadi.

Lekin talab qonuni singari bu omillar taklifning o‘zini o‘zgartiradi, taklif hajmini emas. Taklif hajmining o‘zgarishiga tovarning saqlanish xususiyati, saqlash xarajatlari va transport tashish imkoniyatlari ham ta’sir ko‘rsatadi, ishlab chiqarish jarayonining

xususiyati tabiiy resurslarning mavjud darajasi ham taklifga ta'sir ko'rsatadi.

3. Talab va taklif qonuni hamda bozor muvozanati

Biz yuqorida turli omillar ta'sirida talab va taklif miqdorining o'zgarib turishini ko'rdik. Lekin, talab bilan taklif miqdori bir-biri bilan doimo ma'lum nisbatda bo'ladi, bu nisbatlar o'zgarib turadi. Ba'zan talab miqdori taklif miqdoridan oshib ketib narx ko'tarilsa, ayrim paytda taklif miqdori talab miqdoridan oshib ketib, baho pasayib ketadi. Talab miqdori bilan taklif miqdori o'rtasidagi nisbat bir-biriga teng to'lgan holat bozor muvozanati deyiladi.

Shu o'rinda *yalpi talab va taklifning* ta'riflarini keltiramiz.

Yalpi talab – narxlarning mavjud darajasida milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qilingan barcha sarflar summasidir.

Yalpi taklif – bu narxlarning mavjud darajasida iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlarning umumiy miqdori (qiymat ifodasidagi).

Xaridor talabi bilan ishlab chiqaruvchi taklifi bir-biriga mos kelgani kuzatilganda o'rnatilgan narx *muvozanat narx* deyiladi. Muvozanat narx o'rnatilishi uchun:

birinchidan, xaridorlar sotib olishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdori taklif miqdoriga mos kelishi kerak; *ikkinchidan*, narx va tovar miqdorining o'zgarishi kuzatilmaydi. Lekin hayotda bunday emas. Ya'ni talab va taklif doimo u yoki bu tomonga qarab, turli omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Goh talab taklifdan oshadi, goh esa aksincha, taklif talabdan yuqori bo'ladi.

Talab qonuni – bozor qonuni. Unga binoan tovarlarga talab ularning narxiga nisbatan teskari mutanosiblikda bo'ladi. Bu qonunning naqadar amal qilishini, talabning narxga bog'liq elastikligini, ya'ni narx o'zgarishiga javoban talabning qanday darajada o'zgarishini ifoda etadi. Bozorga elastik talab xos bo'ladi, bunda narx o'zgarishiga nisbatan talab ko'proq o'zgaradi.

Bozorda taklif qonuni ham amal qiladi, unga binoan taklif narxga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi. Mazkur qonunning amal qilishini taklif elastikligi, ya'ni taklifning narxga javoban qanchalik o'zgarishini

bildiradi. Bozorga elastik taklif xos bo‘ladi, bu taklifning narxga nisbatan tezroq o‘zgarishini bildiradi.

Bozor muvozanatini ta‘minlash uchun ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali bozorni tovarlar bilan to‘ldirish lozim, talab va taklifga qarab baholarni pasaytirish yoki oshirish mumkin.

Shu maqsadda Prezident Islom Karimov «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» asarida (2010) mamlakatimizda iqtisodiyotni barqarorlashtirish orqali yalpi talabni o‘stirish, «2009–2012-yillarga mo‘ljallangan inqirozga qarshi choralar» davlat dasturining ahamiyatiga to‘xtalib:

1) tijorat banklarini zarar ko‘rib ishlayotgan va iqtisodiy nochor korxonalarini sog‘lomlashtirish jarayoniga jalb qilish tajribasi amalda o‘zini to‘la oqlaganligi;

2) hali ham eski texnika va texnologiyalar asosida ishlayotgan, hech qanday iqtisodiy istiqboli bo‘lmagan korxonalarini tugatish va ularning negizida yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish darkorligi;

3) kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, fermerlikni rivojlantirishni moliyalashda tijorat banklarining rolini kuchaytirish bo‘yicha ishlarni davom ettirish zarurligi;

4) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalariga 2010-yilda kredit resurslari ajratish miqdorini 1,4 barobar ko‘paytirish, mikrokreditlar hajmini 1,3 barobar oshirish vazifasi qo‘yilganligi;

5) mamlakatimizning raqobatdoshligini oshirishni ta‘minlash uchun iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgartirish jarayonlarini chuqurlashtirish siyosatini davom ettirish 2010 va kelgusi yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturni amalga oshirishning muhim ustuvor yo‘nalishiga aylanishi lozimligini ta‘kidlagan edi¹.

Prezident Islom Karimov «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da belgilagan muhim masalani keltirishni lozim topdik. «Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim istiqbollari va ustuvor yo‘nalishlarini belgilab olar ekanmiz, biz ichki ehtiyojning o‘shishiga alohida e‘tibor qaratishimiz kerak bo‘ladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini yumshatishga qaratilgan inqirozga qarshi choralar dasturida ana shunday yondashuv asosida ish tutganimiz o‘tgan

¹ *Каримов И. А. Асосий вазифамиз – Ватанамиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т., 2010. – Б. 58–59.*

yillarda o‘zini to‘la oqladi. Ta’kidlash kerakki, bugungi kunda Osiyodagi ko‘plab mamlakatlar aynan shunday pozitsiyaga amal qilib kelmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, bizning yaqin istiqboldagi eng muhim vazifamiz boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish – iste’mol talabini kengaytirish maqsadida ijtimoiy sohani rivojlantirish, mehnatga haq to‘lashni yanada oshirish, xizmat ko‘rsatish sektorini, infratuzilma obyektlarini, xizmat ko‘rsatish sektorini, infratuzilma obyektlarini rivojlantirishga, transport va kommunikatsiya loyihalari amalga oshirilishiga alohida e’tibor berishdir¹».

Yuqoridagi belgilangan vazifalarning ijrosi mamlakatimizda 2010–2012-yillarda yalpi ichki mahsulotning o‘shishiga olib keldiki, oqibatda aholi daromadlarining o‘shishi yalpi talabning ta’minlanishiga moddiy asos yaratdi. Mamlakatimizdagi ishlab chiqilgan modernizatsiya va diversifikatsiya strategiyasi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning davomi bo‘lib, uni amalga oshirish natijasida 2011-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoat ishlab chiqarishi ulushi 2000-yilda bor-yo‘g‘i 14,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2011-yilda bu ko‘rsatkich 24,1 foizga yetdi, iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2011-yilda 11,2 foizga o‘sd. 2000-yilga nisbatan esa bu ko‘rsatkich 4 barobardan ziyod oshdi. Ayni paytda qishloq xo‘jaligining ulushi esa 30 foizdan 17,5 foizga kamaydi. Mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish va serviz sohasi 2011-yilda jadal sur‘atlar bilan rivojlanib, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000-yildagi 37 foiz o‘rniga 50,5 foizni tashkil etdi. Mamlakatimizda iqtisodiyotning real hamda ijtimoiy sektorlarini rivojlantirishga muhim e’tibor natijasida 2011-yilda respublikamizda ish haqi 20,2 foizga, budjet tashkilotlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdori esa 26,5 foizga o‘sd. Aholi jami daromadlarining 51 foizi tadbirkorlik faoliyatidan olinayotganligi muhim yangilikdir. Keyingi o‘n yilda O‘zbekistonda aholi daromadlari hajmi 8,1 barobarga ortdi. Agar 1991-yilda eng kam ish haqiga Xalqaro mehnat tashkiloti va Jahon Sog‘liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga muvofiq tarzda hisoblab chiqilgan iste’mol savati qiymatining faqat 8 foizini tashkil etadigan tovar va xizmatlarni xarid qilish mumkin bo‘lgan bo‘lsa, 2011-yilda bu ko‘rsatkich

¹ *Каримов И. А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – Б. 53.

iste'mol savatining 120 foizini tashkil etdi yoki 15 barobar o'sdi, eng kam pensiyaning xarid qobiliyati esa 9 karra oshdi¹.

Aholi farovonligini o'zida yaqqol mujassam etadigan eng muhim ko'rsatkich – bu oila iste'mol budjetining hajmi va tarkibidir. Ushbu ko'rsatkich oila yalpi daromadlari hajmi va tarkibiga, iste'mol bozorining zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirilishi, oila daromadlarining ana shu iste'mol mahsulotlari va xizmatlarni xarid qilish imkoniyatlariga bog'liq.

Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy tamoyillaridan biri sifatida Prezident Islom Karimov tomonidan chuqur asoslab berilgan kuchli ijtimoiy siyosat aholi yalpi daromadlarining o'sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Mustaqillik yillarida mazkur islohotlar natijasida 1990–2010-yillar davomida O'zbekiston aholisining yalpi daromadlari aniq hisob-kitoblar bo'yicha 8,6 barobar oshdi. Yalpi daromadlar tarkibida shu davr mobaynida mulk daromadlari, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan daromadlar kabi yangi daromad turlari paydo bo'ldi. Tabiiyki, sobiq mustabid tuzum davridagi markazlashtirilgan rejali iqtisodiyot sharoitida aholining bunday daromad manbalari shakllanishiga mutlaqo yo'l qo'yilmas edi. Yangi turdagi bunday daromadlar hissasiga 2012-yil so'ngida yalpi daromadlarning 51 foizi to'g'ri keldi.

3-jadval

Mulkdan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan daromadlarning o'sishi

	1990-yil	2012-yil
Mulk va tadbirkorlik faoliyatidan mahsulot sotish hamda xizmat ko'rsatishdan olingan daromadlarning yalpi daromaddagi ulushi	10,6	51,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (uy xo'jaliklarini o'rtacha oy davomida tahlil qilganda).

Yangi turdagi ushbu daromadlarning afzalligi shuki, aholining tadbirkorlik sohasida faollashuvi oila yalpi daromadlarining jadal ravishda oshib borishi uchun rag'batlantiruvchi bozor omillarini yaratadi, markazlashtirilgan iqtisodiyot sharoitida keng tarqalgan boqimandalik va

¹ *Каримов И. А. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги bosқичга кўтардиган йил бўлади. – Т., 2011. – Б. 6–14.*

daromadlarning bir xilda bo'lishi darajasini pasaytiradi.

O'rtacha oylik ish haqi miqdorining bosqichma-bosqich oshirib borilgani o'tish davrining dastlabki yillarida bo'lgani kabi, yalpi daromadlar tarkibidagi ulushi yanada pasayib ketishining oldini oldi. Hozirgi paytda aholining yalpi daromadlarida oylik ish haqining ulushi barqaror holat, ya'ni 30–32,1 foiz darajasida saqlab qolinmoqda. Mamlakatimizda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning qabul qilinishi, hayotimizda tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan o'rta sinfni shakllantirish imkonini berdi. Ekspertlar xulosalariga ko'ra, o'rtacha daromadga ega bo'lganlar, agar 1990-yilda aholining 18 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilda uy xo'jaliklarini tadqiq etish natijalariga ko'ra bu ko'rsatkich 24 foizga yetgani ayon bo'ldi. 2010-yilda esa 60 foiz uy xo'jaliklari o'rtacha darajadan kam bo'lmagan barqaror daromadga ega bo'lgan.

Yalpi iste'mol xarajatlari. Oila yalpi daromadlarining oshib borishi bilan bir vaqtda yurtimizda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini kengaytirish hisobidan ushbu daromadlardan samarali foydalanishga sharoit yaratildi. Agar 1990-yilda aholi daromadlarining bor-yo'g'i 46–48 foizi mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovar resurslari bilan ta'minlangan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich 75 foizdan oshdi.

2010-yilda iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1990-yilga nisbatan 6,7 barobar, aholiga pullik xizmat ko'rsatish hajmi esa 1,4 barobar o'sdi. Yuqorida qayd etilgan omillar aholi yalpi daromadlarining o'sishi bilan birga, uning pul omonatlari va jamg'arma mablag'lari barqaror o'sib borishini ham ta'minladi. Bu mablag'larning xarajatlar tarkibidagi ulushi o'sib, 1990-yildagi 11,8 foizdan 2010-yilda 15,4 foizga yetdi.

Oilalarning iste'mol xarajatlari makrotarkibi ham optimallashib bormoqda: oziq-ovqat mahsulotlari uchun xarajatlar ulushi barqarorlashib, xizmatlar uchun xarajatlar ulushi ortib bormoqda. Bunday holat iqtisodiy rivojlanib borayotgan davlatlar uchun xosdir.

Oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish. Iste'mol xarajatlarining hajmi va tarkibi ko'p jihatdan aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish imkoniyatlari va mazkur mahsulotlarning narxi bilan chambarchas bog'liq. 1990-yilda eng muhim oziq-ovqat mahsulotlarining chakana savdo tarmoqlaridagi taqchilligi aholining bu mahsulotlarni sotib olish imkoniyatlarini cheklab qo'ygan edi. 1989-yilgi statistik

ma'lumotlarga ko'ra, iste'mol bozorida aholi uchun zarur bo'lgan barcha mahsulotlarning qariyb 95 foizi bo'yicha uzilishlar bo'lib turgan va bu sobiq Ittifoq hududida kundalik asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini aholiga kartochkalar orqali sotish tizimini joriy etishga sabab bo'lgan edi.

1989-yili respublika statistika organlari tomonidan yurtimiz aholisi o'rtasida o'tkazilgan rasmiy so'rovlarda qatnashganlarning 89,3 foizi go'sht mahsulotlarini yetarli darajada iste'mol qilmayotganini aytgan. Bu ko'rsatkichlar sut mahsulotlari bo'yicha 56,5 foizni, shakar bo'yicha 55,3 foizni, qandolat mahsulotlari bo'yicha 49,5 foizni, kartoshka bo'yicha esa 17,5 foizni¹ tashkil etgan. O'zbekistonda aholi soni 1990–2010-yillar mobaynida 38,2 foiz oshganiga qaramasdan, jon boshiga go'sht va go'sht mahsulotlari iste'mol qilish 22,6 foizga ortdi, jumladan, sut va sut mahsulotlari 30,3 foiz, tuxum 42,3 foiz, sabzavot 2,2 barobar, kartoshka 1,5 barobar, meva 3,6 barobar va shakar 1,37 barobar o'sdi. Ayni vaqtda iste'mol tarkibi ancha sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ko'proq iste'mol qilish hisobidan o'zgarmoqda. Bunda uglevodlarga boy oziq-ovqatlarni (birinchi navbatda, non va non mahsulotlarini) iste'mol qilishning barqarorlashgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillik yillarida aholi tomonidan iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining soni, turi o'nlab barobar oshdi. Agar 1990-yilda iste'mol uchun zarur bo'lgan g'allaning 82 foizi, go'sht va go'sht mahsulotlarining 50 foizi, sut mahsulotlarining qariyb 60 foizi, kartoshkaning 50 foizi, shakar, quruq sut va bolalar ozuqasi 100 foiz chetdan keltirilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda yurtimiz ishlab chiqarishni rivojlantirish hisobidan aholining barcha asosiy iste'mol mahsulotlari bo'yicha (shakardan tashqari) ehtiyojini deyarli to'liq ta'minlamoqda.

Nooziq-ovqat mahsulotlari iste'moli. 1990-yili respublikamizda nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol bozorida o'ta taqchilik vujudga keldi. Aholining sifatli kiyim-bosh, poyafzal, uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan tovarlarni xarid qilishi imkoniyatlari cheklangan edi. Odamlarga mebel, gilam, muzlatgich, televizor va yengil avtomobillarni sotish ko'pincha korxonalar orqali oldindan tuzilgan ro'yxatlar asosida amalga oshirilar, bunday tovarlarni xarid qilish uchun esa bir necha yillab navbat kutishga to'g'ri kelar edi. Barcha turdagi nooziq-ovqat mahsulotlarining qariyb 88 foizi chakana savdo tarmoqlarida katta uzilishlar bilan sotilardi.

¹ Qarang: Социальное развитие СССР. – М., 1988. – С. 145.

Aholining uzoq muddatli foydalaniladigan mahsulotlar bilan ta'minlanishi (har 100 xonadonga to'g'ri keladigan tovarlar soni)

	1990-yil	2000-yil	2010-yil
Televizorlar	90	88	132
Muzlatkich va muzxonalar	80	86	99
Konditsionerlar	9	11	18,5
Elektr changyutgichlar	29	30	37
Personal kompyuterlar	–	0,1	12
Fotoapparat va videokameralar	21	21	24
Videomagnitofon, videopleyer va DVD pleyerlar	1	31	64
Kir yuvish mashinalari	67	69	75
Mobil aloqa vositalari	–	18	145
Avtomobillar soni o'rtacha har 1000 nafar aholiga, birlikda	21,9	38,9	51,5
Avtomobillar soni o'rtacha har 100 xonadonga, birlikda	11,9	20,1	27,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi.

Aholi ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan nooziq-ovqat mahsulotlarining katta qismi respublikamizda ishlab chiqarilmas, balki chetdan keltirilar edi. Jumladan, televizorlar, kir yuvish mashinalari, gazmollarning qariyb 40 foizi, barcha turdagi oyoq kiyim va boshqa shunga o'xshash mahsulotlarning 30 foizi chetdan olib kelinardi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning ancha faol o'sishi asosan 2000-yildan so'ng, mamlakatimizda ularni ishlab chiqarishni rag'batlantiradigan shart-sharoitlar bosqichma-bosqich yaratila boshlangandan keyin kuzatildi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz sanoati aholining sifatli mebel, gilam mahsulotlari, yengil avtomobillarga bo'lgan ehtiyojini to'liq ta'minlay oladi. Mamlakatimizda televizorlar, konditsionerlar va ekologik xavfsiz muzlatgichlar ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada o'sdi. Trikotaj mahsulotlari, oyoq kiyimlar tayyorlash va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida ham ishlab chiqarish yuqori sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Agar 2000-yilga qadar o'tish davrining obyektiv shart-sharoitlari

tufayli aholining asosiy nooziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi va ta'minoti pasaygan bo'lsa, so'nggi o'nyillikda bu boradagi ko'rsatkichlarda barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu jarayonda uy xo'jaliklari eskirgan va noqulay maishiy va elektrotexnika buyumlaridan voz kechib, yangi, zamonaviy, sifat jihatdan eski buyumlardan keskin farq qiladigan mahsulotlarni tez sotib olmoqda.

Qayd etilgan davrda mutlaqo yangi mahsulotlar paydo bo'ldi. Bugun ularni xonadon egalari katta qiziqish bilan sotib olmoqda: raqamli televizor va fotoapparatlar, sun'iy yo'ldosh antennalari va mobil telefonlar, DVD pleyerlar, kompyuter va unga qo'shimcha qurilmalar, noutbuklar va boshqa elektron texnikalar, qurilish materiallarining yangi turlari, qadoqlash buyumlari va boshqa ro'zg'or ashyolari shular jumlasidan. Shunisi e'tiborliki, xonadonlarning zamonaviy maishiy va elektrotexnika bilan ta'minlanish sur'atlari yurtimizning barcha hududlarida bir maromda, mutanosib tarzda o'sib bormoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan buyumlar bilan ta'minlanish bo'yicha mamlakatimizda yuksak darajaga erishilgan. Buni har 100 xonadonga 132 ta televizor, 99 ta sovutgich, 64 ta DVD pleyer, 145 ta mobil telefon to'g'ri kelishi tasdiqlaydi. 1990-yilda o'nta oiladan bor-yo'g'i bittasi shaxsiy avtomobilga ega bo'lgan bo'lsa, 2012-yilga kelib har uchta oilaning bittasida avtomobil mavjudligi aholi farovonligi va moddiy ta'minlangani oshib borayotganini ko'rsatadi.

Aholining xarid qobiliyati, ya'ni uning oylik maosh va pensiya hisobidan eng zarur iste'mol mahsulotlarini sotib olish va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan talab va ehtiyojlarining ta'minlanishi sezilarli darajada yaxshilanib borayotganini aks ettiradi. O'rtacha oylik maosh xarid qobiliyatining o'sish dinamikasi, minimal iste'mol savati bilan qiyoslaganda, hozirgi paytda 7,2 barobar oshdi.

Modernizatsiya strategiyasi iqtisodiyotimizni yaqin yillar ichida yanada barqaror, o'ziga baquvvat, jahon va mintaqaviy bozorlarda raqobatdosh bo'lmog'i uchun iqtisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish natijasida aholining mustaqillik yillarida yuksalib borayotgan ehtiyojlarini qondirish pirovard natijada xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Bu o'rinda mamlakatimiz va mintaqamizdagi mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda, gazni qayta ishlash, neft-kimyoy, energetika, avtomobilsozlik, elektrotexnika sanoat-

lari, mashinasozlik, farmatsevtika kabi zamonaviy sohalar, ishlab chiqarish tarmoqlarini va albatta, axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya tizimlarini jadal rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda, yaqin kelajakda raqamli va keng o'lchamli televideniye ga o'tish rejalashtirilgan.

Shular qatorida birinchi navbatda yengil, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatida paxta tolasi, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarishni, qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish, sifatli va barqaror talabga ega bo'lgan tayyor mahsulotlar tayyorlaydigan korxonalar tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yuqoridagilarning barchasi mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash orqali aholining ommaviy farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ma'lumki, farovonlik ta'minlangan joyda tinchlik osoyishtalikka zamin tayyorlanadi. O'rtacha mulkdorlar sinfiga oid qatlam miqdori ko'payadi, ijtimoiy zo'riqishning oldi olinadi. Ishsizlar soni minimal darajaga tushiriladi va bu jinoyatchilikning kamayishiga olib keladi. Oqibatda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining xizmat yuki kamayadi.

Tayanch tushunchalar:

Talab, individual va bozor talabi, talab qonuni, talabning elastikligi, tovarning qadr-qimmatini, marginal naflilik qonuni, individual va bozor taklifi, taklifning elastikligi, bozor muvozanati, kechiktirilgan talab, ehtiyoj.

Savol va topshiriqlar:

1. Ehtiyoj bilan talabning farqi bormi?
2. Ehtiyojning o'z vaqtida qondirilmashligi qanday ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib kelishini aytib bering.
3. Iqtisodiy resurslarga talab va taklifning xususiyatlari qanday?
4. Vahima talabning kelib chiqishi va oqibatlarini tushuntiring.
5. Bozordagi muvozanat qanday tavsiflanadi?
6. Individual talab va bozor talabining farqini tushuntiring.
7. Daromadlarning talab va taklifga ta'siri qanday kechadi?
8. Ehtiyoj qachon talabga aylanadi?
9. Soliq ortishi yoki kamayishining taklifga qanday ta'sir etishini sharhlang.
10. Jahon bozorlarida qaysi resurslarga talab ortmoqda?

11. Talabning narxga bog'liqligini tushuntiring.
12. Daromadning ortishi past toifadagi tovarlar talabini o'zgartirishini sharhlab bering.
14. Talabning harakati va xarakteri jihatidan qanday turlari bor?
15. Taklifning o'zgarib turishi qanday omillar ta'sirida sodir bo'lishini tushuntirib bering.
16. Soliqlarning ortishi yoki kamayishi taklifga qanday ta'sir o'tkazadi?
17. Qanday resurslarga jahon bozorida talab ortib borayotganini izohlang.

Mavzuni chuqur o'rganish instrumentariysi

Qisqa muddatli muvozanat – tarmoqda firmalar soni o'zgarmay qolgan sharoitda tovarlar taklifi o'sib boradigan muvozanat.

Oniy muvozanat – tovarlar taklifi o'zgarmay qoladigan muvozanat.

Bozor muvozanati mexanizmi – talab va taklif hajmi muvozanatda bo'lgan sharoitda obyektiv bozor bahosi o'rnatilishiga olib keladigan iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar raqobatining mexanizmi; talab va taklifning belgilangan (statik) darajalarida bozor bahosi shakllanishining mexanizmi.

Normal uzoq muddatli muvozanat – tarmoqda firmalar soni ko'payishi va ishlab chiqarishning foydalanilayotgan omillari hajmining ortishi evaziga taklifning o'sishi natijasida qaror topadigan muvozanat.

Taklif qoidasi – ne'mat bahosi bilan uning taklifi kattaligi o'rtasidagi bevosita aloqa.

Talab qoidasi – ne'mat bahosi va talab kattaligi o'rtasidagi teskari aloqa.

Talab va taklif qoidasi – bozor bahosini shakllantirish orqali iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar manfaati muvozanatlashuvining obyektiv va qonuniy xususiyatini aks ettiruvchi qoida.

Taklif – iqtisodiy subyektning bozorga muayyan miqdordagi ne'matlarni ishlab chiqarish va muayyan bahoda yetkazib berish istagi va imkoniyati.

Bozor bahosi – talab va taklif hajmi teng bo'ladigan va iste'molchilar ishlab chiqaruvchilar sotishni istagan miqdordagi tovar va xizmatlarni sotib olishi mumkin bo'ladigan narx.

Bozor mexanizmi – talab va taklifning dinamik o'zaro ta'siri mexanizmi.

Talab – iqtisodiy subyektning muayyan miqdordagi ne'matlarni muayyan bozor bahosida sotib olish istagi va imkoniyati. Talab – bu shunchaki ehtiyoj emas, balki to'lovga qobil, pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir.

Vahima talab – bozordagi shov-shuvga vahima ta'siri ostida sun'iy paydo bo'ladigan va shiddat bilan ortib boradigan talabdir. Vahima talab odatdagi me'yordagi talabga nisbatan ortiq talab hisoblanadi. Bunday talab, *bir tomondan*, aholi orasida mish-mishlar tarqatish va reklama vositasida muayyan

tovarga o'ta yuqori baho berish orqali iste'molchi ruhiyatiga ta'sir etish yo'li bilan, *ikkinchi tomondan*, tovarlarga bo'lgan g'oyat katta qiziqish, qimmatchilik va qahatchilik xavfi, pul almashish ehtimoli, har xil shov-shuvlar ta'sirida puldan tezroq qutulish va tovar zaxirasini ko'paytirishga intilish oqibatida yuzaga keladi. Vahima talabni savdo ahli har xil mish-mishlar tarqatish orqali ham yuzaga keltiradi. Vahima talabning paydo bo'lishi bozor narxini ko'tarib yuboradi, tovarlar talashib olinadi, tovar talabi, taqchilligi g'oyat kuchayib ketadi. Vahima talab iqtisodda uchrab turadigan hodisa. Lekin u o'tkinchi tusga ega bo'lib, uzoq davom eta olmaydi. Vahima talab tartibsizliklarni keltirib chiqarishga olib kelishi mumkin.

Daromad effekti – bahoning iste'molchi boyligi yoki real daromadning darajasi bilan aloqadorligini ifodalovchi effekt.

O'rnini bosish effekti – tovarlarning nisbiy bahosi bilan iste'molchi talabining hajmi.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. Talab xaridorlarning bozordagi tovarlarni muayyan narxda xarid etishga shay bo'lishlaridir. Talab asosida ehtiyoj yotadi, lekin buni bozorda talabga aylanishi uchun xaridorning tovarlarni sotib olishga puli yetarli bo'lishi kerak. Aks holda ehtiyoj talab hosil etmaydi. Ayrim xaridorning talabi individual talab bo'lsa, jami xaridorlarning talabi bozor talabi bo'ladi.

2. Talabga ta'sir etuvchi omillar uch guruhga ajraladi: a) narxlar. Bu muayyan paytdagi aniq bir tovar narxi, o'rinbosar tovarlar narxi va o'zgarishi kutiladigan narxlar. Bular talabni oshirishi yoki qisqartirishi mumkin; b) xaridorning pul daromadi yoki xarid qurbi. Narx o'zgarmagan holda daromad oshsa, talab ko'payadi, aksi bo'lsa talab kamayadi; c) xaridorning qaysi tovarni afzal ko'rishi, bu uning didiga va xohishiga bog'liq. Narx va daromadni xaridor o'z bilganicha o'zgartira olmaydi, lekin ularni nazarda tutgan holda xaridor o'zi afzal ko'rgan tovarga talab bildiradi.

3. Talab qonuni – bozor qonuni. Unga binoan tovarlarga talab ularning narxiga nisbatan teskari mutanosiblikda bo'ladi. Bu qonunning naqadar amal qilishini talabning narxiga bog'liq elastikligi, ya'ni narx o'zgarishiga javoban talabning qanday darajada o'zgarishi ifoda etadi. Bozorga elastik talab xos bo'ladi, bunda narx o'zgarishiga nisbatan talab ko'proq o'zgaradi.

4. Narxdan tashqari talabga xaridor daromadlari ham ta'sir etadi, biroq buni talab qonuni ifoda etmaydi. Daromadning talabga ta'siri uning samarasi bo'ladi. Narx o'zgarmagan sharoitda talab daromadga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi. Talabning daromadga bog'liq elastikligi ham borki, bunda talab daromaddan jadalroq o'zgaradi.

5. Talabni tovarning qadr-qiymati ham belgilaydi, bu esa tovar nafliligining uning narxiga nisbatan qiyoslanishidir. Naflilik tovarning ehtiyojni qondira olish xususiyati bo'lib, buni xaridorlar subyektiv baholaydilar. Shunga ko'ra tovarni afzal ko'rish paydo bo'ladi, bu ham talabni yuzaga chiqaradi. Iqtisodiyotda marginal (cheklangan) naflilik qonuni amal qiladi, unga binoan bozordagi talab qondirilgan sari so'nggi qo'shimcha tovarlar nafliligi pasayib boradi. Naflilikning pasayishi talabni qisqartiradi, bozor talabiga javob berish uchun nafliligi yuqori tovarlarni ishlab chiqarishga o'tish zarur bo'ladi.

6. Talabga taklif peshvoz chiqadi. Tovarlar taklifi – bu muayyan narx amal qilganda tovarni sotish uchun bozorga qo'yilishidir. Muayyan tovarni ayrim ishlab chiqaruvchining taklif etishi bu individual taklifdir. Ana shunday tovarni barcha ishlab chiqaruvchilar taklif etishi bozor taklifi hisoblanadi.

7. Bozorda taklif qonuni ham amal qiladi, unga binoan taklif narxga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi. Mazkur qonunning amal qilishini taklif elastikligi, ya'ni taklifning narxga javoban naqadar o'zgarishi bildiradi. Bozorga elastik taklif xos bo'ladi, bu taklifning narxga nisbatan tezroq o'zgarishini bildiradi.

8. Taklifga sotishga qo'yilgan tovarlar narxidan tashqari boshqa omillar ham ta'sir etadi, lekin buni taklif qonuni taqozo etmaydi. Bular jumlasiga resurslar narxi, ishlab chiqarish texnologiyasi, davlat ishlab chiqaruvchilardan oladigan soliq va ularga beradigan subsidiyalar (yordam puli), narxlarning o'zgarish ehtimoli, o'zga tovarlar narxi, qo'shimcha resurslar va ishlab chiqarish quvvatlarining bo'lish yoki bo'lmasligi kiradi. Mazkur omillar taklifga turli yo'nalishda va har xil kuch bilan ta'sir etadi va shunga bog'liq holda taklif o'zgaradi.

9. Ehtiyojlarning o'z vaqtida qondirilmasligi iste'molchilarni stress (tushkunlik)ga soladi. Oqibatda salbiy hodisalar (o'g'rilik, bosqinchilik kabi jinoyatlar) kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

10- MAVZU. BOZOR TIZIMIDA RAQOBAT

1. Raqobat va uning iqtisodiy mazmuni

Raqobat bozor mexanizmida muhim o'rinni egallaydi. Bozor mexanizmi ishlab chiqaruvchilarni yangilikka undaydi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishni talab qiladi. Moddiy resurslar mehnat resurslari insonlarning yuksalib borayotgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida tovar va xizmatlarni yaratuvchi sohalarga yo'naltiradi.

Raqobat qonuni ham ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi. Global dunyoda raqobatda yutqazmaslik uchun ishlab chiqaruvchilar doimo yangilikni joriy etib boradilar, ular yangi texnologiyani kiritadilar, yangidan-yangi tovarlarni ishlab chiqarib, bozorga taklif etish yo‘liga o‘tadilar.

Raqobat (lotincha «sopsiggege» – qarama-qarshi, musobaqalashmoq ma’nolarida) – iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o‘z manfaatlaridan kelib chiqib, muayyan maqsadlarga erishish uchun bitta bozorda faoliyat ko‘rsatayotgan bir necha kompaniyalarning (xo‘jalik subyektlarining) kurashidir.

Tovar va moliya bozorlari tarkibiga ta’sir ko‘rsatuvchi davlat siyosati dastaklari orasida monopoliyaga qarshi raqobat siyosatini alohida ajratish mumkin. Raqobat bozor iqtisodiyoti va umumtovar xo‘jaligining eng muhim belgisini rivojlantirish usuli hisoblanadi. Prezident Islom Karimov raqobatni bozor iqtisodiyotidagi o‘rnini: «Raqobat bo‘lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo‘lmaydi. Raqobat – bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir»¹, – deb ta’kidlaydi. Raqobatsiz iqtisodiy taraqqiyot yo‘q, binobarin, farovonlikni ham oshirib bo‘lmaydi. Qayerda raqobat so‘nsa, shu yerda iqtisodiy turg‘unlik, retsessiya, hatto tanglik vaziyati paydo bo‘ladi, demak, farovonlikka erishish qiyinlashadi.

Raqobat iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o‘z manfaatlarini to‘laroq yuzaga chiqarish, ya’ni yaxshi daromad topish, o‘z mavqeini mustahkamlash, o‘z qobiliyatini namoyish etish, o‘z obro‘siga ega bo‘lishdir. Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish unga turli tomondan yondashishni talab qiladi. Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o‘rtasidagi raqobat tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o‘z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdan iborat.

Resurslarni yetkazib beruvchilar o‘zlarining resurslarini (kapital, yersuv, ish kuchi) yuqori baholarda sotish uchun raqobat qiladilar. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi raqobat bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot to‘liq erkinlashgan sharoitda yorqin namoyon bo‘ladi. Raqobat iste’molchilar o‘rtasida ham yuz beradi, ular tovarlarni qulay va arzon baholarda sotib olishga harakat qiladilar, ya’ni xaridor har bir sarflangan pul birligi evaziga ko‘proq foydaga ega bo‘lishga harakat qiladi. Arzon va sifatli tovarni sotib olish uchun kurashadi.

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. – Т., 2000. – Б. 34.

Raqobat – bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashi-shidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq nafga ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi. Bunda ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida sarflangan xarajatlarning har bir birligi evaziga ko‘proq foyda olish uchun kurash boradi. Mana shuning orqasidan quvish natijasida tovarlarni sotish doiralari, ya’ni qulay bozorlar, arzon xom ashyo va arzon ish kuchi manbalari uchun ular orasida kurash boradi.

Raqobat strategiyasi raqobat kurashining uzoq muddatga mo‘ljallangan bosh yo‘li va yo‘l-yo‘riqlarini ifoda etadi. Strategiyaning maqsadlari tez kunda foydani maksimallashtirish, oz foyda bilan qanoat qilgan holda o‘z bozorini kengaytirish yoki raqibni bozordan siqib chiqarish, yangi bozorga asta-sekin kirib borish kabi masalalarda harakat yo‘llarini belgilashdan iborat.

Raqobat – umumijtimoiy kategoriya bo‘lib, ijtimoiy jarayonlar qatnashchilari o‘rtasidagi yaxshiroq yashash sharoiti uchun bo‘ladigan kurashni anglatadi. Iqtisodiy sohadagi raqobat esa ishlab chiqarish munosabatlarining subyektlari (ishlab chiqaruvchilar, iste’molchilar, tadbirkorlar va hokazo) o‘rtasida qulayroq ishlab chiqarish sharoitiga ega bo‘lish unumliroq texnologiya, ish joyi, yaxshi bozorni qo‘lga olish, umuman yuqori daromad olish imkoniyati uchun kurashdan iborat.

Bozor iqtisodiyotining ilk belgilari paydo bo‘lishi bilan unga xos raqobat ham yuzaga keladi. Bunday raqobat tarixan to‘rt bosqichdan o‘tadi.

Birinchi bosqich – raqobat mayda tovar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida boradi, bunda g‘olib chiqish tajriba to‘plab mehnat mahoratini oshirish bo‘ladi. Raqobat kichkina mahalliy bozorlarda namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi bosqich – bu kapitalistik erkin raqobat bosqichidir. Bunda raqobatda cheklash bo‘lmaydi, shiddatli kurash boradi. Raqobatda g‘olib chiqishning sharti mehnat unumdorligini oshirish, yangi texnologiya asosida yangi xildagi bozorbop tovarlarni ishlab chiqish bo‘ladi.

Uchinchi bosqich – u monopol raqobat bosqichi bo‘lib, yirik korxonalarining yakkahokimlikka intiluvchi kurashidir.

To‘rtinchi bosqich – yangicha erkin raqobat bosqichi bo‘lib, u aralash iqtisodiyotga xosdir. Raqobat doirasi kengayib, u faqat ishlab chiqaruvchilar emas, xizmat sohalari o‘rtasida ham namoyon bo‘ladi. Raqobat – yangicha harakat qilish jarayoni va yangi muvozanatga erishishni bildirib, raqobatchilarning nisbiy ustunlik va yuqori mavqeiga erishishi uchun olib boradigan kurashidan iborat. Bunday kurash muqarrar

ravishda obyektiv shartlar asosida tug'iladi va turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bozorda xo'jalik subyektlari resurslarni arzon sotib olish, o'z tovar va xizmatlarini esa qimmatroq sotish, shu asosda ko'proq foyda olishga intilsalar, ishchi va xizmatchilar ko'proq mehnat haqi olishni istaydilar. Iste'molchilar esa bozorda tovar va xizmatlarni arzonroq narxlarda sotib olishga harakat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti tizimida raqobat iqtisodiy resurslarni tejamli ishlatish, tovar va xizmatlarni sifatli, yuqori texnologiyalar asosida va eng optimal miqdorda ishlab chiqarishga undaydi. Bunda, albatta, ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchining marketing rejalari katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilishni va innovatsion yutuqlarni tezlashtirishni talab qiladi. Natijada, raqobat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shu ma'noda, raqobat bozor iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Demak, bozor va raqobat bir-biri bilan o'zaro bog'liq bozor munosabatlari paydo bo'lishi bilan raqobat ham vujudga keladi, binobarin, uning rivojlanishiga qarab raqobat ham takomillashib boradi.

Raqobat bozor mexanizmining yetakchi vositasi sifatida iqtisodiyot ishtirokchilarini faollikka undayli, chunki faqat shu yo'l bilan raqobatda yutib chiqish mumkin. Narx bilan raqobatlashuv xarajatlarni kamaytirishga olib keladi. Sifat bilan raqobatlashuv eski, nafliligi pasayib borayotgan tovarlarni, yangi, nafliligi yuqori tovarlar bilan almashtirishni ta'minlaydi. Ish joyi uchun raqobat kishilarni o'z bilimi, malaka va ish mahoratini doimo oshirib borishga undaydi, ishlab turgan joyini qadrlash, bu yerdagi ish sifati va mehnat unumdorligini oshirib borishga undaydi, ishlab turgan joyini qadrlash, bu yerdagi ish sifati va mehnat unumdorligini oshirib borishiga rag'bat beradi. Raqobat iqtisodiy tanlovga kuch berib, uquvsiz va ishyoqmaslarni bankrot holiga tushirib biznesdan siqib chiqaradi, biznesni haqiqiy ishbilarmon, yangilikka moyil bo'lganlar qo'liga beradi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, uning oldidagi muhim strategik masalalardan biri sifatida barqaror va sog'lom iqtisodiyotni shakllantirish vazifasi turar edi. Zero, barqaror iqtisodiyotni shakllantirmay turib, aholi farovonligi va turmush darajasini yuksaltirib, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishib bo'lmaydi.

O'zbekistonda davlatning iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o'rin tutadi. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan,

mulk o'z egalari qo'liga topshirilsa, ikkinchidan, ko'p ukladli iqtisodiyot, ya'ni kichik va o'rta biznesni rivojlantirgan holda korxonalar o'rtasida haqiqiy raqobatchilik muhiti vujudga keltiriladi. Mamlakatimizda xususiylashtirishning huquqiy asoslari yaratilganligi, rasmiy xususiylashtirishdan real xususiylashtirish sari amaliy qadamlar qo'yilganligi bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida raqobatchilik muhiti yaratilganidan dalolatdir.

Xususiylashtirish jarayonining boshqa muhim, ajralmas qismi real raqobatli muhitning, tovar, xom ashyo va kapital bozorlarining shakllanishidir. Faqat real raqobat mavjud bo'lganda, bozor mexanizmlari to'liq va samarali ravishda ishlab ketishi mumkin.

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab respublikamizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning ilmiy asoslangan yo'li ishlab chiqildi va unga tayangan holda iqtisodiy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Mazkur iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida qo'lga kiritilishi lozim bo'lgan natijalardan biri – rag'batlantiruvchi raqobatchilik muhitini vujudga keltirishdan iboratligi ko'rsatib berildi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, mulkchilik shakllari turlicha bo'lgan korxonalar o'rtasidagi raqobatchilik kurashi ularni ishlab chiqarishni boshqarishning ichki tashkiliy tizimlarini takomillashtirishga, zamonaviy texnika bilan qayta qurollantirishga, fan va texnika sohasidagi yangi yutuqlarni qo'llashga moyil bo'lishga, kam sarf-xarajat qilgan holda yanada yuqori sifatli va arzon narxda mahsulot ishlab chiqarishga undaydi. Pirovard natijada bu iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Davlat ishlarida samarali raqobat siyosati amalga oshirilishi oqibatida tovarlar va xizmatlar bozorlarida monopoliyalashtirish darajasi sezilarli ravishda pasaydi. Erishilgan natijalar asosan tovarlar va xizmatlar bozorida erkin raqobatlashadigan yangi xo'jalik yurituvchi subyektlar va tadbirkorlik subyektlari tashkil etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishida namoyon bo'ldi. Pirovardida bu sog'lom raqobat muhitini shakllantirdi. Ayniqsa, iste'mol bozorida monopol korxonalar soni sezilarli darajada qisqarmoqda. Bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning dinamik rivojlanayotganidan dalolat beradi. Saqlanib qolgan monopollashgan bozorlarda, bozor subyektlari va monopoliyaga qarshi qonunlarni buzuvchi subyekt tuzilmalarining harakatlari sezilarli ravishda o'zgardi.

Respublika iqtisodiyotida yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlar va huquqiy himoya tizimini takomillashtirish yuzasidan bir qancha yangi qonun hujjatlari qabul qilinishi, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy

javobgarligini erkinlashtirish, nazorat funksiyalarini bajarish tizimini takomillashtirish va yanada qisqartirish uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Hukumatimiz tomonidan keyingi yillarda xususiy biznes, ya’ni tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir qator me’yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tinimsiz ish olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 15-maydagi «Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga asosan tadbirkorlik subyektlariga imtiyozlar yaratildi. Bu esa tovar bozorlarida tadbirkorlik subyektlari ishtirokini rag‘batlantirib, pirovard natijada sog‘lom raqobat muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, respublikamizda bozor munosabatlari tizimida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, rivojlantirish va asosan yaratilgan raqobat muhitini himoyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanmoqda.

2. Raqobat turlari

Raqobat qaysi bosqichda sodir bo‘lishidan qat’i nazar, uning ikki turi mavjud:

- yovvoyi raqobat (tartibsiz);
- tartibga solinuvchi sog‘lom raqobat.

Raqobat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, bu esa o‘z navbatida raqobat doirasini kengaytiradi. Raqobat bozorning hamma turlarida amal qiladi.

Tadbirkorlar tovar bozorida sotuvchi, resurslar bozorida xaridor sifatida raqobatda bo‘lishadi.

Raqobat kurashida o‘z muxolifining bozordagi mavqesini bilish muhimdir. Shu sababli raqobatga tayyorlanish tadbirkorlikning strategiyasida muhim o‘rin tutadi. Bozor tizimida raqobatning *mukammal* va *nomukammaldan* iborat asosiy turi mavjud.

Mukammal yoki ***sof raqobat*** shundan iboratki, unda ko‘pchilik qatnashadi. Erkin raqobatli bozorda sotuvchilar va xaridorlar ko‘pchilik bo‘lib, ulardan hech biri monopol mavqega ega bo‘lmaydi, bozorda zo‘ravonlik qilib, o‘z izmini yurgiza olmaydi.

Nomukammal raqobat, cheklangan raqobat tabiatan ***monopol raqobatdir***. Bunda ko‘pchilik bo‘lmagan, lekin tovarlarning katta qismini taklif etuvchi yoki sotib oluvchi firmalar raqobatlashadi.

Sof monopol sharoitida hukmron firmalar resurs bozorida xaridor sifatida bellashadilar. Ular sifatli va arzon resurslarni qo‘lga kiritish, malakali ish kuchini sotib olish uchun kurashadilar.

Erkin raqobat ikki darajada namoyon bo‘ladi: **tarmoq ichida**, ya’ni bir xil tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘rtasidagi raqobat va **tarmoqlararo**, ya’ni turli tarmoqlardagi korxonalar o‘rtasidagi raqobat.

Tarmoq ichidagi raqobat tovarlarning ijtimoiy qiymatini, boshqacha aytganda, bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi. Bu qiymat odatda o‘rtacha sharoitda ishlab chiqarilgan va muayyan tarmoq tovarlarning anchagina qismini tashkil etadigan tovarlarning qiymatiga mos keladi. **Tarmoq ichidagi raqobat natijasida texnikaviy darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo‘lgan korxonalar qo‘shimcha foyda oladilar va aksincha, texnik jihatdan nochor korxonalar esa, o‘zlarida ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo‘qotadilar va zarar ko‘radilar.**

Tarmoqlararo raqobat turli tarmoqlar korxonalari o‘rtasida eng yuqori foyda normasi uchun olib borilayotgan kurashdir. Bunday raqobat foyda normasi kam bo‘lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlararo kapitallarining oqib o‘tishiga sabab bo‘ladi.

Iqtisodiy saralanish oqibatida korxonalarning bir qismi g‘oyat yirik korxonalariga aylanib, monopol mavqeni egallaydi. Ular til biriktirib, erkin narxlar o‘rniga monopol narxlarni belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasida bu borada monopoliyaga qarshi kurash siyosati olib borilmoqda. Bular:

1) monopoliyalashuvga yo‘l bermay monopol faoliyatni jilovlash to‘g‘risida qonunlar qabul qilish;

2) sherikchilik asosidagi tadbirkorlikda bir korxonalar mulkining boshqasiga o‘tishini cheklash;

3) bozorda narx-navoning erkin tashkil topishi uchun oldindan kelishib narx belgilashni qonun yo‘li bilan tartibga solish;

4) davlatning raqobatning qonun-qoidalarini yaratib, uni buzganlik uchun jazo belgilashi;

5) monopol hukmronlikka yo‘l bermaslik uchun tovarlarni mamlakatga kiritishni ko‘paytirish maqsadida boj to‘lovlarini kamaytirish kabilar.

G‘ayriqonuniy raqobat ham mavjud:

1) raqib haqida noto‘g‘ri va noaniq ma’lumotlar tarqatish;

2) mahsulotning sifati, ishlab chiqargan joyi xususida iste’molchini aldash;

3) raqibning mahsulot belgisi nomidan noto‘g‘ri foydalanish;

4) past sifatli mahsulotlarni reklama qilish;

5) raqib mahsulotlarining sifati to'g'risida asossiz ma'lumotlar tarqatish.

3. Raqobat muhiti va strategiyasi

O'zbekistonda raqobatchilik muhitini yuzaga keltirish va amal qilishi uchun ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor iqtisodiyoti munosabatlari qaror topgan muhitda yuzaga kelishi mumkin. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonida bozor infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish, raqobat muhitini yuzaga keltirish va uni rivojlantirish zaruriyati tug'iladi. Ushbu masala 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan «Tovarlar bozorlaridagi monopolistik faoliyatni tiklash va raqobat to'g'risida»gi yangi qonunda o'z aksini topgan edi.

Ushbu qonun asosan ikkita maqsadni ko'zda tutadi. *Birinchisi* – mavjud va saqlanib qolayotgan monopol korxonalar tomonidan bozordagi hukmronlik mavqeini suiiste'mol qilishlariga yo'l qo'ymaslik va buning oldini olishni ko'zlovchi avvalgi qabul qilingan korxonalardan tubdan farq qiluvchi yangi monopoliyaga qarshi tartibni ishga solish. *Ikkinchisi* – yanada muhimrog'i – bu monopoliyadan chiqarish va sog'lom sof raqobat muhitini yaratishdir.

Raqobat muhitining shakllanishiga xususiylashtirish jarayoni samarali ta'sir qilishi uchun, bu tadbir katta korxonalarni raqobatga qodir alohida tizimlarga bo'lish orqali monopoliyadan chiqarish bilan qamrab olib borilishi kerak. Xususiylashtirish, kichik va o'rta biznes raqobatni rivojlantirish omili, tadbirkorlarning mavjudligi esa, bozor rivojlanishining asosiy shart-sharoitlaridan biri hisoblanadi.

Ayrim tarmoqlarda iqtisodiyotning monopollashuvi asossiz ravishda yuqori darajada saqlanib qolayotgani ishlab chiqarish hajmining o'sishiga, mahsulot sifati va raqobatbardoshligining ortishiga, narxlarning pasayishiga hamon to'sqinlik qilayotgani doimo Prezidentning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Jumladan, sement, shifer, polietilen, yengil va yog'-moy sanoati mahsulotlari va boshqa qator tovarlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish imkoniyati nisbatan cheklangan holda saqlanib qolayotgani davlatimiz rahbari tomonidan tanqid qilingani barchamizga ma'lum. Bu esa ana shu mahsulotlarga konyunktura talablari oshib ketgan

paytda monopolist korxonalariga o'z mahsulotining narxini asossiz ravishda oshirish uchun qo'l kelmoqda.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov 2007-yilning fevralida Davlat monopoliyadan chiqarish qo'mitasi, Iqtisodiyot, Moliya va Adliya vazirliklari, Davlat soliq va Davlat bojxona qo'mitalari, Savdo-sanoat palatasi boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birga ana shu masalalarga doir ishlarning ahvolini o'rganib chiqishlari, bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga bozorning barcha ishtirokchilari uchun teng raqobat sharoitini ta'minlash borasida tegishli takliflar kiritishlari to'g'risida ko'rsatma bergani iqtisodiyot rivojining bugungi bosqichida monopolizm ko'rinishlariga qarshi kurash va amalda raqobat muhitini shakllantirishning g'oyat muhimligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotda monopollashuv prinsiplarining kuchayib borishi raqobatni cheklaydi. Shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa, davlatning monopoliyaga qarshi raqobatni rivojlantirish siyosatida o'z aksini topadi. Har bir davlat o'z iqtisodiyotini rivojlantirishda aniq vaziyatni, iqtisodiyotning monopollashuv darajasi, uning miqyosi va xarakterli holati, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish hamda uni saqlab qolish zarur bo'lganda, qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirishga qaratadi.

Rejali va buyruqli iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda, shu jumladan bizning mamlakatimizda sog'lom raqobatga shart-sharoit hozirligi, iqtisodiy subyektlarning mustaqilligini kengaytirish orqali ularni raqobatchilikka jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlarining muhim jihatlari hisoblanadi.

Mamlakatimizda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan holatda xususiylashtirish, davlat mulki hisobi mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirishda asosiy o'rin tutadi. *Birinchi*dan, xususiylashtirish natijasida beriladigan mulk o'z egalari qo'lga topshirilsa, *ikkinchi*dan, ko'p ukladli iqtisodiy va raqobatchilik muhitini vujudga keltiradi. Hozirgi kunda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning 80 foizdan ortig'ini nodavlat sektor ta'minlamoqda. Bu borada Prezident Islom Karimov: «Tan olishimiz kerakki, 1991-yilda qabul qilingan **«Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonun**, o'tgan davr mobaynida 80 tadan ortiq qonunosti hujjati unga uyg'unlashtirilganiga qaramasdan, **bugun qayta ko'rib**

chiqishni va yangi tahrirda qabul qilishni talab etmoqda»¹, – deb tegishli mutasaddi tashkilotlarga vazifa yuklagani barchamizga ma'lum.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning asosiy yo'li, bu raqobatni inkor qiluvchi davlat monopoliyasidan nodavlat turli xo'jalik shakllarining mavjudligiga asoslangan va iloji boricha erkin raqobatni taqozo etuvchi bozor tizimiga o'tishdir. Bu yerda raqobatchilik munosabatlarini shakllantirish, avvalo mustaqil erkin tovar ishlab chiqaruvchilarning paydo bo'lishini taqozo qiladi, chunki raqobatning asosiy sharti alohidalashgan, mulkiy mas'uliyatlar asosida o'z manfaatiga ega bo'lgan tadbirkorlik texnikasini zimmasiga oluvchi erkin xo'jalik subyektlarining mavjudligi, ularning bozor orqali aloqa qilishidir.

O'zbekiston Respublikasi «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi qonunining amal qilishi, unga zid ravishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tadbirkorlik rivojiga to'siq bo'luvchi ayrim xatti-harakatlar uchrab turibdi.

Yuqorida qayd etilgan qonunning 7-moddasiga asosan, mahalliy davlat organlariga quyidagilar taqiqlanadi:

– birdan-bir faoliyat sohasidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarni tashkil qilishga cheklashlar joriy etish, shuningdek, ayrim faoliyat turlarini amalga oshirish yoki muayyan bir tovarlar ishlab chiqarishni taqiqlash;

– xo'jalik yurituvchi subyektlarga ayni bir tovar bozorining o'zida ishlaydigan boshqa xo'jalik yurituvchilar.

Raqobatchilik muhitini yaratishda va unga qarshi kurashda mamlakatimizda qonunchilik asoslarini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Raqobatning amal qilishi ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo'lishi mumkin. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda raqobatchilik muhiti uzoq davr davomida o'z-o'zidan tadrijiy yo'l bilan vujudga kelgan.

O'zbekiston davlatining raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o'rin egallaydi. Xususiylashtirish natijasida, *birinchidan*, mulk o'z egalari qo'liga

¹ Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т.: «Ўзбекистон», 2010. – Б. 52.

topshiriladi, *ikkinchidan*, ko‘p ukladli iqtisodiyot va raqobatchilik muhitini vujudga keltiradi. Shunday qilib, O‘zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning asosiy yo‘li, bu raqobatni inkor qiluvchi davlat monopoliyasidan nodavlat, turli xo‘jalik shakllarining mavjudligiga asoslangan va iloji boricha erkin raqobatni taqozo etuvchi bozor tizimiga o‘tishdir. Bu yerda raqobatchilik munosabatlarini shakllantirish, avvalo mustaqil tovar ishlab chiqarishning paydo bo‘lishini taqozo qiladi, chunki raqobatning asosiy sharti alohidalashgan, mulkiy mas’uliyat asosida o‘z manfaatiga ega bo‘lgan va tadbirkorlikni o‘z zimmasiga olgan erkin xo‘jalik subyektlarining mavjudligidir.

O‘zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish Prezident Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiyasidagi ma‘ruzasida ta’kidlaganidek: «Iqtisodiyotni erkinlashtirish – bu xo‘jalik yurituvchi subyektlarning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi oshirish, tadbirkorlik faoliyatini oshirish yo‘lidagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etishni anglatadi». Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasining «Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonuni (1996-y.) g‘irrom raqobatga yo‘l qo‘ymaslik, respublika bozorlarini belgilangan talablarga javob bermaydigan mahsulotlardan (kontrabanda tovarlaridan) himoyalash kabilarga yordam beradi.

Raqobat bozor iqtisodiyotining g‘oyat muhim xususiyati. U amal qilishi uchun ma‘lum shart-sharoitlar muhayyo bo‘lishini talab qiladi. Raqobat faqat bozor iqtisodiyoti muhitida bo‘lishi mumkin, chunki shunda unga zaruriyat bo‘ladi, shuningdek unga yo‘l ochiladi.

G‘arb mamlakatlarida raqobatga davlat aralashmaydi. Davlat xususiy monopoliyalarni jilovlashga qaratilgan tadbiri – 1890-yilda AQShda «Sherman qonuni» qabul qilingan, tarixda antitrest deb ham nom olgan. Antimonopol qonunchiligi asosan uch yo‘nalishda bo‘ladi:

1) ishlab chiqarish tizimini boshqaruvchi qonunlar yoki ular modellarini aniq belgilash, ya’ni hech bir korxonaga yuqoridagi me’yordan ortiq tovar ishlab chiqarishga yo‘l bermaydi, mahsulotning qolgan qismini albatta, boshqa korxonalar ishlab chiqaradi, demak, ular o‘rtasidagi raqobat ta’minlanadi;

2) barcha yirik korporatsiyalarning ishtirokchilari boshqa korporatsiyalar aksiyalarining ma‘lum cheklangan miqdoridan ortig‘iga ega bo‘lmasligi kerak;

3) narxlarning talab va taklif muvozanati belgilangan darajadan yuqori yoki past tutib turishini, narx xususida kelishib olishni man qiluvchi antitrest qonunlarini joriy etish.

Bozor erkin iqtisodiy faoliyatni talab qilgandan jamiyat raqobatchilarga bir xil imkoniyat yaratib beradi, xo‘jalik subyektlariga o‘zini saqlab turishi uchun bir xil sharoit hozirlaydi, davlat raqobat qoidalariga rioya etilishini o‘z nazoratiga oladi, ayrim yoki bir guruh tadbirkorlarning monopol mavqeida bo‘lishiga yo‘l bermaydi.

3.1. O‘zbekiston Respublikasining «Raqobat to‘g‘risida»gi qonunining (2011-yil 6-yanvar) ahamiyati to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010-yil 12-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» nomli ma‘ruzasida demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor vazifalari belgilangan «Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish» nomli 6-yo‘nalishi to‘g‘risida davlatimiz rahbari: «Hammamiz yaxshi tushunamizki, bozor munosabatlarining asosi bo‘lgan raqobatni rivojlantirishda monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari katta rol o‘ynaydi. Ammo, amaldagi **«Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida»gi qonun bugungi kunda eskirdi va zamon talablariga javob bermay qoldi. Shuni e‘tiborga olgan holda, «Raqobat to‘g‘risida»gi yangi qonunni ishlab chiqishimiz va qabul qilishimiz zarur.** Ushbu qonunda monopolistik faoliyatni nafaqat tovarlar bozorida, balki moliya bozorlarida ham tartibga solishni nazarda tutish lozim. Shuningdek, birja savdolarida ham monopoliyaga qarshi mexanizmlarni, aksiyalarni sotib olish, qo‘shish va birlashtirish bitimlarini tartibga solish va nazorat qilish tartib-qoidalarini soddalashtirish bo‘yicha normalarni ushbu qonunga kiritish maqsadga muvofiqdir», – deb ta’kidlagan edi.

Darhaqiqat, mustaqillikning dastlabki yillarida monopolistik faoliyatga qarshi siyosat yuritish, xususiylashtirish va xususiy sektorning jadal rivojlanishini ta‘minlash milliy iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan edi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilingach, iqtisodiyot sohalarida sog‘lom *raqobat muhiti* shakllanib, respublika iqtisodiyotining tuzilishi bosqichma-bosqich o‘zgara boshladi. Masalan, bundan o‘n besh yil avval monopolist korxonalar davlat reyestrda 4351 xil

mahsulot va xizmatlar turi bo'yicha 827 ta xo'jalik subyekti mavjud edi. O'tgan davr mobaynida esa, monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan turli tovar bozorlaridagi raqobat sharoitini o'rganish yuzasidan doimiy ravishda tahlillar o'tkazilib, ular asosida reyestruga tegishli o'zgartishlar kiritildi. Natijada 2000-yildan 2010-yilgacha bo'lgan davrda monopolist korxonalar soni 4 baravarga, monopol mahsulot va xizmatlar miqdori esa 12 baravarga kamaydi. Hozirgi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida kichik biznesning ulushi 54,5 foizni, monopol mahsulot va xizmatlarning hissasi esa 19 foizdan sal ko'proqni tashkil etayotgani ana shundan dalolat beradi.

Konsepsiya talablaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan manfaatdor davlat organlari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risida»gi qonuni loyihasi ishlab chiqildi.

Darhaqiqat, amaldagi «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni moliyaviy xizmatlar bozorlaridagi raqobatni tartibga solish masalalarini «o'z ichiga» olmagan. Bu esa, o'z navbatida, mazkur sohada raqobatga qarshi harakatlarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan choralarni amalga oshirishga imkon bermas edi. 2011-yil 6-yanvarda Prezident Islom Karimov tomonidan O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risida»gi qonuni imzolandi. Ushbu qonunning maqsadi tovar va moliya bozorlarida raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ma'lumki, moliya bozori iqtisodiyotning eng asosiy qon tomiri hisoblanadi. Qonunning 4-moddasida asosiy tushunchalar berilgan bo'lib, iqtisodiy savodxonlikni oshirish maqsadida undan ayrimlarini keltiramiz:

Raqobat – xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari, ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi.

Bir-birining o'rnini bosadigan tovarlar – o'zining belgilangan vazifasi, qo'llanilishi, sifat va texnik xususiyatlari, narxi hamda boshqa o'lchamlari bo'yicha taqqoslanishi mumkin bo'lgan shunday tovarlarki, ularni oluvchi iste'mol qilish chog'ida bir tovarni boshqasiga haqiqatan ham almashtiradi yoki almashtirishga tayyor bo'ladi.

– xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo'lishga qaratilgan, qonun hujjatlariga, ish muomalasi odatlariga zid bo'lgan hamda boshqa xo'jalik

yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoxud ularning ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlari.

Kamsituvchi shartlar (sharoitlar) – tovar yoki moliya bozoriga kirish, tovarni ishlab chiqarish, iste'mol qilish, olish, realizatsiya qilish, o'zgacha tarzda boshqa shaxsga o'tkazish shartlari (sharoitlari) bo'lib, ular boshqa teng shartlarda (sharoitlarda) bitta yoki bir nechta xo'jalik yurituvchi subyektni o'zga xo'jalik yurituvchi subyekt (raqobatchi) bilan taqqoslaganda, teng bo'lmagan holatga solib qo'yadi.

Kelishib olingan harakatlar – tovar yoki moliya bozorida ikki yoki undan ortiq xo'jalik yurituvchi subyektning bozorning mazkur ishtirokchilaridan har birining manfaatlarini qanoatlantiradigan va ulardan har biriga oldindan ma'lum bo'lgan, raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlari.

– raqobatchilar yoki boshqa shaxslar tomonidan tarqatiladigan, tovar yoki moliya bozorida ayrim xo'jalik yurituvchi subyektga afzalliklar yaratadigan yoxud xo'jalik yurituvchi subyektni (raqobatchini) yoki raqobatchi ishlab chiqargan tovarni yomonlovchi yolg'on, noaniq yoki buzib taqqoslash.

– raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarida xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun man etilgan harakatlar, shuningdek davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ular mansabdor shaxslarining raqobatni cheklashga qaratilgan harakatlari (harakatsizligi).

Tovar – faoliyatning olish va realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan mahsuli, shu jumladan ishlar va xizmatlar.

– tovarning (shu jumladan bir-birining o'rnini bosadigan tovarning) O'zbekiston Respublikasi hududidagi yoki uning bir qismidagi muomala doirasi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishiga mos kelmasligi mumkin va mazkur muomala doirasi chegaralarida tovarni olish yoki realizatsiya qilish imkoniyati mavjud bo'ladi.

– tovarlarni ishlab chiqarish, olish va realizatsiya qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs, shu jumladan chet ellik yuridik shaxs, xo'jalik boshqaruvi organi, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkor.

Moliya bozori – banklar hamda boshqa kredit, sug'urta va o'zga moliya tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatning, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari xizmatlarining O'zbekiston Respublikasi hududidagi yoki uning bir

qismidagi muomala doirasi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishiga mos kelmasligi mumkin va mazkur muomala doirasi chegaralarida bunday xizmatni ko'rsatish imkoniyati mavjud bo'ladi. Mazkur bozorda hozirgi kunda yuzlab subyektlar faoliyat yuritib kelmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida moliya tizimining barqarorligini ta'minlash ushbu sohada raqobatni rivojlantirishdan ustun hisoblangan. Bugungi kunga kelib esa, mazkur tizimda sog'lom raqobat muhiti shakllangan va unda raqobatga qarshi harakatlar hamda qayta monopollashuvning oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, moliya tizimida monopoliyaga qarshi tartibga solish mexanizmini joriy etish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Moliya bozorlarida raqobatni ta'minlash bo'yicha yangi qonun loyihasida ko'pgina me'yorlar ko'zda tutilgan. Xususan, amaldagi qonunda «bir-birining o'rnini bosadigan tovarlar», «insofsiz raqobat», «kamsituvchi shartlar (sharoitlar)», «noto'g'ri taqqoslash» va hokazo. Prezidentimizning 2008-yil 18-noyabrdagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni bilan aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondlarining hajmi 10 barobardan ziyodga ko'tarildiki, bu ham aksiya va ulushlar sotib olish bo'yicha bitimlarda investor va uning qiymati amaldagi qonunda belgilangan eng yuqori me'yordan sezilarli darajada ortishini ta'minlamoqda.

Yangi qonunning qabul qilinishi yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etishga, raqobatni rivojlantirish va uni himoya qilish bo'yicha munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga, ushbu sohadagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini aniqlashtirishga, tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni bartaraf etish hamda oldini olish bo'yicha huquqiy vositalarni yangilashga xizmat qiladi. Yuqori likvidli, jumladan, tovar bozorida ustun mavqega ega korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarning birja savdolari rivojlanishi bilan monopol yuqori narx tavsifiga yondashuv ham o'zgaradi. Xususan, qonun loyihasida birja savdolari natijasida vujudga kelgan narx monopol yuqori hisoblanmasligi nazarda tutilgan.

Yangi qonunda yuqorida keltirilgan umumiy tavsiflarni aniqlashtirish bilan bir qatorda, yangi tushunchalar ham kiritildi. Shuningdek, unda «ustun mavqe»ni tavsiflash prinsipi, subyektning tovar va xizmatlar bozoridagi ustun mavqei, mezonlarini aniq va puxta belgilash hamda bozor ulushi hajmini qisqartirish yo'li bilan o'zgartirish ko'zda tutilgan.

Ma'lumki, monopoliyaga qarshi qonunchilikning yo'nalishlaridan biri, bu – bozor subyektining xo'jalik faoliyatini yuritishiga ta'sir

ko'rsatish yo'li bilan tovar bozorlarining monopollashuviga va raqobatni cheklashga yo'l qo'ymaslik maqsadida xo'jalik subyekting ustav fondida shaxs yoki shaxslar guruhining ustunlik darajasi oshishiga olib keluvchi qo'shilish, qo'shib yuborish, aksiyalarni, mulkiy huquqlarni sotib olish va boshqa bitimlarni (harakatlarni) tartibga soluvchi yangi bob kiritildi. Shuningdek, xo'jalik subyektlariga nisbatan ma'muriy og'irliklarni qisqartirish maqsadida aktivlarning balans qiymati oshirildi.

Jahon iqtisodiyotida vujudga kelayotgan tendensiyalardan, shuningdek, mamlakatimizni kelajakda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish strategiyasidan kelib chiqqan holda, 2012-yilda va undan keyingi yillarda quyidagi ustuvor vazifalarning amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi darajali e'tibor mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish bo'yicha dastur tayyorlash va uni amalga oshirishga qaratilishi zarur. Bu maqsadning dolzarbligi va ahamiyati, avvalo, shu bilan belgilanadiki, biz o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiyotimizni rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga olib chiqishni hozirgi bosqichdagi bosh strategik vazifa sifatida o'z oldimizga qo'yganmiz.

O'z-o'zidan ayonki, raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirmasdan, pirovard natijada esa raqobatdosh mamlakatni barpo etmasdan turib, biz qabul qilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da ko'zda tutilgan maqsadli vazifalarni amalga oshirmasdan turib, bu haqda jiddiy so'z yuritish mumkin emas. Bu vazifaning o'rta qo'yilishi, shuningdek, inqiroz jarayonlarining chuqurlashuvi, dunyo miqyosida xarid talabining pasayishi va shunga muvofiq tarzda jahon bozorida xom ashyo, materiallar, ayniqsa, tayyor mahsulotlar bo'yicha raqobatning yildan-yilga kuchayib borayotgani bilan ham bog'liq, albatta.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va raqobatdosh mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish bo'yicha qabul qilingan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturiga muvofiq, 2012–2016-yillarda hisob-kitoblar

bo'yicha qiymati 6 milliard 200 million dollar bo'lgan 270 dan ziyod investitsiya loyihasini, shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha tarmoq dasturlarini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Masalan, 2012-yilda Surg'il koni bazasida hatto dunyo mezonlari bo'yicha ham noyob bo'lgan, qiymati 25 milliard dollardan ziyodni tashkil etadigan Ustyurt gaz-kimyoy kompleksini qurilishi boshlandi. Mazkur obyektning qurilishi 2016-yilda nihoyasiga yetkaziladi va bu korxonada 4 milliard 500 million kub metr tabiiy gazni qayta ishlash, 400 ming tonna polietilen va 100 ming tonna polipropilen ishlab chiqarish imkonini beradi.

Ushbu loyiha texnologik jihatdan dunyodagi eng ilg'or loyihalardan biri bo'lib, eng yuksak darajadagi gaz-kimyoy texnologiyalarini joriy etishni ko'zda tutadi. Bu, o'z navbatida, tabiiy gazdan 97 foizgacha etan, propan va boshqa qimmatbaho komponentlarni ajratib olishni ta'minlaydi.

Mazkur loyihadagi yetakchi xorijiy banklar konsorsiumi, davlat kafolatlarini jalb etmagan holda, loyihalarni moliyalashtirish prinsiplari asosida ishtirok etmoqdalar.

Dunyodagi yirik «Tomson Reyter» biznes-axborot agentligining moliya sohasidagi jahonga mashhur «Projekt faynens interneshnl» jurnali ushbu loyihaning noyobligi va ishga novatorlik bilan yondashish natijasi ekanini qayd etib, Ustyurt gaz-kimyoy kompleksini qurilishini neft-gazkimyoy sanoatidagi yilning eng yaxshi loyihasi, deb tan oldi. Bu, hech shubhasiz, barchamizni ertangi kunga ishonchimizni yanada mustahkamladi.

2012-yilda Janubiy Afrikaning «Sosol» kompaniyasi va Malayziyaning «Petronas» korporatsiyasi bilan hamkorlikda qiymati 4 milliard dollardan ziyodni tashkil etadigan, tozalangan metan asosida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish bo'yicha katta istiqbolga ega bo'lgan yirik loyihani amalga oshirish boshlandi.

Ushbu loyiha asosida barpo etiladigan zavod dunyodagi sanoqli korxonalardan biri bo'lib, u sintetik suyuq yoqilg'i – suyultirilgan gaz, aviakerosin va «premium klass» toifasidagi, ya'ni Yevro-4 standartidan kam bo'lmagan dizel yoqilg'isi ishlab chiqaradi.

Hozirgi kunda «Angren» maxsus industrial zonasi hududida qiymati 186,0 million dollarlik 8 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Shular qatorida zarurat va ehtiyoj baland bo'lgan turli tayyor mahsulotlarni va butlovchi buyumlarni ishlab chiqarish, shuningdek,

yangi shakar zavodini qurish, tayyor charm buyumlar ishlab chiqaradigan kompleksni barpo etish alohida o‘rin tutadi.

Aytish kerakki, hozirgi vaqtda ushbu jamg‘arma kapitali 9 milliard dollardan oshib ketdi. 2012-yilda jamg‘arma mablag‘lari hisobidan sanoat va ishlab chiqarish infratuzilmasining yetakchi tarmoqlarida 758 million dollardan ziyod hajmdagi 29 ta strategik investitsiya loyihasini birgalikda moliyalash mo‘ljallanmoqda, bu o‘tgan yilga nisbatan 38,2 foizga ko‘p, demakdir.

Vazirlar Mahkamasi strategik ahamiyatga molik loyihalarning amalga oshirilishini alohida nazoratga olishi, loyiha-smeta hujjatlarining puxta ishlanishini, tanlov savdolarining o‘z vaqtida o‘tkazilishini, zarur asbob-uskunalarining yetkazib berilishi bo‘yicha shartnomalar tuzilishi hamda qurilish-montaj ishlarining belgilangan muddatlarda bajarilishini ta‘minlashi zarur.

Hukumatning chorak yakunlariga bag‘ishlangan yig‘ilishlarida qabul qilingan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturini va modernizatsiyalash bo‘yicha tarmoq dasturlari hamda loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha tasdiqlangan tarmoq jadvallari ijrosi ta‘minlanishini ko‘rib chiqish va ularning bajarilishi uchun o‘z vaqtida tegishli choralar ko‘rish tartibini joriy etish darkor.

O‘tgan yili protokol bilan belgilangan topshiriqqa binoan mamlakatimizning barcha yirik korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarida o‘tkazilgan texnik audit natijasida 37 mingga yaqin asbob-uskuna va texnologiyalarning jahon miqyosida sinovdan o‘tgan zamonaviy turlariga almashtirilishi lozimligi aniqlandi. Vazirlar Mahkamasiga ushbu audit natijalari asosida moddiy va ma‘naviy jihatdan eskirgan asbob-uskunalarni yangilash bo‘yicha loyihalarning amalga oshirilishi yuzasidan, ularni moliyalashning aniq manbalariga alohida e‘tibor qaratish vazifasi yuklatilgan.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizning samarasi haqida so‘z yuritar ekanmiz, shuni tan olishimiz kerakki, bu yo‘nalishda eskidan qolgan va hali-beri ro‘y berib kelayotgan oqsoqlik holatlari borligi, birinchi navbatda, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning material va energiya sarfi yuqori darajada saqlanib qolayotgani ayon bo‘lmoqda. Muqobil energiya resurslarini izlash va joriy etish ishlari talab darajasida emas. Umuman, ushbu sohada zudlik bilan hal qilinishi lozim bo‘lgan ko‘plab muammolar to‘planib qolganini afsus bilan qayd etish kerak.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini boshqarish tizimlarini joriy etish, mahsulotlarning xalqaro standartlarga

mosligini ta'minlashni barcha korxonalarda ham hal etish masalasi ko'rilmoqda. Bu O'zbekiston iqtisodiyoti uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan yengil sanoat, farmatsevtika va qurilish materiallari sanoati kabi iste'mol tovarlari ishlab chiqariladigan tarmoqlarga tegishlidir.

1-jadval

Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyotining lokomotiviga aylangan tarmoqlar

Lokomotiv tarmoqlar	foizda
Mashinasozlar va avtomobilsizlik	12,2
Kimyo va neft-kimyo sanoati	9,4
Oziq-ovqat sanoati	13,1
Qurilish materiallari sanoati	11,9
Farmatsevtika va mebelsozlik	18,0

Mamlakatimizda yaratilgan ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish borasida ham ishga solinmagan ulkan imkoniyatlar mavjud. Bu ishlab chiqarishni yangilash va modernizatsiya qilish masalasidir. Buning uchun so'nggi yillarda katta mablag' sarflanmoqda. Ko'p miqdordagi xorijiy investitsiyalar jalb etilmoqda. Qator tarmoqlarda ishlab chiqarish quvvatlaridan, asosiy fondlardan to'liq foydalanishda, mehnat samaradorligini oshirishda kamchiliklarga yo'l qo'yilmaslik choralari qo'yilmoqda. Shu bois, mahsulotlar tannarxining asossiz ravishda o'sib ketishining oldi olinmoqda.

Mamlakatimizda samarali iqtisodiyotni barpo etish maqsadida quyidagi masalalarga 2012-yilning 19-yanvarida bo'lib o'tgan Vazirlar Mahkamasining yig'ilishida katta e'tibor qaratildi. Bular:

birinchidan, manfaatdor vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, kompaniya va korxonalar ishtirokida sanoatda mahsulot tannarxini 10–15 foizga pasaytirish yuzasidan har bir sanoat korxonasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ko'zda tutadigan dastur ishlab chiqish lozimligi;

ikkinchidan, mamlakatimiz korxonalarida qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash darajasini tanqidiy tahlil qilish va uni rivojlantirish bo'yicha mavjud resurs va imkoniyatlarni aniqlash hamda sanoatning qayta ishlash tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari turlarini ko'paytirish va sifatini yaxshilash, buning uchun qo'shimcha imtiyozlarni ko'zda tutadigan maxsus qaror qabul qilish kerakligi. Bu borada, birinchi navbatda, mahalliy xom ashyo va

materiallar asosida sanoat kooperatsiyasi va ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish tizimini yanada rivojlantirishga oid ishlarni davom ettirishga alohida e'tibor qaratish darkorligi;

uchinchidan, bugungi keskin raqobat sharoitida mahsulotlarimizning jahon va mintaqaviy bozorlarda xaridorgir bo'lishi va mustahkam o'rin egallashi uchun bu boradagi ishlarni yana bir bor tanqidiy ko'rib chiqish lozim. Bunda tashqi bozorda xaridorbop, yuqori likvidli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni rag'batlantirishni yanada kuchaytirish, ularga yangi imtiyoz va preferensiyalar berish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar tayyorlash zarurligi;

to'rtinchidan, mamlakatimizdagi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari va boshqa tarmoqlarning eksport yarmarkalari o'tkazishini kengaytirish, shuningdek, mahsulot sotishning zamonaviy usullaridan keng foydalanish, asosiy ishlab chiqaruvchilarimizni o'z mahsulotlari taqdimotini o'tkazish va yangi eksport shartnomalari tuzishi uchun nufuzli xalqaro yarmarkalarga jalb etish bo'yicha alohida hukumat qarorini qabul qilish lozimligi davlatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan vazifa etib belgilangan¹.

Yuqorida ta'kidlanganidek, davlatimiz tomonidan ko'rilayotgan barcha izchil chora-tadbirlar tizimi mamlakatimizda raqobat muhitini yaratishga zamin ta'minlaydi. Bozor tizimidagi raqobat iqtisodiy resurslarni tejimli ishlatishga, tovar va xizmatlarni ko'plab va sifatli ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, xo'jalik yuritishning eng samarali usullarini yuzaga keltiradi. Iqtisodiy aloqalarning eng ma'qulini topishga undaydi. O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risida»gi qonuni eng avvalo iqtisodiy o'sishni ta'minlash, bu esa o'z navbatida raqobat maydonini kengaytirishga, muhimi sog'lom yangi raqobatchilarni yuzaga keltiradi. Chunki hozirgi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlar hamda fermerlar harakati safi kengayib bormoqda. Bugungi tadbirkorlar raqobatda qo'li baland kelishi uchun ilg'or texnologiyadan samarali foydalanishga qodir bo'lgan malakali ishchilar va mutaxassislarni jalb etishdan manfaatdordirlar. Raqobat oila a'zolarining faolligini ham yuzaga chiqaradi. Oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi oilalar soni kundan- kunga ortib bormoqdaki, bu ham raqobat muhitini yaratishga xizmat qiladi. Raqobatda bozor xo'jaligiga xos **iqtisodiy saralanib olish** tamoyili amal qiladi. Raqobatda yutib chiqqanlar iqtisodiy jihatdan mustahkamlanadi. Yutqazganlar nochor korxonalar hisoblanib xonavayron

¹Қаранг: Каримов И. А. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги bosқичга кўтарадиган йил бўлади. – Т., 2011. – Б. 19–21.

bo'ladi ya'ni bankrotga uchraydi. Davlat sog'lom raqobat muhitini yaratishdan manfaatdor. Chunki qayerda raqobat munosib o'rin egallasa, shu yerda iqtisodiy o'sish yuz beradi. Xalq farovonligi darajasi yangi bosqichga ko'tariladi.

Muxtasar qilib aytganda, mazkur qonun raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, hozirgi kunda ko'pgina alohida qonunosti hujjatlaridan iborat bo'lgan me'yorlarni jamlab, yaxlit shaklga keltirishga xizmat qiladi. Bu esa, mazkur sohadagi huquqiy munosabatlarda oshkoralikni ta'minlab, raqobat muhitini yanada sog'lomlashtiradi. Sog'lom raqobat esa rivojlanish garovidir. Raqobatlashish muhitining vujudga kelishi va uni saqlashda davlatning roli beqiyosligini ta'kidlash joiz. Davlat iqtisodiy monopolizmni cheklash, umuman antimonopol yo'l tutishni talab qiladi, chunki busiz raqobatlashish vaziyati paydo bo'lmaydi. Bu nazarda tutilib, O'zbekistonda «Raqobat to'g'risida»gi yangi qonunga ko'ra:

- bozorda sun'iy taqchillik hosil etish;
- narxlarni monopollashtirish;
- raqobatlarining bozorga kirib borishiga to'sqinlik qilish;
- raqobatning g'irrom usullarini qo'llash man etiladi.

Tayanch tushunchalar:

Raqobat, raqobat qonuni, g'irrom raqobat, halol raqobat. Narx orqali raqobatlashuv, sifat orqali raqobatlashuv, reklama vositasida raqobatlashuv, mukammal raqobat, nomukammal monopolistik raqobat, partnyorlik, raqobat strategiyasi, raqobatchilik muhiti, raqobatbardoshlik, antimonopol siyosat.

Savol va topshiriqlar:

1. Raqobatning bosqichlarini tushuntiring.
2. Bozor tizimi va raqobat o'rtasida qanday bog'lanishlar bor?
3. Sof raqobat va sof monopoliyaning umumiy va farqli tomonlarini sharhlab bering.
4. Mulk shakli raqobatni belgilaydimi yoki raqobat mulk shaklinimi?
5. Raqobatning g'irrom va yovvoyi usullarini sharhlab bering.

Mavzuni chuqur o'rganish instrumentariysi

Demping – tovarlarni tashqi bozorda ichki bozorga nisbatan arzon narxda sotish; tashqi bozorni egallash uchun tovar baʼzan ishlab chiqarish xarajatlaridan past baholarda chetga chiqariladi.

Duopoliya – bozorda ikkita oligopol firma bir-biri bilan raqobat qiladigan vaziyat.

Narx hosil boʻlishida yetakchilik – oligopol bozorlardagi narx yetakchisiga qolgan oligopoliyalar roziligi bilan tarmoq narxlarini belgilashda yetakchilik roli beriladigan hodisa.

Kurno modeli – har bir firma oʻz raqobatchisining ishlab chiqarish hajmini doimiy deb hisoblaydi va shunday keyin ishlab chiqarish hajmi boʻyicha oʻz qarorini qabul qiladi, degan taxminga asoslanadigan duopoliya xatti-harakatining modeli; ishlab chiqarish hajmining muvozanatlashgan darajasi ikkala firma reaksiyasi oʻzgaruvchilarining kesishgan nuqtasiga mos keladi.

Monopolistik raqobat – tarmoqda garchi bir xil boʻlsa-da, ammo «markali», shu bois monopol mahsulot ishlab chiqaradigan koʻplab raqobatchi firmalar faoliyat koʻrsatadigan bozor vaziyati.

Iqtisodiyotdagi monopoliya – bozor hokimiyatiga ega boʻlgan iqtisodiy tuzilma.

Tabiiy monopoliyalar – iqtisodiy faoliyatning texnikaviy va texnologik xususiyatlari taqozo qilib, ular raqobatni qoʻllash mumkin boʻlmagan yoki qiyin boʻlgan sohalarni oʻz ichiga oladi:

- suv, energiya, gaz taʼminoti korxonalari;
- temir yoʻl transporti;
- harbiy mudofaa majmui korxonalari.

Iqtisodiy (sunʼiy) monopoliyalar ishlab chiqarish va kapitalning toʻplanishi hamda korxonalarining turli yoʻllar bilan birlashishi natijasida vujudga keladi.

Kartel – bir tarmoq korxonalarining ittifoqi boʻlib, uning ishtirokchilari toʻliq iqtisodiy mustaqilligini saqlab qoladi, faqat ishlab chiqarish hajmi, sotish bozorlari va baholari toʻgʻrisida kelishib oladi.

Sindikatsiya – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar birlashmasi boʻlib, uning aʼzolari ishlab chiqarish sohasida mustaqilligini saqlab qoladi, mahsulot esa sindikat mulki sifatida sotiladi.

Trest – ishlab chiqarish vositalari va mahsulotga birgalikda egalik qiluvchi korxonalar guruhi boʻlib, foyda qoʻshilgan kapital hajmiga qarab taqsimlandi.

Oligopoliya – amalga oshmagan raqobatning tarmoqda odatda bir necha yirik raqobatchi firma mavjudligi bilan ajralib turadigan muayyan shakli.

Muvozanatlashgan monopol narx – eng koʻp yoki eng kam daromadning eng koʻp yoki eng kam xarajatlarga tengligi sharoitida eng katta foyda olishni taʼminlovchi narx.

Bozor hokimiyati – muayyan bozor tuzilmalarining o‘z tovar va xizmatlariga subyektiv ravishda narx belgilash imkoniyati.

Til biriktirish – tarmoq firmalari o‘rtasidagi aniq narxlar va ishlab chiqarish hajmlarini belgilash yoki ular o‘rtasidagi raqobatni biror usul bilan cheklash uchun oshkora yoki boshqacha kelishuv.

«Sof» monopoliya (monopsoniya) – bozorda yolg‘iz harakatlanuvchi va cheksiz bozor hokimiyatiga ega bo‘lgan iqtisodiy tuzilma.

Bozor axloqi – erkin raqobatda ishtirok etish natijasida olingan har qanday daromad adolatli sanaladigan axloq.

Aksilmonopol siyosat – davlat boshqaruvi tegishli organlarining iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish hamda monopoliyalarni tartibga solish borasidagi faoliyati.

Qaytarib bo‘lmas yo‘qotishlar – iste‘molchilar va ishlab chiqaruvchilarning monopol hokimiyatni amalga oshirishdan ko‘radigan to‘liq sof zarari.

Iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish – davlatning firmalar qo‘shilishini va boshqa firmalararo bitimlarni cheklovchi choralari tizimini ishlab chiqishga qaratilgan siyosati.

Ishlab chiqaruvchining ortiqcha mahsuloti – ishlab chiqaruvchilar tovar va xizmatlar sotishdan oladigan jami sof foyda; monopol hokimiyat sharoitida iste‘molchilarning ortiqchalari hisobiga to‘ldiriladi.

Inflatsiya salohiyati – iqtisodiyotda monopoliya tamoyillarining kuchayishi bilan bog‘liq inflatsiya imkoniyati, ular orasida eng xavfli iste‘mol sektoridagi tovar yetishmovchiligi.

Ma‘muriy buyruqbozlik monopoliyalari – xarajatlarni sun‘iy ravishda oshirish, mahsulot sifatini pasaytirish va raqobatning asoslarini ma‘muriy asosda yo‘q qilish natijasida yuzaga kelgan monopoliyalar.

Tadbirkorlik monopoliyalari – transformatsion va transaksion xarajatlarni kamaytirish oqibatida raqobatchilarni siqib chiqarish natijasida yuzaga kelgan monopoliyalar.

Monopoliyalar faoliyatini tartibga solish – davlatning mavjud monopoliyalar faoliyatini maqbullashtirish va ularning bozordagi hokimiyatini bir qadar cheklashga qaratilgan choralari tizimi.

Monopoliya bozor strategiyasining maqsadi – ortiqcha iste‘molchilarni egallab olish va uni qo‘shimcha foyda olish manbaiga aylantirish.

Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzish – monopoliyaga qarshi faoliyat olib borish vakolati berilgan organga axborot bermaslik yoki haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma‘lumotlarni bila turib, taqdim qilish, shunday qilmishlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Monopoliyaga qarshi faoliyat olib borish vakolati berilgan organning qonun-qoidalarni buzishni to'xtatish, dastlabki holatni tiklash, shartnomalarni bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi talablarini yoxud boshqa qonuniy ko'rsatmalarini bajarishdan bo'yin tovlash yoki ularni o'z vaqtida bajarmaganlik, shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud tuzatish ishlari bilan jazolanadi (*O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 183-modda*).

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. Raqobat iqtisodiyot subyektlari manfaati to'qnashgan sharoitda ular o'rtasida yuz beradigan kurashdir. Bu kurash raqobat qonuniga ko'ra muqarrar bo'ladi, bozorga xos usullarda yuz beradi, iqtisodiyot subyektlarining saylanib olinishini keltirib chiqaradi. Raqobatlashuv usullari narxni o'zgartirish, tovar sifatini oshirish, servisni yaxshilash va reklamani o'tkazishdan iborat.

2. Raqobat maydoni bozor, biroq turli bozorlarda raqobat ishtirokchilari har xil bo'ladi, ularning raqobatdan ko'zlagan maqsadi ham turlichadir. Bir bozorda ishlab chiqaruvchilar-sotuvchilar kurashsa, boshqa bozorda iste'molchilar bellashadi, yana boshqa yerda ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar raqobatlashadi.

3. Erkin bozorda mukammal raqobat yuz beradi, bu sof raqobat hisoblanadi, chunki raqobat hech bir cheklanmagan bo'ladi, unda ko'pchilik ishtirok etadi, ularning raqobati narx vositasida bo'ladi. Erkin bozorda uning hech bir ishtirokchisi narxga ta'sir eta olmaganidan uni borligicha qabul qilib, shunga ko'ra ish tutadi. Bu yerda narx marginal xarajatlarga yaqin turadi, biroq kurash jarayonida u o'zgartiriladi. Erkin bozor ochiq bo'lganidan bu yerga kirib kelish va undan chiqib ketish mumkin, shu sababli raqobat so'nmaydi. Biroq foyda topilganda bu bozorga kiriladi, zarar ko'rilganda undan chiqiladi. Mukammal raqobat ishlab chiqarishdan ham ishlab chiqaruvchilarni, ham iste'molchilarni manfaatdor qiladi, chunki ishlab chiqarish yutug'ini ular baham ko'rishadi.

4. Nomukammal raqobat ishtirokchilari ozchilik bo'lgan va cheklangan tarzda yuz beradigan, monopoliyalarga xos raqobatdir. Buning asosiy ko'rinishi *monopol* va *oligopol* raqobatdir. Monopol raqobatli bozorda ko'pchilik firmalar sifat, servis, reklama va tovar belgilari vositasida kurashadilar. Bu yerda erkin bozordagidan yuqori, ya'ni marginal xarajatdan yuqori bo'lgan narxlar amal qiladi. Bu bozor ochiq, lekin unga kirib o'rinish olish uchun katta kapital kerak, binobarin, bu raqobatni cheklaydi.

Oligopoliya bozorida g'oyat yirik va ozchilikdan iborat kompaniyalar sifat va servis vositasida raqobatlashadilar, ular narxni kelishgan holda, marginal

xarajatdan ancha yuqori qilib o'rnatadilar. Bu bozorga kirib raqobatlashuv juda qiyin, lekin buning uddasidan ulkan firmalar chiqa oladilar. Sof monopoliya bozorida tovar taklifi yakka-yu yagona firma qo'lida bo'lganidan uning raqibi bo'lmaydi, biroq bu firma resurslar bozorida raqobatlashadi. Bu yerda bozor konsentratsiyasi kuchli bo'lganidan bozor hokimiyati hosil bo'ladi va bu bozor narxiga ta'sir etish miqyosi bilan aniqlanadi. Bozor hokimiyati koeffitsiyenti amaldagi narxlarning marginal xarajatdan naqadar yuqori bo'lishini bildiradi.

Monopsoniya bozorida xaridor yagona bo'lganidan ko'pchilik ishlab chiqaruvchilar uning pulini olish uchun kurashadilar. Raqobat turlari sof holda kamdan-kam uchraydi, ular yonma-yon turadi, hatto chirmashib ham ketadi.

5. Raqobat muqarrar bo'lganidan firmalar unga oid strategiyasini ishlab chiqadi. Bunda bozorda o'zini qanday tutish, raqobatga borish yoki til biriktirib, unga bormaslik yo'li aniqlanadi. Raqobatga borilganda o'z tovarlarining raqobatbardoshligiga, ya'ni uning xaridorlarga ma'qul bo'lishiga asosiy e'tibor beriladi, strategiyada raqobatlashuv usuli ham belgilanadi.

6. Bozor tizimiga raqobatchilik muhiti xos bo'ladiki, bu iqtisodiy erkinlikdan boshqa narsa emas. Buni ta'minlashda davlat faol qatnashadi. Xususiy mulk va iqtisodiy erkinlik qonun yo'li bilan kafolatlanadi, raqobatchilarning bozorga kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratiladi, davlat mulki xususiylashtiriladi. Raqobatchilikni ta'minlab turish uchun davlat antimonopol siyosat qo'llaydiki, bunga binoan yangi monopoliyalarning hosil bo'lishining oldi olinadi, eski monopoliyalar jilovlab turiladi, kompaniyalar qo'shib monopoliya hosil etishi taqiqlanadi, saqlanib qolgan monopoliyalar narxi nazorat qilinadi.

7. Raqobatlashish muhitining vujudga kelishi va uni saqlashda davlatning roli. Davlat iqtisodiy monopolizmni cheklash, umuman antimonopol yo'l tutishni talab qiladi, chunki busiz raqobatlashish vaziyati paydo bo'lmaydi. Bu nazarda tutilib O'zbekistonda Monopolistik faoliyatni cheklashga oid huquqiy kafolatlar yaratildi. Huquqiy kafolatlarga ko'ra:

- bozorda sun'iy taqchillikni hosil etish;
- narxlarni monopollashtirish;
- raqobatlarining bozorga kirib borishiga to'sqinlik qilish;
- raqobatning g'irrom usullarini qo'llash man etiladi.

8. Jenevada o'tkazilgan jahon iqtisodiy forumidagi ma'ruzada mamlakatlarning raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilar deb belgilangan edi:

- ichki mikroiqtisodiy salohiyat;
- boshqaruv darajasi (foydaliligi, javobgarligi va yangiliklarni kiritish nuqtai nazaridan);
- ilmiy-texnik salohiyat (fundamental va aniq fanlar izlanishlarining muvaffaqiyatliligi jihatidan);

- xalqaro savdoda qatnashishi va investitsiyaning oqimi darajasi;
- raqobat muhitini shakllantirishga hukumat siyosatining ta'siri darajasi;
- moliya tizimining sifati va samaradorligi;
- infratuzilma ahvoli;
- mehnat resurslarining holati va kvalifikatsiyasi.

9. Ma'lumki, iqtisodiyot rivojining bugungi bosqichida monopoliizm ko'rinishlariga qarshi kurash va amalda raqobat muhitini shakllantirish masalalari g'oyat ahamiyatlidir. Respublikamizda sog'lom raqobat muhitini yaratishga mustaqillikning dastlabki yillaridayoq alohida e'tibor qaratilgan. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining maxsus qonunlari qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining antimonopol qonunchiligi:

– «Raqobat to'g'risida»gi qonun (2011-y). Unda bozorda ataylab taqchillik hosil qilish, narxlarni monopollashtirish, raqobatga to'sqinlik qilish va uning g'irrom usullarini qo'llash taqiqlanadi;

– «Obyektlarning xo'jalik yurituvchi jamiyatlar va shirkatlar tarkibidan chiqish tartibi to'g'risida»gi nizom» (1994-y). Unda o'z monopol mavqeini suiiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo'lib tashlash yoki maydallashtirish ko'zda tutiladi;

– «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonun (1996-y). Qonunda belgilanishicha, g'irrom raqobat va bozorlarga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarish taqiqlanadi.

O'zbekistonda monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshiruvchi muassasalar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2010-yil 26-fevraldagi farmoniga muvofiq, monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish, raqobat muhitini izchil rivojlantirish, tabiiy monopoliyalar korxonalarini faoliyatini nazorat qilishni kuchaytirish va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan narxlarning asossiz oshirilishiga yo'l qo'ymaslik, iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish ishlarini faollashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi etib qayta tashkil qilindi.

11- MAVZU. MENEJMENT VA MARKETING ASOSLARI

1. Menejment faoliyatining iqtisodiy mazmuni, vazifalari

«Boshqaruv» atamasi italyanча «managgiare» soʻzidan olingan. Dunyoning juda koʻplab mamlakatlarida esa iqtisodiy sohadagi boshqaruv «management», siyosiy sohadagi boshqaruv «governance» («government»), texnika sohasidagi boshqaruv esa «control» («controlling») atamaları bilan ifodalanadi.

Boshqaruvning mohiyati haqida aniq va bir xilda tushuniladigan fikrlar mavjudligi boʻyicha tasavvurlar vujudga kelishi mumkin. Afsuski, real hayotda bunday emas. Hozirgi kunda boshqaruvni aniq ilmiy kategoriya sifatidagi, umumeʼtirof qilingan taʼrifi ishlab chiqilmagan.

Umuman olganda, «boshqaruv» tushunchasi turli maʼnolarni ifodalaydi. Juda koʻp hollarda «boshqaruv» tushunchasi boshqaruv faoliyatini amalga oshiradigan subyektlar – muassasa (tashkilot)larni ifodalashda qoʻllaniladi.

Menejmentga iqtisodiy va yuridik adabiyotlarda quyidagicha taʼrif berilgan:

Menejment (ingl. management – boshqaruv, tashkilotchi) – firma faoliyatining bozor sharoitiga moslashib turishida katta ahamiyatga ega faoliyat. Keng maʼnoda menejment maxsus boshqarish faoliyatini bildiradi. Menejment firmaning ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyatini boshqarish boʻlib, firma jamoasining guruhii manfaatiga xizmat qiladi. Menejmentning obyekti korxonaa faoliyati, uning subyekti esa boshqarish ishini bajaruvchi idoralar va ularning xodimlaridir.

Menejer (ingl. manager – boshqaruvchi) – korxonaa va tashkilot hamda uning quyi qatlamining boshqaruvchisi. Shuningdek, menejerlar maxsus tayyorgarlik koʻrgan, boshqarishning sir-asrorlarini, qonun-qoidalarini chuqur biluvchi malakali mutaxassislar, yollanma boshqaruvchilar boʻlib hisoblanadilar.

Menejment xoʻjalik faoliyatini samarali tashkil etish uchun boshqarish, rahbarlik qilish, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan unumli foydalanish sanʼati, usullari, shakllari va vositalari majmuidir. U oʻz oldiga qoʻygan maqsadlariga erishish yoʻlida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish va nazorat qilishni oʻz ichiga oladi. Menejment ishlab chiqarishni tashkil etishning eng asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chunki u ishlab chiqarish omillarini holat sifatiga bevosita taʼsir etadi. Menejment hozirgi zamon iqtisodiy munosabatlarining alohida sohasidir.

Menejment fan sifatida XIX asrning oʻrtalarida paydo boʻldi. Chunki shu davrda texnika va texnologiya rivojlanib, ishlab chiqarish miqyoslarining oʻsishi kuchaydi. Bu esa uni boshqarishni

murakkablashtirib yubordi va u boshqarishga tegishli bilimlarni talab etuvchi, faoliyatning maxsus sohasiga aylandi. Menejment ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tashkil etish bilan ularning ijtimoiy-sotsial va iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydi. U ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta'sir etgan holda pirovard natijada mavjud ehtiyojlarini to'liq qondirishga qaratilgandir.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida sotuvchilar o'z tovarini imkon boricha ko'proq foyda beradigan qilib sotishga, xaridorlar esa bu tovarlarni imkon boricha arzonroq xarid qilishga intiladi. Ularning manfaatlari bozordagi baholar mexanizmi orqali muvozanatlashadi. Shu munosabat bilan bozor iqtisodiyotining qanday tamoyillari tadbirkorlarga xos bo'lib hisoblanadi, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Menejmentning asoschisi amerikalik muhandis va tadqiqotchi F.Teylordir. U boshqaruvchi nima qilishni va eng yaxshi, arzon usulda uni amalga oshirishni aniq bilishi san'ati, deb ta'kidlaydi. Shu ta'rifga asosan boshqaruv sikllari quyidagi to'rt vazifani ado etadi:

- rejalashtirish;
- tashkil etish;
- motivatsiya;
- nazorat.

Bu vazifalar moddiy boylik yaratish, mablag' bilan ta'minlash, marketing va boshqalarga doir boshqaruv faoliyatining hamma turlarini o'z ichiga oladi. Vazifalarni birma-bir tavsiflab chiqish maqsadga muvofiqdir:

1. *Rejalashtirish* – o'z mohiyat-e'tibori bilan qarorlar tayyorlash jarayonidir, ya'ni F. Teylor ta'kidlaganidek, maqsadni tanlash va uning bosqichlari quyidagilar:

- maqsadni o'rtaga qo'yish;
- mavjud imkoniyatlarni, shart-sharoitlarni aniqlash;
- muqobil sharoitlarni belgilab olish;
- eng yaxshi yo'lni tanlash;
- rejani ishga solish va bajarish.

2. *Tashkil etish, ya'ni vositalarni tanlash* – menejer va ijrochilar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan. Bu, avvalo, menejerning o'z imkoniyatlariga baho berishi, o'ziga bo'ysunadigan xodimlarni o'rganib chiqishi, har bir xodimning nimalarga qodir ekanligini aniqlab olishi, kuchlarni joy-joyiga qo'ya bilishidir. Ushbu tashkilotchilik faoliyati boshidan oxirigacha korxonaning juda aniq yozilmalari doirasida o'tadi.

3. *Motivatsiya*. Tayyorgarlik choralari ko'rib bo'lgandan keyin

menejer ishning muvaffaqiyatli sur'atda bajarilishini ta'minlashi kerak. Shu maqsadda quyidagilardan foydalanadi:

a) rag'batlantirishdan, ya'ni tashqi omillar (moddiy va ma'naviy rag'batlantirish) yordamida xodimni jo'shqin faoliyatga undashdan;

b) asl motivatsiya, ya'ni xodimda mehnatga ichki (psixologik) rag'batlar hosil qilishdan – mehnatdan manfaatdorlik, mehnat faoliyatiga ehtiyoj sezish, mehnat faoliyatidan qanoat tuyg'usini hosil qilish muhimdir.

5. *Nazorat* – haqiqatda erishilgan natijalarni tekshirib chiqish va topshirilgan vazifalar bilan solishtirib ko'rishdir. Teskari aloqa yaxshi yo'lga qo'yilgan taqdirda, ya'ni tegishli nazorat olib boriladigan mahalda tashkiliy jihatdan oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishish mumkin.

Menejmentning hamma asosiy vazifalari menejerning qaror qabul qilishga doir xatti-harakatlari bilan bog'liq bo'ladi. «Samarali qarorlar, – deb ta'kidlaydi menejment xususida amerikalik nazariyotchi K. Killen, – tijorat korxonasining yashab borishi uchun garovdir. Bunday qarorlar boshqaruvchining yuqorida aytib o'tilgan vazifalaridan har birining muhim elementidir».

Menejerlar – korxonalar va kompaniyalar egalari bo'lmagan yollanma, malakali boshqaruvchilardir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kompaniyalar, firma, korxonalar, bank, moliya muassasalarining ijroiya hokimiyatiga ega bo'lgan boshqaruvchisi, direktor, rahbar, mudir, ma'muriy boshqaruvchi kabi rahbar xodimlari, qimmatbaho qog'ozlar bilan uning egalari nomidan harakat qiluvchilar ham menejerlardir. Ular ma'rifatli jamiyatlardagi maxsus ijtimoiy qatlamni tashkil qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida menejerlar xizmatining ishlab chiqarish va tovarlar muomalasini uyushtirishda vazifasi va roli beqiyosdir.

Hozirgi davrda menejerlik vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) maqsad va manfaatlarni aniqlab olish;
- 2) ijtimoiy imtiyozlar berish;
- 3) ishdan bo'shatish;
- 4) kasbga tayyorlash va malaka oshirish;
- 5) ish haqi to'lash va rag'batlantirish;
- 6) vazifalarni almashtirish;
- 7) xodimlarni tanlash va yollash;
- 8) xodimga baho berish va shahodatlash.

Qaror qabul qilish, ya'ni bir to'xtamga kelish, qanday bo'lmasin biror fikrga kelish yoki qilinishi mumkin bo'lgan ishlarning aniq-tayin bir

yo'lini tanlab olish – menejment sohasining eng muhim elementlaridan biridir. Bu ish menejning fikri-zikrini doimo band qilib turadigan tashvishdir. U juda xilma-xil masalalar – tashkiliy, kadrlarga oid, texnologik, ta'minot va savdo yuzasidan qaror qabul qiladi. Boshqaruvga oid har qanday qaror samarali bo'lsagina, ana shu holda u o'rinli deb hisoblanadi.

Shu o'rinda davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Bankrotlikka uchramaslikning yana bir muhim omili, bu o'z biznesini boshqarishni takomillashtirish, boshqacha aytganda, menejment san'atini puxta egallashdir. Katta biznesga nisbatan kichik biznesda menejmentning roli ko'proq ahamiyat kasb etadi, chunki kichik biznes sohasida ishlab chiqarishning tezkorligi, moslashuvchanligi katta biznesga nisbatan ancha yuqori bo'lishi lozim»¹.

Qaror qabul qilish tamoyillari. Boshqaruvga oid qaror qabul qilish faoliyati juda tayinli tamoyillarning talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Amaliyotda keng tarqalgan tamoyillar quyidagilar:

– yakkaboshchilik, bunda qaror yakkaboshchilik asosida qabul qilinadi. Agar shu qaror yaxshi deb topilsa, menejment nuqtai nazaridan u o'rinli deb hisoblanishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, bu xildagi qarorlar asoslangan tanqidga uchrab turadi. Bu shunga bog'liqki, menejerlar o'zlarini ko'rsatmoqchi bo'lib, yakkaboshchilik bilan qaror qabul qilishadi. Ana shunday menejerlar xatti-harakatlarining 90 foizga yaqini buyruqdan iborat bo'ladi. Bu narsa ishchi guruhlarda keskinlikni yuzaga keltiradi. Boshqaruv ishi obro'-e'tiborga asoslanib olib borilganda, shaxslar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro ishonch yo'qolib qolishi va janjallar ko'p bo'lib turishi bilan ta'riflanadi;

– yakdillik – bunday tamoyilning bozor munosabatlari sharoitida to'la namoyon bo'lishi qiyin. U mohiyat-e'tibori bilan oldinga surilayotgan muqobil fikrni so'zsiz qo'llab-quvvatlashdan iborat. Bunday bo'lishi juda kam uchraydigan hodisadir. Chunki qarorlarni qabul qilishda qatnashadigan kishilar demokratik uslubda fikrlash tarafdorlari bo'lsalar, odatda boshqalarnikidan farq qiladigan o'z fikrlariga ega bo'ladilar;

– ko'pchilik – bu tamoyil «kaolitsiyalar» ro'yi-rost ma'lum bo'lib turgan vaziyatlarda, ya'ni qarorni ishlab chiqish jarayonida ham ayrim shaxslar, ham guruhlar tomonidan bildirilgan har xil fikrlar raqobat

¹ Каримов И. А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. – Т.: “Ўзбекистон”, 2001. – Б. 422.

qiladigan mahalda amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan qaror qabul qilishda ovoz berish yo‘liga o‘tiladi.

Qaror qabul qilish uchun aksariyat ko‘pchilikning ovozi yetarlidir, gohida ba’zi prinsipial masalalar yuzasidan me’yor 2/3 deb tasdiqlanadi;

– konsensus, bu tamoyilning paydo bo‘lishi bir qancha omillarga bog‘liq. *Birinchi*dan, bu – boshqaruvni demokratlashtirish jarayonining chuqurlashib borishidir. Fikrlar plyuralizmi (xilma-xilligi) sharoitida hal etiladigan muammolarni o‘zlaricha talqin etadigan, tasavvur qiladigan kishilarning qandaydir bir guruhiga yoki ayrim kishilarga tazyiq o‘tkazish mumkin emas. Tarbiya ko‘rgan demokratik jamiyat o‘ziga shunday muomala qilinishiga mutlaqo yo‘l qo‘ymaydi.

*Ikkinchi*dan, bu axborot oqimining tobora zo‘rayib borayotgani va qaror qabul qilishning texnik-iqtisodiy sharoitlari murakkablashayotganidir. Bularning unisi ham, bunisi ham har bir fikrga, g‘oyaga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishini, har bir insonga samimiylik bilan e’tibor berishni talab qiladi.

Konsensus qarorlarini ishlab chiqish jarayonida barcha bahsli masalalar va turli-tuman fikrlar yuzasidan bir bitimga kelish, kelishishdir. Bu narsaga o‘zaro fikr almashinish va maslahat qilish, shuningdek oldinga surilayotgan muqobil masalalarni maqsadga muvofiqlashtirishning har xil usullarini qo‘llash bilan erishiladi. O‘z mustaqil faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan tadbirkor, qanday sohada bo‘lishidan qat’i nazar, quyidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozim:

1) bozor nimaligini va unda qanday dastaklar va qonunlar, xususan qiymat, talab va taklif, raqobat qonunlari qanday amal qilib berishini yaxshi tasavvur etmoq zarur;

2) tovarlar (ishlar va xizmatlar) bozorda o‘z o‘rnini topishni, qancha ehtiyoj qondirilmay, qolganini «hisoblab chiqishni» va nisbatan qisqa muddatlarda talabni qondirishni bilish va uddalash zarur. Buning uchun tadbirkor kishi qaysi mintaqada ish boshlashni niyat qilgan bo‘lsa, o‘sha mintaqadagi marketing tadqiqotlari asoslarini egallab olmog‘i kerak;

3) tadbirkorlik faoliyatini uning obyektlari qaror topgan paytdan boshlab tartibga solib boradigan normativ aktlar, qonun-qoidalar mazmuni o‘zlashtirib olmoq zarur. Soliq tizimining huquqiy bazasini, budjetlar, sheriklar, yollanma xodimlar va ishga aloqador boshqa subyektlar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarga tegishli qonunlar bajarilmaganligi uchun zimmaga tushadigan javobgarlikni aniq bilish zarur;

4) ta'sis hujjatlarini ishlab chiqish, biznes-rejani shakllantirish mexanizmini, biznesni ro'yxatdan o'tkazish tartibini yaxshi tasavvur qilmoq lozim. Tadbirkor kishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotni tayyorlash texnologiyasini, uning xossalarini, uni sotish, realizatsiya qilish imkoniyatlarini bilishi kerak;

5) boshqarish asoslarini, osoyishtalik, mojarolarsiz ishlash imkoniyatlarini o'zlashtirib olmoq zarur. Ishlab chiqarish menejmentining asoslarini egallab olish muvaffaqiyatga erishmoq uchun katta ahamiyatga ega;

6) tadbirkorlik etikasiga, ya'ni odob-axloq qoidalariga alohida e'tibor bermoq va o'z xatti-harakatlari bilan firma xatti-harakatlarini axloq-odob nuqtai nazaridan baholab ko'rmoq lozim. Axloqiy munosabatlar xodimlar, jamiyat, davlat bilan bo'ladigan butun muomala tizimiga daxldordir. Jamiyatning ma'naviy-axloqiy mezonlari va qadriyatlariga, rasm-rusumlariga asoslanib, firmaning axloqqa doir kodeksini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Boshqaruv maqsadi va boshqaruv funksiyalari. Maqsad – bu muddao, murod, ya'ni u yoki bu niyatga erishmoq uchun ko'zda tutilgan mushtarak orzu. Aynan, shu maqsad kishi faoliyatini, o'z orzularining ushalishiga yo'naltiradi. Biz dastlab o'zimizning oldimizda turgan maqsadimizni aniqlab olamiz, so'ngra esa shu maqsadimiz:

- bo'lajak harakatlarimizni oldindan aniqlab beradi;
- faoliyatimizning ustuvor yo'nalishini belgilaydi;
- faoliyatimizni aniq sohaga, ishga yo'naltiradi;
- u yoki bu faoliyatimizning zarurlik darajasini belgilab beradi;
- pirovard natijamizni baholash me'yorini belgilaydi va h.k.

Maqsadning ilmiy asoslanganligi va to'g'ri belgilanganligi boshqaruv uchun juda muhimdir. Chunki aynan shu maqsadga binoan:

- boshqarish funksiyalari;
- boshqarish usullari;
- boshqarishning tuzilmaviy tarkibi;
- lavozimlarni belgilash va kadrlarni tanlash kabi muhim masalalar hal etiladi.

Boshqaruv maqsadiga qo'yiladigan asosiy talablar: 1) maqsad bir ma'noli va aniq bo'lishi kerak:

- agar qayoqqa borishni bilmasangiz, u holda biror yo'lni tanlashga ham hojat qolmaydi;

2) maqsad real va bajarilishi mumkin bo'lishi kerak;

- 3) maqsad miqdoran o'lchovga ega bo'lishi kerak: miqdoran o'lchovga, me'yorga ega bo'lmagan maqsad – bu sarob;
- 4) maqsad barcha bajaruvchilarga tushunarli bo'lmog'i darkor;
- 5) maqsad bo'limlar va mas'ullar bo'yicha detallashtirilgan bo'lishi kerak.

Yuqoridagilarga asoslanib quyidagi asosiy xulosalarni bayon etamiz:

1) *menejment* – boshqaruv san'ati va mahoratidir. Boshqaruv resursi turli tarixiy davrlarda va, ayniqsa, bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. G'ijjakchi musiqasini ma'lum maromda o'zi boshqara oladi. Biroq orkestr uchun albatta dirijor zarur;

2) *boshqaruv* deganda, eng avvalo, inson faoliyatini boshqarish tushuniladi. Boshqaruv samarali faoliyatni ta'minlaydi. U albatta jamiyat, jamoa uchun naf keltiradi;

3) *boshqaruv rahbar faoliyati bilan bog'liq*. Shu bois, menejerlikning obyekti va subyekti mavjud. Uning obyekti boshqariluvchi obyekt, vaziyat, voqelik. Subyekt esa boshqaruv organi yoki rahbarlik. Boshqaruv turli sohaviy darajalarda amalga oshiriladi (davlat, viloyat, tuman, konsern, firma, tashkilot va h.k.);

4) *boshqarishning sir-asrorlarini ilmiy asosda o'rganish, tahlil qilish maqsadida turli uslublar qo'llaniladi*. Alohida boshqaruvda kasbiy tayyorgarlikni amalga oshiruvchi fanlar, ko'proq menejment fani o'rganiladi;

5) *boshqarishning huquqiy vositalari* deganda, ijtimoiy munosabatlarga yuridik, qonuniy ta'sir o'tkazish jarayonida qo'llaniladigan huquqiy normalar majmui tushuniladi. Bu borada quyidagi huquqiy sanksiyalar qo'llaniladi.

Moddiy javobgarlik korxonalar va tashkilotlar, shuningdek, ayrim mansabdor shaxslar zimmasiga xo'jalik faoliyatining natijalari uchun yuklatiladigan mas'uliyatdir. Moddiy javobgarlik jarimalarda, penyalarda, ya'ni aybnoma (neustoyka) ko'rinishlaridan biri. Moliya va to'lov intizomini buzuvchilarga, shuningdek shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatini kechiktirib yuborganlarga qarshi pul jarimasi shaklida qo'llaniladigan jazo chorasidir.

«Neustoyka» – burdsizlik (lafzsizlik) to'lovi, ya'ni majburiyatlar (shartnomalar, qonunlar) bajarilishini ta'minlash usullaridan biri. Qarzdor o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagani uchun kreditorga to'laydigan pul summasi.

Intizomiy javobgarlik – xizmat burchlarini buzish, suiiste'mol qilish natijasida kelib chiqadi. Bunda jazo quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

- tanbeh;
- hayfsan;
- muayyan muddatga maoshi pastroq ishga o'tkazish;
- muayyan muddatda pastroq vazifaga, lavozimga o'tkazish va hokazo.

Ma'muriy javobgarlik – bu yuridik javobgarlik turi bo'lib, vakil qilingan organ yoki mansabdor shaxsning qonunbuzarlik qilgan shaxsga nisbatan ma'muriy jazo chorasini qo'llashida ifodalanadi. Bunday jazolar turli-tuman sanksiyalarda – nachyotlar (qaytarib olinishi lozim bo'lgan xarajat), jarimalar va boshqa ko'rinishda bo'ladi.

2. O'rta Osiyoda menejmentning nazariy asoslari va tamoyillari

O'rta Osiyoda menejmentning nazariy asoslari va uning asosiy prinsiplari qadim zamonlarda ham u yoki bu ko'rinishda mavjud bo'lgan. Ammo Amir Temur hukmronligi davriga kelib ma'lum shaklni kasb etgan, bunga Amir Temurning «Temur tuzuklari» asari yorqin misol bo'la oladi.

«Temur tuzuklari» jahonga mashhur asardir. Uning qo'lyozma nusxalari dunyoning deyarli barcha mamlakatlari (Hindiston, Eron, Angliya, Daniya, Fransiya, Rossiya, Fransiya, Germaniya, Armaniston, O'zbekiston va boshq.) kutubxonalarida mavjud. Asar ikki qismdan iborat. Birinchi qism Amir Temurning davlat barpo etish, uni har jihatdan mustahkamlash, mukammal qurollangan qudratli qo'shin tuzish borasida tatbiq etgan «tuzuklari» va rejalaridan iborat bo'lib, unda hatto qo'shinning jangovar saflanish tartibi ham maxsus jadvallar orqali ko'rsatib berilgan.

Asar o'n uch qism (kengash)dan iborat. Uning ikkinchi bobida sohibqironning kuchli feodal davlatni barpo etish, qo'shin tuzish va dushman lashkarini yengish yuzasidan tuzgan kengashlari va amalga oshirgan ishlari ifodalangan. Muallifining fikricha, har qanday toj sohibi davlat va jamiyatni ma'lum ijtimoiy-siyosiy guruhga tayangan holda boshqarishi lozim. Davlatni idora qilishda vazirlar, amirlar va viloyatlardagi noiblarning roli benihoya katta bo'lgan. Shuning uchun ham Amir Temur ularni tanlash va vazifalariga tayinlash ishiga alohida ahamiyat bergan. Ular sohibqironning fikricha, sadoqatli, axloqan pok, adolatpesha, tinchliksevar va tashabbuskor odamlar bo'lishi zarur. Temurning fikricha, masalan, vazirlar to'rt sifatga ega bo'lishlari shart: 1)

asillik, toza nasllik va ulug‘vorlik; 2) aqlu farosatlilik; 3) sipoh bilan raiyat ahvolidan boxabarlik va ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga yaxshi muomalada bo‘lish; 4) sabru bardoshlilik, muloyimlik.

«Tuzuklar»da keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, Amir Temur o‘z davlatini – bir uchi Chin va ikkinchi uchi Shom hududida bo‘lgan ulkan mamlakatni bor-yo‘g‘i yetti nafar vazir yordamida boshqargan. Bular quyidagilar (1-jadval):

1-jadval

Vazirlar va ularning vazifalari

№	Vazirlar	Vazirlarning vazifalari
1.	Mamlakat va raiyat vaziri	Bu vazir el-yurtning muhim ishlarini, kunda chiqib turadigan muammolarni, raiyat ahvolini, olingan hosil, daromadning miqdori, oliq-soliq, davlat xarajatlari, el-yurtning obodonchiligi va aholining farovonligi qay darajada ekanligidan oliy hukmdorni xabardor qilib turgan.
2.	Sipoh vaziri	Sipohiylarning maosh va tanholarini boshqargan, uning qiyinchilik va parishonlikka tushib qolmasligining chora-tadbirlarini ko‘rgan, sipoh ahvolidan doimo podshohni ogoh etib turgan.
3.	Mol-mulk, daromad, xarajatlar vaziri	Turli sabablarga ko‘ra egasiz qolib ketgan yer-suv va mol-mulkni boshqargan, zakot va boj yig‘imiga mutasaddilik qilgan.
4.	Sarkori xossa va saltanat ishlarini yurituvchi vazir	Podshohga qarashli yer-suv va mol-mulk, shuningdek davlat muassasalarining faoliyatini nazorat qilib turgan.
5.	Qozi kalon	Adliya muassasalarini boshqargan.
6.	Jalol ul-islom	Podshohning favqulodda huquqlarga ega bo‘lgan nazoratchisi.
7.	Vaziri devoni insho	Turli mamlakatlar bilan olib boriladigan yozishmalar devonining boshlig‘i.

Rahbarga qo‘yiladigan talablar. Rahbar madaniyati. Rahbar bir qator talablarga javob berishi kerak. «Rahbarlik qilish» degan iboraga izohli lug‘atlarda boshqarish, maslahat berish, kuzatish, yo‘naltirish, ko‘rsatma berish degan turli ta’riflar berilgan. Bundan ko‘rinib

turibdiki, hozirgi davrda menejer (rahbar)lar qondirishi zarur bo'lgan talablar juda ko'pdir. Ularni quyidagi beshta yirik guruhga bo'lish mumkin (2-jadval):

2-jadval

Rahbarga qo'yiladigan talablar

№	Talablar	Izoh
1.	Ma'naviy yetuklik	siyosiy, huquqiy va axloqiy yetuklik; yuqori saviya va ong; ma'rifatlilik; madaniyatlik; xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qodirlik; topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish, halollik, vijdonlilik; shaxsiy manfaatlarni jamoa manfaatlariga bo'ysundirishga qodirlik; kishilarga nisbatan mehribon va e'tiborli bo'lish; tashabbus va ilg'orlikni qo'llab-quvvatlash qobiliyati; prinsipiiallik; tanqidga chidamli bo'lish, o'z-o'zini tanqid qila bilish.
2.	Intizom va mehnatga bo'lgan munosabat	mehnatsevarlik; jamoa o'rtasida intizomni yo'lga qo'ya bilish; atrofdagilarda mehnatsevarlikni tarbiyalay bilish; bir noshud rahbarning beg'amligi yuzlab, minglab kishilar taqdirining bedaxl qirralariga ta'sir etishi mumkin. Bu toifa boqibeg'am rahbarlarning ish uslubi bilan murosa qilib bo'lmaydi.
3.	Bilim darajasi	iqtisodiyot, texnika va texnologiyani, boshqarish ilmini, funksiya va tuzilmasini bilish; istiqbolni bilishga qodirligi va h.k. Rahbar aniq, chuqur va keng bilimga ega bo'lishi, uni doimo to'ldirib va yangilab borishi kerak. Aks holda u obro' qozonmaydi, xodimlarning ishonchiga sazovor bo'la olmaydi.
4.	Tashkilotchilik qobiliyati	xodimlarni tanlay bilish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlay olish; qo'l ostidagilarni mehnatga o'rgatish va tarbiyalashni bilish; jiplashgan jamoani vujudga keltira olish; maqsad sari intiluvchanlik; kutilmagan vaziyatlarda boshqarish qobiliyatini yo'qotmaslik. «Yomon korxonaga yoki tashkilot yo'q, lekin yomon rahbarlar bor». Bu ibora shuni anglatadiki, yomon ishlab turgan korxonaga jamoani yaxshi boshqaradigan, tashkilotchilik qobiliyati yuksak, mehnatsevar, talabchan, bilimdon rahbar tayinlansa, u korxonani tezda namunalilar safiga qo'shadi.

		Agar ishlab turgan korxonaga tasodifan tashkilotchilik qobiliyati past rahbar kelib qolsa, u korxonaga asta-sekin tanazzulga yuz tutadi.
5.	Boshqarish samaradorligini ta'minlay olish	boshqarishni kollegial tarzda tashkil qila olish qobiliyati; ish haqida qisqa va aniq gapirish qobiliyati; ishga oid xat, buyruq, farmoyishlar yoza bilish, turli manbalardan ish uchun zarur axborotlarni olish qobiliyati; rahbarlarni va qo'l ostidagilarni tinglay bilish qobiliyati; asoslangan qarorlarni mustaqil va tez qabul qila bilish qobiliyati; rejalarni bajarishdan xodimlarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini ta'minlash qobiliyati; boshqaruv organi qarorlarini bajarish ustidan nazoratni ta'minlay bilish; boshqarish strukturasi takomillashtirib borish qobiliyati va h.k.

Rahbarning sifat, xislatlarini belgilovchi mezonlar ko'p. Biroq quyidagi ijobiy xislatlar ular orasida alohida mavqega ega:

dovyuraklik – bunday rahbarda mardonavorlik, botirlik, dadillik mavjud bo'ladi. U omadsizlikdan qo'rqmaydi. Qo'rquv uni jasoratga chorlaydi va zafarlarga olib keladi. Har bir yangi harakatni taraqqiyotga va hayotiy tajribalarga erishtiradi;

sabrlilik – bunday rahbar muvaffaqiyatga birdaniga erishish mumkin emasligini yaxshi tushunadi. Unga faqat bardosh va sabr-toqat, sabotmatonat, qiyinchiliklarni yengish orqali erishish mumkinligini biladi;

yaxshi niyatlilik – bunday rahbar xayrixoh va iltifotli, kishilarga nisbatan doimo yaxshi niyatda bo'ladi. O'zidagi qanoatsizlikni g'irrom raqobatchilik yo'li bilan emas, balki xayrixohlik bilan bartaraf qilishga harakat qiladi. Uning hayotdagi shiori: «Birni ko'rib shukr, birni ko'rib fikr qil»;

kamtarinlik – bunday rahbar kamtarlikning deyarli har doim iste'dodga to'g'ri mutanosib ekanligi, kamtarlikning yetishmasligi esa nodonlik ekanligini yaxshi tushunadi;

samimiy xushmuomalalik – bunday rahbar sofdil, ochiq ko'ngil bo'ladi, chin yurakdan gapiradi. U samimiylik aql va yuksak ma'naviy odobni talab etishini, shuningdek, kimki o'zgaralar bilan nosamimiy munosabatda bo'lishga odatlangan ekan, u pirovard natijada o'ziga ham samimiy bo'la olmasligini yaxshi tushunadi;

rahmdillik – bunday rahbar barchaga rahm-shafqatli bo'ladi. U

boshqalarni ko'p narsada kechiradi, ammo o'zini hech narsada kechirmaydi. U rahm-shafqat insonlarning eng oliy fazilatlaridan biri ekanligini, doimo odamlarga yordam qo'lini cho'zishini, ojiz va notavon kishilardan xabar olib turish lozimligini yaxshi tushunadi;

xushxulqlik – bunday rahbar inson go'zalligining asosi uning go'zal xulqida ekanligini, aynan xushxulqlik insonni ulug'lashini, yoqimli xulq egasidan barcha xursand bo'lishini, bunday xulq egasi boshqalarni xursand qilishdan tashqari, o'zi ham doimo xursand yurishini, boshqalardan esa o'ziga muhabbat va muloyimlik qaytishini yaxshi tushunadi;

qanoatlilik – bunday rahbar qanoatsizlikdan keladigan ofatlarni, ya'ni nafs balosi, hasad, xudbinlik, baxillik, tamagirlik oqibatlarini yaxshi anglaydi. Nafs odamni har kuyga solishini, uni tiygan hurmat-izzat topishini va bexavotir yashashini, qanoatni esa izzatning asosi, o'lmaydigan boqiy xazina, qurimaydigan daraxt, zavol topmaydigan mulk ekanligini yaxshi tushunadi;

obro' – bu hamma tomonidan tan olingan, mehnat evaziga orttirilgan, rahbar uchun zarur ishonch va qalqondir. Ayni paytda har qaysi rahbar o'zidan yuqori turuvchi rahbarlar, o'ziga bo'ysunuvchi xodimlar, o'zi bilan huquqi teng boshqa rahbarlar oldida obro'ga ega bo'lishi lozim. Rahbar yuqorida keltirilgan talablarga rioya qilmas ekan, u o'z rahbarlik usulida salbiy hodisalarga yo'l qo'yishi, pirovardida esa o'z obro'yini ketkazishi va el nazaridan qolishi mumkin.

1 va 2-jadvallardagi talablar bevosita ichki ishlar idoralari xodimlariga ham taalluqlidir. Ichki ishlar idoralari sohaviy xizmatlari ushbu talablarga amalda rioya etsalar, o'z nomlariga putur yetkazmaydilar.

Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi asosiy xulosalarni bayon etamiz: 1) boshqaruv ta'limoti buyuk davlat arbobi, sarkarda bobomiz Amir Temur tomonidan XIV–XV asrlar voqealari va ijtimoiy hayotni o'zida aks ettirgan qimmatli asar – «Temur tuzuklari»da atroflicha bayon etilgan. Mazkur asarda bayon etilgan boshqarish yo'l-yo'riqlari, qonun-qoidalari, pand-nasihatlari bugungi kunda dolzarbligicha qolmoqda. Amir Temur kuchli davlatni barpo etish, davlat hokimiyatining qaysi ijtimoiy toifalarga tayanishi, mansabdor shaxslarni ularning sifatlariga ko'ra tanlash va vazifalarga tayinlash borasida amaliy jihatdan mukammal bo'lgan ta'limotni yaratdi;

2) davlat va jamiyat arbobi, she'riyat sultoni Alisher Navoiy davlat ishlarini boshqargan, muzokaralar olib borgan, yurt tinchligi va obodligi

uchun kurashgan. «Vaqfiya», «Ixlosiya», «Saddi Iskandariy», «Tarixi muliki Ajam» kabi asarlarida adolatli boshqarishning sir-sinoatlari haqidagi ta'limotni yaratgan;

3) Zahiriddin Muhammad Bobur mashhur «Boburnoma» asarida boshqarishga oid prinsiplar, xususan odillik va tadbirkorlik, jasurlik va mohirlik, iste'dod va ma'rifat masalalarini yoritdi. Boburiylar (Jahongirshoh) tomonidan davlatni idora etishning 12 moddadan iborat dasturi yaratildi;

4) Boburiylar tomonidan ma'muriy boshqaruv sohasini isloh etish, xazina masalalari borasida korrupsiya (viloyat va tuman hokimlari) deb ataladigan hukumat amaldorligi mansabi joriy etildi va hokazo.

3. Marketingning mohiyati va vazifalari

Marketing va menejment hozirgi zamon iqtisodiy munosabatlarning muhim sohalari bo'lib, o'zaro bevosita bog'langan va biri ikkinchisini to'ldiruvchi elementlaridir. Bunday bog'lanishning asosini ularning mohiyati va vazifalari tashkil qiladi, uning zaminida esa bozor holatini o'rganish va olingan ma'lumotlarni tahlil qilib, aniq bir xulosaga kelib, so'ng ishlab chiqarishni zaruriy yo'nalishda, hajmda tashkil qilish borasida boshqaruv qarorlarni qabul qilish kabi ahamiyatli faoliyat yotadi. Mavzu iqtisodiyot nazariyasi fanining boshqa mavzular bilan asosiy mantiqiy bog'lovchi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli ushbu sohalarning nazariy bilimlarini o'zlashtirish va ulardan amaliyotda unumli foydalanish orqali yuqori natijalarga erishish aniqdir.

Marketing – bozor holatini asosli o'rganish va oldindan baholash bilan tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish hamda shu yo'sinda yaxshi foyda topishni uyushtirish kabi munosabatlarni bildiradi.

Marketing inglizcha «market» so'zidan olingan bo'lib, bozor yoki bozorni asosida degan ma'noni bildiradi. Marketing nazariyasi XX asrning boshida AQShda vujudga kelgan. O'sha davrda takror ishlab chiqarish ziddiyatlarining kuchayishi natijasida mahsulotlar sotish muammosi keskinlashgan davridir. Uning asoschilari, muomaladagi kamchiliklarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy to'sig'i deb bilib, marketingni takomillashtirishning har xil usullarini taklif etadilar.

Marketingni hozirgi davrgacha bo'lgan rivojlanish bosqichlarini uch davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Avval marketing amaliyotda faqat tovarga yo'naltirilgan tamoyil sifatida ko'rindi. Birinchi davrda tovar sifatli va xaridorni qoniqtiradigan bahoda ishlab chiqarilsa,

iste'molchilar unga yaxshi munosabatda bo'ladilar, degan mulohazalar hukm surgan. Keyinchalik faqat tovarning o'zi bilan cheklanish yetarli emasligi ko'rinib qoldi. Shu sababli ikkinchi davr 20–30-yillarda marketingda tovarlar sotish tamoyili olg'a surildi. Xaridorlar ishlab chiqarilgan tovarlarni sotib olishlari uchun ma'lum darajada ularning savdosini uyushtirish zarur ekanligi to'g'risidagi fikrlar shakllandi. Uchinchi davr 50–60-yillarda marketing to'la bozor konsepsiyasi bo'lib (bozorda esa iste'molchi), asosiy o'rinni egalladi.

Marketing – firma yoki tadbirkorning uzoq muddatli, yuqori darajali foyda olish niyatida faqat iste'molchiga qaratilgan maqsadli ishlab chiqarish va sotish faoliyati ham hisoblanadi. Marketing faoliyatining asosiy obyektlari: bozor, iste'molchi, tovar, xizmat, baho, tovar harakati, reklama, sotish va uni rag'batlantirish hisoblanadi.

XX asrning o'rtalarida marketing nazariyasi menejment (boshqarish) nazariyasi bilan qo'shib, boshqarish va marketing qoidalari to'g'risidagi fan sifatida *boshqarishning bozor nazariyasi*, degan nomni oldi.

Marketing, ya'ni «boshqarishning bozor nazariyasi» bozorning mohiyati, uni o'rganish va ishlab chiqarishning unga moslashishini ta'minlashdan iborat. Marketing tovar ishlab chiqarishda xaridorning aniq ehtiyojlarini va korxonaning imkoniyatlarini hisobga olishi, tovarlarni belgilangan vaqt va miqdorda sotishni tashkil etishi, xaridorlarning talab va ehtiyojlarini to'la qondirishi, bo'lg'usi talablarni hisobga olish va unga mos yangi tovarlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirishi va pirovard natijada korxonaning samarali ishlashini ta'minlashi kerak.

Demak, marketing quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ishlab chiqarilayotgan tovarlar assortimentini asoslash;
- iste'molchilar ehtiyojini o'rganish va tahlil qilish;
- bozorlarni tanlash;
- narxni tashkil etish va sotishni rejalashtirish;
- reklama;
- firmaning tovar va xizmat uchun ijtimoiy javobgarligini ta'minlash;
- savdo-iqtisodiy faoliyatni boshqarish;
- talabdagi o'zgaruvchanlikni barqarorlashtirish.

Marketingning turli faoliyat sohalari, o'z strategiyasi, prinsiplari va qoidalari mavjuddir. Hozirgi bozor iqtisodiyoti yuqori darajada ko'tarilgan mamlakatlarda marketing tamoyillari oddiy uy-ro'zg'or xo'jaligidan boshlab, to kosmosdan samarali foydalanishgacha bo'lgan jarayonlarda va boshqa sohalarda yaqqol ko'rinmoqda. Shuning uchun marketingning ikki mingdan ortiq faoliyatga mos keladigan ta'rifi (xillari)

yaratilgan. Shunga ko'ra, marketing sotilayotgan tovarlarning iste'mol qiymatiga ko'ra: iste'mol tovarlari bozori; xizmatlar bozori; ishlab chiqarish vositalari bozori; sarmoyalar bozori kabilarda namoyon bo'ladi.

Marketing strategiyasi – marketing vazifalarini bajarish uchun tashkilot, korxonalar, firmaning qo'llanma sifatida foydalaniladigan samarali mantiqiy qurilmasi, uzoq muddatga mo'ljallangan rejasi.

O'zbekiston Respublikasida Prezident Islom Karimovning «1995-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 1996-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning kelajak yo'llari» mavzuidagi ma'ruzasidan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasi 1996-yil 7-martda qaror qabul qilgan. Ushbu qarorda Davlat Istiqbolstat qo'mitasi va Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi respublikada sohalar va korxonalar darajasida ishlab chiqarilayotgan tovarlar ichki va tashqi bozori konyukturasining talab va taklifini o'rganish bo'yicha marketing tadqiqotlarini o'tkazish mexanizmini tayyorlash belgilangan edi. Shu asosda barcha vazirliklar, konsernlar, korporatsiya, assotsiatsiyalar, firmalar va tashkilotlarga marketing tadqiqotlari o'tkazish asosida har bir korxonalar faoliyatini qayta ko'rib chiqib, raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishga o'tkazish uchun chet el sarmoyalarini jalb etib, ularning texnika va texnologiyasini yangilash dasturini ishlab chiqarishga aniq muddatlar belgilanib, uning ijrosi o'tgan davr mobaynida ta'minlandi.

Marketing bozor iqtisodiyotining muhim unsuri bo'lib, uzoq va qisqa vaqtlarga mo'ljallangan maxsus dasturlar orqali amalga oshiriladi, ularda xaridorlarni va raqobatchilarni o'rganish asosida tovarlar sifatini yaxshilash, tovar narxini o'zgartirish, reklama o'tkazish, tovarlarga talab chiqarish, tovarlarni o'z vaqtida yetkazib turish, xaridorlarga ma'qul tushadigan xizmat ko'rsatish kabi chora-tadbirlar nazarda tutiladi. Ishlab chiqarish marketing yordamida g'oyat tez o'zgarib turadigan bozor talabiga moslashadi va samaraga erishadi. Tovar ishlab chiqaruvchilar marketing tufayli bozor bilan uzviy bog'lanadilar, ishlab chiqarish manbalarini bozortalab qilib yaratishga qaratadilar, sohibkorlik ishlarini rejalashtiradilar.

Marketingning asosiy qoidalari:

1) tovar ishlab chiqarishda xaridorning aniq ehtiyojlari va korxonalar imkoniyatlarini hisobga olish;

2) xaridorning talab-ehtiyojlari to'la qondirilishi, bo'lg'usi talablarni nazarda tutish;

3) mo'ljallangan bozorda tovarlarni aytilgan vaqtda va belgilangan miqdorda samarali sotish;

4) yangi turdagi tovarlarni o‘zlashtira borib, korxonaning uzoq davr mobaynida samarali ishlashiga erishish;

5) korxonaning ishlab chiqarish yo‘nalishlari, tutgan yo‘li bozor sharoitiga, xaridor talabiga moslashishi bilan bir qatorda talabga ta’sir etish.

Marketing faqat bozordagi talab-ehtiyojni qondirish vositasigina bo‘lmay, balki ishlab chiqarish samarasining ham yuqori bo‘lishiga qaratiladi. Shu sababli korxonalarda marketing xizmatini tashkil etish katta ahamiyatga ega. Marketingni boshqarish – foydali aloqalarni o‘rnatish va ularni mustahkamlash maqsadida tahlil qilishni, rejalashtirishni va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishni tashkil etishdir.

Marketing vertikal tizimi – bozorning turli qismlarida (segmentlarida) har qism uchun alohida ishlab chiqilgan rejalar bilan amalga oshiriladigan marketing siyosati.

Marketing muhiti – korxonada, firmadan tashqarida, ularning marketing xizmati bo‘limlarining muvaffaqiyatli ish yuritishini ta’minlovchi kuchlar va xodimlar birligi.

Marketing ma’lumot tizimi – marketing sohasida ish ko‘ruvchi uchun yig‘ilgan, muvofiqlashtirilgan, o‘z vaqtida tayyorlangan, dolzarb ma’lumotlar yig‘indisi.

Marketingning rivojlanish darajalari nazariy asosini iste’molning qonuniyatlaridan topishimiz mumkin. Aholi *birlamchi* talabini qondirish – kundalik oziq-ovqatlar va eng zaruriy nooziq-ovqat mollari xarid qilish ularni ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar uchun ko‘p muammolar tug‘dirmaydi. Ammo aholi daromadlari o‘sib borishi, iste’molchilarning *ikkilamchi* talabiga muvofiq, ust-bosh kiyim va uy-ro‘zg‘or tovarlarini ishlab chiqarish hamda sotishni tashkil etish birmuncha yuqori saviyani talab etadi. Iste’molchilar talabining *uchinchi* bosqichi – hayot kechirishini yuqori darajaga ko‘tarish (qulaylik va yuksak xizmat ko‘rsatish) bilan bog‘liq zamonaviy uy-ro‘zg‘or, texnik, dam olish, sport, qimmatbaho kiyimlar, mashina va boshqalarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga o‘tilishi marketingning ham tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilarning bozordagi haqiqiy konsepsiyasiga aylanishi bilan chambarchas bog‘liq. Chunki har bir mamlakat, shu jumladan O‘zbekistonda ham iqtisodiyotning rivojlanishida aholi iste’mol darajasi o‘sib borishining yuqoridagi bosqichlaridan o‘tiladi va unga muvofiq bozorning asosiy qonuni – «Talab va taklif» mutanosibligini ta’minlash uchun barcha imkoniyatlar izlanadi.

Marketing esa, ilm-fan sifatida milliy, mintaqaviy va jahon bozorlarida «Talab va taklif» o‘rtasida muvozanat o‘rnatishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi.


Marketing faoliyati ishlab chiqarilayotgan tovarlarning yoki ko‘rsatilayotgan xizmatlarning turiga qarab quyidagi bozorlarda olib boriladi:

1) *iste‘mol tovarlari bozori* aholining shaxsiy ehtiyojini qondiruvchi va hayot uchun zarur bo‘lgan jihozlar, mahsulotlar oldi-sotdi munosabatlari majmuini o‘z ichiga oladi. Bu bozorning subyektlari: ulgurji savdo bazalari, do‘konlar, oshxona, choyxona, dorixona va shu kabi chakana savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi shoxobchalar hisoblanadi;

2) *xizmatlar bozori* – aholiga maishiy, maorif, tibbiy, texnik, kommunal xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha oldi-sotdi munosabatlarini ifodalaydi;

3) *ishlab chiqarish vositalari bozorida* sanoat korxonalarini, agrofirma va xalq xo‘jaligining qolgan barcha tarmoqlari uchun zarur bo‘lgan dastgoh, jihoz va butun kerakli tovarlar oldi-sotdisi tashkil etiladi. Bu bozorni bizning mamlakatda «O‘zulgurjibirjasavdo»si tizimi miqyosida tashkil etiladi;

4) *sarmoyalar bozori* birlamchi va ikkilamchi guruhlariga bo‘linadi. Birlamchi birjalarda qimmatbaho qog‘ozlar egalari qatnashadilar. Ikkilamchida esa ular qayta savdoga qo‘yiladi. Bozorni harakatga keltiruvchi asosiy omillar talab, taklif va baho hisoblanadi. Agar bozor muvozanati, ya’ni talab va taklifning miqdoriy va tarkibiy jihatdan bir-biriga muvofiqligi ta’minlangan bo‘lsa, bu holatdan taklif sohibi ham talab egasi ham o‘zlarining maqsadlariga erishadilar (1-chizma), taklif qiluvchi o‘z tovarini muvozanatni ta’minlovchi bahoda sotayotganidan manfaatdor, talab egasi ham ushbu muvozanatni ta’minlovchi S bahoda olganidan manfaatdordir.



1-chizma.


A – talab bilan baho o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni ifodalovchi egri chiziq, ya’ni talab oshgan sari baho ham oshadi.

V – taklif bilan baho o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni ifodalovchi egri chiziq, ya’ni taklif ko‘paygan sari tovarning bahosi pasaya boradi.

S – ikki **A** va **V** egri chiziqlar shunday kesishadiki, bu holatdan ikkala tomon rozi, ya’ni baho muvozanati yuzaga keladi, ya’ni 300 so‘mdan sotilgan tovardan sotuvchi ham manfaatdor, oluvchi ham. Bu holat talab va taklifning dialektik birligini, ularning o‘zaro bog‘liqligini, o‘zaro harakatini va obyektiv ravishda muvozanatga intilishini anglatadi.

Ammo ayrim subyektiv va obyektiv sabablarga ko‘ra, ushbu **S** muvozanat buzilsa, uni tiklash bo‘yicha qonun vositasi – marketing ishga solinadi. Natijada ishlab chiqaruvchi bilan iste’molchi o‘rtasida o‘zaro munosabatlar namoyon bo‘ladi. Marketing o‘z navbatida tovarni bozorga taklif qilinganlik holatlarini tahlil qiladi. Bir vaqtning o‘zida talab qiluvchi holatlarini ham tahlil qiladi. Qilingan ishlar natijasida olingan ma’lumotlar orqali ishlab chiqarishni moslashtirish uchun zarur qarorlar qabul qilinadi (2-chizmaga qarang). Chizmadan ko‘rinib turibdiki, marketing ishlari bir necha yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Holatlar chuqur tahlil qilinadi, ularning o‘zgarishi muvozanatga qanday ta’sir ko‘rsatishi ustida nazariy va amaliy taxminlar qilinadi. Holatlar tahlil qilinib bo‘lgandan so‘ng, zarur xulosalar chiqariladi va ularning

variantlari ishlab chiqaruvchiga yetkaziladi. Bu ishlarni menejerlar amalga oshiradilar.



2-chizma. Marketing faoliyati orqali bozor muvozanatini o'rganish.

Rahbariyat marketingning muhimligini ta'kidlash, uning vazifalarini belgilash va uni firmaning umumiy faoliyatiga qo'shish orqali marketing rolini aniqlaydi. Marketing hal qiluvchi ovoz, bevosita hukmronlikka ega bo'lganda, uning firma uchun zarurligi namoyon bo'ladi; marketing rahbari o'z maqomiga ko'ra faoliyatning boshqa sohalari rahbarlari bilan teng darajada va unga tegishli resurslar ajratib beriladi.

Marketing xizmati aniqlaydigan omillar. Marketing xizmati boshqaradigan asosiy tarkibiy qismlar quyidagilar:


- aniq maqsadga mo'ljallangan bozorni tanlash, maqsadli bozor (iste'molchilarning ma'lum guruhi)ni tanlash jarayoni uning o'lchovlari va xususiyatlari bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi;

- marketing maqsadlarini tanlash, u oliy rahbariyat tomonidan belgilangan maqsadlarga emas, ko'proq iste'molchilarga mo'ljallangan bo'ladi;

– marketing tashkil etishni tanlash, bosh masala, uning bir butunligi, maqsadga erishishda muvaffaqiyatni ta'minlovchi barcha omillarning o'zaro aloqasidir;

– tanlangan rejani nazorat qilish va boshqarish – bu butun faoliyatni, ayni paytda uning ayrim sohasini nazorat va tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan alohida muhim omillar. Muntazam ravishda baholash ishlarini o'tkazib turish lozim.

Marketing nazorat qiladigan omillar 3-chizmada berilgan:



3-chizma. Marketing nazorat qiladigan omillar.

Bozorni sigmentlarga ajratish – uning iste'molchilarini maxsus guruhlash demakdir. Marketing amaliyotida bozorni sigmentlarga bo'lishda uch xil yondashuv ishlab chiqilgan:

1) korxonaning ommaviy bozorga kirishida u keng xaridorlar ommasiga qaratilgan bir xil marketing dasturiga ega bo'ladi;

2) sigmentlashgan bozor, korxonada asosiy e'tiborni alohida belgilarga ega bo'lgan bir xil sigmentlarga qaratadi. Ana shu sigment uchun maxsus dastur ishlatiladi;

3) ko'pchilik ko'rsatkichlari bilan tabaqalashgan bozor, bunda o'z xususiyatlari bilan farqlanadigan bir yoki ikki xil segmentga alohida ishlab chiqiladi.

Bozor segmentlari doimiy emas. Har doim korxonada o'zining imkoniyatlariga va maqsadlariga mos holda bozorni quyidagi

segmentlarga bo‘lish mumkin. Masalan, iste‘mol tovarlari bozorida quyidagi segmentlar mavjud:

– xaridorlar segmentlari, iste‘molchilar, ularning xatti-harakatlari, talablari;

– tovar segmentlari, ommaviy va arzon, qimmat va yangi;

– savdo segmentlari, tovar harakati, sotish usullari;

– geografik segmentlari, iqtisodiy rivojlanish darajasi, joylashishiga qarab, tuman, shahar, viloyatlar aholisi soni bo‘yicha.

Marketing konsepsiyasiga asosan, har qanday korxonada, bozorda muvaffaqiyatga erishish uchun, eng avvalo, iste‘molchilar tilak-istaklarini nazarda tutadi. Bu esa iste‘mol jarayonini, aholi ehtiyoji va talabini bilish, ularga mos tushadigan tovarlar va xizmatlar taklif etishni taqozo qiladi.

Ushbu masalani yechishda quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

1) xaridorni tushunish va uni qiziqtiradigan tovarlarni aniqlash;

2) tovar va xizmatlarning mulkchiligini ta‘minlash;

3) tovarlar haqida kerakli axborotlar yetkazib berish.

Yuqoridagi qoidalarni bajarish, marketingning quyidagi to‘rt aksiomasiga asoslanadi:

– qiziqtirish – muvaffaqiyat garovi;

– raqobat tanlashni rag‘batlantiradi;

– tanlov qiyinchilik tug‘diradi;

– tanlovdagi raqobat tovarni takomillashtiradi.

Tayanch tushunchalar:

Menejment, moliya menejmenti, ishlab chiqarish menejmenti, biznes rejaning mohiyati, marketing, bozor segmentlari.

Savol va topshiriqlar:

1. Prezident Islom Karimovning: «Rahbarning soxta obro‘si bo‘lishi emas, amaliy faoliyatining obro‘si bo‘lsin», – degan talabining mohiyatini tushuntiring.

2. Menejment ishining mazmuni nima?

3. Menejmentning qanday usullari mavjudligini tushuntirib bering.

4. Menejmentga qanday talablar qo‘yiladi?

5. Motivatsiyaning qanday turlarini bilasiz?

6. Siz qanday fazilatli shaxslarni rahbar bo‘lishga loyiq deb o‘ylaysiz?

7. Siz o‘zingizni rahbar bo‘lishga loyiq deb o‘ylaysizmi?
8. Sizningcha, rahbarlik qobiliyati nimalarda ko‘rinadi?
9. Rahbarlik kasbmi yoki maxsus qobiliyatning namoyon bo‘lishimi?
10. Firma faoliyatida marketingning zarurligini tushuntiring.
11. Yaponiyada nima uchun ishdan bo‘shatishni eng oliy jazo deb biladilar?

Mavzuni chuqur o‘rganish instrumentariysi

Menejment (ingl. management – boshqaruv, tashkilotchi) – firma faoliyatining bozor sharoitiga moslashib turishida katta ahamiyatga ega faoliyat. Keng ma’noda menejment maxsus boshqarish faoliyatini bildiradi. Boshqaruv – bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir.

Menejment subyekti – boshqarish ishini bajaruvchi idoralar va ularning rahbarlari, ya’ni boshqaruv organlari yoki menejerlar – boshqaruvchilardir.

Menejment obyekt – boshqariluvchi hodisa va voqelikdir (mamlakat, viloyat, tuman, shahar, konsern, xolding, iqtisodiyot, ishlab chiqarish, firma, xodimlar).

Boshqarish funksiyasi – u yoki bu obyektning boshqarishga oid aniq vazifalarni hal etishga qaratilgan bir turdagi ishlar majmui.

Boshqarish strukturasi – boshqaruv maqsadlarini amalga oshiruvchi va funksiyalarini bajaruvchi bir-biri bilan bog‘langan turli boshqaruv organlari va bo‘g‘inlarining majmuidir (vazirlik, birlashma, korxonalar (firma), sex, uchastka).

Boshqarishning iqtisodiy usullari – iqtisodiy manfaatlardan foydalanishga asoslangan boshqaruvdir.

Boshqarishning ijtimoiy-ruhiy usuli – bu ijtimoiy-ma’naviy vaziyatga ta’sir etish yo‘li bilan kishilarning fe’l-atvori, ruhiyatini hisobga olib, ularning ijtimoiy talablarini qondirish orqali boshqariladi.

Marketing – bozor holatini asosli o‘rganish va oldindan baholash bilan tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish hamda shu yo‘sinda yaxshi foyda topishni uyushtirish.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. Menejment – xo‘jalik faoliyatini samarali tashkil etish uchun boshqarish, rahbarlik qilish, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan unumli foydalanish san’ati, usullari, shakllari va vositalari majmuidir.

2. Menejment ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tashkil etish bilan ularning ijtimoiy-sotsial va iqtisodiy samaradorligini ta’minlaydi. U ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta’sir etgan holda pirovard natijada mavjud ehtiyojlarni to‘liq qondirishga qaratilgandir.

3. Dunyo bo‘yicha marketingning ikki mingdan ortiq ta’rifi mavjud bo‘lib, uning murakkabligi va ko‘p qirraligini ifodalaydi. Shuningdek, marketing bo‘yicha turli oqimdagi juda ko‘p maktablar, biznes guruhlar mavjud.

4. Marketing xaridorlarning ehtiyojlarini qondirish, bozor muammolarini yechishga har tomonlama yondashish, ehtiyojlarni ayirboshlash yordamida qondirishga qaratilgan faoliyat turi.

5. Marketing – bu faol assortiment siyosatini, narx, oldi-sotdi, reklama, iste’molchilarni o‘rganish, tomonlar bilan munosabatlarga kirishish, tijorat tavakkalchiligi va raqobatchilarni o‘rganadigan fan.

III BO‘LIM. MAKROIQTISODIYOT

12-MAVZU. MAKROIQTISODIY BARQARORLIK, IQTISODIY O‘SISH VA INVESTITSIYA SIYOSATI

1. «Makroiqtisodiyot» tushunchasi, uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

Ma'lumki, o'tmishda O'zbekiston iqtisodiyoti sobiq sovet Ittifoqi iqtisodiyotining tarkibiy qismi hisoblanib, mustaqil milliy iqtisodiyot hisoblanmas edi. Bizga bir yoqlama rivojlangan paxta yakka hokimligiga, xom ashyo ishlab chiqarishga va boy mineral – xom ashyo resurslaridan nazoratsiz, ayovsiz foydalanish asosiga qurilgan, yonilg'i, g'alla va boshqa ko'pgina ishlab chiqarish resurslari hamda iste'mol tovarlarining ta'minlanishi bo'yicha markazga qaram bo'lgan iqtisodiyot meros bo'lib qolgan edi. Mamlakat Prezidenti Islom Karimov uqtirganidek, «O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga – markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan» mamlakat edi¹.

1991-yildan buyon o'tgan qisqa davr mobaynida iqtisodiy mustaqillikni qo'lga kiritib, mamlakatimiz hududidagi barcha tabiiy, mineral xom ashyo boyliklaridan mamlakatimizdagi butun iqtisodiy resurslar va quvvatlardan o'z xalqimiz va uning kelajagi manfaatlari yo'lida foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldik. Yangi energetika, mashinasozlik va boshqa sanoat tarmoqlarining vujudga kelishi, ko'plab yirik inshootlar, korxonalar, zavod va fabrikalar qurilganligi, yonilg'i va g'alla mustaqilligiga erishilganligi iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, izchil o'sish sur'atlari milliy mustaqil iqtisodiyotni mustahkamlash sari harakat natijalaridir.

Shunday qilib, O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan yangi, mustaqil rivojlanayotgan, o'z xalqi, millati manfaatlariga xizmat qiladigan milliy iqtisodiyot shakllanib bormoqda. Milliy iqtisodiyot, barcha tarmoqlar va sohalarni, mikro va makro iqtisodiyotlarni, funksional iqtisodiyotni, ko'plab infratuzilmalarni o'z ichiga olgan yaxlit iqtisodiyotdir.

Makroiqtisodiyot (lotincha «macro» – «katta», «uzun», arabcha «iqtisodiyot» – xo'jalik yuritish ma'nolarida) – iqtisodiy tizimdagi barcha

¹ Qarang: *Karimov I. A. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда.* – Т.: «Ўзбекистон», 1999. – Б. 6.

ishtirokchilarning xususiyatlarini o‘rganish. Makroiqtisodiyot umumiy iqtisodiy jarayonlarga urg‘u beradi. Umumiy iqtisodiy jarayon pul bilan «tirik». Pul bo‘lmagan, pul muammolari rivojlanmagan joyda makroiqtisodiyot bo‘lishi mumkin emas. Atoqli ma‘rifatparvar vatandoshimiz Abdulla Avloniyning yozishicha: «Iqtisodiyot deb, pul va mol kabi ne‘matlarning qadrini bilmoqqa aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o‘rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o‘rni kelganda, so‘mni ayamasa».

Makroiqtisodiyot alohida mahsulot va xizmatlar bozorlarini o‘rganadigan mikroiqtisodiyotdan farqli o‘laroq, milliy iqtisodiyotni tizim ko‘rinishida, ya‘ni mahsulot va xizmatlar, pul va qimmatbaho qog‘ozlar, yollanma ishchi kuchi bozorlarini bir-biriga bog‘lashda o‘rganadi. Makroiqtisodiyot fanining vazifasi yuqorida qayd etilgan bozorlar harakatining davlat aralashuvi hisobiga olingan holda makroiqtisodiy xususiyatlarni aniqlashdir.

Makroiqtisodiyot – iqtisodiy fanlarning tarmog‘i bo‘lib, iqtisodiyotning amal qilishini yaxlitlikda o‘rganadigan va tushuntiradigan fandır. Makroiqtisodiyot – bu mamlakat miqyosida moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy sohalarni bir butun qilib birlashtirgan milliy xo‘jalik darajasidagi iqtisodiyotdir.

Pozitiv makroiqtisodiyot – real iqtisodiy voqeliklarni o‘zaro aloqadorlikda o‘rganadi.

Normativ (me‘yoriy) makroiqtisodiyot – iqtisodiy faoliyatning aniq yo‘nalishlarini taklif etadi.

Makroiqtisodiyotni o‘rganishning asosiy metodlari quyidagilar:

- ilmiy abstraksiya;
- analiz va sintez;
- oddiylikdan murakkablikka;
- deduksiya va induksiya;
- statistik;
- iqtisodiy-matematik, modellashtirish.

Makroiqtisodiy siyosatning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

- pul-kredit (monetar);
- budjet soliq (fiskal);
- investitsiya;
- tashqi savdo;
- ijtimoiy.

Makroiqtisodiy siyosatning asosiy vazifasi – makroiqtisodiy mutanosiblikni ta‘minlash, iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini ta‘minlashdir. Milliy xo‘jalikning tarkib topgan tuzilishi ijtimoiy mehnat

taqsimoti rivojining natijasi hisoblanadi. Makroiqtisodiyot o'z ichiga xalq xo'jaligining moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohaslarini oladi.

Milliy iqtisodiyot me'yorida faoliyat qilish va barqaror o'sishi uchun barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohaslarining o'zaro bog'liqligi va muvozanatli rivojlanishi talab qilinadi. Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hajmi va ularning o'sishi bir qator ko'rsatkichlar tizimi orqali, mikro va makroiqtisodiy darajada aniqlanib, tahlil qilinadi. Ko'pgina mikro ko'rsatkichlar yordamida korxonalar faoliyatiga baho berilib va ular iqtisodiyotining rivojlanish tamoyillari aniqlansa, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali butun iqtisodiyotning holati uning o'sishi yoki orqaga ketishi tahlil qilinib, xulosa chiqariladi. Ular yordamida davlat o'z iqtisodiy siyosatini belgilaydi. Bu tizimga kiruvchi turli xil ko'rsatkichlar, *birinchidan*, bizga ma'lum vaqt oralig'idagi ishlab chiqarish hajmini hisoblash va milliy iqtisodiyotning faoliyat yuritishiga bevosita ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash imkonini beradi. *Ikkinchidan*, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi, YAMMni uning harakatining barcha bosqichlarida, ya'ni ishlab chiqarish, taqsimlash, qayta taqsimlash va natijada foydalanish bosqichlarida ko'rgazmali shaklda aks ettirishga imkon beradi.

Nihoyat, mazkur ko'rsatkichlar tizimi mavjud resurslar va ulardan foydalanishning mos kelishi (tengligi) kuzatilganda, mamlakatdagi umumiy iqtisodiy muvozanatlik holatini aks ettiradi. Butun milliy iqtisodiyotning holatini xarakterlovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni keltirishni lozim topdikki, bu o'quvchilarda mavzuni o'rganish uchun qulaylik yaratadi:

➤ **tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish:**

- *yalpi milliy mahsulot (YAMM);*
- *sof milliy mahsulot (SMM);*
- *milliy daromad (MD).*

➤ **budjet-soliq sohasi:**

- *davlat budjetining daromadlari va xarajatlari;*
- *davlat budjetining defitsiti (taqchilligi);*
- *YAIMdan soliqlarni olish darajasi.*

➤ **pul-kredit sohasi:**

- *inflatsiya darajasi;*
- *Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi;*
- *pul massasi hajmi.*

➤ **tashqi savdo:**

- *eksport;*
- *import;*
- *tashqi savdo aylanmasi.*
- **turmush darajasi:**
 - *aholi jon boshiga YAIM;*
 - *aholi jon boshiga MD;*
 - *aholi daromadlari;*
 - *aholining shaxsiy tasarrufidagi daromadlar;*
 - *iste'mol baholari indeksi.*
- **aholi bandligi:**
 - *ishsizlik darajasi;*
 - *ish bilan band bo'lganlar va ish kuchi soni.*

Bu ko'rsatkichlar moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy xizmat ko'rsatish sohalaridagi barcha xo'jaliklar iqtisodiy faoliyatining umumiy va pirovard natijalarini qamrab oladi.

Yalpi milliy mahsulot (YAMM) – milliy xo'jaliklarda bir yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga borib tushishi mumkin bo'lgan tayyor pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxidagi qiymatidan iborat bo'ladi.

Prezident Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi (2010-yil 12-noyabr) «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» nomli ma'ruzasida: «Biz o'z oldimizga qo'ygan uzoq muddatli strategik maqsadlar, ya'ni zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o'sishini ta'minlash, hayot sifatini yaxshilash va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash borasidagi sa'y-harakatlarimizga bugungi kun nuqtai nazaridan xolisona baho berishimiz tabiiydir. Ma'lumki, O'zbekiston 1991-yili o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng umrini o'tab bo'lgan mustabid, ma'muriy-buyruqbozlik, rejali-taqsimot tizimidan voz kechib, «O'zbek modeli» deb nom olgan o'z taraqqiyot yo'lini tanlab oldi.

Biz ishlab chiqqan va bugungi kunda hayotga tatbiq etayotgan ushbu modelning ma'no-mazmuni – davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumni tubdan o'zgartirish va yangilash, iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, ya'ni islohotlar tashabbuskori bo'lishi va ularni muvofiqlashtirib borishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil olib borish

tamoyillariga asoslanadigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Biz islohotlarni inqilobiy usulda, ya'ni «shok terapiyasi» yo'li bilan amalga oshirishdan ongli ravishda voz kechib, tadrijiy taraqqiyot yo'lini tanlab olganimiz tufayli xalqimizni qanday og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy to'fonlardan asrab qolishga muvaffaq bo'lganimizni bugun hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda. Izchil yuqori o'sish sur'atlari, yurtimizda barpo etilgan bank-moliya tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan yangilanish va o'zgarishlar, umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, shuningdek, Xalqaro valuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki singari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e'tirof etilmoqda.

Haqiqatan ham, qariyb yigirma yillik mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani e'tiborga sazovordir. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar sohada erishilgan marralar – aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlarining 5 barobar ko'paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida onalar o'limi 2 barobardan ko'proq, bolalar o'limi 3 barobar kamaygani, odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayollarning o'rtacha umr ko'rishi 75 yoshga yetganini mamnuniyat bilan ta'kidlasak arziydi, deb o'ylayman.

2008–2010-yillarda, ya'ni dunyoning aksariyat mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari sezilarli ravishda tushib ketgan, ishlab chiqarish pasaygan bir vaqtda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 2008-yilda 9 foizni, 2009-yilda 8,1 foizni tashkil etgani, 2010-yilda bu ko'rsatkich 8,5 foizga yetishi kutilayotgani, kelgusi 2011-yilda esa 8,3 foiz darajasida bo'lishi belgilab berilayotgani ko'pgina xalqaro tuzilmalar, ekspert va mutaxassislarda katta qiziqish uyg'otmoqda», – deb ta'kidladi.

Demak, YAMM milliy iqtisodiyotda yil davomida ishlab chiqarilgan barcha pirovard mahsulot (xizmat)larning bozor narxidagi so'mmasi. Bilamizki, joriy yilda ishlab chiqilgan barcha mahsulotlar sotilmasligi mumkin, ularning bir qismi zaxiralarni to'ldiradi. Ya'ni YAMM hajmini hisoblab topishda zaxiralarning har qanday o'sishi hisobga olinishi zarur, chunki YAMM yordamida joriy yildagi barcha mahsulotlar (sotilgan va

sotilmagan) hisobga olinadi. Milliy ishlab chiqarishning yalpi hajmini to'g'ri hisoblab chiqish uchun, mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot va xizmatlar bir marta hisobga olinishi zarur. YAMM hajmini topishda sotilgan va qayta sotilgan mahsulotlarni ko'p marta hisobga olishlarni bartaraf qilish uchun, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatlar yig'indisi olinadi.

Qo'shilgan qiymat – bu korxonadan ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan yetkazib beruvchilardan sotib olingan va iste'mol qilingan xom ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati.

Boshqacha aytganda, **qo'shilgan qiymat – bu korxonadan yalpi mahsulotidan yoki ishlab chiqargan mahsulotining bozor narxidan (amortizatsiya ajratmasidan tashqari) joriy moddiy xarajatlar chiqarib tashlangan miqdoriga teng.**

YAMM yordamida milliy iqtisodiyotda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish yillik hajmini hisoblashga harakat qilinadi. YAMM yil davomida ishlab chiqarilgan barcha pirovard tovarlab va xizmatlarning bozor narxidagi so'mmasi bo'lganligi uchun tovarning o'zi, uning nafililigi ko'paymagan holda baholar oshishi evaziga uning hajmi oshib ketishi mumkin. Baho ishlab chiqarish y umumiy hajmining har xil elementlarini yarena umumiy asosga keltirishning eng keng tarqalgan ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi. Shuning uchun yalpi milliy mahsulotga baho berishda nominal va real milliy mahsulot hisobga olinadi. Joriy bozor baholarida hisoblangan milliy mahsulot **nominal milliy mahsulot**, o'zgarmas baholarda hisoblangan milliy mahsulot esa **real milliy mahsulot**, deb yuritiladi. Turli yillarda ishlab chiqarilgan YAMM qiymatini faqat narx o'zgarmagan taqdirda o'zaro taqqoslash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, narx dapajasi bizga iqtisodiyotda inflatsiya (narx darajasining o'sishi) yoki deflyatsiya (narx darajasining kamayishi) o'rin tutganligini va uning miqyosi qandayligini bilish imkonini beradi.

Narx darajasi indeks shaklida ifodalanadi. Narx indeksi joriy yildagi ma'lum guruh tovarlar va xizmatlar to'plami narxlari so'mmasini, xuddi shunday tovarlar va xizmatlar miqdorining bazis davrdagi narxlar so'mmasiga taqqoslash orqali hisoblanadi. Taqqoslashning boshlang'ich davri «bazis yil» deyiladi.

Farb mamlakatlari va xususan AQShda narx indeksleri ichida eng keng qo'llaniladigani iste'molchilik tovarlari savati narxlari indeksi hisoblanadi. Uning yordamida tipik shahar aholisi sotib oladigan iste'molchilik tovar va xizmatlarning 300 turini o'z ichiga oluvchi bozor

savatining qayd qilingan narxlari hisoblanadi. Ammo narxning ymumiy darajasini hisoblash uchun YAMM narx indeksidan foydalaniladi.

YAMM narx indeksi ancha keng tushuncha bo'lib, u o'z ichiga nafaqat iste'molchilik tovarlari, balki investitsion tovarlar, davlat tomonidan sotib olinadigan hamda xalqaro bozorda sotilgan va sotib olingan tovarlar va xizmatlar narxlarini ham oladi. YAMM narx indeksi, nominal YAMMni real YAMMga aylantirib hisoblash imkoniyatini beradi.

Nominal YAMM shu mahsulot ishlab chiqarilgan davrda amal qilib turgan narxlarda ifodalangan ishlab chiqarish hajmini bildiradi.

YAMM bilan birga, uning tarkibiy qismlari sifatida hisoblanish mumkin bo'lgan bir qator o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar mavjud bo'lishini bildiradiki, ular milliy iqtisodiyotning turli tomonlarini xarakterlab beradi. YAMM ko'rsatkichiga sof eksport (eksport va import o'rtasidagi farq) kiradi. Ammo turli mamlakatlarda tashqi savdo faoliyatining salmog'i keskin farqlanadi. Shu sababli milliy iqtisodiyot rivojlanish darajasini taqqoslash uchun ichki milliy mahsulot (IMM) ko'rsatkichidan foydalaniladi.

IMM ma'lum vaqt davomida (bir yilda) mamlakat hududida ishlab chiqarilgan va iste'mol qilishga tayyor pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymatidir. U barcha ishlab chiqarish subyektlarida qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida chiqadi. YAMM va IMM ishlab chiqarish yalpi hajmining ko'rsatkichi sifatida bitta muhim kamchilikka ega. Ular mazkur yilda ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan, asosiy kapitalning o'rnini qoplash uchun zarur bo'lgan qiymatni ham o'z ichiga oladi.

YAMMdan joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan asosiy kapital qiymati yoki yillik moddiy xarajatlar summasi ayirib tashlansa, sof milliy mahsulot (SMM) ko'rsatkichi hosil bo'ladi.

YAMM – moddiy xarajatlar yillik summasi = SMM.

Shunday qilib, SMM moddiy xarajatlar amortizatsiya ajratmasi summasiga kamaytirilgan YAMM sifatida chiqadi. SMM qiymatiga davlat tomonidan o'rnatiladigan egri soliqlar summasi kiradi. Egri soliqlar davlat tomonidan o'rnatiladigan narxga qo'shiladigan xarajat hisoblanadi. Bunday soliqlar og'irligi iste'molchi zimmasiga tushadi va uning hisobiga o'z daromadining bir qismini sarflaydi. Shuning uchun hozirgi davrda hisob tizimida SMMdan egri soliqlar chiqarib tashlansa, milliy daromad (MD) ko'rsatkichi hosil bo'ladi, deb ko'rsatiladi.

SMM – biznesga egri soliq= milliy daromad.

Amaliyotda ishlab chiqarilgan va foydalanilgan MD farqlanadi. **Ishlab chiqarilgan MD** – bu yangidan yaratilgan tovar va xizmatlar qiymatining butun hajmi. **Foydalanilgan MD** – bu ishlab chiqarilgan MDdan yo‘qotishlar (tabiiy ofatlar, saqlashdagi yo‘qotishlar va h. k.) va tashqi savdo qoldig‘i chiqarib tashlangan miqdorga teng. Bizning amaliyotda MD iste‘mol va jamg‘arish fondiga ajratiladi.

Iste‘mol fondi – bu milliy daromadning jamiyat a‘zolarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini hamda butun jamiyat ehtiyojlarini (ta‘lim, mudofaa va h. k.) qondirishni ta‘minlashga ketadigan qismi.

Jamg‘arish fondi – bu milliy daromadning ishlab chiqarishni rivojlantirishga sug‘urta rezervlarini ko‘paytirishga sarflaydigan qismini ta‘minlaydigan qismi.

Milliy daromadni, daromadlar barcha turlarini (amortizatsiya ajratmasi va biznesra egri soliqlardan tashqari) qo‘shib chiqish yo‘li bilan ham aniqlash mumkin. Shaxsiy daromad ko‘rsatkichini topish uchun milliy daromaddan uy xo‘jaliklari qo‘liga kelib tushmaydigan daromadlarning yuqoridagi uchta turini (ishlab topilgan) chiqarib tashlashimiz hamda joriy mehnat faoliyatining natijasi hisoblanmagan daromadlarni unga qo‘shishimiz zarur.

Milliy daromad – ijtimoiy sug‘urta ajratmasi – korxonada foydasiga soliqlar – korxonaning taqsimlanmaydiran foydasi + ijtimoiy to‘lovlar (davlatning transfert to‘lovlari) = shaxsiy daromad.

Shaxsiy daromaddan daromad soliqlari to‘langandan keyin, uy xo‘jaliklarining to‘liq tasarrufida qoladigan daromad shakllanadi. Soliqlar to‘langandan keyingi daromad shaxsiy daromaddan shu daromad hisobidan to‘lanadigan soliqlar miqdorini chiqarib tashlash yo‘li bilan hisoblanadi. Soliqlari to‘langandan keyingi daromad uy xo‘jaliklari eng oxirida ega bo‘ladigan daromad hisoblanib, alohida shaxs va oilalar o‘z tasarrufida by daromadlarninr bir qismini iste‘mol uchun sarflaydi va boshqa qismini jamg‘armaga yo‘naltiradi.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning qarab chiqilgan tahliliga asoslanib, bu ko‘rsatkichlar butun tizimi nisbatini ko‘rgazmali tasavvur qilishimiz mumkin bo‘ladi.

Ichki milliy mahsulot – moddiy xarajatlar = SMM.

Sof milliy mahsulot – egri soliqlar = MD.

Milliy daromad – ijtimoiy sug‘urta ajratmalari – korxonada foydasiga soliqlar – korxonada foydani taqsimlagandan keyin qolgan foydasi taqsimlanmaydigan foydasi + ijtimoiy to‘lovlar = shaxsiy daromad.

Shaxsiy daromad – shu daromad hisobidan daromad soliqlar = soliqlar to‘langandan keyingi daromad deb nomlanadi.

Yalpi milliy mahsulotni hisoblash usullari. Milliy mahsulotni hisoblashda milliy hisob tizimidan foydalaniladi.

Milliy hisoblar – bu YAMM ishlab chiqarish, milliy daromadni hisoblash, taqsimlash hamda ulardan foydalanishni xarakterlaydigan o‘zaro bog‘liq makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimidir. Milliy hisoblar tizimi deganda, mamlakatdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarda sarflangan xarajatlarni va ishlab chiqargan mahsulot va xizmatlarni hisoblash (buxgalteriya) majmuini tushunish zarur.

Bunday hisoblar xalqaro statistikada standart tizim sifatida 1953-yildan boshlab qo‘llanila boshladi. Hozirgi davrda dunyoning 100 dan oshiq mamlakatlarida, shu jumladan O‘zbekistonda mazkur tizim keng qo‘llaniladi.

Milliy hisoblar asosini yig‘ma balanslar tashkil qiladi. Bunga daromad va xarajatlar balansi misol bo‘lishi mumkin. Daromadlar xo‘jalik birliklari va aholi umumiy daromadlari (ish haqi, foyda, daromadlarning boshqa turlari, amortizatsiya) summasini aks ettiradi. Xarajatlar to‘rtta guruhdan iborat bo‘ladi: iste‘mol, investitsiyalar, davlat xaridi, sof eksport. Milliy hisoblar makroiqtisodiyotning me‘yoridagi – muvozanatli holatga erishish darajasini aniqlashga yordam beradi.

YAMM (IMM) uch xil usul bilan hisoblanishi mumkin:

Birinchi usul – bu YAMMni hisoblashga qo‘shilgan qiymatlar bo‘yicha yondashuv. Bunda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bo‘yicha yaratilgan qo‘shilgan qiymatlar qo‘shib chiqiladi (YAIM tarmoq va ishlab chiqarishlar bo‘yicha). Bu usul bilan hisoblangan YAMM (IMM) alohida tarmoqlarning shu mahsulotini yaratishdagi o‘rnini va hissasini aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchi usul – bu YAMM (YAIM)ni hisoblashga sarf-xarajatlar bo‘yicha yondashuv.

Bunda mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot (xizmat)lar hajmini sotib olishga qilingan butun sarflar qo‘shib chiqiladi. Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan pirovard mahsulotlarni mamlakat ichida xo‘jalikning uchta subyekti – uy xo‘jaliklari, davlat, tadbirkorlar hamda tashqaridan chet ellik iste‘molchilar sotib olishi mumkin.

Uy xo‘jaliklarining iste‘molchilik sarflari. Bu kundalik tovarlarga, xizmatlarga, uzoq muddat foydalaniladigan iste‘mol buyumlariga va boshqalarga qilinadigan sarflardir.

Investitsion sarflar tadbirkorlik sektorining asosiy kapitalni yalpi jamg'arishga qiladigan sarflardir. **Investitsion sarflar** acocan uchta qismdan iborat: a) tadbirkorlar tomonidan mashina, uskuna va stanoklarning barcha xaridi; b) barcha qurilishlar; c) zaxiralarning o'zgarishi.

Birinchi guruh elementlarning «investitsion sarflar» tarkibiga kiritilish sababi aniq, qurilishlarning uning tarkibiga kiritilishi, o'z-o'zidan aniqki, yangi fabrika, ombor yoki g'alla ombori qurilishi investitsiyalar shakli hisoblanadi.

YAIM tarkibiga zaxiralarning ko'payishi, ya'ni ishlab chiqarilgan, lekin mazkur yilda sotilmagan barcha mahsulotlar kiritiladi. Boshqacha aytganda, YAIM o'z ichiga yil davomidari zaxiralar va ehtiyojlar barcha o'sishining bozor qiymatini oladi. Zaxiralarning by o'sishi YAIMra joriy ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichi sifatida qo'shiladi. Zaxiralar kamayganda, u YAIM hajmidan chiqarilishi zarur. Zaxiralarning kamayishi yil davomida milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgandan ko'proq mahsulot sotilganini bildiradi. Boshqacha aytganda, jamiyat mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotni va bunga qo'shimcha oldingi yillardan qolgan zaxiralarning bir qismini iste'mol qilgan bo'ladi.

Milliy hisoblar tizimida YAIMni hisoblashda yalpi, xususiy va «ichki investitsiyalar» tushunchasidan foydalaniladi. Xususiy va ichki investitsiyalar mos ravishda xususiy va milliy kompaniyalar amalga oshiradigan investitsion sarflarni bildiradi. Yalpi investitsiyalar o'z ichiga joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan mashina, uskuna va qurilmalarning o'rnini qoplash uchun mo'ljallangan barcha investitsion tovarlar ishlab chiqarishni hamda iqtisodiyotda kapital qo'yilmalar hajmiga har qanday sof qo'shimchalarni oladi. Yalpi investitsiyalar mohiyatiga ko'ra iste'mol qilingan asosiy kapitalni qoplash so'mmasidan va investitsiyalarning o'sgan qismidan iborat bo'ladi. Boshqa tomondan «sof xususiy ichki investitsiyalar» tushunchasi joriy yil davomida qo'shilgan investitsion tovarlar so'mmasini tavsiflash uchun ishlatiladi.

Yalpi investitsiyalar va amortizatsiya (shu yili ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan asosiy kapital hajmi) o'rtasidagi nisbat, iqtisodiyot yuksalish, turg'unlik yoki tanazzul holatida joylashganligini tavsiflab beruvchi ko'rsatkich (indikator) hisoblanadi.

Yalpi investitsiyalar amortizasiyadan ortiq bo'lsa, iqtisodiyot yuksalish bosqichida joylashadi, uning ishlab chiqarish quvvatlari o'sadi.

Turg'un iqtisodiyot yalpi investitsiyalar va amortizatsiya teng bo'lgan vaziyatni aks ettiradi. Bu iqtisodiyotda mazkur yilda YAIMni ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan vositalarni qoplash uchun zarur bo'lgan miqdorda asosiy kapital ishlab chiqarishni bildiradi. Boshqacha aytganda, sof investitsiyalar taxminan nolga teng bo'ladi, ishlab chiqarish quvvatlari kengaymaydi.

Yalpi investitsiyalar amortizatsiyaga qaraganda kam bo'lsa, ya'ni iqtisodiyotda ishlab chiqarilganga qaraganda kapital ko'proq iste'mol qilinca, noqulay vaziyat vujudga keladi. Bunday sharoitda iqtisodiyotda investitsiyalarning qisqarishi po'y beradi. By yil oxirida kapital hajmi boshida mavjud bo'lgandan kam bo'lib qolishiga olib keladi. Masalan, «Buyuk turg'unlik» davrida, aniqrog'i 1933-yil AQShda yalpi investitsiyalar hammasi bo'lib 1,6 mlrd. dollarni, yil davomida iste'mol qilingan kapital – 7,6 mlrd. dollarni tashkil qilgan. Shunday qilib, investitsiyalarning sof qisqarishi 6 mlrd. dollarga teng bo'lgan.

Davlat sarflari – bu mahsulotlarni va iqtisodiy resurslarni, xususan ishchi kuchini sotib olishga davlatninr (boshqaruvning quyi va mahalliy oranlari bilan birga) qilgan barcha sarflapini o'z ichiga oladi.

Chet elliklarning milliy iqtisodiyot tovarlariga sarflari xuddi mamlakat ichidagi iste'molchilik sarflari kabi milliy ishlab chiqarish darajasiga bog'liq. Shu sababli YAIMni sarflar bo'yicha hisoblashda tovar va xizmatlarga chet elliklarning sarflari, ya'ni **eksport qiymati** ham qo'shiladi.

Boshqa tomondan, iste'molchilik va investitsion sarflar hamda davlat mablag'larining bir qismi import qilingan, ya'ni chet elda ishlab chiqarilgan tovarlarga sarflanadi. Milliy ishlab chiqarish umumiy hajmi asossiz oshib ketmasligi uchun import hajmi YAIMdan chiqariladi. Buning uchun eksport va import miqdorlari o'rtasidagi farq aniqlanadi. Bu farq tovar va xizmatlarning sof eksporti yoki oddiy qilib sof eksport deyiladi. Sof eksport ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Agar eksport importdan ortiq bo'lsa, bu ijobiy, eksportdan import ortiq bo'lsa, salbiy bo'ladi.

Qarab chiqilgan sarflarning to'rt toifasiga notijorat muassasalar (kasaba uyushmalar, siyosiy partiyalar, diniy tashkilotlar va ijtimoiy tashkilotlar) sarflari va moddiy aylanma vositalari zaxirasidagi o'zgarishlarni qo'shib chiqish yo'li bilan YAIM (IMM) hajmi aniqlanadi.

Uchinchi usul – bu YAIM (YAIM)ni daromadlar bo'yicha hisoblash.

Mazkur yilda ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot hajmidan olingan barcha daromadlar uy xo‘jaliklari ixtiyoriga ish haqi, renta to‘lovlari, foiz va foyda shaklida kelib tushadi. Shu sababli bu usulda YAMM (YAIM) pirovard mahsulot hisobidan olingan ana shu barcha daromadlarni qo‘shib chiqish orqali aniqlanadi.

YAMM (YAIM)ni daromadlar bo‘yicha hisoblashda uy xo‘jaliklari, korxonalar va davlat muassasalarining dastlabki, ya‘ni taqsimlangan daromadlarini mehnat haqi va yalpi foydaga (renta, ssuda foizi va tadbirkorlik foydasi va h.k.) ajratish mumkin. YAMM (YAIM)ni mazkur usul bo‘yicha hisoblashda daromadlarning barcha summasiga iste‘mol qilingan asosiy kapital qiymati (amortizatsiya ajratmasi) va biznesga egri soliqlar so‘mmasi ham qo‘shiladi. Agar YAMMni hisoblashning oxirgi ikki usulini oddiy tenglik shaklida tasvirlasak:

Mazkur yilda ishlab chiqarilgan IMMni sotib olishga sarflar hajmi = mazkur yilda ishlab chiqarilgan IMMdan olingan pul daromadlari summasi.

Mahsulotni ishlab chiqarishga nima sarflangan bo‘lsa, bu mazkur mahsulotni ishlab chiqarishga o‘zining ishchi kuchi va moddiy resurslarini bozorda sotishga qo‘yganlari uchun daromad hisoblanadi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari (1999–2010-yillar)

	O‘lchov birligi	1990-yil	2000-yil	2010-yil	1990-yilga nisbatan foiz hisobida	
					2000-yil	2010-yil
Yalpi ichki mahsulot (xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha)	million dollar	27106	35277	92326	1,3 marta	3,4 marta
Sanoatning YAIMdagi ulushi	foiz	17,6 ¹	14,2	24,0	x	x
Qishloq xo‘jalik mahsulotlari	milliard so‘m	11,1 ²	1387	15811	100,6	182,9
Qishloq xo‘jaligining YAIMdagi ulushi	foiz	33,4	30,1	17,5	x	x
Qurilish ishlari	milliard so‘m	4,2 ²	388,4	8245,8	86,9	2,3 marta

Chakana savdo aylanmasi	milliard so‘m	19,8 ²	1788	21873	99,2	2,8 marta
Xizmatlarning YAIMdagi ulushi	foiz	33,8	37,0	49,0	x	x
Kichik biznesning YAIMdagi ulushi	foiz	0	31,0	52,5	x	x
Asosiy kapitalga investitsiyalar	million dollar qiymatida	833,8	3142,5	9712,7	3,8 marta	11,6 marta
YAIMga nisbatan foizda	foiz	18,0	22,9	25,0	x	x
Tovarlarni va xizmatlarni eksporti	million dollar	442,7	3265	13045	7,4 marta	29,5 marta
YAIMga nisbatan foizda	foiz	3,3	24	33,5	x	x
Tovarlarni va xizmatlarni eksporti	million dollar	362,9	2947	8800	8,1 marta	24,2 marta
YAIMga nisbatan foizda	foiz	2,7	21,4	22,6	x	x
Tashqi savdo saldosini	million dollar	79,8	317	42,45	x	x

¹ Asosiy ulushni umumittifoq bozori uchun xom ashyo va yarim fabrikatlar ishlab chiqarish egallagan.

² Milliard rubl.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.

Ma‘lumot uchun: 2010-yilda YAIMning nominal hajmi 61,8 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2011-yilda 78 trillion so‘mni tashkil etgan.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligining dastlabki yillaridanoq bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘lini tanlab, uni izchil amalga oshirishi natijasida MDH boshqa ko‘plab mamlakatlaridan farqli ravishda, ishlab chiqarish va aholi turmush darajasining keskin pasayib, davlatning ichki va tashqi qarzlari haddan ziyod oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikka erishgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Raqamlar bu haqida dalolat beradi: 1991–1995-yillarda O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning pasayishi, MDH davlatlari o‘rtasida eng kam ko‘rsatkich – 18,8 foizni tashkil etdi. Holbuki, bu raqam Rossiyada – 53 foiz, Ukrainada – 52 foiz, Belorussiyada – 54,6 foiz, Qozog‘istonda esa 75,4 foizga teng bo‘lgan. Qulay ishchan muhit yaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni

chuqurlashtirish jarayonlarining natijasi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyoti 2004-yildan e'tiboran yiliga 7–9 foiz darajasidagi yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini namoyish qila boshlaganini MDH mamlakatlari statistika qo'mitasi ma'lumotlari ham ko'rsatgan.

Xarid qobiliyati pariteti (XQP) bo'yicha YAIM 2010-yilda 1990-yilga nisbatan 3,4 barobar, ya'ni 27,1 milliard AQSh dollaridan 92,3 milliard AQSh dollariga oshdi. Qulay ishchan muhitning yaratilishi, investitsiyalar oqimining kuchayishi nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, balki iqtisodiyot tarkibida muhim sifat o'zgarishlarining yuz berishini ham ta'minladi. Xususan, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish bo'yicha amalga oshirilgan siyosatning natijasi sifatida 2000–2011-yillarda qishloq xo'jaligining mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 30,1 foizdan 17,5 foizga kamayib, sanoatning ulushi 14,2 foizdan 24,1 foizga, xizmatlar ulushi esa 37 foizdan 49 foizga o'sdi.

1992–1994-yillarda iste'mol narxlarining o'rtacha oylik o'sishi 21–23 foiz yoki o'rtacha yillik o'sishi 1000 va undan ortiq foizni tashkil etdi. Mamlakatimizda 1994-yilning 1-iyulidan boshlab milliy valutaning muomalaga kiritilishi, mustaqil budjet-soliq siyosatining shakllantirilishi, narxlarni erkinlashtirish jarayonining nihoyasiga yetkazilishi va shuningdek, to'lov intizomini mustahkamlash bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar iste'mol narxlari inflatsiyasini 7–8 foizga tushirish imkonini berdi, bu esa qulay ishchan muhitni yaxshilash va investitsiyalarni rag'batlantirishda eng muhim omillardan biri bo'ldi.

Investitsion faollik ko'rsatkichlari keyingi-yillarda ishchan muhitning sezilarli darajada yaxshilangani va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari barqaror tus olayotganining yorqin dalilidir, Masalan, o'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar hajmi 1990–2000-yillarda 3,8 barobar oshdi, 2010-yilda esa 1990-yilga nisbatan 11,6 barobar ortib, 9,7 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi hajmining YAIMga nisbati 1990-yilda 6 foizni, 2000-yilda – 45,4 foizni, 2010-yilda esa 56,1 foizni tashkil etdi. Agar 1990-yilda eksport importga nisbatan 79,8 million dollar ortiq bo'lgan bo'lsa, 2009-yilda tashqi savdoning ijobiy savdosi 2333 million dollarni, 2011-yilda esa 4 milliard 500 million dollarni tashkil etdi.

Yuqoridagilarning barchasi O'zbekiston iqtisodiy tizimini barqarorligini ta'minlash va vatanimiz taraqqiyotiga va xalq farovonligini yuksaltirishga olib keladi. Yalpi ichki mahsulotning yuqori sur'atlar bilan o'sishi so'ngi yillarda an'anaviy xom ashyo tarmoqlari hisobidan emas,

jahon bozoridagi qulay konyunktura va ayrim xom ashyo turlari hamda materiallar narxining yuqoriligi hisobidan emas, balki birinchi navbatda raqobatga bardoshli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda zamonaviy xizmat ko'rsatish sohalarini jadal rivojlantirishni belgilab beradigan jiddiy tarkibiy o'zgarishlar va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga ta'minlanmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, o'tgan 2006-yil – Homiylar va shifokorlar, 2007-yil – Ijtimoiy himoya, 2008-yil – Yoshlar, 2009-yil – Qishloq taraqqiyoti va farovonligi, 2010-yil – Barkamol avlod, 2011 – Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yilida erishilgan ana shunday o'sish sur'atlari va yuksak makroiqtisodiy ko'rsatkichlar jamiyatimizning barcha sohalarini tubdan isloh qilish va yangilash bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilgan ko'p yillik mashaqqatli va murakkab ishlarning mantiqiy natijasi, mamlakatimiz iqtisodiyotini izchil va barqaror rivojlantirishning amaldagi ko'rinishi bo'ldi.

Ma'lumki, raqamlar «o'jar» bo'ladi. Ular soxtalik, qing'irlikni yoqtirmaydi. Yuqorida keltirilgan har bir raqam zamirida dunyoviy taraqqiyot yo'limizga bo'lgan ishonch, fuqarolarimiz qat'iyati, tashabbuskorligi va albatta, o'z kelajagini yanada farovon etishga intilish hissi yashiringandir. Keltirilgan raqamlar, eng avvalo, odamlar ongidagi o'zgarishlar mahsuli sifatida baholanayotgani bejiz emas. Mehnatga, mulkka bo'lgan munosabatning o'zgarganligi mahsulidir bu. Joylarda, nihoyat, tadbirkor va fermerlarga mustaqillikning dastlabki yillaridagidek «o'gay ko'z bilan qaralmayotgani» xususiy mulkka iqtisodiyotning tayanchi sifatida munosabatda bo'linayotgani mahsuli bu.

Muhim yutug'imiz sifatida, bozor islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan choralarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatayotganligini sog'lom fikrlaydigan har bir inson dildan his qilmoqda.

2. Makroiqtisodiy muvozanat. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda iqtisodiy o'sish, investitsiyaning ahamiyati

Milliy iqtisodiyot darajasida to'liq bandlikka erishish, inflatsiyani eng kam darajaga keltirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish,

makroiqtisodiy muvozanatni taqozo etadi. Ijtimoiy ishlab chiqarish va umuman takror ishlab chiqarish ham iqtisodiyotning barcha darajasida, ya'ni mikro va makroiqtisodiyot darajasida iqtisodiy muvozanatning ta'minlanib turilishini zarur qilib qo'yadi. Shunday ekan, iqtisodiy muvozanat, iqtisodiy o'sish va takror ishlab chiqarish jarayonining eng muhim va asosiy shart-sharoiti bo'lib yuzaga chiqadi. Iqtisodiy muvozanatga ta'rif berishdan oldin iqtisodiy fan tarixida bu muammo bo'yicha ancha keng tarqalgan yondashuvlarga alohida e'tiborni qaratamiz.

Iqtisodiyot fani tarixida «iqtisodiy muvozanat» tushunchasining turlicha ta'riflari mavjud bo'lib, ularni umumlashtirilgan holda *ikkita yo'nalishga* ajratish mumkin. **Birinchi yo'nalish** bevosita «iqtisodiy muvozanat» tushunchasining vujudga kelish va rivojlantirilishining tarixiy bosqichlari bilan bog'liq bo'lib, bunda mazkur tushuncha «umumiy bozor muvozanati» sifatida talqin qilinishi darajasigacha yetib keladi. Bu yo'nalishda iqtisodiy muvozanatlikning ko'plab modellari mavjud bo'lib ular turli davrlarda bu muammoga har xil qarashlarni aks ettirgan:

1) oddiy takror ishlab chiqarish modeli (F. Kene tomonidan XVIII asrda Fransiya misolida tushuntirib berilgan);

2) oddiy va kengaytirilgan kapitalistik ijtimoiy takror ishlab chiqarish sxemasi (XIX asrda klassik iqtisodchilar tomonidan asoslab berilgan);

3) erkin raqobat qonuni amal qilgan sharoitda umumiy iqtisodiy muvozanat modeli (L. Valras tomonidan asoslangan);

4) «Xarajatlar – mahsulot ishlab chiqarish» modeli (V. Lyontyev asos solgan);

5) qisqa davrli iqtisodiy muvozanat modeli (D. Keyns siklik rivojlanishni tahlil qilish orqali ko'rsatib bergan).

Iqtisodiy muvozanat nazariyasiga oid ilk fikrlar klassik siyosiy iqtisod asoschilaridan biri A. Smitning «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» nomli asarida yoritilgan bo'lib, unda iqtisodiy munosabatlarning barchasi bozor mexanizmi yordamida tartibga solinishi, talab va taklif o'rtasidagi muvozanat faqat bozor mexanizmi yoki «ko'rinmas qo'l» yordamida ta'minlanishi ta'kidlab o'tilgan. Uning: «Alohida olingan har bir odam faqat o'zini o'ylagan holda, o'zining shaxsiy manfaatlari yo'lida qilgan harakatlari ko'rinmas qo'l orqali uning qiziqishi doirasiga mutlaqo kirmagan boshqa maqsadlarga yo'naltiriladi va bu harakat ongli ravishda jamiyat manfaatlariga xizmat qilgandagiga qaraganda ko'proq samara beradi», – degan mashhur fikri hozirgi kunda

ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ammo, u iqtisodiy muvozanatni ta'minlash jarayonlarida davlat ishtirokini mutlaqo inkor etgan.

Iqtisodiy muvozanat nazariyasini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan namoyandalardan biri J. S. Milldir. U: «Jamiyat ortiqcha puldan o'z kuchi bilan qutula olmaydi, shu sababli yagona yo'l narxning o'sishi bo'lib, faqat shu yo'l bilan talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash mumkin», – deb ta'riflagan. Uning fikricha, narx o'sishini talab va taklif o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlangunga qadar davom ettirish zarur¹.

XX asrning 20-yillari oxirlari va 30-yillari boshlarida G'arbdagi bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida «Buyuk depressiya» nomi bilan mashhur bo'lgan barqaror va uzoq davom etgan, makroiqtisodiy beqarorlik hukm surdi. Bundan yuz yil oldin shakllantirilgan klassik nazariya ta'limoti ro'y bergan inqiroz jarayonlarning barcha jihatlari bo'yicha tushuntirib berishga layoqatsiz bo'lib qoldi. D. J. Keynes klassik iqtisodchilar nazariyasini tanqid qilib, iqtisodiyot nazariyasida haqiqiy to'ntarish qilishga olib kelgan nazariyani yaratdi.

Bu barcha iqtisodchilarning iqtisodiy muvozanatlik to'g'risidagi g'oyalari o'zlari yashagan muhit sharoitidan kelib chiqqan holda, birmuncha cheklangan xarakterga egadir. Avvalo, ularning iqtisodiy g'oyalari umumiy bozor muvozanatini tahlil qilish bilangina cheklanadi, xolos. Shu sababli ularning g'oyalari iqtisodiyotning umumiy muvozanatligi yoki «iqtisodiy muvozanatlik» tushunchasini to'liq yoritib berish darajasiga yetmagan, bu o'z navbatida iqtisodiy muvozanatning umumiy shart-sharoitlari va namoyon bo'lish shakllarini ham ko'rsatib berolmagan. Buning sababi oddiy bo'lib, siklik rivojlanish natijasida vujudga keladigan ishlab chiqarish sohaslarini qamrab olgan va «ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlari», deb nomlangan.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti doimiy inflatsiya va ishsizlik sharoitida rivojlanib, makroiqtisodiy beqarorlik xarakteri kuchayib borishi natijasida iqtisodiy muvozanatlikni ta'minlash ham ancha murakkab kechib, davlatning samarali makroiqtisodiy siyosat (moliya va pul kredit) olib borishini taqozo etadi. Hozirgi zamon iqtisodiyot fanida iqtisodiy muvozanatlik tushunchasi o'quv adabiyotlari darajasida bo'lsa-da, barcha

¹ Qarang: *Mill J.S. On the Defintion of Political Economy; and on the Method of Invtstigation Proper to it. In: Tssays on Some Unsettled Questions of Political Economy. L., p. 133–137.*

jihatlari (sabablari, oqibatlari, natijalari) bilan birgalikda ancha keng tadqiq qilinadi. Jumladan, iqtisodiy muvozanatlikning mohiyati, uni ta'minlash muammolari K. Makkonell, S. Bryu tomonidan yopiq va ochiq iqtisodiyot uchun yalpi talab va yalpi taklifning muvozanatligi orqali tushuntirilib beriladi. Ular ko'plab alohida olingan bozorlardagi muvozanatli narx va ishlab chiqarish hajmini o'rganish orqali xususiy muvozanatlikning tahlili bilan shug'ullangan bo'lsa, barcha turli xil bozorlardagi umumiy taklif hajmi va ulardagi narxlarning o'rtacha darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni keng miqyosda o'rganib chiqish orqali umumiy bozor muvozanatini ko'rsatib berishga harakat qiladilar.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan mualliflar va boshqa ko'pchilik G'arb iqtisodchilari tomonidan «iqtisodiy muvozanat» tushunchasi bo'yicha zikr etilgan barcha iqtisodiy g'oyalar ham «umumiy bozor muvozanati», ya'ni yalpi talab va yalpi taklif muvozanati doirasi bilan cheklanadi. Bundan tashqari ushbu tushunchalar ancha mavhumlashtirilib, murakkab matematik tenglashtirishlar va jadvali tahlil usullari orqali bayon qilinadi. Bu esa iqtisodiy hodisa va jarayonlarning iqtisodiy mazmunini ilg'ab olishni ancha qiyinlashtiradi.

Dunyodagi iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiy tizimi yuzlab yillar davomida shakllanib, o'zining rivojlanishida nisbatan barqarorlikni saqlab qolishi (siklli rivojlanish natijasida kelib chiqadigan iqtisodiy beqarorliklarni hisobga olmaganda) o'z-o'zidan «umumiy iqtisodiy muvozanatlik» tushunchasini nazariy tadqiq qilishni «kun tartibi»dan chiqarib qo'yadi.

Sobiq sotsialistik tizim amal qilib turgan davrda uning tarkibiga kirgan mamlakatlarda jamiyat ehtiyojlari va ishlab chiqarish hajmi bir markazdan turib muvofiqlashtirilib borilganligi tufayli iqtisodiy muvozanatlik muammosi o'quv adabiyotlarida, ilmiy tadqiqot ishlarida qayd qilinmagan va o'rganilmagan.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasiga ishlab chiqarish munosabatlarining to'liq mos kelishi hamda «Rejali va proporsional rivojlanish qonuni»ning amal qilishi, go'yoki o'z-o'zicha iqtisodiy muvozanat va takror ishlab chiqarishning to'xtovsiz kengayib borishini ta'minlaydi, degan aqidaning mavjud bo'lishi har qanday muvozanatni ilmiy-nazariy tadqiq qilishni ham inkor etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov shu muammo haqida ta’kidlaganidek, «dono» Davlat Plan qo‘mitasi, undan yuqoriroqda esa partiya Markazqo‘mi idoralarni ishga solib, ma’muriy yo‘l bilan, reja-direktiv qarorlar tizimi orqali ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi bilan ishlab chiqarish munosabatlarining xususiyati o‘rtasida sun’iy muvozanat tiklanardi»¹.

Iqtisodiy muvozanatlik nazariyasidagi **ikkinchi yo‘nalish** sobiq sotsialistik lager mamlakatlari iqtisodiy tizimining inqirozga uchrashi oqibatida vujudga keldi. Bu mamlakatlarda shiddatli tarzda ro‘y bergan ijtimoiy-iqtisodiy beqarorliklar, ya’ni iqtisodiy o‘shish sur‘atlari va bandlik darajasining surunkali pasayib borishi, inflatsiya jarayonlarining noxush oqibatlari hamda takror ishlab chiqarishdagi doimiy ravishda vujudga kelib turgan boshqa nomutanosibliklar, makroiqtisodiy muvozanatlikka erishish orqali iqtisodiy o‘shishni zarur qilib qo‘ydi. Bu nazariya iqtisodiy fanlar oldiga «iqtisodiy muvozanatlik» tushunchasining iqtisodiy mazmunini, uni ta’minlashning shart-sharoitlarini va namoyon bo‘lish shakllarini ilmiy nazariy tadqiq qilish vazifasini ham qo‘yadi.

Shu sababli sobiq SSSR hududida vujudga kelgan Mustaqil Hamdo‘stlik Davlatlari iqtisodchi olimlari tomonidan mazkur muammoning nazariy va amaliy tomonlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Bunda, albatta, rossiyalik iqtisodchilar bildirgan fikr va qarashlar ustuvorlikka ega. Biroq, «iqtisodiy muvozanatlik tushunchasi» turli iqtisodchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Ayrimlar, iqtisodiy muvozanatlikni cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish usullari va ularni jamiyat a’zolari o‘rtasidagi taqsimlashning o‘zaro mos kelishi sifatida tavsiflaydi².

«Iqtisodiy muvozanat» tushunchasiga berilgan bu ta’rif quyidagi sabablarga ko‘ra cheklangandir:

birinchidan, unda jamiyat ehtiyojlari bilan milliy ishlab chiqarish imkoniyatlari, ya’ni mavjud iqtisodiy resurslar darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik tushuntirib berilmaydi;

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: «Ўзбекистон», 1998. – Б. 350.

² Қаранг: Экономическая теория: Учебное пособие / Под общ. ред. Н.И. Базылева. – Минск, 2000. – С.126.

ikkinchidan, muvozanatlik resurslardan foydalanish usullari bilan ularning taqsimlanishi o'rtasidagi bog'liqlik sifatida bir tomonlama talqin qilinadi.

Boshqa nazariyotchilar iqtisodiy muvozanatlik milliy iqtisodiyotning shunday bir holatiki, bunda tovarlar va xizmatlarni yaratishda foydalaniladigan cheklangan ishlab chiqarish resurslari va ularni jamiyatning turli a'zolari o'rtasida taqsimlanish jarayoni mos kelishi lozim, ya'ni resurslar va ulardan foydalanish natijalari, ishlab chiqarish va iste'mol, talab va taklif, moddiy buyumlashgan va moliyaviy oqimlar o'rtasida yalpi mutanosiblik mavjud bo'ladi¹, degan fikrni ilgari suradi.

Bizningcha, «iqtisodiy muvozanatlik» tushunchasining mazmuni haqida gapirganda, ishlab chiqarishning natijalari uning pirovard maqsadi «jamiyat ehtiyojlari» bilan bog'langanligiga e'tibor qaratish kerak. Ko'pchilik hollarda makroiqtisodiy muvozanatlikka yuzaki yondashib, umumiy (abstrakt) ta'rif berilsa, ayrim adabiyotlarda unga milliy mahsulot va milliy daromad alohida qismlari, mahsulotlar va daromadlar o'rtasidagi ma'lum bir nisbat (makroiqtisodiy nisbat) sifatida qaraladi².

Ko'pincha iqtisodiy muvozanatlik bozor muvozanatini xarakterlovchi yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi nisbat sifatida ham talqin qilinadi.

Yuqoridagi barcha qarashlarni umumlashtirib, «iqtisodiy muvozanat» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: *iqtisodiy muvozanat – bu makroiqtisodiyot darajasida jamiyat ehtiyojlariga mavjud iqtisodiy resurslar miqdorining va ijtimoiy ishlab chiqarish natijalari hajmi hamda tarkibining o'zaro mos kelishini xarakterlaydi.*

Iqtisodiy muvozanatlik milliy iqtisodiyotning turli darajasidagi (mikro va makro) turli muvozanatlarni qamrab oladi. Shartli ravishda *umumiy va xususiy muvozanatlarni* ajratib ko'rsatish mumkin (*1-chizmaga* qarang). Umumiy muvozanatlik makroiqtisodiy muvozanatni ancha to'liq darajada ifodalaydi.

Umumiy muvozanat – bu jamiyatning barcha ehtiyojlari (aholi, davlat, korxonalar) va milliy ishlab chiqarish real hajmining o'zaro mos kelish darajasini bildiradi. Qiymat ifodasida bu muvozanat yalpi talab va yalpi taklifning nisbati orqali namoyon bo'ladi. Milliy iqtisodiyotda ro'y beradigan barcha o'zgarishlar pirovard natijada yalpi talab va yalpi

¹ Qarang: *Сажина М. А., Чибриков Г. Г. Экономическая теория: Учебник для вузов.* – М., 1998. – С. 267.

² Qarang: *Меньшиков П. Новая экономика.* – М., 1999. – С. 199.

taklifdagi o'zgarishlar orqali ifodalanadi. Yalpi talab tovarlar bozorida taqdim qilingan pirovard tovarlar va xizmatlarga bo'lgan barcha alohida talablar yig'indisidan iborat. Iqtisodiy muvozanatlik yalpi talab va yalpi taklifning tengligini taqozo etsa ham, amaliyotda ularning nisbati o'rtasidagi o'zgarishining mumkin bo'lgan har xil variantlari mavjud bo'ladi. Jumladan:

- yalpi talabning ortishi. Ishlab chiqarish hajmi, milliy daromad va baholarning o'sishi bilan birga boradi;

- yalpi talabning tushishi. Ishlab chiqarish hajmi, milliy daromad va baholarning pasayishi bilan;


- yalpi taklifning ortishi. Ishlab chiqarish hajmining o'sishi bilan birga boradi va baholarning tushishini keltirib chiqaradi;

- yalpi taklifning kamayishi va shunga mos ravishda ishlab chiqarishning qisqarishi, baholarning o'sishiga olib keladi.

Bu barcha shart-sharoitlar ideal holda potensial imkoniyat darajada vujudga keladi. Real hayotda esa umumiy muvozanatlik tarkibiy nomutanosibliklar, resurslardan samarasiz foydalanish, baholarning beqarorligi, iqtisodiy sikl fazalarining o'zgarishi, bozor konyukturasi, bozor subyektlari daromadlari va talabi tarkibidagi o'zgarishlar ta'sirida ta'minlanib boriladi.

Bunday sharoitda umumiy muvozanatlik holatini (yalpi talab va yalpi taklif mos kelishi), turg'un iqtisodiyotdagi shartli umumiy muvozanatlik sifatida qarab chiqishni taqozo etadi. Bu barcha aytilganlardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, umumiy muvozanatlik butun ijtimoiy ishlab chiqarishning, mamlakat milliy iqtisodiyotining mutanosibliigidir. Bu barcha tarmoqlar, sohalar va iqtisodiyot birlamchi bo'g'inlarining bir me'yorda rivojlanishini ta'minlagan, iqtisodiy faoliyatning barcha qatnashchilari, barcha bozorlar va iqtisodiy jarayon munosabatlarining ayrim tomonlari o'rtasidagi barqarorlik xarakteridagi bir qator muvozanatliklar tizimini o'z ichiga oladi.

Bu muvozanatliklarning shakllari turli-tuman bo'lganligi sababli ular alohida holda xususiy muvozanatliklar sifatida chiqadi.



1-chizma. **Makroiqtisodiy muvozanatlik va uning turlari.**

Xususiy muvozanatlik – bu ikkita o‘zaro bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy miqdorlar yoki iqtisodiyot tomonlarining miqdoran teng kelishidir.

Xususiy muvozanatlik ishlab chiqarish va iste‘mol, aholining sotib olish layoqati va tovarlar taklifi budjet daromadlari va xarajatlari, alohida tovarlarga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatliklar ko‘rilganda yuzaga chiqadi. Bu muvozanatliklar ichida Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, « ichki bozorda talab va taklif o‘rtasidagi mutanosiblikka erishish, ya’ni chiqarilgan pul miqdori bilan unga sotib olinadigan mollar salmog‘i o‘rtasidagi nisbatni ta’minlash g‘oyat katta rol o‘ynaydi»¹.

Shunday qilib, iqtisodiy muvozanatlik o‘zining barcha shakllari bilan birgalikda inqirozsiz va ijtimoiy iqtisodiy larzalarsiz rivojlanishni xarakterlaydigan iqtisodiy idealdir. Real iqtisodiy hayotda makroiqtisodiy muvozanatlik talablari turli tuman beqarorliklar ta’sirida buzilib turadi, biroq iqtisodiy muvozanatlik nazariy modelini bilish, real jarayonlarning ularning ideal andozasidan farq qilinishini keltirib chiqaradigan aniq omillarni aniqlash, iqtisodiyotning optimal holatida faol hal qilinishini ta’minlash yo‘llarini topish imkonini beradi.

Iqtisodiy muvozanatlikni aniqlash usullari. Iqtisodiy muvozanatlik erkin raqobat bozorida barcha xaridorlar tengligi, iqtisodiy vaziyat barqarorligi kabi qator shart-sharoitlarni ham taqozo qiladi.

Real hayotda iqtisodiyot doimiy harakatda va to‘xtovsiz rivojlanish holatida bo‘ladi. Iqtisodiy sikl fazalarida, bozor konyukturasi, bozor subyektlari daromadlari va talabi tarkibida o‘zgarishlar ro‘y berib turadi. Bularning hammasi muvozanatli holatni turg‘un iqtisodiyotdagi shartli umumiy muvozanatlik sifatida qarab chiqishni taqozo qiladi. Iqtisodiy muvozanatlik darajasini aniqlashda asosan ikkita o‘zaro bog‘liq usuldan foydalaniladi:

- 1) yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli;
- 2) jamg‘arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli.

Yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash uchun ishlab chiqarish umumiy hajmining miqdoriy ko‘rsatkichi sifatida sof milliy mahsulot (SMM), iqtisodiyotda yalpi sarflar sifatida iste‘mol hajmi va investitsiyalarga sarflarning umumiy summasi (S+1p) olinadi.

Iqtisodiyotning muvozanatli darajasi – bu ishlab chiqarishning shunday hajmiki, u ishlab chiqarish mazkur hajmini sotib olish uchun yetarli umumiy sarflarni ta’minlaydi. Boshqacha aytganda, sof milliy

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: «Ўзбекистон», 1999. – Б. 348.

mahsulot muvozanatli darajasida ishlab chiqarilgan tovarlarning umumiy miqdori (SMM) xarid qilingan tovarlar umumiy miqdoriga (S+Ip) teng bo'ladi. To'liq bandlik sharoitida yalpi sarflar SMM hajmi bilan mos kelmasligi mumkin. Bu mos kelmaslik retsersion yoki inflyatsion farqda ifodalanadi. Yalpi sarflarning SMM hajmidan kam bo'lgan miqdori retsersion, yalpi sarflarning SMM hajmidan ortiqcha bo'lgan miqdori inflyatsion farq deyiladi.

Jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usulining mohiyati shundaki, ishlab chiqarilgan mahsulotning har qanday hajmi shunga mos daromad hajmini beradi. Biroq aholi bu daromadning bir qismini iste'mol qilmasdan jamg'arishga qo'yishi mumkin. Jamg'arish, sarflar – daromadlar oqimidan potensial sarflarni olib qo'yish hisoblanadi. Bunda jamg'armaga qo'yilgan mablag' investitsiyalar bilan to'liq qoplansa, yalpi sarflar ishlab chiqarish hajmiga teng bo'ladi.

Investitsion sarflarning ko'payishi ishlab chiqarish hajmi va daromad darajasining o'sishiga olib keladi. Bu o'zaro natija multiplikator samarasi deyiladi. *Multiplikator samarasi* – bu sof milliy mahsulotdagi o'zgarishning sarflardagi (investitsiyalardagi) o'zgarishga nisbati.

Real SMMdagi o'zgarish

Multiplikator samarasi = _____
investitsion sarflardagi o'zgarish

SMMdagi o'zgarish = multiplikator x investitsiyalardagi o'zgarish.

Agar investitsion sarflarning 5 mlrd. so'mga ko'payishi sof milliy mahsulotning 20 mlrd. so'mga ortishiga olib kelsa, multiplikator samarasi 4 ga (20:5), SMMdagi o'zgarish 20 mlrd. so'mga (4x5) teng bo'ladi. Investitsion sarflardagi o'zgarishdan tashqari iste'mol, davlat xaridi yoki eksportdagi o'zgarishlar ham multiplikator samarasiga ta'sir ko'rsatadi.

Multiplikator samarasi ikkita holatga asoslanadi. *Birinchi*dan, iqtisodiyotda bir subyekt tomonidan qilingan sarf, boshqasi tomonidan daromad shaklida olinadi. *Ikkinchi*dan, daromaddagi har qanday o'zgarish iste'mol va jamg'arishda xuddi shunday yo'nalishda o'zgarish bo'lishiga olib keladi.

Iqtisodiy muvozanatlik darajasini aniqlashda yuqoridagidan tashqari balans usulidan va «xarajat va natija»larni taqqoslash usulidan ham foydalaniladi. Balans usulida tarmoqlararo balans, moddiy, moliyaviy va ishchi kuchi balanslaridan foydalanilib, iqtisodiyotdagi muvozanatlik darajasiga baho beriladi.

«Xarajat va natija»larni taqqoslash usulida ishlab chiqarishga qilingan iqtisodiy resurs xarajatlari miqdori olingan mahsulot hajmi bilan taqqoslanib, muvozanatlik darajasi tahlil qilinadi.

Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari. Milliy iqtisodiyotdagi muvozanatlik uning turli tomonlari va sohalari o'rtasida mutanosiblik bo'lishini taqozo qiladi.

Iqtisodiy mutanosiblik – iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasida miqdor va sifat jihatdan ma'lum moslik bo'lishidir. Bunda tenglik bo'lishi shart emas. Ular mos keluvchi (2:3, 5:3, 3:1) nisbatlarida bo'lishi mumkin.

Makroiqtisodiy jarayon g'oyat murakkab va ko'p qirrali bo'lgani sababli mutanosiblik turlari ham ko'p va xilma-xil. Ularning barchasini umumlashtirib, mutanosiblikning quyidagi guruhlarini tarkibiga kiritish mumkin:

1. Umumiy iqtisodiy xarakterdagi mutanosibliklar. Bunga milliy daromadagi tarkibiy qismlar: iste'mol fondi va jamg'arish fondi, iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar massasi bilan pul massasi, aholining daromadlari bilan xarajatlar o'rtasidagi mutanosibliklarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

2. Tarmoqlararo mutanosibliklar. Milliy iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlashda tarmoqlararo mutanosibliklar alohida o'rin tutadi. Mamlakat xalq xo'jaligi juda ko'p tarmoq va sohalardan iborat bo'lib, ularning rivojlanishi bir-birini taqozo qiladi. Bir tarmoqda yaratilgan mahsulot boshqa tarmoqda iste'mol qilinadi yoki pirovard mahsulotga aylantirilib, o'z iste'molchisini topadi. Masalan, qishloq xo'jalik mahsulotlarining ko'pchilik qismi (paxta, g'alla, pilla, sut va h.k.) sanoatning tegishli tarmoqlarida qayta ishlanib, pirovard mahsulotga aylantiriladi va iste'molchilik tovarlari bozoriga chiqariladi. O'z navbatida sanoatning ishlab chiqarish vositalari yaratadigan sohasining mahsulotlari xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari (qishloq xo'jaligi, qurilish va h. k.)da unumli iste'mol qilinadi. Bu ularning bir-biriga bog'liqlikda rivojlanishini taqozo qiladi. Tarmoqlararo mutanosibliklarga sanoat bilan qishloq xo'jaligi va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari o'rtasidagi mutanosibliklar misol bo'ladi.

3. Tarmoq ichidagi mutanosibliklar. Tarmoqlararo mutanosiblik va milliy ishlab chiqarish darajasidagi muvozanatlik tarmoqlar ichidagi mutanosiblik orqali ta'minlanadi. Tarmoqlar ichidagi mutanosiblik alohida olingan tarmoq tarkibidagi soha va ishlab chiqarishlar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Masalan, sanoatning ishlab chiqarish vositalari va

iste'mol buyumlari ishlab chiqaradigan sohalari, qishloq xo'jaligining dehqonchilik va chorvachilik sohalari o'rtasidagi mutanosibliklar va h. k. Shu bilan birga, ta'kidlab o'tilgan sohalarning ichidagi tarkibiy bo'linmalar o'rtasida ham bog'liqlik bo'lishi zarur. Masalan, sanoatning qazib olish va qayta ishlash tarmoqlari, chorvachilikning sut va go'sht ishlab chiqarish sohalari o'rtasida va boshqalar.

4. Hududiy (territorial) mutanosibliklar. Iqtisodiy rivojlanish mamlakat ayrim hududlari o'rtasidagi bog'liqlikni ham taqozo qiladi. Yuzaki qaraganda hududlar o'rtasidagi mutanosibliklarning mamlakat iqtisodiy rivojidadagi roli to'liq namoyon bo'lmaydi. Lekin alohida hududiy bo'linmalar (viloyat, tuman, shahar va boshqa hududiy birliklar)ning bir-biriga iqtisodiy va tashkiliy jihatdan bog'liqligi, ixtisoslashish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va kommunikatsiya nuqtai nazaridan qaralsa, bu bog'liqlikning ahamiyati yaqqol ko'rinadi.

5. Davlatlararo mutanosibliklar. Bu mutanosiblikni ikki holat taqozo qiladi. *Birinchidan*, dunyoning ko'pchilik mamlakatlari xalqaro mehnat taqsimoti orqali bir-biri bilan bog'langan, *ikkinchidan*, shu bog'liqlik orqali milliy ishlab chiqarishning bir qismi chet elliklar tomonidan xarid qilinadi yoki milliy ishlab chiqaruvchilar o'z iste'molining bir qismini chetdan keltirilgan mahsulotlar hisobiga qondiradi. Bu bog'liqlik qanchalik katta bo'lsa, sof eksport hajmi orqali makroiqtisodiy muvozanatlikka shunchalik kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Qarab chiqilgan mutanosibliklarga erishish orqali milliy ishlab chiqarishning muvozanatli rivojini ta'minlab borishdan quyidagilar ko'zda tutiladi:

- mamlakatda mavjud bo'lgan iqtisodiy resurslardan samarali foydalangan holda jamiyatning ehtiyojlarini to'laroq qondirib borish;
- to'la bandlikka erishish, ya'ni mehnat qilishga layoqatli bo'lgan va ishlashni xohlaganlarni to'liq va samarali ish bilan ta'minlash;
- narx-navoning nisbiy barqarorligiga erishish va uni inflatsiya ta'siridan xoli qilish;
- iqtisodiyotning bir maromda o'sib borishini yetarli darajada investitsiya bilan ta'minlash va muomaladagi pul massasiga bog'lab borish;
- eksport va importni muvofiqlashtirish asosida tashqi savdo balansining faolligiga erishish.

Bu maqsadlar faqat ularga intilish bo'lib, bunga erishish muqarrar ekanligini bildirmaydi. Chunki mutlaq muvozanatga erishish mumkin emas, u buzilib va qaytadan tiklanib turishi orqali iqtisodiy o'sish notekis boradi.

O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirish vazifalari. Iqtisodiyotni butunlay yangi tartiblar asosida isloh qilish uning rivojida nomutanosibliklar bo'lishi va tanglik holatlarning kelib chiqishini muqarrar qilib qo'yadi. Shu sababli iqtisodiyotni barqarorlashtirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida uni jonlantirish va bir tekis rivojlantirish yo'lidagi qonuniy bosqichdir. U iqtisodiy rivojlanishda butunlay inqirozga uchrashga chap berish uchun ishlab chiqarish va chiqarilayotgan mahsulot tarkibini o'zgartirishga, ya'ni tanglik holatlariga barham berishga yo'naltiriladi. Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki davrida barqarorlashtirish siyosatidan ko'zda tutilgan maqsad, eng avvalo, makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarish keskin darajada pasayishining oldini olish va ommaviy ishsizlikning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat bo'ldi. Shu bilan birga, bu siyosat pul emissiyasini boshqarish, uning qadrsizlanishining oldini olish, mamlakat to'lov balansini bir me'yorda saqlash kabi maqsadlarni ham o'z ichiga oladi.

Respublikada barqarorlashtirish siyosatini ishlab chiqishda jahon tajribasida sinalgan yondashuvlar hisobga olinib, ishlab chiqarish sohalariga ustunlik berildi. «Barqarorlashtirish siyosati, – degan edi Prezident Islom Karimov, – eng avvalo, bu makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin darajada pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslikdir. Shuningdek, u pul qadrsizlanishining, pul emissiyasining boshqarilishini ta'minlash, to'lov balansini bir me'yorda saqlash sohasida aniq maqsadni ko'zlab olib boriladigan siyosatdir». Moddiy ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishida ularni tarkiban qayta qurish talablari ham ko'zda tutildi. Bunda asosiy e'tibor katta istiqbolga ega bo'lgan, butun xalq xo'jaligining rivojlanish tamoyillarini belgilab beradigan yetakchi tarmoq va sohalarga qaratildi.

Iqtisodiyotda zarur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirguncha ishlab chiqarishning orqaga ketishiga barham berish eng muhim maqsad bo'lib qoladi. Shu sababli respublikada 90-yillarning o'rtalaridayoq makroiqtisodiy barqarorlik sohasida ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishini sekinlashtirishga moyillik ko'zga tashlanadi, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha esa o'sishga erishildi. Iqtisodiyotning ikkita yetakchi tarmog'i – sanoat va qishloq xo'jaligini isloh qilish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlar natijasida sanoatda 1995-yildayoq qishloq xo'jaligida, 1997-yilda ishlab chiqarishning orqaga ketishi to'xtatilganini eslash lozim.

Makroiqtisodiy barqarorlik siyosatida 1997-yil keskin burilish davri bo'ldi, islohotlar amalga oshirilgan davr davomida birinchi marta yalpi ichki mahsulotning o'sishi (105,2 foiz) aholi sonining o'sishidan (101,8 foiz) yuqori bo'ldi¹. Bu ijobiy tamoyillar 1998 va undan keyingi yillarda mustahkamlab borildi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan modernizatsiya strategiyasi bugunga kelib izchil iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minladi. Ushbu strategiya iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlashga, mamlakatimiz eksport salohiyatini mustahkamlashga, iqtisodiy subyektlarni soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarga, aholining bandlik muammosini hal etishga yo'naltirilgan tadbirlarga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga, oqilona investitsiya siyosati natijasida so'nggi yillarda amalga oshirilgan investitsion loyihalarga, amalga oshirilayotgan oqilona pul-kredit siyosatiga, yerlarimizning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga, iqtisodiyotning moliya-bank sektorini mustahkamlashga, mahalliy lashtirish dasturini amalga oshirishga qaratildi.

Respublika milliy iqtisodiyotida erishilgan bu ijobiy natijalar, tarkibiy qayta qurishlar asosida butunlay yangi xalq xo'jalik majmuining bunyod etilganligi, birinchi navbatda, eng muhim makroiqtisodiy va takror ishlab chiqarish nisbatlarini davlat tomonidan samarali tartibga solishning natijasi hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi, hududlarning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishga qaratiladi. Tarkibiy siyosatning hududiy jihatlarini ta'minlash odamlar turmush darajasida vujudga kelgan hududiy nomutanosiblikni bartaraf etish, resurslar va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Respublika iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishini qayta qurishda ishlab chiqarilayotgan mahsulot turini o'zgartirish, uning sifatini yaxshilash va mahsulot tayyorlashga ketadigan jami xarajatlarni kamaytirish talablari ham hisobga olinadi. Iqtisodiyot tuzilishidagi o'zgartirishlar, chetdan mahsulot olib kelishni qisqartirish, xalq xo'jaligining xom ashyo yetishtirishga qaratilgan bir tomonlama yo'nalishini bartaraf etish va uning eksport imkoniyatini kengaytirish, tarmoqlar ichidagi va hududiy jihatdan vujudga kelgan nomutanosibliklarni bartaraf etish asosida iqtisodiyotning mutanosib va barqaror rivojlanishini ta'minlash vazifalarini hal etish bilan bog'liqlikda amalga oshirildi. Shu vazifalardan

¹ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining ma'lumotlari.

kelib chiqib, iqtisodiyot ichki tuzilishidagi o'zgarishlar – respublikaning energetika va oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlovchi tarmoqlarni rivojlantirishga qaratildi. Bunda, birinchi navbatda, eng muhim o'zak tarmoqlarni – neft va gaz sanoatini, energetikani, rangli metallurgiya sanoatini, mashinasozlik majmuini, qishloq xo'jalik va agrosanoat majmuining boshqa sohalarini rivojlantirishga ustunlik beriladi.

Xalq xo'jaligining takror ishlab chiqarish tuzilishini tubdan o'zgartirish asosida umumiy iqtisodiy barqarorlikka erishishda iste'mol bilan jamg'arish fondi o'rtasidagi eng maqbul mutanosiblikni ta'minlash asosiy o'rin tutadi. Iste'mol fondining eng maqbul darajasiga erishish – ichki bozorda talab bilan taklif o'rtasida mutanosiblikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli davlat eng muhim makroiqtisodiy takror ishlab chiqarish nisbatlarini tartibga solib turuvchi omillarga ko'proq e'tibor berdi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiyotni barqarorlashtirish muammosini hal etishda ishlab chiqarish infratuzilmasining muhandislik kommunikatsiyalari, transport va aloqa tizimi singari tarmoqlarini ustuvor rivojlantirishga ham alohida e'tibor beriladi.

Nomoddiy ishlab chiqarish sohasida tarkibiy qayta qurishlar faol investitsiya siyosatini o'tkazish orqali amalga oshirildi. Shu sababli respublika investitsiya bazasini rivojlantirishga katta e'tibor berilib, bunda o'z sarmoyalarimiz, tashqi kreditlar, bevosita investitsiyalar va ularning barcha manbalaridan o'rinli foydalanish ko'zda tutildi. Tashqi investitsiyalarni jalb qilishda bevosita investitsiyalar tarzida, davlat qarzlari, xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar, qarz beruvchi mamlakatlar moliyaviy-kredit resurslari shakllarida amalga oshirish mumkinligi hisobga olinadi.

Shunday qilib, respublikada iqtisodiy islohotlar davomida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini qayta qurish vazifalariga aholining real turmush darajasini yaxshilash uchun zaruriy shart-sharoitlarni vujudga keltirish sifatida qaraldi. Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o'tkazish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish tomon yo'l tutilgan hozirgi sharoitda ham «iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish»¹ iqtisodiyot sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

¹ *Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т. 8. – Т.: «Ўзбекистон», 2000. – Б. 15.*

Bu, o'z navbatida, boy tabiiy zaxiralarimiz, mineral xom ashyo, mehnat resurslarimiz, intellektual hamda ilmiy texnikaviy salohiyatimizdan to'liq va samarali foydalanishni taqozo etadi. Tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish mahalliy xom ashyo va tabiiy imkoniyatlar asosida ishlaydigan, ilg'or zamonaviy texnologiyalarni joriy etgan holda, nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham raqobatga bardosh beradigan mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga qaratilishi zarur.

Yangi bosqichda xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, ularning iqtisodiyotdagi o'rmini kuchaytirishga alohida e'tibor beriladi. Chunki, bu soha yangi ish joylarini yaratishning muhim omili bo'lishi bilan birga, aholi turmush darajasining o'sishi, uning rivojlanish darajasiga bog'liq.

3. Iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari va ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiyaning ahamiyati

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko'p omilli va shu bilan birga ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi.

Shu ayonki, har qanday jamiyatda o'sib borayotgan ehtiyojlarni qondirish va farovon yashash uchun iqtisodiy o'sish yuz berishi kerak. Iqtisodiy o'sish deganda, iqtisodiy ravnaq, ya'ni iqtisodiyotning dinamik rivojlanishi bo'lib, yaratilgan tovarlar va xizmatlarning ko'payib borishini anglatadi. Ammo iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi. Iqtisodiy o'sishni ikki darajada olib qarash mumkin.

Mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy o'sish. Mikroiqtisodiy o'sish firma, korxonalar va tarmoq miqyosidagi rivojlanishni aks ettiradi va ularda o'sish yaratilgan tovarlar va xizmatlarning bozor narxida hisoblangan hajmiga qarab aniqlanadi. Makroiqtisodiy o'sish milliy iqtisodiyot, ya'ni muayyan mamlakat miqyosidagi iqtisodiy taraqqiyotni ifoda etadi va yalpi milliy mahsulotning (YAMM) ko'payishini bildiradi. YAMM hajmi iqtisodiy o'sishning umumlashgan pulda ifodalangan ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, iqtisodiy rivojlanish o'z ichiga yuksalish va inqiroz davrlarini, iqtisodiyotdagi miqdor va sifat o'zgarishlarini, ijobiy va salbiy tomonlarni olib, notekis boradi. Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo'lganligi sababli, uning mezonlaridan biri bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'proq tahlil qilinadi.

Iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi bo'lib, o'z ifodasini real YAMM (YAIM) hajmining va uning aholi jon boshiga

ko'payishida topadi. Shuni aniq tasavvur qilish kerakki, mahsulotlar va xizmatlar g'oyat xilma-xil bo'lganidan ularning yagona moddiy o'lchami bo'lmaydi. Yagona o'lcham vazifasini bozor narxi bajaradi. Qanday ish bajarilmasin, qanday mahsulot yaratilmasin, uning hajmi falon pulga teng deb hisoblanadi. Shu sababli YAMM ham ikki usulda hisoblanadi. *Birinchi usulda* xarajatlar jamlanadi, ya'ni barcha iste'molchilarning tovar va xizmatlarni sotib olishga sarflangan puli jamlanadi. *Ikkinchi usulda* – tovar va xizmatlarni sotishdan tushgan pul daromadlari jamlanadi. Iqtisodiy o'sish esa, YAMMning real hajmi bilan o'lchanadi. Gap shundaki, uning qiymat – pul shakli narxlarga bog'liq. YAMMning moddiy hajmi o'smasa-da, inflatsiya ta'sirida narx oshsa, uning qiymat-pul miqdori ortib ketadi. Iqtisodiy o'sishga tarixiy jihatdan yondashilganda, u bir xil sur'atlarda va bir tekis bormaydi. Tarixda iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashish, jiddiy pasayish va hatto cheklanish davrlari ma'lum. Agar katta tarixiy bosqichlar olib qaraladigan bo'lsa, jahon va milliy iqtisodiyotda, barqaror iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarishning har tomonlama taraqqiyot manzarasi hosil bo'ladi. Shu bilan birga iqtisodiy o'sish nafaqat miqdor, balki muayyan sifat o'zgarishlari shaklida ham namoyon bo'ladi. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: «Iqtisodiy rivojlanish sur'atlari haqida gapirganda ... uning mezonlariga va eng avvalo, sifat ko'rsatkichlariga ko'proq e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'sishlar iqtisodiyotimizda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, uning izchil va barqaror rivoji uchun xizmat qilishi, xalqimizning hayot darajasini yuksaltirishga, bir so'z bilan aytganda, amaliy hayotimizni yaxshilashga olib kelishi lozim».

Shunday ekan, **iqtisodiy o'sish bevosita yalpi milliy mahsulot miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatining yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi.**

Mahsulotning o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun mavjud korxonalar bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati ishchi kuchining soni hamda malaka tarkibi bo'yicha xuddi o'shanday yana bir korxonalar quriladi. *Ekstensiv* rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish: yanada progressivroq ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa oshirish uchun mavjud korxonaga teng bo'lgan yana bir korxonani qurishga hojat yo'q. Bu natijaga ishlab turgan korxonani rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta qurollantirish, mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga erishish mumkin. Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda, alohida-alohida mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikda, bir-biri bilan qo'shilgan tarzda bo'ladi. Shu sababli ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o'sish turlari tahlil qilinadi.

Iqtisodiy o'sish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Shu sababli uni baholash uchun qandaydir bitta ko'rsatkich kifoya qilmaydi, muayyan ko'rsatkichlar tizimi talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlar tizimida jismoniy va qiymat ifodasidagi ko'rsatkichlar farqlanadi.

Iqtisodiy o'sishning jismoniy ko'rsatkichlari ancha aniq natija beradi, (chunki ular inflatsiya ta'siriga berilmaydi), lekin universal emas (iqtisodiy o'sish sur'atlarini hisoblashda har xil ne'matlar ishlab chiqarishni umumiy ko'rsatkichga keltirish qiyin). Qiymat ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi, ammo har doim ham uni inflatsiyadan to'liq «tozalash» mumkin bo'lavermaydi. Shu sababli iqtisodiy o'sish sur'atlari qiyosiy yoki doimiy narxlarda hisoblanadi.

Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy o'sishning asosiy qiymat ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

1) YAMM (IMM) yoki milliy daromadning mutlaq hajmi va uning o'sish sur'ati;

2) YAMM (IMM) yoki milliy daromadning aholi jon bosh hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'sish sur'ati;

3) YAMM (IMM) yoki milliy daromadning iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'sish sur'ati.

Iqtisodiy o'sishni aniqlashda har uchala ko'rsatkichdan ham foydalanish mumkin, lekin ularning ahamiyati turlicha. Masalan, agar diqqat markazida iqtisodiy potensial muammosi tursa, birinchi

ko'rsatkichdan foydalanish ko'proq mos keladi. Alohida mamlakat va regionlardagi aholining turmush darajasini taqqoslashda, ko'proq ikkinchi ko'rsatkichdan foydalaniladi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda uchinchi ko'rsatkichga ustuvorlik beriladi.

Odatda iqtisodiy o'sish foizda o'sishning yillik sur'ati sifatida aniqlanadi. Masalan, agar o'tgan yili real YAMM 60 mlrd. so'mni va joriy yilda 70 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, o'sish sur'atini joriy yildagi real YAMMning bazis davrdagi hajmiga bo'lish yo'li bilan aniqlash mumkin. Bu holda o'sish sur'ati 16,6 foiz ni $(70/60 \cdot 100)$ tashkil qiladi.

Mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini xarakterlaydigan ko'rsatkichlar (real YAMM va aholi jon boshiga real YAMMning o'sishi) miqdoriy ko'rsatkichlar bo'lib, ular:

– *birinchidan*, mahsulot sifatining oshishini to'liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy o'sishini to'liq xarakterlab berolmaydi;

– *ikkinchidan*, real YAMM va aholi jon boshiga YAMMning o'sishi bo'sh vaqtning sezilarli ko'payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko'rsatilishiga olib keladi;

– *uchinchidan*, iqtisodiy o'sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof-muhitga va insonning hayotiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi.

Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini xarakterlovchi ko'rsatkichlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, mehnat unumdorligi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda massasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

a) ishlab chiqarish vositalarining rivojlanish darajasi, ya'ni uning unumdorligi;

b) xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi;

c) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat;

d) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

Iqtisodiy o'sishning jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan boshqa ko'rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi hisoblanadi. U tarmoqlar bo'yicha hisoblab chiqilgan YAMM ko'rsatkichi asosida tahlil qilinadi.

O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti tarmoqlari bo‘yicha YAIM ulushining o‘zgarishi (joriy baholarda YAIMga foiz hisobida)¹

Tarmoqlar	1990-yil	2000-yil	2010-yil	2011-yil
Jami	100	100	100	100
Sanoat	17,6	14,2	24,0	24,1
Qishloq xo‘jaligi	33,4	30,1	17,5	15,5
Qurilish	5,8	6,0	6,4	–
Transport va aloqa	5,2	7,7	12,4	–
Savdo	4,5	10,8	9,0	–
Boshqa sohalar	22,2	18,7	23,7	–
Sof soliqlar	11,3 ¹	12,5	7,0	5,0

Mahsulotlarga markazlashgan subsidiyalardan tashqari.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.

Bunda xalq xo‘jaligining yirik sohalarini, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasidagi nisbat ham o‘rganiladi.

Investitsiyalar sarflarining ikkinchi tarkibiy qismi hisoblanadi. Investitsiyalar darajasi jamiyat milliy daromadi hajmiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi, milliy iqtisodiyotdagi ko‘plab mutanosibliklar uning o‘sish sur‘atiga bog‘liq bo‘ladi. Investitsiyalar mamlakat miqyosida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish obyektlari qurish, stanok, uskuna va shu kabi uzoq muddatli foydalaniladigan asosiy kapitallarni sotib olish, ishga tushirish bilan bog‘liq sarflarni bildiradi.

Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni ko‘paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga pul shaklidagi qo‘yilmadir. U pul mablag‘lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Investitsiyalarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha amaliy harakatlar – investitsion faoliyat, investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs – investor deyiladi.

Investitsiya faoliyati quyidagi manbalar hisobiga amalga oshirilishi mumkin:

¹ Jadval O‘zbekiston Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

- investorlarning o‘z moliyaviy resurslari (foйда, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg‘armalari va h.k.);
- qarz olingan moliyaviy mablag‘lar (obligatsiya zayomlari, bank kreditlari);
- jalb qilingan moliyaviy mablag‘lar (aksiyalarni sotishdan olingan mablag‘lar, jismoniy va huquqiy shaxslarning pay va boshqa to‘lovlari);
- budjetdan investitsiyalarni moliyalashtirish.

Investitsiyalarning manbalaridan biri aholi keng qatlamlari (ishlovchilar, o‘qituvchilar, shifokorlar va boshqalar) jamg‘armasi hisoblanadi. Muammo shundan iboratki, jamg‘arma xo‘jalik yurituvchi bir guruh tomonidan amalga oshiriladi, investitsiyalar esa shaxslar yoki xo‘jalik yurituvchi subyektlarning butunlay boshqa guruhi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. O‘z-o‘zidan aniqki, investitsiyalar manbai bo‘lib iqtisodiyotda faoliyat qiluvchi sanoat, qishloq xo‘jalik va boshqa korxonalar foydasi ham hisoblanadi. Bu yerda «jamg‘aruvchi» va «investor» bir-biriga to‘g‘ri keladi.

Investitsiyalarga qilinadigan sarflarning harakatlantiruvchi motivi *foйда* hisoblanadi. Tadbirkorlar ishlab chiqarish vositalarini qachonki ular foyda keltiradigan bo‘lsa, sotib oladi.

Investitsiyalar darajasini belgilaydigan ikkinchi omil *foizning real stavkasi* hisoblanadi. Foiz stavkasi bu – real asosiy kapitalni sotib olish uchun zarur bo‘lgan band qilingan pul kapitaliga korxonaga to‘lashi zarur bo‘lgan pul miqdori hisoblanadi. Agar kutilayotgan sof foyda normasi (10 foiz) foiz stavkasi (7 foiz)dan ortiq bo‘lsa, investitsiyani amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Aksincha, foiz stavkasi (aytaylik, 12 foiz) kutilayotgan sof foyda normasidan (10 foiz) ortiq bo‘lsa, investitsiyalash samarasiz hisoblanadi. Investitsiya darajasiga kutilayotgan sof foyda normasi va foiz stavkasidan tashqari boshqa quyidagi omillar ham ta‘sir ko‘rsatadi:

- 1) mashina va uskunalarni xarid qilish, foydalanish va ularga xizmat ko‘rsatish xarajatlari;
- 2) tadbirkorlardan olinadigan soliq miqdori;
- 3) texnologik o‘zgarishlar.

Iqtisodiy o‘rishni ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o‘rin tutadigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratildi.

Mamlakatimizda 2005-yildan keyingi, ya‘ni ikki palatali parlament faoliyati davrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muhim

tarmoqlaridan biri bo'lgan kasanachilikni hukumat dasturi asosida rivojlantirishga keng yo'l ochildi. Kasanachilikning do'ppido'zlik, tikuvchilik (ishchi kiyimlari, qo'lqop, chopon singari), temirchilik, gilamdo'zlik kabi hunarmandchilik sohalari kengaydi. Birgina «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi» yilida ko'rilgan amaliy choralar natijasida mamlakatimizda 940 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi, ularning 500 mingga yaqini qishloq joylarida tashkil etildi. Kichik biznes sohasida 390 mingdan ziyod, shu jumladan, xizmat ko'rsatish sohasida 270 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari ochildi.

Keyingi yillarda bizning eksport sohasida qo'lga kiritgan yutuqlarimiz, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda biz uchun mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o'z vaqtida boshlangan, chuqur o'ylangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ishlarimizning natijasidir. Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash kerakki, o'zlashtirilgan barcha investitsiyalarning qariyb 54 foizini korxonalar va aholi mablag'lari tashkil etadi. Bu mamlakatimizda soliq yukini kamaytirish va xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya faolligini rag'batlantirish bo'yicha olib borilayotgan soliq siyosati qanchalik to'g'ri ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

3-jadval

2005–2009-yillarda investitsiyalarni moliyalashtirish tarkibidagi o'zgarishlar (foizda)

Moliyalashtirish manbalari	2005-y.	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.
Davlat budjeti	12,7	10,7	9,0	9,0	8,1
Chet el investitsiyalari	19,2	19,0	22,8	25,8	32,4
Korxonalar va aholi mablag'lari	60,3	60,0	59,0	53,9	46,9
Boshqa manbalar	7,8	10,3	9,2	11,3	12,6

Iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish borasida strategik muhim rol o'ynaydigan loyihalarni amalga oshirish, birinchi navbatda, ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirishda 2006-yilda tashkil etilgan, bugungi kunda 3 milliard 200 million AQSh dollaridan ortiq nizom jamg'armasiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi faoliyatiga katta ahamiyat berildi. Mamlakatimiz bo'yicha investitsiya dasturlarini amalga oshirish natijasida qariyb 250 milliard so'mlik asosiy fondga ega bo'lgan jami 423 ta obyekt, jumladan, oziq-ovqat sanoatida 145 ta, qurilish materiallari sanoatida 118 ta, yengil va to'qimachilik sanoatida 65 ta, qishloq va o'rmon xo'jaligi sohasida 58 ta, kimyo va neft-kimyo sanoatida 13 ta, farmatsevtika tarmog'ida 8 ta obyekt ishga tushirildi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining dastlabki 2009-yili davomida nihoyasiga yetkazilgan strategik loyihalar

Loyiha obyekti	Loyihaning qisqacha mazmuni
«Farg'onaazot» korxonasi	Ammiak agregatlarini rekonstruksiya qilish
«Maksam-Chirchiq» korxonasi	
Namangan shahridagi yengil avtomobillar uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarish zavodi	Yengil avtomobillar uchun fara va chiroqlar ishlab chiqarish
Buxoro shahridagi «DEU tekstil» to'qimachilik majmui	Paxta tolasini qayta ishlash asosida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish
«Gazli» qo'shimcha kompressor stansiyasi	Gaz mahsulotlarini iste'molga tayyorlash va ishlov berish jarayonlarini ta'minlash
«Qo'ng'iroq» kompressor stansiyasi	
Turkmaniston-O'zbekiston-Qozog'iston-Xitoy transmilliy magistral gaz quvuri	Turkmanistondan O'zbekiston hududi orqali Xitoyga o'tadigan gaz quvurini tortish ishlari
«Yangi Angren-O'zbekiston» LEP-500 elektr uzatish tarmog'i	Mamlakat hududlarini elektr energiyasi bilan ta'minlash
«G'uzor-Surxon» yuqori voltli elektr uzatish tarmog'i	
«Ohangaron-Pungon» magistral gaz quvuri	Mamlakat hududlarini tabiiy gaz bilan ta'minlash

Bundan tashqari, hududlarimizda, avvalo, qurilish materiallari sanoati, oziq-ovqat, yengil sanoat va boshqa tarmoqlarda kichik biznes

sohasida faoliyat olib boradigan 480 dan ortiq yangi ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi. Iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va xalqimiz farovonligini oshirishda mamlakatimiz hududlarida ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida mamlakatimizda yagona elektr va gaz tarmog'i tizimlarini tashkil etish ishlari asosan yakunlandi. Bu esa Farg'ona vodiysi va O'zbekiston janubida yashaydigan aholini tabiiy gaz va elektr energiyasi bilan ishonchli ta'minlash, shuningdek, elektr energiyasi eksport qilishni sezilarli ravishda oshirish imkonini beradi.

O'zbekistonning investitsiya siyosati. Makroiqtisodiy barqarorlikka erishilishi, iqtisodiy va institutsional islohotlarning chuqurlashtirilishi hamda mamlakatimizda investitsiya muhitining yaxshilanishi investitsiya faolligining sezilarli darajada kuchayishiga va iqtisodiyotimizga yo'naltirilayotgan kapital qo'yilmalar hajmining 2010-yilda 1990-yildagiga nisbatan 11,6 barobar o'sishi uchun imkon berdi. Ayniqsa, moliyalashtirish manbalari bo'yicha investitsiyalar tarkibida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Iqtisodiyotimizdagi ancha yuqori o'sish sur'atlari hisobidan markazlashmagan manbalar, birinchi navbatda, xususiy va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ulushi ortib bormoqda.

4-jadval

Kapital qo'yilmalar dinamikasi va tarkibi

	Kapital qo'yilmalar (million dollar)			Kapital qo'yilmalar tarkibi (foiz)		
	1990- yil	2000- yil	2010- yil	1990- yil	2000- yil	2010- yil
Kapital qo'yilmalar	833,8	3142,5	9712,7	100	100	100
Shu jumladan						
Davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar mablag'lari va boshqa markazlashtirilgan manbalar	386,1	958,1	1266,6	46,3	30,5	13
Markazlashmagan investitsiyalar	447,7	1456,9	5621,6	53,7	46,3	57,9
Korxonalar mablag'lari	342,7	852,9	3124,4	41,1	27,1	32,2
Aholi mablag'lari	105,0	376,6	1554,2	12,6	12,0	16

Bank kreditlari va boshqa kredit mablagʻlari	–	227,4	943,0	–	7,2	9,7
Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	–	727,5	2824,5	–	23,2	29,1
Shu jumladan, toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar	–	105,2	2454,7	–	3,4	25,3

Agar 1990-yilda mamlakatimizning investitsiya portfelida xorijiy investitsiyalar deyarli mavjud boʻlmagan boʻlsa, 2000-yilda investitsiya va kreditlarning ulushi 23,2 foizni, jumladan, hukumat kafolati bilan jalb etilgan xorijiy investitsiya va kreditlar 19,8 foizni, toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar esa 3,4 foizni tashkil qildi. Xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay biznes muhiti, keng huquqiy kafolat va imtiyozlar tizimi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni ragʻbatlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui mamlakatimiz iqtisodiyotiga toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar oqimini tubdan koʻpaytirish imkonini berdi. Natijada 2010-yilda xorijiy investitsiyalarning jami kapital qoʻyilmalar tarkibidagi ulushi 29,1 foizni, jumladan, toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar 25,3 foizni va hukumat kafolati ostidagi investitsiyalar 3,8 foizni tashkil etdi.

5-jadval

Iqtisodiyot tarmoqlari boʻyicha kapital qoʻyilmalar tarkibi (foiz hisobida)

	1990-yil	2000-yil	2010-yil
Jami	100	100	100
Ishlab chiqarish tarmoqlari boʻyicha	58,3	57,5	73,5
Yoqilgʻi-energetika	5,2	7,6	11,8
Metallurgiya	0,1	2,7	5,5
Kimyo va yoqilgʻi-kimyo	1,4	7,9	1,2
Mashinasozlik	3,6	4,1	3,4
Yengil sanoat	2,5	2,4	2,5
Oziq-ovqat sanoati	2,3	2,5	1,7
Qurilish materiallari	1,7	0,3	2,5
Qishloq xoʻjaligi	26,7	5,7	3,5
Transport va aloqa	5,4	16,8	29,9
Boshqa sohalar	9,4	7,5	11,5
Noishlab chiqarish tarmoqlari boʻyicha	41,7	42,5	26,5

Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi.

Agar 1990-yilda iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalarning 46 foizdan ortig‘i davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar va boshqa markazlashgan manbalar mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, 2010-yilda markazlashgan moliyalashtirish manbalarining jami kapital qo‘yilmalar hajmidagi ulushi 13 foizga tushdi. Bu jarayonda davlat budjeti va boshqa markazlashgan manbalar hisobidan yo‘naltirilgan umumiy investitsiyalar hajmi 3,3 barobardan ziyod ortdi.

1990–2010-yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasidagi aniq maqsadga yo‘naltirilgan siyosat natijasi sifatida ishlab chiqarishga jalb qilingan investitsiyalarning ulushi o‘shib, umumiy kapital qo‘yilmalar hajmidagi 58,3 foizdan 73,5 foizga yetdi. Faol investitsiya siyosati iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. O‘zbekistonning investitsiya strategiyasida yangi va yuksak texnologiyalarga asoslangan, ilg‘or texnologiyalar bilan jihozlangan va xom ashyo resurslarimizni chuqur qayta ishlashni ta‘minlaydigan, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o‘rinlari yaratishga yo‘naltirilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

1990–2010-yillar davomida investitsiyalar tarkibida yoqilg‘i-energetika sohasini (5,2 foizdan 11,8 foizga), transport va aloqa sohasini (5,4 foizdan 29,9 foizga) hamda metallurgiya sohasini (0,1 foizdan 5,5 foizga) rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushi ortdi. Yangi ishlab chiqarish obyektlarini tashkil etish hamda mavjud ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish uchun mashinasozlik, metallurgiya, kimyo va yoqilg‘i-kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati sohalariga yirik kapital qo‘yilmalar yo‘naltirildi, bu esa iqtisodiyotga jalb qilingan kapital qo‘yilmalar tarkibida ushbu tarmoqlar ulushining sezilarli darajada oshishiga olib keldi.

Yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan yuksak texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda jahondagi eng yirik va mashhur AQShning «Jeneral Motors», «Teksako», Germaniyaning «MAN», «Daymler Bens», «Klaas», Buyuk Britaniyaning «BAT», Ispaniyaning «Maksam», Yaponiyaning «Isuzu», «Ito-chu», Malayziyaning «Petronas», Koreyaning «Korean Eyr», «CNOS», «LG», Xitoyning «CNPC», Rossiyaning «Lukoil», «Gazprom» kabi kompaniyalari, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki singari yirik xalqaro moliya tashkilotlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va bir qator arab davlatlarining investitsiya banklari mamlakatimizning asosiy hamkorlari bo‘lmoqda.

Investitsiya va sanoat sohasidagi faol siyosat natijasi sifatida mustaqillik yillarida yurtimizda yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar ishlab chiqaradigan yangi avtomobil zavodlari tashkil etildi. Jahondagi yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Shoʻrtan gaz-kimyoy majmuasi, Qoʻngʻirot soda zavodi, oʻnlab toʻqimachilik majmualari barpo etildi.

Iqtisodiyotning yetakchi, avvalambor, bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash boʻyicha loyihalarni va shuningdek, samarali tarkibiy oʻzgarishlar hamda investitsiya siyosatini amalga oshirishda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2006-yilda tashkil etilgan nizom fondi, 2012-yilda qariyb 13 milliard dollardan iborat boʻlgan Oʻzbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi muhim oʻrin egallamoqda. Jamgʻarmaning eng asosiy vazifalaridan biri – iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari rivoji, birinchi navbatda, ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishi bilan bogʻliq ustuvor vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan strategik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdan iborat.

Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi hal etadigan yana bir muhim vazifa xorijiy investorlar, moliya institutlari va sheriklarni investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish va amalga oshirish maqsadida mamlakatimizga keng jalb etish hisoblanadi. Jamgʻarmaning qoʻshma loyihalarda ishtirok etishi Osiyo taraqqiyot banki, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi, Islom taraqqiyot banki, Xitoy eksport-import banki, Xitoy Davlat taraqqiyot banki, Koreya taraqqiyot banki, boshqa xorijiy moliya institutlari, bank va kompaniyalarning mablagʻlari hisobidan 3,2 milliard dollardan ziyod chet el investitsiyasi va kreditlarini jalb etish imkonini berdi.

Oʻtgan yili faoliyat koʻrsatayotgan korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil yetishni tezlashtirish borasida faol investitsiya siyosati yuritishga alohida eʼtibor qaratildi. 2011-yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan qiymati 10 milliard 800 million dollardan ortiq kapital qoʻyilmalar oʻzlashtirildi, bu 2010-yilga nisbatan 11,2 foiz koʻp, demakdir. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 23,9 foizni tashkil etgani mamlakatimizda investitsiya jarayonlarining jadal faollashib borayotganidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotimizning real sektoriga qariyb 2 milliard 900 million dollar hajmida xorijiy investitsiyalar jalb qilindi, ularning 78,8 foizi toʻgʻridan-

to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari va ulardan foydalanish borasida ijobiy sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Jami investitsiyalarning 73 foizdan ortig'i mamlakatimizning ichki manbalari hisobidan – korxonalar va aholi mablag'lari, investitsiya jarayonlarida tobora faol ishtirok etayotgan tijorat banklari kreditlari, shuningdek, davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan shakllantirilmoqda.

Jami investitsiyalarning 73,5 foizidan ortig'i ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirilmoqda. Investitsiyalarning qariyb 45,3 foizi zamonaviy, yuksak samarali asbob-uskunalar xarid qilishga yo'naltirilgani ayniqsa, muhimdir.

Mamlakatimizda faol investitsiya siyosati olib borilishi natijasida hisobot davrida o'nlab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Jumladan, «Jeneral Motors Pavertreyn O'zbekiston» qo'shma korxonasida yuqori texnologiyalar asosida avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, avtomobil generatori va kompressorlari ishlab chiqarish bo'yicha quvvatlar barpo etildi, energiyani tejaydigan lampalar ishlab chiqarish bo'yicha uchta loyiha amalga oshirildi. Shular qatorida «Zenit elektroniks» qo'shma korxonasida «Samsung» kir yuvish mashinalari ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Ayni paytda maishiy gaz plitalari, konditsionerlar, elektr changyutgich va bir qancha boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

«Muborak gazni qayta ishlash zavodi» unitar sho'ba korxonasida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish maqsadida propan-butan aralashmasi qurilmasining birinchi navbatini, Samarqand viloyatida «MAN» yuk tashish mashinalari ishlab chiqarish bo'yicha yangi majmuaning dilerlik markazini bunyod etish ishlari yakuniga yetkazildi. Navoiy issiqlik elektr stansiyasida bug'-gaz qurilmasini barpo yetish, O'zbekiston-Xitoy gaz quvurining uchinchi yo'nalishi kabi yirik loyihalarni amalga oshirishda qurilish-montaj ishlari qizg'in pallaga kirdi.

Navoiy shahridagi erkin industrial-iqtisodiy zona muvaffaqiyatli faoliyat yurita boshladi, uning hududida yangi tashkil etilgan korxonalarda spidometrlar, avtomobillar uchun o'tkazgichlar, kompressorlar, raqamli televizion tyunerlar, energiyani tejaydigan lampalar, yoritish uskunalari, diodli lampalar, modemlar, polietilen va polipropilen quvurlar, kosmetika vositalari hamda tibbiyot mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston milliy avtomobil magistralini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalar doirasida 302,5 kilometr uzunlikdagi yo'lga

zamonaviy qoplama yotqizilib, rekonstruksiya qilindi. Toshkent va Buxoro shaharlari aeroportlarining mahalliy yo'nalishlarda xizmat ko'rsatadigan yo'lovchi terminallari foydalanishga topshirildi. Toshkent–Samarqand yo'nalishida mazkur ikki shahar o'rtasidagi 344 kilometr masofani atigi 2 soatda bosib o'tadigan, yuqori tezlikda harakat qiladigan «Talgo–250» yo'lovchilar elektr poyezdi qatnovi yo'lga qo'yildi.

Bu poyezddan foydalanish maqsadida temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 600 kilometr uzunlikdagi yo'llar qaytadan tiklandi, 68 kilometr iborat yangi temir yo'llar yotqizildi, Toshkent va Samarqand shaharlari temiryo'l vokzallari rekonstruksiya qilindi va qaytadan jihozlandi. O'tgan yil mobaynida telekommunikatsiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan bir qator loyihalarni amalga oshirish ishlari davom ettirildi. Xususan, Jizzax–Bulung'ur yo'nalishi bo'ylab 73 kilometr uzunlikdagi optik tolali aloqa tarmog'i o'tkazildi, mobil aloqa va Internet tarmog'i ko'lami tobora faol kengayib bormoqda. Yurtimizda aholiga raqamli televideniye xizmati ko'rsatish hajmi 38 foizga etgani ham shu boradagi ulkan ishlarimizning amaliy natijasidir.

2011-yilda logistika markazlari faoliyati jadallashdi. Xususan, Navoiy xalqaro intermodal logistika markazi orqali 50 ming tonna yuk tashildi. «Angren logistika markazi» yopiq aksiyadorlik jamiyati tomonidan Qamchiq dovoni orqali 4 million 200 ming tonna, ya'ni 2010-yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p yuk tashildi. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga yo'naltirilayotgan kapital qo'yilmalar hajmi ancha oshib, o'tgan yilga nisbatan ularning o'sish sur'atlari 109,3 foizni, yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi esa 24,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalar va jalb qilinadigan kreditlar hajmi 16 foizga ko'payib, 3 milliard 300 million dollardan oshadi. Mazkur mablag'ning 2 milliard 300 million dollardan ortig'i yoki qariyb 70 foizini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etishi ayniqsa, e'tiborlidir. Bu xorijiy investorlarning iqtisodiyotimizning mustahkamligi va barqarorligiga, eng muhimi, O'zbekiston taraqqiyotining istiqboliga bo'lgan qiziqishi va ishonchi tobora ortib borayotganidan yaqqol dalolat beradi.

Jahon iqtisodiyotida vujudga kelayotgan tendensiyalardan, shuningdek, mamlakatimizni kelajakda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish strategiyasidan kelib chiqqan holda, 2012-yilda va undan keyingi yillarda quyidagi ustuvor vazifalarning amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi: birinchi darajali e'tibor mamlakatimiz iqtisodiyotining

raqobatdoshligini oshirish bo'yicha dastur tayyorlash va uni amalga oshirishga qaratilishi zarur. Bu maqsadning dolzarbligi va ahamiyati avvalo shu bilan belgilanadiki, biz o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiyotimizni rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga olib chiqishni hozirgi bosqichdagi bosh strategik vazifa sifatida o'z oldimizga qo'yganmiz.

O'z-o'zidan ayonki, raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirmasdan, pirovard natijada esa raqobatdosh mamlakatni barpo etmasdan turib, biz qabul qilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da ko'zda tutilgan maqsadli vazifalarni amalga oshirmasdan turib, bu haqda jiddiy so'z yuritish mumkin emas. Bu vazifaning o'rta qo'yilishi, shuningdek, inqiroz jarayonlarining chuqurlashuvi, dunyo miqyosida xarid talabining pasayishi va shunga muvofiq tarzda jahon bozorida xom ashyo, materiallar, ayniqsa, tayyor mahsulotlar bo'yicha raqobatning yildan-yilga kuchayib borayotgani bilan ham bog'liq, albatta.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va raqobatdosh mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish bo'yicha qabul qilingan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturiga muvofiq, 2012–2016-yillarda hisob-kitoblar bo'yicha qiymati 6 milliard 200 million dollar bo'lgan 270 dan ziyod investitsiya loyihasini, shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha tarmoq dasturlarini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Joriy 2012-yilda iqtisodiyotimizni diversifikatsiya qilishni davom ettirishda o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshirish mo'ljallanmoqda. Jumladan, Surg'il koni bazasida Ustyurt gaz-kimyolar majmui, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar va Qo'ng'irotda soda zavodlarining ikkinchi navbatini, sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish zavodini qurish ishlari boshlanadi. Shuningdek, Tollimarjon issiqlik elektr stansiyasida ikkita bug'-gaz qurilmasi, Angren issiqlik elektr stansiyasida yangi energoblok qurish, avtomobil shinalari

va transportyor tasmasi ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, to‘qimachilik korxonalari quvvatlarini yanada kengaytirish va butun texnologik jarayonni takomillashtirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlarini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining roli tobora ortib borayotganini alohida ta’kidlash joiz. Hozirgi vaqtda ushbu jamg‘arma kapitali 9 milliard dollardan oshib ketdi. 2012-yilda jamg‘arma mablag‘lari hisobidan sanoat va ishlab chiqarish infratuzilmasining yetakchi tarmoqlarida 758 million dollardan ziyod hajmdagi 29 ta strategik investitsiya loyihasini birgalikda moliyalash mo‘ljallanmoqda, bu o‘tgan yilga nisbatan 38,2 foizga ko‘p, demakdir.

Barchamizga ma’lumki, mustaqillikni qo‘lga kiritishimiz asosida eski totalitar tizimning barham topishi, eng avvalo, mamlakatimiz hududi bo‘ylab, qolaversa, jahonning turli nuqtalari bilan tutashtiruvchi, qulay, samarali va eng muhimi, ishonchli avtomobil yo‘llar tizimining barpo etilishini taqozo etar edi. Shunga ko‘ra, hozirda yuqori darajadagi xalqaro standartlarga javob beradigan, mamlakatimizning barcha hududlarini o‘zaro ishonchli bog‘laydigan va mintaqaviy hamda jahon bozorlariga chiqishni ta’minlaydigan O‘zbekiston milliy avtomagistralini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli dastur amalga oshirilmoqda. Buning natijasida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarining uzunligi 42530 kilometrga yetdi.

O‘zbekiston Respublikasi avtomobil yo‘llari tarmog‘ining umumiy uzunligi

Yo‘l turlari	Uzunligi, km
Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari	42530
Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari	61664
Xo‘jalik avtomobil yo‘llari	79367
shu jumladan:	
– ichki xo‘jalik yo‘llari	67274
– korxonalariga qarashli yo‘llar	12093

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarining 51 foizi mahalliy ahamiyatdagi, 40 foizi davlat ahamiyatidagi va 9 foizi xalqaro ahamiyatdagi yo‘llar hisoblanadi.

O‘zbekistonda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari:

- mahalliy ahamiyatdagi yo‘llar – 21995 km (51 foiz).
- davlat ahamiyatidagi yo‘llar – 16909 km (40 foiz);
- xalqaro ahamiyatdagi yo‘llar – 3626 km (9 foiz).

O‘zbekiston Respublikasi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarida 2009-yil yakuni bo‘yicha qurish va ta‘mirlash ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Hajmi mlrd.so‘m	2008-yilga nisbatan foiz
Jami bajarilgan ishlar	370,6	118,7
Investitsiya dasturi	114,4	104,8
Mukammal va o‘rta ta‘mirlash	177,2	126,1
Joriy ta‘mirlash va saqlash ishlari	63,2	117,3
Yo‘l ta‘mirlash texnikalari va jihozlar xarid qilish	15,8	160,9

Yo‘l-qurilish texnikasini sotib olish uchun Osiyo taraqqiyot bankining umumiy qiymati 56 million dollarga teng bo‘lgan imtiyozli kredit resurslari jalb etildi.

Mamlakatimiz temir yo‘l transport tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha ishlar davom ettirildi. «Toshg‘uzor–Boysun–Qumqo‘rg‘on» yangi temir yo‘l tarmog‘ida Yaponiya kapitali ishtirokida 5 ta ko‘prik foydalanishga topshirildi. «Navoiy–Uchquduq–Sulton Uvaystog‘–Nukus» temir yo‘l tarmog‘ining 6 ta yangi razyezdi ishga tushirildi. Temir yo‘llarni elektrlashtirish, temir yo‘l lokomotivlari parki va harakatdagi tarkibni yangilash loyihalarini amalga oshirish ishlari boshlandi.

Mamlakatimizning barcha hududlarini ishonchli ravishda bog‘laydigan, mintaqaviy va jahon bozorlariga chiqishni ta‘minlaydigan O‘zbek milliy avtomagistrali tarkibiga kiradigan yo‘llarni qurish va rekonstruksiya qilish loyihalarini jadal amalga oshirish biz uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda 2012-yilda 517 kilometrlik avtomobil yo‘llari, ikkita yirik transport bog‘lamasi, 544 pogon metr ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish mo‘ljallanmoqda. Buning uchun Respublika yo‘l jamg‘armasidan 360 million AQSh dollaridan ortiq qiymatdagi, o‘tgan yilga nisbatan 12,5 foiz ko‘p mablag‘ yo‘naltirish rejalashtirilmoqda.

O‘zbek milliy avtomagistralini modernizatsiya qilish nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ulkan

strategik ahamiyatga ega ekanini inobatga olgan holda, ushbu loyihani amalga oshirishda Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Arab Muvofiqlashtirish guruhi a'zolari singari xalqaro moliya tuzilmalari faol ishtirok etmoqda.

Mazkur tashkilotlar tomonidan 742 kilometrlik avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish, yo'l qurilishi bo'yicha zamonaviy texnika sotib olish uchun 1 milliard 400 million dollarga yaqin imtiyozli kreditlar ajratildi. Faqat 2012-yilning o'zida ushbu maqsadlar uchun 109 million dollar miqdoridagi mablag'ni o'zlashtirish, 165 kilometr sement-beton qoplamali yo'llarni foydalanishga topshirish, jumladan, Qamchiq dovoni orqali o'tadigan yo'lni qayta ta'mirlash mo'ljallanmoqda.

«O'zavtoyo'l» davlat aksiyadorlik kompaniyasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga ajratilayotgan mablag'larni samarali o'zlashtirish hamda avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash yuzasidan belgilangan ko'rsatkichlarni so'zsiz bajarish bo'yicha amaliy choralar ko'rish vazifasi topshiriladi. Temir yo'llar kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish, Maroqand – Qarshi va Qarshi – Termiz temir yo'l uchastkalarini elektrlashtirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilishini jadallashtirish zarur. Shu bilan birga, Toshkent – Samarqand temir yo'l tarmog'i uchastkasida obodonlashtirish ishlarini davom ettirish hamda yuqori tezlikda harakatlanadigan yo'lovchi poyezdlarining ishonchli va xavfsiz qatnovini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish darkor. «O'zbekiston temir yo'llari» kompaniyasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda mazkur ishlarni amalga oshirish bo'yicha tarmoq jadvallarini ishlab chiqishi va tasdiqlatishi, ularning o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashi lozim.

Erkin industrial-iqtisodiy zona – mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda maxsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan, imtiyozli soliqlar, bojxona to'lovlari, ijara, viza olish, valuta ayirboshlash, mehnatga yollashning qulay tartiblari belgilangan bo'ladi.

Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonasi (2009-yilda) qurilish boshlangan – jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek Navoiy

viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 3-dekabrda «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori asosida tashkil etilgan. Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zona hududida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining asosiy yo‘nalishi – zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik tarmoqlar va modullar, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko‘lamda ishlab chiqarishdan iborat.

Intermodal markaz – yuk tashishlar bo‘yicha xalqaro kommunikatsiya va logistika markazi. O‘tgan-yil mobaynida «Korean Eyr» kompaniyasidan milliy aviakompaniyamiz ijaraga olgan zamonaviy transport samolyotlari bilan ushbu aeroportdan xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha 330 dan ortiq reys amalga oshirildi va qariyb 8,5 ming tonna yuk tashildi. Bu Navoiy shahri aeroportini global logistika tarmog‘iga integratsiyalash imkonini berdi.

Angren shahrida mamlakatimiz hududlari va Farg‘ona vodiysi viloyatlari o‘rtasida yil davomida kafolatli transport aloqasini ta‘minlaydigan Xalqaro logistika markazi qurilishi yakunlandi va foydalanishga topshirildi.

Logistika – inson-mashina tizimida moddiy, mehnat, energiya va axborot resurslari oqimlari harakati jarayonlarini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish tizimi.

Transport logistikasi – muayyan moddiy buyumlar, yuklar va boshqalarni bir joydan boshqa bir joyga optimal yo‘nalish bo‘yicha yetkazib berish, tashishni tashkil etish tizimi.

XXI asrda kommunikatsiya tizimining ahamiyati, uning iqtisodiyotni rivojlantirish hamda aholi farovonligini oshirishdagi o‘rni barchamizga ma‘lum. Zero, jahonda globallashtirish jarayonlarining kuchayishi, xalqaro maydonda tovar va xizmatlar ayirboshlash, turli jabhalardagi hamkorlikning tobora kengayib borishi bugungi kunda yuqori texnologik telekommunikatsiya tarmog‘ini rivojlantirishni muhim strategik vazifaga aylantirdi.

Prezident Islom Karimov «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» nomli 2010-yil 12-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasida: «Barchamizga ayonki, mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining dastlabki bosqichida, ya‘ni 1991-

yildan 2000-yilgacha bo'lgan davrda ulkan o'zgarishlarni amalga oshirishda asosiy e'tiborimiz markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotining asoslarini, avvalambor, qonunchilik bazasini shakllantirish uchun sharoit yaratishga» qaratilgani haqida gapirib, «shu borada qabul qilingan o'ta muhim qonun va normativ hujjatlar qatorida «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi qonunlarni qayd etish mumkin»ligini ta'kidladi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari Islom Karimov «O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining sur'ati va mantiqiy talablaridan kelib chiqqan holda, erkin bozor iqtisodiyoti munosabatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan bir qator qonunlar qabul qilishni hayotning o'zi taqozo etayotganligi»ni uqtirib, «Investitsiya va pay fondlari to'g'risida», «Innovatsiyalar va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish to'g'risida»gi va boshqa yangi qonunlar qabul qilish zarurligini ta'kidladi.

4. Makroiqtisodiy beqarorlik va iqtisodiyotning siklligi. Iqtisodiy inqirozlar

Har qanday mamlakat, shu jumladan industrial rivojlangan mamlakatlar ham iqtisodiy o'sishga hamda to'liq bandlilik va narxlarning barqaror darajasiga erishishga harakat qiladi, ammo uzoq muddatli iqtisodiy o'sish bir tekis va uzluksiz bormaydi, u iqtisodiy beqarorlik davrlari bilan uzilib turadi. Iqtisodiy o'sish ketidan doimo tanazzul kelib turadi. Vaqti-vaqti bilan obyektiv qonunlarning o'zgartirib bo'lmaydigan ta'siri ostida takror ishlab chiqarish harakatida uzilishlar paydo bo'ladi va bu uzilish iqtisodiyot nomutanosibliklari keskin holatda namoyon bo'lishidir.


Iqtisodiy sikl deganda, odatda ishlab chiqarishning bir iqtisodiy holatidan yoki bir inqirozdan ikkinchisi boshlangunga qadar takrorlanib turadigan to'liqsimon harakati tushuniladi. Sikl inqiroz, turg'unlik, jonlanish, yuksalish fazalarini o'z ichiga oladi. Ana shu fazalarning har biri rivojlanishi jarayonida navbatdagi fazaga o'tish uchun sharoit yuzaga keladi.

Inqirozli jarayonlar ishlab chiqarishning pasayishida namoyon bo'ladi va siklning qayd etuvchi ifodasidir. U bir siklni nihoyasiga yetkazib, yana muqarrar ravishda inqiroz bilan tugaydi, yangisining boshlanishiga asos soladi, inqiroz vaziyatida asosiy kapitalning ortiqcha

jamg'arilishi uning hamma funksional shakllarida namoyon bo'ladi. Inqirozdan keyin turg'unlik keladiki, uning davomida iqtisodiy faollik jonlanishi uchun sharoitlar vujudga kelishi nihoyasiga yetadi.

Jonlanish fazasining boshlanishi ozmi-ko'pmi darajada barqaror ishlab chiqarishning kengayishiga o'tishni bildiradi. Ish bilan ta'minlanish darajasining ortishi va foydalarning tez o'sishi jonlanishning yuksalish bosqichiga o'sib o'tishiga ko'maklashadi. Yangi sikl yuksalishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Yuksalish fazasida ish kuchiga bo'lgan talabning kengayishi, ishsizlikning birmuncha kamayishiga hamda ish haqining o'sishiga olib keladiki, buning oqibatida iste'mol tovarlariga, to'lovga qodir talab kengayadi. Pirovard talabning oshishi, o'z navbatida iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga, bozorni kengaytirishga jadal turtki beradi. Raqobat va foyda ketidan quvish oqibatida nomutanosibliklarning to'planib borishidan iborat zanjirli reaksiya tezlashadi. Bu bilan yangi inqiroz muqarrar bo'lib qoladi.

Alohida iqtisodiy sikllar bir-biridan davomiyligi va intensivligi bo'yicha keskin farqlanadi. Shu bilan birga, ularning hammasi bir xil fazalarga ega bo'ladi va har xil tadqiqotchilar tomonidan turlicha nomlanadi.



Iqtisodiy sikl chizmasi.

Yuqoridagi chizmada ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan tan olingan iqtisodiy sikl ko'rsatilgan. Siklning eng yuqori nuqtasida, iqtisodiyotda to'liq bandlilik kuzatiladi va ishlab chiqarish to'liq yoki deyarli to'liq

quvvat bilan ishlaydi. Siklning bu fazasida narx darajasi o'sish tamoyiliga ega bo'ladi, iqtisodiy faollikning o'sishi to'xtaydi.

Tanazzul fazasida ishlab chiqarish va bandlilik qisqaradi, ammo narxlar pasayish tamoyiliga berilmaydi. Tanazzulning quyi nuqtasida ishlab chiqarish va bandlilik o'zining eng past darajasiga erishishi bilan xarakterlanadi.

Iqtisodiy inqiroz deb, ishlab chiqarish hajmining keskin tushib ketishiga aytiladi. Inqirozning sababi shundan iboratki, jamiyatda ishlab chiqarilgan tovarlar massasi to'lovga qobil talabga mos kelmay (undan oshib ketadi yoki kam bo'ladi) qoladi. Natijada ishlab chiqarishning bir qismi to'xtab qoladi, tovarlar ishlab chiqarish kamayadi, ishlab chiqarishning o'sish davri uning tushkunligi bilan almashinadi. Iqtisodiyotning tez o'sish davrlari ko'pincha inflatsiya, ya'ni narx darajasining ko'tarilishi bilan orqaga ketadi.

Shunday davrlar ham bo'ladiki, bunda iqtisodiy o'sish bandlilik va ishlab chiqarishning past darajasiga o'rin beradi, ayrim hollarda narx darajasining ko'tarilishi bilan birga ishsizlik ham keskin o'sadi. Qisqacha aytganda, iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli tamoyillari ham ishsizlik, ham inflatsiya oqibatida uzilib qoladi va murakkablashadi. Inqirozlarning asosiy sababi – takror ishlab chiqarishdagi beqarorlik va nomutanosibliklardir. Bu avvalo ishlab chiqarish va uning natijalarini o'zlashtirish o'rtasidagi nomutanosiblik bo'lib, u turli ishlab chiqarish usullari va iqtisodiy tizimning har xil nusxalarida turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish bilan iste'mol, talab va taklif o'rtasidagi vaqti-vaqti bilan yuzaga kelib turadigan nomutanosibliklar ham iqtisodiy inqirozlarning yuzaga chiqish imkoniyatini saqlaydi.

Kapitalizmga bo'lgan davrlarda ishlab chiqarishning keskin qisqarishi, odatda tabiiy ofatlar (qurg'oqchilik, toshqinlar va h.k.) yoki urushlar va ularning keltiradigan vayrongarchiliklari bilan bog'liq bo'lgan. Yirik mashinali ishlab chiqarishga o'tilgandan keyingi davrda vaqti-vaqti bilan iqtisodiyotni larzaga solib turuvchi iqtisodiy inqirozlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishga siklik tus beradi.

Ko'pchilik hozirgi zamon iqtisodchilari iqtisodiy sikllarning obyektiv xarakterini tan olib, bu hodisani unga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish orqali o'rganishni tavsiya qiladi. Tashqi omillarga iqtisodiy tizimdan tashqarida yotuvchi va iqtisodiy hodisalarning davriy takrorlanishini keltirib chiqaradigan omillar kiritiladi. Bu tashqi omillar ichidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

– urushlar, inqilobiy o'zgarishlar va boshqa siyosiy larzalar;

– oltin, uran, neft va boshqa qimmatli resurslar yirik konlarining ochilishi;

– ochiq iqtisodiyotning rivojlanishi (globalashuv jarayonlari) va bu bilan bog‘liq ravishda aholi migratsiyasi, yer shari aholisi sonining o‘zgarib turishi;

– ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini tubdan o‘zgartirishga qodir bo‘lgan texnologiya, tadqiqotlar va innovatsiyalardagi qudratli o‘zgarishlar.

Iqtisodiy sikllarni tashqi omillarning mavjudligi bilan tushuntiruvchi nazariyani eksternal nazariya deb atash qabul qilingan. Internal nazariya iqtisodiy sikllarni iqtisodiy tizimning o‘ziga xos ichki omillar tug‘diradi, deb hisoblaydi.

Asosiy kapitalning jismoniy xizmat muddati, ko‘pchilik iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy siklni tug‘diruvchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Agar bir yoki bir necha tarmoqda, mashina-uskunalar talabning keskin ortishi keltirib chiqaradigan iqtisodiy o‘shish boshlansa, to‘liq tabiiyki, bu hol mashina va uskunalarning eskiradigan har 10–15 yildan keyin takrorlanadi.

Boshqa ichki omillardan quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi:

– shaxsiy iste‘molning o‘zgarishi (qisqarishi yoki kengayishi);

– investitsiyalar, ya‘ni ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yangilash va yangi ish joylarini vujudga keltirishga yo‘naltiriladigan mablag‘lar hajmi;

– ishlab chiqarish, talab va takliflar hajmiga ta‘sir ko‘rsatishga qaratilgan davlat iqtisodiy siyosatining o‘zgarishi.

Iqtisodiy sikllarning kelib chiqishini faqat eksternal yoki internal nazariya orqali tushuntirish ko‘p ham to‘g‘ri emas. Iqtisodiy sikl va umuman iqtisodiy tizimdagi miqdoriy va sifat o‘zgarishlar tashqi va ichki omillar oqibatida kelib chiqishi mumkin emas.

4.1. Inqirozga qarshi dastur – iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlik sharti

Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Inqirozga qarshi choralar dasturi tarixiy ahamiyatga ega hujjatdir, chunki unda milliy iqtisodiyotni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta‘siridan himoya qilish, mamlakatimizni muayyan davrda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Tabiiyki, bu borada Prezidentning bundan bir yil oldin chop etilgan va hozirga kelib dunyodagi o‘nlab tillarga tarjima qilingan «Jahon

moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» asari muhim dasturilamal bo‘lmoqda.

Ma‘lumki, hozirgi zamon iqtisodiyoti global xususiyatga ega bo‘lib, kichik yoki katta milliy iqtisodiyotlar majmuidan iborat. Ularning hammasi uzilmas rishtalar bilan bir-biriga bog‘liq va bir-birini to‘ldirib turadi. Hozirgi dunyoda ekstranaliyalar, ya‘ni ijobiy yoki salbiy tashqi ta‘sirlarga uchramagan iqtisodiyotlar yo‘q. O‘zbekistonning milliy iqtisodiyoti ham bundan mustasno emas.

Prezident Islom Karimov ta‘kidlaganidek, *«tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta‘sir ko‘rsatmaydi, bizni chetlab o‘tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o‘ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo‘lmas xato bo‘lur edi»*¹. Chunki bugungi kunda O‘zbekiston xalqaro hamjamiyat va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi sifatida rivojlanib borayotgani va bu jarayon tobora kuchayib borishini yaxshi anglab olish darkor.

Ushbu ta‘sir tashqi bozorlarda narxlar tushishi tufayli u yerda tovarlarni sotishdan keladigan eksport daromadining kamayishida ko‘rinadi. Bu esa bozor hajmining torayishidan dalolat beradi va bu milliy iqtisodiyotning o‘shish sur‘atlari, eksportga yo‘naltirilgan korxonalarining foydasi va rentabelligi kamayishiga olib keladi. Bunday korxonalar mamlakatimizda ko‘p bo‘lib, shu bois eksport mamlakatning dollar hisobidagi YAIMning yarimidan ko‘prog‘ini tashkil qiladi. Inqirozning chuqurlashuvi oqibatida eksport baholarining pasayishi O‘zbekiston iqtisodiyoti o‘shish sur‘atlarining pasayishiga olib kelishi mumkin. Inqirozning bizga salbiy ta‘siri boshqa yo‘nalishini xorijiy investitsiya va kreditlarning kamayishi tashkil qilishi mumkin, chunki kapital eksport qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyoti o‘zgarishlarga uchrayotgan sharoitda investitsiyalarning aksariyat qismi o‘z mamlakatiga yoki iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarga kiritiladi. Mamlakatimizga tashqi ta‘sirlarning kamayishi jamg‘armalarda keskinlik keltirib chiqarishi mumkin, chunki iqtisodiyot o‘shishining zarur sur‘atlarini saqlab turish uchun milliy jamg‘armalar ulushini ko‘paytirishga to‘g‘ri keladi, bu esa daromadlar ichida iste‘mol ulushining kamayishiga olib kelishi mumkin. Demak, kelib chiqqan inqiroz nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy talafotlarga ham

¹ *Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шaroitida уни бартараф этишининг йўллари ва чoralari. – Т.: «Ўзбекистон», 2009. – Б. 11.*

olib kelishi mumkinligi davlatimiz rahbarining «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» asarida e‘tirof etiladi. Chunki bu aholi turmush darajasining o‘shishini sekinlashtirishi mumkin. Inqiroz oqibatlarining jiddiyligini inobatga olgan Prezident Islom Karimov: «jahon iqtisodiy inqirozi ishlab chiqarishni muntazam yangilab, modernizatsiya qilib borish zaruratini kun tartibiga yanada o‘tkir qilib qo‘ymoqda va buning uchun bor kuch-imkoniyatimiz va resurslarimizni safarbar etishni talab qilmoqda»¹, – deb uqtirgan.

Inqirozga qarshi dasturda inqiroz oqibatida yuzaga kelgan ichki va tashqi iqtisodiy vaziyat yillar davomida xalqaro hamda milliy iqtisod va moliya, boshqaruvning turli bosqichlarida hayotiy tajribaga ega bo‘lgan davlat rahbari nigohta baholangan, inqirozning iqtisodiyotimizga salbiy ta‘sirini bartaraf etish yuzasidan ilmiy asoslangan va tarixiy tajribada sinovdan o‘tgan amaliy takliflar berilganligini qayd etish lozim. Dastur mamlakatning ancha oshgan iqtisodiy salohiyatiga va so‘nggi yillarda iqtisodiyotda amalga oshirilgan jiddiy tarkibiy o‘zgarishlarga asoslanadi. Ta‘kidlash lozimki, mazkur dastur barcha mamlakatlar YAIMning moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida uzluksiz pasayib borayotganiga asoslangan. Biroq, 2009-yilda ekspertlarning bildirgan fikrlari ba‘zi mamlakatlar, ayniqsa, Xitoy va Hindiston taraqqiyoti salbiy zonada bo‘lmaydi, ushbu mamlakatlar YAIM o‘shishining 7 foizdan 5 foizgacha bo‘ladi. Ayni vaqtda Yevropa Ittifoqi va AQSh YAIMning ko‘rsatkichlari YAIMning 2,5 foizdan 3 foizgacha pasayishi haqidagi taxminlar asosli bo‘lib chiqdi. Mamlakatimiz misolida ta‘kidlash lozimki, O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi yillarda tez rivojlanayotgan iqtisodiyotlarga xos sur‘atlarda o‘sayotganligi e‘tirof etilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati O‘zbekiston iqtisodiyotiga yuqori darajadagi investitsion faollikka olib keldi.

Investitsiya jarayoniga milliy iqtisodiyotga xorijiy va avvalo bevosita investitsiyalarning o‘shishi xosligini quyida keltirilgan raqamlarda ko‘rish mumkin. Investitsiya dasturi va texnik jihatdan modernizatsiya qilish bo‘yicha tarmoq dasturlari doirasida 2009-yili 690 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Ularning 303 tasi muvaffaqiyatli yakunlandi. Bu ayni chog‘da jiddiy faoliyat hisoblanadi.

¹ *Каримов И. А.* Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шaroитида уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари. – Т.: «Ўзбекистон», 2009. – Б. 36.

Istiqbolda, ya'ni 2010-yilda Investitsiya dasturiga muvofiq, kapital qo'yilmalar o'tgan yilga nisbatan 22,1 foizga ortib, yalpi ichki mahsulotning 30 foizini tashkil qiladi. Bunda birgina ishlab chiqarish sohasiga mo'ljallangan loyihalarni amalga oshirish uchun barcha kapital mablag'larning 75 foizdan ziyodi yo'naltiriladi. 2009-yilda mamlakatimizda muhim strategik loyihalarni amalga oshirish uchun 3 mlrd. AQSh dollaridan ziyod yoki o'tgan yilga nisbatan 30 foiz ko'p xorijiy investitsiya jalb qilinadi. Bu esa mamlakatda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ishonchli mexanizmi yaratilganidan dalolat beradi hamda mamlakatda milliy iqtisodiyot o'sishining omili bo'lgan jamg'arishning barqaror yuksak normasini saqlab turishga imkon beradi. Janubiy Koreya Respublikasi Prezidenti Li Myon Bak va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev ham jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan bir paytda O'zbekistonda loyihalarni amalga oshirish muvaffaqiyatli kechayotganligini e'tirof etganlar.

Iqtisodiyot muvaffaqiyatlari ko'p jihatdan iqtisodiyotning agrar xom ashyo yo'nalishiga chek qo'yish va iqtisodiyotda tayyor mahsulot ishlab chiqarish ulushini oshirishga imkon bergan tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu esa xom ashyoni chuqur qayta ishlash, import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishga asoslangandir. Bugungi O'zbekiston iqtisodiyotiga industrial tarmoqlar va xizmat ko'rsatish sohalari roli va ahamiyatining ortib borishi xosdir. *Iqtisodiyotdagi tub islohotlar jahon inqirozining O'zbekistonga salbiy ta'sirini bartaraf etishning asosidir.* Shundan kelib chiqib, Prezident Islom Karimov mamlakatimiz inqirozga qarshi turish uchun yetarli moddiy, insoniy va moliyaviy resurslarga ega ekanligini qayd etib, ulardan oqilona foydalanishga undaydi.

O'zbekistonda hozirgi vaqtda nafaqat inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish ustida, shu bilan birga, inqiroz tugagandan keyin O'zbekiston iqtisodiyotining yanada kuchli, barqaror va mutanosib rivojlangan holda maydonga chiqishi, jahon bozorida o'zimizning mustahkam o'rnimizni egallash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini oshirish bo'yicha jiddiy ish olib borilmoqda.

2009-yilning boshida «2009–2014-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha muhim loyihalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar dasturi» qabul qilindi. Bu dasturga binoan umumiy qiymati 41,4 milliard dollarga teng bo'lgan 400 dan ziyod investitsiya loyihasini amalga oshirish ko'zda tutilganining o'zi bizning rejalarimiz naqadar ulkan va jiddiy ekanining

dalilidir. Shuningdek, O‘zbekistonning 2009–2012-yillarga mo‘ljallangan inqirozga qarshi dasturi inqiroz uzoq davom etishi va uning iqtisodiyotimizga ta’siri bir necha yilga cho‘zilishi mumkinligidan kelib chiqadi. Asosiysi, ushbu dastur inqiroz doirasidan chiqib, inqirozdan keyingi rivojlanishni ham qamrab oladi. Uning o‘ziga xos jihati shundaki, dastur iqtisodiyotni davlat tomonidan faol inqirozga qarshi tartibga solishga asoslanadi va inqirozga qarshilik ko‘rsatishning ustuvor vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadiki, bu, o‘z navbatida, mamlakatimiz iqtisodiy, ijtimoiy va moliyaviy xavfsizligini ta’minlaydi. O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridanoq iqtisodiy jarayonlardagi tartibsizlikni yo‘q qilish yoki loaqal eng kam darajaga yetkazish uchun boshqariluvchi iqtisodiyotga o‘tish yo‘lini tanladi. Mamlakatdagi bozor islohotlari iqtisodiyotning barqaror o‘sishi uchun bozorning o‘zini o‘zi tartibga solishi yetarli emas va shu bois, davlat tomonidan uni faol tartibga solish zarur, degan qoidadan kelib chiqdi. Shu bois, inqirozga qarshi dasturni amalga oshirishda davlat hal qiluvchi rolni bajaradi. Ayni vaqtda asarda *davlat iqtisodiyotga ma’muriy yo‘l bilan emas, balki moliyaviy iqtisodiy dastaklar yordamida va o‘zining moliyaviy resurslariga tayanib ta’sir ko‘rsatishi* kerakligi qayd etilgan. Uning amaliy ijrosi sifatida ustav kapitali 3,2 mlrd. AQSh dollari bo‘lgan va kelajakda uning miqdori muntazam o‘sib boradigan O‘zbekiston Respublikasini Tiklash va rivojlantirish fondi tashkil qilinganligi barchaga ma’lum. Ushbu jamg‘arma «O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘ri-sida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 16-maydagi PQ-350-sonli qarori bilan tashkil qilingan. 2009-yil 6-yanvarda esa «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 16-maydagi PQ-350-sonli qaroriga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi 1031-sonli Prezident qarorida fondning iqtisodiyotning real sektoridagi korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, shuningdek tijorat banklarining investitsion faolligini kengaytirish dasturlarida ishtirokini takomillashtirish chora-tadbirlari nazarda tutildi. Shu bois, ushbu fond iqtisodiyotni faol tartibga solish va inqirozga qarshi dasturni moliyaviy ta’minlash vositasi hisoblanadi.

Inqirozga qarshi dasturda iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy muammolarni hal qilishning ustuvor yo‘nalishlari ajratilgan. Unda *inqiroz yo‘lidagi to‘siq bo‘lishi kerak bo‘lgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash* birinchi o‘ringa qo‘yilgan. Modernizatsiya ishlab chiqarishga eng zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni anglatadi, bu esa

mehnat unumdorligi va mahsulot sifatini oshirishga imkon beradi. U ichki va tashqi investitsiya resurslarini safarbar etishni talab qiladi hamda ularni va, avvalo, bazaviy eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarni texnik jihatdan qayta qurollantirishga qaratilgan. U milliy iqtisodiyotning mehnat unumdorligi darajasini ancha oshirishga shart sharoit yaratadi.

Inqirozga qarshi dastur jahon bozorlarida narxlar pasayishi natijasida eksportdan keladigan tushumning kamayishini inobatga oladi. Uning talablarini bajarish uchun eksportni oshirish zarur, bu o'z navbatida eksportga ishlovchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishni talab etadi. Jumladan, ularga aylanma mablag'larini to'ldirish uchun imtiyozli kreditlar beriladi. Ular 2010-yilgacha qo'shimcha qiymat solig'idan boshqa barcha soliqlardan ozod qilinadilar. Bu xorijiy investitsiya kiritilgan korxonalar hamda tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi eksportga yo'naltirilgan korxonalariga taalluqlidir.

Aytish kerakki, dunyoda sodir bo'lgan keyingi voqealar, ya'ni jahon iqtisodiyot maydonida moliyaviy-iqtisodiy inqiroz jarayonlarining avj olayotganligi hech qanday sir bo'lmay qoldi. Ma'lumki, jahon moliyaviy inqirozi dunyodagi manaman degan, iqtisodiy jihatdan eng taraqqiy topgan mamlakatlarni ham qiyin ahvolga solib qo'ymoqda. Nufuzli xalqaro birjalarda qimmatbaho qog'ozlarning narxlari goh tushib, goh ko'tarilib, doimiy beqarorlik ko'zga tashlanmoqda. Dunyo miqyosidagi yetakchi valutalarning kursi ham har kuni o'zgarib turibdi. Strategik xom ashyolarning narxi pastligicha qolmoqda. Katta-katta korxonalar yopilib, ishsizlar sonining ortishi, ijtimoiy muammolarning keskinlashuvi muttasil davom etmoqda.

Xalqaro miqyosda tan olingan ekspert va tahlilchilar, taniqli davlat va siyosat arboblarning bu inqiroz sabablari haqida bildirgan fikr-mulohazalaridan ayon bo'lmoqdaki, bunday global moliyaviy-iqtisodiy inqirozga, ikki muhim hodisa – ma'naviy va moddiy olamning rivojlanish jarayonlarini uyg'unlashtirishga yetarli e'tibor bermasdan, bu jarayonlar bozor mexanizmlari orqali o'zini o'zi tartibga soladi, deb ularni o'z holiga tashlab qo'yish, ya'ni oqibatini chuqur o'ylamasdan siyosat olib borilgani sabab bo'lgan. Shu ma'noda, Yurtboshimizning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» kitobi dunyo jamoatchiligida, ayniqsa, bu inqirozdan eng ko'p zarar ko'rayotgan dunyodagi yetakchi rivojlangan mamlakatlarda katta qiziqish uyg'otayotgani bejiz emas. Chunki bu kitobda «*Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun*» degan hayotiy mezon asosida xalqning boshqa orzu-intilishlari qatori uning ma'naviy

qadriyatlarini ham barcha o'zgarishlarning markaziga qo'yib, *samarali iqtisodiy siyosat olib borayotgan, zarur bo'lganda, bozor munosabatlarini davlat yo'li bilan tartibga solib*, turli sohalarning o'zaro mutanosib rivojlanishiga erishayotgan, ulkan tajriba va salohiyatga ega bo'lgan davlat arbobining har tomonlama asoslangan konseptual fikr-mulohazalari o'rin olgan.

Ma'lumki, 2009-yil 22-may kuni Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» kitobi bo'yicha bo'lib o'tgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya islohotlarning o'zbek modelini o'rganish, mustahkam va barqaror rivojlanadigan milliy iqtisodiyotni shakllantirish tajribasiga bag'ishlandi. Anjumanda dunyoning 60 mamlakati va 30 xalqaro tashkilot hamda moliya institutlari, shu jumladan, Xalqaro valuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlardan 350 nafardan ziyod davlat va jamoat arboblari, biznesmenlar, olimlar va ekspertlar ishtirok etdi. Ushbu xalqaro anjumanning Toshkentda o'tkazilishi O'zbekistonda olib borilayotgan chuqur va keng ko'lamli islohotlarning nufuzli ekspertlar tomonidan yuksak e'tirofidir.

Darhaqiqat, Prezidentimiz Islom Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida *O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish tajribasi va hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida barqarorlikka erishayotgani haqida muhim ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosa va qoidalarni alohida ta'kidlagan edi:*¹

birinchidan, bozor (talab va taklif) hamma narsani hal qiladi, degan tamoyildan kelib chiqqan holda, bozor munosabatlariga sajda qilaverish mumkin emas. Hayot tajribasi shuni necha bor ko'rsatdiki, iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarni boshqarish, murakkab vaziyatlardan chiqib ketish uchun ustuvorliklar tanlashda davlatning rovidan foydalanish (bozor, kuchlilar yengadi, degan Darvin tamoyiliga amal qilishini e'tiborga olgan holda), aholining ko'pchilik qismi manfaatlarini ifodalovchi davlatning rolini, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish va uzoq istiqbolga mo'ljallangan milliy strategiyaning o'rnini hech kim va hech narsa bosa olmaydi;

¹ Халқ сўзи. – 2009. – 22 май.

ikkinchidan, bugungi kunda so‘nggi 15–20 yil davomida muayyan holatlar sababli uglevodorod xom ashyosi va umuman, mineral xom ashyosi narxlarining keskin o‘sib ketishiga qaram bo‘lgan mamlakatlar, ayniqsa, mushkul ahvolga tushib qoldi, boshqacha aytganda, ular o‘zlari bilmagan holda jahon biznesining chayqovchilik bilan shug‘ullanuvchi ayrim doiralari tomonidan sun‘iy ravishda shishirilgan «narx pufaklari»ga haddan ziyod bog‘liq bo‘lib qoldi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatida ko‘plab qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan mamlakatlar bugun shuni tan olmoqdaki, ushbu jarayonda iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni muntazam yangilash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish rivojlanishning asosiy ustuvor yo‘nalishi bo‘lgan va bu tamoyilga amal qilayotgan davlatlar yuksak muvaffaqiyatlarga erishadi. Ana shu omilning ahamiyatini teran anglash va ushbu muhim ustuvorlikni amalga oshirish borasida doimiy, tizimli va puxta o‘ylangan ish yuritish – bu har qanday sharoitda, eng murakkab holatlarda ham muvaffaqiyatga erishishning kaliti bo‘lib qolaveradi;

uchinchidan, bizningcha, yigirma yetakchi davlat ishtirokida London-da bo‘lib o‘tgan uchrashuvning eng muhim yutuqlaridan biri shundaki, muzokaralar jarayonida oddiy bir haqiqat bilan ifodalanishi mumkin bo‘lgan oqilona yondashuv ustuvorlik qildi. Ya‘ni, avval jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi tufayli vujudga kelgan yong‘inni o‘chirish kerak, shundan so‘nggina o‘z umrini yashab bo‘lgan Bretton-Vud tizimi va uning institutlaridan yangi moliya-bank tizimiga, uni boshqarish tamoyillariga o‘tish modelini shakllantirish, yangi moliyaviy mexanizmlarni qabul qilish kerak.

Darhaqiqat, e‘tirof etish lozimki, O‘zbekistonda inqirozning dastlabki belgi-alomatlari paydo bo‘la boshlashi bilan sergak bo‘lib, iqtisodiyotimizdagi real ahvol va sharoitlarni hisobga olib, bu masala bo‘yicha zarur tayyorgarlik ko‘rganimiz, o‘z vaqtida ehtiyotkorlik bilan ish tutib, keng ko‘lamli dasturlarni qabul qilgani bugungi murakkab sharoitlarda Vatanimizning iqtisodiy negizlarini yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Bu borada ko‘rilgan va ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari quyidagilar:

- iqtisodiyotimiz real sektorining yukini yengillashtirish;
- soliqlarni kamaytirish va davlat tomonidan yordam berish;
- ishlab chiqarish sohasini ichki bozorning talab va ehtiyojlarini qondirish uchun qaratish;

- iste'mol tovarlarini tayyorlaydigan tarmoqlarga, kichik biznes va tadbirkorlik, fermerlik harakatiga keng yo'l ochish va qo'shimcha imtiyozlar berish;
- qishloq xo'jaligi sohasini, qishloq taraqqiyotini mamlakatimiz rivojining yetakchi kuchi sifatida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarishga alohida ahamiyat berilganligi;
- eksportga yo'naltirilgan korxonalarini har tomonlama rag'batlantirish, ularning soliq yukini keskin kamaytirish, mahsulotini realizatsiya qilish uchun bozorlarni yanada kengaytirish;
- ijtimoiy infratuzilmani, jumladan, toza ichimlik suvi, tabiiy gaz, elektr energiyasi tarmoqlarini;
- xizmat sohasini rivojlantirish, qishloq joylarda yangi qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish va shularning hisobidan biz uchun o'ta dolzarb vazifa bo'lgan yangi ish o'rinlarini barpo etish masalalari e'tiborimiz markazida bo'lganligi;
- joriy etilayotgan dasturdan eng katta o'rin olgan asosiy maqsadlarimizdan biri mamlakatimizning moliya-bank, kredit tizimini yanada mustahkamlash, ularning real sektorga ijobiy ta'sirini kengaytirish;
- xorijiy investitsiyalarni, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni yurtimizga olib kelish uchun kerakli sharoit tug'dirib berish va rag'batlantirish masalalaridir.

Bugungi kunga kelib taraqqiyot imkoniyatlarimiz kengayib, ham iqtisodiy, ham ma'naviy yuksalish yuz bermoqda. Yurtboshimiz Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida ta'kidlanganidek, *«Bizning islohotlar davomida nainki moddiy farovonlikka, ayni paytda ma'naviy yuksalishga ham erishishni o'zimiz uchun asosiy mezon, deb bilganimiz umumiy taraqqiyotimizda bir tomonga og'ib ketmaslik, jamiyat hayotida suv bilan havodek zarur bo'lgan muvozanat va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bozor iqtisodiyoti hamma narsani joy-joyiga qo'yadi, degan yengil-yelpi qarashga itoat qilib, faqat moddiy boylik ortidan quvish – xalqimizning azaliy orzu-intilishlariga ham, insoniylik bilan yo'g'rilgan milliy qadriyatlarimiz mohiyatiga ham to'g'ri kelmas edi. Shu bois islohotlarni amalga oshirishda ma'naviyat va iqtisodiyot bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib, rivojlanib boradi, degan qoidani o'zimiz uchun dasturilamal sifatida belgilab oldik»¹.*

¹ Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.

Haqiqatan ham, iqtisodiy omillarning ma'naviy omillar bilan uyg'un va hamohang ravishda hayotga tatbiq etilgani, ya'ni havoyi gaplarga berilmasdan, vaziyatni har tomonlama chuqur tahlil etib, ertangi kunni o'ylab, fikr-mulohaza yuritib, eng maqbul taraqqiyot yo'li tanlab olingani va og'ir-vazminlik bilan siyosat olib borilgani yakka-yu yagona to'g'ri yo'l bo'lgani hozirgi murakkab davrda amalda tasdiqlanmoqda. Iqtisodiyotni isloh etish va modernizatsiya qilish borasida qabul qilinayotgan har bir qaror zahirida iqtisodiy mezonlar bilan birga, kelgusida bu o'zgarishlar xalqimizga nima beradi, degan ma'naviy mezonlar ham e'tiborga olinmoqda.

Murakkab sharoitlarga qaramasdan, O'zbekistonda ijtimoiy xavfsizlik tadbirlariga katta e'tibor qaratilmoqda. G'arb mamlakatlarida inqirozli davrlarda inson taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy tadbirlar uchun xarajatlarni kamaytirayotgan bir paytda bundan farqli ravishda O'zbekistonda ijtimoiy sohalarga alohida e'tibor berilmoqda. 2013-yilda yalpi ichki mahsulotning 60 foizi ijtimoiy tadbirlarga ajratilishi rejalashtirilgan.

Bugun jahonda, yaqin va uzoq atrofimizda bo'layotgan keskinlashuv holatlari, umuman, butun dunyoda saqlanayotgan xavf-xatar va qarama-qarshiliklar, shular qatorida avvalo xalqaro maydonda davom etayotgan moliyaviy inqirozning o'zi bizni yanada sezgir, hushyor va ogoh bo'lishga va o'z vaqtida tegishli xulosalarni chiqarishga da'vat etadi, Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi yo'lida samarali mehnat qilishga undaydi.

Tayanch tushunchalar:

Makroiqtisodiyot, milliy iqtisodiyot, yalpi ichki mahsulot (YAIM), yalpi milliy mahsulot (YAMM), inqiroz, retsessiya, yuksalish, iqtisodiyotning sikli o'sishi, sikl, makroiqtisodiy muvozanat, iqtisodiy barqarorlik.

Savol va topshiriqlar:

1. Makroiqtisodiyotni ta'riflang.
2. Iqtisodiyotning sektorlarini sanang.
3. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning vazifasi qanday?
4. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi nima?
5. Makroiqtisodiy aylanma nima?
6. Iqtisodiyotning real sektorini ta'riflang.
7. Iqtisodiyotning pul sektorini ta'riflang.

8. Yalpi ichki mahsulot (YAIM) nima?
9. Yalpi ichki mahsulotning mamlakat iqtisodiy salohiyatidagi ahamiyati qay darajada?
10. Iqtisodiy o‘shish va uning omillarini sanab ko‘rsating va baholang.
11. Barqarorlik siyosatini ta’riflang.
12. Makroiqtisodiy muvozanatning buzilishi qanday ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib keladi?
13. Iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini modernizatsiya qilishda investitsiyalarning roli qanday?
14. Investitsiyalarning ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikasiyalarini yanada rivojlantirish bilan bog‘liqligini tushuntiring.
15. 2009-yilda mamlakatimizda ijtimoiy infratuzilma ob’ektlarining barpo etilishi borasidagi ishlarni tushuntirib bering.

Mavzuni chuqur o‘rganish instrumentariysi

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish milliy miqyosda ishlab chiqarishni uzluksiz qayta boshlash faoliyati bo‘lib, u ijtimoiy ehtiyojlarning holati va dinamikasi bilan bog‘liq.

Oddiy takror ishlab chiqarish – yaratuvchi kapital hajmi har yili o‘zgarmas bo‘lib qolgan sharoitdagi takror ishlab chiqarish, bu yerda faqat jamlanish «nol»ga teng bo‘lganda ishlab chiqarish omillari amortizatsiya qilinadi.

Toraytirilgan takror ishlab chiqarish – yaratuvchi kapital hajmi yil sayin kamayib boradigan sharoitdagi takror ishlab chiqarish; aholi ilgari jamlangan boylikni «yeb bitira» boshlaydi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish – jamiyatning ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish maqsadida yaratuvchi milliy kapitaldan foydalanish borasidagi faoliyati.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning uzviy tuzilishi – milliy xo‘jalikning transformatsion va transaksion sektorlarini birlashtiruvchi tuzilma.

Aralash takror ishlab chiqarish – ishlab chiqarish omillarining miqdor jihatdan o‘shishi va ayni vaqtda ularning ilmiy-texnikaviy va malaka darajasi o‘shib borishi asosidagi takror ishlab chiqarish.

Yalpi ijtimoiy mahsulot (YAIM) – jamiyatning oraliq va oxirgi mahsuloti summasi yoki xalq xo‘jaligida amal qiluvchi barcha korxonalar mahsulotlarining majmui.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning ijtimoiy tuzilishi – muayyan jamiyatdagi sinflar va ijtimoiy guruhlar mulkining mavjud takror ishlab chiqariladigan tizimi bilan bog‘liq tuzilishi.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning genetik tuzilishi – ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'molning «fazalar» bo'yicha birligidan iborat tuzilma.

Ekstensiv takror ishlab chiqarish – yaratuvchi kapital va, binobarin, ijtimoiy ishlab chiqarishning o'zgarmas ilmiy-texnikaviy va kasbiy-malakaviy asosda ko'payib borishi.

Intensiv takror ishlab chiqarish – ijtimoiy ishlab chiqarish va iste'molning faqat texnika va texnologiyani sifat jihatdan yangilash, xodimlar va menejerlarning ta'lim-malaka darajasini oshirish va ayni vaqtda foydalaniladigan yaratuvchi kapitalning jismoniy hajmini qisqartirish evaziga o'sishi.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning funksional tuzilishi – moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning birligi va o'zaro aloqadorligini aks ettiruvchi tuzilma.

Intellektual elita – asosiy belgisini asosan intellektual mahsulotlar yaratish negizida amalga oshiradigan individual kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tashkil qiladigan ijtimoiy sinf.

Takror ishlab chiqarish proporsiyalar – ijtimoiy takror ishlab chiqarishning ayrim qismlari, unsurlari va kichik tizimlarining muayyan nisbati.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

Makroiqtisodiyot milliy iqtisodiyotning amal qilish qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır.

Makroiqtisodiyot eng avvalo milliy ishlab chiqarish ko'lami, bozor tizimi dinamikasi va muvozanati, ishsizlik va inflatsiyaga doir masalalarni o'rganadi.

Milliy iqtisodiyot muayyan mamlakat ichida yuz beradigan iqtisodiy faoliyat bo'lib, bunda firmalar, xonadonlar va davlat ishtirok etadi. Hozir dunyoda 210 dan ziyod milliy iqtisod mavjud.

Milliy iqtisodiyot mamlakat mustaqilligining tayanchi hisoblanadi. Chunki u mustaqillikni moddiy jihatdan ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot muayyan mamlakatda yaratilgan tovar va xizmatlar, to'plangan moddiy va nomoddiy boylik shu mamlakatga qarashli bo'lishini, ya'ni milliy mulkchilik mavjudligini bildiradi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar milliy iqtisodiyotning holatini, faoliyat yuritish va natijalarini ifodalaydi.

Milliy iqtisodiyot muayyan mamlakat chegarasida yuz beradigan faoliyat bo'lib, tabiatan makroiqtisoddir. Makroiqtisodiy aylanma jarayonida real va pul sektorlari yuzaga keladi, bunda resurslar, tayyor mahsulot va xizmatlar pulga ayirboshlanadi. Makroiqtisodiy faoliyat natijasida yalpi ichki mahsulot (YAIM) yaratiladi.

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) ijtimoiy takror ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy natijasi bo'lib, uning qiymati yil davomida mamlakat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar yaratgan mahsulot va xizmatlarning bozor narxidir.

YAIM real va nominal mahsulotdan iborat. Iqtisodiy o'sish real mahsulotning ko'payishini bildiradi.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi uchun makroiqtisodiy muvozanatlar ta'minlanishi shart, bular jumlasiga yalpi talab va yalpi taklif, daromadlar va xizmatlar, iste'mol va jamg'arish, nihoyat tovar-pul muvozanatlari kiradi.

YAIM (YAIM) hajmini aniqlashda unumsiz bitimlar hisobga olinmaydi. Unumsiz bitimlar davlat budjetidan beriladigan transfert to'lovlari (nafaqa, stipendiya), dotatsiyalar, subsidiyalar hamda pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlarning harakatidir.

13-MAVZU. TOVAR-PUL MUNOSABATLARI VA NARX SIYOSATI

1. Pul va uning vazifalari

Pul – bozor tizimining universal va eng likvidli iqtisodiy vositasi sifatida iqtisodiy o'lchov, muomala va jamg'arish funksiyalarini bajaradi. Milliy pul yagona to'lov vositasi hisoblanadi, uning qadri, ya'ni xarid qurbi mavjud. Pul birligining xarid qurbini kerakli tovarlarni ko'paytirish yo'li bilan ta'minlanadi.

Milliy pul muayyan mamlakatga tegishli bo'lib, shu yerda muomalada bo'ladi, uni himoyalovchi belgilari bor, bir pul boshqasidan ko'rinishi bilan farqlanadi, o'ziga xos kupura, tanga va chaqa pullardan iborat bo'ladi, pul birligining xarid qobiliyati bir xil bo'ladi. Milliy pul naqd va naqd bo'lmagan pul shakliga ega, bu faol va sust pullardan iborat, uning ma'lum massasi (miqdori) muomalada yuradi.

Iqtisodiyotning pul bilan ta'minlanishini uning monetizatsiya darajasini bildiradi. Bu darajaning qandayligini pul muomalasi qonuni belgilab beradiki, unga binoan muayyan vaqtda muomalada bo'ladigan pul miqdori jami sotiladigan tovarlar narxining summasi va pul aylanmasining (harakatining) tezligiga bog'liq bo'ladi. Qancha pul zarurligi, bu pulga talab bo'lib, buni oldi-sotdi ko'lami, olibsotarlik ishlari miqyosi, har ehtimolga qarshi pulga ega bo'lish ishtiyoqi va pulning naqadar tez qo'ldan-qo'lga o'tib aylanib turishini yuzaga keltiradi. Pulga

talabni hamma subyektlar bildirsa-da, biroq ularning taklifi davlat nomidan ishlovchi Markaziy bank qo'lida bo'ladi.

Pul muomalasi – bu tovarlar aylanishiga hamda notovar tusidagi to'lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan aktivlarning harakatidir. Naqd pul muomalasiga bank biletlari va metall tangalar (pul belgilari) xizmat qiladi. Naqd pulsiz hisoblar cheklar, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Ularning hammasi pul agregati, deb yuritiladi. Muomalada mavjud bo'lgan pul massasi ularni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Pul muomalasi o'ziga xos qonunlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Uning qonunlaridan eng muhimi muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va shunga muvofiq muomalaga pul chiqarishdir.

Muomalani ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagilarga bog'liq:

I. Muayyan davrda, aytaylik, bir yil davomida sotilishi lozim bo'lgan tovarlar summasiga. Tovarlarni qancha ko'p bo'lsa va narxi baland bo'lsa, ularni sotish va sotib olish uchun shuncha ko'p pul birligi talab qilinadi.

II. Pul birligining aylanish tezligiga.

Pul bir xil bo'lmagan tezlik bilan aylanadi. Bu ko'p omillarga, jumladan ular xizmat qilayotgan tovarlar turiga bog'liq.

III. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori puldan to'lov vositasi sifatida foydalanishga ham bog'liq. Ko'pincha tovarlar qarzga sotiladi va ularning haqi kelishuvga muvofiq keyingi davrlarda to'lanadi. Demak, zarur pul miqdori shunga muvofiq miqdorda kamayadi. Ikkinchi tomondan, bu davrda ilgari kreditga sotilgan tovarlar haqini to'lash vaqti boshlanadi. Bu pulga ehtiyojni ko'paytiradi.

Muomalada bo'lgan pul birligi miqdorining tovarlar narxi summasidan oshib ketishi va buning natijasida tovarlar bilan ta'minlanmagan pulning paydo bo'lishi pulning qadrsizlanishi, ya'ni inflatsiyani bildiradi.

Milliy iqtisodiyotda davlatning, tijorat banklari va boshqa moliyaviy muassasalarning majburiyatlari pul sifatida foydalanadi.

Pul operatsiyalarining asosiy ko'pchilik qismi naqd pulsiz, cheklar, plastik kartochkalar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli muomalada bo'lgan pul miqdorini hisoblash uchun M1...Mn pul agregatlari yoki tarkibiy qismi tushunchasidan foydalaniladi. Bizning respublikamizda umumiy pul miqdori quyidagi (tarkib)lar asosida hisoblanadi:

M_0 – naqd pullar;

$M_1 = M_0 +$ tegishli hisob varaqalaridagi pul qoldiqlari, mahalliy budjetlar mablag‘lari, budjet, jamoa va boshqa tashkilot mablag‘lari;

$M_2 = M_1 +$ xalq (jamg‘arma) banklaridagi muddat omonatlar;

$M_3 = M_2 +$ chiqarilayotgan sertifikatlar + aniq maqsadli zayom obligatsiyalari + davlat zayom obligatsiyalari + xazina majburiyatlari.

Barcha pul agregatlari yig‘indisi yalpi pul massasi yoki yalpi pul taklifini tashkil qiladi. Pulning tarkibiy qismlarida naqd pullar – metall va qog‘oz pullardan iborat bo‘ladi. Naqd pullar bozor iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarda umumiy pul massasining 5–7 foizni, bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan Mustaqil Hamdo‘stlik Davlatlarida 30–35 foizni tashkil qiladi.

Pulga talab – bu bitimlar uchun (P_t) va aktivlar tomonidan pulga talab (P_a) ni o‘z ichiga oladi.

Aholi o‘zlarining hisoblariga navbatdagi pul oqimi kelib tushguncha, kundalik ehtiyojlari uchun qo‘llarida yetarli pulga ega bo‘lishi zarur. Korxonalariga ish haqi to‘lash, material, yoqilg‘i sotib olish va shu kabilar uchun pul kerak bo‘ladi. Shu barcha maqsadlar uchun zarur bo‘lgan pul bitim uchun pulga talab deyiladi. Bitim uchun zarur bo‘lgan pul miqdori nominal yalpi milliy mahsulot (YAMM) hajmi bilan aniqlanadi, ya‘ni u nominal YAMMga mutanosib ravishda o‘zgaradi. Aholi va korxonalariga ikki holda bitim uchun ko‘proq pul talab qilinadi: narxlar o‘sganda va ishlab chiqarish hajmi ko‘payganda.

Kishilar o‘zlarining moliyaviy aktivlarini har xil shakllarda, masalan, korporatsiya aksiyalari, xususiy yoki davlat obligatsiyalari shaklida ushlab turishi mumkin. Demak, aktivlar tomonidan pulga talab ham mavjud bo‘ladi. Aktivlar tomonidan pulga talab foiz stavkasiga teskari mutanosiblikda o‘zgaradi. Foiz stavkasi past bo‘lsa, kishilar ko‘proq miqdordagi naqd pulga egalik qilishni afzal ko‘radi. Aksincha, foiz yuqori bo‘lganda, pulni ushlab turish foydasiz va aktivlar shaklidagi pul miqdori ko‘payadi. Shunday qilib, pulga bo‘lgan umumiy talab, aktivlar tomonidan pulga bo‘lgan talab va bitim uchun pulga bo‘lgan talabning miqdori bilan aniqlanadi.

Pul quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) *qiymat o‘lchovi*. Bunda pul umumiy ekvivalent bo‘lgan tovar bo‘lib, o‘zida mehnatni mujassamlashtiradi va shu sabab tovar qiymatini o‘lchay oladi;

2) *muomala vositasi*. Bunda pul oldi-sotdida ishlatiladi. Pul yordamida tovarni xarid etish, pulga tovar ayirboshlash yuz beradi;

3) *jamg'arma vositasi* – bu pulning jamlangan boylik shakliga kirib, o'z egasi uchun kerak bo'lganda xarid etish vositasi bo'lib xizmat qila olishidir.

Hozirgi kunda elektron pullar o'tkazmalari keng rivojlanmoqda. Sanoqli soniyalarda jo'natmalar dunyoning ko'rsatilgan manzillariga yetkazilmoqda. Bu aholi uchun qulayliklar tug'diradi.

Pul islohoti o'tkazish yo'llari:

deflyatsiya – muomaladagi pul miqdorini ortiqcha pul belgilarini iste'moldan chiqarish yo'li orqali kamaytirish;

denominatsiya – pul belgilari qiymatining o'zgarishi va ma'lum nisbatda yangi yirik pul birligiga almashtirilishi;

nullifikatsiya – eski pul belgilarini muomaladan olish va ozroq miqdorda yangilarini chiqarish;

revalvatsiya – milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda chet el valutasi yoki qimmatbaho metallga nisbatan ko'tarilishi;

devalvatsiya – mamlakat savdo va to'lov balansining keskin yomonlashuvi, valuta rezervining holdan toyishi, xalqaro valuta bozorlarida milliy valuta kursining pasayishi bilan bog'liq holda pul birligi qiymatining rasmiy tartibda chet el valutasi yoki qimmatbaho metallga nisbatan pasaytirilishi.

Pul bozorida makroiqtisodiy muvozanatni saqlashda Markaziy bank muhim o'rin tutadi. Shu bois o'quvchilarga bu borada to'laqonli axborotga ega bo'lishlari uchun 1995-yil 21-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonunidan iqtiboslar keltirishni lozim topdik.

33-modda. Markaziy bankning pul belgilarini chiqarishdagi vakolatlari.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko'rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqarishda mutlaq huquqqa ega. Ularni qalbakilashtirish va noqonuniy tarzda tayyorlash qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Muomalada bo'lgan banknotlar va tangalar Markaziy bankning qat'iy majburiyatlari hisoblanadi va uning jamiki aktivlari bilan ta'minlanadi. Markaziy bank yo'q qilib yuborilgan, yo'qotilgan, qalbaki, yasama va qonuniy kuchini yo'qotgan banknotlar va tangalarning o'rnini qoplamaydi.

Markaziy bank banknotlar va tangalarning namunalarini, shuningdek ularning dizaynini Oliy Majlis Senatining Kengashi bilan kelishgan holda

tasdiqlaydi. Banknot va tangalarning dizayni Markaziy bankning mulki hisoblanadi. Markaziy bank yangi namunalardagi banknot va tangalar muomalaga chiqarilishi to'g'risidagi axborotni, shuningdek ularning tavsifini ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi. Markaziy bank va u vakolat bergan banklar talabga ko'ra bir nominal qiymatdagi banknot va tangalarni boshqasiga hech qanday to'lovsiz yoki vositachilik haqisiz ayirboshlab beradi.

34-modda. Pul belgilarini tayyorlash va saqlash.

Markaziy bank banknotlar bosilishi va tangalar zarb qilinishi, muomalaga chiqarilmagan pul belgilari saqlanishini, shuningdek bosma qoliplar va bo'yoqlar saqlanishi hamda yo'q qilinishini ta'minlaydi, naqd pullarni saqlash, tashish va inkasso qilish, shuningdek ularni yo'q qilib yuborish qoidalarini belgilaydi.

35-modda. Muomaladagi pul belgilaridan foydalanishga qo'yiladigan talablar.

Markaziy bank muomalaga chiqargan banknot va tangalar O'zbekiston Respublikasining butun hududida to'lovlarning barcha turlarida yozilgan qiymati bo'yicha qabul qilinishi, shuningdek hisobvaraqqa, omonatga o'tkazish va jo'natma sifatida o'tkazish uchun qabul qilinishi majburiydir.

36-modda. To'lovlarni amalga oshirish.

To'lovlar O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pul bilan yoki naqd pulsiz hisob-kitoblar ko'rinishida amalga oshiriladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi hududida banklar orqali amalga oshiriladi. Markaziy bank naqd pulsiz hisob-kitoblar shakllari va qoidalarini belgilaydi.

Markaziy bank yuridik shaxslarning kassa operatsiyalarini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

38-modda. Naqd pul mablag'larini muomalaga chiqarish.

Naqd pul mablag'larini muomalaga chiqarish va qaytarib olishni faqat Markaziy bank amalga oshiradi.

39-modda. Pul belgilarini muomaladan qaytarib olish.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida har qanday banknot va tangalarni muomaladan qaytarib olishga haqli. Bunga Markaziy bankning ayirboshlash tartibi va muddati ko'rsatilgan normativ hujjat asos bo'lib xizmat qilishi kerak, ayirboshlash muddati bir yildan kam bo'lishi mumkin emas. Markaziy bank ayirboshlash uchun belgilagan muddat tugaganida ayirboshlanishi kerak bo'lgan banknot va tangalar qonuniy to'lov vositasi sifatidagi o'z kuchini yo'qotadi.

O‘zbekiston Respublikasida 1994-yilning 1-iyunidan boshlab respublika milliy valutasini «so‘m» muomalaga kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki muomalaga 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so‘ngra 200, 500 va 1000 so‘mlik kupuralar hamda 1, 3, 5, 10, 20 va 50 «tiyin»lar va 5, 10, 25, 50, 100 so‘mlik tangalar chiqardi. O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida hisob-kitoblar, to‘lovlar, respublika rezidentlari va norezidentlari, yuridik va xususiy shaxslar o‘rtasidagi muomalalar, albatta, milliy valuta – «so‘m»da amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilgan.

Iqtisodiyotda pulning likvidligi muhim o‘rin tutadi. Pulning likvidligi uning muomala sifatida hamma narsaga tez va hech bir to‘siqsiz ayirboshlanishidir. Puldan boshqa likvidli aktivlar ham bor, lekin ular likvidlik jihatdan pulga tenglasha olmaydi. Sababi pul hech bir xarajatsiz xohlagan paytda xohlagan narsaga ayirboshlanishi mumkin. Bino, javohir yoki transport vositasi boshqa narsaga ayirboshlanishi uchun u sotilishi kerak, bu ko‘p vaqt va xarajatni talab qiladi.

Milliy pul – bu muayyan mamlakatda muomalada yuruvchi va tanho to‘lov vositasi deb qabul qilingan puldir.

Hozirgi iqtisodiyotda tovar shaklidagi pul qo‘llanilmaydi deyish mumkin. Ularning o‘rniga qog‘oz va elektron pullar qo‘llaniladi. Qog‘oz pullar dekretlangan. Yuqoridagi 39-moddaga muvofiq, davlat tomonidan pul deb e‘lon qilingan maxsus belgilari bor qog‘ozlardir. Qog‘oz pullar kupura shaklida hamda tangalar sifatida chiqarilishini yuqoridagi ma‘lumotlardan bilib oldik. Milliy pul yagona to‘lov vositasi hisoblanadi. U 12 ta himoya belgilariga ega. Himoya belgilari uni qalbakilash-tirishning oldini oladi. Pullar muomala qilish jihatidan naqd va naqd bo‘lmagan pullarga ajraladi.

Naqd pullar – bu aholi qo‘lida aniq moddiy shakldagi qog‘oz va tanga pullar bo‘lib, ular qo‘ldan qo‘lga o‘tib yuradi. Bu eng ko‘p tarqalgan to‘lov vositasidir.

Naqd bo‘lmagan pullar bu bankdagi ayrim fuqarolar (jismoniy shaxslar), firmalar yoki davlat tashkilotlari (yuridik shaxslar) nomiga yozilgan puldir. Naqd bo‘lmagan pul bankda turgani uchun u egasiga foiz keltirgan holda o‘sib boradi. Naqd bo‘lmagan pullar bankning joriy va muhlatli depozitlarida turadi, u ham to‘lovlarda qo‘llaniladi. Pullar bankda saqlanganda xavfsiz bo‘ladi. Bugun dunyo mamlakatlarida plastik kartochkalardan ham keng foydalanilmoqda. Biroq ularning o‘zini pul deb bo‘lmaydi. Ular pul borligini tasdiqlovchi vositadir. Pul aktiv va passiv pulga bo‘linadi. Aktiv pul amalda harakatda bo‘ladi, ya’ni iqtisodiyotdagi

oldi-berdi munosabatlarida to'lov vositasi sifatida harakat qiladi. Passiv pul bu iqtisodiy aylanmada ishtirok etmay turgan puldir. U jamg'arma, pul rezervlari va kassa qoldiqlaridan iborat bo'ladi. Milliy pullardan tashqari jahon pullari ham bo'ladi. Bu xalqaro miqyosda, ya'ni mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarga xizmat qiluvchi puldir. Ilgarilari jahon puli vazifasini oltin quyilmalari, ya'ni yombilari tashkil etgan. Hozir maxsus chiqarilgan jahon puli yo'q. Bu pul vazifasini qadri barqaror, ya'ni qattiq valutarlar tashkil etadi (AQSh dollari, Angliya funt sterlingi, Yaponiya iyenasi, Yevropa Ittifoqining yevrosi, qisman Xitoy yuani). Pul muomalasi deganda, bu pulning qo'ldan qo'lga o'tib, doimo harakatda bo'lishidir. Pul banklardan chiqib firmalar, davlat idoralari va nodavlat tashkilotlari kassasiga kelib tushadi. Iqtisodiyotda pul yetarli bo'lib, uning yetishmay qolishi yoki ortiqcha bo'lib ketishi kabi hollar yuz bermasligi kerak.

Iqtisodiyotning pul bilan naqadar ta'minlanishi uning monevizatsiyalanish darajasi deb yuritiladi. Pul muomalasini boshqarib turuvchi iqtisodiy qonun borki, bu bozor iqtisodiyotining muhim qonunlaridan biridir. Bu qonun muomalada qancha pul zarur bo'lishini belgilab beradi. (Qarang: yuqorida keltirilgan 33–40-moddalar).

2. Inflatsiya, uning mohiyati va turlari

Inflatsiya makroiqtisodiy beqarorlikning ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. «Inflatsiya» tushunchasi birinchi marta g'arbiy Amerikada, (1861–1865-yillardagi fuqarolar urushi davrida) qo'llanila boshlagan va qog'oz pul muomalasining ko'payib ketishi jarayonini bildirgan. Iqtisodiy adabiyotlarda «inflatsiya» tushunchasi XX asrda, birinchi jahon urushidan keyin keng tarqaldi.

Inflatsiya – bu qog'oz pul birligining qadrsizlanishi va shunga mos ravishda tovar narxlarining o'sishidir. Inflatsiya bozor xo'jaligining har xil sohalarida takror ishlab chiqarish nomutanosibliklari tug'diradigan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir.

Qog'oz pul tovarlarga, oltinga va o'z qadrini, barqarorligini saqlab qolgan chet el valutarlariga nisbatan qadrsizlanadi.

Inflatsiya narx indeksi yordamida bazis davrga nisbatan aniqlanadi. Kelib chiqish sabablari va o'sish sur'atlariga qarab, inflyasiyaning bir qancha turlari mavjud.

1) *talab inflatsiyasi*. Narx darajasining an'anaviy o'zgarishi jami talab ortiqchaligi bilan tushuntiriladi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish

sohasi mahsulotning real hajmini ko'paytirib ortiqcha talabni qondira olmaydi. Chunki barcha mavjud resurslar to'liq foydalanilgan bo'ladi. Shu sababli bu ortiqcha talab narxning oshishiga olib keladi va talab inflatsiyasini keltirib chiqaradi;

2) *taklif inflatsiyasi*. Inflatsiya ishlab chiqarish xarajatlari va bozordagi taklifning o'zgarishi natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi natijasida kelib chiqadigan inflatsiya mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlarning ko'payishi hisobiga narxlarning oshishini bildiradi.

Mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi iqtisodiyotda foydani va mahsulot hajmini qisqartiradi. Natijada tovarlar taklifi ham qisqaradi. Bu o'z navbatida narx darajasini oshiradi. Ishlab chiqarish xarajatlari nominal ish haqi, xom ashyo va energiya sarflari narxlarining o'sishi hisobiga ortib boradi. Inflatsiyaning: a) me'yordagi; b) o'rmalab boruvchi; c) giperinflatsiya kabi turlari ham mavjud. Inflatsiyaning birinchi turida baholar yiliga 10 foizgacha, ikkinchisida 20 dan 200 foizgacha, uchinchisida astronomik miqdorda o'sishi kuzatiladi.

Bashorat qilish mumkinligiga qarab kutilayotgan va kutilmagan inflatsiya farqlanadi. Kutilayotgan inflatsiya va uning oqibatlarini oldindan bashorat qilish mumkin, kutilmagan inflatsiyani oldindan aytib bo'lmaydi. Birinchi holda inflatsiyaning kutilayotgan salbiy oqibatlariga tayyorlanib, uni sezilarli darajada yumshatish mumkin. Ikkinchi holda narxlarning kutilmagan o'sishi natijasida mamlakat iqtisodiy ahvolidan sezilarli yomonlashuvi ro'y berishi mumkin.

Pul miqdori keragidan ortib ketganda inflatsiya paydo bo'ladi. Bu narxlarning muqim oshib borishi natijasida milliy pul birligining qadrsizlanishidir. Inflatsiyaning sabablari qo'shimcha pul emissiyasi, ishlab chiqarishning qisqarib ketishi, xarajatlarning oshib ketishi, chet el valutasini zaxiralarining qadrsizlanishi kabilardan iboratdir.

Inflatsiya kelib chiqishi sabablariga ko'ra:

- talab va taklif inflatsiyasiga;
- qanday borishi jihatidan erkin bozor inflatsiyasi va davlat bostirib turadigan inflatsiyaga;
- shiddati jihatidan *o'rmalovchi, yo'rg'alovchi va tez yuguruvchi – giperinflatsiyaga* ajratiladi.

Inflatsiya darajasini narxlarning zo'r berib o'sishi belgilaydi. Inflatsiya me'yorida bo'lganda (yiliga 10–12 foiz) bu iqtisodiyot uchun xavf tug'dirmaydi, aksincha, pul inyeksiya orqali iqtisodiyotning o'sishiga ko'mak beradi. Iqtisodiyot ishtirokchilari me'yordagi

inflatsiyaga moslashadilar. Davlatning moslashuv tadbirlari inflatsiyani hisobga olib foizini o'zgartirishdan, daromadlar indeksatsiyasini o'tkazishdan iborat bo'ladi. Inflatsiya belgilangan me'yoridan chiqib ketganda, davlat inflatsiyaga qarshi tadbirlarni qo'llaydi. Chunki inflatsiya firmalar va fuqarolardagi mavjud pul qadrlining pasayishidan turli xil yo'qotishlarga olib keladi. Giperinflatsiya iqtisodiy tanglikni hosil etadi. O'rmonlovchi inflatsiya sharoitida iqtisodiy faollik yuz beradi.

Davlatning aksinflatsiya siyosati asosan muomaladagi ortiqcha pulni olishdan, pul emissiyasini to'xtatishdan iborat bo'ladi. Iqtisodiyotda ortiqcha pul hosil bo'lganda, pul massasi qisqartiriladi. Narxlar pul miqdoriga bog'liq bo'lar ekan, uning qisqarishi talabni kamaytirib, narxlarning o'sishini sekinlashtiradi. Davlatning aksinflatsiya siyosatining muhim yo'nalishidan biri bu iqtisodiyotning real sektorini rag'batlantirishdan iborat. Chunki iqtisodiyotning real sektori xilma-xil mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish bo'lganidan u iqtisodiyotning asosiy tayanch nuqtasi hisoblanadi. Real sektorda yaratilgan barcha ne'matlar ayirboshlanadi, taqsimlanadi va iste'mol etiladi. Ko'rinib turibdiki, bunday harakat uzluksiz yuz beradi. Ya'ni takror ishlab chiqarishni yuzaga chiqaradi. Shu bois iqtisodiyotning real sektorini pulning aylanma harakatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki iqtisodiyotda doimo pulga qo'shimcha talab paydo bo'ladi. Bunday sharoitda pul zaxiradan chiqib oborotga kiradi va real sektorga xizmat qiladi. Iqtisodiyotda pulga talabning qondirilishi real sektordagi ishlab chiqarishni kengaytiradi va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun davlat pulning qadrlini mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'radi.

3. Pulning qadrlini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar

Respublikada milliy valutani mustahkamlash ishida so'mning xarid quvvatini oshirib borish va uning barqarorligini ta'minlash asosiy vazifa hisoblanadi. Bunga bozorni raqobatdosh mahsulotlar bilan to'ldirish va zarur ehtiyojlar hosil qilish orqali erishiladi. Bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirishda milliy ishlab chiqarishni imkoni boricha kengaytirib borish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki shu orqali iste'mol mollari sotishning umumiy hajmida milliy mahsulotlar hissasi oshirib boriladi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, milliy ishlab chiqarishni kengaytirish orqali so'mning barqarorligini ta'minlash chetdan mahsulot keltirishni

inkor qilmaydi. Aholini sifatli chet el mollari bilan ta'minlash maqsadida import ham rag'batlantirib boriladi.

So'mning barqaror amal qilishi, uning har qanday valutaga erkin almashinishi yetarli valuta zaxirasi bo'lishiga bog'liq. Unga erishishda korxonalar va barcha subyektlarning, jahon bozorida raqobatga bardosh beradigan mahsulot ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan rag'batlantiruvchi omillarni vujudga keltirish alohida ahamiyatga ega. So'mning barqarorligini ta'minlashda undan ehtiyotkorona va tejab, tergab foydalanish, ishlab chiqarishga sarflangan mablag'larning eng ko'p samara berishiga, olingan kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishiga erishish muhim o'rin tutadi.

Inflatsiyaga qarshi aniq o'ylangan siyosat o'tkazish milliy valutani mustahkamlashning muhim shartlaridan biridir. Bu siyosat eng avvalo inflatsiya darajasini keskin kamaytirishga qaratilishi lozim. Bunda pulning qadrsizlanish darajasi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish hamda unga qarshi samarali tadbirlar qo'llash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shu orqali pulning qadrsizlanishida maqbul sur'atni tanlashga erishiladi. Inflatsiyaga qarshi siyosat negizini pul miqdorining o'sishini tovarlar va xizmatlar miqdorining tegishli darajada o'sishi bilan bog'lab olib borishga qaratilgan tadbirlar tashkil qilish zarur. Chunki xarid qilish uchun mollar yetarli bo'lmagan holda aholi qo'lida pulning ortiqcha ko'payib ketishi inflatsiyaning yanada avj olib ketishiga sabab bo'ladi. Pul miqdori bilan birga narxlarning ham tobora o'sib borishi muqarrar ravishda, uzoq davom etadigan giperinflatsiyani keltirib chiqaradi. Bu, o'z navbatida, milliy ishlab chiqarishning izdan chiqishi, aholi keng tabaqalarining qashshoqlashishi va butun ijtimoiy tizimning barbod bo'lishi xavfini tug'diradi.

Tovarlar taqchilligi mavjud bo'lib turgan hozirgi bosqichda giperinflatsiyaning oldini olish uchun aholi iste'mol fondining o'sishini ishlab chiqariladigan mahsulot, ko'rsatiladigan xizmatning moddiy hajmi ko'payishiga bevosita bog'liq qilib qo'yish zarur bo'ladi. Ichki bozorni mollar va xizmatlar bilan to'ldirish, muomalaga o'rinsiz ortiqcha pul chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik, milliy valuta barqarorligini ta'minlash va xalq turmush darajasini o'stirishning muhim shartidir. So'mning barqarorligini ta'minlashda naqd pul emissiyasining o'sishiga, aholi qo'lida pulning harakatsiz turib qolishiga yo'l qo'ymaslik birinchi darajali ahamiyatga ega. Bunda muomalaga chiqarilgan pul miqdorining o'z vaqtida qaytarilishiga erishish, mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi ta'minlamagan korxonalariga kreditlar berilishiga yo'l qo'ymaslik

choralari ko‘rilishi kerak. Inflatsiyani pasaytiruvchi qudratli omil milliy valuta almashuv kursining barqarorlashuviga erishishdir. Bu, o‘z navbatida, import narxlarning barqarorlashuviga olib keladiki, natijada ichki bozordagi narxlar o‘zgaradi.

Valuta birjalarida valuta operatsiyalarining barcha turlari uchun talab va taklif natijasida shakllanadigan yagona almashuv kursini belgilash, valuta kursi barqarorligiga erishishning dastlabki shartidir. Milliy valuta kursi barqarorligini ta‘minlashning navbatdagi sharti dastlabki bosqichda valutani naqd pulsiz almashtirish hajmini ko‘paytirishga ustunlik berishdir. Istiqbolda esa bu sohadagi siyosat banklararo valuta birjasidagi oborot miqdorini korxonalar va fuqarolar o‘z pulini xohlagan miqdorda xohlagan valutaga erkin almashtirish imkoniyatini beradigan darajaga yetkazishga qaratiladi. Bunga erishishda milliy ishlab chiqarishda eksport ulushini kengaytirish bilan birga, Prezident Islom Karimov ta‘kidlaganidek, «milliy valutamizning joriy operatsiyalar bo‘yicha erkin almashuvini, ya‘ni konvertatsiyasini ta‘minlash uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish»¹ alohida ahamiyatga ega. Bu sharoit yaratilishi natijasida erkin almashuv amalga oshmoqda. Shunday qilib, yuqorida qarab chiqilgan chora va tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi milliy valutamiz almashuv kursining barqarorlashuviga, uning xarid qilish quvvatining oshishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy sohalardagi islohotlardan ham asosiy ko‘zlangan maqsad barcha o‘zgarishlarning natijasi va belgisi milliy valutamiz – so‘mimizni mustahkamlash, uni bosqichma-bosqich jahonning kuchli valutilari bilan konvertatsiyalashga, ya‘ni erkin almashuviga erishishdir. Chinakam talab va taklif asosida vujudga keladigan erkin bozor narxlarining amal qilishi bozor iqtisodiyotining g‘oyat muhim bo‘g‘ini bo‘lib, bu bo‘g‘in mahsulot ishlab chiqaruvchilar bilan iste‘molchilarning o‘zaro jips ta‘sirini ta‘minlaydi.

Pulning baquvvatligiga erishishga qaratilgan davlat dasturlari:

- ichki bozorni iste‘mol mollari bilan to‘ldirish;
- davlat xarajatlarini keskin qisqartirish, qat‘iy moliya, bank-kredit siyosatini o‘tkazish;
- eksport imkoniyatlarini keskin kuchaytirish;

¹ Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. – Т.: «Ўзбекистон», 2000. – Б. 18.

- ortiqcha pul emissiyasiga, ya'ni pul bilan ta'minlanmagan ortiqcha pul muomalada bo'lishiga yo'l qo'yimaslik.

Pulning qadrini mustahkamlashni ta'minlashning vositalari:

- mamlakatning oltin zaxirasi bilan;
- mamlakatning butun boyligi bilan;
- tovar massasining hajmi va tarkibi orqali;
- talab va taklif o'rtasidagi nisbatni tartibga solish orqali;
- narx-navoni tartiblash orqali;
- pul muomalasi qonunidan foydalanish orqali.

Narxning iqtisodiy mazmuni, vazifalari, turlari. O'zbekistonda narxlarni erkinlashtirish

Ma'lumki, bozorda tovar va xizmat xarid etilgan chog'da bunga qancha pul to'lash zarurligini narx belgilaydi. Narx deganda tovar qiymatining puldagi ifodasi tushuniladi. Narx bozor iqtisodiyotining muhim dastaklaridan biridir.

Narxning mazmuni to'g'risida turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, klassik iqtisod namoyandalari A. Smit, D. Rikardo, J.S, Mill narxni bozor qiymatining puldagi ifodasi, deb ta'riflaganlar. Neoklassik yondashuvga muvofiq narxga tovarlar nafliligini baholash vositasi sifatida qaraladi. Hozirgi zamon neoklassik yondashuv namoyandasi A.Marshall narx keyingi naflilik, ishlab chiqarish xarajatlari hamda talab va taklif nisbatining puldagi mujassamlashishi deb baholaydi. Demak, narx bozor aloqalarining asosiy iqtisodiy vositasi bo'lib, tovar va xizmat birligini sotib olish uchun to'lanadigan pul miqdorini bildiradi.

Narxning mohiyatini uning vazifalarini o'rganish orqali chuqur tushunish mumkin. Narx quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. *Bozor muvozanatini ta'minlash.* Bunda narx bozordagi talab va taklifning hajmi va tarkibiga ta'sir etish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi.

2. *Hisob-kitob o'lchov vazifasini bajaradi.* Qilingan xarajatlar, ko'rilgan foyda-zarar, bajarilgan ish hajmining hammasi ma'lum narxlar asosida hisob-kitob qilinadi.

3. *Iqtisodiy regulatorlik vazifasini bajaradi.* Narxdagi o'zgarish bozor holatini bildiradi, bu esa talab va taklif nisbatiga bog'liq.

4. *Raqobat vositasi hisoblanadi.* Raqobat turlaridan eng muhimi narx vositasida kurash. Firmalar o'z raqiblarini yengish, ularni bozordan siqib

chiqarish uchun narxni o'zgartirib turadilar. Narxning raqobat vositasi ekanligi uning g'oyat muhim iqtisodiy vosita bo'lganidan kelib chiqadi. Firmalar bozorni egallab olish, undan raqiblarni siqib chiqarish uchun narxlarni o'zgartirish siyosatini qo'llaydi.

5. *Ijtimoiy himoya vazifasini bajaradi.* Narx aholining ayrim toifasi yoki xalqni qimmatlikdan saqlash vazifasini o'taydi. Bunda dotatsion (budjet mablag'lari hisobidan arzonlashtirilgan) narxlar shunday vazifani bajaradi.

Iqtisodiy mazmunga ko'ra narxning quyidagi turlari mavjud:

muvozanat narx – bu turli tovarlar o'rtasidagi iqtisodiy jihatdan asoslangan nisbatlardir;

demping narx – bu bozordan raqiblarni surib chiqarib, o'z mavqeini mustahkamlash uchun qo'llaniladigan maxsus narx;

nufuzli narx – bu firma narx qo'yganda tovar sotilishini qisqartirmagan holda yuqori narx hisobiga kanda qilmay foyda olish;

milliy narx – bu mamlakat doirasidagi ijtimoiy xarajatlarni, milliy bozordagi talab va taklifni, tovar nafligini va naqadar qadriligini hisobga olgan narx;

dotatsiyalangan narx – bu davlat budjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narx;

jahon narxi – bu tovarga ketgan baynalminal sarf-xarajatlarni, tovarning jahon standarti talabiga mos kelishi darajasini, talab va taklifni hisobga olgan narx;

standart narx – bu xaridor imkoniyatini hisobga olib, ma'lum davrgacha o'zgarmaydigan narx;

kontrakt narx – bu har ikki tomonning roziligi bilan belgilangan va ularning shartnomasida qayd etilgan narx;

o'zgaruvchan narx – bu xarajatlar va bozordagi talabning o'zgarishini hisobga oladigan narx;

chakana narx – bu iste'mol tovarlarini bevosita aholiga sotish narxi;

erkin narx – bu savdolahuv asosida vujudga keladigan narx;

limit narx – bu maksimal chegarasi aniqlanib, undan oshiq darajada belgilanadigan narx;

monopol narx – bu monopol mavqeiga ega bo'lgan tovarlarga belgilanib, ishlab chiqarish bahosidan yuqori yoki past bo'ladigan narx;

yashirin narx – bu xufiyona bozorlarda shakllanadigan narx.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov: «Chinakam talab va taklif asosida vujudga keladigan erkin bozor narxlarining amal qilishi bozor iqtisodiyotining g'oyat muhim bo'g'ini bo'lib, bu bo'g'in mahsulot ishlab

chiqaruvchilar bilan iste'molchilarning o'zaro jips bo'lishini ta'minlaydi», – deb ta'kidlaganida narxning shakllantirishda unga ta'sir etuvchi obyektiv omillarga e'tibor qaratishni nazarda tutgan.

Narxning shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir etadi: qiymat, raqobat, talab, taklif va naflilik. Narxlarning shakllanishida xarajat muhim o'rin tutadi. U har qanday narxning umumiy asosi hisoblanadi. Chunki xarajatsiz hech qanday tovar yoki xizmatlar yaratib bo'lmaydi. Narxlarning shakllanishida talab va taklifning o'rni va ta'siri beqiyos. Demak, talab oshsa, narx oshadi, talab qisqarsa, narx tushadi. Aksincha, taklif ko'paysa, narx tushadi, u qisqarsa, narx oshadi.

Narxga tovarning nafliligi ham ta'sir etadi. Tovar va xizmat qanchalik naflilik darajasida bo'lsa, naf ma'lum vaqtgacha oshish tendensiyasiga ega bo'ladi. Naflilik darajasi pasaysa, narx tushadi. Shu bois tovarning nafliligi qancha yuqori bo'lsa, uning narxi ham shuncha baland bo'ladi yoki aksincha.

Narxlarning shakllanishida raqobat muhiti muhim rol o'ynaydi. Raqobat narx bilan belgilanganda, u bozorga ta'sir o'tkazadi. Raqobat kuchli bo'lsa, narx pasayadi. Agar raqobat cheklansa, narx ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, narxlarning shakllanishida davlatning iqtisodiy siyosati muhim rol o'ynaydi. Davlatning narx siyosati deganda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida narxlarni erkinlashtirish va milliy bozor narxlarini jahon bozori narxlariga yaqinlashtirish chora-tadbirlari tushuniladi.

Narxlarni erkinlashtirishdan maqsad – xomashyo va mahsulot ayrim turlari narxlari o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirish, shuningdek narx bilan aholi daromadlari va korxonalar foydasi o'rtasidagi mutanosiblikka erishishdir. Bundan tashqari narxlarni erkinlashtirish investitsion tovarlar, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxlarining oqilona nisbatini ham ta'minlaydi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni isloh qilishning o'ziga xos tamoyillari, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat va aholining turmush darajasi hisobga olinib, narxlarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish yo'li tanlab olindi.

Ma'lumki, narxlarni birdaniga yoki «esankiratadigan» darajada qo'yib yuborish jamiyatda ijtimoiy keskinlikni kuchaytirish, amalga oshirilayotgan islohotlarni obro'sizlantirishga olib keladi. Shu bois ham mamlakatimizda narxlarni davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishni ma'lum darajada saqlab qolishga ham e'tibor qaratildi.

Birinchi bosqich (1992-yil boshida) – *bu davrda ancha keng turdagi investitsion tovarlar, ayrim iste'mol tovarlari va xizmatlarning erkin*

narxlari va ta'riflariga o'tildi. Cheklangan doiradagi xalq iste'mol tovarlari narxlari, ayrim turdagi xizmatlar ta'riflarining yuqori chegarasi belgilab qo'yildi.

Ikkinchi bosqich (1993-yil)da ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to'xtatildi. Davlat tomonidan qat'iy belgilanadigan va tartibga solib turiladigan tovar va xizmatlar soni ancha qisqardi.

Uchinchi bosqich (1994-yil oktabr-noyabr)da xalq iste'moli tovarlari asosiy turlarining narxlari erkin qo'yib yuborildi, transport va kommunal xizmatlari ta'riflari oshirildi.

Muhimi bugungi kunda mamlakatimizda narxlarning ijtimoiy himoya vazifasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Narx orqali raqobatda uning g'irrom va yovvoyi usullaridan foydalanishga to'siqlar qo'yilmoqda.

Tayanch tushunchalar:

Pul, pul tizimi, naqd va naqd bo'lmagan pul, aktiv va passiv pul, pulning vazifalari, pul massasi, pulning likvidligi, pul muomalasi, pul likvidli, pulning qadri, pul emissiyasi, milliy pul, inflatsiya va deflyatsiya, denominatsiya, nullifikatsiya, revalvatsiya, devalvatsiya.

Narx, narxning vazifalari, narxga ta'sir etuvchi omillar, narx turlari, demping narx, narxning shakllanishi, narx bilan bog'liq jinoyatlar, milliy narx.

Savol va topshiriqlar:

1. Pulning oltin standarti davrida vazifasi qanday bo'lgan?
2. Pul nima uchun bozor iqtisodiyotining muhim vazifasi hisoblanadi?
3. Pulning qadr-qiyamati nimalarga bog'liqligini tushuntiring.
4. Inflatsiya va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini tushuntirib bering.
5. Konvertirlangan valuta nima?
6. Davlat inflatsiyaga qarshi qanday chora-tadbirlar amalga oshirayotganini gapirib bering.
7. Qalbaki pul, aksiz markasi yoki qimmatli qog'ozlar yasash, ularni o'tkazish bilan bog'liq jinoyatlar qanday oqibatlarga olib kelishini izohlang.
8. Valuta ayirboshlash bilan bog'liq jinoyatlar haqida fikringiz?
9. Narxning obyektiv iqtisodiy asosi nima?
10. Nima sababdan davlat raqibini sindirish va bozordan surib chiqarishni ko'zlab, o'ta past narxlarda tovar sotishni man etadi?
11. Bozor bahosi nima?
12. Narxning oshishi hayot darajasiga qanday ta'sir o'tkazishini tushuntiring.

Mavzuni chuqur o'rganish instrumentariysi

Tovar – ayirboshlash uchun mo'ljallangan iqtisodiy ne'mat.

Qiymat – tovar ayirboshlash holatida o'z ifodasini topadigan hamda ayirboshlanadigan ne'matlarning iste'molchilari va ishlab chiqaruvchilari manfaatlarini maqbullashtirish (kelishtirish) natijasi, tovar ayirboshlash faktida ifodalangan iste'mol va ishlab chiqarish qiymati o'zaro munosabatining natijasi.

Ishlab chiqarish qiymati – tovarning uni yaratuvchi shaxsning muayyan daromadini ta'minlash qobiliyati.

Qiymat qonuni – ayirboshlash faktining ayirboshlanadigan ne'matlarning iste'molchilari va ishlab chiqaruvchilarining iqtisodiy manfaatlari maqbullashuvi («mos kelishi»)ga bog'liqligini ifodalovchi ichki, takrorlanuvi va barqaror aloqa va munosabatlar.

Iste'mol qiymati – tovarning muayyan hayotiy ehtiyojni qondirish qobiliyati.

Qiymat me'yori – turli tovar ayirboshlash qiymatlarining puldagi o'lchovi yoki «narx» bo'yicha qiyoslanishi.

Pul – almashish uchun mo'ljallangan tovar qiymatlarining umumiy ekvivalenti.

Pulning jamlash vositasi – tovar va xizmatlar sotilganidan so'ng jamg'ariladigan va kelajakda xarid qobiliyatini ta'minlaydigan pul.

Pulning muomala vositasi – tovar va xizmatlar sotib olish uchun foydalaniladigan pul; pul o'zining ushbu funksiyasi bilan iqtisodiy ne'matlarni olish-sotishda vositachi hisoblanadi.

Pulning to'lov vositasi – xaridorga ilgari kelib tushgan tovar va xizmatlar uchun haq to'lashda foydalaniladigan pul.

Inflatsiya salohiyati – iqtisodiyot haddan tashqari davlatlashtirilgan sharoitda hosil bo'ladigan inflatsiya imkoniyati.

Inflatsiya jarayoni – inflatsiyaning kelib chiqishi, dinamikasi va yo'nalishini belgilovchi barcha elementlarining aloqador birligi va o'zaro ta'siri.

Inflyatsion transfert – iqtisodiy ne'matlarning milliy xo'jalikning inflatsiya bilan moliyalashtiriladigan tarmoqlari va sektorlari foydasiga qayta taqsimlanish jarayoni.

Inflatsiya (takror ishlab chiqarish bilan bog'liq yondashuv) – ijtimoiy takror ishlab chiqarish hodisasi; jami talabning o'sishi tomon boradigan barqaror makroiqtisodiy nomutanosiblik.

Inflatsiya (monetar talqin) – pul bozorining hodisasi; pul massasi muomala kanallari haddan tashqari to'lib ketishi oqibatida narxlarning umumiy darajasi o'sishi.

Inflyatsion kutishlar mexanizmi – inflatsiya o‘rishini kutish bo‘lib, firmalar va uy xo‘jaliklari inflyatsion transfertning bir qismini o‘zlashtirish maqsadida bajaradigan tegishli «qoplovchi» (kompensatsion) xatti-harakatini belgilab beradi.

Inflatsiya sababi – inflatsiya jarayonining bevosita inflyatsion makroiqtisodiy nomutanosiblikni keltirib chiqaradigan ko‘rsatkichlari.

Stagflyatsiya – inflatsiya va ishlab chiqarishning pasayishi birligida namoyon bo‘luvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa.

Inflatsiya omillari – inflatsiya imkoniyatiga ega bo‘lgan va uni mustaqil ravishda emas, balki davlatning tegishli iqtisodiy siyosatni amalga oshirishi natijasida ro‘yobga chiqaradigan obyektiv iqtisodiy holat.

Davlatning aksinflatsion siyosati – davlatning inflatsiyani nazorat qilishni ta‘minlovchi qisqa, uzoq muddatli va strategik choralari tizimini amalga oshirish borasidagi maqsadga qaratilgan faoliyati.

Destagflyatsiya – ishlab chiqarish hajmining o‘rishi va ayni vaqtda ishsizlikning kamayishi hamda narx darajasining pasayishi.

Inflyatsion xavfsizlik strategiyasi – iqtisodiyotning joriy va ehtimol tutilgan xatarli inflatsiya omillaridan doimiy va amaliy himoyalanganlik holatini ta‘minlovchi davlat choralari tizimi.

Barter – muayyan tovar yoki xizmatni pulsiz boshqa tovar yoki xizmatga ayirboshlash.

Likvidlik – turli ne‘matlardan to‘lov vositasi sifatida foydalanilishi yoki amalga oshishi qobiliyati; shuningdek muayyan qiymat (ne‘mat, aktiv)ning naqd pulga tezda aylanish qobiliyati.

Narxlar miqyosi – muayyan mamlakatda qabul qilingan pul birligida (masalan, bir so‘mda) mavjud bo‘lgan pul materiali (oltin)ning muayyan miqdori.

Ayirboshlash qiymati – iste‘mol va ishlab chiqarish qiymatining o‘zaro ta‘siri asosida yuzaga keladigan iqtisodiy ne‘matlarning muayyan miqdor mutanosibligida bir-biriga aylanish qobiliyati.

Dunyo pullari – xalqaro hisob-kitoblarda foydalaniladigan pullar (oltin, eng rivojlangan mamlakatlarning milliy valutalari).

Narx (ijtimoiy ma‘noda) – tovarning pul shaklida ifodalangan qiymati.

Narx (funksional ma‘noda) – xaridor sotuvchiga muayyan iqtisodiy ne‘mat uchun to‘laydigan pul miqdori.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

«Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy sohalardagi islohotlardan ham asosiy ko‘zlangan maqsad barcha o‘zgarishlarning natijasi va belgisi milliy valutamiz – so‘mimizni mustahkamlash, uni

bosqichma-bosqich jahonning kuchli valutalari bilan konvertatsiyalashga, ya'ni erkin almashuviga erishishdir» (*Islom Karimov*).

«Chinakam talab va taklif asosida vujudga keladigan erkin bozor narxlarining amal qilishi bozor iqtisodiyotining g'oyat muhim bo'g'ini bo'lib, bu bo'g'in mahsulot ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilarning o'zaro jips ta'sirini ta'minlaydi» (*Islom Karimov*).

Pulning baquvvatligiga erishishga yo'naltirilgan davlat dasturlari:

- ichki bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirish;
- davlat xarajatlarini keskin qisqartirish, qat'iy moliya, bank-kredit siyosatini o'tkazish;
- eksport imkoniyatlarini keskin kuchaytirish;
- ortiqcha pul emissiyasiga, ya'ni pul bilan ta'minlanmagan ortiqcha pul muomalada bo'lishiga yo'l qo'ymaslik.

Pul qadrini mustahkamlashni ta'minlashning vositalari:

- mamlakatning oltin zaxirasi bilan;
- mamlakatning butun boyligi bilan;
- tovar massasining hajmi va tarkibi orqali;
- talab va taklif o'rtasidagi nisbatni tartibga solish orqali;
- narx-navoni tartiblash orqali;
- pul muomalasi qonunidan foydalanish orqali.

Pul islohoti o'tkazish yo'llari:

deflyatsiya – muomaladagi pul miqdorini ortiqcha pul belgilarini iste'moldan chiqarish yo'li orqali kamaytirish;

denominatsiya – pul belgilari qiymatining o'zgarishi va ma'lum nisbatda yangi yirik pul birligiga almashtirilishi;

nullifikatsiya – eski pul belgilarini muomaladan olish va ozroq miqdorda yangilarini chiqarish;

revalvatsiya – milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda chet el valutasini yoki qimmatbaho metallga nisbatan ko'tarilishi;

devalvatsiya – mamlakat savdo va to'lov balansining keskin yomonlashuvi, valuta zaxirasining holdan toyishi, xalqaro valuta bozorlarida milliy valuta kursining pasayishi bilan bog'liq holda pul birligi qiymatining rasmiy tartibda chet el valutasini yoki qimmatbaho metallga nisbatan pasaytirilishi.

Pul miqdori keragidan ortib ketganda, inflatsiya paydo bo'ladi. Bu narxlarning muqim oshib borishi natijasida milliy pul birligining qadrsizlanishidir. Inflatsiyaning sabablari qo'shimcha pul emissiyasi, ishlab chiqarishning qisqarib ketishi, xarajatlarning oshib ketishi, chet el valutasini zaxiralarining qadrsizlanishi kabilardan iboratdir. Inflatsiya kelib chiqishi sabablariga ko'ra: talab va taklif inflatsiyasiga; qanday borishi jihatidan erkin bozor inflatsiyasi va davlat bostirib turadigan inflatsiyaga; shiddati jihatidan o'rmalovchi, yo'rg'alovchi va tez yuguruvchi – giperinflatsiyaga ajratiladi.

Inflatsiya darajasini narxlarning zo‘r berib o‘shishi belgilaydi. Inflatsiya me‘yorida bo‘lganda (yiliga 10–12 foiz), bu iqtisodiyot uchun xavf tug‘dirmaydi, aksincha pul inyeksiya orqali iqtisodiyotning o‘shishiga ko‘mak beradi. Iqtisodiyot ishtirokchilari me‘yoridagi inflatsiyaga moslashadilar. Davlatning moslashuv tadbirlari inflatsiyani hisobga olib foizini o‘zgartirishdan, daromadlar indeksatsiyasini o‘tkazishdan iborat bo‘ladi. Inflatsiya belgilangan me‘yoridan chiqib ketganda, davlat inflatsiyaga qarshi tadbirlarni qo‘llaydi.

Aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste‘mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o‘shishining oldini olishga doir chora-tadbirlar ham respublikamizda izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu esa yurtimizning farovonligini yuksaltirish, aholining xarid qobiliyatini oshirishda ko‘zda tutadigan eng muhim ustuvor maqsadlarimizga to‘la mos keladi.

14-MAVZU. MOLIYA-KREDIT MUNOSABATLARI

1. Moliyaning mohiyati va vazifalari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXV bobi «Moliya va kredit» deb nomlanib, uning 122-moddasida: «O‘zbekiston Respublikasi o‘z moliya va pul-kredit tizimiga ega. O‘zbekistonning Davlat budjeti respublika budjetidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan iborat», – deyilgan.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat va bozor munosabatlarini boshqarishning muhim instrumenti moliya bo‘lib, u jamiyatda pul mablag‘lari fondlarini shakllantirishni, taqsimlashni va foydalanishni ifodalaydi. Jamiyatning daromadi – bu YAIMning pulda hisoblangan qiymatidir. Demak, moliya – yalpi milliy mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlash, pul mablag‘lari fondlarini yuzaga keltirish va ulardan foydalanishning iqtisodiy instrumentidir. Moliyaning mohiyati uni taqsimlash, rag‘batlantirish, ijtimoiy, fiskal va nazorat vazifalarini bajarishda namoyon bo‘ladi. Moliya tizimining bir tomonini moliya tashkilotlarining majmui tashkil qiladi, ularning vazifalari O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonunlarida belgilangan.

Moliyaviy tizim ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar nuqtai nazaridan markazlashgan, markazlashmagan hamda uy xo‘jaligi moliyalaridan tashkil topadi. Markazlashgan moliya davlat budjet tizimini, krediti,

ijtimoiy budjetdan tashqari fondlarni, mulkiy va shaxsiy sug'urta fondlarini o'z ichiga oladi. Markazlashmagan moliya o'z tarkibiga mamlakat moliya resurslarining ko'p qismini o'zida shakllantiruvchi turli mulk shaklidagi korxonalar va firmalarni, ya'ni alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini hal etishga mo'ljallangan moliya resurslarini oladi.

Uy xo'jaligi moliyasi barcha oila a'zolari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni ifodalovchi shaxsiy moliyaviy resurslardan tashkil topadi. Moliya tizimining barcha elementlari o'z vazifalari doirasida jamiyatning iqtisodiy o'sishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Xususan, markazlashgan moliyaviy mablag'lar davlatning markazlashgan fondiga va u fondlar tarmoqlar, viloyatlar, aholining alohida tabaqalariga taqsimlanadi.

Markazlashgan moliyaviy mablag'lar tarkibiga kiruvchi budjetdan tashqari fondlar aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Xususan, nafaqa fondi nafaqaxo'rlarga to'lashga mo'ljallangan. Sug'urta fondi korxonalar va aholiga, oilalarga tabiiy ofatlardan yetgan zararining o'rnini qoplash uchun to'lanadigan mablag'larni tashkil qiladi.

Korxonalar va firmalarning moliyaviy mablag'lari yalpi milliy mahsulotni yaratishga qaratilgan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga, xalq xo'jaligi yoki korxonalar, firmalar ichida taqsimlashga xizmat qiladi.

Moliyaviy munosabatlar ko'p qirrali bo'lib, iqtisodiy munosabatlarning muhim sohasini tashkil qiladi. Moliya iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag'laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tizimi bo'lib, uning vositasida turli darajada pul fondlari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi.

Moliya iqtisodiyot doirasida o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator vazifalarni bajaradi:

1) moliyaning iqtisodiy jarayonlarni, tadbirlarni moliyaviy ta'minlash va unga xizmat ko'rsatish vazifasini bajaradi;

2) moliyaning taqsimlovchi vazifasi. Bu moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan yalpi milliy mahsulotni, ayniqsa, uning milliy daromadni tashkil qiluvchi qismini davlat va mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, iqtisodiyot tarmoqlari, moddiy ishlab chiqarish sohalari, mamlakat hududlari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi. Bundan milliy daromadning bir qismi korxonalar va aholi daromadlaridan turli xil soliqlar olish, renta va bojxonalar to'lovlari, aksiz yig'inlari kabilar orqali davlat qo'lida to'planadi. O'z qo'lida to'plangan milliy daromadning katta qismini davlat moliya

vositasida aholining ijtimoiy madaniy ehtiyojlariga (uy joy qurilishi, tibbiyot xizmati, maorif, nafaqa, stipendiya va h.k.), daromadlar darajasini ushlab turishga, milliy mudofaaga, atrof-muhitni muhofaza qilish va shu kabilarga sarflaydi;

3) moliyaning rag‘batlantiruvchi vazifasi, birinchidan, yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash jarayonida, ikkinchidan, pul fondlarini tashkil qilish va sarflash mexanizmi vositasida amalga oshiriladi. Ikki holda ham moliya ishlab chiqarish samaradorligiga, uning pirovard natijasiga, mahsulot sifatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi;

4) moliyadan ishlab chiqarish, taqsimlash va iste‘mol ustidan nazorat qilish vositasi sifatida foydalaniladi. Moliyaviy nazorat korxonalar (firma)larning moliya intizomiga rioya qilish uchun moddiy javobgar bo‘lish tizimi, turli soliqlar undirib olish va mablag‘ bilan ta‘minlash tizimi orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy munosabatlar va ularga xizmat qiluvchi maxsus muassasalar jamiyatning moliya tizimini tashkil qiladi. Moliya tizimi *korxonalar (tarmoqlar) va umumdavlat* moliyasini o‘z ichiga oladi. Korxonalar va tarmoqlar moliyasi ulardagi takror ishlab chiqarish jarayonida hamda alohida fondlar yaratish yo‘li bilan xodimlarning ijtimoiy ehtiyojlariga xizmat qiladi.

Umumdavlat moliyasi davlat budjetini, ijtimoiy sug‘urta fondini hamda davlat mol-mulkiy va shaxsiy sug‘urtasi fondini o‘z ichiga oladi. Davlat pul mablag‘larining asosiy markazlashgan fondi bo‘lgan davlat budjeti moliya tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qiladi. **Davlat budjeti – bu davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasidir.** Davlat daromadlari va xarajatlarning asosiy qismi davlat budjeti orqali o‘tadi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdir.

Davlat mol-mulkiy va shaxsiy sug‘urtasi umumdavlat moliyasining keyingi bo‘g‘ini hisoblanib, mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar va fuqarolarga joriy qilinadi. U majburiy va ixtiyoriy bo‘lishi mumkin. Bu maqsadlar uchun fondlar korxonalar va aholining to‘lovlari hisobiga shakllanadi. Fond mablag‘lari mol-mulkiy sug‘urtasiga va shaxsiy sug‘urtaga pul to‘lashni ko‘zda tutadi.

Shaxsiy sug‘urta aholining pul jamg‘armalarini tashkil qilishning shakllaridan biri bo‘lib ham xizmat qiladi.

Jamiyat moliya tizimi ijtimoiy-siyosiy va ma‘rifiy ishlar bilan shug‘ullanuvchi tashkilot va muassasalarning moliyasini ham o‘z ichiga

oladi. Kasaba uyushmalar, siyosiy partiyalar, yoshlar, xotin-qizlar, faxriylar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, sport jamiyatlari va boshqa ilmiy-ma'rifiy jamiyatlarning ham o'ziga xos moliyasi mavjud bo'ladi. Bunday ijtimoiy tashkilotlarning moliyaviy resurslarining manbai, tashkilot a'zolarining kirish puli va badallari, tijorat faoliyatidan kelgan daromad, homiyalar ajratgan yoki xayriya qilgan mablag'lardan iborat bo'ladi. Jamiyat moliya tizimida maxsus va xayriya fondlari ham alohida o'rin tutadi. Bu fondlar turli xo'jalik subyektlari va aholining pul mablag'larini aniq bir maqsad yo'lida birlashtiradi va ishlatadi.

Mazkur fondlarga respublikamizda amal qilib turgan «Mahalla», «Navro'z», «Orol», «Ulug'bek» va «Nuroni» fondlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o'tib borish bilan jamiyat moliya tizimida turli xil sug'urta (ijtimoiy sug'urta, tibbiy sug'urta) fondlari va budjetdan tashqari moliya fondlari (pensiya fondi, aholini ish bilan ta'minlash fondi, tabiatni muhofaza qilish fondi, tarixiy yodgorliklarni saqlash fondi, tadbirkorlarga ko'mak berish fondi va boshqalar)ning ahamiyati ortib boradi.

1.2. Moliya tizimi

Ma'lumki, jamiyatning moliyasi muayyan tizimni hosil etadi. Bularga moliya obyekti, moliya subyekti, moliya munosabatlari, moliya mexanizmi, moliya siyosati va moliya institutlari kiradi. Quyidagi ularning ta'rifini keltiramiz.

Moliya obyekti – moliya resursi bo'lib, turli pul fondlaridan iborat. Bu fondlarni barcha iqtisodiyot subyektlari o'z daromadi – tushumi hisobidan shakllantiradi, ular hisobidan xarajatlarini moliyalashtiradi.

Moliya subyekti – moliya munosabatlarning ishtirokchilari bo'lib, firmalar, xonadonlar, davlat va nodavlat idoralaridan iborat. Bular yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Moliya munosabatlari – iqtisodiyot subyektlarining moliya resurslari xususidagi o'zaro aloqalari. Bu aloqalar YAIM va milliy bo'ylukni taqsimlab ishlatish jarayonida yuzaga keladi.

Moliya mexanizmi – turli moliya vositalari bo'lib, soliq, subsidiya, subvensiya, transfert, jarima, dotatsiya, sanatsiya, moliyaviy me'yorlar va boshqalardan iborat. Bular iqtisodiy faollikni rag'batlantirish yoki iqtisodiy noshudlikni jazolash uchun qo'llaniladi. Shuningdek, ular vositasida ijtimoiy yordam amalga oshiriladi.

Moliya siyosati – iqtisodiyot subyektining moliyaviy resurslarni topish, ularni taqsimlash va sarflashga oid yo‘l-yo‘riqlari va sa’y-harakatlarining majmuidir. O‘z moliyaviy siyosatini faqat davlat emas, balki firmalar va xonadonlar ham yurgizadi va bunda subyektlar o‘z manfaatlaridan kelib chiqadi.

Moliya institutlari – bular moliya aloqalarini amalga oshiruvchi va moliya infratuzilmasini tashkil etuvchi kompaniyalar, firmalar, banklar hamda davlat idora va tashkilotlaridan iborat.

Moliya tizimining barcha bo‘g‘inlari bir-birini taqozo etgan holda amal qiladi. Moliya turli darajada amal qiladi:

1. Mikromoliya – bu firmalar va xonadonlar, nodavlat va jamoat tashkilotlaridagi moliya, moliya tizimining boshlang‘ich va asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi.

2. Makromoliya – bu mamlakat doirasidagi va milliy iqtisodiyotga xizmat qiluvchi moliya bo‘lib, davlat moliyasidan iborat.

3. Metamoliya – xalqaro doiradagi moliya bo‘lib, davlatlararo pul munosabatlarini anglatadi.

1.3. Moliyaning funksiyalari

Iqtisodiyot real va moliya sektoridan iborat. Moliya sektori iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi. Shu bois moliyaning zarurligi uning iqtisodiyotda bajariladigan funksiyalarini belgilab beradi. Bularni qisqacha ko‘rib chiqamiz:

1) *taqsimlash funksiyasi*. Bunda moliya vositasida yaratilgan YAIMning va bozorga chiqarilib sotilgan milliy boylikning pul shaklidagi qiymati taqsimlanadi. Buning natijasida turli pul fondlari hosil bo‘ladi. Demak, jami pul taqsimlanib, oilalar, firmalar va davlatning moliya resurslari hosil bo‘ladi.

Davlat ixtiyoriga kelgan pul budjet yordamida taqsimlanib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi fondlarga yuboriladi;

2) *rag‘batlantirish funksiyasi*. Moliya mexanizmi vositasida iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlash yuz beradi (rag‘batlantirish mukofotlari, qo‘shimcha ish haqi). Iqtisodiy-ijtimoiy faollikni rag‘batlantirish maqsadida davlat soliq stavkalarini pasaytiradi, muhtojlarga moliyaviy yordam ko‘rsatadi (Masalan, bir yilda 50 mingdan ortiq oilaga sog‘in sigir berilmoqda). Umumiqtisodiy ahamiyatga molik ishlar bajarilganda moliyaviy qiyinchilikka duchor bo‘lgan firmalarga davlat subsidiya (moliyaviy yordam qaytarilmaslik sharti bilan) davlat ajratadi. Moliya

vositasida iqtisodiy jazo ham qo'llaniladi. O'z majburiyatini vaqtida bajarmaganligi uchun subyektlar jarima va pensiya (ustama to'lov) beradilar. Bu ham rag'batlantirishga xizmat qiladi;

3) *ijtimoiy funksiya*. Bunda moliya resurslari ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga sarflanadi (ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat, ijtimoiy ta'minot, ekologik xavfsizlikni ta'minlash ishlari, aholining muhtoj qatlamlariga yordam);

4) *nazorat funksiyasi*. Moliyaviy resurslarni ajratgan subyektlar ularni maqsadli ishlatilishini nazorat ostiga oladilar. Nazorat ishining asosiy vazifasi moliya resursining samarali ishlatilishini ta'minlashi hisoblanadi.

2. Moliyaviy inqiroz, uning kelib chiqish sabablari, oqibatlari va undan chiqish yo'llari

Moliyaviy inqiroz deganda, banklar likvidligi (to'lov qobiliyati)ning zaifligi bilan bog'liq muammolarning keskinlashuvi natijasida yuz bergan inqiroz tushuniladi. U kredit bozorida yuz bergan tanglik va mablag' (pul)ning yetishmasligi tufayli kelib chiqadi. 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ham aslida shu asosda ildiz otdi.

Moliyaviy resurslarning globallashuvi ijobiy va salbiy oqibatlarga ega. **Ijobiy oqibatlari** – milliy moliyaviy bozorlarda raqobatning kuchayishi, moliyaviy xizmat narxlarining pasayishi, zarur bo'lganida, moliyaviy resurslarning tezda yig'ilishi, ya'ni moliyaviy taqchillikning yo'qligi. Moliya resurslari globallashuvining **salbiy oqibatlari** quyidagilardan iborat:

- 1) milliy moliyaviy bozorlarning beqarorligi;
- 2) pul kapitalining real kapitaldan, ya'ni ishlab chiqarish vositalari, tovar zaxiralaridan ustunlik qilishi (ko'pligi);
- 3) iqtisodiyotning moliyaviy holatga bog'liqligining o'sishi;
- 4) moliyaviy mablag'larning norezidentlar xatti-harakati, shuningdek mintaqaviy moliyaviy bozorlar va xalqaro moliyaviy markazlar konyunkturasi bog'liqligi.

Moliyaviy resurslarning globallashuvi shunga olib keladiki, milliy hukumatlarning moliyani tartibga solish maqsadida unga ko'rsatadigan ta'siri susayib boradi. Jahon moliyaviy bozori va ko'proq darajada transmilliy korporatsiyalarning milliy bozorlari, xalqaro institutsional investorlar va xalqaro olib sotarlarga ta'siri kuchayadi.

Rivojlanayotgan davlatlar va o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar moliyalariga xalqaro iqtisodiy tashkilotlar – XVF, Jahon banki katta ta'sir

ko'rsatadi. Jahon Savdo tashkiloti doirasida 1999-yildan boshlab moliyaviy xizmatlar bozorini liberallashtirishga doir ko'p tomonlama bitim amal qilmoqda. Yuzga yaqin mamlakatlar o'z hududlarida xorijiy kredit, moliya va sug'urta muassasalarining faoliyatini cheklamaslik majburiyatini oldilar. Qisqa muddatli kapitalning ko'plab chiqib ketishi mamlakatlar o'rtasida moliyaviy inqirozni yuzaga keltira oladi. Shu sababli dunyo moliyaviy bozori bugunga kelib beqaror bozorga aylandi.

Moliyaviy bozor inqirozi deganda ekspertlar aksiyalarning mintaqaviy indeksi rivojlangan bozorlarda 20 foizdan va rivojlanayotgan bozorlarda 35 foizdan pasayib ketadigan vaziyat tushuniladi. Jahon iqtisodiyotining mintaqaviylashuvi va globallasuvi ayrim mamlakatlarda yuzaga keladigan moliyaviy inqirozlar aksariyat hollarda *mintaqaviy va global inqirozlarga* aylanishiga olib kelmoqda.

Moliyaviy inqirozlarning quyidagi turlari farqlanadi:

1) valuta inqirozi (milliy valutalarning devalvatsiyasiga (qadrsizlanishiga olib keladi);

2) bank inqirozi (davlatning bank tizimini mustahkamlash uchun mablag' ajratishni talab qiladi);

3) qarz inqirozi (ichki yoki tashqi qarz muammolarining keskinlashuvi bilan bog'liq);

4) tizimli inqiroz (mamlakatning butun moliyaviy tizimiga daxldordir va yuqorida sanab o'tilgan inqirozlarning barchasini qamrab oladi, masalan, 1998-yilda Rossiyada boshlangan inqiroz).

Inqirozlarning asosiy sabablari:

1) ojiz makroiqtisodiy siyosat;

2) rivojlanmagan moliyaviy tizim;

3) tashqi omillarning (eksport uchun mo'ljallangan asosiy tovarlar narxining tushib ketishi, siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning keskinlashuvi va hokazo) noqulay ta'siri;

4) milliy pul birligining asossiz ko'tarilgan almashuv kursi;

5) siyosiy beqarorlik.

XX asrning oxirgi choragida 200 dan ortiq valuta va bank inqirozining 158 tasi valuta inqirozi bo'lgan. Undan 1/3 qismida esa milliy valuta 75 foizga qadrsizlangan. Rivojlanayotgan va postsotsialistik mamlakatlar moliyaviy inqirozlarni yengish jarayonida o'z yalpi milliy mahsulotining 55 foizgacha yo'qotganlar, inqirozdan avvalgi iqtisodiy o'sish sur'atlarini tiklash uchun esa ularga ikki yildan olti yilgacha vaqt talab etildi.

Moliyaviy barqarorlikka tahdidlar quyidagilardan iborat:

- tashqi qarzni to‘la hajmda qoplash (qaytarish) uchun mablag‘ning yo‘qligi bilan bog‘liq budjet muammolari;
- milliy banklarning qarzdorligi;
- ishlab chiqarish vositalari bozorida hisob-kitoblarni forward shartnomalari bo‘yicha amalga oshirish imkonining yo‘qligi;
- xorijiy valutaga talabning jiddiy ortishi, davlat budjeti taqchilligining ko‘payishi;
- inflatsiya sur‘atlarining o‘shishi.

Prezident Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» asarida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari, oqibatlarini atroflicha tahlil qilingan.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Amerika Qo‘shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro‘y bergan tanglik holatidan boshlandi. So‘ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya‘ni to‘lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o‘z navbatida, ko‘plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog‘liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

Yirik rivojlangan mamlakatlarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi kelib chiqish sabablari quyidagilar:

- uzoq yillardan buyon muttasil davlat budjeti taqchilligi kuzatilgani va ularning salbiy tashqi savdo balansiga ega ekanligi;
- davlat tashqi qarzining miqdori yalpi ichki mahsulotga nisbatan yuqori bo‘layotgani;
- rivojlangan mamlakatlarda qayta moliyalash stavkasining past darajada ushlab turilishi oqibatida jahon kapital bozorida arzon kreditlarning vujudga kelishi;
- ipoteka kreditlari berish talablarining asossiz ravishda bo‘shatilib yuborilganligi;
- moliyaviy institutlarning o‘z mablag‘lari va qarz majburiyatlari o‘rtasidagi nisbatning keskin buzilishi;
- jahon iqtisodiyotida real va moliyaviy sektor o‘rtasidagi nisbatning keskin o‘zgarishi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» nomli kitobida dunyoning hozirgi vaqtda bir qator yetakchi tahlil va ekspertlik markazlari global moliyaviy inqiroz holatini va uning yuz berishi mumkin bo‘lgan oqibatlariga doir materiallarini o‘rganish va umumlashtirish natijasida quyidagi xulosalarga kelayotganligini qayd etdi: «Birinchidan, moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, retsessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investitsiyaviy faollik ko‘laminin cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek, jahonning ko‘plab mamlakatlariga ta’sir ko‘rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo‘lishi mumkinligi o‘z tasdig‘ini topmoqda».

Darhaqiqat, keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlarda surunkali budjet taqchilligi va salbiy tashqi savdo saldosining kuzatilayotganligi jahon moliyaviy inqirozining vujudga kelishining asosiy omillaridan biri hisoblanmoqda. Ayniqsa, jahon iqtisodiyotida kuzatilgan nomutanosiblik holatlari, ya’ni ayrim rivojlangan mamlakatlar tashqi savdo balansida yirik miqdordagi taqchillikning sezilayotganligi asosan rivojlanayotgan mamlakatlar savdo balansining ortishiga olib keldi. Natijada dunyo mamlakatlari valuta zaxiralarining o‘zgarishi, jumladan, Xitoy, Yaponiya, Yaqin Sharq mamlakatlarida valuta zaxiralarining keskin o‘sishi yuz berdi.

Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa, AQSh davlat tashqi qarzi miqdori va uning YAIMga nisbatan salmog‘i o‘sganligi inqiroz kuchayishining asosiy omillaridan biri bo‘ldi.

2008-yilda ba’zi mamlakatlar tashqi qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog‘i¹

T/r	Mamlakatlar	Foizda
1.	AQSh	90
2.	Rossiya	37
3.	Qozog‘iston	102
4.	Ukraina	64
5.	Qirg‘iziston	81
6.	O‘zbekiston	13,3

¹ Qarang: Халқ сўзи. – 2009. – 15 апр.

Jadvalda ko'rsatilganidek, bu borada O'zbekiston Respublikasida teskari tendensiyani kuzatamiz. Ya'ni, amalga oshirilgan oqilona siyosat natijasida tashqi qarzlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2008-yilda 13,3 foizni tashkil etgan bo'lsa 2010-yilda bu ko'rsatkich 10 foizni tashkil etdi.

Prezident Islom Karimov jahon moliyaviy inqirozi holati va uning yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlariga doir fikrlarini davom ettirib: «Ikkinchidan, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi», – deb alohida ta'kidladi.

Xalqaro ekspertlarning e'tirof etishlaricha, AQSh jahon yalpi ichki mahsulotining asosiy iste'molchisi ekanligi jahon moliyaviy inqirozining kelib chiqishiga faol ta'sir ko'rsatgan. Ma'lumotlarga qaraganda, AQShning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 20 foizni tashkil qilsada, uning iste'moldagi hissasi qariyb 40 foizga teng. Qolgan 20 foiz iste'mol tovarlarini AQSh sotib oladimi? Qanday qilib sotib oladi? Qaysi pulga xarid qiladi, degan savollar tug'iladi.

Albatta, ularni boshqa mamlakatlar hisobidan, tovar bilan ta'minlanmagan qog'oz pullar (AQSh dollarlari)ni keragidan ortiq bosib chiqarish hisobiga sotib oladi. Shu yo'l bilan dunyo milliy boyligini taqsimlashda, aytish mumkinki, adolatsizlik yo'lini tutadi. Hozirgi kunda AQSh dollarlari emissiyasini o'z mamlakati iqtisodiyoti muomalasida bo'lgan mamlakatlar hukumati emas, balki AQSh hukumati ham nazorat qila olmasligiga olib keldi.

Xo'sh, unda AQSh dollarlarini ishlab chiqarish va muomalaga kiritish bilan kim shug'ullanadi? Bunday vakolat 20 ta xususiy bankni birlashtirgan, xususiy tashkilot maqomiga ega bo'lgan AQSh Federal zaxira tizimi (Markaziy banki)ga berilgan. Bu xizmatning sobiq raisi Alan Grinspen boshchiligida tizimda olib borilgan noratsional pul-kredit siyosati hamda qayta moliyalashtirish stavkasining surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida banklarning kredit berish ko'lami keskin o'sdi. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining nomuvofiqligi tufayli esa banklar tomonidan kreditlash tizimi talablari yengillashtirildi.

Hozirgi jahon moliyaviy inqirozi AQShdagi ipoteka inqirozidagi tanglik holatidan rag'bat olgan holda, global ishonch va likvidlilik muammosiga aylanib ketdi. Xo'sh, bu inqiroz zamirida qanday sabab va omillar mujassam? U qanday oqibatlarga olib keladi? O'zbekiston iqtisodiyotiga qanday ta'sir qiladi? kabi savollar har bir insonda tug'ilishi tabiiydir.

Jahon moliyaviy inqirozining zamirida fundamental, xususan, makroiqtisodiy, mikroiqtisodiy va institutsional sabablar yotganligini qayd etish lozim. Ekspertlarning ta'kidlashicha, bunda bosh makroiqtisodiy sabab AQSh iqtisodiyotidagi ortiqcha likvidlilik muammosi bo'lib, buni keltirib chiqaruvchi asosiy omillarni quyidagicha tasniflash mumkin¹:

– 1997–1998-yillardagi inqirozdan so'ng rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan umumiy ishonchning pasayishi;

– qator mamlakatlar tomonidan valuta zaxiralari va neft jamg'armalarining AQSh qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilinishi. Jahon iqtisodiyotida sezilarli darajada yuqori disbalans, nomuvofiqlikning mavjudligi, xususan, Xitoy savdo balansida yirik miqdordagi profitsit, ya'ni xarajatlarga nisbatan daromadlarning yuqoriligi AQShda esa, aksincha, katta miqdordagi defitsit saqlanib qolmoqda. Ajablanarlisi, AQSh savdo balansi defitsitining qariyb 90 foizi Xitoy, Yaponiya, Germaniya va Arab davlatlari savdo balansidagi profitsit hisobidan qoplanmoqda. Bundan tashqari, 10 ta Osiyo davlatiga jahon xalqaro valuta zaxiralarning 59 foizi (3,4 trillion AQSh dollari) to'g'ri kelmoqda. AQSh hukumati qarz majburiyatlarining 44 foiziga chet elliklar egalik qilmoqda;

– AQSh iqtisodiyotidagi siklik pasayishning oldini olish maqsadida Federal zaxira tizimi tomonidan 2001–2003-yillarda amalga oshirilgan past foiz stavkalari siyosati. AQSh Federal zaxira tizimining sobiq raisi Alan Grinspenning keragidan ortiq ekspansion pul-kredit siyosati natijasida Federal zaxira tizimi diskont stavkasini tarixiy past darajaga tushishini va keragidan ortiq shu holatda uzoq muddat saqlanishini ta'minladi.

Shuningdek, inqiroz rivojlanishiga mikroiqtisodiy omil hisoblangan yangi moliyaviy instrumentlar, avvalambor, tuzilmaviy hosila obligatsiyalari bozori rivojlanishi ham o'z hissasini qo'shgan. Aslida moliyaviy hosila instrumentlarini rivojlantirishdan maqsad tavakkalchilikni investorlar o'rtasida taqsimlash orqali kamaytirishdan iborat edi. Vaholanki, hosilaviy instrumentlardan foydalanish amaliyotining rivojlanishi past sifatli standart kreditlar bilan bog'liq risklarning asl qiyofasini berkitish va investorlarning keng ommasiga yetarlicha shaffof (oshkora) bo'lmagan tarzda taqsimlanishiga olib keldi.'

Bundan tashqari, tartibga soluvchi organlar va reyting agentliklari tomonidan riskning yetarli darajada baholanmasligini, qolaversa, AQShning Federal ipoteka korporatsiyasi va Federal milliy ipoteka

¹ Qarang: *Жумаев Н. Х. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози: моҳияти, сабаб-оқибатлари ва Ўзбекистонга таъсири.* – Т., 2009. – Б. 50.

assotsiatsiyasi, shuningdek, AQSh investitsion kompaniyalari kapitalining sezilarli darajada kichikligini moliyaviy inqirozni keltirib chiqaruvchi institutsional omillar qatoriga qo'shish mumkin. Biroq, ko'pchilik iqtisodchi olimlar va ekspertlar hozirgi jahon moliyaviy inqirozining ibtidosi hisoblangan AQSh ipoteka krediti bozoridagi tanglik holatini asosiy sabab sifatida e'tirof etishmoqda. AQSh ipoteka krediti bozoridagi inqiroz zahirida ham bir qator jiddiy sabablar va omillar mujassamligini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Bunday omillar sirasiga¹:

a) *kredit berish amaliyotining o'ta qulayligi*. Foiz stavkasining pastligi, moliya muassasalari tomonidan taqdim qilingan ipoteka kreditlari hajmining yuqoriligi va ayniqsa, uy inshootlari bahosining oshishi iste'molchilarni uy sotib olishga rag'batlantirdi;

b) *kredit berish shartlarining soddalashtirilishi*. Ipotekaga nisbatan o'sib borayotgan talabni qondirish maqsadida kredit beruvchi tashkilotlar kredit berish shartlarini soddalashtirishga kirishdilar va yirik miqdordagi ipoteka kreditlarini muomalaga chiqardilar;

c) *tartibga solishning noadekvatligi*. Amaldagi tartibga solish tizimi murakkab tuzilish, past darajadagi shaffoflik va yuqori risk bilan tavsiflanuvchi AQSh moliyaviy mahsulotlaridagi innovatsiyalarga javob bera olmadi;

d) kredit reyting agentliklari riskli ipotekaga asoslangan qimmatli qog'ozlarga AAA reytingini berish orqali jahon moliyaviy inqiroziga sezilarli hissa qo'shgan, deb hisoblanmoqda;

e) *bank kapitalini tartibga solish*: ayrim ekspertlar bank kapitalini xalqaro tartibga solishni (Bazel I va II) inqiroz sabablaridan biri sifatida e'tirof etishmoqda. Amaldagi bank kapitalini xalqaro tartibga solish (Bazel II) tizimi moliyaviy inqiroz vujudga kelishi uchun zamin yaratganligi ham e'tirof etilmoqda. Gap shundaki, o'tgan asrning 90-yillari boshida qabul qilingan Bazel II tizimi tijorat banklari uchun talab qilinadigan kapital yoki kapitalning yetarliligini aktivlarning investitsion sifatlari va ularning xatarli darajasi bo'yicha guruhlashni ko'zda tutadi.

Zero, bank kapitalini tartibga solish banklarni katta miqdorda riskli kreditlar berish uchun yetarli darajada kapitalga ega bo'lishini talab etar ekan, ularning yuqori riskli aktivlarini sekyuritizatsiyalab, qimmatli qog'ozlarga aylantirishga va investorlarga sotishga rag'batlantirgan. Shuningdek, hukumat kafolati berilgan mazkur ipoteka qimmatli qog'ozlar

¹ Qarang: Жумаев Н. Х. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози: моҳияти, сабаб-оқибатлари ва Ўзбекистонга таъсири. – Т., 2009. – Б. 50.

riskka tortilgan aktivlar qatoriga kirmaganligi tufayli, tijorat banklari uchun qulay va foydali investitsiyaga aylangan edi. Chunki bank kapitali yetarliligini aniqlashda riskka tortilgan aktivlar miqdori bilan hisoblanadi, hukumat kafolati ostidagi ipoteka kreditlari bank kapitali yetarliligi talablarining buzilishiga zarracha ta'sir qilmaydi.

2007-yilning avgust oyida AQSh ipoteka kreditlari bozorida avj olgan tanglik holati moliyaviy globallashuv ko'magida tizimli moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Bu jarayonda yirik banklar va moliyaviy institutlarning likvidiligi va to'lovga qobiliyati keskin darajada zaiflashdi. Uzoq muddat davomida AQSh moliyaviy muassasalari yomon kredit tarixiga ega bo'lgan qarz oluvchilarni agressiv ravishda kreditlab kelishdi. Mazkur kreditlar, o'z navbatida, «paketlanib» butun dunyo investorlariga sotildi. Bunda garov ta'minoti turli xil darajada bo'lgan kreditlar asosida ipoteka qimmatli qog'ozlari chiqarildi va mazkur qimmatli qog'ozlar yuqori investitsiya reytingiga ega bo'lganligi bilan ham xorijiy investorlar uchun jozibador edi.

Ipoteka kreditlarini olgan bank mijozlari asosiy qarz va foiz to'lovlarini to'lashda muammolarga yuz tutgach, moliyaviy institutlar balansidagi aktivlarida yuz bergan qisqarishlarni o'z mablag'lari hisobidan qoplashlariga to'g'ri keldi. Chunki ipoteka kreditlarining garov ta'minoti hisoblangan uylar bahosi sezilarli darajada pasaygan va mutanosib ravishda garov qiymatining pasayishi va ushbu kreditlarning muammoli kreditlar guruhiga kiritilishiga sabab bo'ldi. Mazkur kreditlar bo'yicha zararlar kutilmagan darajada yiriklashgandan so'ng, ma'lum bo'ldiki, ushbu kreditlar paketiga investitsiya qilgan investorlar yetarli darajada past baholangan riskka ega edilar.

Bunda investorlarni ayblash ham biroz noo'rin bo'ladi. Zero, AQShning Federal ipoteka korporatsiyasi va Federal milliy ipoteka assotsiatsiyasi tomonidan to'lovga noqobil mijozlarga yordam berish maqsadida yuqori riskli kreditlar xarid qilingan va kafolatlangan. AQSh hukumati tomonidan kafolatlangan mazkur qarzlarni investitsiya banklariga qayta sotilgan. Investitsiya banklari esa, o'z navbatida, risksiz aktiv sifatida ushbu qarzlarni chet el investorlariga sotishga muvaffaq bo'lgan. Ipoteka kreditlari muammosi, dastavval AQShning muammosi, biroq kreditlar AQSh tashqarisidagi boshqa investorlarga ham sotilgan ekan, bu inqiroz global tus olishi muqarrar edi. Ipoteka kreditlari bo'yicha zararlar kuzatilishi bilan banklar va boshqa moliya muassasalari bir-birlariga kredit berishda ham o'ta ehtiyotkor bo'lib qoldilar. Ular o'z majburiyatlarini qoplash uchun likvidlikni saqlab turishga urindilar. Mazkur holat foiz stavkalarining oshishi uchun zamin yaratdi.

Yuqoridagi holatlar chindan moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligini va ushbu tizimni tubdan isloh qilish orqali mos yangi moliyaviy arxitekturani shakllantirish zarurligini tasdiqlamoqda.

Prezident Islom Karimov global moliyaviy inqiroz holatini va uning yuz berishi mumkin bo‘lgan oqibatlariga doir materiallarni o‘rganish va umumlashtirish natijasida quyidagi uchinchi xulosaga kelganligini ham uqtirdi: **«Uchinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko‘lami va oqibatlari qanday bo‘lishi ko‘p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi».**

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining miqyosi, ko‘lami va oqibatlari:

1) avvalambor, muayyan mamlakatning moliya-valuta tizimi qay darajada rivojlanganligi;

2) milliy kredit institutlarining kapitallashuvi va likvidiligi (to‘lov imkoniga ega ekanligi) hamda ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga nechog‘li qaram ekanligiga;

3) mamlakatning oltin-valuta zaxirasining hajmi;

4) xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati;

5) mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi, diversifikatsiya va raqobatbardoshlik darajasi kabi omillarga bog‘liqdir.

Bunday omillar turli mamlakatlarda turlicha ta‘sir ko‘rsatishi va inqirozga qarshi chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishda bular e‘tiborga olinishi zarur. Ayni paytda inqirozdan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning nechog‘li samaradorligiga, ularning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqdir.

Moliyaviy inqiroz, keskin salbiy ta‘sir o‘tkazgan ayrim dunyo mamlakatlarning jahon Yalpi ichki mahsuloti (YAIM)dagi hissasi (2008-yil)

Mamlakatlar	Foizda
Yevropa Ittifoqi mamlakatlari (27 davlat a‘zo)	31,0
AQSh	23,0
Yaponiya	8,0
Xitoy	7,0
Rossiya	3,2
Qolgan dunyo mamlakatlari	28,0

Ayrim mutaxassislar 2008-yilda jami YAIM 62 trln. AQSh dollarini tashkil qilmoqda desalar, Rossiya olimlari 50 trln. AQSh dollarini tashkil etmoqda, degan fikrni bildirishmoqda.

Tabiiyki, yuqorida keltirilgan misol va raqamlardan, shuningdek nazariy asoslashlar Prezident Islom Karimov ogohlik bilan ta'kidlaganidek, «tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi».

Moliyaviy inqirozning kelib chiqish sabablari:

1. AQSh ipoteka kredit bozoridagi inqiroz.
2. Yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyatining zaiflashuvi.
3. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalariga bo'lgan bozor qiymatining halokatli darajada tushib ketishi.

4. Keragidan ortiq ekspansion pul kredit siyosatining yuritilishi.

Jahon moliyaviy inqirozining oqibatlari quyidagicha:

- 1) jahon YAIMning ishlab chiqarish sur'ati pasayadi;
- 2) ishsizlik darajasi oshadi;
- 3) budjet taqchilligi ortadi;
- 4) xalqaro savdo hajmi kamayadi;
- 5) ijtimoiy transfertlarning ko'payishi hisobiga davlat xarajatlari oshadi.

Rivojlangan mamlakatlarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan chiqish yo'lidagi chora-tadbirlar. Vashington shahrida 2008-yil noyabrida bo'lib o'tgan sammitda inqirozga qarshi tadbirlarning quyidagi besh asosiy tamoyili belgilangan:

1. Iqtisodiy jarayonlarga davlat aralashuvini kuchaytirish.
2. Moliya institutlarining hisobdorligini va shaffoflik darajasini oshirish.
3. Moliya bozorlaridagi harakatlarni muvofiqlashtirishni rag'batlantirish.
4. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va xalqaro savdoga cheklolarni kamaytirish.
5. Xalqaro moliya tashkilotlarini isloh etish.

Ushbu tadbirlarning muhokamasiga bag'ishlangan mazkur uchrashuv yakuni bo'yicha chop etilgan bayonotda qayd qilingan tamoyillarning zudlik bilan amaliyotda tatbiq qilinishi bildirilgan.

Jahon mamlakatlarining inqirozga qarshi kurashga sarflangan moliyaviy xarajatlari

Mamlakat	Moliyaviy xarajatlar, mlrd. dollar	Mamlakat YAIMga nisb. foiz hisobida (2008-yil)
Rossiya	222	13,9
Buyuk Britaniya	1020	37
AQSh	3539	25
Germaniya	893	23
Yaponiya	576	12
Xitoy	570	13
Dunyo bo'yicha	9400	15

Jahon moliyaviy inqirozining O'zbekistonga ta'siri va uning mamlakatimizda yengil kechishiga sabab bo'lgan quyidagi omillar:

– ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lining ta'minlanganligi;

– davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligining aniq belgilab olinganligi;

– O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, budget, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganligi va zarur resurslar bazasining mavjudligi;

– oqilona tashqi qarz siyosati olib borilganligi;

– aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilganligi;

– davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'lik barqaror va ishonchli ekani, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchliligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'li sifatida 2009-yilga mo'ljallangan

¹ Президент Ислон Каримовнинг «Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари» асарини ўрганиш бўйича ўқув-услугий қўлланма. – Т., 2009. – Б. 47.

iqtisodiy dasturning quyidagi eng muhim ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan:

1) mamlakatimizda qabul qilingan 2009–2012-yillarda jahon iqtisodiy inqirozi oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish bo‘yicha inqirozga qarshi dasturni amalga oshirish, shu asosda iqtisodiy o‘shishning uzoq muddatli barqaror sur‘atlarini va iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta‘minlash;

2) tarkibiy o‘zgartirishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni diversifikasiyalash, buni birinchi navbatda, xalqaro sifat standartlariga javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash yo‘li bilan amalga oshirish;

3) qishloq turmushi sifatini va qiyofasini tubdan yaxshilashga, qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlantirishga, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o‘rni va ahamiyatini tubdan qayta ko‘rib chiqishga, fermer xo‘jaligini rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan uzoq muddatli, o‘zaro bog‘langan chora-tadbirlar keng majmuini amalga oshirish;

4) aholi bandligini ta‘minlash, uning turmush sifatini oshirishning eng muhim omili sifatida xizmatlar ko‘rsatish sohasi va kichik biznesni jadal rivojlantirish;

5) mamlakatni modernizasiya qilish va aholi bandligini oshirishning eng muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish;

6) banklar ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bo‘sh mablag‘larini tijorat banklaridagi depozitlarga jalb qilishni rag‘batlantirish.

3. Moliyaviy xavfsizlik va uning ahamiyati

Moliyaviy xavfsizlik – mamlakat, mintaqalar, korxonalar iqtisodiy xavfsizligining muhim tarkibiy qismi, umuman iqtisodiy samarali davlatning fundamental asosi. U mamlakatning milliy manfaatlariga javob beradigan mustaqil moliyaviy-iqtisodiy siyosatni o‘tkazishning asosiy shart-sharoitidir.

Moliyaviy xavfsizlik, avvalo, davlatning mamlakat moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini ta‘minlashga qodirligi (qobiliyati) bilan

ajralib turadi. U moliyaviy inqirozlar, xufiyona tuzilmalarning milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimga ta'sirini bartaraf etish zarurligini, kapitalning xorijga va real sektordan chiqib ketishining oldini olish, xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyot uchun maqbul shartlarda jalb qilishni nazarda tutadi.

Hozirgi vaqtda davlat moliyasi, jahon moliyaviy tizimlarining alohida olingan davlatga ta'siri sifat jihatdan yangi darajaga o'tmoqda. Italiyalik mutaxassislar Karlo Jan va Paolo Favoniyning ta'kidlashlaricha, geomoliya geoiqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki aynan shu sohada davlat suvereniteti hammadan ko'ra sezilarliroq buziladi.

Davlatning moliyaviy xavfsizligi – uning o'z milliy manfaatlariga monand moliyaviy-iqtisodiy siyosatni mustaqil amalga oshirish qobiliyatining eng muhim sharti. Davlatning moliyaviy xavfsizligi uning organlarining quyidagilarni bajarishga qodirligidan iborat:

- davlatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash;
- to'lov-xarajat tizimi va asosiy moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning barqarorligini ta'minlash;
- jahondagi inqirozlar va jahon omillari (davlatlar, TNK, subdavlat guruhlar va boshqalar)ning, xufiyona (urug'-korporativ, mafioz va boshqa) tuzilmalarning milliy iqtisodiyot va ijtimoiy siyosiy tizimga atayin bajaradigan harakatlarining ta'sirini zararsizlantirish (tahrir);
- kapitalning chet elga ko'plab oqib ketishi, iqtisodiyotning real sektoridan «kapitalning qochishi»ga yo'l qo'ymaslik;
- turli darajalardagi hokimiyat organlari o'rtasida milliy budjet tizimining resurslarini taqsimlash va ishlatish borasidagi keng ko'lamli nizolarining oldini olish;
- xorijiy qarz mablag'larini mamlakat iqtisodiyoti uchun eng maqbul tarzda jalb qilish va ishlatish;
- moliyaviy sohada jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklar (jumladan jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirish)ning oldini olish.

Moliyaviy xavfsizlikka tahdidlar ichki va tashqi turlarga bo'linadi. Ichki va tashqi tahdidlar moliyaviy tizimning takror ishlab chiqarishni kafolatlashga, davlat qarzigga xizmat ko'rsatishga yetarlicha qodir emasligi natijasida yuzaga keladi.

Ichki tahdidlar asosan quyidagilar tufayli yuzaga keladi:

- noadekvat (noto'g'ri) moliyaviy-iqtisodiy siyosat;
- hokimiyat va boshqaruv organlarining eng oddiy xatolari;

– davlat moliyaviy tizimini boshqarishdagi xatolar, suiiste'molliklar va boshqa og'ishlar (xo'jasizlik, sansalorlik, turli-tuman iqtisodiy jinoyatlar va sh.k.).

Hozirgi sharoitda moliyaviy xavfsizlikka *tashqi tahdidlar* alohida ahamiyatga ega.

Moliyaviy resurslarni boshqarishda moliyaviy menejment muhim o'rin tutadi. *Moliyaviy menejment* – bu moliyaviy resurslarni boshqarish tizimi bo'lib, unga moliyaviy siyosat, uning usullari va vositalari, shuningdek boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishtirok etuvchi va moliyaviy xavfsizlik bo'yicha qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ushbu qarorlarni amalga oshiruvchi odamlar kiradi. Moliyaviy menejmentning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- qarorlar qabul qilish;
- qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish.

Axborot yetarli bo'lmagan, qabul qilingan qarorlarning oqibatlarini deyarli bilib bo'lmaydigan katta noaniqlik sharoitida qabul qilinadigan nostandart, ijobiy qarorlar eng katta ahamiyatga ega.

Moliyaviy menejment moliyaviy tizimning barcha tarkibiy qismlarini qamrab oladi va bozor munosabatlari sharoitida boshqaruv tuzilishining muhim tarkibiy unsuri (elementi) hisoblanadi. Moliyaviy menejmentning asosini qisqa va uzoq muddatli davrda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish omillarini tahlil qilishga asoslanadigan hamda moliyaviy xizmatlar faoliyatining yo'nalishlarini belgilab beradigan moliyaviy siyosat tashkil qiladi.

Tegishli siyosatni belgilash maqsadida o'tkaziladigan moliyaviy tahlil manbalariga davlat moliya organlarining rasmiy hisobotlari, institutsional bozor tuzilmalari (banklar, investitsiya kompaniyalari, tovar, fond va valuta birjalari)ning axboroti, statistik ma'lumotlar, tarmoqlararo va davlatlararo qiyoslash ma'lumotlari, kompaniyalarning tashqi foydalanish uchun tayyorlangan moliyaviy-buxgalterlik hisobotlari kiradi. Korxonalarda tegishli moliyaviy siyosatni belgilash va qarorlar qabul qilish maqsadida xo'jalikning ichki jarayonlarini to'liqroq ifodalovchi ichki boshqaruv axborotidan ham foydalaniladi.

Moliyaviy menejmentning quyidagi maqsadlari ajratiladi:

- korxonalarining tuzilishini maqbullashtirish;
- korxonaning moliyaviy barqarorligi va mustaqilligini ta'minlash.

Moliyaviy menejment maqsadlariga erishish tegishli boshqaruv usullaridan foydalanish orqali ta'minlanadi. Moliyani boshqarishning quyidagi asosiy metodlari (usullari) ajratiladi:

- bashoratlash va rejalashtirish;
- o‘zini o‘zi moliyalashtirish;
- moliyalashtirish va kreditlash;
- soliqqa tortish;
- sug‘urta;
- lizing;
- trast;
- faktoring;
- garov;
- moliyaviy rag‘batlantirish;
- sanksiyalar (jazolar) qo‘llash.

Moliyaviy menejment turli moliyaviy vositalar to‘plami orqali amalga oshiriladi. Ularning ayrimlarini keltiramiz:

- birlamchi: pul mablag‘lari, debitorlik va kreditorlik qarzlari, qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar – aksiya va obligatsiyalar;
- ikkilamchi: opsionlar, fyucherslar, forvard shartnomalari.

Moliyaviy menejmentning hal qiluvchi tarkibiy qismi insondir, chunki korxonalar xodimlar yuksak ijodiy faollik ko‘rsatgan sharoitdagina muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin. Ayni vaqtda moliyaviy menejment mehnat jamoasini bevosita boshqarish tizimi emas, balki ijobiy tashabbus rivojlanishi uchun eng qulay ijtimoiy-ruhiy muhit yaratishni taqozo etadi.

4. Kreditning mohiyati. Kreditning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni

Moliya tizimining muhim qismini kredit tizimi tashkil qiladi va u kredit munosabatlari majmuini, kreditlashtirishning ko‘rinishlari va tamoyillarini hamda mamlakatning moliya-kredit tashkilotlarini o‘z ichiga oladi. Mamlakatning kredit tizimi jamiyatning ehtiyojlariga asoslanadi hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qiladi, banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlari bu tizimning asosiy elementlaridir.

Kredit – bu muayyan bir muddatda pul yoki tovar shaklida qaytarish va foydalanganlik uchun to‘lash tamoyillari asosida qarz berishdir. Kredit tizimida banklar alohida o‘rin tutadi. Ular bir qator muhim iqtisodiy vazifalarni bajaradi; vaqtincha bo‘sh mablag‘larni, jamg‘armalarni muomalaga kiritadi; vositachilik vazifalarini, kreditlarni taqsimlash hamda moliya intizomiga rioya qilinishini nazorat qiladi. *Kredit* so‘zi lotincha *credit* – ishonch degan ma‘noni anglatib, tovar yoki pulni ma‘lum bir muddatda qaytarish sharti bilan qarzga berishni bildiradi.

Birov pulini qaytarib olishga ishongani uchun qarz beradi. Kredit munosabatlari juda qadim zamonlarda vujudga kelgan.

Dastlab natura shaklida (g'alla, chorva va boshqalar) mulkdorlar tomonidan qarzga berish rasm bo'la boshlagan. Keyinroq pul shaklida ham beriladigan bo'ldi. Qarzga pul berishning dastlabki shakli sudxo'rlik bo'lib, u nihoyatda yuqori darajada foiz bilan qaytarilishi bilan kreditdan farq qiladi. Qadimgi Yunonistonda eramizgacha IV asrda oyiga 42 foiz, yiliga 570 foizgacha foiz to'langani tarixiy manbalarda qayd etilgan. Bundan tashqari, sudxo'r qarz oluvchidan qo'shimcha imkoniyatlar yaratilishini ham talab qilgan. Badiiy adabiyotda birinchi bo'lib fransuz yozuvchisi

O. Balzak sudxo'r obrazini yaratgan. S. Ayniyning «Sudxo'rning o'limi» asari o'zining mazmuni, qiyofa ifodasi jihatdan Balzak asaridan ham o'tib ketgan desak, xato qilmaymiz. Sudxo'rlik qarzi bir tomondan kuchayib mayda ishlab chiqaruvchilarni xonavayron qilgan, ikkinchi tomondan kapitalning dastlabki jamg'arish uchun zarur mablag'larni shakllanishga yordam bergan.

Industrial ishlab chiqarish va klassik kapitalizmning vujudga kelishi bilan kreditsiz ishlab chiqarish faoliyatini yuritish qiyinlashib qoladi. Kapital bir xo'jalikda pul shaklida, ikkinchisida tovar shaklida bo'lib, turli sohalarda harakati bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Kapital harakatining alohidalashgani tufayli bir xo'jalikda pul yetishmasa, ikkinchisida bo'sh pul mavjud bo'ladi. Natijada mablag'i yo'q xo'jaliklar bo'sh pul mablag'i borlardan qarz olishga majbur bo'ladilar. Bo'sh pul mablag'i borlar o'z pullarini ma'lum muddatga qarzga berar ekanlar, pullarini boshqa birovning qo'lga topshirib, xatarli tavakkal qilganlari uchun ma'lum miqdorda haq oladilar. O'z mablag'i yetarli bo'lmagan xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini kredit orqali qoplaydi. Takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz davom etishini ta'minlash zaruriyati kredit munosabatini obyektiv zarur qilib qo'yadi.

Chunki tovarlar ishlab chiqarish, uni sotish, tovar ishlab chiqarish uchun zarur resurslarni sotib olish bir vaqtning o'zida yuz bermaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bo'sh pul mablag'larini o'lik boylik, xazina sifatida saqlash befoyda. Jamiyat taraqqiy etishi bilan kredit munosabatlari rivojlanib, yangi-yangi imkoniyatlar vujudga kela boradi.

Hozirgi iqtisodiyotni kreditsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. *Kredit iqtisodiy kategoriya bo'lib, u vaqtincha o'z egalari qo'lida bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlarni ifodalaydi.*

Shunday qilib, pulning ssuda kapitali tariqasida, ya'ni daromad olish uchun qarzga berish va qaytarib olish bilan bog'liq munosabatlar vujudga keladi.

Kredit munosabatlari faqat pul bilan bog'liqmi? Tovar shaklida ham kredit berilishi mumkin-ku? degan savol tug'ilishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma kredit asosan pul shaklida bo'ladi. Tovar shaklida berilgan taqdirda ham pul kredit shaklida hujjatlashtiriladi.

Kredit munosabatlari ikki subyekt o'rtasida yuz beradi. Biri bo'sh pul egasi, ikkinchisi unga muhtoj, ya'ni qarz oluvchi.

Kredit subyektlari har xil. Bular yuridik va jismoniy shaxslar, bank, korxonalar, firma, davlat, turli toifadagi aholi bo'lishi mumkin. Bir subyektning o'zi bir vaqtda ham qarz oluvchi, ham qarz beruvchi bo'lishi mumkin. Kredit aloqalari pul egasi bilan qarz oluvchi o'rtasida bevosita yoki bilvosita bo'lishi mumkin. Birinchi holda ular to'g'ridan-to'g'ri muomalaga kirishadi. Ikkinchi holda ular vositachilar orqali aloqaga kirishadilar. Odatda, asosiy *vositachi rolini banklar* o'ynaydi. Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida qator vazifalarni bajaradi.

1. *Taqsimlash*. Bo'sh pul mablag'larini qaytarish sharti bilan qarzga berish orqali kapitalni turli tarmoqlar, korxonalar o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashni amalga oshiradi va ishlab chiqarish resurslarining ko'chib yurishini ta'minlaydi.

2. *Emissiya*. Kredit asosida va unga bog'liq holda pul belgilari, pulga tenglashtirilgan naqd pulsiz to'lov vositalari, turli qimmatbaho qog'ozlar emissiya qilinadi, xo'jalik oborotiga kiritiladi.

3. *Nazorat qilish*. Kredit operatsiyalarini bajarish jarayonida iqtisodiy faoliyat, moliyaviy ahvol nazorat qilinadi. Davlat kredit munosabatlari orqali pul aylanmasining barcha jarayonlarini boshqarishni amalga oshiradi.

4. *Bo'sh pul mablag'larini harakatdagi, oborotdagi kapitalga aylantirish*. Bunda pulni pul topadi, degan naqlga amal qilinadi.

5. *Rag'batlantirish*. U yoki bu maqsad uchun qarz berish, qarzni undirish orqali tejamkorlik, iqtisodiy o'sish rag'batlantiriladi.

6. *Tovar ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlaydi, ishlab chiqarish vaqtini qisqartiradi*.

Kredit berish uchun, avvalo, qarz beradigan mablag' bo'lishi kerak. Bu mablag'lar qayerdan olinadi, manbai nima, degan savol tug'iladi. Mablag'lar manbai quyidagilar:

Birinchi, *korxonalarining vaqtincha bo'sh pul mablag'idir*. Bu mablag'lar kapitalning doiraviy aylanishi bilan bog'liq bo'lib, ma'lum

muddat uning bir qismi bo'sh bo'ladi. Chunonchi amortizatsiya ajratmalari, bu mablag'lar asosiy kapitalni yangilash payti kelguncha bo'sh bo'lib, bankdagi hisob-kitoblarida jamlanib boradi. «Tezlashtirilgan» amortizatsiya siyosati tufayli bu mablag'lar o'sib borish tendensiyasiga ega. Mahsulot sotishdan keladigan pul tushumlari. Bu pul ham xom ashyo, materiallar sotib olish, xodimlar mehnatiga haq to'lash, vaqti kelguncha bo'sh turadi.

Korxonalarining ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish fondlari, moddiy rag'batlantirish fondlari ham asta jamlanib borib, belgilangan maqsad bo'yicha ishlatilguncha bo'sh turadi. Korxonalar foydasi davlat budjeti va kredit tizimi bilan hisob-kitob qilinguncha, shuningdek foydalanguncha bankdagi hisoblarda saqlanadi. Ish haqi ham har 15 kunda berilar ekan, ungacha bu pul yig'ila boradi hamda ishlatilguncha bo'sh bo'ladi.

Ikkinchidan, moliya-kredit muassasalarining pul mablag'lari. Ularning daromadlari bilan xarajatlari o'rtasidagi farq, xarajatlar qoplaganidan ortgani bo'sh pul mablag'larini tashkil etadi. Tijorat banklari va moliya-kredit muassasalarining minimal pul zaxiralari ham qarz fondi manbai bo'ladi.

Uchinchidan, davlat ixtiyoridagi pul. Davlatning zaxiradagi pul mablag'lari, markaziy va mahalliy hokimiyatlarning xarajatlari bilan soliq tushumlari o'rtasidagi farq tarzida bo'sh pullar mavjud bo'ladi. Budget tizimi mablag'lari harakati natijasida ma'lum miqdorda bo'sh pullar hosil bo'ladi.

To'rtinchidan, turli maxsus (nafqa, sug'urta, xayriya), ijtimoiy fondlarning mablag'lari. Bu fondlar pullarining hosil bo'lishi va ishlatilishi har xil vaqtda yuz beradi. Bu ma'lum miqdorda pul mablag'larining bo'sh qolib, qarz fondiga aylanishi uchun imkon beradi.

Beshinchidan, aholi pul daromadlari va jamg'armalari. Fuqarolarining iste'molchi sifatida qimmatbaho tovarlar olish, uy qurish, marosimlar o'tkazish uchun jamg'arilgan pullari ishlatilgunga qadar bo'sh bo'ladi.

Oltinchidan, tadbirkorlar, katta puldorlar qo'lidagi pullar.

Bulardan tashqari, davlat budjetidan uzoq muddatli qarz berish uchun maxsus mablag' ajratiladi. Undan tashqari MB qo'shimcha emissiya tufayli moliya-kredit muassasalariga kreditlar berishi mumkin. Ma'lum vaqt mobaynida bo'sh pullar uning egalariga hech qanday daromad keltirmaydilar, shuning uchun kam miqdordagi foiz bilan ham qarz berish foydali bo'lib qoladi. Natijada ana shu bo'sh pullar qarz kapitaliga

aylantiriladi. Bunda banklar muhim rol o'ynaydi. Ular yuqori foiz bilan pulga muhtoj bo'lgan ishbilarmonlar, tadbirkorlar va boshqalarga o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun qarz beradi. Hozirgi sharoitda xo'jalikni moliyalashtirishda qarz mablag'larining ulushi oshib borishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Ularning ulushi, ayniqsa kapital quyilmalar hajmida ko'payib bormoqda. Bunday tendensiya Yaponiya, Italiya, Fransiyada yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, Yaponiya firmalari ishlab chiqarishni kengaytirish uchun sarflagan mablag'larining 4/5 qismi chetdan jalb qilingan, ya'ni qarz olingan.

Kredit turlari va tamoyillari. Kredit turlari xilma-xil, ularga turli jihatdan yondashish mumkin:

– qarz oluvchilarning asosiy guruhlariga ko'ra: korxonalar, aholi, davlat krediti;

– ko'zlangan maqsadga ko'ra: iste'mol, qishloq xo'jaligi, savdo, investitsiya, budjet kreditlari;

– berilgan vaqtiga ko'ra: qisqa (bir yilgacha), o'rta (bir yildan besh yilgacha), uzoq (besh yildan ortiq) muddatli kreditlarga bo'linadi;

– funksiya qilish sohasiga ko'ra, kredit ikki turga bo'linadi: oborot kapitalini tashkil etish, uni tor ma'noda kredit deb yuritiladi hamda asosiy kapital olish uchun sarflanadigan, odatda uni qarz deb yuritiladi:

1. *Overdraft* – bank mijoziga kunlik foiz to'lash sharti bilan hisob raqamidagi mablag'i yetmagan hollarda shartlashilgan miqdorda qarz berib, bank krediti ta'minlanishini talab qilmasligi mumkin. Bunda bank mijozni hisobiga kelib tushgan pulni darrov o'z hisobiga o'tkazib olmaydi. Mijoz qarzni o'ziga qulay paytda to'laydi.

2. *Kontokorrent* shaklida qarz berganda, bank moliyaviy jihatdan barqaror deb topgan mijozlariga oborot mablag'lari uchun kreditni qattiq cheklamasligi mumkin.

3. *Avans* – Yevropa mamlakatlarida bankning har xil shartga ko'ra (overdraft, kontokorrent ham shunga kiradi) qarz berishi;

– kreditni qaytarish ta'minlanganligiga ko'ra ham ikki turga bo'linadi: ta'minlanmagan yoki blankli (overdraft, kontokorrent) va ta'minlangan kredit;

– kredit berish usuliga ko'ra: kompensatsion, ya'ni o'z mablag'larini to'ldirish uchun hisobvarag'iga o'tkaziladigan va to'lov to'g'ridan-to'g'ri qarzni qaytarish, haq to'lash topshirilgan kredit;

– kredit qaytarilishiga ko'ra: to'lash muddati uzaytirilgan, bo'lib to'lanadigan hamda birato'la qaytariladigan kreditlarga bo'linadi. Qarz hajmi va muddatining cheklanishi darajasiga ko'ra *limitlangan* va

limitlanmagan kreditlarga bo‘linadi. Kreditning qaysi turi, qanday shaklda berilishidan qat’i nazar, kredit berishning asosiy tamoyillariga rioya qilinishi kerak. Ular quyidagilar:

1. Belgilangan muddatda qaytarilib berilishi. Bu faqat kreditning tamoyili emas, balki uning xususiyati, mohiyatini ifodalaydi. Uni pul berishning boshqa shakllari subsidiya, dotatsiya kabilardan farqi ham shunda, qaytarish bo‘lmasa, kredit munosabatlari ham bo‘lmaydi.

2. Muddatliligi. Kredit berishning bu tamoyili avvalgi tamoyil bilan chambarchas bog‘langan. Kredit shartnomasi tuzilayotgan paytda qaytarish sharti bilan birga muddati ham ko‘rsatiladi. Qarz mablag‘laridan foydalanganligi uchun to‘lanadigan haq ham uning muddatiga bog‘liq.

3. Kreditdan foydalanganlik uchun haq to‘lash tamoyili. Qarz olib, birovning mablag‘ini ishlatib turgani uchun ma’lum miqdorda foiz to‘lanadi. Ssuda kapitali bozorida foiz darajasi muhim rol o‘ynaydi, bozordagi vaziyatni belgilaydi. Protsent stavkasi shakllanishiga bozor omillari, eng avvalo, talab va taklif, undan tashqari Markaziy bank hisob stavkasi, banklararo kredit bozoridagi foiz stavkasi, depozitlar stavkasi ta’sir etadi. Depozitlar bo‘yicha stavka qancha yuqori bo‘lsa, kredit uchun ham shuncha yuqori bo‘ladi.

4. Moddiy jihatdan ta’minlanganligi. Qarz oluvchi ham, qarz beruvchi ham qarzga olingan mablag‘ning qaytarilishiga ishonch, ya’ni real imkoniyati borligini ifodalaydi. Agar kredit berish uchun real tovar moddiy boyliklar zaxirasi hisobga olinsa, shuning o‘zi kreditning ta’minlangani bo‘ladi. Agar kredit mavsumli xarajatlarni qoplash uchun berilsa, bu xarajatlar real moddiy boyliklar qiymatiga kirishi ko‘zda tutiladi. Kredit savdo bitimlari uchun berilsa, shartnoma tuzilib, qarz egasiga qaytarilishi hisobga olinadi.

Kredit berishda garov olish alohida o‘rin tutadi. Kafolatli shartnoma asosida kredit jismoniy shaxslar, dehqon xo‘jaliklari, fermerlar, ijarachilarga berilishi mumkin. Bunday shartnomaga ko‘ra, kafolatchi qarzning qaytarilishiga kafil bo‘ladi, mabodo qarz olgan qaytara olmasa, kafil bo‘lgan shaxs to‘lashi kerak bo‘ladi. Qarz shartnomasi sug‘urta kompaniyalari javobgarligi asosida ham tuzilishi mumkin.

5. Maqsadliligi. Kredit qat’iy ravishda aniq maqsad uchun beriladi. Bank kredit berish uchun qarz olayotganni uni nima maqsadda olayotgani, undan qanday foyda olishi mumkinligini tahlil qiladi. Tadbirkorlar uni «biznes-reja»da ko‘rsatadilar. Kredit berayotganda, bank, albatta, uni hisobga oladi, kreditni qaytarmaslik xatarini belgilaydi.

6. Kredit berishga tabaqalashgan holda yondashish. Bu tamoyil turli qarz oluvchilarga individual tarzda yondashishni ifodalaydi. Bank qarz berib, qaytarib olmaslik xatarini hisoblab chiqib, har bir mijoz uchun qarz berish yoki bermaslik masalasini har tomonlama tahlil qilib, hal etadi.

Kreditning tarixiy rivojlanish jarayonida turli shakllari paydo bo‘lib, ularning eng asosiylari *tijorat va bank kreditidir*. **Tijorat krediti** – bu korxonalar, tadbirkorlar va boshqa xo‘jalik subyektlarining bir-biriga tovar shaklida beradigan kreditidir. Bunda tovarlar qarzga beriladi. Ko‘pincha, tijorat krediti veksel (qarz majburiyatnomasi) bilan hujjatlashtiriladi. Tijorat krediti cheklangan tarzda qo‘llaniladi. Uning keng tarzda qo‘llanishiga quyidagilar to‘sqinlik qiladi:

a) qarz beruvchining zaxira mablag‘i, zaxira fondining cheklanganligi;

b) tovar shaklida kredit ishlatilishining cheklanganligi. Aytaylik, korxonalar material qarz olgan bo‘lsa, uni faqat ishlab chiqarish vositasi – xom ashyo sifatida ishlatishi mumkin, uni ish haqi tarzida ishlata olmaydi;

v) bu qarz ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaradigan korxonalardan ularni iste‘mol qiladiganlarga berilishi mumkin, aksincha emas. Tijorat kreditining bu cheklanganligi bank krediti yordamida hal etiladi.

Bank krediti – bu moliya-kredit muassasalari (banklar, fondlar, assotsiatsiyalar) tomonidan har qanday xo‘jalik subyektlari (tadbirkorlar, korxonalar, tashkilotlar va boshqalar)ga pul shaklida – ssuda tarzida beriladi. Bank krediti qisqa (bir yilgacha), o‘rta (bir yildan besh yilgacha) va uzoq (besh yildan ortiq) muddatga berilishi mumkin. Kredit faqat tovar muomalasi (aylanishini)ga xizmat ko‘rsatib qolmay, kapital jamg‘arilishga ham xizmat ko‘rsatadi. Bank krediti bitimlar hajmi, muddati, yo‘nalishi bo‘yicha cheklanmaganligi jihatidan tijorat kreditidan farq qilishi uni kreditning asosiy va ustun shakliga aylantiradi. Kreditning ulardan tashqari quyidagi shakllari mavjud:

Iste‘mol krediti. Iste‘mol krediti aholi ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan. U tovar yoki pul shakllarida bo‘lishi mumkin. Bu kredit eng avvalo uzoq muddat foydalaniladigan iste‘mol tovarlarini sotib olish uchun beriladi. U tovarlar sotilayotgan do‘konlar tomonidan to‘lov muddatini kechiktirish yoki bank tomonidan shu maqsad uchun qarz berilishi tarzida bo‘lishi mumkin. Odatda bu kredit uchun belgilanadigan foiz yuqori bo‘ladi. Hozirgi paytda imtiyozli kreditlar ham berilmoqda.

Masalan, AQShda banklar iste‘molchilarga kredit kartochkalari beradi, ularga narxi 2500 dollarga qadar tovarlar xarid etiladi, xarid puli

banklarga do‘konlar bergan schotga qarab to‘lanadi. Bunday kredit g‘oyat imtiyozli bo‘ladi, uning foizi boshqa qarz foizidan ancha kam bo‘ladi, hatto foizsiz ham bo‘lishi mumkin. Talabalarga o‘qish haqini to‘lashlari uchun maxsus qarz beriladi. Bu qarz uchun foiz eng ko‘p bo‘lganda 8 foiz qilib belgilanadi, qarz yiliga 2500 dollar, oxirgi kursda esa 5000 dollar miqdorda beriladi. Bunday qarzni talaba o‘qishni tugatib, pul topgach, uzadi. Hozirgi paytda, yakka uy-joylar qurish uchun uzoq muddatli kreditlar pul shaklidagi iste‘mol kreditlaridir. Respublikamizda ham hozirgi paytda uy-joy qurish, oliy o‘quv yurtlarida o‘qish uchun imtiyozli kredit berish keng qo‘llanilmoqda.

Ipoteka krediti – ko‘chmas mulk (yer, bino, uy-joy kabilar)ni garovga qo‘yib olinadigan kredit. Odatda ipoteka kreditidan asosan qishloq xo‘jaligida asosiy fondlarni yangilash uchun yirik kapital qo‘yilmalarni qoplash uchun foydalaniladi.

Davlat krediti – davlat bir tomondan qarz oluvchi, ikkinchi tomondan qarz beruvchi sifatida maydonga chiqadi. Bunda davlat krediti paydo bo‘ladi. Davlat aholidan, firma, korxonalar, tashkilotlar, banklardan qarz oladi. U davlatning qarzdorlik guvohnomasi bo‘lib, u vaqti kelganda, qarzni uzish va foiz to‘lashni kafolatlaydi. Ularni markaziy va mahalliy hokimiyatlar chiqaradilar. Qarz va uning foizi budjet hisobidan qoplanadi. Davlat qarzni eng avvalo budjet tanqisligini qoplash uchun oladi. AQShda davlat obligatsiyalari emissiya tufayli davlat qarzi 3 trln. dollardan oshib ketdi. Kredit munosabatlarida davlat faqat qarzdor vazifasini o‘tamay, qarz beruvchi rolini ham bajaradi. Davlat o‘z mablag‘lari hisobidan bankda qarz fondini tashkil etadi, xazinadan qarz beradi. Xazina qarzi davlat budjetidan, korxonalar va firma, tashkilotlarga ularning moliyaviy sanatsiyasi (sog‘lomlashtirish) uchun sarflanadi.

Bu qarz ham ma‘lum muddatga, qaytarib berish va foiz to‘lash sharti bilan beriladi. Foiz g‘oyat imtiyozli bo‘lib, daromad olishni ko‘zlamaydi. Davlat o‘z qarzidan voz kechishi ham mumkin.

Xo‘jaliklararo pul krediti xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bir-biriga beradigan krediti. Korxonalar, tashkilotlar aksiya, obligatsiya, kredit biletleri va boshqa qimmatbaho qog‘ozlar chiqarish orqali beradi. Bu operatsiyalar *korxonalarni markazlashtirilmagan moliyalashtirish* (aksiya chiqarish) va *kreditlash* (obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog‘ozlar) degan nom olgan.

Xalqaro kredit – bu ssuda kapitalining xalqaro miqyosdagi harakatidir. Xalqaro kredit tovar yoki pul (valuta) shaklida beriladi. Qarz

beruvchilar va qarz oluvchilar banklar, xususiy firmalar, davlat organlari, hukumatlar, yirik korporatsiyalar, xalqaro va regional tashkilotlari bo'lib, ularning kredit berish shartlari bir-biridan jiddiy farq qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan fuqarolarning banklar depozitlaridagi omonatlari ularning miqdoridan qat'i nazar, davlat tomonidan to'la kafolatlanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz bank tizimi kapitalining etarlilik darajasi Bank nazorati bo'yicha xalqaro Bazel qo'mitasi talablari asosida belgilangan xalqaro standartlardan qariyb uch barobar ko'p ekanini ta'kidlash joiz.

Hozirgi vaqtda respublikamiz bank tizimining umumiy joriy likvidligi dollar hisobida 1,5 milliard dollardan ortiq. Bu tashqi nodavlat qarzlari bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan to'lovlardan hajmidan 10 barobar ko'pdir. Bu esa bizda likvidlik, ya'ni to'lovlarga qodirlik darajasi bo'yicha muammo yo'q, deb aytish uchun asos beradi.

Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, ularning kredit tarmoqlarini jalb qilish orqali banklarning investitsion jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish maqsadida respublika tijorat banklari tomonidan xalqaro reyting kompaniyalarining kreditga layoqatlilik reytinglarini olish bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirildi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, 2008-yilning aprel oyida O'zbekiston bank tizimiga nufuzli xalqaro reyting kompaniyalaridan biri – «Mudis» reyting agentligi tomonidan xalqaro reyting bahosi berilganligi mamlakatimiz moliya tizimining barqarorligidan dalolat beradi. Xususan, «Mudis» agentligi biryo'la uchta yo'nalish bo'yicha respublika bank tizimiga «barqaror» reyting bahosini berdi. «Mudis» xalqaro reyting agentligining hisobotida ta'kidlanishicha, agentlikning ijobiy bahosi mustahkam bank nazorati tizimida, bank sektorining yuqori o'sish potensialida, moliya tizimining tarkibiy o'zgarishi va milliy iqtisodiyotning yuqori darajada o'sishida o'z ifodasini topdi.

Bundan tashqari, 2008-yilda tijorat banklari tomonidan xalqaro reyting olish uchun «Mudis», «Fitch Reytings», «Standart end Purs», «Tompson Faynenshl Bank Votch», «Japan Kredit Reyting Ejensi», «Reyting Ejensi Malayziya» kabi nufuzli xalqaro reyting kompaniyalari bilan o'zaro hamkorlik ishlari davom ettirildi. 2008-yilda respublikamizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining 12 tasi xalqaro «Mudis», «Fitch Reytings» va «Standart end Purs» reyting kompaniyalarining «barqaror» reyting bahosini olishga erishdilar (2-jadval).

Xalqaro reyting kompaniyalarining «barqaror» reyting bahosini olgan banklar

«Mudis»	«Fitch reyting»	«Standart end Purs»
TIF Milliy bank Ipoteka bank G'alla bank Aloqa bank «Turon» bank Kredit standart bank	O'zsanoatqurilish bank Paxta bank Asaka bank Hamkor bank «Ipak yo'li» bank	TIF Milliy bank Kapital bank

Shuningdek, xalqaro amaliyot negizida banklar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning milliy individual reyting tizimini joriy etish maqsadida, O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi tomonidan Markaziy bank hamda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi bilan kelishilgan holda tegishli chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan. Shunga muvofiq, 2008-yil davomida «Axbor-Reyting» milliy reyting agentligi tomonidan 21 ta tijorat bankiga turli darajadagi reyting baholari berildi.

2008-yilda tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish, barqarorligini ta'minlash, investitsiya jarayonlarida ishtirokini yanada kengaytirish, ularning erkinligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

Kreditning obyekti har qanday pul emas, balki o'z egalari qo'lidagi bo'sh qolgan pullardir. Kredit takror ishlab chiqarishga xizmat qilishi kerak. Kredit iqtisodiy o'sishning shartidir. Iqtisodiy o'sish ommaviy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois ham, moliya-kredit sohasidagi jinoyatchilikka yo'l qo'ymaslik huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining vazifalaridan biri hisoblanadi. Faqatgina yuksak ma'naviyatli xodimlar bank-kredit sohasidagi moliyaviy resurslarni suiiste'mol qilishga yo'l qo'ymaydilar. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, 2002–2007-yillarda ayrim shaxslar respublikamiz iqtisodiyotida 530,7 milliard so'm mablag'ni o'zlashtirib yuborganlar. Prokuratura organlarining aralashuvi bilan aybdorlar tomonidan yetkazilgan zararining 435 milliard so'mi, ya'ni 78 foizi qoplangan. Ko'rinib turibdiki, bu summa iqtisodiy o'sishga emas,

balki ayrim shaxslar manfaatlariga xizmat qilgan. Aybdorlarning aksariyati rahbar xodimlardir. Bunday insonlar respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar g'oyasini obro'sizlantiradi. Shu bois, bu borada joylarda tegishli tushuntirish ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi (2010-yil 12-noyabr) «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» nomli ma'ruzasida: «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida mamlakatimiz moliya-bank tizimi o'zining barqaror va ishonchli ekanini isbotladi. Shu bilan birga, bu tizimning yanada mustahkamlanishi *xususiy banklar va xususiy mulkka asoslangan lizing, sug'urta kompaniyalari, kredit uyushmalari, mikromoliyaviy tashkilotlar kabi moliyaviy institutlarni tashkil etishning qonunchilik asoslarini shakllantirish hisobidan bank-moliya sohasiga xususiy kapitalni jalb qilish bilan ham bog'liq.* Bu esa bank va boshqa moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning kengayishi hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatining oshishiga imkon beradi va eng yuksak xalqaro standartlar talabiga mos zamonaviy bozor infratuzilmasining rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Ta'kidlash kerakki, «Standart End Purs», «Mudis» va «Fitch Reytings» kabi nufuzli xalqaro reyting agentliklari ikki yildan buyon O'zbekiston bank tizimiga muttasil ravishda «barqaror» reyting darajasini bermoqda, ayni paytda mamlakatimizning shunday bahoga sazovor bo'lgan banklari soni yildan-yilga ortib bermoqda. Agar 2010-yilda mamlakatimizning 15 ta tijorat banki «barqaror» reytingini olgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 23 taga yetdi, bu banklarning aktivlari yurtimiz bank tizimi umumiy aktivlarining 98 foizini tashkil etmoqda.

Ma'lumki, aholining bank tizimiga ishonchi ortib borayotgani banklar faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu ma'noda, 2011-yilda depozitlarga 18 trillion so'mdan ortiq, o'tgan yilga nisbatan 36,3 foiz ko'p mablag' jalb qilingani, jumladan, aholi depozitlari 38,8 foizga oshgani ayniqsa e'tiborlidir.

Banklarning kredit portfeli tarkibi sifat jihatidan tubdan o'zgar-moqda. Agar 2000-yilda kredit portfelining 54 foizi tashqi qarzlardan hisobidan shakllantirilgan bo'lsa, 2011-yilda uning 85,3 foizi ichki

manbalar – yuridik va jismoniy shaxslar depozitlari hisobidan shakllantirildi. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotimiz tarmoqlariga investitsiya kiritish va shuning hisobidan taraqqiyotimizni ta‘minlashda ichki imkoniyatlarimiz tobora ortib borayotganining dalilidir.

Tijorat banklarining investitsiyaviy faolligi ortmoqda. Tijorat banklari qo‘yilmalarining 75 foizdan ortig‘ini uch yildan ziyod bo‘lgan uzoq muddatli investitsiya kreditlari tashkil etmoqda. Umuman, so‘nggi o‘n yilda banklarimiz tomonidan iqtisodiyotning real sektorini kreditlash 7 barobar oshganini alohida qayd etish lozim, deb o‘ylayman. Bizning iqtisodiy nochor korxonalarini banklar balansiga o‘tkazib, ularni sog‘lomlashtirish borasida qo‘llagan noan‘anaviy yondashuvimiz o‘zini oqladi va samaradorligini ko‘rsatdi, deb bugun to‘la asos bilan aytishimiz mumkin.

Hozirgi paytda banklarga berilgan 164 ta bankrot korxonadan 156 tasida ishlab chiqarish faoliyati to‘liq tiklandi, 110 ta korxonada yangi investorlarga sotildi. Bunday korxonalarini texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish ishlariga tijorat banklari tomonidan 275 milliard so‘m miqdorida investitsiya kiritildi, natijada 22 mingdan ziyod ish o‘rni yaratildi»¹, – deb ta‘kidladi.

Hozirgi vaqtda yana bir muhim masala – **mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes, birinchi navbatda, xususiy tadbirkorlikning roli va ulushini yanada kengaytirishni ta‘minlay oladigan qonunlarni qabul qilish** masalasi biz uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonning bu yilgi yalpi ichki mahsulotida kichik biznesning ulushi 50 foizdan ortib borayotganiga qaramasdan, afsuski, bu soha real iqtisodiyotimizda, avvalambor sanoatda yetakchi o‘rinni egallay olmayapti. Ushbu vazifani hal etish uchun «**Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida**»gi **Qonunning** yangi tahririni tayyorlash zarur. Bu qonunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilish yo‘llarini soddalashtirish, ularning faoliyati uchun ko‘proq erkinliklar berishni ko‘zda tutish lozim. Ushbu sektorni kreditlash, resurslardan foydalanish, **davlat buyurtmalarini olish**, tadbirkorlik subyektlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni sotish uchun yangi imtiyozlar berish, xalqaro amaliyotga muvofiq daromadlarning

¹ *Каримов И. А.* 2012 йил Ватанимиз тараққийетини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. – Т.: «Ўзбекистон», 2012. – Б. 5.

yillik deklaratsiyasi shakliga bosqichma-bosqich o'tish, moliya va statistika hisobotlari tizimini yanada soddalashtirish, jumladan, bunday hisobotlarni vakolatli davlat organlariga elektron shaklda taqdim etish kabi mexanizmlar hisobidan qo'llab-quvvatlash masalalari ham qonunda o'z aksini topishi darkor»ligiga alohida e'tibor qaratmoqda.

5. Davlat budjeti, uning shakllanishi va sarflanishi

Moliya tizimida budjet tizimi alohida o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining asosiy vazifalari 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonunda aniq belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi turli darajadagi budjetlar va budjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini; budjetlarni tashkil etish va tuzishni, tuzish prinsiplarini; budjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, budjetlar hamda budjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi.

Moliya muayyan yilga mo'ljallangan barcha darajadagi budjetlarni shakllantirish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ularning ijrosi hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasining milliy valutasini – so'mda amalga oshiriladi.

Budjet tizimining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- budjet tasnifi tizimi, hisob-budjet hujjatlari va budjet jarayoni tuzilishining yagonaligi;
- budjet tuzilishining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;
- turli darajadagi budjetlarning o'zaro bog'liqligi;
- davlat budjeti balansliligi;
- davlat daromadlarini aniq manbalar va xarajatlarning yo'nalishlari (moddalari) bo'yicha rejalashtirish;
- davlat budjeti xarajatlarini budjetdan ajratiladigan, tasdiqlangan mablag' doirasida sarflash;
- barcha darajadagi budjetlarning mustaqilligi.

Davlat budjeti respublika budjetini, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetini va mahalliy budjetlarni o'z ichiga oladi.

Davlat budjeti tarkibida davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti mazkur respublika budjeti hamda

respublikaga (Qoraqalpog‘istonga) bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlarini o‘z ichiga oladi.

Viloyatning budjeti viloyat budjetini, viloyatga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlarini o‘z ichiga oladi. Tumanlarga bo‘linadigan shaharning budjeti shahar budjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjetlarini o‘z ichiga oladi.

Tumanga bo‘ysunadigan shaharlari bo‘lgan tumanning budjeti tuman budjeti va tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar budjetlarini o‘z ichiga oladi.

Davlat budjeti daromadlari:

1) qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlar;

2) davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;

3) qonun hujjatlariga muvofiq, meros olish, hadya etish huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tgan pul mablag‘lari;

4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

5) rezident yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to‘lovlar;

6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

Davlat budjeti xarajatlari tasdiqlangan budjetdan mablag‘ ajratish doirasida quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1) budjet mablag‘lari oluvchilarning joriy xarajatlari shaklida;

2) joriy budjet transfertlari shaklida;

3) kapital xarajatlari shaklida:

– asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog‘liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga;

– chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mol-mulk olishga;

– davlat ehtiyojlari uchun yerga bo‘lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga;

– davlat zaxiralarini vujudga keltirishga;

4) kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan budjet transfertlari shaklida;

5) rezident yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan budjet ssudalari shaklida;

6) davlat maqsadli jamg'armalariga beriladigan budjet dotatsiyalari va budjet ssudalari shaklida;

7) davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar shaklida;

8) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat budjeti loyihasini budjet mablag'lari oluvchilar taqdim etgan buyurtmalarga va Davlat budjetining tuzilmasiga kiruvchi budjetlar loyihalariga muvofiq tayyorlaydi. Davlat budjeti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat budjetiga muvofiq: Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahri budjetlari – Davlat budjeti qabul qilinganidan keyin ikki haftalik muddat ichida tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyati vakillik organlari tomonidan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar tarkibiga kiruvchi tumanlar va shaharlar budjetlari – Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar budjetlari qabul qilinganidan keyin bir haftalik muddat ichida tuman, shahar hokimiyat vakillik organlari tomonidan;

shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjetlari va tuman bo'ysunuvidagi shaharlar budjetlari – belgilangan muddatlarda mahalliy hokimiyat yuqori turuvchi vakillik organlari tomonidan qabul qilinadi.

Davlat budjeti davlat tomonidan iqtisodiy sohani tartibga solishga qaratilgan eng muhim mexanizmlardan biridir. Zero, har qanday jamiyatning iqtisodiy tizimini shakllantirish va rivojlantirishda davlat budjeti asosiy o'rin tutadi. Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari siyosati o'zaro uzviy bog'liq. Ya'ni, daromad bo'lmasa, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy, texnik va boshqa sohalarni qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish uchun moliyaviy mablag' ajratish imkoni bo'lmaydi. Shu bois, bugungi kunda davlatimiz oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri – xalqimiz va davlat manfaatlariga mos keladigan hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishga qodir moliya-kredit, pul siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yishdir.

Oliy Majlis Senati tomonidan ma'qullangan **O'zbekiston Respublikasining 2013-yilgi Davlat budjetidagi** asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari negizida ishlab chiqildi. Unda respublikaning 2013-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, soliq-budjet siyosatining yo'nalishlari va Davlat budjeti parametrlari belgilab qo'yildi. Chunonchi, 2013-yilda soliq siyosatiga barqaror iqtisodiy o'sish, iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlari hamda hududlarining makroiqtisodiy va moliyaviy jihatdan o'zaro muvofiq bo'lishi, aholi turmush darajasining oshishini ta'minlashga qaratilgan strategik maqsadlar asos qilib olingan. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va yangi ish joylari yaratishni rag'batlantirish maqsadida soliq yukini pasaytirish ko'zda tutilgan.

Keyingi yillarda tadbirkorlik subyektlarini «bir darcha» orqali tezlik bilan davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimi hamda bir necha turdagi soliqlarni to'lash o'rniga kichik biznesni yagona soliq to'lovi shaklidagi soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi joriy etildi. Bunda mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 2005-yilda 13 foiz, 2008-yilda 10 foizdan 8 foizgacha, 2009-yildan boshlab esa 7 foizgacha pasaytirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2011-yildan 6 foizga tushirildi. 2012-yilda esa 5 foizga tushirildi. Demak, so'nggi besh yil ichida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan qat'iy belgilangan soliq miqdori qariyb 2,2 barobarga kamaytirildi.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va shu asosda aholi bandligini ta'minlashga e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarini pasaytirish hisobiga aholi daromadlarini ko'paytirish nazarda tutildi.

Kredit tashkilotlariga jismoniy shaxslar omonatlarini jalb qilishda teng shart-sharoit yaratish va depozitlar bozoridagi raqobatni rivojlantirish hamda mikromoliyalashtirishni rag'batlantirish, bankdan tashqari moliya institutlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida kredit uyushmalaridagi depozit qo'yilmalar bo'yicha olingan daromadlarni jismoniy

shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilish belgilangan. Davlat budjeti taqchilligi 491,6 mlrd. so'mni yoki YAIM hajmining 1 foizini tashkil qiladi.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiy inqirozi keskin tus olgan, shunga qaramay, mamlakatimizning 2011-yilga mo'ljallangan Davlat budjetida ijtimoiy sohaga doir xarajatlar miqdori kamaytirilgan emas. U budjet xarajatlarning 58,7 foizini tashkil etadi. 2012-yilda bu ko'rsatkich 60 foizni tashkil etilishi nazarda tutilgan.

Muxtasar aytganda, davlat budjeti – davlatimiz iqtisodiy siyosatini belgilovchi asosiy moliyaviy hujjat bo'lib, u iqtisodni tartibga solishga, ishlab chiqarishning barqaror o'sishini ta'minlashga, kam ta'minlangan oilalarni ko'llab-quvvatlash va xalqimiz farovonligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

5.1. Budjet kamomadi va profitsiti. Davlat qarzlari. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari

Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari muvozanatda bo'lishini taqozo qiladi. Lekin ko'pchilik hollarda davlat budjeti xarajatlarning daromadlardan ortiqchaligi kuzatiladi, buning oqibatida budjet taqchilligi tez sur'atlar bilan o'sadi. Bu holning sabablari ko'p bo'lib, ularning ichida, davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzluksiz o'sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi alohida o'rin tutadi.

Budjet taqchilligining o'sishi mutlaq miqdorda va uning yalpi milliy mahsulot (YAMM)ga nisbatida aniq namoyon bo'ladi. 2002-yilda Respublikamiz davlat budjetining taqchilligi YAIMga nisbatan bir foizdan oshmagan¹. Budjet taqchilligining o'zgarishi xo'jalik konyukturalaridagi joriy tebranishlar, ishlab chiqarishdagi davriy inqiroz va yuksalishlarni ham aks ettiradi, krizislar davrida davlat budjet mablag'lari hisobidan iqtisodiyotning ma'lum sektorlarini ushlab turishga, umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarda investitsiyalar hajmini saqlab turishga majbur bo'ladi.

¹ *Каримов И. А. Иқтисодиётни эркинлаштириш ва ислохотларни чуқурлаштириш – энг муҳим вазифамиз. – Халқ сўзи. – 2000. – 15 фев.*

Budjet taqchilligini moliyalashtirish (qoplash)ning muhim sharoiti davlat krediti bo‘lib chiqadi. *Davlat krediti* deganda, davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida chiqadigan barcha moliyaviy iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi tushuniladi. Moliyaviy resurslarni davlat qarz olishning asosiy shakli – bu davlat zayomlarini chiqarish hisoblanadi. Ularni joylashtirish jarayonida davlat aholi, banklar, savdo va sanoat kompaniyalarining vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini jalb qiladi.

Davlat o‘z majburiyatlarini nafaqat xususiy sektorda joylashtirishi, balki ularni Markaziy bankda hisobga olishi ham mumkin. Bunda bank muomalaga pulning tovar hajmining ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lmagan qo‘shimcha massasini chiqaradi. Mazkur holda, davlat budjetini moliyalashtirish pul muomalasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri inflyatsion ta‘sir ko‘rsatadi. Pul massasining o‘sishi jamiyat haqiqiy boyligining ko‘payishi bilan birga bormaydi.

Davlat qarzlarning to‘xtovsiz ko‘payib borishi, milliy daromadni foiz to‘lovlari shaklida, tobora ko‘proq qayta taqsimlanishiga olib keladi. Katta budjet taqchilligi va davlat majburiyatlari bo‘yicha foiz to‘lovlari o‘shish sharoitida, davlat qarzlarni to‘lash vaqtini imkon darajada cho‘zishga harakat qiladi. Buning uchun turli xil usullardan foydalanish mumkin. Jumladan, davlat o‘zining qisqa muddatli majburiyatlarini, o‘rta va uzoq muddatli zayomlarga almashtiradi. U o‘zining qisqa muddatli majburiyatlarini, ancha yuqori foiz bo‘yicha yangi, uzoq muddatli zayomlar chiqarish hisobiga ham sotib olish mumkin. Bunday turdagi tadbirlar qisqa davrli samara berishi va vaqtincha davlatning moliyaviy ahvolini yengillatishi mumkin, chunki u odatda kelgusida foiz stavkasining oshishi va qarzlarning umumiy miqdorining o‘shishi bilan bog‘liq.

Xo‘jalik hayotida baynalminallashuv jarayonlarining tez o‘shishi, xalqaro kreditning jadal rivojlanishi natijasida davlat o‘ziga zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun, bo‘sh pul mablag‘larining milliy chegaradan tashqaridagi manbalaridan faol foydalanadi. Buning natijasida tashqi qarz vujudga keladi.

Shunday qilib, davlat zarur moliyaviy resurslarini ham ssuda kapitallarining milliy bozoridan ham va tashqi bozoridan qarz oladi. Xalqaro kreditning tez o‘shishi kapitalning mamlakatlararo migratsiyasi, mamlakat va regionlar iqtisodiy o‘zaro bog‘liqligi chuqurlashuvining muqarrar natijasi hisoblanadi. Xalqaro kredit moliyaviy resurslarni ham

xususiy sektorning ehtiyojlarini qondirish, davlat budjeti taqchilligini qoplash uchun jalb qilish imkoniyatini sezilarli kengaytiradi. Shu bilan birga, tashqi qarzlarning o‘shishi bir qator boshqa muammolarni keltirib chiqaradi. Ulardan asosiysi, milliy vositalar bilan nazorat qilib bo‘lmaydigan ham kreditor, ham debitor mamlakatlar iqtisodiyotining kuchayib boruvchi bog‘liqligidir.

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanib borayotganini 2005-yildan boshlab davlat budjeti profitsit bilan bajarilayotgani ham yaqqol tasdiqlab turibdi. Quyidagi jadvalga qarang.

3-jadval

Davlat budjeti ko‘rsatkichlarining YAIMga nisbatan tendensiyasi (foizda¹)

Yillar	Davlat budjeti ko‘rsatkichlarining Ijrosi
2000	1,0
2001	1,0
2002	0,8
2003	0,4
2004	0,4
2005	0,1
2006	0,5
2007	1,1
2008	1,5
2009	0,2
2010	0,3

Bu borada erishilgan yutuqlar haqida davlatimiz rahbari Islom Karimovning **Vazirlar Mahkamasining 2011-yil asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan majlisidagi ma’ruzasidan quyidagi ma’lumotlarni keltirishni o‘rinli deb bildik²**: «2011-yilda Davlat budjetining xarajatlar qismi 2010-yilga nisbatan 25,4 foizga, 2000-yilga nisbatan esa qariyb 17,8 barobar o‘ydi. Qayd etish joizki, davlat budjeti

¹ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кўмитасининг тегишли йиллар бўйича статистик тўпламлари асосида тузилган.

² Каримов И. А. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги bosқичга кўтардиган йил бўлади. – Т.: «Ўзбекистон», 2012. – Б. 5.

xarajatlarning 58,7 foizi ijtimoiy sohani moliyalash va aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi.

Mana bu raqamlarga alohida e'tiboringizni jalb etmoqchiman. 2012-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimizning umumiy tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 17,5 foizidan, eksport hajmiga nisbatan esa 53,7 foizdan oshmaydi. Bu xalqaro mezonlar bo'yicha «Har jihatdan maqbul holat» deb hisoblanadi.

Bularning barchasi mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlab ham davlat, ham tijorat banklari, kompaniya va korxonalar miqyosida har tomonlama puxta o'ylangan chetdan qarz olish siyosatini amalga oshirib kelayotganimiz bilan bog'liq ekanini, o'ylaymanki, tushunish, anglash qiyin emas. 2011-yilda banklarning kapitallashuvi, ularning barqarorligi va likvidligini yanada mustahkamlashga qaratilgan izchil va aniq maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Oxirgi besh yil davomida mamlakatimiz bank sektori kapitalining yetarlilik darajasi bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan 8 foiz etib belgilangan xalqaro me'yordan uch barobar ko'p bo'lgan darajani tashkil etmoqda. Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash kerakki, «Standart End Purs», «Mudis» va «Fitch Reytings» kabi nufuzli xalqaro reyting agentliklari ikki yildan buyon O'zbekiston bank tizimiga muttasil ravishda «barqaror» reyting darajasini bermoqda, ayni paytda mamlakatimizning shunday bahoga sazovor bo'lgan banklari soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Agar 2010-yilda mamlakatimizning 15 ta tijorat banki «barqaror» reytingini olgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 23 taga yetdi, bu banklarning aktivlari yurtimiz bank tizimi umumiy aktivlarining 98 foizini tashkil etmoqda. Ma'lumki, aholining bank tizimiga ishonchi ortib borayotgani banklar faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu ma'noda, 2011-yilda depozitlarga 18 trillion so'mdan ortiq, o'tgan yilga nisbatan 36,3 foiz ko'p mablag' jalb qilingani, jumladan, aholi depozitlari 38,8 foizga oshgani ayniqsa e'tiborlidir.

Banklarning kredit portfeli tarkibi sifat jihatidan tubdan o'zgarimoqda. Agar 2000-yilda kredit portfelining 54 foizi tashqi qarzlardan hisobidan shakllantirilgan bo'lsa, 2011-yilda uning 85,3 foizi ichki manbalar – yuridik va jismoniy shaxslar depozitlari hisobidan shakllantirildi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotimiz tarmoqlariga investitsiya kiritish va shuning hisobidan taraqqiyotimizni ta'minlashda ichki imkoniyatlarimiz tobora ortib borayotganining dalilidir. Tijorat banklarining investitsiyaviy faolligi ortmoqda. Tijorat banklari

qo'yilmalarining 75 foizdan ortig'ini uch yildan ziyod bo'lgan uzoq muddatli investitsiya kreditlari tashkil etmoqda. Umuman, so'nggi o'n yilda banklarimiz tomonidan iqtisodiyotning real sektorini kreditlash 7 barobar oshganini alohida qayd etish lozim, deb o'ylayman.

Bizning iqtisodiy nochor korxonalarini banklar balansiga o'tkazib, ularni sog'lomlashtirish borasida qo'llagan noan'anaviy yondashuvimiz o'zini oqladi va samaradorligini ko'rsatdi, deb bugun to'la asos bilan aytishimiz mumkin.

Hozirgi paytda banklarga berilgan 164 ta bankrot korxonadan 156 tasida ishlab chiqarish faoliyati to'liq tiklandi, 110 ta korxonada yangi investorlarga sotildi. Bunday korxonalarini texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish ishlariga tijorat banklari tomonidan 275 milliard so'm miqdorida investitsiya kiritildi, natijada 22 mingdan ziyod ish o'rni yaratildi».

Davlat moliyasi uning xarajatlarini ham bildiradi, bular budjet xarajatlaridan iborat. Davlat xarajatlari uning daromadiga qarab shakllanadi va quyidagi yo'nalishda boradi:

1. Ijtimoiy soha xarajatlari. Bular ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, madaniyat, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy yordam ko'rsatish sarflari.

2. Investitsiya xarajatlari. Bu davlat hisobidan ijtimoiy-madaniy obyektlarni, ishlab chiqarish infratuzilmasi va kommunikatsiya tizimini yaratish uchun pul sarflash.

3. Milliy xavfsizlik va ichki tartibni saqlash xarajatlari. Bular jumlasiga politsiya (militsiya), xavfsizlik organlari, sud va prokuratura xarajatlari kiradi.

4. Boshqarish xarajatlari. Bular jumlasiga markaziy va mahalliy hokimiyat organlari ishini ta'minlash sarflari kiradi.

5. Tashqi qarzni uzish xarajatlari. Bu to'lash muhlati kelgan qarzni o'zini qaytarish, qarz yuzasidan beriladigan foizlarni to'lash xarajatlari. Bu xarajat qarzni miqdoriga, qaysi paytda qaytarilishiga va foizning miqdoriga qarab o'zgarib turadi va budjetda ko'rsatiladi.

5.2. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning bank-moliya sohasida asosiy ko'rsatkichlari

1995-yilda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonun nafaqat bank tizimining huquqiy asoslarini mustahkamladi, balki Markaziy bankning alohida maqomi, maqsad va

vazifalari hamda vakolatlarini aniq belgilab berdi. 1996-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Bank va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni bank tizimidagi ikkinchi bosqich institutlari – tijorat banklari faoliyatining huquqiy jihatlarini belgilab berdi. 1997-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni bilan bank faoliyati uchun bir qator imtiyoz va rag‘batlantirishlar berildi va shu asosda yurtimizda jismoniy shaxslarning ulushi 50 foizdan kam bo‘lmagan xususiy banklar ochila boshladi.

2011-yilning 1-yanvariga qadar O‘zbekistonda 31 ta tijorat banki faoliyat ko‘rsatmoqda, ulardan 3 tasi davlat, 13 tasi tijorat-aksiyadorlik banki, 10 tasi xususiy va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar bo‘lib, ular 9,3 mingta filialga, minibank va chakana ofislariga ega.

4-jadval

**Bank muassasalarining rivojlanish dinamikasi
(1990–2011-yillar)**

Ko‘rsatkichlar	1990-yil	1995-yil	2000-yil	2005-yil	2010-yil
Tijorat banklari soni	16	32	35	29	31
Tijorat banklari muassasalari soni	2389	3171	4234	7028	9293

Mamlakatimiz tijorat banklari yalpi kapitalining barqaror o‘shishi va bank aktivlari portfelini boshqarish sohasida yuritilayotgan mutanosib siyosat natijasida, bank tizimida bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlardan uch barobar ko‘p bo‘lgan kapitalning yetarlilik darajasi ko‘rsatkichini ta’minladi. Yurtimizda 1995–2010-yillar davomida yalpi kapitalning real o‘shishi 12,5 barobarni tashkil etdi, bu esa banklarning kapital bazasi mustahkamlanganidan dalolat beradi. Bu, o‘z navbatida, ularning to‘lov qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bank tizimida 1995-yildan 2010-yilgacha bo‘lgan davrda depozitlar bazasi solishtirma ko‘rsatkichlarda 13 barobar oshdi. Tijorat banklari yalpi depozitlarining yuqori darajada o‘shishi aholi omonatlarini jalb qilishning yuqori sur‘atlari bilan izohlanadi, bu shubhasiz, aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchi yanada ortib borayotganidan dalolatdir. 2010-yilning oxirida aholining mamlakatimiz tijorat banklariga qo‘ygan

omonatlari hajmi 4447 milliard soʻmni tashkil etdi va bu solishtirma narxlarda 1995-yil koʻrsatkichlaridan 52 barobar koʻpdir. Jismoniy shaxslar tomonidan bank muassasalarida ochilgan bank hisob raqamlari soni 1995–2010-yillarda 16 barobar koʻpaydi va 2010-yil yakunlariga koʻra, katta yoshdagi har 1000 kishiga 1012 tani tashkil etdi, bu xalqaro amaliyotda yuqori koʻrsatkich hisoblanadi. 2000-yilda banklar kredit portfelining 54 foizi tashqi qarzlardan shakllangan boʻlsa, 2010-yilda kredit portfelining 85,1 foizi ichki manbalar hisobidan shakllantirildi. Shu bilan birga, banklar kredit portfelining 75,2 foizini uch yildan koʻp boʻlgan uzoq muddatli investitsiya kreditlari tashkil etadi.

Taʼkidlash joizki, tijorat banklarining moliyaviy koʻrsatkichlari va Oʻzbekiston Respublikasi bank tizimining asosiy parametrlari xalqaro reyting kompaniyalarining talab va mezonlariga mos keladi. Bu esa, 2010-yilda umumiy aktivlari bank tizimi jami aktivlarining 90 foizidan ziyodini tashkil etadigan 15 ta tijorat banki uchun «Fitch Reytings», «Mudis» va «Standart end Purs» kabi yetakchi xalqaro reyting agentliklarining «barqaror» reyting bahosini olishga erishish imkonini berdi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda eng yuqori xalqaro standartlarga javob beradigan toʻlovlarni amalga oshirish tizimi yaratildi. Agar 1990-yilda toʻlovlarni amalga oshirish uchun bir kun, baʼzan hatto haftalar ketgan boʻlsa, 1997-yildan boshlab bir necha daqiqalarda barcha hisob-kitoblarni toʻliq avtomatlashtirilgan tartibda amalga oshirish imkonini beradigan yangi toʻlov tizimi faoliyat koʻrsatmoqda. Bugungi kunda Oʻzbekiston toʻlov tizimi dunyodagi eng zamonaviy tizimlardan biri boʻlib, u barcha toʻlovlarni real vaqt rejimida amalga oshiradi.

Mamlakatimizda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining rivojlanishida toʻlovlarni plastik kartochkalar vositasida amalga oshirish tizimining yaratilgani muhim oʻrin tutmoqda. Soʻmdagi plastik kartochkalar dastlab 1996-yilda paydo boʻldi va bankdagi hisob raqamlari boʻyicha qoʻshimcha daromad olish imkoniyatiga ega boʻlgan bank mijozlari uchun qulayligi sababli keng qoʻllana boshlandi. Hozirgi vaqtda muomaladagi bank plastik kartochkalari soni qariyb 8 million donani tashkil etmoqda. Bugungi kunda savdo va xizmat koʻrsatish shoxobchalarida oʻrnatilgan, plastik kartochkalarga xizmat koʻrsatadigan terminallar soni 86 mingga yetdi.

Ayni paytda tijorat banklari tomonidan bank xizmatlari koʻlami muntazam kengaytirib borilmoqda va mijozlar uchun qulay yangi xizmat shakllari joriy etilmoqda. Ular bank hisob raqamlari egalariga real vaqt

tartibida o'z hisob raqamlari haqidagi ma'lumotlarni mobil va elektron aloqa vositalari orqali olish imkonini bermoqda. Banklar tomonidan aholi punktlarida mingdan ortiq infokiosklar o'rnatilgan, ular orqali mijozlar to'lovlar, jumladan, kommunal xizmat to'lovlarini mustaqil tarzda amalga oshirishlari mumkin. Bundan tashqari, bank mijozlariga qulayliklar yaratish maqsadida «Bank-mijoz» dasturi joriy qilingan. Ushbu dastur har kuni bankda katta hajmdagi hisob-kitoblarni amalga oshiradigan 5 mingdan ziyod yirik korxonalariga bankdagi o'z hisob raqamlarini ish joyidan turib boshqarish va ular haqida zarur ma'lumotlar olish imkonini bermoqda.

Bank tizimining mustaqillik yillarida faol rivojlanishi natijasida tijorat banklarining mijozlari soni 18,5 barobar ko'paydi va 18,8 millionni tashkil etdi. Jumladan, jismoniy shaxs maqomidagi mijozlar 19,2 barobar ko'payib, 17,5 million kishiga yetdi. Keyingi vaqtda mamlakatimizda bank kredit muassasalari bilan bir qatorda bankdan tashqari kredit muassasalari (kredit uyushmalari, lombardlar va mikrocredit tashkilotlari) tizimi ham rivojlanmoqda.

Bankdan tashqari, kredit tashkilotlari tizimining shakllanishi, O'zbekiston Respublikasining «Kredit uyushmalari to'g'risida», «Mikrocredit tashkilotlari to'g'risida»gi qonunlarining qabul qilinishi bilan boshlandi. Bugungi kunda O'zbekistonda jami aktivlari hajmi 351 milliard so'mni tashkil etadigan 209 ta bankdan tashqari, kredit instituti ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Tayanch tushunchalar:

Moliya sektori, daromadlar va xarajatlar, moliya tizimi, moliyaning vazifalari, mikromoliya, makromoliya, meta (xalqaro) moliya, aksiya, obligatsiya, dividend, kredit, kreditning vazifalari, kredit mexanizmi, kredit turlari, kredit institutlari.

Bank, bank turlari, budjet, budjet kamomadi, budjet koeffitsineti, budjet balansi, ichki va tashqi qarz, davlat qarzi.

Savol va topshiriqlar:

1. Iqtisodiyotning real sektori va moliya sektori o'rtasidagi farq qanaqa?
2. Moliyaning mamlakat taraqqiyotidagi o'rnini tushuntiring.
3. Moliya va kredit qanday vazifalarni bajaradi, ular o'rtasidagi farq qanaqa?
4. Moliyaning turlarini sanab o'ting.

5. Prezident Islom Karimov 2005-yilning 27–28-yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi yig‘ilishida, 28-yanvarida esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida bank va moliya tizimlaridagi islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor vazifalarini belgilagan edi. Bunda asosiy gap nimalar to‘g‘risida edi?

6. Bank va uning vazifalarini tushuntirib bering.

7. Markaziy bankning vazifalari qanday?

8. Tanilgan xalqaro reyting agentliklari («Mudis, Fitch») 2008-yilda O‘zbekistonning qaysi banklariga «barqaror» reytingini berdi?

9. 2009–2012-yillarga mo‘ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturi samaradorligini baholashning ahamiyatini tushuntiring.

10. Mamlakatimizda moliya-bank tizimini mustahkamlash masalasiga nima uchun alohida e‘tibor qaratilmoqda?

11. Respublikamiz bank tizimining mustahkam himoyasi yaratilganligi nimalarda namoyon bo‘ladi?

12. Yetakchi xalqaro reyting kompaniyalarining mamlakatimiz bank tizimiga bergan bahosini izohlang.

13. Banklar kredit portfeli tarkibidagi ijobiy o‘zgarishlar iqtisodiyotimizning taraqqiyoti uchun qanday ahamiyatga egaligini izohlang.

Mavzuni chuqur o‘rganish instrumentariysi

Moliyaviy globallashuv – bu jahon xo‘jaligining barcha hududlaridagi moliyaviy munosabatlarni qamrab oluvchi jarayondir. Global moliyaviy inqiroz ortiqcha likvidlik va yuqori darajada integratsiyalashgan xalqaro moliya tizimining yetarli tartibga solinmasligi natijasida yuzaga keladi va jahon iqtisodiyotining retsessiyaga uchrashiga olib keladi.

Iqtisodiy globallashuv – bu jahon xo‘jaligining barcha hududlaridagi iqtisodiy munosabatlarni qamrab oluvchi jarayondir. Buni tashkil topayotgan transmilliy kompaniyalar misolida ko‘rishimiz mumkin.

Ipoteka (yunoncha Hypothek – garov ma‘nosida) – ssuda olish maqsadida ko‘chmas mulk (yer, imorat)ni garovga qo‘yish. Rivojlangan mamlakatlar qishloq xo‘jaligida keng tarqalgan bo‘lib, maxsus ipoteka banklari bor.

Likvidlik (lotincha Liquidus – suyuq, oquvchi ma‘nolarida) – turli korxonalar, birlashmalar, firmalar va banklarning o‘z majburiyatlarini vaqtida bajara olishi (qarzni to‘lash imkoniyati, barqaror talabga ega bo‘lgan pul vositalari, bank depozitlari, qimmatli qog‘ozlar, moddiy aylanma vositalar, xaridorgir va pulga tez aylantiriladigan aktivlar likvid vositalar deb yuritiladi. Likvidlik mablag‘lar aylanishining me‘yoriga erishini yo‘li bilan ta‘minlanadi.

Ssuda – moddiy boyliklar garovi hisobiga joiz olish sharti bilan muayyan muddatga beriladigan qarz. Ssuda muddatida qaytarilmasa bank garov mulkni avaxta qilishi va uni sotib, ssuda bo'yicha uzilmagan qarzni qoplashi mumkin. Qimmatli qog'ozlarni ham garovga qo'yib, ular evaziga ssuda olish uchraydi.

Investitsiya (nemischa investition, lotincha investire – o'rash ma'nosida) – iqtisodni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda turli tarmoqlarga uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish). Moliyaviy investitsiya – aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish; real investitsiya mamlakati ichkarisida va chet ellarda ishlab chiqarish (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va boshq.)ga kapital qo'yish, shuningdek, yosh suveren davlatlarga qarz va subsidiya berish shakllarida amalga oshiriladi. Investitsiyani davlat, banklar yoki xususiy tadbirkorlar berishi mumkin.

Investor (inglizcha investor) – pul qo'ygan kishi, omonatchi; investorlarni amalga oshiradigan shaxs, tashkilot, davlat.

Fond bozori – bu qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi qilinadigan birja; bozor infratuzilmasining muhim bo'g'ini, qimmatli qog'ozlar (davlat obligatsiyalari, korxonalar aksiyalari va obligatsiyalari, bank kredit biletlari va boshq.) valuta oldi-sotdi bo'yicha muntazam va tashkiliy faoliyat ko'rsatadi.

Moliya bozori – jamiyatda moliya xizmatlari bozori; moliya mablag'larini vaqtincha haq to'lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo'lgan munosabatlar. Banklar, fond birjasida va auksionlarda o'tkaziladi. Moliya bozori tarkibi murakkab, unga qimmatli qog'ozlar bozori, ssuda kapitali, investitsiya bozori kabilar kiradi.

Retssessiya – bu iqtisodiy o'sishning cho'qqi nuqtasidan keyingi pasayish fazasi bo'lib, olti oy davomida ketma-ket ishlab chiqarish sur'atlarining keskin, birja indekslarining esa ommaviy pasayishi jarayonidir.

Depressiya – bu iqtisodiy o'sishning keskin pasayishi.

Korporatsiya (lotincha Corporation – birlashma, hamjamiyat ma'nolarida) – rivojlangan yirik aksionerlar jamiyati va trestlar; biron-bir faoliyat uchun uyushgan huquqiy va jismoniy shaxslar majmui. XIX asrlarda paydo bo'lgan.

Moliyaviy derivativ – bu chet el valutasini bilan bog'liq bo'lgan hosilaviy moliyaviy vositalar (valuta derivativlari) chet el valutasini oldi-sotdisi bo'yicha shartnomalar bo'lib, ularda belgilangan majburiyatlar muayyan muddat o'tgach yoki uning kursi o'zgarishiga bog'liq ravishda bajarilishi mumkin.

Sekyuritizatsiya deganda, moliyaviy aktivlarni qimmatli qog'ozlarga almashtirish tushuniladi.

Diskont (inglizcha discount, italyanча sconto – hisoblamoq ma'nosida):
1) banklar tomonidan vekselni muddatidan ilgari qaytarib sotib olish (veksel hisobi); 2) vekselni qayta sotib olganlik uchun bankdan undiriladigan protsent; 3) tovar narxi (masyu, sifati standartga to'g'ri kelmaganda), birja va valuta bitimlarida valuta narxidan tashlama.

Stagflyatsiya (lotincha Stagno – ko‘lmak va inflation – shishmoq ma’nolarida) – puflangan iqtisodiyotning turg‘unlik, inflatsiya bilan xarakterlanuvchi holati. Stagflyatsiya belgilari: iqtisodiy o‘shish g‘oyat sust boradi yoki yuz bermaydi, ishsizlik ko‘payadi, tirikchilik qiymati o‘sadi, inflatsiya kuchayadi, ishlab chiqarish quvvatlari to‘la ishlatilmaydi, investitsiya jarayoni sustlashadi, ijtimoiy barqarorlik ortadi.

Defolt – bu to‘lov qobiliyati va muddati likvidlik ta‘minlanmaganligi holatidan kelib chiqib, korxonalar majburiyatlarini to‘lashni rad etishdir.

Proteksionizm (lotincha protection – himoya ma‘nosida) – davlatning milliy iqtisodiyotini himoya qilish va uni rivojlantirishni har tomonlama rag‘batlantirish, soliq imtiyozlari berish, importni cheklash hamda import mollardan boj haqlarini oshirish va shunga o‘xshash boshqa tadbirlarda o‘z ifodasini topadi.

Offshor hududlar – bu iqtisodiy erkin hududlar bo‘lib, ular odatda soliqqa eng ko‘pi bilan besh foizdan oshmaydi yoki umuman soliq undirilmaydi. U hududlarda pul oqimi sust nazorat qilinadi.

Jamiyatning moliyasi ma‘lum tizimni hosil etib, bunga moliya obyekt, moliya subyekti, moliya munosabatlari, moliya mexanizmi, moliya siyosati va nihoyat, moliya institutlari kiradi. Bularning har birini alohida sharhlaymiz.

Pul bazasi – pul massasining mustaqil tarkibiy qismi bo‘lib, unga muomaladagi naqd pul, banklarning kassalaridagi pul mablag‘lari, tijorat banklarining Markaziy bankdagi majburiy zaxiralari.

Pul massasi – xususiy shaxslar, firmalar va davlatga tegishli hamda tovar va xizmatlarning milliy xo‘jalik miqyosida muomalada bo‘lishini ta‘minlaydigan naqd va naqd bo‘lmagan xarid va to‘lov mablag‘lari majmui.

Pulli multiplikator – muomaladagi pul massasining o‘shishi miqdorini aniqlash uchun oshiqcha pul bazasini kamaytirish kerak bo‘ladigan son.

Pul bozori – iqtisodiy subyektlar o‘rtasida pul oldi-sotdisi borasida yuzaga keladigan munosabatlarning ijtimoiy shakli.

Kapital moliyalashtirish – qarz oluvchi u yoki bu korxonaning mulkdori sifatida o‘z ulushi bilan ishtirok etish uchun shartnoma huquqiga ega bo‘lishi evaziga investitsiyalar kiritish uchun pul mablag‘lari olishiga imkon beradigan bitim.

Aksiyalar (obligatsiyalar) kursi – ularga bo‘lgan talab va taklifning o‘zaro ta‘siri bilan belgilanadigan bozor narxi.

Majburiy zaxiralar normasi – tijorat banklarining Markaziy bankda shartsiz tartibda joylashtirilgan aktivlari.

Obligatsiya – muayyan vaqt mobaynida pulda olingan qarzni kelishilgan foizi bilan to‘lash majburiyatini ifodalovchi sertifikat, aniq qayd etilgan daromadli aktiv.

Oddiy aksiya – firma mulkida o‘z ulushi bilan ishtirok etayotganlikni ko‘rsatuvchi sertifikat bo‘lib, u ayni vaqtda egasiga ushbu korporatsiyalar

oladigan foydaning ulushiga huquqni ham bildiradi; o'zgaruvchan daromadli aktiv.

Operatsion talab – ayirboshlash transaksiyalariga xizmat ko'rsatish uchun zarur pulga bo'lgan talab.

Real aktivlar – ko'chmas mulk, yer, nodir metallar, san'at asarlari kabilarda o'z ifodasini topgan qiymatlar.

Qimmatbaho qog'ozlar bozori – moliyaviy aktivlar oldi-sotdisiga oid institutsionallashgan iqtisodiy munosabatlar.

Spekulyativ talab – odamlarning o'z pul jamg'armalarini eng ko'p foyda beradigan tarzda joylashtirishga intilishlari bilan bog'liq naqd pulga bo'lgan talab; «ertaga» pul bozorida joylashtirish foydali bo'ladigan «bugungi» naqd pulga bo'lgan talab.

Hisob stavkasi – Markaziy bank tijorat banklariga beradigan kredit uchun olinadigan foiz.

Qarz olish orqali moliyalashtirish – qarz oluvchi ushbu mablag'ni kelajakda kelishilgan foizi bilan to'lash majburiyatini olishi evaziga investitsiyalar kiritish uchun pul mablag'lari olishiga imkon beradigan bitim, bunda kreditor korxonalar mulkining ulushiga ega bo'lish huquqini olmaydi.

Moliyaviy aktivlar yoki **qimmatbaho qog'ozlar** – shartnomada kelishilgan shartlar asosida kelgusida to'lovlar olish uchun shartnomaviy huquq.

Moliyaviy vositachilar – aholining pul mablag'larini keyinchalik tijorat asosida investorlar ixtiyoriga berish uchun jamlovchi turli moliyaviy institutlar (banklar, o'zaro va pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari).

Fond birjasi – qimmatbaho qog'ozlarning bozor narxlari (kurslari) o'rnatiladigan va oldi-sotdi yuz beradigan joy.

Budjet taqchilligi – davlat xarajatlari uning daromadlaridan ortiq bo'lgan vaziyat. Budjet profitsiti yoki ortiqchasi, davlatning bir yil mobaynida kelib tushadigan soliq tushumlari va boshqa daromadlari yig'indisi uning xarajatlaridan ortiq bo'lgan holda yuzaga keladi. Muayyan davr mobaynida davlatning daromadi va xarajatlari teng bo'lsa, budjet muvozanati yuzaga keladi.

Budjet muvozanati – muayyan davr mobaynida davlatning daromadi va xarajatlari tengligi.

Budjet taqchilligi – davlat xarajatlari uning daromadlaridan ortiq bo'lgan vaziyat.

Budjet profitsiti – davlatning bir yil mobaynida kelib tushadigan soliq tushumlari va boshqa daromadlari yig'indisi uning xarajatlaridan ortiq bo'lgan holda yuzaga keladi.

Davlat budjeti – bu umumjamiyat miqyosida markazlashgan va davlat ishtirokida hosil bo'luvchi va sarflanuvchi moliyaviy resurslar.

Subvensiya – davlat budjetidan muhim xo‘jalik va ijtimoiy-madaniy tadbirlarni amalga oshirish uchun mahalliy hokimiyat organlariga ajratilgan pul mablag‘lari.

Subsidiya – davlat budjeti hisobidan korxonalar, tashkilotlar va xorijiy davlatlarga beriladigan mablag‘. Subsidiya bozor iqtisodiyotini tartibga solish vositasi hisoblanadi.

Davlat moliyasi – davlatning pul mablag‘lari jamg‘armasini yaratish va ishlatish borasida milliy xo‘jalik doirasida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ijtimoiy shakli.

Davlat qarzi – hukumatning o‘tmishdagi budjet taqchilligini moliyalashtirish uchun qarzga pul olish natijasida to‘plangan qarzi.

Diskretsiyon fiskal siyosat – hukumatning ish bilan bandlik darajasini o‘zgartirish, inflatsiyani nazorat qilish va iqtisodiy o‘shishning yangi sifatini tezlashtirish maqsadida davlat xarajatlari va soliqlarini bila turib manipulatsiya qilish.

Diskretsiyon taqchillik – resurslar to‘liq band bo‘lgan va iqtisodiyot ishlab chiqarishning potensial hajmiga erishgan sharoitdagi budjet taqchilligi.

Pul-kredit siyosatining oliy maqsadi – to‘liq bandlik, narx barqarorligi va ishlab chiqarish real hajmining o‘shishini ta‘minlash.

Pul-kredit konstitutsiyasi – iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning monetar sohasidagi muayyan o‘zgarmas qoidalar majmui.

Pul-kredit siyosati – narxlar barqarorligi va resurslarning to‘liq bandligi sharoitida iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash maqsadida pul taklifini o‘zgartirishga qaratilgan davlat faoliyati.

Pul-kredit siyosatining uzoq muddatli maqsadi – uzoq (bir yil va undan ortiq) vaqt mobaynida eng muhim makroiqtisodiy o‘zgaruvchilarni tartibga solish.

Iqtisodiyotni monetar tartibga solishga Keynscha yondashuv – pul-kredit siyosatining asosiy yakuni foiz stavkasining istalayotgan darajasidir degan qoidaga asoslanadi.

Pul-kredit siyosatining qisqa muddatli maqsadi – muomiladagi pul miqdorini bir darajada saqlash yoxud foiz normasini barqarorlashtirish.

Iqtisodiyotni monetar tartibga solishga monetar yondashuv – ishlab chiqarish, ish bilan bandlik va narx darajasini belgilovchi asosiy omil foiz stavkasining dinamikasi emas, balki pul taklifidan iborat degan qoidaga asoslanadi.

Asosiy monetar qoida – pul hajmining ko‘payish sur‘atlari uzoq muddatli vaqt davomida ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi tabiiy darajasini o‘shish sur‘atlariga muvofiqligini doimiy ravishda ta‘minlash zarurligiga asoslangan qoida.

«Sof» fiskal siyosat – davlatning soliq-budjet va pul-kredit sohalaridagi iqtisodiyotga o‘zgarmas pul taklifi bilan bog‘liq faoliyati.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. Iqtisodiyotning moliya sektori undagi turli pul oqimi bo'lib, real sektorga xizmat qiladi. Pul oqimidagi harakatda iqtisodiyotning barcha ishtirokchilari qatnashadi. Pul oqimi daromad-xarajat shakliga kiradi va moliyani yuzaga keltiradi. Moliya iqtisodiy tizim bo'lib, moliya obyekti, subyekti, moliya munosabatlari, moliya mexanizmi, moliya institutlari va nihoyat, moliya siyosatini qamrab oladi. Real iqtisodiyotning darajalariga muvofiq, mikro, makro va metamoliya mavjud.

2. Moliya iqtisodiyotda taqsimlash, rag'batlantirish, axborot berish, ijtimoiy va nazorat funksiyalarini bajaradi. *Mikromoliya* firmalar, xonadonlar, nodavlat va jamoat tashkilotlari moliyasidan iborat. Mikromoliyaning resurslari firmalar, xonadonlar va turli tashkilotlarning o'z mablag'i, qarz ko'targan puli, davlat bergan yordam va turli xayr-ehson mablag'laridan tashkil topadi. Resurslarning asosiy qismi (2/3) xonadonlar moliyasida jamlanadi. Mikromoliya ishtirokchilarining resurslari ular xarajatini qoplash yo'lida ishlatiladi.

3. *Makromoliya* – bu umumdavlat, umumjamiyat moliyasi bo'lib, davlat daromadlari va xarajatlaridan iborat. Davlat daromadlari soliqlar, davlat mulki bergan daromad va davlat olgan ichki va tashqi qarzdin iborat. Davlatning xarajatlari – bu ijtimoiy soha, investitsiya, milliy xavfsizlik, boshqarish va qarzni uzishga ketadigan xarajatlardir. Davlat moliyasining asosini budjet tashkil etadi.

4. Iqtisodiyot subyektlari faoliyatini pul bilan ta'minlash moliyalashtirish bo'lib, bu o'zini o'zi moliyalashtirish, budjetdan moliyalashtirish va homiylar tomonidan moliyalashtirish shaklida yuz beradi. Moliyalashtirish resurslarni ma'lum maqsad yo'lida qaytarib olmaslik sharti bilan sarflanishini bildiradi.

5. Moliya tizimining muhim bo'g'ini moliya bozori bo'lib, bu turli subyektlar o'rtasida moliyaviy aktivlarning oldi-sotdi qilinishini bildiradi, tarkiban fond bozori va pul bozoridan iborat. Moliya bozorining obyekti qimmatli qog'ozlar va pul mablag'laridir, uning subyekti firmalar, xonadonlar, davlat hamda nodavlat tashkilotlari va turli vositachilardir. Bu bozor kapitali hosil etish, kapitalni demokratlashtirish, puldan pul chiqarib olish, pulni kerakli sohalarga joylashtirishdek funksiyalarni bajaradi.

6. Moliyaga xos pul bozorining bir qismi kredit bozori bo'lib, bunda uning obyekti kredit resursi, uning subyekti qarz beruvchi, qarz oluvchi va ular o'rtasidagi vositachilar hisoblanadi. Kredit mexanizmi uning vositalari va shartlaridan iborat. Buni kreditning maqsadli va muddatli bo'lishi, kredit uchun foiz undirilishi, kreditning qaytarilishi va buning kafolatlanishi tashkil etadi. Kreditning bozor narxi foizdir. Biroq foiz kreditga berilgan pulning bozor qiymati emas, balki uni vaqtincha ishlatishning haqidir. Foizning manbai kreditni ishlatishdan topilgan foydadir. Foiz darajasini kredit bozorida talab va

taklif, kreditning nafliligi, qarz pulini muqobil ishlatish imkoni, kredit sharti, tavakkal qilinishi, uning qanday valutaga berilishi va nihoyat, inflatsiya darajasi belgilaydi.

7. Kreditning obykti har qanday pul emas, balki o'z egalari qo'lidagi bo'sh qolgan pullaridir. Kredit takror ishlab chiqarishga xizmat qilishi kerak. Kredit iqtisodiy o'sishning shartidir. Iqtisodiy o'sish ommaviy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois ham, moliya-kredit sohasidagi jinoyatchilikka yo'l qo'ymaslik huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining vazifalaridan biri hisoblanadi. Faqat yuksak ma'naviyatli xodimlar bank-kredit sohasidagi moliyaviy resurslarni suiiste'mol qilishga yo'l qo'ymaydilar. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, 2002–2007-yillarda ayrim shaxslar tomonidan respublikamiz iqtisodiyotidan 530,7 milliard so'm mablag'ni o'zlashtirib yuborganlar. Prokuratura organlari aralashuvi bilan aybdorlar tomonidan yetkazilgan zararning 435 milliard so'mi, ya'ni 78 foizi qoplangan. Ko'rinib turibdiki, bu summa iqtisodiy o'sishga emas, balki ayrim shaxslar manfaatlariga xizmat qilgan. Aybdorlarning aksariyati rahbar xodimlardir. Bunday insonlar respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar g'oyasini obro'sizlantiradi. Shu bois, bu borada joylarda tegishli tushuntirish ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir.

8. Kredit turlari ko'p, bular tijorat krediti, lizing krediti, bank krediti, davlat krediti, nomoliyaviy kompaniyalar kreditidan iborat. Tadbirkorlik va iste'molchilik krediti ham bor. Aytilgan kreditlar kredit institutlari vositasida amalga oshadi. Bular – banklar, parobank kredit tashkilotlari va har xil moliya kompaniyalardan iborat. Asosiy kredit instituti banklar hisoblanadi, ular markaziy va tijorat banklaridan iborat. Banklar o'z faoliyatida mijozlar manfaatini himoya qilish, daromadli ishlash, raqobatda ishtirok etish, tavakkal qilish va likvidlikni ta'minlash kabi tamoyillarga amal qiladilar. Ular pul oborotiga xizmat qilish, kredit resurslarini kerakli sohalarga yuborish orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadilar.

9. Kredit olishdagi xatar qarzning nisbiy miqdorida emas, balki uning samarasiz ishlatilishidadir. Chet el krediti uni qaytarish imkonini beruvchi samarali ishlarga sarflaganda, qarz miqdori katta bo'lsa-da, xatar kamayadi. Aksincha, qarz miqdori kichik bo'lib, u behuda sarflansa, xatar katta bo'ladi. Masalan, Braziliya uzoq yillar mobaynida eng qarzdor mamlakatlar qatoridan o'rin olgan. Biroq kreditdan samarali foydalanish mamlakatning jadal rivojlanishini, binobarin qarzni qaytarish imkoniyatini kengaytirdi. Ayni paytda qator Afrika mamlakatlarining qarzdorlik darajasi Braziliyanikidan yuqori bo'lmasa-da, uning xatari kuchli bo'ldi, chunki kredit samarasiz ishlatildi. Xulosa qilsak, chet el qarzi xatarining chegaraviy miqdori bo'lsa-da (bu YAIM nisbatan 60 foiz dan olingan), buni mutlaqlashtirish mumkin emas,

unga real sharoitga qarab baho berish lozim. Shundan kelib chiqqan holda chet el qarzining monitoringini o'tkazish talab qilinadi.

Shuni aytish kerakki, ko'plab davlatlarning tashqi qarz masalasidagi puxta o'ylanmagan siyosati ularning iqtisodiyotini zaif, tashqi omillarga qaram, xatarli vaziyatlar oldida himoyasiz va nochor ahvolga solib qo'yganini ko'rish, kuzatish qiyin emas.

O'zbekiston o'zining mustaqil taraqqiyoti davrida qisqa muddatli spekuliyativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatli va imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha jalb etish tamoyiliga doimo amal qilib kelmoqda. Davlatimiz rahbari qayd etganidek, qarzni o'z vaqtida qaytara olishga qat'iy ishonchimiz va kafolatimiz bo'lmagan paytlarda, muayyan loyihalarni kreditlash bo'yicha ayrim takliflardan voz kechgan holatlarimiz ham bo'lgan.

Tijorat banklarimizning tashqi majburiyatlar bo'yicha to'lovlarining holati va hajmi masalasi bo'yicha so'z yuritganda, hech qanday xavotirga o'rin yo'q. Bu ham respublikamiz bank tizimi jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta'siri va oqibatlaridan ishonchli tarzda himoyalanganini ko'rsatadi. O'zbekiston o'zining ishonchli va to'lov qobiliyatiga ega hamkor ekanini, mamlakatimizda chet el sarmoyasini jalb etish bo'yicha har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratilganini amalda isbotlamoqda. 2007–2008-yillar davomida o'zlashtirilgan chet el investitsiyalari hajmi 2,5 barobardan ko'proq oshganining o'zi ham buni tasdiqlab turibdi.

Umuman, 2009-yilda mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan xorijiy va ichki investitsiyalarni hisobga olganda, kapital qo'yilmalarning umumiy hajmi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining kamida 25 foizini tashkil etadi. Jahon iqtisodiy inqirozi kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlash va sifat jihatidan yaxshilash alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz rahbari Islom Karimov 2005-yilning 27–28-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishida, 28-yanvarida esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida bank va moliya tizimlaridagi islohotlarni chuqurlashtirishdek ustuvor vazifani belgilagan edi. Bular:

- moliya va bank tuzilmalarining qat'iy pul-kredit siyosatini o'tkazish;
- inflatsiya darajasining barqarorligini ta'minlash;
- milliy valutamiz va uning almashuv kursi mustahkamligini saqlashdagi mas'uliyatini oshirish;
- banklarni kapitallashtirish, ularning nizom va aylanma fondlarini ko'paytirish va mablag'larini investitsiya maqsadlariga, birinchi navbatda, real iqtisodiyotga yo'naltirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ko'rish.

O'z vaqtida oqilona belgilangan yuqoridagi vazifalar banklarimizning kapitallashtirishini mustahkamlaganini hayotning o'zi tasdiqladi.

10. Globallashuv sharoitidagi xavfsizlik chetdan kapitalning kirib kelishi bilan ham bog'liqdir. Kapital kredit shaklida kirib kelganda, u qarzdorlik xavfini tug'diradi. Kredit investitsiya miqdorini iqtisodiy imkoniyat darajasida yuqori qilib, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi, biroq uni kelajakda to'planishi yalpi ichki mahsulotdan chegirma olish hisobidan yuz beradi. Qarzning to'planib qolishi investitsiyaning kelajagini cheklaydi. Bundan farqli o'laroq, bevosita xorij investitsiyalari mamlakatni investitsiya xavfidan xoli qiladi, biroq ulardan kelgan foydani repatriatsiya (chetga olib ketish) qilish xavfi saqlanadi. Bu investitsiyalar resurslarning ayovsiz ishlatilishiga va ularning zaxirasi qisqarishiga olib keladi. Albatta, chet el kapitalining xavfsizlikka ta'siri jiddiy bo'lganidan bulardan ijobiylarini saqlagan holda salbiylarining ta'sirini kamaytirish davlatning vazifasiga aylanadi.

Mamlakatimizda mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tilgan davrdan boshlab Prezidentimiz tomonidan har bir yil yakuniga ko'ra erishilgan yutuq va natijalarni sarhisob qilib, kelgusi yilda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab olish an'anaviy tarzda amalga oshirilib kelmoqda. Bu tadbirning o'ziga xos ijobiy jihatlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- birinchidan, mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligi, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish chora-tadbirlari hamda dasturlarining izchil va puxta asoslanganligini baholash;

- ikkinchidan, xalqimizning yil davomidagi fidokorona mehnati natijalarini e'tirof etish;

- uchinchidan, kelgusi yilda ustuvor e'tibor qaratish lozim bo'lgan vazifa va yo'nalishlarni belgilash, yetarli darajada foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash;

- to'rtinchidan, iqtisodiyotimizning turli soha va tarmoqlari, mamlakatimizning barcha hududlaridagi iqtisodiy salohiyatni o'zaro muvofiqlashtirilgan holda yanada to'laroq safarbar etish va boshqalar.

Mamlakatimizda 2009–2012-yillarga mo'ljallangan inqirozga qarshi choralar dasturi samaradorligini xolisona baholash muhim prinsipial ahamiyat kasb etadi. Bu 2010-yilda va undan keyingi yillarda ushbu dasturni amalga oshirish jarayonida, zarurat tug'ilishiga qarab, unga tegishli o'zgartirishlar kiritishda ana shu tahlil xulosalariga tayanishimiz mumkinligi orqali namoyon bo'lishi izohlandi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o'zining salbiy oqibatlari bilan dunyoning aksariyat mamlakatlari iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan 2009-yil bizning mamlakatimiz uchun ham g'oyat qiyin bo'ldi. Shunga qaramay, hukumatimiz tomonidan 2009–2012-yillarga mo'ljallab qabul qilingan inqirozga qarshi dasturning inqiroz ta'sirini yumshatish va bartaraf etishdagi roli va ahamiyati katta bo'ldi.

Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirgan tadbirlarimiz qatorida moliya-bank tizimini mustahkamlash masalasiga alohida e'tibor qaratilib, bu borada ta'sirchan tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan:

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-iyuldagi 1166-sonli qaroriga asosan pul massasining maqsadli parametrlaridan kelib chiqqan holda va tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli depozitlar jalb qilishni rag‘batlantirish maqsadida 2009-yilning 1-sentabridan boshlab tabaqalashtirilgan majburiy zaxiralar normasi joriy etildi;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrdagi 4057-sonli farmoniga muvofiq, fuqarolarning tijorat banklari depozit hisobvaraqlaridagi omonatlari ularning miqdoridan qat’i nazar, to‘liq qaytarilishining davlat tomonidan kafolatlanganligi aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchi yanada mustahkamlanishiga xizmat qildi va bu jismoniy shaxslarning banklardagi omonatlari hajmining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi;

– Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 13-fevraldagi 1-sonli majlis bayoni talablaridan kelib chiqqan holda, aholining bo‘sh pul mablag‘larining banklardagi omonatlarga jalb qilinishida hamda omonatdagi mablag‘larni ularning birinchi talabiga ko‘ra berilishida qonun buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik, omonatchilarning haq-huquqlari himoya qilinishini ta’minlash borasida tizimli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi va banklarning mazkur faoliyatlari ustidan nazoratning yanada kuchaytirilganligi ham aholi bo‘sh pul mablag‘larini bank omonatlariga jalb qilishni yanada jadallashtirdi;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 6-apreldagi 1090-sonli «Tijorat banklari depozitlariga aholi va xo‘jalik subyektlari bo‘sh pul mablag‘larini jalb etishni yanada rag‘batlantirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori hamda mazkur qaror bilan tasdiqlangan «Tijorat banklari depozitlariga aholi va xo‘jalik subyektlari bo‘sh pul mablag‘larini jalb etishni yanada rag‘batlantirish qo‘shimcha chora-tadbirlari kompleksi» doirasida bank tizimida bu borada olib borilayotgan ishlar yanada faollashdi;

– Respublika bank Kengashining 2009-yil 15-apreldagi 2-sonli qaroriga muvofiq, foiz stavkalarini yuridik shaxslarning banklardagi 6 oydan ortiq muddatga joylashtirilgan depozitlari uchun moliyalash stavkasining 75 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda, aholining 1-yildan ortiq muddatga joylashtirilgan depozitlari uchun Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 150 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda hamda jismoniy shaxslarning plastik kartochkalardagi mablag‘lari uchun Markaziy bank qayta moliyalash stavkasidan kam bo‘lmagan miqdorda belgilash yuzasidan tavsiyalar berildi.

Bunday ta’sirchan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida so‘nggi ikki yilda tijorat banklarining umumiy kapitali ikki barobar ko‘paydi. 2009-yilning o‘zida yetakchi banklarning nizom jamg‘armalarini oshirish uchun qo‘shimcha ravishda 500 milliard so‘mdan ortiq davlat mablag‘lari ajratildi.

Banklarning umumiy kapitali – banklarning o‘z faoliyatlarini (bank operatsiyalarini) amalga oshirish uchun mo‘ljallangan moliyaviy resurslari bo‘lib, u banklar tomonidan turli manbalar orqali jalb etilgan pul kapitalidan iborat. Banklarning umumiy kapitali xususiy kapital bilan bir qatorda undan bir necha barobar ko‘proq bo‘lgan, jalb etilgan kapitalni ham o‘z ichiga oladi.

Banklarning nizom jamg‘armalari – banklarning doimiy tasarrufida bo‘lgan moddiy va pul mablag‘lari yig‘indisi bo‘lib, ularning miqdori banklar tashkil topgan chog‘da nizomda qat’iy belgilab qo‘yiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 30 ta bank faoliyat ko‘rsatib, shundan uchtasi davlat banklari, 13 tasi aksiyadorlik tijorat banklari, 9 tasi xususiy banklar, 5 tasi xorijiy kapital ishtirokidagi banklar hisoblanadi. Banklarimiz kapitalining yetarlilik darajasi 23 foizdan oshadi. Bu esa banklar monitoringi bilan shug‘ullanadigan xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlardan qariyb 3 barobar ko‘pdir. **Bank kapitalining yetarlilik darajasi** – bu jami kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati bo‘lib, u xalqaro Bazel kelishuviga ko‘ra, kamida 8 foizni tashkil etishi kerak.

Xalqaro Bazel qo‘mitasi – rivojlangan mamlakatlar markaziy banklari rahbarlari tomonidan 1974-yilda tashkil etilgan tashkilot. Uning doirasida xalqaro bank faoliyatini tartibga solish muammolari muhokama qilinadi. 1975-yilda qo‘mita tomonidan Bazel kelishuvi ishlab chiqilgan. Keyinchalik Bazel qo‘mitasi bank faoliyati me‘yorlari bo‘yicha xalqaro tavsiyalar ishlab chiqa boshladi.

Bank depozitlari – jismoniy va yuridik shaxslarning bank muassasalariga ma‘lum muddatga va muddatsiz omonat shaklida qo‘yilgan bo‘sh pul mablag‘lari.

Umumiy aktivlari mamlakatimiz bank tizimining 90 foizdan ortig‘ini tashkil qiladigan 14 ta tijorat banki «Fitch Reytings», «Mudis» va «Standart end Purs» kabi yetakchi xalqaro reyting kompaniyalarining «barqaror» degan yuqori reyting bahosini olishga muvaffaq bo‘ldi. **Bank-moliya tizimining barqarorligi** – banklarning va boshqa moliya muassasalarining o‘z majburiyat-lari yuzasidan talablarga to‘la javob bera olishi. Bu likvidlilik, kapitalning yetarliligi, aktivlar sifati, rentabellik ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi.

«Fitch Reytings», «Mudis», «Standart end Purs» **xalqaro reyting kompaniyasi** – faoliyati banklar, moliyaviy institutlar, investitsiya va aksionerlik kompaniyalarining kredit layoqatini o‘z vaqtida va aniq baholashga yo‘naltirilgan xalqaro reyting agentliklari.

Hozirgi kunda banklarning umumiy aktivlari aholi va yuridik shaxslar hisobraqamlaridagi mablag‘lar miqdoridan ikki barobardan ham ortiq bo‘lib, bu ularning to‘liq himoyasini va to‘lovlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Bank aktivlari – banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmui. Ular asosan bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qimmatli qog‘ozlari, investitsiyalari, valuta boyliklari ko‘rinishida bo‘ladi.

Bank tizimining umumiy joriy likvidligi banklarning tashqi to‘lovlar bo‘yicha joriy majburiyatlaridan 10 barobar ko‘pdir. Boshqacha aytganda, respublikamiz bank tizimining mustahkam himoyasi yaratilgan. Bank tizimining mustahkamlanishi va unga nisbatan aholi ishonchining ortishi natijasida omonatlar hajmi sezilarli ravishda ortib bormoqda.

Bank tizimining likvidligi – bankning o‘z majburiyatlarini vaqtida va so‘zsiz bajara olish imkoniyati.

Banklar likvidligi – banklar aktivlarining qisqa muddat ichida pulga aylanish qobiliyati. Likvidlik bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o‘rishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag‘lari darajasining pasayishini samarali boshqarishni ham bildiradi.

5-jadval

**Banklardagi aholi omonatlarining o‘shishi dinamikasi,
1-yanvar holatiga, mlrd. so‘m**

yillar	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010
	170,0	245,0	323,0	450,0	678,3	994,6	1644,0	2750,0

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2003–2011-yillar mobaynida aholi daromadlari hajmi 16 barobardan ko‘proq oshgan. Bu aholining bank tizimiga ishonchi ortib borayotgani banklar faoliyati samaradorligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Keyingi yillarda banklarning kredit portfeli tarkibi tubdan o‘zgarib bormoqda. Agar 2000-yilda kredit portfelining qariyb 54 foizi tashqi qarzlar evaziga shakllangan bo‘lsa, 2011-yilda banklarimiz jami kredit portfelining 85,3 foizi ichki manbalar – yuridik va jismoniy shaxslar depozitlari hisobidan shakllantirildi. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotimiz tarmoqlariga investitsiya kiritish va shuning hisobidan taraqqiyotimizning ta‘minlashda ichki imkoniyatlarimiz tobora ortib borayotganining dalilidir.

Banklarning kredit portfeli – tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiy jamlanmasi bo‘lib, ular quyidagicha tasniflanadi: a) yaxshi; b) standart; c) substandart; d) shubhali; e) umidsiz. Tijorat banklarining ma‘lum muddatga ssuda hisobvaraqlarida qolgan pul mablag‘lari majmui (qoldig‘i).

Bugungi sharoitda esa bunday ijobiy o'zgarish iqtisodiyotimizning istiqboldagi taraqqiyoti uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega. Aytish kerakki, tashqi qarzlarning aksariyat hollarda uzoq muddatga, faqat iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha investitsiya loyihalarini moliyalash uchun jalb qilinmoqda.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash borasida e'tiborli jihatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 10-noyabrdagi 4051-sonli «Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga muvofiq:

- tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun 18 oygacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 200 barobari miqdoridagi imtiyozli mikrokreditlar bo'yicha maksimal stavkani yillik 5 foizdan 3 foizga;

- kichik biznes subyektlari faoliyatini kengaytirish va aylanma mablag'larini to'ldirish uchun 24 oygacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 500 barobari miqdoridagi mikrokreditlar bo'yicha – Markaziy bank tomonidan qayta moliyalashtirish stavkasining 100 foizidan 50 foiziga;

- kichik biznes subyektlari uchun 3 yilgacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 2000 barobari miqdoridagi imtiyozli mikrolozning xizmatlari bo'yicha maksimal stavkani yillik 7 foizdan 5 foizga tushirildi.

Kreditlashda bunday ahamiyatli imtiyozlarning belgilanishi mazkur soha vakillari tomonidan kreditga bo'lgan talabning va ayni paytda ularga berilayotgan kredit hajmining yildan yilga oshib borishiga olib kelmoqda. Jumladan, 2005–2009-yillar davomida tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga berilgan jami kreditlar miqdori 4,4 barobar, mikrokreditlar miqdori esa 7,1 barobar oshgan. Shu o'rinda tijorat banklari kreditlari to'g'risida so'z borganda, ularning maqsad yo'nalishlari jihatidan tarkibi ham takomillashib borayotganligini ta'kidlash lozim.

Banklarning investitsiya maqsadlariga yo'naltirilgan kreditlarining umumiy kredit portfelidagi ulushi qariyb 70 foizni tashkil etdi, iqtisodiyotimizning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlarining umumiy hajmi esa 2009-yilda 2000-yilga nisbatan 14 barobar oshdi.

Investitsion kreditlar – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo'lgan vositalarni sotib olish maqsadida olingan kreditlar. So'nggi o'n yilda iqtisodiyotning real sektorlarini kreditlashga yo'naltirilgan ichki manbalar 25 barobardan ziyodroq ko'paydi.

2009-yilda jami bank kreditlari tarkibida uzoq muddatli kreditlarning ulushi 78,3 foizni tashkil etgan.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko‘rinadiki, mamlakatimizdagi bank-moliya sohasining tobora mustahkamlanib borishi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar moliyaviy ta‘minotining kuchayishiga, iqtisodiyot real sektorining har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishiga hamda barqaror iqtisodiy o‘sish sur‘atlarining ta‘minlanishiga zamin yaratmoqda.

«Agrobank» aksiyadorlik tijorat banki – iqtisodiyotning agrar sektorini yanada barqaror rivojlantirish, qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan chuqurlashtirib borish, fermerlik harakatini qo‘llab-quvvatlash, uning moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash, qishloq xo‘jalik ishlab chiqaruvchilariga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlovchi zamonaviy korxonalarini jadal barpo etish, yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni tatbiq qilish hamda ichki bozorni mahalliy oziq-ovqat tovarlari bilan to‘ldirishga yo‘naltirilgan keng turdagi bank xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida 2009-yil 30-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Agrobank» aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori asosida «Paxtabank» aksiyadorlik tijorat banki negizida tashkil etilgan.

«Qishloq qurilish invest» ixtisoslashtirilgan sho‘ba injiniring kompaniyasi – «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturini ijro etish hamda aholi punktlarining bosh rejalar va arxitekturaviy rejalashtirishni tashkil etish loyihalariga muvofiq tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi ko‘lamini kengaytirish asosida qishloq aholisining turar joy sharoitlarini tubdan yaxshilash maqsadida 2009-yil 3-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko‘lamini kengaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

«Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik tijorat banki – qishloq qiyofasini va qishloq aholisining uy-joy sharoitlarini sifatli yaxshilash, qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish, uy-joy qurilishini uzoq muddatli imtiyozli kreditlash tizimini keng joriy etish maqsadida hamda «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturiga muvofiq, 2009-yil 30-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq «G‘alla bank» aksiyadorlik tijorat banki negizida «Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik tijorat banki tashkil etildi. «Qishloq qurilish bank» Aksiyadorlik tijorat bankining ustav kapitali 150 milliard so‘m miqdorida shakllantirilgan.

15-MAVZU. DAVLATNING SOLIQ SIYOSATI

1. Soliqlarning iqtisodiy va huquqiy mazmuni hamda ularning zarurligi, vazifalari

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda soliqlarning roli yanada oshib bormoqda. O'zbekiston mustaqillikning ilk yillaridanoq iqtisodiyotni tartibga solishda oqilona soliq siyosatini yuritib kelmoqda.

Xo'sh soliqlar qanday paydo bo'lgan?

Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish soliqlarning davlat paydo bo'lishi bilan shakllanganligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham soliqlarning obyektiv zarurligi eng avvalo davlatning mavjudligi, uning vazifalarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning zarurligidan kelib chiqadi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini qurishda soliqlarning o'rni beqiyos. Chunki davlat budjetining asosini soliqlar tashkil etadi. Bu haqda darslikning 14-mavzusida davlat budjetining shakllanishiga oid masalani ko'rib chiqayotganimizda to'xtalganmiz. Darhaqiqat, soliqlar orqali davlat bozor infratuzilmasini rivojlantiradi, teng huquqli, daxlsiz, davlat himoyasidagi xilma-xil mulk shaklidagi iqtisodiy subyektlarni rivojlantirishga erishiladi.

Soliqlar uzoq davr mobaynida jamiyat tomonidan yaratilgan mahsulotning bir qismini davlat xazinasini to'ldirish uchun undiriladigan asosiy manba sifatida ma'lum. Shu bilan birga, soliqqa tortish esa iqtisodiy madaniyatning bir elementi sifatida davlatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tgan yoki o'tmaganligiga qaramasdan, ularning hammasiga xosdir. Shuning uchun soliqqa tortishni insoniyatning rivojlanishidan ajratmagan holda ko'rib, uning noyob bir ixtirosi sifatida tan olish lozim. Shveysariyalik iqtisodchi S. Fisherning fikricha, *soliqlar – bu jamiyatning sivilizatsiya uchun to'lovidir.*

Soliqlar – qadimgi moliyaviy turkumlardan biridir. «Soliq» tushunchasi o'zining ildizlari bilan qadimga borib taqaladi. Davlat xazinasiga undiriladigan har xil (mag'lub bo'lgan davlatning to'lovlari, kontributsiya, domenlar, ya'ni foyda keltiruvchi davlat mulki, yer va o'rmonlar, davlat hududiga olib kirish va olib chiqib ketishdagi boj to'lovlari va boshqalar) tushumlar ko'rinishida bo'lgan. Qadimda davlatni moliyalashtirish mexanizmlari paydo bo'layotgan bir davrda, soliqlar davlatning paydo bo'lishi va undagi jamiyatning sinflarga bo'linishida

muhim iqtisodiy munosabat sifatida yuzaga kelgan. Ingliz iqtisodchisi S. Parkinsonning fikricha, «*solliqqa tortish dunyo kabi qadimiy bo'lib, uning boshlang'ich shakllari mahalliy qabila boshliqlarining daryo boshlarini, ikki daryoning kesishgan yoki tog'dan o'tish joylarini to'sib, undan foydalanganlik yoki savdogar va sayyohlardan ushbu yerdan o'tganlik uchun to'lovlar undirgan davrlarda paydo bo'lgan*».

Solliqlarning hozirgi kundagi o'rnini esa huquqiy ong, iqtisod, davlat nazorat tuzilmaning yuqori darajadagi rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan. Volterning so'zlariga ko'ra, «*solliq to'lash bu – o'z mulkining bir qismini qolgan qismini saqlash uchun berish demakdir*». Ushbu ta'rifda solliqning milliy xavfsizlikni ta'minlashdagi roliga urg'u berilgan. Ikki yuz yil avval yashab o'tgan ingliz iqtisodchisi A.Smit solliqqa quyidagicha ta'rif bergan: «*Solliq – bu davlat tomonidan qiymati va to'lash tartibi qonuniy qilib o'rnatilgan yuk demakdir*». 1819-yil ingliz iqtisodchisi D. Rikardoning Jamoalar palatasidagi mashhur nutqida: «*Eng yaxshi solliq – bu kam to'lanadigan solliqdir*», – degani hammaga ma'lum.

XIX asrning birinchi yarmida shveysariyalik iqtisodchi J. Sismondi solliq nazariyasini «*rohatlanish nazariyasi*» deb atagan. *Solliq bu jabrlanish va shu bilan birga rohatdir, agarda shu qilingan jabr hisobiga davlat tomonidan ko'rsatilgan xizmat natijasida foyda olinsa. Fuqarolar solliqlarga davlat tomonidan ularning o'zlari va mulklarini himoyalashda ko'rsatayotgan xizmati uchun to'lanayotgan mukofot puli deb qarashlari lozim*.

XX asrning boshlarida italiyalik iqtisodchi F. Nitti davlatning solliqlar ta'sirida milliy bozorini rivojlanishdagi roliga ta'rif berdi. *Jamoadan ajratib bo'lmaydigan xizmatlar borki, ular, masalan, ichki xotirjamlik va tashqi himoya, huquqni himoya qilish, jamoat gigiyenasi, hudud himoyasi bo'lishi mumkin. Bunday bo'linmaydigan maxsus ko'rsatilgan xizmatlarga alohida-alohida boj undirishning iloji bo'lmaganligi uchun, bunday xarajatlarni qoplash uchun solliqlar undiriladi. Shunday qilib: «Solliq bu fuqarolar boyligining ular tomonidan davlatga va mahalliy organlarga o'zlarining jamoa talablarini qondirish uchun to'laydigan bir qismidir*».

Hozirgi kundagi solliqning ta'rifini berishda solliqqa tortishning majburiy xarakterga ega ekanligini, fuqaroning undan oladigan foydasi bilan solliq o'rtasida hech qanday bog'lanish yo'qligiga urg'u berib ta'rif berilmoqda. Demak, solliqlar qaytib bermaslik sharti bilan majburiy ravishda daromadlarni davlat budjetiga o'tkazish bilan bog'liq pul munosabatlaridir. Solliqlarning iqtisodiy mohiyatini yoritganda, uni faqat majburiy to'lov deb kifoyalanmaslik kerak. Chunki, hozir xilma-xil

fondlar, ya'ni pensiya fondi, ish bilan band etish fondi, sug'urta fondi ham majburiydir. Soliqlarning muhim xususiyatidan biri shuki, ular faqat davlatniki bo'lib, u umumdavlat budjetiga tushadi. Vaholanki, boshqa fondlar ya'ni pensiya fondi, sug'urta fondlari, faqat belgilangan yo'nalishlar bo'yicha ishlatiladi (Masalan, pensiya fondini ish haqi fondiga o'tkazib bo'lmaydi).

Soliq undirishni huquqiy tomondan ko'rib chiqadigan bo'lsak, u soliq to'lovchining xususiy mulkning bir qismini davlat xazinasiga berish, demakdir. Ya'ni, bu degani soliq faqat iqtisodiy tushuncha bo'lib qolmay, shu bilan birga huquqiy kategoriyadir, shuning uchun soliq tabiatini tushunishning qiyin tomoni ham, uni bir vaqtning o'zida borliqning haqiqatda iqtisodiy, xo'jalik va siyosiy tomonlarini o'z ichiga olganligidadir. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 12-moddasiga muvofiq, «*Soliqlar* deganda, ushbu kodeksda belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

Boshqa majburiy to'lovlar deganda, ushbu kodeksda belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi».

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 123-moddasiga muvofiq, «*O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli*». Demak, har bir shaxs ushbu kodeksda belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lashi shart. Bu degani soliqlar majburiy to'lovlar bo'lib, qonun asosida belgilanishiga iqror bo'ldik.

Soliq solish – yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi.

Iqtisodiyot demokratiyani taqozo etadi. Shuning uchun ham, soliqlar mohiyatini ochishda uning eng demokratik to'lov ekanligiga e'tiborni qaratish lozim. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida turli shakldagi korxonalar, birlashma va tashkilotlardan hamda aholidan ularning mulkini davlat to'g'ridan-to'g'ri soliqsiz majburiy to'lov qilib ololmaydi.

Belgilanayotgan soliqlar va yig'img'lar tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) yoki pul mablag'larining O'zbekiston Respublikasi hududida erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab quyishi yoxud soliq to'lovchining iqtisodiy faoliyatini boshqacha tarzda cheklab qo'yishi yoki unga to'sqin bo'lishi mumkin emas. Olingan manbalardan qat'i nazar, barcha daromadlarga soliq solinishi shart.

Soliqlarning asosiy mohiyatini ularning vazifalari, ya'ni soliqlarning jamiyat va davlatning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy yo'naltiruvchi kuch ekanligi ochib beradi. Soliqlar bozor iqtisodiyotiga o'tgan har bir davlatda to'g'ridan-to'g'ri budjet munosabatlariga va shu bilan birgalikda imtiyoz, jarima tizimlari orqali esa tovar (xizmat) ishlab chiqaruvchilarga ta'sir etuvchi asosiy kuch sifatida ishlatiladi.

Soliqlar orqali davlat o'zining bir necha muammolarini hal qiladi, jumladan:

— jamiyatning mavjud ehtiyojlari va uni qondirish uchun zarur bo'lgan resurslar o'rtasidagi tenglikka erishiladi;

— tabiat boyliklaridan unumli foydalanish uchun jarimalar va boshqa turdagi chegaralar qo'yish yo'li bilan tabiatga zararli bo'lgan ishlab chiqarishlarning tarqalmasligiga erishiladi;

— iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa ko'pgina turdagi jamiyatning muammolari hal qilinadi.

Soliqlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) fiskal – *budjetni mablag' bilan to'ldirish;*

2) ijtimoiy – *daromadni qayta taqsimlash;*

3) izga solib turuvchi – *iqtisodiy munosabatlarni izga soladi;*

4) nazorat qiluvchi – *soliq tizimida o'zgarishlar kiritishni aniqlaydi;*

5) jamlovchi – *yagona iqtisodiy maydonni tashkil etishga imkon yaratadi.*

Tarixiy jihatdan soliqlarning birinchi bo'lib **fiskal vazifasi** ko'riladi, chunki soliqlar yordamida davlat budjetiga mablag' tushishi ta'minlanadi. Bu asosiy vazifalardan biri bo'lib, uning hisobiga davlat budjetining daromad qismi shakllantiriladi. Ushbu vazifa tovar-pul muomalalari va ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida davlat daromadlari oshishini aniqlab beradi. Soliqning boshqa vazifalarini fiskal vazifasining hosilasi, deb atash mumkin.

Soliqlarning *ijtimoiy (qayta taqsimlash) vazifasi* har xil daromadga ega bo'lgan aholini soliqqa tortish natijasida hosil bo'lgan jamiyat daromadlarini har xil toifadagi aholi o'rtasida qayta taqsimlashni o'z ichiga oladi. Ushbu vazifa yordamida jamiyatning boy qatlamiga soliq yukini oshirish hisobiga

aholining iqtisodiy zaif va himoyalalmagan qatlamlari mablag‘ bilan ta‘minlanadi. Soliqlarning ijtimoiy vazifasiga jismoniy shaxslarning daromadlarini progressiv shkalada soliqqa tortish, jamiyatning ijtimoiy zaif qatlamlariga daromad solig‘idan berilgan imtiyoz, qimmatbaho buyumlarga aksiz solig‘ini qo‘llash va boshqalar misol bo‘la oladi. Ko‘pgina davlatlarda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda O‘zbekiston kabi yondashiladi va ko‘p daromad olganlarga nisbatan yuqori stavkada soliqqa tortish qo‘llaniladi. Ba‘zi bir ijtimoiy yo‘nalishdagi davlatlarda (Shvetsiya, Norvegiya, Shveysariya) rasmiy darajada *soliqlar bu yuqori daromad oladigan aholi qatlamlarining kamroq daromad oluvchi qismiga ijtimoiy mo‘tadillik (ijtimoiy xavfsizlik) uchun to‘laydigan to‘lovlari*, deb tan oladilar.

Buyuk ingliz iqtisodchisi D.Keynsning fikricha, *jamiyatda soliqlar faqat iqtisodiy munosabatlarni izga solib turish uchun mavjud*. Soliqlarning keyingi – *izga solib turuvchi vazifasi* davlatning iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish davrida kelib chiqadi. U maqsadli ravishda hukumatning dasturlari asosida xalq xo‘jaligining rivojlanishiga ta‘sir etadi. Bunda davlat soliqlarning shakli, soliq stavkalarining o‘zgarishi, undirish usullari, imtiyozlar va chegirmalardan foydalanib, tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini ajratib oladi. Ushbu soliqlarning izga solib turuvchi vazifasi yordamida davlat ishlab chiqarishga, uning natijasida hosil bo‘ladigan mahsulotga ta‘sir etadi, bundan tashqari, faoliyat turlari va ishlab chiqarishning jamiyat uchun foydali bo‘lganlarini rag‘batlantiradi. Ko‘pgina davlatlar uchun bular quyidagi sohalarni, ya‘ni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosa oladigan tovarlar ishlab chiqarish, ilmiy texnika rivojlanishini rag‘batlantirish, transport va boshqalarni rivojlantirishdan iboratdir.

Izga solib turuvchi vazifaning asosiy ma‘nosi bu iste‘mol uchun yo‘naltirilgan resurslarini soliqqa tortib, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun yo‘naltiriladigan resurslarni soliqdan ozod qilishdir.

Navbatdagi vazifa – *nazorat qilish vazifasi* bo‘lib, u budjetga undirilayotgan soliq to‘lovlarini o‘z vaqtida va to‘liq tushishini nazorat qilish bilan birga, ularni moliyaviy resurslarga bo‘lgan talablar bilan taqqoslaydi. Ushbu vazifa orqali soliq siyosatini budjet siyosatiga moslab olib borish zaruriyati aniqlanadi.

XX asrning oxirlarida bozor iqtisodiyotining davlat mexanizmlarini tartibga solishda soliqning yana bir yangi xususiyatiga, ya‘ni tashqi savdo va tashqi iqtisodiyotni tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan *integrallashtiruvchi*

(**jamlovchi**) vazifasiga ega bo'ldi. Bu vazifa davlatlar xo'jaliklarining rivojlanishi natijasida milliy iqtisodiyotning o'zaro munosabati va dunyo xo'jalik hayotida har tomonlama integratsiya jarayonlarini kuchayishida namoyon bo'ladi. Soliqlar o'zaro qo'shni, xo'jalik va siyosiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan davlat uchun yagona iqtisodiy maydonni tashkil etishda asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda.

2. Soliq tizimi va amal qilishining huquqiy asoslari

Davlat soliq tizimini davlat tomonidan o'rnatilgan barcha soliqlar, yig'imlar va boshqa budjetga undiriladigan majburiy to'lovlar majmui, ularning shakli va tuzilish metodlari tashkil etadi. Shuningdek, soliq tizimi – davlat soliq modelining asosiy unsuri – soliq siyosati, mexanizmi va imtiyozlaridan foydalanish jarayoni; soliq unsurlarining davlat miqyosida o'zaro bog'liqlikda va uyg'unlikda harakat qilishi. Soliq tizimi soliq modelining asosiy ko'rsatkichlaridan bo'lib, olimlar tomonidan liberallashtirilgan, markazlashgan va insonparvarlashgan guruhlariga bo'lib tahlil qilinadi. Ular soliq mexanizmlari, soliq olish va to'plash tartiblari bilan farqlanadi. Har bir davlatning o'z soliq tizimi mavjud bo'lib, mezonlarining o'ziga xosligi bilan boshqa davlatnikidan farq qiladi.

Soliq tizimining samaradorligi – shu tizimni tashkil qiluvchi barcha kuch, vosita, omillar, ish uslublarining uyg'un harakati tufayli soliq va to'lovlar o'z vaqtida, to'liq hajmda yig'ilib, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qildirilishi, soliqning barcha funksiyalari muvaffaqiyatli amalga oshirilishining asosiy ko'rsatkichi. Bu umumiy ko'rsatkich soliq tushumining o'sishi, uning iqtisodiy yuksalishiga ta'siri va soliq organlarining mehnat unumdorligi bilan o'lchanishi mumkin. Soliq tizimining tushunarli, sodda, aniq va hayotga moslashuvchan bo'lishini taqozo etadi. Soliq tizimi soliq to'lovchilar bilan adolatli qonun talablari asosida ish olib borish yo'li orqali mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, har tomonlama yuksak taraqqiyot darajasi ta'minlanishida o'z ifodasini topadi.

Soliq tizimi yetarli darajada murakkab bo'lib, u ko'pgina soliq turlari, har xil soliq to'lovchilar, soliqni undirishni tashkil etish usullari va soliq imtiyozlaridan iborat. Ammo, soliqlar har xil bo'lishiga qaramasdan, ularning bog'lab turuvchi elementlari mavjud. Soliq elementlariga quyidagilar kiradi:

- soliqqa tortish subyekti;
- soliq obyekt;

- soliq qonunchiligi;
- soliq siyosati;
- soliq bazasini hisobga olish usuli;
- soliq stavkasi;
- soliqni hisoblash tartibi va to‘lash muddatlari;
- undirish usullari;
- hisobot topshirish davri;
- soliq bo‘yicha imtiyozlar va h.k.

Soliqqa tortish subyekti (*soliq to‘lovchi*) – qonunga ko‘ra soliqlar, yig‘imlar va to‘lovlarni huquqiy jihatdan to‘lash majburiyati yuklatilgan *yuridik va jismoniy shaxslardir*.

O‘z mulkiga, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulki bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi, undan tashqari ular mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lishlari kerak.

Jismoniy shaxslar deganda, soliqqa tortish obyektiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi. Soliq to‘lovchi va davlat o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar *doimiy turar joyi (rezidentlik)* prinsipiga qarab aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoki tugaydigan o‘n ikki oygacha bo‘lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko‘proq muddatda O‘zbekistonda turgan jismoniy shaxs *O‘zbekiston Respublikasining rezidenti* hisoblanadi.

O‘zbekistonda *ta’sis etilgan yoki ro‘yxatdan o‘tkazilgan* yuridik shaxs, shuningdek O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ro‘yxatdan o‘tgan, bosh korxonasi O‘zbekistonda joylashgan yuridik shaxs O‘zbekiston Respublikasining *rezidenti* hisoblanadi.

Soliqqa tortish obyekt yoki soliqqa tortish bilan bog‘liq obyekt deganda, soliq to‘lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan *daromadi va mol-mulki* tushuniladi. Nazariy jihatdan soliqqa tortish obyektlarini quyidagi ko‘rinishlarga bo‘lish mumkin:

- *mulkiy egalik* (mol-mulkka egalik huquqi) va *mulkka ega bo‘lmaslik* (mulkdan foydalanish huquqi);
- *subyektning* (oldi-sotdi, tovar olib kirish) *harakati* (faoliyati);

— *xo‘jalik faoliyatining natijasi* (daromad, foyda).

Soliqqa tortish obyekti va soliqqa tortish bilan bog‘liq obyekt har bir soliq va boshqa budjetga undiriladigan majburiy to‘lovlar bo‘yicha Soliq kodeksiga asosan aniqlanadi. Masalan, qo‘shimcha qiymat solig‘ining soliq solish obyekti bo‘lib, soliq solish oboroti va soliq solish importi hisoblanadi.

Soliq majburiyatining paydo bo‘lish vaqtini to‘g‘ri aniqlash uchun **soliq bazasini tashkil etish usuli** katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunda asosan ikki usul qo‘llaniladi – kassa va hisoblash usullari.

Kassa usulida daromad soliq to‘lovchiga aniq davr ichida tushgan summaga to‘g‘ri keladi, xarajat deganda esa, real to‘langan summalar hisobga olinadi. Daromad hisoblashning kassa usuli odatda chakana savdoda qo‘llaniladi, chunki u yerda sotish vaqti to‘lash vaqtiga mos keladi.

Hisoblash usulida ushbu soliq davrida olish huquqi mavjud bo‘lgan barcha daromadlar, ularning haqiqatda olingan yoki olinmaganligidan qat‘i nazar, hisobga olinadi, xarajatlari esa joriy davrda mulkiy majburiyatlar summasi paydo bo‘lishi bilan hosil bo‘ladi. Bunda majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilganligi ahamiyatga ega bo‘lmaydi.

Soliq stavkasi – bu soliq hisoblanadigan soliq bazasining birlik hisobiga to‘g‘ri keladigan soliq me‘yorini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, soliq stavkasi bu soliqqa tortish me‘yoridir.

Soliq stavkasi qat‘iy yoki *foiz* ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Masalan, qo‘shimcha qiymat solig‘ining soliq stavkasi – soliq solish oboroti va import oborotining 20 foiz qismini tashkil etadi (bu foiz stavkasi). Qat‘iy soliq stavkasiga yer solig‘ining stavkasi misol bo‘la oladi. Bunda soliq solish birligiga (yer uchastkasining maydoni) qat‘iy soliq summasi to‘g‘ri keladi.

«**Soliqqa tortish usuli**» tushunchasi ham mavjud bo‘lib, u soliq bazasining o‘zgarishiga qarab soliq stavkasining o‘zgarish tartibini belgilaydi. Odatda, tajribada soliq stavkasini belgilashda quyidagi to‘rtta usuldan foydalaniladi:

— *teng* – hamma soliq to‘lovchilarga teng soliq summasi belgilanadi (ushbu soliq turi odatda yig‘imga tegishli);

— *proporsional* – hamma soliq to‘lovchilar uchun teng soliq stavkasi qo‘llaniladi (QQS, aksiz, daromad (foyda) solig‘i);

— *progressiv* – soliq bazasining ortishi bilan soliq stavkasi ham ortadi (jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘i);

— *regressiv* – soliq bazasining ortishi bilan soliq stavkasi kamayadi (eksporterlarning daromadlaridan undiriladigan soliq eksportning umumiy sotilgan mahsulotga nisbatan ortishi daromad solig'i stavkasining kamayishiga olib keladi).

Soliqqa tortishning *progressiv* va *proporsional* usullarining o'zaro munosabatidan soliqning *ijtimoiy-siyosiy* tabiati kelib chiqadi. Buni shunday tushuntirish mumkin, soliq har doim soliq to'lovchining huquqini poymol qilish va xususiy mulkini olish bilan amalga oshirilganligi uchun har qanday soliq tizimi aholining ma'lum qatlamlarining jamiyatda tutgan o'rnidan kelib chiqqan holda, ularning manfaatlarini hisobga oladi. Soliq to'lagan odam jamiyatda erkin hisoblanadi, chunki u davlat oldidagi o'z majburiyatini bajarganligi bilan qadrlanadi.

Proporsional soliqqa tortish, odatda jamiyatning boy qatlamlari tomonidan ilgari surilib, buni ular tenglik va odillik tamoyillariga asoslanish deb tushuntiradilar. Progressiv soliq nazariyasini esa jamiyatni ijtimoiy tomonga yon bosganlar qo'llab-quvvatlaydilar. Ularning fikricha, bunday soliqqa tortish eng odil bo'lib, tengsizlikni kamaytirish bilan birga, u daromadning qayta taqsimlanishiga ta'sir etadi.

Regressiv soliqqa tortish, odatda davlatlar tomonidan iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishini rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Bunda **soliqni to'lash tartibiga** rioya qilish, ya'ni soliqni budjetga undirilishida me'yoriy belgilangan usullar va tartiblardan foydalanish katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Soliq to'lashning uch asosiy usullari mavjud:

— *deklaratsiya asosida soliq to'lash* (daromad olingandan so'ng soliq to'lash), ya'ni soliq to'lovchiga belgilangan muddatlarda soliq organiga o'zining soliq majburiyatlari bo'yicha rasmiy ravishda ariza berishi lozim. Bunday holatlarda soliqni to'lash majburiyati soliq to'lovchining o'ziga yuklatiladi;

— *soliq undirishning daromadni to'lov manbaida undirish usuli* (daromad olgunga qadar soliq undirish), ya'ni to'lov manbaida soliq avtomatik ravishda ushlanadi va budjetga o'tkazib beriladi. Soliqni ushlab va budjetga o'tkazish bo'yicha javobgarlik to'lov manbaiga yuklatiladi (masalan, dividend va foizlarni to'lanayotgan vaqtda);

– *soliq undirishning kadastr usuli* – soliq summasi mulkdan olinishi mumkin bo'lgan o'rtacha daromadning tashqi belgilaridan kelib chiqib aniqlanadi. Bunda qat'iy hisoblangan soliq summasi belgilanadi (masalan, mol-mulk solig'i).

Odatda, soliq majburiyatlarini bajarish (barcha yuqorida keltirilgan harakatlar) soliq to'lovchi tomonidan, agarda Soliq kodeksida boshqa tartib o'rnatilmagan bo'lsa, mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Soliqning asosiy elementlari bo'lgan soliq imtiyozlariga to'xtalsak. **Soliq imtiyozlardan** asosiy maqsad soliq to'lovchining soliq bo'yicha majburiyatlarini qisqartirishdir (kamdan kam holatlarda ularga to'lash muddatlarini kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati beriladi).

Imtiyoz deganda, soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilar bilan qiyoslaganda soliqlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar berilishi, shu jumladan soliq (yig'im) to'lamaslik yoxud kam hajmda to'lash imkoniyati tushuniladi.

Prezident Islom Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarida: «2009-yilning 1-yanvaridan sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lov stavkasi 8 foizdan 7 foizga kamaytirildi, moliyaviy, maishiy va boshqa xizmatlar ko'rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovidan 3 yil muddatga ozod etildi. Bunda mikrofirmalar va kichik korxonalar, nodavlat xo'jalik yurituvchi subyektlar oladigan dividendlarining investitsiyalarga, avval olingan kreditlar uchun hisob-kitob qilishga yo'naltiriladigan qismi 5 yil muddatga soliqdan ozod etildi. Shuningdek, Inqirozga qarshi choralar dasturida 2009-yilda xo'jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishlar sonini kamida yana 30 foizga kamaytirish ko'zda tutilgan», – deb ta'kidlab o'tgan¹.

Har xil soliqlar bo'yicha imtiyozlar avvaldan iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'llanilgan. Misol uchun, XIV asr – Amir Temur davrida imtiyozlar yangi yer uchastkalarini o'zlashtirish maqsadida qo'llanilgan. Amir Temur tomonidan quyidagi tizim ishlab chiqilgan: sug'orilmaydigan yangi yerlarga ekin ekib, u yerlarni ekishga moslashtirgan dehqonga birinchi yili olgan daromadini soliqlardan to'liq ozod qilingan, ikkinchi yili o'zi qancha to'lay olsa, shunchasini to'lagan, uchinchi yildan boshlab esa umumiy belgilangan tartibda soliq to'lay boshlagan.

O'zbekistonda soliq siyosatini ishlab chiqishda mustaqillikning ilk yillaridanoq Prezident Islom Karimovning: «Biz mehnatkashlarni ijtimoiy

¹ *Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шaroitida уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари. – Т.: «Ўзбекистон», 2009. – Б. 47.*

himoya qilish yo‘li bilan bozor iqtisodiyotiga kirib boramiz», – degan ko‘rsatmasiga qat’iy amal qilindi.¹

Imtiyozlarni belgilash bilan hukumat davlat rivojlanishi nuqtai nazaridan lozim bo‘lgan ishlab chiqarish va ustuvor yo‘nalishdagi tarmoqlarni belgilab beradi. Ammo, bir tarmoq ichida individual korxonalar yoki tashkilotga imtiyoz berish esa bozor munosabatlari va soliq siyosatiga qarama-qarshidir. Imtiyoz berishning bunday usuli soliq to‘lashning majburiylik tushunchasiga teskari bo‘lib, soliq tizimining yemirilishiga olib keladi.

Soliqlarni har xil belgisiga qarab bir necha xil ko‘rinishda tasniflash mumkin. Soliqqa tortish obyektining to‘lovchi bilan davlatning o‘zaro munosabatlariga qarab **bevosita** va **bilvosita** soliqlarga bo‘linadi. Bulardan birinchisi, moddiy boylikni sotib olish va to‘plash jarayonida undirilsa, ikkinchisi – uni sarf qilish jarayonida undiriladi. Bevosita soliqlar jismoniy va yuridik shaxslarning daromadlaridan undirilsa, bilvosita soliqlar esa soliq tizimining bo‘g‘iniga ko‘chirilgan bo‘lib, unda soliq yuki oxirgi foydalanuvchiga – xaridorga ko‘chirilgan.

Bevosita soliqlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliq subyekti tomonidan to‘lanib, ko‘pgina holatlarda uning to‘lov qobiliyatiga qarab undiriladi. Bunga misol sifatida daromad solig‘ini, mol-mulk solig‘ini, ya’ni soliq to‘lovchining daromadidan yoki mulkidan undiriladigan soliqlarni olish mumkin. Bevosita soliqlar **shaxsiy** va **real** soliqlarga bo‘linadi.

Shaxsiy soliqlar soliq to‘lovchining moliyaviy holatini va to‘lov qobiliyatini hisobga olgan holda, uning haqiqatda topgan daromadidan undiriladi.

Real soliqlar to‘lovchining moliyaviy holatini hisobga olmagan holda, uning faoliyatini yoki tovarlarini, ya’ni mol-mulkni sotish, sotib olish yoki foydalanishni (egallik qilishni) soliqqa tortadi. Shu bilan birgalikda, real soliqlar to‘lovchining to‘lov holatini hisobga olmaydi. Bularga asosan mulk soliqlari (mol-mulk va yer soliqlari) kiradi.

Bilvosita soliqlar *yakka bilvosita*, bunda odatda qat’iy, ma’lum guruhdagi tovarlar soliqqa tortiladi (ma’lum bir turdagi aksiz tovarlari), *universal bilvosita*, bunda imtiyozi borlaridan tashqari hamma tovarlar, ishlar va xizmatlarga qo‘yilgan soliqlarga (QQS) va *bojxona bojlariga* bo‘linadi.

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли. – Т.: «Ўзбекистон», 1993. – Б. 67.

Agarda bevosita soliqlarning oxirgi to'lovchisi sifatida daromad oluvchi bo'lsa, bilvosita soliqlarning to'lovchisi bo'lib tovar iste'molchilari hisoblanadi. Bunda bilvosita soliq tovarning narxiga ustama sifatida qo'yiladi. Soliqlarni o'rnatish va yangilarini kiritish darajasiga va ularning foydalanishiga qarab, umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 23-moddasida belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasi hududida *umumdavlat* soliqlari, *mahalliy* soliqlar, *majburiy to'lovlar* va *yig'imglar* amal qiladi.

Umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Boshqa majburiy to'lovlar:

7) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar: yagona ijtimoiy to'lov, fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

8) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar: Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy yig'imglar;

9) davlat boji;

10) bojxona to'lovlari.

Umumdavlat soliqlari har yili qonuniy tartibda belgilanadigan me'yorlar bo'yicha tegishli budjetlar o'rtasida taqsimlanadi.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

- 1) mol-mulk solig'i;
- 2) yer solig'i;
- 3) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 4) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Boshqa majburiy to'lovlar:

5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Moliya yilida soliq solinadigan daromadga (foydaga) ega bo'lgan yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'i to'lovchilar hisoblanadi. Yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'i bo'yicha budjet bilan hisob-kitoblarni mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ayrim tarmoqlar yuridik shaxslarning birlashmalari budjet bilan hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan markazlashtirilgan tartibda amalga oshirishlari mumkin.

Jami daromad bilan ushbu kodeksga muvofiq, belgilanadigan chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan daromad (foyda) soliq solish obyektidir. Jami daromadga yo'naltirilgan tovar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar va boshqa operatsiyalar uchun yuridik shaxs olishi lozim bo'lgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoxud boshqa mablag'lar kiritiladi.

Bunday daromadlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan keladigan tushumlar;

2) asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk obyektlari, materiallar va boshqa aktivlarni realizatsiya qilishdan keladigan daromadlar;

3) foizlar ko'rinishidagi daromadlar;

4) dividendlar;

5) tekinga olingan mol-mulklar;

6) mol-mulkni ijaraga berishdan keladigan daromadlar;

7) royalti;

8) tekin moliyaviy yordamlar (davlat budjetidan berilgan subsidiyalar bundan mustasno);

9) da'vo muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik va deponent qarzdorlikni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

10) ilgari chegirib tashlangan xarajatlar, zararlar yoki shubhali qarzlarning o'rnini qoplash tariqasida olingan daromadlar;

11) valuta hisobvaraqlaridagi kurs bo'yicha musbiy farqlar;

12) favqulodda daromadlar;

13) boshqa daromadlar.

Soliq solinadigan daromadlarni (foydalarni) belgilashda jami daromaddan quyidagi chegirmalar ajratiladi:

– qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, ekologiya solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, shuningdek bojxona bojlari summalari.

Moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jismoniy daromadiga solinadigan soliqlarni to'lashlari shart. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga soliq to'lovchi olishi lozim bo'lgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoxud boshqa mablag'lar, shu jumladan:

- mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlar;
- jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari;
- jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromadlari kiradi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromaddan soliq solinadigan daromadlarni aniqlash vaqtida mazkur yalpi daromadni olish (topish) uchun qilingan xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalar chegirib tashlanadi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromadidan chegirib tashlanishi lozim bo'lgan xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalarni aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish), ularni realizatsiya qilish hamda O'zbekiston Respublikasining hududiga tovarlar (ishlar, xizmatlar) import qilish jarayonida qo'shilgan qiymatning bir qismini budjetga ajratishdir.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilardir. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar import qilinayotgan ana shu tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilardir.

O'zbekiston Respublikasi hududida chiqarilgan tovarlarga va import qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarga aksiz solig'i solinadi. O'zbekiston Respublikasida aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqarayotgan yoki bunday tovarlarni import qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar budjetga aksiz solig'i to'laydilar.

Soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilardir. Yuridik shaxslar uchun asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik balans qiymati soliq solish obyektini hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar uchun:

- ularning mulki bo'lgan uy-joylar, kvartiralar, chorbog' va bog' uylari, garajlar va boshqa imoratlar, binolar va inshootlar qiymati;

— ularning mulki boʻlgan avtomobillar, motorli qayiqlar, vertolyotlar, samolyotlar va boshqa transport vositalari dvigatellarining quvvati soliq solish obyekti hisoblanadi.

Oʻz mulkida, egaligida yoki foydalanishida yer uchastkalariga ega boʻlgan yuridik va jismoniy shaxslar yer soligʻi toʻlovchilardir.

Yuridik shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari soliq solinadigan obyekt hisoblanadi:

1) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;

2) qishloq yoki oʻrmon xoʻjaligini yuritish uchun egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

3) korxonalar, binolar va inshootlar qurish yoki qishloq xoʻjaligiga taalluqli boʻlmagan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun berilgan yer uchastkalari;

4) korxonalar, binolar yoki inshootlarga boʻlgan mulk huquqi oʻtishi bilan birga egalik qilish va foydalanish huquqi ham oʻtgan yer uchastkalari.

Jismoniy shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari soliq solinadigan obyekt hisoblanadi:

1) turar joylar etagida va jamoat yerlarida shaxsiy yordamchi xoʻjalik yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

2) yakka tartibda uy-joy qurish uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

3) jamoa bogʻdorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari;

4) xizmat yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq berilgan chek yerlar;

5) meros boʻyicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy, dala hovli bilan birgalikda egalik qilish huquqi ham oʻtgan yer uchastkalari;

6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;

7) tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni Oʻzbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalar qazib olishni, shuningdek foydali qazilmalar qazib olish bilan bogʻliq boʻlmagan yer osti inshootlari qurish va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar toʻlaydilar. Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektlari quyidagilardan iboratdir:

— foydali qazilmalar (shu jumladan, qo‘shilib chiqadigan foydali qazilmalar va qimmatli komponentlar) qazib olish hajmi;

— texnogen hosilalarning (mineral xom ashyo qazib olish va ularni qayta ishlash chiqindilarining) hajmi;

— foydali qazilmalar qazib olish bilan bog‘liq bo‘lmagan yer osti inshootlari hajmi;

— rangli toshlar xom ashyosi, paleontologiya qoldiqlari va boshqa geologik kolleksiya materiallari namunalari to‘plash uchun berib qo‘yilgan yer qa‘ri uchastkasi maydoni.

Tovarlar ishlab chiqaruvchi, ishlar bajaruvchi, xizmatlar ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar ekologiya solig‘i to‘laydilar.

Tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) tannarxi (muomala xarajatlari) soliq solish obyektidir.

O‘z faoliyatida bevosita suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘laydilar. Ishlab chiqarish va texnika ehtiyojlari uchun yer usti va yer osti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyekti hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 162-moddasida «Soliq davri. Hisobot davri» qayd etilgan bo‘lib, kalendar yil soliq davri, yilning choragi hisobot davridir deb yozilgan. Darhaqiqat, soliq haqidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlar kalendar sana yoki yillar, yil choraklari, oylar, o‘n kunliklar va kunlar bilan hisoblanadigan davr o‘tishi bilan belgilanadi.

Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash yuridik shaxslar tomonidan naqd pulsiz tartibda tegishli summani budjet tasnifining tegishli bo‘limi va paragrafiga o‘tkazish yo‘li bilan, jismoniy shaxslar tomonidan esa, naqd pul va pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi har bir shaxsning belgilangan soliqlar va yig‘imlarni budjetga to‘lashi shartligi, adolatli soliqqa tortish, soliq tizimining yagonaligi va soliq qonunchiligining oshkoralik prinsiplariga asoslanadi. Soliq qonunchiligidagi prinsiplarning ahamiyati shundan iboratki, O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligidagi tartib, Soliq kodeksida keltirilgan soliqqa tortish prinsiplariga qarama-qarshi chiqa olmaydi.

Soliq kodeksi – davlat soliq tizimining huquqiy asoslarini, soliq to‘lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlarini, soliq ishlarini yuritish, qonun buzilgan hollarda tegishli javobgarlikka tortish tartib-qoidalarini belgilab beruvchi qonun. Yangi tahrirdagi «O‘zbekiston Respublikasining

Soliq kodeksi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan 2007-yil dekabr oyida qabul qilinib, 2008-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan. Soliq to‘lamaslik, soliq to‘lashdan qochish va boshqa jinoyatlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida (7-modda), Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks (174, 167-moddalarda) hamda Jinoyat kodeksida (184-modda) ko‘zda tutilgan javobgarliklar orqali tartibga solinadi.

3. Soliqlarning budjet shakllanishida ahamiyati va davlatning fiskal siyosati

Soliqlar davlatning barcha yo‘nalishdagi faoliyati uchun zarur bo‘lgan asosiy moliya manbalaridan biri bo‘lib, u hukumatning ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirishda asosiy qurolidir. Davlat iqtisodiyotini soliqlar orqali tartibga solish bu davlat budjetini tashkil etishning usuli bo‘lsa, soliqqa tortish yo‘li bilan esa jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarining rivojlanishiga ta‘sir etishi mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, davlatning mavjudligi bu soliqlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi, chunki soliq tushumlari davlatning iqtisodiy mustaqilligining asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Fiskal siyosat bu davlatning soliq – budjet siyosatidir, unga binoan soliqlar belgilanadi, budjet mablag‘lari aniq maqsadlar yo‘lida ishlatiladi. Davlatning soliq siyosati soliqlar vositasida budjetga pul to‘lashga qaratiladi. Unga muvofiq, soliq turlari aniqlanadi, soliq stavkalari, soliq solinadigan obyektlar, soliq imtiyozlari, soliq undirish tartibi belgilanadi.

Soliqlar davlatning iqtisodiyotiga ta‘sir etishida qo‘llaniladigan asosiy vositadir. Soliq tizimi nafaqat soliqlarni undirish, balki, birinchi galda, rag‘batlantirish xususiyatiga ega bo‘lishi lozim.

Soliqlar zayomlar bilan birgalikda har qanday davlatning mavjudligini hal qiluvchi asosiy manbadir. Davlat budjetidagi soliqlar va zayomlarning yuki orasidagi o‘zaro munosabat uning to‘lay olish qobiliyati va dunyo hamjamiyatidagi o‘rnini belgilab beradi. Soliq tushumlari yetarli darajada bo‘lmaganda, davlat boshqa davlatlarga kredit berishlarini so‘rab murojaat etadi yoki aholi o‘rtasida davlat zayomlarini (ichki qarz olish) tarqatadi yoki chet ellik investorlarga maxsus qimmatbaho qog‘ozlar (tashqi qarz olish) chiqarib sotadi.

Soliq munosabatlari umumdavlat darajasida daromadlar tizimini yaratish munosabati bilan vujudga keladigan obyektiv holatdir. Soliqlarsiz davlatning o‘zi ham bo‘lmaydi. Ba‘zi davlatlarda esa soliqlar umuman

yo‘q. Masalan, Shimoliy Koreyaning Konstitutsiyasida quyidagilar yozilgan: «Davlat soliqlar tizimini eski jamiyatning vorisi sifatida butunlay chiqarib tashlaydi».

Davlatning soliq siyosati ilmiy asosga, iqtisodiy o‘shish maqsadiga asoslangan, hukumat va boshqaruv organlarining ishlab chiqarishni ta‘minlash va jamiyat boyligini oshirishga qaratilgan taktik va strategik huquqiy harakatidir. Soliq siyosatini yuritishdan maqsad faqat soliq to‘lovchilardan soliq to‘lovlarini to‘g‘ri tartibda undirish bo‘lib qolmay, balki soliqqa tortish natijasida ulardagi har tomonlama xo‘jalik-iqtisodiy munosabatlarini baholash hamdir. Demak, soliq siyosati bu qonunni avtomatik ravishda bajarish bo‘lib qolmasdan, balki uni takomillashtirish hamdir.

Iqtisodchi olimlar davlat soliq siyosatini uch turga bo‘ladilar:

birinchisi – maksimal soliq undiruvchilar siyosati, ular «mumkin bo‘lgan barchasini ol» prinsipiga asoslanganlar. Bunday holatda davlat uchun «soliq qopqoni» o‘rnatilgan, ya‘ni soliqlarni ko‘tarish bilan davlat daromadlari baribir ortmaydi;

ikkinchisi – aqlli soliqlar siyosati, bunday siyosatdan yaxshi soliq iqlimi ta‘minlanadi va natijada tadbirkorlikning rivojlanishiga olib keladi;

uchinchisi – shunday soliq siyosati bo‘lib, unda soliq undirish darajasi yuqori bo‘lishi bilan birga ijtimoiy himoya ham yuqori bo‘ladi.

Iqtisodi rivojlangan davlatlarda yuqorida keltirilgan soliq siyosatlaridan bir vaqtning o‘zida bir nechtasi qo‘llanilishi mumkin.

Ko‘pgina davlatlarda budjetning asosiy qismini soliqlar tashkil etadi. Masalan, Fransiyada davlat budjetining 95 foiz, AQShda 90 foiz, Germaniyada 80 foiz, Rossiyada 93 foiz va O‘zbekistonda o‘rtacha 96 foizini soliqlar tashkil etadi¹.


Mustaqillik yillarida soliq siyosati. O‘zbekistonda soliq qonunchiligini takomillashtirish, soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirib borish, soliq to‘lovchilarni ularning xo‘jalik faoliyatiga asossiz aralashuvlardan himoya qilishni kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish bilan bir vaqtda, soliqqa tortish tizimini takomillashtirish va soddalashtirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Mustaqillik yillarida yurtimizda keng miqyosdagi soliq islohotlari amalga oshirildi. Buning natijasida bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan, davlat budjetini to‘ldirishni va zarur davlat xarajatlarini moliyalashtirishni ta‘minlaydigan va shuningdek, aholi daromadlari o‘shishini, iqtisodiyotni

¹ Qarang: *Завалишина И. А. Солиқлар: назария ва амалиёт.* – Т., 2005. – Б. 36.

modernizatsiya qilish, uning yangi tarmoqlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantiradigan zamonaviy soliq tizimi yaratildi.

1-жадвал

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i maksimal stavkasining pasayishi va shkalaning o'zgarishi




Iqtisodiyotda soliq yukining bosqichma-bosqich kamaytirilishi olib borilayotgan soliq islohotlarining eng muhim natijasi, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning eng muhim omillaridan biri bo'ldi. Misol uchun, agar 1994-yili korxonalarining daromad solig'i stavkasi 45 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilga kelib, u 9 foizga tushdi.

Bu borada takroriy soliqqa tortishga yo'l qo'ymaslik hamda xo'jalik subyektlari uchun soliq bojini kamaytirish maqsadida ilgari daromad solig'i to'lashda soliqqa tortiladigan bazaga kiritilgan ish haqi xarajatlari va boshqa bir qator xarajatlar daromad solig'i bo'yicha soliqqa tortish bazasidan chiqarildi.


Ayni vaqtda ichki talabning kengayishi, aholi real daromadlarining ko'payishi va turmush darajasining yanada oshishini rag'batlantirish maqsadida soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va jismoniy shaxslarning daromad solig'i stavkasini sezilarli darajada pasaytirish chora-tadbirlari amalga oshirildi.

Mustaqillik yillarida yagona ijtimoiy to'lov stavkasining pasayishi (foizda)



Masalan, agar mustaqillikning dastlabki yillarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i eng yuqori – 60 foizli stavka bilan 7-shkala bo'yicha hisoblangan va undirilgan bo'lsa, hozirgi paytda 3-shkala asosida undirilmoqda, bunda eng yuqori soliq stavkasi 22 foizni tashkil etmoqda. Shu bilan birga, xo'jalik subyektlari uchun xodimlarni yollash xarajatlari kamaytirildi: agar ishga yollovchilarning majburiy ijtimoiy sug'urta tizimiga (Pensiya jamg'armasi, Bandlik jamg'armasi va Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi) to'lovlari 1994-yilda ish haqi fondining 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda bosqichma-bosqich 24 foizga tushirildi.

Soliq yukining kamayishi va YAIMning o'sishi



Iste'mol talabi va tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirish maqsadida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 30 foizdan 20 foizga tushirildi. Bu jarayonda iqtisodiy o'sishni ta'minlash va xo'jalik faoliyatini jadallashtirish hisobidan budjetning yalpi daromadlarida qo'shilgan qiymat solig'i tushumi barqaror ravishda oshib bordi.

Bundan tashqari, 1991-yildan bugungi kungacha stavkalarni pasaytirish bilan bir qatorda soliqlar unifikatsiya qilindi, ya'ni birxillashtirildi hamda bir qator bir-birini takrorlaydigan va kam samara beradigan soliq hamda majburiy to'lovlar bekor qilindi. Natijada hozirgi vaqtda O'zbekiston asosiy soliq stavkalari miqdori bo'yicha soliqqa tortish darajasi yuqori bo'lmagan davlatlardan biri hisoblanadi, jami soliq yuki esa bizda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 21,9 foizdan oshmaydi.

Sanoatning eksportga yo'naltirilgan yangi tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash maqsadida mamlakatimizning amaldagi qonunchiligi xo'jalik subyektlariga daromad solig'i, mol-mulk solig'i va bojxona to'lovlari bo'yicha keng miqyosda imtiyozlar yaratib bermoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yagona soliq to'lovi soliqlar, budjetdan tashqari (Pensiya jamg'armasiga, Respublika yo'l jamg'armasiga va Maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy to'lovlar o'rniga) ko'rinishidagi soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi joriy etilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantiradigan qo'shimcha omil bo'ldi.

2-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun soliq stavkalarining pasayish tendensiyasi (foizda)

1996-y.	2000-y.	2005-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.
38,0	31,0	15,0	8,0	7,0	6,0	5,0

Jadvalga muvofiq, ushbu soliqning jami stavkasi yalpi tushumning 1996-yildagi 38,0 foizidan 2012-yilda 5 foizga tushirildi.

**1992-yildan 2010-yilgacha bo‘lgan davrda soliq to‘lovi
stavkalarining o‘zgarishi**

Soliq turlari	1992–2009-yillardagi eng yuqori soliq stavkalari	2010-yilda o‘rnatilgan stavkalar	Pasayish
Qo‘shimcha qiymat solig‘i	30 foiz	20foiz	1,5 barobar
Yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig‘i	45 foiz	9 foiz	5 barobar
Yuridik shaxslar uchun mulk solig‘i	5 foiz	3,5 foiz	1,4 barobar
Kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi	15,2 foiz	7,0 foiz	2,2 barobar
Jismoniy shaxslarning daromad solig‘i	60 foizgacha	22 foizgacha	2,7 barobar
Yagona ijtimoiy to‘lov	40 foiz	25 foiz	1,6 barobar

Ayni vaqtda, kichik tadbirkorlik subyektlarining soliq hisobotlarini taqdim etish tizimi ham takomillashtirilib, 2005-yilning 1-iyulidan kichik korxonalar va kichik tadbirkorlik subyektlarining davlat soliq idoralariga taqdim etadigan barcha soliq to‘lovlarining taqdim etish davrlari oylikdan choraklikka o‘zgartirildi.

Davlat budjeti daromadlarining yagona va uyg‘un tizimini shakllantirishda 2008-yildan boshlab amalga joriy etilgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi muhim rol o‘ynadi. Ushbu kodeks soliq to‘lovchilarning qonuniy huquqlarini ta‘minlashni yanada kuchaytirish, ularni nazorat organlarining qonunga xilof xatti-harakatlaridan himoyalashini oshirish va shuningdek, soliq hamda majburiy to‘lovlarni hisoblash mexanizmi va to‘lash tartibini takomillashtirishni ko‘zda tutadi.

O‘tgan davr mobaynida soliq stavkalarining pasayishi va optimallashtirilishi xalqaro andozalarga binoan daromad (foyda) solig‘ini hisoblash tizimining takomillashtirilishi hisobidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 1995-yildagi 11,5 foizdan 2010-yilda 5,7 foizga tushirildi. Soliq islohotlari amalga oshirilgan yillar mobaynida soliq yukining kamaytirilishiga qaramasdan, soliq va boshqa majburiy to‘lovlar tushumining barqaror o‘shirishini ta‘minlashga erishildi.

Mustaqillik yillarida soliq tizimini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida to'lanayotgan soliqlar tarkibida ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan:


- tabiiy resurslardan, birinchi navbatda, yer osti boyliklaridan foydalanish bilan bog'liq soliqlar ulushi sezilarli darajada oshdi;

- umumiy soliq tushumlari hajmida jismoniy shaxslarning daromad solig'i ulushi ko'paydi;

- daromad (foyda) solig'i ulushi qariyb ikki barobar pasaydi va bu soliq stavkasining 5 barobaridan ortiq pasayishi hamda soliqqa tortish bazasidan chiqarib tashlanadigan xarajatlar ro'yxatining kengayishi bilan bog'liq;

- yagona ijtimoiy to'lov ulushi sezilarli darajada kamaydi, bu uning stavkalari bir yarim barobardan ortiq pasayishi bilan bog'liq;

- soliq stavkalari ikki barobar pasaytirilgan bir paytda, kichik biznes subyektlari tomonidan to'lanayotgan soliqlar ulushi ko'paydi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrda «O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, «Davlat budjeti parametrlari va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozlari» tasdiqlandi. Ushbu hujjatga muvofiq, YAIMning o'sishi 2011-yilda 8,3 foiz, sanoat ishlab chiqarishi 9,3 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 5,8

foiz, kapital qo'yilmalar 12,4 foiz, chakana savdo aylanmasi 15,4 foiz, inflatsiya 7–9 foiz darajasida rejalashtirilgan.

Budjet daromadlari (davlatning maqsadli fondlari daromadlari hisobisiz) 16,178 trln. soʻmdan yuqori hajmda rejalashtirilgan (2010-yilda – 13,116 trln.):

– 2011-yilda toʻgʻri soliqlarni qoʻshgan holda 4,238 trln. soʻm boʻlishi kutilgan. 2010-yilda bu koʻrsatkich 3,42 trln. soʻmni tashkil etgan;

– 2011-yilda egri soliqlar 8,656 trln soʻmni tashkil etishi kutilgan. 2010-yilda 6,973 trln. soʻmni tashkil etgan;

– 2011-yilda resurs toʻlovlari va mulk soligʻi – 2,308 trln soʻmni tashkil etishi kutilgan. 2010-yilda 1,974 trln. soʻmni tashkil etgan;

– 2011-yilda yuqori foyda soligʻi 142,314 mlrd soʻmni tashkil etishi kutilgan. 2010-yilda 25,695 mlrd. soʻmni tashkil etgan;

– 2011-yilda boshqa daromadlar 831,754 mlrd. soʻmni tashkil etishi kutilgan. 2010-yilda 722,145 mlrd. soʻmni tashkil etgan;

Davlat budjeti xarajatlari (maqsadli fondlar hisobisiz) 16,991 trln. soʻmdan yuqori hajmda rejalashtirilgan (2010-yilda 13,732 trln.).

– 2011-yilda ijtimoiy sohalar va aholini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashga sarflanayotgan xarajatlar barcha xarajatlarning uchdan ikki qismi, 10,112 trln. soʻmni tashkil etdi. 2010-yilda 8,113 trln. soʻmni tashkil etgan;

– 2011-yilda NNT, NPO va fuqarolik jamiyati institutlari uchun 5 mlrd. soʻm sarflandi. 2010-yilda 4,5 mlrd. soʻmni tashkil etgan;

– 2011-yilda iqtisodiyot uchun xarajatlar 1,952 trln. soʻmni tashkil etdi. 2010-yilda 1, 573 trln. soʻmni tashkil etgan;

– 2011-yilda markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish 950 mlrd. soʻmni tashkil etdi, 2010-yilda 825 mlrd. soʻmni tashkil etgan.

Davlat hokimiyati organlari, boshqaruvi va sudlarni moliyalashtirishga budjetning xarajatlar qismidan 472,304 mlrd. soʻm (2010-yilda 352 mlrd. soʻm), fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlariga, Vazirlar Mahkamasining zaxira fondi uchun 57 mlrd. soʻm, boshqa xarajatlar uchun 3,29 trln. soʻm ajratilgan.

2011-yilda davlat budjeti defitsitining chegaraviy hajmi YAIMga nisbatan 1 foiz hisobida yoki 812,536 mlrd. soʻmni (2010-yilda 616,105 mlrd. soʻm) tashkil etdi, budjet taqchilligini moliyalashtirish davlat budjetining yil boshiga erkin qoldiq vositalaridan va noinflyatsion manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrda «Oʻzbekistonning asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari va Davlat budjeti

parametrlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq, 2011-yilda birqancha soliq va yig‘im stavkalari yangilandi. Hujjatga asosan 2011-yil 1-yanvardan jismoniy shaxslar daromadlariga soliqlarning minimal stavkasi 1 foizga, ya‘ni 11 foizdan 10 foizga va o‘rtacha stavkasi 17 foizdan 16 foizga kamaytirildi. Shu bilan birga soliqqa tortish shkalasining quyi plankasi eng kam ish haqining olti barobaridan besh barobarigacha pasaytirildi. Stavka yuqori shkalasi o‘zgarmasdan (22 foiz) qoldi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mulk solig‘i (turar joylar va kvartiralar, dala hovlilar, garaj va boshqa qurilmalar, bino va inshootlar) 0,5 foizdan 0,75 foizgacha oshdi. Shu o‘rinda shaharlardagi turar joylar va kvartiralarning maydoni (200 kv.m.dan yuqori) bo‘lganda oshiruvchi koeffitsiyent belgilangan. Jismoniy shaxslarning transport vositasi uchun 1 litr benzin va dizel yoqilg‘isi hamda 1 kg quyuc (siqilgan) gazga olinadigan soliq 145 so‘mdan 175 so‘mgacha, transport vositalari uchun iste‘mol qilinadigan suyuq gaz uchun 140 so‘m qilib belgilandi.

Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi stavkasi bazasi 7 foizdan 6 foizga tushirildi. Hisob-kitoblarga ko‘ra mazkur tadbir xo‘jalik subyektlari uchun 2011-yilda 50 mlrd. so‘mni tejash imkonini beradi va bu mablag‘ korxonalarni ishlab chiqarishini kengaytirishga sarflanadi. Yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi o‘zgaragan holda – mehnat haqi fondining 25 foiz darajasida qoldi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari xo‘jalik subyektlarini zamonaviy texnikalarni joriy etishni rag‘batlantirish maqsadida 2011-yildan boshlab jismonan va ma‘naviy eskirgan, xizmat muddati o‘tgan uskunar uchun ularning dastlabki (qayta tiklangan) qiymatidan 0,25 foiz to‘lov undiriladi.

4. Soliq qonunchiligi buzilishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini

Ta‘kidlash joizki, o‘tgan yil iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning muhim bosqichi bo‘ldi. Davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror sur‘atlar bilan o‘sib borayotgani taraqqiyotning milliy modeli samarasini namoyon qildi.

Ushbu yo‘nalishda turli xil iqtisodiy faoliyat turlarini, erkin tadbirkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Xususan, iste‘molchilarning va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlarini himoya qilish, shuningdek, bozorlar va savdo majmualarining faoliyatini tartibga solish maqsadida «Davlat soliq xizmati organlari tizimi yanada modernizatsiya qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respub-

likasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

Unda «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonun bilan mustahkamlangan davlat soliq xizmati organlarining vazifalari yangi tahrirda bayon etilgan. Ularga endi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha nazorat qiluvchi organlar faoliyati muvofiqlashtirilishini ta'minlash, ushbu ishni amalga oshirishda bir-birini takrorlash va suiiste'molliklarga yo'l qo'ymaslik, xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini rag'batlantirishga, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berishga doir qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish; bozorlar va savdo majmualarining moliya-xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish; pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish va boshqalar ham kiradi.

Bundan tashqari, bu qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga qo'shimcha kiritilib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasining Bozorlar va savdo majmualari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'limlariga bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida aniqlangan moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalaridagi huquqbuzarliklarga doir ishlar bo'yicha surishtiruv organi maqomi berilgan. Demak, ular moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalaridagi huquqbuzarliklar yuzasidan tergovga qadar tekshiruv o'tkazish, jinoyat ishi qo'zg'atish va surishtiruv o'tkazish huquqiga ega bo'ldilar.

Shu munosabat bilan bozorlar, savdo majmualari hududlarida va ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida bir martalik yig'imlar, ijara haqi to'liq tushishi va ularning topshirilishi hisobga olinishiga, fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalaridan, to'lovlarni plastik kartochkalar asosida qabul qilish bo'yicha hisob-kitob terminallaridan foydalanilishiga, shuningdek, savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya etilishiga oid qisqa muddatli tekshiruvlar o'tkazish huquqi ushbu bosh boshqarma va uning hududiy bo'limlarining mansabdor shaxslariga berildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasiga muvofiq, fuqarolar qonunda belgilangan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lashga majburdirlar. Yuridik va jismoniy shaxslarning davlat tomonidan belgilangan soliq, yig'im, boj va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamasligi, foyda (daromad)ni yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirishi, kamaytirib ko'rsatishi,

shuningdek, soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan o'zga tarzda, jumladan, nazorat-kassa mashinalarining fiskal xotirasi xizmati dasturini noqonuniy o'zgartirish yo'li bilan qasddan bo'yin tovlashi budget siyosati barqarorligiga putur yetkazadi. Soliqdan yashirilgan mablag'lardan, aksariyat hollarda, jamiyat manfaatlariga zid ravishda foydalanilishi soliq qonunchiligi sohasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavfliligini oshiradi.

Sud amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, sudlar soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlik belgilovchi qonunlarni asosan to'g'ri qo'llamoqda. Shu bilan bir qatorda, ushbu toifadagi ishlar bo'yicha huquqbuzarlik faktini va soliqdan yashirilgan daromad (foyda) miqdorini aniqlashda, aybdor shaxslar harakatini kvalifikatsiya qilish va ularga qilmishiga yarasha jazo tayinlash kabi masalalarda ayrim xato va kamchiliklarga yo'l qo'yish amaliyoti ham mavjud.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 174-moddasi va Jinoyat kodeksining 184-moddasi bo'yicha javobgarlik kelib chiqishining zarur sharti – soliq yoki boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlashga nisbatan qasdning mavjudligi bo'lib, u ham harakat, ham harakatsizlikda namoyon bo'lishi mumkin. Foyda (daromad)ni qasddan yashirishning belgilari:

- hujjatlarni soxtalashtirish (o'chirish, g'ayriqonuniy tuzatish);
- qalbaki boshlang'ich buxgalteriya hujjatlaridan foydalanish;
- foydalanilmagan moddiy xarajatlarni ishlab chiqarish hisobiga qo'shib hisobdan chiqarish;
- korxonada ishlamaydigan, lekin hisobda turadigan xodimlarga ish haqi yozish yo'li bilan mehnatga haq to'lash xarajatlarini oshirish;
- sotishdan olingan tushumni hisobot davridan keyingi davrga o'tkazish (sotish hajmini va daromad (foyda)ni qasddan kamaytirish);
- moddiy, yoqilg'i-energetika resurslari xarajatlarini va amortizatsiya (eskirish) miqdorini sun'iy ravishda oshirish yoki normativ (limit)larni noto'g'ri qo'llash;
- hujjatlarni yo'q qilish yoki ularni taqdim etishni rad etish;
- buxgalteriya hujjatlari va boshqa hujjatlar bilan tegishli ravishda rasmiylashtirilmagan mahsulot (tovar)larni sotish;
- davlat ro'yxatidan o'tmasdan va soliq organlarida hisobda turmasdan xo'jalik faoliyatini yuritish;
- davlat soliq xizmati organining yozma bildirishnomasi mavjud bo'lgani holda, ikki va undan ortiq manbalardan daromad oluvchi

jismoniy shaxslar tomonidan barcha daromadlari haqida deklaratsiya taqdim etmaslik va boshqalardir.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 174-moddasi va Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarga doir ishlar bo'yicha aybdorning qilmishida soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlashning yuqorida qayd etilgan yoxud boshqa biror-bir belgisi mavjudligi isbotlangan bo'lishi shart.

Hozirgi kunda nazorat-kassa mashinalari fiskal xotirasi xizmati dasturining noqonuniy o'zgartirilishi, daromad (foyda)ning haqiqiy miqdorini yashirishga sharoit yaratganligi tufayli soliq to'lashdan qasddan bo'yin tovlashning bir usuli hisoblanadi. Bu toifadagi ishlar bo'yicha surishtiruv, tergov organlari hamda sudlar javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga amal qilinishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

5. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining davlatning soliq siyosatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilishda roli

«Huquqbuzarlik» tushunchasi huquq nazariyasi tomonidan chuqur o'rganilgan. Soliq sohasidagi huquqbuzarlikni ham shu asosda g'ayriqonuniy aybli qilmish, harakat yoki harakatsizlik oqibatida o'z majburiyatlarini qisman yoki to'la bajarmaslik yuzasidan vujudga keladigan huquqiy majburiyat, soliq sohasidagi huquqbuzarlik subyekti huquqlarining buzilishi deb qabul qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Soliq huquqbuzarligining yuridik tarkibi quyidagilarni o'z ichiga oladi: huquqbuzarlikning obyektiv tomoni, obyekt, huquqbuzarlikning subyektiv tomoni, subyekti. Shuningdek, yuridik tarkib soliq borasida huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun sanksiya (jarima) ko'rinishidagi yuridik mas'uliyatni ham o'z ichiga oladi.

Huquqbuzarlikning obyektiv tomoni qonunga xilof xatti-harakatlarni (masalan, belgilangan tartibni buzgan holda soliq to'lash obyektlari hisobini olib borish, bu, o'z navbatida, tekshirilayotgan muddat ichida daromadlarni yashirishga olib keladi) yoki harakatsizlikni (masalan, soliq organlariga berilishi kerak bo'lgan soliqlarni hisoblash hamda to'lash uchun zarur hujjatlarni taqdim etmaslikni) o'z ichiga oladi.

Soliq huquqbuzarligining obyekt sifatida soliq huquqbuzari sodir etgan huquqbuzarlik tan olinadi, ya'ni soliq undirish, boj, turli yig'imlar va soliq tizimiga birlashgan boshqa majburiy to'lovlarni belgilash va undirish bo'yicha yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Bu munosabatlar soliq huquqi normalari bilan boshqariladi va ularning mazmunini ifodalaydi.

Soliq huquqbuzarligining subyektiv tomoni ayblilikda ifodalanadi. Muayyan huquqbuzarlikka nisbatan olinganda qasddan yoki ehtiyotsizlik kabi ayb ko‘rinishlari qo‘llaniladi. Soliq huquqbuzarligining subyektiv soliq to‘lovchi, uchinchi shaxslar va soliq organlari bo‘lishlari mumkin.

Huquq nazariyasidan ma‘lumki, soliq sohasida yuridik javobgarlik, ko‘zda tutilgan xatti-harakat soliq huquqbuzarligi deyiladi. Soliq huquqbuzarliklari uchun turli sanksiyalar ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy xavfli soliq huquqbuzarliklariga soliq jinoyatlari kabi jinoiy javobgarlik qo‘llaniladi (O‘zbekiston Respublikasi JKning 168, 179, 180, 181, 184-moddalari).

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 41-bobi «Yakunlovchi qonunlar»ida soliq munosabatlari subyektlarining javobgarligi (132-modda) xususida, lekin bu kodeksda «soliq huquqbuzarligi» tushunchasining ta‘rifi, tavsifi berilmagan. Bizning fikrimizcha, agarda Soliq kodeksida «soliq huquqbuzarligi» tushunchasining ta‘rifi berilganda, bunday xatti-harakatga jarimalarni belgilashda uning ahamiyati katta bo‘lur edi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida soliqqa oid huquqbuzarliklar quyidagi guruhlarini ta‘kidlash mumkin:

1. *Soliq to‘lovchilarning huquq va erkinliklariga qarshi huquqbuzarliklar.* Bu guruh soliq to‘lovchining xo‘jalik faoliyatida qonunlarga xilof ravishda qarshilik ko‘rsatishini o‘z ichiga oladi. Bu quyidagilarda, ya‘ni soliq organlari mansabdor shaxslarining tadbirkorlarni soliq hisob-kitobiga qo‘yishga g‘ayriqonuniy e‘tirozi mavjudligida, soliq to‘lovchining bankdagi hisob raqamlari orqali o‘tkaziladigan operatsiyalarni to‘xtatib qo‘yishida yoki soliq to‘lovchi mulkini g‘ayriqonuniy «hisobga» olishda, hisob-kitob harakatlarini, hisobot hujjatlarini o‘zgartirish, kengaytirish, ko‘paytirish bo‘yicha asossiz talablari borligida va boshqalarda o‘z ifodasini topadi.

Soliq to‘lovchining huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan huquqbuzarliklarga soliq sohasidagi sirlarni oshkor etish, ya‘ni qonun yo‘li bilan soliq sirlarini tashkil qilgan soliq organining lavozim egasi yoki o‘z kasbiy yoki lavozimiga oid majburiyatlarni bajarish chog‘ida o‘ziga ma‘lum bo‘lib qolgan axborotlarni g‘ayriqonuniy ishlatish yoki o‘zga shaxsga berish kiradi.

2. *Budjetning daromad qismini to‘ldirishga qarshi huquqbuzarliklar.* Ushbu huquqbuzarlikning asosiy subyektiv sifatida uchinchi shaxslar

yuzaga chiqadi. Amaliyotda soliq munosabatlarining bu ishtirokchilari qonun talablariga to'la rioya qilmaydilar. Ular tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarga soliq va jarimalar bo'yicha to'lanmagan qoldiq summalarini olish talablarining buzilishi, ya'ni bank yoki kredit tashkiloti tomonidan soliq organlari yoxud sud qarori orqali to'lanadigan summalarning umuman o'tkazilmaganligi yoki o'z vaqtida o'tkazilmaganligi kiradi.

Budjetning daromad qismini to'ldirmaslikka qaratilgan huquqbuzarliklar ichida eng ko'p tarqalgani soliq to'lashga mo'ljallangan mablag'larni noqonuniy ishlatishdir. Bu huquqbuzarlik bank yoki kredit tashkilotlarning soliq to'lovchilardan tushgan soliq miqdorlarini o'tkazmaslik yoki muddati buzilib o'tkazishlarda ifodalanadi.

3. Soliq tizimiga qarshi huquqbuzarliklarga quyidagilar kiradi:

– asossiz ravishda qonunlarda ko'zda tutilmagan hollarda soliq to'lashdan ozod qilish (imtiyozlar tizimini yaratish yoki qonunlarda belgilanmagan yoki boshqa hollarda mansabdor shaxslarga berilgan vakolatlardan noto'g'ri foydalanish);

– noqonuniy soliqni kiritish yoki belgilash;

– noqonuniy soliqlarni undirish (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita majburlov yo'li bilan soliq undirish, ya'ni qonunlar bilan belgilanmagan yoki kiritilmagan soliqlarni to'lashga undash hamda g'ayriqonuniy katta hajmdagi soliqlarni to'lashga majbur qilish. Shu bilan birga, qonunlarda belgilangan muddatlardan oldin soliq to'lashga majbur qilish ham ushbu guruhga mansubdir).

4. Soliq to'lash majburiyatlariga qarshi huquqbuzarliklarda quyidagi turlarni, xususan, soliqni to'lamaslik yoki o'z vaqtida to'lamaslik hamda soliqlar bo'yicha imtiyozlardan g'ayriqonuniy foydalanishni ta'kidlash mumkin. Imtiyozlarni noto'g'ri belgilash, soliq organlariga imtiyozli soliqlar to'lash uchun tegishli hujjatlarni, asoslanmagan ma'lumotlarni soliq organlariga topshirishlar g'ayriqonuniy imtiyozlar hisoblanadi.

5. Soliq to'lovchining majburiyatlarini bajarish kafolatlari tizimiga qarshi huquqbuzarliklar quyidagilardan iborat:

– soliq to'lovchining g'ayriqonuniy hisob-kitobni ochishi;

– soliq to'lovchiga g'ayriqonuniy ravishda hisob-kitobni ochish;

– kassa intizomining buzilishi (qonunda belgilangan tartibdan chetga chiqib naqd pullarni qabul qilish, saqlash va ulardan foydalanish qoidalarining buzilishi);

- g‘ayriqonuniy hisob-kitoblar (naqd pullar bo‘yicha operatsiyalarining qonunlarda belgilangan miqdorlarini buzib amalga oshirish);
- soliq to‘lovchi haqidagi axborotlarni soliq organlariga berishdan bo‘yin tovlash.

6. *Buxgalteriya hisobi, buxgalterlik hamda soliq hisobotlarini tuzish, buxgalteriya hisobini olib borish borasida sodir etilgan huquqbuzarliklarga:*

- buxgalteriya hisobini yuritish tartibiga rioya qilmaslik bilan bog‘liq jinoyat (xo‘jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish hamda ularning buxgalterlik registrilarida ifodalanish qoidalarini buzish);

- buxgalteriya hisobi ma‘lumotlarining aniqligi va haqqoniyligini ta‘minlamaslik;

- buxgalteriya hisobi va soliq hisobotini tuzish tartibini buzish (soliq organlariga buxgalteriya va soliq hisobini belgilangan ko‘rinishda va normativ hujjatlarda ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni taqdim etmaslik);

- buxgalteriya va soliq hisobotlarini taqdim etishdan bo‘yin tovlash (belgilangan muddatlarda yoki soliq organlari talabi bo‘yicha buxgalteriya va soliq hisobotini taqdim etishdan qasddan bir necha marotaba bo‘yin tovlash) kiradi.

7. *Soliq organlarining nazorat funksiyalari buzilishi bilan bog‘liq huquqbuzarliklar quyidagilardir:*

- soliq organlaridan ro‘yxatdan o‘tishdan bo‘yin tovlash (qasddan uzoq vaqt soliq organlariga murojaat qilish majburiyatidan bo‘yin tovlash);

- soliq organlarida o‘z vaqtida ro‘yxatga qo‘yilmaslik (soliq to‘lovchi sifatida qonunlarda belgilangan muddatlarda soliq organlaridan ro‘yxatdan o‘tmaslik);

- soliq organlarining lavozimdagi shaxsi tomonidan qo‘yilgan qonuniy talab va ko‘rsatmalarga bo‘ysunmaslik (soliq organida lavozimda ishlaydigan xodimning soliq qonunchiligining buzilishini to‘g‘rilash yoki uning oldini olishga oid talab va ko‘rsatmalari uzoq muddat davomida bajarilmasa yoki tegishli ravishda bajarilmasa, agarda ularning bu xatti-harakatlari soliq qonunchiligining buzilishidan boshqacha tasniflanmasa);

- soliq organlarining lavozimdagi shaxsini haqoratlash (soliq organining lavozimdagi shaxsini o‘z funksiyasini ado etayotgan vaqtda jamoatchilik oldida haqoratlasa, agar bu xatti-harakat jinoiy javobgarlikni taqozo etmasa);

- soliq organining lavozimdagi shaxsiga zo‘rlik ishlatish yoxud uning mulkiga ziyon yetkazish bilan qo‘rqitish, ya‘ni soliq organining

lavozimdagi shaxsiga qonun tomonidan yuklatilgan funksiyalarni bajarish davrida uning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki funksiyasining xususiyatini o'zgartirishga majbur etish yoki qasd olish maqsadida soliq organining lavozimdagi shaxsiga va uning yaqinlariga zo'rlik ishlatish yoxud uning mulkiga ziyon yetkazish bilan qo'rqitish, agar bu harakatlar jinoiy javobgarlikka tortishni taqozo etmasa;

– g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatish yoki faoliyatiga aralashish (ta'sir ko'rsatish qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'i nazar, soliq organining lavozimdagi shaxsiga, uning nazorat funksiyasini bajarishiga yoki qaror qabul qilishiga to'siq bo'ladigan darajadagi g'ayriqonuniy ta'sir o'tkazish, agar bu xatti-harakatlar jinoiy javobgarlikni taqozo etmasa);

– nazorat funksiyasini bajarishga qarshilik ko'rsatish (soliq organining qarori asosida o'tkaziladigan hujjatli yoki faktik nazoratni amalga oshirishga qasddan sharoit yaratmaslik).

Soliq huquqbuzarliklarini tasniflashning yana bir necha mezonlari ham mavjud, masalan, muayyan soliqlar bilan bog'liq huquqbuzarliklar va boshqalar. Shu bilan birga, soliq huquqbuzarliklari bo'yicha tasniflashga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

Soliq huquqbuzarligi subyektlari:

– soliq organlari;

– uchinchi shaxslar;

– soliq to'lovchilar bo'lishlari mumkin.

Soliq organlari, odatda, noto'g'ri soliq undirish, moliyaviy sanksiyalarni asossiz qo'llash, protsedura talablariga (hujjatlarni o'rganishga olishda, sanksiyalar qo'llashda va h.k.) rioya qilmaslik va boshqa huquqbuzarliklarni sodir etadilar.

Soliq borasidagi huquq munosabatlarining subyekti bo'lgan uchinchi shaxslarga soliqni hisoblash uchun zarur bo'lgan soliq to'lovchi to'g'risidagi axborotga ega bo'lgan jismoniy, huquqiy va boshqa subyektlar kiradilar. Bu shaxslarning tegishli faoliyatlari, xatti-harakatlari soliq borasidagi majburiyatlarni bajarish, soliq to'lovchilarning, vakolatli organlarning o'z huquqlarini bajarishlari bilan bog'liqdir. Bular kredit tashkilotlari, notariuslar, xo'jalik munosabatlari subyektlaridir. Uchinchi shaxslar quyidagi huquqbuzarliklarga yo'l qo'yishlari mumkin, xususan, soliq organlariga tegishli hujjatlarni taqdim etmasdan yuridik shaxslarga hisob raqamlari ochish, pul miqdorlarini undirish to'g'risidagi soliq organlari talablarini bajarmaslik va boshqalar.

Soliq to'lovchilar uni chetlab o'tish bilan soliq huquqbuzarliklarini sodir etadilar. Soliqni chetlash qonuniy xatti-harakat bo'lib, qonunchilik

va mavjud soliq tizimi tomonidan ruxsat etiladi. Soliqni chetlashda soliq to'lovchi bilib turib undan qochadi, lekin qonunchilikni buzmaydi. Soliq borasidagi ayrim kamchilik va noaniqliklar muayyan o'tkinchi xususiyatga ega. Bu muayyan qonunlarni qabul qilish texnikasining mukammal emasligidan. Ba'zi hollarda ularning shoshilinch qabul qilinishi natijasidir. Bunday hollar aniqlanganda, ularning matniga o'zgartishlar kiritilib, yangilari qabul qilinadi va mavjud muammo yechiladi.

Subyektlarning xo'jalik faoliyatida soliqni chetlab o'tishning turli usullari mavjud. Ulardan ayrimlari xususida to'xtalib o'tamiz.

Soliq to'lovchining uni to'lashdan bo'yin tovlashi milliy moliya tizimidagi qiyinchiliklardan foydalanishga asoslanadi. Bu holatda soliq to'lashdan bo'yin tovlashning vositasi – o'zini tiyishdir, ya'ni soliq to'lovchi soliq to'lashdan o'zini tiyadi, soliq to'lash obyektiga aylanishdan xoli bo'lishga harakat qiladi. Masalan, ba'zi kinoteatrlarning direktorlari tomoshabinlarni zalga bepul kiritib, chiptalardan soliq to'lamaydilar. Buning natijasida davlat xazinasiga soliq tushmaydi. Yaxshiki, bunday usul amaliyotda keng tarqalmagan.

Soliq qonunchiligining mukammal emasligi sababli soliq to'lashdan bo'yin tovlash imkoniyatlari bilan birga, yana shunday holat yuzaga keladiki, qonunshunosning o'zi soliq olishning yo'lini qilmaydi. Bunday holat qachon yuzaga kelishi mumkin? Qonunshunos soliq to'lovchiga soliqni belgilayotganida uning holatini bilvosita belgilar orqali baholaydi va o'z soliq obyektidan soliq olishni ko'zda tutmaydi.

Amaliyotda xalqaro munosabatlar bilan bog'liq soliqni to'lamaslik ko'rinishlari uchrab turadi. Soliq to'lovchi davlatlarning hududiy soliq suverenitetidan foydalanadi. Bunday ko'rinishdagi soliq to'lashdan bo'yin tovlash soliq to'lovchining xorijiy mamlakat hududiga ko'chishi yoki o'z mulkini ko'chirishi bilan amalga oshiriladi. Soliq undirish objekti milliy soliq qonunchiligi ta'sir etuvchi hududdan, o'zga «yengil» soliq qonunchiligi mavjud hududlarga ko'chadilar. Shunday yo'l-yo'riq va vositalardan foydalanuvchilar, masalan, Liberiya, Gretsiya kabi mamlakatlarga yoki ularning bayroqlari ostida suzayotgan kemalarda yuk tashishga o'tib oladilar. Bu mamlakatlarda soliq miqdorlari sezilarli darajada quyi stavkalarda belgilangan. Ko'pchilik umummilliy kompaniyalar o'z foydalarini «yengil» soliq summaları belgilangan mamlakatda ro'yxatdan o'tkazadilar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, soliq to'lashdan bo'yin tovlash o'zga mamlakatlarga ketish orqali ham amalga oshiriladi. Bunday holatda soliq

to'lovchi subyektlar shaxsiy va moddiy javobgarlikdan qutulib qoladilar. Murakkab va «qattiq» soliq tartibidan qochib ko'pgina kompaniyalar o'zlarining rasmiy joylarini boshqa mamlakatlarga (Lyuksemburg, Shveysariya va boshq.) almashtiradilar yoki ofshor hududlarga ko'chib o'tadilar.

Hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasida bir nechta (Ingushetiya, Kalmikiya) ofshor hududlar yaratilgan va ularda faqat bir-ikki turdagi soliqlar to'lanadi, xolos.

Endi soliq to'lovchilar sodir etadigan soliq huquqbuzarliklariga to'xtalib o'tamiz.

*Birinchi*dan, soliq summasini to'lash o'z muddatida amalga oshirilmaydi. Ushbu huquqbuzarlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida soliqlar va yig'imlar bo'yicha to'lov muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun (to'lov kuni ham shunga kiradi) 0,15 foiz miqdorida penya undiriladi. Rossiya qonunchiligida esa 0,7 foiz penya to'lash ko'zda tutilgan.

*Ikkinchi*dan, o'z vaqtida to'lanmagan soliq summaları va yig'imlar bo'yicha boqimandalarning yig'ilib qolishi. Bunday hollarda yig'ilgan summalar budget hisobiga undiriladi. Rossiya Federatsiyasida ham shunday choralar ko'zda tutilgan: yuridik shaxslardan bunday soliqlar to'g'ridan-to'g'ri, bahssiz, jismoniy shaxslardan esa sud orqali undiriladi.

*Uchinchi*dan, daromad (foyda) miqdorini kamaytirish yoki yashirish. Xo'jaliklar o'z faoliyatlarida soliqni yashirishning turli ko'rinishlaridan foydalanadilar. Ularning ba'zilarini ko'rib chiqamiz:

– soliq organlari va banklarni oldindan ogohlantirmay, bir necha hisob-kitob schotlarini ochish;

– naqd pul aylanmasi hajmini ko'paytirish;

– litsenziyasiz va ro'yxatdan o'tmasdan turib, faoliyatni amalga oshirish;

– tannarx tarkibiga kiruvchi xarajatlarni ko'paytirish;

– to'lov hujjatlarining yo'qotilishi;

– hisobni soxtalashtirish.

Soliq organlari va ayniqsa, soliq sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurash departamenti xodimlari korxonalarda olib borilayotgan «ikkilamchi buxgalteriya»ga alohida e'tibor qilishlari lozim. Ularda tayyorlanadigan vasiylik qaroriga soliq summasini belgilash uchun beriladigan soliq balansi bilan bir qatorda korxonada faoliyatini haqqoniy ifodalovchi tijorat hisoboti olib boriladi. Mana shu hisobot alohida e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Mulkka tajovuz qiladigan va xizmatga oid jinoyatlardan farqli bo'lgan soliq sohasidagi huquqbuzarliklar huquqni qo'lovchilar oldiga tamoman yangi mazmundagi kvalifikatsion tartibdagi muammolarni qo'ymoqda. Bu, albatta, tushunarli, chunki soliq huquqbuzarliklari qisqa davr ichida hayotimizga kirib keldi. Shu munosabat bilan tergov, sud faoliyatida, jinoyat huquqi nazariyasida bu muammo to'liq o'rganilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yildagi qarori bilan Respublika Soliq qo'mitasi qoshida Soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 184-moddasining o'ziga xosligi unda soliq va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash va bu jinoyat uchun belgilangan jazo choralari aks etgan. Shu o'rinda mualliflar uchun moddani talqin yoki tavsif qilish emas, balki uning mazmunidagi iqtisodiy belgi va xususiyatlarni aniqlash muhim hamda prinsipial ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, «jinoyat-soliq» normalarini qo'llash borasidagi dolzarb muammolarning ayrimlarini tahlil qilib chiqamiz.

Birinchidan, Soliq kodeksining 16, 67, 83, 97, 117-moddalarida soliq undirish obyektlari ko'rsatilgan. Unda jami daromad bilan Soliq kodeksiga muvofiq belgilanadigan chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan daromad (foyda), tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya va import qilish oboroti qo'shilgan qiymat, aksiz to'lanadigan tovarlar uchun ularning qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmagan holdagi qiymati yoki tovarning fizik hajmi, yuridik shaxslar uchun yer uchastkalari, suv resurslarining hajmi ham soliq undirish obyekti sifatida qabul qilingan. Ushbu ro'yxatdan ko'rinib turibdiki, unda keltirilgan obyektlar to'liq emas, «soliq solish obyekti» iborasi mazmunini yana bir bor aniqlash hamda ularning hajmlarini belgilash muammosini hal etishni bugungi kun taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1997-yil 10-noyabrdagi «Yuridik shaxslar daromadi (foydasiga)ga soliq solish va budjetga to'lash tartibi» yo'riqnomasida birinchi soliqqa tortish obyekti jami daromad (foyda) deb ko'rsatilgan.

Soliq huquqbuzarliklariga qarshi kurash vositalari orasida umumiy xususiyatga ega bo'lgan quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin:

- axloq xarakteriga ega vositalar;
- soliq to'lovchilarning qonunga itoatkorligini keng targ'ib-tashviq qilish;

– jamoatchilik fikridan, ommaviy axborot vositalaridan huquqbuzarliklarga, xususan, soliq huquqbuzarliklariga qarshi kurash ishida foydalanish;

– eng ko‘p oborot vositalariga ega bo‘lgan soliq to‘lovchilarning xarajatlarini oshkor etish;

– jamoat tashkilotlari (birinchi navbatda, kasaba uyushmalar, iste‘molchilar tashkiloti va boshqalar)ning soliq nazoratida qatnashishi.

Masalan, iste‘molchilar tashkiloti narxlar nazoratini o‘tkazish jarayonida ulgurji savdodagi narxlarni tekshirish bilan bir qatorda, savdo tashkilotlari oladigan daromadni ham o‘rganadilar, o‘zgarishlar xususida xabar beradilar.

Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashga qarshi kurashish vositalariga quyidagilar kiradi:

– soliq tizimini takomillashtirish;

– bir butun soliq stavkalarini belgilash;

– asoslanmagan soliq imtiyozlarini rad etish;

– soliq texnikasini takomillashtirish;

– soliq huquqbuzarliklariga qarshi kurash borasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

Soliq huquqbuzarliklariga qarshi kurash vositalari ichida soliq huquqbuzarliklarining oldini olish, to‘siq qo‘yish vositalarini hamda bu huquqbuzarlik uchun jazolash vositalarini alohida ajratish lozim.

Huquqbuzarlikning oldini olishda muhim vosita – soliq nazorati bo‘lib, uni samarali amalga oshirish soliq jinoyatlarining oldini olish va shu orqali soliq to‘lovchiga katta ta‘sir ko‘rsatish mumkin. Soliq nazoratini amalga oshirishda maxsus tuzilgan organlarning zimmasiga muhim funktsiya yuklatiladi.

Tayanch tushunchalar:

Soliq, yig‘imlar, soliq stavkalari, soliq qonunchiligi, soliq tizimi, soliq turlari, to‘g‘ri soliqlar, egri soliqlar, davlatning soliq siyosati, soliq ayovchanligi, qulay soliq imtiyozlari, soliq muhiti, soliq to‘lovchilar intizomi.

Savol va topshiriqlar:

1. Soliqlarning iqtisodiy va huquqiy mazmunini tushuntirib bering.
2. Iqtisodchi olimlarning soliqlarga oid qarashlarini (Fisher, Volter) yozma sharhlab bering.

3. Soliqlar nima uchun zaruriyat hisoblanadi?
4. Soliqlar qanday vazifalarni bajaradi?
5. Soliqlarning milliy xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini tushuntiring.
6. To'g'ri va egri soliqlarning mohiyatini yoritib bering.
7. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qachon qabul qilingan?
8. Soliq yuki nima?
9. Soliqlar qanday undiriladi?
10. Soliq organlarining huquq va majburiyatlari nimalardan iboratligini tushuntirib bering.
11. Soliq ayovchanligi nima?
12. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekistonda soliq tendensiyalari qanday?

Mavzuni chuqur o'rganish instrumentariysi

Soliq – xo‘jalik yurituvchi subyekt qonunga muvofiq amalga oshiradigan majburiy to‘lov.

Soliqqa tortishning bazaviy muammosi – adolat va samaradorlikning ziddiyatli birligi.

Soliq (ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan) – xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida daromadni ayni vaqtda individga, ya‘ni inson va jamiyat a‘zosi bo‘lgan, inson manfaatlari yo‘lida qayta taqsimlash borasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar shakli.

Soliqlar – davlat budjeti yoki mahalliy budjetlarga jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarganlari yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalanganliklari uchun majburiy to‘lovlar.

Soliq huquqi – huquqiy normalarning majmui bo‘lib, u davlat soliq tuzilmasini aniqlaydi, soliq tizimini belgilab beradi, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish jarayonida hosil bo‘ladigan munosabatlarni tartibga solib turadi.

Soliqqa tortishning huquqiy prinsiplari:

- barobar soliq yuki prinsipi;
- soliqlarni qonunlar orqali belgilash prinsipi;
- soliq qonunlarining orqaga qaytish kuchiga ega emasligi to‘g‘risidagi prinsip;
- soliq qonunlarining soliq sohasiga kirmagan qonunlaridan ustunlik prinsipi;
- soliq qonunchiligida barcha soliq elementlarining mavjudlik prinsipi;

- soliq qonunchiligini talqin qilishda xususiy mulk egasining prezumpsiya prinsipi;

- xalqaro huquq me'yorlarining ustuvorligi prinsipi.

Soliq bazasi – soliq olinadigan pul miqdori.

Soliq tizimi – mamlakatda mavjud bo'lgan soliqlar, ularni undirish shakl va usullari, shuningdek tegishli davlat tashkilotlari va muassasalarining o'zaro aloqador birligi.

Soliq stavkasi – soliq bazasining soliq to'lovchi shaxs u yoki bu soliq tarzida to'lashi lozim bo'lgan qismi.

Soliq to'lovchi – qonunda soliq majburiyatlari yuklatilgan iqtisodiy agent.

Soliqning o'rtacha stavkasi (AT) – soliqqa tortiladigan daromad miqdoriga bo'lingan umumiy soliq.

Fiskal siyosat – hukumatning to'liq ish bilan bandlik va narx darajasining barqarorligi sharoitida iqtisodiy o'sishning yangi sifati barqaror sur'atlarda oshib borishi uchun qo'llaydigan davlat xarajatlarini va soliqqa tortish tartibini o'zgartirish borasidagi choralari tizimi.

Ekspansionistik fiskal siyosat – davlat xarajatlarini ko'paytirish, soliqlarni kamaytirish yoxud ushbu choralarni birgalikda qo'llash.

Restruktiv fiskal siyosat – davlat xarajatlarining qisqartirilishi, soliqlarning ko'paytirilishi yoxud ushbu choralarning birgalikda qo'llanishi.

Soliqning eng katta stavkasi (MT) – daromadning har bir qo'shimcha so'mi uchun to'lanadigan qo'shimcha soliq kattaligi.

Hukumat xaridlari – ijtimoiy tovarlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan hamda budjetning bir qator xarajatga oid moddalarini – fundamental fan, milliy mudofaa, tashqi siyosatni moddiy ta'minlash, ma'muriy-boshqaruv xarajatlari kabilarni qamrab olgan xaridlar.

Davlat soliq tizimini davlat tomonidan o'rnatilgan barcha soliqlar, yig'imlar va boshqa budjetga undiriladigan majburiy to'lovlar majmui, ularning tuzilish shakli va metodlari tashkil etadi.

Soliqqa tortish subyekti (soliq to'lovchi) – qonunga ko'ra soliqlar, yig'imlar va to'lovlarni huquqiy jihatdan to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar.

Soliqqa tortish obyekt yoki soliqqa tortish bilan bog'liq obyekt deganda, soliq to'lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan daromadi va mol-mulkiga aytiladi.

Soliq bazasi soliq solish obyektining qiymatiga oid, moddiy yoki boshqa tavsifidan iborat bo'lib, unga asoslangan holda budjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq va boshqa to'lovlarning summalari aniqlanadi.

Soliq davri deganda, Soliq kodeksiga asosan budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan ayrim soliq va boshqa majburiy to‘lovlarga nisbatan qo‘llaniladigan, tugashi bilan soliq bazasi belgilanadigan va to‘lanishi kerak bo‘lgan soliq va majburiy to‘lovlarning summasi hisoblanadigan davrga aytiladi.

Boshqacha aytganda, soliq stavkasi bu soliqqa tortish me‘yoridir.

Unifikatsiya – turli xildagi mahsulotlar, detallar, uzellar va boshqa qo‘llaniladigan materiallar va texnologik jarayonlarning ratsional jihatdan birxilligini ta‘minlash.

Soliqlarni unifikatsiya qilish – soliq mexanizmini soddalashtirish maqsadida iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish obyekti o‘xshash bo‘lgan soliq turlarini birxillashtirish.

Preferensiya – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxonalar va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Soliq krediti – budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini ma‘lum muddatga kamaytirish, kechiktirish, bo‘lib-bo‘lib to‘lash yoki soliqni qaytarish shakli.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to‘lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo‘llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

Soliq stavkasi – soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga to‘g‘ri keladigan soliq me‘yorini ifodalaydi.

Soliq yukini yengillashtirish – soliqlarning foiz stavkalarini kamaytirish va imtiyozlar yaratish.

Soliq imtiyozi deganda, soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to‘lovchilar bilan qiyoslaganda, soliqlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar berilishi, shu jumladan soliq (yig‘im) to‘lamaslik yoxud kam hajmda to‘lash imkoniyati tushuniladi.

Soliqqa tortish obyektining to‘lovchi bilan davlatning o‘zaro munosabatlariga qarab **bevosita** (shaxsiy daromad solig‘i, real mol-mulk solig‘i) va **bilvosita** (individual soliq, universal QQS, import-bojxona bojlari) soliqlarga bo‘linadi.

Hamma soliqlar iqtisodiy mohiyatiga qarab to‘rt guruhga bo‘linadi:

- iste‘molga qo‘llaniladigan soliqlar;
- daromadga qo‘llaniladigan soliqlar;
- mulkka qo‘llaniladigan soliqlar;

- boshqa soliqlar.

Soliqlar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- fiskal – *budjetni mablag‘ bilan to‘ldiradi;*
- ijtimoiy (qayta taqsimlash) – *daromadni qayta taqsimlaydi;*
- izga solib turuvchi – *iqtisodiy munosabatlarni izga soladi;*
- nazorat qiluvchi – *solih tizimida o‘zgarishlar kiritishni aniqlaydi;*
- jamlovchi – *yagona iqtisodiy maydonni tashkil etishga imkon yaratadi.*

Soliq majburiyati – solih to‘lovchi tomonidan solih to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha bir tomonlama majburiyat.

Soliq qonunchiligi – normativ-huquqiy hujjatlar majmui bo‘lib, ular solih sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida umumiy solihqa tortish tartibi, ba’zi bir guruh solih to‘lovchilarga alohida (maxsus) solih tartibi qo‘llaniladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida mahalliy solihlar va yig‘imlar Solih kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Mol-mulk va yer solihlari O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan joriy etiladi va respublikaning butun hududida undiriladi. Bu solihlar va yig‘imlar stavkalarining miqdorlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Qolgan mahalliy solihlar va yig‘imlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlari tomonidan joriy etiladi. Bu mahalliy solihlar va yig‘imlar stavkalarining eng yuqori miqdorlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Mahalliy solihlar va yig‘imlar mahalliy budjetga o‘tkaziladi.

184-modda. Solih va boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash.

Foyda (daromad) yoki solih solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirish, kamaytirib ko‘rsatish, shuningdek davlat tomonidan belgilangan solihlarni, yig‘imlarni, boj yoki boshqa to‘lovlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlash, shunday qilmishlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilgandan keyin ancha miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, – eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Solih yoki boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash: a) takroran; b) ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Soliq yoki boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash juda ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Qasddan yashirilgan, kamaytirib ko'rsatilgan foyda (daromad) bo'yicha soliqlar va boshqa to'lovlar to'liq to'langan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi (*O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 184-modda*).

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. Soliqlar – milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shartidir.

2. Soliqqa tortish iqtisodiy madaniyatning bir elementi bo'lib, davlatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tgan yoki o'tmaganligiga qaramay, ularning hammasiga xosdir. Soliqlarning hozirgi kundagi o'rni esa huquqiy ong, iqtisod, davlat nazorat tizimining yuqori darajadagi rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan.

3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda keng miqyosdagi soliq islohotlari amalga oshirildi. Natijada bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan, davlat budjetini to'ldirishni va davlatning zarur xarajatlarini moliyalashtirishni ta'minlaydigan, shuningdek aholi daromadlarining o'sishini, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, uning yangi tarmoqlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantiradigan zamonaviy soliq tizimi yaratildi.

4. Soliq qonunchiligi – bu soliq to'lovchilar va soliqchi o'rtasidagi majburiyat, ma'lum huquqiy munosabatlarni aks ettiradi. Soliq qonunlari soliqlarning turlari, soliq obykti, soliq stavkasi, soliqni hisoblash va to'lash tartibi, soliqqa tortish bo'yicha imtiyozlarni aniqlab beradi. O'zbekistonda soliq qonunchiligini takomillashtirish, soliq huquqini bosqichma-bosqich kamaytirib borish, soliq to'lovchilarni ularning xo'jalik faoliyatiga asossiz aralashuvlardan himoya qilishni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish bilan bir vaqtda, soliqqa tortish tizimini takomillashtirish va soddalashtirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilayotir.

1. Qishloq xo‘jaligining respublika iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati

Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining muhim tarmog‘idir. U aholining qishloq xo‘jalik mahsulotlariga, sanoatning esa xom ashyoga bo‘lgan talabini qondiradi. Qishloq xo‘jaligining xususiyati shundan iboratki, u ko‘proq ob-havo va iqlim sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Albatta, unda suv resurslari muhim rol o‘ynaydi.

Hozirgi davrda aholi iste‘mol qilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining 95–97 foizga yaqini shu tarmoqda yetishtiriladi. Kelajakda boshqa tarmoqlar izchil rivojlanishi natijasida qishloq xo‘jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi bir oz kamayishi mumkin. Lekin shunga qaramay, tarmoqning iqtisodiy salohiyati respublika iqtisodiyotida sezilarli darajada bo‘laveradi. Chunki, respublikamiz agrar industrilashgan davlatdir.

O‘zbekiston aholisining uchdan ikki qismi qishloqlarda yashamoqda. Jami mehnat resurslarining 40 foizga yaqini qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida qatnashmoqda. Tarmoqda mahsulot yetishtirish uchun 25,8 mln. ga qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanilmoqda. Bu qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan umumiy yer maydonining 74,6 foizini tashkil etadi. Ma‘lumki, eng unumdor yerlar sug‘oriladigan yerlardir. Ularning 95,1 foizidan qishloq xo‘jaligida foydalanilmoqda.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining mustaqillik yillari arafasidagi vaziyati. Prezident Islom Karimov Vatanimiz poytaxti Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida «Qishloq xo‘jalik sohasini, qishloq taraqqiyotini mamlakatimiz rivojining yetakchi kuchi sifatida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi darajasini ko‘tarishga alohida ahamiyat berilganligi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotimiz negizlarini mustahkamlashda muhim omil bo‘lganligini» ta’kidlagan edi.

O‘zbekistonning o‘ziga xos milliy taraqqiyot modeli va mashhur besh tamoyil asosida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, qishloq taraqqiyoti va farovonligini ta‘minlashga qaratilgan tub o‘zgarishlar siyosati o‘tgan asrning 80-yillari oxiridan boshlangan yangilanish va bunyodkorlik jarayonining tarkibiy qismidir. Shu o‘rinda o‘sha davrlarda qishloqlarimizning ahvoli, u yerda istiqomat qiluvchi aholining turmush tarzi qanday edi, degan savol tug‘iladi.

Ta'kidlash joizki, o'sha davrda respublikamizni sobiq ittifoqning xom ashyo bazasiga aylantirish maqsadi mustabid tuzum manfaatlaridan kelib chiqib amalga oshirilar edi. Mamlakat iqtisodiyoti asosan bir soha – paxtachilikdan iborat bo'lib, boshqa sohalarga ham shu nuqtai nazardan munosabat bildirilar edi. Barcha ekin maydonlarining bor-yo'g'i 8–10 foiziga bug'doy ekilgani ham mash'um paxta yakkahokimligining og'ir oqibatlari natijasi edi, xolos. Shuning uchun ham mamlakat hayoti uchun eng zarur mahsulotlar – don, go'sht, sut, kartoshkaning katta qismi chetdan olib kelina boshlandi. 1989-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda umumiy ekin maydonlarining 95 foizdan ortig'i kolxoz va sovxozlar, demak, davlat ixtiyorida edi. XX asr boshida «*Yer – dehqonlarniki*» shiori ostida o'z hokimiyatini o'rnatishga muvaffaq bo'lganlar hech qancha o'tmay kollektivlashtirish siyosatini o'ylab topgan edilar. Natijada, barcha ekin maydonlari aholidan tortib olindi. Pirovardida 1960–1980-yillar davomida O'zbekistonda tomorqa ajratish deyarli to'xtab qolgan edi. Hatto qishloqlarda ham 8 yoki 10 sotix hovlida 3–4 oila yashashga majbur bo'ldi. O'sha davrda mavjud ekin maydonlarining 4 foizga yaqini shaxsiy tomorqa xo'jaliklari ixtiyorida edi, xolos. Paxta yakkahokimligi, qishloq bilan shaharni sun'iy tarzda yaqinlashtirish siyosati 1989-yilning 29-iyuniga, ya'ni O'zbekistonda mamlakat rahbariyati almashganiga qadar davom etdi. Qishloq dardini, muammolarini yaxshi tushungan, yurakdan his etgan Yurtboshimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 1989-yil 15-avgustda «**Kolxozchilar, sovxoz ishchilari, fuqarolar shaxsiy tomorqa xo'jaliklari va individual uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish to'g'risida**» maxsus qaror qabul qilindi. Natijada o'ta qisqa fursatda millionlab oilalarning tomorqa uchastkalari kengaytirildi, yuz minglab oilalar tomorqaga ega bo'ldilar. Bu esa qishloq, aholisini ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash hamda turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, 1990-yil 28-iyulda Prezidentimizning «**Qishloq aholisini ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta'minlashni yaxshilash to'g'risida**»gi farmoni e'lon qilindi. Mazkur farmonning qabul qilinishi qishloq qiyofasini tubdan o'zgartirish, u yerda yashovchi fuqarolarning turmush tarzini yaxshilash borasida tashlangan yana bir muhim qadam edi. Xullas, o'sha davrda xalqimizning asrlar davomidagi orzu-istaklari amalga oshishi uchun katta imkoniyatlar eshigi ochila boshlangan edi.

Binobarin, jamiyat hayotini modernizatsiyalash davrida boshqa sohalar qatori qishloq joylarida ham ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish, aholi turmush darajasini yaxshilash muhim ahamiyat

kasb etadi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, qishloqda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy islohotlarni amalga oshirish jarayonida aholi turmush tarzini yuksaltirish, fuqarolarni ijtimoiy himoyalash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga qaraganda, 1990-yilda respublikamiz aholisi iste'moli uchun zarur bo'lgan g'allaning 82 foizi, go'sht mahsulotlarining 50 foizi, sut va sut mahsulotlarining 60 foizga yaqini, kartoshkaning 50 foizi, shakar va quruq sutning barchasi chetdan keltirilgan bo'lsa, hozirda mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishning barqarorligi hisobidan aholining asosiy iste'mol mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji deyarli yuz foiz o'z ishlab chiqarishimiz hisobidan ta'minlanmoqda.

1-jadval

O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi, kg

Mahsulotlar turlari	1991-yil	2011-yil	2011-yil 1991-yilga nisbatan, barobar
Meva	24,0	60,1	2,5 barobar
Uzum	24,0	35,1	1,4 barobar
Sabzavot	138,6	225,0	1,6 barobar
Kartoshka	15,1	60,5	4,0 barobar
Poliz mahsulotlari	39,0	42,0	1,07 barobar

Manba: O'zbekiston Respublikasining Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi.

Mustaqillik yillarida agrar sohada bosqichma-bosqich olib borilgan izchil islohotlar tufayli respublikamizda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish miqdori barqaror o'sib bordi. Jumladan, 2011-yilda 1991-yilga nisbatan aholi jon boshiga go'sht mahsulotlari iste'mol qilish 31 kilogrammdan 38 kilogrammga yoki 122,6 foizga, sut mahsulotlari 183 kilogrammdan 239 kilogrammga yoki 130,3 foizga, tuxum 97 donadan 138 donaga yoki 142,3 foizga oshgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi aniq-ravshan belgilab olindi. Mazkur strategiya zamirida qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, paxta yakkahokimligiga barham berish, yurtimiz

aholisini oziq-ovqat mahsulotlari, birinchi navbatda, g'alla bilan ta'minlash, bir so'z bilan aytganda, oziq-ovqat mustaqilligiga erishish vazifasi mujassam edi. 1998-yilda qishloqda faol institutsional o'zgarishlar bosqichi boshlandi. Agrar islohotlar hamma joyda bozor munosabatlarini joriy qilish va xususiy mulk shaklini rivojlantirishga qaratildi.

Zarar ko'rib ishlayotgan hamda samarasi past jamoa va kooperativ xo'jaliklari tugatilib, ularning yerlari uzoq muddatli ijaraga xususiy fermer xo'jaliklariga yoki umrbod meros huquqi bilan dehqon xo'jaliklariga berildi. Fermerlik harakatini rivojlantirish uchun davlat tomonidan katta imtiyozlar berildi, xususiy fermer xo'jaliklarining ekin maydonlarini maqbullashtirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, paxtaning tezpishar va serhosil navlarini yaratish, shuningdek, paxta navlarini har bir hududning tuproq-iqlim sharoiti va suv bilan ta'minlanish darajasini inobatga olgan holda, rayonlashtirish bo'yicha keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi.

Agrar sohadagi islohotlar natijasida xususiy fermer xo'jaliklarining to'liq iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydigan va ularga meros huquqi bilan uzoq muddatga ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi yer resurslaridan maqsadli, oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantiradigan huquqiy shart-sharoit va kafolatlar yaratildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksida fermer xo'jaliklariga yer maydonlarini 50 yil muddatga ijaraga berish mustahkamlab qo'yilgan.

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni moliyalashning bozor prinsiplariga to'liq javob beradigan va fermer xo'jaliklari uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan tushgan o'z daromadlari hisobidan barcha xarajatlarni qoplashda moliyaviy mablag'lardan foydalanish usuli va shaklini tanlashda ularning mustaqilligini ta'minlaydigan ishonchli tizim yaratildi. Agrar sohadagi islohotlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishish ishlab chiqarish hajmining o'sishi, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va chorva mahsuldorligining oshishi uchun zamin bo'lmoqda.

Mustaqillik yillarida muhtaram Prezident Islom Karimovning tashabbusi va bevosita rahnamoligida qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlarini, yangi texnika va ilg'or texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan-yilga jadallashib bormoqda. Cheklangan yer va suv resurslaridan, kapital va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yuksalmoqda. Respublikamiz agrar tarmog'ida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy

islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida qishloq xo'jaligining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari barqaror o'sib bormoqda (Quyidagi jadvallarga qarang).

2-jadval

Modernizatsiya strategiyasini amalga oshirish yillarida qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari, foizda

Yillar	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011
Foiz	105,4	106,7	106,1	104,5	105,7	106,8	106,6

3-jadval

Mustaqillik yillarida yalpi ichki mahsulotda qishloq xo'jaligining ulushi, foizda

Yillar	1990	2000	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011
Foiz	33,4	30,1	26,3	25,1	21,7	19,4	18,2	17,5	17,1

O'tgan 2005–2011-yillar davomida qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining o'rtacha yillik barqaror o'sish sur'atlari dinamikasi ta'minlandi. Xususan, bu ko'rsatkich 2005-yilda 105,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilda 106,6 foizga teng bo'ldi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotida qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti salmog'ining 1990-yildagi 33,4 foizdan 2011-yilda 17,1 foizga pasayishi ijobiy holdir. Bu, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotida industrial sanoat tarmoqlari va xizmatlarning jadal rivojlanib borayotgani bilan izohlanadi.

Istiqlol yillaridagi tub o'zgarishlar ko'p ukladli, ya'ni teng huquqli, daxlsiz, davlat himoyasidagi turli xil mulk shakllarini mustahkam qaror toptirish jamiyat iqtisodiy asoslarini yaratishga qaratilgan bo'lib, bu islohotlarni amalga oshirishning asosiy masalalaridan biridir. Ushbu jarayon qishloq xo'jaligida mulkdorlar sinfi manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratish zarurligini anglatadi. Ana shu sababdan ham Prezident Islom Karimov: «Qishloq xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish, fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash, moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash, ularga yanada keng yo'l ochib berish, bu borada yangi imtiyoz va imkoniyatlarni tug'dirish, qisqacha aytganda, qishloqda paydo bo'layotgan mulkiy munosabatlarni, yangi o'rta sinf vakillari – mulkdorlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlarning manfaatlarini himoyalash

bugungi kunda eng katta ahamiyatga ega», – deb alohida ta’kidlangani bejiz emas. Albatta, yuqoridagi masalalarning hal qilinishi bu sohada o‘zining ichki samarali rivojlanish tuzilmasiga ega bo‘lgan, shu bilan birga, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib boriladigan yagona ishlab chiqarish tizimini yanada takomillashtirishga olib keladi.

Qishloq xo‘jaligi asosiy maqsadiga erishishi uchun turli xildagi mahsulotlar yetishtiriladi, ishlar, xizmatlar bajariladi, ular talabni qondirish maqsadida taqsimlanadi, sotiladi. Ma‘muriy buyruqbozlikka asoslangan, markazdan rejali boshqarilgan iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish sharoitida davlat ustuvorligida qishloq xo‘jaligida talabga javob beradigan, samarali huquqiy, tashkiliy iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimi yaratilmoqda, mulkchilikning turli shakllari barpo etilmoqda, natijada erkin mulkiy munosabat vujudga kelmoqda, tadbirkorlikning har xil turlarini yaratish, ularni rivojlantirish yo‘lidan borilmoqda, yer-suv islohotlari amalga oshirilmoqda, tarmoqning cheklangan ishlab chiqarish resurslari (yer-suv, kapital, mehnat, tadbirkorlik qobiliyati)dan samarali foydalanish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish, daromad, foyda va ularning taqsimlanishi, investitsiyalarni jalb etish, ulardan samarali foydalanish, tarmoq ishlab chiqarishini maqsadga muvofiq joylashtirish, ixtisoslashtirish hamda agrosanoat integratsiyasini xalqaro munosabatlar asosida tashkil etish va rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar tizimi yaratilib, ular takomillashtirilmoqda, rivojlantirilmoqda.

Yuqorida ta’kidlangan iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratishda xalqimiz hamda qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy kategoriyalar talablaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Demak, qishloq xo‘jaligining barqaror iqtisodiy asosini, takror ishlab chiqarish jarayoni rivojlantirilishini ta‘minlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratish va ularni hayotga joriy etish masalalarini, yo‘llarini o‘rgatish «iqtisodiyot nazariyasi» hamda «Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti» fanining ham predmeti, ham maqsadi hisoblanadi. Iqtisodiyot nazariyasi predmeti (maqsadi)ni hal etish uchun quyidagi asosiy vazifalar yechimining nazariy, uslubiy asoslarini o‘rgatish lozim:

- qishloq xo‘jaligining bosqichma-bosqich rivojlanishini, uning respublika iqtisodiyotidagi o‘rni, ahamiyati hamda o‘zgarish qonuniyatlarini aniqlashni;

- qishloq xo‘jaligiga davlat rahbarligini, unda amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlar mazmuni va mohiyatining holatini, ularning rivojlantirish yo‘llarini, masalalarini ko‘rsatish;

- qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik turlari, ularning faoliyatiga baho berish va takomillashtirish yo'llari;
- qishloq xo'jaligining cheklangan yer-suv, mehnat resurslari, investitsiyalar va ulardan tadbirkorlik bilan samarali foydalanish darajasiga iqtisodiy baho berish tartibini o'rganish, ularni takomillashtirish va rivojlantirish yo'llarini asoslab berish;
- qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan doimiy va o'zgaruvchan, o'rtacha xarajatlarni, ularning tarkibi va kamaytirish yo'llarini, yetishtirilgan mahsulotning hajmini, sifatini, samarali taqsimlanishini hamda pul oqimlarini o'rgatish;
- qishloq xo'jaligida iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda foydalanilayotgan baholarning tizimini, tarkibini, mazmunini, daromad va foydani aniqlash, ularni oqilona taqsimlash yo'llarini ko'rsatish;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining qay darajada ixtisoslashganligini, joylashganligini hamda ichki va tashqi integratsiyalashganligini va boshqa masalalarini o'rganish.

Bozor iqtisodiga o'tishda qishloq xo'jaligiga davlat rahbarligi va amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlar. Qishloq xo'jaligi respublika xalq xo'jaligining eng muhim va yirik tarmog'i. Shuning uchun ham bu tarmoqda o'tish davrida bozor iqtisodi talablariga javob beradigan munosabatlar tizimini barpo etish obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Chunki ma'muriy-buyruqbozlik asosida markazdan rejali boshqarilgan iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligidagi davlat yakka hokimligi (qancha maydonga qanday ekinlar ekilishi, qanday mahsulotlarni, qancha miqdorda ishlab chiqarish zarurligi, ularni qat'iy belgilangan baholarda sotib olish, ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash, daromadni taqsimlash, mulkiy munosabatlarda va boshqalarda) tarmoqda bozor iqtisodi munosabatlarini talab darajasida shakllantirish imkoniyatini bermaydi. Darhaqiqat, bozor iqtisodi avvalgi iqtisoddan tubdan, shaklan va mazmunan farq qiladi. Bozor iqtisodiga o'tishda, shuningdek, bozor iqtisodi sharoitida qishloq xo'jaligida ma'lum munosabatlarni qonunlar doirasida hal etishda davlatning rahbarligi bo'lishi lozim. Lekin u qishloq xo'jaligidagi korxonalarining to'liq erkinligi bilan bog'liq holda amalga oshirilishi zarur. Qishloq xo'jaligiga davlat rahbarligini asosan davlat bosh islohotchi sifatida muttasil amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: «Agrar sektorni tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirish muammolari islohotlarning dastlabki bosqichida hamda O'zbekistonning bozorga o'tish strategiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Biz

qishloqning ustun darajada rivojlanishini ta'minlashni, qishloq xo'jaligini sifat jihatidan yangi asoslarda qayta tiklashni o'z oldimizga vazifa qilib qo'ydik», – deb ta'kidlagan edi. Shunga asoslangan holda davlat qishloq xo'jaligida bozor iqtisodi munosabatlarini barpo etish maqsadida islohotlar majmuini ishlab chiqdi va ularning huquqiy asoslarini ham yaratmoqda. Bunga Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar, Prezidentning farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari yaqqol misol bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida», «Mulk to'g'risida», «Ijara to'g'risida», «Tadbirkorlik to'g'risida», «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida», «Investitsiyalar to'g'risida», «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida», «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida», «Qishloq xo'jalik korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida», «Qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkatlar) to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlari, shuningdek, «Yer kodeksi», «Mehnat kodeksi».

Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo'jalik mahsulotlari kontraktatsiya shartnomalarini tuzish va bajarish to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori.

Respublika Prezidentining «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va boshqa farmonlari shular jumlasidan.

Mamlakatimizda davlat rahbarligida qishloq xo'jaligini moliyalash, kreditlash hamda soliq tizimlari ishlab chiqilib, ular hayotga bosqichma-bosqich tatbiq qilinmoqda. Davlat, shuningdek, fan, texnika, ilg'or va samarali texnologiyalar tizimlarini tarmoq miqyosida ishlab chiqishga ham, qishloq aholisini ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilishga ham rahbarlikni amalga oshirmoqda. Qishloq xo'jaligida davlatning bevosita rahbarligida agrar islohotlarning negizi hisoblangan yer va mulk islohotlari amalga oshirilmoqda, davlat va jamoa xo'jaliklari negizida shakllangan va mazmunan yangi jamoa, shirkat, fermer, dehqon xo'jaliklari, qo'shma korxonalar tashkil etilmoqda. Qishloq xo'jaligidagi davlat korxonalariga davlatning rahbarlik ko'lami nodavlat xo'jaliklarga nisbatan ko'proq. Shu bilan birgalikda o'tish davrida davlat talabini e'tiborga olgan holda jamoa va shirkat, fermer xo'jaliklariga ham qancha paxta, g'alla va sholi mahsulotlari yetishtirish davlat buyurtmasi shaklida belgilab qo'yilgan. Bu hol keyinchalik kamayib, uni erkin bozor qonunlari asosida shartnomalar bo'yicha amalga oshirish ta'minlanadi. Demak, kelajakda

qishloq xo'jaligiga davlatning rahbarligi yanada takomillashtiriladi. Buning uchun davlatning uzoq muddatga mo'ljallangan dasturlari ishlab chiqiladi. Ularda tomonlarning manfaatlariga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, ishlab chiqarishning ravnaqini faqat manfaat ta'minlaydi. U moddiy, ma'naviy va boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Davlat bu tarmoq bilan aloqador bo'lgan tarmoqlarni ham (xizmat ko'rsatuvchi, qayta ishlovchi, sotuvchi) isloh qilishga alohida e'tibor berdi. Natijada bu tarmoqlardagi davlat korxonalarini davlat aksiyadorlik korxonalariga, tashkilotlariga aylantirildi. Masalan, paxta zavodlari, un, non, yog'-moy, go'sht kombinatlari, konserva zavodlaridir. Natijada shu tarmoqlarda bozor munosabatlarini erkin amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan turli shakldagi mustaqil korxonalar, birlashmalar, uyushmalar tashkil etildi. Ularning serqirrali faoliyatlarini samarali boshqarishni ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lgan tarmoq tashkilotlari ham davlatning bevosita rahbarligida tashkil etilib, takomillashtirilmoqda. Chunonchi, Qishloq xo'jaligi vazirligi Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi bilan uyg'unlashtirilib, yagona Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga aylantirildi. Unga 2001-yilda O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi ham qo'shib yuborildi. 2003-yilda shu vazirlik tarkibiga «O'zgo'shtsutsanoati», «O'zparandasanoat» aksionerlik tarmoqlari ham qo'shib yuborildi. Natijada bu yirik vazirlikning maqsadi va vazifasi tubdan o'zgartirildi. U hozirgi davrda qishloq, suv hamda o'rmon xo'jaliklarida iqtisodiy islohotlarning samarali tizimlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish bilan shug'ullanmoqda.

Yer islohoti. Respublikamiz qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda yer-suv resurslarining ahamiyati beqiyos. Chunki ular yordamida mamlakatimiz ichki yalpi mahsulotining to'rt dan uch qismi, xalqimiz iste'mol qilayotgan mahsulotlarning 95 foizi yetishtirilmoqda. Shunday ekan, ulardan kelajakda yanada to'liqroq, samaraliroq foydalanish dolzarb muammo hisoblanadi. Uni hal etish maqsadida respublika hukumati tomonidan siyosiy, huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, yer, suv, mulk to'g'risidagi qonunlar, kodekslar qabul qilindi. Ularda respublikamizda yerlarga, suvlarga egalik qilish, ulardan maqsadga muvofiq hamda samarali foydalanish borasidagi munosabatlar tizimi va ularni amalga oshirish tartibi ko'rsatilgan. Yer-suv resurslariga egalik qilishning huquqiy asosi – O'zbekiston Konstitutsiyasining 55-moddasida: «Yer ... suv ... umummilliy boylikdir,

ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir», – deb alohida ta’kidlangan.

Respublikamiz jami yer maydoni umummilliy boylik, davlat mulki sifatida egalik qilish O‘zbekiston Oliy Majlisi zimmasiga yuklatilgan. Oliy Majlis o‘z vakolatidagi yer munosabatlarining ayrim masalalarini xalq deputatlari qishloq, shahar, posyolka, tuman hamda viloyat kengashlari va ularning ijroiya qo‘mitalari zimmasiga yuklagan. Ular yuqorida keltirilgan qonun talablaridan kelib chiqqan holda yerlarni ulardan oqilona, samarali foydalanish maqsadida foydalanuvchilarga ma’lum muddatga haq to‘lash evaziga foydalanishga bermoqdalar. Demak, ular yer islohotini amalga oshirishga mas’uldirlar. Chunki ular yerlarni samarali foydalanish uchun haqiqiy egasiga berish bilan bog‘liq masalalarni hal etadilar.

2. Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarishning xususiyatlari

«Respublika sanoatining ko‘pgina tarmoqlarini, jumladan, paxta tozalash, to‘qimachilik, kimyo sanoatini, qishloq xo‘jaligi mashinasozligini va boshqalarni rivojlantirish istiqbollari, ularning murakkab o‘tish davridagi iqtisodiy ahvoli bevosita qishloq xo‘jaligiga bog‘liqdir»¹.

Agrar munosabatlar va qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarishning xususiyatlari. Qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanish jarayonida asosiy ishlab chiqarish vositasi (mehnat vositasi va mehnat predmeti) namoyon bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning natijalari yerning hosil berish qobiliyatiga, ya’ni tuproq unumdorligiga bog‘liq. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish jarayoni tirik organizmlar (o‘simlik va hayvonot dunyosi)ning o‘sishi va rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Agrar munosabatlar va qishloq xo‘jaligidagi takror ishlab chiqarish jarayoni iqtisodiy qonunlar bilan birga, tabiat qonunlari ta’siri ostida ro‘y beradi.

Agrar sohada ko‘pchilik ishlab chiqarish vositalari (chorva mollari, ko‘p yillik mevali daraxtlar, urug‘lik va h.k.) tarmoqning o‘zida vujudga keltirilib, yana ishlab chiqarish jarayoniga kiritiladi. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish mavsumiy xususiyatga ega. Bu tarmoqdagi mehnat vositalaridan foydalanish davrini ham cheklaydi. Masalan, seyalkalar ekish davrida, g‘alla o‘rish va paxta terish kombaynlari faqat yig‘im-terim paytida qisqa davr (bir–ikki oy) ishlatiladi. Qishloq xo‘jaligida ishlab

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: «Ўзбекистон», 1998. – Б. 225–226.

chiqarish mavsumiyligi sababli aylanma kapital va mablag'lar sarfi hamda mahsulot sotishdan olinadigan pul tushumlari yil davomida bir me'yorda bormaydi. Qishloq xo'jalik ekinlari o'sishining vegetatsiya davri va tabiiy omillari ta'sirida ishlab chiqarish vaqti va ish davri o'rtasida katta farq mavjud bo'ladi.

Bozor munosabatlari iqtisodiyotning hamma jabhalarini, jumladan, qishloq xo'jaligini ham o'z ichiga oladi. Mazkur tizimda agrar munosabatlar alohida o'rin tutadi. Yer bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar *agrar munosabatlar* deyiladi. Bu munosabatlarning obyekti yer bo'lsa, uning subyektlari yer egalari, yerda xo'jalik yurituvchilar, nihoyat, yerga mehnat sarf qiluvchi kishilar hisoblanadi.

Bozor tizimi agrar munosabatlarga yangicha mazmun beradi:

- yerning tovarga aylanishi;
- yerga xilma-xil mulkchilikning paydo bo'lishi;
- yerning tadbirkorlik obyekti bo'lishi;
- yerning garovga qo'yilishi;
- yer uchun pul shaklida renta undirilishi;
- agrobiznesning maxsus faoliyat turiga aylanishi.

Agrar munosabatlarning obyekti bo'lgan yer maxsus resurs bo'lganidan, u bilan bog'liq o'ziga xos iqtisodiy aloqalar ham kelib chiqadi. Yer har qanday ishlab chiqarishning umumiy sharti. Yerdan tashqarida ishlab chiqarishning bo'lishi mumkin emas. Qishloq xo'jaligi uchun yer asosiy ishlab chiqarish omili vazifasini o'taydi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish ikki yoqlama xarakterga ega, *birinchidan*, u iqtisodiy jarayon bo'lsa, ya'ni inson mehnati natijasida yuz bersa, *ikkinchidan*, u tabiiy-biologik jarayon bo'lib, mahsulot yetishtirish tabiiy omillarga, masalan, o'simlik yoki hayvonlarda kechadigan biologik o'zgarishlarga, iqlim sharoitiga, ob-havoning qanday kelishiga, tuproqning tabiiy xossalari bog'liq.

Yerning o'rnini esa hech bir resurs bosa olmaydi, shu jihatdan u o'ta noyob va asosiy resurs hisoblanadi. Uning asosiyliги shundaki, yer boshqa resurslarga qo'shimcha sifatida amal qilmaydi. Masalan, sanoatda stanoklarga qo'shimcha resurs sifatida kompyuter va uning dasturlari qo'llaniladi. Yerni esa boshqa resurs bilan almashtirib bo'lmaydi, uning muqobil ishlatish usullari o'ta ko'pdir. Shu sababli yerga talab muttasil oshib boradi. Bu talab yer bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarishning kengayishi va yerning unumdorligiga qarab o'zgaradi.

Yerga ikki xil monopoliya mavjud. *Birinchidan*, yer qadr-qiyamati baland resurs sifatida mulkdor monopoliyasida turadi, ya'ni egasi yo'q

yer bo‘lmaydi. Yer cheklangan miqdorda bo‘lganidan uni mulk sifatida ham ko‘paytirib bo‘lmaydi. Bunday hodisa yerga mablag‘ sarflashni uning egasiga bog‘liq qilib qo‘yadi. Yer egasining mulkdor sifatida manfaati bor, ya‘ni u o‘z yeridan naf ko‘rishi kerak. Shu sababli yer ishlatish uchun tekinga berilmaydi, egasiga undan foydalanish haqini to‘lash zarur. *Ikkinchidan*, yer xo‘jalik yuritish obyekti sifatida egallab olinadi, ya‘ni yerda turli xo‘jaliklar tashkil topadi, yaroqli yer bo‘sh turmaydi.

Fermer xo‘jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt.

Fermer xo‘jaligining yashovchanligi uning afzalligida. Bu xo‘jalikning samaradorligi, binobarin afzalligi quyidagilar bilan izohlanadi:

– fermer xo‘jaligida mehnat va mulk bevosita qo‘shiladi, fermer o‘z mulkida o‘z mehnati bilan ishlaydi. Yollanma mehnat qo‘shimcha ahamiyatga ega. Fermer o‘zi uchun ishlaydi;

– fermer xo‘jaligi mutlaqo mustaqil, biron-bir tarzda monopollashmagan xo‘jalik, uning faoliyatini bozor qonunlari boshqaradi;

– fermer xo‘jaligida tadbirkorlik va mehnat funksiyasi uzviy qo‘shiladi. Bu yerda ishbilarmonlik va mehnatsevarlik birgalikda amal qilganidan, iqtisodiy manfaat va mas‘uliyat yagona faoliyatning ikki tomonini tashkil etadi;

– fermer xo‘jaligi sohibkor dehqon xo‘jaligi bo‘lganidan, bu yerda kam foyda bilan ham qanoatlanish mumkin, chunki u davlatning yordamiga tayanadi;

– fermer uchun uning xo‘jaligi faqat daromad manbai emas, balki uning uyi, oilasi istiqomat qiladigan joy, uning ishongan tayanchi. U o‘z xo‘jaligini o‘ta qadrlaydi, shu sababli uning rivoji uchun o‘z mehnatini ayamaydi.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligida bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning borishini tahlil etish asosida ularning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- mulkiy va tarkibiy islohotlar;
- yerdan foydalanish borasidagi islohotlar;
- suv va suvdan foydalanish munosabatlaridagi islohotlar;
- moliya-kredit, soliq va sug‘urta sohasidagi islohotlar;
- narx-navo tizimidagi islohotlar.

Agrar sohada amalga oshirilayotgan mulkiy-tarkibiy islohotlarda, birinchi navbatda, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy-

lashtirish, turli mulk shakllariga, eng avvalo, xususiy mulkchilikka asoslangan xo‘jalik yuritish shakllarini joriy etishga muhim e‘tibor qaratildi.

Qishloq xo‘jaligini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

Yerga mulkchilik masalasining hal etilishi. O‘zbekiston Respublikasining «Yer to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilinib, yerga qanday munosabatda bo‘lish zarurligi ko‘rsatib berildi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida yer xususiy mulk qilib sotilmasligi, balki uni uzoq muddatli ijara shartlari bilan topshirish mumkinligi ta’kidlandi.

Yerga munosabat masalasini hal etishda dehqonda yerga xo‘jayinlik tuyg‘usini qayta tiklash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois O‘zbekistonda yerni meros qilib qoldirish huquqi bilan uzoq muddatga (49–50 yilga, bu masala 1999–2000-yillardan boshlab, shu tarzda hal qilina boshlandi) ijaraga berish yo‘li bilan erishiladi.

Davlatning yerning meliorativ holatini yaxshilashga yordam ko‘rsatishini saqlab qolish. O‘zbekistonda 4,2 mln. gektar sug‘oriladigan yer bo‘lib, shuning 50 foizidan sal ko‘prog‘i yaxshi holatda, qolgan yerlar yaxshilash va melioratsiya ishlari olib borishni talab qiladi. Buning uchun katta xarajat kerak. Hozir biror fermer irrigatsiya va melioratsiya ishlarini mustaqil amalga oshira olmaydi. Shu bois davlat melioratsiya tarmog‘ini loyihalash, qurish, yerlarning sho‘r bosishi, botqoqlanishining oldini olish masalalarini hal qiladi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yanada barqaror rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish va shu asosda qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini ko‘paytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida melioratsiya tizimlarini qurish va ta’mir qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga kompleks yondashuvni ta’minlashga qaratilgan 2008–2012-yillarda «Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi» qabul qilindi. Melioratsiya ishlarini moliyalashning ishonchli mexanizmini ta’minlash maqsadida «Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi» tashkil etildi. Yerlarning unumdorligini oshirish borasidagi ishlarni moliyalashtirish yo‘li bilan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga davlat yordamini ko‘rsatish mazkur jamg‘armaning asosiy vazifasidir.

Quyidagilar qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan islohotlarning sifat natijasi tariqasida namoyon bo‘ldi:

– ishlab chiqarish samaradorligi oshdi, natijada asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi va chorva mahsuldorligi o‘sdi;

– xususiy fermer xo‘jaliklarida rentabellik ortdi va oziq-ovqat mahsulotlarini barqaror tarzda ishlab chiqarish borasida mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlaydigan darajada ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi.

4-jadval

**Asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi
(gektariga sentner hisobida)**

	1990-yil	2000-yil	2010-yil
Paxta xom ashyosi	22,6	22,8	25,6
Don ekinlari	20,2	28,2	44,2
Kartoshka	80,0	129,3	194,9
Sabzavot	192,0	183,8	252,5
Poliz	115,0	132,4	192,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.

Shu bilan birga, o‘tgan davr mobaynida orttirgan tajribamiz fermerlikni yanada rivojlantirish uchun bir qator juda muhim muammolarni, xususan, fermer xo‘jaliklarining barqarorligi, eng muhimi, ularning samaradorligini oshirish bilan bog‘liq masalalarni hal qilishni qat‘iy talab etmoqda. Faoliyat yuritayotgan aksariyat fermer xo‘jaliklarining ish tajribasi shundan dalolat beradiki, ularni shakllantirishning dastlabki bosqichida ajratib berilgan yer maydonlarining kamligi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligining o‘shishiga ko‘p jihatdan to‘sqinlik qilmoqda.

Imkoniyati, kuch-quvvati kam bo‘lgan fermer xo‘jaliklari o‘zini zarur texnika, aylanma mablag‘ bilan ta‘minlash, kredit qobiliyatiga ega bo‘lish, eng asosiysi, o‘z xarajatlarini qoplash va foyda ko‘rib ishlash, daromadni oshirishning ishonchli asosiga aylana olmasligini bugun hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. Shu bois, yer maydonlarini to‘liq inventarizatsiyadan o‘tkazish va fermer xo‘jaliklari faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning yer maydonlarini optimallashtirish borasida keng ko‘lamli, shu bilan birga, puxta o‘ylangan ishlar amalga oshirildi. Bunda fermer xo‘jaliklarining qaysi sohaga ixtisoslashgani va

mamlakatimizning turli hududlaridagi aholi zichligi alohida e'tiborga olindi.

Ana shu ishlar natijasida fermer xo'jaliklari uchun ajratilgan yer maydonlari bugungi kunda paxtachilik va g'allachilikda o'rtacha 37 gektardan 93,7 gektargacha ko'paydi yoki 2,5 barobardan ziyod oshdi. Bu ko'rsatkich sabzavotchilikda 10 gektardan 24,7 gektargacha yoki 2,5 barobar, chorvachilikda esa 154 gektardan 164,5 gektargacha ko'paydi.

Fermer xo'jaliklari texnika vositalarini imtiyozli shartlar bo'yicha lizing asosida xarid qilishi uchun texnika boshlang'ich narxining 15 foizini to'lab, qolgan 85 foizini 10 yil muddat ichida to'lash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunda lizingdan foydalangani uchun yillik foiz to'lovlari Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan oshmaydigan qilib belgilandi. Agrar sohada amalga oshirilayotgan narx islohoti qishloq xo'jaligi mahsulotlariga narx belgilashda erkin bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich joriy etishga yo'naltirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 20-avgustdagi «Paxta narxini shakllantirish mexanizmi to'g'risida»gi PF-3114-sonli farmoniga asosan, davlat tomonidan sotib olinayotgan paxta xom ashyosining narxini jahon bozoridagi narxlar darajasidan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda PQ-1024-sonli qaroriga muvofiq, 2009-yilda davlat budjeti parametrlarida eksportga sotiladigan paxta tolasi bo'yicha 20 foizlik qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) to'lashdan paxta tozalash korxonalarini ozod etildi, natijada shu miqdorda fermerlarga paxta uchun to'lanadigan xarid narxlarini oshirildi. Shu orqali davlatimiz tomonidan paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarini va tayyorlov korxonalarini rag'batlantirish ko'zda tutilgan bo'lib, paxta tolasining ichki narxlarini jahon bozoridagi narxlarga tenglashtirish choralari ko'rilmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda jahon bozorida paxta tolasi narxlarining birmuncha yuqori ekanini inobatga olgan holda, narx bo'yicha yuzaga kelgan ijobiy farqning 25 foizini fermer xo'jaliklariga to'lab berish bo'yicha tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2011-yil davomida fermer xo'jaliklariga yo'naltirilgan ijobiy farq summasi 403 315 million so'mni tashkil etdi. Bu holat jahon bozorida qulay konyunktura vujudga kelgan yillarda fermer xo'jaliklarining barqaror daromad olishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Davlat tomonidan sotib olinayotgan g'alla narxlarini esa mintaqaviy bozorlardagi narxlardan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi.

Boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining narxлари bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda, shartnoma asosida belgilanmoqda. Keyingi yillarda fermer xo‘jaliklarini barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida hosildorligi past bo‘lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklarini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun mablag‘lar ajratish amaliyotda qo‘llanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 5-noyabrdagi «Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyoji uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirayotgan fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-725-sonli qarorida fermer xo‘jaliklarini barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga samarali va amaliy davlat madadini ko‘rsatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetida hosildorligi past bo‘lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag‘lar ajratish, Moliya vazirligiga har yili davlat budjeti loyihasini shakllantirishda mazkur maqsadlarga yer solig‘i bo‘yicha tushumlar hisobidan mablag‘lar ajratish vazifasi yuklatildi.

Mazkur qarorga muvofiq, ball boniteti past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom ashyosi yetishtirish bilan shug‘ullanayotgan fermer xo‘jaliklarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga davlat budjetidan ajratilayotgan mablag‘lar qiymati 2008-yildagi 60 milliard so‘mdan 2012-yilda 160 milliard so‘mga oshdi.

5-jadval

Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklariga davlat budjetidan ajratilayotgan subsidiyalar qiymati, milliard so‘mda

Yillar	2008	2009	2010	2011	2012
Milliard so‘m	60	120	130	140	160

Ushbu mablag‘lar fermerlarning xizmat ko‘rsatuvchi va ta‘minotchi tashkilotlar oldidagi qarzlarini qisqartirishda salmoqli manba bo‘lmoqda.

Respublikamizda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va agrar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish yuzasidan jami 575 gektar yer maydonlarida intensiv bog‘lar barpo etildi. Bu

bog'larda yuqori iste'mol xususiyatiga ega va serhosil bo'lgan mevali daraxt ko'chatlari ekilmoqda. Bunday bog'larning yaratilishi mamlakatimiz aholisini sifatli meva mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash imkonini yaratadi. Birgina 2011-yilning kuzi va 2012-yilning bahorida jami 7661 gektar maydonda yangi mevali bog'lar, shundan 2110 gektar yer maydoniga intensiv bog'lar barpo etish, 8518,8 gektar maydondagi bog'larni qayta ekish uchun rekonstruksiya qilish belgilangan.

Mamlakatimiz aholisini meva va sabzavotlar bilan yil davomida bir me'yorda ta'minlab borish uchun keng tarmoqli sovitish kameralariga ega bo'lgan omborlar tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 105-sonli qaroriga muvofiq, aholi va tashqi bozorlarga yil davomida muntazam meva-sabzavotlarni sof holda yetkazib berish maqsadida 2011–2015-yillarda 120,8 ming tonna sig'imga ega yangi sovitish kameralarini qurish va 49,1 ming tonna sig'imga ega mavjud sovitish kameralarini modernizatsiya qilish ko'zda tutilgan.

Qishloq xo'jaligida ekinlar hosildorligini muttasil yuksaltirish vazifasi, birinchi navbatda, sug'oriladigan yerlarning unumdorligi va irrigatsiya-melioratsiya holatiga bog'liq. Ilmiy tadqiqot ishlarining natijalariga ko'ra, o'rtacha sho'rlangan yerlarda ekinlarning hosildorligi sho'rlanmagan yerlarga nisbatan 50–60 foizga, o'ta sho'rlangan yerlarda esa 90–100 foizga past bo'lishi aniqlangan.

Hozirgi vaqtda yurtimizda jami sug'oriladigan yerlarning qariyb 49 foizi turli darajada sho'rlangan bo'lib, buning qariyb 18 foizi kuchli va o'rta darajada sho'rlangan yerlardir, 23 foizdan ortig'i boniteti past yerlar toifasiga kiradi. O'tgan yillar davomida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari hukumatimizning doimiy e'tiborida bo'lib keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 29-oktabrdagi «Yerlarning meliorativ holatini yaxshilashning tizimlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3932-sonli farmoniga muvofiq, «Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini 2008–2012-yillarda yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi» ishlab chiqildi. Dasturda meliorativ tizimlarni rivojlantirish va takomillashtirish hamda yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga yo'naltirilgan quyidagi tadbirlar majmuini amalga oshirish mo'ljallandi:

- 1) magistral va xo'jaliklararo zovurlar, meliorativ tik quduqlarni, meliorativ nasos stansiyalarini qurish va qayta tiklash, yopiq-yotiq drenajlarni tiklash;

2) meliorativ nasos stansiyalarini, gidrotexnika va suv o'tkazuvchi inshootlarni va boshqa meliorativ obyektlarni ta'mirlash – tiklash ishlarini amalga oshirish;

3) suv xo'jaligi qurilishi va suvdan foydalanish tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

6-jadval

Mamlakatimiz bo'yicha meliorativ tadbirlarga ajratilgan mablag'lar, milliard so'mda

Tadbirlar nomi	Jami 2008–2011- yillarda	Shu jumladan			
		2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011- y.
Meliorativ obyektlarni rekonstruksiya qilish va qurish ishlariga	225,1	22,4	57,3	63,8	81,6
Meliorativ obyektlarni ta'mirlash va tiklash ishlariga	222,9	38,6	48,1	59,2	77,0
Lizing asosida meliorativ texnikalar yetkazib berishga	101,9	29,3	25,4	27,2	20,0
Jami:	550,0	90,3	130,8	150,2	178,6

Qishloqda boshqaruv tuzilmalarini qayta tashkil etish. Prezidentimizning qishloq hayotiga oid ma'ruzalarini sinchiklab o'rganar ekanmiz, eng muhim yutuq sifatida mustaqillik yillarida fuqarolarimizda mulkka bo'lgan munosabatni o'zgartirish, dehqonlarimizda yerga egalik hissini shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi natijasi sifatida qishloq xo'jaligida tub burilishlar ro'y berganini kuzatish mumkin. Qishloq mehnatkashlarining dunyoqarashi o'zgarib, ularda tashabbuskorlik, tadbirkorlik, yer hamda suv resurslariga mas'uliyat va tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish fazilatlari yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklari amalda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy shakliga, uni barqaror rivojlantirishni ta'minlashda yetakchi harakatlantiruvchi kuchga aylanganligini ta'kidlash joiz. 2008-yilda respublikamizda 215 mingdan ortiq fermer xo'jaligi faoliyat yuritgan, ularda 1,6 million kishi yoki sohada band bo'lgan aholining qariyb 90 foizi mehnat qilgan, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining qariyb 85 foizi ana shu xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelgan. Qishloqda

bozor infratuzilmasi amalda yangidan barpo etildi, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish va rag‘batlantirish, sohani boshqarish tizimi sifat jihatdan mutlaqo yangicha tamoyillar asosida yo‘lga qo‘yildi.

Joylarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga xizmat ko‘rsatadigan bozor infratuzilmasi subyektlarining keng tarmog‘i yaratildi. Qishloq xo‘jaligi xom ashyosini kompleks qayta ishlashga ixtisoslashgan 200 dan ziyod agrofirma faoliyat ko‘rsatmoqda. Eng muhimi, qishloqda haqiqiy mulkdor – yer egasi paydo bo‘ldi, uning mehnatga munosabati, o‘z ishining natijalaridan manfaatdorligi butunlay o‘zgarmoqda.

Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirish dasturini amalga oshirish yuzasidan bajarilayotgan chora-tadbirlar bugungi kunda sezilarli natijalar bermoqda. Faqat 2007-yilning o‘zida qoramol boqish bilan shug‘ullanadigan 350 mingdan ziyod fuqaroga mehnat daftarchasi ochilgan bo‘lsa, 2009-yilning 1-yanvarigacha shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida qoramol boquvchi sifatida ro‘yxatga olingan fuqarolarning umumiy soni 1 million 100 mingdan ko‘proqni tashkil etdi. Shulardan 54 ming kishiga yangi mehnat daftarchasi berildi, 111 ming fuqaroning esa mavjud mehnat daftarchasiga ish staji tegishli tartibda qayd etildi. Bu esa ularning ijtimoiy va huquqiy himoyasini ta‘minlash imkonini berdi. Shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida qoramol boqish bilan band bo‘lganlar sifatida ro‘yxatga olingan fuqarolarning umumiy soni esa bir million nafardan oshib ketdi.

3. Qishloq xo‘jaligining mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdagi o‘rni

Odamlar uchun oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish dunyoda abadiy muammo bo‘lgan va doimo dolzarb bo‘ladi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hayotning birinchi sharti hisoblanadi. Shu bois, u doimo va o‘sib boruvchi hajmlarda amalga oshirilishi kerak, chunki sayyoramiz aholisi ortib bormoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligi bozordagi oziq-ovqat mahsulotlarining taklifi bilan aholi uchun maqbul narxlardagi joriy iste‘mol talabi o‘rtasida yetarlicha assortimentda muvozanat bo‘ladigan, shuningdek mahsulotlarning zarur zaxirasi yaratiladigan holati.

Inson va jamiyatning oziq-ovqat xavfsizligi ular hayotidagi asosiy muammodir. Shu bois, 1996-yil oxirida Rimda Butunjahon oziq-ovqat anjumani bo‘lib o‘tgan bejiz emas, unda 130 ta mamlakat ishtirok etdi va

«Yer aholisini qanday qilib boqish mumkin?» degan masala muhokama qilindi. Anjumanda gap asosan odamlar ochlikdan o‘layotgan, kam rivojlangan mamlakatlarga oziq-ovqatlar bilan yordam ko‘rsatish haqida bordi.

Ana shu maqsadda 2015-yilga borib dunyoda to‘yib ovqat yemayotgan odamlar sonini 2 baravar kamaytirish vazifasi qo‘yildi. Biroq 2002-yilning iyulida BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik tashkiloti (FAO) o‘tkazgan anjuman jahon hamjamiyati qo‘yilgan vazifalarni bajarmayotganini tan oldi. Statistik ma‘lumotlarga qaraganda, dunyoda har kuni 360 ta odam ochlikdan o‘lmoqda. Shu bois, oziq-ovqat xavfsizligi XXI asrda ham dolzarbligicha qolmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid deganda, oziq-ovqat bozorida oxirgi iste‘molchilar uchun noqulay vaziyat o‘zgarishlariga olib keladigan shart-sharoit va omillar majmui tushuniladi. Oziq-ovqat xavfsizligiga tashqi va ichki tahdidlar ta‘sir ko‘rsatadi. Oziq-ovqat xavfsizligiga tahdidlarning tashqi shart-sharoitlari iqtisodiyotning ochiqligi omili bilan bog‘liq. Ichki tahdidlar mamlakat iqtisodiyoti doirasida hosil bo‘ladigan ommaviy talab va ommaviy taklif o‘zgarishlarini nazarda tutuvchi ichki omillar ta‘sirida yuzaga keladi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari taklifi nuqtai nazaridan bozor vaziyatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri iqtisodiyot agrar sektorining beqaror faoliyat ko‘rsatishi va buning oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta‘sir etishidir.

O‘zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligi. O‘zbekistonning Konstitutsiyasini atroflicha o‘rgangan inson O‘zbekiston siyosati insonning munosib hayoti va erkin rivojlanishini ta‘minlaydigan sharoitlarni yaratishga qaratilgan davlat ekanligiga iqrar bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, oziq-ovqat xavfsizligi odamlar hayotini ta‘minlashda asosiy o‘rin tutadi, u birinchi navbatda, insonning asosiy huquqi uning mavjudligini ta‘minlashga bo‘lgan huquqini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy yo‘nalishni aks ettiradi.

Oziq-ovqat xavfsizligi milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismidir, chunki u asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining barqaror ishlab chiqarilishi va aholining undan foydalana olishini ta‘minlaydi.

Ma‘lumki, mustaqil O‘zbekistonda hozirgi zamon qishloq xo‘jaligini isloh qilishning muhim siyosiy xususiyati mavjud. Ana shu xususiyatni ko‘zda tutgan holda davlatimiz rahbari shunday deb ta‘kidlagan: «Bugun shuni chuqurroq anglamoqdamizki, umuman jamiyatimizning yangilanishi samaradorligi, mamlakatimizdagi demokratik jarayonlarning rivojlanishi darajasi qishloq xo‘jaligini isloh qilishning qanchalik muvaffaqiyatli kechayotganligiga, bu jarayon qishloq hayotining barcha

jabhalariga qanchalik chuqurroq singib borayotganligiga bog‘liq»¹. Qishloq xo‘jaligini isloh qilishning fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi aytib o‘tilgan siyosiy omili tarkibida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va xalq farovonligini oshirish masalalarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ushbu masalalar davlatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» davlat dasturini ishlab chiqish, uni amalga oshirishda ko‘p sonli jamoat institutlari ishtiroki borasida: «2009-yilning «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb e’lon qilinishidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan keng ko‘lamli va chuqur islohotlar mohiyatini barchamizga ma’lum oddiy bir haqiqat bilan ifodalash mumkin: qishloq rivoj topsa dasturxonimiz noz-ne’matlarga to‘ladi, turmushimiz sifati ortadi. Oqibat natijada oziq-ovqat xavfsizligi va xalqimizning farovonligi o‘sishi uchun ishonchli va barqaror zamin yaratiladi, mamlakatimizning qiyofasi tubdan o‘zgaradi»², – deb ta’kidlaganida taraqqiyotning bardavomligini sezmaslik, ko‘rmaslik mumkin emas.

Ma’lumki, «oziq-ovqat xavfsizligi» zamonaviy iqtisodiy, huquqiy va siyosiy fanlarning fundamental tushunchalaridan biridir. Ushbu tushuncha «oziq-ovqat bilan ta’minlanganlik» tushunchasining sinonimi bo‘lib, ayni paytda BMTning rasmiy terminologiyasiga muvofiq «oziq-ovqat siyosati», «oziq-ovqat rejalashtirilishi», «oziq-ovqat ta’minoti», «oziq-ovqat ehtiyojlari», «oziq-ovqat rezervlari», «oziq-ovqat resurslari» kabi turdosh atamalar bilan uzviy bog‘liq. Bundan ko‘rinadiki, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning doirasi birmuncha keng.

Oziq-ovqat xavfsizligi muammolari umuman butun dunyoda va xususan, ayrim hududlarda bugun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada misol sifatida shuni qayd etish mumkinki, g‘allaning jahon narxi 2006-yilga nisbatan o‘rta hisobda ikki baravar, sabzavotlarning narxi ikki baravardan ziyod oshgan³. Bunday sharoitda anglanadiki, ichki iste’mol bozorini mamlakatimizdagi yetishtiriladigan

¹ Каримов И. А. Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш – халқ фаровонлиги манбаидир // Ўзбекистон Республикаси Президенти матбуот хизматининг Веб-сайти – www/press-service.uz;

² Каримов И. А. Ўзбекистон халқига янги-йил табриги // Ўзбекистон Республикаси Президенти матбуот хизматининг Веб-сайти – www.press-service.uz.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Озиқ-овқат экинлари экиладиган майдонларни оптималлаштириш ва уларни етиштиришни кўпайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2008-йил 20-октябрь ПФ-4041-фармониغا шарҳ // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлигининг веб-сайти – www.uza.uz;

oziq-ovqat mollari bilan uzluksiz va ishonchli ta'minlash, ularning hajmini va turlarini ko'paytirish, sifatini oshirish masalalari dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlarining oziq-ovqat ta'minotidagi ishtiroki nimalarda ifodalanadi? Bir necha misol keltiramiz.

O'zbekistonda qadimdan sug'orish tizimi mavjud bo'lgan. Sug'oriladigan dehqonchilik respublikamiz oziq-ovqat mustaqilligining asosi hamda asosiy eksport mahsulotlari manbaidir. Mamlakatimizda, ayniqsa, mustaqillik yillarida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish, moliyalash mexanizmlarini takomillashtirishga tizimli, izchil va boqichma-bosqich e'tibor qaratib kelinmoqda. Davlatimiz rahbarining 2007-yil 29-oktabrdagi «Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni bu borada muhim dasturilamaldir. Uni amalga oshirish doirasida jamoat tashkilotlari (O'zbekiston Fermer xo'jaliklari assotsiatsiyasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa tashkilotlar) tomonidan *irrigatsiya, melioratsiya, agrosanoat sohalari mutaxassislarining malakasini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar* bajarilmoqda.

Bu boradagi faoliyat suv resurslari taqchilligi kabi muammoni yengib o'tishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish, ulardan oqilona foydalanish qishloq xo'jaligining izchil rivojlanishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash barobarida odamlarning salomatligini, atrof-muhit muhofazasini yaxshilashga, ekologik barqarorlikni saqlashga ko'maklashadi. Mazkur taqchillikni yengib o'tishda, fuqarolik jamiyatini ushbu jarayonga jalb etishda *ko'rib chiqilayotgan mavzuga bevosita aloqador bo'lgan qonunlarni, masalan, O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunini amalga oshirish jarayoni bo'yicha jamoatchilik tinglovi* muhim ahamiyatga ega. Bunday tinglovlar Oliy Majlis Senati, davlat va jamoatchilik tuzilmalari rahbarlari, olimlar, ekologlar, suv muammolari bo'yicha mutaxassislar ishtirokida o'tkaziladi.

Ma'lumki, suv resurslarini barqaror boshqarishni ta'minlash bevosita yerdan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi muammolarning hal qilinishi bilan bog'liq. Shu sababli yuqorida ko'rsatib o'tilgan sohalarga oid *qonunchilikning yanada takomillashtirilishi, yangi qonun loyihalarining jamoatchilik ekspertizasi, agromadaniyatni yanada oshirish bugungi kunning muhim talabidir. Ushbu ishlarda nafaqat davlat tashkilotlari, balki jamoat tashkilotlari, iqtisodiy tuzilmalar va fuqarolar*

ham ishtirok etishi zarur. Fuqarolik jamiyati institutlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining amaliy hamkorligiga, Ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi va «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasining «Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumani Uchsoy qo‘rg‘oni aholisini ichimlik suvi bilan ta‘minlash» qo‘shma loyihasi yaqqol misol bo‘la oladi. Loyiha Mo‘ynoq–Uchquduq suv quvuri qurilishini yakunlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, shu maqsadda temirbeton rezervuarlar o‘rnatiladi, nasos stansiyasi, markaziy suv quvuri va xo‘jaliklararo suv quvurlari quriladi.

Ma‘lumki, Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini ko‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturida ularning barqaror faoliyatini ta‘minlash, eksport salohiyatini oshirish, o‘z mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha ko‘zda tutilgan qo‘shimcha choralar ichki manbalar hisobidan mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash uchun ishonchli zaxiralarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa jahon bozorlarida asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxi oshishi sharoitida alohida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida, bular vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish va aholining, ayniqsa, yoshlarning iqtisodiy madaniyatini oshirish bo‘yicha yangi, qo‘shimcha majburiyatlarni keltirib chiqaradi.

2007-yilning fevralida Toshkent shahrida bir qator jamoat tashkilotlari tomonidan uyushtirilgan «Qishloq xo‘jaligi tadqiqotlarini ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishishga qayta yo‘naltirish: xalqaro va mintaqaviy tajriba» mavzuidagi xalqaro ekoforumda deklaratsiya qabul qilindi. Undan oziq-ovqat xavfsizligi, o‘rimdan keyingi ishlov berish texnologiyasi, foydani oshirish uchun qo‘shimcha qiymatni yaratish, ekinlarning hosildorligini oshirish, kompleks dehqonchilik yondashuvlarini ishlab chiqish, qishloq xo‘jaligi aylanmasida Orol dengizining qurigan o‘zanidan foydalanish maqsadida tadqiqotlar olib borish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha tavsiyalar o‘rin olgan. Bunga, shuningdek, *qimmatli genetik resurslarni saqlash, tabiiy resurslardan ekologik samarali foydalanish, mintaqaviy va xalqaro miqyoslarda ijtimoiy-iqtisodiy ilmiy tadqiqotlar olib borish va hamkorlik* kabi masalalar kiritilgan. Bular O‘zbekistonda yaratilgan ekologik harakat vazifalari hisoblanadi.

«Qishloq xo‘jaligida islohotlarni o‘tkazishdan ko‘zlangan bosh maqsad odamlarda yerga egalik, mulkchilik hissini shakllantirish orqali xalqimizning farovonligini yanada oshirishdan iborat», – deb ta‘kidladi davlatimiz rahbari «Uzbekistan Agriminitech Expo» ko‘rgazmasiga tashrif buyurgan chog‘da. – Zero, moddiy manfaatdorlik odamlarni yangi tashabbuslarga va yutuqlarga rag‘batlantiradi. Ko‘rgazma savdo davomida

zamonaviy texnika va texnologiyalarni xarid qiluvchi fermerlarimiz shuni nazarda tutishlari zarurki, ular sarflagan har bir so‘m ertaga o‘n baravar foyda keltirishi zarur».

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar. Keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining real tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash tadbirlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada Prezident Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli: «Ming afsuski, biz modernizatsiya deganda, ko‘pincha sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishni tushunishga o‘rganib qolganmiz. Holbuki, sanoat bilan bir qatorda iqtisodiyotimizning qishloq xo‘jaligi kabi yetakchi sohasini ham modernizatsiya qilish, uning tarkibiga kiradigan deyarli barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohaslarining butun kompleksida texnik va texnologik ishlarini amalga oshirishga katta ehtiyoj sezilmoqda». Demak, agrar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangi bosqichga ko‘tarish masalalari shu kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylantirmoqda. Shu munosabat bilan Prezident Islom Karimov tomonidan chorvachilik, g‘allachilik, kartoshkachilik kabi sohalarda ilg‘or mamlakatlar tajribalarini o‘rganish va amalda qo‘llash, bizning iqlim sharoitimizda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadigan zamonaviy sug‘orish tizimlari, energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiya va agrotexnologiyalarni o‘rganish, urug‘chilik-seleksiya ishlarini yanada takomillashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mahsuldorligini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish vazifasi qo‘yilgan edi.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish orqali tarmoqni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan «Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da bayon etilgan. Ushbu konsepsiyada belgilab berilgan ustuvor vazifalar asosida O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan dasturda 2011–2015-yillar mobaynida:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,3 -marta oshirish, uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 17,5 foizdan 13,5 foizga pasaytirish;
- qishloq xo‘jaligida ilg‘or agrotexnologiyalar, resurslarni tejaydigan usullarni joriy etish, seleksiya va urug‘chilik tizimini rivojlantirish hisobidan ekinlar hosildorligini oshirish ko‘zda tutilgan. Bunda mineral

o'g'itlardan foydalanish samaradorligini 15 foizga oshirish, suv sarfini 12 foizga kamaytirish;

- meva-sabzavot tayyorlashni 1,5 barobar, kartoshka yetishtirishni 1,4 barobar, poliz va uzumni 1,3 barobar ko'paytirish;

- naslchilik ishlarini takomillashtirish, ozuqa bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalar va modernizatsiya natijasida naslchilik xo'jaliklari sonini 2,5 barobar, ozuqa ekinlari maydonini 1,3 barobar oshirish;

- zooveterinariya punktlarini zamonaviy jihozlash, xizmatlar sifatini oshirish hisobidan chorva mollari sonini 1,3 barobar, go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,3 marta oshirish;

- parrandachilik va baliqchilik tarmoqlari rivojiga alohida ahamiyat qaratib, parrandalar sonini 1,8 marta oshirib, 670 ta baliqchilik xo'jaligi tashkil etish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash quvvatlarini va qayta ishlash hajmini kengaytirish tadbirlari doirasida qishloqlarda zamonaviy minitexnologiyalar negizida qayta ishlash korxonalarini ishga tushirish orqali meva-sabzavot konservalari ishlab chiqarishni 1,7 barobar, go'sht konservalarini 2,2 barobar, kolbasa mahsulotlarini 1,8 barobar, sut mahsulotlarini 1,9 barobar oshirish;

- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi mablag'lari hisobidan meliorativ inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, tomchilatib sug'orish tizimini yo'lga qo'yish va melioratsiya texnikalarini xarid qilish bo'yicha qariyb 500 million dollarga teng bo'lgan loyihalar hisobidan 1,4 million gektar yer maydonining meliorativ holatini yaxshilash;

- qishloq xo'jaligi texnikasi parklarini kengaytirish, ularni sifat jihatdan yangilash, fermerlarni unumli qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlash, xizmat sifatini yaxshilash kabi strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim prognoz vazifalari belgilangan.

3. O'zbekiston agrosanoat kompleksining mohiyati.

Uning mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni

Agrosanoat kompleksi – oziq-ovqat mahsulotlari (va boshqa qishloq xo'jalik tovarlari) ishlab chiqarish hamda ular bilan aholini ta'minlash, qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi xalq xo'jaligi

tarmoqlarining majmui. Agrosanoat kompleksi (ASK)ning shakllanishi hozirgi fan-texnika inqilobining rivojlanishi bilan bog'liq. ASKning tuzilishi ixtisoslashuv, kooperatsiya, modernizatsiya va diversifikatsiya zamonaviy fan-texnika inqilobiga xos jarayonlarni uyg'unlashtirishga asoslangan.

ASKning ishlab chiqarish va iqtisodiy tizimi uchta asosiy sohaga bo'linadi.

Birinchi soha – ASKni ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi sanoat tarmoqlari. U qishloq xo'jaligi va ASKning boshqa tarmoqlarida ishlab chiqarishni industrilashtirish va jadallashtirish (intensivlashtirish)ni belgilab beradi.

Ikkinchi soha – ASKning markaziy bo'g'ini bo'lgan qishloq xo'jaligi.

Uchinchi soha – qishloq xo'jaligi xom ashyosining tayyorlanishi, tashilishi, saqlanishi, qayta ishlanishi va tayyor mahsulotning sotilishini ta'minlaydigan oziq-ovqat, sut, go'sht tarmoqlari hamda omixta yem sanoatini qamrab oladi.

ASKni rivojlantirishning muhim sharti uchala sohaning mutanosibliigi, muvozanatlashganidir. Ta'kidlash lozimki, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda oxirgi mahsulot qiymatining asosiy qismi uchinchi sohada yaratiladi. Masalan, AQShda uning ulushi mahsulot chakana qiymatining 80 foiziga yetadi. Oxirgi mahsulotning eng katta qismi oziq-ovqat kompleksida yaratiladi. Uning hissasiga qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan butun mahsulotning 75 foizidan ortig'i, asosiy ishlab chiqarish fondlarining 80 foizidan ortig'i va xodimlarning 80 foiziga yaqini to'g'ri keladi.

Takror ishlab chiqarish jarayonida qishloq xo'jaligi va sanoat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik alohida rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligining bosh vazifasi aholining oziq-ovqatga, sanoatning esa xom ashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirishdir. Qishloq xo'jaligining xususiyati, uning yuritilishi yerdan, ya'ni ishlab chiqarishning bosh vositasi va tabiiy muhitdan foydalanish bilan bog'liq. U biologik omillar, o'simlik va hayvonlardan foydalanishga asoslanadi. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish fondlari o'z mahsuloti hisobidan shakllantiriladi (urug'lar ziroatchilikda, yem-xashak chorvachilikda). Yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, omixta yem ishlab chiqarish va boshqa tarmoqlardagi xom ashyoning yarmi qishloq xo'jalik mahsulotlariga to'g'ri keladi, qishloq

xo'jaligi xarajatlarida sanoat mahsulotlarining ulushi esa 40 foizni tashkil qiladi.

Jahon Savdo tashkilotining qishloq xo'jaligi bo'yicha asosiy hujjati «*Urugvay raundi*» hisoblanadi. Unda ushbu tashkilot a'zolarining ASKni davlat ichida qo'llab-quvvatlash bo'yicha majburiyatlari tartibga solingan, davlat siyosati yo'nalishlari tasniflangan.

Davlatning iqtisodiy roli hatto liberal xo'jalik tizimlarida (AQSh, Avstriya, Yangi Zelandiyada) YAIMning 30–35 foiziga yetadi, ijtimoiy bozor xo'jaligiga asoslangan davlatlarda (GFR, Fransiya, Shvetsiyada) esa YAIMning 50–60 foiziga teng keladi. Rossiyada qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash YAIMning 0,8 foiz ini tashkil qiladi. Mutlaq raqamlarda Rossiyada bir gektar qishloq xo'jalik maydoniga davlat yordami 9,5, Yevropa Ittifoqida esa 801 dollarga teng.

MDH mamlakatlarida va yetakchi G'arb mamlakatlarida qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda keskin farq kuzatiladi. Masalan, AQShda davlat yo'llar, meliorativ infratuzilma, elektr uzatish simlari va telefon tarmoqlari qurilishiga ko'p milliard dollar sarflaydi, agrar fanni va uning yutuqlarini amaliyotga joriy etishni subsidiyalashtiradi. Tuproqni himoya qilish tadbirlarini zimmasiga oladi, ishlab chiqariladigan mahsulotning deyarli yarmiga narxlarni kafolatlaydi, bu bilan fermerlarning jamg'armalari va daromadlarini saqlab qoladi. AQShda 70 yil mobaynida erkin fermerlar davlat boshqaruvi sharoitida ishlamoqdalar. Davlat boshqaruviga asos solgan birinchi qishloq xo'jalik qonuni 1933-yilda (Buyuk depressiya davrida) paydo bo'lgan. 2009-yilda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» davlat dasturi qabul qilindi. Ushbu dastur mamlakatimiz qishloq xo'jaligining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytiradi.

Boshqa rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligiga ajratiladigan dotatsiyalar hajmi yanada katta. Kanadada 2004-yilda dotatsiyalar qishloq xo'jaligida band bo'lganlar umumiy daromadining 33 foizini, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 35, Yaponiyada 39, Shveysariyada 60 foizni tashkil qildi. Yevropa mamlakatlarida dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash uchun texnika sotib olishga sarflanadigan imtiyozli davlat kreditlari va ssudalari beriladi.

O‘zbekistonda agrosanoat kompleksi.

Xo‘sh, hozirgi O‘zbekistonda ASK muammolari nimalardan iborat?

Ma‘lumki, qishloq xo‘jaligining asosini quyidagilar tashkil qiladi:

- yer;
- moddiy-texnik baza;
- kadrlar.

Ta‘kidlash muhimki, ushbu tarkibiy qismlarning barchasiga O‘zbekistonda alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz hududining asosiy qismida «paxta yakkahokimligi» natijasida ekin ekiladigan yerlarning haydaladigan qatlamida gumus muvozanati salbiydir. Qishloq xo‘jalik yerlarining agroekologik holati yomonlashdi, tuproq unumdorligi pasaydi, tuproqlarning boniteti qisqardi. Davlatning agrar ishlab chiqarishni tartibga solish bilan shug‘ullangani bois, ASKni budjetdan moliyalashtirish so‘nggi yillarda oshib bormoqda.

«Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar. 2009-yilda tasdiqlangan «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o‘zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog‘liq keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o‘rni va ahamiyatini tubdan qayta ko‘rib chiqish, fermer xo‘jaliklari rivojini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Darhaqiqat, mamlakatimizda qishloqlarimiz qiyofasini o‘zgartirish, agrosanoat majmuida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, qishloq aholisining hayot darajasi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy saviyasini oshirish mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab e‘tiborimiz markazida bo‘lib kelayotgan ustuvor masala hisoblanadi. Shunga ko‘ra, 2009-yil yurtimizda «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb nomlanib, bu borada maxsus davlat dasturi qabul qilingan edi. Prezident Islom Karimov 2009-yilning 5-dekabridagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasida mazkur dastur doirasida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar to‘g‘risida batafsil to‘xtab o‘tdi.

Ma‘lumki, «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi 105 ta bandni o‘z ichiga oluvchi 9 ta bo‘limdan iborat (7-jadval).

**«Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturining
asosiy yo‘nalishlari**

Bo‘limlar	Dasturning asosiy yo‘nalishlari
I	Qishloqda yashovchilarning manfaatlarini yanada to‘liqroq ta‘minlash uchun qonunchilik va me‘yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va mustahkamlash.
II	Qishloqda uy-joy va ijtimoiy soha obyektlarini qurishni loyihalashtirish, qishloq aholi punktlarini me‘moriy rejalashtirishni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish.
III	Qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish asosida qishloqda turmush sifatini oshirish.
IV	Mahalliy qurilish materiallarini ishlab chiqarishni kengaytirish, mahalliy materiallardan yig‘ma konstruksiyalardan foydalangan holda qishloqda industrial va yig‘ma texnologiyaga qurilishini joriy qilish.
V	Elektr energiyasi bilan ta‘minlovchi mavjud korxonalarni rekonstruksiya qilish va yangilarini qurish hisobidan qishloqni kafolatlangan elektr energiyasi bilan to‘xtovsiz ta‘minlash uchun sharoitlar yaratish.
VI	Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish, fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, imtiyozlar berish, qishloqda shakllanadigan yangi mulkiy munosabatlarni, o‘rta tabaqa – mulkdorlarning, tadbirkorlarning va ishbilarmonlarning manfaatlarini ishonchli himoya qilish.

Dasturning prinsipial ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi yo‘nalishlariga:

birinchidan, mazkur dastur ijrosi bilan bog‘liq qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va mustahkamlash, yangi qonunlar qabul qilish, tegishli qonun hujjatlariga, Yer kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish zarur. Qishloqda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona foydalanishni tartibga solish va sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash masalalariga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Ikkinchidan, dasturda belgilangan vazifalar orasida qishloqlarimizda turmush sharoitini, uning sifatini tubdan yuksaltirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish prinsipial muhim va hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Buning uchun qishloq aholi punktlarini me‘moriy

jihatdan loyihalashtirish va qurish ishlarini tashkil etish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish lozim. Hududlarning me'moriy-loyihaviy qurilishi bosh rejalari ishlab chiqilishini ta'minlash, mintaqalarning iqlimi, demografik holati va boshqa shart-sharoitlarini hisobga olgan holda, qishloq uylari va ijtimoiy inshootlarning unifikatsiya qilingan namunaviy loyihalarini tayyorlash darkor.

Bu vazifalarni bajarish uchun maxsus «Qishloq qurilish loyiha» tadqiqot instituti tashkil etildi.

Uchinchidan, dasturning asosiy vazifasi – qishloqda sanoat ishlab chiqarishi va qurilishni jadal rivojlantirish, meva-sabzavot va chorva mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnika hamda texnologiyalar bilan jihozlangan ixcham korxonalarni tashkil etish chora-tadbirlarini amalga oshirishdan iborat.


To'rtinchidan, 2008–2012-yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturida ko'zda tutilgan chora-tadbirlar tizimining izchil amalga oshirilishiga, ya'ni ekin maydonlarining meliorativ ahvolini yaxshilash, faoliyat ko'rsatayotgan irrigatsiya-melioratsiya obyektlarining tegishli texnik holatini ta'minlash, ixtisoslashgan suv xo'jaligi, qurilish va ekspluatatsiya tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy texnika bilan jihozlash masalalariga alohida e'tibor qaratish darkor.

Qishloq xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish, sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, eng muhimi, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini yuksaltirish, yurtimizni obod etish yo'lida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan fermerlik harakatining samarasini yanada oshirish maqsadida yirik ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» dasturi doirasida erning unumdorligini oshirish, uning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha ham salmoqli natijalarga erishildi. Jumladan, dastur doirasida 10 ming kilometrdan ortiq zovurlar, salkam 1000 kilometrlik drenaj tarmoqlarini ta'mirlash va tiklash ishlari bajarildi, 250 ta drenaj quduqlar, 15 ta melioratsiya nasos stansiyalari va inshootlari qurildi hamda ko'plab suv inshootlari rekonstruksiya qilindi, 50 kilometr uzunlikdagi yangi kanallar va boshqa ob'ektlar qurilishi yakuniga etkazildi. O'tgan yili yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun 130 milliard so'm mablag' yo'naltirildi.

Natijada 240 ming gektardan ortiq sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati yaxshilandi va bu qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini, fermer xo'jaliklarining daromadini oshirish imkonini beradi. Shuni

ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda ushbu yo'nalishdagi ulkan loyihalarni amalga oshirishda Osiyo Taraqqiyot banki va Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Koreya va bir qator arab mamlakatlarining moliya institutlari tomonidan ajratilgan sarmoyalar katta hissa bo'lib qo'shildi.

Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish shoxobchalari va muassalarining faoliyati, servis xizmati tobora rivojlanib bormoqda. E'tiborli jihati, an'anaviy maishiy xizmatlar bilan bir qatorda zamonaviy telekommunikasiya tizimlari, xususan, internet, uyali aloqa, kompyuterda turli xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga oladigan yangi servis shoxobchalari jadal rivojlanmoqda va aholiga xizmat qilmoqda.



Yuqoridagi chizmadan ko'rinadiki, bu masalalarning barchasi inson salomatligi bilan bog'liq. Bu borada 2009-yilda respublikamizdagi barcha tumanlarning markaziy shifoxonalari umumiy qiymati 12 million dollar bo'lgan tibbiy anjomlar, 44 ta «UAZ» sanitariya mashinasi, 280 ta «Damas-ambulans» tez yordam mashinasi bilan ta'minlandi, qishloq vrachlik punktlariga 1 million dollar miqdorida tibbiy laboratoriya anjomlari etkazib berildi.

Yil davomida 3 million 750 ming nafar qishloq aholisi malakali tibbiy ko'rikdan, 22 ming nafardan ziyod homilador ayol maxsus skrining tekshiruvidan o'tkazildi, 400 ming nafar bemor shifoxonalarda davolanib, o'z salomatligini mustahkamladi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi doirasida olis qishloq va ovullarda ham yagona namunaviy loyiha va mezonlar asosida lisey va kollejlari, maktablar qurildi. Buning natijasida barcha qishloq bolalarining zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga ega bo'lishi, eng muhimi, ularning mamlakatimizdagi oliy o'quv yurtlariga kirib ta'lim olishiga munosib sharoitlar yaratildi.

2009-yilda bu boradagi ishlar yangi bosqichga ko'tarilib, yurtimiz bo'yicha jami 1 ming 957 ta maktab qurilgan va rekonstruksiya qilingan bo'lsa, ularning 1 ming 622 tasi aynan qishloq joylarda ekani diqqatga sazovordir. Shular qatorida 2009-yilda barpo etilgan 214 ta akademik lisey va kasb-hunar kollejining 170 tasi qishloq tumanlarimizda bunyod etilgani va rekonstruksiya qilinganini ta'kidlash lozim. Aynan qishloq joylardagi ana shu bilim dargohlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlash uchun jami 895 milliard so'm mablag' sarflandi.

«Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» dasturi o'z ko'lami, ahamiyati va mohiyati bilan bugungi kunimiz va ertangi kelajagimizning nafaqat moddiy tomonlarini, ayni paytda madaniy va ma'naviy saviyamizni oshirish, muxtasar aytganda, butun hayotimizni yuksaltirishga qaratilgan bo'lib, hech shubhasiz, mamlakatimiz tarixida munosib o'rin egallashi muqarrar.

Tayanch tushunchalar:

Agar munosabatlar, qishloq xo'jaligi, yerga egalik qilish, yerdan foydalanish huquqi, fermer, fermer xo'jaligi, fermerlik harakati, agrobiznes, yer islohoti, renta, differensial renta, absolut renta, agrosanoat intergatsiyasi.

Savol va topshiriqlar:

1. Bozor munosabatlari agrar tizimga nimalarni kiritadi?
2. Yerning boshqa resurslardan qanday farqi bor?
3. Renta munosabati deganda nimani tushunasiz?
4. Absolut rentaning differensial rentadan farqini tushuntiring.
5. Differensial rentaning hosil bo'lish mexanizmi qanday?
6. Nima sababdan monopol renta yo'qolib ketishi mumkin?
7. Ijara haqining tarkibi qanday?
8. Qishloqlarning qiyofasi deganda nimani tushunasiz? Uni o'zgartirish nimalarni taqozo etadi?
9. Mamlakatimizda qishloq aholisining turmush sharoitini zamon talablariga moslashtirish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
10. Qishloq infratuzilmasi nima? 2012-yilda uni rivojlantirish borasida qanday natijalarga erishildi?
11. Yer unumdorligini oshirish, uning meliorativ holatini yaxshilash borasida erishilgan natijalarni izohlang.
12. Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis shoxobchalari faoliyatining ahamiyati qanday?
13. Qishloqda turmush madaniyati va sifatini oshirish borasida qanday ishlar amalga oshirilayotgani to'g'risida gapiring.

Mavzuni chuqur o'rganish instrumentariysi

Agrar munosabatlar – bu yerga egalik qilish, uni tasarruf etish va undan foydalanish bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir. Agrar munosabatlar qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi.

Yerga egalik qilish – tarixan tarkib topgan an'analar yoki qonuniy asosda belgilangan tartibda yerga egalik huquqining tan olinishini bildiradi.

Yerdan foydalanish huquqi – bu o'rnatilgan urf-odatlar, udumlarga ko'ra yoki qonuniy tartibda ularning doimiy va muddatli foydalanish uchun berilishini bildiradi.

Ijara munosabatlari – yerdan haq to'lash sharti bilan ma'lum muddatda foydalanish yuzasidan kelib chiqadigan iqtisodiy aloqalar.

Renta – yerdan foydalanganlik uchun uning egasiga to'lanadigan haq.

Renta – yerga bo'lgan mulkning iqtisodiy sivilizatsiyasi, ya'ni amalga oshishi.

Absolut renta – yer uchastkalarining sifatidan qat'i nazar, yer mulk bo'lgani uchun uning egalari oladigan renta.

Differensial (tabaqalashgan) renta – yerning sifatiga qarab olinadigan va rentaning absolut rentadan ortiqcha bo'lgan qismi.

Differensial renta I – tuproqning tabiiy hosildorligiga va yer uchastkasining joylashuviga qarab olinadigan renta.

Differensial renta II – tuproqning iqtisodiy hosildorligi natijasi bo'lib, yerga qo'shimcha mablag' sarflab, unga ishlov berish orqali hosildorlikni oshirish natijasida olingan renta.

Monopol renta – alohida tabiiy-iqlim sharoitiga ega bo'lgan, o'ta noyob mahsulot yetishtiradigan yer uchun uning egasiga to'lanadigan renta. Faqat ana shunday yerlarda kamyob mahsulotlar (masalan, choy, kofe, sitrus o'simliklari mevasi, maxsus yog'och – qizil yog'och) yetishtiriladi.

Agrobiznes deganda, qishloq xo'jaligi sohasidagi biznes (tadbirkorlik) tushuniladi va u bozor tizimining tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi.

Melioratsiya – yerning unumdorligini tubdan yaxshilashga qaratilgan tashkiliy-xo'jalik, muhandislik va agrotexnik tadbirlar turkumi.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi aniq va ravshan belgilab olindi. Mazkur strategiya zamirida qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, paxta yakkahokimligiga barham berish, yurtimiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlari,

birinchi navbatda, g'alla bilan ta'minlash, oziq-ovqat mustaqilligiga erishish vazifalari belgilandi.

2. Agrar islohotlar hamma joyda bozor munosabatlarini joriy qilish va xususiy mulk shaklini rivojlantirishga qaratildi.

3. O'zbekistonda agrar sohadagi islohotlar natijasida xususiy fermer xo'jaliklari shakllandi. Zarar ko'rib ishlayotgan va samarasi past xo'jaliklar tugatildi. Ularning yerlari uzoq muddatli ijaraga, xususiy fermer xo'jaliklariga umrbod meros huquqi bilan berildi.

4. Agrar sohadagi islohotlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Ishlab chiqarish hajmi o'sdi. Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va chorva mahsuldorligining oshishiga erishildi. Yerlarning meliorativ holati yaxshilandi.

17-MAVZU. AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI

1. Daromadlarning iqtisodiy mazmuni

Prezidentimiz Islom Karimovning ta'kidlashicha, «odamlarning dasturxonida, oilaviy ahvolda, ro'zg'or tebratishida, umuman, kundalik hayotida ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmasa, bu aholining haqli e'tirozi va noroziligiga olib kelishi tabiiy hol»¹. Buni hal etish zarurati bozor iqtisodiyotining ijtimoiy jihatlarini o'rganish, daromadlar va turmush darajasini atroflicha tahlil etishni talab qiladi. Davlatimiz rahbarining yangi hayotni eskicha qarash bilan qurib bo'lmaydi, degan fikridan kelib chiqqan holda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq eskicha qarashlardan xoli bo'lgan ijtimoiy yo'nalishni rivojlantirishga qaratilgan konsepsiya ishlab chiqildi va uning asosida turmush darajasini yanada yuksaltirishga e'tibor qaratildi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish birlamchi ahamiyat kasb etsa-da, uning natijasi daromad foyda shaklida bozorda yuzaga chiqadi, chunki bozor qoidalari resurslar sarfi samarasiga ko'ra daromadlarga ega bo'lishni ta'minlaydi. Demak, aholi turmush

¹ *Каримов И. А. Янги ҳаётни эскича қараш ва ёндашувлар билан қуриб бўлмайди // Халқ сўзи. – 2005. – 17 февр.*

darajasining yuksalishi bozor qoidalari orqali topiladigan daromadlarga bog‘liq bo‘lib qoladi. Shuning uchun bozor tizimining ijtimoiy mo‘ljali, daromadlar, ularga ta’sir etuvchi omillar va turmush darajasining tabaqalanishi masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Daromadlar cheklangan resurslarni naqadar samarali ishlatish darajasiga bog‘liq bo‘lsa-da, daromadning o‘zi mazmunan iqtisodiy manfaatni anglatadi. Darhaqiqat, iqtisodiy subyektlarning manfaati daromadlarda mujassamlanadi. Shu bois daromadga ega bo‘lish uchun mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Chunki mulk egalari iqtisodiy munosabatlarga kirishib, o‘z manfaatlarini himoya qilishga intiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda daromad rag‘batlantiruvchi iqtisodiy mazmunga ega bo‘ladi. Daromad boylik manbai, boylik esa o‘rtacha mulkdorlar sinfining shakllanishida moddiy zamin tayyorlaydi. Mulk insonlarni iqtisodiy faollikka undaydi.

Aholi daromadlari deyilganda, ularning ma’lum vaqt oralig‘ida (masalan, bir yilda) pul va natural shakllarida olgan daromadlari miqdori tushuniladi. Aholi iste’mol darajasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularning daromadlari darajasiga bog‘liq bo‘ladiki, bu daromadlarning aholi turmush darajasidagi rolini belgilab beradi.

Aholi pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog‘ozlar, ko‘chmas mulk, qishloq xo‘jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko‘rsatishdan kelib tushadigan daromadlarni o‘z ichiga oladi.

Natural daromad mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo‘jaliklarining o‘z iste’mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlardan iborat bo‘ladi. Jamiyat a‘zolari daromadlari darajasi ular turmush farovonligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanib, shu bilan birga alohida shaxslarning dam olishi, bilim olishi, sog‘ligini saqlashi, eng zarur ehtiyojlarini qondirishi imkoniyatlarini belgilab beradi. Aholi daromadlari darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillar orasida ish haqidani tashqari chakana narx dinamikasi, iste’molchilik bozorining tovarlar bilan to‘yinganlik darajasi kabilar muhim o‘rin tutadi.

Aholi daromadlari darajasiga baho berish uchun nominal, ixtiyorida bo‘lgan va real daromad tushunchalaridan foydalaniladi.

Nominal daromad – aholi tomonidan ma’lum vaqt oralig‘ida olingan pul daromadlari miqdori hisoblanadi.

Ixtiyorida bo‘lgan daromad – shaxsiy iste’mol va jamg‘arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo‘lgan daromad. Bu daromad nominal daromaddan soliqlar va majburiy to‘lov summasiga kam bo‘ladi.

Real daromad – narx darajasi o‘zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadga sotib olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdorini ko‘rsatadi.

Aholining nominal pul daromadlari turli manbalar hisobiga shakllanib, ulardan asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- a) ishlab chiqarish omillari hisobiga olinadigan daromad;
- b) davlat yordam dasturlari bo‘yicha to‘lov va imtiyozlar shaklidagi pul tushumlari;
- c) moliya-kredit tizimi orqali olinadigan pul daromadlari.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov «qariyb yigirma yillik mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o‘sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani e’tiborga sazovordir. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar sohada erishilgan marralar – aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo‘naltirilgan davlat xarajatlarining 5 barobar ko‘paygani»¹ni alohida ta’kidladi.

Aholining yollanib ishlovchi qismi oladigan daromadlarning asosiy qismini ish haqi tashkil qiladi. Daromadning bu turi istiqbolda ham, pul daromadlari umumiy hajmining shakllanishida ham o‘zining yetakchi rolini saqlab qoladi.

Aholi pul daromadlari darajasiga davlat yordam dasturlari bo‘yicha to‘lovlar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu manbalar hisobiga pensiya ta’minoti amalga oshiriladi va turli xil nafaqalar to‘lanadi. Aholining moliya-kredit tizimi orqali oladigan pul daromadlari quyidagilardan iborat: davlat sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlar; shaxsiy uy qurilishiga va matlubot jamiyati a’zolariga bank ssudalari; jamg‘arma bankiga qo‘yilmalar bo‘yicha foizlar; aksiya, obligatsiya bahosining

¹ *Каримов И. А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т.: «Ўзбекистон», 2010. – Б. 4–5.

ko'payishidan olinadigan daromad va zayom bo'yicha to'lovlar; lotereya bo'yicha yutuqlar; tovarlarni kreditga sotib olish natijasida tashkil topadigan, vaqtincha bo'sh mablag'lar; har xil turdagi kompensatsiya to'lovlari va h.k.

Aholi guruhlari bo'yicha daromadlar taqsimlanishi dinamikasini taqqoslash, iste'molchilik budjeti asosida amalga oshiriladi. Iste'molchilik budjetlari quyidagicha ko'rsatish mumkin: o'rtacha oila uchun, yuqori darajada mo'l-ko'l budjet, minimal moddiy ta'minlanganlar budjeti, nafaqaxo'rlar va aholining boshqa ijtimoiy guruhlari budjeti, shular jumlasidandir.


Farovonlikning eng quyi chegarasini oila daromadining shunday chegarasi bilan belgilash mumkinki, undan keyin ishchi kuchini takror hosil qilishni ta'minlab bo'lmaydi. Bu daraja moddiy ta'minlanganlik minimumi yoki kun kechirish darajasi (qashshoqlikning boshlanishi) sifatida ifoda etiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'rtacha daromad «o'rtacha sinf» deb ataladigan tabaqalar daromadlari bo'yicha aniqlanadi. Bunday guruh iste'molchilik savati to'plamiga uy, avtomashina, dala hovli, zamonaviy uy jihozlari, sayr qilish va bolalarini o'qitish imkoniyati, qimmatli qog'ozlar va zebu ziynatlar kiradi.

2. Daromadlar tizimi

Daromadlar davlat, korxonalar (firma), xonadon (oilalar) darajasida mavjud bo'ladi. Daromadlar ishlab chiqarish darajasiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, daromadlarning shakllanishida iqtisodiy subyektlar iqtisodiy va noiqtisodiy omillar ta'siriga uchrashi mumkinligini ham inobatga olish kerak. Daromadlar taqsimot munosabatlarining yakuni deb hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti daromadlarning tabaqalashuvini obyektiv voqelikka aylantiradi. Daromadlar shakllanishida tengsizlik yuz beradi, lekin ushbu tengsizlik adolatli bo'lishi kerak.

Daromadlar tizimi bozor tizimining bir qismi hisoblanadi. Daromadlar takror ishlab chiqarish yoki iqtisodiy aylanishi jihatidan qaralganda taqsimlash jarayonining nihoyasidir. Daromad munosabat obyekt sifatida pul yoki moddiy shaklga ega bo'ladi. Daromadlarni o'zlashtirishda nafaqat xonadon, firma va davlat ishtirok etadi, bulardan tashqari iqtisodiy faol bo'lmagan aholi guruhlari ham subyekt sifatida ishtirok etadi. Daromadlar tizimi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi (1-chizmaga qarang):



Daromadlar taqsimot qonuniga ko‘ra shakllanadi. U daromad tizimiga kiradi. Daromadlarni shakllantirishda ma‘lum iqtisodiy institutlar qatnashadi, ular ham davlat, ham nodavlat institutlari hisoblanadi, ular faoliyati daromadlarni tartiblaydi va bu ijtimoiy adolat bo‘lishini ta‘minlashga qaratilgan bo‘ladi. Bular ham daromad tizimiga kiradi.

Daromadlar tizimiga daromad siyosati ham kiradi, bu daromadlarni hosil etish va sarflashga taalluqli sa‘y-harakatlar va amaliy chora-tadbirlardan iborat. Bu siyosatni faqat davlat emas, balki firma va xonadonlar ham qo‘llaydi.

Hozirgi iqtisodiyot nazariyasida tizimli yondashuv metodologiyasi ustuvorlikka ega. Bu iqtisodiyotni yirik va kichik tizimlarga, tizimlarni esa turli elementlarga ajratish, ularning o‘zaro aloqalarini aniqlash, tizim hosil etuvchi xususiyatlarni belgilashni talab qiladi. Shu jihatdan qaraganda daromadlarni taqsimot hosilasi sifatida kichik tizimga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqligini ayrim olimlar ta‘kidlagan¹.

¹ Qarang: *Ҳасанов P. P. Аҳоли даромадлари ва турмуш даражаси: Ўқув-услубий қўлланма. – Т., 2008. – Б. 12.*

3. Bozor va nobozor daromadlar

Daromadlarning ijtimoiy-iqtisodiy tabiati, shakllanishi mexanizmi va o'zlashtirish usullari ularni turkumlashning muhim mezonlari hisoblanadi. O'tish davrida daromadlar tabiati jihatidan bozor va nobozor turlariga ajralib, iqtisodiy va huquqiy jihatdan qonuniy va noqonuniy tus oladi.

Bozor iqtisodiyoti xo'jalik subyektlarining turli omillar ta'sirida tabaqalanishini yuzaga chiqaradi va bu daromadlarning kam turkumlanishiga olib keladi. Bunday turkumlanish bozor talablaridan kelib chiqqan holda har xil yondashuvlar orqali, ya'ni mavjud iqtisodiy resurslarning qay darajada samarali ishlatilishiga nisbatan pirovard natijaning ham farqlanishiga olib keladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tarkibi daromad manbaiga, ya'ni uning qayerdan kelishiga qarab ham shakllanadi. Shu jihatdan mehnat natijasidan, tadbirkorlikdan, mulkdan kelgan daromad va transfert (nochorlarga budjetdan beriladigan nafaqa va yordam puli) kabi daromadlar ma'lum nisbatda bo'ladi. Daromadlarning turlariga nisbatan turkumlanishi 2-chizmada aks etgan.


Daromadlar turkumlanishida bozor daromadlari asos sifatida yuzaga chiqadi. Chunki bozor daromadlari subyektlarning bozor orqali ishlab topgan daromadlari yig'indisidan tashkil topadi. Daromadning bu turi bozor uchun ishlash, resurslarni samarali ishlatish va tan olingan natijaga to'lanadigan haq sifatida namoyon bo'ladi.

Bozor daromadlari – bu iqtisodiyot subyektlarining o'z resurslarini bozor qonun-qoidalariga binoan ishlatib topgan pul tushumlaridir.

Daromad keltiruvchi resurs – bu tovar va xizmatlarni yaratish uchun umuman zarur bo'lgan barcha moddiy va mehnat vositalaridir. Ishlab chiqarish omillari – bu tovar va xizmatlarni yaratishda bevosita ishtirok etuvchi barcha moddiy va mehnat vositalaridir.

Bizningcha, daromadga bozor tavsifini berish uchun nafaqat uni topish usullari, balki buning qanday shaklda bo'lishini ham nazarda tutish darkor. Natural moddiy shakldagi daromadlar ishlab topilgan bo'lsa-da, ularni bozor daromadi deb hisoblash mumkin emas, chunki bozor daromadlari tovar-pul munosabatlarini ifoda etganidan, ular albatta pul shaklida olinishi kerak. Nobozor daromadlari bozor daromadlaridan farqliroq ham natural, ham pul shakliga ega.

Binobarin, bozor va nobozor daromadlarini tavsiflashda ikki mezon asos bo'lishi kerak. Birinchisi – daromadni olish usuli, ikkinchisi – uning shakli.



Nobozor daromadlari – bu subyektlarning ijtimoiy maqomiga ko‘ra va muhtojlik darajasiga nisbatan beriladigan pul yoki moddiy tushumlardir.

Bozor daromadlari o‘z mohiyatiga ko‘ra bir qancha vazifalarni bajaradi. *Birinchidan*, bozor daromadlari kishilarning tirikchiligini ta‘minlaydi va ish kuchini takroran hosil etadi. *Ikkinchidan*, inson

salohiyatini takomillashib borishga undaydi, u qo‘shimcha daromad topib, boshqalardan farovonroq yashash ishtiyoqini uyg‘otadi va moliyaviy resurs sifatida iqtisodiy o‘shishga xizmat qiladi, ahamiyati doimo kuchayib boradi. *Uchinchidan*, bozor daromadlari daromadlarning kuchli, lekin adolatli tabaqalanishiga hamda turmush darajasining jiddiy farqlanishiga olib keladi. *To‘rtinchidan*, bozor daromadlaridagi tengsizlik aholini ijtimoiy himoya qilishni zarur qiladi.

Ishlab chiqarish omillari bozor daromadi turlarini keltirib chiqarar ekan, bu daromad turlarining shakllanishi o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Bozor daromadi turlari quyidagi ko‘rinishlarda mavjud bo‘ladi:

- 1) mehnat natijasidan kelgan daromad yoki ish haqi;
- 2) mulkdan tushadigan daromadlar;
- 3) tadbirkorlik daromadi.

4. Aholi daromadlarining tabaqalanishi va ijtimoiy chegarasi

Bozor tizimi teng imkoniyatlar beradi, lekin u kishilarning ishlab pul topish qobiliyatlarini ijtimoiy maqomini tenglashtira olmaydi. Bu qobiliyat tabiiy, chunki kishilarning aql-idroki va kuch-quvvati har xil bo‘ladi. Biroq ozmi-ko‘pmi bir xildagi tug‘ma qobiliyatlarning yuzaga chiqishi ijtimoiy muhitga, kishilarning ijtimoiy holatiga ham bog‘liq bo‘ladi. Shu jihatdan olganda, inson kapitaliga investitsiyalar ko‘p kiritilgan yerda (masalan, rivojlangan mamlakatda) tug‘ma qobiliyat to‘laroq yuzaga chiqadi. Aksincha, bunday investitsiya qilishga moliyaviy resurslari yetishmagan mamlakatlarda qobiliyatni rivojlantirish imkoniyati cheklanadi. Albatta, ijtimoiy tabaqalashuvga kishilarning qaysi ijtimoiy guruhga mansubligi ham ta‘sir qiladi. Odatda dehqon xonadonlarida ish kuchi sifatini oshirish uchun mablag‘ hamma vaqt ham yetishmaydi, aksincha, tadbirkorlar yoki xizmatchilar xonadonida buning imkoni ko‘proq bo‘ladi. Boy xonadonlarda yuqori sifatli, lekin pulli ta‘lim-tarbiya xizmatlarini xarid etishga pul topiladi, kambag‘al xonadonlarda esa buning iloji bo‘lmaydi. Qobiliyatlarni yuzaga chiqarish darajasi mamlakatlarning rivojlanish modeliga ham bog‘liq. Agar rivojlanish modeliga ko‘ra ijtimoiy xizmatlarning aksariyat qismini davlat moliyalashtirib, aholiga bepul yetkazib bersa, shu yerda ish kuchi rivoj topadi, u yuqori unumdorlik beradi va shu bois daromad topish ham ko‘payadi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida rivojlangan mamlakatlarda ham davlatning ijtimoiy xarajatlari borasida ancha murakkabliklar tug‘ilmoqda.

O'zbekistonda davlat budjetdan ijtimoiy ne'matlarning yaratilishini moliyalashtiradi, ulardan esa xalq bepul foydalanadi. Bu ne'matlardan hamma bahramand bo'lgani bois, ish kuchining sifati ortadi. Davlat yordamida aholining keng tabaqalari o'z qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniga mustaqillik bois ega bo'ladi.

Ijtimoiy tabaqalanishning yana bir omili oilaning demografik tarkibidir. Oilada pul topuvchilar qanchalik ko'p bo'lib, boqimandalar oz bo'lsa, bu yerda jon boshiga to'g'ri keladigan daromad shunchalik ko'p bo'ladi. Bunday bog'liqlik O'zbekistonda yaqqol kuzatiladi.

Demografik rivojlanish. O'zbekistonda doimiy istiqomat qilayotgan aholi soni 2012-yilning nihoyasida 29,6 million kishini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 1990–2010-yillar mobaynida 8,2 million kishiga ko'paydi yoki 1,4 barobar oshdi. Yurtimizda jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan, puxta o'ylangan demografik siyosat natijasida aholining yillik o'rtacha o'sishi keyingi yillarda barqarorlashib, o'tgan asrning 80 yillaridagi 2 foizdan ziyod ko'rsatkich o'rniga 1,4 foiz darajasida qayd etilmoqda.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov: «Sir emaski, biz mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki yillaridan boshlab ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash, aholining daromadlari va turmush sharoitida keskin tafovut bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka katta e'tibor qaratmoqdamiz.

Keyingi o'n yilda yurtimizda aholi daromadlari hajmi 8,1 barobar ortgan bir paytda, ish haqi, ijtimoiy ko'makka muhtoj toifalarning daromadlari miqdorini jadal oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash va soliq imtiyozlari berish hisobidan aholining eng past va eng yuqori daromadga ega bo'lgan guruhlari o'rtasidagi tafovut, boshqacha aytganda, daromadlardagi farq koeffitsiyenti 21,1 barobardan 8,3 barobarga qisqardi. Aytish kerakki, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari va bir qator iqtisodiy rivojlangan davlatlar o'rtasida bu koeffitsiyent eng past ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Yurtimizda o'tgan yillar davomida ish haqi va pensiyalarning xarid qobiliyati izchil va barqaror o'sgani aholining hayot darajasi va sifati ortib borayotganining yaqqol tasdig'idir. Buning isboti tariqasida quyidagi misol va raqamlarni keltirmoqchiman.


Agar 1991-yilda eng kam ish haqiga Xalqaro mehnat tashkiloti va Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga qat'iy muvofiq tarzda hisoblab chiqilgan iste'mol savati qiymatining faqat 8 foizini tashkil etadigan tovar va xizmatlarni xarid qilish mumkin bo'lgan bo'lsa, 2011-

yilda bu ko'rsatkich iste'mol savatining 120 foizini tashkil etdi yoki 15 barobar o'sdi, eng kam pensiyaning xarid qobiliyati esa 9 karra oshdi»¹, – deb ta'kidladi.

Davlatimiz tomonidan sog'liqni saqlash, onalik va bolalikni himoya qilish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar tufayli onalar va bolalar o'rtasida o'lim darajasining izchil pasayishiga erishildi: mustaqillik yillarida bolalar o'limining umumiy koeffitsiyenti 1990-yildagi 34,6 promilledan 2010-yilda 11,0 promillega, onalar o'limi esa 100 ming tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan tegishli 65,3 dan 21 ga tushdi. Natijada aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi 1990-yildagi 67,2 yoshdan 2010-yilda 73,1 yoshga yetdi yoki 9 foizdan ko'proq o'sdi (3-chizmaga qarang).

3-chizma

Aholining o'rtacha umr ko'rishi, yosh



Mamlakatimizda ijobiy demografik jarayonlar aholining yosh tarkibini ham optimallashtirishni taqozo etdi. Bu jarayonda O'zbekiston yoshlar mamlakati sifatidagi maqomini saqlab qolmoqda, aholining o'rtacha yoshi 26,9 yoshni tashkil etmoqda.


¹ *Каримов И. А.* 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги bosқичга кўтарадиган йил бўлади. – Т., 2012. – Б. 14–15.

O‘zbekistonda demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar (ming kishi)

Ko‘rsatkichlar	Yillar					2011-yilda 1995-yilga nisbatan o‘zgarish	
	1995	2008	2009	2010	2011	+, –	foiz
Tug‘ilganlar soni	678,0	608,9	646,1	651,3	669,6	– 8,4	87,7
Ўлганлар сони	145,4	137,4	138,8	133,6	138,4	– 7,0	95,2
Nikohdan o‘tganlar soni	168,9	254,2	250,2	272,0	292,3	123,4	173,0
Ajralishlar soni	28,5	19,4	18,3	17,8	17,6	– 10,9	61,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.


Oila institutini mustahkamlash, xususan, kam ta‘minlangan va yosh oilalarni aniq yo‘naltirilgan tarzda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va uy-joy sharoitini yaxshilash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar barqaror demografik rivojlanishni ta‘minlash imkonini berdi. Natijada 1990–2011-yillarda yosh oilalar o‘rtasida ajrashishlar koeffitsiyenti ikki barobardan ko‘proq pasaydi, oila qurishning o‘rtacha yoshi oshdi va oilada bolalar soni o‘rtacha bo‘lishiga e‘tibor qaratadigan oilalar ulushi ortdi. Ayni vaqtda aholining barqaror ko‘payishi ta‘minlanmoqda.



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.

Aholi bandligi. Mamlakatimizda 1990-yildan 2012-yilga qadar ish bilan band bo‘lgan aholi soni qariyb 4,0 million nafarga oshdi va 2011-yilning oxirida qariyb 12,0 million kishini tashkil etdi. Yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini diversifikatsiya qilish, malakali mutaxassislar tayyorlash va shuningdek, 12 yillik majburiy ta‘lim tizimiga o‘tish borasida ko‘rilgan chora-tadbirlar aholining bandlik darajasini yanada oshirish imkonini berdi. 2011-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatimizda Xalqaro mehnat tashkiloti uslubi asosida aniqlangan ishsizlik darajasi maqbul darajada bo‘lib, iqtisodiy faol aholining qariyb 5 foizini tashkil etadi.

Aholi bandligi tarkibida muhim ijobiy o‘zgarishlar ta‘minlandi. Agar mustaqillikning dastlabki yillarida ish bilan band bo‘lganlarning 60 foizi davlat sektori hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2000-yilda bu ko‘rsatkich 24 foizga tushdi. Bugungi kunda esa mazkur sektorda umumiy ish bilan band aholining 20 foizdan ko‘prog‘i mehnat qilmoqda. Bandlikning sohalar bo‘yicha tarkibida ham ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda: qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan aholi soni sezilarli darajada kamaydi. Agar 1990-yillarning boshida mazkur sohada ishlovchilar soni jami ish bilan band bo‘lganlarning 40 foizini tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda bu raqam 25 foizga tushdi. Xizmat ko‘rsatish, transport va qurilish sohalarida esa ish bilan band bo‘lganlar soni o‘sib, 36 foizdan 52 foizga yetdi.



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.

Bandlikni ta‘minlashga qaratilgan hududiy dasturlarning amalga oshirilishi, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish natijasida,

faqat so‘nggi 5 yilning o‘zida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida 3,8 millionga yangi ish o‘rni yaratildi. Ularning 76,0 foizdan ziyodi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga to‘g‘ri keladi. Qayd etish joizki, hozirgi kunda yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini oshirish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun har yili tijorat banklari tomonidan 1 trillion so‘mdan ortiq miqdorda kredit mablag‘lari berilmoqda.

Aholining bandlik darajasi va daromadlari, uning hayot darajasini oshirish, shuningdek, mehnat bozorida ishchi kuchiga bo‘lgan talabni yanada to‘laroq qondirish bo‘yicha yurtimiz hududlari va iqtisodiyot tarmoqlaridagi mavjud salohiyatdan samarali foydalanish maqsadida, 2012-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori bilan 2013-yilda ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta‘minlash dasturi ishlab chiqildi va qabul qilindi. Unga ko‘ra 2013-yilda 972700 ta ish o‘rinlari yaratiladi.

So‘nggi yillarda kasanachilik va oilaviy tadbirkorlik kabi aholi bandligini ta‘minlashning yangi shakllari faol rivojlandi. Faqat 2006–2010-yillarda mamlakatimiz korxonalarini bilan fuqarolar o‘rtasida tuzilgan kasanachilik va ijara shartnomalari asosida 674 mingta ish o‘rni tashkil etildi. Bundan tashqari, aholining iqtisodiy faolligi oshishi, o‘zini o‘zi bandligini ta‘minlashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi natijasida milliy hunarmandlik va oilaviy tadbirkorlik sohalarida 302,1 mingta ish o‘rinlari ochildi.

Dehqon va shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar bazasida chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar aholi bandligini ta‘minlashga sezilarli hissa bo‘lib qo‘shildi. Xususan, kam ta‘minlangan va ko‘p bolali oilalarga bepul qoramol berilishi natijasida 1,4 million nafar qishloq aholisi dehqon xo‘jaliklarida qoramollar boqish bilan shug‘ullanish imkoniyatiga, ushbu faoliyat turi bilan shug‘ullangan davri pensiya tayinlash uchun mehnat stajiga kiritilishi huquqiga ega bo‘ldi.

Mamlakatimizning barcha tuman hamda shaharlarida ish bilan band bo‘lmagan aholiga ishga joylashish masalasida yordam beradigan maxsus markazlar tashkil etildi va samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. So‘nggi 5 yil ichida ushbu markazlar tomonidan 2,4 million kishi bo‘sh va yangi o‘rinlarga ishga joylashtirildi, 96 ming nafardan ziyod aholi mehnat bozorida talab katta bo‘lgan kasb-hunarlariga o‘qitildi va malakasini oshirdi. Ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra, bu yerda ish bilan bandlik darajasi past bo‘lganidan bir ishlovchiga to‘g‘ri keladigan va uning qaramog‘idagi

bo'lgan kishilar soni ancha ko'p. Buning natijasida bir oilaga hisoblangan daromadlar ko'p bo'lgani holda, jon boshiga tegadigan daromadlarning kamligi kuzatiladi. Aholining daromad jihatidan tabaqalanishi, oila tarkibidan tashqari, ishlab topilgan daromad miqdoriga ham bog'liq. Buni esa mehnat unumdorligi darajasi belgilaydi.

Aholini daromadi va turmush darajasi jihatidan bo'lish ma'lum iyerarxiyani hosil etadiki, buni daromadlar piramidasida ko'rish mumkin. Bu piramida besh pog'onali (o'ta boylar, boylar, o'rta hollar, kambag'allar va o'ta kambag'allar – qashshoqlar) yoki uch pog'onali (boylar, o'rta hollar va kambag'allar) bo'lishi mumkin. Bunday tabaqalashuvni bozor qonunlarining o'zi taqozo etadi. Bozor iqtisodiyoti tanlov qoidasiga asoslanar ekan, u muqarrar ravishda daromadlarning farqlanishiga olib keladi. Buning subyektiv tomoni shundaki, ishning uddasidan chiqqanlar boy, uncha uddasidan chiqmaganlar o'rta hol, umuman o'zini o'nglay olmaganlar kambag'al bo'ladi. Bu tabaqalanishning insonga bog'liq tomoni. Ammo buning obyektiv tomoni ham borki, bu iqtisodiyotning shart-sharoiti yoki umumiy vaziyatga bog'liq. Vaziyat qulay kelganida boy bo'lish, tanglik hosil bo'lganida kambag'alga aylanish kishilarning xohish-irodasiga bog'liq emas.

Tabaqalanish tengsizlikni yuzaga chiqaradi, biroq oldin qayd etganimizdek bu adolatli tengsizlikdir, chunki bozor qoidalariga binoan muqarrar yuzaga keladi. Uning salbiy tomoni ijtimoiy to'qnashuv ehtimoli bo'lsa, ijobiyliги boylar iste'molining oshkora samarasidir. Ya'ni boylar iste'moli namuna sifatida boshqalarni faol bo'lishga undaydi, natijada iqtisodiy o'sish yuz berib, iste'moldagi tafovutlar qisqarishga moyil bo'ladi. Iste'moldagi farqlar saqlansa-da, ular miqdorda emas, balki sifatda qoladi. Boylar boshqalardan o'z iste'moliga qaraganda bo'sh vaqtini ko'proq dam olib o'tkazishi va o'z qo'lida to'plangan aktivlarining miqdori, aniqrog'i, bankdagi puli, aksiyasi va obligatsiyasi, biznesda ishlayotgan kapitalning miqdori bilan farqlanadi.

Bozor sharoitida daromadlarning yuqori chegarasi bo'lmaydi: ishning ko'zini bilgan shaxs qancha yaxshi ishlasa, shuncha ko'p topishi, topganining asosiy qismini jamg'arib borishi mumkin. Qonuniy boy bo'lishning taqiqlanmasligi unga intilishni hosil qiladi. «Intilganga tole yor» deganlaridek, harakat qilish natijasida kambag'al o'rta holga, o'rta hol esa boyga aylanishi mumkin. Ish yurishmaganida buning aksi ham bo'lishi mumkin. Iqtisod yuksalgan sari kambag'allar kamayib, o'rta hollar asosiy toifaga aylanadi, boylar soni ham o'sadi. Ammo boylarning ichki tabaqalanishi ham yuz beradi. Ular orasida o'ta boylar ajralib

chiqadi. Ular ham, sekin bo'lsa-da, ko'payib boradi. Ilgarilari o'ta boylar G'arb mamlakatlariga xos bo'lgan, endi esa ular Sharqda va hatto o'tish davridagi mamlakatlarda ham shakllangan. O'tish davridagi o'ta boylar bozor munosabatlarining rivojlanishi mahsuli emas, balki boylikni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uni qonuniy va noqonuniy yo'l bilan o'zlashtirib olgan kishilardir. Quyida e'tiboringizga dunyo va Rossiya Federatsiyasi milliarderlari, asosiy faoliyat turlarini keltiramiz.

2-jadval

Dunyo milliarderlari¹

№	Ism-familiyalari	2009-yil mart oyi holatiga ko'ra (mlrd. \$)	Asosiy faoliyat turi
1.	Bill Geyts (AQSh)	40,0	yuksak texnologiya
2.	Uorren Baffet (AQSh)	37	investitsiya
3.	Karlos Slim Xelu (Meksika)	36	turli xil savdo, ko'chmas mulk
4.	Lorens Ellison (AQSh)	22,5	yuksak texnologiya
5.	Ingvar Komprad (AQSh)	22,0	turli savdo
6.	Karl Albrext (Germaniya)	21,5	neftni qayta ishlash
7.	Mukesh Ambani (Hindiston)	19,5	metallurgiya
8.	Lakshmi Mittal (Hindiston)	19,3	turli savdo
9.	Ter Albrext (Germaniya)	18,8	to'qimachilik sanoati
10.	Amanseo Ortega (Ispaniya)	18,3	turli savdo

3-jadval

Rossiya milliarderlari²

T/p	Ism-familiyalari	2009-yil mart oyi holatiga ko'ra (mlrd. \$)	Asosiy faoliyat turi
1.	Mixail Proxorov	9,5	investitsiya
2.	Roman Abramovich	8,5	neft va gaz, metallurgiya

¹ Qarang: Аргументы и факты. – 2009. – №13.

² O'sha manba.

3.	Vagit Alekperov	7,8	neft va gaz
4.	Mixail Fridman	6,3	neft va gaz, investitsiya, telekommunikatsiya
5.	Vladimir Lisin	5,2	metallurgiya
6.	Aleksey Abramov	4,4	metallurgiya
7.	Aleksey Mordashev	4,3	metallurgiya
8.	German Xan	4,0	neft va gaz, investitsiya, telekommunikatsiya
9.	Oleg Deripaska	3,5	metallurgiya
10.	Iskander Maxmudov	3,3	metallurgiya

O‘zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish pulli bo‘lib, qattiq nazorat ostiga olinganligi va katta daromad beruvchi tabiiy resurslarning davlat qo‘lida saqlanishi ularni xususiylashtirish tarzida va suvtekin o‘zlashtirish yo‘lini to‘siq qo‘ydi. Natijada o‘ta boylar – oligarxlar guruhining shakllanishiga yo‘l berilmadi. Bu islohotlar o‘tkazilishida ijtimoiy adolat prinsiplariga izchil rioya etilganining natijasidir.

Aholining tabaqalashuvi uning boy va kambag‘allarga ajralishi bilan cheklanmaydi, balki o‘rta hol sinfni ham yuzaga keltiradi. Bu sinf iqtisodiy transformatsiya sharoitida shakllanadi. Bu transformatsiya fuqarolik jamiyatiga olib kelganida o‘rta sinfning shakllanishini shu jamiyatning talabi deb talqin etish mumkin. O‘rta sinf iqtisodiy rivojlangan jamiyatning ijtimoiy tayanchi bo‘lsa-da, uning shakllanishi transformatsiya bosqichida boshlanadi. Bu sinf o‘z mavqei jihatidan boylar va kambag‘allar oralig‘ida turadi. O‘rta sinf aholining o‘ziga to‘q, kelajakka ishonchi bo‘lgan sinfi hisoblanadi. O‘rta sinfning soni va jamiyatdagi mavqei iqtisodiyotning o‘sishiga bog‘liq, shu sababli O‘zbekistonda ham bu sinf safi kengayishiga moyillik katta. Bu jarayonga iqtisodiy o‘sishdan tashqari biznesning rivoji, mulkni xususiylashtirish ham hissa qo‘shadi. O‘zbekiston qishloqlarida boshlangan oilaviy ommaviy fermerlashtirish, ya’ni shirkatlar o‘rniga fermer xo‘jaliklarining tashkil etilishi o‘rta sinf safining kengayishini ta’minlaydi. Davlatimiz rahbari Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir» mavzuidagi ma’ruzasida 2011-yilni «Kichik biznes va xususiylashtirish yili» deb e’lon qildi. Bu yurtimizning qiyofasi va

hayotimizning ma'no-mazmunini butunlay o'zgartirayotgan oqilona siyosatni davom ettirish va mamlakatimiz ko'zlagan maqsadlarga yetish, taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoridan joy olishda manzilimiz masofasini qisqartirish yo'lidagi muhim strategik qadamdir. Prezident Islom Karimov tadbirkorlikning qirralari haqida: «Men bu o'rinda sohibqiron Amir Temur bobomizning barchamizga yaxshi ma'lum bo'lgan **«Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir»** deb aytgan chuqur ma'noli so'zlarini yana bir bor eslatmoqchiman»¹, – deb ta'kidladi. Davlatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq mamlakatimiz kelajagi, davlatimiz va jamiyatimizning siyosiy-ijtimoiy qurilishini belgilashda birinchi navbatda Konstitutsiyamizni ishlab chiqish va tasdiqlashda mulk va mulkiy munosabatlar haqidagi prinsipial masala davlatimiz rahbari Islom Karimovning diqqat markazida bo'lganini 1992-yilda chop etilgan «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asaridagi: «Mulkchilik masalasini hal qilish bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qiladi» yoki 1993-yilda nashr etilgan «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» asaridagi: «Iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichida eng muhim dolzarb vazifa – mulkiy munosabatlarni tubdan o'zgartirmoqdir. Uning tub mohiyati – mulkni haqiqiy egalari qo'liga berishni tezlashtirish, tadbirkorlik uchun keng yo'l ochib berish va mulkdorda yangi mulk egasi hissiyotini tarbiyalashdan iborat», – degan ilmiy qarashlaridan anglash mumkin. Shuningdek, Prezident Islom Karimovning dunyoning o'nlab mamlakatlari tillarida chop etilgan «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asaridagi: «Mamlakatda chinakam o'rta mulkdorlar sinfi shakllangan taqdirdagina islohotlar sezilarli samara beradi, mulkchilik masalalari hal bo'ladi» yoki: «Chinakam mulkdorlar sinfi ham mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni izchil amalga oshirish hisobiga, ham kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish yo'li bilan shakllantiriladi. Strategik jihatdan olganda, biz ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish vazifasini qo'ymoqdamiz. Bunda ustuvorlik xususiy mulkka, kichik biznesga beriladi» yoxud: «Kichik

¹ Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш – тараққиётимизнинг муҳим омилидир: Президент Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 18 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи. – 2010. – 8 дек.

biznes – jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mo‘tadillashtirishga yordam beradigan o‘rta tadbirkorlar sinfining paydo bo‘lishi demakdir. Bu – respublika bozorini zarur iste‘mol tovarlari va xizmatlar bilan boyitishdir. Bu yangi ish o‘rinlaridir» kabi istiqbolni belgilovchi ilmiy qoida va xulosalarga asoslangan bashorati bo‘lib, bugungi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O‘zbekistonda uning yengil kechishining tamal toshi bundan 21 yil oldin qo‘yilganligini anglamaslik, sezmaslik mumkin emas. Muhimi, mazkur asarda O‘zbekiston davlatchiligining iqtisodiy negizini daxlsiz, davlat himoyasidagi, teng huquqli mulk shakllari tashkil etishi, bunda ustuvorlik xususiy mulkka berilishi hamda O‘zbekiston davlatchiligining siyosiy negizini o‘rtacha mulkdorlar sinfi tashkil etishi haqidagi ilmiy qoidalar mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirishning nazariy asoslarini tashkil etadi. «2011-yil – Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili», «2012-yil – Mustahkam oila yili», «2013-yil – Obod turmush yili» deb e‘lon qilinishi mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim qadamlardir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni Vatanimiz taraqqiyotini va xalq farovonligini yanada yuksaltirishda belgilovchi yetakchi kuch ekanligini inobatga olib, davlatimiz rahbari uni rivojlantirishni siyosat darajasiga ko‘targanligi o‘ta muhim hodisadir. Buning boisi shuki, ijtimoiy yo‘naltirilgan zamonaviy bozor iqtisodiyotida kichik biznes nihoyatda muhim o‘rin egallaydi. *Eng avvalo*, kichik biznes bozor konyunkturasi o‘zgarishlariga tez moslashishga, iste‘molchilarning talab-ehtiyojlari o‘zgarishiga qarab ish tutishga qodirdir. Kichik biznes raqobatchilik muhitini shakllantiradi, busiz bozor iqtisodiyotini tasavvur qilib bo‘lmaydi. *Ikkinchidan*, kichik biznes yangi ish o‘rinlari jadallik bilan barpo etilishini, aholining bandligi o‘shishini va daromadlari oshib borishini ta‘minlaydi. *Uchinchidan*, kichik biznes ichki bozorni tovarlar va xizmatlar bilan boyitishning muhim manbai hisoblanadi hamda yalpi talabni o‘stiradi.

Barchamizga ayonki, aynan ana shu ijtimoiy qatlam, ya‘ni o‘rta sinf yurtimizda amalga oshirayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishdan, mamlakatimizning izchil va barqaror rivojlanishidan eng ko‘p manfaatdordir. Shu bois kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kunda jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizni taraqqiyot yo‘lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib borayotgani qayd etildi¹.

¹ *Каримов И. А.* Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш – тараққиётимизнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2010. – 8 дек.

«Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Iqtisodiyotning ushbu sohasi yurtimizda qanday katta sur'atlar bilan rivojlanib borayotganini yuqorida qayd etib o'tdik. Bu o'rinda 2012-yilda mazkur sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 54 foizga yetdi. Bu iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan ijtimoiy subyekt, u yuksak mehnat unumini ta'minlaydi, uning bilim va malakasi yuqori, siyosiy erkinliklarni kafolatlovchi kuch hisoblanadi, asosiy soliq to'lovchi vazifasini o'taydi, uning iste'moli bozor hajmini belgilaydi, jamiyatdagi iqtisodiy o'sishni va xalq farovonligining yanada yuksak bo'lishini ta'minlaydi.

Tabaqalanish jarayonida kambag'allar qatlami hosil bo'lar ekan, uning o'lchami ham bo'lishi kerak. Kambag'allik chegarasini tirikchilik minimumining qiymati belgilaydiki, daromadi shundan kam bo'lganlar kambag'allarni tashkil etadi. Daromadlar taqsimlanishidagi тафовутлар Jini koeffitsiyenti yordamida ham aniqlanishi mumkin. Jini koeffitsiyentidan ayrim mamlakat doiralarida shaxslar yoki uy xo'jaliklari o'rtasida daromadlarning (yoki ayrim hollarda xarajatlarning) mutlaq teng taqsimlanishidan ularni real taqsimlanishida yuz beradigan farqlanish darajalarini ko'rsatish uchun foydalaniladi. Nolga teng Jini koeffitsiyenti mutlaq tenglikni, 100 foizga teng bo'lgan koeffitsiyent esa mutlaq tengsizlikni anglatadi. Boshqacha aytganda, Jini koeffitsiyentining maksimal mazmuni (mohiyati) 100 foiz bo'lib, bu barcha daromadlarning qandaydir birgina shaxs yoki xonadon tomonidan olinishini anglatadi, minimal mazmuni – nol esa mutlaq tenglikni ko'rsatadi. Jini koeffitsiyenti tengsizlikni aniqlashda eng ko'p tarqalgan o'lchovdir.

Jahon banki Jini indeksining turli yillar bo'yicha hisoblangan ko'rsatkichlarini beradi. Ular o'zgarib turganidan har xil chiqadi. Daromadlarning ozchilik qo'lida to'planishi har xil kechadi, lekin bu ko'rsatkich iqtisodi uncha rivojlanmagan mamlakatlarda yuqori bo'ladi. Boylar va kambag'allarni daromadlardagi hissasi ham mamlakatlar bo'yicha farqlanadi.

Tabaqalanishni tahlil etganda, iqtisodiyotning tuzilishini ham nazarda tutish kerak. Shu sababli daromadlardagi farqlarni taqqoslash bilan kifoyalanib bo'lmaydi. Bunda iste'moldagi farqlarni ham nazarda tutish kerak bo'ladi. Bu, ayniqsa, o'tish davridagi mamlakatlar uchun muhim. O'zbekistonda, masalan, daromad haqidagi rasmiy ma'lumotlar iste'mol hajmini aniq belgilamaydi, chunki amalda hisobga kirmagan, yashirin

yo'l bilan topilgan daromadlar ham borki, ular iste'molda ishtirok etadi. Buning ustiga natural iste'mol ham bo'lib, u pul daromadlarining iste'mol buyumlariga aylanishini bildirmaydi. Bu daromad oldi-sotdini chetlagan holda xonadon iste'moliga to'g'ridan-to'g'ri kelib tushadi. So'nggi ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonda shaharliklar jami iste'mol etiladigan oziq-ovqatning 7,2 foizni xarid etmaydilar. Qishloqda esa xarid etilmay turib, o'z xo'jaligidan olib iste'mol qilingan oziq-ovqat 26,0 foizni tashkil etgan.

Aholi kambag'al qatlamlarining muammolari keskin ijtimoiy muammolar bo'lib, u yoki bu darajada barcha mamlakatlarda mavjud. Kambag'allikning umumsayyoraviy, umumbashariy xarakterga ega ekanligi uning sabablari umumiyligidan dalolat beradi.

Hozirgi dunyo xilma-xil mamlakatlar majmuidir. Dunyodagi mamlakatlar iqtisodi rivojlangan, darajasi o'rtacha va kam rivojlangan mamlakatlardan iborat. Ulardan har birining o'zi turli guruhlarga mansubdir. Rivojlangan mamlakatlarda tafovutlar kuchli emas, mamlakatlarning iqtisodiy daraja bo'yicha farqi ikki baravarga yaqin. Iqtisodi rivoj topgan mamlakatlarda moddiy to'kinchilik bo'lib, mahsulot va xizmatlar farovon yashash uchun yetarli bo'ladi. Gap shundaki, ularni qayta taqsimlash jarayonida boylar daromadining bir qismining soliq vositasida olinib, kambag'allarga berilishi mumkin. Shu sababli kambag'allik darajasi yuqori bo'lmaydi. Ayni chog'da boylik katta bo'lganidan uning bir qismi egasidan olinib, kambag'allarga berilishi boylardagi iqtisodiy faollik rag'batlarini so'ndirmaydi, iqtisodiy o'sish uchun zarur investitsiyalarni ham cheklamaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda insoniylik prinsiplari ham kuchli bo'ladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, nochorlarga muruvvat qilish, muhtojlarga yordam sifatida qilinadigan xayr-ehson uchun sarflanadigan pulning miqdori boylikka to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi. Shu bois, rivojlangan mamlakatlarda kam ta'minlanganlar uchun yo'naltiriladigan davlat mablag'idan tashqaridagi xayr-ehson fondlarining miqdori o'sib boradi. Boy mamlakatlarda daromaddagi ijtimoiy tafovutlarning kichik bo'lishi, kambag'allikning cheklanganligini keltirib chiqaradi.

Kambag'allik darajasini faqat ishlab chiqarish darajasi bilan emas, balki aholining o'sishi bilan ham izohlash zarur. Iqtisodiyotda shunday qonuniyat mavjudki, aholi jon boshiga olinadigan daromadlarning o'sishi ishlab chiqarish hajmiga va aholining soniga bog'liq bo'ladi. Jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar ko'payishi uchun ishlab chiqarishning o'sishi aholi soni o'sishidan, ko'payishidan tez borishi talab qilinadi.

Rivojlangan mamlakatlarda aholining o'sish sur'atlari pasayishga moyil bo'lgani holda ishlab chiqarish tez o'sadi, natijada jon boshiga hisoblangan daromad ortib boradi. Kam rivojlangan mamlakatlarda boshqacha hodisa yuz beradi. Bu yerda ishlab chiqarishning umumiy darajasi past bo'ladi.

Ammo XXI asrga kelib kambag'allikning yashovchan ekanligi namoyon bo'lmoqda. Hatto jadal iqtisodiy o'sish ham kambag'allikning darhol tugatilishini kafolatlay olmayapti. Kambag'allik dunyoda global hodisaga aylanib, narkotik moddalar va yuqumli kasalliklar kabi jahon jamoatchiligini tashvishga solmoqda. Qit'alar, davlatlar o'rtasida va davlatlar ichida, odamlarning yashash sharoitlarida katta tafovut mavjud bo'lsa, shubhasizki, butun dunyo mamlakatlarida barqaror rivojlanish bo'lmaydi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida kambag'allik va tengsizlik ko'lamining ortishi insoniyatga tahdid solayotganligini anglagan dunyo jamoatchiligi uning oldini olish usullarini izlashmoqda. 2000-yilda dunyodagi 160 ta mamlakat yetakchilari BMTning Ming yillik deklaratsiyasini qabul qilib, insoniyat taraqqiyotining global maqsadlarini ma'qulladilar va bu bilan jahon jamoatchiligi 2015-yilga kelib kambag'allikni ikki baravar qisqartirish maqsadini yana bir bor tasdiqladi.

Mustaqil O'zbekiston mazkur deklaratsiyani imzolagan davlat sifatida faol ijtimoiy siyosat yo'lini davom ettirmoqda. O'zbekistonning o'z yangilanish va taraqqiyot yo'liga asos bo'lgan eng muhim qoidalardan biri bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazishdir. Qolgan barcha qoidalar ijtimoiy vazifalarni hal etishga, aholini ijtimoiy himoyalash sohasida qat'iy kafolatni vujudga keltirishga bo'ysundirilgan. O'zbekiston islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshira borib, mustaqillikning dastlabki yillaridagi og'ir larzalardan so'ng daromad va iste'mol darajasini qayta tiklashga hamda talabning iqtisodiy o'sish omiliga aylanishiga erishdi. O'zbekiston BMTning Ming yillik rivojlanish maqsadlari dasturi parametrlarini bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Bugungi kunda davlat budjetining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltirilmoqda. Ayni paytda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 82,5, tabiiy gaz bilan ta'minlash 83,5 foizga yetdi, sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish va rivojlantirish, o'ta og'ir yuqumli kasalliklarga barham berish hamda ularni kamaytirish borasida qat'iy choralar ko'rildi. Bularning barchasi xalqaro hamjamiyat qabul qilgan dastur parametrlarini

bosqichma-bosqich qo'lga kiritish imkonini berdi. Internet ma'lumotlariga ko'ra ming yillik rivojlanish maqsadlari ijrosi dunyo xaritasida aks ettirilgan. Dastur ijrosi qariyb ro'yobga chiqarilgan sanoqli davlatlar qatorida O'zbekistonning ham borligini quvonch bilan ta'kidlash lozim. Natijada ijtimoiy-gumanitar sohada erishilgan marralar – aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlarining 5 barobar ko'paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida onalar o'limi ikki barobardan ko'proq, bolalar o'limi uch barobar kamaygani, odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayollarning o'rtacha umr ko'rishi 75 yoshga yetdi¹.

Islahotlarning hozirgi bosqichida davlat iqtisodiy o'sish siyosati samarasini barcha insonlar uchun daromadlarni oshirishning keng imkoniyatlarini yaratishga qaratmoqda. 2004-yilda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan 2004–2006 va 2010-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining Yashash darajasini oshirish strategiyasida jamiyatning turli qatlamlari daromadlaridagi tengsizlikning dolzarb muammolari ifodalangan. Bu tajribadan bosh xulosa – turmush darajasini oshirish vazifasiga atroflicha (kompleks) yondashuvning muhimligidir.

Barcha rivojlanayotgan mamlakatlar va iqtisodiy o'tish davriga xos mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sifatini oshirish vazifasi ustuvor deb tan olinadi. Kam ta'minlanganlarga ijtimoiy nafaqa, subvensiyalar, mintaqalar hamda tarmoqlar bo'yicha dotatsiya va soliq imtiyozlari, shahar va qishloq o'rtasida, bandlik sohasida va ijtimoiy guruhlar o'rtasida daromadlarni tenglashtirish uchun yetarli chora-tadbirlar majmui bo'la olmaydi. Samarali dastur chuqur va muvofiqlashtiruvchi yondashuvni taqozo etadiki, unda iqtisodiy o'sish bandlik va turmushning barcha sohalarini qamrab olishi, kam ta'minlanganlar, ayollar va yoshlarning daromad olishi va turush darajasini oshirish imkonini yaratishi kerak.

Kambag'allikka qarshi kurash va turmush darajasini oshirish g'oyasini yangicha tushunish boshlanganini Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2005-yilni «Mikromoliyalashtirish yili» deb e'lon qilganligi ham dalolat beradi.

¹ *Каримов И. А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т.: «Ўзбекистон», 2010. – Б. 5.

BMTning kambag'allikni qisqartirish yo'llari haqidagi bahslarida rivojlanayotgan mamlakatlar hukumatlariga mamlakatlarining eng zarur ehtiyojlaridan kelib chiquvchi milliy siyosatini ishlab chiqishga keng imkoniyatlar yaratishga chaqirdi. Kambag'allik mamlakatlarning milliy xavfsizligiga tahdid solayotganligini e'tiborga olib, xalqaro tashkilotlar kambag'allikni qisqartirishning rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ko'proq ijtimoiy samara beradigan, milliy xususiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarini ishlab chiqish zarurligini yanada ko'proq qayd etmoqdalar.

Kambag'allikni qisqartirish XX asrning 90-yillari o'rtalaridan boshlab rivojlanayotgan mamlakatlarga xalqaro yordam ko'rsatish dasturining bosh maqsadiga aylandi. Bunga qator muhim hodisalar sabab bo'ldi. Jumladan, 1995-yilda Ijtimoiy taraqqiyot bo'yicha xalqaro forum o'tkazilib, unda 186 ta davlat vakillari kambag'allikni qisqartirish yuzasidan hamkorlik qilishga qaror qildilar. Shundan so'ng 1997–2006-yillar «BMTning kambag'allikni yo'q qilishning birinchi o'n yilligi» deb e'lon qilindi. 1998-yilda esa rivojlanishning xalqaro maqsadlari aniqlanib, 2015-yilga kelib kambag'allikni ikki marotaba qisqartirish asos sifatida belgilandi.

Xalqaro tashkilotlar, imtiyozli kreditlar berish va qarz yukini bekor qilish yo'lidan bormoqda. Xalqaro hujjatlar Kambag'allikni qisqartirish strategiyasi (KQS) nomini oldi. XVF va Jahon banki rivojlanayotgan mamlakatlar KQS borasida iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotidagi islohotlarni faol o'tkazishni tavsiya etadi. KQS rivojlanayotgan mamlakatlarga xalqaro moliya institutlari tomonidan imtiyozli kreditlar berishning asosiy hujjati hisoblanib, aniq mamlakatda yuz berayotgan siyosiy va institutsional o'zgarishlarni inobatga olgan holda yordamning hajmi va tarkibini aniqlaydi.

Biroq KQSni rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llash tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bu kambag'allikni qisqartirishning ijobiy natijalari haqida yagona xulosa chiqarish imkonini bermaydi. Xalqaro ekspertlar bu borada yangi, o'ta samarali yondashuvlar zarurligi haqida gapirmoqdalar. Jumladan, BMTning Taraqqiyot dasturi rivojlantirish siyosati byurosi iqtisodchisi Terri Makkinli¹ so'nggi yillarda KQSni tayyorlash uchun yetarli shart-sharoitlar shakllanganini va shu bilan birga rivojlanayotgan mamlakatlarda neoliberalizmning ortodoks tavsialari (masalan, qattiq fiskal va monetar siyosat o'tkazish keng ko'lamdagi

¹ Экологическое обозрение – 2004. – № 12.

xususiylashtirish va liberallashtirish) qo‘llanilayotganligi qator salbiy oqibatlariga olib kelganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, XVF va Jahon banki ekspertlari ham qarama-qarshi fikrlarini bildirmoqdalar¹. Bir tomondan, KQS g‘oyasini keng qo‘llab-quvvatlashni taklif qilmoqdalar. Ikkinchi tomondan, «donor mamlakatlar KQS va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish kabi yondashuvlarini yaxshilashga o‘tkir ehtiyoj mavjudligini» tan oladilar. Jumladan, donorlarning milliy yerda faqat moliyaviy emas, balki texnikaviy yordamni kuchaytirish zarurligi ta’kidlanmoqdalar.

Ammo asosiy sabab sifatida rivojlanayotgan mamlakatlarning institutsional zaifligidan kelib chiqqan holda, XVF va Jahon banki quyidagilarni ko‘rsatadi:

- milliy hukumatlarning bayon qilingan maqsadlarga yetarli ahamiyat bermaganligi;
- davlat xarajatlarini boshqaruv zaif ekanligi;
- KQS mahalliy institutlarning ma’muriy qobiliyati bilan bog‘lashning murakkabligi;
- milliy hukumatlar tomonidan maqsad va vazifalar ustuvorligining aniqlanmaganligi;
- maqsadlar va real imkoniyatlar o‘rtasidagi muvofiqlik (balans)ni topa olmaslik.

Ayni paytda kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi (KQS) 5 ta prinsipga asoslanishi talab qilinadi:

birinchi prinsip – strategiya milliy xarakterga ega bo‘lishi zarur va barcha manfaatdor shaxslar ishtirokida ifodalanishi va tatbiq etilishi hamda so‘nggi natijalar monitoringini ishlab chiqish zarur bo‘ladi;

ikkinchi prinsip – strategiya Anin natijalariga asoslanishi va kambag‘allarga naf keltirishi kerak. Jahon tajribasiga ko‘ra, KQSni qo‘llash ayrim mamlakatlarda kambag‘allik holatini biroz yaxshilashga olib keldi;

uchinchi prinsip – KQS kompleksligi. KQS kambag‘allikning kelib chiqishi sabablarini to‘g‘ri aniqlash, uni tugatish choralarini tan olishi zarur. Shuningdek, ushbu hujjat qanday qilib makroiqtisodiy, tuzilmaviy va ijtimoiy siyosatni o‘zgartirish kerakki, bu kambag‘allikni qisqartirsin, degan savolga javob bersin;

¹ «Poverty Reduction Strategy Papers-Progress in Implementation, by staffs of IMF and World Bank, September 12, 2003.

to'rtinchi prinsip – ko'rilayotgan tadbirlar, ko'p tomonlama, ya'ni davlat va nodavlat yo'li bilan ko'rilayotgan choralarni muvofiqlashtirish zarur. Donorlar KQS ishlab chiqish va tatbiq etishda rivojlanayotgan davlatlarga makroiqtisodiy siyosat korrupsiyaga qarshi kurash va fuqarolik jamiyati qurish masalasi yuzasidan maslahatlar berish yo'li bilan ham qatnashishi kerak bo'ladi;

beshingi prinsip – KQS uzoq muddatli bo'lganidan, unga kiradigan rejalar istiqbolga mo'ljallab ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

So'nggi yillardagi tadqiqotlarga ko'ra, KQS sohasidagi turli mamlakatlar siyosati doirasida sezilarli tafovutlar mavjudligini aniqlangan. Jumladan, BMT Taraqqiyot dasturining rivojlanish Konsepsiyasida: «Kambag'allikni qisqartirish strategiyasi ichki o'sish «import qilingandan ko'ra afzalroq»¹, – deyilgan. KQS esa ichki milliy ehtiyojlardan emas, xalqaro kreditorlar manfaati asosida shakllanishi ta'kidlangan.

Shuning uchun ham Konsepsiyada milliy, jumladan iqtisodiy xavfsizlikni samarali ta'minlash uchun kambag'allikni qisqartirish strategiyasining milliy xarakterini kuchaytirish zarurligi uqtirildi.

Konsepsiyaga muvofiq, donor mamlakatlarning rivojlanayotgan mamlakatlarga qo'yilayotgan shartlarini yengillashtirish ma'qul, deb topilgan. Xalqaro tashkilotlar KQSda milliy manfaatlarni himoya qilishga amaliy yordam berishiga da'vat etadilar.

Kambag'allikni qisqartirish strategiyasida milliy xarakter hisobga olinar ekan, mutaxassislar fikriga ko'ra ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda amal qilinayotgan soliq tizimini adolatli va samarali deb bo'lmaydi. Soliq yuki daromadi past xonadon xo'jaliklari sohiblariga tushishi, boylar esa qonunchilikdagi kamchiliklardan foydalanishiga yo'l beriladi.

Jahon xo'jaligining so'nggi o'n yilliklari rivojlanish jarayoni dunyoda kambag'allikni qisqartirishga turtki bo'ldi. Jahon bankining «2004-yilda jahon taraqqiyoti ko'rsatkichlari»² statistik ma'ruzasiga ko'ra, yer shari aholisining o'ta kambag'al yashayotganlari hissasi 1981-yildan 2001-yilga qadar 40 foizdan 21 foizga qisqargan. Shuningdek, ma'ruzada rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi jon boshiga YAIM so'nggi 20 yil ichida 30 foizga oshganligi ma'lum qilingan. Ma'ruzada kambag'allik yuqori sur'atlarda 1980-yillarda jadal qisqargan, 1990-yillarda esa

¹ UNDP Development Viewpoint «Poverty Reduction Strategies: Home Drowth Rather Than Imported», Draft Development Viewpoint, March, Bureau for Development Policy, UNDP, New York.

² World Development Indicators 2004.

aksincha, buning sur'ati pasaygan. O'ta kambag'allar bor-yo'g'i 120 mln. kishiga qisqargan xolos. Kambag'allikning qisqarishi dunyo mamlakatlariida notekis xarakter kasb etganligi, kuzatilgan kambag'allikning qisqarishi Xitoy va Hindistondagi iqtisodiy o'sish sur'atlarining tezligi hisobiga yuz berganligi ma'ruzada qayd etilgan.

BMTning «Tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam. Kambag'allikka ishlovchi biznes» (2004-yil) nomli ma'ruzasida ko'rsatilishicha, yirik korxonalar – TMK va davlat monopolistlar yetarli darajadagi ish joylari yaratishi vazifasini uddalay olmayotganligi ko'rsatilgan. Ba'zi bir huquqni himoya etuvchi va tabiatni muhofaza qiluvchi tashkilotlar YUNKTADning San-Paulidagi sessiyasida korporatsiyalar dunyo jamoatchiligi oldida uchinchi dunyo mamlakatlaridagi faoliyatlari uchun javobgar ekanligini bayon etishi, bejiz emas.

Ushbu ma'ruzada, shuningdek kambag'allikni qisqartirish borasida samarali iqtisodiy siyosat yuritgan davlatlar sifatida Xitoy, Hindiston, Uganda ta'kidlandi. 1980–2005-yillarda samarali iqtisodiy o'sishni ta'minlagani uchun 400 mln. xitoyliklar kambag'allik toifasidan o'rta toifaga chiqqan. Kambag'allik hamma yerda bor, lekin bu mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatiga qarab farqlanadi. Rivojlangan mamlakatlarda kambag'allik nisbiy mazmunga ega. Bu yerda umumiy aholi iste'moli g'oyat yuqori bo'lgani holda, kambag'allar iste'moli past bo'ladi. Ular odatda sifatli tovarlarni kamroq iste'mol qiladilar, xizmatlardan kamroq foydalanadilar, biroq ular uchun ovqatlanish va kiyinish muammosi yo'q. Rivojlangan mamlakatlarda kambag'allik keng tarqalgan hodisa bo'lib, bu hatto ocharchilikni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Kambag'allik miqyosi iqtisodiy darajadan tashqari davlat ijtimoiy siyosatining naqadar faol bo'lishiga, ya'ni davlat aholining kam ta'minlangan qatlamini qo'llab-quvvatlab turishiga ham bog'liq bo'ldi. Shu sababli kambag'allarning aholi tarkibidagi hissasi har doim ham iqtisodiy holatga qarab shakllanavermaydi. Kuchli ijtimoiy siyosat tufayli O'zbekistonda kambag'allik miqyosi mamlakatning iqtisodiy darajasiga nisbatan kichik bo'lishini ta'minlaydi. O'zbekistonda ham kambag'allikning asosiy sababi iqtisodiyotning yetarlicha rivojlanmaganidir. Prezident Islom Karimovning ta'kidlashicha, «*mamlakatdagi kambag'allik va qoloqlik muammolarini hal etish mumkin va zarur*»¹. Buning uchun iqtisodiyotni modernizatsiya qilib, uning o'sishini jadallashtirish talab

¹ Каримов И. А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. – Т., 2005. – Б. 36.

etiladi. Biroq O'zbekistondagi kambag'allik miqyosi mamlakatning iqtisodiy darajasiga nisbatan yuqori emas, chunki davlatning faol ijtimoiy siyosati vositasida muhtojlarga yordam beriladi, kishilarning kambag'allikdan chiqib ketishlari uchun sharoit yaratiladi.

Ta'kidlash joizki, bepul ijtimoiy ne'matlar va xizmatlar iste'moli bilan bir vaqtda pulli bilim olish va tibbiy xizmatdan foydalanish parallel ravishda mavjud. Odatda ko'proq yuqori sifatli xizmatlar pulli ravishda ko'rsatiladi. Yaqin kelajakda pulli ma'lumot olish va tibbiy xizmatdan foydalanish ro'yxatining kengayib borishini taxmin qilish mumkin. Buni bozor qoidalari talab qiladi. Hozirning o'zidayoq aholining ma'lum qatlamlari pulli ijtimoiy xizmatlardan foydalanadilar. Shu bois, 1994–2000-yillarda o'qish xizmatlariga haq to'lashning aholi xarajatidagi hissasi oshayotganligi kuzatilmoqda. Pirovardida, ijtimoiy xizmatlarning u yoki bu turini faqat pulli asosda olish holati yuzaga kelishi ehtimoldan holi emas. Shu sababli pulli xizmatlarning eng kam miqdoriga qarab kambag'allikni tahlil etish o'rinli bo'ladi.

Kambag'allik global muammo bo'lgani bois, uni tugatish umumbashariy tus olgan. Buning uchun eng avval kambag'allik sabablarini aniqlash, so'ngra uni chegaralash chora-tadbirlarini ishlab chiqish talab qilinadi. Nazariy jihatdan qaralganda kambag'allik sabablarini har xil deb baholash mumkin. Bulardan biri o'tkinchi bo'lsa, boshqasi doimiy bo'ladi. Xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarining ko'rsatishicha, kambag'al bo'lib qolish xavfining yuzaga chiqish sabablariga qarab, uning oldini olish choralari ko'rilishi mumkin. Kambag'allik xavfini har xil sabablar yuzaga keltiradi.

Kambag'allik xavfining sabablari orasida muhimlari mavjud. O'zbekistonga misolida xavfni yuzaga keltiruvchi sabablar quyidagicha:

- 1) ishsizlik;
- 2) o'tmishda kambag'allarning ko'p bo'lganligi;
- 3) iqtisodning agrar strukturasi;
- 4) ekologik holat;
- 5) aholining tez ko'payib borishi.

Bu sabablar obyektiv bo'lganligi bois, ularni birdaniga yo'qotib bo'lmaydi. Biroq, bu muammoning kuchayishiga yo'l bermaslik uchun eng avval bandlikni oshirish talab qilinadi. O'zbekistonda aholi turmush darajasining ortib borishi va kambag'allik miqyosini qisqartirish eng avvalo umumiy iqtisodiy o'sishni taqozo etadi. Ma'lumki, Pareto prinsipiga binoan iqtisodiyot quyi darajadan yuqori darajaga ortgani sari

daromadagi tafovutlar kamroq seziladi. Demak, kambag'allik miqyosi va darajasi taraqqiyot darajasiga teskari mutanosiblikda o'zgarib boradi.

Kambag'allik dunyo mamlakatlari kabi O'zbekiston uchun ham ijtimoiy muammolardan biri sanaladi. Bu muammoni tamomila hal etib bo'lmaydi, chunki aholining tabaqalanishi obyektiv va iqtisodiyot uchun tabiiy bir hol. Lekin kambag'allik ijtimoiy to'qnashuvlarni yuzaga keltirishi mumkin, bu esa ijtimoiy beqarorlikni yuzaga keltiradi, jamiyatning iqtisodiy yangilanishiga to'sqinlik qiladi, unga xavf solishi ehtimoldan xoli emas. Shuni hisobga olib, kambag'allik muammosini yumshatish zarur bo'ladi. Shu o'rinda O'zbekistonda keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bular bandlik va daromadlar siyosatidir.

Hozirgi bosqichda kambag'allik miqyosini qisqartirishning asosiy yo'nalishi bu investitsiya, shu jumladan xorijiy investitsiyani topish va eng arzon ish o'rinlarini yaratish hisoblanadi. Bu kambag'al qatlamlarga mehnati hisobidan o'z ahvolini yaxshilash imkonini beradi. Ish kuchi eksportini uyushtirish va aholining o'sish sur'atlari pasayish tendensiyasini saqlash, an'anaviy eksportni saqlagan holda ilg'or xorijiy texnologiyalarga tayanib, mahalliy arzon xom ashyolarni qayta ishlashga asoslangan eksportni kengaytirish, eksport qiluvchi subyektlarning jahon bozorining yangi segmentlarida mustahkam o'rinishi, milliy bozor hajmini hisobga olgan holda, kichik biznes jumladan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish kabilar katta ahamiyat kasb etadi. O'tish davr iqtisodida kambag'allik miqyosining qisqarishi mehnatdagi faollikni oshirish uchun shart-sharoit yaratilishi bilan yuz berishi mumkin. Shuning uchun ishlab topiladigan daromadni va, birinchi navbatda, mehnat daromadini o'stirish uchun imkoniyat yaratilishi juda muhimdir. Bu hol kambag'allarning o'rtacha toifaga o'tishiga imkon beradi.

5. Turmush darajasi va uni belgilovchi omillar

Turmush darajasi aholi iste'molining miqdori va sifati bilan o'lchanadi. Turmush darajasi – kishilarning hayotiy muhim ehtiyojlarini iqtisodiyot rivojining muayyan holatida naqadar qondirilishidir.

Sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston xalqining yashash darajasi boshqa ittifoqdosh respublikalarnikidan taxminan ikki barobar past edi. 1990-yilda O'zbekiston bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri kelgan iste'mol fondi o'rtacha sobiq Ittifoqdagi darajaning 53,4 foizini tashkil etgan. Mana shunday sharoitda respublika oldida turgan asosiy masala bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishda odamlarning yashash darajasini og'irlashtirmaslik edi.

5.1. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha iqtisodiy ko‘rsatkichlar

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga tadrijiy yo‘l bilan izchil va bosqichma-bosqich o‘tish, mamlakatda siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik, O‘zbekiston uchun o‘tish davri iqtisodiyoti qiyinchiliklarini boshidan kechirayotgan boshqa barcha sobiq Ittifoq davlatlaridan ko‘ra ishlab chiqarishning halokatli tarzda orqaga ketishi oqibatlarini tezroq bartaraf etish va 90-yillarning o‘rtalaridayoq iqtisodiy o‘shish hamda aholi turmush darajasini oshirishni qayta tiklash imkonini berdi.

Yirik ishlab chiqaruvchilarning barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun qulay iqtisodiy sharoitlarning yaratilishi, hukumat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ishchanlik muhitini kuchaytirish bo‘yicha aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarning ko‘rilishi iqtisodiyot tarmoqlarining jadal o‘shishiga asos bo‘ldi. O‘zbekistonda bosqichma-bosqich va ijtimoiy yo‘naltirilgan tarzda amalga oshirilayotgan iqtisodiy o‘zgarishlarning samarasi, avvalo, aholi jon boshiga o‘rtacha to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkichlar va xalq turmush darajasining muntazam oshib borayotganida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Aholi jon boshiga o‘rtacha to‘g‘ri keladigan YAIM, xarid qobiliyati pariteti (XQP) asosida hisoblaganda, 1990-yilda 1328 dollarni, 2000-yilda 14312 dollarni, 2010-yilda esa 3271 dollarni tashkil etdi. Shunday qilib, O‘zbekistonda o‘tgan asrning 90 yillaridayoq bu muhim ko‘rsatkich bo‘yicha islohotlargacha bo‘lgan darajadan ham yuqori natijaga erishildi. 2010-yilda esa bu boradagi o‘shish 1990-yilga nisbatan 2,5 barobar oshdi.

4-jadval

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar

	1990-yil	2000-yil	2010-yil	1990-yilda (foiz)	
				2000-yil	2010-yil
Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YAIM (XQP – xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha), AQSh dollarida	1328	1431	3271	107,9	2,5 marta

Iqtisodiyotda band bo'lgan har bir kishiga to'g'ri keladigan YAIM (XQP bo'yicha), AQSh dollarida	3412	39	7940	115,1	2,3 marta
Sanoatda band bo'lgan har bir kishiga to'g'ri keladigan sanoat mahsuloti ulushi,					
ming so'mda	22,1	1649,7	22407,8	129,7	2,3 marta
AQSh dollarida	3159,6	6963,1	14124,1	2,2 marta	4,5 marta
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiya miqdori, AQSh dollarida	40,8	127,5	344,1	3,1 marta	8,4 marta
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chet el investitsiyalari:					
ming so'm	–	7,0	156,6	x	x
AQSh dollarida	–	29,5	100,1	x	x
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulot va xizmatlar eksporti: AQSh dollarida	21,7	132,4	462,1	6,1 marta	21,3 marta

O'zbekiston iqtisodiyotining samarali rivojlanishini yaqqol ifoda etadigan muhim sifat ko'rsatkichi, iqtisodiyotda band bo'lgan har bir kishiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmida namoyon bo'lmoqda. Agar 1990-yilda iqtisodiyotda band bo'lgan har bir kishiga ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning 3412 AQSh dollari hajmidagi qismi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2010-yilda bu raqam o'rtacha 7940 AQSh dollari yoki 1990-yilga nisbatan 2,3 barobardan ziyodni tashkil etdi.

Sanoatning negizini tashkil etadigan tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash hamda ularning raqobatdoshligini tubdan oshirishga qaratilgan ustuvor ahamiyatga molik loyihalarning amalga oshirilishi mahsulot ishlab chiqarish hajmini jadal ko'paytirish

uchun zarur sharoit yaratdi. Natijada, ushbu tarmoqda band bo'lgan har bir kishiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari 2010-yilda 1990-yilga nisbatan 4,5 barobar oshdi.

Mamlakatimiz va chet el investorlari uchun yaratilgan qulay investitsiya muhiti tufayli aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiya miqdori 1990-yildagi 40,8 dollardan 2010-yilda 344,1 dollarga yetishi ta'minlandi. Agar 1993-yilda jalb etilgan chet el investitsiyalarining aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori 0,05 dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda bu ko'rsatkich 100,1 dollarga yetdi. Aholi jon boshiga o'rtacha to'g'ri keladigan mahsulot va xizmatlar eksporti 2010-yilda 462,1 AQSh dollarini tashkil etdi. Bu 1990-yildagi ko'rsatkichdan 21,3 barobar ortiqdir.

5. 2. Aholi turmush darajasining o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlari

O'zbekistonda mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan, o'zaro bog'langan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, yalpi ichki mahsulot, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori sur'atlarda barqaror o'sib borishi, budget sohasi xodimlari ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorining muntazam qayta ko'rib chiqilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash va ilm-fan sohalari xizmatchilarining mehnatini rag'batlantirish, aholi turmush darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar, ayniqsa, oxirgi yillarda xalqimizning hayot sifati izchil yuksalib borishini ta'minladi.

Yurtimizda kechayotgan o'zgarishlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real pul mablag'lari, o'rtacha nominal va real ish haqi miqdori belgilangan eng kam ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar ko'rsatkichlarini yaqqol namoyon etmoqda. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari, xarid qobiliyati pariteti asosida hisoblaganda, 2010-yil oxirida 2016,8 dollarni tashkil etdi. O'rtacha oylik nominal ish haqi esa, xarid qobiliyati pariteti asosida hisoblaganda, 2010-yilning dekabr oyida 1162,6 dollarga yetdi.

Mamlakatimizda kuchli ijtimoiy siyosatning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, aholi daromadlari va hayot darajasini muntazam oshirib borish, xalqimizni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan aniq maqsadli chora-tadbirlar o'rtacha oylik ish haqi miqdorining sezilarli ravishda, ya'ni 2010-yilda 1990-yilga nisbatan

AQSh dollari ekvivalentida 2,7 barobar, o‘rtacha pensiya hajmining esa 5,9 barobar oshishini ta‘minladi. Pul daromadlarining oshishi va aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar aholi barcha qatlamlari o‘rtacha daromadlarining izchil o‘sib borishida muhim omil bo‘ldi. Bunda aholining turli guruhlarini daromadlari darajasidagi tafovutni (differensiyalashuvni) aks ettiradigan Jinni koeffitsiyenti 1990–2010-yillarda 0,40 dan 0,30 ga pasaydi, bu esa iqtisodiy jihatdan taraqqiy topgan davlatlardagi o‘rtacha ko‘rsatkichga mos keladi.

Aholi farovonligi o‘shining muhim tarkibiy qismi xizmat ko‘rsatish va xizmat turlariga nisbatan oshib borayotgan talabning ta‘minlanishi bilan bog‘liqdir. Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi ijrosi davri – 2006–2010-yillarda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste‘mol hajmi 1,8 barobar ko‘paydi.

2006–2010-yillarda xizmat bozori tarkibini takomillashtirish borasida qabul qilingan izchil chora-tadbirlar aholi jon boshiga o‘rtacha to‘g‘ri keladigan bank, moliya va sug‘urta xizmatining yangi istiqbolli turlari jadal rivojlanishini ta‘minladi va ular ushbu davr mobaynida 3,0 barobar o‘sdilar. Aholi to‘lov qobiliyatining ortishi ko‘rsatilayotgan pulli xizmatlar hajmining aholi jon boshiga nisbatan 1992-yil bilan qiyoslaganda 2,2 barobar, maishiy xizmatlar bo‘yicha esa 8,3 barobar o‘shishni taqozo etdi. Shu davrda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan chakana tovar aylanmasi, birinchi navbatda, nooziq-ovqat mahsulotlari savdosining o‘shishi hisobidan 4,3 barobar oshdi.

Iste‘mol budjeti. Aholi farovonligini o‘zida yaqqol mujassam etadigan eng muhim ko‘rsatkich bu – *oila iste‘mol budjetining hajmi va tarkibidir*. Ushbu ko‘rsatkich oila yalpi daromadlari hajmi va tarkibiga, iste‘mol bozorining zarur tovar va xizmatlar bilan to‘ldirilishi hamda oila daromadlarining ana shu iste‘mol mahsulotlari va xizmatlarni xarid qilish imkoniyatlariga bog‘liq.

Iste‘mol budjetida yalpi daromadlar hajmi va tarkibini tahlil qilish muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy tamoyillaridan biri sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan chuqur asoslab berilgan kuchli ijtimoiy siyosat aholi yalpi daromadlarining o‘shishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Mazkur islohotlar natijasida 1990–2010-yillar davomida O‘zbekiston aholisining yalpi daromadlari aniq hisob-kitoblar bo‘yicha 8,6 barobar oshdi.

Yalpi daromadlar tarkibida shu davr mobaynida mulk daromadlari, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan daromadlar ko‘rinishidagi yangi daromad turlari paydo bo‘ldi. Tabiiyki, sobiq mustabid tuzum davridagi markazlashtirilgan rejali iqtisodiyot sharoitida aholining bunday daromad manbalari shakllanishiga mutlaqo yo‘l qo‘yilmas edi.

5-jadval

Mulkdan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan daromadlarning o‘sishi

	1990-yil	2012-yil
Mulkdan va tadbirkorlik faoliyatidan, mahsulot sotish hamda xizmat ko‘rsatishdan olingan daromadlarning yalpi daromaddagi ulushi	10,6	51,0

Yangi turdagi bunday daromadlar hissasiga 2012-yilda yalpi daromadlarning 51,0 foizi to‘g‘ri keldi. Yangi turdagi ushbu daromadlarning afzalligi shundaki, aholining tadbirkorlik sohasidagi faollashuvi oila yalpi daromadlarining jadal ravishda oshib borishi uchun rag‘batlantiruvchi bozor omillarini yaratadi, markazlashtirilgan iqtisodiyot sharoitida keng tarqalgan boqimandalik va daromadlarning bir xilda bo‘lishi darajasini pasaytiradi.

O‘rtacha oylik ish haqi miqdorining bosqichma-bosqich oshirib borilishi yalpi daromadlar tarkibidagi, o‘tish davrining dastlabki yillarida bo‘lgani kabi, ulushi yanada pasayib ketishining oldini oldi. Hozirgi paytda aholining yalpi daromadlarida oylik ish haqining ulushi barqaror holat, ya’ni 30–32,1 foiz darajasida saqlab qolinmoqda. Mamlakatimizda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning qabul qilinishi, hayotimizda tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan o‘rta sinfni shakllantirish imkonini berdi. Ekspert xulosalariga ko‘ra, o‘rtacha daromadga ega bo‘lganlar, agar 1990-yilda aholining 18 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2000-yilda uy xo‘jaliklarini tadqiq etish natijalariga ko‘ra bu ko‘rsatkich 24 foizga yetgani ayon bo‘ldi. 2010-yilda esa 60 foiz uy xo‘jaliklari o‘rtacha darajadan kam bo‘lmagan barqaror daromadga ega bo‘lgan.

Yalpi iste'mol xarajatlari. Oilaning yalpi daromadlari oshib borishi bilan bir vaqtda yurtimizda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini kengaytirish hisobidan ushbu daromadlardan samarali foydalanish uchun sharoit yaratildi.

6-jadval

1990-2010-yillarda aholi yalpi xarajatlarining tarkibi (foizda)

	1990- yil	2000- yil	2009- yil	2010- yil
1. Jami xarajatlar tarkibi	100,0	100,0	100,0	100,0
Ulardan:				
iste'mol xarajatlari	81,1	84,3	78,5	78,4
iste'moldan tashqari xarajatlar (soliqlar, chiqimlar (badallar) va boshqa to'lovlar)	7,1	6,9	6,3	6,2
pul omonatlari va jamg'armalar	11,8	8,8	15,2	15,4
2. Jami iste'mol xarajatlari	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan:				
oziq-ovqat mahsulotlari uchun	58,3	59,8	51,9	49,8
nooziq-ovqat mahsulotlari uchun	31,5	26,8	31,9	33,7
xizmatlar uchun to'lovlar	10,2	13,4	16,2	16,5

Agar 1990-yilda aholi daromadlarining bor-yo'g'i 46–48 foizi mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovar resurslari bilan ta'minlangan bo'lsa, 2010-yilda bu ko'rsatkich 75 foizdan oshdi. 2010-yilda iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1990-yilga nisbatan 6,7 barobar, aholiga pullik xizmat ko'rsatish hajmi esa 1,4 barobar o'sdi.

Yuqorida qayd etilgan omillar aholi yalpi daromadlarining o'sishi bilan birga, uning pul omonatlari va jamg'arma mablag'lari barqaror o'sib borishini ham ta'minladi. Bu mablag'larning xarajatlar tarkibidagi ulushi o'sib, 1990-yildagi 11,8 foizdan 2010-yilda 15,4 foizga yetdi.

Oilalarning iste'mol xarajatlari makrotarkibi ham optimallashtirib bormoqda, oziq-ovqat mahsulotlari uchun xarajatlar ulushi barqarorlashib, xizmatlar uchun xarajatlar ulushi ortib bormoqda. Bunday holat iqtisodiy rivojlanib borayotgan davlatlar uchun xosligini qayd etishimiz joiz.

Oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish. Iste'mol xarajatlarning hajmi va tarkibi ko'p jihatdan aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish imkoniyatlari va mazkur mahsulotlarning narxi bilan chambarchas bog'liq. 1990-yilda eng muhim oziq-ovqat mahsulotlarining chakana savdo tarmoqlaridagi taqchilligi aholining bu mahsulotlarni sotib olish imkoniyatlarini cheklab qo'ygan edi. 1989-yilda o'tkazilgan statistik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, iste'mol bozorida aholi uchun zarur bo'lgan barcha mahsulotlarning qariyb 95 foizi bo'yicha uzilishlar bo'lib turgan va bu sobiq Ittifoq hududida kundalik asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini aholiga kartochkalar orqali sotish tizimini joriy etishga sabab bo'lgan edi.

O'zbekistonda aholi soni 1990–2010-yillar mobaynida 38,2 foiz oshganiga qaramasdan, jon boshiga go'sht va go'sht mahsulotlari iste'mol qilish 22,6 foizga ortdi, jumladan, sut va sut mahsulotlari 30,3 foiz, tuxum 42,3 foiz, sabzavot 2,2 barobar, kartoshka 1,5 barobar, meva 3,6 barobar va shakar 1,37 barobar o'sdi. Ayni vaqtda iste'mol tarkibi ancha sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ko'proq iste'mol qilish hisobidan o'zgarmoqda. Bunda uglevodlarga boy oziq-ovqatlarni (birinchi navbatda, non va non mahsulotlarini) iste'mol qilishning barqarorlashgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillik yillarida aholi tomonidan iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining soni, turi o'nlab barobar oshdi.

7-jadval

O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga asosiy iste'mol mahsulotlarining iste'mol qilinishi, kg. hisobida

	1990-yil	2000-yil	2009-yil	2010-yil	2011-yil	2010-yil, 1990-yilga nisbatan foizda
Non va non mahsulotlari	170	167	165	160	158	94,1
Go'sht va go'sht mahsulotlari	31	34	36	38	39	122,6
Sut mahsulotlari	183	162	212	239	242	130,3
Tuxum (dona)	97	47	130	138	240	142,3
Sabzavot, jumladan, poliz	107	128	237	238	241	222,1

Kartoshka	29	36	41	45	47	155,2
O'simlik yog'i va boshqa moylar	12	12	13	13	13	103,2
Shakar	12	16	16	17	18	137,5
Meva, jumladan, uzum	23	42	74	83	85	360,0

Agar 1990-yilda iste'mol uchun zarur bo'lgan g'allaning 82 foizi, go'sht va go'sht mahsulotlarining 50 foizi, sut mahsulotlarining qariyb 60 foizi, kartoshkaning 50 foizi, shakar, quruq sut va bolalar ozuqasi 100 foiz chetdan keltirilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda yurtimiz ishlab chiqarishni rivojlantirish hisobidan aholining barcha asosiy iste'mol mahsulotlari bo'yicha (shakardan tashqari) ehtiyojini deyarli to'liq ta'minlamoqda.

Nooziq-ovqat mahsulotlari iste'moli. 1990-yili respublikamizda nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol bozorida o'ta taqchilik vujudga keldi. Aholining sifatli kiyim-bosh, poyafzal, uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan tovarlarni xarid qilish imkoniyatlari cheklangan edi. Odamlarga mebel, gilam, muzlatgich, televizor va yengil avtomobillarni sotish ko'pincha korxonalar orqali oldindan tuzilgan ro'yxatlar asosida amalga oshiriladi, bunday tovarlarni xarid qilish uchun esa bir necha yillab navbat kutishga to'g'ri kelar edi. Barcha turdagi nooziq-ovqat mahsulotlarining qariyb 88 foizi chakana savdo tarmoqlarida katta uzilishlar bilan sotilardi. Ko'plab taqchil mahsulotlar qonunga xilof ravishda ustiga qo'shimcha narx qo'yib sotilardi.

Aholi ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan nooziq-ovqat mahsulotlarning katta qismi respublikamizda ishlab chiqarilmas, balki chetdan keltiriladi edi. Jumladan, televizorlar, kir yuvish mashinalari, gazmollarning qariyb 40 foizi, barcha turdagi oyoq kiyim va boshqa shunga o'xshash mahsulotlarning 30 foizi chetdan olib kelinardi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning ancha faol o'sishi asosan 2000-yildan so'ng, mamlakatimizda ularni ishlab chiqarishni rag'batlantiradigan shart-sharoitlar bosqichma-bosqich yaratila boshlangandan keyin kuzatildi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz sanoati aholining sifatli mebel, gilam mahsulotlari, yengil avtomobillarga bo'lgan ehtiyojini to'liq ta'minlay oladi. Mamlakatimizda televizorlar, konditsionerlar va ekologik xavfsiz muzlatkichlar ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada o'sdi. Trikotaj mahsulotlari, oyoq kiyimlar tayyorlash va yengil sanoatning boshqa

tarmoqlarida ham ishlab chiqarish yuqori sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Agar 2000-yilga qadar o'tish davrining obyektiv shart-sharoitlari tufayli aholining asosiy nooziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi va ta'minoti pasaygan bo'lsa, so'nggi o'n yillikda bu boradagi ko'rsatkichlarda barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu jarayonda uy xo'jaliklari eskirgan va noqulay maishiy va elektrotexnika buyumlaridan voz kechib, yangi, zamonaviy, sifat jihatdan eski buyumlardan keskin farq qiladigan mahsulotlarni tez sotib olmoqda.

Qayd etilgan davrda mutlaqo yangi mahsulotlar paydo bo'ldi. Bugun ularni xonadon egalari katta qiziqish bilan sotib olmoqda: raqamli televizor va fotoapparatlar, sun'iy yo'ldosh antennalari va mobil telefonlar, DVD pleyerlar, kompyuter va unga qo'shimcha qurilmalar, noutbuklar va boshqa elektron texnikalar, qurilish materiallarining yangi turlari, qadoqlash buyumlari va boshqa ro'zg'or ashyolari shular jumlasidan. Shunisi e'tiborliki, xonadonlarning zamonaviy maishiy va elektrotexnika bilan ta'minlanish sur'atlari yurtimizning barcha hududlarida bir maromda, mutanosib tarzda o'sib bormoqda.

Aholining xarid qobiliyati, ya'ni uning oylik maosh va pensiya hisobidan eng zarur iste'mol mahsulotlarini sotib olish va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan talab va ehtiyojlarining ta'minlanishi sezilarli darajada yaxshilanib borayotganini aks ettiradi. O'rtacha oylik maosh xarid qobiliyatining o'sish dinamikasi, minimal iste'mol savati bilan qiyoslanganda, hozirgi paytda 7,2 barobar oshdi.

Aholining jamg'arma mablag'lari. Aholining jamg'arma mablag'lari iste'mol budjetining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yurtimizda 1995–2010-yillarda aholi omonatlari hajmi barqaror oshib bordi. Ayniqsa, yuqori o'sish sur'atlari 2000–2010-yillarga to'g'ri keladi, bu davrda mazkur ko'rsatkich 28,6 barobar oshgan. Hozirgi vaqtda, so'rov natijalariga ko'ra, mamlakatimizdagi qariyb barcha xonadon sohiblari banklarda o'z jamg'arma mablag'lari – omonatlariga ega.

Bozor munosabatlari chuqurlashib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanib borgani sayin aholining yalpi xarajatlari tarkibida yangi yo'nalish – tadbirkorlik faoliyati uchun xarajatlar yo'nalishi paydo bo'ldi. Ularning ulushi hozirgi paytda 8,5 foizni tashkil etmoqda. O'z mohiyatiga ko'ra, bu usul oila xo'jaligining asosiy kapital uchun mablag' jamg'arishning samarali shakli bo'lib, xususiy mulk asosida o'z daromadlarini shakllantirish va ko'paytirish imkonini beradi.

6. Davlatning ijtimoiy siyosati. O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari

Ijtimoiy siyosiy davlat siyosatining muhim bo‘g‘inidir. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT)ning «Ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadlari va me‘yorlari to‘g‘risida»gi 117-sonli konvensiyasida insonning o‘zi, oilasi salomatligi va farovonligini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan turmush darajasiga, shuningdek ishsizlik, nogironlik, bevalik va unga bog‘liq bo‘lmagan boshqa sabablarga ko‘ra yashash uchun zarur mablag‘lardan mahrum bo‘lgan hollarda ijtimoiy ta‘minotga ega bo‘lish huquqi belgilangan.

XMT tomonidan qabul qilingan «Ijtimoiy ta‘minotning minimal me‘yorlari to‘g‘risida»gi 102-sonli konvensiyani ijtimoiy himoyalash bo‘yicha asosiy hujjat deb qarash mumkin. Ushbu konvensiya ijtimoiy himoyaning quyidagi 9 turini o‘z ichiga oladi: tibbiy xizmat, ishsizlik va keksalik nafaqasi, ishlab chiqarishda olgan jarohatlar tufayli nogironlik nafaqasi, boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha nafaqa, homiladorlik va farzand tug‘ilishi bo‘yicha nafaqa, kasallik nafaqasi va oilaviy nafaqa.

Iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikning o‘zaro aloqasini iqtisodiy manfaatlar yuzaga chiqaradi. Iqtisodiy manfaatlar – bu kishilarning hayotiy ehtiyoji, lekin bu anglangan va ma‘lum xatti-harakatni yuzaga keltirganda, iqtisodiy manfaatga aylanadi. Manfaatlar o‘zining homiy subyektiga qarab har xil bo‘ladi. Ayrim kishining manfaati individual, jamoaning manfaati guruhiy-korporativ va nihoyat davlatning manfaati umummilliy bo‘ladi. Bozor tizimida individual manfaat ustuvorlikka ega, chunki bu yerda xususiy mulk yetakchi bo‘ladi. Individual manfaat bu ish kuchi egasi bo‘lgan yollanib ishlovchi manfaatiga, tadbirkorlar, mulk sohiblari va menejerlar manfaatiga ajraladi. Har bir individ o‘z qo‘lidagi resurslardan ko‘proq daromad topishga intiladiki, bu bilan u o‘z manfaatini ro‘yobga chiqarishga oshiqadi. Ish kuchi egasi ko‘proq ish haqi olsam, tadbirkor foydani ko‘p topsam, pul egasi ko‘p foizga ega bo‘lsam, deydi.

Hozirgi iqtisodiyot faqat bozor qonunlari boshqarib turadigan iqtisodiyot emas. Uning muhim jihati davlat tomonidan tartibga solinishidir. Bozor kuchlari muqobil tanlovni yuzaga keltiradi. Bunga ko‘ra, iqtisodiyotda saralanish yuzaga kelib, tabaqalanish chuqurlashadi. Iqtisodiy ishtirokchilarning mavqei tez-tez o‘zgarib turadi. Bozor mexanizmi o‘z-o‘zidan ijtimoiy tengsizlikni yaratadi. Binobarin, unda ijtimoiy kelishmovchilik yaratish salohiyati ham yo‘q emas. Demak,

bozor kuchlarida iqtisodiyotni rivojlantira olishga layoqat bor. Biroq ular ijtimoiy muvozanatni ta'minlashda layoqatsiz bo'ladi. Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda davlat faollik qilishi kerak, bunga ta'sirchan ijtimoiy siyosat orqali erishiladi. Davlat iqtisodiyot ishtirokchisi sifatida boshqa subyektlardan siyosiy hokimiyat sohibi ekanligi bilan farqlanadi. Shu hokimiyatga tayanib, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy hayotni tartibga solib turadi.

Shu jihatdan davlatni jamiyat manfaatini himoya qiluvchi eng *oliy toifadagi ijtimoiy institut* deb ham atash mumkin. Shu sababli uning ijtimoiy funksiyalari ham kuchayib boradi. Ijtimoiy tanlov nazariyasiga ko'ra, hozirgi davlatda himoya qilish, homiylik va unumli ishlab chiqarish funksiyalari mavjud. Himoya qilish funksiyasi ijtimoiy xavfsizlik va tartibni ta'minlashdan iborat. Bu vazifani bajarish yo'lida davlat kuch ishlatishi mumkin va jamiyat davlatga shunday monopol huquq beradi. Davlat kishilarni tinch-totuvlikda va hamkorlikda yashab, bir-biriga zarar yetkazmasligini ta'minlaydi. Davlatning unumli ishlab chiqarish funksiyasi fuqarolarga ijtimoiy ne'matlar yetkazib berishdan iborat. Bu shunday ne'matlarki, davlat fuqarolarga tekinga beradi, ulardan hamma bahramand bo'ladi. Bu ne'matlarni hamma keragicha oladi, ularni taqsimlashda tenglik qoidasiga amal qilinadi. Bu yerda ijtimoiy ne'matni bir odam olgani holda boshqasi olmasligi mumkin emas. Masalan, davlat huquq-tartibot organlari xizmatidan bir guruh yoki shaxs foydalangani holda boshqasi bundan istisno etilmaydi. Shu tariqa bepul ta'lim, tibbiy, obodonchilik va ekologik xizmatlardan ham foydalaniladi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasida: «Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega», 41-moddasida: «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi», – deb mustahkamlab qo'yilgan. Agar bozor qonun-qoidalariga binoan, kishilarning iqtisodiy farovonligi jiddiy farqlansa, davlat bergan ijtimoiy ne'matlaridan foydalanish tafovutlarni qisqartiradi.

Demak, davlat bozor mexanizmi hal eta olmaydigan ijtimoiy muammolarni yechishda jamiyat nomidan qatnashadi. Fuqarolik jamiyatida davlat kishilarning uyg'unlashgan irodasini ifoda etadi, umummilliy manfaatlarni himoya qiladi. Bozor mexanizmi iqtisodiy o'sish muammosini hal etgani holda, ijtimoiy tengsizlik muammosini keltirib chiqaradi. Bu esa beqarorlikni oziqlantiradi. Shu sababli davlat ijtimoiy tengsizlikni yumshatish choralarini izlaydi, u jamiyatning o'zini ijtimoiy larzalardan saqlab turadi. Davlat jamiyatdagi barqarorlikni faqat

siyosiy kuch bilan emas, balki o'zining ixtiyoridagi moliya resurslariga tayangan holda ta'minlaydi. Hozirgi davlat ijtimoiy davlat bo'lar ekan, uning ixtiyorida iqtisodiyotning ijtimoiy sektori saqlanadi, ijtimoiy sektor davlat korxonalari bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy ne'matlarni yaratuvchi va xalqqa yetkazib beruvchi turli davlat tashkilotlarini ham o'z ichiga oladi. Mazkur sektorga budjet tizimi ham kiradiki, bu uning bosh va yetakchi bo'g'ini vazifasini o'taydi, chunki budjet ijtimoiy ne'matlarni yaratishni moliyalashtiradi.

Jamiyat davlatga zo'rlik qo'llash vakolatini beradi va u shundan foydalanib, budjetga majburiy to'lovlar, soliqlar undiradi, ya'ni o'z moliyaviy resurslarini hosil qiladi. Ular hisobidan ijtimoiy ne'matlarni yaratadi. Ijtimoiy ne'matlar tovarlashgan xizmatlar emas, chunki ular bozorga chiqarilmaydi, binobarin, bozor qiymatiga binoan ayirboshlanmaydi, ular bepul taqsimlanadi. Shularni e'tiborga olib, ijtimoiy ne'matlarning yaratilishini nobozor ishlab chiqarish deb aytish mumkin va bu vazifani davlat bajarishini qayd etish zarur. Ijtimoiy ne'matlarning nobozor usullar bilan taqsimlanishi bir qator ijtimoiy xizmatlarni aholining kambag'al qatlamlariga ham yetkazib beradi, bu bilan ularning ijtimoiy farovonligi ma'lum darajada ta'minlanadi. Davlat aytilgan xizmatlarni yaratar ekan, bularni resurslar bilan ta'minlash uchun boshqa subyektlar daromadining bir qismini budjetga olib taqsimlaydi. Bu bilan bozor mexanizmi bajara olmaydigan, firmalar va xonadonlar qo'lidan kelmaydigan ishni bajaradi, ya'ni hammabop ne'matlarni elga yetkazadi. Bu yerda davlat ekstrenal, ya'ni iqtisodiyotga nisbatan tashqi kuch vazifasini o'taydi, ammo bu iqtisodiyot uchun zarurat hisoblanadi, chunki, *birinchidan*, ijtimoiy farovonlikka xizmat qiladi, *ikkinchidan*, ish kuchining takroran yaratilishiga hissa qo'shadi. Davlat bozor mexanizmi hal etishga qodir bo'lmagan vazifalarni o'zining ijtimoiy siyosati orqali bajaradi. Bu ijtimoiy ne'matlardan hammani bahramand etish, ijtimoiy himoya, bandlik va daromad siyosatidir. O'zbekiston avvaldan faol ijtimoiy siyosat yo'lini tutdi va mustaqillik yillarida bunga izchil amal qildi. Bu yerda davlat o'z zimmasiga g'oyat katta ijtimoiy majburiyatlarni oldi, bu bilan ijtimoiy sohalarni uzluksiz ishlab turishini ta'minlashga, va hatto ijtimoiy ne'matlar ko'lamini oshirishga erishildi. Bu o'z navbatida, davlat iste'molining yalpi ichki mahsuloti hissasining katta bo'lishiga olib keldi. Yuqorida ta'kidlanganidek, davlatning ijtimoiy tadbirlarga xarajati qariyb 21 yil ichida besh barobardan ziyod ko'paydi. Davlat ijtimoiyligining kuchayishi uning iste'molini iqtisodiy salohiyat darajasiga nisbatan ancha yuqori bo'lishiga olib keldi, aks holda katta

ijtimoiy majburiyatlarni bajarib bo‘lmas edi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O‘zbekiston davlati ijtimoiy sohaga katta resurslarni safarbar etib, uning rivojini ta‘minladi. Bu bilan aholining kambag‘al qatlamlariga eng zarur ijtimoiy ne‘matlar yetkazib berildi. Bu ne‘matlar iste‘moli jihatidan aholining aytilgan qatlami o‘rtacha darajaga yaqinlashdi.

Davlatning ijtimoiy siyosati – bu insonning tobora yuksalib borayotgan eng muhim hayotiy manfaatlarini yuzaga chiqarish, insonni himoya qilish va kamol topishiga qaratilgan siyosatdir. O‘zbekistonda davlatning ijtimoiy himoya siyosati ham ijtimoiy tafovutlarni cheklashga qaratildi. Shu maqsad yo‘lida katta resurslar ajratildiki, ular hisobidan aholining yordamga muhtoj qatlamlariga pul va natural transfetlar shaklida yordam ko‘rsatildi, maqsadli pul to‘lovlari va ijtimoiy imtiyozlar beriladi, kompensatsion ijtimoiy to‘lovlar ajratiladi. Ijtimoiy yordam siyosati kambag‘allar sonini qisqartirishni ko‘zda tutadi. Biroq bu ishda muhtojlarga beriladigan yordam, asosan, ish qobiliyatini yo‘qotganlarga ko‘rsatiladi, ish qobiliyatini saqlagan kishilarga ishlab, daromad topish uchun sharoit yaratiladi. Bu bilan mehnatdan foydalanish hisobiga muhtojlikdan ozod bo‘lish ko‘zda tutiladi.

Ijtimoiy barqarorlikka davlatning bandlik siyosati yordamida ham erishiladi. Bu siyosat uch yo‘nalishda olib boriladi:

a) mavjud ish joylaridan to‘liq foydalanish asosida bandlikni oshirish;

b) davlat tomonidan yangi ish joylari yaratilishini rag‘batlantirish;

c) ish kuchi eksportini tashkil etish va rag‘batlantirish. Bu usul ish kuchi taklifini qisqartirish orqali bandlikka ko‘maklashadi.

Bandlikning oshirilishi daromad topish hisobidan ham doimiy, ham juz‘iy kambag‘allikni qisqartiradi. O‘zbekiston sharoitida bandlikni oshirishning ikkinchi usuli ustunlikka ega. Bu yerda yangi ish o‘rinlari, ayniqsa, arzon ish o‘rinlarining yaratilishi hamma choralar bilan rag‘batlantiriladi. Shu o‘rinda imtiyozli mikrocreditlar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular kichik biznes, dehqon-fermer xo‘jaliklarida kapital sig‘imi kichik bo‘lgani uchun nisbatan arzonga tushadigan, yaratilishi qiyin bo‘lmagan ish o‘rinlarini hosil etadi. O‘zbekistonda 2013-yilda jami 970 mingdan ortiq ish o‘rinlari tashkil etilishi ko‘zda tutilmoqda. Bu yangi tashkil qilingan umumiy ish o‘rinlarining 600 mingdan ziyodi yoki 65 foizi kichik biznes sohasi va fermer xo‘jaliklariga to‘g‘ri keladi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov aholi bandligini ta‘minlash va yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish muammosini hal etish 2013-yil va yaqin

istiqbolda ham mamlakatimizni muvaffaqiyatli va barqaror rivojlantirishning alohida ustuvor yoʻnalishi va hech mubolagʻasiz eng muhim sharti ekanligini taʼkidladi.

«Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, ayniqsa, Qoraqalpogʻiston Respublikasi rahbariyati, viloyatlar, shahar va tumanlar hokimlari eʼtiborini ushbu masʼuliyatli vazifa boʻyicha ularning shaxsan javobgar ekanligini» Yurtboshimiz qatʼiy vazifa etib qoʻydi.

Topshirilgan vazifalarning bajarilishi joylarda ijtimoiy adolatni taʼminlashga xizmat qiladi. Maʼlumki, ijtimoiy tengsizlik bozor tizimi uchun muqarrar boʻlsa-da, uning maʼlum meʼyori boʻlib, bundan chiqib ketish ijtimoiy beqarorlikni yuzaga keltiradi. Bu, birinchi navbatda, eng kam va eng yuqori daromadni, yaʼni boylar va kambagʻallar daromadlarining farqlanishiga taalluqli boʻladi. Bu farq katta joyda ijtimoiy xatar imkoni mavjud. Aksincha, bu farq kam joyda ijtimoiy muvozanatga moyillik hukmron boʻladi. Tengsizlikni aniqlashda odatda 10 foiz boylar va 10 foiz kambagʻallar daromadining nisbati asos qilib olinadi. Xalqaro standartlarga binoan bu (13–15):1 boʻlishi mumkin. Tengsizlik darajasi bundan oshib ketganda, ijtimoiy xatar tugʻiladi, deb qabul qilingan. Keltirilgan nisbatning meʼyoridan chiqib ketishi koʻpincha iqtisodiyoti yaxshi rivojlanmagan mamlakatlarda kuzatiladi. Biroq bu meʼyorni saqlab qolish ijtimoiy siyosatga ham bogʻliq boʻladi. Iqtisodiyot baquvvat joyda ommaviy farovonlik mavjud, chunki ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar toʻkinchilikni taʼminlab, hayotni farovon qilishga yetadi. Buning dalili sifatida qoloq davlatlarga berilgan begʻaraz yordam miqdorining ortib borishi, ularga berilgan qarzlardan kechib yuborilishini koʻrsatish mumkin. Oʻzbekistonda ijtimoiy tengsizlik mavjud boʻlsa-da, uning miqyosi kattalashib borishiga yoʻl berilmaydi, aksincha, faol ijtimoiy siyosat amalga oshirilib, kambagʻallarga har taraflama yordam beriladi. Oʻzbekiston iqtisodi rivojlangan mamlakatlar safiga kirmasa-da, bu yerda kambagʻallarning daromaddagi salmogʻining koʻrsatkichi aytilgan mamlakatlardagidan ancha yuqori, yaʼni 9,2 foizni tashkil etadi. Bu koʻrsatkich boʻyicha Oʻzbekiston faqat Yaponiya, Vengriya, Norvegiya, Chexiya va Finlyandiyadan orqada, qolgan boshqa hamma mamlakatlardan oldinda yuradi. Bu faol ijtimoiy siyosat natijasidir.

Oʻzbekistonda aholining tabaqalashuvi oʻz holiga tashlab qoʻyilmasdan, doimo meʼyorida saqlanib kelingan. Bu yerda 10 foiz kambagʻallar bilan 10 foiz boylar daromadi oʻrtasidagi farq keyingi paytda 9,5–13,5 -martadan oshmagan. Demak, tabaqalashuv xalqaro

standartlar darajasida yuz bergan. Tahlillarning ko'rsatishicha, O'zbekistonda daromadlarni boy tabaqa qo'lida konsentratsiyalashuv (to'planuv) koeffitsiyenti ham me'yorida. Bu me'yor koeffitsiyenti 0,250 – 0,360 hisoblanadi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 1995-yilda – 0,310, 1996-yilda – 0,350, 1997-yilda – 0,421, 1998-yilda – 0,405, 2000-yilda – 0,389, nihoyat 2003-yilda – 0,320 bo'lgan.

Aholining daromadlar bo'yicha tabaqalashuvining me'yorida saqlab turilishi ijtimoiy hamjihatlikni kafolatlaydi. Ijtimoiy barqarorlik kambag'allar sonining qisqarib borishi bilan ham bog'liq. Dunyoda qabul qilingan kambag'allik me'yori 10 foizni tashkil etadi, ya'ni kambag'allar butun aholining o'ndan bir qismini tashkil etishi maqsadga muvofiqdir. Dunyoning mutlaq ko'pchilik mamlakatlarida bu me'yor ta'minlanmagan. Shu sababli kambag'allarga yordam ko'rsatish ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlovchi vosita sifatida o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Ijtimoiy xavfsizlik iste'mol darajasi va tarkibini ham me'yorida bo'lishini talab qiladi.

Ijtimoiy xavfsizlik deganda jamiyat barcha ahlining zaruriy moddiy va ijtimoiy mavqeini ta'minlash bo'yicha davlatning chora-tadbirlari majmui tushuniladi. U, *birinchidan*, malakali ish kuchini takror ishlab chiqarishni, *ikkinchidan*, jamiyatning mehnatga qobiliyatli a'zolari salohiyatini amalga oshirish uchun sharoitning mavjudligini, *uchinchidan*, ishsizlarni qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlarini yaratish, *to'rtinchidan*, ijtimoiy kafolatlarni bildiradi.

Iste'mol eng kam deganda tirikchilik minimumini, ko'p deganda ijtimoiy minimumni ta'minlashi talab qilinadi. Tirikchilik minimumi inson sog'-salomat yashab, ish qobiliyatini saqlab qolishi uchun zarur bo'lgan darajada iste'mol qilinishini bildiradi.

Ijtimoiy minimum normal turmush kechirish va ish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beruvchi iste'molni bildiradi. Ijtimoiy barqarorlik bo'lishi uchun iste'mol tirikchilik minimumidan ijtimoiy minimum tomon o'sib borishi talab qilinadi. Ijtimoiy xavfsizlik nuqtai nazaridan iste'mol mehnat salohiyatining vayron bo'lishiga yo'l bermay, uning saqlanib qolishini ta'minlashi kerak bo'ladi. Ammo mehnat salohiyatini saqlash xarajatlari mamlakatlar bo'yicha jiddiy farqlanadi, chunki ish kuchini qaytadan yaratish sarflari hamma yerda bir xil bo'lishi mumkin emas. Rivojlangan mamlakatlarda bu sarf bir kun hisobida eng kamida 18 dollar, AQShda esa 33 dollar qilib belgilangan. Bunday farqlanish iste'mol minimumining miqdoran va tarkiban har xil bo'lishidan va narxlar darajasidan kelib chiqqan.

Inson sogʻlom yashashi uchun ovqatlanishi miqdoran va tarkiban yetarli boʻlishi zarur. Kundalik ovqatlanish meʼyori 2150 kilokaloriya energiya quvvati bera olishi lozim. Bu ham ijtimoiy zarurat hisoblanadi. Biroq oziq-ovqat tarkibida kishi organizmiga zarur boʻlgan moddalar minimal darajada boʻlishi talab qilinadi. Masalan, kundalik ovqatlanishda har bir kishi uchun kamida 30–32 g. goʻsht, baliq, tuxum va sut kabi mahsulotlar beradigan oqsil moddasi boʻlishi kerakligi mutaxassislar tomonidan taʼkidlanadi. Binobarin, xavfsizlik darajasi boʻlishi uchun oziq-ovqat tarkibida uglevodlardan tashqari, oqsil, yogʻ va vitaminlar ham boʻlishi kerak. Buning uchun uglevodli non, makaron, kartoshka va guruchdan tashqari, oqsilga boy sut, goʻsht, tuxum, baliq ham isteʼmol qilinishi zarur boʻladi. Inson uchun oziq-ovqat xavfsizligi darajasini aniqlashda kundalik ovqatlanish beradigan energiya quvvati uning meʼyori bilan taqqoslanadi.

Ijtimoiy xavfsizlik nooziq-ovqat tovarlarini, jumladan xizmatlarni ham minimal darajada boʻlsa-da, isteʼmol etilishini bildiradi. Biroq oʻtish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda aholi isteʼmoli tarkibida buzilishlar yuz beradi. Bu jami isteʼmolda oziq-ovqat hissasining ortib ketishidan iborat boʻlib, daromadlarning umuman kamayishi va aholi tarkibida kam taʼminlanganlar hissasining ortishi bilan izohlanadi. Bunday hodisa oʻtish davrining dastlabki yillarida koʻpchilik MDH mamlakatlarida kuzatildi. Oʻzbekistonning bozor iqtisodiyotiga oʻtish konsepsiyasi real iqtisodiy sharoitdan kelib chiqqanini hayotning oʻzi isbotladi. Gap shundaki, Oʻzbekiston, *birinchidan*, sotsialistik iqtisodiy tizim sharoitida, *ikkinchidan*, esa Sovet imperiyasi tarkibida rivojlandi. Bu esa uni qoloqlikka mahkum etdi. Oʻzbekiston resurslarga boy mamlakat boʻla turib, iqtisodiy taraqqiyotda koʻpgina Sharq mamlakatlaridan orqada qolib ketdi. 1990-yili aholi jon boshiga ishlab chiqarish boʻyicha dunyoda 75–80 oʻrinni egalladi, ishlab chiqarishning oʻsish surʼati, uning strukturasi, tarkibining yangilanishi, yaʼni diversifikatsiyasi jihatidan dunyo talablaridan ancha orqada qoldi.

Dastlab, jon boshiga hisoblangan nooziq-ovqat tovarlari isteʼmoli qisqardi, demak, ularning yetishmovchiligi yuzaga keldi. Bu, ayniqsa, turli xizmatlar isteʼmolida yaqqol koʻzga tashlandi. Xizmat koʻrsatishning pulli boʻlishi va daromadning yetishmasligi isteʼmol darajasining qisqarishiga olib keldi. Natijada ijtimoiy xizmatlarni isteʼmol qilish uchun ketgan sarflarning oilaning jami xarajatlaridagi hissasi kichik boʻldi, lekin uning oʻsishga moyilligi kuzatildi.

Xavfsizlikka erishishda ijtimoiy farovonlikning ahamiyati katta. Bu iqtisodiy farovonlikdan farqliroq turmush kechirishning shart-sharoiti qandayligi bilan tavsiflanadi. Bunga hayot kechirishning xavfsizligi, kommunal xizmatlar iste'moli, ijtimoiy ne'matlar, o'rtacha umr ko'rish kabilar kiradi. Xalqaro miqyosda ijtimoiy farovonlik darajasini aniqlash uchun bolalarning qanchasi maktablarda o'qishi, o'qituvchilar soni, ta'lim olishdagi teng huquqlilik darajasi, davlatning jon boshiga hisoblangan ta'lim uchun sarflari kabilar hisobga olinadi.

Sog'liqni saqlash xizmati darajasi aniqlanganda, bolalar orasidagi o'lim, bola tug'ish paytida onalarga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat sifati, bolalarning emlanishi, har ming nafar aholiga hisoblangan vrachlar soni, kasalxonalarda o'rinlar soni va davolanish darajasi kabilar inobatga olinadi. Ijtimoiy farovonlikni aholining toza ichimlik suvi va zamonaviy kanalizatsiyadan foydalanishi ham belgilaydi. Ona va bola salomatligini himoyalash bo'yicha bajarilayotgan tadbirlar natijasida o'tgan o'n yil (2000–2010) davomida mamlakatimizda onalar o'limi har ming kishi uchun 33,1 nafardan 19,7 nafarga, bolalarning nobud bo'lishi esa 18,9 nafardan 10,1 nafarga tushdi. Tug'ma va irsiy kasalliklar bilan tug'iladigan bolalar soni qariyb ikki barobar kamaydi. Yaponiya parlamenti a'zolari O'zbekistonda aholi savodxonligi darajasini qariyb 100 foiz, deb ta'kidladi¹.

Iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikning asosiy ko'rsatkichlari (jon boshiga daromad miqdori, savodxonlik darajasi, o'rtacha umr ko'rishi) asosini inson kamoloti indeksi orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi. Barqarorlik sharoitida ijtimoiy konfrontatsiya (qarshi turish) o'rniga ijtimoiy konsolidatsiya (hamkorlik) yuzaga keladi. Ijtimoiy hamkorlik bor joyda inson kapitali rivoj topadi va bu milliy xavfsizlikning asosini belgilovchi iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikka xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar:

Daromad, bozor daromadlari, nobozor daromadlari, real daromad, tadbirkorlik daromadi, qonuniy daromadlar, noqonuniy daromadlar, turmush darajasi, minimal iste'mol budjeti, kambag'allik ko'rsatkichi, ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat.

¹ Қараңг: Халқ сўзи. – 2011. – 3 фев.

Savol va topshiriqlar:

1. «Daromad» tushunchasining mohiyatini yoriting.
2. Daromadga ega bo'lishning belgilari qanday?
3. O'zbekiston Respublikasining aholining ijtimoiy himoyasi to'g'ri-sidagi amaldagi qonunlarini yozing va mohiyatini izohlang.
4. Daromadlar tizimi va uning elementlarini tushuntiring.
5. Daromadlar nima uchun bozor tizimining bir qismi hisoblanadi?
6. Daromadlarning subyektlarini tushuntiring.
7. Daromadlar qanday shakllanadi?
8. Qonuniy va noqonuniy daromadlarni tushuntirib bering.
9. Bozor va nobozor daromadlarini ta'riflang.
10. Tadbirkorlik daromadining mohiyatini sharhlang.
11. Ijtimoiy himoyaning maqsadi qanday?
12. Real daromadlar nima?
13. Aholi ehtiyojlari va turmush darajasiga ta'sir etuvchi omillarni sanab o'ting.
14. Daromadlar farqlanishining uch darajasini izohlang.
15. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosati va uning hayotiyligini tushuntirib bering.
16. Turmush darajasining jinoyatchilikka qanday bog'liqligi bor?
17. Amaldagi qonunlarning aholi ijtimoiy xavfsizligini ta'minlashdagi o'рни va ahamiyatini izohlang.
18. Aholi turmush darajasini belgilovchi indikatorlarni ko'rsating.
19. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining noqonuniy daromadlarni aniqlashda roli qanday?
20. Ijtimoiy sohaning mohiyatini tushuntiring.
21. Mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining turmush darajasini yanada yuksaltirish borasida qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?

Mavzuni chuqur o'rganish instrumentariysi

Mutlaq qashshoqlik – shaxs yoki uy xo'jaligining real daromadning yashash uchun zarur bo'lgan eng kam mablag' hajmiga mos keladigan holati.

Detsil koeffitsiyent – xonadon xo'jaliklarining eng ko'p daromadli 10 foizning o'rtacha daromadi bilan eng kam ta'minlangan 10 foizning o'rtacha daromadi o'rtasidagi nisbatni ifodalovchi koeffitsiyent.

Daromadni qayta taqsimlashda davlatning ishtirok etish indeksi – daromadlarni qayta taqsimlashga davlat aralashuvining darajasini ifodalovchi ko'rsatkich.

Daromadlarning konsentratsiyasi indeksi – jamiyatning daromadlar bo'yicha qutblashuv darajasini ko'rsatuvchi indeks.

Nominal daromad – tovar va xizmatlarning joriy yoki nominal baholari doirasidagi pul daromadlari darajasi.

Nisbiy qashshoqlik – uy xo'jaligining o'rtacha uy xo'jaligi daromadiga qaraganda ikki marta kam darajadagi real daromadiga mos keluvchi ahvoli.

Daromadlarni shaxsiy taqsimlash – davlatning daromadlarni uy xo'jaliklari o'rtasida keyinchalik qayta taqsimlashi yoki shaxslar bo'yicha pirovard taqsimlashi.

Daromadlarni indekslash – iste'mol buyumlari narxlar indeksining oshishiga muvofiq ravishda aholiga to'lanadigan ish haqi, nafaqa, stipendiya, pensiya va boshqa to'lovlar miqdorining oshirilishi.

Daromadlarni muzlatish – aholi pul daromadlarining o'sishini sekinlashtirish yoki to'xtatib qo'yishga qaratilgan siyosat hamda qo'llaniladigan chora-tadbirlar tizimi.

Real daromad – narx o'zgarishini inobatga oluvchi va narxlarni qandaydir bazaviy davrga keltirish orqali hisoblanadigan daromad.

Iqtisodiyot sohasidagi ijtimoiy adolat – muayyan jamiyatda shakllangan iqtisodiy munosabatlar tizimining ushbu adolat haqidagi, ya'ni iqtisodiy transaksiyalar va xo'jalik yuritish sohasidagi oqibatlarining to'g'riligi, halolligi, tartibliligi, ziyoliligi haqidagi tasavvurlarga muvofiqligi.

Ijtimoiy transfertlar – asosan aholining kambag'al qatlamlariga ularning xo'jalik faoliyatidagi ishtiroki bilan bog'liq bo'lmagan holda beriladigan pul to'lovlari.

Iste'mol savati – muayyan oziq-ovqat, sanoat mollari va xizmatlarning tirikchilikni ta'minlashga yetarli bo'lgan miqdori. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx-navo ko'tarilib, baholar o'zgaradi. Aholining ko'radigan zararini qoplash uchun hukumat tomonidan mamlakatda «iste'mol savati» tarkibi aniqlanadi va uni qo'llash taklif etiladi.

Fiziologik minimum – iste'mol qilinishi faqat jismoniy ehtiyojlarni qondiradigan tovar va xizmatlar majmui.

Daromadlarni funksional taqsimlash – ne'matlarni ishlab chiqarish omillariga bo'lgan bozor narxlarining hosil qilinishi orqali birlamchi taqsimlanishi.

Ijtimoiy minimum – insonning muloqoti, turli ijtimoiy guruhlar va uyushmalarga jalb etilganligi, jamiyatning ma'naviy qadriyatlarni iste'mol qilishi bilan bog'liq eng zarur ijtimoiy talablarni amalga oshirish uchun sarflanadigan xarajatlar.

Oila budjeti – oila daromadlari va xarajatlarning pul bilan ifodalangan yillik majmui.

Ijtimoiy soha – aholi turmush tarzi, uning farovonligi, iste'mol darajasiga bevosita bog'liq bo'lgan va ularni belgilab beruvchi tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlar majmui. Ijtimoiy sohaga eng avvalo xizmat ko'rsatish sohasi (maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya, umumiy ovqatlanish, kommunal xizmat ko'rsatish, yo'lovchi transporti, aloqa va boshqalar) kiradi.

Ijtimoiy soha obyektlari – aholining munosib turmush sharoiti va farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlar majmui. Bular qatoriga uy-joy fondlari, sog'liqni saqlash, maorif, sport, madaniyat muassasalari va boshqalarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy dasturlar – aholining bevosita turmush sharoiti va farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan rejaviy hujjatlar.

Kapital mablag'lar – muayyan maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida shakllantirilgan va yo'naltirilgan mablag'lar.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. «Odamlarning dasturxonida, oilaviy ahvolda, umuman kundalik hayotimizda ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmasa, bu aholining haqli e'tirozi va noroziligiga olib kelishi tabiiy»¹.

2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish birlamchi ahamiyat kasb etsa-da, uning natijasi daromad, foyda shaklida yuzaga chiqadi, chunki bozor qoidalari resurslar sarfi samarasiga ko'ra daromadlarga ega bo'lishni ta'minlaydi. Demak, aholi turmush darajasining yuksalishi bozor qoidalari orqali topiladigan daromadlarga bog'liq bo'lib qoladi.

3. Daromadga ega bo'lish uchun resurs egalari iqtisodiy munosabatlarga kirishib, o'z manfaatini himoya qilishi kerak, aks holda, daromadning rag'batlantiruvchi iqtisodiy mazmuni realizatsiya etilmay qoladi.

4. Daromad – bu iqtisodiyot subyektlarining faoliyati natijasida ular ixtiyoriga kelgan hamda mulkiga aylangan pul va moddiy shakldagi tushumlar.

5. Bozor daromadlari – bu iqtisodiyot subyektlarining o'z qonuniy resurslarini bozor qonun-qoidalariga muvofiq amalda ishlab topgan pul tushumlaridir.

6. Nobozor daromadlari – bu subyektlarning ijtimoiy maqomiga ko'ra va muhtojlik darajasiga nisbatan beriladigan pul va moddiy tushumlar.

7. Daromadlarni shakllantirishda iqtisodiy institutlar qatnashib, ular ham davlat, ham nodavlat institutlari hisoblanadi. Ularning faoliyati daromadlarni tartibga soladi va bu ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratiladi.

¹ Қаранг: Каримов И. А. Янги ҳаётни эскича қараш ва ёндашувлар билан қуриб бўлмайдими // Халқ сўзи. – 2005. – 17 фев.

8. O‘tish davrida daromadlar tabiati jihatidan bozor va nobozor tiplarga ajralib, iqtisodiy va huquqiy jihatdan qonuniy va noqonuniy tus oladi.

9. Bozor daromadlari o‘z mohiyatiga ko‘ra, quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) kishilarning tirikchiligini ta‘minlaydi va ishchi kuchini takroran hosil etadi;

b) inson salohiyatini takomillashtirib borishga undaydi, u qo‘shimcha daromad topib, boshqalardan farovonroq yashash ishtiyoqini uyg‘otadi va moliyaviy resurs sifatida iqtisodiyotning o‘shishiga xizmat qiladi hamda ahamiyati kuchayib boradi;

c) daromadlarning kuchli, lekin adolatli tabaqalanishiga olib keladi, hayot darajasida jiddiy tafovut yuzaga keladi. Tengsizlik bo‘lishi mumkin, faqat u adolatli bo‘lishi lozim;

d) bozor daromadlaridagi tengsizlik aholini ijtimoiy himoya etishni shart qilib qo‘yadi.

10. Turmush darajasi – aholining zaruriy moddiy va ma‘naviy ne‘matlar va xizmatlar bilan ta‘minlanganlik va ularni iste‘mol qilish darajasi.

11. Turmush darajasining past bo‘lishi jinoyatchilikni keltirib chiqaradi.

18-MAVZU. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI

1. Davlatning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi funksiyalari

Ko‘plab masalalar mavjudki, uni bozor mexanizmi yechishga qurbi yetmaydi. Bunga davlatning bozor tizimida faol ishtirok etishi asos bo‘ladi. Davlat, eng avvalo, mamlakatning milliy manfaatlarini ifodalaydi va bozor mexanizmining samarali ishlashiga qulay sharoitlar hozirlaydi.

Bozor iqtisodiyotida davlatning tag-zaminli funksiyasi jamiyat miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashdan iborat. Faqat davlat jamiyatning sa‘y-harakatlarini tartibga soluvchi oliy muassasa bo‘la oladi. Faqatgina davlat jamiyatning turli manfaatlarini uyg‘unlashtiradi, ularni yagona umummilliy manfaatga birlashtiruvchi kuch hisoblanadi.

Davlat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda qanday chora-tadbirlarni amalga oshiradi?

Bunda davlat, soliq-budjet siyosatini yuritadi. Davlat budjet orqali daromadlarni jamiyatning turli toifadagi fuqarolari o‘rtasida ularning ajralmas huquqlarini, ya‘ni farovonlikning ma‘lum standartiga erishish maqsadida amalga oshirish siyosatini qo‘llyadi.

Davlatning daromadlarni qayta taqsimlashdagi faoliyati jamiyatda band bo'lgan, fiksirlangan daromadlarga ega fuqarolar (davlat boshqaruvi sohasidagi xizmatchilar, olimlar, harbiy xizmatchilar va h.k.)ning mavjudligidan ham kelib chiqadi.

Ma'lumki, jamiyatda nogironlar, mehnatga layoqatsiz fuqarolar ham istiqomat qiladi. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq, davlat ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholiga quyidagilarni kafolatlaydi:

- ishsizlik nafaqasini to'lash;
- mehnat organlarining yo'llanmasi bo'yicha kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida stipendiya to'lanishi hamda shu davrni umumiy mehnat stajiga qo'shish;
- ishsiz shaxsga qaramog'idagilarni hisobga olgan holda, moddiy yordam berish;
- haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish imkoniyati;
- mehnat organlarining taklifiga binoan, ishlash uchun ixtiyoriy ravishda boshqa yerga ko'chish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash.

O'zbekiston Respublikasida aholining ishsizlik darajasi, foiz

2007-yil	2008-yil	2009-yil	2010-yil	2011-yil	2012-yil
5,0	4,9	5,3	5,1	5,0	4,9

Davlat ijtimoiy transfertlar orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Ijtimoiy transfertlar – bu aholining kam ta'minlangan toifasiga pul to'lovlari bo'lib, ularning xo'jalik faoliyatidagi ishtiroki bilan bog'liq emas. Ijtimoiy transfertlar natural shaklda ham amalga oshiriladi (bepul tibbiy yordam, uy-joy bilan va bepul oziq-ovqat bilan ta'minlash va boshqalar). Transfert to'lovlarning maqsadi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va tovar hamda xizmatlarga bo'lgan ichki talabni ushlab turishdan iboratdir.

Daromadlarni bilvosita taqsimlash usuliga soliqqa tortishning turli imtiyozli shakllari, bepul xizmatlarning tabaqalashgan taqsimoti kiradi. Jumladan, sog'liqni saqlash va ta'lim sohasida, ayrim bozorlarda narxlar ustidan davlat nazorati.

Biroq davlatning daromadlarni qayta taqsimlashda ishtirokining obyektiv iqtisodiy chegarasini aniqlash zarur bo'ladi. Quyida bunday

qayta taqsimlashning chegarasini belgilaydigan muayyan mo'ljallar mavjud. Bular:

1) ijtimoiy to'lovlar miqdori davlatning umumiy moliyaviy imkoniyatlaridan oshmasligi lozim. Aks holda, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish nafaqat budjet taqchilligi, balki aholi real turmush darajasining pasayishiga olib keladi;

2) qayta taqsimlashda davlat soliq stavkalarining keskin oshishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Soliqlarning keskin o'sishi iqtisodiy subyektlarning investitsion faolligini pasaytiradi;

3) davlatning kam ta'minlanganlarga yordam berishini haddan ziyod kuchaytirgani mehnat kapitali bozorini va bozor mexanizmini izdan chiqarishga olib keladi. Davlat tomonidan aholining kam ta'minlangan qatlamini qo'llab-quvvatlash qat'iy manzilli, jamoat nazorati negizida tanlovli bo'lishi kerak.

Davlat inson kapitali bozorini tartibga solish yo'li bilan jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Bunda davlat ish bilan band etish masalasini hal etadi. Bozor mexanizmi o'z-o'zidan insonni yaratuvchanlik va mehnat qilish huquqini ta'minlashga qodir emas. Shu bois ham davlat jamiyatda ijtimoiy keskinlikka yo'l qo'ymaslik maqsadida aholini samarali ish bilan band etishga faol aralashadi.

Davlatning navbatdagi funksiyasi milliy iqtisodiyot darajasida yuqori samarali xo'jalik yuritishni ta'minlash funksiyasidir. Agar bozor mexanizmi samarali ishlab chiqarishni alohida korxonada doirasida ta'minlansa, davlat bu muammoni butun milliy xo'jalik doirasida hal etadi.

Bular:

1. Davlat ilmiy texnika taraqqiyoti, innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantiradi. Tajriba ko'rsatmoqdaki, bozor mexanizmi bunga qodir emas.

Bozor iqtisodiyotining asosiy samarasi:

– bozorning o'ta monopollashuvi xavfi – ijtimoiy infratuzilmani, transport, jamoat tartibini rivojlantirish stimuli (rag'bat)ning yo'qligi;

– atrof-muhitni ifloslantirish xavfi va tabiiy resurslardan foydalanishning samarasizligi;

– aholi daromadlari tabaqalanishining yuqori darajasi va ijtimoiy tengsizlik;

– iqtisodiyotning siklik (notekis) rivojlanishi, iqtisodiy-moliyaviy inqirozlarning buzg'unchi xarakteri.

Bozor iqtisodiyotida davlatning asosiy vazifalari:

1) *qonunchilik* – qonunchilik bazasi;

2) *samaradorlik* – raqobat muhitini yaratish va qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy tovarlar bilan ta‘minlash uchun resurslarni qayta taqsimlash;

3) *adolatlilik* – boylik va daromadlarni qayta taqsimlash;

4) *barqarorlik* – makroiqtisodiy stabilizatsion siyosat.

Davlat boshqaruvining metodlari:

1. Davlat boshqaruvining ma‘muriy metodlari – antimonopol choralar, ma‘muriy standartlar o‘rnatish, biznes va tadbirkorlik sohasida ro‘yxatga oluvchi protseduralar, tadbirkorlik faoliyatini litsenziyalashtirish, biznes va tadbirkorlikni yuritish borasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri man etuvchi va ruxsat beruvchi tamoyillar.

2. Davlat boshqaruvining iqtisodiy metodlari – to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solish, budget orqali moliyalashtirish, davlat xaridlari, davlat sektorining faoliyati, makroiqtisodiy siyosatning barcha shakllari.

3. Davlat boshqaruvining ijtimoiy metodlari – davlatning ijtimoiy ta‘minoti, ish haqining kafolatlangan minimumini o‘rnatish, ishsizlik uchun to‘lovlar.

Iqtisodiyotda davlat sektorini tashkil etish shakllari:

- markazlashgan iqtisodiyotdan meros qolgan davlat korxonalari;
- davlat budjeti vositalari hisobidan davlat qurilishi;
- davlat vositalari hisobidan xo‘jalik subyektlarini sotib olish;
- korxonalarni natsionalizatsiya qilish.

Ijtimoiy ne‘matlar tovarlar yoki xizmatlar bo‘lib, ulardan bir iste‘molchining foydalanishi boshqalarning iste‘moli imkoniyati va ulardan foydalanishi huquqini kamaytirmaydi.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy vazifalari:

– tartibga solinadigan bozor sharoitida asosiy maqsad ustuvor yo‘nalishlarni ishlab chiqish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirishning strategik yo‘lini belgilaydi va shunga muvofiq maqbul taktik xatti-harakatlarni amalga oshiradi;

– bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida iqtisodiy erkinliklarning kafolati vazifasini o‘taydi;

– bozor institutlarini yaratish uchun qulay sharoit tug‘diradi;

– vujudga kelayotgan ishbilarmonlik tuzilmalarining qaror topishi va rivojlanishiga ko‘maklashadi;

– aniq maqsadga qaratilgan tuzilma siyosatini amalga oshiradi (ustuvor yo‘nalishlarni aniqlaydi);

– hamma ma‘lum iqtisodiy vositalar – moliya, kredit, soliq, valuta siyosati, narx-navoni nazorat qilish va bevosita ta‘sir o‘tkazishning choralari orqali iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tartibga soladi;

– iqtisodiyotni sogʻlomlashtirish muammolarini birinchi navbatda hal etadi.

Bozor tizimida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyasi. Jahon amaliyoti koʻrsatmoqdaki, raqobatli bozor anʼanalari rivojlangan mamlakatlarda turmush darajasi yuqori, iqtisodiyoti ijtimoiy yoʻnaltirilgan tuzilishga ega boʻlib, iqtisodiy oʻsish surʼatlari va farovonlik darajasi yuqoridir. Biroq, haqiqatni aytish lozimki, shunday muhim vazifalar borki, ularni yechish yoki bajarishga bozor mexanizmi qodir emas. Bu borada davlatimiz rahbari Islom Karimov: «Ushbu asoslangan ilmiy qoida davlatning bozor xoʻjaligida ishtirokini obyektiv zaruriyatga aylantiradi. Bundan tashqari, davlatning raqobatli bozor iqtisodiyotidagi roli, birinchidan, eng dolzarb muammolarni raqobatli bozor yecholmaydi. Ikkinchidan, davlat bozor mexanizmining yuqori samarada ishlashi uchun qulay sharoitlar yaratib beradi».

Davlatning raqobatli bozor iqtisodiyotidagi vazifasi jamiyat miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashdir. Gap shundaki, bozor iqtisodiyoti jarayonida kimdir boyga, kimdir kambagʻalga aylanadi. Kimdir ish oʻrniga ega boʻladi, kimdir ish oʻrnidan ajraladi. Qaysidir firma gullab yashaydi, qaysidir firma bankrotga (kasodga) uchraydi.

Bozor axloqi nuqtai nazaridan erkin raqobat natijasida olingan har qanday daromad adolatli hisoblanadi. Biroq umuminsoniy axloq nuqtai nazaridan erkin jamiyat va huquqiy demokratik davlatda har bir insonning ijtimoiy va iqtisodiy xavfsizligi kafolatlanishi lozim. Bunday kafolatni faqat fuqarolik jamiyatining umummilliy siyosiy instituti boʻlgan davlat taʼminlaydi.

Davlat jamiyat barqarorligini taʼminlashda quyidagi tadbirlarni amalga oshiradi:

– davlat soliq siyosati orqali oʻz budjeti vositasida inson farovonligining maʼlum standartiga oid ajralmas huquqini roʻyobga chiqarish maqsadida turli toifadagi insonlar daromadlarini qayta taqsimlaydi. Davlatning daromadlarini taqsimlash borasidagi faoliyati xalq xoʻjaligining ayrim tarmoqlarida band boʻlganlarning belgilangan daromadlarga egaligidan kelib chiqadi (davlat boshqaruvi xodimlari, olimlar, harbiy xizmatchilar, ichki ishlar idoralari xodimlari, taʼlim va sogʻliqni saqlash xodimlari va h.k.). Shuningdek, bozorda isteʼmolchi sifatida ishtirok etuvchilar – nogironlar, mehnatga layoqatsiz insonlar hisoblanadi. Shuningdek, davlat inson kapitali orqali bozorni tartibga solib, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni taʼminlaydi. Davlat bandlik siyosati aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan taʼminlaydi. Bozor

mexanizmi insonni mehnatga bo'lgan huquqini to'g'ridan-to'g'ri ta'minlay olmaydi. Shu bois ham davlat bandlik muammosini hal etish yo'lini topishga aralashadi;

– davlatning navbatdagi funksiyasi milliy iqtisodiyot ko'lamida xo'jalik yuritishning yuqori samarasini ta'minlash. Agar bozor mexanizmi ishlab chiqarish samaradorligini alohida firma, tarmoq doirasida ta'minlasa, davlat bu muammoning yechimini milliy iqtisodiyot darajasida hal etadi.

Davlat fan-texnika taraqqiyotini (FTT) rag'batlantiradi. Rag'batli bozor mexanizmi FTT tijorat asnosida o'zlashtiradi. Bozor fan va texnika sohasidagi strategik yorib o'tishni hamda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashga o'zlashtiradi. Bundan tashqari raqobatli bozor yirik kapital sarflaydigan loyihalarni moliyalashtirishga qodir emas.

Davlat ilmiy asoslangan pul-kredit va soliq budjet siyosatini yuritgan holda iqtisodiyotni zarur pul miqdori bilan ta'minlaydi. Ishlab chiqarish omillari mulkdorlarining investitsion faoliyatini soliqdagi ayovchanlik va davlat xarajatlari orqali rag'batlantiradi. So'nggi yillarda bu tendensiya O'zbekistonga xos.

Davlat ilmiy asoslangan mintaqaviy siyosat yuritadi. Davlat hududlar o'rtasidagi farqlarni yaqinlashtirishga (tenglashtirish)ga moddiy sharoit yaratadi. Shuningdek, hududlarning geografik tarixini, milliy-madaniy xususiyatlarini ham inobatga oladi.

Davlat antimonopol va antiinflyatsion siyosat yuritadi. Usiz iqtisodiyot samarali rivojlana olmaydi. Inflatsiya va monopoliya raqobatli bozor iqtisodiyotining doimiy kasalidir. Bozor mexanizmi davlat aralashuvisiz uni davolay olmaydi.

Davlat tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishga rahbarlik qiladi. Bozor bunday vazifani bajara olmaydi. Bu tashqi savdo siyosati, to'lov balansi, valuta kursiga ta'sir kabilardir. Bozor mexanizmi ish kuchining xalqaro oqimini, tovar va pul kapitalini nazorat eta olmaydi.

Davlatning aholini ijtimoiy tovarlar bilan ta'minlash funksiyasi, bozor mexanizmi inson ehtiyojlarini to'la ta'minlay olishga o'zlashtiradi. Shunday ehtiyojlar borki, ularni pul bilan ta'minlab bo'lmaydi. Bular – yurt tinchligini saqlash. Bu ne'matlar iste'molida jamiyatning a'zosi sifatida har bir inson qatnashadi. Bular mudofaa ishlari xizmati, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xizmati, davlat boshqaruvi, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, bepul umumiy ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqalar.

Ijtimoiy tovarlar shunday ne'matlarki, ularning iste'molida jamiyatning a'zosi sifatida har bir insonning ehtiyojlari qondiriladi. Bunda har bir inson mavjud ne'matdan teng miqdorda iste'mol etadi.

Davlatning yana boshqa bir muhim vazifasi borki, u iqtisodiyotning tashqi ta'sirida yuz beradigan oqibatlarni bartaraf etish faoliyatidir.

Davlat o'zining vazifasini iqtisodiy asosga tayanib davlat sektori orqali ham amalga oshiradi. Davlat sektori milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi bo'lib, davlat mulkning obyekti hisoblanadi va insonlarni umumiy vazifalarni bajarishga yo'naltiradi. Davlat sektoriga suyangan holda, fan-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy tovar ishlab chiqarish va daromadlarni qayta taqsimlashni rag'batlantiradi.

Davlat xonadonlarga beradigan pul transfertlari ularning xarid qobiliyatini oshiradi, bu esa, o'z navbatida, talabni oshirib, firmalar bozorini kengaytiradi. Davlat sektori hamma uchun zarur, lekin rentabelligi pastligidan firmalar qo'l urmaydigan tovar va xizmatlarni yaratadi. Aksariyat hollarda davlat sektori ishlab chiqarish infratuzilmasi, chunonchi, yoqilg'i, energetika, transport, yo'l xo'jaligi, suv xo'jaligi, aloqa kabi sohalarni qamrab oladi. Ularning tovar va xizmatlari esa milliy iqtisodiyot rivoji uchun suvdek zarur bo'ladiki, shu sababli bu sohalar xarajatini davlat o'z zimmasiga oladi va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.

Davlat ko'rsatadigan ijtimoiy xizmatlar bepul bo'lganda, ulardan barcha bahramand bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, davlat ham iqtisodiyot subyekti, lekin bu oddiy subyekt emas, balki butun iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi subyektdir.

Hozirgi bozor iqtisodiyotini davlat tartibga solib turishini faqat bozorning layoqatsiz bo'lib qolishi bilangina izohlash mumkin emas, chunki iqtisodiy aloqalar g'oyat keng miqyosli va murakkab bo'lib, bozor kuchlari hatto mukammal ishlagan taqdirda ham ularni tartibga to'lato'kis sola olmaydi.

Ayniqsa, globallashuv jarayonlarida korxonalarining tashqi iqtisodiy aloqalari ahamiyati g'oyat oshadi va ularni o'rnatishda davlatning ishtiroki talab qilinadi.

Davlatning bozor mexanizmiga aralashuvi me'yor. Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini oqilona hal etish davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi va bozor mexanizmining uzluksiz ishlashi samarali uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi. Agar davlat haddan tashqari bozor iqtisodiyotiga aralasha ham bozor mexanizmining deformatsiyasiga olib keladi. Bu ishlab chiqarish samaradorligining keskin pasayishiga olib keladi va iqtisodiyotning iste'mol talabiga

mo'ljalini izdan chiqaradi. Shunday qilib, davlatning bozor iqtisodiyotiga aralashuvi chegarasi bozor mexanizmining funkcionalligidan kelib chiqadi.

Quyida raqobatli bozorning davlat tomonidagi bozorga aralashuvi chegarasi borasidagi talablarining qisqacha tafsilotini keltiramiz.

1. Bozor mexanizmi (talab va taklif, raqobat, narx) ichki aloqalarni buzuvchi bozor mexanizmini, davlat harakatlarini rad etadi. Gap bunda erkin bozorning amal qilish shart-sharoitlari haqida bormoqda. Agar davlat o'z sektorining haddan ziyod iqtisodiyotdagi ulushini ko'paytirsa, bu xo'jalik faoliyati erkinligini cheklaydi, bu esa iqtisodiyot nodavlat sektorlarining qisqarishiga olib keladi. Agar davlat narx-navoga ma'muriy nazoratni kuchaytirsa, bozor mexanizmining buzilishiga olib keladi. Chunki narx-navo raqobatli bozorda rag'batlantiruvchi signal hisoblanadi. Bu davlat narxlar ustidan nazoratni olib tashlaydi, degani emas. Davlat narx darajasi dinamikasi borasidagi mas'ulligini saqlab turadi.

Bozor mexanizmi o'ziga nisbatan ta'sir etishning bevosita yoki iqtisodiy usullarini qo'llashga ham yo'l qo'yadi. Raqobatli bozor xo'jaligida ma'muriy metodlar mavjud bo'lish huquqiga ega. Iqtisodi rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotni iqtisodiy dastaklar bilan boshqarish samarali ekan.

Raqobatli bozor iqtisodiy dastaklardan ehtiyotlik bilan foydalanishni talab etadi. Agar davlat ilmiy asoslanmagan, puxta o'ylanmagan iqtisodiy dastaklarni qo'llasa, bozor mexanizmining maromi izdan chiqadi. Jumladan, puxta o'ylanmagan soliq yoki pul-kredit siyosati. Yoki davlatning inflatsiyaga qarshi siyosati. Davlat inflatsiyani bostirish uchun ma'muriy yo'l bilan muomalaga chiqariladigan pul miqdorini cheklaydi. Pul massasini muomalada cheklash kredit foizini oshiradi. Bu pulga bo'lgan talabni kamaytiradi. Oqibatda investitsiya qisqaradi. Demak, iqtisodiy o'sish darz ketadi. Bugungi kunda O'zbekistonda davlat iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida, shuningdek bozor mexanizmini mustahkamlash borasida kuchli siyosat olib bormoqda. Bular kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, oilaviy biznesni rivojlantirish, xususiylashtirish, inflatsiyani jilovlash, bandlik siyosati, daromadlar siyosati, soliq ayovchanligi va h.k.).

Xullas, davlatning rolini ziddiy omillar belgilaydi. Iqtisodiy aloqalarning global tus olishi davlatning rolini kuchaytirsa, o'zini o'zi tartibga solish imkoni bu rolni cheklab turadi. Shu sababli davlatning iqtisodiyotga aralashuvi me'yorida bo'lishi talab qilinadi.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi me'yor shundan iboratki, davlatning faoliyati bozor mexanizmining ishlashiga xalaqit bermasligi, zarur bo'lganda, bu mexanizm ishini to'ldirib turishi ham talab qilinadi¹.

Hozirgi bozor iqtisodiyotida tartiblashning bozor mexanizmi bilan davlat mexanizmi amal qiladi.

Sobiq Ittifoq davrida total davlatlashtirish kuchli bo'lgan. Total davlatlashtirish iqtisodiy sohada, jumladan siyosiy va ma'naviy hayotda, iqtisodiyotni tashkil etishning barcha nodavlat shakllarini bostirishda davlat monopoliyasining qaror topishidir.

Totalitar iqtisodiyotda tobelik g'oyasi kuchli bo'lgan. Davlat o'ziga haddan tashqari ziyod vazifalarni olganki, bu iqtisodiyotni siyosiyashtirishga olib kelgan.

Iqtisodiyotni siyosiyashtirish deganda iqtisodiy rivojlanishni siyosiy-g'oyaviy maqsad va vazifalarni bajarishga bo'ysundirish jarayoni tushuniladi.

Davlatlashtirish – bu hamma vaqt iqtisodiyotni siyosiyashtirish bo'lib, u hukmron siyosat va g'oyaga bo'ysunib keladi. Bu quyidagi oqibatlarga olib keladi:

birinchidan, davlatlashtirilgan firmalar samarasiz iqtisodiy strategiya ishlab chiqadi, sababi davlat firmalarga bozor qoidalari bilan emas, siyosiy motivlar bilan rahbarlik qilishga majbur etadi. Qayd etish lozimki, siyosiy motivlar doimo iqtisodiyotning davlat sektorida ishtirok etadi;

ikkinchidan, davlat sektori korxonalarida ishlab chiqarishning past samarali tartibida faoliyat ko'rsatadi. Davlat firmalari «imtiyozli, qulay» iqtisodiy sharoitda bo'ladi va ular o'zlaridan ham ko'proq davlatga ishonadi. Chunki davlat ularga imtiyozli soliq va kredit rejasini belgilaydi, dotatsiya to'laydi, subsidiyalar beradi, qarzini kechib yuboradi. Bu davlat sektorini bankrotlikdan qutqaradi. Ularga boqimandalik kayfiyati ustuvordir. Shu sababli yangilikka intilmaydi, mehnat unumdorligi va sifatni oshirish qayg'usi yetishmaydi.

2. Davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari

Iqtisodiyotning qonun-qoidalariga amal qilish iqtisodiy siyosat orqali yuz beradi, chunki bularni anglagan holda iqtisodiyot rivojiga oid chora-

¹ Qarang: Ўлмасов А., Ваҳобов А.В. Иқтисодиёт назарияси. – Т.: «Шарқ», 2006. – Б. 461.

tadbirlar ishlab chiqiladi va bular iqtisodiyotga ta'sir etmay qolmaydi. Iqtisodiy siyosat o'zi nima?

Iqtisodiy siyosat – bu iqtisodiyot subyektlarining o'z faoliyatiga oid yo'l-yo'riqlari va sa'y-harakatlarining majmuidir. Har bir iqtisodiyot ishtirokchisining, bu xonadonmi, firmami yoki davlatmi buning farqi yo'q, o'z manfaatlari bor. Bu manfaatlar amaliyotda aniq maqsad shakliga kiradi, iqtisodiy siyosat esa uni amalga oshirishga qaratiladi. Xonadonning maqsadi o'z iste'molini maksimumlashtirish va kelajakni ta'minlash uchun jamg'arma hosil etishdir. Firmaning maqsadi esa foydani maksimumlashtirish va iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlashdir. Davlatning maqsadi esa, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini va shu asosda xalq farovonligini ta'minlashdan iborat.

Iqtisodiy siyosat uch darajada bo'ladi, ular: mikro, makro va meta (xalqaro) siyosatdir.

Biz ushbu mavzuimizga oid davlatning iqtisodiy siyosatiga e'tibor qaratamiz.

Davlatning siyosati – bu makroiqtisodiy siyosat bo'lib, uning muayyan mamlakatning milliy iqtisodiga taalluqli yo'l-yo'riqlari va ulardan kelib chiqadigan sa'y-harakatlaridan iboratdir. Davlatning siyosati har doim milliy bo'ladi, mamlakat rivojining ichki va tashqi sharoitini hisobga oladi. Siyosatda eng avval mamlakat iqtisodiyotining holati, xalqaro iqtisodiy konyunkturaning milliy iqtisodiyotga nechog'lik ta'sir etishi, unda kutilayotgan o'zgarishlar mamlakat zimmasiga olgan xalqaro majburiyatning qandayligi, mamlakat iqtisodiyotining resurslar bilan ta'minlanish darajasidan kelib chiqadi, ilgari amalga oshirilgan chora-tadbirlar bergan natija ham hisobga olinadi. Davlat siyosati davlat rahbarlarining irodasi va qat'iyatligiga va yetilgan iqtisodiy muammolarni naqadar idrok etishlariga ham bog'liq bo'ladi.

Davlatning siyosati milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ma'lum maqsadlarni ko'zlaydi. Bulardan asosiylari quyidagilar:

1. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Bu yalpi ichki mahsulotning bir maromda va yetarli sur'atlar bilan o'sishiga sharoit hozirlashni bildiradi, chunki YAIM qanchalik tez o'ssa, mamlakat iqtisodiy qudrati shunchalik oshadi.

2. Milliy iqtisodiyotning mustaqilligini ta'minlash, uning chet elga qaram bo'lishiga yo'l qo'ymaslik. Iqtisodiyot qanchalik mustaqil bo'lsa, shunchalik milliy manfaatlarga ko'proq xizmat qiladi.

3. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash. Bu iqtisodiy aylanmaning uzluksizligini, ya'ni takror ishlab chiqarishning to'xtovsiz davom etishini, iqtisodiy falajlikka yo'l qo'yilmasligini bildiradi.

4. Milliy pul qadr-qiymatining barqarorligini ta'minlash – mamlakatdagi pul muomalasining me'yorida borishiga erishish, pulni iqtisodiy aloqalarning muntazam ishlab turuvchi vositasiga aylantirish.

5. Aholi turmush farovonligini mustaqil oshirib, iqtisodiyotning ijtimoiylikni to'laroq yuzaga chiqarishga ko'maklashish.

6. Milliy iqtisodiyotni xalqaro integratsion jarayonlar va globalizatsiyada faol ishtirok etib, xalqaro iqtisodiyotda o'z o'rnini topishi, baynalminal iqtisodiy munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisiga aylanishiga erishish.

7. Milliy iqtisodiyotning istiqbolini ta'minlash, ya'ni uni uzoq kelajakda o'sib borishiga sharoit hozirlash.

Bular iqtisodiy siyosatning strategik, ya'ni uzoq davrga mo'ljallangan maqsadi hisoblanadi. Biroq uning qisqa vaqtdagi taktik, ya'ni juz'iy maqsadlari ham bor. Bular jumlasiga iqtisodiy tanglikdan chiqib ketish, narxlarning barqarorligini ta'minlash, investitsion faollikni rag'batlantirish, eksport salohiyatini oshirish, novatsiyalarni ta'minlash, yangi tashqi bozorlarga kirib borish kabilar kiradi. Juz'iy maqsadlar strategik maqsadlardan kelib chiqadi va ularga xizmat qiladi.

Davlat siyosati belgilagan maqsadlarga quyidagi vositalar bilan erishadi: *birinchisi*, iqtisodiy vositalar bo'lib, bular jumlasiga soliqlar, subsidiyalar, litsenziyalar, eksport kvotalari, uchoq stavkalari, davlat buyurtmalari, davlat investitsiyalari, transfertlar, turli iqtisodiy sanksiyalar (jazolash vositalari) kabilar kiradi. *Ikkinchisi*, yuridik vositalar. Bu iqtisodiy faoliyat tartibi va qoidalarini, uning davlat tomonidan rag'batlantirilishini belgilab beruvchi qonunlarni, ularga mos ravishdagi qonun osti hujjatlarini ishlab chiqish, ularni qabul qilish va joriy etishdan iboratdir.

Qonunchilik iqtisodiyotning huquqiy asoslarini belgilab beradi, bular esa bozor iqtisodiyotining obyektiv iqtisodiy qonunlari talabidan kelib chiqishi zarur. Iqtisodiyotga oid yuridik qonunlarni parlament qabul qiladi. Hukumat esa ularning amalga oshirilishini ta'minlaydigan qarorlar va farmoyishlarni ishlab chiqadi. Tegishli davlat idoralari qonunlarning amalga oshirilishini nazoratga oladi. *Uchinchisi*, siyosiy-ma'muriy vositalar. Davlat hokimiyat sohibi bo'lganidan o'z siyosatiga rioya etilishini o'z organlari kuchi bilan ta'minlaydi. Davlat oliy siyosiy institut hisoblanar ekan, uning qarorlari va buyruqlariga hamma itoat etishi kerak

bo'ladi. Ma'muriy usul yordamchi usul hisoblanadi, u bozor tizimida yaxshi natija bermaganidan cheklangan holda qo'llaniladi.

3. Davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari

Iqtisodiyot yaxlit bo'lar ekan, iqtisodiy siyosat ham yagonadir. Davlatning iqtisodiy siyosati – bu makroiqtisodiy siyosat bo'lib, uning muayyan mamlakatning milliy iqtisodiga oid puxta o'ylangan va ishlab chiqilgan yo'l-yo'riqlari va ulardan kelib chiqadigan sa'y-harakatlaridir. Lekin davlat siyosatining aniq yo'nalishlari bor.

Monetar siyosat – bu davlatning pul-kredit siyosati bo'lib, pul muomalasini tartiblash, tovar va pul massasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, iqtisodiyotdagi pul oqimlarini boshqarib turish siyosati hisoblanadi. Uning maqsadi narxlarni va shunga ko'ra milliy pul birligi xarid qurbini, uning valuta kursini barqarorlashtirish, oxir-oqibatda pulga talab bilan uning taklifini muvozanatlashtirishdan iborat bo'ladi.

Monetar siyosatning uchta asosiy jihati bor:

1. *Qayta moliyalashtirish yoki uchoq siyosati.* Bunda davlat nomidan markaziy banklar uchoq stavkasini o'zgartiradi. Stavka oshganda pul qimmatlashib, unga talab qisqaradi. U pasaytirilganda pul arzonlashib, unga talab oshadi. Bu ayni paytda kreditning arzon yoki qimmat bo'lishini bildiradi. Bu esa iqtisodiyotga kredit hisobidan yuboriladigan investitsiyalarni o'zgartirib, uning o'sishiga ta'sir etadi.

2. *Ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish siyosati.* Bu davlat obligatsiyalarini chiqarib, firmalar, banklar va aholiga sotish va vaqti kelganda ularni qaytadan sotib olishni bildiradi. Bu obligatsiyalarni olish qulay bo'ladi, chunki ularga qat'iy belgilangan foizni davlat to'laydi, bu bilan ularning daromadliligi kafolatlanadi. Davlat obligatsiyalari sotilganda pul ularga bog'lanib qoladi, natijada uning muomaladagi miqdori qisqaradi. Aksincha, ular qaytadan sotib olinganda pul ulardan bo'shab, muomalaga keladi, u yerdagi pul miqdori ko'payadi. Demak, bu usul bilan ham pul miqdori tartiblanadi.

3. *Majburiy rezerv siyosati.* Bu siyosatga binoan markaziy banklar boshqa banklar uchun kredit resursining majburiy rezervini kiritadi. Bu tartibga ko'ra banklar kreditga beriladigan pulning bir qismini markaziy banklar ixtiyoriga beradi. Bu rezerv oshsa, kredit puli qisqaradi, agar u kamaysa, bu pul ko'payadi. Masalan, mamlakatda jami kredit resurslari 80 mlrd. dollar. Shundan 10 foiz zaxira o'tkazilsa, kredit uchun 72 mlrd. dollar qoladi. Bordi-yu bu zaxira 15 foizga chiqarilsa, kreditga 68 mlrd.

dollar qoladi. Bu bilan kreditga mo'ljallangan pulning taklifi oshadi yoki qisqaradi. Shunga qarab, kredit olish goh oshib, goh qisqarib turadi. Monetar siyosatning aytilgan yo'nalishlari shuni ko'rsatadiki, unda turli iqtisodiy vositalar qo'llaniladi.

Monetar siyosat ikki xil bo'ladi:

1) *qattiq siyosat*. Bunda pul massasi qisqartiriladi, uning emissiya (pul chiqarish) hisobidan o'sishi qat'iy chegaralanadi. Natijada pul massasi qisqarib, tovar massasiga tenglashadi. Pulning qisqarishi talabni kamaytiradi, narxlar esa o'smaydi, pul birligining xarid qurbi barqarorlashadi. Pul topishga intilish iqtisodiyotning jonlanishiga olib keladi. Bunday siyosat ilgari ta'kidlaganimizdek, odatda iqtisodiyotni tanglikdan chiqarish yoki inflatsiyani keskin susaytirish uchun qo'llaniladi;

2) *yumshoq monetar siyosat*. Bunda davlat pul massasining ortishiga to'sqinlik qilmaydi, pul emissiyasi hadeb cheklanavermaydi, natijada pul ko'payib, uning arzonlashuvi yuz beradi. Yumshoq siyosat iqtisodiyot o'sish pallada bo'lganda ko'proq qo'llaniladi, chunki pul massasining o'sishiga qarab tovarlar massasi ham o'sadi. Bunda tovar-pul muvozanati pulni qisqartirish hisobidan emas, balki tovarlarning ko'payishi tufayli ta'minlanib turadi.

Fiskal siyosat. Bu davlatning soliq-budjet siyosatidir, unga binoan soliqlar belgilanadi, budjet mablag'lari aniq maqsadlar yo'lida ishlatiladi. Soliq siyosati soliqlar vositasida budjetga pul to'plashga qaratiladi. Unga binoan soliq turlari aniqlanadi, soliq stavkalari, soliq solinadigan obyektlar, soliq imtiyozlari, soliq undirish tartibi belgilanadi. Soliqlar davlatning iqtisodiyotga ta'sir etishida qo'llaniladigan asosiy vositadir. Soliq tizimi nafaqat soliqlarni undirish, balki rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lishi lozim.

Iqtisodiyotni rag'batlantirish zarur bo'lganda, soliqlardan imtiyozlar beriladi. Bunda soliq kamaytiriladi, soliqni undirish muddati cho'ziladi yoki umuman soliq undirilmaydi. Natijada firmalarga tegadigan foyda ko'payadi, ular foydani reinvestitsiya qiladi, ya'ni qaytadan ishlab chiqarishni o'stirishga yuboradi. Ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida O'zbekistonda foydadan to'lanadigan soliq stavkasi 2004-yildan boshlab muntazam tushirilib borilmoqda. Ishlab chiqarish qizib ketganda, uning o'sishini sekinlashtirish zarur bo'lsa, soliqlar oshiriladi. Bu usul kapitalning eski tarmoqlardan chiqib, yangi istiqbolli tarmoqlarga ko'chib o'tishiga ham yordam beradi, chunki eski joydagi yuqori soliq xarajatni oshirib, foydani kamaytirib yuboradi, yangi joydagi soliqning kamligi foydani oshiradi.

Fiskal siyosatda iqtisodiyotni barqarorlashtirish va o‘stirish uchun ikki xil yo‘ldan boriladi:

1) *ilgari kiritilgan va hozir amalda bo‘lgan iqtisodiy stabilizatorlarni – vositalarni qo‘llashni davom ettirish.* Davlat qonun yo‘li bilan shunday tartibni o‘rnatadiki, unga binoan moliya normativlari (me‘yorlari) joriy etiladi. Bular sharoit o‘zgarishiga qarab, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilaveradi. Bular jumlasiga soliq stavkalarini, ishsizlik nafaqasi miqdori, daromadlarning inflatsiyaga qarab indeksatsiya qilinishi, ijtimoiy yordam ko‘rsatish normativlarini kiritish mumkin. Masalan, daromad solig‘i daromad miqdoriga nisbatan 15 foiz qilib belgilansa, daromad ko‘payishi bilan uning miqdori ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri oshadi. Daromadlarni 80 foiz indeksatsiyalash tartibi o‘rnatilgan bo‘lsa, narx oshgan taqdirda, shu 80 foiz darajada daromad ham ko‘paytiriladi;

2) *sharoitga qarab yangi normativlarni kiritish yo‘lidan borish, bu diskretsion fiskal siyosat deb yuritiladi.* Bu siyosatga asosan yangi soliq stavkalari joriy etiladi, yangi soliqlar kiritiladi, budget mablag‘larini sarflash normativlari o‘zgartiriladi. Diskretsion siyosat o‘zgargan sharoitga moslashish siyosatidir. Iqtisodiyot bir maromda o‘sib borayotganda, *birinchi yo‘l*, u tanglikka yo‘liqib, undan chiqish kerak bo‘lganda, *ikkinchi*, ya’ni diskretsion yo‘l ustuvor bo‘ladi.

Fiskal siyosat budget orqali ham iqtisodiyotga ta’sir etadi. Budget hisobidan davlat ishlab chiqarish infratuzilmasiga katta investitsiyalarni yuboradi, milliy iqtisodiyot uchun ahamiyatli ish (masalan, yangi texnologiyani yaratish) bilan shug‘ullanuvchi korxonalariga subsidiya beriladi. Subsidiya moliyaviy yordam sifatida qaytarib olinmaydi, uning hisobidan xarajatlar qoplanib, foyda ko‘payadi, bu bilan korxonalar rag‘batlantiriladi.

Budget siyosati ijtimoiy ne‘matlarning yaratilishini kanda qilmay va kerakli miqdorda pul bilan ta’minlab turishga qaratiladi. Davlat budgeti balanslashgan bo‘lishi, ya’ni daromadlarga qarab xarajatlar qilinishi zarur bo‘ladi. Budget siyosati shundan kelib chiqqan holda budget defitsitiga yo‘l bermaslikni, defitsit yuz bergan taqdirda ham, bu me‘yorida bo‘lishiga qaratiladi. Budget siyosati davlatning ichki va tashqi qarzining ham me‘yorida bo‘lishini ta’minlashi zarur.

Fiskal siyosat ikki xil bo‘ladi:

1. Faol fiskal siyosat. Bu qo‘llanilganda diskretsion vositalar ishga solinadi, masalan, soliqlar kamaytiriladi, ulardan saylangan tarzda bo‘lsa-da siylovlar beriladi, budgetdan transfertlar berish ko‘paytiriladi, firmalar subsidiyalar oladi. Bularning hammasi iqtisodiy faollikka olib

keladi. Firmalar xarajati qisqarib foydasi ortadi, aholining transfertlar hisobidan xarid qobiliyati oshadi. Xullas, bu siyosat firmalar va xonadonlar talabini oshiradi. Mana shunday yo‘l ko‘p hollarda iqtisodiyot qiyinchilikdan chiqib, o‘zini o‘nglab olishi uchun qo‘llaniladi.

2. Nofaol fiskal siyosat. Bu siyosat moliyaviy stabilizatorlarni o‘zgartirmay, ularning erkin ishlashiga yo‘l berishga qaratiladi, chunki bozor mexanizmi yaxshi ishlab turgan bo‘ladi. Iqtisodiyotning uzilishsiz yuksalib borishi tufayli moliya vositalarini o‘zgartirishga hojat qolmaydi. Demak, bu siyosat iqtisodiy o‘shish to‘xtovsiz borayotgan kezlarda ish beradi.

Investitsiya siyosati. Bu investitsiya resurslarini shakllantirish va ularning kerakli sohalarga yuborilishini ta‘minlashga qaratilgan siyosatdir. Bu siyosat investitsion faollikni oshirishga yoki kamaytirishga qaratiladi. Bu davlatning struktura (ishlab chiqarish tarkibini o‘zgartirish) siyosati bilan bog‘liq, bu esa ishlab chiqarishning eski sohalarini cheklab, yangi, masalan, eksportga mo‘ljallangan sohalarini o‘stirishni bildiradi. Investitsiya siyosatiga ko‘ra yangi istiqbolli sohalarga investitsiya qilingan foydadan umuman soliq olinmaydi yoki qisqartirilgan miqdorda oshadi. Yangi sohalardagi mol-mulkdan soliq olinmagan holda, eski sohalardagi mol-mulkdan soliq ko‘proq olinadi. Bu bilan yangi sohalarning jadal o‘shishi rag‘batlantiriladi, eski sohalar esa rag‘batlantirilmaydi. Investitsiya siyosati texnika taraqqiyotini ham jadallashtiradi. Yangi texnologiyalarga pulni investitsiyalayotgan firmalarga subsidiyalar ajratmadi, soliqdan yengilliklar beriladi. Bu siyosat firmalarga tushadigan investitsiya yukini kamaytirishni ham ko‘zlaydi. Shu maqsadda bir qator serkapital, binobarin katta investitsiyalarni talab qiluvchi va investitsiyalar o‘zini tezda oqlamaydigan sohalarni moliyalashtirishni davlat o‘z zimmasiga oladi. Bu bilan firmalar investitsiyasini serfoйда ishlarga yuborilishiga ko‘mak beriladi. Bozor qoidalariga binoan investitsiyalarning serfoйда sohalarga yuborilishi davom etadi. Biroq davlat xususiy investitsiyalarni umumiy iqtisodiy ahamiyatga molik sohalarga yuborilishini o‘z qo‘lidagi moliya-kredit vositalari bilan rag‘batlantiradi.

Agrar siyosat. Bu davlatning qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatidir. Mazkur siyosat qishloq xo‘jaligining barqaror o‘shishini, oziq-ovqat mustaqilligi va xavfsizligini ta‘minlashni ko‘zlaydi. Uning doirasida davlat qishloqdagi ishlab chiqarish infratuzilmasining (suv xo‘jaligi, yo‘l qurilishi, gaz va elektr energiyasi ta‘minotining) xarajatlarini qisman o‘z zimmasiga oladi, davlat yerni ijaraga olib

ishlatilishini, yerni garovga qo'yib, kredit olishni huquqiy jihatdan ta'minlaydi. Agrar siyosatda (yer davlatniki bo'lgan joyda) davlatning xarid narxlari, davlat subsidiyalari kabi vositalar qo'llaniladi. Dehqonlarni qo'llab turish uchun yer solig'i yengil qilib belgilanadi. Masalan, 2002-yili O'zbekistondagi yagona yer solig'i qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun bozor qiymatining 3–5 foizidan oshmadi. Bu soliq dehqonlarga og'irlik qilmadi.

Qishloq xo'jaligida rentabellik past bo'lganidan kapitalning u yerdan chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun davlat fermerlarga subsidiya berib turadi, uning hisobidan xarajatlar qisman qoplanib, fermerlar me'yordagi daromadga ega bo'lishadi va qishloq xo'jaligini tark etmaydilar. Fermerlarni rag'batlantirish uchun davlat qishloq xo'jaligi mahsulotini ularga ma'qul narxlarda sotib oladi. Davlat narxlari bozor narxlariga yaqin turadi, ularga binoan mahsulotni davlatga sotish fermerlar uchun qulay bo'ladi, chunki davlat xaridi mahsulotlarning sotilishini va kanda qilmay daromad olinishini kafolatlaydi.

Tashqi iqtisodiy siyosat. Bu davlatning o'zaro foydali tashqi aloqalarni rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotini jahon xo'jaligi bilan integratsiyalashuvini ta'minlashga qaratilgan siyosatidir. Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi iqtisodiy aloqalarni ro'yobga chiqarish jarayonidir. Bu siyosatning asosiy maqsadi milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligidagi mavqeini mustahkamlashdir. Unga binoan eksport va import, chetga kapital chiqarish va chetdan kapital kiritish, ish kuchi migratsiyasiga doir tadbirlar amalga oshiriladi. Bu siyosatda bojxona to'lovlari, eksport-import litsenziyalari va kvotalari kabi vositalar qo'llaniladi. Aytilgan vositalar iqtisodiy chegara hosil etib, milliy iqtisodiyotni himoya qiladi. Eksportni kuchaytirish zarur bo'lsa, unga litsenziyalar (ruxsatnoma) beriladi, eksport kvotasi oshiriladi. Bordi-yu importni qisqartirish ma'qul bo'lsa, uning kvotasi kamaytiriladi, import uchun boj to'lovi oshiriladi, importga litsenziya berish chegaralanadi.

Davlat siyosati kapital chiqarish va kapital kiritish tartibini ham belgilaydi. Kapital kiritish zarur bo'lsa, bu ish rag'batlantiriladi. Kapital chiqishi ma'qul bo'lsa, davlat bunga sharoit yaratib beradi. Chet elga ish kuchini chiqarish uchun ham yordam beriladi. Bordi-yu mamlakatga arzon ish kuchi kerak bo'lsa, uning chetdan oqib kelishi uchun migratsiya qoidalari (chegaradan o'tish, yashash va ishlash uchun ruxsat olish va h.k.) yengillashtiriladi. Davlat siyosati xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilishni ham mo'ljallaydi. Davlat iqtisodiy siyosatining samaradorligi uning monitoringi orqali aniqlanadi. Bunda iqtisodiy o'sish

sur'atlari, inflatsiya darajasi, eksport va import holati, tashqi qarz miqdori, budget defitsiti kabi ko'rsatkichlarga qarab, iqtisodiy siyosat natijasi baholanadi.

Iqtisodiy siyosat doirasida davlatning turli dasturlari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Dasturlarda ko'zlangan maqsad, amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, ulardan kutiladigan natijalar, ularni moliyalashtirish manbalari aniqlanadi. Dasturlar milliy iqtisodiyot uchun ustuvor bo'lgan muammolarni hal etishga qaratiladi. Bular jumlasiga tanglikdan chiqish, oziq-ovqat, energiya ta'minoti, texnologiyalarni yangilash, infratuzilmalarni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, qoloq hududlarni rivojlantirish kabi dasturlar kiradi. Dasturlarda belgilangan muammolarning hal etishishi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishga turtki beradi.

Tayanch tushunchalar:

Davlat, davlat mexanizmi, davlatning vazifalari, davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi, davlatning qarz siyosati, davlatning iqtisodiy siyosati, davlatning ijtimoiy siyosati, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashi.

Savol va topshiriqlar:

1. Davlat nima?
2. Davlatning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi funksiyalarini tushuntirib bering.
3. Davlatning modernizatsiya strategiyasi nima?
4. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya etish, texnik va texnologik yangilashda davlatning qanday chora-tadbirlari mavjud?
5. Iqtisodiy siyosat nima?
6. Ijtimoiy siyosat nima?
7. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish usullari qanday?
8. «Davlat – bosh islohotchi» g'oyasining mohiyatini izohlang.
9. Davlatning iqtisodiy maydoni qanday himoyalangani?
10. Davlat ruxsat berish funksiyasini nima uchun minimal darajaga tushirmoqda?

Mavzuni chuqur o'rganish instrumentariysi

Davlat – jamiyatdagi turli manfaatlarni uyg‘unlashtiradi va yagona umummilliy manfaatga birlashtiruvchi siyosiy institutlar, partiyalar, jamoat tashkilotlari va uyushmalaridan tashkil topadi.

Davlatning siyosati – bu makroiqtisodiy siyosat bo‘lib, uning muayyan mamlakatning milliy iqtisodiga taalluqli yo‘l-yo‘riqlari va ulardan kelib chiqadigan sa’y-harakatlaridan iborat.

Davlatning iqtisodiy siyosati – iqtisodiyot ishtirokchilarining yo‘l-yo‘riqlari va qo‘llagan chora-tadbirlari sifatida namoyon bo‘ladi. Bu siyosat milliy iqtisodiyotga oid siyosatdir. Davlat iqtisodiyotning oddiy ishtirokchisi emas, balki uni tartibga solib turuvchi kuch hisoblanadi. Iqtisodiyotga bozor qonun-qoidalariga to‘sqinlik qilmaydigan, balki ularga sharoit yaratib beradigan darajada aralashadi.

Davlatning ijtimoiy siyosati – bu insonning hayotiy muhim manfaatlarini yuzaga chiqarish, himoya qilish va uning kamol topishiga qaratilgan siyosatdir.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi – unda davlat umummilliy manfaatlarni ifodalovchi kuch sifatida milliy iqtisodiyotni tartibga solishi tushuniladi. Bunda birlashgan kishilar manfaatlari ifoda etilib, bu guruh, ya’ni korporativ manfaatlarni ham nazarda tutadi.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuv me’yori – davlatning faoliyati bozor mexanizmining ishlashiga xalaqit bermasligi, aksincha, davlat bunga sharoit yaratib berishi, zarur bo‘lganda, bozor mexanizmi ishini to‘ldirib turishi talab qilinadi. Davlat siyosati milliy manfaatlar va maqsadlarni ko‘zlaydi.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. Davlat iqtisodiy siyosatining maqsadi umummilliy manfaatlarga asoslanib, barqaror iqtisodiy o‘sishni, iqtisodiy mustaqillikni, iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikni, milliy pul qadr-qimmatining barqarorligini, xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

2. Davlat o‘z siyosatini iqtisodiy, huquqiy va siyosiy-ma’muriy vositalar yordamida amalga oshiradi.

3. Davlat milliy iqtisodiyotning integrallashuvini, uning kelajagini ta’minlash maqsadini ko‘zlaydi.

4. Davlat iqtisodiyotda sog‘lom raqobat muhitini ta’minlaydi. Monopol faoliyatni cheklash ustidan nazorat o‘rnatadi. Monopoliyaga qarshi qonunlar qabul qiladi. Iste’molchilar huquqi va tadbirkorlar manfaatlarini himoya qiladi.

5. Bozorni tartibga soluvchi asosiy kuch «ko‘rinmas qo‘l» deb atalib, talab, taklif va raqobatni tashkil etadi.

19-MAVZU. XUFIYONA IQTISODIYOT: MOHIYATI VA KELIB CHIQISH SABABLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI

1. «Xufiyona» iqtisodiyot tushunchasi va tuzilishi

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligi davlat strategiyasidan kelib chiqib, amaldagi qonunlar iqtisodiyot ahvolidan O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligi talablariga javob beradigan mezonlari orasida quyidagilarni keltirish mumkin:

– jamiyat hamda xo‘jalik va moliya faoliyatining barcha sohalari jinoiylashuviga yo‘l qo‘ymaydigan iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarning yaratilishi;

– jinoiy tuzilmalarning ishlab chiqarish va moliya institutlarini egallab olishi, hokimiyatning turli institutlariga kirib borishi va h.k.

Mamlakatimiz milliy boyligi davlat budjetining daromadlarini taqsimlash va qayta taqsimlashda ishtirok etish iqtisodiy agentlarga har qanday xo‘jalik faoliyatiga qaraganda, ancha ko‘p foyda kelishini ta‘minlaydi. Bunday faoliyat «xufiyona» iqtisodiyot nomini oldi. Xufiyona iqtisodiyot to‘g‘risidagi adabiyotlarda ushbu kategoriyani ta‘riflash uchun quyidagi asosiy yondashuvlar mavjud:

1) «xufiyona» iqtisodiyot faoliyatning taqiqlangan turlari sifatida baholanadi;

2) «xufiyona» iqtisodiyot iqtisodiy faoliyatning aytilmagan va yashirilgan turlari sifatida ta‘riflanadi;

3) «xufiyona» iqtisodiyot u yoki bu sabablarga ko‘ra rasmiy statistikada inobatga olinmaydigan, yalpi ichki mahsulotga kiritilmaydigan, soliqqa tortishdan «tushib» qoladigan har qanday iqtisodiy faoliyat sifatida talqin etiladi.

Shuningdek, nemis adabiyotlarida ham xufiyona iqtisodiyotga oid turlicha yondashuvlar mavjud. Ularning ayrim tariflarida xufiyona iqtisodiyot moliyaviy sirli bitimlar sifatida talqin etilsa, yana bir boshqa ta‘rifda xufiyona iqtisodiyot jinoiy faoliyat sifatida qaraladi. Uchinchi bir yondashuvda xufiyona iqtisodiyot barcha subyektlarning soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashini qamrab oladi, deyiladi. To‘rtinchi hodisada xufiyona iqtisodiyot natijalari YAIMda inobatga olinadigan ham moliyaviy operatsiyalar, ham iqtisodiy faoliyat tushuniladi. Nemis mutaxassislari xufiyona iqtisodiyotni YAIM tarkibiga kiritish tarafdori ekanligini qayd etish lozim.

Xufiyona iqtisodiyotning yuqoridagi ta'riflari bilan birgalikda uning kengroq ma'nodagi talqinlarini keltiramiz.

Rasmiy sektor doirasidan tashqarida, ya'ni uy xo'jaligidagi mehnatdan va jamoa ishlab chiqarishidagi o'z-o'zini ta'minlash maqsadida yashirin tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi turli faoliyat kabi xufiyona iqtisodiyotning ta'rifi ham mavjud.

Xufiyona iqtisodiyot – qonunlar, huquqiy normalar, xo'jalik hayotining rasmiy qoidalarini chetlab o'tib, ya'ni huquqiy maydon doirasidan tashqarida yuz beradigan iqtisodiy munosabatlarning ma'lum turidir, deb baholaymiz.

«Xufiyona» iqtisodiyot milliy xavfsizlikka tahdid sifatida ayrim individlar, ularning guruhlar, institutsional subyektlar o'rtasida moddiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish borasida yuzaga keladigan hamda natijalari u yoki bu sabablarga ko'ra rasmiy statistikada inobatga olinmaydigan va soliqqa tortilmaydigan munosabatlar majmuidir.

«Xufiyona» iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatishida davlatning iqtisodiy xavfsizligiga imkoniyatdagi va aniq tahdid mavjud. «Xufiyona» iqtisodiyot aksariyat odatdagi, «normal» iqtisodiy jarayonlarning kechishiga – daromadning taqsimlanishi va shakllanishiga, xalqaro savdoga, investitsiya kiritish va umuman iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. «Xufiyona» iqtisodiyotning xususiyatlarini aniqlashda ushbu muammo tadqiqotchilarini turli ta'riflarni muomalaga kiritishga undovchi har xil omillar inobatga olinadi. Bunday mezonlarga quyidagilar kiritiladi:

- davlatning fiskal (soliq) manfaatlari;
- YAMM miqdorining haqiqiy bahosi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar hamkorligi yoki xatti-harakatining xususiyati;
- yuridik ko'rsatkichlar.

Mazkur mezonlarga ko'ra, «jinoiy», «nojinoiy», «norasmiy», «soxta», «norasmiy» iqtisodiyot ajratiladi.

Soliqlarni kamaytirib to'lash o'z-o'zicha firibgarlik operatsiyasi hisoblanmaydi va har doim ham xufiyona biznes sohasiga kirmaydi. Hammasi qo'llaniladigan usullarga bog'liq. Soliqqa tortish bo'yicha har qanday tizimda ungagina xos bo'lgan ko'plab soliqlarni qonuniy kamaytirish imkoniyatlari mavjud. Buning ustiga soliqlarni kamaytirishning ushbu o'ziga xos usullarini soliqqa tortishning boshqa tizimlarida ko'pincha amalga oshirib bo'lmaydi. Soliq qonunchiligi

barcha mamlakatlarda takomillashib boradi. Takomillashuv deganda, avvalo soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash imkoniyatlarini bartaraf etish tushuniladi.

Soliq inspeksiyalariga daromadlarni yashirishning bir qator usullari ma’lum:

– turli banklarda bir necha hisobvaraqa ochish hamda buxgalteriya hisobida to‘liq aks etmagan hisob-kitob va pul operatsiyalarini ular orqali o‘tkazish;

– trast, veksel va boshqa hisobvaraqlardan foydalanish;

– «ikki tomonlama buxgalteriya» yuritish, naqd pullar bilan ishlash va shu tariqa tushum va daromadlarni to‘lashdan yashirish;

– korxonani bir tumanda (shaharda) ro‘yxatdan o‘tkazish, hisobvaraqlarni esa boshqa tuman yoki shaharlardagi banklarda ochish, ro‘yxatdan o‘tgan joyda ham, xo‘jalik faoliyati yuritiladigan joyda ham soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash;

– mahsulot (xizmat, ish) realizatsiyasining qiymatini xarajatlarga kiritilmaydigan xarajatlar evaziga oshirib ko‘rsatish;

– tomonlarning shartlashuviga ko‘ra, rasmiy hisob va to‘lov hujjatlarida bajarilgan ishlar (ko‘rsatilgan xizmatlar) qiymatini kamaytirib ko‘rsatish hamda haqiqiy hisob-kitobni (hisob hujjatlarida aks ettirmagan holda) naqd pullar bilan o‘tkazish.

«Xufiyona» iqtisodiyot doirasida operatsiyalarning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

– buxgalteriya hisobiga butunlay kiritilmaydigan (jumladan, ham oshkora, ham ro‘yxatdan o‘tmagan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan o‘tkaziladigan) operatsiyalar;

– boshqa operatsiyalar niqobi ostida o‘tkaziladigan muomalaning bir qismini yashirishga qaratilgan operatsiyalar. Bu yerda xo‘jalik faoliyati ko‘pincha daromadni yashirish yoki soliq, boj va boshqa to‘lovlarni amalga oshirishdan qochish bilan kechadi.

Shu yerda xulosa o‘rnida soliqlar to‘lashda intizomning buzilishi jamiyatning iqtisodiy negizlariga putur yetkazadi, deb aytish lozim. Soliq qonunchiligining buzilishi mamlakatda amalga oshiriladigan ijtimoiy tadbirlarning me’yorda ishlashiga raxna soladi. Budget kamomadini keltirib chiqaradi. Natijada egri soliqlar miqdori ko‘payadi. Mamlakatning ijtimoiy xavfsizligiga tahdid solinadi. Iqtisodiyotning notekis ishlashiga sabab bo‘ladi.

2. Xufiyona iqtisodiyotning turlari

Xufiyona iqtisodiyotni yuridik ko'rsatkichlar bo'yicha uning qonuniyligi, huquqiy normalarga munosabati nuqtai nazaridan tahlil qilish «jinoiy» va «jinoiy bo'lmagan» iqtisodiyotni ajratish imkonini beradi. «Jinoiy» iqtisodiyotda iqtisodiy faoliyatning o'zi yashirilsa, «jinoiy bo'lmagan» iqtisodiyotda daromad yoki xarajatlar yashiriladi.

Jinoiy iqtisodiyotni g'ayriqonuniy ishlab chiqarish, xufiyona ishlab chiqarish va g'arazli jinoyatlar tashkil qiladi. G'ayriqonuniy ishlab chiqarishga qonunda to'g'ridan-to'g'ri taqiqlangan, biznes tarzida tashkil qilingan faoliyat turlari kiradi. «Xufiyona» (nooshkora) korxonalar ishlab chiqarish jarayonini nazarda tutadi, chunki ularning mahsulot va xizmatlari bozorda samarali talabga ega. Iqtisodiy faoliyatning bu turiga quyidagilar kiradi:

- qurol ishlab chiqarish va sotish;
- narkobiznes;
- odam savdosi;
- kontrabanda;
- qimor o'yinlari;
- fohishalik va h.k.

Jinoiy iqtisodiyotni tadqiq etishda muayyan prinsiplar bo'yicha tashkil etilgan jinoiy biznes iqtisodiyoti va oshkora (legal) firmalar tarzida tashkil qilingan jinoiy korxonalarni farqlash maqsadga muvofiq. Uyushgan jinoyatchilikning faoliyati ko'p jihatdan taqiqlangan tovar va xizmatlar, asosan iste'mol xususiyatiga ega bo'lganlarni sotishga asoslangan. Ular ishlab chiqarishning nolegalligi sababi soliq to'lashni istamasliklari, transaksiyalarning qimmatligi, xavfsizlik texnikasiga rioya etish xarajatlarining kattaligidir. Ayrim qora bozorlar «uyushgan» boshqalari esa uyushmagan hisoblanadi. Jinoiy biznes shakllaridan biri reket bo'lib, u qo'rqitishga asoslangan hamda tovlamachilik va jinoiy monopoliya ko'rinishlarida namoyon bo'ladigan biznes sifatida baholanadi. Tovlamachilik kimgadir kuch ishlatish yoki jinoiy raqobat bilan tahdid solib, uning biznesidan foydalanishni anglatadi. Jinoiy monopoliya raqobatni tugatish (raqobatchilarni yo'q qilish yoki qo'rqitish) uchun jinoiy vositalardan foydalanishdir.

Jinoiy korxonalar tashkil qilish va ularning faoliyat yuritishiga kelganda, ushbu jarayonlarning eng ko'p tarqalgan sabablari quyidagilardan iborat: kichik biznes yuritishga imkon bermaydigan texnologik xarajatlarning kattaligi; monopol narxlarni nihoyatda oshirish imkoniyati-

ning borligi (nooshkora tovar va xizmatlarga talab elastik emas, shu bois ishlab chiqarish kamaysa ham, narx oshirilganida foyda ko'payadi); firma va ayniqsa, uning bozordagi ulushi qanchalik katta bo'lsa, uning «tashqi xarajatlari» (lobbilash, huquqni muhofaza qilish organlari bilan aloqalar o'rnatish va sh.k.) shunchalik katta bo'ladi.

Xufiyona ishlab chiqarish odatda qonunda ruxsat etilgan, ammo huquqi bo'lmagan ishlab chiqaruvchilar tomonidan amalga oshirilganida, noqonuniy bo'ladigan faoliyat turlarini (diplomi bo'lmagan shifokorlar, o'qituvchilarning xizmatlari) qamrab oladi yoxud qonuniy bo'ladi va bunga huquqi bo'lgan, lekin soliq, ijtimoiy jamg'armalarga badallar va shu kabilarni to'lashdan bo'yin tovlash maqsadida davlat organlaridan yashirinib yurgan ishlab chiqaruvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotning «norasmiy» sektori odatda qonuniy asosda faoliyat ko'rsatuvchi tarqoq korxonalar (masalan, o'z kuchi bilan amalga oshiriladigan yakka tartibdagi qurilish ishlari) hamda «norasmiy bandlik» korxonalari, ya'ni ish beruvchi bilan yollangan xodim o'rtasidagi munosabatlar biror shartnoma yoki boshqa yuridik hujjatlar bilan mustahkamlanmagan korxonalarni birlashtiradi. Bunda gap, birinchi navbatda, fuqarolarga ular uchun qiyin bo'lgan iqtisodiy sharoitlarda yashab qolishlariga imkon beruvchi ikkilamchi bandlik sohasi haqida boradi. Ko'pchilik rasmiylashtirmagan holda bir qancha joylarda o'rindoshlik asosida ishlaydilar. Bunda qo'shimcha ish haqidan soliq to'lanmaydi. Ushbu holda «norasmiy» iqtisodiyot subyektlar o'rtasidagi norasmiy aloqalar majmui sifatida ham talqin etiladi.

Iqtisodiy faoliyat natijalarining xususiyatiga ko'ra, ham an'anaviy tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni, ham shaxsning tanazzuliga olib keladigan buzg'unchi ehtiyojlarni qondiruvchi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladigan mahsuldor xufiyona iqtisodiyot hamda rasmiy iqtisodiyot doirasida daromadlar yoki aktivlarni noqonuniy taqsimlashda ifodalanadigan nomahsuldor (soxta) iqtisodiyot ajratiladi. «Soxta» iqtisodiyot doirasida daromadlar qo'shib yozish, talon-torojlik, poraxo'rlik, firibgarlik, xaridorlarni aldash, sifatsiz mahsulot chiqarish kabilar natijasida ortib boradi. «Soxta» iqtisodiyot subyektlarning shakllanayotgan iqtisodiy norasmiy aloqalari tizimidagi alohida mavqei bilan bog'liq foyda izlashi, «renta» olishi bilan chambarchas bog'liq. Har qanday iqtisodiyotda bo'ladigan tabiiy renta bilan bir qatorda quyidagi omillar bilan bog'liq bo'lgan sun'iy tashkil qilingan rentalarning ko'plab guruhlari paydo bo'ladi:

- korxonalarining muayyan guruhi uchun asossiz ravishda alohida (imtiyozli) faoliyat rejimini ta'minlash;
- turli xo'jalik yurituvchi subyektlarning xususiylashtirish jarayonida noqonuniy shartlar asosida ishtirok etishi;
- mulkchilik munosabatlarining huquqiy va iqtisodiy jihatdan tartibga solinmaganligi;
- siyosiy va byurokratik tuzilmalarning moddiy ne'matlar, daromadlar, mulkni taqsimlashga doir qarorlarning qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatish huquqi.

Xo'jalik yuritish subyektlari o'zaro munosabatlarining xususiyatiga ko'ra, xufiyona iqtisodiy munosabatlarning bir necha guruhi ajratiladi: individ – tashkilot, individ – davlat, tashkilot – tashkilot, tashkilot – davlat, individ – individ.

Rasmiy iqtisodiyotga munosabati bo'yicha «xufiyona» iqtisodiyotni quyidagi mezonlar bo'yicha tahlil qilish mumkin:

1-jadval

Xufiyona iqtisodiyotni tiplashtirish mezonlari

Asosiy belgilari	«Ikkilamchi xufiyona» iqtisodiyot	«Jinoiy bo'lmagan» iqtisodiyot	«Jinoiy» iqtisodiyot
Subyektlar	Iqtisodiyotning rasmiy sektoridagi menejerlar	Norasmiy ravishda ish bilan band	Professional jinoyatchilar
Obyektlar	Ishlab chiqarmay turib daromadlarni qayta taqsimlash	Odatdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish	Taqiqlangan va taqchil tovar va xizmatlar ishlab chiqarish
«Oq» iqtisodiyot bilan aloqasi	Rasmiy iqtisodiyotdan ajralmagan	Nisbiy mustaqillik	Rasmiy iqtisodiyotga nisbatan mustaqil

Xufiyona iqtisodiyotni tahlil qilishda ijtimoiy ishlab chiqarish bosqichlaridek mezonni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Odatda, xufiyona ishlab chiqarish (noqonuniy, hisobga olinmagan, yashirin, mayda ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarishi, sifatsiz mahsulot chiqarish, ishlab chiqarish resurslaridan noto'g'ri foydalanish va boshqalar); xufiyona taqsimot (daromadlarni noqonuniy taqsimlash, maxsus taqsimot, davlat mulkini talon-toroj qilish, fuqarolarning shaxsiy

mulkiga qarshi jinoyatlar va h.k.); xufiyona ayirboshlash (g'ayriqonuniy savdo, xaridorlarni aldash, noqonuniy ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish va boshqalar); xufiyona iste'mol (g'ayriijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, noqonuniy yo'l bilan topilgan mulkni iste'mol qilish, xizmatlardan noqonuniy foydalanish kabilar) ajratiladi.

Bozorlar turlariga ko'ra, xufiyona jarayonlar iste'mol buyumlari, ishlab chiqarish vositalari, ish kuchi va ish joylari, axborot va texnologiyalar, kapital kabilar bozorida amalga oshiriladi. Tarmoq belgisiga ko'ra, xufiyona iqtisodiyot sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo iqtisodiyoti kabilarga ajratiladi. Masalan, savdo sohasida – qalbaki (kontrafakt) mahsulot sotish, kontrabanda, bojxona organlari bilan til birlashtirish kabilar ajratiladi; moliya-kredit sohasida – moliyaviy piramidalar, «iflos» pullarni yuvish, turli xil notijorat jamg'armalari homiylikdagi moliyaviy nayranglar va shu kabilar; xizmat ko'rsatish sohasida – bir kunlik firmalar faoliyati, ta'lim sohasidagi poraxo'rlik, kurs va diplom ishlarini pulga yozib berish va boshqalar.

Yana bir mezon – yuridik maqom bo'lib, u iqtisodiy subyektlarni ro'yxatdan o'tgan, ya'ni rasmiy ro'yxatga kirgan, ammo xufiyona korxonasi bo'lgan hamda ro'yxatdan o'tmagan iqtisodiy subyektlarni ajratishga imkon beradi. Ro'yxatdan o'tmagan iqtisodiy subyektlarga quyidagilar kiradi: tovar ishlab chiqaradigan yoki uy xo'jaliklari va korxonalariga naqd pul yoki natura evaziga xizmat ko'rsatadigan, ammo tadbirkorlar sifatida ro'yxatdan o'tmagan jismoniy shaxslar; aholiga pulli uy va boshqa (uy yig'ishtirish, kir yuvish, repetitorlik qilish kabi) xizmatlar ko'rsatadigan shaxslar; qonuniy tovar va xizmatlar ishlab chiqaradigan, biroq hisobdan o'tmagan va aslida bevosita statistik kuzatuvni amalga oshirib bo'lmaydigan xufiyona korxonalar.

Xufiyona iqtisodiyotni mikro (korxonalar, muassasa, tashkilotda), *mezo* (tarmoq bo'yicha), *makro* (milliy iqtisodiyot doirasida) va *mega* (xalqaro, jahon iqtisodiyoti) darajalarida ko'rib chiqish mumkin.

Jahon xufiyona iqtisodiyotida bank va korporativ sohalardagi moliyaviy iqtisodiy jinoyatlar, narkobiznes, fohishalik, «tirik tovar bilan» savdo qilish, pornobiznes, noqonuniy qurol savdosi, «iflos pullarni yuvish», korrupsiya yetakchilik qiladi. Masalan, XX asr oxirida xalqaro hamjamiyat «global muammo» deb atagan korrupsiyadek murakkab va jiddiy muammo xalqaro uchrashuvlarda muhokama mavzuini tashkil qildi.

Korrupsiya: 1) davlat tuzilmalarining iqtisodiyot sohasidagi jinoiy dunyo tuzilmalari bilan qo'shib ketishi, shuningdek jamoat arboblari va

siyosiy arboblarning sotilishi; 2) mansabdor shaxslar, siyosiy va jamoat arboblarning xizmat faoliyati bilan bog'liq huquqlaridan davlat va jamiyatga, shuningdek alohida shaxslarga ziyon yetkazgan holda shaxsiy boyish maqsadida foydalanishlaridan iborat jinoyatlarning umumiy nomi.

Poraxo'rlik xalqaro amaliyotda odatda yashirin xususiyatga ega bo'ladi. Pora olganlik faktini isbotlash nihoyatda qiyin. Poraxo'rlik usullaridan biri – turli maslahatchilar, agentlar, vositachilar, shuningdek xorijdagi rasmiy shaxslar xizmatlari uchun haq to'lash. Ayrim mamlakatlar pora beruvchi uchun daromad yoki foyda olish maqsadiga ega bo'lgan har qanday pora berish hollarini, boshqalari esa – xo'rak vazifasini faqat pul yoki mulk bajargan hollarni poraxo'rlikka kiritadilar.

«Xalqaro savdo va investitsiyalar bo'yicha ishlab chiqilayotgan standartlar» (AQSh) – tadqiqotlarga ko'ra, poralarning har xil turlari quyidagicha tasniflanadi:

- mansabdor shaxslar – tovlamachilar xizmati uchun haq to'lash;
- hukumat, davlatning oliy mansabdor shaxslarining «ko'nglini topish» va kelajakda qulay sharoit yaratish haqidagi va'dasini olish maqsadida ularga to'lovlar berish;
- amaldorlarga (milliy yoki xorijiy) firma uchun zarur bo'lgan qaror qabul qilinishiga ko'maklashishi, bitim yoki buyurtmaning ma'qullashiga erishish maqsadida pul berish.

Pora har xil shakllarda beriladi: naqd pul bilan, bilvosita to'lovlar, partiyalar jamg'armalariga badallar to'lash tarzida va h.k.

Poraxo'rlikning asosiy motivlariga quyidagilar kiradi:

- aks holda boshlanishi mumkin bo'lmagan biznesning boshlanishini ta'minlash;
- bo'lg'usi korxonaning raqobatchilarini tugatish;
- firmalar olishga haqli bo'lgan, ammo amaldorning injiqligi tufayli o'z vaqtida ololmagan davlat xizmatlaridan foydalanishni osonlashtirish;
- soliq to'lovlari bo'yicha qarzlarni kamaytirish;
- tartibga solinadigan narxlarni oshirishga ruxsat olish;
- majburiy tarzda pora berish (masalan, o'z xodimlarining xavfsizligini ta'minlash uchun).

Korrupsiyaning rivojlanishiga sharoit yaratuvchi sabablar sifatida odatda quyidagilar keltiriladi:

- qonunlarning nomukammalligi;
- jamoat hayotining byurokratlashuvi, amaldorlarning ko'payib ketishi;

- tadbirkorlikning tashkiliy jihatdan qiyinlashuvi, vositachilarning ko‘payishi;
- tadbirkorlarda bozor madaniyatining yo‘qligi;
- xo‘jalik yuritish usullariga qo‘yiladigan qonuniy talablar standartlarining o‘zgarishi;
- eng oddiy axloqiy qoidalarning yo‘qligi yoki ularga amal qilinmasligi.

Har qanday tadbirkorlik faoliyati muntazam ravishda foyda olish maqsadini ko‘zlaydi. Noqonuniy tadbirkorlik faoliyati sohasida daromadlarni legallashtirish, ya’ni aksariyat mamlakatlarda o‘z-o‘zicha jinoyat hisoblanadigan qilmish muhim hisoblanadi. «Iflos» pullarni yuvish yoki, ba’zan huquqshunoslar aytganlaridek, «jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni oshkoralashtirish» – noqonuniy biznes (fohishalik, qurol yoki narkotiklar savdosi)dan keladigan daromadni yoki oddiygina soliq to‘lanmagan daromadlarni «pok pullarga», ya’ni halol yo‘l bilan topilgan deb tasavvur qilish mumkin bo‘lgan pullarga aylantirish – dunyodagi biznesning eng yirik turlaridan biri hisoblanadi. Yuridik adabiyotlarda «pullarni yuvish» quyidagicha ta’riflanadi:

- manbai jiddiy jinoyat ekanligini bila turib, mulkning noqonuniy kelib chiqqanligini yashirish yoki niqoblash maqsadida uni tashqi tomondan o‘zgartirish yoki transformatsiya qilish (shaklini o‘zgartirish);
- jinoyat yoki jinoyatlar sodir etilishiga aloqador bo‘lgan har qanday shaxsga faoliyatining qonuniy oqibatlaridan bo‘yin tovlashida ko‘maklashish;
- jiddiy jinoyat obyekti ekanligi ma’lum bo‘lgan qandaydir mulkning haqiqiy tabiati, manbai, joylashgan yeri, xususiyati, mulkka yoki unga egalikka aloqasi bo‘lgan huquqlarning ko‘chishini yashirish yoki niqoblash.

«Iflos» pullarni yuvish amaliyotini tahlil qilishning ko‘rsatishicha, oxirgi vaqtlarda haqiqatan yangi usullar paydo bo‘lmadi, yangi usullar yo‘q bo‘lgani holda, mavjudlarida nisbiy o‘zgarishlar bo‘lishda davom etmoqda. Shu jihatdan bank sohasi eng katta xavf zonasi bo‘lib qolmoqda, chunki pullarni yuvishning eng aniq usullari u bilan bog‘liq:

- keyinchalik xorijdagi boshqa shaxsga o‘tkazish maqsadida katta miqdordagi pul summalarini bankdagi hisobvaraqlarda deponentlashtirish;
- qarindoshlar, yordamchilar va boshqa shaxslarga hisobvaraqlar ochish;
- pullarni hisobvaraqdan hisobvaraqqa ketma-ket ko‘chirish zanjiridan foydalanish;

– boshqa yurisdiksiyada (masalan, ofshor zonalarda) inkorporatsiyalangan soxta kompaniyalardan foydalanish va boshqa ko‘plab usullar.

Yuridik taqiqning o‘ziga xos sharoitlarida narkobiznes – notibbiy maqsadda ishlatiladigan psixofaol vositalarni ishlab chiqarish va tarqatish turadi. Narkobiznesning jahondagi miqyosi allaqachon u haqda iqtisodiyotning alohida tarmog‘i sifatida so‘z yuritishga imkon beradi. Unda mulkchilik munosabatlari, talab va taklifni shakllantirish mexanizmi, narx hosil bo‘lishi va foyda, transaksiyaviy xarajatlar, institutsiyaviy tashkilot kabilar mavjud.

Narkobiznesda qonunga qarshi doimiy urush olib borish strategiyasi ancha yaqin integratsiyani, shuningdek katta miqdordagi resurslar jamlanadigan hamda ulardan rejali va muvofiqlashgan tarzda (ayniqsa, katta operatsiyalar amalga oshirilganda) foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladigan korporatsiya va kartellardan iborat yirik iqtisodiy birlashmalar tashkil qilishni talab etadi. Bunday birlashmalar narkotik ishlab chiqarish uchun emas, balki yuridik jihatdan taqiqlangan sharoitda narkotiklarni ishlab chiqarish, sotish va iste‘mol qilish imkoniyatining o‘zini ishlab chiqarish uchun kerak. Narkobiznesning umumtarmoq tarkibida narkotiklar ishlab chiqarishning o‘zi uncha katta o‘rin egallamasligi bozor narxlarining tarkibini ko‘rib chiqishda yaxshi ko‘rinadi: narkotiklar ishlab chiqarishga bevosita jalb etilgan omillar (yer, mehnat, kapital, tadbirkorlik harakatlari) juda arzon, uni ishlab chiqaruvchi mamlakatning ulgurji narxlari uncha qimmat bo‘lmagan dorilar narxi darajasidadir. Iste‘molchi mamlakatdagi chakana narxlar esa o‘nlab -marta yuqoridir. Narkotiklarning chakana narxi taqiqlangan tovar harakatining har bir bosqichidagi operatorlar sarflaydigan yoki sarflash tavakkali bo‘lgan haqiqiy xarajatlarni qoplaydi. Xatar qanchalik yuqori bo‘lsa, bozor operatsiyalarining xavfsizligini ta‘minlash xarajatlari, operatorlarning mulkchilik huquqini saqlab qolish xarajatlari (transaksiyaviy xarajatlar) shunchalik katta bo‘ladi.

Narkobiznes tarmoq tuzilishining tipiga ko‘ra tabiiy monopoliyani eslatadi. Taqiqlangan sharoitda narkotiklarni barqaror va ishonchli tarzda yetkazib berish keng tarmoq otgan infratuzilmani yaratish va faoliyatini ta‘minlashga doimiy ravishda katta xarajatlar sarflashni talab qiladi. Yo‘lga qo‘yilgan kanallar bo‘yicha narkotiklarning qo‘shimcha birliklarini yetkazib berish bilan bog‘liq eng katta xarajatlar nisbatan kam. Nihoyatda katta doimiy xarajatlar bo‘layotganida nisbatan kichik chegaraviy xarajatlar tarmoqning raqobat qiluvchi kompaniyalarga bo‘linishi iqtisodiy jihatdan samarasiz ekanligini aniq ko‘rsatib turadi.

«Narkopullarni» eng ko‘p miqyosda iqtisodiyotning katta daromad keltiruvchi legal sohalariga, masalan, qurilish biznesi yoki neft qazib olish va tashishga, birja spekulyatsiyalariga investitsiya tarzida kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shunday qilib, ko‘rib chiqilgan tasnifiy mezonlar xufiyona iqtisodiyotni kompleks o‘rganish imkonini beradi. Bunda xufiyona iqtisodiyot umumiy holda ham, alohida tarkibiy qismlari bo‘yicha ham tahlil qilinishi mumkin. Bu esa aniq tadqiqotning maqsadlariga bog‘liq.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari xufiyona iqtisodiyotning murakkab, ko‘p bosqichli hodisa ekanligini bilishlari shart. Uning tur va shakllari xilma-xil. Xufiyona iqtisodiyotning maqsadi, faoliyati va iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlariga ko‘ra, yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi bir necha turlarining ta‘rifini keltiramiz:

Jinoiy-iqtisodiy faoliyat. Bu mutlaqo man etilgan, qonun yo‘li bilan taqiqlangan ishlar bilan shug‘ullanish. Masalan, narkobiznes, pornobiznes, qurol-yarog‘ biznesi va h.k.

G‘ayriqonuniy, g‘ayriiqtisodiy usullar bilan daromadlarni qayta taqsimlab, o‘zlashtirib olish, masalan, o‘g‘rilik, bosqinchilik, reket, poraxo‘rlik.

Ikkilamchi iqtisodiyot – kishilarga zarar keltirmaydigan, ular uchun naf beradigan, lekin rasman ruxsat berilmagan va davlat ro‘yxatidan o‘tmagan iqtisodiy faoliyat. Ular yashirin tadbirkorlik hisoblanadi.

Rasman ruxsat etilgan faoliyat bilan birga, qo‘shimcha ravishda yashirin ishlab chiqarishga qo‘l urish, ochiq ishlaydigan korxonalarda qo‘shimcha ravishda hisobga kirmagan mahsulot chiqarib, uni yashirin sotish.

Mansabni suiiste‘mol qilish va korrupsiyaga asoslangan iqtisodiy xatti-harakatlar. Bular jumlasiga davlat idoralaridagi yashirin poraxo‘rlik, yashirin lobbizm, mansabdan foydalanib subsidiyalar olishni kiritish mumkin.

Qalbakilashtirilgan iqtisodiy faoliyat. Bu iqtisodiyot davlat sektoriga xos bo‘lib, davlatni aldashga qaratiladi. Buning eng yaqqol namunasi davlat sektoridagi qo‘shib yozishlar, qilinmagan ishlar uchun davlatdan haq olish va boshqalar.

3. Xufiyona iqtisodiyot oqibatlarining statistikasi

«Xufiyona» jarayonlar dinamikasining omillari, ularning miqyosi va ularni o‘lchash usullari. Xufiyona iqtisodiyot rivojlanishining tamoyillari

milliy iqtisodiyotda uning rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishining har bir aniq tarixiy davrida yuz beradigan jarayonlar bilan bog'liq. Xufiyona iqtisodiyot miqyosi va dinamikasini belgilovchi omillarning quyidagi guruhlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Antropologik omillar: insonning ziddiyatli tabiati, ezgulik va yovuzlikning doimiy kurashi, insonning kam kuch sarflab ko'proq foyda olishga intilishi va sh.k.

Iqtisodiy omillar: tadbirkorlik faoliyatining yuqori darajadagi transaksiyaviy xarajatlari («qonunga bo'ysunish bahosi»), bozor xo'jaligi doirasidagi raqobat, iqtisodiyotning turli sektorlarining notekis rivojlanishi, inflatsiya, almashuv kurslarining keskin o'zgarib turishi, soliqqa tortish tizimi va boshqalar.

Ijtimoiy omillar: jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuvi, «xavf guruhlari»ning mavjudligi, mehnat qonunchiligining buzilishi, muhojir ishchilar, ayollar va o'smirlar mehnatidan foydalanishda ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya etilmasligi va h.k.

Huquqiy omillar: tadbirkorlikning huquqiy asosi nomukammalligi, bozor xo'jaligining o'zgarib boruvchi shart-sharoitlari bilan mavjud qonunchilik bazasi o'rtasida ziddiyat mavjudligi, uy xo'jaligining tartibga solinmasligi va sh.k.

Axloqiy omillar: qonunchilik hamda tadbirkorlikning axloqiy asoslari o'rtasidagi ziddiyatlar, davlat va jamiyat, davlat va individ manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar; milliy an'analarning hisobga olinmasligi, diniy qoidalarning ta'siri va boshqalar.

Siyosiy omillar: hokimiyat va yirik kapital o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, oligarxiyaning shakllanishi, hokimiyat kuchi hamda iqtisodiy faoliyatga ta'sir ko'rsatishning kuchga asoslangan usullari o'rtasidagi nisbat. Iqtisodiyotni rivojlantirishning obyektiv ehtiyojlari va davlat siyosati o'rtasidagi ziddiyat va sh.k.

YAIMga o'xshatma tarzda yalpi jinoiy mahsulot (YaJM) termini ham paydo bo'ldi. XVFnning bahosiga ko'ra, 2004-yilda uning miqdori taxminan 800 mlrd. dollarni tashkil qildi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, «yuvilgan» kapitalning miqdori bugun shunchalik kattaki, nafaqat ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotiga, balki xalqaro moliyaviy tizimning barqarorligiga ham xavf solmoqda.

«Xufiyona» iqtisodiy faoliyat u yoki bu daraja va shaklda har qanday mamlakatda ham mavjud, ammo uning YAIMdagi ulushi har bir mamlakatda o'zgacha bo'lib, bu bir qator iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa omillar bilan bog'liqdir. Mamlakat YAIMda «xufiyona»

iqtisodiyotning ulushini aniqlash maqsadidagi yondashuvlar ham mavjud. Bunda «xufiyona» iqtisodiyot miqyosi quyidagi tartibda baholanadi:

a) turli iqtisodiy tizimlarga mansub mamlakatlarda (rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish davri iqtisodiyotidagi mamlakatlar);

b) turli qit'alardagi rivojlanayotgan mamlakatlarda (Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi);

c) mamlakatlarning mazkur guruhlarida turli davrlardagi ma'lumotlar bo'yicha (masalan, 1990–1995-y., 1995–2000-y., 2000–2005-y., 2005–2010-y).

Rivojlangan mamlakatlarda xufiyona iqtisodiyot miqyoslarini baholash uchun an'anaga ko'ra usullarning quyidagi guruhlaridan foydalaniladi:

1) o'ziga xos ko'rsatkichlar usuli, ular orasida bevosita usullar (soliq to'lovchilarning ayrim guruhlari daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farqni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan maxsus tadqiqotlar, so'rovlar, tekshiruvlar va ularni tahlil qilish va boshqalar) hamda bilvosita usullar (farqlash usuli, bandlik ko'rsatkichi bo'yicha usul, monetar usullar);

2) «yumshoq» modellashtirish (determinantlarni baholash) usuli – «xufiyona» iqtisodiyotni belgilovchi omillar majmuini ajratish hamda uning nisbiy hajmlarini hisoblash;

3) tarkibiy usul – ishlab chiqarishning turli tarmoqlaridagi «xufiyona» iqtisodiyot miqdoriga doir ma'lumotlardan foydalanish;

4) aralash usullar – «xufiyona» iqtisodiyot determinantlarining ham, ko'rsatkichlarining, ya'ni uning hajmiga bog'liq kattaliklarning ham katta miqdorini inobatga oluvchi modelini yasash;

5) makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni integral baholash – xufiyona iqtisodiyotni noaniq ko'rinishda baholash;

6) «xufiyona» iqtisodiyotning o'zini va ayrim unsurlarini rasmiy statistika ko'rsatkichlariga qo'shimcha turli hisob-kitoblar ko'rinishida baholash.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida aksariyat hollarda hisobga olinmaydigan xususiy va yakka tartibdagi faoliyat sifatida baholanadigan «xufiyona» iqtisodiyot hajmini aniqlash uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

– matbuot, jinoyatlarga oid statistika, sud materiallari va shu kabilarni sinchiklab o'rganishga asoslanadigan ikkilamchi axborot manbalarini o'rganish;

– bevosita usullar (tekshiruvlar, soliq auditi va boshqalar);

– umumlashgan bilvosita usullar (statistik farqlash usuli, monetar usullar va sh.k.);

– tarkibiy usul (ishlab chiqarilgan va iste'mol qilingan milliy daromad, eksport va import o'rtasidagi statistik farqlarni aniqlash usuli va boshq.);

– aralash usullar.

Xufiyona faoliyatni baholashda Rossiyada qo'llangan quyidagi usullar majmuidan foydalanilganini keltirish mumkin:

1) bevosita usullar;

2) farqlash usuli;

3) bandlik ko'rsatkichi bo'yicha aniqlash usuli;

4) makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash;

5) monetar usullarning ayrim unsurlari.

«Xufiyona» iqtisodiyotni bevosita usullar bilan baholash uchun taklif etiladigan ko'rsatkichlar umumlashtiruvchi va juz'iy (xususiy) ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar guruhiga umuman milliy iqtisodiyot xufiyona sektorining turli usullar bilan hisoblangan mutlaq va nisbiy hajmini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar kiradi. Juz'iy usullariga xufiyona faoliyatning ayrim tomonlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar kiritiladi: daromadlarni yashirish; resurslardan nooqilona foydalanish; kamomadlar, talon-torojliklar va boyliklarni buzishning umumiy summasi; davlat nazorati organlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruv va tadqiqotlar davomida aniqlangan zararining umumiy qiymati; soliq tekshiruvlari bo'yicha boqimandalar; tuzatishlar kiritilgan boj qiymati bo'yicha bojlar va boshqalar.

Farqlash usuli ikki yoki undan ortiq ma'lumotlar manbalari yoki statistik hujjatlarni qiyoslashga asoslanadi. Ma'lumotlar manbalari ham, statistik hujjatlar ham ayni bir iqtisodiy ko'rsatkichlar haqidagi axborotdan iborat yoki ayni bir ma'lumotlardan axborot olish uchun turli usullar qo'llaniladi, deb hisoblanadi. Masalan, xufiyona iqtisodiyot aylanmasi quyidagi usullar bilan hisoblanishi mumkin: 1) aholining iste'mol xarajatlari bilan rasman inobatga olinadigan tovar va xizmatlar aylanmasi (muomalasi) o'rtasidagi farq; 2) aholining iste'mol xarajatlari bilan tovar va xizmatlar, jumladan sotishning barcha kanallari orqali amalga oshiriladigan tovar aylanmasi (muomalasi) o'rtasidagi farq.

Bandlik ko'rsatkichi bo'yicha aniqlash usuli quyidagicha tadqiqot o'tkazish imkonini beradi:

– hisob-kitob asosida bandlikning amaldagi va rasman qayd etilgan darajasi o'rtasidagi farq yotadi;

– hisob-kitob asosida amalda ishlangan va rasman qayd etilgan vaqt o‘rtasidagi farq yotadi.

Birinchi holda bandlikning haqiqiy darajasi o‘zini ish bilan ta‘minlash qo‘shimcha bandlikni inobatga olgan holda uy xo‘jaliklarini tanlab tekshirish ma‘lumotlari bo‘yicha baholanadi, bu esa amalda ish bilan band bo‘lganlar, jumladan o‘rindoshlar sonini aniqlashga imkon beradi. Bandlarning rasman aniqlangan miqdori bilan tanlab o‘tkazilgan tekshiruvlar natijasida olingan ko‘rsatkichlar, muayyan xatolar bilan «xufiyona» iqtisodiyotda band bo‘lganlar sonini ko‘rsatadi. «Xufiyona» iqtisodiyotda band bo‘lganlar hamda iqtisodiyot bo‘yicha o‘rtacha mehnat unumdorligining ko‘paytmasi norasmiy iqtisodiyotdagi xufiyona iqtisodiy faoliyat miqdorini aks ettiradi.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni (batamom) hisoblash bilvosita ma‘lumotlar va ekspertlar baholarini qo‘llashga asoslanadi. Hisob-kitoblarni xufiyona faoliyatning ta‘siri kuchli bo‘lishi taxmin qilinadigan ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘tkazish maqsadga muvofiq: kichik korxonalar, tovar aylanishi, yakka tartibdagi qurilish, yakka ishlab chiqaruvchilar ko‘rsatadigan bozor xizmatlari bo‘yicha ma‘lumotlarning to‘liq doirasigacha hisoblashlar. Masalan, yakka ishlab chiqaruvchilar ko‘rsatadigan bozor xizmatlari bo‘yicha batamom hisoblash soliq inspeksiyasining ma‘lumotlari va quyidagi bilvosita ko‘rsatkichlar bo‘yicha amalga oshiriladi: xususiy taksi sifatida foydalaniladigan avtomobillar soni; xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi shifokorlar, huquqshunoslar soni va h.k.

Monetar usuldan foydalanish quyidagi taxminlarga asoslanadi: 1) xufiyona bitimlar asosan naqd pullar yordamida amalga oshiriladi; 2) pulning muomala tezligi rasmiy va «xufiyona» iqtisodiyotda taxminan bir xil; 3) naqd pul mablag‘larining miqdori daromadlar, soliqlar, foiz stavkalari o‘zgarishi natijasida ham «xufiyona» iqtisodiyotning amal qilishi oqibati ham o‘zgarib turadi. U (xufiyona iqtisodiyot bo‘lsa kerak) hisobga olinmagan omillar hisoblanadi. Shu bois, umumiy pul massasida naqd mablag‘lar ulushining korrelyatsion-regressiv modellarini qurish natijalar ko‘rsatkichining o‘zgarishida «xufiyona» iqtisodiyotning ulushini aniqlashga imkon beradi. «Xufiyona» iqtisodiyotning mutlaq hajmini monetar usul bo‘yicha aniqlash naqd pullar va omonatlar nisbati «normal» bo‘lgan, ya‘ni «xufiyona» iqtisodiyot bo‘lmagan bazaviy davrni aniqlashning qiyinligi tufayli murakkablashadi; turli vaqt oraliqlarida (hatto bazaviy davr shartli aniqlanganida ham) iqtisodiyotning ahvoli haqidagi ma‘lumotlarni qiyoslab bo‘lmasligi.

Qoʻllaniladigan usullarning xilma-xilligi xufiyona iqtisodiy tuzilmalar oʻlchamlarini miqdoriy baholashning yagona usuli, maʼlumotlarning ishonchlik mezonlari yoʻqligidan dalolat beradi. Bir qator mamlakatlarda «xufiyona» iqtisodiyotning oʻlchamlariga doir turli usullar bilan olingan maʼlumotlar nihoyatda ziddiyatli boʻlib, YAIMning 1 foizdan 33 foizgacha oʻzgarib turadi. Hisob-kitoblar natijasining koʻrsatishicha, bevosita usullar past koʻrsatkichlar beradi; bilvosita usullar, shuningdek yashirin oʻzgaruvchilar, «yumshoq» modellashtirish usullari, tarkibiy usul esa yuqori koʻrsatkichlarni beradi. Bevosita usullarning asosiy kamchiligi – maʼlumotlarni toʻplashning qiyinligi va aholi oʻrtasida soʻrov oʻtkazish natijasida olingan axborotning atayin buzilishi. Bilvosita usullar nihoyatda xilma-xildir; ularning asosida yotgan gipotezalar shartli boʻladi; statistik axborot yetishmovchiligi sababli qoʻllash qiyin kechadi. Shunday qilib, «xufiyona» iqtisodiyotni tadqiq etishdan koʻzlangan maqsad har bir aniq vaziyatda aynan shu vaziyatga mos keladigan usul yoki bir qancha usullar majmuini tanlashni taqozo etadi.

Xufiyona iqtisodiyot miqyosi yashirin iqtisodiy aylanmani, yaʼni ruxsat etilmagan tovar va xizmatlarni yaratish va ularni sotish hajmi bilan belgilanadi, uning aniq hisob-kitobi boʻlmaydi. Buning oʻrniga uni taxminan baholash usuli qoʻllaniladi. Ayrim hisob-kitoblarga koʻra, oʻtgan asrning oxirlarida Yer yuzidagi yashirin iqtisodiy aylanma 8 trln. dollarga yoki jahon yalpi mahsulotining 27,5 foizga teng boʻlgan, biroq xufiyona iqtisodiyot miqyosi turli mamlakatlarda farqlanadi. Xufiyona iqtisodiyot eng rivojlangan mamlakatlarga Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlari kiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti tomonidan 2008-yilda oʻtkazilgan tezkor tahliliy tadbirlar natijasida 4430 ta jinoiy va 1109 ta maʼmuriy huquqbuzarlik holatlari aniqlandi. Natijada budjetga 191 mlrd. soʻm qoʻshimcha mablagʻning hisoblanishi va 79,6 mlrd. soʻm undirilishi taʼminlandi. Jumladan, «xufiyona» iqtisodiyotga qarshi kurashish natijasida 669 ta yashirish ishlab chiqarish faoliyati toʻxtatildi. Huquqbuzarlardan 701,4 mln. soʻmlik mahsulot, xom ashyo va uskunalar olib qoʻyildi. Naqd pullarning bankdan tashqari noqonuniy aylanmasiga barham berish boʻyicha 1250 ta jinoyat ishi qoʻzgʻatilib, 361 mlrd. noqonuniy pul aylanmasi aniqlandi. Tovarlarning noqonuniy importi yuzasidan 893 ta qonun buzilishi holatlari aniqlanib, 9 mlrd. soʻmlik tovarlar olib qoʻyildi. Etil spirti, alkogolli va tamaki mahsulotlarini noqonuniy muomalaga

kiritish bo'yicha esa 1027 ta jinoyat ishi qo'zg'atilib, 889,8 mln. so'mlik mahsulotlar olib qo'yildi.

Ta'kidlash joizki, barcha tezkor qidiruv va tahliliy operatsiyalarda tadbirkorlarning huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarning oldini olishga qaratilgan qonunchilik talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

«2011-yil – Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb e'lon qilinishi mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim qadam bo'ladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik Vatanimiz taraqqiyotini va xalq farovonligini yanada yuksaltirishda belgilovchi yetakchi kuch ekanligini inobatga olib, davlatimiz rahbari uni rivojlantirishni siyosat darajasiga ko'targanligi o'ta muhim hodisadir. Buning boisi shuki, ijtimoiy yo'naltirilgan zamonaviy bozor iqtisodiyotida kichik biznes nihoyatda muhim o'rin egallaydi. Eng avvalo, kichik biznes bozor konyunkturasi o'zgarishlariga tez moslashishga, iste'molchilarning talab-ehtiyojlari o'zgarishiga qarab ish tutishga qodirdir. Kichik biznes raqobatchilik muhitini shakllantiradi, busiz bozor iqtisodiyotini tasavvur qilib bo'lmaydi. Ikkinchidan, kichik biznes yangi ish o'rinlari jadallik bilan barpo etilishini, aholining bandligi o'sishini va daromadlari oshib borishini ta'minlaydi. Uchinchidan, kichik biznes ichki bozorni tovarlar va xizmatlar bilan boyitishning muhim manbai hisoblanadi hamda yalpi talabni o'stiradi.

Ma'lumki, davlatning iqtisodiyotga ta'siri iqtisodiy, huquqiy va ma'muriy usullar orqali yuz beradi. So'nggi yillarda iqtisodiyotimizni isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari sifatida davlat va nazorat tuzilmalarining korxonalar, moliya xo'jalik subyektlari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy erkinligi va huquqlarini sezilarli darajada kengaytirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Noqonuniy tekshiruvlar soni kamaydi. Ruxsat berish bilan bog'liq 20 ga yaqin tartib-taomil bekor qilindi, hisobot ma'lumotlarini noqonuniy talab qilganligi uchun javobgarlik kuchaytirildi.

Yaratilgan huquqiy zaminlar, qabul qilingan kafolatlar, imtiyoz va preferensiyalar hayot, najot, saodat yo'li bo'lgan kichik biznesning jadal rivojlanishiga imkoniyat yaratdi, buning natijasida uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000-yildagi 30,0 foizdan 2011-yil yakuniga kelib qariyb 54,0 foizni tashkil etdi. Bugungi kunda jami band aholining 75 foizga yaqini mazkur sohada mehnat qilmoqda.

Tadbirkorlar huquqlarining himoya qilinishini ta'minlash borasidagi huquqiy normalar mustahkamlandi, tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik faoliyatiga nazorat qiluvchi idoralarning aralashuvini keskin qisqartirish choralari ko'rildi. Ustuvor yo'nalishlardan yana biri – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratish bo'lib, unda oxirgi-yillarda tadbirkorlik sohasida o'z ishini ochish uchun ruxsat olish, soliq, moliya va statistika organlariga hisobot topshirish masalalarini tartibga solish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Ayni paytda, kichik biznes subyektlarining energiya, gaz, suv va kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti va boshqa shu kabi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi yoki ularni qurishda ishtirok etishi uchun ruxsat olish tartib-qoidalarini soddalashtirish masalasi bugungi kunda amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, davlatimiz rahbari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ushbu soha rivoji uchun yanada keng yo'l ochib berish maqsadida mavjud normativ-huquqiy bazani tanqidiy nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish, yangi qonun hujjatlarini qabul qilish masalasiga to'xtaldi.

Bu haqda Islom Karimov joylarda kichik bo'lsa ham o'z ishini, o'z biznesini ochishga intilayotgan xususiy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash o'rniga, mahalliy amaldorlar tomonidan ularni ko'rolmaslik, qo'lidan ish keladigan odamlarning yo'lga turli-tuman g'ov-to'siqlar qo'yilayotganiga aslo toqat qilib bo'lmasligini aytib o'tib, keyingi yillarda bunday salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida tegishli ishlar olib borilayotganligi, jumladan, korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyatiga davlat va nazorat tuzilmalarining aralashuvini keskin kamaytirish, shuningdek, xo'jalik va tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy huquq va erkinliklarini sezilarli darajada kengaytirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilganligini ta'kidladi. Lekin nazorat organlariga mansub ayrim mansabdorlar malakasining pastligi hanuz o'tkir muammo bo'lib qolayotganligi va ishimizga salbiy ta'sir o'tkazayotganligini kuyinib gapirdi.

Shular qatorida ko'pgina viloyat va tumanlarda korrupsiya degan balo, ya'ni poraxo'rlik, tamagirlik, xizmat vazifasini suiiste'mol qilish kabi illatlar uchrab turayotganini inkor etib bo'lmasligini, qonunga zid bo'lgan bunday xunuk holatlar bilan murosa qilishga chek qo'yishning vaqti kelganligi, yoshi va vazifasidan qat'i nazar, bizningcha, keng jamoatchilik ongiga korrupsiyaning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalaridagi, mamlakatning barqarorligi va iqtisodiy o'sishiga g'ov ekanligi, oxir-oqibatda aholi farovonligini o'stirishga salbiy ta'sir

ko'rsatuvchi illat ekanligini singdirish zarur. Bu borada Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «mamlakatimizning kelajagini va obro'-e'tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro bu tahdidni esda tutmog'i darkor. Halol mehnat qilish, o'z bilimi, kuch-g'ayrati va ijodiy qobiliyatini sarflash uchun barqaror shart-sharoit bo'lishini istaydigan, farzandlari va yaqin kishilari kelajakda ham demokratik, fuqarolik jamiyatida sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarining samaralaridan to'la-to'kis foydalanishini orzu qiladigan har bir fuqaro, jinoyatchilik va korrupsiya yo'liga o'z vaqtida zarur to'siq qo'yilmasa, bu illatlar qanday ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkinligini yaxshi anglab yetmog'i lozim»¹. Chunki biz mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi davri – milliy taraqqiyotimizning navbatdagi mantiqiy bosqichi davom etayotgan davrda yashayapmiz. Zero, davlatimiz rahbari Islom Karimovning «o'z mehnati, aql-zakovati va salohiyati bilan o'zini o'zi boqadigan, o'zini himoya qilishga, kelajagini o'z qo'li bilan qurishga qodir bo'lgan xalqni jahon ahli e'tirof etadi. Barchamiz, avvalo, yoshlarimiz bu oddiy haqiqatni hech qachon unutmasligimiz zarur»²ligi to'g'risidagi da'vati kundalik shiorimizga aylanmog'i lozim.

4. Korrupsiya – xufiyona iqtisodiyotning asosiy ko'rinishi

Korrupsiya xavfsizlikka tahlika soluvchi hodisa va yashirin iqtisodiyotning ko'rinishi ekanligi ayon narsa, shu sababli korrupsiyani iqtisodiy hodisa sifatida talqin etishda bahs-munozaralar deyarli yo'q. Uni davlat amaldorlarining poraxo'rlik faoliyatidan iborat bo'lishi va jamiyatga katta putur yetkazishini ko'pchilik tadqiqotchilar e'tirof etishadi. Korrupsiya bir qator iqtisodiy muammolar yechimining davlatga bog'liq bo'lishidan kelib chiqadi. Poraxo'rlik munosabatlarini uch subyektli deb aytish mumkin, bular pora oluvchilar, pora beruvchilar va ular o'rtasidagi vositachilardir. Pora oluvchilar davlat amaldorlari bo'lsa, uni beruvchilar amaldorlar xizmatiga muhtojlar hisoblanadi. Vositachilar ayrim shaxslardan va yashirin tashkilotlardan iboratdir. Korrupsiyaning iqtisodiy mohiyati va huquqiy baholanishini farqlash zarur. Iqtisodiy jihatdan bu erkin bozor qonun-qoidalariga mos kelmaganidan yashirin yuz beradigan munosabatdir. Bu munosabatda barcha korrupsiyalashgan

¹ *Каримов И. А.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т.: «Ўзбекистон», 1998. – Б. 429.

² *Каримов И. А.* Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т. 16. – Т.: «Ўзбекистон», 2008. – Б. 98.

unsurlarning manfaati uyg'unlashadi. Amaldor xizmatiga talab bo'lganidan, uni taklif etishadi, ya'ni sotishadi. Bu yerda pora yashirin xizmat haqi shakliga kiradi. Poraxo'rlikda ham bozor munosabati bor, lekin bu tor egoistik manfaatga bo'ysunuvchi munosabat bo'lganidan, buni jamiyat tan olmaydi, chunki bu yerda ayrim shaxslar yoxud guruhlar manfaatining amalga oshishi boshqalar manfaatiga yo'l bermaslik hisobidan bo'ladi, shu vajdan buni jamiyat qabul qilmaydi, u yashirin tus oladi. Jamiyatga ma'qul hodisalarni yuridik qonunlar tartiblaydi. Shuni nazarda tutib, korrupsiyani huquqiy jihatdan g'ayriqonuniy, qonunlar man etadigan iqtisodiy faoliyat deb aytish mumkin. Korrupsiya – global hodisa, undan zarar ko'rmagan mamlakat yo'q, lekin korrupsiyalashuv darajasi har xil. Bu korrupsiya ildizlari chuqur bo'lishidan guvohlik beradi. Korrupsiya sabablari har xil talqin etiladi. Ular obyektiv va subyektiv bo'lishiga e'tibor beriladi. Ular orasida qonunchilikning nomukammalligi, demokratiya tamoyillari va uning institutlari rivojlanmaganligi, davlatning kuchsizligi ajratiladi. Bizningcha, korrupsiyaning mavjudligini iqtisodiy tizimning o'zidan qidirish kerak. Korrupsiya iqtisodiy hodisa bo'lar ekan, uning iqtisodiy ildizlarini topish kerak. Bu ildizlar pul munosabatlarining o'zida joylashgan, pul universal to'lov vositasi, uni hamma operatsiyalar uchun qabul qilishadi, pul boylikning timsoli, boylik to'plashning eng qulay shakli. Puldagi eng yuksak likvidlik xususiyati uni ko'proq topishga intilishdir, pulni saqlash xavfsiz, uni xohlaganicha jamg'arish mumkin. Pul likvidligi eng yuqori bo'lgan aktivdir, likvidlikni esa pulning qadr-qiymati ta'minlaydi. Pul ko'zdan yashiringan moliyaviy aloqalar o'rnatish imkonini beradi. Pulning likvidligi muhim bo'lganidan, pora berish va qattiq valutarlar ishlatiladi, chunki bularning qadri-qiymati barqaror bo'lganidan jamg'arish vositasi bo'la oladi. Pul bozor munosabatlarining mahsuli, shu sababli uning rivojlanishi korrupsiyani oziqlantiradi.

Natural ishlab chiqarish sharoitida poraxo'rlik moddiy shaklda bo'lishi mumkin, uni ko'zdan yashirib bo'lmaydi. Pul munosabatlari esa yashirin munosabat o'rnatishda qo'l keladi. Xullas, korrupsiyaning obyektiv sababi pulni yuksak likvidlik xususiyatidadir. Bu pul fetishizmini, uni ilohiylashtirishni, unga sig'inishni yuzaga keltiradi, pul hamma narsani hal etuvchi kuchga ega bo'ladi. Bu esa pulga ochko'zlikni uyg'otadi. Uni g'ayriqonuniy yo'l bilan tan olish imkoniyati bor kishilarni korrupsiyalangan shaxslarga aylantiradi, bular, odatda davlat amaldorlari bo'ladi. Bunda bozor mexanizmining kam layoqatli bo'lishi kuzatiladi, uning ojizligini davlat mexanizmi to'ldirib boradi. Davlat mexanizmi

layoqatli bo'lib qolganda, uning amaldorlari xizmatiga talab oshadi, chunki shunday yo'l bilan ish bitadi. Bu poraxo'rlikni ta'minlaydi, albatta. Bozor tizimi hozirchalik to'la mukammal emas, uning mexanizmlarida uzilishlar bo'lib turadi va bu korrupsiyaga qulay sharoit hozirlaydi. Demak, korrupsiyaga qarshi kurashning eng ma'qul yo'li bu bozor munosabatlarining o'zini takomillashtirishdir.

Iqtisodiyotda shunday jiddiy holat kuzatiladi. U o'sgan sari uning ijtimoiy yo'nalishi kuchayadi, bu esa davlatning ijtimoiy dasturlarini moliyalashtirish uchun katta mablag' talab qiladi va bu budjetda to'planadi. Budjet mablag'larining taqsimlanishi amaldorlarga bog'liq va bu ularni pora orqali sotib olishga ishtiyoqini kuchaytiradi. Davlat iste'molining YAIM hissasi kamayishga moyil bo'lsa-da, uning mutlaq miqdori o'sadi, chunki YAIM ko'payib boradi. Davlat iste'molini qondirish xarajatlari budjetdan moliyalashtiriladi. Davlat iste'moli uning xaridini yuzaga keltiradi. Davlat buyurtmasini olish firmalar tovarining sotilishini, shunga qarab foydaning tushishini kafolatlaydi. Shu sababli buyurtma uchun raqobatlashuv kelib chiqadi. Bu raqobatda pora berish ham qo'llaniladi. Ayniqsa, bu davlatning investitsiyalari ko'paygan kezlarda yuz beradi, chunki davlat iste'molini ortishi yuz beradi. Davlat iste'moli jamiyat rivoji uchun zarur, biroq bu korrupsiyaga sharoit hozirlaydi. Natijada jamiyat o'ziga ma'qul va noma'qul hodisalarga duch keladi. Demak, korrupsiyani bozor tizimidagi ichki ziddiylik yuzaga keltiradi, deb aytish mumkin.

Korrupsiyaning obyektiv sabablaridan biri – bu davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va shunga bog'liq holda biznesni rivojlantirish muammolari hal qilinishining davlat amaldorlariga bog'liq bo'lishidir. Davlatni iqtisodiyotga ta'siri iqtisodiy, huquqiy va ma'muriy usullar orqali yuz beradi. Bu usullarning qo'llanilishi amaldorlar faoliyatiga bog'liq. Davlat qo'lidagi subsidiyalar, soliqlar, imtiyozli litsenziyalar, kvotalar, preferensiyalar va buyurtmalar kabi vositalar biznesni tartiblab turishda qo'llaniladi. Ulardan kimning bahramand bo'lishi amaldorlarning munosabatiga bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy faoliyatdan yaxshi natijaga erishish uchun tadbirkorlar pora berish yo'li bilan amaldorlarni sotib olish va ular orqali imtiyozlarga ega bo'lishiga intiladilar. Davlatning iqtisodiyotiga aralashuvini zarurligi va shuning o'zi korrupsiyani yuzaga keltirishi ham iqtisodiyotdagi ziddiy holatdir.

Korrupsiya sabablari aniqlanganda, ko'pgina tadqiqotchilar davlat qonunlarining nomukammalligiga urg'u berishadi. Bu to'g'ri, lekin hech qachon va hech qayerda abadiy mukammallashgan qonunlar bo'lmagan.

Qonunlar odatda real hayotdagi o'zgarishlardan orqada qoladi, shu sababli ular tez o'zgarib, to'ldirilib turadi. Mukammal hisoblangan qonunlar vaqt o'tishi bilan nomukammal bo'lib qoladi, chunki real hayot ilgarilab ketadi. Nomukammal qonun bu real hayot talabidan orqada qolgan va kelajakni to'la aks ettirmaydigan qonunlar. Bunday qonunlar yaxshi ishlamaydi, natijada korrupsiyaga yo'l ochiladi. Ko'pchilik o'tish davri mamlakatlaridagi qonunlar nomukammalligi bilan ajralib turadi, chunki bular chetdan andoza olgan holda yaratilgan qonunlar bo'lib, ular yaxshi ishlamagan va bu korrupsionerlarga qo'l kelgan bir qator MDH mamlakatlarida qonunlarning nomukammalligidan ustalik bilan foydalanish guruhlar amaldorlarga pora berish vositasida kapital jamg'arishni tezlashtirganligi ma'lum voqeadir. Korrupsiyani qonunlar sifatiga bog'liqligi shuni ko'rsatadiki, unga qarshi kurashish vositasidan biri qonunlarni o'z vaqtida qayta ko'rish hisoblanadi.

Korrupsiyaning sababi aniqlanganda, bir qator olimlar va siyosiy arboblarning davlat amaldorlari ish haqining kamligiga urg'u berishadi. Bu ham poraxo'rlikka intilishni kuchaytiradi, lekin uning birdan-bir sababi emas. Ish haqining ozligi quyi tabaqadagi amaldorlarni poraxo'rlikka undaydi. Ammo katta pora olish yuqori, mansabli amaldorlarga xos. Poraxo'rlik huquq-tartibot organlarida tez-tez uchray turadi, vaholanki bu yerdagi ish haqi va pensiyalar yuqori hisoblanadi. Demak, poraxo'rlik ish haqidan ko'ra pora olish imkoniyatlariga ko'proq bog'liqdir.

Korrupsiyani lobbizm ham keltirib chiqaradi, biroq har qanday lobbizm bunga olib kelmaydi. Ruxsat berilgan, jamiyat tan oladigan lobbizm borki, bu ochiq bozor aloqalariga tayanadi. Bunda u yoki bu guruh shaxslar yoki firmalar manfaatiga mos keladigan, lekin jamiyat uchun zararsiz bo'lgan qarorlarni davlat idoralari tomonidan qabul qilish zarurligini asoslash va bunga ko'maklashish bilan bog'liq lobbizm korrupsiyani tavsiflamaydi, chunki bu yerda bozor qoidalariga binoan lobbistik xizmatlardan ochiqchasiga ularni haqini to'lagan holda foydalanish yuz beradi. Ammo shu bilan birga xufiyona lobbistik xizmatlar borki, ular individual va korporativ manfaatlarni himoya qilgan holda boshqalar manfaatiga zid ishlarni amalga oshirilishini bildiradi. Shunday bo'lganda g'ayriqonuniy lobbizm paydo bo'ladi, uning xizmat haqi poradan o'zga narsa bo'lmaydi. Iqtisodiy va demokratiya rivojlangan mamlakatlarda oshkora lobbizm ko'proq uchraydi, iqtisodiy qoloq va demokratiya rivojlanmagan joyda lobbizm korrupsion faoliyat shakliga kiradi.

Yuksak likvidli aktivlarning mavjudligi va davlatning iqtisodiyotiga aralashuvi, demokratiya darajasi korrupsiyaning obyektiv sabablari

bo'lsa, kishilarning ma'naviy darajasi va axloq-odobi, demokratiya tamoyillariga sodiqligi korrupsiyaning subyektiv sabablariga kiradi. Subyektiv munosabat korrupsiyani kuchaytirish yoki zaiflashtirishi mumkin. Biroq bu korrupsiyani tag-tomiri bilan yo'qota olmaydi, chunki uning ildizlari iqtisodiy munosabatlarning naqadar rivojlanganligiga borib taqaladi.

Korrupsiyaning negativ hodisa sifatida xavfsizlikka tahdid solishi hech kimda shubha tug'dirmaydi, shu sababli unga qarshi davlat idoralari va jamoatchilik tashkilotlari kurashib keladi. Biroq dunyoning hech bir mamlakatida, hatto hamma tomondan yuksak rivojlangan mamlakatlarda ham korrupsiya tugatilmagan. Jamiyat korrupsiyani cheklab turishi, uni katta xavf tug'dirmaydigan darajaga keltirishi mumkin. Unga qarshi kurashish tadbirlarini ishlab chiqish va qo'llash uchun qaysi sohani qanday darajada korrupsiyalanganini bilish talab qilinadi, bunga korrupsiyaning miqdoriy tahlili vositasida erishiladi.

Jahon banki va Yevropa Tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan 1998-yilda o'tish iqtisodiyotidagi 22 ta mamlakatda olib borilgan tadqiqotlari aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi bevosita xorijiy investitsiyalar hajmi bilan hukumatning yuqori darajalaridagi korrupsiya darajasi hamda yirik hukumat shartnomalarini tuzish davrida olinuvchi poralar o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, 1994 va 1999-yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi bevosita xorijiy investitsiyalar hajmi Belarus, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Ukrainada yiliga 20 dollarni tashkil etgan bo'lsa, Polsha va Sloveniyada bu ko'rsatkich 100 dollar, Vengriya va Chexiyada 200 dollarga yetganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirish mumkin.

2-jadval

Korrupsiyani idrok etish indeksi

Davlat o'рни	Mamlakatlar	Indeks bali	Tadqiqotlar soni	Standart deviatsiya**	Min. /maks. ball
1	Finlyandiya	9,7	8	0,4	8,9–10,0
2	Daniya	9,5	8	0,3	8,9–9,9
3	Yangi Zelandiya	9,5	8	0,2	8,9–9,6
4	Islandiya	9,4	6	0,4	8,8–10,0

* Манбаларни баҳолашдаги фарк.

* Transparency International, Corruption Index 2002, Germany, 2002

5	Singapur	9,3	13	0,2	8,9–9,6
6	Shvetsiya	9,3	10	0,2	8,9–9,6
7	Kanada	9,0	10	0,2	8,7–9,3
8	Lyuksemburg	9,0	5	0,5	8,5–9,9
9	Niderlandiya	9,0	9	0,3	8,5–9,3
10	Buyuk Britaniya	8,7	11	0,5	7,8–9,4
11	Avstraliya	8,6	11	1,0	6,1–9,3
12	Norvegiya	8,5	8	0,9	6,9–9,3
13	Shveysariya	8,5	9	0,9	6,8–9,4
14	Gonkong	8,2	11	0,8	6,6–9,4
15	Avstraliya	7,8	8	0,5	7,2–8,7
16	AQSh	7,7	12	0,8	5,5–8,7

Korrupsiya darajasi va uning shakllarini iqtisodiy salohiyat bilan izohlab bo‘lmaydi. Sof iqtisodiy yondashuv XIX asrdagi iqtisodiy nazariya oqimlariga xos bo‘lgan. XX asrning boshlariga kelib, institutsionalizm oqimi paydo bo‘lishi bilan sof iqtisodiy yondashuvdan chekinish paydo bo‘ldi. Iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarni faqat uning o‘zini rivoji bilangina tushuntirib bo‘lmaydi. Shu jihatdan qaralganda korrupsiya ildizlarini g‘ayriiqtisodiy shart-sharoitlar mavjudligi bilan ham izohlashga to‘g‘ri keladi. Bu sharoitlarni faqat demokratiyaning naqadar rivojlanganligi bilan chegaralab bo‘lmaydi, chunki korrupsiya ildizlari milliy va mahalliy an‘analarga ham borib taqaladi. Umuman Sharqda, xususan Markaziy Osiyoda korrupsiyani oziqlantiruvchi manba Osiyocha ishlab chiqarish usuli sarqitlarining uzoq saqlanishidir. Osiyocha ishlab chiqarishda asosiy resurslar oliy hukmdorlar qo‘lida bo‘lganidan ulardan foydalanish hukmdorlarga so‘zsiz tobelik qilish, ular xizmatida bo‘lish yoki amaldorlarga pora berish bilan bog‘liq bo‘lgan. Bunday munosabat asrlar mobaynida doimo takrorlanib turganidan an‘analar tusiga kirgan. Amaldorlik va pora olish o‘zaro chirmashib, chuqur ildiz otgan. Osiyocha an‘analar hozir ham saqlanib qolgan, bu korrupsiyaga moyillik hosil etadi. O‘zbekistondagi korrupsiyani ham qisman bo‘lsa-da, an‘analar yuzaga keltiradi. Biroq, bu iqtisodiy erkinlik, demokratiya holati va kambag‘allik o‘rtasida aloqalar mavjudligini yo‘qqa chiqarmaydi.

So‘zsiz, korrupsiya tayanchli kadrlarsiz rivojlana olmaydi, chunki ular jinoiy pullarni nazoratdan olib qochish, ularni legallashtirish, xufiyona pullarning rasmiy bozorda bemalol ishlashi uchun sharoit yaratadilar. Bunday mutaxassislar doirasi juda keng, bular jumlasiga korrupsiyani huquqiy jihatdan himoya qiluvchi huquqshunoslar, moliyaviy firibgarlikni amalga oshiruvchi iqtisodchilar, bu qonunbu-

zarliklarni ko'rsa-da, ko'rmaslikka olgan tergov-jazo xodimlari, soliqchilar, hukumatda ularning shaxsiy manfaatlarini himoya qiluvchi siyosatchilar kiradi.

Korrupsiya shunisi bilan xavfliki, u ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltiradi, biznes yuritish xarajatlarini oshiradi, demak, milliy iqtisodiyotni raqobatga bardoshsiz qiladi, muayyan darajada siyosiy beqarorlik keltirib chiqaradi. Jahon tajribasi ko'rsatishicha, 80-yillar boshida korrupsiya, iqtisodiyotni uquvsiz boshqarish bilan birga, Venesueladek neftga boy mamlakatning to'lovga qobiliyatsiz bo'lishiga olib keldi.

2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan «Birlashgan Millatlar tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasi» muqaddimasida aytilganidek, «korrupsiya endilikda cheklangan doiradagi (lokal) muammo emas, balki barcha mamlakatlar jamiyati va iqtisodiyotiga daxldor bo'lgan transmilliy muammoga aylandi. Bu esa korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash sohasida xalqaro hamkorlikning nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lishiga sabab bo'ladi».

«Davlatni egallab olish» deganda, davlat yoki xususiy sektor vakillari bo'lgan ayrim shaxslar, guruhlar yoki kompaniyalarning o'z manfaatlarini yo'lida qonunlar, nizomlar, farmonlar hamda davlat siyosatining boshqa vositalari shakllanishiga ta'sir ko'rsatish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlari tushuniladi. Bunday xatti-harakatlarning o'lchovi sifatida «davlatni sotilish indeksi» qo'llaniladi. Mazkur ko'rsatkich parlament qabul qilgan qonunlar, hukumat qarorlari, davlat rahbarining farmonlari, hukumat tuzgan dasturlar naqadar ayrim shaxslar va ijtimoiy guruhlarining egoistik-korporativ manfaatiga qaratilishini bildiradi. Bu ko'rsatkich qanchalik past bo'lsa, shunchalik davlat toza hisoblanadi. Ayrim xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, MDH mamlakatlari orasida O'zbekiston davlati eng toza hisoblanadi. Masalan, 2000-yilga kelib davlatning sotilish indeksi 1,0 ga teng bo'lib, bu eng past, ya'ni eng yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi, chunki boshqa bir mamlakatlarda bu indeks 5,5 ga teng bo'lgan. Korrupsiyani jilovlashda davlatning tozaligining o'zi yetarli emas. Buning uchun qonunlar yaxshi ishlashi kerak, buni qonunlarni yuridik samaradorligi belgilaydi. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda 2001-yil 2,0 ga teng bo'lib, bu boshqa mamlakatlar bilan qiyoslaganda o'rtacha bo'lib chiqadi. Bu ko'rsatkich eng yuqori, ya'ni 4,0 ga teng bo'lgan mamlakatlar jumlasiga Vengriya, Ruminiya, Polsha, Bolgariya, Chexiya va Estoniya kirgan. Qonunlar samaradorligini ularning o'zining mukammalligidan, ya'ni real sharoitga mosligidan tashqari aholining huquqiy madaniyati

ham belgilaydi. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkichning yuqori bo‘lmasligi huquqiy madaniyatning yetishmasligidan kelib chiqadi.

Ma‘muriy korrupsiya qonunlar va qoidalarni bajarish jarayoniga atayin buzilishlar kiritishni bildiradi. Korrupsiyaning ushbu turi firmalar va kompaniyalar daromadining pora berish uchun sarflaydigan hissasi bilan o‘lchanadi. Ba‘zi bir ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 5 foiz bo‘lgan. Xususan, Sharqiy Yevropa mamlakatlarda bu ko‘rsatkich o‘rtacha – 2,2 foiz (Vengriyada – 1,7 foiz, Polshada – 1,6 foiz), MDHda – 3,7 foiz (Rossiyada – 2,8 foiz)ni tashkil etgan.

Korrupsiya shakllari xilma-xil bo‘lib, ularga pora olishdan tortib, amaldor xizmat burchiga ko‘ra foydalanishi mumkin bo‘lgan jamiyat mablag‘larini noqonuniy o‘zlashtirishgacha kiradi. Biznes eng ko‘p duch keladigan va eng ko‘p tarqalgan korrupsiya shakli – import va eksport litsenziyalari, valuta nazorati, soliqlarni baholash, imtiyozlar berish, kreditlar olish bilan bog‘liq ravishda g‘ayriqonuniy to‘lovlar va pora talab qilishdir.

Hozirgi vaqtda korrupsiya bo‘yicha turli xil qiyosiy tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Ushbu sohadagi eng mashhur ishlanmalardan biri – «Korrupsiyani idrok etish indeksi» bo‘lib, uni 1995-yildan boshlab ish olib borayotgan Transparency International (TI) mutaxassislari ishlab chiqqanlar. Ushbu tor ixtisoslashgan integral indeks davlatlarning umumiy korrupsiyalashganlik darajasi bo‘yicha, ya‘ni korrupsiyaning turlari va shakllarini inobatga olgan holda ajratadi. Korrupsiya iqtisodiyotning quyidagi sohalarida eng chuqur ildiz otgan deb hisoblanadi:

- davlat mulkini xususiylashtirish;
- budjetni bajarish va budjet mablag‘larini sarflash;
- eksklyuziv huquqlar, imtiyozlar, davlat transfertlarini taqdim etish va sh.k.;
- bank sohasi;
- uy-joy va kommunal soha;
- soliq va boj to‘lovlari.

Korrupsiya hodisasini o‘rganayotgan ko‘pchilik tadqiqotchilarning ta‘kidlashlaricha, korrupsiya davlatning yuqori darajadagi soliq solishlar va davlatlar xarajatlari orqali iqtisodiyotga faol aralashuvning, iqtisodiy faoliyatni nazorat qilish va boshqarish funksiyalari kattaligining oqibatidir. Ushbu ro‘yxatga raqobat muhitining sustligi hamda iqtisodiyotda monopoliyaning mavjudligi ham qo‘shiladi. Korrupsiya asosan demokratik institutlarning noadekvatligi va ojizligi tufayli yuzaga keladi

degan, fikr ham mavjud. Mamlakat qanchalik ko‘p darajada demokratik bo‘lsa, matbuot qanchalik erkin bo‘lsa, davlatning moliyaviy mexanizmlari oshkora bo‘lsa, matbuot qanchalik erkin bo‘lsa, korrupsiya shunchalik ojiz bo‘ladi. Hokimiyat barcha tarmoqlarining bir-birini nazorat qilishi, hukumat faoliyatiga oid axborotdan erkin foydalanish ushbu salbiy hodisaning rivojlanishiga imkon bermaydi. Ko‘pchilik mamlakatlar demokratiya va fuqarolik jamiyati barpo etish borasida siyosiy islohotlarni amalga oshirib korrupsiyaga qarshi kurashda jiddiy muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritdilar. Yurtboshimiz Islom Karimov aytishicha, «shuni unutmaylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qanchalik kuchaytirsak, nazorat bilan shug‘ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko‘paytirsak, amaldorlarning zo‘ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan ham har tomonlama kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo‘l yo‘q»¹.

Ba‘zi olimlar korrupsiya mavjudligining asosiy sababi xizmat mavqeini suiiste‘mol qilish uchun imkon qoldiruvchi qonunlardagi nomukammallik deb hisoblaydilar. Xususan, o‘tish davri iqtisodiyoti mavjud bo‘lgan mamlakatlarda xususiy tadbirkorlik va bozor infratuzilmasi faoliyat ko‘rsatishi bilan bog‘liq yangi faoliyat sohalari paydo bo‘ldi. Ushbu sohalarning qonunda qat‘iy tartibga solinmaganligi korrupsiya uchun qulay zamin hozirlaydi. Qonunlarning nomukammalligi ularning yomon sifatida ham, ijro tizimining yo‘lga qo‘yilmaganligida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Amalda bu ko‘pincha bevosita amal qilmaydigan va ko‘plab o‘zaro zid keluvchi qonun osti hujjatlari bilan tartibga solinadigan normalarga havola etadigan blanket qonunchilikning mavjudligida o‘z ifodasini topadi.

Biroq barcha tadqiqotchilar korrupsiya iqtisodiyotga ulkan zarar keltirishi masalasida hamfikrdirlar. Korrupsiya xususiy sektor daromadlarining kattagina qismini soliqqa tortishdan yashirib qolishga imkon beradi. Ayrim korxonalarining (soliq, kredit va boshqalar bo‘yicha) imtiyozlardan foydalanishi raqobat muhitini buzadi. Korrupsiya o‘ziga xos soliq bo‘lganligi sababli bu hol tadbirkorlarning iqtisodiy xarajatlarini oshiradi va investitsiya kiritish uchun rag‘batni kamaytiradi.

¹ *Каримов И. А.* Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т. 7. – Т.: «Ўзбекистон», 1999. – Б. 32–33.

Pora amalda tovar sotish hisobidan qoplanmaydigan xarajatni, ya'ni zararga o'tadigan xarajatni hosil etadi. Bu doimiy yoki o'zgaruvchan, aniq yoki muqobil xarajatni hosil etmaydi. Bu ishlab chiqarish va tijorat ishlari bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, binobarin, biznes uchun ustama tavsifidagi xarajatni hosil etadi, bu foyda hisobidan qoplanadi. Pora tabiatan norasmiy soliqdir. Firma foydasi taqsimlanganda, uning bir qismini porani qoplash uchun yuborilishi, taqsimlanmagan foydani qisqartiradi, shunga binoan kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlovchi investitsion resursni qisqartiradi. Bu bilan o'zini o'zi moliyalashtirishdan iborat bozor tamoyiliga putur yetkaziladi. Hozirgi paytda korxonalar investitsiyalarining 40 foiz kredit, 40 foiz amortizatsiya va 20 foiz foyda hisobidan moliyalashtiriladi. Foydaning bir qismini poraga ajratilishi korxonaning rivojlanish imkoniyatlari kamaytiradi, albatta.

Garvard universtiteti mutaxassislarining hisob-kitoblariga qaraganda, davlat buyurtmalari va xaridlari sohasidagi korrupsiyadan keladigan yo'qotishlar ushbu sohadagi barcha budjet xarajatlarining taxminan 30 foiz tashkil qiladi. Sanoatning ayrim tarmoqlarida (neft, gaz, nodir metallar) mansabdor shaxslarni sotib olishi uchun foydaning deyarli 50 foiz sarflanadi. Korrupsiyadan hammadan ham ko'ra ko'proq kichik va o'rta biznes zarar ko'radi. Korrupsiyaning tarqalishi va xufiyona iqtisodiyotning rivojlanishi o'rtasida chambarchas aloqa mavjud. Bir tomondan, ushbu ikki hodisa ma'muriy to'siqlardan iborat umumiy ildizlarga ega. Boshqa tomondan – ular bir-birini keltirib chiqaradi: tijorat sektori oldida ma'muriy to'siqlar qanchalik ko'p bo'lsa, ularni aylanib o'tishga, jumladan, amaldorlarning «og'zini moylash» orqali chetlab o'tishga intilishlar shunchalik kuchli bo'ladi. Ayrim hisob-kitoblarga qaraganda, xo'jalik faoliyatidagi hisobotlarni, jumladan, soliq hisoblash bo'yicha hujjatlarni soddalashtirish, liberallashtirish (xususan, litsenziya olish talab etiladigan va haddan tashqari sertifikatlashtirish o'tkazilayotgan yo'nalishlarda) yashirin ish ko'rayotgan korxonalarining kamida uchdan bir qismini xufiyona iqtisodiyotdan chiqarib olishga imkon berishi mumkin. Ayni vaqtda bugun yashirin iqtisodiyot, masalan, Rossiyada YAIMning 42 foizni, Ukrainada – 49 foizni ishlab chiqarmoqda.

Korrupsiya daromadlarni ochiq bozor qoidalarini chetlagan holda yashirin taqsimlanishini bildiradi va bu ijtimoiy adolatsizlikka olib keladi. Garchi daromadlar miqdori o'zgarmasa-da, ular qayta taqsimlanib bir qo'ldan boshqasiga o'tadi. Adolatsizlikning qaror topishi kishilarning axloqiy buzilishiga, ularda ishonchsizlikning paydo bo'lishiga olib keladi.

Hozir korrupsiya iqtisodiy rivojlanishga putur yetkazishi, demokratik institut va qonunning ustunligi prinsipini susaytirishi, jamoat tartibini buzishi va jamiyat ishonchini yo'qotishi, bu bilan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va insoniyat xavfsizligiga nisbatan boshqa tahdidlar gullab-yashnashiga imkon berishini barcha tan olgan.

Hech bir mamlakat – u xoh boy bo'lsin, xoh kambag'al – ushbu salbiy hodisadan umuman saqlana olmaydi. Korrupsiya davlat sektorida, xususiyl sektorda ham o'zini ko'rsatishi mumkin. Ammo undan doimo faqat bir taraf – jamiyat zarar ko'radi. Lekin korrupsiya rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'al odamlarga yetkazadigan zarar nihoyatda katta. U har xil shakllarda ularning kundalik hayotiga ta'sir etadi va ularning yanada qashshoqlashuviga olib boradi, u ularni iqtisodiy resurslardagi qonuniyl ulushidan yoki hayot uchun zarur yordamdan mahrum etadi.

Korrupsiya asosiy ijtimoiyl xizmatlarni pora berish imkoni bo'lmagan shaxslar uchun yetishib bo'lmas narsaga aylantiradi. Korrupsiya rivojlanish uchun mo'ljallangan ozgina mablag'larni boshqa maqsadlarga sarflab, asosiy ehtiyojlar – oziq-ovqat, sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi ehtiyojlarning ta'minlanishini qiyinlashtiradi. U har xil ijtimoiyl guruhlar o'rtasida kamsitishni, tengsizlik va adolatsizlikni keltirib chiqaradi, xorijiy investitsiyalar va yordamlarni qochiradi, rivojlanishni sekinlashtiradi. Shu bois u siyosiy barqarorlik va ijtimoiyl-iqtisodiy taraqqiyot yo'lidagi jiddiy g'ov hisoblanadi.

Biroq korrupsiya o'tish davrida adolatsiz daromadlar hosil etsa-da, kapitalning dastlabki jamg'arilishiga xizmat qiladi. Korrupsiyalashgan unsurlar g'ayriqonuniyl yo'l bilan to'plagan puli biznesga kirib borib, u yerda kapitalga aylanadi. Natijada bu unsurlar pora hisobidan kapital hosil etadi. Shu sababli davlat amaldorlarini yashirin yo'l bilan tadbirkorlarga aylanishi yuz beradi. Korrupsiyaning yana bir negativ tomoni shundaki, u raqobatda tengsizlik hosil etadi, chunki pora berish hisobidan ayrim toifa tadbirkorlar raqobatda sun'iy ustunlikka erishadilar. Bu korrupsiya erkin raqobatga zid hodisa bo'lishini bildiradi.

Korrupsiya davlat xarajatlarining tuzilishini o'zgartiradi. Bunda mablag'lar sog'liqni saqlash, ta'lim, yo'l qurilishi, aloqa singari ijtimoiyl muhim dasturlardan uncha muhim bo'lmagan sohalarga ko'chiriladi. Qurib bitkazilgan obyektlarni saqlash haqida bosh qotirmagan holda yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish kuchaygan kapital qurilish sohasi buning yorqin misoli bo'ladi.

Islahotlar amalga oshirilayotgan hamda o'tish davri iqtisodiga oid mamlakatlarda mavjud iqtisodiy salohiyatni iqtisodiy o'sish va aholi

farovonligini oshirishga yo'naltirishga korrupsiya o'ta xavfli ta'sir o'tkazayotganligi tadqiqotchilar va siyosiy arboblardan tomonidan bildirilmoqda¹.

Shu sababli ham Prezident Islom Karimov korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish haqida: «Bugungi kunda faqat iqtisodiyotga emas, balki, eng avvalo, respublikaning siyosiy va xalqaro nufuziga, jamiyatimizning ma'naviy-axloqiy nufuziga katta zarar yetkazayotgan eng xavfli illat – korrupsiyadir. U ayrim hollarda o'ta xavfli tusga kirmoqda. Ushbu masala bo'yicha keyingi yillarda bajarilgan ilmiy tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyot sohasida sodir etilayotgan jinoyatlarni tadqiq etishga e'tibor ko'paytirilmoqda. Bank-moliya sohasida, davlat mulkini xususiylashtirishda, qimmatli qog'ozlar muomalasida, kichik va xususiy korxonalar tizimida, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish jarayonlarida uyushgan jinoyatchi guruhlar sodir etayotgan qonunbuzarliklar sonining oshishi, ayniqsa, tashvishlidir.

Iqtisodiyot sohasida qonunchilikka va axloq qoidalariga amal qilish borasidagi ishlarning ahvoli, aniq dalillar tahlili shundan xabar beradiki, biz korrupsiya bilan kurash masalasiga alohida e'tibor berishimiz kerak. Chunki korrupsiya amalga oshirilayotgan islohotlarni to'g'ridan-to'g'ri obro'sizlantirib, uning ma'no-mohiyatiga dog' tushirmoqda. Ayniqsa, qonun posboni bo'la turib, tadbirkorlar manfaatlarini muhofaza etish lozim bo'lgan, majozini aytganda, qo'li pok bo'lishi zarur bo'lgan huquqtartibot organlarining o'zida manfaatparastlik, poraxo'rlik, korrupsiya, aybdorlarga homiylik qilish, o'z ishiga jinoyatkorona sovuqqonlik munosabatida bo'lish kabi hollarga qat'iy chek qo'yish zarur»², – deb ta'kidlagan.

Hozirgi davrga kelib korrupsiyaga qarshi kurash barcha mamlakatlar jamoatchiligining diqqat markaziga qo'yilmoqda, chunki jamiyatdagi nolegal munosabatlar o'ta xavfli sohaga aylanib bormoqda. Ko'pgina olimlarning fikricha, korrupsiya yashirin iqtisodiyotning ko'rinishi.

¹ Qarang: *Беккре А., Каика З.* Кремль: взялся за реформу госслужбы // «Ведомости». – 2002. – 1 июля; *Григорьев Е.* Глобализация взяточничества // Независимая газета. – 2002. – 24 июня; *Джонс Д., Кауфман Д., Хеллман Р.* Способствуют ли иностранные компании процветанию коррупции в переходных экономиках // Трансформация. – 2000. – № 3–4; *Исмоилов И.* Жиноятчиликда уюшганлик: назария ва амалиёт муаммолари. – Т., 2005. – Б. 107–121.

² *Каримов И. А.* Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т. 7. – Т., «Ўзбекистон», 1999. – Б. 32–33.

Uilyam Devidson institutida o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, korrupsiyaning keng tarqalishi korxonalarni yashirin iqtisodiyot tomon yuz o'girishiga sabab bo'ladi, deb ko'rsatiladi. Jahon banki tomonidan tayyorlangan «World Development Report» ma'ruzasida korrupsiya iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi va aholi jon boshiga daromadlarning past darajasi bilan xarakterlanishi ta'kidlanadi. Shu sababli xalqaro moliyaviy tashkilotlar rivojlanayotgan mamlakatlarga kreditlar ajratayotganda, shu davlatlar hukumati korrupsiya bilan kurashishning maxsus tuzilmasini yaratish kerakligini talab qilinmoqda. Biroq Transparency International tadqiqotlariga ko'ra, bundan kam natija chiqayotganligi ta'kidlanmoqda. Transparency raisi Djon Gitongo ushbu tuzilmalarning ko'pchiligi parlament yoki sud tizimi bilan korrupsiya masalasida to'qnashuvlarga (konflikt) duch kelib, «yetim»larga aylanib qolayotganligi hamda ushbu tuzilmaning tarafini olmaslik hollari uchrab turishini ta'kidlaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurash davlat tuzilmalari o'z vazifalarini to'liq bajarishlari uchun fuqarolik jamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kerak. «Biroq, – deydi Djon Gitongo, – rivojlanayotgan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati hali yaxshi taraqqiy etmagan». Korrupsiya va jinoyatchilikning xavfsizlikka soladigan tahdidlari majmui Prezident Islom Karimov ta'kidlashicha, quyidagilardan iborat:

- amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko'rsatish;
- davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemirish;
- jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini yemirish;
- jamiyat a'zolarining fuqarolik mavqeini yo'qqa chiqarish, islohotlar g'oyasini obro'sizlantirish;
- pul orqali hokimiyatni qo'lga olish uchun intilish;
- nopok yo'llar bilan boylik orttirish. Bunday kimsalar adolatli jazodan qo'rqib, hamma ishni qilishga, hatto vaziyatni beqarorlashtirishga, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishga shay turuvchilardir;
- jinoiy usullar bilan boylik orttirgan kimsalarni «demokratiya» uchun jafo chekkan kurashchilar deb ko'rsatish. Bunday shaxslar, avvaliga o'z xalqini aldab, kapital to'playdi, keyingi gal – demokratiya va adolatli ro'kach qilgan holda jamoatchilik fikrini aldab, siyosiy obro' orttiradi. Sir emaski, bunday shaxslar o'z manfaatlari yo'lida respublikadagi vaziyatga ta'sir ko'rsatishga urinayotgan tashqi kuchlarga xizmat qilishga hamisha tayyor turuvchilardir;
- jahon xo'jalik aloqalariga faol integratsiyalashuv, chet el investitsiyalari va tadbirkorlarini iqtisodiy o'zgarishlar jarayoniga tortishga

qarshilik ko'rsatish. Bu holat chet ellik sheriklarda ishonchsizlik uyg'otishi natijasida mamlakat g'oyat muhim kapital mablag'lar manbaidan, texnologiyalar va tajribalardan, jahon iqtisodiy tizimining sog'lom, «sof» qismiga qo'shilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Yuqorida Prezident Islom Karimov ta'kidlagan korrupsiyaning iqtisodiy xavfsizlikka soladigan tahdidi xorijiy investisiyalarni jalb etish jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Korrupsiya mavjud ekan, uning domini kesish uchun antikorrupsion tadbirlar zarur bo'ladi. Bir guruh mutaxassislar ular jumlasiga ish haqini tartiblashni kiritadi. Amaldorlar mehnatiga to'lanadigan haqning yetarlicha yuqori emasligi korrupsiya keng tarqalishining sababidir, degan fikr ancha keng yoyilgan. Davlat hokimiyati organlari mansabdor shaxslari va davlat xizmatchilarining ish haqi davlatga eng malakali mutaxassislarga ega bo'lish uchun kurashda iqtisodiyotning xususiy sektori bilan raqobat qilishga imkon berishi kerak. Amaldor mehnatiga yuqori darajada haq to'lansa, u ishini yo'qotish xavfi bilan bog'liq muqobil xarajatlar xizmat mavqeidagi g'ayriqonuniy foydalanish orqali oladigan foydasidan ortiq bo'ladi. Ya'ni «biznes»ning ushbu turi salbiy foyda keltirib, o'zining jozibadorligini yo'qotgan bo'lar edi. Ammo ko'pchilik korrupsiyani eng quyi darajaga yetkazish uchun amaldorlar ish haqini ancha oshirishga to'g'ri keladi, deb hisoblaydilar. Boshqacha aytganda, korrupsiyaga qarshi kurashning faqat shu yo'lidan foydalanadigan bo'lsa, bu mamlakat budjetiga qimmatiga tushishi va qo'yilgan maqsadga erishilmasligi mumkin. Hatto ish haqi yuqori bo'lgan taqdirda ham, barcha amaldorlar korrupsiya evaziga uni ko'paytirishdan voz kechmagan hollar mavjud.

2003-yil 31-oktabrda Vena shahrida BMT Bosh Assambleyasi BMTning korrupsiyaga qarshi xalqaro konvensiyasini ma'qulladi, dekabr boshida esa imzoladilar. Yangi xalqaro bitim 30 ta mamlakat uni ratifikatsiya qilganidan so'ng kuchga kiradi va 2005-yil 9-dekabrgacha davlatlar hamda iqtisodiy hamkorlik bo'yicha mintaqaviy tashkilotlar imzolashlari uchun ochiq qoladi. Korrupsiyaning qabul qilinishini jahon hamjamiyati «chuqur qoniqish hissi bilan» kutib oldi. Aftidan, bu globallashuv sharoitida korrupsiya dunyoning deyarli barcha davlatlari farovonligiga tahdid solayotganligi bilan bog'liq. Masalan, Jahon bankining ma'lumotlariga qaraganda, butun dunyoda YAIMning taxminan 5 foiz korrupsiya, moliyaviy mablag'lardan noto'g'ri foydalanish va ortiqcha xarajatlar (rastratarlar) tufayli yo'qotiladi. Control Risks Group konsalting firmasining xabar berishicha, xalqaro kompaniyalarning deyarli yarmi raqobatchilari pora berish yordamida ularning biznesini

singdirganligi tufayli oxirgi besh yil ichida boshqa mamlakatlarga investitsiya kiritishdan voz kechishlariga to'g'ri kelgan. Korrupsiyaning yuqori darajadali investorlarga solinadigan qo'shimcha soliqqa tenglashtiriladi. BMTning huquqiy maslahatchisi Xans Korell korrupsiya – universal hodisa, ammo u rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ayniqsa, halokatlidir, deb hisoblaydi: «Korrupsiya huquqiy jamiyat qurish, investitsiyalarni jalb qilish va aholining, ayniqsa, uning kambag'al qatlamlarining farovonligini oshirish borasida barcha harakatlarini yo'qqa chiqaradi». «Transparency International» firmasining bosh direktori Piter Aygen fikricha, «odamlar ushbu muammoning qanchalik muhimligi va unga qarshi kurash qanchalik qiyinligini tushuna boshladilar. Xalqaro aksilkorrupsiyaviy koalitsiyaga o'xshash nimadir paydo bo'ldi».

Shu bilan birga, konvensiya qabul qilinishining umuman korrupsiyaga qarshi kurash uchun katta ahamiyatga egaligini ta'kidlagan bir qator qashshoq mamlakatlar vakillari har holda Konvensiyada nazarda tutilgan maqsadlardan biri bo'lgan avvalgi davlat boshliqlari xorijga olib chiqib ketgan pul mablag'larini qaytarish mumkinligiga shubha bildirmoqdalar. Shunchalik ko'p yuridik to'siqlar mavjudki, qashshoq mamlakatlarda ularni yengish uchun mablag'lari yetmaydi. Ayni vaqtda konvensiya qabul qilinganligi sababli mansabdor shaxslar, birinchi navbatda, korrupsiya keng yoyilgan mamlakatlarning mansabdor shaxslariga ta'sir ko'rsatishining yangi siyosiy dastagi paydo bo'layotganligini tan olmaslik mumkin emas. Endilikda jahon jamoatchiligining fikrini birlashtirish va harakatlarni dunyoning bunday mamlakatlari hukumatlariga qarshi muvofiqlashtirish mumkin bo'ladi. Ularning oldilarida faqat bitta yo'l – korrupsiyaga qarshi kurashni iloji boricha kuchaytirish yo'li turibdi. Shu jihatdan qaraganda Xitoyning «Jenmin Jibao» gazetasida bildirgan fikr e'tiborga loyiq. Unda mamlakat BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyasini imzolagani haqida xabar e'lon qilingan bo'lib, odil sudlov organlarida ishlayotgan korrupsionerlarga qarshi kurashda erishilgan katta yutuqlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Endi ko'p davlatlar, birinchi navbatda, Konvensiyani imzolagan, ratifikatsiya qilgan davlatlar xalqaro hamjamiyat oldida korrupsiya bilan bog'liq vaziyat haqida oshkora hisobot berishiga to'g'ri keladi.

BMT Bosh kotibining korrupsiyaga qarshi konvensiyaning imzolanishiga bag'ishlangan yuqori darajadagi siyosiy konferensiya ochilishi munosabati bilan yuborgan maktubida aytilishicha, korrupsiya ko'pchilik mamlakatlarda qashshoqlikning chuqurlashtirishga olib keladigan va hammamizga daxldor bo'lgan va kutilmagan oqibatlarga

olib keladigan ofat. Ushbu Konvensiyaning imzolanishi bu zulmga qarshi kurashimizda erishilgan yirik g'alabadir. Har yili bu kun BMTning korrupsiyaga qarshi kurashga bag'ishlangan kuni sifatida nishonlanadi. Konvensiyada korrupsiyani yo'q qilish uchun davlatlarning o'zlari mas'ul ekanligi aniq belgilangan. Konvensiyada ularga barcha mamlakatlar o'zlarining davlat boshqaruvi rejimlarini va korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi institutlarini mustahkamlashlarda foydalanishlari mumkin bo'lgan keng qamrovli standartlar paketi taklif qilingan.

Unga ko'ra, hukumatlar o'zlarining tasarrufida (yurisdiksiyasida) bo'lib qolgan va korrupsiya yo'li bilan qonunga xilof tarzda olingan mablag'larni ular o'g'irlangan mamlakatlarga qaytarishga majburdirlar. Ushbu qoida jiddiy g'alabadir. U korrupsiyalashgan elitasi yangi hukumatlar o'z mamlakatlariga yetkazilgan ijtimoiy-iqtisodiy zararni tiklash uchun nihoyatda muhtoj bo'lgan milliardlab dollarni g'ayriqonuniy ravishda o'zlashtirgan ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar oldida turgan dolzarb muammolarni hal qilishga imkon beradi.

BMTning sobiq Bosh kotibi Kofi Anan barcha mamlakatlarni ushbu Konvensiyani tezroq ratifikatsiya qilishga chaqiradi. Chunki uning har tomonlama bajarilishi kambag'allar va himoyalanganlar uchun korrupsiyalashgan amaldorlarning va o'z manfaatlari yo'lida har qanday vositalardan qaytmaydigan chayqovchilarning ochko'zligidan himoyani ta'minlashga yordam beradi. U bugungi jadal o'zgarayotgan dunyoda kambag'allar yanada qashshoqlashmasligiga yordam beradi va rivojlanish sohasidagi muhim to'siqlarni bartaraf etib, bu Ming yillik deklaratsiyasida qo'yilgan maqsadlarga erishish va butun dunyodagi millionlab odamlarning hayotini yaxshilashga yordam berishi mumkin.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «mamlakatimizning kelajagini va obro'-e'tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro bu tahdidni esda tutmog'i darkor. Halol mehnat qilish, o'z bilimi, kuch-g'ayrati va ijodiy qobiliyatini sarflash uchun barqaror shart-sharoit bo'lishini istaydigan, farzandlari va yaqin kishilari kelajakda ham demokratik, fuqarolik jamiyatida sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarining samaralaridan to'la-to'kis foydalanishni orzu qiladigan har bir fuqaro, jinoyatchilik va korrupsiya yo'lga o'z vaqtida zarur to'siq qo'yilmasa, bu illatlar qanday ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkinligini yaxshi anglab yetmog'i lozim»¹.

¹ *Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т.: «Ўзбекистон», 1998. – Б. 429.*

5. Xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashda davlatning chora-tadbirlari

Bugun «xufiyona» iqtisodiyot muammosini hal qilishning quyidagi variantlari haqida soʻz yuritish mumkin:

– dastlabki kapital jamgʻarishning nihoyatda yuqori surʼatlari haqidagi maqsadli yoʻnalishlar bilan bogʻliq boʻlgan radikal-liberal variant;

– radikal-liberal variantga qarshi usul sifatida yuzaga kelgan hamda kuchga asoslangan va boshqa tuzilmalarning tegishli boʻlinmalari faoliyatini kengaytirish va kuchaytirishni taqozo etuvchi repressiv variant;

– kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni taʼminlashga doir qonunchilikni takomillashtirish bilan bogʻliq kompleks-huquqiy variant.

«Xufiyona» iqtisodiyotga nisbatan oxirgi modelni amalga oshirish quyidagi siyosatni yuritishni taqozo etadi:

a) jinoyatchi unsurlar va «xufiyona» xoʻjalik yurituvchilar kapitallarini aniq ajratish hamda bunday ajratishni yangi qonun hujjatlarida qayd etish;

b) biznes uchun qulay huquqiy va xoʻjalik muhiti, birinchi navbatda, soliq rejimini yaratish va qoʻllab-quvvatlash;

c) davlat tomonidan aholini moliyaviy firibgarliklardan himoya qilish choralarini ishlab chiqish va amalga oshirish, jamgʻarilgan omonatlar va kapitallarning himoyalanganligi kafolatlarini taʼminlash;

d) iqtisodiyotning real sektoriga investitsiya kiritish uchun qaratilgan pul mablagʻlarining legallashtirilishini tasdiqlovchi yuridik institutlar mexanizmini ishga tushirish.

Mamlakatimizda korrupsiyaga, jumladan davlat boshqaruvi sohasidagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, 2006–2008-yillarda Rossiya Federatsiyasida maʼmuriy islohotlar konsepsiyasida (Rossiya Federatsiyasi hukumati tomonidan 2005-yil 25-oktabrda maʼqullangan) korrupsiya yuzaga kelishining institutsional omillarini bartaraf etishga qaratilgan bir qator tizimli aksikorrupsiyaviy tadbirlar belgilangan. Erkin bozorga kirish yoʻlidagi toʻsiqlarni kamaytirish, iqtisodiyotdagi xarajatlarning umumiy darajasini pasaytirish, yangi korxonalar tashkil etilishini ragʻbatlantirish, shuningdek faol investitsiya muhitini yaxshilash maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

– ijroiya hokimiyat organlarida davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy tartiblarini ishlab chiqish;

– mamlakatimiz subyektlarining ijroiya hokimiyat organlarining qarorlari va harakatlari ustidan sudgacha bo‘lgan bosqichda shikoyat qilish mexanizmlarini joriy etish;

– davlat ehtiyojlari uchun xaridlar tizimining samaradorligini oshirish – xaridlarning oshkoraligi va ochiqligini oshirish, davlat kontraktlarining ochiq ro‘yxatini yuritish, xaridlarni qattiq tartibga solish;

– idoraviy va mintaqaviy aksilkorrupsiyaviy dasturlarni joriy etish;

– davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatiga doir ma‘lumotlarni ochib berish;

– normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga sharoit yaratish-yaratmasligi nuqtai nazaridan ekspertizadan o‘tkazish;

– tayyorlanayotgan qarorlarni ommaviy muhokamadan o‘tkazish, ijroiya hokimiyat organlarining jamiyat uchun muhim qarorlarini jamoatchilik ekspertizasidan o‘tkazish;

– fuqarolik jamiyati vakillarini nazorat organlari hay‘atlariga, ijroiya hokimiyat organlarining fuqarolar va tashkilotlar huquqlari va qonuniy manfaatlariga doir normativ-huquqiy hujjatlari va boshqa qarorlarini tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi ishchi guruhlariga, boshqa tuzilmalariga kiritish;

– ijroiya hokimiyat organlari qoshida fuqarolik jamiyati vakillari ishtirokida jamoat kengashlari tuzish.

«Xufiyona» iqtisodiyot bir qator hollarda nafaqat milliy, balki xalqaro xususiyatga ham ega bo‘lganligi sababli (korrupsiya, pullarni «yuvish», terrorizmni moliyalashtirish kabi hollarda), mazkur hodisalarga qarshi kurashning xalqaro huquqiy asoslarini tashkil etuvchi bir qator hujjatlarga e‘tibor qaratish lozim. Ularga, birinchi navbatda, BMTning quyidagi hujjatlari kiradi:

– Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi 2000-yil 15-noyabr konvensiyasi;

– Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi 2003-yil 31-oktabr konvensiyasi;

– Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risidagi 1999-yil 9-dekabr xalqaro konvensiyasi.

Yevropa Kengashi va Yevropa Ittifoqining hujjatlariga quyidagilar kiradi:

– Yevropa Kengashining Korrupsiyaga qarshi jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi konvensiyasi (Strasburg, 1999-yil 27-yanvar);

– Pullarni «yuvish»ga qarshi Parij deklaratsiyasi (Yevropa Ittifoqining pullarni «yuvish»ga qarshi kurash bo'yicha parlament konferensiyasining Yakuniy deklaratsiyasi, 2002-yil 8-fevral).

MDH hujjatlari orasida «Korrupsiyaga qarshi siyosatga doir qonunchilik asoslari to'g'risida»gi model qonunini ta'kidlab o'tish lozim (2003-yil 15-noyabrda MDH PAning XXII yalpi majlisida qabul qilingan).

Noqonuniy daromadlarni legallashtirish (oshkoralashtirish)ga qarshi kurash choralarini amalga oshirish uchun pullarni «yuvish» muammolari bo'yicha maxsus moliyaviy komissiya (FATF) tashkil etilgan edi. Uning tarkibiga Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyoning asosiy moliyaviy markazlari vakillari kirgan. Ushbu hukumatlararo tashkilot 1990-yilda «Pullarni yuvish muammolari bo'yicha qirqta tavsiya»ni tayyorlab, jahon jamoatchiligiga taklif etgan. 1996-yilda bu tavsiyalar o'tgan yillar mobaynida to'plangan tajribani hamda pullarni «yuvish» sohasida yuz bergan o'zgarishlarni hisobga olish uchun qayta ko'rib chiqildi. 2002-yilda FATFning tavsiyalari terrorizmni moliyalashtirishga bog'liq operatsiyalarni aniqlash bilan shug'ullanuvchi moliyaviy muassasalar uchun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik protsessi, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodekslarida bozor borasidagi iqtisodiy munosabatlarning prinsiplari qonuniy jihatdan muhrlab qo'yilgan:

– barcha mulk shakllarining daxlsizligi va teng ravishda davlat himoyasida ekanligi;

– iqtisodiy faoliyat erkinligi;

– tovarlar, xizmatlar va moliyaviy resurslarning erkin aylanishi;

– yagona iqtisodiy makon;

– sog'lom raqobatni qo'llab-quvvatlash;

– erkin va qonuniy tadbirkorlik.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi quyidagilarni tartibga soladi:

– shartnoma va boshqa majburiyatlarni;

– mulkiy va u bilan bog'liq shaxsiy mulkiy bo'lmagan munosabatlarni.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahrirda 2008-yil 1-yanvardan kuchga kirgan) quyidagilarni belgilaydi:

– soliqqa tortishning prinsiplari;

– soliqlarning ro'yxati;

– soliqqa oid huquqiy munosabatlar protseduralari (taomillari) va qoidalari;

– soliqqa oid huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994-yil 22-sentabrda tasdiqlangan) uchinchi bo‘limi «Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar» nomlanadi va o‘z tarkibiga X, XI, XII, XIII boblarni qamrab olgan.

Xalqaro darajada iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi eng aniq tahdidlardan biri korrupsiyadir. Shu bois xalqaro tashkilotlar unga qarshi kurashning quyidagi chora-tadbirlarini taklif etadilar:

– milliy darajada bir tomonlama majburiyatlarni qabul qilish;

– ayrim firmalarning ixtiyoriy majburiyatlarini e‘lon qilishi, korrupsiyaga qarshi milliy qonunlarning tegishli modellarini yaratish;

– noqonuniy to‘lovlarning oldini olish maqsadida firmalar va ularning xorijdagi bo‘linmalarini sertifikatlash;

– korrupsiyaga qarshi choralar nazarda tutiladigan xatti-harakat kodekslarini ishlab chiqish;

– korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro bitim tuzish.

Shunday qilib, ushbu mavzuda quyidagi asosiy kategoriya va tushunchalar ko‘rib chiqildi: «xufiyona» iqtisodiyot, «xufiyona» iqtisodiyotning sabablari va rivojlanish oqibatlari, «xufiyona» iqtisodiyotning o‘zgarishi va miqyosi, korrupsiya, soliqdan bo‘yin tovlash, uyushgan jinoyatchilik iqtisodiyoti, iqtisodiyotning jinoiylashuvi, narkobiznes, terrorizm iqtisodiyoti, jinoyatchilikka qarshi kurashni iqtisodiy jihatdan maqbullashtirishning umumiy prinsiplari.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan fuqarolar, ayniqsa, bolalari-mizning sog‘lig‘ini himoya qilish va jamoat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida 2011-yilning sentabrida «Pirotexnika buyumlari muomalasi tartibga solinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi.

Ta‘kidlash joizki, oxirgi yillarda pirotexnika vositalari, ayniqsa, maishiy turdagilarining aylanmasi keskin oshdi. Ko‘pchilik holatlarda bunday vositalarni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo‘natish va ulardan foydalanishda o‘rnatilgan tartib qo‘pol ravishda buzib kelingan.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan 2006–2010-yillarda respublika hududida o‘tkazilgan hamkorlikdagi reydlar va boshqa tadbirlar natijasida 4,2 ming nafardan ortiq huquqbuzardan olib qo‘yilgan

pirotexnika vositalari o‘rnatilgan savdo qilish qoidalariga va normalariga hamda tashish va yong‘in xavfsizligi qoidalariga zid ravishda saqlanganligi aniqlandi. Qabul qilingan qonun bilan Jinoyat kodeksi (250-moddasi) va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga (185-moddasi) pirotexnika mahsulotlarining noqonuniy aylanmasi uchun javobgarlik kiritildi. Endilikda, pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, o‘tkazish, foydalanish va boshqa harakatlar uchun shaxs sud tomonidan huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, eng kam ish haqining besh baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarimaga tortilishi mumkin. Agarda huquqbuzarlik sodir etganidan so‘ng, tegishli jazo qo‘llanilganiga qaramasdan, yana shunday harakatlarni sodir etsa, bunday shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilab qo‘yildi.

Shubhasiz, pirotexnika aylanmasini tartibga solishga qaratilgan mazkur qonun hamda hukumat qarori fuqarolarning sog‘lig‘ini himoyalashga, ushbu vositalardan foydalangan holda madaniy-tomosha va boshqa tadbirlarni o‘tkazishda xavfsizlik choralarini kuchaytirishga hamda iste‘molchilarning huquqlarini muhofazalashga xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar:

Xufiyona iqtisodiyot, jinoiy-iqtisodiy faoliyat, xufiyona iqtisodiyotning g‘ayriqonuniy iqtisodiy usullari, ikkilamchi iqtisodiyot, rasman ruxsat etilgan faoliyat, korrupsiya, qalbakilashtirilgan iqtisodiy faoliyat.

Savol va topshiriqlar:

1. Xufiyona iqtisodiyotni ta‘riflang.
2. Xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashning qanday xalqaro huquqiy asoslarini bilasiz?
3. Davlatimiz rahbari Islom Karimovning «O‘zbekiston XXI asr bo‘sa-g‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida korrupsiya va xufiyona iqtisodiyotga oid ta‘riflarni, ularning xavfsizlikka soladigan tahdidlarini konspekt qiling va mohiyatini tushuntirib bering.
4. Xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashda xalq hokimiyati institutlarining o‘rni va ahamiyati qanday?
5. Xufiyona iqtisodiyotning mamlakat real iqtisodiyotiga ta‘sirini sharhlab bering.
6. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida jamiyatimiz iqtisodiy asoslariga qaratilgan qanday javobgarliklar belgilanganini izohlang.
7. Xufiyona iqtisodiyotning iqtisodiy o‘sishga ta‘siri va oqibatlari qanday bo‘ladi?

Mavzuni chuqur o'rganish instrumentariysi

Xufiyona iqtisodiyot – huquqiy maydondan tashqarida amalga oshiriladigan jamiki iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Xufiyona iqtisodiyot – qonunlar, huquqiy normalar, xo'jalik hayotining rasmiy qoidalarini chetlab o'tib, ya'ni huquqiy maydon doirasidan tashqarida yuz beradigan iqtisodiy munosabatlarning ma'lum turidir. Xufiyona iqtisodiyot murakkab, ko'p bosqichli hodisa. Uning tur va shakllari xilma-xil. Xufiyona iqtisodiyot maqsadi, faoliyati va iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi.

Jinoiy-iqtisodiy faoliyat. Bu mutlaqo man etilgan, qonun yo'li bilan taqiqlangan ishlar bilan shug'ullanish. Masalan, narko, porno, qurol-yarog' bizneslari va h.k. G'ayriqonuniy, g'ayriiqtisodiy usullar bilan daromadlarni qayta taqsimlab, o'zlashtirib olish, masalan, o'g'rilik, bosqinchilik, reket, poraxo'rlik.

Ikkilamchi iqtisodiyot – kishilarga zarar keltirmaydigan, ular uchun naf beradigan, lekin rasman ruxsat berilmagan va davlat ro'yxatidan o'tmagan iqtisodiy faoliyat. Ular yashirin tadbirkorlik hisoblanadi. Rasman ruxsat etilgan faoliyat bilan birga, qo'shimcha ravishda yashirin ishlab chiqarishga qo'l urish, ochiq ishlaydigan korxonalarda qo'shimcha ravishda hisobga kirmagan mahsulot chiqarib, uni yashirin sotish.

Mansabni suiiste'mol qilish va korrupsiyaga asoslangan iqtisodiy xatti-harakatlar. Bular jumlasiga davlat idoralaridagi yashirin poraxo'rlik, yashirin lobbizm, mansabdan foydalanib, subsidiyalar olishni kiritish mumkin.

Qalbakilashtirilgan iqtisodiy faoliyat. Bu iqtisodiyot davlat sektoriga xos bo'lib, davlatni aldashga qaratiladi. Buning eng yaqqol namunasi davlat sektoridagi qo'shib yozishlar, qilinmagan ishlar uchun davlatdan haq olish va boshqalar.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. Jahon mamlakatlari iqtisodiy xavfsizligi davlat strategiyasi tajribasidan kelib chiqib, amaldagi qonunlar iqtisodiyot ahvolidan O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligi talablariga javob beradigan mezonlari orasida quyidagilarni keltirish mumkin: jamiyat hamda xo'jalik va moliya faoliyatining barcha sohalari jinoiylashuviga yo'l qo'ymaydigan iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarning yaratilishi, jinoiy tuzilmalarning ishlab chiqarish va moliya institutlarini egallab olishiga, hokimiyatning turli institutlariga kirib borishiga yo'l qo'ymaslik kabilar va hokazo.

Mamlakatimiz milliy boyligi davlat budjetining daromadlarini taqsimlash va qayta taqsimlashda ishtirok etish iqtisodiy agentlarga har qanday xo'jalik

faoliyatiga qaraganda, ancha ko‘p foyda kelishini ta’minlaydi. Bunday faoliyat «xufiyona» iqtisodiyot nomini oldi.

2. Adabiyotlarda «xufiyona iqtisodiyot» kategoriyasini ta’riflashga quyidagi yondashuvlarning ayrimlarini keltiramiz:

– «xufiyona» iqtisodiyot faoliyatning taqiqlangan turlari sifatida baholanadi;

– «xufiyona» iqtisodiyot iqtisodiy faoliyatning aytilmagan va yashirilgan turlari sifatida ta’riflanadi;

– «xufiyona» iqtisodiyot u yoki bu sabablarga ko‘ra, rasmiy statistikada inobatga olinmaydigan, yalpi ichki mahsulotga kiritilmaydigan, soliqqa tortishdan «tushib» qoladigan har qanday iqtisodiy faoliyat sifatida talqin etiladi;

– «xufiyona» iqtisodiyot milliy xavfsizlikka tahdid sifatida ayrim individlar, ularning guruhlari, institutsional subyektlar o‘rtasida moddiy ne‘matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste‘mol qilish borasida yuzaga keladigan hamda natijalari u yoki bu sabablarga ko‘ra, rasmiy statistikada inobatga olinmaydigan va soliqqa tortilmaydigan munosabatlar majmuidir.

3. Xufiyona iqtisodiyot – ishtirokchilari tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliq to‘lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy faoliyat turlari. Xufiyona iqtisodiyot oshkora payqab bo‘lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, iste‘mol jarayonlari – iqtisodiy munosabatlar bo‘lib, uning negizida ayrim kishilar yoki kishilar guruhi manfaatlarini yotadi. Xufiyona iqtisodiyot dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida mavjud.

4. Xufiyona iqtisodiyotdagi ijtimoiy zararli faoliyat davlat tomonidan qat’iyan taqiqlanadi, unga qarshi hamma choralar bilan kurash olib boriladi, ijtimoiy foydali faoliyatning (norasmiy bo‘lsa-da, kishilarning talab-ehtiyojlarini qondiradi) oshkoralikka chiqishi iqtisodiy jihatdan rag‘batlantiriladi, masalan, soliqlar yengillashtiriladi.

5. Xufiyona iqtisodiyot miqyosi yashirin iqtisodiy aylanmani, ya’ni ruxsat etilmagan tovar va xizmatlarni yaratish va ularni sotish hajmi bilan belgilanadi, uning aniq hisob-kitobi bo‘lmaydi. Buning o‘rniga uni taxminan baholash usuli qo‘llaniladi. Ayrim hisob-kitoblarga ko‘ra, o‘tgan asrning oxirlarida Yer yuzidagi yashirin iqtisodiy aylanma 8 trln. dollarga yoki jahon yalpi mahsulotining 27,5 foiziga teng bo‘lgan, biroq xufiyona iqtisodiyot miqyosi turli mamlakatlarda farqlanadi. Xufiyona iqtisodiyot eng rivojlangan hududlarga Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlari kiradi.

6. «Xufiyona» iqtisodiyot bir qator hollarda nafaqat milliy, balki xalqaro xususiyatga ham ega bo'lganligi sababli (korrupsiya, pullarni «yuvish», terrorizmni moliyalashtirish kabi hollarda), mazkur hodisalarga qarshi kurashning xalqaro huquqiy asoslarini tashkil etuvchi bir qator hujjatlarga e'tibor qaratish lozim, Ularga, birinchi navbatda, BMTning quyidagi hujjatlari kiradi: Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi 2000-yil 15-noyabr konvensiyasi; Korrupsiyaga qarshi 2003-yil 31-oktabr konvensiyasi; Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi 1999-yil 9-dekabr xalqaro konvensiyasi.

Yevropa Kengashi va Yevropa Ittifoqining hujjatlariga quyidagilar kiradi:

Yevropa Kengashining Korrupsiyaga qarshi jinoiy javobgarlik to'g'risidagi konvensiyasi (Strasburg, 1999-yil 27-yanvar);

Pullarni «yuvish»ga qarshi Parij deklaratsiyasi (Yevropa Ittifoqining pullarni «yuvish»ga qarshi kurash bo'yicha parlament konferensiyasining Yakuniy deklaratsiyasi, 2002-yil 8-fevral) miqyosi, korrupsiya, soliqdan bo'yin tovlash, uyushgan jinoyatchilik iqtisodiyoti, iqtisodiyotning jinoiylashuvi, narkobiznes, terrorizm iqtisodiyoti, jinoyatchilikka qarshi kurashni iqtisodiy jihatdan maqbullashtirishning umumiy prinsiplari.

4-BO‘LIM. JAHON IQTISODIYOTI

20-MAVZU. JAHON XO‘JALIGI VA GLOBALLASHUV MUAMMOLARI

1. Hozirgi jahon xo‘jaligi va iqtisodiyotining mohiyati. Jahon xo‘jaligining shakllanishi va xususiyatlari

Jahon xo‘jaligi yoki jahon iqtisodiyoti – bu bir-birini taqozo etuvchi, jadal o‘zaro bog‘liq rivojlanishda bo‘lgan va jahon iqtisodiy tizimini tashkil qilgan milliy xo‘jaliklarning majmui bo‘lib, iqtisodiy yaxlitlikni tashkil etadi.

XXI asrning dastlabki o‘n yilligida 210 dan ortiq mamlakat iqtisodiyoti birlashgan bo‘lib, bular yaratgan tovar va xizmatlar summasi bir necha o‘nlab trillion AQSh dollarini tashkil etadi. Jahon xo‘jaligi yoki iqtisodiyoti uch guruh mamlakatlar, ya’ni iqtisodiyoti yuksak rivojlangan, iqtisodiyoti o‘rtacha rivojlangan va iqtisodiyoti qoloq mamlakatlardan iborat. Jahon iqtisodiyoti tizimining asosiy elementlari quyidagilar: milliy xo‘jaliklar, transmilliy korporatsiyalar, integratsiyaviy birlashmalar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar.

Jahon iqtisodiyoti tizimida davlatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari integratsiyalovchi, birlashtiruvchi rol o‘ynaydi. Uning asosida moddiy va ma’naviy ne’matlarni xalqaro va milliy miqyosda ishlab chiqarish, ularni taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish yotadi. Jahon iqtisodiyoti faoliyatining asosiy maqsadi – resurslar cheklanib borayotgan sharoitda insonning yuksalib borayotgan ehtiyojlarini qondirish.

Jahon xo‘jaligi miloddan avvalgi yillardayoq mamlakatlar o‘rtasida tovar va xizmatlar «harakati orqali» rivojlana boshlagan. Bozor munosabatlarining faol yoyilishiga XV–XVII asrdagi buyuk jug‘rofiy kashfiyotlar, XIX asrda mashina sanoati, transport va aloqa sohasidagi yangi vositalarning paydo bo‘lishi sabab bo‘ldi. XIX asrning oxiriga kelib sanoat ishlab chiqarishi va xalqaro mehnat taqsimoti asosida mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va moliya-kredit munosabatlari tizimi sifatida tovar va xizmatlarning jahon bozori shakllandi.

XIX–XX asrlar chegarasida ishlab chiqarish omillari, mamlakatlar va mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy resurslarning xalqaro harakati jadallashdi.

Iqtisodiy manfaatdorlik asosida xalqaro hamkorlikni amalga oshiruvchi milliy xo‘jaliklar majmui sifatida jahon xo‘jaligi shakllandi. Jahon iqtisodiyotining shakllanishiga quyidagi davrlar xosdir:

– Birinchi jahon urushining boshidan 50-yillar boshigacha – mamlakatlar o‘rtasidagi xo‘jalik aloqalarining buzilishi, so‘ngra asta-sekin tiklanishi;

– 50–70-yillar – davlatlar, transmilliy korporatsiyalarning integratsiyaviy guruhlari yuzaga kelishi, bilimlar (texnologiyalar), tadbirkorlik kapitalining mamlakatlar o‘rtasida ko‘chib yurishi;

– 80–90-yillardan XXI asr boshlarigacha – rivojlangan mamlakatlarning postindustrial taraqqiyotga, qoloq mamlakatlarning iqtisodiy qoloqlikni faol bartaraf etishga, sobiq sotsialistik mamlakatlarning esa bozor iqtisodiyotiga o‘tishi.

Hozirgi jahon xo‘jaligining mohiyati va xususiyatlari. Hozirgi zamon jahon xo‘jaligining xususiyati – xalqaro iqtisodiy subyektlar sifatining yangi tashqi iqtisodiy strategiyalari hisoblanadi.

Hozirgi zamon jahon xo‘jaligi global xususiyatga ega bo‘lib, kichik yoki katta mamlakatlar iqtisodiyotlari majmuidan iborat. Ularning barchasi uzilmas rishtalar bilan bog‘langan va bir-birini to‘ldirib turadi. Jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvning eng istiqbolli va maqbul bo‘lgan yo‘nalishini belgilash zarurati ham mavjud. Hozir ochiq milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jaligi bilan bog‘lanishi tovarlar, ish kuchi va kapitalning erkin harakati orqali amalga oshiriladi. Bozor tizimiga o‘tishda iqtisodiy o‘sishning tashqi manbalari ichki manbalari bilan bir qatorda turgani uchun yosh mamlakatlar muqarrar ravishda baynalminallashuv jarayoniga kirib borishlari kerak bo‘ladi.

Ochiq iqtisodiyotning ziddiyliги shundaki, bu milliy iqtisodiyotni tashqi dunyo uchun ochishni va tashqi omillarning salbiy ta‘siridan uni himoya qilishni bildiradi. Binobarin, iqtisodiyotning «ochiqligi», *bir tomondan*, boshqalarga bog‘liqlikni va o‘zgalar ta‘siriga berilishni bildiradi. Ayni paytda milliy xo‘jaliklar o‘zaro qo‘shilib ketgan sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash muammosini keltirib chiqaradi.

Jahon xo‘jaligi – bu global iqtisodiy organizmdir. Hozirgi jahon xo‘jaligiga ishlab chiqarish kuchlarining baynalminallashuvi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning turli-tuman tizimining yaratilishi xosdir. Hozirgi zamon jahon xo‘jaligiga dunyo mamlakatlarining o‘zaro manfaatdorligi va uzluksiz iqtisodiy hamkorlik xarakterlidir. Shu bois dunyo mamlakatlari o‘z aloqalarida global infratuzilmaga tayanadilar.

Hozirgi zamon jahon xo‘jaligi aloqalari quyidagi shakllarni o‘z ichiga oladi:

- xalqaro savdo;
- ishlab chiqarish kooperatsiyasi;
- axborot ta‘minoti;
- ish kuchi migratsiyasi;
- xalqaro kredit;
- chet el investitsiyasi;
- davlatlarning o‘zaro valuta munosabatlari albatta global infratuzilmani taqozo etadi. Bular xalqaro transport tizimi, xalqaro axborot kommunikatsiyasidan iborat.

Hozirgi global iqtisodiyotga dinamizm xos bo‘lib, doim o‘zgarib turadi. Bularga muntazam ravishdagi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, innovatsiyalar (yangiliklar), o‘zaro bog‘liq milliy iqtisodiyotlarning o‘sishi, dunyoning 20 foizga yaqin mamlakatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda tub islohotlar o‘tkazilayotgani kiradi.

1.2. Jahon iqtisodiyotining tuzilishi

Jahon xo‘jaligining iqtisodiy tuzilishi – tarmoqlar, mintaqalar, korxonalar o‘rtasidagi nisbat, shuningdek yalpi mahsulotning ishlab chiqarilishi va iste‘molidagi mutanosibliklar.

Jahon iqtisodiyotining tarkibiga quyidagi elementlar kiradi: tarmoq, takror ishlab chiqarish, hududiy, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar (kichik tuzilmalar).

Tarmoq tuzilishi – bu iqtisodiy tarmoqlar o‘rtasidagi o‘zaro nisbat.

Tarmoq – bir xil mahsulot beruvchi korxonalar guruhi. Tarmoqlarning quyidagi guruhlari ajratiladi: qishloq xo‘jaligi; kon sanoati; qayta ishlash sanoati; iqtisodiy infratuzilma; xizmatlar ko‘rsatish.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish ustunlik qiladi (xizmatlarning ulushi AQSh iqtisodiyotida – 80 %, Kanadada – 70 %, RFR, Fransiya, Italiyada – 60 % atrofida). AQShda xizmat ko‘rsatish sohasida aholining 3/4 qismi, oliy malakali kadrlarning esa 87 % band.

Dunyoda fan yutuqlariga asoslangan texnologiyalarning (robototexnika, EHM va elektroenergiya ishlab chiqarish) hissasi o‘sib bormoqda. Ular rivojlangan mamlakatlar mashinasozlik korxonalari ishlab chiqarish quvvatining 45 % ni tashkil qiladi.

Takror ishlab chiqarish tuzilmasi – bu ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot (YAIM)dan foydalanishning har xil turlari o‘rtasidagi nisbat. Takror ishlab chiqarish tuzilmasida iste‘mol, jamg‘arish va eksport ajratiladi.

Oddiy takror ishlab chiqarish – ishlab chiqarish sikllarining doimiy ravishda uzluksiz takrorlanishi.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish – ishlab chiqarish sikllarining doimiy yangilanib, modernizatsiyalashib boruvchi ko‘rsatkichlar bilan uzluksiz takrorlanishi.

Noqulay omillar ta‘siridagi ishlab chiqarish **toraytirilgan**, ya‘ni ishlab chiqarish hajmi pasayib boruvchi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Funksional vazifasiga ko‘ra, jahon iqtisodiyotining tuzilishi tinch va harbiy ishlab chiqarishga bo‘linadi. Harbiy ishlab chiqarish YAMMning 1–2 % ni tashkil qilsa, ma‘qul hisoblanadi.

Hududiy tuzilma – ishlab chiqarishning qaysi tarmoq va turlari ushbu hududda jamlanganini ko‘rsatadi. Hududiy tuzilma xomashyo, ish kuchi kabi manbalarning mavjudligi va joylashuvi bilan bog‘liqdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma ijtimoiy-iqtisodiy ukld va aholi hayotining sifatini aks ettiradi. Mamlakatda hayot sifatining umumlashgan jahon ko‘rsatkichi **inson salohiyatining rivojlanish indeksi (ISRI)** hisoblanadi. U uni tashkil etuvchi uchta indeksning o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichiga teng: kutilayotgan hayot davomiyligi indeksi, aholining ta‘lim sohasiga qamrab olinganligi indeksi, turmush darajasi indeksi.

Rivojlangan mamlakatlarda ISRI 0,1 ga intiladi, qoloq mamlakatlarda esa ISRI 2 ga yaqin. BMT ma‘lumotlariga qaraganda, 1990-yildan 2002-yilgacha ISRI atigi 20 ta mamlakatda (Qozog‘iston, Tojikiston, Ukraina, Rossiya, Zambiya va boshqa mamlakatlarda) pasaygan. Jahon iqtisodiyotida rivojlangan industrial mamlakatlar guruhi ajratiladi (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga kiruvchi 30 dan ortiq davlatlar). Ular orasida YAMM hajmi eng katta bo‘lgan (dunyo YAMMning 50 %) «sakkizlik»ni AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Kanada, Rossiya tashkil qiladi.

Jahon YAMMning 28 % rivojlangan mamlakatlar (130 dan ortiq davlatlar)ga to‘g‘ri keladi. O‘tish davri iqtisodiyoti kechayotgan mamlakatlar (28 ta davlat) dunyo YAMMning taxminan 17–18 % ni ishlab chiqaradilar.

Milliy xo‘jaliklar va jahon iqtisodiyotining makroiqtisodiy aloqalari iqtisodiy faoliyat natijalarini hisobga olishning xalqaro miqyosda tan

olingan qoidalari majmui bo'lgan milliy hisob tizimida (MHTda) aks etadi.

Iqtisodiy faoliyat sektorlarini quyidagilar tashkil qiladi:

– real sektor (xususiy, moliyalashtirilmaydigan); budjet (davlat) sektori;

– pul sektori (markaziy va tijorat banklarining pul oqimlari);

– tashqi sektor (to'lov balansida o'z ifodasini topadigan barcha sektorlarning tashqi operatsiyalari).

MHTdan joriy iqtisodiy tahlilni amalga oshirish va iqtisodiy siyosatda strategik qarorlar qabul qilish uchun foydalaniladi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar bo'yicha kam daromadli (1000 dollargacha), o'rta daromadli (7000–10000 dollar) va yuqori daromadli (10000 dollardan ortiq) mamlakatlar ajratiladi.

YAMMda eksportning ulushi bilan o'lchanadigan jahon bozoriga ochiqlik darajasi bo'yicha nisbatan yopiq (YAMMdagi eksportning ulushi 10 % dan kam) va nisbatan ochiq (YAMMdagi eksportning ulushi 35 % dan ko'p) iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlar ajratiladi.

1.3. Jahon taraqqiyoti nazariyalarining konseptual asoslari

Jahon taraqqiyotining eng mashhur nazariyalari iqtisodiy, sotsiologik, shuningdek yagona sivilizatsiya va sivilizatsiyalar to'qnashuviga oid sotsiomadaniy nazariyalardir.

Rivojlanish bosqichlarining nazariyalari quyidagilardan iborat:

Iqtisodiy o'sish bosqichlari nazariyasi. U. Rostou (AQSh) 1960-yilda «Iqtisodiy o'sish bosqichlari: nokommunistik manifest» kitobida o'sishning beshta asosiy bosqichini tavsiflagan:

- 1) an'anaviy jamiyat;
- 2) ko'tarilish uchun shart-sharoitlar yaratish davri;
- 3) iqtisodiy ko'tarilish;
- 4) yetuklik sari harakat;
- 5) yuksak ommaviy iste'mol asri.

Birinchi bosqich – feodal munosabatlar.

Ikkinchi bosqich – ko'tarilishga o'tish (qishloq xo'jaligi, tashqi savdo, transportdagi yaxshilanishlar). Uchinchi bosqich – sanoat inqilobi. Iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun milliy daromadda investitsiyalarning ulushini (10 % dan ortiq) oshirish, sanoatni rivojlantirish zarur. To'rtinchi bosqich – industrial jamiyat. Beshinchi bosqich – tovar va xizmatlarni ommaviy iste'mol qilish.

Iqtisodchi olim U. Rostou keyinchalik oltinchi bosqich – hayot sifatini izlash bosqichini qo‘shdi. Ushbu nazariyada postindustrial davr tadqiq qilinmaydi va sanoat inqilobi bosqichi mutlaqlashtiriladi.

Yagona industrial va yangi industrial jamiyat nazariyalari. Fransuz sotsiologi R. Aron industrial jamiyatda mulkning yetakchilik roli pasayishi, davlatning boyluk va qashshoqlik qutblarini bartaraf etishdagi roli kuchayishini ta’kidlagan. O‘sib boruvchi korporativ daromadlar jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini, fan va ta’limni qondirish uchun yo‘naltiriladi, shu tariqa jamiyatning farovonligiga erishiladi.

J. Gelbreyt (AQSh) 1967-yilda «Yangi industrial jamiyat» kitobida kapitalistik jamiyatni rejali, bozor tizimining mazmuni deb tasvirlagan.

Rejali tizim (yirik korporatsiyalar) jamiyat manfaatlariga bee’tiborligi uchun qoralanadi. Bozor tizimi (mayda firmalar, xizmat ko‘rsatish sohasi) haqiqiy iqtisodiy-madaniy, ijtimoiy qadriyatlarga ega. Uning fikricha, davlat kichik biznesni, bozor tizimini rivojlantirishi lozim.

Postindustrial jamiyat nazariyalari. D. Muxtabell (AQSh) postindustrial jamiyatning beshta belgisini ajratgan:

1) iqtisodiyotning tovarlar ishlab chiqarishdan xizmatlar ishlab chiqarishga o‘tishi;

2) xodimlar orasida mohir mutaxassislar va texniklarning ustunligi;

3) nazariy bilimlarning yetakchilik qilishi;

4) texnik-iqtisodiy muhitning texnologiyalar ustidan nazorat o‘rnatishga qaratilishi;

5) yangi «intellektual texnologiya»ning qaror qabul qilish jarayonini ta’minlash.

Ushbu shartlarning amalga oshirilishi postindustrial jamiyatga o‘tilganligini bildiradi.

A. Toffler (AQSh) «Uchinchi to‘lqin» kitobida (1980) «uchinchi to‘lqin»ga «industrial individ»ning yaratuvchi shaxsga o‘tishi deb ta’rif bergan. Pulga sig‘inish, hukmronlik va bo‘ysunish munosabatlari o‘rniga o‘zaro ishonch va yordam munosabatlari, ulkan tashkilot doirasidagi qat’iy mehnat intizomi o‘rniga kichik tashkilotlar va uydagi ixtiyoriy mehnat, tabiat bilan hamkorlikni kuchaytirishga mo‘ljallar olish hamda ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha cheklangan, muvozanatlashgan o‘sishga o‘tish.

Sivilizatsiyalar nazariyalari. **Yagona sivilizatsiya nazariyasi.** F. Fukuyama (AQSh) dunyo umumiy jamiyat – yagona siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tuzum – liberal demokratiya sari harakatlanayotganligini tadqiq qilgan. Ushbu jarayonning harakatlantiruvchi kuchi: iqtisodiyot-

ning baynalminallashuvi, uning globallashuv va integratsiyalashuvga o'sib o'tishi. Bunda mamlakatlarning muhim vazifasi – o'z milliy qiyofasini, madaniyati va o'zligini yo'qotmaslik.

Sivilizatsiyalar to'qnashuvi nazariyasi. Uning muallifi F. Xantington (AQSh) dunyoning siyosiy va madaniy jihatdan ko'p qutbliligini, G'arb, Islom, Xitoy, Yapon, Pravoslav, Afrika va Lotin Amerikasi kabi sivilizatsiyalarga egaligini ta'kidlagan. Osiyo sivilizatsiyalarining roli oshib bormoqda. F. Xantingtonning fikricha, bo'lajak dunyo turli sivilizatsiyalar majmuidir. Jahon iqtisodiyotida Osiyo mamlakatlarining ulushi oshib bormoqda. Integratsiya asosiy mamlakatlarning madaniy, sivilizatsiyaviy asoslariga tayanishi lozim (Provaslav, Islom, Yapon sivilizatsiyasiga qaraganda, ko'proq G'arb sivilizatsiyasiga, Induizm, Xitoy sivilizatsiyasiga yaqinroqdir). Ijtimoiy-madaniy aloqalarni rivojlantirish muhim.

1.4. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining notekisligi

Iqtisodiy rivojlanish deganda iqtisodiyotdagi taraqqiyparvar, ilgarilama, ya'ni iqtisodiy o'sishga intilishdagi o'zgarishlar majmui tushuniladi.

Ilgarilama o'zgarishlar – iqtisodiy faoliyat natijalari hajmining ortishidir. Jamiyat va har bir alohida inson manfaatlari yo'lidagi taraqqiyparvar o'zgarishlarga quyidagilar xos: uzoq vaqt mobaynida **aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadning** (yalpi milliy daromadning aholi soniga nisbati) o'sishi kuzatiladi. Bunda ikki shart bajarilishi kerak:

1) kambag'allik chegarasidan tashqarida yashovchi aholi sonining kamayishi yoki saqlanib qolishi;

2) daromadlarning taqsimlanishida tengsizlik darajasining saqlanib qolishi yoki kamayishi.

Quyida jahon iqtisodiyoti rivojlanishining shart-sharoitlari, omillari, harakatlantiruvchi kuchlari va sharoitlarini ko'rib chiqamiz.

Shart-sharoit deganda mavjud bo'lgan passiv va foydalanilmayotgan resurslar tushuniladi. Bunday resurslarning uchta tipi mavjud:

1) tabiiy-iqlim – tabiiy resurslarning miqdor bo'yicha zaxirasi va sifat tarkibi, ularni olish va ishlatish sharoitlari, aholi hayotining iqlim va ekologik sharoitlari;

2) demografik – aholining soni, tuzilishi, mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi, ijtimoiy infratuzilma;

3) iqtisodiy – to'plangan milliy boylikning hajmi.

Iqtisodiy rivojlanish omillari – bular faol ishlatiladigan iqtisodiyot elementlari: yer, mehnat, kapital, axborot, tadbirkorlik qobiliyati, fan-texnika taraqqiyoti (bu o‘z navbatida qolgan mazkur omillar samaradorligining oshishini ta’minlaydi). Ushbu omillarning kerakli joyda va vaqtda zarur jamlanishi iqtisodiyotning rivojlanishini ta’minlaydi.

Iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari – bu iqtisodiy rivojlanishda yetakchi o‘rin tutuvchi iqtisodiy subyektlar: tadbirkorlik, kichik biznes, fermerlik harakati.

Iqtisodiy rivojlanish sharoitlari – iqtisodiy taraqqiyotning borishini ta’minlovchi alohida aniq holatlar. Zarur sharoitlarning yaratilishi iqtisodiyotning boshqarilishini, iqtisodiy vaziyatning tahlil qilinishi va bashorat qilinishi, samarali menejmentni ta’minlaydi.

Jahon iqtisodiyoti notekis rivojlanadi. Jahon iqtisodiyotining notekis rivojlanishi uning siklik xususiyatida namoyon bo‘ladi (qisqa muddatli sikl 2 yil, o‘rta muddatli 5–7 yil, uzoq muddatli sikl 40–60 yil). Sekinlashish (pasayish to‘lqini) va tezlashish (yuksalish to‘lqini) davrlari ketma-ket almashinib keladi va bir qator omillarning dinamikasi (fan-texnika taraqqiyoti va boshqalar) bilan bog‘liqdir. Katta sikllarning yuksalish to‘lqinlari quyidagilardan iborat:

birinchi (XVIII asr o‘rtalari) – to‘qimachilik sanoati va metallurgiya-ning rivojlanishi bilan bog‘liq;

ikkinchi (XIX asr o‘rtalari) – dengiz va temir yo‘l transportining rivojlanishi bilan bog‘liq;

uchinchi (XX asrning boshi) – elektrotexnika, radio, aloqa sohalaridagi ixtirolar bilan bog‘liq;

to‘rtinchi (Ikkinchi jahon urushidan keyin) – sintetik materiallar, plastmassalarning ixtiro qilinishi, elektronika, yangi texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog‘liq.

Shuningdek, ko‘lami va keltirilgan salbiy oqibatlarini jihatidan 1929–1933-yillardagi buyuk depressiyadan keyingi o‘rinda deb baholanayotgan va «bugungi kunning eng dolzarb muammosi – bu 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi» AQSh ipoteka kreditlari bozoridagi tanglikdan boshlanib, butun moliyaviy sektori, so‘ngra tez sur‘atlarda iqtisodiyotning real sektorini ham qamrab oldi.

Iqtisodiy siklning quyidagi jarayonlari ajraladi:

1) inqiroz (ishlab chiqarishning to‘xtab qolishi, ishsizlikning ko‘payishi va hokazo);

2) jonlanish (inqirozdan oldingi iqtisodiy holatning tiklanishi);

3) yuksalish (asosiy kapitalning yangilanishi, inflatsiyaning kamayishi va hokazo);

4) regressiya (iqtisodiy yuksalish fonida inqiroz alomatlari yuzaga keladi);

5) depressiya (ishlab chiqarishning turg'unligi, narxlarning past darajasi, eskirgan asosiy kapitalning chiqib ketishi).

Iqtisodiy sikl – iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi va ichki omillarning o'zaro ta'siri natijasi.

1970–1990-yillarda jahon iqtisodiyotining o'sishi deyarli dunyoning barcha mamlakatlarini qamrab olgan chuqur o'rta muddatli siklik inqirozlar bilan uzilib turdi, holbuki ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'ziga xos jihatlarga ega edi. O'rtacha darajada rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining o'sish sur'atlari XXI asrning boshida atigi 1–2 % ni tashkil qildi. Jahon iqtisodiyotining umumiy o'sishi 1 % dan ortdi. Ammo uning o'sish sur'atlari 2008-yilga kelib pasayishga yuz tutdi.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

– globallasuv (iqtisodiyot subyektlarining global miqyosdagi o'zaro aloqadorligining kuchayishi, bularning aholi hayotining huquqiy, ijtimoiy, demografik, diniy va boshqa tomonlariga ta'siri). Bu masalani keyingi paragraflarda atroflicha ko'rib chiqamiz;

– ishlab chiqarish va kapitalning baynalminallashuvi (milliy xo'jaliklarning ishlab chiqarish va investitsiyalar sohasida jahon bozoriga bog'liqligining kuchayishi);

– transmilliylashuv (korxonalar va ular filiallarining xorijda joylashtirilishi, buning xalqaro mehnat taqsimoti chuqurlashuviga imkon yaratishi);

– integratsiya (milliy xo'jaliklarning yaqinlashuvi va o'zaro moslashuvi);

– jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi.

2. Globallasuvning mohiyati va oqibatlari

2.1. Global muammolarning mohiyati, roli va iqtisodiy jihatlari

Jamiyat rivojlanishining barchaga va har kimga, butun jahon hamjamiyatiga taalluqli, olamshumul xususiyatga ega muammolari *global muammolar* deb ataladi. Ushbu muammolarning sayyoramiz miqyosida yoyilishi va keyinchalik keskinlashib borayotgani ularning global,

davlatlararo darajada hal qilish yo‘llarini izlashni talab qilmoqda, chunki ayrim mamlakatlar, hatto, ayrim davlatlar guruhi buning uchun zarur bo‘lgan ulkan kuch va vositalarga ega emas.

Global muammolarning qanday turi bo‘lmasin ularni butun jahon hamjamiyatining turli resurslari (moddiy, moliyaviy, mehnat, texnologik, ma‘naviy, intellektual, axborot resurslari)ni birlashtirishsiz hal qilib bo‘lmasligiga olib keladigan jiddiy iqtisodiy jihatlar mavjud.

Global muammolarning tarkibi, roli va o‘rni jamiyat rivojlanishining ayrim bosqichlarida o‘zgarib turadi. Tabiiy omillar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab global muammolar – tabiiy ofatlar (zilzila, toshqin, to‘fon, bo‘ron va h.k.), quyosh va oy tutilishlari, meteorit yomg‘irlari, magnit bo‘ronlari juda qadimdan mavjud.

Hozirgi global muammolar ko‘p jihatdan insoniyatning avvalgi butun faoliyati, umuman jamiyat rivojlanishining natijasidir. Global muammolarning insoniyat hayoti va faoliyatining barcha tomonlariga salbiy ta‘sirlari kuchayib borayotgani, ularni hozirgi bosqichda va kelajakda hal qilish borasidagi qiyinchiliklar fan-texnika taraqqiyoti asosidagi iqtisodiy o‘rish sur‘atlarining kattaligi bilan bog‘liq.

Hozirgi vaqtda qirqqa yaqin global muammolar mavjud bo‘lib, ular ichida asosiylarini ekologik, demografik, oziq-ovqat, qurolsizlanish, yadro qurolini tarqatmaslik va yadro urushining oldini olish, xalqaro xavfsizlik tashkil qiladi.

Shunday qilib, jahon iqtisodiyoti shakllanishining alohida bog‘lovchi omili – barchaga taalluqli bo‘lgan hamda ko‘plab yoki barcha mamlakatlar, xalqaro tashkilotlarning jami mablag‘larini jalb etish va davlatlararo iqtisodiy hamkorlik orqali hal qilinadigan insoniyatning global muammolaridir. Global muammolarning o‘ziga xos jihatini ularning universal xususiyati tashkil qiladi, chunki ular hozirgi zamon sivilizatsiyasining natijasidir.

2.2. Ekologiya va resurslar muammolari

XX asrning ikkinchi yarmida jahon iqtisodiyotida atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi ko‘tarildi, chunki xo‘jalik faoliyati natijasida uning ifloslanishi bir qator sohalarda juda keskin tus oldi. Biologik olamning xilma-xil turlari va ekologik tizimlar halokat yoqasiga kelib qoldi. Keyinchalik muammoning dolzarbligini, ekologiya masalalarining tadqiq etilishi, ushbu bilimlarning ommalashuvi, nohukumat ekologik tashkilotlar va harakatlarning faollashuvi uning keng doirada muhokama qilinishiga olib keldi.

Ekologik inqiroz keskinlashuvining bosh sabablari quyidagilar:

1) kimyoviy o'g'itlarning haddan tashqari ko'p ishlatilishi, tuproqning sho'r bosishi, shamol va suvdan yemirilishi natijasida ishlov beriladigan ulkan yer maydonlarining ishdan chiqishi. XX asrda haydaladigan yerlarning $\frac{1}{4}$ qismidan ortig'i yo'qotilishiga yo'l qo'yildi;

2) o'rmonlarning kesilishi va buning natijasida suv toshqinlari, tuproq eroziyasi, ko'chkilarning kelib chiqishi, botqoqliklarning hosil bo'lishi. Katta maydonlarda o'rmonlarning yo'qotilishi mintaqaviy va global miqyoslarda ekologik muvozanatning buzilishiga olib keldi. XX asrda o'rmonlarning taxminan $\frac{2}{3}$ qismi yo'q qilindi (agar 50 yil avval tropik o'rmonlar quruqlikning 12 % ini qoplagan bo'lsa, bugungi kunda ular atigi 6 % ni tashkil qiladi);

3) ziroatchilik va chorvachilik mahsulotlariga, suv, insoniyat yashaydigan muhitga va shu kabilarga kimyoviy ta'sir ko'rsatilishi bu barcha odamlar sog'lig'i hayotiga ta'sir etadi, tabiiy muhitning o'zini takror ishlab chiqarish imkoniyati yo'qolayotganligi haqida gapirma ham bo'ladi;

4) Yer atmosferasiga chiqarilayotgan chiqindilar hajmining o'sib borayotgani. Atmosferada karbonat angidrid gazining to'planishi (issiq xona effekti), ozon qatlamining yupqalashuvi tufayli iqlim o'zgarishi yuz berishi mumkin. Taxminlarga qaraganda, yer sharidagi o'rtacha yillik harorat XXI asr o'rtalariga kelib 1,5–4,5 oS ga, Dunyo ummonining darajasi esa 2010-yildayoq 1,4–2,2 metrga ko'tarildi;

5) turli sanoat chiqindilarining to'planishi, katta yer maydonlarining axlat uyumi bilan to'lishi. Buning natijasida foydali yer maydonlari qisqarib, odamlar hayoti uchun katta xavf tug'diruvchi o'choqlar hududi kengayadi. Sanoat chiqindilarining hajmi 30 yil ichida 2,5 baravar ko'payib, 10 mlrd. tonnaga yetdi;

6) atom elektr stansiyalari sonining ko'payishi. Ekologiyaga ta'sir etishning oqibatini Chernobil fojiasi ko'rsatdi: odamlarning halok bo'lishi, shaharlar, yerlar, o'rmonlar va suvning foydalanishga yaroqsizlanishi. Hayot uchun o'ta xavfli radiatsion chiqindilar (ifloslantiruvchilar)ning minglab kilometr masofaga havo orqali tarqashi hamda shahar va qishloqlarga yomg'ir va qor ko'rinishida tushishi.

Bularning bari ekologik muammolar miqyosining nihoyatda kattaligi, jahon sivilizatsiyasining buguni va ertasi uchun ahamiyati, shuningdek uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish yoki kamaytirish uchun nihoyatda katta mablag' zarurligini tasdiqlaydi. Afsuski, mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning «ekologik budjetlari» hozircha katta emas, hal

qilinadigan muammolarning miqyosiga mos kelmaydi. Insoniyat tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga 1979-yilda – 40 mlrd., 1980-yilda – deyarli 75 mlrd., 1990-yilda – taxminan 150 mlrd., XXI asrning boshida esa 250 mlrd. dollardan ortiq mablag‘ sarflagani haqidagi ma’lumotlar barchani o‘ylashga majbur etadi.

Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga sanoati rivojlangan mamlakatlar o‘z yalpi milliy mahsulotining 1,2 % ini sarflaydilar. Ayni vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlarga zarur yordam ko‘rsatmaydilar. Har yili atrof-muhitga yetkaziladigan zararning bahosi ular YAMMning 4–6 % ini tashkil qiladi. Kambag‘al va boy mamlakatlar turli xil imkoniyatlarga ega bo‘lgani bois, atrof-muhit holati uchun mas’uliyat ham turlicha bo‘lishi kerak (masalan, aholining 20 % istiqomat qiladigan va atmosferaga chiqariladigan chiqindilarning deyarli 70 % ini ishlab chiqaradigan va issiq xona effektini yuzaga keltiradigan Shimol mamlakatlari bunga ko‘proq mas’ul bo‘lishlari lozim). Boy mamlakatlar nafaqat o‘z harakatlarida eng mas’uliyatli bo‘lishlari, balki Janub davlatlariga atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida texnologik va iqtisodiy jihatdan yordam berishlari kerak.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi boshqa bir muammo – gidroelektr stansiyalari qurish bo‘lib, ular, bir tomondan, elektr energiyasini eng toza usulda olishga imkon beradi, boshqa tomondan, katta maydonlarni suvga bostirib va baliqlarning harakatlanishi uchun to‘siqlar yaratib, daryolar havzalarida ekologik vaziyatni o‘zgartiradi va hokazo. Ayrim korporatsiyalar va davlatlarning iqtisodiy manfaatlari tabiatni asrash manfaatlarini himoya qiluvchi ekologik harakatlar, shuningdek huquqni muhofaza qilish tashkilotlari manfaatlariga zid keladi.

Eng yirik ekologik falokatlar lokal (cheklangan) to‘qnashuvlar yuz berganida ham kelib chiqishi mumkin. 1991-yilda hamda XXI asrda Fors ko‘rfazidagi urushlar tufayli neft konlarining yoqib yuborilishi sayyoramiz ekologiyasi uchun ulkan xavf keltirib chiqargani ma’lum. Bu yong‘inlarni o‘chirish, shuningdek yer yuzini neft chiqindilaridan tozalash uchun ko‘plab mamlakatlarning harakati zarur bo‘ldi.

Sayyoramizdagi «resurslar chegaralari» bilan bog‘liq muammolarni muhokama qilishdan «chiqindilarning chegarasi» haqidagi masalalarga o‘tish kuzatilmoqda. Ekologik muammo davlatlar, shuningdek hukumatlararo va nohukumat tashkilotlari, transmilliy korporatsiyalar, havo havzasi, suv muhiti, yer yuzasi va konlarini muhofaza qilish sohasida ishlovchi ekspertlarning birgalikda ishlashini talab qiladi.

Fan-texnika taraqqiyoti ochib berayotgan imkoniyatlarga qaramay, Yer aholisi hamda insoniyat resurslaridan foydalanish muammosi jahon iqtisodiyotidagi eng muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Insoniyat soni jihatidan 1 mlrd.li chegaraga XIX asrning birinchi choragida, 2 mlrd.ga esa XX asrning o'rtasida yetib keldi, shundan so'ng har 11 yilda 1 mlrd. nafarga ortib bormoqda. Hozirgi paytda sayyoramiz aholisi 7 mlrd.ga yetgan. BMT keyingi 50 yil ichida u 9 300 mlrd.ga yetishi haqidagi ma'lumotni keltirgan. Buning aksi, ya'ni uch yovuz kuch: terrorizm, ekstremizm va separatizm, shuningdek mutaxassislarning tadqiqotiga ko'ra, urushlar, tabiiy ofatlar, oziq-ovqat yetishmasligi, shahar va qishloqlarning suv ostida qolib ketishi (masalan, Indoneziyadagi bundan besh yil avval sunami oqibatida qariyb 400 ming nafar insonlar qurbon bo'lgan) natijasida yer yuzi aholisi 2050–2060-yillarga kelib, 5 mlrd. nafarga tushib qolishi ehtimoli ham mavjud ekan.

Dunyodagi eng kambag'al 48 ta mamlakat va Afrikada SPID epidemiyasi tufayli aholi ko'payishi sekinlashayotganiga qaramay, 2050-yilga borib uch baravar ko'payadi. 1950–1955-yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarga aholi yillik o'sishining 79 % to'g'ri kelgan bo'lsa, 1990–1995-yillarda bu ko'rsatkich 95 % ga yetdi. Taxminlarga qaraganda, 2050-yilga borib aholining butun o'sishi «Janub mamlakatlari» evaziga yuz beradi, bu hol «Shimoliy va Janubiy yarimsharlar o'rtasidagi demografik uzilish (farq)» nomini oldi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarga tug'ilishning yuqori darajasi, ko'p bolali onalar va bolalar o'limi darajasining ham yuqoriligi Tug'ilish darajasining yuqoriligi kambag'allikni yanada ko'paytiradi xosdir. Biroq aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAMM ko'payganida, tug'ilish darajasi bolalar o'limi darajasidan ortadi, keyinchalik esa tug'ilish darajasi pasayadi va ko'tarilish yuz bermaydi. Rivojlanayotgan davlatlarda aholining yosharib borishi bu yerda yosh, mehnatga qobiliyatli ish kuchining eng ko'p qismi jamlanishiga olib keladi va uning ish bilan band bo'lishini ta'minlash keskin ijtimoiy muammoga aylanadi.

BMTning taxminlariga ko'ra, 2050-yilga borib rivojlangan mamlakatlarda (AQSh bundan mustasno) aholi soni kamayib boradi. Bu vaqtga kelib sayyoramiz aholisi qariydi, chunki inson umri davomiyligi ortadi. 60 yoshlilar hozirgiga qaraganda uch baravar, 80 yoshdan oshganlar besh baravar ko'payadi (masalan, hozirgi kunda 100 yoshdan oshgan aholi Yaponiyada 1 milliondan ortiq).

Nafaqa yoshidagi odamlarni ta'minlashdan iborat iqtisodiy muammo kuchayib bormoqda. Ularni hal qilish uchun turli variantlar, jumladan

pensiyaga chiqish yoshini oshirish Yevropa mamlakatlarida kuzatilmoqda.

Hozirgi dunyoda qishloq aholisining shaharlarga ko‘chishi ko‘payib borayotganligi kuzatilmoqda. 2030-yilga kelib, shaharliklar soni XXI asrning boshidagiga nisbatan ikki baravar ko‘p bo‘lishi kutilmoqda. 10 mln.dan ortiq aholiga ega bo‘lgan shaharlar ko‘payib bormoqda, bu esa ta‘minot va munitsipal boshqaruv muammosini keltirib chiqarmoqda. Dunyoning aksariyat mamlakatlari samarali natijalarga olib kelayotgan faol demografik (tug‘ilishni cheklash va boshqalarga oid) siyosatni ishlab chiqib, amalga oshirmoqdalar.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik tashkiloti (FAO) ma‘lumotlariga qaraganda, Yer yuzidagi ochlar soni taxminan 500 mln. nafar. Dunyoda ochlikning turli shakl va bosqichlaridan 1 mlrd.dan ortiq kishilar jabr tortmoqdalar.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda an‘anaviy ratsionlar yetarli miqdordagi kaloriyalarni ta‘minlashi mumkin, biroq ularda zarur miqdorda oqsil, yog‘ va mikroelementlar mavjud emas. Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon xo‘jaligiga jalb etilganligi, ularning tropik va texnik mahsulotlar yetishtirishga ixtisoslashganligi ko‘pincha ularning oziq-ovqat bilan ta‘minlanish darajasini pasaytiradi. Oziq-ovqat mustaqilligining yo‘qligi bunday mamlakatlarni tropik o‘simliklar yetkazib berish kvotalarini belgilovchi rivojlangan mamlakatlarning eksporti va savdo borasidagi siyosatiga tobe qilib qo‘yadi.

Oziq-ovqat muammosining global miqyoslari uni hal etishning butun sayyoramizdagi ishlab chiqarish resurslarini oqilona taqsimlash bilan bog‘lamoqda.

XX asrning ikkinchi yarmida jahon ziroatchiligida qishloq xo‘jaligini mashinalar tizimiga o‘tkazish, hosildor, gibrit urug‘lardan foydalanish, agrosanoat integratsiyasini keng rivojlantirish va agrosanoat kompleksining shakllanishi, biotexnologik inqilob kabi sifat o‘zgarishlari yuz berdi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning normal turmush uchun zarur oziq-ovqat bilan ta‘minlashdagi yutuqlaridan kompleks foydalanish oziq-ovqat muammosini hal qilish imkoniyatini ochmoqda.

2.3. Globallashuvning mohiyati

Xalqaro munosabatlarning globallashuvi muammosi asta-sekin eng yuksak darajalarda o‘tadigan ko‘plab ikki tomonlama va ko‘p tomonlama uchrashuvlarda eng asosiy (ustun) muammo sifatida baholana

boshlandi. Shu jihatdan qaraganda, 1999-yilda «yettilik» mamlakatlari rahbarlarining Germaniyaning Kyoln shahrida bo‘lib o‘tgan uchrashuvi Yakuniy kommyunikesining ikkinchi bandi, ayniqsa katta e‘tiborga sazovordir. Unda globallashuv jarayoniga rasmiy ta‘rif berilgan.

Birinchidan, globallashuv – g‘oyalar, kapital, texnika va tovarlarning butun dunyo bo‘ylab oqishi jadallashayotgan va keng miqyosga ega bo‘lib borayotgan murakkab jarayon sifatida baholangan.

Ikkinchidan, globallashuv ayrim jamiyatlardagi turli xalqlarni nihoyatda yaqinlashtirgan ochiqlik tufayli yuzaga kelgan tub o‘zgarishlar bilan bog‘liq.

Uchinchidan, globallashuv borgan sari kuchayib borayotgan ochiqlik va jadallik natijasi sifatida butun yer yuzida hayot darajasining yuksalib borishiga va qashshoqlik darajasining ancha pasayishiga yordam beruvchi shart-sharoit.

To‘rtinchidan, globallashuv integratsiyaning ishlab chiqarish samaradorligini rag‘batlantirish, imkoniyatlarni kengaytirish va iqtisodiyotni o‘stirish evaziga qo‘shimcha ish joylari yaratishga imkon berib ulgurgan va bunga davom etadigan yangi shakl sifatida qaralmoqda.

Beshinchidan, globallashuv axborot sohasidagi inqilob bilan chambarchas bog‘liq. Bu inqilob esa, o‘z navbatida, yangi jamiyatga o‘tishning shart-sharoiti hisoblanadi. Ya‘ni jahon sivilizatsiyasi borgan sari ko‘proq sanoatlashgan va postindustrial jamiyatdan axborotga asoslangan jamiyatga o‘tish tamoyiliga ega bo‘lmoqda.

Oltinchidan, globallashuv turli madaniyatlar va qadriyatlarning borgan sari kuchayib borayotgan o‘zaro ta‘siri sifatida demokratik jamiyatlar qurish, inson huquqlari va asosiy erkinliklarining kafolatlarini shakllantirish tamoyilida ifodalanadi.

Yettinchidan, globallashuv ayrim ishchilar, oilalar va elatlar uchun yashash joyini o‘zgartirish va moliyaviy noaniqlik bilan bog‘liq xavf-xatarning ortishida namoyon bo‘ladigan muayyan tahdidlarga ham ega.

Iqtisodiyotning globallashuvi, jahon iqtisodiyoti subyektlari o‘zaro aloqasining kuchayishi, iqtisodiy jazolar (savdodagi kamsitish, ekspansiya, embargo, qamal)ning noqonuniy yoki nomuvofiq qo‘llanishi xalqaro iqtisodiy xavfsizlik tizimini huquqiy asosda yaratish masalasini qo‘ymoqda. Bugun xalqaro javobgarlik taqiqlarning, boshqa davlat huquqlarining buzilishi, o‘z huquqlarini suiiste‘mol qilish, shuningdek majburiyatlarini bajarmaslikka ham tatbiq etilmoqda.

Mamlakatning ichki holati uning resurs salohiyatidan foydalanishi hamda davlatlararo munosabatlarda obro‘cini saqlashiga

bog‘liq bo‘lmoqda. Mamlakat hayoti va faoliyatini ta‘minlashning iqtisodiy asosini xo‘jalik bilan bog‘liq maqsad va niyatlar, moddiy xarajatlar va iqtisodiy faoliyatning natijalari tashkil etadi.

Global iqtisodiy siyosat – bu xalqaro siyosat bo‘lib, iqtisodiy resurslar, yaratilgan tovar va xizmatlarni dunyo mamlakatlari o‘rtasida taqsimlab, ulardan samarali foydalanishni maqsad qilib qo‘yadi. Bu siyosatda chetga kapitalni investitsiya sifatida chiqarib, uni kerakli serfoydah sohalarga joylashtirish uchun o‘zaro kelishilgan soliqlar, bank foizlari, boj to‘lovlari, kvotalar kabi vositalar ishlatiladi. Tovarlarning qimmatlashib ketishiga yo‘l bermaslik uchun ularga eksport etilgan chog‘idagi soliqlar qo‘yish bilan cheklanib, ular importiga soliq belgilanmaydi yoki g‘oyat oz belgilanadi. Bu ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish, deb yuritiladi. Masalan, qo‘shilgan qiymat solig‘i yoki aksiz soliqlari tovarlar chiqarilgan joyda undirilib, tovarlar import qilingan yerda olinmaydi. O‘zaro kelishuvlar asosida import qilingan texnologiya ham soliqdan ozod qilinadi. Xalqaro savdo-sotiqda yengillashtirilgan bojxona to‘lovlari qo‘llaniladi, bu to‘lovlar o‘zaro kelishilgan bo‘ladi. Masalan, Xalqaro savdo tashkiloti a‘zolari o‘zaro savdo qilganda, boj to‘lovlari tovar qiymatining 10 foizidan oshmasligi talab qilinadi. Bu tashkilotga a‘zo bo‘lmagan mamlakatlar bilan savdo-sotiq qilinganda, oshirilgan boj to‘lovlari qo‘llaniladi. Xalqaro kredit berish tartibi ham birgalikda belgilanadi. Bunga ko‘ra kredit kvotalari, kredit muddati va kredit uchun foiz o‘rnatiladi. Xalqaro kreditda kelishilgan foiz stavkasi *libor* deb yuritiladi. Liborni yirik London banklari o‘rnatadi, boshqa xalqaro banklar shunga qarab o‘z foizlarini belgilaydilar. Masalan, 2003-yil uchun libor 1,4 foiz qilib belgilandi. Boshqa banklar bundan bir oz yuqori bo‘lgan foizlar bilan kredit ajratadilar. Xalqaro kredit siyosatini yirik kreditor – qarz beruvchi mamlakatlar banklari hukumat ishtirokida amalga oshiradilar. Bular Parij va London qarz beruvchilar klubini tashkil etadi. Bu kredit siyosati kimga va qanchadan qarz berishni, qaysi qarzlarni kechib yuborish, qaysi qarzlarning to‘lash muddatini cho‘zishni belgilab beradi.

Yirik xalqaro korporatsiyalar davlat ishtirokida eksport va import kvotalari o‘rnatadilar. Bularga binoan, qayerga qancha tovarni eksport qilish, qayerdan qancha tovarni import qilish, eksport-import tartibi aniqlab beriladi. Integratsion ittifoqlarga kirgan mamlakatlarda, masalan, Yevropa Ittifoqida, davlatlararo eksport va import uchun qulay sharoit yaratib beriladi, bunda ayrim mamlakatlar tovarlarini diskriminatsiya qilish, ya‘ni kamsitishga yo‘l berilmaydi.

Global iqtisodiy siyosatni transmilliy, ya'ni millatlararo korporatsiyalar, xalqaro tashkilotlar, yetakchi davlatlar hukumati, davlatlararo hukumat va parlament belgilaydi. Bunga misol qilib, Yevroparlament, Yevropa Ministrlar kengashi qo'laydigan siyosatni olish mumkin. Bu siyosatda o'zaro va boshqalar bilan bo'ladigan iqtisodiy aloqalarni qaysi yo'nalishda va qanday tartibda bo'lishi ko'rsatiladi. Global siyosat umuman yoki ayrim sohalarga qo'llaniladi. Transmilliy korporatsiyalar faqat o'z faoliyati doirasidagi xalqaro siyosatni belgilaydi. Masalan, OPEK tashkiloti neftni qazib olish va qayta ishlash kvotalarini, uning narxini o'z siyosatiga binoan belgilaydi. Bu yerda qabul qilingan neft narxining yo'lagi o'rnatiladi. Xalqaro savdo birjalari jahon narxlarini o'rnatishga doir siyosatni qo'laydilar.

Xalqaro Valuta fondi, Jahon banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro institutlar valuta tartibini mustahkamlash, kreditni rivojlantirishga qaratilgan siyosatni qo'laydilar. Ular milliy valuta kursini barqarorlashtirish va valuta tahlikasini kamaytirish uchun milliy iqtisodiyotni rivojlantirib, eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kredit siyosatini qo'laydilar.

Global iqtisodiy siyosat davlatlararo mehnat migratsiyasiga ham taalluqli bo'ladi. Mehnat migratsiyasini tartibga solish uchun unga oid xalqaro qoidalar ishlab chiqiladi. Turli mamlakat hukumati va parlamentlari belgilagan migratsiya qoidalari bir-biriga yaqin turadi. Migratsiya oqimini nazorat qilish usullari ham kelishiladi, migratsiyaga oid axborot o'zaro almashib turiladi.

Global siyosat tabiiy ravishda globalizatsiyaning afzalliklaridan foydalanish, uning salbiy jihatlari kamaytirishga qaratiladi.

3. Globallashuv va ochiq iqtisodiyot

Tashqi iqtisodiy siyosat har qanday milliy iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlashning muhim vositasidir. Lekin bir-biridan farq qiladigan ikkita model mavjud.

Birinchi model jahon bozori bilan mustahkam bog'liq, eksportga ishlaydigan tarmoqlar ustunlik qiladigan ochiq iqtisodiyotni vujudga keltirishga qaratiladi.

Ikkinchi model bojxona to'lovlari baland va import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishlar ustunlik qiladigan xo'jaliklarni afzal ko'radi. O'zbekistonda xavfsizlik choralari ko'rilgan holda, vujudga keladigan ochiq iqtisodiyot modeli asos qilib olingan.

Umuman olganda, iqtisodiyot *ikki xil* bo'ladi. Bular *yopiq* va *ochiq* iqtisodiyot. Yopiq iqtisodiyot tabiatan an'anaviy iqtisodiyot, bu bozor tizimining o'tmishdoshidir. Yopiq iqtisodiyot shunday iqtisodiyotki, u o'z qobig'iga o'ralgan bo'lib, tashqi dunyo bilan aloqaga kirishmaydi, o'zini o'zi ta'minlash qoidasiga asoslanadi. Bunday iqtisodiyot konservativ, eskilikni uzoq saqlab qoladi, modernizatsiya (yangilanish)ga moyil bo'lmaydi. Shu sababli u istiqbolsiz hisoblanadi. Yopiq iqtisodiyot tarixiy o'tmish, lekin hozirgi sivilizatsiyadan ajralib, o'rmon, chakalakzorlarda yashab qolib ketgan qabilalarda uchraydi. Yopiq iqtisodiyotning aksi ochiq iqtisodiyotdir.

Ochiq iqtisodiyot – bu tashqi iqtisodiy aloqalarga kirishgan, ularning afzalligiga tayanib, rivojlanib boruvchi iqtisodiyotdir. «Ochiq iqtisodiyot» tushunchasi milliy iqtisodiyotga nisbatan qo'llaniladi. Uning ochiqlik darajasi turli mamlakatlarda har xil, albatta. Bu turli mezonlarga qarab aniqlanadi.

Hozirgi zamon jahon xo'jaligiga ochiq iqtisodiyot xosdir. Shu bois dunyoda ekstranaliyalar, ya'ni ijobiy yoki salbiy tashqi ta'sirlarga uchramagan mamlakatlar yo'q. O'zbekiston suveren davlat sifatida ochiq iqtisodiyotni shakllantirish yo'lida faol ish boshlagan. Bunda ochiq turdagi iqtisodiyotni shakllantirishning asosini mamlakatning dunyo xo'jalik aloqalarida, xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi tashkil etadi.

O'zbekiston ochiq iqtisodiyot sharoitida jahon xo'jaligi sikllarining bevosita ta'siriga duch keladi. Davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganidek, O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning tasdig'ini tashqi dunyo bilan aloqalarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko'magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integrasiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi hamda eksportining o'sib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

1. Iqtisodiyotning eksport salohiyati. Agar eksport YAIMga nisbatan qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik ochiqlik darajasi yuqori bo'ladi. Masalan, Gollandiyada eksport YAIMning $\frac{3}{4}$ qismiga teng bo'lganidan, bu yerda ochiqlik darajasi yuqori deb aytish mumkin. O'zbekiston iqtisodiyotining ham ochiqlik darajasi yuqori, chunki eksportning YAIMdagi hissasi deyarli 40 foizga yetadi.

2. *Iste'molda importning hissasi.* Agar bu hissa qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik iqtisodiyot ochiq hisoblanadi. Ammo buning uchun import kafolatlanishi kerak. Masalan, Yaponiya va Italiyada oziq-ovqat iste'molining 2/3 qismini import tashkil etadi. Importga qarab ochiqlik darajasiga baho berilganda aytilgan kafolatning bo'lishi nazarda tutiladi, chunki shunda iqtisodiy xavf-xatar yuzaga kelmaydi, aholi ta'minotida uzilishlar bo'lmaydi.

3. *Iqtisodiyotga yuboriladigan investitsiyalarda xorij investisiyalarining hissasi va chetga chiqarilgan kapitalning jami kapitaldagi hissasi.* Agar ichki investitsiyalarda xorijdan kelgan mablag'lar ulushi qanchalik katta bo'lsa, kapital tashqariga qanchalik ko'p chiqsa, shunchalik iqtisodiyot ochiq hisoblanadi.

4. *Mehnat resurslari tarkibida xorijdan kirib kelgan va xorijga chiqib ketgan ish kuchi hissasi.* Bu ko'rsatkich qanchalik kata bo'lsa, shunchalik mamlakat iqtisodiyoti ochiq hisoblanadi.

Xullas, milliy iqtisodiyotning ochiqligi tovarlar, kapital va ish kuchining naqadar mamlakatga kirib va undan chiqib turishiga qarab belgilanadi. Biroq bular ochiqlikni ta'minlashda har xil o'rin tutadi. Iqtisodiyoti kuchli mamlakatlarda ular iqtisodiyotining ochiqligini ko'p hollarda kapitalning chetga chiqishi, texnologiyalar eksporti ko'p bo'lgani holda iste'mol tovarlari importining kattaligi belgilaydi. Aksincha, iqtisodiyoti rivojlanib ulgurmayan mamlakatlarda uning ochiqligini belgilashda xomashyo va energiya resursi hamda iste'mol tovarlari eksporti, kapital va texnologiya importining ustuvorligi asosiy hisoblanadi. Iqtisodiyotning ochiqligi ichki ziddiyatlarga ega. Agar ochiqlik iqtisodi baquvvat mamlakatlarga ustuvorlik bersa, iqtisodi zaif mamlakatlarda chet elga qaramlik hosil etadi.

Ochiq iqtisodiyotlarning rivojlanishi jahon xo'jaligini yuzaga keltirgan (XIX–XX asrlar bo'sag'asida). Hozirgi zamon jahon xo'jaligiga ochiq iqtisodiyot xosdir. Shu bois dunyoda ekstranaliyalar, ya'ni ijobiy yoki salbiy tashqi ta'sirlarga uchramagan mamlakatlar yo'q.

O'zbekiston suveren davlat sifatida ochiq iqtisodiyotni shakllantirish yo'lida faol ish boshlaganini ta'kidladik. Bunda ochiq turdagi iqtisodiyotni shakllantirishning asosini mamlakatning dunyo xo'jalik aloqalarida, xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi tashkil etadi. O'zbekiston ochiq iqtisodiyot sharoitida jahon xo'jaligi sikllarining bevosita ta'siriga duch keladi. Davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganidek, «barchamiz bir haqiqatni anglab yetishimiz lozim – O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi».

Buning tasdig'ini tashqi dunyo bilan aloqalarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko'magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportining o'sib borishida hamda boshqa misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvning eng istiqbolli va maqbul bo'lgan yo'nalishini belgilash zarurati ham mavjud. Hozir ochiq milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligi bilan bog'lanishi tovarlar, ish kuchi va kapitalning erkin harakati orqali amalga oshiriladi. Bozor tizimiga o'tishda iqtisodiy o'sishning tashqi manbalari ichki manbalari bilan bir qatorda turgani uchun, yosh mamlakatlar muqarrar ravishda baynalminallashuv jarayoniga kirib borishlari kerak bo'ladi.

4. O'zbekistonning global muammolarni hal qilishdagi ishtiroki

Jahondagi konfrontatsiya qutblari o'tmishga ketishi bilan va O'zbekistonning mustaqillikni mustahkamlashdagi say'-harakatlari 21 yillik taraqqiyot yo'lida o'z natijalarini berdi. O'zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyektiga aylandi. Shu bois mamlakati-mizning tenglar ichra teng munosabatlarda xalqaro majburiyatlarni Osiyo taraqqiyot banki Prezidenti X. Kurodaning ta'biri bilan aytganda, «halollik bilan bajarayotgan davlatga aylandi». O'zbekistonning global muammolarni hal qilishdagi ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmida ishtirok etishi darajasi ortib bormoqda. Bu hol unga jahon xo'jaligining faol va teng huquqli ishtirokchisi o'rnini mustahkam egallashiga imkon bermoqda.

O'zbekistonning xalqaro tashkilotlarda faol ishtiroki ta'minlanmoqda. O'zbekiston BMT boshchiligida yangi tahdidlarga, jumladan xalqaro terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, narkotrafik, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatish, ekologik xavf va bir qator boshqa tahdidlarga qarshi kurashning global va samarali tizimlarini yaratish bo'yicha tashabbus ko'rsatishda davom etmoqda.

O'zbekistonning faol ishtirokida dunyo mamlakatlarining terrorizmga qarshi kurashuvchi tuzilmalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi va chuqurlashmoqda.

Terrorchilar sodir etayotgan inson huquqlarini qo'pol ravishda buzish hollari xalqaro hamjamiyatning alohida e'tiborini talab qilmoqda.

O‘zbekiston BMTda inson huquqlarini terrorizmdan himoya qilish borasida mustaqillikning dastlabki yillaridanoq tashabbusini bildirmoqda. O‘zbekiston BMTning shafeligida, AQSh va Rossiya ishtirokida qo‘shni Afg‘oniston aholisiga yordam ko‘rsatishga, uni ijtimoiy-iqtisodiy tiklashga ko‘maklashish etish bo‘yicha harakatlarni kuchaytirmoqda. O‘zbekiston global moliyaviy-iqtisodiy muammolarni tartibga solish zarurligi bo‘yicha takliflar bildirib kelmoqda.

Mamlakatimizda tug‘ilishni ko‘paytirish va O‘zbekiston aholisining umrini oshirish muammosini hal qilish birinchi o‘rindagi vazifalardan biriga aylantirildi. Shunday qilib, O‘zbekiston global muammolarni hal qilishda xalqaro darajada ham, milliy darajada ham faol ishtirok etmoqda.

5. Xalqaro va milliy iqtisodiy xavfsizlik, uning vazifalari va funksiyalari

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik deganda hamjamiyat faoliyatining real va imkoniyatdagi, ichki va tashqi tahdidlar ta‘sirida xo‘jalik manfaatlarining zarar ko‘rmasligi va mustaqilligini ta‘minlaydigan rejimi tushuniladi.

Iqtisodiyotning globallashuvi jahon iqtisodiyoti subyektlari o‘zaro aloqalarining kuchayishi, iqtisodiy sanksiyalar (savdoda kamsitish, ekspansiya, embargo, qamal), huquqiy asosda xalqaro iqtisodiy xavfsizlik tizimini yaratish vazifalarini qo‘yadi.

Bugun xalqaro javobgarlik taqiqlar, boshqa davlat huquqlarini buzish, o‘z huquqlarini suiiste‘mol qilish, shuningdek majburiyatlarni bajar-maslikka taalluqlidir.

Mamlakatning ichki holati resurs salohiyatidan foydalanish va xalqaro munosabatlardagi obro‘cini saqlashga bog‘liq. Mamlakat hayoti va faoliyatini bashoratlashning iqtisodiy asosini xo‘jalik maqsadlari va rejaları, moddiy xarajatlar va iqtisodiy faoliyat natijalari tashkil qiladi.

So‘nggi paytlarda xavfsizlikning umumlashtiruvchi ifodalaridan biri ***milliy xavfsizlikdir***. Milliy xavfsizlik – mamlakatning shunday holatiki, unda mamlakat (millat)ning hayotiy muhim siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ma‘naviy, harbiy va boshqa manfaatları ishonchli himoya qilinadi, real va imkoniyatdagi ichki va tashqi zararli ta‘sirlar, inqirozli holatlarning ta‘siri eng kam darajagacha pasayadi hamda shaxs, jamiyat va davlatning taraqqiyoti uchun qulay imkoniyatlar ta‘minlanadi. Xavfsizlikning mohiyatini anglashda ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv asosiy o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvni amalga oshirish hodisani obyektivlik va subyektivlik, moddiy va ma‘naviy jihatlar dialektikasi, uning jamiyat

ijtimoiy-madaniy makoniga taalluqligi nuqtai nazaridan tekshirishga imkon beradi.

Xavfsizlik iqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiyotni, aholining normal hayoti va faoliyatini, jumladan uning ish bilan bandligi, iqtisodiy jihatdan o‘shish imkoniyatini ta’minlovchi rivojlanish darajasida saqlashni bildiradi.

Global (texnologik, moliyaviy, informatsion) tizimlarning jadal rivojlanishi barcha darajalarda migratsiya oqimlarining keskin ko‘payishi bilan kechadi. Ushbu hol inson resurslarini boshqarishning yangi vazifalarini qo‘yadi. Mamlakatlar, ularning guruhlari, alohida mintaqalar o‘rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farq davlatlar ichida va o‘rtasidagi munosabatlarda ijtimoiy keskinlik bo‘lishini istisno etmaydi.

Jahon taraqqiyotiga xalqaro munosabatlar tizimining jadal o‘zgarishi xosdir. Unda ikki tamoyil ko‘zga tashlanadi:

1) iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-texnikaviy, ekologik va axborot omillari asosida xalqaro jarayonlarni ko‘p tomonlama boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida ko‘plab davlatlar va ularning integratsiyaviy birlashmalari iqtisodiy va siyosiy pozitsiyalarining mustahkamlanishi;

2) xalqaro hamjamiyatda AQSh yetakchiligidagi rivojlangan mamlakatlarning ustunlik qilishiga asoslangan tuzilmasi yaratilishi;

3) xalqaro munosabatlarning rivojlanishi tabiiy, texnologik va axborot resurslaridan foydalanishda, iqtisodiy afzalliklarni ta’minlash, tovarlarni sotish va kapitalni kiritish bozorlari uchun kurash raqobat bilan kechmoqda.

Iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi iqtisodiy jinoyatchilik – kapitalni noqonuniy olib chiqish va «halollash», soliq va boj manipulatsiyalari, narkotik moddalar va qurol-yarog‘ni qonunga xilof tarzda muomalaga chiqarish uchun sharoit yaratadi.

Bugungi jinoiy vaziyat miqyosi bo‘yicha ham, davlatning faoliyat ko‘rsatishi va xavfsizligiga tahdid solish darajasi bo‘yicha ham sifat jihatdan yangicha hodisa. Bu korrupsiya, jinoiy qatlamlar va davlat apparatining birlashib ketishi, transmilliy jinoyatchilik, terrorizm va narkobiznesni o‘z ichiga oladigan hodisadir.

Iqtisodiy xavfsizlik – mamlakatlararo iqtisodiy munosabatlarni aks ettiruvchi hamda milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi hisoblanuvchi murakkab iqtisodiy kategoriya. Bu milliy iqtisodiyotning mustaqilligi, barqarorligi, doimiy yangilanish va o‘zini takomillashtirib borishga intilishini ta’minlovchi shart-sharoitlar va omillar majmuidir.

Iqtisodiy xavfsizlikning bosh vazifasi – mamlakatning oliy milliy davlat manfaatlariga javob beradigan va milliy resurslarni nazorat qilishga asoslangan iqtisodiy mustaqil iqtisodiy siyosat olib borilishini ta'minlash. Iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiyotning barqarorligi, o'zini rivojlantirish va taraqqiy toptirishga qodirligini kafolatlashi kerak.

Milliy iqtisodiy xavfsizlikka milliy davlat manfaatlarining amalga oshirilishida izchillikni, xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqaror faoliyatini, aholining hayoti va faoliyati uchun normal sharoitni saqlash qobiliyati sifatida qarash lozim. Milliy iqtisodiy xavfsizlik xavf-xatar hamda iqtisodiy manfaatlarga bo'ladigan tahdidlarga qarshilik ko'rsatish tizimini yaratish borasidagi harakatlar majmuidir. Iqtisodiy xavfsizlik – milliy iqtisodiyotning ijtimoiy ehtiyojlarni samarali qondirish va normal iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash qobiliyati. Bu tashqi va ichki iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, harbiy, tabiiy va texnogen beqarorlashtiruvchi ta'sirlar chog'ida yuksak darajadagi barqarorlikni saqlash qobiliyatidir.

Jahon hamjamiyatiga integratsiya qilish (qo'shilish) jarayonida milliy iqtisodiyotning ochiqlik chegaralari milliy davlat manfaatlarini himoya qilish sohasi hisoblanadi. Bir tomondan, iqtisodiyotning ajralganligi va biqirligi mamlakatni jahon taraqqiyotining chetiga surib chiqaradi. Boshqa tomondan, to'liq ochiqlik milliy iqtisodiyotning tanazzuliga va resurslarning tor bir guruh mamlakatlardagi moliyaviy markazlarga oqib ketishiga olib keladi. Iqtisodiyotning ochiqligi hozirgi moliyaviy bozorlarning nomukammalligi, beqarorligi va keskin inqirozli tanazzullar tufayli ham muayyan chegaralarga ega bo'lishi kerak.

Globalashuv sharoitida O'zbekistonda makro va korporativ strategik boshqaruv va rejalashtirishning yangi shakllariga e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston mamlakat tovar ishlab chiqaruvchilari uchun ichki va tashqi bozorda qulay sharoitni ta'minlash maqsadida bozor xo'jaligining zamonaviy institutlari, korporativ boshqaruv mexanizmlari, moliya bank tizimini yaratish yo'lida chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bu geosiyosiy strategiya va globalashuv jarayonlari nuqtai nazaridan ichki va tashqi tahdidlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar:

Jahon xo'jaligi, xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro takror ishlab chiqarish jarayonlari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, yangi xalqaro iqtisodiy tartib, globalashuv, ochiq iqtisodiyot, mamlakatlar raqobatbardoshligi.

Savol va topshiriqlar:

1. Jahon xo‘jaligi nima?
2. Jahon xo‘jaligi qanday qaror topishini tushuntirib bering.
3. Jahon xo‘jaligining rivojlanish bosqichlarini eslang.
4. Jahon xo‘jaligi qanday mamlakatlardan tashkil topgan?
5. Globallashuv nima?
6. Global iqtisodiy siyosatning mohiyati qanday?
7. Globallashuvning rasmiy ta’riflarini keltiring.
8. Ochiq iqtisodiyot nima?
9. Xalqaro munosabatlarimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalari bilan tartibga solinadi?
10. Qanday xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni bilasiz?
11. Yangi xalqaro tartibning mazmuni va u tayanuvchi uch qoidani tushuntiring.
12. Antiglobalistlar harakati haqida gapirib bering.
13. Yopiq iqtisodiyot nima?
14. Globallashuv jarayonlarida O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy strategiyasi haqida nimalarni bilasiz?

Mavzuni chuqur o‘rganish instrumentariysi

Globallashuv – iqtisodiyot subyektlarining global miqyosdagi o‘zaro aloqadorligining kuchayishi, bularning aholi hayotining huquqiy, ijtimoiy, demografik, diniy va boshqa tomonlariga ta’siri.

Jahon xo‘jaligi – yagona jahon takror ishlab chiqarish jarayoni bo‘lib, xalqaro mehnat taqsimotiga asoslanadi hamda institutsionallashgan xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi orqali amalga oshiriladi.

Jahon takror ishlab chiqarish jarayoni deganda jahon xo‘jaligi doirasidagi ishlab chiqarishning muntazam yangilanib, o‘sib borishi tushuniladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar (XIM) mamlakatlar iqtisodiy subyektlarining xo‘jalik aloqalaridir.

Xalqaro mehnat taqsimoti – alohida mamlakatlarning muayyan ne’matlar va xizmatlar yaratishga ixtisoslashuvi va ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar muayyan turlarining ayirboshlashuvi tushuniladi.

Yopiq iqtisodiyot deganda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar muayyan mamlakat ichkarisida yaratiladi va o‘sha yerda sotiladi. Barcha ichki daromadlar va xarajatlar shu mamlakatning yalpi ichki mahsulotini tashkil etadi.

Ochiq iqtisodiyot deganda shunday makroiqtisodiyot tushuniladiki, unda yaratilgan mahsulotning bir qismi mamlakat ichki iste’moliga, qolgan qismi

xorijga eksport qilinadi.

Jahon xo'jaligi yoki jahon iqtisodiyoti – bu o'zaro bog'liq hamda jadal rivojlanishda bo'lgan va jahon iqtisodiy tizimini tashkil qilgan milliy xo'jaliklar majmui.

Jahon iqtisodiyoti tizimining asosiy elementlari quyidagilar: milliy xo'jaliklar, transmilliy korporatsiyalar, integratsiyaviy birlashmalar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar.

Jahon iqtisodiyoti tizimida davlatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari integratsiyalovchi, birlashtiruvchi rol o'ynaydi. Uning asosida moddiy va ma'naviy ne'matlarni xalqaro va milliy miqyosda ishlab chiqarish, ularni taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish yotadi.

Jahon iqtisodiyoti faoliyatining asosiy maqsadi – inson ehtiyojlarini qondirish.

Jahon xo'jaligining iqtisodiy tuzilishi – tarmoqlar, mintaqalar, korxonalar o'rtasidagi nisbat, shuningdek yalpi mahsulotning ishlab chiqarilishi va iste'molidagi mutanosibliklar.

Jahon iqtisodiyotining tarkibiga quyidagi elementlar kiradi: tarmoq, takror ishlab chiqarish, hududiy, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar (kichik tuzilmalar).

Iqtisodiy rivojlanish omillari – bular faol ishlatiladigan iqtisod elementlari: yer, mehnat, kapital, axborot, tadbirkorlik qobiliyati, fan-texnika taraqqiyoti (bu o'z navbatida qolgan mazkur omillar samaradorligining oshishini ta'minlaydi). Ushbu zarur omillarning kerakli joyda va kerakli vaqtda jamlanishi iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari bu iqtisodiy rivojlanishda yetakchi o'rin tutuvchi iqtisodiy subyektlar: tadbirkorlik, davlat.

Iqtisodiy rivojlanish sharoitlari – iqtisodiy taraqqiyotning borishini ta'minlovchi alohida, aniq holatlar. Zarur sharoitlarning yaratilishi iqtisodiyotning boshqarilishi, iqtisodiy vaziyatning tahlil qilinishi hamda bashorat qilinishi, samarali menejmentni ta'minlaydi.

Jahon iqtisodiyotining notekis rivojlanishi – jahon iqtisodiyotining notekis rivojlanishi uning davomiy xususiyatida namoyon bo'ladi (qisqa muddatli davr ikki yil, o'rta muddatlisi 5–7 yil, uzoq muddatli davr 40–60 yil). Sekinlashish (pasayish to'lqini) va tezlashish (yuksalish to'lqini) davrlari ketma-ket almashib keladi hamda bir qator omillarning dinamikasi (fan-texnika taraqqiyoti va boshqalar) bilan bog'liqdir.

Ishlab chiqarish va kapitalning baynalminallashuvi – milliy xo'jaliklarning ishlab chiqarish va investitsiyalar sohasida jahon bozoriga bog'liqligining kuchayishi.

Transmilliylashuv – korxonalar va ular filiallarining xorijda joylashtirilishi, uning xalqaro mehnat taqsimoti chuqurlashuviga imkon yaratishi.

Integratsiya – milliy xo‘jaliklarning yaqinlashuvi va o‘zaro moslashuvi.

Xalqaro ixtisoslashuv – bu bir yoki bir qancha mamlakatlarda o‘z ichki ehtiyojlarini va manfaatdor mamlakatlarning ehtiyojlarini qondirish uchun bir turdagi mahsulot ishlab chiqarilishining jamlanishidir.

Ixtisoslashuvning quyidagi shakllari ajratiladi:

1) ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi – tarmoqlararo yoki tarmoq va firma ichidagi;

2) hududiy – mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha, mintaqalar ichida;

3) predmetli (muayyan mahsulotni ishlab chiqarish);

4) detalli (detallar, qismlar, yarim fabrikatlar ishlab chiqarish);

5) texnologik (ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqarish).

Xalqaro mehnat taqsimoti – o‘zaro bog‘liq ishlab chiqarish tizimi bo‘lib, bunda turli mamlakatlarning korxonalarini muayyan tovarlar yoki xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashadilar va keyinchalik ularni o‘zaro ayirboshlaydilar. Xalqaro mehnat taqsimotida ishlab chiqarish bilan shug‘ullanmaydigan korxonalar (sug‘urta, investitsiya kompaniyalari, brokerlik, auditorlik, venchur (tavakkal), lizing korxonalar) ham ishtirok etadi.

Xalqaro kooperatsiya – ikki yoki undan ortiq mamlakat korxonalarining yagona ishlab chiqarish dasturini bajarish yoki mahsulotni texnik jihatdan takomillashtirish manfaatlarini yo‘lida birlashtirilishidir.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. Jahon xo‘jaligi yoki jahon iqtisodiyoti – bu bir-birini taqozo etuvchi, o‘zaro bog‘liq, jadal rivojlanishda bo‘lgan va jahon iqtisodiy tizimini tashkil qilgan milliy xo‘jaliklarning majmui bo‘lib, iqtisodiy yaxlitlikni tashkil etadi.

Jahon xo‘jaligi yoki iqtisodiyoti uch guruh mamlakatlar, ya‘ni iqtisodiyoti yuksak rivojlangan, iqtisodiyoti o‘rtacha rivojlangan va iqtisodiyoti qoloq mamlakatlardan iborat.

2. Hozirgi zamon jahon xo‘jaligiga ochiq iqtisodiyot xosdir. Shu bois dunyoda ekstranaliyalar, ya‘ni ijobiy yoki salbiy tashqi ta‘sirlarga uchramagan mamlakatlar yo‘q. O‘zbekiston suveren davlat sifatida ochiq iqtisodiyotni shakllantirish yo‘lida faol ish boshlagan. Bunda ochiq turdagi iqtisodiyotni shakllantirishning asosini mamlakatning dunyo xo‘jaligi aloqalarida, xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi tashkil etadi. Bu esa xavfsizlik choralarini ko‘rishni ham taqozo etadi.

3. Jahon xo‘jaligining vujudga kelishida xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashishining qaror topishi va rivojlanishi muhim shart-sharoit hisoblanadi. Shuningdek, globallashtirish, ya‘ni g‘oyalar, kapital, texnika va tovarlarning butun dunyo bo‘ylab oqishi jadallashayotgan va keng miqyosga ega bo‘lib borayotgan murakkab jarayon sifatida baholanmoqda.

4. XXI asrda globallashtirish ayrim ishchilar, oilalar va elatlar uchun yashash joyini o'zgartirish va moliyaviy noaniqlik bilan bog'liq xavf-xatarning ortishida namoyon bo'ladigan muayyan tahdidlarga ham egaligini nazarda tutish lozimki, bu har bir mamlakatdan iqtisodiy xavfsizlik choralarini ko'rishni talab etadi.

5. Globallashtirish har bir mamlakat milliy iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotining bir qismiga aylanib, undagi o'zgarishlarning bevosita ta'siriga berilish jarayonidir. Globallashtirishning mazmun-mohiyati iqtisodiyotning umumbashariy tus olishi, milliy iqtisodiyotlar rivojining tashqi iqtisodiy aloqalarga bog'liq bo'lib qolishidir.

21- MAVZU. XALQARO SAVDO. XALQARO VALUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI

1. Jahon bozori va xalqaro savdning ahamiyati

XIX asrning birinchi yarmida yirik fabrika-zavod sanoatining paydo bo'lishi ularning mahsulotlarini butun dunyoda o'tkazilishiga olib keldi. Davlatlararo savdning lokal markazlari yagona (umumiy) jahon bozoriga aylandi. Uning shakllanishi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshida yakunlandi.

Jahon bozori – bu xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv asosida shakllangan va iqtisodiy munosabatlar orqali o'zaro bog'langan alohida mamlakatlar milliy bozorlari majmuidan iborat. Mazkur bozor o'z tarkibiga savdoni, kapital harakatini, valuta munosabatlarini, ishchi kuchi migratsiyasini, ilmiy-texnika hamkorligini va boshqa shu kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Zero, ko'plab tashkil etilayotgan qo'shma korxonalar, erkin iqtisodiy zonalar, transmilliy kompaniyalar milliy xo'jaliklarni jahon bozori atrofida birlashtiradi.

Jahon savdosi xalqaro bozorda amalga oshirilishi hech kimga sir emas. Shu bois xalqaro savdo xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yetakchi shakli hisoblanadi. Jahon bozori, shuningdek xalqaro mehnat taqsimotiga asoslangan mamlakatlar o'rtasidagi barqaror tovar-pul munosabatlari sohasidir.

Jahon bozoriga quyidagilar xosdir:

1) davlat doirasidan tashqariga chiqariladigan tovarlar ishlab chiqarish;

2) tovar va xizmatlarning davlatlar o'rtasida ko'chib yurishi;

3) ishlab chiqarish omillaridan foydalanishning maqbullashuvi (optimallashuvi);

4) fanatsiya funksiyasi.

Tovar savdo-sotig'i ishlab chiqarish omillari narxi (bahosi) ning o'zgarishiga olib keladi, bu esa ishlab chiqarish omillarining mamlakatlararo ko'chib yurishini keltirib chiqaradi. Ishlab chiqarish omillari ko'chib yurishi bilan jahon savdosining hajmi o'sadi, chunki ular samaraliroq foydalanishi mumkin bo'lgan mamlakatlarga ko'chadi. Ishlab chiqarish omillari (kapital, mehnat)ning xalqaro mobilligi (ko'chib yurishi) iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtiradi.

Xalqaro savdo – dunyodagi barcha mamlakatlar tashqi savdosining majmuidan iborat xalqaro tovar-pul munosabatlari sohasidir. Xalqaro savdo ikki qarama-qarshi oqim – eksport va importdan iborat. Unga savdo saldosu va savdo aylanmasi xosdir.

Xalqaro savdoning xususiyatlari. Iqtisodiy resurslar harakatchanligining mamlakatlar o'rtasida ular ichkarisiga qaraganda ancha sust kechishi kuzatiladi. Har bir mamlakat xalqaro savdoda turli valutalardan foydalanadi. Jahon amaliyotida ichki savdoga nisbatan siyosiy aralashuv va nazorat qilish darajasi yuqoriligi kuzatiladi.

A. Smitning «mutlaq ustunlik» nazariyasi. Bunga ko'ra qanday tovarlarni eksport, qaysilarini import qilishning afzalliklari to'g'risidagi qarashlarini bayon qilishda milliy hamda jahon narxlari, ularning ishlab chiqarish xarajatlari mutlaq miqdori o'rtasidagi farqni hisobga oladi.

Boshqacha aytganda, mazkur nazariya xarajatlarning mutlaq miqdoriga asoslanadi. Unga ko'ra, har bir mamlakat o'zida kamroq xarajat sarflanadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish, ancha yuqori xarajatlarni taqozo qiladiganlarini esa tashqaridan sotib olishi lozim.

D. Rikardoning «nisbiy ustunlik» nazariyasi. Xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashishning umumiy tamoyillariga asoslanish orqali aniqlanadigan xarajatlar nisbatidagi farq (avvalo, tabiiy-geografik sharoitlari tufayli kelib chiqadigan) aynan olingan mamlakatda qaysi tovarlarni ishlab chiqarish, qaysilarini ayirboshlash orqali chetdan olish lozimligini ko'rsatadi.

Konyunktura deganda jahon iqtisodiyotining rivojlanishini, alohida olingan mamlakatning iqtisodiy ahvolini, bozorning biror sohasi rivojlanishini belgilovchi omillar va shart-sharoitlar majmui tushuniladi. Jahon bozorida iqtisodiy vaziyat keskinlashmoqda. XXI asrning dastlabki o'n yilligida xalqaro savdoda quyidagi o'zgarishlar ro'y berdi: jahon bozorida AQShning yetakchilik mavqei pasayib, boshqa rivojlangan

mamlakatlar, xususan Xitoy, Yaponiyaning mavqei ortib bormoqda. Jahon eksportida yangi industrial mamlakatlar (Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy, Braziliya, Meksika)ning hissasi ortmoqda. Ishlab chiqarish modernizatsiyasi natijasida xalqaro savdoning tovar tarkibi o'zgarib bormoqda. Jahon eksportida fan sig'imi, yuqori murakkab innovatsion ahamiyatli mahsulotlar, elektr-texnika uskunalari, transport vositalarining hissasi ortib bormoqda. Jahon bozori savdo aylanmasi tarkibida qishloq xo'jalik mahsulotlarining ulushi qisqarib, yengil sanoat mahsulotlari ulushi ortayotgani kuzatilmoqda. Jahon eksportida xizmatlar ulushi to'xtovsiz o'sib bormoqda.

Jahon narxlari – bu jahon savdo markazlari (London metallar birjasi, Chikago savdo birjasi kabi)ning baholari. Dunyo narxlarining quyidagi turlari ajratiladi:

- 1) erkin konvertatsiya qilinadigan va qilinmaydigan valutatdagi to'lovlar bilan amalga oshiriladigan bitimlar bo'yicha narxlar;
- 2) transfert (firma ichidagi) narxlar, bular tijorat siri hisoblanadi;
- 3) savdoga taalluqli bo'lmagan operatsiyalar bo'yicha narxlar.

Tovarlarga bo'lgan kontrakt (shartnomaviy) narxlarning quyidagi turlari qo'llaniladi:

- 1) qat'iy narx;
- 2) bitim ijro etilayotgan paytdagi muayyan (aniqlik kiritilgan) narx;
- 3) bozor narxining shartnomaviy narxdan muayyan miqdorga oshganini inobatga oluvchi narx;
- 4) o'zgaruvchan (sirpanuvchan) narx, u ayrim xarajatlarning o'zgarishiga bog'liq;
- 5) aralash narx (narxning muayyan qismi belgilab qo'yiladi, boshqasi esa o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'ladi).

Kontrakt narxlarning xususiyati tovarlarni yetkazib berish muddatini inobatga oladi va sotuvchini inflatsiya tufayli zarar ko'rishdan himoya qiladi. O'zgaruvchan narxlarni hisoblaganda e'lon qilinuvchi indekslar qo'llaniladi, bu esa xaridorni sotuvchining narxlarni oshirib ko'rsatishidan himoya qiladi.

Dunyo narxlarini iqtisodiy va statistik tahlil qilishda ularni ikki guruhga ajratish qabul qilingan: qayta ishlovchi sanoat mahsulotiga bo'lgan narx va xomashyo narxi.

Qayta ishlovchi sanoat mahsulotining eksport narxi uchun asos sifatida ishlab chiqaruvchilarning o'zlari to'liq va bevosita xarajatlar usullari bilan shakllantiradigan ichki bozor narxlari xizmat qiladi.

To'liq xarajatlar usuli bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari kutilayotgan foyda hajmi qo'shiladi hamda kutayotgan daromad aniqlanadi. Ushbu daromadning miqdori har oyda ishlab chiqariladigan mahsulotga bo'linadi. Shu tariqa har bir buyumning narxi aniqlanadi.

Bevosita xarajatlar usuli bo'yicha barcha xarajatlar yuk xati (shartli-doimiy) va bevosita (o'zgaruvchan) xarajatlarga bo'linadi. Bevosita xarajatlar usuli bo'yicha baho belgilash asosan bevosita (o'zgaruvchan) xarajatlarni inobatga oladi. Doimiy xarajatlar sotuv narxlari bilan o'zgaruvchan xarajatlar o'rtasidagi farq, ya'ni qo'shilgan (marginal) foyda bilan qoplanadi.

Firmalar e'lon qilingan (preyskurant) narxlarni o'zgartirmagan holda, ularni oshirishi yoki tushirishi mumkin. Buning uchun yetkazib berish shartlari, sifati, o'rami (qutisi) va shu kabilar uchun ustamalar yoki chegirmalar tizimidan foydalanadilar yoxud tovarlarni shartnomaviy narxlar bo'yicha sotadilar (ular sanoat uskunalari, yarimfabrikatlar va materiallar sotuvining 80–90 foizini qamrab oladi).

Xomashyo (energoresurslar, mineral xomashyo, o'g'itlar, qishloq xo'jalik mahsulotlari, rangli metallar) bozorida baho belgilashning xususiyatlarini asosiy ishlab chiqaruvchilarning narxlarini, eksport qiluvchi va import qiluvchi davlatlarning alohida rolini, talab va taklifni hisobga olish tashkil qiladi. Bir xil tovarlarga bo'lgan dunyo va ichki narxlar ko'pincha o'zaro mos kelmaydi. Tashqi bozorlarni egallash uchun ichki narxlardan yoki tovar qiymatidan ancha past bo'lgan demping narxlardan foydalaniladi. Demping xarajatlari tovarlarning ichki bozorda sotilishidan kelgan o'ta yuqori foydalar hisobidan qoplanadi.

Baho belgilashga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat:

1) eksport qiluvchi mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining darajasi (progressiv mahsulot, yuqori darajadagi mehnat unumdorligi, malakali ish kuchiga sarflanadigan xarajatlarning kamligi, asosiy kapitalning yuqori sur'atlarda yangilanishi narxlarni pasaytirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi);

2) narxlarning inflatsiya ta'sirida ko'tarilishi (ishlab chiqarish xarajatlarning ortishi mahsulot narxining o'sishiga olib keladi);

3) aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy mahsulot hajmi.

Shunday qilib, tovarlar ishlab chiqarishning milliy va baynalminal qiymati o'rtasidagi farqlarda namoyon bo'ladigan qiymat qonuni jahon bozoridagi bitimlar narxiga bevosita ta'sir ko'rsatadi hamda xalqaro mehnat taqsimotining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar xalqaro hisob-kitoblar asosida olib boriladi.

Xalqaro hisob-kitoblar – bu turli mamlakatlarning hukumatlari, korxonalari, muassasalari va fuqarolari o‘rtasida yuzaga keladigan pul talabnomalari va majburiyatlari bo‘yicha to‘lovlarni tartibga solish tizimidir. Xalqaro hisob-kitoblar turli shakllarda – naqd pulga, kreditga, oldindan bajarilgan to‘lov (avans to‘lov) bo‘yicha amalga oshiriladi. Jahon savdosida bitim narxining 80–90 foiz to‘lanadigan, qolgan qismi esa shartnoma bo‘yicha belgilangan muddatlarda naqd pul bilan to‘lanadigan kreditdan keng foydalaniladi. Xalqaro savdoda xizmatlar muhim o‘rin egallaydi.

Xizmat deganda moddiy mahsulotda o‘z ifodasini topmaydigan, balki iste‘molchi ega bo‘ladigan muayyan foydali samarada namoyon bo‘ladigan pulli faoliyat tushuniladi. Xizmat, shuningdek harakat natijasida va boshqa institutsional birlik bilan o‘zaro kelishuv asosida yuz bergan institutsional birlik holatining o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Ma‘lumot o‘rnida keltirsak, jahon savdo tashkilotining tasnifiga ko‘ra, 600 dan ortiq turdagi xizmatlar mavjud. Xalqaro valuta fondining to‘lov balansini tuzish bo‘yicha yo‘riqnomasiga muvofiq, to‘lov balansida inobatga olinadigan savdo xizmatlari tarkibiga 11 turdagi xizmatlar (transport, qatnov (sayohat), aloqa, qurilish, sug‘urta, moliya, axborot, litsenziyalar, biznes xizmatlar, madaniyat, hukumat tashkilotlariga tovarlar yetkazib berish) kiradi.

Iste‘molchiga yetkazib berish usullariga ko‘ra, xizmatlarning investitsion (bank, mehmonxona va boshqalar), savdo (transport, sug‘urta va boshqalar), savdo-investitsiya (aloqa, qurilish, axborot va boshqa) turlari ajratiladi. Xizmatlar omilli (kapital, mehnat, texnologiyalarning mobilligi bilan bog‘liq to‘lovlar) va omilsiz (xizmatlarning qolgan turlari) bo‘lishi mumkin.

Xizmatlar bilan savdo qilish xususiyatini sotuvchi va xaridorning bitim tuzish vaqtidagi aloqasining mavjudligi tashkil qiladi. Xizmatlar savdosida bitimlar tuzishning quyidagi shartlari mavjud:

- 1) xaridorning mobilligi (turizm, tibbiy yordam va boshqalar);
- 2) sotuvchining mobilligi (qurilish, audit va boshqalar);
- 3) bir vaqtning o‘zida sotuvchi va xaridorning mobilligi yoki xizmatning o‘zining mobilligi (xalqaro telefon so‘zlashuvi, uchinchi mamlakatdagi xalqaro konferensiya kabilar).

Jahon xizmatlar tarkibida xususiy sektor, transport xizmatlari yetakchi o‘rin tutadi. Xizmatlar qiymati hajmining 75 foizi rivojlangan mamlakatlar tomonidan eksport qilinadi. Jahon iqtisodiyoti nuqtai

nazaridan xizmatlarning eng muhim turi transport xizmatlaridir (tovar va yo'lovchilarni xalqaro miqyosda tashish).

Moliyaviy lizing ijaraga beruvchining xarajatlari qoplanishi va unga foyda ta'minlanishini nazarda tutadi. Ijarachi ijara muddati tugaganidan so'ng, ijara predmetini qaytarishi, uni qoldiq qiymati bo'yicha sotib olishi yoki yana ijaraga olishi mumkin.

Ishlab chiqarish (operativ) lizingi ijaraga olinayotgan texnikaning amortizatsiya davridan kamroq muddatga foydalaniladi, shu bois ijara stavkalari yuqoriroq bo'ladi. Lizing kompaniyasi uskunani xorijiy firmadan sotib olishi va o'z mamlakatiga ijaraga berishi (*import lizing*) yoki aksincha bo'lishi (*eksport lizing*) mumkin.

Xizmatlar bilan savdo qilishda konsalting xizmatlari (audit, boshqaruv maslahatlari va boshqalar), vositachilik keng tarqalgan.

Jahondagi turli mamlakatlar mahsulot ishlab chiqaruvchilari o'rtasidagi aloqaning asosiy shakllaridan biri *tashqi savdo faoliyatidir*. O'zbekistonning tashqi savdosi tovar, xizmat va kapital bilan mamlakatlararo almashuv (kreditlar olish)ni o'z ichiga oladi. O'zbekiston tashqi savdosining tarkibiga uning quyidagi turlari kiradi: eksport, import, tranzit savdo (tovarni xorijda sotib olish va ayni vaqtda uchinchi mamlakatga sotish), tovarlarni qayta eksport yoki qayta import qilish, litsenziyali savdo kelishuvlari va boshqalar.

O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishiga quyidagilar asosiy ta'sir ko'rsatmoqda:

- 1) jahon savdosining liberallasuvi (erkinlashuvi);
- 2) jahon savdo tashkiloti qoidalari bo'yicha jahon savdosining tartibga solinishi;
- 3) xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, texnika taraqqiyoti ta'sirida ishlab chiqarishning baynalminallasuvi.

O'zbekiston jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi oraliq o'rinni egallaydi. O'zbekiston jahon iqtisodiyotida sezilarli o'rin egallaydi. Dunyoning 210 dan ortiq mamlakatlari orasida O'zbekiston o'zining tabiiy resurs hamda ishlab chiqarish salohiyati bo'yicha o'ta muhim mavqega ega. 2012-yilning 1-yanvar ma'lumotlariga ko'ra, hududi bo'yicha 55-o'rinda, aholi soni bo'yicha dunyoda 39-o'rinni egallaydi. Kumush, volfram, fosfarit, kaliy tuzi, nodir metallar va boshqa qimmatbaho minerallar, jumladan, oltin zaxirasi bo'yicha 4-o'rinda, uran zaxirasi bo'yicha 7-o'rinda, molibden bo'yicha 8-o'rinda, misning aniqlangan zaxirasi bo'yicha 10-o'rinda, tabiiy gaz bo'yicha 14-o'rinni egallab, dunyoning yetakchi davlatlari

sirasiga kiradi. Ekin maydonlari bo'yicha 11-o'rinda turadi, kadmiy qazib olish bo'yicha 3-o'rinda, uran qazib olish bo'yicha 6-o'rinda, oltin va tabiiy gaz bo'yicha 8-o'rinda, molibden qazib olish bo'yicha kuchli o'n beshlikka kiradi.

Qorako'l ishlab chiqarish bo'yicha 2-o'rinda, paxta bo'yicha 5-o'rinda, ipak tola bo'yicha 6-o'rinda turadi. O'zbekiston oltingugurt kislotasi, azotli o'g'itlar, mineral moylovchi materiallar va parafin, paxta tolasi va gazlamalar, tomat pastasi, quruq mevalar, bog'dorchilik va uzumchilik mahsulotlari, jun yetishtirish bo'yicha dunyoning ikkinchi o'ntalik mamlakatlariga kiradi.

Paxta tolasi eksporti bo'yicha ikkinchi, uran eksporti bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. O'zbekistonning jahon savdosidagi ishtirokini kengaytirish shartlarini quyidagilar tashkil qiladi:

- 1) O'zbekiston tovarlarining dunyo bozorlaridagi raqobatbardoshligi;
- 2) tashqi savdo tuzilishining rivojlanishi;
- 3) milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanishi.

O'zbekiston savdosining geografik tuzilishi ikki asosiy yo'nalish bilan ajralib turadi: MDH mamlakatlari va uzoq xorij mamlakatlari.

Uzoq xorij mintaqalarining ulushi mamlakatimizning butun tashqi savdo aylanmasi o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lmoqda.

O'zbekistonning asosiy savdo sheriklariga quyidagilar kiradi: Germaniya, Niderlandiya, Italiya, Xitoy, Turkiya, Polsha, Shveysariya, Buyuk Britaniya, AQSh va Finlyandiya. Yevropa Ittifoqiga O'zbekiston tovar aylanmasining 52,1 foizi, MDH mamlakatlariga – 15,3 foizi, Osiyo va Tinch okeani mamlakatlariga 16,1 foizi to'g'ri keladi.

O'zbekistonning asosiy savdo hamkori Germaniya bo'lib, uning O'zbekiston tashqi savdosidagi ulushi 10 foizdan ortiqdir. O'zbekiston Germaniyaning tashqi savdo aylanmasida 14-o'rinni egallaydi (2 foiz). O'zbekistonning eksporti an'anaviy ravishda xomashyo yo'nalishiga ega. Eksport tarkibidagi qiymati bo'yicha yonilg'i-energetika tovarlarining ulushi XXI asrning birinchi o'n yilligida – 46,2 foizni, qora va rangli metallar – 15,5 foizni, mashina, uskunalari, transport vositalari – 10 foizni tashkil etdi.

O'zbekistonning importida asosiy o'rinni mashinasozlik (47,7 foiz), oziq-ovqat va uni ishlab chiqarish uchun xomashyo (17 foiz), kimyo mahsulotlari (18,1 foiz) tashkil qiladi.

Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi – O'zbekiston tashqi savdo aylanmasini xomashyo eksport qilish va iste'mol tovarlarini import qilishdan fan yutuqlarini o'z ichiga olgan,

yuqori texnologik tarmoqlarga, dunyoning yetakchi davlatlari, ayniqsa, Osiyo mamlakatlari bilan savdo-sotiqni rivojlantirishga yo'naltirish evaziga to'lov balansining maqbul tuzilishini ta'minlashdir. Bular O'zbekiston milliy iqtisodiyotining sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan xo'jalik aloqalarini kengaytirishdek obyektiv ehtiyoji bilan bog'liq.

O'zbekistonning 1990–2010-yillardagi tashqi savdo dinamikasi va tarkibi. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti mustaqillik qo'lga kiritilgunga qadar asosan sobiq Ittifoq respublikalarini xomashyo resurslari bilan ta'minlashga yo'naltirilgan edi. Iste'mol mahsulotlarining asosiy qismini respublikamizda ishlab chiqarish imkoniyatining mavjudligiga qaramasdan, ular chetdan keltiriladi.

1990-yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi 805,6 million dollarni, jumladan, eksport 442,7 million dollarni, import 362,9 million dollarni tashkil etgan. Ijobiy saldo esa 80 million dollar atrofida bo'lgan edi. O'tgan 1991–2011-yillarda tashqi savdo aylanmasi 27,1 barobar o'sdi, shu jumladan, eksport hajmi 29,5 barobar, import 24,2 barobar oshdi. Bu jarayonda tashqi savdoning ijobiy saldosi 53 barobar ortib, oltin-valuta zaxiralarining yuqori darajada o'sishi va milliy valuta barqarorligini ta'minladi.

Eksport va import tarkibi tubdan o'zgardi. O'zbekiston chetga xomashyo chiqaradigan va tayyor mahsulotlar, asosan iste'mol tovarlarini olib kiradigan mamlakatdan bugungi kunga kelib, qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlarni eksport qiladigan va texnik hamda texnologik modernizatsiya qilishga mo'ljallangan yuqori texnologiyalar asosidagi uskunalarni import qiladigan mamlakatga aylanib bormoqda.

1-jadval

O'zbekistonning tashqi savdo tarkibi

O'zbekistonning tashqi savdo tarkibi	1990-yil	2000-yil	2010-yil
Tashqi savdo aylanmasi, million dollar	805,6	6212,1	21842,2
Eksport, million dollar	442,7	3264,7	13044,5
Import, million dollar	362,9	2947,4	8799,7
Saldo (+, -), million dollar	79,8	317,3	4244,8
Eksport (foiz)	100	100	100
Paxta tolasi	59,7	27,5	11,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	3,9	5,4	9,7

Kimyoviy mahsulot va undan tayyorlangan mahsulotlar	2,3	2,9	5,1
Energiya va neft mahsulotlari	17,1	10,3	24,8
Qora va rangli metallar	4,6	6,6	6,8
Mashina va uskunalar	1,7	3,4	5,5
Xizmatlar	1,3	13,7	9,1
boshqalar	9,4	30,2	27,7
Import (foiz)	100	100	100
Mashina va uskunalar	12,1	35,4	44,1
Kimyoviy mahsulot va undan tayyorlangan mahsulotlar	9,7	13,6	14,3
Energiya va neft mahsulotlari	3,1	3,8	6,0
Qora va rangli metallar	10,2	8,6	8,4
Oziq-ovqat mahsulotlari	48,9	12,3	10,9
Xizmatlar	1,5	8,5	4,7
boshqalar	14,5	17,8	11,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.

Eksportning tovar tarkibini diversifikatsiya qilish tufayli mamlakatimiz paxta yakkahokimligi oqibati bo‘lgan paxta tolasi eksportiga qaramlikdan xalos bo‘ldi. Uning eksportdagi ulushi kamayib, 1990-yildagi 59,7 foizdan 2010-yilda 11,3 foizga tushdi. 1990-yilda eksportning umumiy hajmida xomashyo hisoblanmaydigan tovarlar ulushi 30 foizdan kamroq bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda bu ko‘rsatkich 70 foizdan ziyoddir.

Yurtimizda keyingi 10 yil mobaynida yengil avtomobillar eksporti 7,6 barobar, paxta kalavasi 4,7 barobar, trikotaj matolar 156 barobar, mineral o‘g‘itlar 11,7 barobar, neft mahsulotlari 6,5 barobar, sement 6,3 barobar, sabzavot va mevalar eksporti 14,1 barobar o‘sdı. Kichik biznes korxonalarining eksport hajmi 10 barobardan ko‘proq oshdi.

Mamlakatimiz iste‘mol tovarlari ishlab chiqaruvchilarining tezkor rivojlanishi natijasida import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi 4,5 barobar qisqardi. Masalan, oxirgi 15 yilda bug‘doy importi nafaqat to‘xtatildi, balki O‘zbekiston o‘z bug‘doyi va g‘allasidan tayyorlangan unni eksport qila boshladi. Go‘sh mahsulotlarini import qilish 5 barobar, sut mahsulotlari 2,6 barobar, qayta ishlangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 3,5 marta, alkogolli va alkogolsiz ichimliklar 16 va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari 7 barobardan ko‘proq, gilam va yerga to‘shadigan qoplamalar 10 marta, trikotaj matolar 10 barobar,

to‘qimachilik-trikotaj liboslari 11 marta, poyafzallar importi 11 barobar kamaydi.

2-jadval

Tashqi savdo aylanmasining geografik tarkibi

	1990-yil	2010-yil
Tashqi savdo aylanmasi	100	100
Uzoq xorij mamlakatlari	39,9	56,9
MDH mamlakatlari	60,1	43,1
Eksport	100	100
Uzoq xorij mamlakatlari	37,7	54,8
MDH mamlakatlari	62,3	45,2
Import	100	100
Uzoq xorij mamlakatlari	42,6	59,9
MDH mamlakatlari	57,4	40,1

Mashina va uskunalarning import tarkibidagi ulushi o‘sib, 1990-yildagi 12,1 foizdan 2000-yilda 35,4 foizga, 2010-yilda esa 44,1 foizga yetdi.

Tashqi savdo geografiyasi ham diversifikatsiya qilindi. Tashqi savdoda sobiq Ittifoq respublikalarining emas, balki uzoq xorij mamlakatlarining ulushi orta boshladi.

Milliy iqtisodiyot ochiqligining ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- 1) YAMM va ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda eksport kvotasi;
- 2) iste’mol tarkibidagi importning ulushi;
- 3) xorijiy investitsiyalarning barcha investitsiyalar umumiy hajmidagi ulushi.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida, ayniqsa, 2000-yildan boshlab faol eksport siyosati yuritildi. Natijada O‘zbekiston eksportining tuzilmasi o‘zgardi. 2-jadvalga qarang.

Ko‘plab ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tovarlari iste’molida importning ahamiyati oshdi. O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining liberallasuvi hamda import tarkibida mashina va uskunalarning hissasi ortib borib, 2011-yilda qariyb 60 foizga yetdi. Bu O‘zbekistonning ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish strategiyasi natijasidir.

O‘zbekistonga oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramlikni mustaqillik yillarida minimal darajaga tushirish tendensiyasi xos. Hozirda bu ko‘rsatkich 6,8–9,0 foizni tashkil etadi.

2010-yilda O‘zbekistonda import hajmi qariyb 9 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. O‘zbekiston o‘z hududiga olib kirilayotgan tovarlarning sifatiga, iste‘molchilarining huquqlarini himoya qilishga e‘tibor qaratmoqda.

MDH mamlakatlarida orasida O‘zbekistonning asosiy savdo sheriklari hamon Rossiya, Belarus Respublikasi, Ukraina va Qozog‘iston hisoblanadi.

O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasining umumiy hajmida Belarus 6,8 foizni, Ukraina 6,6 foizni, Qozog‘iston 3,4 foizni tashkil etadi.

O‘zbekistonning tashqi savdo siyosati. *Tashqi savdo siyosati – ichki bozorni himoyalashga, tashqi savdo hajmining o‘shishini rag‘batlantirishga, uning tuzilishini va tovar oqimlarining yo‘nalishlarini maqbul-lashtirishga qaratilgan tadbirlar tizimi.*

O‘zbekistonning tashqi savdo siyosatini himoya qilish va qo‘llab-quvvatlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o‘rni beqiyos.

Jahonda tashqi savdo siyosati erkin, bojsiz savdo darajasi hamda proteksionizm, ya‘ni o‘z bozorini importdan himoya qilish darajasi bilan ajralib turadi. Hozirgi tashqi savdo siyosati tashqi savdo almashuvining cheklovlari susaytirilgani, uning yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishga intilish, ya‘ni savdoni liberallashtirish bilan ajralib turadi (savdoning erkinlashtirilishi Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so‘ng barcha mamlakatlarda kuzatilgan nihoyatda keskin iqtisodiy o‘shishning asosiy sabablaridan biridir).

Dunyo mamlakatlarining JSTga qo‘shilish shartlari – uning hududida tovar va xizmatlar uchun erkin raqobat rejimini yaratish, ya‘ni boj tariflarini kamaytirish, mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilishda demping narxlar bo‘yicha subsidiya berishdan voz kechish. Ushbu shartlar dunyo mamlakatlarining aksariyati uchun bajarilishi qiyin vazifadir. Shu sababli JST dunyo mamlakatlariga ishlab chiqarishni, ayniqsa, qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni subsidiyalashtirishni tartibga keltirish, statistik hisobotning aksildemping choralarini qo‘llashni tavsiya etadi.

Umumiqtisodiy vazifalarga hamda JSTning talablariga muvofiq, dunyo mamlakatlarida tashqi iqtisodiy faoliyat tartibga solinmoqda, ya‘ni:

tashqi savdo operatsiyalarining litsenziya bilan tartibga solinishi, boj-tarif tartibga solinishi va tashqi savdo shartnomalarining tender (tanlov) asosida tuzilishi.

Dunyo mamlakatlarining ayrimlari kabi O‘zbekistonda ham eksportni rag‘batlantirishning JST talablariga va eksportni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tartibiga mos tizimi amal qilmoqda. Milliy eksportyorlarni bunday qo‘llab-quvvatlash quyidagi moliyaviy imtiyozlar tizimini o‘z ichiga oladi:

1) O‘zbekiston tijorat banklari eksportga yo‘naltirilgan tashkilotlarni aylanma mablag‘ bilan ta‘minlashi uchun kredit resurslari xususida kafolat majburiyatlarini berishi;

2) eksport kreditlarining uzoq muddatli tijorat tavakkallaridan kafolatlangan sug‘urtalanishi;

3) eksporterlarga eksport mukofotlari, milliy va xorijiy tashuvchilarning yuklarini tashish xizmatlarining qiymatidagi farqni to‘lab berish tarzidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri dotatsiyalar;

4) eksport kreditlarini imtiyozli shartlar bilan berish va hokazo.

Davlat kadrlar tayyorlash, dunyo bozori konyunkturasini o‘rganish, milliy eksporterlar va xorijdagi importerlar manfaatlarini himoya qilish xarajatlarining asosiy qismini o‘z zimmasiga olmoqda, shuningdek ularning tashqi bozordagi faoliyati uchun zarur siyosiy sharoitlarni ta‘minlamoqda.

O‘zbekistonning eksportni rivojlantirish borasidagi tashqi savdo siyosati, respublikaning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokining samarali modelini shakllantirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Uning asosiy yo‘nalishlari nafaqat eksportni kengaytirishni, balki raqobatdagi ustunliklar va jahon konyunkturasidan maqbul tarzda foydalanish asosida uning barqaror yuqori hajmlarini qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi. O‘zbekiston eksportini, jumladan tashqi bozorlarga tayyor mahsulotni, avvalo fan yutuqlari va yuksak texnologiyalarga asoslangan mahsulotlarni keng miqyosda olib chiqish borasida diversifikatsiya qilish yo‘lidan bormoqda. Shu bois davlatimiz rahbari Islom Karimov: «Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o‘rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so‘zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatbardoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlantirishni ta‘minlash, faoliyat ko‘rsatayotgan

quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobida amalga oshirilishi mumkin», – deb ta’kidlagani bejiz emas.

Tashqi savdo faoliyati davlat tomonidan tartibga solinib turiladi. Ayrim mamlakatlarda istisnoli hollarda joriy etishi mumkin bo‘lgan eksport bo‘yicha cheklov choralari belgilangan. Mavjud cheklovlar quyidagi toifalarga bo‘linadi:

1) ushbu tovarning olib chiqilishiga ruxsat etilgan eksporterlar doirasining cheklanishi;

2) xorijga olib chiqilayotgan tovarlarga kvotalar belgilanishi; eksport natijasida milliy manfaatlarga zarar yetishini istisno qiluvchi shartlarga rioya etish.

Eksportning miqdor bo‘yicha cheklanishi ichki bozor bo‘shab qolishining oldini olish va ushbu tovarning jahon bozorlarida haddan tashqari ko‘payib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida joriy etiladi.

Mamlakatlar o‘rtasida tovarlarning xavfsizligini tasdiqlovchi sertifikatlarni o‘zaro tan olish haqidagi bitimlar ham amal qiladi.

Iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlari va makroiqtisodiy barqarorlik ta’minlanishida tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish, xususan, mamlakatimiz eksport hajmini yanada oshirish va tarkibini yaxshilash muhim omil bo‘ldi. Respublikamizning tashqi savdo aylanmasi 1990–2011-yillar davomida 31,7 marta, jumladan, eksport 33,9 marta, import qariyb 29 marta oshdi. Natijada tashqi savdoning ijobiy saldosi 56,6 marta ortdi. Birgina «2011-yilda eksport mahsulotlari hajmi 2010-yilga nisbatan qariyb 15,4 foizga ko‘paydi va 15 milliard dollardan ko‘proqni tashkil etdi. Bu 2000-yilga nisbatan 4,6 barobar ziyoddir. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi 4 milliard 500 million dollardan oshdi»¹.

2. Jahon valuta bozori va uning asosiy xususiyatlari

Jahon xo‘jaligida valuta munosabatlari muhim rol o‘ynaydi. Chunki jahon miqyosida yagona to‘lov vositasi bo‘lmasa, xo‘jalik aloqalarini yuritib bo‘lmaydi. Bu vazifani jahon pullari bajaradi (AQSh dollari, Angliya funt strelingi, Yapon iyenasi). Shu bois davlatlararo hisob-kitob yagona valutada yuritilishi uchun aniq belgilangan valuta kursi talab etiladi. Valuta kursi barqarorligi taqozo etiladi.

¹ Qarang: *Каримов И. А.* 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги bosқичга кўтарадиган йил бўлади. – Т.: «Ўзбекистон», 2012. – Б. 6.

Ochiq iqtisodiyot valutalarning ayirboshlanishini yuzaga keltiradi, chunki buni tovarlar va resurslarning xalqaro harakati talab qiladi. Har bir mamlakatning milliy valutasini u uchun yagona to'lov vositasi bo'ladi, ya'ni tovarlar faqat shu valutaga sotiladi. Shu sababli savdo-sotiq, kapital chiqarish yoki kiritish, ish kuchi migratsiyasini uyushtirish uchun o'zga mamlakatlar valutasini ma'lum narxda sotib olish kerak bo'ladi. Shu bois jahon valuta-moliya tizimi amal qiladi.

Tashqi savdo balansida muttasil ijobiy saldogga erishish mamlakatimiz oltin-valuta zaxiralarining ortishiga va milliy valutamiz barqarorligi ta'minlanishiga olib keldi, xorijiy valuta talab etadigan yirik investitsiya dasturlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Xususan, investitsiya dasturlarini moliyalashtirishda ahamiyati o'sib borayotgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi kapitalining 2012-yil boshiga kelib 9 milliard dollardan oshib ketishida tashqi savdoda ijobiy saldogga erishilayotgani asosiy rol o'ynadi.

Jahon valuta-moliya tizimi – mustaqil amal qiluvchi yoki tovar va ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakatiga xizmat ko'rsatuvchi valuta-moliya munosabatlarining xalqaro bitimlar bilan mustahkamlangan shakli. Ushbu tizimning valuta elementlarini milliy valyutalar, ularning almashish va muomalada bo'lish shartlari, valuta pariteti, valuta kursi, uni tartibga solishning milliy va xalqaro mexanizmlari tashkil etadi.

Tizimning moliyaviy elementlari – xalqaro moliya bozorlari hamda moliyaviy vositalar – valuta, qimmatbaho qog'ozlar, derivativlar, kreditlar, majburiyatlar bilan savdo qilish mexanizmlaridir.

Derivativlar – bu chet el valutasini bilan bog'liq bo'lgan hosilaviy moliyaviy vositalar (valuta derivativlari) chet el valutasini oldi-sotdisi bo'yicha shartnomalar bo'lib, ularda belgilangan majburiyatlar muayyan muddat o'tgach yoki uning kursi o'zgarishiga bog'liq ravishda bajarilishi mumkin.

Jahon valuta-moliya tizimining alohida elementini xalqaro hisob-kitoblar tashkil etadi.

Jahon valuta bozori – xorijiy valuta va turli valuta qimmatliklarini olish-sotish bo'yicha operatsiyalar natijasida yuzaga keladigan barqaror iqtisodiy va tashkiliy munosabatlar tizimidir.

Valuta qimmatliklariga qonuniy to'lov vositasi bo'lgan pul belgilari, xazina chiptalari (kaznacheyskiye bileti), tangalar, banknotlar, shuningdek qimmatbaho qog'ozlar, majburiyatlar, qimmatbaho toshlar va metallar kiradi.

Valuta – xorijiy davlatlarning pul belgilari, shuningdek ularda ifodalangan to‘lov va kredit vositalaridir.

Qattiq valuta – iqtisodiy jihatdan qudratli davlatlarning pul birligidir.

Erkin almashadigan valuta – barcha egalari almashishlari mumkin bo‘lgan pul belgilari. Erkin almashadigan valuta amalda jahon puli vazifasini bajaradi.

Milliy valutaning almasha olishi ichki (milliy) va jahon bozorlarining aloqasini savdo, kapital va mehnat harakati iloji boricha erkin bo‘lganida, milliy pul birligining moslashuvchan kursi orqali ifodalanadi.

Barcha rivojlangan mamlakatlar valutaning *ichki konvertatsiyasi (almashuvi)*ga egadirlar, ya’ni xorijiy valuta sotuvchi va xaridorning kelishuvi asosida to‘lov sifatida qabul qilinadi. *Tashqi konvertatsiya* – rezidentlar xorijiy valutani norezidentlar bilan operatsiyada ishlata olishlari.

Tovar konvertatsiyasi – iqtisodiyotning tovarlar va xizmatlar uchun milliy va xorijiy valutada pul to‘lovchi rezidentlar va norezidentlarning talablarini qondirish qobiliyati.

Xorijiy valutaning milliy valuta bilan birga muomalada bo‘lishi (pul massasining 20 foizdan ortig‘i) ko‘pchilik davlatlarda mavjud.

AQSh valutasidan muomalada to‘lov va jamg‘arma vositasi sifatida foydalaniladi. Dollarlashtirish sharoitida hukumat ko‘pincha inflatsiyani nazorat qilish imkonidan mahrum bo‘ladi, chunki aholidagi dollarning hajmi aniq ma’lum bo‘lmaydi.

Valuta pariteti – qonun tartibida belgilangan va valuta kursining asosi hisoblangan ikki milliy valuta o‘rtasidagi nisbat.

Valuta kursi (nominal) – turli mamlakatlarning ikki pul birligi o‘rtasidagi nisbat bo‘lib, u ushbu valutalarning xarid qobiliyati bilan belgilanadi (bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan narxi).

Kross-kurs – ikki valuta kursi asosida hisoblangan uchinchi valutaning kursi. Ayni bir valutaning turli milliy bozorlardagi kross-kurslari kotirovkasidagi farq foyda olishga imkon beradi.

Valuta kotirovkasi (bevosita) – milliy valuta birligi valuta kursining xorijiy valuta birliklarining muayyan miqdori orqali ifodalanishi. Bilvosita kotirovka bevosita kotirovkaning teskarisidir.

Valuta kurslarini hisob-kitob qilishni osonlashtirish maqsadida milliy valutarlar bir-biriga nisbatan emas, balki AQSh dollariga nisbatan va u orqali jahondagi boshqa valutarlarga nisbatan kotirovka qilinadi, ya'ni kross-kursdan foydalaniladi (bunday operatsiyalar valuta orbitraji deb ataladi).

Tezkor (muddatli) shartnomalar uchun spot-kurs (ikki kun mobaynida amal qiladi) va forvard kursi (kelajakdagi muayyan sanaga qarab bir yilgacha bo'lgan muddatga) belgilanadi. Valuta kursi deganda, spot-kurs tushuniladi.

Real valuta kursi – o'z mamlakatidagi va valutasiga milliy valuta kotirovka qilinayotgan mamlakatdagi narx o'zgarishlarini inobatga olgan holda qayta hisoblangan nominal valuta kursi.

Qayd etilgan valuta kursi – valutarlar o'rtasida rasman belgilangan nisbat bo'lib, undan ko'pi bilan 2,25 foiz og'ishga yo'l qo'yiladi.

Nisbatan moslashuvchan valuta kursi – milliy valutarlar o'rtasidagi rasman belgilangan nisbat bo'lib, belgilangan qoidalarga muvofiq valuta kursining ozroq o'zgarib turishiga yo'l qo'yadi.

Suzib yuruvchi valuta kursi – talab va taklif ta'sirida erkin o'zgaruvchi valuta kursi. Uning turlari: tuzatish kiritiladigan, suzib yuruvchi, boshqariladigan (MB uning tez-tez o'zgarishiga qarab belgilaydi); mustaqil suzib yuruvchi (davlatning aralashmasligi).

Xarid qobiliyatining pariteti deganda, har bir mamlakatda narx darajasi o'zgarmagan taqdirda, turli valutarlarning xarid qobiliyati tengligi tushuniladi.

Boshqariluvchi suzish valuta kursi harakatini tezlashtirish yoki sekinlashtirish maqsadida valuta intervensiyalarini (xorijiy valuta sotib olish yoki sotishni) qamrab oladi.

Milliy valuta kursining tushib ketishi (devalvatsiya) tovarlar eksporti va kapital (xorijiy investitsiyalar)ning ko'payishiga olib keladi. Kursning o'sishi (revalvatsiya) esa teskari oqibatlariga – tovarlar importi va kapital eksportining ortishiga olib keladi.

Sudralib yuruvchi fiksatsiya – valuta kursining markaziy paritet atrofidagi o'zgarishlari foizi sifatida belgilanishi bo'lib, u ushbu kursning *muayyan kattalikka muntazam ravishda* kamayib borishini nazarda tutadi.

Valuta kursini belgilovchi omillar quyidagilar:

- 1) to'lov balansining taqchilligi (taqchillik kamayadi – kurs oshadi);
- 2) ichki narxlarning umumiy darajasi (narxlar tushadi – kurs ko'tariladi);

3) mamlakat ichidagi real foizli stavka (stavka kamayadi – kurs pasayadi);

4) inflyatsion mo'ljallar (inflatsiya sur'atlari pasayadi – kurs ko'tariladi);

5) import bojlari va kvotalari (ularning ortishi kursning o'sishiga olib keladi);

6) eksport bojlari va kvotalari (ularning kamayishi kursning o'sishiga olib keladi);

7) eksportga bo'lgan talab (talabning ortishi kursning o'sishiga olib keladi);

8) importga bo'lgan talab (talabning kamayishi kursning ortishiga olib keladi);

9) ishlab chiqarish, ichki talab, mehnat unumdorligi (ularning o'sishi kursning ko'tarilishiga olib keladi);

10) pul massasi, pul taklifi (ularning kamayishi kursning oshishiga olib keladi);

11) milliy va jahon bozorlarida valutaga bo'lgan ishonch darajasi (iqtisodiyotning holati, siyosiy vaziyat va yuqorida sanab o'tilgan omillar bilan belgilanadi).

Jahon valuta bozorining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) kapitalning erkin ko'chishi;

2) valutar oldi-sotdisiga nisbatan qat'iy kvotalarning, kursni tartibga solish bo'yicha ma'muriy choralarning yo'qligi;

3) bozorning transparentligi (shaffofligi) – uning barcha ishtirokchilariga valutar kurslari haqida doimiy axborot berilishi.

Kapitalning harakatini quyidagi elementlar sekinlashtiradi:

– valuta cheklovlari;

– ishtirokchilari uchun valuta bozorida foydalanishda tenglikning yo'qligi (milliy kompaniyalarga qaraganda yirik va millatlararo kompaniyalarda, tijorat banklariga qaraganda markaziy banklarda imkoniyatlarning ko'pligi);

– real miqyosdagi vaqtda markaziy banklarda intervensiyalarning hajmi to'g'risidagi axborotning yo'qligi.

Jahon valuta bozoriga muayyan xususiyatlar xosdir:

1) aniq jug'rofiy chegaralar va muayyan joylashgan o'rnining yo'qligi;

2) kecha-yu kunduz (surunkali) faoliyat ko'rsatishi;

3) cheklanmagan sonli ishtirokchilarning faoliyat ko'rsatishi;

4) tovar likvidligining yuqori darajasi.

Valuta bozorining konyunkturasi, avvalo, shu paytga kelib qaror topgan xorijiy valutaga talab va taklif bilan belgilanadi.

Valuta talabi tovar va xizmatlar uchun valuta tushumi bo'lgan, uni sotishga harakat qilayotgan eksportyorlardan, yuklar fraxti, sug'urtasi, brokerlik va bank komissiyalari uchun to'lov sifatida valutani olgan savdo kompaniyalari, sug'urta jamiyatlari va banklardan kelib chiqadi.

Bozor iqtisodiyotini tartibga solish tizimida valuta siyosati – xalqaro valuta va boshqa iqtisodiy munosabatlar sohasida joriy va strategik maqsadlarga muvofiq amalga oshiriladigan tadbirlar majmui muhim o'rin tutadi.

Rasmiy dogma darajasiga ko'tarilgan muayyan nazariya valuta siyosatining asosi bo'lib xizmat qiladi. Yuridik jihatdan valuta siyosati *valuta qonun hujjatlari*, ya'ni mamlakatda va undan tashqarida valuta qimmatliklari, shuningdek valuta muammolariga oid davlatlar o'rtasidagi (ikki tomonlama va ko'p tomonlama) valuta bitimlari bilan operatsiyalarning amalga oshirilishi tartibini belgilovchi huquqiy normalar majmui yordamida rasmiylashtiriladi.

Oltin-valuta zaxiralarining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni. Mamlakatlarning hukumatlari va markaziy banklari ixtiyorida turuvchi yuqori likvidli moliyaviy aktivlar *zaxira aktivlar (oltin-valuta zaxiralari)* deb ataladi. Oltin-valuta zaxiralari milliy valuta kursini qo'llab-quvvatlash, moliyaviy barqarorlik va mamlakat to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida zarurdir. Oltin-valuta zaxiralari tarkibiga monetar oltin, XVFDagi rezerv pozitsiya, SDR va valuta zaxiralari kiradi. Hozirda dunyoning aksariyat mamlakatlari oltin-valuta zaxiralari tarkibida valuta zaxiralari ustuvorlik qiladi va uning ulushi o'rtacha 95 foizni tashkil etadi. Zaxira valutilarga Markaziy bankda korrespondent schotlarga va xorijiy banklarda depozitlarga joylashtirilgan xorijiy valutilardagi mablag'lar hamda xorijiy emitentlarning qimmatbaho qog'ozlariga investitsiyalangan mablag'lar kiradi.

Davlat oltin-valuta zaxiralari xalqaro moliya tashkilotlari zaxira aktivlari bilan birga jahon oltin-valuta zaxiralarini tashkil etadi. Davlatning oltin-valuta zaxiralari quyidagi ikki vazifani bajarish uchun xizmat qiladi:

- mamlakatning tashqi to'lov qobiliyatini ta'minlash;
- milliy valuta kursining barqarorligini ta'minlash.

Jahon xo'jaligining barcha hududlaridagi iqtisodiy munosabatlarni qamrab olayotgan moliya bozorlarining globallashuvi sharoitida xalqaro

kapital harakati bilan bog‘liq operatsiyalarning jadal sur‘atlarda o‘shishi kuzatilmoqda. Natijada dunyo mamlakatlarida nodavlat sektorning tashqi qarzini to‘lash uchun zarur bo‘ladigan xorijiy valutaga bo‘lgan talabni qondirish Markaziy banklar valuta zaxiralarining muhim vazifasiga aylanib boryapti. Bu holat, avvalo, rezidentlari xorijiy valutada kredit va qarzlar olayotgan mamlakatlarga taalluqlidir.

Jahon iqtisodiyotida zaxira valutilarni emissiya qiluvchi mamlakatlar – zaxira markazlari alohida o‘ringa ega. Ushbu mamlakatlarining milliy valutilari xalqaro pul, jumladan, xalqaro kredit va zaxira markazi vazifasini bajaradi, ularning markaziy banklari esa valuta bozorlaridagi operatsiyalarga tez-tez aralashib turishadi. Shuning uchun yetakchi rivojlangan mamlakatlarning markaziy banklari va hukumatlari o‘z valutilari kursini barqaror ushlab turish uchun yirik valuta zaxiralariga ehtiyoj sezmaydi.

Tahlillar ko‘rsatishicha, xalqaro valuta operatsiyalarining tarkibida AQSh dollari yuqori salmoqni egallaydi. Bu AQShning dunyoda eng yirik iqtisodiyotga ega bo‘lganligi bilan izohlanadi. Ikkinchi o‘rinda yevro turadi va bu holat Yevropa Ittifoqining katta iqtisodiy salohiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi. *Funt sterling* va *iyenaning* xalqaro zaxiralar tarkibida kichik salmoqqa ega ekanligi ushbu valutilarning xalqaro hisob-kitoblarda keng qo‘llanilmayotgani bilan izohlanadi. Misol uchun, 2010-yilda xalqaro valuta zaxiralarining 95,5 foizi AQSh dollari, yevro, yapon iyeni va funt sterlingda shakllantirilgan. Shuningdek, AQSh dollarining xalqaro valuta zaxiralari tarkibidagi salmog‘i 2010-yilda 2000-yilga nisbatan 9,5 foizga pasaygan. Ayni paytda yevro va funt sterlingning salmog‘i mazkur davrda mos ravishda 7,9 va 1,3 foizga oshgani holda, yapon iyenasining salmog‘i 1,2 foizga pasaygan¹.

Markaziy banklar tomonidan oltin-valuta zaxiralarni jamg‘arish jahon moliya bozorlarining rivojlanishida muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu aktivlarni jamg‘arish bir tekisda sodir bo‘lmayapti va Osiyo mamlakatlarida moliyaviy resurslarning konsentratsiyalashuvi darajasining o‘shishi bilan amalga oshmoqda. Osiyo mintaqasining 10 mamlakati hissasiga (Xitoy, Yaponiya, Tayvan, Hindiston, Koreya

¹ Qarang: *Кондратов Д.* Перспективы евро для России: плюсы и минусы. //Экономист. – 2011. – № 2. – С. 61.

Respublikasi, Gonkong, Singapur, Tailand, Malayziya, Indoneziya) jahon oltin-valuta zaxiralarining uchdan ikki qismi to'g'ri keladi¹.

Tahlillar ko'rsatishicha, Osiyo mintaqasi mamlakatlari oltin-valuta zaxiralarni faol jamg'arishni 1997–1998-yillardagi moliyaviy inqirozdan keyin boshlashgan. Bu inqirozdan keyin tashqi iqtisodiy barqarorlik va inqiroz holatlarida mamlakatning to'lov qobiliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan strategik moliyaviy rezervlarni shakllantirish siyosati olib borildi.

Osiyo mamlakatlarida oltin-valuta zaxiralar hajmining o'sib borishi bilan bog'liq fundamental sabablarni tushuntirib berishda bu mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati qanchalik yuqori bo'lishiga qaramasdan, xorijiy kapital uchun yopiqligini e'tiborga olish muhim. XX asrning 90-yillaridan boshlab savdo operatsiyalari va moliyaviy aktivlar bilan operatsiyalar bo'yicha cheklovlar bosqichma-bosqich bartaraf etildi. Ushbu chora-tadbirlar, *bir tomondan*, tovarlar va xizmatlar eksportining o'sishiga, *ikkinchi tomondan esa*, rivojlangan mamlakatlardan to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalarning faol kirib kelishini ta'minladi. Natijada oxirgi o'n yillikda Osiyoning aksariyat mamlakatlarida to'lov balansining barqaror profitsiti kuzatildi va ichki bozorlarda xorijiy valuta, avvalo AQSh dollarining taklifi oshdi. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida ushbu mamlakatlarning markaziy banklari valuta intervensiyasini amalga oshirishga majbur bo'lishdi. Bu esa mamlakat valuta zaxiralarining jadal sur'atlarda o'sishiga olib keldi.

Mamlakat oltin-valuta zaxiralari hajmining ortishida asosiy omil valuta zaxiralari hajmining o'sishi bilan bog'liq bo'lib, XXI asrning birinchi o'n yilligi mobaynida Xitoyning valuta zaxiralari hajmi 15 baravarga oshgan. Mamlakatlarning oltin-valuta zaxiralari bajaradigan vazifaga o'xshash tarzda jahon oltin-valuta zaxiralari jahon iqtisodiyoti, xalqaro iqtisodiy munosabatlar va jahon valuta tizimining barqarorligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Jahon valuta zaxiralari xalqaro savdo va iqtisodiy munosabatlarning boshqa shakllariga xizmat ko'rsatish uchun yetarli miqdorda bo'lishi zarur. Bu zaxiralar xalqaro valuta likvidligining muhim omili hisoblanadi.

¹ Qarang: Мальшев П. Особенности управления резервными активами в странах Азии //Мировая экономика и международные отношения. – 2011. – № 3. – С. 29.

Xalqaro valuta likvidligi deganda, mamlakatning o‘z tashqi majburiyatlarini valuta cheklovlariga murojaat etmasdan, kreditorlar uchun maqbul to‘lov vositalarida to‘lay olish qobiliyati tushuniladi. Xalqaro valuta likvidligining holati quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

- jahon valuta zaxiralari hajmi;
- tashqi to‘lov majburiyatlari hajmi.

Jahon oltin-valuta zaxiralari hajmining yillik import qiymatiga nisbati xalqaro valuta likvidligi ko‘rsatkichi hisoblanadi. Xalqaro valuta likvidlik ko‘rsatkichi XVF tomonidan barcha mamlakatlar joriy operatsiyalar bo‘yicha valuta cheklovlarini qo‘llayotgan va kamsonli mamlakatlar (AQSh va Shveysariya) milliy valutaning erkin konvertatsiyasiga ega vaqtda qabul qilingan. Mamlakatlarning xalqaro likvidlik ko‘rsatkichi esa mos ravishda milliy oltin-valuta zaxiralari hajmining mamlakat yillik importi qiymati nisbatiga tengdir. Misol uchun, Rossiyada xalqaro likvidlik ko‘rsatkichining minimal darajasi uch oylik import qiymatiga teng, deb qabul qilingan. Tahlillar rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari (131,2 foiz), Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida (118,9 foiz) xalqaro valuta likvidligi ko‘rsatkichi yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda.

Hozirgi jahon valuta-moliya tizimi 1978-yilda XVF ustavida belgilangan quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- mamlakatlar o‘zlari tanlagan istalgan valuta kursidan foydalanishlari mumkin;
- XVF valuta kurslarining rivojlanishi va ularning belgilanishi haqidagi kelishuvlar ustidan qattiq nazoratni amalga oshiradi;
- oltinning rasmiy bahosi bekor qilinadi, u endi XVF va uning a‘zolari o‘rtasida to‘lov vositasi hisoblanmaydi;
- jahon valuta moliya tizimida qo‘shimcha zaxira aktiv sifatida maxsus qarz huquqlaridan (SDR – hisob-kitob birligi) foydalaniladi.

XVF ishtirokchilari bo‘lgan mamlakatlarning valuta kurslarini tartibga solish borasidagi harakatlari valuta kurslarining boshqariladigan tizimi yaratilishiga olib keldi. Valuta bozori hosil bo‘ldi, jahon pullarining etalonini SDR tashkil qiladigan bo‘ldi.

SDR quyidagi nisbatda olingan milliy valutalardan tashkil topadigan «valuta savati» asosida baholanadi: AQSh dollari – 42 foiz, Yevropa valutolari – 45 foiz, Yaponiya iyenasi – 13 foiz.

Oltinning pul o‘rniga o‘tmay qolishi (demonetizatsiyasi) uning narxi bozorda belgilanadigan tovarlardan biriga (o‘ta likvid aktivga) aylandi.

AQSh dollari, yevro va iyena dunyoning uchta asosiy valutasini hisoblanadi. Jahon bozorlarida Buyuk Britaniya rolining va funt sterlingning almashuv kursi pasayganligiga qaramay, mamlakat butun jahon bo'yicha tarqalgan bank muassasalarining rivojlangan tarmog'ini mavjudligi bois, uning zaxira valuta roli saqlanib qolmoqda.

Dollar boshqa valutar kotirovkasi chog'ida umume'tirof etilgan bazaviy valuta hisoblanib kelmoqda. Bugun jahon kapitali yuqori foyda keltirayotgan rivojlanayotgan mamlakatlardan yuqori darajada ishonchli bo'lgan rivojlangan mamlakatlarga qayta yo'nalmoqda, bu esa AQSh uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. AQSh investitsiyalarga yangi texnologiyalar yaratish, yangi texnologik prinsiplar ishlab chiqishda ko'maklashib, butun dunyo kapitalini o'ziga jalb etmoqda. Texnologik ishlanmalar tovar funksiyasiga ega bo'lib, boshqa mamlakatlar iqtisodiyotini Amerika iqtisodiyotiga bog'lamoqda, ularni moliyaviy va texnologik darajada tobe qilmoqda.

AQSh davlat boshqaruvining ustuvor vazifasi – boshqa mamlakatlardagiga qaraganda investitsiyalar uchun yaxshiroq sharoitni ta'minlash. AQSh o'z manfaatlarini ko'p yillar mobaynida o'zi yetakchilik qilayotgan bir qator xalqaro tashkilotlar yordamida amalga oshirmoqda. AQShning XVF va jahon bankini nazorat qilishi nafaqat ushbu tashkilotlarning ustav jamg'armalarida badallarining ko'pligi bilan, balki ularning oliy rahbarlari tarkibi bilan ham ta'minlanmoqda.

3. Xalqaro kreditning mohiyati va funksiyalari. **Tashqi qarz masalalari**

Hozirgi zamon dunyo iqtisodiyoti jahon kredit bozorisiz rivojlana olmaydi.

Jahon kredit bozori – mamlakatlar o'rtasida qarz (qarz) kapitali qaytarilishi, foiz to'lash, muddatlilik, ta'minlanganlik, shuningdek qimmatbaho qog'ozlar emissiyasi va oldi-sotdisi (shartlari) asosida harakatlanadigan, talab va taklif shakllanadigan bozor munosabatlari sohasidir.

Xalqaro kredit deganda, davlatlar, bir mamlakat banklari, firmalari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslari (kreditorlari)ning boshqa mamlakatlarning hukumatlari, banklari, firmalari (qarz oluvchilari)ga beradigan ssuda kapitali tushuniladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi xalqaro kredit quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Qayta taqsimlash. Kredit turli tarmoqlar yoki mintaqalardagi foyda darajasiga mo'ljallab olib, iqtisodiyotning stixiyali makroregulatori vazifasini bajaradi va jadal rivojlanayotgan obyektlarning ehtiyojlari qondirilishini ta'minlaydi. Kredit tizimini davlat tomonidan tartibga solishning eng muhim vazifalaridan biri – iqtisodiy ustun yo'nalishlarni oqilona aniqlash, jadal rivojlanishi milliy manfaatlar nuqtai nazaridan obyektiv ravishda zarur bo'lgan tarmoqlar yoki mintaqalarga kredit resurslarining kirib kelishini rag'batlantirish.

2. Jahon puli sifatida oltinni veksellar, cheklar, bank o'tkazmalari, depozit sertifikatlar, elektron pullar va mustahkam milliy valutar bilan almashtirish orqali xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi muomala xarajatlarini qisqartirish.

3. Kapitalning jamlanishi va markazlashuvini tezlashtirish: xorijiy kapitalning jalb etilishi, transmilliy korporatsiyalar va transmilliy banklarning tashkil qilinishi, katta korxonalariga imtiyozli xalqaro kreditlar berilishi sababli qo'shimcha foyda olinishi.

4. Tovar aylanishiga xizmat ko'rsatish. Kredit nafaqat tovar, balki pul muomalasining tezlashishiga ham faol ta'sir ko'rsatadi, uning pul muomalasi sohasiga veksellar, cheklar, kredit kartochkalarini kiritib, undan naqd pullarni siqib chiqaradi, bu esa ichki va xalqaro bozorlarda iqtisodiy munosabatlarni soddalashtiradi.

5. Mamlakat iqtisodiyotini tartibga solish – xorijiy investitsiyalarni, birinchi navbatda xalqaro valuta-kredit va mintaqaviy tashkilotlarning kapitallarini jalb etish. Bu yalpi milliy mahsulotning ko'payishi va taqsimlanishiga imkon yaratadi.

6. Fan-texnika taraqqiyotining tezlashuvi. Ilmiy markazlarning normal faoliyati (budjetdan moliyalashtiriladigani bundan mustasno), innovatsion jarayonlarni kreditlardan foydalanishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Xalqaro kredit munosabatlari ssuda kapitallari bozoridagi operatsiyalarni tashkil qilishda qat'iy rioya etiladigan quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

1. Kreditning qaytarilishi – kreditordan olingan moliyaviy resurslarni qarzdor foydalanishni tugatgan zahoti o'z vaqtida qaytarishi zarurligi, muayyan ssudani kredit tashkilotining hisobvarag'iga tegishli pul mablag'lari summasini o'tkazish orqali qaytarish. Bu bankning ustav faoliyatini davom ettirishning zaruriy sharti sifatida uning kredit resurslari yangilanishini ta'minlaydi.

2. Kreditning muddatliligi – uni qarz oluvchi uchun qulay bo‘lgan har qanday vaqtda emas, balki kredit shartnomasida qayd etilgan aniq belgilangan muddatda qaytarishning zarurligi. Mazkur shartning buzilishi kreditor uchun qarzdorga nisbatan olinadigan foizni oshirish, muddati yana oshirilgan taqdirda, sud tartibida moliyaviy talablar qo‘yish shaklida namoyon bo‘ladigan iqtisodiy jazolarni qo‘llash uchun yetarli asos hisoblanadi.

3. Kreditning pulli ekanligi (ssuda foizi) – qarzdorning bankdan olingan kredit resurslarini nafaqat qaytarishi, balki ulardan foydalanish huquqi uchun haq to‘lash ham zarurligi. Bunday to‘lovning iqtisodiy mohiyati kreditdan foydalanganlik evaziga olingan qo‘shimcha foydaning amalda qarzdor va kreditor o‘rtasida taqsimlanishida namoyon bo‘ladi. Kreditning pulli ekanligi qarzdorni undan eng samarali foydalanishga rag‘batlantiradi. Ushbu prinsip uchta asosiy funksiyani bajaradigan bank foizi kattaligini belgilash jarayonida amaliy ifodasini topadi:

1) yuridik shaxslar sof foydasining va jismoniy shaxslar daromadining bir qismini qayta taqsimlash;

2) ssuda kapitallarini tarmoq, tarmoqlararo va xalqaro darajalarda taqsimlash orqali ishlab chiqarish va muomalani tartibga solish;

3) iqtisodiyot rivojlanishining inqirozli bosqichlarida – bank mijozlarining pul jamg‘armalarini inflatsiyadan himoya qilish.

Ssuda kapitali yordamida olingan yillik daromad summasining berilgan kredit summasiga nisbati sifatida ta‘riflanadigan ssuda foizining stavkasi (normasi) kredit resurslarining narxi bo‘lib xizmat qiladi.

4. Kreditning ta‘minlanganligi – qarzdor o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini buzgan taqdirda, kreditorning mulkiy manfaatlarini himoya qilish zarurligi. Ushbu prinsip kreditlash: garov evaziga ssuda olish yoki moliyaviy kafolat shakllarida namoyon bo‘ladi. Umumiy iqtisodiy beqarorlik davrida bu prinsip ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

5. Kreditning maqsadli xususiyati – kreditoridan olingan mablag‘lardan maqsadli foydalanish zarurligi. Ushbu prinsip berilayotgan ssudaning aniq maqsadini belgilovchi kredit shartnomasining tegishli bo‘limida hamda ushbu shartga qarzdorning rioya etishini bank tomonidan nazorat qilishda amaliy ifodasini topadi. Ushbu majburiyatning buzilishi kreditning muddatidan oldin chaqirib olish yoki jarima (oshirilgan) ssuda foizi joriy etilishi uchun asos bo‘lishi mumkin.

6. Kreditning tabaqalashgan (differensial) xususiyati. Ushbu prinsip kredit tashkilotlarining ehtimoli tutilgan turli toifalardagi

qarzdorlarga tabaqalashgan yondashuvini belgilab beradi. Uning amalga oshirilishi muayyan bankning individual manfaatlariga ham, davlat yuritayotgan alohida tarmoqlar yoki faoliyat sohalari (masalan, kichik biznes)ni qo'llab-quvvatlash bo'yicha markazlashgan siyosatga ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Kreditning quyidagi shakllari farqlanadi:

1. Manbalari bo'yicha: ichki va tashqi.

2. Maqsadi bo'yicha:

1) tijorat kreditlari, ular tashqi savdo va xizmatlar bilan bevosita bog'liq;

2) moliyaviy kreditlar, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri kapital kiritish – obyektlar qurish, investitsiya loyihalari, qimmatbaho qog'ozlarni xarid qilish, tashqi qarzni qaytarish, valuta intervensiyasi;

3) oraliq – kapital, tovarlar, xizmatlarni olib chiqish yoki pudrat ishlarini bajarishning aralash shakllariga xizmat ko'rsatadigan kreditlar.

3. Turlari bo'yicha:

1) tovar kreditlari (to'lov muddatini kechiktirgan holda tovarlarni eksport qilishda);

2) valuta kreditlari (pul shaklida).

4. Qarz valutasida bo'yicha:

1) qarzdor mamlakat valutasida yoki kreditor mamlakat valutasida;

2) uchinchi mamlakat valutasida;

3) xalqaro hisob-kitob pul birligida.

5. Muddatlari bo'yicha:

– o'ta qisqa muddatli (bir sutka, bir hafta, uch oygacha);

– qisqa muddatli – bir yilgacha;

– o'rta muddatli – bir yildan besh yilgacha;

– uzoq muddatli – besh yildan ortiq.

Agar qisqa muddatli yoki o'rta muddatli kreditlar prolongatsiya qilinsa (uzaytirilsa), ular uzoq muddatli kreditga aylanadi, buning ustiga ko'pincha davlat kafolati beriladi.

6. Ta'minlanishi bo'yicha:

1) ta'minlangan (tovarlar, tijorat va moliyaviy hujjatlar, veksellar, qimmatbaho qog'ozlar, ko'chmas mulk, boshqa qimmatliklar, ba'zan oltin bilan);

2) blankli, ya'ni qarzdorning majburiyatlari (veksel) hisobidan (uni muayyan muddatda qaytarish sharti bilan).

7. Kreditni berish texnikasi nuqtai nazaridan:

- 1) qarzdor hisobiga yoziladigan moliyaviy naqd kreditlar;
- 2) aksept kreditlar – bankning qarz oluvchining vekseliga aksepti (roziligi) shaklida;
- 3) depozit sertifikatlar;
- 4) obligatsiya zayomlari;
- 5) konsorsion kreditlar.

8. Kreditorning toifasiga ko‘ra: firma (xususiy); bank; brokerlik; hukumat; xususiy korxonalar (jumladan banklar) va davlat ishtirokidagi aralash kreditlar; xalqaro moliyaviy institutlarning davlatlararo kreditlari. Banklarning xalqaro kreditlarini banklar eksportyorlar va importyorlarga odatda tovar va moddiy boyliklarni garovga olib beradilar. Kamdan-kam hollarda banklar yaqin aloqada bo‘lgan yirik firmalarga ham ta‘minlanmagan kredit beradi.

Brokerlik krediti firma va bank kreditlari o‘rtasida oraliq mavqega ega (brokerlar mablag‘larni banklardan qarzga oladilar).

Davlatlararo kreditlar hukumatlararo bitimlar asosida beriladi.

Qisqa muddatli kreditlar berish turlaridan biri tashqi savdoni kreditlashdir. Tashqi savdoda bank tomonidan beriladigan qisqa muddatli kreditlarning quyidagi shakllari ajratiladi:

1. Eksportda:

1) firma (tijorat) krediti – u yoki bu mamlakatning importyori xorijiy tovar ishlab chiqaruvchi yoki eksportyorga xarid uchun beradigan bo‘nak (avans);

2) bank krediti:

– eksportyor mamlakat tovarlari uchun beriladigan bo‘naklar (kredit eksportyorga eksport uchun mo‘ljallangan tovarlarni tayyorlash va jamlash bo‘yicha operatsiyalarni ilgari tayyorlangan tovarlar sotilishini kutmasdan davom ettirish imkonini beradi);

– yo‘lda kelayotgan tovarlar evaziga ssuda berish (transport hujjatlari – konosament, temir yo‘l yuk xati kabilar bilan ta‘minlanish evaziga);

– eksportyor mamlakatidagi tovarlar yoki tovar hujjatlari bo‘yicha bo‘nak;

– yirik eksportyor firmalar ish bo‘yicha uzoq muddatli ish aloqalarida bo‘lgan yoki kapitalida ishtirok etayotgan banklardan oladigan hamda tovarlar bilan ta‘minlanmagan bo‘nak.

2. Importda:

1) firma (tijorat) krediti:

– ochiq hisobvaraqlar bo'yicha kredit (eksportyor importyorning hisobvaraqlariga uning qarzi sifatida sotilgan va ortib-tushirilgan tovarlar qiymatini yozib qo'yadigan, importyor esa kreditni belgilangan muddatda qaytarish majburiyatini oladigan bitim asosida beriladi). Tovarlarni muntazam yetkazib berilganida va qarzlarni vaqti-vaqti bilan (oyning o'rtasi yoki oxirida) qaytarilgan taqdirda qo'llaniladi. Ushbu holda banklar savdo kontragentlarining hisob-kitoblarida texnik vositachilik vazifasini bajaradilar;

– *veksel krediti*. Eksportyor tovarni ortib jo'natganidan so'ng importyorga tratta (o'tkazma veksel) taqdim etadi. Importyor tovar hujjatlarini olgach, trattani akseptlashtiradi, ya'ni veksel uchun belgilangan muddatda haq to'lash majburiyatini oladi.

3.1. Tashqi qarz masalalari

Tashqi qarz – bu davlatning xalqaro moliya tashkilotlaridan, xorijdagi yirik banklardan va chet davlatlar hukumatidan olgan qarzi bo'ladi. Bu qarz ma'lum muhlatga olinib, daromadga qo'shiladi, to'lash vaqti kelganda, u davlatga xarajat keltiradi.

Ma'lumki, o'zining salbiy ta'siri bilan insoniyatga jiddiy tashvishlar tug'dirayotgan, jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini izdan chiqarayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz o'tgan asrning so'nggi choragidan e'tiboran rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi mutanosibliklar, xususan, real va moliyaviy sektor o'rtasidagi nisbatning buzilishi oqibatida vujudga kela boshladi. Bu mamlakatlardagi yirik moliyaviy muassasalar tomonidan o'zining korporativ manfaatlarini amalga oshirish maqsadida bank-moliya sohasidagi me'yor va tartiblarning qo'pol tarzda buzilishi, jahondagi ko'plab davlatlarning real aktivlaridan spekulyativ tarzda foydalanish orqali katta daromad olishga intilish va shu tariqa global moliyaviy qurilishda jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'yilishi, milliy iqtisodiyotdagi yalpi talabni qo'llab-quvvatlash, tobora o'sib borayotgan tashqi qarzlarni cheklash uchun «arzon pullar» siyosatining qo'llanishi kabi xatti-harakatlar yuzaga kelayotgan nomutanosibliklarning yanada kuchayishi va borgan sari keskin, muqarrar ravishda inqiroz holatini keltirib chiqaradigan darajada tus olishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, moliyaviy mablag'lardan spekulyativ maqsadlarda foydalanishda jahonning ko'plab mamlakatlaridagi moliyaviy muassasalar bilan bir qatorda, aholining ham ipotekali kreditlash tizimi orqali keng jalb

qilinishi mazkur jarayonlarning jadallashuviga va oxir-oqibatda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining boshlanishiga sabab bo'ldi. Prezidentimiz Islom Karimov o'zining «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarida birinchilardan bo'lib bu jarayonning yuzaga kelishi sabablarini quyidagi tarzda asoslab berdi: «Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidligi, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarining bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi».

Prezidentimiz jahon moliyaviy inqirozi ro'y bergan dastlabki palladayoq uning ta'sir darajasi, ko'lami va keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlariga yetarli baho berib: «jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida va, umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq», – degan xulosani chiqargan edi. Bunday haqqoniy xulosalar asosida O'zbekistonda 2008-yilning o'zida Inqirozga qarshi choralar dasturi ishlab chiqilib, unda belgilangan tadbirlarni izchil ravishda amalga oshirishga kirishildi.

Jahonning rivojlangan yetakchi mamlakatlari ham inqirozning oldini olish, uning ta'sir darajasini pasaytirish borasida turli ko'rinish va ko'lamlardagi harakatlarni boshlab yubordi. Ushbu chora-tadbirlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlash maqsadida jahondagi rivojlangan mamlakatlarning «*Katta sakkizlik*» va «*Katta yigirmalik*» guruhleri doirasida bir necha bor sammitlar o'tkazildi. Ushbu guruhlar haqida qisqacha ma'lumot keltirishni joiz deb topdik.

«*Katta yigirmalik*» guruhi (G-20) rasman 1999-yilda global iqtisodiyotdagi asosiy muammolarni muhokama qilish maqsadida tashkil etilgan. Ushbu guruh tarkibiga yalpi ichki mahsulot hajmi jahon yalpi ichki mahsulotning 90 foizini tashkil etadigan quyidagi 20 ta rivojlangan va rivojlanayotgan yirik davlatlar kiradi: Argentina, Avstraliya, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Italiya, Kanada,

Meksika, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabistoni, AQSh, Turkiya, Fransiya, JAR, Janubiy Koreya, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi.

«Katta yigirmalik» guruhi faoliyati jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ro'y berishi munosabati bilan yanada faollashdi. Xususan, guruh tomonidan inqirozga qarshi kurashish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish va bu boradagi muammolarni birgalikda hal etish maqsadida bir necha sammit o'tkazildi:

- AQSh (Vashington, 2008-yil noyabr; Pittsburg, 2009-yil sentabr);
- Buyuk Britaniya (London, 2009-yil aprel);
- Kanada (Toronto, 2010-yil iyun);
- Janubiy Koreya (Seul, 2010-yil noyabr);
- Fransiya (Kan, 2011-yil noyabr);
- Meksika (2012-yil iyun).

«Katta yigirmalik» guruhining navbatdagi sammitlari 2013-yili Rossiyada, 2014-yili Avstraliyada, 2015-yilda esa Turkiyada o'tkazilishi rejalashtirilmoqda. Guruhlar tomonidan o'tkazilgan chora-tadbirlar 2009–2010-yillarda dastlab ma'lum natija bergandek bo'ldi. Xususan, jahon iqtisodiyotida o'sish sur'atlarining pasayishi to'xtatildi, ayrim mamlakatlarda ishlab chiqarish o'sdi, investitsion faollik jonlandi. Biroq, ushbu chora-tadbirlardagi o'zaro mutanosiblik darajasining pastligi, inqirozga qarshi kurashish yo'llari va vositalarini qo'llashda izchillikning yo'qligi ularning samarasini keskin pasaytirib yubordi, aksariyat hollarda ko'zlangan natijalarga erishish imkonini bermadi. Bu borada Prezidentimiz jonkuyarlik bilan «Katta yigirmalik» guruhining o'zaro birgalikda qabul qilgan chora-tadbirlarining amaldagi samarasi sezilmayotgani, ko'p hollarda belgilangan qoidalarga amal qilmaslik, majburiyatlarni bajarmaslik oqibatida kutilgan natijalarga erishilmayotgani haqida qayta-qayta to'xtalib, jahon iqtisodiyotida barqaror o'sish sur'atlariga erishish yo'lida hozircha biron-bir jiddiy siljish ko'zga tashlanmayotganini ilgari ham ta'kidlagan edi.

«2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi» nomli ma'ruzasida ham davlatimiz rahbari Islom Karimov «Sakkizlik» va «Yigirmalik» deb atalgan mamlakatlar guruhlari doirasida qabul qilinayotgan qarorlarga qaramasdan, eng avvalo, jahon moliya-valuta tizimida inqiroz keltirib chiqarayotgan muammolarni hal etish va kerakli nazorat o'rnatish bo'yicha yagona iqtisodiy model hanuzgacha ishlab chiqilmaganini, bu esa jahon iqtisodiyotida hal qiluvchi o'rin

tutadigan yirik davlatlarni o‘z manfaatlarini o‘ylab, o‘z bilganicha harakat qilishga majbur etayotganini qattiq tanqid qilib o‘tdi.

O‘tgan davr mobaynida ahvolni yaxshilash maqsadida ko‘rilayotgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan, aksariyat davlatlarda o‘shish sur‘atlari va ishlab chiqarishning amalda pasayishi kuzatilayotgani va bunday jarayon davom etadigan bo‘lsa, u global miqyosda retsessiya holatiga, ya’ni iqtisodiyotning o‘shish o‘rniga davomli ravishda pasayib borishiga olib kelishi mumkinligi bashorat qilinayotgani ushbu ma’ruzada alohida qayd etildi.

Haqiqatan ham, 2011-yil inqirozning ikkinchi to‘lqini boshlanishi ehtimoli bilan bog‘liq bozor vahimalarining qaytadan kuchayish davri bo‘ldi. Ayniqsa, yevrohududagi qarzdorlik inqirozi chuqurlashib, uning bank tizimi va iqtisodiyotning real sektoriga tarqalishi kuzatildi. Yevropa siyosatchilari yakdil bir qarorga kelishda sustkashlik va layoqatsizlik ko‘rsatdilar. Investorlar qarzdorlik muammolarini tartibga solish mumkinligiga, banklarning barqarorligiga va Yevropa iqtisodiyotining istiqbollarga nisbatan ishonchni yo‘qota boshladi. Likvid mablag‘lar bozoridagi tanglik o‘shib borgan sari yangi mamlakatlar «muammoli»lar qatoriga qo‘shila boshladi. Va nihoyat, Yevropadagi umumiy iqtisodiy o‘shishda pasayish real tahdidga aylana boshladi.

O‘tgan yil, shuningdek, yuqori darajadagi qarzdorlik yukining mavjudligi va budjet taqchilligi aksariyat rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining umumiy belgisi ekanini ko‘rsatdi. Masalan, AQShning qarzdorlik hajmi YAIMga nisbatan 100 foiz darajasiga yaqinlashib, bu uzoq muddatli istiqbolda jahon iqtisodiyoti uchun keskin xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin. AQSh o‘zining yuqori kredit reytingidan mahrum bo‘lgani 2011-yilda jahon bozorlarining yangi bosqichga o‘tganidan darak beradi.

AQSh iqtisodiyotining bir tekis bo‘lmagan o‘shish dinamikasi, ishchi kuchi bozoridagi jiddiy muammolarning saqlanib qolishi, mamlakat korxonalarini sarflayotgan kapital hajmining pasayib borayotgani ham jahon iqtisodiyoti va moliyaviy bozorlarining istiqboliga nisbatan o‘ta shubha bilan qarashni kuchaytirdi.

Tashqi qarzning me‘yoridan oshib ketishi milliy iqtisodiyot rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Agar tashqi qarz bo‘yicha to‘lovlar mamlakatning tovar va xizmatlar eksportidan keladigan tushumning sezilarli qismi, masalan, 20–25 foizidan oshib ketsa, bu holat davlatning kredit bo‘yicha

reytingini pasaytirib yuboradi. Natijada chetdan yangi qarz mablag‘larini jalb etish mushkullashadi. Shunga ko‘ra, davlatlar muntazam ravishda tashqi qarzni tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshirib boradi.

Bunday chora-tadbirlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: mamlakatning oltin-valuta zaxirasi hisobidan qarzlarni to‘lab borish, kreditorlarning qarz to‘lov muddatlarini o‘zgartirishlari, ayrim hollarda ularning ma’lum qismidan voz kechishlariga erishish, qarzlarni mamlakatdagi ko‘chmas mulk, qimmatli qog‘ozlar, kapitalda ishtirok etish va boshqa huquqlarni sotish hisobidan to‘lash, xalqaro banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlardan yordam olish va h.k.

Hozirgi vaqtda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta’sirida, aksariyat mamlakatlarning tashqi qarzi haddan tashqari oshib ketayotganligini kuzatish mumkin (3- jadval).

3-jadval

**Rivojlangan mamlakatlarda tashqi qarz darajasi
(2011-yil 30-iyundagi holati)**

Mamlakat	Tashqi qarz, million AQSh doll.	Aholi jon boshiga tashqi qarz miqdori, AQSh doll.	YAIMga nisbatan tashqi qarz, foiz
Yevropa Ittifoqi	16080000	32092	108
AQSh	15033607	50000	100
Buyuk Britaniya	9836000	147060	416
Germaniya	5624000	63493	159
Fransiya	5633000	74410	188
Yaponiya	2719000	19300	57
Ispaniya	2570000	52588	165
Italiya	2684000	39234	101
Irlandiya	2357000	482340	1307,6

Izoh: AQSh bo‘yicha ma’lumot 2011-yil 18-noyabrdagi holatiga ko‘ra berilgan.

Jadvaldan ko‘rinadiki, tashqi qarz darajasining Irlandiyada 1307,6 foiz, Buyuk Britaniyada 416 foiz, Fransiyada 188 foiz va boshqa ko‘plab mamlakatlarda yillik YAIM hajmidan sezilarli darajada yuqori bo‘lishi mazkur mamlakatlarning moliya sohasida jiddiy muammolar mavjudligini anglatadi.

Respublikamizda chuqur tarkibiy islohotlar, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash, innovatsion texnologiyalarni keng joriy

etish bilan bog‘liq keng ko‘lamli islohotlar, oqilona tashqi qarz siyosati olib borilishi natijasida 2012-yil boshiga kelib O‘zbekistonning tashqi qarzlari yalpi ichki mahsulotga nisbatan hajmi 17,5 foizdan ortmaydi.

Prezidentimiz ma‘ruzasida jahon zaxira valutalarining beqarorligi, moliya-bank tizimi kredit qobiliyatining keskin pasayishi va investitsiyaviy faollikning susayishi bilan bog‘liq murakkab muammolar ko‘plab davlatlar iqtisodiyotining tiklanish va o‘shirish sur‘atlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgani ta‘kidlab o‘tiladi. So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan muammolarni asosan qo‘shimcha pul bosib chiqarish va moliya bozorini shunday pullar bilan to‘ldirish hisobidan hal etilishi ko‘zga tashlanayotgani, bu esa, o‘z navbatida, kelgusida jilovlab bo‘lmaydigan inflatsiyaga, ya‘ni qimmatchilikka, zaxira va milliy valutalarning qadrsizlanishiga va shu bilan bog‘liq og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligi qayd etildi.

4. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar

Maqsadlari va vazifalari barcha mamlakatlar xalqlarining manfaatlariga mos keladigan davlatlararo universal tashkilotlar. Bunday tashkilotlar – Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimining asosiy organlari (Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash, Vasiylik bo‘yicha kengash, Xalqaro sud) hamda mustaqil xalqaro iqtisodiy tashkilotlar hisoblanuvchi ixtisoslashgan muassasalar – Xalqaro valuta fondi (XVF), Xalqaro Tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), uning sho‘ba tashkiloti bo‘lgan Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMK), Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU), Xalqaro savdo tashkiloti (XST), BMTning Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi (YUNKTAD) kabilardir.

Asosan moliyaviy-iqtisodiy masalalarni hal etish uchun tashkil qilingan **mintaqaviy va xalqaro xususiyatga ega davlatlararo tashkilotlar** – Yevropa Tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB), jahondagi turli mintaqalarning sanoati rivojlangan mamlakatlarini birlashtiruvchi Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik tashkiloti (ITHT)dir.

Jahon bozorining ayrim segmentlarida faoliyat ko‘rsatuvchi **xalqaro iqtisodiy tashkilotlar** – Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK), har xil xalqaro bitimlar (kofe, to‘qimachilik tovarlari kabilar bo‘yicha).

«Katta sakkizlik» (Kanada, GFR, Fransiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Italiya, AQSh, Rossiya kabi) jahon iqtisodiyotiga ta‘sir ko‘rsatuvchi **yarim rasmiy birlashmalar orqali namoyon bo‘ladigan**

xalqaro iqtisodiy tashkilotlar. Ushbu mamlakatlar global xususiyatga ega bo'lgan dolzarb muammoli masalalarni ko'rib chiqadilar va umumiy harakat yo'nalishini ishlab chiqadilar. Ularning qarorlari ko'pincha XVF, XTTB va boshqa xalqaro iqtisodiy tashkilotlar siyosatini belgilab beradi (masalan, Rossiya 1998-yildan boshlab sammitlarda «Katta sakkizlik» a'zosi sifatida ishtirok etmoqda.

Yarim rasmiy tashkilotlarga banklararo darajada faoliyat ko'rsatuvchi kreditor mamlakatlarning Parij va London klublari kiradi.

Turli xil savdo-iqtisodiy, valuta-moliya, kredit, tarmoq va ixtisoslashgan tashkilotlar. Asosiy davlatlararo universal tashkilotni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimi tashkil qiladi. U o'z asosiy va yordamchi organlari bilan birga, 18 ta ixtisoslashgan muassasani, Xalqaro atom energiyasi bo'yicha agentlikni (MAGATE), bir qator dasturlar, kengash va komissiyalarini qamrab oladi.

Jahon savdo oqimlarini shakllantirishda asosiy rolni **Jahon savdo tashkiloti (JST) o'ynaydi.** JSTning huquqiy asoslarini Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitim (1994-yilgi tahrirda), Xizmatlar bilan savdo qilish haqidagi bosh bitim (GATS), Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlarini to'g'risidagi bitim (TRIPS) tashkil etadi.

JST 1947-yilgi Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitim vorisi sifatida 1995-yilning yanvaridan boshlab faoliyat ko'rsatmoqda va 140 tadan ortiq davlatni o'z ichiga olgan. JSTning bosh vazifalari: xalqaro savdoni erkinlashtirish, iqtisodiy o'sishga ko'maklashish hamda odamlarning iqtisodiy farovonligini oshirishdan iborat.

BMTning Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (YUNKTAD) Bosh Assambleyaning organi sifatida 200 ga yaqin davlatlarni birlashtiradi. YUNKTADning asosiy vazifalari – rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida savdoni kengaytirish, tavsiyalar ishlab chiqish, jahon savdosi bo'yicha BMT muassasalarining faoliyatini muvofiqlashtirish.

Xalqaro bojxona tashkiloti – XBT (Bryussel, 1953-y.) 140 dan ortiq davlatlarni birlashtiradi. Uning asosiy vazifasi – jahon tovar aylanmasini (oborotini) tezlashtirish uchun yagona bojxona qoidalarini ishlab chiqish va yoyish, bojxona organlarining nazorat va fiskal funksiyalarini ta'minlash. XBTning oliy rahbarlik organi – Kengash, doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organi esa, kotibiyat.

XBT Tovarlarini tavsiflash va kodlashtirish bo'yicha uyg'unlashgan tizimni, ya'ni bojxona tariflari va tashqi savdo statistikasini tuzish uchun

tovarlarning universal klassifikatorini ishlab chiqqan va joriy etgan (1983 -y.).

Xalqaro savdo palatasi – XSP (Parij, 1919-y.)ning maqsadi – savdo, investitsiyalar va ochiq bozorlarni, kapitallarning harakatini erkin rag‘batlantirish orqali jahonda tadbirkorlikning rivojlanishiga ko‘maklashish, erkin xalqaro savdoni rivojlantirish maqsadida iqtisodiyot va huquqqa oid samarali choralar ko‘radi, xususiyl tadbirkorlik tizimini himoya qiladi.

Xalqaro valuta fondi (XVF) 1947-yilda tashkil qilingan. Uning oliy rahbarlik organi – Kengash, ijroiya organi esa (24 nafar ijro etuvchi direktordan iborat) Direktoratdir. XVF shartlanganlik prinsipiga asoslanadi. Ushbu prinsipga ko‘ra, mamlakatlar muayyan iqtisodiy siyosatni yuritgan taqdirda, kredit olishlari mumkin. XVF kreditini olish shartlari: budjet taqchilligining kamaytirilishi, pul massasining o‘shish sur‘atlarini pasaytirish, kreditlar bo‘yicha olinadigan foiz stavkalarini inflatsiya darajasiga nisbatan ko‘tarishdan iborat.

XVF xalqaro valuta tizimining institutsional asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon banki guruhi o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan va rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam ko‘rsatish maqsadiga ega beshta institutdan tashkil topgan. Guruhga quyidagilar kiradi:

1. *Xalqaro Tiklanish va taraqqiyot banki yoki Jahon banki (XTTB)* (Vashington, 1945-y.). XTTBning ustav kapitali – 142 mlrd. dollar.

2. *Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi – XTA* (Vashington, 1960 -y.). XTTB (Jahon banki)dan kredit olishga qurbi yetmaydigan eng kambag‘al davlatlarga o‘ta imtiyozli kreditlar beradi.

3. *Xalqaro moliya korporatsiyasi – XMK* (Vashington, 1956-y.). Xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash (texnik yordam ko‘rsatish, maslahatlar berish) orqali rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o‘shishiga ko‘maklashadi. Ustav kapitali – 1,4 mlrd. dollar.

4. *Investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlik – MAGI* (Vashington, 1988 -y.). Investorlarga notijorat tavakkallardan zarar ko‘rmaslikni kafolatlab, rivojlanayotgan davlatlarga xorijiy investitsiyalarning kiritilishini rag‘batlantiradi. Ustav kapitali – 1 mlrd. dollardan ortiq.

5. *Investitsiya nizolarini tartibga solish bo‘yicha xalqaro markaz – INTSBXM* (Vashington, 1966-y.). Arbitrajda ko‘rib chiqish orqali

hukumatlar va xorijiy investorlar o'rtasida nizolarning tartibga solinishiga ko'maklashadi, investorlarga yuridik maslahat beradi.

Jahon banki ishtirokchilarining barcha loyihalari moliyaviy yordamdan eng samarali foydalanish maqsadida siyosiy-iqtisodiy ekspertizadan o'tkaziladi.

Xalqaro hisob-kitoblar banki – XHB (Bazel, 1930-y.). Milliy banklar, asosan Yevropa davlatlari milliy banklarining harakatlarini muvofiqlashtiradi.

Yevropa Tiklanish va taraqqiyot banki – YETTB (London, 1991-y.). Markaziy, Sharqiy Yevropa hamda sobiq Ittifoq mamlakatlariga bozor islohotlarini o'tkazish bosqichida yordam ko'rsatadi. Bankning aksionerlik kapitali – 15 mlrd. yevro. YETTB XTTB hamda kreditorlarning Parij va London klublari bilan hamkorlik qiladi.

Osiyo Taraqqiyot banki – Osiyo va Uzoq Sharq mintaqasiga bevosita qarzlarni berish hamda texnik jihatdan ko'maklashish orqali mazkur mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishini rag'batlantirish maqsadida 1966-yilda tashkil etilgan bank.

Ixtisoslashgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar:

Sanoat rivojlanishi bo'yicha birlashgan millatlar tashkiloti – YUNIDO (Vena, 1967-y.). Sanoat rivojlanishi va hamkorligiga, rivojlanayotgan mamlakatlarning industrilashishiga, o'tish davri iqtisodiyotidagi mamlakatlar sanoatining sog'lomlashishiga ko'maklashadi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jalik tashkiloti – FAO (Rim, 1945-y.) quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi: ocharchilikni tugatish, ovqatlanish va turmush sifatini yaxshilash, qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilikni takomillashtirish, qishloq hududlarini rivojlantirishga ko'maklashish.

Intellektual mulk xalqaro tashkiloti – VOIS (Jeneva, 1977-y.). Boshqa xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish yordamida intellektual mulkning qo'riqlanishiga ko'maklashadi.

Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik – MAGATE (Vena, 1956-y.). Atom energiyasidan harbiy maqsadlarda foydalanmaslik kafolatlarini o'rnatadi va ta'minlaydi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti – XMT (Jeneva, 1919-y.). Quyidagi maqsadlar uchun faoliyat ko'rsatadi: to'liq bandlikni ta'minlash, inson huquqlariga rioya etish, mehnatkashlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash,

tadbirkorlar va mehnatkashlar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish. XMTning doimiy kotibiyati Xalqaro Mehnat byurosidir.

Professional ixtisoslashgan tashkilotlar – Xalqaro buxgalterlar jamiyati (Chikago), Standartlashtirish bo'yicha xalqaro qo'mita, Marketing bo'yicha xalqaro federatsiya (Parij) va boshqalar.

Tarmoq tashkilotlari – Xalqaro reklama uyushmasi (Nyu-York), Ishbilarmonlik aloqalari bo'yicha xalqaro uyushma (Akron, AQSh), Fuqaro aviatsiyasi bo'yicha xalqaro tashkilot (Monreal) va boshqalar.

Tayanch tushunchalar:

Xalqaro savdo, jahon bozori, valuta bozori, valuta operatsiyalari, valuta ayirboshlash, valuta kursi, valuta konvertatsiyasi, xalqaro kredit, proteksionizm, repatriatsiya, to'lov balansi, tashqi qarzi.

Savol va topshiriqlar:

1. Jahon bozori nima?
2. Valuta bozori nima?
3. Valuta qimmatliklariga nimalar kiradi?
4. Jahon valuta bozorga xos xususiyatlarni sanab bering.
5. Valutani tartibga solish deganda nimani tushunasiz?
6. Valuta operatsiyalari tartibini qanday qonun belgilab berishini tushuntiring.
7. Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida qanday funksiyalarni bajarishini tushuntirib bering.
8. Qaysi xalqaro valuta-kredit va moliya tashkilotlari yordam tariqasida qarzlarni beradi?
9. O'zbekiston tashqi qarzining YAIM va eksportdagi ulushi qancha?

Mavzuni chuqur o'rganish instrumentariysi

Jahon bozori – bu xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv asosida shakllangan va iqtisodiy munosabatlar orqali o'zaro bog'langan, alohida mamlakatlar milliy bozorlari majmuidan iborat.

Xalqaro savdo – dunyodagi barcha mamlakatlar tashqi savdosining majmuidan iborat xalqaro tovar-pul munosabatlari sohasi bo'lib, tashqi savdo aylanmasi, eksport va import kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Tashqi savdo aylanmasi – ma’lum bir davrda (odatda bir-yilda) amalga oshirilgan eksport va import operatsiyalari umumiy summasi.

Savdo siyosati – bu davlatning tashqi savdo hajmini tartibga solishga qaratilgan iqtisodiy siyosatining alohida yo‘nalishi.

Tashqi savdo siyosati – ichki bozorni himoyalashga, tashqi savdo hajmining o‘shishini rag‘batlantirishga, uning tuzilishini va tovar oqimlarining yo‘nalishlarini maqbullashtirishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

Proteksionizm siyosati – erkin savdoni cheklashga, ya’ni tashqi savdo hajmini ta’rifli va ta’rifsiz to‘siqlar orqali tartibga solish.

Valuta – bu alohida mamlakatlar pul birligidir.

Valuta kursi – bir mamlakat yoki mamlakatlar guruhi pul birligining boshqa mamlakatlar pul birligida ifodalanadigan narx.

Valuta konvertatsiyasi – har bir milliy valutani boshqa valutaga almasha olish xususiyatidir.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. Xalqaro savdo iqtisodiy resurslarining harakatchanligiga har bir mamlakatning turli valutalaridan foydalanishi xos. Keyingi yillarda xalqaro savdoda keskin o‘zgarishlar ro‘y berdi. Jahon eksportida yangi industrial mamlakatlar (Singapur, Xitoy, Janubiy Koreya va h.k.) hissasi ortib bormoqda. Jahon bozori savdo aylanmasi tarkibida yengil sanoat mahsulotlarining ulushi ortmoqda. Shuningdek, jahon eksportida xizmatlar ulushining o‘shishi kuzatilmoqda.

2. Xalqaro savdo-sotiq kapital va ish kuchi harakati, mamlakatlararo pul oqimini hosil etmoqda. XXI asrda kapitalning chiqarilishi o‘smoqda. Bu iqtisodiy o‘shishga xizmat qiladi, chunki bu bilan investitsiya uchun pul topish muammosi yechildi, kapital ketidan ilg‘or texnologiya va boshqaruv tajribasi kirib keladi, kapital qabul qilgan mamlakatda ishlab chiqarishning tarkibi yangilanadi, ya’ni modernizatsiya yuz beradi. Bu mamlakatni jahon bozoriga olib chiqadi, bandlik oshadi, aholining daromadi ko‘payadi.

3. Xalqaro savdo-sotiq valuta ayirboshlashni taqozo etadi. Bu shakllangan valuta kursiga binoan bo‘ladi. Valuta kursi (narxi o‘zaro almashiladigan milliy valutalarining xarid qobiliyatiga va valuta bozoridagi talab va taklif nisbatiga bog‘liq bo‘ladi. Valutalarining almashinishi ularning konvertatsiyasi bo‘ladi.

4. Очиқ иқтисодиётга «таққосий афзаллик қонуни» ҳосдир. Таққосий афзалликни халқаро меҳнат тақсимои юзага келтиради. Бу қонунга кўра нимани ишлаб чиқариш қулай бўлса, шу экспорт қилиниши

ва аксинча, нимани ишлаб чиқариш қулай бўлмаса, у импорт қилиниши керак.

5. Ochiq iqtisodiyot xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtiradi. Bu milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotining bir qismiga aylanib qolishini bildiradi. Erkin savdo hududlarida iqtisodiy va valuta sohasidagi birlashuv yuz beradi (masalan, Yevropa ittifoqi).

22-MAVZU. O‘ZBEKISTONNING JAHON XO‘JALIGIGA INTEGRATSIYALASHUVI

1. Xalqaro integratsiyaning mohiyati, shart-sharoitlari va darajalari

O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan keyin davlat va xalq manfaatlariga muvofiq keladigan mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni o‘tkazish imkoniyati tug‘ildi. Respublikaning tashqi dunyodan bir asrdan ortiq vaqt mobaynida ajralib qolganligiga barham berildi. U xalqaro huquqning teng huquqli subyekti bo‘ldi. Bu esa jahon mehnat taqsimotida munosib o‘rinni egallashga sharoit yaratdi¹.

Mustaqillik yillarida yuqoridagi integratsiyalashuv qonun-qoidalariga rioya etganligi bois, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni va ahamiyati muntazam ravishda ortib bormoqda. Buning asosi haqida to‘xtalib, Prezident Islom Karimov: «Izchil yuqori o‘sish sur‘atlari, yurtimizda barpo etilgan bank-moliya tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan yangilanish va o‘zgarishlar, umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, shuningdek, Xalqaro valuta jamg‘armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki singari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e’tirof etilmoqda»², – deb alohida ko‘rsatib o‘tgan.

¹ Qarang: *Каримов И. А. Ўзбекистон бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли // Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т., 1996. – Б. 157.*

² *Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т.: «Ўзбекистон», 2010. – Б. 4.*

Yuqoridagi qoidalarga rioya qilishning ahamiyati yana shundaki, 2008-yilda boshlangan va hozirgacha jahondagi aksariyat mamlakatlar milliy xo‘jaliklariga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatib kelayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O‘zbekistonda yengil kechdi.

O‘zbekiston BMT doirasida jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvni BMTning ixtisoslashgan muassasalari – YUNESKO, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNKTAD, YUNISEF va boshqalar bilan keng hamkorlik tufayli amalga oshirmoqda.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvini ta‘minlashga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar – Xalqaro valuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki, Osiyo Taraqqiyot banki va boshqalar ham katta yordam ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizning har yili Davos shahrida o‘tadigan Jahon iqtisodiy anjumanida qatnashishi katta ahamiyatga ega. Anjumanda qatnashish O‘zbekistonni va uning imkoniyatlarini tanishtirish, chet el investitsiyalarini jalb etish uchun muhim ahamiyatga molik.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning tarkibiy qismi davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. O‘zbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlar, chunonchi, Yevropa Ittifoqi, YEXHT, NATO, EKO, OIK, Qo‘shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston tashqi siyosatining Osiyo yo‘nalishi ancha kengayganligini ta‘kidlash joiz. O‘zbekiston o‘zining tashqi aloqalarini ko‘p tomonlama va ikki tomonlama asosda tashkil etib kelmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi turli mamlakatlar iqtisodiyotini bir-biriga bog‘liq qilib qo‘yadi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida iqtisodiy faoliyat baynalminal tus oladi, muayyan mahsulotni ishlab chiqarishda bir necha mamlakatlar firmalari ishtirok etadi. Bir mamlakatda yetishmay qolgan resurslarning o‘rni boshqa yerdan kelgan resurslar bilan to‘ldiriladi, yirik ilmiy texnikaviy loyihalar birgalikda amalga oshiriladi. Shu bois, turli mamlakatlar milliy iqtisodiyotining o‘zaro qo‘shilib yagona mamlakatlararo xo‘jalik tizimini hosil etishi iqtisodiy integratsiya deb yuritiladi.

1.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya konsepsiyalari

Xalqaro iqtisodiy integratsiya (XII) – mamlakatlarning ishlab chiqarishni baynalminallashtirish, ya’ni xalqaro ishlab chiqarish

kooperatsiyasi va xalqaro mehnat taqsimoti asosida iqtisodiy hamkorlik qilishidan iborat jarayon.

XX asr oxirida xalqaro iqtisodiy integratsiya ayrim mintaqalar iqtisodiyotining jadal rivojlanishi va integratsiya birlashmalari a'zolari bo'lgan mamlakatlar raqobatbardoshligining ortishi uchun muhim omilga aylandi.

Iqtisodiy integratsiya quyidagi shart-sharoitlar (omillar) bilan belgilanadi:

1) ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va transmilliy korporatsiyalarning yaratilishi;

2) turli mamlakatlar korxonalarini o'rtasidagi hamkorlik;

3) texnologiyalarning xalqaro miqyosda ayirboshlanishi va yangi texnologik bazisning shakllanishi;

4) ayrim mamlakatlar iqtisodiyotlarining ochiqligi, xalqaro ayirboshlashning liberallashtirishi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning shart-sharoitlarini quyidagilar tashkil etadi:

– mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining taxminan teng darajasi;

– jug'rofiy qo'shnichilik, ko'p hollarda umumiy chegara hamda tarixan shakllangan iqtisodiy aloqalarning mavjudligi;

– rivojlanish, moliyalashtirish, iqtisodiyotni tartibga solish hamda siyosiy hamkorlikning iqtisodiy va boshqa muammolari umumiyliigi;

– tashabbus ko'rsatuvchi, boshqa mamlakatlarni birlashtiruvchi markazning mavjudligi va davlatlar ustida turuvchi institutlarning tashkil qilinishi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya nazariyasining asosida mamlakat uchun xalqaro mehnat taqsimoti negizida ishlab chiqarish turi bo'yicha ixtisoslashuv hamda tovarlar ayirboshlashning foydaliligi prinsipi yotadi.

Tashqi iqtisodiy integratsiya nazariyasida integratsiya mexanizmining turlicha baholanishi bilan bog'liq har xil konsepsiyalar mavjud.

Neoliberalizm tarafdorlari (V. Repeyek, M. Allen) XII ni tabiiy bozor kuchlari amal qiladigan bir qancha mamlakatlar miqyosidagi yagona (umumiy) bozor makoni deb hisoblaydilar.

Korporatsionalizm tarafdorlari (S. Rolf, U. Rostou) xalqaro iqtisodiyotning integratsiyasini bozor mexanizmi va davlat boshqaruvi emas, balki jahon xo'jalik aloqalarining oqilona va muvozanatlashgan

tarzda rivojlanishiga imkon yaratuvchi xalqaro korporatsiyalar amalga oshiradi, deb ta'kidlaydilar.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar N. P. Shmelyov, M. M. Maksimova va Yu. V. Shishkovning ta'kidlashlaricha, XII XMTning rivojlanganidan, ishlab chiqarishning baynalminallashganidan, bozor mexanizmlarining milliy xo'jaliklarning o'zaro bir-biriga moslashuviga ta'sir etayotganidan dalolat beradi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning maqsadlari quyidagilardan iborat:

1) ishlab chiqarish miqyosining kengayishi evaziga tejamkorlikka erishish (xarajatlarning kamayishi, bevosita xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi);

2) qulay tashqi siyosiy muhit yaratish (siyosiy, harbiy, madaniy va boshqa sohalarda yakdillik va hamkorlikning o'sishi);

3) savdo siyosati vazifalarining bajarilishi (mintaqaviy integratsion birlashmalar o'zaro savdo uchun barqaror muhit yaratadilar);

4) iqtisodiyotning tarkibiy qayta qurilishiga ko'maklashish (bozor islohotlarining tezlashuvi va katta hajmli bozorning yaratilishi);

5) milliy sanoatdagi yangi tarmoqlarni, mahalliy ishlab chiqarish korxonalarini keng mintaqaviy bozorda qo'llab-quvvatlash.

1.2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya darajalari

Xalqaro iqtisodiy integratsiya (XII)ning birinchi darajasi – mamlakatlar o'rtasida integratsiyaning tayyorgarlik bosqichi sifatida baholanadigan preferensial savdo bitimlari tuzilishi bildiradi.

XIIning ikkinchi darajasida mamlakatlar erkin savdo zonasi tashkil qiladilar. Bunda uchinchi mamlakatlar bilan savdo qilinganida saqlanib qoladigan boj tariflari o'zaro savdoda batamom bekor qilinishi nazarda tutiladi.

XIIning uchinchi darajasi Bojxona ittifoqi tashkil etilishi bilan bog'liq. Bojxona ittifoqi integratsiya qilingan (birlashgan) mamlakatlar ichida tovarlar, xizmatlar bilan bojsiz savdo qilinishi hamda ushbu tovarlarning ichki bozorda batamom erkin ko'chib yurishini nazarda tutadi. Bojxona ittifoqining boshqaruv organi – *vazirlar darajasidagi davlatlararo kengash* hamda *doimiy faoliyat ko'rsatuvchi davlatlararo kotibiyat*.

XIIning to'rtinchi darajasida mamlakatlar nafaqat tovar va xizmatlar, balki ishlab chiqarish omillari bo'lgan mehnat va ish kuchining erkin

harakatlanishi haqida kelishib oladilar, umumiy bozor yuzaga keladi.

Iqtisodiy siyosatning davlatlararo muvofiqlashuvi davlatlar va hukumatlar boshliqlarining vaqti-vaqti bilan bo'ladigan majlislarida, siyosiy idoralar rahbarlarining uchrashuvlarida amalga oshiriladi hamda doimiy faoliyat ko'rsatuvchi kotibiyat ishi bilan qo'llab-quvvatlanadi.

XIIning beshinchi darajasi iqtisodiy ittifoqqa xosdir. Unda umumiy boj tariflari, tovarlar va ishlab chiqarish omillarining erkin harakati bilan bir qatorda, makroiqtisodiy siyosatning muvofiqlashtirilishi, valuta, budjet va pul bilan bog'liq sohalarda qonunlarning birxillashtirilishi nazarda tutilgan. Yevropa Ittifoqi boshqaruvining Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar hukumatlari bilan kelishuvlarsiz qarorlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan yangi organlari yuzaga keladi.

XIIning oltinchi darajasi – milliy hukumatlardan tashqari bo'lgan umumdavlat organlari (Yevroparlament, Yevropa Ministrlar soveti) uchinchi (rivojlanayotgan) mamlakatlar bilan munosabatlardagi ayrim vazifalarini davlatlarning umummamlakat organlariga o'tkazishlarini nazarda tutuvchi siyosiy ittifoq ham bo'lishi mumkin.

Jahon iqtisodiyotidagi integratsion birlashmalar. Jahon savdo tashkiloti (JST)ning ma'lumotlariga ko'ra, XX asrning 90-yillari oxirida dunyoda har xil turdagi 30 dan ortiq integratsion birlashmalar mavjud edi. Qiyoslash uchun, deylik, 70-yillarda 5–6 ta va 80-yillarda 18–20 ta bo'lgan.

XIIning harakatlantiruvchi kuchini o'z faoliyatida eng maqbul miqyoslarga erishishdan manfaatdor korxonalar tashkil etadi. Ular integratsiyaning quyidagi afzalliklaridan foydalanadilar:

- 1) bozorlar hajmining kengayishi;
- 2) tovar va xizmatlar ishlab chiqarishning qayta tashkil etilishi;
- 3) hamkorlik va kooperatsiya, bojxona cheklovlarisiz tovar va xizmatlarni ayirboshlash;
- 4) har bir mamlakatda savdo vakolatxonalarini saqlab turish zaruratining yo'qligi;
- 5) keng miqyosga chiqish evaziga tor ixtisoslashgan eksportning o'sishi;
- 6) uchinchi mamlakatlar bozorlarini o'zlashtirishga imkon beradigan daromadlarning ko'payishi;
- 7) ishlab chiqarish hamda tovar va xizmatlarni sotish xarajatlarini kamaytirish evaziga mintaqa ichidagi savdoning samaradorligi;
- 8) integratsiya birlashmalarining huquqiy bazasi iqtisodiy jihatdan ojizroq mamlakatlarni himoya qilishga qaratilganligi.

Davlatlar integratsiyalashuvi chog'ida ular suverenitetining chekla-

nishi ilgari tovarlar importidan proteksionistik usullar bilan himoyalangan mamlakatlarning ishlab chiqarish tarmoqlariga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli ayrim mamlakatlar mustaqil milliy siyosat yuritib, hamjamiyatning yagona bixillashtirilgan talablarini qabul qilishdan bosh tortadilar (masalan, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Daniya, Shveysariya yevro pul birligiga o'tishdan bosh tortganligini misol sifatida keltirish mumkin).

Integratsion birlashmalar a'zolari bo'lgan davlatlar JSTning uchinchi mamlakatlarga eng ko'p qulaylik rejimi berish haqidagi talablari (qoidalari)ni qabul qilmasliklari mumkin. XII bo'yicha sheriklarga boshqa mamlakatlarga qaraganda ko'proq imtiyozlar beriladi.

Aksariyat mamlakatlar umumjahon (JST doirasidagi) iqtisodiy integratsiyasiga erishish yo'lida yaqin istiqbolda tor mintaqaviylikni afzal ko'radilar.

Ko'pchilik integratsion birlashmalar qo'yilgan maqsadlardan ancha uzoqdadirlar (51 ta Afrika mamlakatini o'z ichiga olgan iqtisodiy ittifoqni tashkil qilish maqsadini e'lon qilgan Afrika iqtisodiy hamjamiyati 1994-yildan boshlab 34 yil davom etgan o'tish davri mobaynida tashkil qilindi).

E'lon qilgan maqsadlari va nomlari qandayligidan qat'i nazar, aksariyat guruhlar yo savdo bitimlari preferensial darajasida, yo amalga oshirilishi eng oson bo'lgan erkin savdo zonasi darajasidadirlar. Eng rivojlangan integratsion birlashma Yevropa Ittifoqi (YEI)dir.

1988-yilning boshida AQSh bilan Kanada o'rtasida erkin savdo zonasi yaratish haqida bitim tuzilgan, 1992-yilda esa Shimoliy Amerika erkin savdo uyushmasi – NAFTA tashkil etildi (AQSh, Kanada, Meksika). NAFTA umumiy mintaqaviy bozor tashkil etilishiga, tovar va xizmatlar, kapital va mehnatning erkin ko'chib yurishiga yo'l ochdi.

NAFTA doirasida eksportning kengayishi, ish o'rinlarining ko'payishi kuzatilmoqda. Kanada tashqi savdo aylanmasida AQShning ulushi 70 foizni, AQSh tashqi savdosida Kanadaning ulushi esa 20 foizni tashkil etadi (qiyoslash uchun: YEIda Germaniyaning Fransiya tashqi savdo aylanmasidagi ulushi taxminan 20 foiz, Fransiyaning Germaniya tashqi savdosidagi ulushi esa – taxminan 10 foiz). Meksikada xorijiy investitsiyalar hajmi ancha ko'paydi. NAFTA mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtachalashib, mamlakatlar o'rtasidagi savdo hajmi ortib bormoqda.

Jahon yalpi ichki mahsulotining 60 foizini ishlab chiqaruvchi Osiyo va Tinch okeani mintaqasida «Osiyo to'rtburchagi» shakllandi: Yaponiya – Xitoy – yangi industrial mamlakatlar (Janubiy Koreya, Tayvan,

Gonkong, Singapur) – ASEAN (Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi: Indoneziya, Malayziya, Tailand, Filippin, Singapur, Brunej, Vyetnam).

Ushbu mamlakatlarning integratsiyasi ASEAN negizida amalga oshmoqda va uch yo‘nalishni qamrab oladi:

- 1) bozor yo‘nalishi (erkin savdo zonolari);
- 2) bozor institutsional yo‘nalish (bozorning maqsadga qaratilgan boshqaruv bilan uyg‘unlashuvi);
- 3) mintaqa doirasida loyihalarning amalga oshirilishi (TMKning rivojlanishi, sanoat vositachiligi).

2007-yilda 1989-yilda ta’sis etilgan va 21 ta davlatni qamrab oladigan Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatiga o‘xshash erkin savdo zonasini tashkil qilish mo‘ljallangan edi.

Janubiy Amerikada xalqaro iqtisodiy integratsiyani faollashtirishda MERKOSUR, ya’ni 1991-yilda Argentina, Braziliya, Paragvay va Urugvay tomonidan tashkil qilingan Janubiy Konus mamlakatlarning umumiy bozori borgan sari ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bu Lotin Amerikasining eng katta bozoridir (aholining 45 foizi 200 mln.dan ortiq; jami YAIMning 50 foizi taxminan 1 trln. dollar; bevosita xorijiy investitsiyalarning 40 foizi jalb etilgan).

Janubiy Amerika xalqaro iqtisodiy integratsiyasining boshqa birlashmalari orasida quyidagilar ajralib turadi:

- And kanti (Boliviya, Venesuela, Kolumbiya, Peru, Ekvador);
- Markaziy Amerika umumiy bozori (Gvatemala, Gonduras, Kosta-Rika, Nikaragua, Ekvador);
- KARIKOM (Karib hamjamiyati) – ingliz tilida so‘zlashuvchi 14 ta Karib havzasi mamlakatlari.

Mazkur birlashmalar erkin savdo zonasi darajasidadirlar.

Afrikada XII 60-yillar oxirida boshlangan. Afrikadagi eng faol integratsion guruhlar quyidagilar:

- 1975-yilda tashkil etilgan va 16 ta davlatni o‘z ichiga olgan G‘arbiy Afrika davlatlarining iqtisodiy hamjamiyati (EKOVAS);
- 1993-yilda tashkil qilingan va 21 ta mamlakatni qamrab olgan Sharqiy va Janubiy Afrika umumiy bozori;
- 1992-yilda tashkil etilgan Afrika janubini rivojlantirish hamjamiyati;
- 1967-yilda tashkil qilingan va 6 ta mamlakatni o‘z ichiga olgan Markaziy Afrika bojxona va iqtisodiy ittifoqi.

Afrikada XII ni rivojlantirish borasidagi muammolarga: mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi darajasining har xilligi, iqtisodiyotning bir xilligi va diversifikatsiyalashmaganligi, infratuzilmaning rivojlanmaganligi, siyosiy beqarorlik kabilarni kiritish lozim.

MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) – suveren davlatlar (Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston, Ukraina)ning birlashmasi bo'lib, 1991-yilda ular o'rtasida imzolangan shartnomaga muvofiq tashkil qilingan.

MDHning tuzilishi uchun asos sifatida yangi xo'jalik aloqalarini shakllantirish prinsipi (ma'muriyatning o'zboshimchaligini iloji boricha kamaytirish, ko'p tomonlama va ikki tomonlama muvofiqlashtirish) xizmat qiladi. MDH hududida joylashgan korxonalarining xo'jalik faoliyati uchun iqtisodiy jihatdan bir xil maydonni (erkin savdo zonasini, umumiy axborot makonini) yaratish dolzarb vazifadir. 1994-yilda MDHning davlatlar ustida turadigan boshqaruv organi – Davlatlararo iqtisodiy qo'mita tashkil qilingan.

Keyinchalik ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va tashqi savdo manfaatlarining umumiyliigi asosida 1995-yilda Bojxona ittifoqi tashkil qilindi. Uning negizida Belarus Respublikasi, Rossiya, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'izistonni o'z ichiga olgan YevrOsiyo hamjamiyati rivojlanmoqda.

Umumiy iqtisodiy makon shakllanishi davomida birinchi bosqichda erkin savdo zonasi, bojxona ittifoqi, to'lov ittifoqi, umumiy mehnat bozori, umumiy agrar bozor, umumiy investitsiya va ilmiy-texnikaviy makon yaratish hamda rivojlantirish vazifalari qo'yilgan.

MDHdagi integratsiya natijalari ziddiyatlidir: erishilgan shartlashuvlarning aksariyati bajarilmagan, ammo Hamjamiyat tarqab ketmadi va o'z mavjudligi maqsadga muvofiqligini isbotladi.

Hozirda Yevropa Ittifoqi 27 ta mamlakatni: Belgiya, Bolgariya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Germaniya, Fransiya, Daniya, Irlandiya, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Ispaniya, Portugaliya, Avstriya, Finlyandiya, Shvetsiya, Polsha, Chexiya, Vengriya, Slovakiya, Litva, Latviya, Ruminiya, Estoniyani o'z ichiga olgan. Yevropa Ittifoqi (YEI) 1991-yilda tashkil qilingan. 2012-yilda Yevropa Ittifoqiga Xorvatiyaning kirishi rejalashtirilgan edi. Turkiyaning qo'shilishi haqida muzokaralar olib borilmoqda.

YEI quyidagi maqsadlarni qonun tariqasida belgilab qo'ygan:

- Yevropa fuqaroligining joriy etilishi;
- erkinlik, xavfsizlik va qonuniylikning ta'minlanishi;
- iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga ko'maklashish;
- Yevropaning jahondagi rolini kuchaytirish.

YEI davlatlarining iqtisodiy va valuta ittifoqi YEI valutasini bo'lmish yevro amal qiladigan umumiy iqtisodiy makonni shakllantiradi. YEIning moliyaviy vositalari turli fondlar (mintaqaviy rivojlanish, ijtimoiy, jipslashuv fondi va boshqalar)dir. Yevropa investitsiya banki uzoq muddatli investitsiya loyihalarining amalga oshirilishiga ko'maklashadi.

YEIning asosiy boshqaruv organlari – Yevropa Kengashi, Yevrokomissiya, Yevroparlament. Yordamchi va maslahat organlari – Iqtisodiy va Ijtimoiy qo'mita, Mintaqalar qo'mitasi, Hisob palatasi (Auditorlar palatasi).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2012-yil 1-may kuni Oqsaroyda Yevropa Ittifoqining mamlakatimizdagi Vakolatxonasi (Delegatsiyasi) rahbari – elchisi etib tayinlangan Norber Justendan ishonch yorlig'ini qabul qildi. Norber Justen Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi Vakolatxonasining ilk rahbari sifatida o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlash uchun bor kuch va imkoniyatlarini ishga solishini ta'kidlagan.

1996-yilning iyunida Florensiyada davlat va hukumat rahbarlari darajasida O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlarni har tomonlama mustahkamlashga asos bo'lgan Sheriklik va Hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolangan edi.

2011-yilning yanvar oyida Bryusselda bo'lib o'tgan oliy darajadagi ikki tomonlama muzokara va uning yakunlari yuzasidan imzolangan hujjatlar O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi keng ko'lamli muloqotlarga yangi imkoniyatlar yaratdi. Ikki tomon ham savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor. Mamlakatimizda 2012-yil ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa investorlari ishtirokida tuzilgan 840 dan ziyod korxonalar o'zaro manfaatdorlik asosida faoliyat ko'rsatmoqda, YEIga a'zo mamlakatlarning qariyb 270 yetakchi kompaniyasi vakolatxonalari ro'yxatdan o'tkazilgan.

2011-yilda O'zbekistonning YEI mamlakatlari bilan olib borgan umumiy savdosi hajmi 2010-yildagiga nisbatan qariyb 20 foiz o'sdi va 2,3 milliard AQSh dollaridan oshdi. O'zbekiston Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha strategiyasi doirasidagi loyiha va dasturlarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar yo'nalishlarda, xavfsizlik,

atrof-muhitni muhofaza qilish va suv resurslarini boshqarish sohalarida, demokratlashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash borasida o'zaro hamkorlikda tadbirlar tashkil etilmoqda.

1.3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mezonlari va rivojlanish tamoyillari

U yoki bu integratsion guruhning tashkil qilinishi umuman xalqaro iqtisodiyot manfaatlariga qanchalik mos kelishini baholash uchun XX asrning 90-yillarida Butun jahon banki quyidagi prinsiplar (mezonlar)ni ifodalab berdi:

1) mintaqaviy savdo bitimlari iqtisodiyotning istisnosiz barcha tarmoqlarini qoplab olishi kerak;

2) o'tish davri o'n yildan ortmasligi hamda savdoni liberallashtirishning aniq jadvalini o'z ichiga olishi kerak;

3) savdo integratsiyaviy birlashma tashkil etilishidan avval liberalashtirilishi kerak;

4) umumiy bojxona tarifi eng qulay sharoit yaratish rejimining eng pastki tarifidan ortiq bo'lmasligi kerak;

5) yangi a'zolarini qabul qilish qoidalari erkin (liberal) bo'lishi lozim;

6) integratsiyaning eng rivojlangan darajalari (shakllari)ga tez o'tish zarur;

7) integratsiya birlashmasida dempingga qarshi qoidalar qo'llanilmasligi kerak.

Aksariyat hollarda integratsiyaning ijobiy natijalari salbiy oqibatlaridan ortiq bo'ladi. Buning umumiy qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

– integratsiya birlashmasida mamlakatlar qanchalik ko'p va katta bo'lsa, savdo hajmi shunchalik ko'lamli bo'ladi;

– integratsiya birlashmasi mamlakatlari o'rtasidagi savdo hajmi ushbu birlashma tuzilishidan avval qanchalik katta bo'lgan bo'lsa, savdo shunchalik samarador bo'ladi;

– raqobatning o'sishi tovarlar sifatining ortishiga olib keladi, yangi texnologiyalar yaratilishini rag'batlantiradi;

– narx ko'tarilishi kamayadi.

Oxirgi o'n yillar mobaynida jahon iqtisodiyotida Amerika Qo'shma Shtatlari yetakchi bo'lib kelmoqda. Hozirgi bosqichda AQShning yetakchiligi asosan bozorining miqyosi va boyligi, bozor tuzilmalarining rivojlanganlik darajasi, fan-texnika salohiyati, savdo, investitsiyalar va

bank kapitali yoʻnalishida qudratli va keng tarmoqlangan jahon xoʻjalik aloqalari tizimi tufayli boʻlib, bu uning boshqa mamlakatlardan ustunlik qilishini taʼminlamoqda.

AQShning hozirgi sanoati jahonda qazib olinayotgan butun xomashyoning taxminan 1/3 qismini qayta ishlaymoqda. Mamlakat mashina va uskunalarning eng katta bozoriga ega. Rivojlangan mamlakatlarda sotiladigan mashinasozlik mahsulotining 40 foiz dan ortigʻi AQSh hissasiga toʻgʻri keladi.

AQSh korporatsiyalari fan-texnika taraqqiyotining samolyotlar va kosmik apparatlar, oʻta qudratli kompyuterlar va ularning dasturiy taʼminoti, yarim oʻtkazgichlar va eng yangi qudratli integral sxemalar, lazer texnikasi, aloqa vositalari kabi yoʻnalishlarida jahon birinchiligini mustahkam saqlab kelmoqdalar. Rivojlangan mamlakatlarda yaratilayotgan asosiy yangiliklarning 50 foizi AQShda joriy etiladi.

AQSh toʻplangan bilim massivlariga ishlov berish, axborot xizmatlari koʻrsatish sohalarida ham mustahkam mavqega ega. Ushbu omil juda katta ahamiyatga ega, chunki axborot bilan tez va sifatli taʼminlash butun ishlab chiqarish apparatining ish samaradorligini borgan sari koʻproq belgilab bermoqda.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda mavjud boʻlgan maʼlumotlar banklarining 75 foizi AQShda jamlangan. Yaponiyada xuddi Gʻarbiy Yevropadagi singari, bunga teng keladigan maʼlumotlar banklari tizimi mavjud boʻlmagani bois, ushbu mamlakatlar olimlari, muhandislari va tadbirkorlari hali uzoq vaqt davomida asosan Amerika manbalaridan bilim olishni davom ettiradilar. Bu esa ularning AQShga tobeligini kuchaytiradi, axborot isteʼmolchilarining tijorat va ishlab chiqarish strategiyasiga taʼsir etadi.

Gʻarbiy Yevropa jahon xoʻjaligida alohida oʻrin tutadi. Dunyo yalpi ichki mahsulotining 23 foizi va aholisining 7 foizi unga toʻgʻri keladi.

Mintaqaning asosiy iqtisodiy qudratini sanoati yuksak darajada rivojlangan toʻrtta katta mamlakat – GFR, Fransiya, Italiya va Buyuk Britaniya tashkil qiladi, ularda Gʻarbiy Yevropa aholisining 50 foizi va yalpi ichki mahsulotining 70 foizi jamlangan.

Jahon qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining deyarli 20 foizi Gʻarbiy Yevropada ishlab chiqariladi. Qishloq xoʻjaligi tovarlarining yetakchi ishlab chiqaruvchilari – Fransiya (14,5 foiz), GFR (13 foiz), Italiya (10 foiz) va Buyuk Britaniya (8 foiz) hisoblanadi.

Atom energiyasi 10 ta mamlakatda ishlab chiqariladi va isteʼmol qilinadi. Umuman Finlyandiya, Belgiya, Shveysariyaga uning 15–20

foizi, Shvetsiya va Fransiyaga – 75 foizidan ortig‘i to‘g‘ri keladi.

Jahon iqtisodiyotining barcha kichik tizimlarida, binobarin, rivojlanayotgan mamlakatlarda yuz berayotgan differentsiatsiya jarayonlari «*yangi industrial mamlakatlar*» nomini olgan mamlakat va hududlarning alohida guruhi ajralib chiqishiga olib keldi.

Ushbu davlatlar hozirgi vaqtda sanoati rivojlangan mamlakatlarga qaraganda iqtisodiy o‘shining yuqoriligi hamda rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy guruhlariga nisbatan xo‘jalik rivojlanishining ancha yuqori darajasi bilan ajralib turadilar.

Yangi industrial mamlakatlarga quyidagi mamlakat va hududlar kiradi: Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong (Syangan), Singapur, Malayziya, Tailand, Argentina, Braziliya, Meksika.

Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyodagi quyidagi mamlakatlar eng jadal rivojlanmoqda: Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan, Malayziya, Tailand va Filippin, shuningdek Indoneziya. Aynan shu submintaqada ulkan Osiyo «texnologik makoni» shakllanmoqda.

Osiyo yangi industrial mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining strategiyalari avvalo eksportga yo‘naltirilgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan. Shu bois, bu mamlakatlar poyafzal, kiyim-kechak, to‘qimachilik mahsulotlari, maishiy elektron apparatura, shaxsiy kompyuterlar, yengil avtomobillar hamda yuksak texnologiyalarga asoslangan boshqa turdagi mahsulotlarni jahon bozoriga yetkazib beruvchilarga aylandilar.

Lotin Amerikasida (Chili va Meksika bundan mustasno) ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish jarayonlari sekin kechmoqda (Argentina, Braziliyada) yoki umuman modernizatsiya qilinmayapti. Bu esa eksportga chiqarilayotgan tovarlarning yetarlicha raqobatbardosh bo‘lmasligiga olib kelmoqda. Iqtisodiyotdagi islohotlar ko‘pincha ijtimoiy sohadan ajralgan holda, islohotlarga tizimli yondashmagan holda amalga oshirilmoqda.

Afrika geosiyosiy, iqtisodiy va sivilizatsiyaviy jihatdan o‘zaro ancha farq qiluvchi ikki submintaqadan iborat. Bular: Sahroi Kabirdan janubda joylashgan hudud hamda tipologik jihatdan Yaqin Sharqqa o‘xshash bo‘lgan Shimoliy Afrika. Mintaqada sayyoramizning aksariyat eng kambag‘al davlatlari joylashgan (mintaqaning 52 ta mamlakatidan 32 tasi «dunyoning eng kam rivojlangan mamlakatlari» guruhiga kiradi), ularning ahvoli nihoyatda og‘irligicha qolmoqda. Afrika oxirgi o‘n yillar ichida boyimayotgan, balki kambag‘allashayotgan qit‘aga aylandi.

Afrika mamlakatlari iqtisodiy o‘shining xarakteri va sur‘atlari bir qator tiyib turuvchi omillar ta‘sirida qolmoqda. Ular orasida davlat sektoridagi ortiqcha xarajatlarning salbiy ta‘siri hamda rivojlanmagan iqtisodiy infratuzilma bilan bir qatorda, ichki siyosiy beqarorlik, davlatlararo nizolar, tashqaridan keladigan moliyaviy resurslar oqimining kamayishi, savdo sharoitlarining yomonlashuvi, xalqaro bozorlardan foydalanishning qiyinlashuvi kabilarni sanab o‘tish mumkin.

Afrika mamlakatlari hali iqtisodiy rivojlanishning turli modellarini sinab ko‘rish bosqichidadir. Ushbu modellar mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xo‘jalik faoliyatini liberallashtirish va moliyaviy sohani barqarorlashtirishga asoslangan. Bunda ular sezilarliroq natijalarga faqat xususiylashtirishning miqdor ko‘rsatkichlarida erishdilar. Bu, aslida, faqat mulkchilik shakli o‘zgarganligini anglatadi va iqtisodiyotda sifat o‘zgarishlariga olib kelishi aniq emas.

Afrika mamlakatlari G‘arb tajribasi bilan cheklanib qolmasdan, Osiyoning yangi industrial mamlakatlari tajribasiga ham murojaat etmoqdalar. Mazkur yangi industrial mamlakatlarda hukumat tuzilmalari hamda fan-texnika taraqqiyotining to‘g‘ri tanlangan mezonlari iqtisodiy rivojlantirishni tezlashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Afrika mamlakatlari xorijga olib chiqayotgan xomashyo narxlarining keskin o‘zgarib turishi noaniqlik va jahon xomashyo iste‘molchilariga borgan sari ko‘proq bog‘liqlik vaziyatini yuzaga keltirmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotni beqarorlashtirmoqda.

«Osiyo yo‘lbarzlari» deb nomlanuvchi davlatlar xomashyoni qayta ishlovchi sanoatning rivojlanishi bugungi jadal sur‘atlar bilan kechsa, tez orada ular o‘z tabiiy resurslarini tugatishi mumkin degan fikrni bildirmoqdalar. Ularning Afrika boyliklariga qiziqishlari mintaqaga investitsiyalarning ko‘plab kiritilishiga hamda eksportning keskin ko‘paytirilishiga olib kelishi mumkin. Buning natijasida Osiyo kapitallari Afrika qit‘asining iqtisodiy rivojlanishida yangi davr ochishga da‘vo qiladi.

2. Integratsiyaning barqarorlik va xavfsizlik kafolati ekanligi

Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishda O‘zbekiston o‘z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq ishlab chiqilgan quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilmoqda:

birinchidan, o‘zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

ikkinchidan, teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

uchinchidan, mafkuraviy qarashlardan qat’i nazar, hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

to‘rtinchidan, xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;

beshinchidan, tashqi aloqalarni ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

Biz tashqi aloqalarni xalqaro munosabatlarning turli yo‘nalishlari bo‘yicha muvaffaqiyatli rivojlantirishni xavfsizlik va barqarorlikning kafolati deb bilamiz. O‘zbekiston dunyo uchun ochiq. Biz ham dunyoning O‘zbekistonga juda katta qiziqish bilan qarayotganligini his etmoqdamiz. Bu esa O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun eng yaxshi kafolatdir. Buni biz O‘zbekiston kapital sarflash nuqtai nazaridan ham, dunyo miqyosidagi keng qamrovli xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida mintaqada barqarorlikni ta‘minlash nuqtai nazaridan ham borgan sari e‘tiborga sazovor bo‘lib borayotganligining dalili deb bilamiz¹. Shuningdek, davlatimiz rahbarining integratsiyaning beqiyos ahamiyati to‘g‘risidagi quyidagi fikrlarini keltirishni o‘rinli deb bildik: «XXI asr, shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr bo‘ladi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozosi deb emas, balki ayrim mintaqalar ko‘lamida ham, shuningdek, umuman – butun sayyoramiz ko‘lamida ham sobitqadamlik, barqarorlikning qudratli omili deb hisoblamoq zarur.

Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanamiz. Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang‘ich shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O‘zbekiston bir vaqtning o‘zida turli darajalarda – dunyo miqyosida va mintaqada ko‘lamida – integratsiya jarayonlarida qatnashsa-da, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan

¹ Qarang: *Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.* – Т.: «Ўзбекистон», 1997. – Б. 296–297.

uzoqlashmaslikka amal qiladi. Biz bir subyekt bilan sherikchilikning mustahkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga qarshimiz. Shu sababli O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvi serqirra jarayondir»¹.

3. O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti – jahon xo‘jaligining tarkibiy qismi ekanligi. Eksport va import

Ma’lumki, xalqaro savdo-sotiq eksport va import shaklda amalga oshiriladi.

Eksport – tovarning xorijga chiqarilishini nazarda tutuvchi sotish.

Import – tovarning xorijdan olib kirilishini nazarda tutuvchi xarid.

Savdo aylanmasi – eksport va import hajmining qiymatda ifodalanadigan hajmlar summasi.

Eksport o‘lchami tovarga bo‘lgan ortiqcha taklif bilan, import hajmi esa tovarlarga bo‘lgan ortiqcha talab miqdori bilan belgilanadi.

Eksport va importning nisbati tashqi savdo balansi hisoblanadi, u aktiv va passiv holda bo‘ladi.

Eksport importdan ko‘p bo‘lganda, tashqi savdo balansi aktiv, import eksportdan ko‘p bo‘lganda, u passiv bo‘ladi. Aktiv balans tashqariga tovarlar ko‘p sotilishini, passiv balans esa ular tashqaridan ko‘proq xarid etilishini anglatadi.

Iqtisodiyotning eksport salohiyati ikki omilga bog‘liq bo‘ladi:

- 1) ishlab chiqarishning rivojlanganlik darajasi;
- 2) ishlab chiqarishning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki va ixtisoslashuv darajasi.

Eksport va import narxining nisbatiga bir qator omillar ta’sir etadi:

- 1) muayyan tovarlarga tashqi bozordagi talab va shu tovarlarning taklif etilishi;
- 2) tovarlarga mamlakat ichkarisidagi va tashqarisidagi narxlarning past yoki balandligi;
- 3) tovarlarning tashqi bozorlarga yetkazish xarajatlari;
- 4) milliy valuta kursidagi o‘zgarishlari;
- 5) davlatning tashqi savdoga oid siyosatining qandayligi.

Ochiq iqtisodiyot rivojlanishi bilan xalqaro savdo-sotiqdagi tovarlar tarkibi o‘zgarib turadi. Agar XIX asrning ikkinchi yarmidagi xalqaro savdo-sotiqda xomashyo, oziq-ovqat va yengil sanoat mahsulotlari

¹ O‘sha manba. – B. 298–299.

ayirboshlangan bo'lsa, XXI asrning boshiga kelib ilmiy texnikaviy yangiliklar, texnologik murakkab mahsulotlar, shuningdek axborot texnologiyalari va axborotning o'zi sotila boshlandi.

O'zbekistonning jahon bozorida o'ziga xos nufuzini ta'minlashda xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvi imkoniyatlaridan samarali foydalanishi, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni barpo etish va chuqur qayta ishlangan sanoat mahsulotlari eksportini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, Prezident Islom Karimov: «Mamlakatning jahon xo'jaligi aloqalarida, xalqaro mehnat taqsimotida keng miqyosda ishtirok etishi ochiq turdagi iqtisodiyotni barpo etishning asosidir. Biz iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish tadbirlarini izchillik bilan amalga oshirmoqdamiz. Bunda bozor iqtisodiyoti – erkin iqtisodiyot ekanligi, u ochiq tusda bo'lib, yakkalanish va biqqlik unga yot ekanligidan iborat haqiqatga asoslanib ish tutmoqdamiz. Shu bois iqtisodiyotimizning kelajagi uning jahon xo'jaligiga qo'shilishiga bog'liqdir»¹, – deb tashqi bozorning ahamiyatini ta'kidlab o'tgan.

O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga uning jahon xo'jaligi bilan aloqalarining rivojlanib borayotganligi, eksport salohiyati kengayayotganligi va shu maqsadlar ko'zda tutilib belgilanayotgan aniq chora-tadbirlar asos bo'lmoqda.

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish mamlakatning XXI asrda rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki milliy iqtisodiyot ochiqlik darajasining kengayishi ishlab chiqarish samaradorligining ortishiga va erkin raqobatning kuchayishiga, ichki imkoniyatlar hisobiga eksport salohiyatini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Eksport salohiyatini oshirish barqaror valuta tushumlarini ta'minlashga va jahon bozorida munosib o'rin egallashga olib keladi. Shuning uchun respublika eksport salohiyatini oshirishda ichki ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlardan va nisbiy afzallikka ega bo'lgan sohalar mahsulotlaridan unumli foydalanilmoqda.

Ayni paytda aholi daromadlarining ahamiyatli darajada ortib borishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda rivojlanishi bilan birga tashqi savdo va eksport faoliyatining samaradorligini ham talab etadi.

¹ *Каримов И. А. Ўзбекистон буюк келажак сари.* – Т.: «Ўзбекистон», 1999. – Б. 267.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish va eksport tuzilishini diversifikatsiya qilish orqali tashqi bozorlarga chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar nomenklaturasini kengaytirish samaradorlikni oshirishga olib keladi. Chunki xorijiy mamlakatlarga sotilayotgan mahsulotlar tarkibida alohida tovarlar yoki xizmatlar turlarining, xususan, tabiiy resurs va xomashyolar salmog'ining ortib ketishi, agar jahon bozorida bu mahsulotlarning narxi pasayib ketsa yoki ularga tashqi talab kamayadigan bo'lsa, mazkur vaziyatlarda eksportchi mamlakatlar og'ir va tang holatlarga duch kelishi mumkin. Milliy eksport hajmining qisqarishi va savdo shartlarining yomonlashuvi valuta tushumlarining kamayishiga, tashqi savdo balansining beqarorlashuviga va eksportchi korxonalar moliyaviy ahvolining tanglashishiga olib keladi.

Shuningdek, mamlakatning umumiy eksporti yoki importida kam sonli davlatlar ulushining kattaligi, u mamlakat tashqi savdosining ana shu sanoqli mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'zgarishlarga bog'liq bo'lib qoladi. Shu bois tashqi savdo tarkibini diversifikatsiya qilishdan tashqari, uning mamlakatlar geografiyasini ham kengaytirish va xilma-xillashtirish zarur. Bu esa ko'zda tutilgan natijalarni qo'lga kiritishga, milliy xo'jalikning tashqi bozordagi salbiy o'zgarishlariga ta'sirchanligini pasaytiradi.

O'zbekistonda tashqi savdo tarkibini diversifikatsiya qilish va mamlakatlar geografiyasini takomillashtirish maqsadida olib borilgan chora-tadbirlar o'zining samarali natijasini bermoqda. Respublikamizning tashqi savdosi va eksporti hajmi barqaror sur'atlarda o'sib, tarkibi izchil takomillashib bormoqda.

Bunday yutuqlarga erishishda asos bo'lgan omillar haqida Prezident Islom Karimov: «Bizning keyingi yillarda eksport sohasida qo'lga kiritgan yutuqlarimiz, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda biz uchun mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o'z vaqtida boshlangan, chuqur o'ylangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ishlarimizning natijasidir»¹, – deb ta'kidlagan.

Mamlakatlarning texnologik jihatdan chuqur qayta ishlangan va tayyor raqobatdosh tovarlar eksportini jadallashtirish va bu mahsulotlar

¹ *Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: «Ўзбекистон», 2009. – Б. 54–55.*

yetkazib berilayotgan mamlakatlar geografiyasini izchil ravishda kengaytirib borish uning tashqi savdo va eksport hajmini barqaror rivojlantirishga, jahon bozoridagi salbiy o'zgarishlar ta'siri va xavf-xatarlardan himoyalashga sharoit yaratadi. Qolaversa, tashqi bozorlarga taklif qilinayotgan tovarlar tarkibini diversifikatsiyalash, ularni xarid qiluvchi davlatlar geografiyasini kengaytirish, bu mamlakatlardan biri yoki bir nechtasining iqtisodiyotida sodir bo'lgan muammolar tufayli eksport hajmi keskin kamayib ketishining oldini olish imkoniyatini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda uzoq yillardan beri tashqi savdoni, xususan, eksportni rivojlantirish va eksport qiluvchi korxonalarni izchil qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar milliy iqtisodiyotimizning eksport salohiyatini yuksaltirishga, tashqi savdo tarkibini chuqurlashtirishga va uning hajmini barqaror sur'atlarda o'stirishga asos bo'lmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror va mutanosib rivojlantirish, samarali ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasini shakllantirish va izchil iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish aholi farovonligini oshirishning va taraqqiyotni ta'minlashning muhim asosi hisoblanadi.

Prezident Islom Karimov O'zbekiston iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi borasida quyidagi vazifalarni belgiladi: «Jahon iqtisodiyotida vujudga kelayotgan tendensiyalardan, shuningdek, mamlakatimizni kelajakda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish strategiyasidan kelib chiqqan holda, 2012-yilda va undan keyingi yillarda quyidagi ustuvor vazifalarning amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi darajali e'tibor mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish bo'yicha dastur tayyorlash va uni amalga oshirishga qaratilishi zarur.

Bu maqsadning dolzarbligi va ahamiyati avvalo shu bilan belgilanadiki, biz o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiyotimizni rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga olib chiqishni hozirgi bosqichdagi bosh strategik vazifa sifatida o'z oldimizga qo'yganmiz.

O'z-o'zidan ayonki, raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirmasdan, pirovard natijada esa raqobatdosh mamlakatni barpo etmasdan turib, biz qabul qilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da ko'zda tutilgan maqsadli vazifalarni amalga oshirmasdan turib, bu haqda jiddiy so'z yuritish mumkin emas.

Bu vazifaning o‘rtaga qo‘yilishi, shuningdek, inqiroz jarayonlarining chuqurlashuvi, dunyo miqyosida xarid talabining pasayishi va shunga muvofiq tarzda jahon bozorida xomashyo, materiallar, ayniqsa, tayyor mahsulotlar bo‘yicha raqobatning yildan-yilga kuchayib borayotgani bilan ham bog‘liq, albatta. Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o‘rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so‘zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta‘minlash, faoliyat ko‘rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va raqobatdosh mahsulotlarning yangi turlarini o‘zlashtirish bo‘yicha qabul qilingan birinchi navbatdagi choratadbirlar dasturiga muvofiq, 2012–2016-yillarda hisob-kitoblar bo‘yicha qiymati 6 milliard 200 million dollar bo‘lgan 270 dan ziyod investitsiya loyihasini, shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha tarmoq dasturlarini amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda»¹. O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi mustaqillik yillarida takomillashdi. Uni quyidagi jadvallarda ko‘rish mumkin.

1-jadval

O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining rivojlanish dinamikasi
(mln. AQSh doll.)*

Yillar	Jami tashqi savdo aylanmasi	Shu jumladan	
		Eksport hajmi	Import hajmi
2000	6212,1	3264,7	2947,4
2003	6689,2	3725,0	2964,2
2004	8669,0	4853,0	3816,0
2005	9500,1	5408,8	4091,3
2006	10785,7	6389,8	4395,9
2007	15719,6	8991,5	6728,1
2008	21197,3	11493,3	9704,0

¹ Каримов И. А. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги bosқичга кўтарадиган йил бўлади. – Т.: «Ўзбекистон», 2012. – Б. 19–21.

2009	21209,6	11771,3	9438,3
2010	21844,2	13044,5	8799,7
2011	25537,1	15027,2	10509,9

* O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining tegishli yillar bo‘yicha statistik to‘plamlari asosida tuzilgan.

Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshlik salohiyati uning tabiiy resurs imkoniyatiga, ishchi kuchining miqdori va sifatiga, ishlab chiqarishning zamonaviy asosda texnologik jihatdan modernizatsiya qilinishiga, iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining takomillashuv darajasiga, davlatning iqtisodiy rivojlanish va islohotlar strategiyasiga tayanadi.

Mamlakatimizda ishlab chiqaruvchilarni ichki va tashqi bozorlarda raqobatdoshligini oshirish, eksportni diversifikatsiya qilish va uning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish borasidagi XIX asrning birinchi o‘n yiligidagi amalga oshirilgan chora-tadbirlar tufayli eksportimizning tovar tarkibida muttasil ijobiy siljish jarayoni ro‘y bermoqda. Xususan, eksport hajmida qayta ishlangan va ilmtalab tovarlarning salmog‘i jadal sur‘atlarda ortib borayotgan bir davrda, paxta tolasining eksportdagi ulushi izchillik bilan qisqarish tendensiyasiga ega. Jumladan, umumiy eksportda paxta tolasining salmog‘i 2000-yilda 27,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2009-yilda esa atigi 8,6 foizga tengligi yoki 3,2 barobarga pasayganligi kuzatilmoqda.

2-jadval

O‘zbekiston eksporti tarkibining takomillashuv tendensiyasi (foizda)

Yillar	Paxta tolasini	Oziq-ovqat mahsulotlari	Kimyo mahsulotlari va plastmassa buyumlar	Energetika va yoqilg‘i mahsulotlari	Rangli va qora metallar	Mashina va uskunalalar	Xizmatlar	Boshqa tovarlar
1995	48,4	4,7	2,5	11,7	4,7	2,0	7,7	18,3
2000	27,5	5,4	2,9	10,3	6,6	3,4	13,7	30,2

2001	22	3,9	2,7	10,2	7,0	3,9	14,9	35,7
2002	22,4	3,5	3,0	8D	6,4	3,9	15,9	36,8
2003	19,8	2,7	3,1	9,8	6,4	5,4	14,4	37,9
2004	18,1	3,8	4,7	12,4	8,6	7,9	11,8	33,2
2005	19,1	3,8	5,3	11,5	9,2	8,4	12,2	30,5
2006	17,2	7,9	5,6	13,4	12,9	10,1	12,1	21,1
2007	12,5	8,5	6,8	20,2	11,5	10,4	10,7	19,4
2008	9,2	4,4	5,6	25,2	7,0	7,5	10,4	30,7
2009	8,6	6,0	5,0	34,2	5,0	2,9	8,8	29,5
2010	11,3	9,7	5,1	24,8	6,8	5,5	9,1	27,7
2011								

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining tegishli yillar bo'yicha statistik to'plamlari asosida tuzilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror va mutanosib rivojlantirish, samarali ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasini shakllantirish va izchil iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish aholi farovonligini oshirishning va taraqqiyotni ta'minlashning muhim asosi hisoblanadi.

Bu maqsadga erishish uchun esa barqaror importni ta'minlash va uni milliy iqtisodiyotimizning shart-sharoitlaridan kelib chiqib muvofiqlashtirish talab etiladi. Respublikamizda olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida import tarkibi mustaqillik yillarida chuqur takomillashib bordi.

Mamlakatni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish chora-tadbirlarining keng ko'lamda amalga oshirilishi natijasida umumiy import hajmida mashina va uskunalar salmog'ining jadal sur'atlar bilan o'sishiga asos bo'ldi.

Bugungi kunda respublikamizning tashqi savdosi va mintaqa bozorlariga kirib borishi barqaror rivojlanish bilan birga geografik jihatdan ham jadal kengayib bormoqda va unda shiddat bilan rivojlanib borayotgan Osiyo qit'asi mamlakatlari bozorlarining ulushi sezilarli darajadagi salmoqqa ega bo'layotir. Shuning uchun davlatimiz rahbari: «Ta'kidlash kerakki, tashqi savdo munosabatlarimiz geografiyasi, avvalo, rivojlanib borayotgan Osiyo qit'asi

bozorlari bilan savdo aylanmasining o'sishi hisobiga sifat jihatidan o'zgarishda»¹, – deb ta'kidlagan.

Bu mamlakatimiz tashqi savdo aloqalarining jahon iqtisodiyoti va savdosidagi rivojlanishi bilan mutanosib ravishda faollashib borayotganidan dalolat beradi. Hozirgi kunda Osiyo qit'asidagi davlatlarning jahon ishlab chiqarishi va tashqi savdosidagi o'rni sezilarli darajada rivojlanib borayotganligi amalda ko'rinyapti. Respublikamiz tashqi savdo aloqalarining geografik tarkibi an'anaviy tasnifga asosan MDH va uzoq xorij mamlakatlaridan iborat.

O'zbekistonning MDH davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2009-yilda 2000-yilga nisbatan 3,7 martaga, shu davr ichida eksport hajmi 3,4 baravarga va import hajmi 4,0 baravarga ortgan. O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aloqalari barqaror rivojlanib bormoqda va bu yerda eksportda ham, importda ham asosiy ulush Rossiya, Ukraina va Qozog'iston davlatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Keltirilgan jadvalda O'zbekiston eksportida MDH va uzoq xorij mamlakatlarining salmog'i aks etgan.

3-jadval

O'zbekiston importi tarkibining takomillashuv tendensiyasi (foizda)

Yillar	Oziq-ovqat mahsulotlari	Kimyo mahsulotlari va plastmassa buyumlar	Energetika va yoqilg'i mahsulotlari	Rangli va qora metallar	Mashina va uskunalar	Xizmatlar	Boshqa tovarlar
1995	18,2	9,3	1,9	5,7	47,9	5,0	12,0
2000	12,3	13,6	3,8	8,6	35,4	8,5	17,8
2001	10,8	12,7	1,9	10,9	41,2	10,3	12,2
2002	12,5	15,1	1,3	8	41,4	10,6	11,1

¹ Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: «Ўзбекистон», 2009. – Б. 17.

2003	9,9	12,8	2,7	7,9	44,4	10,2	12,1
2004	6,8	12,5	2,1	10,3	46,0	11,1	11,2
2005	7,0	13,6	2,5	10,3	43,3	10,4	12,9
2006	8,1	15,0	4,3	10,4	40,3	9,1	12,8
2007	7,2	13,1	3,5	7,5	49,6	5,8	13,3
2008	8,1	13	2,1	6,8	53,3	5,7	11
2009	9	11,1	3,5	6,3	56,5	4,4	9,2
2010	10,9	14,3	6,0	8,4	44,1	4,7	11,6

Mamlakatimiz eksportida uzoq xorij davlatlarining ulushi ham barqaror sur'atlarda o'sib, mamlakatlar geografiyasi tobora kengaymoqda. Eksportimizda uzoq xorij davlatlaridan Xitoy, Shveysariya, Turkiya, Eron, Germaniya, AQSh kabi jahondagi yetakchi mamlakatlar salmoqli ulushga ega bo'lib, bu mamlakatlar bilan eksportimizning diversifikatsiyalashuv darajasi ham yuqori saviyada shakllanib boryapti.

Respublikamizda eksport va importning tovar hamda geografik tarkibini takomillashtirish asosida mahsulotlarimizning raqobatdoshligini oshirish va kuchaytirish maqsadida qator vazifalarning amalga oshirilishi ko'zda tutilayotir.

Eksportda xomashyolarning salmog'i qisqartirilib, zamonaviy texnologiya asosida qayta ishlanib qo'shilgan qiymat darajasi yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlar nisbatini oshirish, tashqi savdoga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini takomillashtirish, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishini tarkibiy jihatdan takomillashtirish, tashqi bozorlarga taklif qilinayotgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish orqali ularning raqobatdoshligini kuchaytirish, ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiyalar asosida qayta qurollantirish yo'li bilan mehnat unumdorligini oshirish va tayyorlanayotgan mahsulotlar sifatini jahon talablariga moslashtirish, yangi turdagi tovar va xizmatlarni xalqaro bozorlarga olib chiqishni ta'minlash ustuvor va muhim yo'nalish hisoblanadi.

4-jadval

O'zbekiston eksportining mintaqalararo taqsimlanishi

Yillar	Jami eksport mln. AQSh	Mintaqalarning salmog'i, foizda
---------------	-----------------------------------	--

	dollari	Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi	Uzoq xorij mamlakatlari
2000	3264,7	36,0	64,0
2001	3170,4	35,0	65,0
2002	2988,4	28,0	72,0
2003	3725,0	26,0	74,0
2004	4853,0	31,0	69,0
2005	5408,8	32,0	68,0
2006	6389,8	42,0	58,0
2007	8991,5	47,5	52,5
2008	11493,3	35,0	65,0
2009	11771,3	34,0	66,0
2010	13044,5	45,0	55,0
2011			

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga nisbatan jahon bozorlaridagi talablarni aniqlashtirish, shundan so‘ng bunday bozorlarga kengroq kirib borish va raqobatlashish strategiyasini ishlab chiqish eksportga chiqarilayotgan tovarlar turini va tashqi bozorlar geografiyasini kengaytirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Xorijiy davlatlar bozorlarida milliy kompaniyalarimiz mahsulotlarining raqobatdoshligiga erishish uchun eksportga tovar taklif qilayotgan korxonalariga mahsulotlar ishlab chiqarish va realizatsiya qilish xarajatlarini kamaytirishga, ularga jahon bozori konyunkturasidagi o‘zgarishlar va istiqbolli bozorlar, shuningdek, raqobatchilar haqida qilingan tadqiqotlar asosida axborotlar berish, tashqi savdo jarayonida ishtirok etayotgan transport-kommunikatsiya tizimlarini takomillashtirish va yangi transport yo‘laklarini ochish orqali transport sarf-xarajatlarini kamaytirishga ko‘maklashish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarda tayyor mahsulotlarni yangi tashqi bozorlarga chiqarish, eksport hajmini keskin oshirish, eksportga chiqarilayotgan yuklarni tashish tizimini va infratuzilmasini takomillashtirish, tashqi bozorlarga tovar taklif qilayotgan milliy kompaniyalarning marketing tadqiqotlari, moliyaviy va tashkiliy-huquqiy jihatdan izchil qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Qisqa qilib aytganda, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish va tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, umuman milliy tashqi savdo aylanmasining diversifikatsiya qilinishi iqtisodiyotimiz tarkibida sifat o‘zgarishlarining qo‘lga kiritilishi, ishlab chiqaruvchilarning jahon

bozorida raqobatbardoshligining mustahkamlanishi asosida iqtisodiy yuksalish va aholi turmush farovonligini yanada oshirish maqsadlariga xizmat qiladi.

Respublikamizning tashqi savdo aylanmasi va uning tarkibiy tuzilishi bozor munosabatlari rivojlanishi bilan chuqurlashib borayotir. Ayniqsa, so‘nggi yillarda eksport tarkibida bir tomondan raqobatbardosh va chuqur qayta ishlangan tayyor mahsulot salmog‘i barqaror o‘sib borayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa xomashyo hisoblangan mahsulotlarning ulushi izchil ravishda kamayish tendensiyasiga egaligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida eksportda paxta tolasining salmog‘i qariyb 50 foizni tashkil etgan bo‘lsa, hozirgi kunda 6 baravarga kamayib, 8 foizni tashkil etmoqda. Bunday natijalarga milliy tashqi savdomiz geografik yo‘nalishining kengayishi va birinchi galda barqaror rivojlanib borayotgan Osiyo qit‘asi mamlakatlari bozorlari bilan savdo aloqalarimizning izchil o‘sishi asos bo‘lmoqda.

Mazkur tendensiya milliy eksport tarkibida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan va chuqur qayta ishlangan raqobatdosh tayyor mahsulot hajmining barqaror oshayotganligini, iqtisodiyotimizning izchil rivojlanib borayotgan salohiyati va imkoniyatlarini isbotlaydi. Jahonda o‘ta murakkab bo‘lgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida bunday yutuq va o‘zgarishlar alohida ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz eksport salohiyatini mustahkamlash borasida amalga oshirilgan tadbirlar mahsulot eksport qiladigan korxonalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish jarayonlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarga aylanma mablag‘larini to‘ldirish uchun Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70 foizidan ortiq bo‘lmagan stavkalarda 12 oygacha bo‘lgan muddatga imtiyozli kreditlar berib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarni qo‘shimcha qiymat solig‘idan tashqari barcha turdagi soliq va to‘lovlardan ozod qilish muddatini 2012-yilgacha uzaytirgan edi. Shuningdek, banklar kreditlari bo‘yicha to‘lov muddati o‘tgan va joriy qarzlarni miqdorini qayta ko‘rib chiqish, budjetga to‘lanadigan to‘lovlarning penyasidan kechishdek muhim imtiyozlar va preferensiyalar kabilar yaratilgan shart-sharoitlardan darak beradi.

Bundan tashqari, eksport qiluvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash va barqaror faoliyatini ta‘minlash maqsadida tijorat banklari tomonidan aylanma mablag‘larini to‘ldirishi uchun katta miqdorda imtiyozli kreditlar ajratildi. Yetkazib berilgan elektr energiyasi, tabiiy gaz va kommunal

xizmatlarning qarzlarni budjetga to'lashni muayyan muddatga kechiktirilganini ta'kidlash o'rinli. Bu qulayliklar va imtiyozlar jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mahsulotni eksport qilish borasida ro'y bergan muvaqqat qiyinchiliklarga qaramasdan, eksport qiluvchi korxonalarda ishlab chiqarish pasayishining oldini olishga va eksportning barqaror o'sib borishiga imkoniyat yaratdi.

Mahsulot eksport qiladigan korxonalarni qo'llab-quvvatlash tashqi savdo balansining muttasil ijobiy saldo bilan yakunlanishiga, to'lov balansining ishonchliligi va iqtisodiyotimiz barqarorligini mustahkamlashga olib keldi.

Ta'kidlash joizki, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bilan birga, tashqi savdo tarkibini takomillashtirish va diversifikatsiya qilish jarayoni umuman ikki yo'nalishda amalga oshiriladi, ulardan birinchisi, eksportga chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar tarkibini zamonaviy mahsulotlar bilan to'ldirish va kengaytirish hisobiga, ikkinchisi esa, tashqi savdo jarayonida ishtirok etayotgan mamlakatlar tizimini va geografik tarkibiy tuzilishini kengaytirish asosida ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida: «Jahondagi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz chuqurlashib bormoqda. Takror aytaman, O'zbekiston bunday salbiy voqealardan uzoq bo'la olmaydi. Nega deganda, mamlakatimiz iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotining uzviy bir qismiga aylanib bormoqda. Bugun biz xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida dunyo bozoriga chiqib, turli davlatlar bilan samarali hamkorlik qilayotgan ekanmiz, o'z-o'zidan ayonki, jahondagi iqtisodiy-moliyaviy o'zgarishlardan chetda qololmaymiz. Bu haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimizni istardim», – deb ta'kidlaydi.

Tayanch tushunchalar:

Integratsiya, xalqaro iqtisodiy integratsiya, iqtisodiy integratsiya darajalari, tashqi savdo aylanmasi, eksport, import, tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish, tashqi iqtisodiy siyosat tamoyillari.

Savol va topshiriqlar:

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya (XII)ning iqtisodiy asosini nima tashkil etishini tushuntirib bering.
2. XIIga qanday omillar xos?
3. XIIning shart-sharoitlari va maqsadlari nimalardan iboratligini gapirib bering.
4. XII darajalari qanday farqlanadi?
5. Yevrosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (YevrAzES) qaysi jihatlari bilan ajralib turadi, uning rivojlanishidan ko‘zlangan asosiy maqsadlari qanday?
6. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning integrasiyalashuvdagi o‘rnini tushuntiring.
7. O‘zbekistonning eksport salohiyati nimalardan iborat?
8. Xalqaro iqtisodiy aloqalarning oliy shakli nima?
9. Integratsiya nega barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlash kafolati hisoblanishini izohlang.
10. O‘zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarining asosiy tamoyillarini sanab o‘ting va izohlang.
11. Nima uchun O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki integrasiyalashuv sharti hisoblanadi?
12. Iqtisodiy integratsiya nima uchun tashqi faoliyatni erkinlashtirishning omili hisoblanadi?
13. Mamlakatimizda mahsulot eksport qiluvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish borasida qanday amaliy choralar belgilanganini bilasiz?
14. Mamlakatimizning eksport salohiyatiga baho bering.
15. Mamlakatimiz to‘lov balansining ishonchliligi va iqtisodiyotimiz barqarorligini yanada mustahkamlashda eksportning roli qanday?
16. Respublikamizda soliq yukini engillashtirish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Mavzuni chuqur o‘rganish instrumentariysi

Xalqaro iqtisodiy integratsiya (XII) – mamlakatlarning ishlab chiqarishni baynalminallashtirish, ya’ni xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi va xalqaro mehnat taqsimoti asosida iqtisodiy hamkorlik qilishidan iborat jarayon.

Tashqi savdo siyosati – ichki bozorni himoyalashga, tashqi savdo hajmining o‘shirishini rag‘batlantirishga, uning tuzilishini va tovar oqimlarining yo‘nalishlarini maqbullashtirishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

Tashqi savdo siyosati erkin, bojsiz savdo darajasi hamda proteksionizm (tanish-bilishlik), ya’ni o‘z bozorini importdan himoya qilish darajasi bilan ajralib turadi.

Hozirgi tashqi savdo siyosati tashqi savdo almashuvining cheklovlari susaytirilgani, uning yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishga intilish, ya’ni savdoni liberallashtirish bilan ajralib turadi (savdoning erkinlashtirilishi Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so‘ng barcha mamlakatlarda kuzatilgan nihoyatda keskin iqtisodiy o‘shishning asosiy sabablaridan biridir).

Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi deganda, tovar ishlab chiqarishining bozorning sotiladigan tovar va xizmatlar yaratish talabiga javob berish imkoniyati tushuniladi.

Tovarning raqobatbardoshligi deganda, uning iste‘mol va narx ko‘rsatkichlarining xorijiy analoglar bilan qiyoslanishi va iste‘mol talabini qondirish qobiliyati tushuniladi.

Jahon savdo tashkiloti – xalqaro savdo tizimining qonunchilik va institutsional asosi, tovar va xizmatlar bilan savdo qilish sohasidagi ko‘p tomonlama kelishuv va boshqaruv, savdo nizolarini hal qilish hamda tashqi savdoning standart hujjatlarini ishlab chiqish mexanizmidir.

Jahon iqtisodiyoti asosiy sohasini, ya’ni tovar va xizmatlar savdosini Jahon savdo tashkiloti boshqaradi. U 1995-yilda Tariflar va savdo bo‘yicha bosh kelishuv asosida tashkil qilingan. Mazkur kelishuv esa 1947-yilda imzolangan edi.

Jahon iqtisodiyotidagi boshqaruv mamlakatlarning u yoki bu muammoni hal qilish bo‘yicha muayyan xalqaro mexanizmni yaratish, shartnomalarni buzuvchilarga nisbatan qo‘llaniladigan jazolar haqidagi qarorlarni ixtiyoriy qabul qilishlariga asoslangan JST doirasida savdo prinsiplari belgilangan bo‘lib, ularga 130 dan ortiq mamlakat rozi bo‘lgan.

Jahon savdo tizimining eng muhim prinsiplari quyidagilar:

- 1) kamsitishsiz savdo;
- 2) xalqaro savdoni erkinlashtirish, ya’ni savdodagi to‘siqlarni bartaraf etish (tariflarni pasaytirish va hokazo);
- 3) importni cheklash choralarini faqat JST qoidalarini asosida qo‘llash;
- 4) savdo siyosatini oldindan aytish mumkinligi;
- 5) raqobatga ko‘maklashish;
- 6) savdo standartlari, qoidalarini joriy etish va hujjatlarni bixillashtirish.

Xizmatlar bilan savdo qilish bo‘yicha bosh kelishuv 1994-yildan boshlab xalqaro xizmatlar savdosini tartibga soluvchi asosiy xalqaro hujjat hisoblanadi. Kelishuvda belgilanishicha, xizmatlar ko‘rsatish orqali amalga oshiriladigan xalqaro savdo, tovarlar savdosi kabi JST prinsiplariga mos keluvchi eng ko‘p qulayliklar yaratish tartibi prinsiplariga asoslanishi kerak.

Savdo erkinligi davlatning tashqi savdoga eng kam darajada aralashishini bildiradi.

Proteksionizm – bu savdo siyosatining tarifli va tarifsiz vositalaridan foydalanish orqali ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoya qilishga qaratilgan davlat siyosati.

Tashqi savdoni tartibga solishning *tarifli usullari* – bu tarif kvotalari va bojlarning belgilanishi (asosan import tartibga solinadi). Boshqa barcha usullar – *tarifsiz*.

Boj tarifi – tovarlarning ro‘yxati va ulardan boj olishga asos bo‘ladigan stavkalar tizimi.

Boj – bojxona organlari tovarni import qilish yoki eksport qilish chog‘ida undiradigan hamda import yoki eksportning sharti hisoblanadigan majburiy badal.

Bojlar uchta asosiy funksiyani bajaradi:

- 1) fiskal;
- 2) proteksionistik;
- 3) muvozanatlash (ko‘ngilsiz tovarlar eksportining oldini olish uchun).

Bojlarning quyidagi turlari farqlanadi:

1. Olish (undirish) usuli bo‘yicha:

1) advalor – bunda boj undiriladigan tovarlar bojxona qiymatiga nisbatan foizlarda hisoblanadi;

2) o‘ziga xos bojlar – boj undiriladigan tovar birligi uchun belgilangan miqdorda hisoblanadi;

3) aralash – bojlarning advalor va o‘ziga xos turlarining uyg‘unlashuvi (masalan, boj qiymatining 20 foiz, ammo tonnasiga 10 dollardan ortiq emas).

Advalor bojlarning qo‘llanishi tovarning boj qiymatini subyektiv baholash bilan bog‘liq bo‘lib, bu hol suiste‘molliklarga imkon qoldiradi. O‘ziga xos bojlar standartlashtirilgan tovarlardan olinadi va ustunlikka ega, chunki muammoli boshqarish uchun oddiydir. Bojlar darajasi tovarlar narxiga juda bog‘liqdir.

2. Boj olish obyekti bo‘yicha:

- 1) import bojlar;
- 2) eksport bojlar;
- 3) tranzit bojlar («savdo urushi»ning vositasi sifatida foydalaniladi).

3. Xarakteriga ko‘ra:

1) **mavsumiy** – amal qilish muddati bir oydan bir yilgacha (bunda ushbu tovarga belgilangan oddiy tariflarning amal qilishi muddati to‘xtatiladi);

2) **aksildemping bojlar** – tovarlar ularni eksport qilayotgan mamlakatdagi me‘yordagi bahodan ancha past narxda olib kirilayotganida, agar u bunday tovarlar ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalariga iqtisodiy zarar yetkazsa yoki bunday tovarlarni mamlakatda ishlab chiqarishni kengaytirishga to‘sqinlik qilinganda qo‘llaniladi;

3) kompensatsion bojlar – ishlab chiqarishda bevosita yoki bilvosita ravishda subsidiyalardan foydalanilgan tovarlarni import qilishda ularga yo‘l qo‘yiladi.

Kvota – tovar eksporti yoki importini muayyan sifat yoki muayyan vaqt oralig‘idagi summa bilan cheklashning miqdoriy chorasi.

Litsenziyalashtirish – bu davlat organlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish maqsadida tovarni muayyan muddat ichida belgilangan miqdorda eksport yoki import qilish uchun beriladigan ruxsatnoma.

Eksportni ixtiyoriy cheklash – importyorning siyosiy bosimi ostida eksport hajmini oshirmaslik yoki cheklash majburiyatiga asoslangan miqdoriy cheklov.

Mavzu yuzasidan asosiy xulosalar:

1. Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi XXI asrda turli mamlakatlar iqtisodiyotini bir-biriga bog‘liq qilib qo‘ymoqda. Bir mamlakatda yetishmay qolgan resurslarning o‘rni boshqa mamlakatlardan olib kelingan resurslar bilan to‘ldirilmoqda. Yirik ilmiy texnika va loyihalar birgalikda amalga oshirilmoqda.

2. Globallashuv sharoitida mamlakatlarni muntazam iqtisodiy aloqalar integratsion jarayonlarni faollashtirmoqda. Bugun integratsiya iqtisodiy yaqinlashuvdan boshlanib, iqtisodiy birlashuv bilan yakunlanmoqda. Buning natijasida dunyoda turli iqtisodiy ittifoqlar paydo bo‘lmoqda.

3. Integratsiya mamlakatlar iqtisodiy chegaralarining bir-biri uchun ochilib, yagona iqtisodiy makon hosil bo‘lishiga shart-sharoit yaratmoqda. Ushbu makonda iqtisodiy resurslarning cheklovlarsiz erkin harakati yuz bermoqda. Yagona umumiy bozor vujudga kelmoqda. Bojxona to‘lovlari bekor qilinmoqda yoki eng kam darajaga tushirilmoqda. Eksport va import cheklanishlarga ham olib kelmoqda. Turli davlatlarning ichki va tashqi siyosatini muvofiqlashtirmoqda. Turli milliy pullar o‘rniga yagona pul birligi kiritilmoqda.

4. Erkin savdo hududlari, erkin iqtisodiy hududlar, umumiy bozor, iqtisodiyot va valuta ittifoqidagi kabi iqtisodiy integratsiyaning quyi shaklidan oliy shakli tomon rivojlanishi yuz bermoqda. Bu mamlakatlar milliy iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylantirmoqda.

6. Bugungi globallashuv ish kuchi, kapital, xomashyo, energiya omillari, yangi texnologiyalar oqimini dunyo uzra yoymoqda. Innovatsiyalar umumbashariy miqyosda yuz bermoqda. Bu, *bir tomondan*, iqtisodiy o‘shishni jadallashtirsa, *ikkinchi tomondan*, o‘shishning notekis borishini bildiradi. Ayrim hollarda integratsiya oqibatlari ziddiy hisoblanadi. Uning ijobiyligi

taraqqiyotni tezlatlsa, salbiyligi uning g'oyat notekis borishiga ta'sir qiladi. Dunyo miqyosida turmush darajasi o'sib borgani holda, qoloq mamlakatlarda aholining katta qismi kambag'allikda yashamoqda. Iqtisodi zaif mamlakatlarda ishsizlik darajasi kuchli bo'lib, kishilar ish axtarib, o'z ona yurti va oilalarini tashlab o'zga yurtlarga ketadilar. Sayoq ishchilarning soni ko'payadi, ular amalda huquqsiz bo'lib, yashirin mehnat faoliyatini olib boradilar. Shu bois globalizatsiya muqarrar bo'lganida, uning talablari bilan hisoblashib, ularga moslashib yashash talab qilinadi.

MUNDARIJA

SO'ZBOSHI.....	3
----------------	---

1-BO‘LIM. JAMIYAT IQTISODIY TARAQQIYOTINING UMUMIY ASOSLARI

1-MAVZU. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

1. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va metodi.....	8
2. Iqtisodiyot nazariyasi fanining metodologiyasi.....	10
3. Iqtisodiyot nazariyasidagi asosiy oqimlar.....	17
4. Iqtisodiy kategoriyalar va qonunlar.....	24
5. Iqtisodiyot nazariyasi va davlatning iqtisodiy siyosati.....	25

2-MAVZU. IJTIMOIIY-IQTISODIY TIZIMLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

1. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimning mohiyati va belgilari.....	41
2. Iqtisodiy tizimda insonning o‘rni.....	44
3. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimda ishlab chiqarishni insonparvarlashtirish.....	48

3- MAVZU. ISHLAB CHIQARISH MUNOSABATLARI VA ULARGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

1. Ishlab chiqarish munosabatlarining asosiy sharti.....	58
2. Mehnat unumdorligi va unga ta’sir etuvchi omillar.....	66
3. Takror ishlab chiqarishning mamlakat milliy rivojlanishida o‘rni va ahamiyati.....	70

4-MAVZU. MULKCHILIK MUNOSABATLARI

1. Mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy mazmuni.....	78
2. Mulkchilik turli shakllarining vujudga kelishi.....	82
3. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning maqsadi va usullari.....	97
4. O‘zbekistonda mulkdorlar sinfining shakllanishi va uning ahamiyati.....	103
5. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati va milliy boyligi.....	107

5-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTI VA UNING QONUN-QOIDALARI

1. Bozor iqtisodiyoti va uning tub belgilari.....	121
2. Bozorning funksiyalari va tarkibiy tuzilishi.....	130
3. Bozor infratuzilmasi.....	138

6- MAVZU. O‘ZBEKISTONDA BOZOR IQTISODIYOTINI SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI

1. O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga borishdagi o‘z taraqqiyot yo‘li.....145
2. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish konsepsiyasi va islohotlar strategiyasi.....152

2-BO‘LIM. MIKROIQTISODIYOT

7-MAVZU. TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA UNING TASHKILY-HUQUQIY SHAKLLARI

1. Tadbirkorlikning mohiyati, belgilari va prinsiplari.....171
2. Tadbirkorlik tizimi.....178
3. Oshkora va yashirin tadbirkorlik.....184
4. Davlatning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilishda ichki ishlar idoralari xodimlarining roli.....187

8-MAVZU. KORXONA (FIRMA) FAOLIYATI VA UNING IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI

1. «Korxonalar (firmlar)» tushunchasi, belgilari, vazifalari va funksiyalari.....203
2. Korxonalar (firmlar)ni tashkil qilish tamoyillari.....206
3. Milliy iqtisodiyot rivojlanishida korxonalar (firmlar)ning o‘rni va roli.....210
4. Korxonalar (firmlar) xavfsizligini ta‘minlashning maqsadi, vazifalari va tamoyillari.....215
5. Korxonalar (firmlar)ning xavfsizlik xizmati, uning tuzilishi va vazifalari.....219
6. Korxonalar (firmlar)ning tijorat sirlari va himoya qilish tartibi.....221

9-MAVZU. TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI

1. Talabning iqtisodiy mohiyati. Talabning o‘zgarib turishiga ta‘sir etuvchi omillar.....227
2. «Taklif» tushunchasi. Taklifning o‘zgarib turishiga ta‘sir etuvchi omillar.....231
3. Talab va taklif qonuni hamda bozor muvozanati.....233

10-MAVZU. BOZOR TIZIMIDA RAQOBAT

1. Raqobat va uning iqtisodiy mazmuni245
2. Raqobat turlari.....250
3. Raqobat muhiti va strategiyasi.....251

11- MAVZU. MENEJMENT VA MARKETING ASOSLARI

1. Menejment faoliyatining iqtisodiy mazmuni, vazifalari.....270
2. O‘rta Osiyoda menejmentning nazariy asoslari va tamoyillari.....277
3. Marketingning mohiyati va vazifalari.....282

III BO‘LIM. MAKROIQTISODIYOT

12-MAVZU. MAKROIQTISODIY BARQARORLIK, IQTISODIY O‘SISH VA INVESTITSIYA SIYOSATI

1. «Makroiqtisodiyot» tushunchasi, uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari.....293
2. Makroiqtisodiy muvozanat. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda iqtisodiy o‘shish, investitsiyaning ahamiyati.....308
3. Iqtisodiy o‘shishning mazmuni, turlari va ko‘rsatkichlari. Iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda investitsiyaning ahamiyati.....322
4. Makroiqtisodiy beqarorlik va iqtisodiyotning siklligi. Iqtisodiy inqirozlar.....341

13-MAVZU. TOVAR-PUL MUNOSABATLARI VA NARX SIYOSATI

1. Pul va uning vazifalari.....356
2. Inflatsiya, uning mohiyati va turlari.....362
3. Pulning qadrini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar.....364

14-MAVZU. MOLIYA-KREDIT MUNOSABATLARI

1. Moliyaning mohiyati va vazifalari.....374
2. Moliyaviy inqiroz, uning kelib chiqish sabablari, oqibatlar va undan chiqish yo‘llari.....379
3. Moliyaviy xavfsizlik va uning ahamiyati.....390
4. Kreditning mohiyati. Kreditning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni.....393
5. Davlat budjeti, uning shakllanishi va sarflanishi.....405

15-MAVZU. DAVLATNING SOLIQ SIYOSATI

1. Soliqlarning iqtisodiy va huquqiy mazmuni hamda ularning zarurligi, vazifalari.....431
2. Soliq tizimi va amal qilishining huquqiy asoslari..... 436
3. Soliqlarning budjet shakllanishida ahamiyati va davlatning fiskal siyosati.....447
4. Soliq qonunchiligi buzilishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar.....455
5. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining davlatning soliq siyosatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilishda roli.....458

16-MAVZU. AGRAR SOHADAGI IQTISODIY MUNOSABATLAR

1. Qishloq xo‘jaligining respublika iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati.....472
2. Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarishning xususiyatlari.....481
3. Qishloq xo‘jaligining mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni.....490
4. O‘zbekiston agrosanoat kompleksining mohiyati. Uning mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni.....496

17-MAVZU. AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOIIY SIYOSATI

1. Daromadlarning iqtisodiy mazmuni.....	505
2. Daromadlar tizimi.....	508
3. Bozor va nobozor daromadlar.....	510
4. Aholi daromadlarining tabaqalanishi va ijtimoiy chegarasi.....	512
5. Turmush darajasi va uni belgilovchi omillar.....	532
6. Davlatning ijtimoiy siyosati. O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari.....	542

18-MAVZU. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI

1. Davlatning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi funksiyalari.....	553
2. Davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari.....	561
3. Davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari.....	564

19-MAVZU. XUFIYONA IQTISODIYOT: MOHIYATI VA KELIB CHIQISH SABABLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI

1. «Xufiyona» iqtisodiyot tushunchasi va tuzilishi.....	571
2. Xufiyona iqtisodiyotning turlari.....	574
3. Xufiyona iqtisodiyot oqibatlarining statistikasi.....	581
4. Korrupsiya – xufiyona iqtisodiyotning asosiy ko‘rinishi.....	589
5. Xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashda davlatning chora-tadbirlari.....	605

4-BO‘LIM. JAHON IQTISODIYOTI

20-MAVZU. JAHON XO‘JALIGI VA GLOBALLASHUV MUAMMOLARI

1. Hozirgi jahon xo‘jaligi va iqtisodiyotining mohiyati. Jahon xo‘jaligining shakllanishi va xususiyatlari.....	613
2. Globallashuvning mohiyati va oqibatlari.....	621
3. Globallashuv va ochiq iqtisodiyot.....	629
4. O‘zbekistonning global muammolarni hal qilishdagi ishtiroki.....	632
5. Xalqaro va milliy iqtisodiy xavfsizlik, uning vazifalari va funksiyalari.....	633

21- MAVZU. XALQARO SAVDO. XALQARO VALUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI

1. Jahon bozori va xalqaro savdoning ahamiyati.....	639
2. Jahon valuta bozori va uning asosiy xususiyatlari.....	651
3. Xalqaro kreditning mohiyati va funksiyalari. Tashqi qarz masalalari.....	660

4. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar.....	670
--	-----

**22-MAVZU. O‘ZBEKISTONNING JAHON XO‘JALIGIGA
INTEGRATSIYALASHUVI**

1. Xalqaro integratsiyaning mohiyati, shart-sharoitlari va darajalari.....	675
2. Integratsiyaning barqarorlik va xavfsizlik kafolati ekanligi.....	688
3. O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti – jahon xo‘jaligining tarkibiy qismi ekanligi. Eksport va import.....	689

QOBILOV Sharif Rahimovich,
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

IQTISODIYOT NAZARIYASI

Darslik

Muharrir M. S. Rahmonova
Texnik muharrir *D. X. Xamidullayev*

Bosishga ruxsat etildi 26.03.2013. Nashriyot-hisob tabag'i 45,0
Adadi 200 nusxa. Buyurtma № . Kelishilgan narxda

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
1000197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68.